



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA‘NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**SHAVKAT RAHMATULLAYEV, NIZOMIDDIN MAHMUDOV,
ZULXUMOR XOLMANOVA, IQBOL O‘RAZOVA,
KAMOLA RIXSIYEVA**

O‘ZBEK TILI FRAZEOLOGIK LUG‘ATI

TOSHKENT – 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI
FRAZEOLOGIK
LUG'ATI

G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI
NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI

UO‘K 811.512.133’373.7(038)

KBK 81.2O‘zb-4

O‘ 16

Mas’ul muharrir:

Hamidulla Dadaboyev,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Durdona Xudoyberganova,

filologiya fanlari doktori, professor

Sulton Ermamatov,

filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.

Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalar bilan bir qatorda sohalarda axborot berish, insonlar o‘rtasidagi yaqinlikni ta‘minlash, qadriyat asosida tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Tilning antroposentrik talqinida mental ong, tafakkur, idrok, madaniy munosabatlar muhim o‘rin tutadi. Frazelogizmlar ko‘chma ma‘noga asoslangan lug‘aviy birliklar bo‘lib, frazeologik ma‘no asrlar davomida til egasining lisoniy ongi, idrokiga bog‘liq ravishda shakllanib, sayqallanib boradi. Frazelogizmlar milliy tilning barcha ijtimoiy funksiyalarini, milliy qadriyatlarni qamrab oluvchi til birliklaridir. Ularni to‘plash, saqlab qolish, iste‘mol doirasini kengaytirish milliy til taraqqiyotini takomillashtirish omillaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020–2022-yillarda amalga oshirish dasturi»da belgilangan ushbu lug‘at ijodkorlar, tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, o‘quvchi-yoshlar, keng doiradagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, 5198 ta frazeologik birlik izohini o‘z ichiga olgan.

Lug‘atni takomillashtirish maqsadida bildirilgan har qanday fikr mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

UO‘K 811.512.133’373.7(038)

KBK 81.2O‘zb-4

Mazkur lug‘at Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 2022-yil 25-avgustdagi yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8835-4-3

© G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022

SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili frazeologik lug‘atini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, 2016-yil 13-mayda e‘lon qilingan «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4797-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda e‘lon qilingan «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6084-sonli farmonlarida belgilangan «o‘zbek tilining asosiy tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish», «2020-yilda o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar yaratish» vazifalari asosida tuzilgan.

Yangi avlod mutaxassis kadrlaridan o‘zbek tili lug‘at sathi, lug‘aviy birliklar semantikasi, leksemalar o‘rtasidagi munosabatlar, nutq ifodasining uslubiy xususiyatlari, emotsional-ekspressiv funksiyasi haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish talab qilinadi. Globallashuv jarayonida milliy til taraqqiyotini ta‘minlash, qo‘llanish doirasini kengaytirish, internet tiliga aylantirish, axborot-kompyuter uslubini shakllantirish davr talabiga aylandi. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish mamlakatimizda siyosat darajasiga ko‘tarildi.


Tilning mavqeyini mustahkamlash, birinchi navbatda, uning xususiyatlarini ona tili sifatida o‘zlashtirish bilan belgilanadi. Til xususiyatlarini o‘zlashtirishda frazeologik lug‘atlarning o‘rni katta.

Davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan omillar o‘zbek tili frazeologik tizimining yagona, yaxlit ilmiy tavsifiga asoslangan mukammal nashrni amalga oshirishni taqozo qiladi.

O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati o‘zbek tilining tushunchalarini ta‘sirchan aks ettirish imkoniyati, olam manzarasini tafakkur va idrok orqali anglash hamda barqaror birikmalar, frazeologizmlarning mental ma‘lumotlarni to‘plash va ifodalash xususiyatlarini namoyon etadi.

Ushbu o‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati adabiy til va shevalarda, mumtoz tarixiy manbalarda mavjud iboralar tizimini o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati frazeologizmlarning etimologik xususiyatlari, shakllanish jarayoni, mantiqiy asosi, frazeologizmlar tarkibidagi



yadro tushunchalarni izohlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun manba vazifasini o‘taydi. Milliy korpusni yaratishda, o‘zbek tili tezauruslarini shakllantirishda, o‘zbek tili va boshqa tillarning parallel matnlar korpusini tuzishda frazeologizmlarning ma’lumotlar bazasi sifatida xizmat qiladi.

Lug‘atga tadqiqotchilarga amaliy yordam berish hamda frazeologik boylikni to‘plash, keyingi avlodga yetkazish, frazeologizmlar strukturasi va semantikasi-dagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini yaratish maqsadida tarixiy frazeologizmlar ham kiritildi. Misollar XIV asrning II yarmiga oid «Muhabbatnoma», «Gulistoni bit-turkiy», «Suhayl va Guldursun», Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari asosida to‘plandi. Bu iboralarning ma’lum qismi hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanadi.

O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘atini yaratishda frazeologizmlar shakllanishi, rivojlanishi, tarixiy taraqqiyotiga oid ilmiy tadqiqot natijalari, monografiyalardan foydalanildi.

Ushbu lug‘at Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratilgan «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» (1992) asosida tuzildi. Sh.Rahmatullayev lug‘ati 3000 dan ortiq frazeologik birlik izohini o‘z ichiga olgan. Ushbu lug‘atni tahrir qilish jarayonida davr mafkurasini ifodalovchi matnlar, zamon nuqtayi nazaridan eskirgan lug‘aviy birliklar olib tashlandi. Lug‘at maqolalari mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlar misollari bilan boyitildi. Frazeologizmlarning semantik taraqqiyotini kuzatish imkoniyatini yaratish hamda ijodkorning badiiy mahoratini aks ettirish maqsadida mustaqillikdan oldingi davrga oid manbalar misollari qoldirildi.

Lug‘at maqolalari frazeologizmlarning ma’nosini yoritish bilan bir qatorda nutqda qo‘llanish shakllari, bog‘lanish usullari haqida ham ma’lumot beradi.

Mazkur lug‘atga qo‘shimcha ravishda 397 ta arxaik ibora, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (2006 – 2008), «O‘zbek frazeologiyasidan materiallar» (H.Berdiyev, R.Rasulov, B.Yo‘ldoshev; 1976–1983) qo‘llanmasi va shevalar asosida to‘plangan 1801 ta frazeologik birikma izohi kiritildi.

KIRISH

LUG‘ATNING TARKIBI

Til qurilishining lug‘at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug‘at sathidagi frazeologik qatlam (uni o‘rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda frazeologiyaning hajmini keng va tor tushunish kuzatiladi. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga, so‘zlarning turg‘un birikmalaridan tashqari, maqol, matal, aforizm ham mansub, deb qaraladi. Frazeologiya sifatida so‘zlarning semantik bog‘lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so‘zlarning turg‘un birikmalarini – til birligi, deb baholash mumkin.

Olimlar aniq ilmiy kriteriyalarga asoslanib, so‘zlarning barcha turdagi turg‘un birikmalarini emas, balki shulardan bir qismini frazeologik birlik sifatida tan oladilar. Frazeologik birlik bo‘lish uchun so‘zlarning turg‘un birikmasi obrazli ma‘no, ko‘chma ma‘no anglatishi shart. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma‘no uning tarkibidagi so‘z-komponentlarga xos leksik ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma‘nosi umumlashma ma‘no, maxraj ma‘no sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma‘no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma‘nodagi barqaror birikmalar *frazeologizm (frazeologik birikma)*lardir. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma‘no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Frazeologik birikmalardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi. Frazeologizmlar gap tarkibida yaxlit holda bir so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi: *Aka-ukalar (ega) bir yoqadan bosh chiqarishdi (kesim)*.

O‘zbek tilining frazeologik boyligi hali to‘liq to‘planmagan. Bu lug‘at frazeologik birliklarning, asosan, o‘zbek original badiiy prozasi sahifalarida ishlatilishini kuzatib, to‘plangan material asosida tuzilgan.

Bir qator mualliflarning turli-tuman asarlaridan material to‘plash, avvalo, umumxalq iboralarini individual muallif nutqiga mansub iboralardan, shuning-



dek, umumxalq iboralarining umumtil variantlarini individual muallif nutqiga xos variantlardan farqlash imkoniyatini beradi. Bu lugʻatga umumxalq iboralari, shularning umumtil variantlari kiritildi, individual muallif nutqiga xos hodisalarga deyarli oʻrin berilmadi.

LUGʻATNING MAZMUNI

Lugʻatda frazeologik birliklarning semantik va grammatik tabiati aks etgan.

I. Frazeologik birliklarning semantik tabiatini ochishga quyidagilar xizmat qiladi:

1. Frazeologik maʼnoni taʼriflash.
2. Iboralardagi polisemiya hodisasini ochish.
3. Iboralar orasidagi sinonimiyani belgilash.
4. Iboralar orasidagi antonimiyani belgilash.

II. Frazeologik birliklarning grammatik tabiatini ochishga quyidagilar xizmat qiladi:

1. Iboralarning ichki sintaktik qurilishini koʻrsatish.
2. Iboralarning paradigmatic formalarga ega yoki ega emasligini koʻrsatish.
3. Iboralarning sintaktik qurshovini belgilash.
4. Iboralarning variantlanishini aks ettirish.

III. Lugʻatda frazeologik omonimiya ham taʼkidlandi.

I. Frazeologik birliklarning semantik tabiati

Frazeologik maʼno

Frazeologizmning semantik tuzilishi (maʼno imkoniyatlari) frazeologik maʼno (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qoʻshimcha maʼno boʻyoqdorligidan iborat boʻladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan maʼlumot *frazeologik maʼno* deyiladi. Frazeologik maʼno obrazlilik bilan leksik maʼnodan farq qiladi.

Tilda ham shakl va maʼno munosabati mavjud. Tilda shakl deganda, odatda, tilning materiyasi – tovush – koʻzda tutiladi. Tovush tomoni «tilning ifoda plani» deb ham yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan koʻrsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farqlanadi. Til hodisasi koʻpincha yozuvda aks ettiriladi, shu sababli yozuv asosiy shakldek tuyuladi. Asli til – tovush tili, yozuv – shu tovush tilini grafik ifodalash sistemasi. Masalan, *qoʻl* soʻzining shakli (ifoda plani) **q, oʻ, l** harflari bilan yozib koʻrsatiladigan shu uch tovushning xuddi shunday tizimiga va tartibiga teng. Yolgʻiz shaklning oʻzi hali til birligi emas. Til birligi boʻlish uchun maʼlum shaklga maʼlum bir maʼno birlashtiril-

gan bo‘lishi lozim. Bunday ma’no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma’noni biror shakl nutqning o‘zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki bunday ma’no biror shaklga tilda (til bosqichida) birlashtirilgan bo‘ladi, nutq shuni qalqitib beradi. *Qo‘l so‘zi Qo‘lim zirqirab og‘riyapti* gapida «kishi tanasida yelkadan boshlanib, barmoqlar bilan tugaydigan, ushlash, ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradigan a‘zo» ma’nosini anglatadi. Demak, ma’lum shakl (*qo‘l* tovush tizimi) va ma’lum bir ma’no (yuqorida ta’riflandi) birgalikda til birligini tashkil qiladi.


Ma’lum shaklga ma’lum bir ma’noning birlashtirilishi affikslarga (morfemalarga) ham xos. Masalan, *boradi* so‘zi tarkibidagi -di morfemasi «III shaxs» ma’nosini, -a morfemasi «hozirgi-kelasi zamon» ma’nosini ifodalaydi. Bunday morfemalarning ma’nosi grammatik ma’nodir. Shu so‘z tarkibidagi *bor-* qismidan esa tamoman boshqa tur ma’no anglashiladi. Bu qism «makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanib yo‘nalish» ma’nosini anglatadi. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi bunday ma’noga *leksik ma’no* deyiladi. Leksik ma’noni anglatuvchi birlikka *leksema* deyiladi. Grammatik ma’noni ifodalovchi birlikka *morfema* deyiladi. So‘z ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik ma’noga ega bo‘ladi, demak, so‘z odatda leksema va morfemadan tuziladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning *ifoda plani* deb tovush ko‘rsatilsa, murakkab (qo‘shma) morfemada uni tashkil etgan morfemalar ko‘zda tutiladi (*-chilik – chi + lik* kabi). Shuningdek, tub leksemada uning *ifoda plani* tovush tizimi bo‘lsa, yasama leksemada *ifoda plani* deganda uning tarkibidagi leksema va morfemalar ko‘zda tutiladi: *talabchanlik* (*talab + chan*)+*lik* kabi.

Ko‘rinadiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari – tovush – olinadi; tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko‘zda tutiladi.

Ibora murakkab til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so‘zlardan) tarkib topadi. Shunga ko‘ra iboraning *ifoda plani* sifatida leksemalar va ularni bog‘lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko‘zda tutiladi.

Tarkibli leksema va morfemaning ma’nosi, odatda, uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma’nolarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi, qismlar ma’nosi asosida butunning ma’nosi tushuniladi. Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi. Iboraga xos ma’no tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga nisbatan maxraj ma’no, ustama ma’no sifatida gavdalanadi, bu ma’no ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga asoslanmasligi ham mumkin. Iboraning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig‘indisi bo‘lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi ma’no bo‘lishi sababli iboralarda go‘yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida aloqadorlik sezilmaydi. Xususiyligi (qismlarga



xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni to'g'ridan-to'g'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kasb etadi. Bu yerda bittadan ortiq so'z (leksema) yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yoki tatbiq yo'li bilan semantik taraqqiyotni namoyon etadi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *til tegizmoq* iborasi «sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq» ma'nosini anglatadi. Bu ma'no to'g'ridan to'g'ri bu ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Erkin birikma sifatida, masalan, *Batareyaga til tegizsam, hech toki yo'q ekan* kabi gaplarda ishlatiladi. Bunday ishlatishda *til* va *tegizmoq* so'zlari ma'no mustaqilligini saqlagan holda bog'lanadi, ma'noda yaxlitlanish yuz bermaydi. *Kechagi majlisda menga ham til tegizibdi* gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas, balki ibora qatnashgan. Chunki bu gapda *til* va *tegizmoq* so'zlaridan emas, balki *til tegizmoq* iborasidan foydalanilgan. Endi bu yerda *til* va *tegizmoq* so'zlariga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi haqida emas, balki ustama ko'chma ma'no haqida gapirish lozim. Bunday ma'no obrazlilik asosida yuzaga keladi: tegizish harakatidan kelib chiqsak, *til* deganda fiziologik organ tushuniladi, ammo bu yerda *til* so'zi boshqa ma'nosi («nutq» ma'nosi) bilan qatnashadi, *tegizmoq* fe'lining ma'nosi «nutq»ni «gap, so'z» darajasiga konkretlashtiradi (tegizish harakati uzoq davom etmaydi). Ayni vaqtda biror so'z, gapni beg'araz aytish emas, «tegizib» aytish ko'zda tutiladi, so'z-gapning «nomaqbul» bo'lishi kelib chiqadi va boshqalar. Yuqoridagidek obrazli tasavvurlar oqibati sifatida ayrim-ayrim so'zlarning ma'nosi ikkinchi planga o'tib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma'no anglashiladi. Ana shunday ma'no frazeologik ma'no bo'ladi.

Frazeologik ma'no o'ziga xos semantik taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Bunda nafaqat frazeologik ma'no, balki leksema semantikasiga oid ma'no taraqqiyotini ham kuzatish imkoniyati yuzaga keladi.

Ko'z leksemasidan bir qator iboralar shakllangan: *Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan* iborasi butunlay noma'lum narsa haqida gapirilganda ishlatiladi. Bunda *ko'z* sinekdoxa usulidagi ma'no ko'chishi asosida nafaqat «muayyan shaxs», balki «insoniyat» ma'nosini ifodalaydi. *Ko'z oldi, ko'z o'ngi* ko'z ko'rib turgan, ko'rinib turgan, maydon, fazoni anglatadi. *Ko'z tikmoq* «intiqlik bilan kutmoq», «umid bilan qaramoq», *ko'z uzmaslik* «tikilib qaramoq», «diqqatni bir nuqtaga jamlamoq», *ko'z tutmoq* «intiqlik bilan kutmoq» ma'nolarini bildiradi. *Ko'z urishtirmoq* «ma'noli qaramoq, biror rejani amalga oshirishni maqsad qilmoq», *ko'z yugurtirmoq* «e'tiborsiz holda, shunchaki qaramoq» tushunchasini anglatadi. *Ko'zga tashlanmoq* iborasida qarash harakatini bajaruvchi faolligi emas, balki narsa-buyumning atrofida gildardan ajralib turishi, ko'zga tashlanishi nazarda tutilgan. *Ko'zdan kechirmoq* «nazorat qilmoq», *ko'zdan qochirmoq* «diqqatni susaytirish oqibatida qarab turgan obyektidan chalg'imoq», *ko'zi*

tushmoq «bexosdan ko‘rib qolish», *ko‘zdan qolmoq* «ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lmoq» tushunchalarini ifodalash uchun qo‘llanadi. *Ko‘zni yashnatmoq* obyektning, narsa-hodisaning jozibadorligi, ko‘zga yaqqol tashlanishini bildiradi. *Ko‘zni oldi* frazeologizmi moddiy holatdagi ko‘z qamashishidan kelib chiqqan, predmet, narsa-hodisaning nurga yo‘g‘rilganligini yoki nurmonand jilvakorligini aks ettiradi. *Ishning ko‘zini bilmoq* frazeologizmida ko‘z leksemasining «noziklik» semasi dastlabki e‘tiborda bo‘ladi. *Ko‘z bo‘yamoq* narsa-hodisani o‘zgacha rangda, mohiyatining asliga nomuvofiq holatda ko‘rinishiga sabab bo‘lmoq, haqiqiy voqelikdan chalg‘itmoq» ma‘nolarini ifodalaydi; *ko‘z bo‘yamachi* o‘z foydasi uchun ma‘lumotlarni, bo‘lgan voqea-hodisalarni buzib, noto‘g‘ri ko‘rsatuvchi, boshqalarni aldovchi, aldoqchi. *Ko‘z olaytirmoq* ham aslida ko‘z holatining odatdagidan boshqacha qarashiga asoslangan (ko‘zning olayishi). Keyinchalik salbiy ma‘no kasb etib, «biror obyektни, narsa-hodisani o‘ziniki qilib olishga harakat qilmoq» tushunchasini ifodalagan. *Ko‘z ostiga olmoq* «biror obyektни yoki narsani o‘ziniki qilib olishga mo‘ljallamoq» tushunchasini ifodalaydi. *Ko‘z ochib ko‘rgan* iborasi birinchi qaraganda ko‘rgan, ko‘zga ko‘ringan obyekt, tushunchani sifatlash uchun ishlatilgan. Keyinchalik narsa-hodisaning «ilk, dastlabki» sifatiga ega ekanligini bildira boshlagan. *Ko‘z ochirmaslik* iborasi ham denotativ ma‘nodan shakllangan. *Shamol ko‘z ochirmaydi* birikuvida tabiiy hodisaning ko‘zni jismonan ochirmasligi nazarda tutiladi. Bu erkin birikma turg‘un birikmaga aylangan va barqarorlashgan holda «tinchlik bermaslik, holi-joniga qo‘ymaslik» ma‘nolarini ifodalashga xizmat qiladi. *Ko‘zga ishonmaslik* ko‘rgan narsa-hodisa, voqelikka shubha bilan qarashni bildiradi. *Ko‘zga surtmoq* «e‘zozlamoq», «aziz qilmoq» tushunchalarini anglatadi. *Ko‘ziga cho‘p solmoq* «ozor bermoq», majoziy ma‘noda «aldamoq», «pand bermoq» ma‘nolarini anglatadi. Mazkur iboraning shakllanishida ko‘zning «noziklik» semasi asos bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda ko‘zning inson hayotida muhim o‘rin tutishi, voqelik haqida ma‘lumot olishdagi asosiy a‘zoli-gi nazarda tutilgan. *Ko‘zga yaqin* iborasi jozibador, ta’sirchan, diqqatni jalb etadigan narsa-hodisa, obyektlarga nisbatan qo‘llanadi. *Ko‘zda tutmoq* «nazarda tutmoq, narsa-hodisaning ko‘zga tashlanadigan, ko‘rinadigan jihatini e‘tiborga olmoq» tushunchasini anglatadi. *Ko‘zi yetmoq* ko‘zning chamalash, o‘lchash omili ekanligidan kelib chiqqan. *Ko‘zi yorimoq* iborasida farzand tug‘ilganidan keyin ko‘zning yorishishi, og‘riqdan xalos bo‘lib, yengillashishi nazarda tutilgan. *Yorishmoq* so‘zi *yorimoq* tarixiy asos holda saqlanib qolgan. *Ko‘zi ilinmoq* «yengil uyquga ketmoq», *ko‘zi moshdek ochilmoq* «oq-qorani tani-moq, bilmoq», *ko‘zi ochiq ketmoq* ko‘zni yuma olmaslik, xotirjam bo‘lmaslik, bezovtalik, nimadandir (yoki kimdandir) umid uza olmaslik holatlarini ifoda etadi; *ko‘zi pishmoq* «ko‘raverib, ko‘nikib qolmoq», *ko‘zi tinmoq* «holsizlan-moq, ko‘rish qobiliyatini qisman yo‘qotmoq» tushunchalarini ifoda etadi; *ko‘zi tor* ruhiy holatni ifodalaydi, inson siqilganda, ruhan iztirob chekkanda ko‘p

narsaga qarab turib ham ularni koʻrmaslik, his qilmaslik holati nazarda tutilgan; *koʻzi toʻrt boʻlmoq* nihoyatda intiqlik bilan kutmoqni bildiradi, koʻzning «toʻrtta» deb keltirilishi diqqat bilan qarashga ikkita koʻzning kamlik qilishi, boshqa aʼzolarining ham «koʻzga aylanganini» taʼkidlash, uslubiy boʻyoqdorlikni ifodalashga xizmat qilgan; *koʻzi oʻynamoq*, dastavval, koʻzning bejo harakatidan shakllangan, bu holat ruhiyat ifodasi boʻlib, notinch odamning biror maqsadni koʻzlagan bejo harakat-holatini bildiradi; *koʻz qiymaslik* «istamaslik», «arzitmaslik». «teng koʻrmaslik» maʼnosini ifoda etadi; *koʻzga issiq koʻrinmoq* issiq soʻzining «yaqin» maʼnosidan shakllangan; *koʻzini yogʻ bosmoq* denotativ maʼnodan shakllangan. Koʻzni yogʻ bosishi natijasida koʻrish qobiliyati qiyinlashadi. Bu iboraning maʼnosi konnotativlikka asoslangan boʻlib, kibrlanish, havolanish oqibatida nazarga ilmaslik holatini ifoda etadi. *Koʻzini shamgʻalat qilib* nigohdan chetga qochish yoki diqqat-eʼtiborni susaytirishga erishish tushunchasini ifodalaydi. Koʻzining oq-u qorasi koʻz qismlarining koʻrish faoliyatini amalga oshirishda birdek zarurligidan kelib chiqqan. *Koʻzining paxtasi* salbiy maʼnoda aytilgan boʻlib, koʻz oqining yoqimsiz koʻrinishini ham ifoda etadi. *Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqarma* biror ishni bajarishdagi noaniqlik, moʻljalni aniq belgilamaslik tushunchasini, noshudlik bilan qilingan xatti-harakatni bildiradi.

12

Eski oʻzbek tilida shunday soʻzlar borki, tarkibida *koʻz* leksemasi ishtirok etmasa-da, bevosita shu denotatga aloqador voqelikni aks ettiradi. *Toʻtiyo, surma* shular jumlasidandir.

Toʻtiyo forsha-tojikcha soʻz boʻlib, turkiy xalqlarning eroniy xalqlar bilan muayyan ijtimoiy muhitda yashagan, madaniy-maʼnaviy munosabatda boʻlgan davrlariga boʻlib taqaladi. Keyinchalik, bu soʻz faol qoʻllanib, maʼno kengayishiga uchragan. *Toʻtiyo* izohli lugʻatda shunday tavsiflangan: *Toʻtiyo* «mis zangidan hosil boʻlgan kristall»ni bildiradi. 1. Mis kuporosi (tiniq koʻk yirik kristallardan iborat modda, mis sulfat). 2. Qadimgi davrlarda koʻz ogʻrigʻiga qarshi yoki koʻzni ravshan qilish uchun koʻzga surtiladigan dori (OʻTIL, IV, 248). Maʼlumki, oʻz qatlam soʻzlari semantikasida davrlar osha tilning ichki qonuniyatlari hamda tashqi omillar taʼsirida oʻzgarishlar yuzuga keladi. Bu holat oʻzlashgan qatlam soʻzlari semantikasida ham kuzatiladi. Oʻzlashgan soʻzlar oʻzbek tili lugʻat fondiga kirgach, shu til birligi sifatida istifoda etiladi. Oʻzlashgan soʻzlar muayyan tilning lugʻat fondida faol qoʻllana boshlagach, semantik oʻzgarishlar yuzuga keladi. Muayyan davrlarda *toʻtiyo* koʻzga surtiladigan surgini ifodalagan. Keyinchalik, «koʻzga surish» semasiga asosan *koʻzga toʻtiyo, toʻtiyo qilmoq* birliklari shakllandi. *Koʻzga toʻtiyo* juda aziz, muqaddas yoki noyob narsalarga nisbatan ishlatiladi. *Toʻtiyo qilmoq* toʻtiyodek koʻzga surtmoq, eʼzozlamoq (OʻTIL, IV, 248). Bu oʻrinda toʻtiyoning noyobligi ham nazarda tutilgan. *Toʻtiyo* malham sifatida surtilar ekan, uning tanqis boʻlishi tabiiy hol. Keyinchalik, soʻz semantikasida «koʻzga surish» semasidan

«noyob, kamyob» semalari shakllandi. *Ko'zga dori* juda qadrli va kam topiladigan narsa haqida ishlatiladigan ibora (O'TIL, II, 446). Bu semadan shakllangan *ko'zga surtmoq* fe'li «aziz qilmoq, e'zozlamoq» ma'nosini bildiradi. *Ko'zga surtmoq* ortiq darajada qadrlamoq, e'zozlamoq (O'TIL, II, 446). Non ushug'ining ko'zga surtilishi, muqaddas kitobni tavof qilish an'anasi shu semantik xususiyat bilan bog'lanadi.

Ko'rinadiki, to'tiyo, dastavval, ko'zga malham bo'ladigan surgini ifodalagan, denotativ ma'noda qo'llangan. Muayyan davrdan so'ng leksema semantikasida «ko'zga surtish» asosiy e'tibor nuqtasiga ko'tarilgan. «Ko'zga surtmoq» ma'nosidagi *to'tiyo qilmoq* qo'shma fe'li shakllangan. *To'tiyo* leksemasida «ko'k rang», «kukun», «malham», «surgi» semalari mavjud bo'lgan. Semantik kengayish natijasida «aziz qilmoq», «e'zozlamoq» semalari yuzaga kelgan, *to'tiyo qilmoq* tipidagi yangi leksema yuzaga kelgan. Bu fe'l mumtoz lirikada ko'p uchraydi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida bu birlik faol qo'llangan. Masalan:

*Necha oqg'ay ko'z yoshim, yetkur g'uborin,
Ey, nasim, farzi ayn erur yoshorur ko'zga solmoq to'tiyo¹.*

Bu baytda *to'tiyo* lug'aviy birligining denotativ ma'nosi ifodalangan. Shoir ruhiy sitam oqibatida ko'z yoshi to'kkani va ko'z yoshini to'xtatish maqsadida unga malham bo'luvchi g'uborni yuborishni shamoldan so'raydi. Bu o'rinda g'ubor so'zining «kukun», chang» ma'nosi nazarda tutilmoqda. Shoir fikriga misol keltiradi va tamsil san'ati asosida ta'sirchan ifoda hosil qiladi, yosharur, ya'ni yoshlanadigan (tabiiyki, ko'zning yoshlanishi undagi jarohatdan yoki nosihatlikdan dalolatdir) ko'zga malham sifatida to'tiyoni surishlarini eslatadi, misol qilib keltiradi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi.

Frazeologizmlar ham, xuddi so'zlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega.

Frazeologik polisemiya

Bittadan ortiq ma'noni anglati olishi til birliklariga umumiy xos xususiyatlardan bo'lib, iboralarning ham ko'pgina qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar ham anchagina; to'rt-besh ma'noli iboralar sanoqli. Masalan, *bosh(i)ga qilich kelsa ham* iborasi bit-ta ma'noni («har qanday sharoitda ham») anglati, *aql(i) yetadi* iborasi ikkita ma'noni [1) «idrok qilmoq»; 2) «ishonch hosil qilmoq»], *bo'yn(i)ga qo'yimoq*

¹ Alisher Navoiy. Topmadim. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. –12-b.

iborasi uchta ma'noni [1) «to'nkamoq, ag'darmoq»; 2) «isbotlab, e'tirof qildirmoq»; 3) «bajarishga rozi qilmoq»], *qo'lga olmoq* iborasi esa to'rtta ma'noni anglatadi: [1) «o'z ixtiyoriga o'tkazmoq»; 2) «qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq»; 3) «hibsga olmoq»; 4) «o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq»].

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo'lganidek, bosh (asos) ma'no va yasama (hosila) ma'no farqlanadi. Leksik polisemiyada asos ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiyada, bundan farqli ravishda, asos ma'no ham ko'chma ma'no (obrazli ma'no) bo'ladi. Chunki har qanday frazeologik ma'no, ta'kidlanganidek, ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Frazeologik birliklarda ma'no taraqqiyoti ikki usul: ko'chirish va tatbiq usuli bilan amalga oshadi. Ko'chirish usullaridan metafora asosiy o'rinni egalaydi. Masalan, *ko'ngl(i) ko'tarmaydi* iborasi birinchi ma'nosida («yeb-icha olmaslik») narsalarga nisbatan ishlatilsa, ikkinchi ma'no («yoqtirmaslik») bu iborani «ovqat»dan boshqa narsalarga ko'chirish asosida shakllangan.

Tatbiq usulida ibora nom sifatida, masalan, bir predmetdan boshqasiga ko'chirilmaydi, balki yangi ma'no mavjud ma'noga xos semantik chiziqni davom ettirish orqali yuzaga keladi. Frazeologik ma'nolarning bir-biridan o'sib chiqmaganligini, jumladan, «tili chiqmoq» iborasi («indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qoldi») birinchi ma'nosidan («nutqqa ega bo'lmoq») ko'chirish asosida yuzaga kelgan: go'dakda voqe bo'ladigan hodisa katta yoshli kishiga ko'chirilgan. Bu iboraning uchinchi ma'nosi («aytisha boshlamoq») ikkinchi ma'noning tadrijiy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan («gapira boshlash», «aytisha boshlash»).

Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari, asosan, biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan, *bel bog'lamoq* iborasi uch ma'noli bo'lib [1) «shaylanmoq, o'tlanmoq»; 2) «astoydil kirishmoq»; 3) «ahd qilmoq»], ikkinchi ma'nosi birinchi ma'nosidan, uchinchi ma'nosi ikkinchi ma'nosidan o'sib chiqqan.

Ba'zi iboralarda uning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o'tamaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqelikdan har xil obraz olish asosida yuzaga keladi. Frazeologik ma'nolar bir-biridan o'sib chiqmaganligini ibora tarkibidagi bir so'z-komponentning boshqa-boshqa leksik ma'noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. Masalan, *xayol(i)ga kelmoq* iborasi ikki ma'noli: 1) «o'ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq»; 2) «xotirasida tiklanmoq». Bu ibora tarkibidagi *xayol* so'zi birinchi frazeologik ma'noda «o'y, fikr» ma'nosi bilan, ikkinchi frazeologik ma'noda esa «xotira» ma'nosi bilan qatnashgan. Umuuman, ma'nolari biri ikkinchisidan o'sib chiqmagan iboralarda ma'no taraqqiyoti omonimiyaga juda yaqin turadi.

Frazeologik omonimiya

Bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalaydigan iboralar *omonim iboralar* deyiladi. Omonim so'zlar tilda ko'p bo'lishiga qaramay, omonim iboralar kam uchraydi.

Boshiga ko'tarmoq I «shovqin solmoq»: Uyni *boshiga ko'targan* bolalar tinchib qolishdi;

Boshiga ko'tarmoq II «e'zozlamoq»: Har doim sizni *boshiga ko'taradi*.

Og'ziga olmoq I «ichmoq»: Ilgari bir qatra *og'ziga olmas* edi.

Og'ziga olmoq II «gapirmoq»: Ammo hech kim meni qaytarishni *og'ziga olmas* edi.

Ko'z yummoq I «vafot etmoq»: Kasallik tufayli bu dunyodan erta *ko'z yumdi*.

Ko'z yummoq II «voz kechmoq»: Barchasidan *ko'z yumdi-da*, boshqa shaharga ketdi.

Bosh ko'tarmoq I «o'smoq»: Quyosh nuriga intilib, maysalar *bosh ko'tardi*.

Bosh ko'tarmoq II «isyon qilmoq»: Uning qalbida allaqanday tuyg'ular *bosh ko'tardi*.

Frazeologik sinonimiya

Ma'nodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatib kelishi *sinonim iboralarni* hosil qiladi:

Kayfi buzug – ta'bi tirriq; toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq.

Yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq.

Lug'aviy birlik sifatida iboralar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'ladi: *tomdan tarasha tushganday – kutilmaganda; og'zi qulog'ida – xursand, joni chiqmoq – g'azablanmoq; ta'bi xira – xafa; quling o'rgilsin – ajoyib.*

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, leksemalar, morfemalar bilan bir qatorda, iboralar orasida ham ko'p kuzatiladi. Ikki iborani o'zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilik teng ma'nolilik emas, albatta. Har bir sinonim, shu sinonimiya qatori uchun umumiy ma'no o'zidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'lishi mumkin.

Sinonimlar, odatda, bir yoki bir necha jihatdan farqlanadi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq hisoblanadi. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq – yer bilan yakson qilmoq* iborasi *kulini ko'kka sovurmoq – kuli ko'kka sovurildi* iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlarida umumiylik hosil qilishidan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli ifodalanadi. Shuningdek, *ko'ngil(i) bo'sh* va *ko'ngil(i) yumshoq – yumshoq ko'ngil* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, «rahmdil, ko'ngilchan» ma'nosini



anglatadi; birinchi iborada «ko‘ngilchan»lik ma’no qirrası, ikkinchi iborada esa «rahmdil»lik ma’no qirrası ustun. Umuman, frazeologik sinonimlarda farqli ma’no qirraları rang-barang bo‘lib, aniq yondashib izohlashni talab qiladi.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og‘iz, bir shingil, bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so‘zlash organi – uzum boshining bir qismi – chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarning so‘z-komponentlariga diqqat qilish lozim. Variantlar leksik tarkibida ayni bir so‘z-shakl asosida paydo bo‘lgan yangi bir ibora orasida voqe bo‘ladi. Masalan, *bosh(i)ni yemoq* iborasining grammatik shakllaridan biri *bosh(i)ni yeb I* bu iboraning xuddi shu shakli asosida paydo bo‘lgan *boshini yeb II* iborasi bilan omonimiya hosil etadi va boshqalar.

Shaklan teng kelish ibora bilan nutq birligi (erkin birikma, erkin gap) orasida ham mavjud, ammo bunday holat barcha iboralarga birdek xos emas. Masalan, *bel(i) og‘riydi* iborasi nutqda tuziladigan *Beli og‘riydi* erkin gapi bilan shaklan teng keladi, lekin *ko‘z(i)ning yog‘ini yemoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq* iboralariga shaklan teng erkin birikmalar nutqda tuzilmaydi. Buning turli-tuman izoh va sabablari bor.

Qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar *antonim* iboralar deyiladi: *ko‘kka ko‘tarmoq – yerga urmoq; yuzi yorug‘ – yuzi shuvut; ko‘ngli joyiga tushmoq – yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq*.

Iboralar so‘zlashuv va badiiy uslubda keng qo‘llanadi.

Frazeologik birikma va gaplar ko‘pincha bir so‘z yoki so‘z birikmasiga teng bo‘ladi: *qo‘li uzun – olg‘ir, o‘pkasi yo‘q – shoshilgan, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi – ruhi tushdi* va boshqalar.

Tildagi idiomada hodisasi ham ko‘chma ma’noga asoslanadi. Idiomada, odatda, hayotiy bo‘lmagan hodisa, harakat, holatlar tasvirlanadi.

II. Iboralarning grammatik tabiati

Iboralarning ichki sintaktik qurilishi

Frazeologik birliklarning ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashadi. O‘zaro sintaktik bog‘langan bu leksemalar mohiyatiga ko‘ra birikmaga yoki gapga teng bo‘ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma’no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantik birlik (til birligi) deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki

gapga tenglik haqida gapirganda, iboraning ichki sintaktik qurilishi ko‘zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan so‘zlar orasidagi sintaktik bog‘lanish o‘z kuchini saqlaydi, faqat ichki xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, *ko‘ngl(i) og‘ridi* iborasi ichki sintaktik qurilishi jihatidan gapga teng (ega bilan kesim munosabatini aks ettiradi), ayni shu iboraning *ko‘ngl(i)ni og‘ritmoq* Varianti esa birikmaga teng (vositasiz to‘ldiruvchi bilan to‘ldirilmish munosabatini aks ettiradi). Bunday sintaktik qayta qurilish bu fe‘l iborada nisbat (daraja) yasalishi munosabati bilan yuz beradi: o‘timsiz fe‘l bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirishgan bo‘lsa, orttirma yasovchisini olib, o‘timliga aylangach, ot komponentning bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Ko‘rinadiki, bir komponentdagi grammatik o‘zgarish ikkinchi komponentda ham shunga muqobil o‘zgarishni talab qiladi, natijada birikmaga teng holat gapga teng holatga yoki aksincha ko‘rinishga o‘tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo‘la oladigan iboralar anchagina: *ko‘z(i) ko‘r*; *qulog‘(i) kar bo‘ldi* – *ko‘z(i)ni ko‘r*; *qulog‘(i)ni kar qilmoq*, *ko‘z(i)ni moshdek ochmoq* – *ko‘z(i) moshdek ochildi*; *ko‘z[lar](i)ning paxtasi chiqdi* – *ko‘z[lar](i)ning paxtasini chiqarmoq* kabi.

Orttirma nisbat yasalishi sintaktik qurilishni har doim ham o‘zgartirib yubormaydi. Masalan, *ko‘z old(i)ga kelmoq* – *ko‘z old(i)ga keltirmoq* iborasida orttirma nisbat yasalishi bilan sintaktik qurilish – birikmaga teng holat – o‘zgar-maydi, orttirma yasalishi tufayli iboraning ikkinchi – o‘timlilik xususiyati bor varianti yuzaga keladi.


Bunday grammatik o‘zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro‘y berib, uning mazmun planiga ta‘sir qilmaydi.

Gapga teng qurilishdan birikmaga teng qurilishga va aksincha holatga aylani-sh iboralarning ma‘lum bir qismigagina xos bo‘lib, qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, *ko‘z(i)ga cho‘p solmoq*, *ko‘z(i)ni bo‘yamoq*, *ko‘z o‘ng(i)da* kabi iboralar doim birikmaga teng qurilish shaklida, *ko‘z(i) yetdi*; *ko‘z(i) ilindi*; *ko‘z(i) ko‘r*; *qulog‘(i) kar*; *ko‘z(i) tor* kabi iboralar doim gapga teng qurilish shaklida ishlatiladi.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig‘iq va yoyiq bo‘ladi, odatdagi (erkin) sintaktik bog‘lanishlarda qanday bo‘laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo‘laklar qatnashadi.

Iboralarning paradigmatic shakllari

Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanishi, tuslanishi kabilar), dastav-val, ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi.



Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil qiladi. Fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi birikmaga teng bo'lsa, bunday fe'l ibora, odatda, tuslanadi: *bosh egdim, bosh egding* kabi. Agar fe'l iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday ibora tuslana olmaydi, doim III shaxs formasida turadi (ibora tarkibidagi ega shuni talab qiladi). Masalan, *ko'z tegdi* iborasini tuslab bo'lmaydi. Bu ikki tur fe'l iboralar faqat tuslanishi jihatidan farq qiladi, mayl, zamon kabi kategoriyalarning formalarida o'zgarish har ikkisida voqe bo'laveradi: *bosh egسام, ko'z tegسا; bosh egibdi, ko'z tegibdi* kabi. Bunday iboralarning ko'pi bo'lishli va bo'lishsiz aspektlarda ham kelaveradi: *bosh egmaylik, ko'z tegmasin* kabi.

Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida, fe'l so'z-komponentdan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z-komponent ko'pincha ot bilan ifodalanadi, ana shu ot so'z-komponentning tarkibida ko'pincha egalik affiksi qatnashadi: *ko'ngl(i)ga kelmoq, ko'ngl(i) yorishdi* kabi. Ana shu egalik affiksi vositasida fe'l ibora uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: *ko'nglim yorishdi, ko'ngling yorishdi* kabi.

Gapga teng qurilishli iboralarda shaxs-son ma'nosi tuslovchi bilan emas, balki egalik affiksi bilan ifodalanadi. Birikmaga teng qurilishli fe'l iboralarda esa shaxs-son ma'nosini tuslovchi ham, egalik affiksi (nisbatlovchi) ham ifodalaydi. Bu yerda ikki holat mavjud:

18

1) tuslovchi bilan nisbatlovchi shaxs-sonda muvofiqlashadi: *ko'nglimni uzdim, ko'nglingni uz* kabi. Bunda ayni shaxs-son ma'nosi ikki marta (pleonastik) ifodalanadi;

2) tuslovchi bilan nisbatlovchi boshqa-boshqa shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi, shunga ko'ra har biri mustaqil o'zgaradi: *ko'nglini topdim, ko'nglingni topsin* kabi;

3) ayrim iboralarga bu ikki holat birgalikda xos bo'ladi: *ko'nglingni buzdim, ko'nglimni buzdim* kabi.

Ot komponent tarkibida qatnashadigan nisbatlovchini o'zgartirib ishlatish sifat, ravish iboralarda ham mavjud: *ko'nglim bo'sh, ko'ngling bo'sh; oyog'ingni qo'lingga olib, oyog'ini qo'liga olib* kabi.

Ba'zi iboralar sintaktik qurilishiga ko'ra birikmaga teng bo'lsa ham, doim III shaxsda ishlatiladi. Masalan, *bosh(i)dan oshib yotmoq* iborasi faqat III shaxs tuslovchisi bilan ishlatiladi, chunki tuslanishida narsa yoki hodisa bilan bog'lanadi.

Ayrim iboralar grammatik qurilishida doim III shaxs nisbatlovchisi qatnashadi, chunki nisbatlanishida bunday ibora narsa yoki hodisa bilan bog'lanadi: *mag'zini chaqmoq, misi chiqdi* kabi. Bunday hodisa fe'l bo'lmagan frazeologik birliklarda ham mavjud: *boshini yeb, ko'nglida kiri yo'q, ichi qora* kabi.

Ba'zi iboralarda ot so'z-komponentga egalik affikslarining faqat ko'plik shakllari qo'shiladi (III shaxs egalik affiksi son jihatdan neytral): *gapimiz bir*

joydan chiqdi, gapingiz bir joydan chiqdi, gaplari yoki gapi bir joydan chiqdi kabi.

Faqat ko‘plik tuslovchisi olib qo‘llanadigan iboralar ham uchraydi: *gapni bir joyga qo‘ydik, gapni bir joyga qo‘yishdi* yoki *qo‘ydilar* kabi.

Ot so‘z-komponent bilan tugaydigan ayrim iboralar kelishikda o‘zgaradi, son shaklini o‘zgartiradi: *ammamning buzog‘i, ammamning buzog‘ini; tosh bag‘ir, tosh bag‘irlar, tosh bag‘irlarga* kabi va boshqalar.

Misollardan ayonki, tuslanish, nisbatlanish odatda shaxs bilan bog‘lanadigan iboralarda sodir bo‘ladi, narsa bilan bog‘lanadigan iboralar tarkibida esa tuslovchi va nisbatlovchining faqat III shaxs shakligina qatnasha oladi.

Iboralarning sintaktik qurshovi

Sintaktik qurshov deb iboralarning nutqda turli vazifadagi so‘zlar bilan bog‘lanishi nazarda tutiladi. Iboraning biror sintaktik qurshovga ega bo‘lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe‘l iboralarda fe‘l so‘z-komponentning boshqaruviga va bu boshqaruvning ibora tarkibida reallashgan yoki reallashmaganligiga, ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog‘liq. Masalan, agar ibora gapga teng qurilishli bo‘lsa, nutqda ega olmaydi (chunki bunday bo‘lak iboraning o‘z qurilishida qatnashadi): *ko‘z(i) tindi, ichi qora* kabi.


Fe‘l iboralarda fe‘l so‘z-komponent o‘timli yoki o‘timsiz bo‘ladi. Agar o‘timsiz bo‘lsa, bosh kelishikdagi so‘z-komponent bilan ega-kesim munosabatiga kirishadi; fe‘l so‘z-komponentning bunday sintaktik imkoniyati iboraning o‘z tarkibida reallashgani sababli kontekstda shunday bo‘lak bilan bog‘lanmaydi. Kesimi sifat bilan ifodalangan iboralarda ham shunday.

Bu tur iboralarda sintaktik qurshov ko‘pincha ot komponentdagi egalik affiksi orqali vujudga keladi: *mening ko‘zim tindi, sening ko‘zing tindi, uning// Ehsanning ko‘zi tindi* kabi. Bunday bo‘lak vazifasida I, II shaxslarda kishilik olmoshi keladi va u nutqda ko‘pincha reallashmaydi. III shaxsda esa, kishilik olmoshidan tashqari, ot bilan ifodalanadi, keyingi holatda qaratuvchi bo‘lakning nutqda qatnashuvi zarur bo‘ladi. O‘timsiz fe‘l komponentli bunday ibora birikmaga teng bo‘lsa, ega bilan ham bog‘lanadi: *og‘z(i)ga urmoq kim? kimning?, oyog‘(i)ga yiqilmoq kim? kimning?* kabi.

Fe‘l komponenti o‘timli fe‘l bilan ifodalangan iboralarda ikki holat mavjud:

1) fe‘l komponentning boshqaruvi iboraning tarkibida reallashgan bo‘ladi, shu sababli ibora kontekstda shunday bo‘lakni boshqarmaydi (qaratuvchi bilan, ega bilan bog‘lana oladi): *ko‘z(i)ni shira bosdi kimning?; ko‘z(i)ning yog‘ini yemoq kim? kimning?* kabi;

2) fe‘l komponentning boshqaruvi iboraning tarkibida reallashmaydi, shunga ko‘ra ibora kontekstda shunday bo‘lakni boshqara oladi: *ko‘kka sovurmoq kim? nimani?; ko‘ngl(i) ko‘tarmaydi kimning? nimani?* kabi.



Ba'zi iboralar shaxsni anglatadigan vositasiz to'ldiruvchini ham, narsani anglatadigan vositasiz to'ldiruvchini ham boshqara oladi: *ko 'zdan kechirmaslik kim? kimni? yoki nimani?; ko 'z tagiga olmoq kim? kimni? yoki nimani? kabi.*

Iboralarning vositali to'ldiruvchini boshqarishi ham uchraydi: *ko 'ngl(i) goldi kimning? kimdan? yoki nimadan?; ko 'ngil qo 'ymoq kim? kimga?; ko 'z(i) o 'tmaydi kimning? nimaga?; ko 'z(i) qamashdi kimning? nimadan?; ko 'z tegdi kimga? yoki nimaga?; og 'iz-burun o 'pishmoq kim? kim bilan? kabi.*

Ba'zi iboralar ham vositasiz to'ldiruvchini, ham vositali to'ldiruvchini boshqara oladi: *ko 'ngl(i) bo 'lmadi kimning? kimni? yoki nimani? nima? qilishga? kabi.*

Kontekstdan ayni vaqtda qaratuvchi va to'ldiruvchini tobelashni hamda ega bilan bog'lanishni hisobga olsak, uch sintaktik qurshovli holat voqe bo'ladi: *ko 'ngl(i)ni ko 'tarmoq kim? kimning? nima bilan? kabi va boshqalar.*

Iboralarda variantlanish

Variantlanish – barcha til birliklariga, shu jumladan, iboralarga ham xos hodisa. Ko'p variantli frazeologizmlarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil qiladi. Umuman, iboralarda variantlanish boshqa til birliklariga nisbatan kuchli bo'lib, bir iboraning variantlari soni o'ntagacha yetadi.

Frazeologik birliklarda bir iboraga bir necha variantni birlashtirishda ularning: a) turli-tuman o'zgarishlar sababli biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lishi, barchasi bir manbaga birlashuvi; b) asosida ayni bir obrazning yotishi (bu obrazning variantlarda so'nish-so'nmasligidan, qay darajada o'qilishidan qat'i nazar); v) ayni bir lug'aviy ma'noni anglatishi (o'zaro ma'no qirrasida, nutqiy, stilistik belgisida farq qilish-qilmasligidan qat'i nazar); g) o'zaro o'sib chiqqan variantlar tarkibida mushtarak so'z-komponentning bo'lishi asosga olindi.

Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda boshqa bir ibora yuzaga keladi.

Frazeologik variantlar dastlab *leksik variantlar* va *grammatik variantlar* deb farqlanadi. Ibora tarkibida mustaqil turkum so'zi bilan ifodalangan komponentni o'zgartirib hosil qilingan variantga *leksik variant* deyiladi. Bunda so'z-komponent: 1) almashtiriladi, 2) qo'shiladi, 3) tashlanadi. Bulardan eng murakkabi – leksik almashtirish asosidagi variantlanish.

Leksik almashtirishda: 1) so'z bilan so'z almashadi (asosiy holat): *ko 'ngl(i) g'ash tortdi va yurag(i) g'ash tortdi; ko 'z tagiga olmoq va ko 'z ostiga olmoq kabi; 2) bir so'zning variantlari almashadi (oz uchraydi): vahima bosdi va vahm bosdi; haddan ziyod va haddan ziyoda kabi.* Keyingi tur almashtirish emotsional-stilistik farqlanishga olib kelishi mumkin.

Soʻz bilan soʻz almasha, bu soʻzlar oʻzaro: a) sinonim boʻladi: *toʻrt taraf(i) qibla* va *toʻrt tomon(i) qibla*; *yuz(i) chidamadi* va *bet(i) chidamadi*; *oʻyga choʻmmoq* va *oʻyga botmoq*; *yurag(i)dan sidirib tashlamoq* va *qalb(i)dan sidi-rib tashlamoq* kabi; b) yaqin maʼnoli soʻzlar boʻladi: *ogʻz(i)ga tolqon solmoq* va *ogʻz(i)ga soʻk solmoq*; *bosh(i) yostiqa yetganda* va *bosh(i) yostiqa tek- kanda* kabi.

Sinonimlar almashganda variantlar, asosan, nutqiy, stilistik belgida farqla- nadi, shunga koʻra stilistik variantlar yuzaga keladi. Yaqin maʼnoli soʻzlar almashganda esa maʼno variantlari yuzaga keladi. Bunda, masalan, maʼno kuchayadi yoki kuchsizlashadi: *bosh(i)da yongʻoq chaqmoq*, *bosh(i)da danak chaqmoq* va *bosh(i)da tosh chaqmoq* variantlarida avvalgisidan keyingisida maʼno bir bosqich kuchayadi (*yongʻoq – danak – tosh* qatorida qattqlik belgi- sini koʻz oldingizga keltiring).

Koʻpincha bitta soʻz-komponent almashadi (yuqoridagi misollar), baʼzan ikki soʻz-komponentning almashinuvi ham uchraydi: *toʻydan ilgari nogʻora qoqmoq* va *toʻydan oldin nogʻora chalmoq* kabi.

Varianti koʻp iboralarning har xil Variantida boshqa-boshqa soʻz-komponent almashinuvi boʻlishi mumkin. Shu sababli baʼzi variantlarning leksik tarkibi- da asosiy variant bilan umumiylik yoʻqoladi. Bunday hollarda variantlarning bir-biridan oʻsib chiqish tartibini hisobga olish zarur: keyingi variantlarning barchasi asosiy (tayanch) variantga qiyosan baholanmay, har bir variant oʻzi oʻsib chiqqan variantga nisbatan belgilanishi kerak. Masalan, *koʻngl(i) toza*, *yurag(i) toza*, *koʻngl(i) pok*, *yurag(i) pokiza*, *yurag(i) sof*, *qalb(i) pok* bir ibo- raning olti leksik variantiga teng. Bu yerda ikkinchi variant birinchi variantdagi birinchi komponentni, uchinchi variant birinchi variantdagi ikkinchi kompo- nentni, toʻrtinchi variant ikkinchi variantdagi ikkinchi komponentni, beshinchi variant ikkinchi variantdagi ikkinchi komponentni, oltinchi variant uchinchi variantdagi birinchi komponentni sinonimiga almashtirish bilan hosil boʻlgan. Natijada, masalan, toʻrtinchi, beshinchi, oltinchi variantlar bilan birinchi vari- ant orasida leksik tarkibda umumiylik yoʻqolgan. Ammo variantlarni yuqorida sanalgan tartib bilan qiyoslasak, ularning barchasi bir iboraning leksik variant- lari ekani ayon boʻladi.

Leksik variantlarning maʼlum bir qismi ibora tarkibidagi soʻz-komponentni tushirib qoldirish bilan hosil boʻladi: *daryodan bir tomchi* va *daryodan tomchi*; *yoʻl-yoʻriq koʻrsatmoq* va *yoʻl koʻrsatmoq*; *oʻylab-oʻylab*, *oʻy(i)ga yetolmaslik* va *oʻylab*, *oʻy(i)ga yetolmaslik* kabi. Misollardan koʻrinadiki, soʻz-komponent- ni tushirib qoldirishning ham turli koʻrinishlari mavjud. Soʻz-komponent tash- lash bilan yuzaga kelgan (elliptik) variant unga asos boʻlgan variantdan quyida- gi belgilari bilan farq qiladi: izohlanish imkoniyati ozayadi, ibora anglatadigan lugʻaviy maʼnoni shartli qabul qilish kuchayadi, demak, elliptik variantda idio- matiklik kuchliroq boʻladi.

Leksik variantlanishning eng kam uchraydigan turi soʻz-komponent qoʻshish bilan yuzaga keladi: *es(i)ni tanimoq* va *es-hush(i)ni tanimoq*; *toʻrt ogʻiz* va *uch-toʻrt ogʻiz*; *bir shingil* va *bir shingil-yarim shingil*; *jon demoq* va *jon-jon demoq* kabi. Misollardan koʻrinadiki, qoʻshish koʻpincha ibora tarkibidagi sodda soʻz-komponentni juft soʻzga aylantirish yoki takrorlash hisobiga voqe boʻladi. Soʻz-komponent qoʻshish tufayli iboraning semantikasida konkretlikka tomon siljish yuz beradi, konkret bir izoh nuqtasi ortadi.

Polisemantik iboralarda leksik variantlanish imkoniyati har bir frazeologik maʼno boʻyicha oʻrganilishi, taʼkidlanishi kerak: bir frazeologik maʼnoda bor variantlanish boshqa frazeologik maʼnoda boʻlmazligi mumkin. Masalan, *aql(i) yetadi* iborasi ikki maʼnoli: 1) «idrok qilmoq, uqmoq, bilmoq»; 2) «ishonch hosil qilmoq, ishonmoq». Bu ibora birinchi maʼnosida *fahm(i) yetadi* va *fahm-farosat(i) yetadi* variantlariga ega, ikkinchi maʼnosida esa bunday variantlanish yoʻq: frazeologik maʼnoning oʻzi bunga yoʻl qoʻymaydi.

Ibora tarkibini grammatik oʻzgartirish bilan hosil boʻladigan variantga *grammatik variant* deyiladi. Iborada yuz beradigan har qanday grammatik oʻzgarishni *grammatik variantlanish* deb qarash toʻgʻri emas, albatta. Iboraning tashqi grammatik shakllanishiga (iborani kontekstga singdirish bilan) bogʻliq grammatik oʻzgarishlar variantlanish deb qaralmaydi. Jumladan, kontekstga singdirish munosabati bilan ot iboraning sonda, kelishikda oʻzgarishi, feʼl iboraning tuslovchi, nisbatlovchi olib oʻzgarishi, mayl, zamon yasovchilarini olib oʻzgarishi variantlanish, deb emas, balki paradigmatic shakllarda ishlatilish, deb qaraladi. Masalan, *ammamning buzogʻi* iborasi, shu bosh shaklidan tashqari, *ammamning buzogʻiga*, *ammamning buzogʻini*, *ammamning buzoqlaridan* kabi shakllarda, *bosh(i) osmonda* iborasi *boshim osmonda*, *boshing osmonda edi* kabi shakllarda, *koʻz tikmoq* iborasi *koʻz tikdim*, *koʻz tiksa* kabi shakllarda, *ket(i)ga tushmoq* iborasi *ketiga tushaman*, *ketimga tushadigan boʻldi* kabi shakllarda ishlatiladi. Ammo bularning birortasi iboraning grammatik variantlari sifatida qaralmaydi. Bular frazeologik birlikning tashqi grammatik shakllanishi sifatida iboraga xos shakl yasalishi deb talqin qilinadi.

Frazeologik birlik yuqoridagi tur grammatik oʻzgarish tizimlarida (paradigmatic shakllarida) biror chegaralanishga ega boʻlsa, shundagina grammatik variantlanish haqida gapirish oʻrinli. Masalan, feʼl iboraning boʻlishli yoki boʻlishsiz aspektda kelishi – iboraning tashqi grammatik shakllanishiga xos hodisa: *koʻkka sovurdi* va *koʻkka sovurma* kabi. Bunday har ikki aspekt shaklida ishlatish umumiy holat boʻlib, grammatik variantlanish, deb qaralmaydi. Shu bilan bir vaqtda, faqat bir aspekt shaklidagina ishlatiladigan, mavjud boʻladigan iboralar ham bor. Masalan, *alifni tayoq deyolmaslik* iborasi, odatda, boʻlishsiz aspekt shaklida ishlatiladi, baʼzida esa boʻlishli aspektda ham uchray qoladi: *alifni tayoq deydigan...* kabi. Shunday holatlar grammatik variantlar deb qaraladi.

Shuningdek, *otimni boshqa qo'yaman!* iborasi tarkibidagi nisbatlovchi, tuslovchi, zamon va mayl, odatda, shu bir shakldagina turadi. Bu iboraning boshqa biror shaklga kirishi grammatik variantlanish deb talqin qilinadi. Masalan, bu ibora ba'zan *otimni boshqa qo'ying* kabi shaklda uchraydi. Endi buni frazeologik variant deb tan olish kerak bo'ladi.

Tom ma'nodagi grammatik variantlar iboraning ichki grammatik qurilishida (iboraning kontekst bilan aloqador bo'lmagan qismlarida) sodir bo'ladigan o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Jumladan, fe'l iboralarda nisbat (daraja) yasalishi va shu bilan bog'liq holda yuz beradigan grammatik o'zgarishlar grammatik variantlanishning turlaridan biridir. Masalan, *adab(i)ni bermog* iborasi tarkibidagi fe'l so'z-komponent aniq darajada, tushum kelishigidagi ot so'z-komponent bilan to'ldiruvchili birikma hosil qiladi. Xuddi shu ibora *adab(i) berildi* shaklida ham ishlatiladi. Darajaning o'zgarishi iboraning ichki grammatik qurilishini keskin o'zgartirib yuboradi: birikmaga teng holat gapga teng holatga o'tadi va shunga bog'liq holda boshqa qator grammatik-semantik o'zgarishlar yuz beradi.

Grammatik variantlanish ham, xuddi leksik variantlanishda bo'lganidek, asosan, ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tashlash yoki unga qo'shish bilan voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishning o'ziga xos hodisa – so'z-komponentlarning joylanish tartibi asosida yuzaga keladigan ko'rinishi ham bor.

Frazeologik variantlarning yuzaga kelishidagi asosiy omillar quyidagicha:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan variantlanishga ba'zi misollar: *o'tirgani joy topolmaslik* va *o'tirishga joy topolmaslik* (maqsad ravishdoshi yasovchi *-gani* harakat nomi yasovchi *-ish* va jo'nalish kelishigi shakli bilan almashgan), *qo'yn(i)ni puch yong'oqqa to'ldirmoq* va *qo'yn(i)ni puch yong'oq bilan to'ldirmoq* (kelishik shakli ko'makchi bilan almashgan) kabi.

2. Qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanishga ba'zi misollar: *holdan toymoq* va *holdan toydirmoq* (orttirma nisbat shakli qo'shilmoqda), *ko'ngil(i) bo'shadi* va *ko'ngil(i) bo'shashdi* (harakat-holatning biroz kuchsiz voqe bo'lishini ifodalovchi affiks qo'shilmoqda) kabi.

3. Tushirib qoldirish asosida paydo bo'ladigan variantlanishga misol: *ko'z(i) ilindi* va *ko'z ilindi* (egalik affiksi tushirilgan).

4. Tartib o'zgartirish asosida paydo bo'ladigan variantlanishga misollar: *bog'dan kelsa (...)*, *tog'dan kelmoq* va *tog'dan kelsa (...)*, *bog'dan kelmoq* (bog' va tog' leksemalari o'rin almashadi, ammo iboraning sintaktik qurilishi aynan qoladi); *ko'ngil bermog* va *bergan ko'ngil* (qaytadan sintaktik bog'lash natijasida to'ldiruvchili birikma sifatlovchili birikmaga aylanadi).

Grammatik variantlanish yuqoridagi to'rt holatning turli kombinatsiyasi bilan ham hosil bo'ladi. Masalan, *dog' tushdi* – *dog' tushirmoq* kabi variantlanishda orttirma nisbat yasovchisini qo'shish bilan ot komponentning bosh

kelishigi tushum kelishigiga almashadi, gapga teng qurilishli holat birikmaga teng qurilishli holatga o'tadi.

Umuman, leksik variantlanish va grammatik variantlanishning birgalikda qatnashuvi bilan leksik-grammatik variantlar yuzaga keladi. Bunda leksik variantlanishning va grammatik variantlanishning ko'rinishlari har xil kombinatsiyada uchraydi.

LUG'AT MAQOLASINING TUZILISHI

Lug'at o'z ichiga faqat so'zlarni yoki faqat iboralarni olishi mumkin. Birinchisi leksik lug'at, ikkinchisi esa frazeologik lug'at deyiladi. Umumtil lug'ati, odatda, so'zlar asosida tuziladi va so'zlarga bog'langan iboralar ham kiritiladi. Bu tur lug'atni leksik-frazeologik lug'at deb yuritish mumkin. Keyingi tur lug'atlarda, birinchi o'rinda so'z turgani sababli, iboralar lug'atga ular tarkibidagi so'z-komponentlar bo'yicha kiritiladi. Iboralarning o'zi tasvirlangan lug'atda – frazeologik lug'atda – lug'at maqolasini so'z-komponentdan kelib chiqib emas, balki bevosita iboraning o'zi bilan boshlash ma'qul. Chunki bunda ibora lug'atga yaxlitligicha kiritiladi. Lug'atga kiritish asosi qilib so'z-komponent olinsa, ibora lug'atga uning tarkibida necha so'z-komponent bo'lsa, shuncha marta kiritiladi; bu bilan lug'atning hajmi asossiz ravishda kengayib ketadi. Eng muhimi shuki, lug'atdan foydalanuvchi o'zi uchun kerakli iboraga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bir necha bosqichdan o'tibgina yetib boradi, shunda ham ko'pincha izoh maqolachasiga emas, balki havola maqolachasiga duch keladi va kerakli iborani lug'atning boshqa bir o'rnidan qidirishga majbur bo'ladi.

Ushbu lug'atda ixchamlik va qulaylikka intilib, lug'at maqolasi bevosita frazeologizmning o'zi bilan boshlandi. Bunday ibora satr boshida to'q qora bosma harflar bilan berildi: **BOSHDAN-OYOQ** kabi.

Lug'at maqolasini bevosita frazeologizmning o'zi bilan boshlash lug'at tuzuvchini yana bir muammodan qutqaradi: iborani qaysi so'z-komponent ostida izohlash, ya'ni so'z-komponentlardan qaysi birini semantik tayanch komponent yoki grammatik tayanch komponent deb belgilash vazifasidan ozod qiladi. Lug'at maqolachasidagi sarlavha vazifasini iboraning o'zi (ko'p variantli iboralarda – tayanch variant) bajaradi.

1. Bir variantli iboralarda lug'at sarlavhasi sifatida shu variantning o'zi keltirildi. Ko'p variantli iboralarda bir variant tayanch variant sifatida tanlandi. Iboraga izohlar shu tayanch variant ostida berildi. Tayanch variantni belgilashda to'plangan faktik material asosga olindi: a) nutqda eng ko'p uchragan; b) umum-xalq tiliga mansub; v) tarkibi jihatidan eng to'liq variant tanlanib, boshqa variantlar lug'at maqolasi ichida, frazeologik ma'no ta'rifidan keyin keltirildi va o'zaro nuqtali vergul bilan ajratildi:

AZOB CHEKMOQ qiynalmoq. Varianti: **azobini tortmoq; tortgan azob(i).**

Ibora variantlari lugʻatga havola maqolasi sifatida kiritildi:

azobini tortmoq: azob chekmoq

tortgan azob(i): azob chekmoq

Koʻpgina iboralarda tayanch variant sifatida ikkita variant keltirildi (bular orasiga tire qoʻyildi), shunda ham ikkinchi oʻrinda joylashgan variant lugʻatga havola maqolasi tarzida ham kiritildi:

ACHCHIGʻ(I) KELDI – ACHCHIGʻ(I)NI KELITIRMOQ

achchigʻ(i)ni keltirmoq: achchigʻ(i) keldi

Agar iboraning soʻzlashuv nutqidagi talaffuzi bilan adabiy nutqdagi talaffuzi (shuningdek, yozilishi) orasida sezilarli, doimiy farqlanish mavjud boʻlsa, bunday talaffuz Varianti ham havola maqolachasi tarzida berildi, ammo iboraning variantlari qatoriga kiritilmadi; bu bilan shunday talaffuz Variantiga salbiy munosabat bildirildi. Masalan, *adab(i)ni bermoq* iborasining *adov(i)ni bermoq*, *odob(i)ni bermoq* talaffuz variantlari, *boʻyn(i) yori bermadi* iborasining *boʻyn(i) yor bermadi* talaffuz varianti shunday baholandi.

Soʻzlashuv nutqida ibora tarkibidagi bir soʻz oʻrniga unga oʻxshash boshqa bir soʻzni ishlatish hollari ham uchraydi. Bunday hollarda notoʻgʻri soʻz ishlatish aks etgan variantdan toʻgʻrisiga havola berildi: **yeng uchida:** yeng ichida; **tuz tatimaslik:** tuz totmaslik; **qut(i) uchdi:** qut(i) oʻchdi.

Notoʻgʻri ishlatishning boshqa koʻrinishlarida ham shunday yoʻl tutildi: **izzat-nafs(i)ga tegmoq:** izzati nafs(i)ga tegmoq; **elburundan:** eldan burun; **yulduzni beshoti urmoq:** yulduzni benarvon urmoq; **qoʻltigʻ(i)dan tarvuz(i) tushdi:** tarvuz(i) qoʻltigʻ(i)dan tushdi.

2. Izoh maqolasida sarlavha keltirilgach, agar shu ibora (koʻp variantli iboraning shu Varianti) sintaktik qurshovga ega boʻlsa, shunday xususiyat *kim? nima?* kabi olmoshlar yordamida koʻrsatildi (Bunday olmosh *kursiv* bilan berildi). Olmoshni bosh kelishik shaklida keltirish ega bilan bogʻlanish borligini, qaratqich kelishigi shaklida keltirish qaratuvchi bilan bogʻlanish borligini, tushum, joʻnalish, chiqish kelishigi shaklida yoki koʻmakchili holatda keltirish toʻldiruvchi bilan bogʻlanish borligini koʻrsatadi: bu boʻlaklar vazifasida shaxsni anglatadigan soʻz kelishi *kim?* olmoshi bilan, narsani anglatadigan soʻz kelishi esa *nima?* olmoshi bilan taʼkidlandi:

AQLDAN OZMOQ *kim?*

BARQ URMOQ *nima?*

BAGʻR(I) QON *kimning?*

BEL BOGʻLAMOQ *kim? nimaga?*

BEL OLISHMOQ *kim? kim bilan?*

BIR CHOʻQISHDA QOCHIRMOQ *kim? kimni?*

BOY BERMOQ *kim? nimani?*

BOSH(I) BILAN SHOʻNGʻIMOQ *kim? [oʻzining] nimaga?*

O'rta qavslarda *o'zining* olmoshini keltirish shunday sintaktik qurshov nutqda ko'pincha qatnashmasligini bildiradi. Bunday olmoshning keltirilishi boshqa maqsadga ham xizmat qiladi: *kim?* [*o'zining*] olmoshlari keltirilsa, bu iborada tuslovchi bilan nisbatlovchi o'zaro muvofiqlashib ishlatiladi; *kim? kimning?*; *kim? nimaning?*; *nima? kimning?* olmoshlari keltirilsa, bu iborada tuslovchi bilan nisbatlovchi boshqa-boshqa shaxs-sonni ifodalab, mustaqil ishlatiladi:

BOSH(I)DA YONG'OQ CHAQMOQ *kim? kimning?*

BOSH(I)GA KO'TARMOQ I *kim? [o'zining] nimani?*

O'rta qavslarda *kimning?* olmoshini keltirish bilan shunday sintaktik qurshov, odatda, qatnashmasligi bildirildi:

BIR KAM(I) [*kimning?*].

BIR KO'NGL(I) [*kimning?*].

Biror bo'lak bilan bog'lanishda ham *kim*, ham *nima?* olmoshini keltirish bilan bu ibora (frazelogik ma'no) mazkur vazifada shaxsni va narsani anglatadigan so'zlar bilan bog'lana olishi ko'rsatildi:

YO'L OLMOQ *kim?* yoki *nima?*

YERGA URMOQ *kim? kimni ?* yoki *nimani?*

VOZ KECHMOQ *kim? kimdan?* yoki *nimadan?*

Ba'zi iboralarning sintaktik qurshovi ko'p qirrali va murakkab bo'ladi:

BOSH(I)NI YEMOQ *kim?* yoki *nima? kimning? kim? nimaning?* yoki [*o'zining*].

BAS KELMOQ *nima?* yoki *kim? nimaga?* yoki *kimga? nimada?*

Tayanch variant ikkita bo'lsa, sintaktik qurshov har birida ta'kidlandi:

BOSH(I) KO'KKA YETDI *kimning?*

BOSH(I)NI KO'KKA YETKAZMOQ *nima? kim? kimning?*

Izoh maqolasi ichida keltirilgan variantlarning sintaktik qurshovi tayanch variantnikidan farqli bo'lsa, shundagina ta'kidlandi:

BOSH(I)GA KO'TARMOQ I *kim? [o'zining] nimani?..* Varianti: **boshga ko'tarmoq** *kim? nimani?*

Tayanch variantdagi sintaktik qurshov boshqa variantda yo'qolsa, qavslar ichida minus alomati bilan ko'rsatildi:

KO'Z(I) KO'Z(I)GA TUSHDI *kimning? kimnikiga?..* Varianti: **ko'z ko'zga tushdi** (-).

Ko'p ma'noli iboraning barcha ma'nolarida sintaktik qurshov bir xil bo'lsa, buni ko'rsatuvchi olmosh sarlavhaning o'zida keltirildi:

AVJ OLMOQ *nima?* **1** rivojlanmoq... **2** zo'raymoq, kuchaymoq...

Sintaktik qurshov bir iboraning ma'nolariga ko'ra turlicha bo'lsa, buni ko'rsatuvchi olmosh har bir ma'noni boshlovchi arab raqamidan keyin, ma'noning ta'rifidan oldin keltirildi:

OYOQ OSTI BO'LMOQ 1 *nima?* poymol bo'lmoq, tahqirlanmoq... **2** *kim?* xor bo'lmoq, xo'rlanmoq...

Polisemantik iboraning ma'nolari sintaktik qurshovida umumiy va xususiy bog'lanish mavjud bo'lsa, yuqoridagi ikki usul bilan ko'rsatish birlashadi:

JON(I)GA ORO KIRMOQ *kimning?1 kim?* bir o‘limdan qutqarib qolmoq... **2 kim?** yoki *nima?* og‘ir ahvoldan qutqarmoq...

Havola maqolachasida sintaktik qurshov ta’kidlanmadi.

3. Fe’l iboralarni lug‘atga kiritish shakli ichki sintaktik qurilishi asosida belgilanadi: 1) birikmaga teng bo‘lsa, *-moq* shaklida kiritildi:

BOSH QOTIRMOQ;

b) gapga teng bo‘lsa, yaqin o‘tgan zamonning III shaxs formasida olindi:

BOSH(I) SHISHDI

Bir ibora har ikki sintaktik qurilishli variantga ega bo‘lsa, birinchi o‘rinda fe’l so‘z-komponentining morfema tarkibi sodda ko‘rinishli variant joylashtirildi:

BOSH(I) AYLANDI – BOSH(I)NI AYLANTIRMOQ

KO‘NGL(I)NI BUZMOQ – KO‘NGL(I) BUZILDI

Yuqoridagicha ikki xil qurilish ism iboraga xos bo‘lsa, birinchi o‘ringa nutqda ko‘p uchragan variant chiqarildi:

OG‘Z(I) KATTA – KATTA OG‘IZ

OQ KO‘NGIL – KO‘NGL(I) OQ

Ko‘p ma’nolilik ba’zan fe’l iboraning bosh nisbat shakliga emas, balki boshqa (masalan, orttirma) nisbat shakliga mansub bo‘ladi. Sinonimik munosabatda bo‘lish ham ba’zan iboraning yasama nisbat shaklidagi Variantida uchraydi. Ana shunday holatlarda sarlavhaga fe’l iboraning yasama nisbat shaklidagi Varianti chiqarildi, bosh nisbat shaklidagi Varianti ikkinchi navbatda berildi:

LARZAGA KELTIRMOQ *nima? nimani? 1* (konkret ot) go‘yo qattiq silkitganday, titratganday bo‘lmoq... Varianti: **larzaga keldi** *nima? nimadan?.. 2* (abstrakt ot) ruhan alg‘ov-dalg‘ov qilib yubormoq... Sinonimi: **larzaga solmoq** *nima? nimani?..*

4. Birikmaga teng fe’l iboradan keyin bosh kelishikdagi *kim?* olmoshi keltirilsa, bu ibora har uch shaxsda tuslanadi:

BIR KESAK BILAN IKKI QUYONNI URMOQ *kim?*

Tuslanishi: *bir kesak bilan ikki quyonni urdim, bir kesak bilan ikki quyonni urdingiz* kabi.


Birikmaga teng qurilishli iboradan keyin bosh kelishikdagi *nima?* olmoshi keltirilsa, bu ibora (birikmaga teng bo‘lishidan qat’i nazar) faqat III shaxsda ishlatiladi: **BIR PUL BO‘LMOQ** *nima?*

Shaxs-sonda ishlatilishi: *bir pul bo‘ldi, bir pul bo‘ladi, bir pul bo‘lsa* kabi.

5. Tuslovchining qavslarga olinishi shunday grammatik o‘zgarish har uch shaxsda bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunday paradigmaning vakili sifatida, asosan, III shaxs birligi ko‘rsatkichi olindi (III shaxsda ko‘rsatkich bo‘lmasa, ko‘p nuqta qo‘yildi):

BOG‘DAN KELSA(...), TOG‘DAN KELMOQ

6. Egalik affiksining qavslarsiz ishlatilishi ibora tarkibida shu shaxs nisbatlovchisining o‘zi qatnashuvini ko‘rsatadi:



KO'NGLI QATTIQ – QATTIQ KO'NGIL

Agar egalik affiksi qavslarga olingan bo'lsa, bog'lanish *kimning?* yoki *nimaning?* olmoshi bilan ko'rsatilganiga diqqat qilish kerak:

Kimning? olmoshi keltirilgan bo'lsa, egalik affiksining har uch shaxs-son shakli bilan kela oladi:

BOSH(I) OSMONDA *kimning?*

KO'NGL(I)NI OVLAMOQ *kim? kimning?*

Ham *kimning?*, ham *nimaning?* olmoshi keltirilgan bo'lsa, birinchi bog'lanishida har uch shaxs shaklida kela oladi, ikkinchi bog'lanishida esa egalik affiksining faqat III shaxs ko'rsatkichi bilan keladi:

MAZA(SI) QOCHDI *kimning? yoki nimaning?*

7. Ibora egalik affikslarining faqat ko'plik shakli bilan ishlatilsa, qavslar ichida *-lari* ko'rsatkichi keltirildi, qaratqich kelishigidagi olmosh ham ko'plikda berildi:

ORA(LARI) OCHIQ *kimlarning?*

Birikmaga teng iboraning faqat ko'plikda turlana olishi olmoshni ko'plik shaklida keltirish bilan ta'kidlandi:

GAPNI BIR JOYGA QO'YMOQ *kimlar?*

8. Faqat bo'lishsiz aspektida ishlatiladigan ibora: a) birikmaga teng qurilishli bo'lsa, lug'atga *-maslik* shaklida kiritildi; b) gapga teng qurilishli bo'lsa, *-madi* shaklida kiritildi:

KO'NGL(I)GA SIG'MASLIK

KO'NGL(I) BO'LMADI

9. Agar iboraning mayl, zamon shakllarida ishlatilishi cheklanishga ega bo'lsa, qavslar ichida shularning asosiy shakli ta'kidlandi:

BOSH(I)GA URMOQ [...ura(di)mi?!]

QO'L(I)DAN KELMOQ [...keladi]

10. Konkret bir shakldagina ishlatiladigan ibora lug'atga shu shaklning o'zida kiritildi:

KIM QO'YIBDI?!

OTA GO'RI – QOZIXONAMI?!

KO'Z OCHIB YUMGUNCHA

11. O'rni bilan boshqa xil grammatik izohlar ham berildi:

ANQONING TUXUMI topilishi qiyin, kamyob (kesim vazifasida keladi).

ONA(SI)NI UCHQO'RG'ONDAN KO'RSATMOQ 1 *kim? kimning?*

Do'q qilishni, qo'rqitishni ifodalaydi (bunda ibora II shaxs tuslovchisi va I shaxs egalik affiksi bilan ishlatilmaydi)... **2** *kimdir? uning?* Qo'rqishni, hadiksirashni ifodalaydi (bunda ibora I shaxs tuslovchisi va II shaxs egalik affiksi bilan ishlatilmaydi).

12. Ibora tarkibidagi fakultativ qism kvadrat qavslarga olindi: **BOSH(I) IKKI[TA] BO'LDI – BOSH(I)NI IKKI[TA] QILMOQ; VAHIMAGA SOL[IB QO'Y]MOQ**

13. Izoh maqolasida lugʻat sarlavhasidan (olmoshlardan ham) keyin frazeologik maʼnoga taʼrif berildi. Maʼno taʼriflarining aniq va ixcham boʻlishiga alohida diqqat qilindi. Frazeeologik maʼno, asosan, tasviriy yoʻl bilan taʼriflandi:

DOGʻDA QOLMOQ *kim?* biror narsa kutilganidek boʻlmagani tufayli oʻkinmoq, alamzada boʻlmoq.

DOD SOLMOQ *kim?* dod-voy qilmoq, qichqirmoq.

Tayanch variant sifatida ikkita variant keltirilgan boʻlsa, maʼno taʼrifi birinchi oʻrinda joylashgan variantga berildi; ikkinchi tayanch variantning oʻziga xos maʼno farqi uning grammatik qurilishi va birinchi tayanch variantga berilgan maʼno taʼrifi asosida aniqlanadi:

KOʻZ OLD(D)GA KELMOQ *nima?* yoki *kim? kimning?*– **KOʻZ OLD(D)GA Keltirmoq** *kim? nimani?* yoki *kimni?* [*oʻzining*] tasavvurida gavdalantirmoq.

Agar tayanch variantlar maʼnosi orasida sezilarli farq boʻlsa, ikkinchi tayanch variantning maʼnosi mustaqil taʼriflandi va oʻrni bilan qoʻshimcha izohlar ham berildi:

BOSH(I) IKKI[TA] BOʻLDI *kimning?*– **BOSH(I)NI IKKI[TA] QILMOQ** *kim? kimning?* yoki [*oʻzining*] uylanmoq – a) uylantirmoq (egalik affiksi bilan tuslovchi boshqa-boshqa shaxsni bildiradi); b) uylanmoq (egalik affiksi bilan tuslovchi bir shaxsni bildiradi).

Frazeologik maʼnoning tabiatini ochishda oʻrni bilan quyidagicha izohlar ham foydalanildi:

1. Frazeeologik maʼno aniq leksik kontekstga ega boʻlsa, izoh qavslar ichida maʼno taʼrifidan keyin qoʻshiroqqa olib keltirildi:

BIR OGʻIZ juda oz, jinday, qittay («gap» yoki «gapirmoq»)

BOZOR BAHOSI hamma qatori, hech yon bosmay; boshqalarga qanday boʻlsa, unga ham shunday («muomala qilmoq»).

2. Frazeeologik maʼnoning yoshga, jinsga xoslanganligi ham oʻrni bilan taʼkidlandi:

BOʻY(I) YETDI *kimning?*– **BOʻYIGA YETMOQ** *kim?* [*oʻzining*] yoshi oila qurish darajasiga bordi (qizlarga nisbatan).

3. Zarur oʻrinlarda maʼno taʼrifidan keyin qavslar ichida nutqiy, stilistik izoh berildi:

AHAMİYAT BERMOQ *kim? kimga?* zarur, foydali, deb qarab diqqat qilmoq (rasmiy).

4. Lugʻat maqolasining izohlash qismida shundan keyin, agar mavjud boʻlsa, shu iboraning Varianti keltirildi:

ARAVANI QURUQ OLIB QOCHMOQ *kim?* uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. Varianti: **aravani olib qochmoq; olib qochmoq; quruq aravani olib qochmoq.**

Variantlardan keyin (mavjudligiga qarab) shu iboraning sinonimi, antonimi keltirildi:

KOʻNGLI QATTIQ – QATTIQ KOʻNGIL rahm-shafqati yoʻq. Varianti: **tosh koʻngil; tosh koʻngilli; tosh koʻngil [ekan]lig(i)** *kimning?* Si-



nonimi: **tosh yurak – yuragi tosh**. Antonimi: **ko‘ngl(i) bo‘sh; ko‘ngl(i) yumshoq – yumshoq ko‘ngil**.

5. Lug‘at maqolasida izohlar qismidan keyin kontekstli misollar berildi. Bu misollar mumkin qadar turli mualliflardan yoki bir muallifning turli asarlaridan keltirildi, to‘plangan misollar orasidan eng yaxshilari saralab olindi. Har bir variant, asosan, bitta, ba‘zangina ikkita misol asosida izohlandi. Lug‘at maqolasida misol matnlari *kursiv* bilan berildi, har bir misol oxirida muallif va asar nomi ta‘kidlandi. Misol matnidagi ko‘p nuqta shu gap qisqartirib olinganini bildiradi. To‘g‘ri tushunishni ta‘minlash maqsadida ba‘zi misol matniga ayrim so‘zlar kiritildi; bunday so‘zlar kvadrat qavslarga olindi.

6. Agar ibora ko‘p ma‘noli bo‘lsa, har bir ma‘nosi arab raqami bilan ajratildi; lug‘at sarlavhasidan tashqari qism har bir ma‘noda qaytarildi. Ko‘p ma‘noli iboraning ikkinchi va keyingi ma‘nosi yangi satrdan boshlandi.

7. Omonim va omoforma iboralar rim raqamlari qo‘yilib, lug‘atga mustaqil kiritildi:

USTIDAN CHIQMOQ I ...

USTIDAN CHIQMOQ II ...

Omonimiya iboralarning lug‘atga kiritilgan barcha variantlari bo‘yicha ta‘kidlandi:

GAP TEGDI I

GAP TEGDI II – GAP TEGIZMOQ

JONI CHIQDI I

JON(I) CHIQDI II – JON(I)NI CHIQARMOQ

JON(I) CHIQDI III: jon-pon(i) chiqib ketdi I

JON-PON(I) CHIQIB KETDI I

JON-PON (I) CHIQIB KETDI II: jon(i) chiqdi II

LUG‘ATDAN FOYDALANISH TARTIBI

1. Ibora lug‘atdan alifbo tartibida qidiriladi.

2. Qidirilgan ibora havola maqolasi sifatida berilgan bo‘lsa, lug‘atdan havola maqolasining ikki nuqtadan keyingi qismi (shu iboraning tayanch Varianti) qidiriladi.

3. Ibora topilgach, avvalo, bu iboraning ma‘no ta‘rifi bilan tanishiladi, so‘ngra shu ma‘noni aks ettiruvchi misol o‘qiladi. Frazeologik ma‘noni chuqur anglash uchun uning sinonimi, antonimi qiyoslab o‘rganiladi. Sinonimlarni qiyoslash asosida eng maqbul ibora topiladi.

4. Iboraning variantlari bilan tanishib, zarur yoki maqbul variant topiladi.

5. Frazeologik birlikning (frazeologik ma‘noning) grammatik nutqiy, stilistik belgi-xususiyatlari bilan tanishiladi.



«ALI» DESA(...), «BALI» DEMOQ kim? aytishmoq, e'tiroz javobini bermoq. Sinonimi: **gap qaytarmoq 2 kim? kimga?;** «dard» desa(...), «balo» demoq kim?

«Traktorhilar o'z odamlarimiz. Yer bizniki, ekin bizniki. Ularni qanday ishlatishni o'zimizga qo'yib beringlarda». – «Ali desa, «Bali» deysan-da, Komil». I.Rahim. Ixlos. Haq gap oldida odam g'iring demas ekan: «Ali» desa, «Bali» deydigan o'jar kishi churq etolmadi-ya... S.Ahmad. Kuyov.

a'zoyi badan(i)dan ter chiqib ketdi: a'zoyi badan(i)dan sovuq ter chiqib ketdi

A'ZOYI BADAN(I)DAN SOVUQ TER CHIQUIB KETDI kimning? – **A'ZOYI BADAN(I)DAN SOVUQ TER CHIQUIB KETDI** kimning? ruhiyatida juda keskin o'zgarish sodir bo'ldi – ruhiyatini juda keskin o'zgartirdi. Varianti: **a'zoyi badan(i)dan ter chiqib ketdi; badan(i)dan ter chiqib ketdi; peshana(si)dan sovuq ter chiqdi; ter chiqib ketdi.**

Institutga yetib qolganimda to'plangan yoshlar orasida birga imtihon topshirgan tanish qiz-yigitlarga ko'zim tushib, to'satdan yuragim shuv etdi-yu, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqib ketdi. O.Yoqubov. Muqaddas.

Bu fikr Sherbekning a'zoyi badanidan sovuq ter chiqarib yubordi. S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi. «Ho'kuyov bola!» – «Labbay, aka!» Kuyov pildiragancha yetib keldi... Ashraf amaki yuzini chirt o'girdi. A'zoyi badanidan ter chiqib ketdi. S.Anorboyev. Kuyov. Injener sevgan xotinidan bu kutilmagan og'ir javobni eshitganidan keyin badanidan sovuq ter chiqib ketdi. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. «Shuni aytib bering, haligi so'zlaringizga ishonmay iloj qolmaydi», – so'radi Toshpo'latov sinovchi ko'z bilan Rubinga tikilib. Rubinning peshonasidan sovuq ter chiqdi. G'.Ahmadiy. Kamolot. Sherbekning qiliqlarini ko'rib, mendan ter chiqib ketdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

a'zoyi badan(i)dan sovuq ter chiqarib yubormoq: a'zoyi badan(i)dan sovuq ter chiqib ketdi

A'ZOYI BADANIDAN O'TIB KETMOQ kimning? o'ta xafa bo'lmoq. Varianti: **badanidan o'tib ketmoq.**

– Sarvi, baland poshna tuftli olib berayinmi? Harna bo'ying cho'zilar-di, – dedi hazil aralash. Erining bu gapi Sarvi xolaning a'zoyi badanidan o'tib ketdi. S.Anorboyev. Otaning xayollari.

ABJAG'(I) CHIQUIB KETMOQ – ABJAG'(I)NI CHIQUIB KETMOQ 1 kimning?

kim? kimning? qattiq jarohatlanmoq. Sinonimi: **iyig'(i) chiqdi I kimning?**

Bir hovuch pul uchun aqldan ozib, Butun dunyoni ham yoqishga tayyor. Bu – o'sha abjag'i chiqqan jahongir, Bu – o'sha o'limtik, jodugar ayyor. Uyg'un. Hayot chaqirig'i. Fashistni ur, abjag'ini chiqar, u yog'i bilan ishing bo'lmasin. Oybek. Quyosh qoraymas.

2 nimaning? kim? nimaning? sifatini yo'qotib, yaroqsiz holga kelmoq. Sinonimi: **dabdalasi chiqdi nimaning?** – **dabdalasini chiqarmoq 1 kim? nimaning? iyig'i chiqdi 2 nimaning?**

Aksariyat traktorlar remont qilingani yo'q. 29 mashinaning abjag'i chiqib yotibdi. «Mushtum»dan. Yapyangi etikning bir yildayoq abjag'ini chiqarib yubording. So'zlashuv uslubi.

abjag'(i)ni chiqarmoq: abjag'(i) chiqdi

ADAB(I)NI BERMOQ *kim? kimning?* – **ADAB(I) BERILDI** *kimning?* qilmishiga yarasha jazolamoq. Sinonimi: **jazo(si)ni bermok kim? kimning?**

Xalilovdan gunohingni so'rab oldim. Bo'lmasa adabingni berardi. I.Rahim. Ixlos. Izzatini bilmagan itvachchani tutib, adabini berdirmasam, Madumar otimni boshqa qo'yib yuboraman. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ADAB(I)NI YEMOQ *kim?[o'zining]* qilmishiga yarasha jazo olmoq. Sinonimi: **ta'zir(i)ni yemoq kim?[o'zining].**

Bir karra adabini yegan Edgar Gladston ... endi siyosatni suv qilib ichib olgan edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

ADAMAYLAMOQ *kim?* yo'qotmoq, yo'q qilmoq.

Adam yo'lini tutay zarra menda g'am bo'lsa. Bobur.

ADI-BADIGA BORMOQ *kim?* [*kim bilan?*] janjallashuv darajasiga yetmoq. Sinonimi: **«san-man»ga bormok kim? kim bilan?**

... ammo bu tashkilotlar biror vazifa topshirsa, hech adi-badiga bormas, ko'ngliga yoqmasa ham, bajarar edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Xayriyatki, Zarofat uncha-muncha gapni ko'ngliga olmay, adi-badiga bormay, Haydarni «jonim-jonim» deb, kulib yengishga intilar edi. M.Muhammedov. Gavhar.

adi-badi deyishmoq: adi-badi aytishmoq

ADI-BADI AYTISHMOQ *kimlar? o'zaro 1* turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashmoq.

Ba'zi gaplarini ichimda «Nafsil amr» deb tinglar edim. Adi-badi aytishib, qizning uyiga kelganimizni ham bilmay qolibmiz. G'.G'ulom. Yigit.

2 so'z talashmoq, janjallashmoq. Varianti: **adi-badi deyishmoq.** Sinonimi: **u desa (...), bu demoq, bu desa(...), u demoq kim?**

Arzimagan narsaga adi-badi aytishib o'tirmanglar, o'g'lim, uyat bo'ladi... H.Nazir. Javob. Mahmud aka bu bosh og'rig'i boy o'g'illari bilan adi-badi deyishib o'tirishlikni o'ziga ortiqcha bilib, ildam yurib o'tib ketdi. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

ADO BO'LMOQ *kim?* juda qiyalmoq, azoblanmoq, tugamoq.

Quyosh qip-qizil cho'g' bo'lib botayotgan cho'l oqshomida hijronza-

da, alamzada, farzand dog'ida kuyib ado bo'lgan onani tuproqqa qo'yishdi. S.Ahmad. Ufq.

adovat tuxumini sepmoq: adovat urug'ini sochmoq

adovat tuxumini sochmoq: adovat urug'ini sochmoq

adovat urug'ini sepmoq: adovat urug'ini sochmoq

ADOVAT URUG'INI SOCHMOQ kim? ig'vo tarqatmoq, gijgijlammoq, bir-biriga tezlamoq.

– So'zingizda yanglish bor, qush-begi! Agar siz nafsilamrga qarasangiz, ikki xalqni bir-biriga sovuq ko'rsatib, adovat tuxumini sochib keluvchi bir nechagina odam bor. A.Qodiriy. O'tkan kunlar.

adov(i)ni bermoq: adab(i)ni bermoq

adov(i)ni yemoq: adab(i)ni yemoq

ADOYI TAMOM BO'LMOQ ayn. ado bo'lmoq.

O'yinchoq adoyi tamom bo'ldi. Bechora kampir bu shum xabardan adoyi tamom bo'ldi-ku! S.Ahmad. Oydin kechalar. – Shu-u... shu-u... – Saidmurod adoyi tamom bo'lib, beixtiyor muzxona o'rtasida turganday qalt-qalt titray boshladi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

ADRESI YO'Q betayin, tuturuqsiz.

Adresi yo'q odam bilan jo'ra bo'l-gandan keyin ahvoling shu bo'ladi-da, o'g'lim. M.Muhamedov. Gavhar.

AFLOTUN MIYA bilimdon, juda aqlli, donishmand.

Shuning uchun men seni aplotun miya deyman-da. Mushtum.

afrosiyobdan qolgan: almisoq-dan qolgan

AFSONA BO'LMOQ kim? el-xalqqa gap-so'z bo'lmoq, elga doston bo'lmoq.

Izlab seni har ko'chada, El ichra ko'p sharmanda ham afsona bo'ldim. Hamza. Sog'inib.

AFSUS YEMOQ kim? afsuslanmoq, achinmoq, o'kinmoq, pushaymon bo'lmoq.

Shu o'tirishga borganligimdan afsus yedim, bilmasdan borib qolibman. Mushtum.

AFT(I)GA QARAB BO'LMAYDI kimning? bosh-ko'zi nihoyatda loy, chang-to'zon.

Gohda terga pishib, gohda changga belanib ketadi. Aftiga qarab bo'lmaydi. I.Rahim. Hilola.

AFT(I)NI YEL YOPSIN kimning? qarg'ashni bildiradi (ayollar nutqiga xos). Sinonimi: **bet(ing) qursin** kimning?

«...otincham bo'larkan, aftini yel yopsin haromxo'ring», – javob qildi oshpaz ijrig'anib. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

aft(ing) qurg'ur: bet(ing) qursin

aft(ing) qursin: bet(ing) qursin

afti sovuq: so'xtasi sovuq

AFV ETMOQ (yoki QILMOQ) kechirmoq, uzrni qabul qilmoq, gunohidan o'tmoq.

Bu lapashangligimiz uchun rahnamalarimiz bizni avfeturlarmi? H.G'ulom, Mash'al.

AHAMIYAT BERMOQ kim? nimaga? zarur, foydali deb qarab diqqat qilmoq (rasmiy).

U hali ko'proq boshqa xayol-lar bilan bosh qotirib, bu tomonlar-ga ahamiyat bermagan edi. Oybek. Qutlug' qon. Sizlar hozir masalaning nazariy tomonini olib, amaliy tomoni-ga uncha ahamiyat bermayapsizlar. P.Qodirov. Uch ildiz.

AHD QILISHMOQ ayn. ahd-lashmoq.

[Tantiboyvachcha] kechqurun Gul-norga borishga vagonchi bilan ahd qilishganligi yodiga tushdi. Oybek. Tanlangan asarlar.

AHMOQ QILMOQ kim? kimni? laqillatmoq, aldamoq.

Nima meni yana ahmoq qilmoq-chimisiz? Bu nomeringiz o'tmaydi, bizni ham savodimiz chiqib qolgan. Sharq yulduzi.

AHVOLI TANG kimning? juda qiyin ahvolda qolmoq.

Muydin qo'rboshining ahvoli tang. Yigitlari qochib ketdi. Y.Shukurov. Qa-sos.

ahvol(i)ga maymunlar yig'lay-di: hol(i)ga maymunlar yig'laydi

AJAB BO'LDI (yoki BO'PTI) juda yaxshi bo'ldi, ko'ngildagiday bo'ldi (biror kimsa qilmishiga yara-sha jazo olganda aytiladigan ibora).

...gazetada chiqqan felyetonni ko'r-gan Hafiza.. ajab bo'libdi, dermi-kan? Yoki achinarmikin? Mirmuhsin. Umid.

AJAB QILMOQ kim? boplamoq.

Mana shunday vaqtlarda til qo-tib og'izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi, – Ajab qildim, – dedi Turobjon, – jigar-laring ezilib ketsin. A.Qahhor. Anor.

AJAL HAYDAB KELMOQ kim-ni? tasodifan o'limga duch kelmoq. Varianti: **ajal qistamoq.**

Abdusamad hojini ajal haydab kelgan ekan... Juda ko'p tuzoqlardan chiqib ketgan edi, bu gal omadi kel-madi. H.Shams. Dushman.

ajal qistamoq: ajal haydab kel-moq

AJAL TEGMASLIK kimga? hech narsa bo'lmaslik, o'lmaslik.

Bu yerda quzg'unning rizqi osh-sa oshadiki, o'ziga ajal tegmaydi. A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.

ajal tortmoq: ajal chaqirmoq

AJAL TO'NINI BICHMOQ kim? kimga? o'ldirishga shaylanmoq, o'li-mi hozirligini ko'rmoq.

Ajal to'nin bichib, minganman otga. «Go'ro'g'li». Yovga kirmay bo-tir, dushman sanchmaydi, Yov bo'lma-yin ajal to'nin bichmaydi. «Yusuf va Ahmad».

AJAL URUG'INI SEPMOQ kim? qirg'in qilmoq, ko'p odam o'l-dirmoq, qiyratmoq.

Balki ajal urug'ini sepib, bosib yanchib kelayotgan anovi krest tam-g'ali tanklardan qo'rqayotgandir?! S.Anorboyev. Safda.

AJAL CHAQIRMOQ kimni? o'limga duch kelmoq.

Umar qamoqxonada bir do'stini izlab sekin borgan edi, qo'lga tushib qoldi. Soqi bosmachi unga «Seni ajal chaqirma, bu yerda nima qilar-ding» – dedi. Y.Shukurov. Qasos.

AJAL(I) YETMOQ kimning? o'lim soati, qazosi yetmoq.

Qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Maqol. Ajal yetsa, jon ayrilar

bu tandan. «Murodxon». Jallodlar zulmida og'ir kun ko'rdim. Yetmayin ajalim, qutulib qoldim. «Rustam».

AJAL(I)DAN BESH KUN BURUN qazo qilishning o'z vaqtisoatidan ilgariroq, bevaqt.

Qani, bo'ling, daftaringizni tezroq chiqaring, hisobingizni to'g'rilab, tezroq jo'nalib, bo'lmasa bu yerda muzlab qolib, ajalimizdan besh kun burun o'lamiz. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. O'g'rilar teshib, oldimga chiqqanlarida, men nima qila olar edim. Oh, otajon! Men ajalimdan besh kun burun o'lar edim. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

AJINA CHALMOQ kimni? jin tegib, aqldan ozdirmoq. Varianti: **jin chalmoq, jin tegmoq.**

Falonchi odam yong'oq tagida uxlab yotgan ekan, ajina chalib ketibdi. Oybek. Tanlangan asarlar.

AJRIQQA AG'NAGANDAY kim? notinch, bezovta holda azob chekib (yotmoq).

[Homid] *O'sha kuni tuni bilan ajriqqa ag'anagandek uxlolmapti.* Sh.G'ulomov. Baxt bo'stoniga.

AKASI BO'YIDAN erkaklar nutqida qo'llanib, modal ma'no ifodalaydi.

Ishlovni kuchaytirmasak, akasi bo'yidan, grafikni bajarish dumi xo'rjun bo'lgudek. Mushtum.

AKSIGA OLMOQ (yoki **YURMOQ**) **1** nima? xohish-istakka yoki buyruqqa qarshi ish tutmoq, kesma-kesarlik qilmoq. **2** xohish-istakka qarshi yuz bermoq.

Aksiga olib, yomg'ir yog'di. So'zlashuv uslubi.

ALAM KETMOQ [alam ket=] tar. kimdan? xafagarchiligi tarqamoq, g'amlari unutilmoq.

Bir yera azm etib alam ketti, Keli-bon pardaga itob etti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALAM TOSHI SINMOQ [alam taši sin=] tar. kimning? dilidagi xafagarchilik bartaraf bo'lmoq.

O'nginda tushdakin ko'rganga u shod, Alam toshi sinib, dil bo'ldi ozod. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

ALAMI KELMOQ kimning? achchiqlanmoq, xunob bo'lmoq.

Katta umid bilan kelganida, yagona sirdoshi va ishongan tog'i O'laxo'janing yaxshi qarshi olmaganiga juda alami keldi. P.Tursun. O'qituvchi.

ALAMINI ICHIDA SAQLAMOQ kim? yomon niyatini sir tutmoq, qulay payt poylamoq, vaqtincha kutmoq.

Gapning mazmuniga qaraganda, bor alamini ichida saqlab, payt poylab yurganga o'xshaydi. P.Tursun. O'qituvchi.

ALAMINI ICHIGA YUTMOQ kim? dardini hech kimga aytmaslik.

– *Ha, alamimni ichimga yutib, judolik oqibatiga bardosh bera olishim mumkin. Ammo og'ir haqoratlarga, achchiq ta'nalarga bardosh bera olmayman.* Uyg'un. Hurriyat.

ALAM(I)NI OLMOQ kim? [o'zining] kimdan? alamzadaligini tarqatish uchun zulm qilmoq.

Bir narsa yetishmasa, ona alamini nuqul Bekdan olardi. A.Muxtor. Tug'ilish. Befarzandlik alamini fuqarodan olarkan. S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

alam(i)ni chiqarmoq: alamdan chiqmoq

alam chekmoq: azob chekmoq

ALAMDAN CHIQQOQ kim? urib-so'kib, o'ch olib, alamzadalikni tarqatmoq. Sinonimi: **xumordan chiqmoq** kim?

Qani endi shu topda Haydar uning ko'ziga ko'rinsa-yu, achchiq-achchiq gapirib, alamdan chiqsa! M.Muhamedov. Gavhar. «Boplandi-a! – dedi va kuldi. – Bir alamdan chiqqandirsiz?» P.Qodirov. Uch ildiz.

alam(i)dan chiqmoq: alamdan chiqmoq

ALANG-JALANG BO'LIB QOLMOQ kim? nima qilishini bilmay qolmoq, hayron bo'lib qolmoq.

Isoqvoyning ko'zi quvonganidan alang - jalang bo'lib qoldi. Mushtum.

alanga oldirmoq: alanga olmoq.

ALANGA OLMOQ nima? kuchaymoq, zo'raymoq, shiddatli tus olmoq («g'azabi», «nafрати»). Varianti: **alanga oldirmoq** nima? yoki kim? nimani?

Yo bu nafsoniyat bir qalov bo'lib, boshqa kattaroq bir nafsoniyatni alanga oldirib yubordimikin? A.Qahhor. Sinchalak. Hozirgacha ham yonmagan yurak bo'lsa, mana shuni eslatishing bilan alanga oladi. Alanga oldir. A.Qahhor. Asror bobo.

ALANGA USTIGA KEROSIN QUYMOQ kim? keskinlashtirmoq, kuchaytirmoq, gijgijlamoq. Varianti: **alanga ustiga moy quymoq.**

– Qo'ying, siz ham, xunobimni oshirib, tutoqtiravermang, alanga ustiga kerosin quymang. B.Rahmon. Yurak sirlari.

alanga ustiga moy quymoq: alanga ustiga kerosin quymoq

ALI BOG'LI [eli bayli] tar. kimning? imkoni yo'q.

...boylardan boshlab so'zni bu yerga kelturdikim, faqirlarning qudrati ali bog'li dag'i boylarning irodati ayog'i sinib turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALI OVUCHI TOR [eli avuçi] tar. kimning? moddiy imkoniyati cheklangan, kambag'al. Sinonimi: **qo'li yupqa, qo'li yuqa.**

Ali ovuchi tor miskinlarga oltun aqcha ulashturdi dag'i musofirlarga sufralar to'kdi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINI KO'RIB, VALI DEMOQ kim? adashmoq, noto'g'ri tushunib yurmoq.

– Voy aylanay, biz Alini ko'rib, Vali deb yurgan ekanmiz. B.Halil. Sovchilar.

alifni ham bilmaydi: alifni kaltak deyolmaslik

ALIFNI KALTAK DEYOLMASLIK kim? g'irt savodsiz bo'lmoq, hech narsa bilmaslik. Varianti: **alifni tayoq deyolmaslik; alifni tayoq demoq.** Sinonimi: **qorn(i)ni yorsa(...), alif chiqmaydi kim? kimning? alifni ham bilmaydi kim?**

Yo'g'e, qanaqa qilib o'qirdim. Alifni kaltak deyolmayman-ku. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Men-ku bunday masalada alifni tayoq deyolmayman, ammo injenerlarga ishonaman. Oybek. Oltin vodiyan shabaldar. Alifni tayoq deydigan savodsiz Xurram kal bilan yoshligida «Haf-tiyak»ka tushmayoq maktabga bormay qo'ygan usta Zamon... Sh.Toshmatov. Erk qushi.

alifni tayoq deyolmaslik: alifni kaltak deyolmaslik

alifni tayoq demoq: alifni kaltak deyolmaslik

ALIK OLMOQ *kim?* salomlashganda javob soʻzini aytmoq («salom» demoq, «vaalaykum assalom» demoq). Varianti: **salom(i)ga alik olmoq** *kim? kimning?* Antonimi: **salom bermoq** *kim? kimga?*

Ochil unga rasmiy salom berar, Zamira ham shunga yarasha alik olardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Salom bersangiz, «bekor aytibsan» deganga oʻxshab alik oladigan odam shirin soʻz boʻlib hol-ahvol soʻradi.* A.Qahhor. Xotinlar. *Nazir ota bu gal uning salomiga alik olmay, «Beting qursin!» deganday yuzini teskari oʻgirib oʻtib ketdi.* S.Ahmad. Kuyov.

ALIN, AYOQIN OʻPMOQ [elin, ajaqin öp=] tar. *kim? kimning?* hurmat koʻrsatmoq.

Kemachi istigʻfor keturub, nifoq bilan borishib, yigitning alin, ayoqin oʻpub, kemaga kirib kettilar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN-ALGA URMOQ [elin el-gä ur=] tar. *kim?* jon kuydirib, astoydil tushuntirmoq.

Alin alga urub aytqay jazodur, Oʻgut olmas kishiga buyla mehnat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN QISQA QILMOQ [elin qışqa qıl=] tar. *kim? nimadan?* nafsni tiyib, dunyo neʼmatlaridan voz kechmoq.

Dagʻi dunyoning havo va havasinda alin qisqa qildi. Ani koʻrub, hasudlarning tili uzun boʻldi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN TISHLAMOQ [elin tış-la=] tar. *kim?* bajargan ishidan yoki xatti-harakatidan afsuslanmoq. Varianti: **barmogʻini tishlamoq.**

Bir ishni kim oʻfka bilan ishlagay, Qilib, hayf, soʻngra alin tishlagay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN TUTMOQ [elin tut=] tar. *kimning? nima?* hamroh boʻlmoq.

Gar saodat yana alin tutsa. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN UZAT= [alin uzatmoq] tar. *kim? kimga?* yoki *nimaga?* taʼma qilmoq, koʻz olaytirmoq.

Bir sulton oʻz raiyati molina zulm alin uzatib javr eta boshladi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIN CHEKIB [elin çek=] tar. *kim? kimdan?* ozod qilmoq, qoʻyib yubormoq.

Hokim andan alin chekib aytti... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINA TUSHMOQ [elinä tüş=] tar. *kim?* ilojisiz qolmoq, birovning iznidan chiqa olmaslik.

Shukr qilkim, bir muʻjib yigit alina tushmading kim, har kun bir havogʻa uchkay... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINDA BOR [elindä bar=] tar. *nima? kimning?* bor, mavjud.

Aningkim bor elinda mansab-u joh, Solib tarh ul qilur doyim tijorat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINDAN KELMASLIK [elindän kelmä=] tar. *kimning?* bajara olmaslik, qila olmaslik.

Nechun quri qamishdan shakkar tamaʻ qilursan. Kelmas boʻri alin dan farvachilik bilursan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.



ALINDAN OLMOQ [elindän al=] tar. *kim? kimning?* tortib olmoq, ega chiqmoq, egallamoq.

Ul malikim doim elga va ulusqa kuch qilur, Oqibat mulkin alindan bir qaviy dushman olur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINI ETAKINDAN CHEKMOQ [elin etäkindin çek=] tar. *kim? kimning?* ajralmoq, uzoqlashmoq. Sinonimi: **yoqasini uzmoq, yoqasini ayirmoq.**

Xotirima xush kelmadi, alimni etakindan chekib ayttim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINI KO'TARIB [elin kötär=] tar. *kim?* qo'llarini duoga ochmoq, duo o'qish maqsadida qo'llarini juftlab ochmoq. Varianti: **qo'llarini ko'tarmoq, qo'llarini ochmoq.**

Duo vaqtin tazarru'ning alini ko'tarib tangridan rahmat tilarsan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALINING KEKININ VALIDAN OLMOQ *kim?* alamini boshqadan olmoq.

Bu kutish kunlarimda na uchundir yonimdagi xalfa shogirdlar bilan bo'ladigan muomalalarim ham o'zgarib boshlagan, ya'ni so'zlarim dag'al va tundlikka aylangan, go'yo buning ila Alining kekini Validan olardim. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

ALINGDA SULAYMONCHA QUVVAT BO'LMOQ [elindä Sulajmanča quvvat bol=] tar. *kimning?* mansabdor bo'lmoq, hokimiyatga ega bo'lmoq.

Qorancha xotirin ozor qilma, Sulaymoncha alingda bo'lsa quvvat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ALIXO'JA – XO'JAALI bari bir, har ikki holatda ham o'zgarish yo'q.

Orada yana kambag'al, o'rta hol, mushtumzo'r degan gaplar kelib chiqadi. Batrak, kambag'al yana kulak eshigiga xizmatga keladi. Alixo'ja – Xo'jaali deb shuni aytiladi. P.Tursun. O'qituvchi.

ALJIB QO'YMOQ *kim? nima haqida?* sirni beixtiyor aytib qo'yimoq.

– *Oh, bilib qoldilarmi? – dedi u va o'z peshonasiga qattiq mushtladi-da, yana so'radi: – Nima balo, mastlik qilib biror joyda aljib qo'yildingmi?* P.Tursun. O'qituvchi.

ALMISOQDAN BERI juda qadimdan. Varianti: **almisoqdan buyon.** Sinonimi: **daqyonusdan beri.**

...almisoqdan beri otquloq ham unmay yotgan Mirzacho'dan shunchalik hosil olsak, yomonmi? A.Muhiddin. G'anisher. Almisoqdan buyon tegirmon toshlarini aylantirgan bu suv endi boshqa ishga xizmat qilsin. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

almisoqdan buyon: almisoqdan beri

ALMISOQDAN QOLGAN juda eski, qadimgi. Sinonimi: **daqyonusdan qolgan; Odam atodan qolgan, Amir Temurdan qolgan, Afrosiyobdan qolgan.**

Arava bo'lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. Shu ot, shu arava bilan shaharga yuk olib borarmidingiz?! Oybek. Qutlug' qon. Mana, odamlar ...paxtalarni almisoqdan qolgan chig'iriqda emas, mashinada chiqarishyapti. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ALOQA(SI)NI UZMOQ *kim? [o'zining] kim bilan?* muomalada bo'

lishni uzil-kesil to'xtatmoq. Varianti: **aloqani uzmoq** kim? kim bilan? Sinonimi: **orani uzmoq** kim? kim bilan?

Nigora Sherbek bilan allaqachon aloqasini uzishga uzgan-u, lekin negadir o'zi bilan ham muomalasi ko'ngildagiday emas. S.Anorboyev. Oqsoy. *Roziya bilan aloqani uzib borgan kunlari ular bir joyda uchrashib, gaplashib qoldilar.* O.Yoqubov. Tilla uzuk.

aloqani uzmoq: aloqa(si)ni uzmoq

ALG'OV-DALG'OV QILMOQ kim? qayerni? to's-to'polon qilmoq, ostin-ustin qilmoq.

Urush qishloqni alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. I.Rahim. Chin muhabbat.

ALCHOQ KO'NGULLI [alchaq ko'ngüllü] tar. kamtar, samimiy, sofdil, g'ayirlikni bilmaydigan. Sinonimi: **ko'ngli ochiq, ochiq ko'ngil.**

Karimunnafs, sohib xulq, buyuk himmatli, alchoq ko'ngulli ulug'a, kichikka e'zoz va ikrom va ehson qilib, g'aybatlarinda xayrin so'zlar edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

AMAL TEGDI kimga? mansabdor bo'lib qolmoq.

Ammo, qizim, senga bitta gapim shuki, amal tegdi deb oshiqma. I.Rahim. Ixlos. *Bo-o Xudo! Ammangga ham amal tegib qolgan. Kecha-yu kunduz churvaqalar bilan o'ralashgani-o'ralashgan.* H.Nazir. Tomosha.

amal(i)dan tushmoq: amaldan tushmoq

AMALDAN TUSHMOQ kim? egallab turgan lavozimini yo'qotmoq.

Varianti: **amal(i)dan tushmoq** kim? [o'zining]. Sinonimi: mansab(i)dan tushmoq.

«Tilginangga tilkichak chiqqur malla, – deb qarg'adi ichida Abdulaziz boqqol. – «Pochcham», «jiyanlarim» dey qolsa, amaldan tushib qolarmidi!» S.Anorboyev. Oqsoy. *O'zi, Hakimov amalidan tushganidan beri Ziyinatullayev unga juda hurmat-sizlik bilan muomala qiladigan bo'lib qolgan edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

AMALGA MINMOQ kim? yuksak lavozimni egallamoq.

Hamma idoralarga kirib, ishini ko'raverar ekan... Katta amalga minibdi. A.Qahhor. Sarob.

amalga oshirilmoq: amalga oshmoq

amalga oshirmoq: amalga oshmoq

AMALGA OSHMOQ nima? – **AMALGA OSHIRMOQ** kim? nima? voqelikka aylanmoq. Varianti: **amalga oshirilmoq nima?**

Bu ishga ham birorta azamat bosh qo'shsa, ajab emas, amalga oshib qolsa. Oydin. Farhodlar. *Endi bularni amalga oshirish «Kichik garnizon»ning jangovarlik qobiliyatiga bog'liq edi.* M.Muhamedov. *Kichik garnizon. Institutga xat yozib, aloqa bog'lash fikri tug'ilib qoldi. Bu fikrni ham darrov amalga oshirdim.* O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

AMERIKA OCHMOQ kim? yangilik ijod qilmoq, kashf qilmoq.

Men sizga Amerika oching deytoganim yo'q-ku. Mushtum.

Amir Temurdan qolgan: almisoqdan qolgan



AMMAMNING BUZOG'I landavur, lapashang.

«*Bektemirdan ko'nglim to'q, – dedi Ali tajang, – kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho'tir – u ham qo'rqoq, ham ammamning buzog'i*». Oybek. Quyosh qoraymas.

ammamning buzog'iday: ammamning buzog'i

AMR QILMOQ (yoki ETMOQ) kim? kimga? buyruq bermoq, buyurmoq.

Janoblari amr qilgan ekanlar, xizmatlariga bosh egib keldim. N.Safarov, Uyg'onish.

AMRI MAHOL nima? qilish qiyin, amalga oshirish qiyin.

Saidg'ozidan yo'lkira undirish amri mahol. S.Anorboyev. Oqsoy. *Qudrat unga gap uqtirish amri mahol ekani ni sezdi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Lekin bari bir maqsadga yetmoq amri mahol bo'ldi – mening tahsilim chala qoldi.* Oybek. Nur qidirib.

amr mahol: amri mahol

AMRIDAN CHIQMASLIK kim? kimning? aytganini qilmoq, bo'ysunmoq.

Sen mendan ilmlisan, biroq men sendan kuchliman. Shuning uchun amrimdan chiqmaysan, kelin! Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli.

ANA-MANA DEB mayda-chuyda sabablar bilan kechiktiraverib.

Ana-mana deb oradan bir oycha vaqt o'tdi. S.Anorboyev. Eh, yomon bo'ldi. ...*biz ana-mana deb shu vaqt-gacha sudrab keldik.* H.Nu'mon. Fasllar.

ana-mana deguncha: ana-mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha

ANA-MANA DEGUNCHA, KAMPIR SHAFTOLI YEGUNCHA juda tez. Varianti: **ana-mana deguncha.**

Ana-mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha, Avazxon qo'rg'ondan o'tdi. Islom shoir. Zulfizar va Avazxon.

ANDARMON BO'LMOQ kim? nimaga? yoki kimga? biror mashg'ulot, ish va sh.k. ga berilmoq, qiziqib ketmoq.

Obid Yo'ldoshevichning, boshqa ishlarga andarmon bo'lib, gazeta chiqarishga bevosita qatnasha olmadik. P.Qodirov. Uch ildiz.

andishaga bormoq: andisha qilmoq

ANDISHA QILMOQ kim? uyalib, odob bilan ish qilmoq.

– *Sen mendan emas, mana bu norastadan andisha qil, soldat, uning ko'zidan qo'rq, – dedim.* A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.

**ANDISHANING OTINI QO'R-
QOQ QO'YMOQ** kim? xushmuomala, muloyim, sermulozamat munosabatda bo'lishni, hurmat qilishni qo'r-
qoqlik belgisi deb tushunmoq.

*Safar bo'zchi turgan o'rnidan siljimadi: – Cho'zma kekirdagingni, bo'qoq, – dedi, – qani qo'yib berchi taqsiringni, yoqalashsin-chi men bilan! Andishaning otini qo'r-
qoq yodingmi?! A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.*

andoza ko'tarmoq: andoza olmoq
ANDOZA OLMOQ kim? nimadan? namuna sifatida qabul qilmoq. Varianti: andoza ko'tarmoq.

Uch-to'rt kishi bo'lib boramiz. Qiladigan majlisimizga aktivdan andoza ko'taramiz-da! S.Ahmad. Hukm.

ANJIR QILIB YUBORMOQ

kim? nimani? yoki kimni? ezib yubormoq, majaqlab tashlamoq.

Kecha uni shunday do'pposlashdiki, anjir qilib yuborishlariga sal qoldi. Sharq yulduzi.

ANOYI EMAS *kim?* mug'ombir, o'z ishini bilib qiladigan.

Mirsalim ham anoyi odamlardan emas. Shuhrat. Jannat qidirganlar.

ANQOGA SHAFE *nima?* topilishi qiyin, kamyob (eskirgan; kesim vazifasida keladi). Sinonimi: **anqoning tuxumi nima?**

Qahraton qish edi. Bir tuxum anqoga shafe. Rayim chorvani Anjonga choptirgan kim edi? I.Rahim. Ixlos. *To'g'ri, lekin yaxshi maslahat ham-madan chiqavermaydi-da. Bizning xotinlardan ham chiqsa-chi! Yaxshi maslahat emas, bir og'iz bama'ni gap – anqoga shafe!* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ANQONING TUXUMI *nima?* topilishi qiyin, kamyob (kesim vazifasida keladi). Varianti: **anqoning urug'i.** Sinonimi: **anqoga shafe nima?**

Ammo Ahmad Husayn bu shaharda, uning yuzlarcha chaqirim tevaragida har qanday qora ish anqoning tuxumi ekanini yaxshi bilardi. Oybek. Nur qidirib. «Yaxshilikka yomonlik... Bir og'iz shirin so'z anqoning urug'imi?...» – deb o'pkalandi. A.Muhiddin. Yuzga aytganning zahri yo'q. *Odam anqoning urug'iday bo'lib turganda, shu to'qqizta qo'chqorga ham alohida cho'ponmi, chiroq?* S.Anorboyev. Oqsoy.

anqoning urug'i: anqoning tuxumi

APOQ-CHAPOQLASHMOQ

kim? kim bilan? inoqlashmoq, apoqchapoq bo'lib ketmoq.

Fotima bilan apoq-chapoqlashib yurganlaringizni o'z ko'zi bilan ko'rganlar bor-ku! M.Jabborov. Sevinch yoshlari.

AQL BITMADI *kimga?* aql bilan ish qiladigan bo'lmaslik.

Bu nimasi tag'in, endi kuning suvoqchilikka goldimi? Senga sira aql bitmadi. Oydin. O'zi monand.

aql bovar qilmaydi: aql(i) bovar qilmaydi

aql kirdi: aql(i) kirdi

AQL TOPMOQ *kim?* o'ylamoq, fikrlamoq, es-hushini yig'ib olmoq.

Behuda yonma, uka, aql top. Oybek. Qutlug' qon.

aql yetmaydigan: aql (i) yetadi


AQL YUGURTIRMOQ *kim? nimaga?* chuqur o'ylab mulohaza yuritmoq. Varianti: **aqlni yugurtirmoq.**

Siz majlisda tajang bo'lib o'tirib, ko'p narsalarni eshitmagan, eshitgan gaplaringizdan ko'pining mohiyatiga aql yugurtirib ko'rmagan bo'lishingiz mumkin. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Aqlni yugurtirib qaragam, yigirma birinchi yilga kelganda Had-yaxonni senlab yuboribman.* I.Rahim. Hilola.

AQL YURGIZMOQ *kim?* o'ylamoq, fikrlamoq, mulohaza qilmoq.

Yuragim bilan emas, aql yurgizib shunday xulosa chiqarar edim. O.Yoqubov. Tilla uzuk.

AQL O'RGATMOQ *kim? kimga?* biror shart-sharoitda nima qilish kerakligi bo'yicha ko'rsatmalar bermoq.



*Ona suting og'zingda-yu, soqo-
limning oqiga qaramay aql o'rga-
taman deysan, xumpar.* Oybek. Oltin
vodiya shabadalar. ... *hosilni shun-
chaga chiqargan kim ekan, kecha ke-
lib, bugun aql o'rgatadi.* X.Nu'mon.
Fasllar.

AQLDAN OZMOQ kim? jinni
bo'lmoq, telba bo'lmoq. Sinonimi:
es(i)dan og'moq kim? (o'zining);
es(i) og'di kimning?

*Onang aqldan ozibdi, qizim, ol,
yig'ishtirib qo'y bularni!* I.Rahim.
Chin muhabbat. ... *lekin Salimov
aqldan ozib, olti oy psixik kasalxo-
nada yotib chiqqanidan xabari bor.*
P.Qodirov. Uch ildiz.

aqlga sig'armidi: aql(i)ga sig'-
maslik

aqlga sig'maslik: aql(i)ga sig'-
maslik

AQL(I) BOVAR QILMAYDI
kimning? nimaga? ishonib yetmaslik,
idrok qila olmaslik. Varianti: **aql bo-
var qilmadi** nimaga?

*Yo tavba, bir odamning qo'lidan
shuncha ish kelishiga aqling bovar
qilmaydi.* S.Ahmad. O'rik domla.
«Darvoqe, to'g'ri». *Abduvahob shun-
ga ham aqli bovar qilmaganiga izza
tortib qizardi.* Sh.Toshmatov. Erk
qushi. *Shuncha ko'kalamzor shu sizib
chiqayotgan qatimcha tufayli bino
bo'lganiga daf'atan aql bovar qil-
maydi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

aql(i) ishonmadi: aql(i) bovar qil-
maydi

AQL(I) BOSHIDIN KETMOQ
[aqli bašidın ket=] tar. kimning? his-
siy vaziyat tufayli fikrlash qobiliyati
to'xtab qolmoq, hayajon sabab shuuri
yo'qolmoq.

Sinonimi: **aqlini yo'qotmoq, o'zini
yo'qotmoq.**

*Xorazmiyning ketib aqli boshidin,
Turur tik surati, yo'q jon ichinda.* Xo-
razmiy. Muhabbatnoma.

AQLI BUTUN kimning? aqli,
miyali, esli.

*Otasi qariganda ro'zg'origa aqli
butun bolalar bosh bo'ladi.* Mushtum.

AQL(I) KIRDI kimning? 1 es-
hushli bo'lmoq. Varianti: **es(i) kir-
di; aql kirdi** kimga? Sinonimi:
aql(i)ni tanimoq kim? [o'zining],
aqli kirib qolmoq.

*Uning bo'yi cho'zilib, yigit bo'lib
goldi. Aqli kirdi.* S.Zunnunova. Gul-
xan. *Hali ham esing kirmabdi, yosh
bola ekansan.* S.Ahmad. Hukm. *Shu
tentakkina o'g'limga aql kirib, huku-
matning sallotboshisi bo'lib ketgan.*
G'.G'ulom. Yodgor.

2 anglamoq, tushunmoq. Vari-
anti: **es(i) kirdi; es kirdi** kimga?

*Bir daf'a qizimni o'tga tashladim,
eldan, yurtdan nomus qildim; endi
bas, aqlim kirdi.* Oybek. Oltin vodi-
ya shabadalar. «*Menga qara, – dedi
Rajab bobo, – qachon esing kiradi?!
Qilib yurgan ishingni bilasanmi?*»
A.Muhiddin. Lochin.

aql(i) kirib qolmoq: aqli kirmoq

AQL(I) QOCHMOQ kimning?
qiladigan ishini bilmay qolmoq, mu-
lohaza yuritilmay qolmoq.

*Men bilmayman, mening aqlim
qochgandir; Sen kelding, Hasanxon,
kayfim uchgandir.* E.Jumanbulbul. Rav-
shan.

AQL(I) YETADI kimning? nima-
ga? 1 idrok qilmoq, uqmoq; bilmoq.
Varianti: **aql yetmaydigan(-); fah-
m(i) yetadi; fahm-farosat(i) yetadi.**

Pul topishga aqli yetgan Zebin-ing sarf qilishga ham aqli yetib qolar. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Ba'zan hech xayolga kelmagan, aql yetmaydigan narsalarni aytadi, lekin yosh!* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Mening tegirmonim tumanda birinchi, sen tegirmonning fahmiga yetmaysan.* A.Qahhor. Kartina. «*Bozor xosiyatli joy, jarang-jarang pulning koni. Bil-maysan sen g'o'r, fahm-farosating yetmaydi*», – dedi qiz iljayib. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 ishonch hosil qilmoq, ishonmoq. Sinonimi: **ko'z(i) yetdi kimning? nimaga?**

Ernazar aka .. gapidan birovga naf tegishiga aqli yetsagina gapiradi. I.Rahim. Ixlos. *Tilni ham juda yomon biladi. O'z qismini topishiga aqlim yetmaydi.* Oybek. Quyosh qoray-mas. *Shunday bo'lgandan keyin, siz ro'zg'oringizdan orttirib, unga bitta ro'molcha olib berolmasligingizga aqlim yetadi. Yo noto'g'rimi?* A.Qah-hor. Sinchalak.

AQL(I) YETMASLIK kimning? nimaga? ishonmaslik, shubha, gumon bilan qarash.

– *Tovba, – dedi Alim buva yoqa-sini ushlab, – hu o'sha hokim oldida suv chiqaraylik, deb o'lib turgan Te-shavoy ekaniga hech aqlim yetmay qoldi.* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong ot-guncha.

AQL(I) SHOSHDI kimning? ku-tilmagan narsaga duch kelib, qilar ishini bilmay qolmoq.

Ana shu yerga kelganda ko'plar-ning boshi gangib, aqli shoshib qoldi. H.G'ulom. Mash'al.

AQLI SHOSHI B QOLMOQ kim-ning? nimadan? nima qilarini bilmay qolish, hang-mang bo'lib qolmoq.

Zulxumor maynasiga: – Ey jonvor, mening boshimga mushkuldan mush-kul ish tushib qoldi, aqlim shoshib qoldi. Shunday kunda sen yarasang, men ham bergan tuzimga ko'pmi-ozmi rozi bo'laman. E.Jumanbulbul. Ravshan.

AQL(IN)DAN KETMOQ [aq-lindan ket=] tar. kim? [o'zining] his-siy holat sabab behud bo'lmoq. Si-nonimi: **aqlini yo'qotmoq, o'zini yo'qotmoq.**

Qarshi boqsa olam uzra jumla aqlindan ketar, Joduning aslin magar dilbar qaroqinda tutar. Mavlono Imod Mavlaviy g'azali.

AQL(D)GA SIG'MASLIK nima? kimning? voqe bo'lishini mumkin emas deb bilmay, xayolan ham tasavvur qil-maslik. Varianti: **aqlga sig'maslik nima? aqlga sig'armidi?!**

Nima Nihoyat, qarindosh uchun jonini ayamaydigan Mirahmadning aynishini o'z aqliga sig'dirolmadi u. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Meni quloq qilgani kelganmi! bu? Tavba. Aqlga sig'maydigan gaplar. Telba emasmikin bu qiz?* I.Rahim. Hilola.

AQL(I)NI MOG'OR BOSDI kim-ning? miyani to'g'ri, chuqur ishlat-maslik.

[Siddiqjon] *nega qishloqda bo'lib o'tgan va bo'lib o'tayotgan ishlarga ko'zini kattaroq ochib qaramabdi? Aqlini mog'or bosgani shudir-da!* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

AQLINI OLMOQ kim? yoki ni-ma? kimning? maftun qilmoq, o'ziga

qaratmoq. Varianti: **aqlini o'g'irlamoq**.

Bu kampir ham juda epchillik qil-di. Beli bukrayib, qulog'i tikrayib, xizmat ko'rsatib, Gulgun parining ham aqlini oldi. F.Yo'ldosh o'g'li. Shirin bilan Shakar.

AQL(I)NI TANIMOQ kim? [*o'zining*] es-hushli bo'lmoq. Varianti: **aql-u hush(i)ni tanimoq**. Sinonimi: **aql(i) kirdi kimning?**

Boboqul aqlini tanibdiki, Maxsumlarning molini boqadi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Keyin, madrasada o'qib yurgan, aql-u hushimni ancha tanib olgan o'spirinlik kezlarimda ham tashvishlanishlarini qo'ymas edi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

aqlini yel yemoq: aqlini yemoq

AQL(I)NI YEMOQ kim? [*o'zining*] miyasi ishlaymay qolmoq, fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq. Varianti: **miya(si)ni yemoq; es(i)ni yemoq**.

Qarib, miyangizni yeb qolibsiz, ko'zdan ham qolibsiz! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «*Voy o'lsam go'rga, – dedi Qandolat opa, – esimni yemasam, sizga gapirarmidim?*» Oy-din. Sadag'ang bo'lay, komandir.

AQL(I)NI YIG'IB OLMOQ kim? o'ylab ish qilmoq, to'g'ri xulosa chiqarmoq. Varianti: **aql-u hushini yig'ib olmoq**.

Agar tezda aqlingni yig'ib olmasang, xalq g'azabiga duchor bo'lasan, ovsar! – dedi tog'asi Safarga. Y.Shukurov. Qasos.

aql(i)ni yo'qotmoq: aql-u hush(i)ni yo'qotmoq

aqlini zang bosmoq: aqlini mo'g'or bosmoq

aqlini o'g'irlamoq: aqlini olmoq

AQLI RASO [*kimning?*] chuqur fikr yuritadigan, chuqur bilimli. Sinonimi: **miyasi to'la** [*kimning?*]

Senday aqli raso, tushunadigan odam bo'lsam, zavoddan ketmas edim. A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

AQLNI ELTMOQ kim? yoki *nima?* aqlni (es-hushni) olmoq.

Shirin ham oydayin to'lgan kamoli, Aqlingni eltar husn-u jamoli. «Bahrom va Gulandom».

aqlni yugurtirmoq: aql yugurtirmoq

AQL-U HUSH(I) JOYIGA KELDI kimning? o'z harakatlarini ongli ravishda boshqara oladigan darajaga qaytmoq. Antonimi: **aql-u hush(i)ni yo'qotmoq** kim? [*o'zining*]

Pichoq urgan Qo'chqorning ham, pichoq yegan Sherbekning ham omon-eson ekanini eshitib bilgach, ko'ngli ancha taskin topdi. Aql-u hushi joyiga keldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

aql-u hush(i)ni tanimoq: aql(i)ni tanimoq

aql-u hushini yig'ib olmoq: aqlini yig'ib olmoq

AQL-U HUSH(I)NI YO'QOTMOQ kim? [*o'zining*] o'z harakatlarini ongli ravishda boshqara olmaydigan darajaga yetmoq. Varianti: **aql(i)ni yo'qotmoq**. Antonimi: **aql-u hush(i) joyig'a keldi kimning?**

Keyin aql-u hushini yo'qotib, anovi jallodga ergashib qochaveribdi. S.Anorboyev. Oqsoy. «*Yaxshi ko'rganda qizlar aqlini yo'qotib qo'yadi*», – deyishadi. *Zamira aqlini yo'qotib qo'yganda, xayoli shunday ravshan bo'larmidi?* P.Qodirov. Uch ildiz.

ARAVANI BARAVAR TORTMOQ kim? hamma teng ishlamoq, baravar mehnat qilmoq.

Senlarning jonimg shirin bo'lganda, mening jonim shirin emasmi? – deb o'dag'ayladi Bekka Ziyodulla o'z navbatida, – aravani baravar tortinglar-da! H.G'ulom. Mash'al.

arava(si)ni o'z(i) tortmoq: o'z arava(si)ni o'z(i) tortmoq

ARAVA(SI)NI TORTMOQ (ARAVANGNI TORT) kim? [o'zining] 1 jo'nab qolmoq. Sinonimi: **tuyog'(i)ni shiqillatmoq** kim? [o'zining], **tosh(i)ni termoq** kim?

Ha-ha, men senlarning xizmatkorlaring bo'laman, aravangni tort. Shuni bilib qo'y: och qolsam-qolamanki, bunaqa ishlarni qilmayman. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Men bundaylar bilan oftobda non-qatig yeyolmayman. Aravasini tortsin, toshini tersin! S.Abdugahhor. Gap norda emas.

2 boshqaning ishiga aralashguncha, o'zi qodir ishni qilavermoq. Sinonimi: **tosh(ing)ni ter(...)** kim? [o'zining]

«Sen dalaga brigadirmi yoki ...» – deb qolsa, nima degan odam bo'lasan. Aravangni tortsang-chi. Qo'y, yoshlar o'z taqdirini o'zi hal qilsin... A.Muhiddin. Zeboning sevgisi.

aravani olib qochmoq: aravani quruq olib qochmoq

ARAVANI QURUQ OLIB QOCHMOQ kim? uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq. Varianti: **aravani olib qochmoq; olib qochmoq; quruq aravani olib qochmoq.**

Aravani quruq olib qochding, og'ayni. Gapga ham amirkon moyi

surtib, g'irchillatvoradigan bo'psanda... S.Ahmad. Oriyat. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi. Nima deyshardi?.. «Bo'lmag'ur ish», – deb, toza aravani olib qochishdi. S.Nazar. Yashil boylik. «O'zing ham rosa olib qochasan-da, – gapga qo'shildi chust do'ppisini qo'lida ushlab o'tirgan yigit, – olinmagan buzoqqa qozig qoqishingni-chi». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. «Men, – deydi, – bir qahramonlik ko'rsatib, hammangni ko'zingni o'ynatay» – deydi. Quدرات kulib yubordi. «Rahim quruq aravani olib qochaveradi». Buni o'z ichida aytdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

ARINING INIGA CHO'P TIQMOQ kim? janjalni qo'zg'ab qo'y-moq, janjal chiqishiga sabab bo'lmoq. Varianti: **arining inini qo'zg'amoq, arining uyasiga tegmoq, arining uyasiga cho'p tiqmoq.**

Yuqorida o'tirgan brigadirning gapi arining iniga cho'p tiqqandek ola-g'ovurga sabab bo'ldi. Mushtum.

arining inini qo'zg'amoq: arining iniga cho'p tiqmoq

arining uyasiga tegmoq: arining iniga cho'p tiqmoq

arining uyasiga cho'p tiqmoq: arining iniga cho'p tiqmoq

aro bermoq: oro bermoq

ARMONDA KETMOQ kim? orzuga erisha olmaslik.

Kelmasa, armonda ketadi, o'g'lim. Hovliqmaligim qursin mening... I.Rahim. Chin muhabbat.

armonda qolmoq: armonda ketmoq

AROSATDA QOLMOQ *kim?*
nima qilishini bilmay gangib qolmoq.

Men nima qilib qo'ydim, sizga ishonib arosatda qoldim-ku. Mushtum.

arosatga tushmoq: arosatda qolmoq

ARPA(SI)NI XOM O'RMOQ [... **o'rdi(m)mi?!]** *kim? kimning?* nima yomonlik qildi?!

«*Xo'sh, yigitcha, qani, nima gunohi bor? Arpangizni xom o'rdimi u?!*» – *qiziqsindi O'ktam.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Nima bu, hadeb tutun qaytaradi, arpasini birov xom o'ribdimi?!* A.Qahhor. Oltin yulduz.

ARQON(I)NI USTIGA TASHLAB QO'YMOQ *kim? kimning?* davradan chiqarib, xatti-harakatini nazorat qilmay qo'ymoq. Varianti: **ipi ustiga tashlangan...**

Saidiy ... hayotidan shu qadar uzoqda ekanidan butkul bexabarsan! Yacheyka uning arqonini ustiga tashlab qo'ygan bo'lsa kerak-da! A.Qahhor. Sarob.

ARQONNI UZUN TASHLAB QO'YMOQ *kim?* biror ishning rivojlanishiga aralashmay, ma'lum bir muddat o'z holiga qo'yib bermoq. Varianti: **arg'amchini uzun tashlab qo'ymoq, ipini uzun tashlab qo'ymoq.**

Darrov unga xabar bermoqchi bo'ldim. Lekin yana o'ylab, arqonni uzun tashlab qo'yay dedim. Oybek. Qutlug' qon. *O'zing bilasan deb, arg'amchini uzun tashlab qo'ydim.* I.Rahim. Ixlos.

arg'amchini uzun tashlab qo'ymoq: arqonni uzun tashlab qo'ymoq

ARRA QILMOQ *nimani?* teng bo'lishib olmoq.

Ortiqcha sutdan kelgan daromad jinoyatchilar o'rtasida arra qilib kelingan. Gazetadan.

ARVOH URMOQ *kimni?* o'lgisi kelmoq, esini yo'qotib qo'ymoq, cha-toq bo'lmoq.

Bola-chaqalarni Rayhon qiripti, Talabgoring darrov ayiril, botirlar! Bu Rayhon podshoni arvoch uripti, Bizni deganlaring ayiril, botirlar! E.Jumanbulbul. Oysuluv.

ARVOHGA O'XSHAB *kim?* o'zg'in.

Bu qorong'ida uning aft-basharasini ham ko'rib bo'lmaydi. Uning arvohga o'xshagan o'zgin ekanligini payqash mumkin, xolos.

ARSH QILMOQ *kim? kim bilan?* kayf-safo qilmoq, aysh-ishrat qilmoq.

Avvalgidan ko'ra kattaroq arsh qilib yuribdi. Oybek. Tanlangan asarlar.

ARCHILGAN TUXUMDAY *kim?* silliq.

– *Qoqilib ketdim, – deb unga qaradi-yu, ajablandi: o'rta bo'yli, qizil mag'iz yuzlari archilgan tuxumdek yigit unga jilmayib turibdi.* A.Muhiddin. Otash qalbli qiz.

ASABI BUZILMOQ *kimning?* asabiylashmoq, diqqat bo'lmoq. Varianti: **asabi ishdan chiqmoq.**

Keyin eshitsam, asabi buzilib kasalxonaga tushganmish. O.Yoqubov. Bir felyeton qissasi.

ASABI BUZUQ asabiy.

U bo'lib-bo'lib, tez-tez nafas olib, qiynalib gapirardi. Rangi yomon, asa-

bi buzuq, qo'li qaltirayapti. A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.

ASABI BO'SHAMOQ kimning? yumshamoq.

Gapni cho'zaversam, mehmonlarning ikkalasi ham ho'ngrab yig'laydiganga o'xshaydi. Asabim bo'shab, o'z ishini qildi, ularning rayini qaytara olmadim. Sharq yulduzi.

asabi ishdan chiqmoq: asabi buzilmoq

ASABI JOYIDA kimning? asabi yaxshi, mustahkam. Varianti: **asabi mustahkam.**

Ancha yoshga borgan, yuzining terisi suyagiga yopishib ketgan bo'lsa ham, asabi joyida ko'rinadi. A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.

asabi mustahkam: asabi joyida

ASABI QAYNAMOQ kimning? nihoyat darajada asabiylashmoq.

A'zamjonning ko'zlari xiralashib ketdi, asabi qaynab, tishlarini g'ijirlatdi. S.Ahmad. Ufq.

ASAB(I)GA TEGMOQ kim? yoki nima? kimning? asabini qo'zg'atmoq, g'ijintirmoq. Sinonimi: **g'ash(i)ga tegmoq** kim? yoki nima? kimning? **g'ash(i)ni keltirmoq** nima? kimning?

O'rnashibroq o'tirmoqchi bo'lganida, stul g'ijirlab, yana asabiga tegdi, o'ng'aysizlanish avjiga mindi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Asabimga tegaverma, bo'lmasa adabingni berib qo'yaman! So'zlashuv uslubi.

ASABINI BUZMOQ kim? kimning? asabiylashtirmoq, g'ijintirmoq.

Xotinning ingichka, bo'g'iq tovu-shi yo'l-yo'lakay yigitning g'ashini keltirgandi. Hozirgisi yana ham asabini buzdi. Sharq yulduzi.

ASABINI QO'ZG'ATMOQ kim? kimning? jahlini chiqarmoq, asabiylashtirmoq.

– Otdan tushing o'rtoq To'raxonov! Shu so'zning o'ziyoq To'raxonovning asabini qo'zg'atdi. Sh.Rashidov. Qudratli to'lqin.

ASAKA(SI) KETARMIDI?! (kimning?) biror narsa yo'qotarmidi?! Hech narsa yo'qotmas edi!

G'ir etib mashinada burnimiz tagidan o'tib ketdilar. Nima, qiyomatlik qo'shnilarimiz, mashinaga solib ketsalar, asakalari ketarmidi?! S.Abduqahhor. Gap norda emas.

ASAR QOLMADI nimadan? butunlay, izsiz yo'qolmoq.

Men uni ko'rdim deguncha yuragimdagi boyagi isyonkor tuyg'ular-dan asar ham qolmadi. O.Yoqubov. Muqaddas. Siddiqjonning yuzida bu yerga kelayotgan vaqtidagi ko'ngil g'ashligidan asar qolmagan edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ASFALASOFILINGA (ASPALASOPILINGA) KETMOQ kim? o'lmoq, yo'qolmoq.

Keyin engashib, cholning qo'lini bir ko'tarib qo'yib yubordi. Qo'l shilq etib tushdi. – Ha, aspalasopilinga ketibdi! Bir tepkilik holi bor ekan-u, kecha tog'da yana menga dag'dag'a qiladi-ya, – dedi u. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ASTAR-AVRA(SI)NI AG'DARMOQ kim? kimning? barcha kirdikorlarini ochib tashlamoq. Varianti: **avra-astar(i)ni ag'darmoq; avra-astar(i) ochildi** kimning? **astar-avra(-si)ni ochmoq.**

Tumandan kelgan vakildan keyin so'zga chiqdingiz, hamma quloqlar-

ni, boylarni nom-banom ko'rsatib, astar-avrasini ag'dardingiz. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Uning avra-astarini ag'darib xalqqa ko'rsatib, keyin ko'pchilik nima desa, shuni qilish kerak edi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Endi qo'shnimiz gunohdan qutulibdi. Lekin uning astar-avrasini burunoq ochib tashlansa ...bo'lar edi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

astar-avra(si)ni ochmoq: astar-avra(si)ni ag'darmoq

ATALANING ICHIDAN SUYAK CHIQQOQ kutilmagan odamdan yaxshi gap chiqmoq.

– *O'lmang siz! Ataladan suyak chiqib, muncha buning og'zidan novvot tomib qoldi desam, hammasi pulning xushomadi ekan-da?* K.Yashin. Oftobxon.

ATASHIB QO'YMOQ kimga? kimni? unashmoq.

Salimani Karimga atashib qo'yganidan xabaring bormi? Sharq yulduzi.

ATLAS KO'YLAKKA BO'Z YAMOQ kichik, arzimas nuqsonning yaxshi narsani buzishi, rasvo qilib qo'yishi.

Chilonzor massividan uy solgan xonadonlar bu hangomalardan bezor bo'lib: «quruvchilar atlas ko'ylakka bo'z yamoq yopishtirib ketishibdi...» degan mazmunda shikoyat yozgan edilar. Mushtum.

ATTORNING QUTISIDA YO'Q bemaza, tuturiqsiz, bema'ni.

O'ylab gapirsang-chi, o'rtoq, sen aytayotgan gap atorning qutisida yo'q. Jonli so'zlashuvdan. *U Qobiljonning akasi, sevgi haqidagi qa-*

yoqdagi atorning qutisida zang bosib yotgan so'zlarni javrashni qo'ymasdi. Q.Mahsunov. Muhabbat qo'shig'i.

AVAG'AMNING AVAG'ASI, UMURTQAMNING SHO'RVASI kim? juda uzoq, chatishgan qarindosh haqida.

AVAXTA BO'LMOQ kim? qamoqqa olinmoq.

Akam yana avaxta bo'lgandan keyin haligi ellikboshi meni ham «o'l-di»ga chiqarib, xotinga sovchi ustiga sovchi qo'yaveripti. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

AVAXTA QILMOQ kim? kimni? qamoqqa olmoq, qamamoq.

avj oldirmoq: avj olmoq

AVJ OLMOQ nima? 1 rivojlanmoq (o'simlik).

...agrotexnika qoidalariga to'la rioya qilingani uchun g'o'zalar barqurib avj olmoqda. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 zo'raymoq, kuchaymoq (o'simlikdan boshqa narsa). Varianti: **avj oldirmoq** nima? nimani?

Ularning har ikkisi hazil bilan kuch sinashni, bir-birlarini yumalatishni sevar edi. Lekin uxlagan elga xalaqit bermaslik uchun, bu gal kurash avj olmadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Agar bu ishi gazak shishi bo'lsa, paxtadog' foyda qiladi, lekin rak shishi bo'lsa, avj oldiradi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

avjga mindirmoq: avjga minmoq

AVJGA MINMOQ nima? – **AVJGA MINDIRMOQ** nima? nimani? yuqori darajaga ko'tarilmoq. Varianti: **avjga minmoq** nima? (o'zining).

Sinonimi: **avjga chiqmoq nima?** (o'zining) – **avjga chiqarmoq nima?** **nimani?** **avjga yetmoq nima?**

Supa va so'rilarini to'ldirib o'tirgan yigit va qizlarning gangir-gungur suhbatini avjga mindi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. ... *xurra-kni darajama-daraja oshirishga tirishadi: biriniki avjga minganda, ikkinchisi boshlaydi.* Oybek. Qutlug' qon. *Ayniqsa, mahallaga ellikboshi bo'lgandan keyin, mansabidan foydalanib, haliginday ishlarni avjga mindirdi.* Oybek. Qutlug' qon. *O'tgan har minut Salim akaning jahlini avjga mindirayotganini sezdi.* Said Nazar. Yashil boyluk.

avjga chiqarmoq: avjga chiqmoq

avjga chiqmoq: avjga chiqmoq

avjga minmoq: avjga minmoq

AVJGA YETMOQ nima? yuqori darajaga ko'tarilmoq. Sinonimi: **avjga chiqmoq nima?** (o'zining); **avjga minmoq nima?**

Ayniqsa, yigit-yalanglarning shavqi avjga yetdi. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

AVJGA CHIQQMOQ nima? (o'zining) – **AVJGA CHIQQARMOQ kim?** **nimani?** yuqori darajaga ko'tarilmoq. Varianti: **avjga chiqmoq nima?** yoki **kim?** Sinonimi: **avjga minmoq nima?** – **avjga mindirmoq nima?** **nimani?** **avjga yetmoq nima?**

...ammo juda quvnoq erkak-ayollarning shovqin-suroni, ayniqsa, ular mashinaga o'tirishayotganda avjga chiqdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Rahmatilla Obidiyning jo'shqin faoliyati avjga chiqib, o'z samarasini bera boshlagan bir vaqtda falokat ro'y berdi.* A.Qahhor. Qo'shchinor

chiroqlari. *Keyingi vaqtlarda ukangiz fisq-fasodni avjga chiqardi.* So'zlashuv uslubi.

avra-astar(i) ochildi: astar-avra-(si)ni ag'darmoq

avra-astar(i) so'kildi: astar-avra-(si)ni ag'darmoq

avra-astar(i)ni ag'darmoq: astar-avra-(si)ni ag'darmoq

avra-astar(i)ni qoqqmoq: astar-avra-(si)ni ag'darmoq.

AVVAL IQTISOD, KEYIN SIYOSAT ishni, suhbatni to'xtatib, taomga taklif qilish.

– Voy uka-yey! Avval iqtisod, keyin siyosat deganlar. Bo'sh qop tik turmaydi. Qani, qorin masalasini bir yoqlik qilaylik, keyin gap qochmas. M.Sobirov. Suv yuqmas.

AVVAL MUTOLAA, KEYIN MU-NOZARA tushunib bahslashmoq.

Keng uyda ikki kishi holi qolganidan keyin shunday munozaragina zeriktirmasdi. –Avval mutolaa, keyin munozara, – der edi Dadashev. I.Rahim. Taqdir.

AVVAL TAOM, BA'DAZ KALOM oldin ovqatlanib, keyin boshqa ish bilan mashg'ul bo'lish ma'nosida qo'llanadi.

– Avval taom, ba'daz kalom, – dedi u yeng shimarar ekan, – qani, oshga qarasinlar. M.Osim. Elchilar.

AVZO[Y](I) BUZILDI kimning? yoki nimaning? vajohati yomonlashdi.

Uchinchi kurslar Temir Akbarovichning avzoyi buzilganini ko'rib, jim bo'lib qolishdi. P.Qodirov. Uch ildiz. «Nimaga xafasan, ko'zlaring qizarib ketibdi? Yig'ladingmi?» – so'radi ona avzoyi buzilgan o'g'liga nazar solib.

Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Lekin odamlar bahor hidiga to'yib ulgurmagan ham edilarki, havoning avzoyi yana buzildi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Ketdik-a? Osmonning avzoyi buzilibdi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

AVZO[Y](I) BUZUQ kimning? yoki nimaning? vajohati yomon, yomonlik kutish mumkin. Varianti: **chehra(si) buzuq** kimning?

Uch-to'rt kundan buyon ularning avzoyi buzuq edi, betlaridan zahar tomar edi. Oybek. Qutlug' qon. *Yomg'ir juda qattiq quyadiganga o'xshaydi-ku, havoning avzoyi buzuq.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. G'ulomjonning chehrasi boyagidan ham buzuq edi.* H.Nu'mon. Fasllar.

AYAGAN KO'ZGA CHO'PTU-SHAR juda ortiqcha ehtiyot qilingan, avaylangan predmetning to'satdan, kutilmaganda nobud bo'lishi, shikastlanishi, buzilishi.

– *Gap-so'zdan qo'rqmang, Mastura opa. Qaytaga qo'rqqanda shunaqa bo'ladi. Ayagan ko'zga cho'p tushar deydilar-ku!* P.Qodirov. Uch ildiz.

AYB QILMOQ 1 ayb sodir etmoq, aybli ish qilmoq. **2** huq. Qonunga xilof xatti-harakat; jinoyatga tortishning zarur sharti **3** kishi uyalganidan, xijolat tortadigan xatti-harakat; uyatli ish, uyat.

To'rt nafar harbiy Vatanga xiyonat qilishdagi aybi uchun sudga tortildi. Gazetadan. *So'raganning aybi yo'q.* Maqol.

aybga buyurma: aybga qo'shmaslik

aybga buyurmay(siz): aybga qo'shmaslik

AYBGA QO'SHMASLIK (QO'SH-MAYSIZ) kim? [nimani?] aybli deb hisoblamaslik. Varianti: **aybga buyurmay(siz); aybga buyurma.**

Hozircha yangi ro'zg'ormizda, aybga qo'shmaysizlar, ko'rpacha ham yetishmaydi. R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Toqqa ko'ch-ko'lonsiz kelganmiz, qizim. Aybga qo'shmaysan.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Aybga buyurmaysizlar, mehmonlar, mening idorada yana biron soatlik ishim bor.* A.Qahhor. *Sinchalak. Ol buni, tentagim, xotining ishdan kelganda sovg'a qil. Arzimas bo'lsa, aybga buyurma.* S.Ahmad. *Ko'klam chechaklari.*

AYBINI YOPMOQ kim? kimning? xaspo'shlamoq, yashirmoq, bekitib o'tmoq.

Bo'riyevning aybini yopmoqchi bo'lganlar juda katta xatoga qo'ydilar. Mushtum.

AYBNI MAYIB TOPADI o'z aybini sezmaslik.

– *Aylanay Ro'zvonxon, aybni mayib topadi, deb juda to'g'ri aytganlar-da!* – *dedi kampir istehzo bilan kulib.* – *O'zingizga qaramaysiz-ku, hammaga nom qo'yganingiz – nom qo'ygan.* S.Zunnunova. Gulxan.

AYIL BOTMOQ nima? kimga? adolatsiz deb bilgani uchun malol kelmoq. Varianti: **botib ketmoq; ko'ngl(i)ga ayil botmoq nima? kimning?** Sinonimi: **qattiq tegmoq nima? kimga? qattiq botmoq nima? kimga? og'ir botmoq nima? kimga?**

«Jo'n mol, ipagiga qazna aralashgan, g'irromboqi...» – *dedi. Inoyatxonga bu gap ayil botdi.* G'.G'ulom. Eri bilan bas boylashgan xotin. *Bu*

yerga kelishim, aytgan gaplarim ko'ngillaringga ayil botgan bo'lsa, uzr; Qumri kelinoyi. A.Muxtor. Opa-singillar. «Kuyovi tushmagur muncha sirkasi suv ko'tarmaydigan yigit ekan, bir og'iz so'z shunchalik botib ketibdimi?» J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar.

AYNIMUDDAO ko'ngildagidek.

Adolat kimyogar bo'lsa ayni mud-dao – ishxona yoki mahkamada ishla-masdan, uyda o'tirib tilla qilib bera-di. A.Qahhor. Qizlar.

AYNIB QOLMOQ kim? nima-dan? 1 ilgari fikridan, va'dasidan qaytish.

– *Rost, aytgan vaqtida, ... soat o'n ikki-yu nol-nolda keldim. Yo'q aynib qolibdi, unamadi.* Uyg'un. Navbahor.

2 axloqi buzilish, noto'g'ri yo'lga kirish, nojo'ya harakatlar qilish.

Sen anovi dangasaning ta'siriga berilib aynib qolding. Ko'zingni och, esingni yig'. Uyg'un. Oltin qo'l.

AYOL BOSHI BILAN ojiz, mungli, mushtupar holida. Varianti: **xotin boshi bilan.**

Ayol boshim bilan deganingiz mungli, mushtiparman deganingizmi? Siz shunday desangiz dodimizni kimga aytamiz. A.Qahhor. Sinchalak. *Endi xotin boshi bilan Marg'ilonga murojaat qilsinmi?* A.Qodiriy. O'tkan kunlar.

AYOQ OSTINDA QO'YMOQ [ajaq ostinda qoj=] tar. kim? kimni? xo'rlamoq, kamsitmoq. Varianti: **oyoq osti qilmoq.**

Ul qadar yumshoq bo'lmag'ilkim, seni ayoq ostinda qo'yg'aylar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

AYOQDAN TUSHMOQ [ajaqdan tüşgäniñdä=] tar. kim? mansab-

dan tushmoq, mansabidan ayrilmoq. Sinonimi: **egardan tushmoq.**

Haqiqat do'stuning yoringdur ulkim, Qo'lung tutsa ayoqdan tushganingda. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Tilasang eygu oting mangu qolg'ay, Ayoqdan tushkan alni tutquchi bo'l.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

AYRI CHIQMOQ zid, qarama-qarshi, yolg'on.

Frunze Safar bilan Boltaga «Agar so'zlaring ayri chiqsa, o'zlaringizga yomon bo'ladi», – dedi. Y.Shukurov. Qasos.

AYRONBOSH befarosat, tentak, ahmoq.

Mahallaga sir berib qo'yibsan-da, ayronbosh! Sening hamma ishing g'o'ra tushgan sho'rvaga o'xshaydi. H.Niyoziy. Maysaraning ishi.

AYRONI ACHIMAY YURMOQ kimning? bemalol, bamaylixotir, sho-shilmay.

– *Kelib qoladi. Tanish-bilishlari bilan uchrashib qolgan bo'lsa, ayroni achimay yurgandir-da.* F.Nasriddinov. Dildor.

AYTGAN JOYIDAN KESADI aytganini, albatta, amalga oshirtiradi, aytganini bajartiradi.

Halima aytgan joyidan kesadigan qizlardan, bergan topshirig'ini bugun bajarmasak, ertaga bajarishga majbur bo'lamiz. So'zlashuv uslubi.

AYTGAN(I)–AYTGAN, DEGAN(I)–DEGAN kimning? fikr-talabini ma'qul qildirmoq, so'zsiz bajar-tirmoq; nima desa – o'sha bo'lmoq. Varianti: **aytgan(i) – aytgan; degan(i) – degan; degan(i) – degan, aytgan(i) – aytgan.**

Onasi umrida eriga tik gapirmagan xotin: erining izmidan chiqmaydi, erining aytgani – aytgan, degani – degan. I.Rahim. Chin muhabbat. U kishining degani – degan. Hech kim bas kelolmaydi. A.Muxtor. Tug‘ilish. Bilgandirsiz bir uchini... Katta og‘iz bo‘lib kelgan, degani – degan, aytgani – aytgan bo‘lgan. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil.

aytgan(i)–aytgan: aytgan(i)–aytgan, degan(i)–degan

aytgani bo‘ldi: aytgani keldi

AYTGANI KELDI kimning? gap to‘g‘ri chiqmoq. Varianti: **aytgani bo‘ldi.**

– *Mana ko‘rasiz, baribir mening aytganim keladi. Sharq yulduzi.*

AYTGANICHA (yoki DEGANICHA, MAQTANGANICHA) BOR xuddi aytganidek, shunday deb aytishga (deyishga, maqtashga) arziqli.

To‘ybekaning maqtaganicha bor-mi? – Bor, – dedi qutidor, – ...Xudo kishiga o‘g‘il bersa, shundayini bersin-da. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar.

aytishga oson: aytmoqqa oson

AYTISHGA TILI BORMASLIK kimning? nimani? noqulay, o‘ng‘aysiz

Xafa bo‘lmasangiz, sizga bir gap aytmoqchiman. Ko‘p vaqtdan beri tilimda bor-u, lekin aytishga tilim bormay qoladi. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

AYTISHIB QOLMOQ kim? kim bilan? janjallashmoq, xafalashmoq, tortishmoq, olishmoq.

Men olib qo‘ymadim, mening ishim emas, dedi. Shunga texnorukning ham, ish boshining ham, ana u gazetachining ham g‘ashi keldi... Aytishib qoldik. A.Qahhor. Sinchalak.

AYTMAGAN JOYGA – YO‘N-MAGAN TAYOQ taklif qilinmagan yerga surbetlik bilan bormoq.

– *Aytmagan joyga-yo‘nmagan tayoq bo‘lib kirib kelibmiz, shekilli, xonim. O‘zimiz ertalabga taklif etilganmidik. I.Sulton. Imon.*

AYTMOQQA OSON bajarish qiyin; aytish boshqa-yu, amalga oshirish boshqa. Varianti: **aytishga oson.**

Don-dun, sabzavot, rezavor, meva-chevalar. Bularning hammasini pulga chaqsa, o‘hho‘, aytishga oson xolos. I.Rahim. Hilola. Topish, Oqtoshga karvon bilan olib kelish – aytishga oson. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

AYUHANNOS SOLMOQ kim? baqiriq-chaqiriq, dod-faryod bilan boshiga ko‘tarmoq.

E, odamlar, erimning dastidan dod! Bu olim emas, zolim-ku! – deya u battar ayuhannos soldi. Gazetadan.

AYSHI TALAF BO‘LMOQ [ajši talaf bol=] tar. kimning? kayfiyati buzilmoq, xush kayfiyati biror salbiy holat sabab yomon tomonga o‘zgarimoq. Sinonimi: **kayfi uchmoq, kayfi buzilmoq.**

Dag‘i suratini ko‘rgan kishilarning ayshi talaf bo‘lur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

AZA OCHMOQ kim? kimga? 1 aytib yig‘ilash bilan motam marosimini boshlamoq.

Qopqog‘i qalaylangan temir tobut uy o‘rtasiga qo‘yilgach, xotin-xalaj birdan uvvos solib, aza ochdi. E.Usmonov. Yolqin.

2 boshqa xonadon mayitiga (odatda, qarindosh-urug‘ kishisiga) yig‘i bilan motam marosimi o‘tkazmoq (ayol kishi o‘tkazadi);

3 urush, savdo va sh.k.ga ketgan yoki dom-daraksiz yo'qolgan kishilarning vafoti ma'lum bo'lishi bilan, shuningdek, tirikligidan umid uzilgan kishi uchun motam marosimi (aza) o'tkazmoq.

Usta Hasanbek bo'lsa, o'g'li Shodmonbekning jangda shahid bo'lgani tufayli aza ochdi. Mirmuhsin. Me'mor.

AZATUTMOQ kim? kimga? azali holatda bo'lmoq.

Jabbor aka o'lgan vaqtlarda qora kiyib, aza tutib yurgan chog'larida ham u o'zini hozirgidek yakka-yolg'iz sezmagani edi. I.Rahim. Chin muhabbat.

AZAGA AYLANTIRMOQ kim? nimani? xursandchilikni janjalga, xafagarchilikka aylantirmoq.

Bas qiling, bironing mehmondorchiligini azaga aylantirmaylik, siz meni tanimaysiz, men sizni. R.Bobojon. Tog'a va jyanlar.

AZAVOZLIK QILMOQ kim? ortiqcha (bekorga) yig'i-sig'i qilmoq, ko'z yoshi to'kmoq.

AZBAROYI SHIFO ishonishga undashni bildiradi (kirish bo'lak vazifasida keladi). Sinonimi: **azbaroyi xudo**.

Azbaroyi shifo, shoshib qolganidan jonivorning otini ham unutib turibman. I.Maqsudiy. Laylatulqadr. *Bunaqa odamoxunni hali, azbaroyi shifo, hech bir ona tuqqanmas.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

AZBAROYI XUDO ishonishga undashni bildiradi (kirish bo'lak vazifasida keladi). Sinonimi: **azbaroyi shifo**.

Buni eshitib, azbaroyi xudo, tutoqib, isitmam chiqib ketdi. Oybek. *Qutlug' qon. Azbaroyi xudo, hech biringda insof qolmabdi!* P.Tursun. O'qituvchi.

AZIMAT QILMOQ (yoki **ETMOQ**) jazm qilmoq.

Qochib chiqmog'a qildilar azimat. Lutfiy. *Kobul sori gar azimat etsang, qurbon qilay o'zni sanga, ey shoh.* Bobur.

AZIYAT CHEKMOQ 1 azoblanmoq. Varianti: **aziyat tortmoq**.

[Elmurod] Onasidan ajralgandan beri kun bo'yi qancha aziyat chekdi, qancha ko'z yosh to'kdi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 zararli ta'sir, zarar-zahmat.

Agar shu qo'rboshi o'ldirilmaganda, Muxtorxonga bir aziyat yetar ekan. A.Qahhor. Sarob.

aziyat tortmoq: aziyat chekmoq

AZIYAT YETKAZMOQ 1 kim? nimaga? shikast yetkazmoq.

Chaqaloqqa aziyat yetkazishdan qo'rqib qo'liga olmadi. Gazetadan.

2 kim? kimga? xafa qilmoq, ranjitmoq.


Muborak ko'ngillariga aziyat yetkazganidan qo'rqanligini so'zlab, uzr tiladi. Oybek. Navoiy.

AZM QILMOQ 1 kim? qaror qilmoq, o'tlanmoq.

U endi poytaxtga kelmoqqa azm qilgan. Oybek. Navoiy.

2 kim? nimaga? jazm qilmoq, botinmoq.

Men o'n yildan beri azm qilolmay yurgan bu ishga bugun jazm etdim. A.Muxtor. Tong bilan uchrashuv.



AZMOYISH(INI) OLMOQ 1 *kim?* sinash-bilish harakatida bo'lmoq. **2** *kim? nimaning?* sir-sinoatini bilib olmoq.

Kechgacha dala aylanib, azmo-yish olib yurdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

AZOB BERMOQ *kim? kimga?* yoki *nimaga?* qiynamoq, qiynoqqa solmoq.

Yo'tal yomon azob beryapti. S.Ayniy. Doxunda.

AZOB ICHRA YOTMOQ [azāb ičrā jat=] *tar. kim? nimadan?* qiynalmoq, azoblanmoq. Sinonimi: **azob chekmoq, azob tortmoq.**

Azob ichra yetib zindonda Suhayl, Etardi horg'onida uyquni mayl. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

azob yemoq: azob chekmoq

azob tortmoq: azob chekmoq

AZOB CHEKMOQ *kim?* qiynalmoq. Varianti: **azobini tortmoq** *kim? nimaning? tortgan azob(i) kimning?*

... shum xabarni aytib, uni talvasaga solib qo'rganidan azob chekdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Hammasini, o'zi qanday azob chekayotganini, pok ishqi haqoratlanganini yozadi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Sen bilan biz o'sha qora kunlarni ko'rganmiz, azobini tortganmiz.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

azobini tortmoq: azob chekmoq

AZZA-BAZZA 1 ko'ngil amri bilan, ataylab, maxsus.

Omonovdek odam sizni tabriklash uchun azza-bazza trest o'rinbosari kabinetidan chiqib kelarmidi? Gazetadan.

2 rostakamiga, astoydil.

O'ttiz yillik xotiningizga rahmingiz kelmaydimi? – Bonu endi azza-bazza yig'iga tushdi. H.G'ulom. Mash'al.

acha(si)ga yostiq bo'lmoq: ona(-si)ning boshiga yostiq bo'lmoq

acha(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq: ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq

acha(si)ning boshiga bolish bo'lmoq: ona(si)ning boshiga yostiq bo'lmoq

ACHI SO'ZLI [ačī sōzli] *tar. kim?* so'zi orqali atrofdagilarga ozor beruvchi. Antonimi: **so'zi bol, so'zi totli.**

Bir muddat kechti, ul qiz qatti jüzli, achi so'zli edi, til uzatib vaqtimni mukaddar qilur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ACHIB YOTIBDI ko'p.

– *Tashqarida odam ko'pmi?*

– *Achib yotibdi.* Uyg'un. Navbahor.

achib suyulmagan, qarib quyulmagan: qarib quyulmagan, achib suyulmagan

ACHCHIQ QILMOQ *kim? kimga?* zarda qilmoq, xafa qilmoq.

Nurqul jahli chiqib, achchiq qiladi, chaqirsang ham javob bermaydi. Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli.

ACHCHIQ O'YIN SHIRIN TURMUSHNI BUZADI qo'pol hazil qilmaslik kerak.

Menga uyat o'limdan ortiqdir. Bundan buyon bunday so'zlarni oraga solmang, achchiq o'yin shirin turmushlarni buzadi. H.Niyoziy. May-saraning ishi.

ACHCHIG' USTIDA achchiqlanganda, qizishganda.

To‘raxonov achchig‘ ustida Xayri bilan ochiq gaplashganidan afsus qiladi. Sh.Rashidov. Qudratli to‘lqin.

ACHCHIG‘I BURNING USTIDA (yoki **UCHIDA**) kimning? bekorga, sal narsaga jahli qistayveradigan.

– Ha, qizi tushmagur. Nafasini ham chiqarmaydi-ya. Achchig‘i ham burnining uchida, – dedi Murotali. Sh.Rashidov. Bo‘rondan kuchli.

ACHCHIG‘(I) QISTADI kimning? nimadan? achchiqlanmoq, qizishmoq. Varianti: **jahl(i) qistadi**. Sinonimi: **qon(i) qaynadi kimning?** – **qon(i)ni qaynatmoq kim?** yoki nima? kimning? **achchig‘(i) keldi kimning?nimaga?** [yoki nimadan?] – **achchig‘(i)ni keltirmoq kim?** yoki nima? kimning? **g‘azabga kelmoq kim? nimadan?** – **g‘azabga keltirmoq nima? kimni?**

Bu gapni eshitib, oyimning achchig‘i qistab ketdi. H.Nazir. Cho‘l havosi. «Kasalxonaga olib kelinglar, ko‘ramiz», – dedi. Keyin mening ham jahlim qistab ketdi. S.Anorboev. Sherali sevib qoldi. «Qanday jinoyat?» – dedi Umarali bu savoldan jahli qistab. I.Rahim. Ixlos.

ACHCHIG‘(I)DAN TUSHMOQ kim?(o‘zining) achchiqlanishdan to‘xtamoq. Varianti: **jahl(i)dan tushmoq; jahldan tushmoq kim? zahr(i)dan tushmoq; g‘azab(i)dan tushmoq.**

Norxola achchig‘idan tushib, muloyim ohangda gapirdi... S.Nazar. Yashil boylik. Tez olovlanib, tez soviydigan Ochil esa allaqachon jahldan tushgandi. P.Qodirov. Uch ildiz.

Bugungi ishni ertaga qo‘yib bo‘lmaydi. Jahldan tushganingizdan keyin yana yumshab qolasiz,... S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Hilolaning iljayib kulishini birinchi marta ko‘rdim. Ammo u hali ham zahridan tushgani yo‘q. I.Rahim. Hilola.

ACHCHIG‘(I) KELDI kimning? nimaga? (yoki nimadan?) – **ACHCHIG‘(I)NI KELTIRMOQ** kim? yoki nima? kimning? achchiqlanmoq. Varianti: **jahl(i) keldi kimning?** – **jahl(i)ni keltirmoq nima? kimning?** **qahr(i) keldi kimning? nimadan?** – **qahr(i) ni keltirmoq nima? kimning?** **g‘azab(i) keldi kimning? nimaga?** – **g‘azab(i)ni keltirmoq kim?** yoki nima? kimning? Sinonimi: **qon(i) qaynadi kimning?** – **qon(i)ni qaynatmoq kim?** yoki nima? kimning?; **g‘azabga kelmoq kim? nimadan?** – **g‘azabga keltirmoq nima? kimni? achchig‘(i) qistadi kimning? nimadan?**

Sharif akaning «talmovsirash»ga o‘xshab aytgan gapi Roziya xolaning achchig‘ini keltirdi. N.Nazarov. Zamon. Jahl kelsa, aql ketadi-da. S.Ahmad. Hukm. Bundan Bekning qahri kelib, zahrini Murod mirzoga sochdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Razvedkaning talofat berib chekinishi Maynaning qahrini keltirardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Menga faqat qiz bola deb qaraydiganlar g‘azabimni keltiradi, men, avvalo, odamman», – degan edingiz. P.Qodirov. Uch ildiz.

achchig‘(i)ni keltirmoq: achchig‘(i) keldi

achchig‘(i) chiqdi: jahl(i) chiqdi

BAD OLMOQ/ BAD YEMOQ *kimdan?* shubhalanmoq, shubha qilmoq, hadiksiramoq.

Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo‘ygan va tong vaqti, ular uyquda ekan chog‘ida g‘oyib bo‘lib, yana shubhani orttirgan bo‘lsa kerak. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

badan(i)dan ter chiqib ketdi: a‘zoyi badan(i)dan sovuq ter chiqib ketdi

BADANIDAN O‘T CHIQMOQ *kimning?* isitmalamoq; xafa bo‘lmoq.

Bu so‘z misoli bir chaqmoq bo‘lib tegdi-da, badanimdan o‘t chiqarib yubordi. O.Yoqubov. Bir felyeton qis-sasi.

badan(i)dan o‘tib ketmoq: suyak-suyag(i)dan o‘tib ketmoq

BAHAM KO‘RMOQ *kim? nimaning? kim bilan?* birgalikda iste‘mol qilmoq, bir qismini boshqaga bermoq

Mana, oz bo‘lsa ham, ko‘p o‘rnida ko‘rib, yo‘lda ulfatlar bilan baham ko‘ringlar. I.Rahim. Chin muhabbat. *Och Rossiya bo‘lsa yeb turgan nonini birga baham ko‘rib, xalqimizga bug‘doy yubordi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

baho berilmoq: baho bermoq

BAHO BERMOQ *kim? kimga? yoki nimaga?* qadr-qiymatini belgilamoq, baholamoq. Varianti: **baho berilmoq nimaga?**

Sherbek Akramga baho berishda shaxsiy adovat hislarining ta‘siriga berilib ketmadimikan... S.Anorboyev. Oqsoy. ...odamlarning obro‘sigaqarab emas, ishiga qarab baho beriladi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

BAHO(SI) OSHIB KETDI *kimning? yoki nimaning?* – **BAHO(SI) NI OSHIRIB YUBORMOQ** *kim? kimning?* obro‘-e‘tibori ko‘tarildi.

Ro‘zg‘orni tebrata boshlagandan beri otamning nazdida ukamning bahosi oshib ketdi. So‘zlashuv uslubi. Qo‘ziboy esa «Oqtoy»ning bahosi oshib ketganidan mag‘rur edi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar. *Labbay? Mehmonning oldida judayam bahoyimizni oshirib yubormang deysanmi?* M.Muhamedov. Yurak so‘zlari.

BAHO(SI) YO‘Q 1 *nimaning?* sifati, holati yuksak darajada yaxshi.

«Ha, aytmabmidim yeringning bahosi yo‘q deb, – dedi alamzada ohangda Shodimat. – Yer emas, go‘yo xamirturush, ekaningni undiradi, o‘stiradi, hosilni oshiradi.» A.Muhiddin. Oshnalar.

2 kimning? xulq-atvori, odamgar-chiligi havas qiladigan darajada yaxshi

Ha, bolangni so‘radi, «Yig‘lamay o‘tiribdimi?» – deydi. Ko‘nglim allanechuk bo‘lib ketdi. Xudo umrini bersin, xo‘p juvon-da, bahosi yo‘q juvon! A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Qo‘ltig‘imdan ko‘tarishib, axaltekinga mindirib qo‘yishdi. Bahosi yo‘q yigitlar-da, shovvozlar! S.Anorboyev. Oqsoy.

baho(si)ni oshirib yubormoq: baho(si) oshib ketdi

BAHONAYI SABAB DIYDOR G‘ANIMAT bir narsani bahona qilib, maqsadga erishmoq.

Arslonqul aka bahona, sizning diydoringiz g‘animat. Sharq yulduzi.

bahr olmoq: bahra olmoq

bahr(i) ochildi: bahr(i)ni ochmoq

bahr(i)dan kechmoq: bahr(i)dan o‘tmoq

BAHRA OLMOQ kim? nima-dan? yoki kimdan? manfaat ko‘rmoq, foydalanmoq.

Endi paxta qurimaydi, namni asta shimib turaveradi, undan payvand bahra oladi. S.Nazar. Yashil boylik. Ariq bo‘yida suv shabadasidan bahra olib yurish naqadar ko‘ngilli! I.Rahim. Ixlos. Darsga ham qanoat qilmay, domlaga yaqin bo‘ldim, uyiga qatnadim, uyimga chaqirdim. Lekin domladan yetarli bahra oldimmi? Yetarli bahra olganim yo‘q. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

BAHR(I)DAN O‘TMOQ kim? nimaning? yoki kimning? foydali deb bilgan narsasidan yoki kishisidan voz kechmoq. Varianti: **bahr(i)dan kechmoq.**


Kelin olomon ichida adashib qolsa, xudo ko‘rsatmasin, Valixon janoblari yuzta mendaqa Risolatning bahridan o‘tib yuboradi-ku. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Muhim tajriba bo‘lmaganda, bahridan kechardim. S.Nazar. Yashil boylik. Bu xotinning bahridan kech! Men ertagayoq eshagimning boshini Mirahmadnikiga buraman. Oybek. Oldin vodiyan shabadalar.

BAHR(I)NI OCHMOQ nima? kimning? yoki kim? kimning? nima bilan? – **BAHR(I) OCHILDI** kimning? [nimada?] kayfiyatini yaxshilamoq. Varianti: **bahri dil(i)ni ochmoq** – **bahri dil(i) ochildi; dil(i) ochildi.** Sinonimi: **dimog‘(i) chog‘ bo‘ldi** kimning? [nimadan?] – **dimog‘(i)ni chog‘ qilmoq** kim? [o‘zining]; **kayf(i) chog‘ bo‘ldi** kimning? nimada? – **kayf(i)ni chog‘ qilmoq** nima? kimning?

Kishining bahrini ochadigan salqin, sokin bir oqshom edi. O.Yoqubov. Ikki muhabbat. Dalaga chiqing, mehнатda bahringiz ochiladi. A.Muxtor. Hayotga chaqiriq. Yaxshisi, sen uning ko‘nglini ko‘tar, tomosha qildir, bahrini och. I.Rahim. Ixlos. Oysuluvlarning qo‘nishida kishining bahri dilini ochadigan nima bor? S.Anorboyev. Oqsoy. Dalaga chiqing, bahri dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz. Oybek. Qutlug‘ qon. Qanaqasizlar, qizim, kishi undan-bundan gapirishsa, chigili yoziladi, dili ochiladi. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil.

bahri dil(i) ochildi: bahr(i)ni ochmoq

bahri dil(i)ni ochmoq: bahr(i)ni ochmoq



bajo keltirilmoq: bajo keltirmoq
BAJO KELTIRMOQ kim? nima? ni-
mani? **1** bajarmoq. Varianti: **bajo**
keltirilmoq nima? Sinonimi: **o'rniga**
qo'ymoq 1 kim? nimani? [uning]

U hammasini bajo keltirishni istaydi, biroq, nima qilsa ham, vaqti yetishmaydi. P.Qodirov. Uch ildiz. *U do'stining vasiyatini oxirigacha bajo keltirgan, rozi-rizolik tilab yozgan nomasini menga yetkazgan.* H.Nazir. Odamning qadri. *Mana, zakazingiz bajo keltirildi.* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

2 o'rinlatmoq (ijobiy). Sinonimi: **o'rniga qo'ymoq 3** kim? nimani? o'rniga keltirmoq kim? nimani? [uning]

Muhiddin hurmatni bajo keltiray dedi shekilli, dastlab ... Komiljonga qarab javob qildi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Murod mirzo bosh egib, ta'zim bajo keltirdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

BAJON-U DIL samimiyat bilan, ishtiyoq bilan, xohish bilan.

Oygiz har safar biron maslahatni ko'pchilik o'rtasiga tashlaganida yoxud biron vazifani tushuntirganda, hamma vaqt uning fikrini ma'qullashar va bajon-u dil ishga kirishar edi. Sh.Rashidov. G'oliblar. *–Bajon-u dil, – dedi Muhammadrajab uzr-ma'zur kechasi qaysi kuni va qanday bo'l-sin desangiz biz xizmatda...* A.Qahhor. Sarob.

BALAND DORGA OSILMOQ kim? mavqeyi o'zidan ancha yuqori oilaga quda bo'lish (qiz tanlash, yigit tanlash) niyatini bildirmoq.

Nima qilaylik, qorachamiz, xo'jalarning tengi emasmiz. Bilib turib

baland dorga osildik, ayb o'zimizda. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Bu ishda boy o'rtada turmasa, bilib qo'y, polvon, bir nima chiqishi qiyin. Nainki xumsa Yormating baland dorga osiladi.* Oybek. Qutlug' qon.

BALAND KELMOQ 1 kim? yoki nima? nimada? yoki nimadan? kuchli bo'lib chiqmoq. Sinonimi: **zo'r kelmoq 2** nima? **ustun kelmoq** kim? kimdan? yoki nima? nimadan? **g'olib kelmoq** kim? [kimdan?] yoki nima? [nimadan?]

Kimsanning so'zidan ba'zilar kulgan bo'lsa, ba'zilar masxaraladi. Kimsan o'z da'vosida tobora baland kelar edi. S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan. *O'shanda Shoazim gapga chechanlik qilib, baland kelgani Mahkamning yodiga tushdi-yu...* P.Qodirov. Uch ildiz.

3 kim? [kimdan?] do'q, po'pisa bilan yengishga intilmoq. Antonimi: **past kelmoq** kim? [kimdan?]

«Og'zingizga qarab gapiring, g'iybat qilib nima qildik?!» – *Odilov baland kelmoqchi bo'lib bo'yini cho'zdi.* S.Zunnunova. Yangi direktor. *Gapirmang. Qilg'iliqni qilib qo'yib, yana baland kelasiz-a! Sizga bu jazo ham kam!* A.Muhiddin. Ko'ngillar. *Mirazim – qo'rqqoq tabiat odam, sal balandroq keldingmi, bo'ldi – ishing bitadi-qoladi.* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

baland oxurdan o't yeydigan: baland oxurdan yem yeb o'rgangan

BALAND OXURDAN YEM YEB O'RGANGAN hashamatli, to'kin-sochin hayot kechirib, o'zini katta tutib, katta gapiradigan. Varianti:

katta oxurdan yem yeb o'rgangan, baland oxurdan suv ichmoq, baland oxurdan suv ichmoq.

Baland oxurdan yem yeb o'rgangan kishi avval boshi qo'rqib ketadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Bilgandirsiz bir uchini, baland oxurdan yem yeganlardan. Katta og'iz bo'lib ketgan, degani – degan, aytgani – aytgan bo'lgan. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. «Katta oxurdan yem yeb o'rganganga o'xshaydi», – deb ko'nglidan o'tkazdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

baland oxurdan suv ichmoq:
baland oxurdan yem yemoq

baland oxurdan suv ichmoq:
baland oxurdan yem yemoq

BALANDDAN KELMOQ kim?
1 imkoniyat doirasidan orttirib gapirmoq.

Bu qanday odam? Gapga kelganda, ulug'sifat, chechan, balanddan keladi, ishga kelganda, hammaning hafsalasini pir qiladi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 kim? juda qimmat so'rash [narxni], bahosini oshirib yubormoq.

Ha. Ahmad buncha balanddan kelasan, sal tushgin. Mushtum.

BALO BORMIDI – senga nima bor, keraging yo'q, nima qilar edi.

Iqbol nimalarnidir xayolidan kechirar, ariq bo'yida ot qashilayotgan ana u Hamid baymoqqa balo bormidi, gap tashlayman deb tomog'ini qirib qo'ydi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

BALO HAM URMAYDI hech narsa bo'lmaydi, hech narsa ta'sir qilmaydi.

Mening buvim tirikchilik dardida kechami, kunduzmi surishtirmay uzoqlarga ketadi. Men bo'lsam huvullagan hovlida yolg'iz yotaveraman, balo ham urmaydi. Oybek. Bolalik.

BALO ODAM juda chaqqon, epchil, usta, abjir.

– *Jo'rttaga ko'ringansan, yosh bo'lsang ham balo odamsan. Oybek. Qutlug' qon.*

BALO TOG'I katta musibat, falokat.

Tevarakda odam ko'p edi. Bular tor-u mor qilingan maktab bolalarining otalari, akalari. Bularni maktab boshiga, bolalarning boshiga ag'darilgan balo tog'i keltirgan edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

BALO URMOQ kimni? biron-bir shikast yemoq, yomonlikka uchramoq.

Joni ham, boshi ham metin ekan, shuncha sanchaman, Gulnorga balo urganini eshitganim yo'q. Oybek. Tanlangan asarlar.

BALODAN QUTULMOQ kim? falokatdan, baxtsizlikdan qutulish, xalos bo'lish.

Bo'ta yig'lab yubordi. Domla bu balodan qanday qutulish yo'lini izladi. Dushman.

balo(si)ga duchor bo'lmoq: baloga uchramoq.

balo(si)ga qolmoq: baloga qolmoq

BALOGA QOLMOQ kim? kimdan? javobgarlikka, jazoga duchor bo'lmoq. Varianti: **balo(si)ga qolmoq** kim? kimning?

Kishi molini saqlash benihoyat qiyin, uka. O'lib-netib qolsa, baloga men qolaman. Oybek. Qutlug' qon. *Yo'q, chevar xola. Ayamdan nax balolarga qolaman. Kunduziga ham zo'rg'a javob berishdi.* S.Abdulla. Muqimiy. «*Ayb universalchilaring-da*», – degan edi, universalchilardan *baloga qoldi.* I.Rahim. Hilola. «*Hoy, kelinoyi, o'zingizni bosing, yuring uyga kiring*», – deyarmanmi, *qoldim baloga.* R.Fayziy. Yangi yil oqshomida. *Nuqul mana shunday sho'r peshonalarga yo'liqib, ularning balosiga qolib yuraman.* A.Muxtor. Tug'ilish.

BALOGA QO'YMOQ kim? kimni? javobgar, gunohkor deb da'vo qilmoq.

«*Ha, qizim, nima gap? Boshimni baloga qo'ydingiz-ku!*» – dedi unga qarab. S.Ahmad. Qadrdon dalar. *Voy o'lay, acha, buni tag'in Do'ndig'ingiz ko'rib qolmasin, baloga qo'yadi-ya. Shu zamonning qizlari hammani qo'yib ko'zmunchoq taqar-midi?! Oydin. Do'ndiqdan ham yosh ekan.*

baloga uchrasin: baloga yo'liqsin

BALOGA UCHRAMOQ kim? halokatga uchrash, musibat tushmoq, baxtsizlikka yo'liqmoq.

Bir shirin turmush qilay deb bedavoga uchradim, Oshga tayyor, ishga ayyor ro'dapoga uchradim. Tobi yo'q mehnatga aslo, bir baloga uchradim. Mushtum.

baloga yo'liqmoq: bir baloga yo'liqmoq

baloga yo'liqqur: baloga yo'liqsin

BALOGA YO'LIQSIN kim? ko'ngilsizlik, kulfat tilab qarg'ash (ayol-

lar nutqida ishlatiladi). Varianti: **baloga yo'liqqur; baloga uchrasin.**

Baloga yo'liqsin mingboshisiyam, hokimiyam! M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Bo'lmasa jul puli deb kelishga yuraging dov bermasdi, xe baloga yo'liqqur ellikboshi!* Sh.Toshmatov. *Erk kushi. ... Ana u qurumsog-lar-chi, bay-bay-bay... Biram ko'ngli egri-yey-y... Baloga uchrasin!* A.Qahhor. Sarob.

BALOYI AZIM qutulib bo'lmaydigan, olg'ir, ayyor, makkor, abjir, epchil.

U-bu baloyi azimdan qanday qutitishni, uning gaplariga qanday javob berishni bilmasdi. S.Ayniy. Doxunda.

BALOYI NAFS ochko'zlik, nafs uchun.

O'zining hamfikrlariga: «Endi bu bilan hazil qilma, murosa qilib yashash ilojini qila ber. Kattarog'ini «aka» de! – qo'ltig'iga kir, kichikrog'ini «uka» de! – qo'ltiqqa ol, ko'nglini top! Baloyi nafs har qanday man-man deganni ham oldingda tiz cho'ktiradi» deb o'rgatadigan bo'ldi. P.Tursun. O'qituvchi.

BALONI QAYTARMOQ kim? falokatdan xalos qilmoq, qutqarmoq

– *Sen ham izmimda bo'lsang, boshingga tushgan baloni qaytaraman.* Mirmuhsin. Cho'ri.

BALONING O'QIGA UCHRAMOQ kim? yomonlikka duchor bo'lishni xohlash, asosan ayollar nutqida qo'llanib qarg'ishni bildiradi.

Baloning o'qiga uchragur, jallod Senga kor etmadimi bu yoniq faryod. Yashin. Nomus va muhabbat.

BALONI O'ZIGA SOTIB OLMOQ *kim?* tashvishni o'ziga-o'zi ort-tirmoq.

Borman deb, bolam, sherdil bo'l-magin, Yigitlik asari – g'ayrat qil-magin, Baloni o'zingga sotib olmagin. F.Yo'ldosh. Alpomish.

BALOG'ATGA YETMOQ 1 *kim?* yoshi oila qurish darajasiga bor-moq (yigit-qiz).

«Ertaga qizingga balog'atga yet-gan deb spravka qilib beraman», – dedi Tojiboy. P.Tursun. O'qituvchi.

2 *nimada?* yetuk, yuksak darajaga erishmoq (umuman). Sinonimi: **kamolga yetmoq** *kim?* **kamol topmoq** *kim?* yoki *nima?*

Yo'q, inson hanuz ..., balog'at-ga yetmagandir. A.Qahhor. Sarob. *Kechagina shinel kiygan Chernitsov harbiyda tishi chiqib, harbiyda ba-log'atga yetgan kapitanga taktikadan dars bermoqchi deb o'yladi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

BAND TASHLAMOQ *kim?* ilgari-tan tayyorlik ko'rmoq, imkon yaratishga urinmoq, harakat qilmoq.

O'qilgan leksiyalarga tegishli haq to'lash to'g'risida ilgari imzo qilib, buxgalteriyaga o'tkazgan. Daminov-ning o'zi yana qaytib ... olinadigan haqqa band tashlab qo'ydi. Gazetadan.

BANDALIK QILMOQ yoki **BANDALIKNI BAJO KELTIRMOQ** *kim?* vafot etmoq, qazo qilmoq, o'lmoq.

Bahrombekni zo'rg'a tashqariga olib chiqdi, fотиha qilib, bandalikni bajo keltirgan musofirning yuziga oq doka yopdi. «Yoshlik».

BARAKA TOP(GUR) omad tilab tahsin bildirmoq.

«Ammo-lekin, Asrorqul, baraka top!» – dedi Haydar ota rayhonni chakkasiga taqib. A.Qahhor. Asror bobo. *Baraka top, uch-to'rt kun qi-yinchilikni o'zingga olasan.* S.Ahmad. Muhabbat. *Baraka topkur, yaxshi qiz.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

BARAKA TOPMASLIK *kim?* nima-dan? ijobiy, foydali natijaga erish-maslik.

Janjaldan hech kim baraka topgan emas. Indamay qo'ya qoling. A.Qahhor. Og'riq tishlar.

BARAKASI KETDI yoki **BARAKA KO'TARILDI** *nimaning?* se-robligini yo'qoldi, mo'lligi barham topdi.

Bir kun janjal chiqqan uydан qir-qun baraka ko'tariladi. Maqol.

BARAKASI UCHDI *nimaning?* keskin kamaymoq.

«Ha» desa, ertagilik uning barakasi uchadi, «yo'q» desa, bugun-gi ovqatning mazasi qochadi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Nazir-niyozlarning ham barakasi uchdi.* S.Ahmad. Hukm.


BARAKA QILING [DENG] xo'p deng, shu bahoga rozi bo'ling, shu narxga rozi bo'ling, kelishdikmi.

Ayrim chorbozorchilar «baraka qiling», «bor baraka» deb, mehnat-kashlarning nonini tuya qilish bilan mashg'ul bo'lmoqdalar. Mushtum.

BARAVAR KELMOQ *nima?* 1 turli ko'rsatkich va belgilariga ko'ra bir xil chiqmoq.

Kirim bilan chiqim baravar keldi;

2 muvozanatga kelmoq, tenglashmoq.



Tarozining pallalari baravar kel-
di. So‘zlashuv uslubi.

3 ko‘chma. biror harakatda (jan-
jalda, munozarada, kurashda) teng
kelmoq, bas kelmoq.

*U bilan baravar kelib bo‘ladimi?
O‘zing bilasan, qachon qarasang,
katta-kichikka baravar, hamisha
kambag‘allar foydasini ko‘zlaydi.*
H.Shams. Dushman.

4 «teng, bir xil» ma’nolaridagi ke-
sim vazifasida.

Qoplarning og‘irligi baravar keldi.

BARDOR-BARDOR QILMOQ
*kim? kimni? xushomadgo‘ylik bilan
obro‘sini oshirmoq.*

*U asta-sekinlik bilan xo‘jayin-
larning soyasiga ko‘rpacha soladi-
gan, ularni bekordan bekorga bar-
dor - bardor qiladigan odat chiqardi.*
Mushtum.

BARDOSH BERMOQ *kim? yoki
nima? nimaga? chidamoq.* Varianti:
dosh bermoq.

*Onalar shunday. Farzandim deb
har qanday og‘ir daqiqalarda o‘zini
tuta oladi, hammasiga bardosh bera
oladi.* R.Fayziy. Cho‘lga bahor kel-
di. Biroq hademay bizning zarbimiz-
ga dushman dosh berolmay qoladi.
Oybek. Quyosh qoraymas. Chunki u
vaqtda hali Mirzacho‘l shamoli avjida
bo‘lib, unga mana shunday binolargi-
na dosh berardi. A.Muxtor. Daryolar
tutashgan joyda.

BARGIDA YURMOQ *kim? o‘ta
ayyor.*

*Lekin rahbar qiyofasidagi odamni
kasbi-kori yo‘q deb tanqid qilish odat-
ga kirmagan. Bunday odam bargida
yuradigan soxta bo‘lib qolganini o‘zi*

ham fahmlamaydi. A.Muxtor. Tug‘i-
lish.

barham berildi: barham bermoq
BARHAM BERMOQ *kim? ni-
maga? – BARHAM BERILDI ni-
maga? ongli aralashuv bilan bartaraf
qilmoq, yo‘q qilmoq.*

*Vohid buni butun vujudi bilan his
etar, janjalga barham berish kerak-
ligini tushunar, lekin negadir jur‘at
etmas, nimadir uni to‘xtatib turardi.*
O.Yoqubov. Tilla uzuk.

BARHAM TOPMOQ *nima?
ongli aralashuvsiz, o‘z-o‘zicha bar-
taraf bo‘lmoq, yo‘q bo‘lmoq. Si-
nonimi: barham yemoq nima?*

*Darhaqiqat, bu mojaroning bosh-
qa oqibatlari hozir uning ko‘ziga
o‘z-o‘zidan barham topgan va topa-
diganday ko‘rinar edi.* A.Qahhor.
Qo‘shchinor chiroqlari.

BARHAM YEMOQ *nima? ong-
li aralashuvsiz, o‘z-o‘zicha bartaraf
bo‘lmoq, yo‘q bo‘lmoq. Sinonimi:
barham topmoq nima?*

*Bu vahshiy odatlar: qalin olishlar,
zo‘rlab erga berishlar qachon bar-
ham yeydi? P.Tursun. O‘qituvchi.*

BARMOQ BILAN SANARLI
juda oz, bir necha.

*Ilgari barmoq bilan sanarli ish-
chi, xizmatchilar 1907–1910-yillarda
bir ming olti yuzga yetib borgan edi.*
A.Muhiddin. Gigant «Qizil sharq».

barmoq orasidan qaramoq: pan-
ja orasidan qaramoq

barmog‘(i)ni bigiz qilmoq: qo‘-
l(i)ni bigiz qilmoq

BARMOG‘(I)NI TISHLAMOQ
1 *kim? [o‘zining] hech narsa qilolmay,
natijaga erisha olmay lol qolmoq.*

Dushmanlar, raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar, maqsadga yetishgan bo'lardim. Oybek. Nur qidirib. Nega barmog'ingni tishlaysan, Berdi? Qizig'ida bosilmagan temirni bolg'a bilan bukib bo'ladimi?! I.Rahim. Ixlos.

2 afsuslanmoq.

«Voy attang, g'afolatda qolibmiz», – dedi barmog'ini tishlab Hayitmat aka. N.Maqsudiy. «Laylatulqadr». Zaynabga salom aytib, yigit velosipedga mindi. Komili allanechuk o'ksib, barmog'ini tishlab qoldi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

barq urdirmoq: barq urmoq

BARQ URIB I gurkirab, g'oyat tez, yayrab-yashnab.

Ikki chopiqdan chiqarilgan g'o'zalar barq urib rivojlanmoqda. R.Fayziy. Cho'lda bahor keldi. G'o'zalarining barq urib o'sishi kishining havasini keltiradi: R.Fayziy. Cho'lda bahor keldi.

barq urib II: barq urmoq

BARQ URMOQ nima? yashnamoq, jilolanmoq. Varianti: **barq urib II; barq urdirmoq** nima? nimani?

Boqishlarida allaqanday mayinlik, mehr barq urardi. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon. Mayna uning ...ozg'in yuzida barq urib turgan qat'iyat va shafqatli ko'zlariga e'tibor berdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Oftob qo'ng'ir sigirning sag'risiga barq urib tushib turardi. G'.G'ulom. Hiylayi shar'iy. ...muhabbat harorati va ziyosi ikki vujudni bir-biriga bog'laydigan son-sanoqsiz tuyg'ularni barq urdirardi, chechaklar ottiradi. A.Qahhor. Sarob.

BAS KELMOQ nima? yoki kim? nimaga? yoki kimga? nimada? kurashda, tortishuvda tang holatga erishmoq. Sinonimi: **teng kelmoq** kim? kimga?

Ko'nglim ...o'n yil mobaynida boshqa orzu-havaslariga bas kelib, o'z muddaosi yo'lida qat'iyat bilan bardosh berdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Bunday vaqtda olti yuz-yetti yuz qo'yg'a ikki-uch cho'pon bas kelolmaydi. S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi. Uning nazarida, ... endi unga bas keladigan kishi qolmadi. I.Rahim. Chin muhabbat. Rebrov ajoyib jangchi, ayniqsa nayza-bozlikda hech kim unga bas kelolmaydi. M.Muhamedov. Qahramon izidan.

BAXT BITMOQ [baxt bit=] tar. kimga? yaxshiliklar boshlanmoq.

Falax aylanmasi-la davr yetgay, Adolat urug'undin baxt bitgay. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

BAXT ESHIGINI OCHMOQ baxtli qilmoq, baxtiyor qilmoq.

Siz meni Toshkentdagi doktor opamga ko'rsatib, baxt eshigini ochib berdingiz. Men ham sizga baxt eshigini aqalli uzoqdan ko'rsatib qo'yishim kerak. H.G'ulom, Mash'al.

BAXT QUSHI baxtiyorlik, baxtililik, baxtli.

Baxtning qushi bizga tomon qanot qoqdi, Kambag'allar kulbasiga chiroq yoqdi. A.Qodiriy. Obid ketmon. Shunday og'ir urush bo'layotgan vaqtda bir qishloqqa ikki traktor qaytib kelgani – baxt qushining qaytib qo'lingga qo'ngani. I.Rahim. Chin muhabbat.

baxt qushi boshiga qo'nmoq:
boshiga baxt qushi qo'nmoq

BAXT QUSHINI UCHIRIB YUBORMOQ kim? baxtsiz bo'lmoq, baxtini qo'ldan chiqarib yubormoq, sevgilisidan ayrilib qolmoq.

U inisining o'jarlik qilib, boshiga qo'ngan baxt qushini uchirib yuborishidan qo'rqdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Men ularga xalaqit berdim, ularning gapini bo'ldim. Kenjaning baxt qushini uchirib yubordim.* I.Rahim. Chin muhabbat.

BAXTASH TAVAKKAL tavakkal qilmoq, tavakkaliga, nima bo'lsa bo'lar.

– *Ha, bo'ldi. «Xo'sh, baxtash tavakkal qilib ko'raymi, bo'lmasa» demoqchi edim, shekilli, – dedi Xolmurod.* P.Tursun. O'qituvchi.

BAXTGA QARSHI kutilganning aksi bo'lib; afsuski.

Baxtga qarshi Saida uning xohishini payqamadi. A.Qahhor. Sinchalak. *Baxtga qarshi u poxodning uchinchi kuniyoq oyog'idan o'q yeb, boshqa yaradorlar bilan qaytib ketgani uchun otryadning keyingi taqdirini yaxshi bilmas ekan.* O.Yoqubov. Ota izidan.

BAXTI KULMOQ (yoki **OCHILMOQ**) kimning? baxtiyor hayotga, xushnud onlarga erishmoq; baxtli, baxtiyor bo'lmoq.

Ajab emas, baxti ochilib, Gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa. Oybek. Tanlangan asarlar.

BAXT(I) OCHILDI kimning? 1 oila qurib, shirin, osoyishta hayot kechirish chog'iga yetishmoq (asosan ayollarga nisbatan ishlatiladi).

Sabr qil, yaxshi kunlarni kut, ehtimol, baxting ochilib ketar. I.Rahim. Ixlos. *...qizga oltin taxt emas, barmoqday baxt tila... Ajab emas baxti ochilib, Gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa... Oybek. Qutlug' qon. Lekin, baxting ochilgur, ish-qilib, hech qachon birorta olg'irning qo'liga tushmasin-da.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Qo'lingni ber, do'stim, senga ham, menga ham sevisch chog'i kelibdi, baxtlarimiz ochilsin!* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 hayotida xursandlik, mamnunlik holatiga erishmoq.

baxt(i) qoro: baxt(i) qora

BAXT(I) QORA [kimning?] hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o'tadigan. Varianti: **baxt(i) qoro; baxt(i) qoraligi.**

Shuning uchun qishloqda ham o'z jonining qayg'usi bilan emas, baxti qora xalq qayg'usi bilan yashay boshladi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Ayriliqda bu hayotim achchiq-u baxtim qaro.* S.Abdulla. Muqimiy. *Sho'rlik buvim, men baxti qorangizni deb shu ko'yg'a tushdingizmi?* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BAXT(I) QORA BO'LDI kimning? yoki kim? – **BAXT(I) QORA QILMOQ** kim? kimni? hayoti xorlik-zorlikda, azobda o'tadigan bo'lmoq. Varianti: **baxt(i)ni qora qilmoq** kim? kimning?

...tez es-hushingni yig'ib, halol mehnatga qayishmasang, battar baxting qora bo'ladi. H.Nazir. Odamning qadri. *Rahimjon, endi nima qilay,*

xudo baxti qora qilib yaratgan ekan.
A.Qahhor. Sarob. *Nahotki xo 'jaligiga borib, G'ulomjonning ham, qizining ham baxtini qora qilsa?! M.Ismoiliy.* Farg'ona tong otguncha.

baxt(i) qora qilmoq: baxt(i) qora bo'ldi

baxt(i) qoraligi: baxt(i) qora

BAXTIDAN KO'RMOQ toleyini sinab ko'rmoq, tavakkal qilmoq.

– *Baxtingdan ko 'r, deyishadi ba 'zi birlar.* S.Anorboyev, Oqsoy.

BAXTIGA CHANG SOLMOQ baxtsizligiga sababchi bo'lmoq, baxtsizlikka yo'liqtirmoq. Varianti: **baxtiga changal solmoq.**

– *Nega sen birovning baxtiga changal solding? Eh, Anorxon, Anorxon... Amaliga uchdingmi yoki mashinaga? Qizlarning yuragi shunchalik beqaror bo'ladimi? I.Raxim, Ixlos. Xuddi uning baxtiga chang solganday ko'ziga yomon ko'rinib ketasan.* S.Anorboyev, Oksoy.

BAXTINI BOG'LAMOQ kim? kimning? baxtsiz qilmoq, baxtiga to'siq bo'lmoq.

Taqsir, qizning baxtini bog'lab qo'y-mang, kuyovga bering. «Oltin beshik».

baxt(i)ni qora qilmoq: baxt(i) qora bo'ldi.

BAY OCHMOQ bay puli, birinchi xaridorga mol sotib, savdoni boshlamoq.

Savdogar kulimsiragan holda bay pulini berib jo'nagandan so'ng, savdo ustida hozir bo'lgan Is'hoq so'fi o'zicha barmoqlari bilan hisob yurgizib qaraydi-da, domlaga tomon boshini chayqab kuladi. A.Qodiriy. Obid ketmon.

BAYI BU DUNYO – PULI OXIRAT unmaydigan qarz, bekorga.

– *Eshakni nasiyaga sotdik. – Kimga, qanchaga? – Olaqarg'aga, bayi bu dunyo, puli oxirat, – deb javob beribdi Afandi.* Latifalar.

BAYT-U G'AZALLAR AYTMOQ kim? kimning? sha'niga salbiy so'zlar bilan o'z noroziligini bildirmoq.

Zulfiqorovni xotini uyidan haydab yuboribdi va Qalandarovning nomini aytmagan bo'lsa ham, «suyangan tog' i» sha'niga qancha bayt-u g'azallar aytibdi. A.Qahhor. Sinchalak.

BAZMI JAMSHID katta bazm, maishatbozlik.

Bu kun man bilan bo'lasan. Bu yerda bir bazmi jamshid yasaylik. Oybek. Qutlug' qon. *Andijondagi Qaymoqxon ham kelibdi, bazmi jamshid desang-chi, yur! – dedi yigit va Sodiqni sudray boshladi.* A.Qodiriy. O'tgan kunlar. – *Majlis ikkiga chaqirilgan. Hali ular bazmi jamshid bilan ovoralar.* B.Rahmonov. Surmaxon.

BAG'R(I) BUTUN kimning? bolalari, eng yaqin tug'ishganlari bir joyga to'plangan, birga yashaydigan.

Andijonda o't yoqsam, O'shda tutun, Bu dunyoda bormikan bag'ri butun. Qo'shiqdan. Salom, Opanas Gavrilovich! Bag'ring butun-ku! M.Muhamedov. Kichik garnizon.

BAG'R(I) EZILMOQ kimning? azoblanmoq, ruhan qiynalmoq, o'rtanmoq.

Adolat onasini quchoqlab, yana yig'lay boshladi. «Bag'ring ezilib ketdi, bolam, kechadan beri» dedi ona

qizining yelkasini silar ekan. I.Rahim. Chin muhabbat. *Uning bag'ri ezilib, ko'zlariga to'lib kelgan yoshi qoracha yuziga yorqin irmoqcha bo'lib oqib tushdi.* H.G'ulom. Mash'al. *Ravshan desa, mening bag'rim ezilar. U bo'lmasa, mening uyim buzilar.* E.Jumanbulbul, Ravshan.

BAG'R(I) KENG 1 kimning? mehr-iltifoti ortiq darajada. Antonimi: **bag'r(i) tor 1** kimning?

Gap unda emas, yigit, sahromiz keng, bag'rimiz undan ham keng. H.Nazir. Odamning qadri. *Mahkamning oldida Mahmud akaning otalik obro'si shunchalik baland va bag'ri shunchalik keng ediki, «Hayotim chidab bo'lmas darajada tor kelgan paytda ham mana shu keng bag'ir men uchun ochiq-ku!» degan o'y unga katta bir ma'naviy tayanch bo'lib tuyularladi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

2 nimaning? hamma panoh topib ketadigan. Antonimi: **bag'r(i) tor 2** kimning?

Ular: «Pul bo'lsa, changalda sho'rva», – deb hamma yerda boshpana ham, kayf-u safo ham topardilar. Ularga shaharning bag'ri keng edi. P.Tursun. O'qituvchi.

BAG'RI KUYMOQ ezilmoq, qiynalmoq, azoblanmoq.

Kuydi bag'rim Salomxonning uyida, o'sha soyning bo'yida. Mirmuh-sin. Cho'ri.

BAG'RI MEHNAT O'TINA KABOB BO'LMOQ [bayri mihnät otina kabab bol=] tar. kimning? qiynalmoq, ko'p azob chekmoq. Varianti: **bag'ri kabob bo'lmoq.**

Ko'rdum: surati holi xarob, dag'i bag'ri mehnat o'tina kabob bo'lmish. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

bag'ri qattiq: bag'ri tosh.

BAG'R(I) QON kimning? g'am-alamli, g'am-alamda. Varianti: **yurag(i) qon; yurak-bag'r(i) xun; dil(i) qon.**

Bizdan battar siz bag'ri qon ekan-siz. S.Abdulla. Muqimiy. *G'uncha endi ochila boshlagan onda bulbulni mudroq bosishi, yuragi qon qush ko'z ochib, yana dardliroq, yana o'tliroq kuylashini hikoya qildi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Siz bilmaysiz, yurak-bag'rim xun, axir maktab xavf ostida qoldi.* Oybek. Nur qidirib. *Odamlar qatra suvga tashna bo'lib tog' qazisalar. G'ulomjon ham suvga tashna jon, ham yor hajrida dili qon edi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BAG'RI QON BILAN TO'LMOQ [bayri qan bilän tol=] tar. kimning? ezilmoq, ruhan qiynalmoq. Varianti: **bag'ri qon bo'lmoq.** Sinonimi: **yurak-bag'ri ezilmoq.**

Yomon qiliqli kishi bir dushman alinda giriftor bo'lub tururkim, aning javrindan bag'ri qon bilan to'lub turar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

bag'r(i) qon bo'ldi: yurag(i) qon bo'ldi

BAG'R(I) TOR 1 kimning? mehr-iltifoti yetarli emas. Antonimi: **bag'r(i) keng 1** kimning?

Afsuski, Ra'no seni ko'rolmay qoldi. Bir marta ko'rsa ham, armondan chiqarmidi ekan bechora qizing. Uni aldayverib bardosh qolmadi. Mening bag'rim unga tor. Qiz bola otaga

shuncha ham mehribon bo'ladimi!
I.Rahim. Ixlos.

2 nimaning? hammaga ham panoh topilavermaydigan. Antonimi: **bag'r(i) keng.**

Toshkentning ham bag'ri tor bo'lib qolibdi. P.Tursun. O'qituvchi.

BAG'RI TOSH bemehr, iltifoti yo'q. Varianti: **bag'ri qattiq; tosh bag'ir** (oz ishlatiladi, sun'iy). Sinonimi: **mehri tosh.**

Hech insofingiz yo'q. Bag'ritosh! Sizning o'rningizda bo'lak odam bo'lganda, ming yomon ko'rsa ham, achchig'idan tushgandan keyin bir borib, o'sha bechorani yupatib, ko'z yoshini tindirib kelar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Sen qandaydir bevafo, biroq go'zal bir xotinning tashlandiq va qandaydir bag'ri qattiq, men tanimaga'n sayoq yigitning ko'zi ko'rmagan farzandi ekaningni bilib qolsang.* G'.G'ulom. Yodgor. *Ilk sahardan qosh qorayungacha baxil tabiatning tosh bag'ir yerida kesak maydalaydi, shudgor yumshatadi.* G'.G'ulom. Cho'tir xotinning toleyi.

bag'r(i) xun bo'ldi: yurag(i) qon bo'ldi

BAG'RI YONMOQ [bayri jan=] tar. *kimning?* o'rtanmoq, kuchli ruhiy iztirob chekmoq. Sinonimi: **yuragi yonmoq, bag'ri o'rtanmoq.**

Firoqi o'tina bag'rim yonib, ko'zlarim yurak qonin oqitti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BAG'RIDAN AJRATIB OLMOQ chetlashtirmoq, yaqin kishisidan, mehribon joyidan ayirish. Varianti: **bag'ridan yulib olmoq.**

Saodatning xayolidan onasi shu bugunoq o'z qizini Bahodirning bag'ridan ajratib olib, boshqaga, Zunnunovga berayotganga o'xshash jirkanch bir fikr yugurib o'tdi. I.Rahim. Ixlos. *Erta-indin bo'yiga yetgach, Ra'noni ham bag'ringdan yulib olishadi.* A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

bag'ridan yulib ketmoq: bag'ridan ajratib olmoq

bag'ridan yulib olmoq: bag'ridan ajratib olmoq

BAG'RIGA BOSMOQ kim? kimni? quchoqlamoq, erkalatmoq.

U E'zozxondan saboq olish uchun dastlab kelganida bir yarim yashar To'lqinni ko'rdi-yu, bag'riga bosib, quvonchini ko'ngliga sig'dira olmadi. H.G'ulom. Mash'al. *Adolat singlisini bag'riga bosib, ko'ziga jiqqa yosh oldi.* M.Rahim. Chin muhabbat. *Mang, oling meni, bag'ringizga bosing, erkalang.* H.G'ulom. Mash'al.

BAG'R(I)GA OLMOQ kim? kimni? oila, jamoa a'zolari qatoriga qo'shib, g'amxo'rlik ko'rsatmoq.

Ota hamma vaqt komandirovkada yurgani uchun, opasi Nadyani o'z bag'riga olgan edi. Oybek. Quyosh qoraymas.

BAG'RIGA PICHOQ URMOQ kim? kimning? ruhiy azoblamoq, ruhan ezmoq, azobga solmoq.

– *Mana u gaplarni aytdim-u, do'stingga yomon ko'rindim, bag'ringga pichoq urdi m, degani shu gaplarni aytgani.* Uyg'un. Do'stlar.

BAG'RIGA YEL TEGMOQ kimning? o'zini erkin his etmoq, yaxshi sharoitda yashamoq.

Bu gaplardan keyin O'lmasxonning bag'riga yel tegib ketdi. Shuhrat. Shogird.

BAG'RIGA O'T YOQMOQ alamini qo'zg'atmoq, xafa qilmoq, azob bermoq.

Ey janob, nimasini aytay. Bekor-ga bag'rimga o't yoqib nima qilasiz? Qo'ying, o'z alamim o'zimga yetib ortadi. Y.Hakimov. Sadoqat.

BAG'RINI DOG'LAMOQ kim? kimning? kuydirmoq, qiynamoq.

Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab, Borayotir qalmoq elin so'roqlab. F.Yo'ldosh. Alpomish. Butun jahonda biz kurashni boshlaymiz. Dushman bag'rini zafar bilan dog'laymiz. H.Shams. Dushman.

bag'r(i)ni ezmoq: yurag(i)ni ezmoq

bag'r(i)ni kabob aylamoq: bag'r(i)ni kabob qilmoq

bag'rini kabob etmoq [bay'rini kabob et=]: tar. bag'r(i)ni kabob qilmoq

BAG'R(I)NI KABOB QILMOQ kim? [o'zining] ruhan o'ta ezilmoq. Varianti: **bag'r(i)ni kabob aylamoq** nima? kimning? **yurak-bag'r(i)ni kabob qilmoq** kim? kimning? **dil(i) kabob bo'ldi** kimning? **bag'rini kabob etmoq.** tar. kimning?

Qorni och, yalang'och, darbadar, xarob, Ko'rdim-u, men qildim bag'rimni kabob. S.Abdulla. Muqimiy. G'urbatda bu tutqinliq shavqimni fig'on etdi, Bag'rimni kabob aylab, rangimni somon etdi. S.Abdulla. Alpomish. ...yurak-bag'rimizni kabob qilmang, jon Tamaraxon, endi Samarani to'g'rilavoring. A.Muxtor. Opa-singillar. Dili kabob bo'lgan polvon

bu yigit voqeasini to'laroq bilmoqchi bo'ldi. J.Sharipov. Xorazm. Ne sening bag'ring ul kabob etsin, Ne aning suhbatin tamanno qil. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BAG'RINI OCHMOQ kim? kim-ga? xursandchilik bilan kutib olmoq.

Sening g'oyang – sening quyo-shing. Quyoshingga boshingni tut, bag'ringni och, yo'lingdan qaytma. I.Raxim. Ixlos.

BAG'RINI QON QILMOQ kim? kimning? jonidan to'ydirmoq, joniga tegmoq, bezor qilmoq, qiynamoq.

Nega siz yana mening bag'rimni qon qilasiz. Aytdim-ku sizga men ol-ganim yo'q, yo'q... Sharq yulduzi.

BAG'RINI TESHMOQ kimning? azoblamoq, qiynamoq.

Adolat? Nega ona to'ng'ich qizini jahannamga tashlamoqchi? Ostin-ustin bo'lib ketdimi bu dunyo? Kim ostin-ustin qildi uni? Urush shuncha narsamiki, to'rt oy o'tmay, o'qlari bag'rimizni teshyapti. I.Rahim. Chin muhabbat. Faqat bitta-yu bitta gapingiz bag'rimni xanjarday tilib ketdi: siz meni mehnatdan qochgan debsiz, dangasalikda ayblabsiz. O.Yoqubov. Bir felyeton qissasi.

bag'rini tilmoq: bag'rini teshmoq
BAG'RINI TUZLAMOQ achitmoq, azob bermoq.

Qiz holima necha lofni so'zladi, Gapi o'tib, bag'rim kesib tuzladi. Ul sababdan menday ining bo'zladi. F.Yo'ldosh. Alpomish.

bag'rini zaxga berib yotmoq: ko'kragini zaxga berib yotmoq.

BAG'RINI YIRTMOQ qiynamoq, azoblamoq, burdalamoq.

«Ha la!» deyman tovonimdan yer o'tdi, falak jabri mening bag'rimni yirtdi. F.Yo'ldosh. Alpomish.

BAG'RINI YONDIRMOQ kim? kimning? o'rtamoq, qiynamoq, azob bermoq.

Adolatning yuzi o't bo'lib, onaning bag'rini yondirmoqda, ko'z yoshlaridan kuylagi ivimoqda. Qizning hasratini tushungan ona uning qalin sochlarni, qaynoq peshonasini silay boshladi. I.Rahim. Chin muhabbat.

bashara(si) qursin: bet(ing) qursin

bashara(si)ga oyna tutmoq: yuz(i)ga oyna tutmoq

BASHORAT KETURMOQ [bašarat ketür=] tar. kim? kimga? xabar olib kelmoq, ma'lumot aytmoq.

No'shiravoni odilga bir kishi kelib bashorat keturdikim: «Falon dushmaningni tangri ko'turdi». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BEANDAZA GAP o'rinsiz, turtiqsiz, qo'pol, soxta, bichimsiz.

Lekin ish boshiga kambag'al o'tirsin, degani – miyasi butun odam o'tirsin, degani ekan-da! Yo gapim beandazami?.. A.Qahhor. Sarob.

BEBILISKA PUL mo'may, mehnatsiz topilgan, yengil topilgan, tekin tushgan pul.

Nasimjon bebiliska pul topishga odatlanib, xizmatni tark etdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BEDANA YURISH mayda qadamlab yurish, pitirlab yurish.

Ofitsiantka ham xuddi shuni kutib o'tirgan ekan, bedana yurish qilib kela qoldi. Qizil O'zbekiston. Ular ham zangori, ko'k baxmal do'ppida,

bedana yurish qilib, tavoze bilan: «Assalomu alaykum» deb, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, o'tib ketdi. Mushtum.

BEDANANING UYI YO'Q, QAYERGA BORSA – BITBILDIQ betayin, beg'am, qo'nimsiz.

Ular «bedananing uyi yo'q, qayerga borsa – bitbildi» degandek, shaharma-shahar sanqib yurib, meh-natkashlar hisobiga yashaydilar. O'zbekiston madaniyati. Bedananing uyi yo'q, qayerga borsa – bitbildi. Rahmatlik otamning o'n uchinchi bolasi bo'lganman, tug'ilgan-u o'lganman. Sharq yulduzi.

BEGONA QILMOQ. 1 o'zidan uzoqlashtirmoq, yot kishilar qatoriga o'tkazmoq.

Aqlni begona qilmang! Agar chora ko'rish lozim bo'lib qolsa, men bu yerda. N. Safarov. Sohib changal.

2 ko'chma chetga ketkizmoq, birovning qo'liga, ixtiyoriga o'tkazib yubormoq.

Agar bundan keyin ham nasiyaga go'sht olmoqchi bo'lsalar, savdoni begona qilmay, mening oldimga kel-laversinlar. Latifalar.

bekor ketkazmoq: zoye ketmoq

bekor ketmoq: zoye ketmoq

BEKOR[LARNI] AYTIB(DI) kim? fikr-mulohazasi haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Ular o'ylaydilarki, madaniyat boshqalar uchun yaratilgan! Cho'ponlar esa na kitob bilan, na muzika bilan – hech narsa bilan qiziqmaydilar deb o'ylaydilar shekilli, bekorlarni aytishibdi! O.Yoqubov. Tog' qizi.

BEKORCHI XO'JA hech yerda ishlamaydigan odam.

Hash-po'sh deguncha zakaz tayyor bo'ldi. Yana bir necha bekorchi xo'ja Toshkentga jo'nadi. Mushtum.

BEL BOG'LAMOQ kim? nimaga? **1** shaylanmoq, otlanmoq. Varianti: **bel(i)ni bog'lamoq** kim? [o'zining] nimaga? belin bog'lamoq, bellarin bog'lamoq. Sinonimi: **yeng shimarmoq.**

Elchibek uning tez-tez nafas olayotganini sezdi, tiyron ko'zlarining yiltirashidan jiddiy gapga bel bog'laganini angladi. A.Muxtor. Tug'ilish. Sakkiz qavat ko'rpada oyog'ini uzatib yotgan keksalarning bel bog'lab dalaga chiqishi – boshqalarga o'rnak! I.Rahim. Chin muhabbat. «Belingni mahkam bog'la, o'zbek!» – degandek, mug'ombirona iljayib qo'ydi. Oybek. Quyosh qoraymas. Qator-qator san'atkorlar, ustozlardan nishona Bel bog'lashib xizmatdadir, doim xalqning ichida. S.Abdulla. San'atimiz tarixiga bir nazar. Onlar ichinda bir toifa borkim, doyim xizmatqa bellarin bog'lab dag'i karamga allarin ochib tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 astoydil kirishmoq. Varianti: **belni bog'lamoq, belni mahkam bog'lamoq.**

Ammo siz menga yordamlashing, qayerda bo'lmasin, qizni topishga bel bog'laylik. Oybek. Qutlug' qon. Bilib qo'ying. Ish og'ir. Belni mahkam bog'lamasangiz, qiyin bo'ladi. O.Yoqubov. Tog' qizi. «Ne o'turursankim, falon xoja karam alini ochib, fuqaro xidmatina belin bog'lab turur dag'i doyim ko'ngullar eshikinda o'turur». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

3 ahd qilmoq ... qarilik chog'ida yoshlanib, g'ayratga kirib, oxiriga-

cha sinfiy dushmandan o'ch olishga bel bog'lagan u cholning ko'nglini sindirish sira tuzuk emas. S.Ayniy. Qullar. Oksana ularni tushunmaydi, lekin negadir shu belgilarni tushunishga bel bog'lab, kechalari kitoblarni sinchiklab o'qiydigan bo'ldi. A.Muxtor. Oksana.

BEL BOG'LASHMOQ kim? kim bilan? yoki kimlar? musobaqalashmoq.

Paxta dalalarida kim ko'p, kim oldin, kim toza terishga musobaqa o'ynaydi. Bilim yurti, texnikum, FZU-larda ham bo'lsa kim oldin bilimli, dono bo'lishga bel bog'lashadi. G'.G'ulom. Kimsanoy to'g'risida besh qo'shiq.

BEL BUKMASLIK ishlamaslik.

Uning xususiyatlaridan bittasi «yoz bo'lsa-yu, qish bo'lmasa, osh bo'lsa-yu, ish bo'lmasa» deganlariday, bel bukmay non yeyish, mug'ombirlik bilan davlat orttirish edi.

BEL OLISHMOQ kim? kim bilan? **1** kurash tushmoq. Varianti: **bel ushlashmoq.**

Bel olishsang, kuchli polvon bilan olish. Yutqizsang, alam qilmaydi, yutsang, yana ham yaxshi. A.Muxtor. Janjalkash. Bir novcha bilan bir pakanani bel ushlashtirib, gap bo'ydami yo g'ayratda ekanini sinamoqchimiz. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 kuch sinashmoq. Varianti: **bel ushlashmoq.**

«Ana xolos, – dedi u, – erim bilan bel olishib ko'raman degin». G'.G'ulom. Eri bilan bas boylashgan xotin. Qani, qo'lni ber, uka, kelar yil musobaqada ikkimiz bel ushlashamiz.

Yuz sentnerga tobing bormi? Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BEL OG'RITMOQ *kim?* mashaqqat chekmoq.

«*Taxminan to'rt tanob*», «*Taxminan o'n tanob*», – *deb, bel og'ritmaydigan ishlardan kelgan pul bilan bino bo'lgan imoratlarda.* S.Ayniy. Qullar.

bel ushlashmoq: bel olishmoq.

BEL(I) BAQUVVAT *kimning?* badavlat, nufuzli yoki shunday orqa qiladigani bor.

Otangiz bor, belingiz baquvvat-da, o'g'lim! Oybek. Qutlug' qon. *Agar biror kattaroq idorada tuzukroq tanish-ing bo'lsa, marra seniki! O'shanaqa tanishi bor odamning beli baquvvat... bo'ladi.* S.Abduqahhor. Gap norda emas.

BEL(I) BOG'LIQ *kimning? nima?* shay, tayyor.

Gapiravering, yaxshi ishga belim bog'liq, – dedi Hakimboyvachcha. Oybek. Qutlug' qon.

bel(i) bukilmagan: beli sinmagan

bel(i) og'rimay: bel(i) og'rimaydi

BEL(I) OG'RIMAYDI *kimning?* mashaqqat chekmaslik, qiynalmaslik. Varianti: **bel(i) og'riydimi?! bel(i) og'rimay.**

Botmonni yigirma botmon taxminlasalar ham, beklarning beli og'rimaydi. S.Ayniy. Qullar. *Botmon chiqmaydigan hosilni taxminan o'n botmon deb, shuning yuzasidan mol qilib keta beradilar. Ularning beli og'riydimi?! S.Ayniy. Qullar. Yo merosxo'rlarim och-yalang'och qoladi deb qo'rqasizmi? Qo'rqmang, ular ham, sizga o'xshash beli og'rimay yeb-ichib yotishadi.* M.Ismoiliy. Farq'ona tong otguncha.

BEL(I) OG'RIYDI *kimning? nima?* og'rinmoq.

Boylar kambag'aldan shilishga usta. Xayr ishiga beli og'riydi. Oybek. Qutlug' qon.

bel(i) og'riydimi?!: bel(i) og'rimaydi

BEL(I)DA BELBOG'(I) BOR *kimning?* g'ururini yo'qotmagan, o'z qadr-qiymati uchun kurashadigan, izzat-nafsining tahqirlanishiga yo'l qo'ymaydigan.

Bey, ko'p ta'na qilaverma, belimda belbog'im bor, bunaqangi satang gap sha'nimga to'g'ri kelmaydi. M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. *Belingda belbolg'ing bormi?! Qanday sharmanda xudo urgan erkaksan? Xotining boy bilan o'ynashadi-yu, bilib turib indamay kelasan-a?* H.Hakimzoda. Boy ila xizmatchi.

BEL(I)DAN KUCH KESILMOQ [bel(i)dän küç kesil=] tar. *kimning?* qarimoq, keksaymoq, kuchdan qolmoq. Sinonimi: **belidan quvvati ketmoq.**

Kesildi yuk ko'targan kuch belindan, Ketibdur nozik erdamlar alingdan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BEL(I)GA TEPMOQ *kim?* yoki *nima? nimaning? nima? kimning?* istalmagan, kutilmagan o'rinda xalal yetkazmoq. Varianti: **belga tepmoq nima?**

Shirin kampirxonimizning oldida meni qo'llab-quvvatlamasangiz, ikki gapning birida suhbatning beliga tepadiganga o'xshaydi. M.Muhamedov. Yurak sirlari. *Ba'zi ayollarning o'rinsiz andishasi mana shunaqangi paytda ishning beliga tepadi-da.*

R.Fayziy. Shohi darparda. *Buning ustiga ob-havo belimizga tepdi.* I.Rahim. Ixlos. *Bahor biroz belga tepgan edi, haliyam uning sal-pal kasri bor.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

bel(i)ni bog'lamoq: bel bog'lamoq

belga tepmoq: bel(i)ga tepmoq

BELGA URIB TURGAN gurkirab o'sgan, uzun bo'yli.

Anna belga urib turgan g'ozalar oralab paykalga kirdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

BELI SINDI nimaning? inqirozga uchramoq. Sinonimi: **beliga tepmoq.**

...tezguzarliklar suv o'g'irlagan ekanlar, ekinimizni suv bostirdilar, hosil ham nobud bo'ldi, ishimizning ham beli sindi. S.Ayniy. Qullar.

BELI SINIB KETMOQ kimning? xonavayron bo'lmoq, bor bisotidan ayrilmoq, yengilmoq, mag'lubiyatga uchramoq, xarob bo'lmoq.

– *Ho, ho. Ko'p chiranma, Po'lat! Azizboy bilan olishganlardan ko'pining beli sinib ketgan-a.* N.Safarov. Sharq tongi.

BELI SINMAGAN buklanmagan yangi (pulga nisbatan qo'llanadi). Varianti: **beli bukilmagan.**

Mashinadan tushgan kishi cho'ntagidan beli sinmagan pullarni chiqarib sotiqchiga uzatdi va xarid qilgan buyumini qo'lga olib qaytimini ham kutmasdan orqasiga burilib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Mushtum.

BELINI BUKMOQ (EGMOQ) kim? kimning? yengmoq, ustini chiqmoq.

– *To'g'ri. Sening qaroring juda to'g'ri. Qurolimiz bo'lmasa Kuropat-*

kin belimizni bukib qo'yadi. N.Safarov. Sharq tongi. *Jabr egdi belingni, ko'rmading baxtdan nishon.* Mirmuhsin. Cho'ri.

belni bog'lamoq: bel bog'lamoq
BEMAHALDA QICHQIRGAN XO'ROZDEK kim? noo'rin harakat qilmoq.

Bu qanaqa mehmon bo'ldi? Bemahalda qichqirgan xo'rozdek nega yarim kechada mening huzurimga kelmoqchi bo'ldi? M.Muhamedov. Hazil va chin.

BEQAROR BO'LMOQ kim? toqatsizlanmoq.

Maloyik suratli gul yuzli dilbar, Seni ko'rgan odam bo'lar beqaror, Oy-u kundan sening ziyod husning bor, Nega qildi seni boylab giriftor. F.Yo'ldosh. Alpomish.

«BERDI»SINI AYTGUNCHA URIB O'LDIRMOQ kim? [kimni?] gapirib bo'lguncha kutmay (chidamay) biror narsa demoq.

«Xuddi o'sha ko'nglingdagi joyga bordik» – «Qayoqqa? Nega?» – «Berdi»sini aytguncha urib o'ldiradigan ko'rinasan. Sabr qilgin, bolam. Bir boshdan aytib beray. S.Anorboyev. Oqsoy.

«BERDI»SINI AYTMOQ kim? oxirini gapirmoq.

«Mirzakarimboy uylanarmish!...» – «Menga nima?» – dedi baqrayib temirchi. «Shoshma axir, «berdi»sini aytay. Kimga?degin, Yormatning qiziga!...» Oybek. Qutlug' qon. *Shoshmanglar. «Berdi»sini aytguncha sabr qilinglar.* S.Ahmad. Hodivoy.

bergan dalda: dalda bermoq

bergan javob(i): javob bermoq

bergan jazo: jazo (si) ni bermoq
bergan ko'ngil: ko'ngil bermoq
bergan ma'lumot(i): ma'lumot
bermoq

bergan savol(i): savol bermoq

bergan so'z(i): so'z bermoq II

bergan va'da(si): va'da bermoq

bergan xabar(i): xabar bermoq

BERI QARAMOQ tuzalish, yaxshilanish tomoniga o'tmoq, yaxshilanmoq (bemorning ahvoli haqida).

Bemorning ahvoli sal beri qaradi.

berilgan javob: javob bermoq

berilgan jazo: jazo(si)ni bermoq

bermoq: erga bermoq

BERSANG – YEYMAN, URSANG – O'LAMAN DEB daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanmay.

Men aytaman, bolam, qo'limdan shuncha ish kelar ekan, dadang hayot vaqtida nega bersang – yeyman, ursang – o'laman deb o'tirgan ekanman! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Kelinimga til tegizmang, qizarib qolasiz, kelinim sizga o'xshab bersang – yeyman, ursang – o'laman deb bo'lka nondek bo'kib o'tirgani yo'q, ishlang! S.Ahmad. Mastonbibi.

BESAR-U POY [besar-u paj] tar. kim?yoki nima? sarson, sargardon.

Falak ishqing yo'linda besar-u poy, Isirg'ang donasi – Zuhra, yuzung – oy. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

BET BO'LMOQ yuzma-yuz bo'lmoq, ro'para kelmoq, uchrashmoq.

Bola-chaqasining ko'z o'ngida sharmanda bo'lgan odam qayta boshdan ularga bet bo'lishga haddi bo'lmaydi. «Yoshlik».

bet ko'rmaslik: bet(i)ni ko'rmaslik

BETI QALIN uncha-muncha gap ta'sir qilmaydigan, so'z o'tmaydigan.

O'rtoq Shneyderman esa «...boshqasini bilmayman» deb betini qalin qilib turaveradi. Mushtum.

BETI YO'Q uyatsiz, nomussiz, hayosiz, sharmanda.

Elga qo'shilganning ko'ngli to'q, Eldan ajralganning beti yo'q, degan gapni eshitmaganmisiz. Sharq yulduzi.

bet(i) ochilib ketdi: yuz(i)ni ochib yubormoq

BET(I) QATTIQ kimning? gap-so'z, tanbeh ta'sir qilmaydigan, surbet. Varianti: **yuzi qattiq.**

«Abbosxon aka, olsinlar; shu qolmasin, olib qo'ya qolsinlar». – «Yo'g'-e, rahmat. Laganning tagi beti qattiqniki deyдилar», – dedi hazillashib Ahmedov. S.Zunnunova. Yangi direktor.

BET(I) QOTIB QOLGAN kimning? gap-so'z, tanbeh ta'sir qilmaydigan bo'lib qolmoq, surbet bo'lib qolmoq.

Kelinchak ham o'zining to'yida qo'shiq aytib, o'yinga tushadimi? Yoki Tatyanaagina shunaqami? Ro'zg'or ko'rgan, to'y ko'rgan, beti qotib qolgan. I.Rahim. Ixlos.

bet(i) shuvut bo'ldi: yuz(i) shuvut bo'ldi

bet(i) chidamadi: yuz(i) chidamadi

BET(I) CHIDAYDI [?] kimning? nomus qilmaslik, uyalmaslik, andisha qilmaslik. Varianti: **yuz(i) chidaydi [?]**

«Dadasi, – deb gap ochdi Xolida, – qizingizni so'ratishga Bozorovning qanday beti chidabdi?» I.Rahim. Chin muhabbat. Obbo. Qanday tili boradi?

Qanday yuzi chidaydi? O'z ayblarini vijdonan bo'yniga oladigan kuni ham bo'larmikan? P.Qodirov. Uch ildiz.

BET(I)DA BET QOLMADI kimning? ko'p marta murojaat qilib, uyalmaydigan holatga yetmoq.

«Aylanay, qizim, – dedi onasi yuragi ezilib, – Shirmon xolangdan uni buni so'rayverib, betimda bet qolmadi». M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BET(I)DAN ZAHAR TOMAR EDI kimning? qahr-g'azabi yuz-ko'zida bo'rtib namoyon bo'lar edi.

Uch-to'rt kundan buyon ularning avzoyi buzuq edi, betlaridan zahar tomar edi. Oybek. Qutlug' qon.

BET(I)GA AYTMOQ kim? kimning? nimani? fikr-mulohazasini orqavorotdan emas, o'ziga oshkora bildirmoq. Varianti: **yuz(i)ga aytmoq** – **yuz(i)ga aytili** nima? kimning? **betiga aytmoq** kim? nimani? **yuziga aytmoq** kim? nimani? **yuz(i)ga gapirmoq**.

Mendan biron xato o'tgan bo'lsa, betimga aytmaydimi, yana do'st! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Agar biror narsa sezgan bo'lsangiz, yuzimga ayting. I.Rahim. Hilola. *Bugun shu gaplar aniq va yana ham dahshatliroq holda, mana, yuziga aytili.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Yuzga aytganning zahri yo'q.* A.Muhiddin. Hadya. *Ammo u gap kelganda otasini ham ayamas, didiga mos kelmaydigan narsani ko'rib qolgudek bo'lsa, hech kimning istiholasini qilmay, shartta-shartta yuziga gapiraverar edi.* M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat.

BET(I)GA AYTGANING ZAHRI YO'Q ochig'ini aytmoq, kamchiligini yuziga aytmoq.

Betga aytganning zahri yo'q. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Mushtunning odati shu: kishilarning ishidagi kamchiligini ko'ngliga tugib yurmaydi-da, «betga aytganning zahri yo'q» tarzida shartta ayta-di-ko'yadi.* Mushtum.

BETIGA OYOQ QO'YMOQ kim? kimning? sharmanda qilmoq, obro'sini to'kmoq, andishasizlik, behayolik qilmoq.

O'z ustozini bilmagan bu bepadar, olampanohning ham betlariga oyoq qo'yishdan toymay, mazkur ustozning qiblagoh uchun muvofiq ko'rilgan qizini yo'ldan ozdirib, bu kun kechasi uni qochirib, mening hovlinga olib keldi. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

bet(i)ga qanday qaray(di)?! yuz(i)ga qanday qaray(di)?!

BET(I)GA QARAMASLIK kim? kimning? muomalada bo'lishini istamaslik. Varianti: **yuz(i)ga qaramaslik**. Sinonimi: **yuz o'girmoq 2** kim? kimdan? **bet(i)ni ko'rmaslik** kim? kimning?

Bu yil g'o'zaning tupiga narvon qo'yib paxta termasang, betimga qarama! S.Ahmad. Mastonbib. *Agar bu gal ham pulni sovurib, qo'lingni burningga tiqib kelsang, betingga qaramayman!* U.Azimov. Aql chirog'i.

bet(i)ga qaray olmaslik: yuz(i)ga qaray olmaslik

BETIGA QORAKUYA SURKAMOQ kim? kimning? gunohkor qilmoq, aybdor qilib ko'rsatmoq.

Rasulov ming eshikning kalitini olgan yeb-qocharlarni himoya qilib, sofdil savdo xodimlarining betiga qorakuya surkab, ikki o'rtada ras-

tratlarning ko'payib ketishiga sababchi bo'ldi. Qizil O'zbekiston.

bet(i)ga solmoq: yuz(i)ga solmoq

BET(I)GA TUPURMOQ kim? ni maning? yoki kimning? nazar-pisand qilmasligini, mensimasligini qo'pol ravishda ro'y-rost bildirmoq. Varianti: **yuz(i)ga tupurmoq.**

Hatto yer sotishni xayolga keltirmagan odamlarning yerlarini (agar ularning yerlari o'z yerlariga chegaradosh bo'lsa) o'zinikiga qo'shish uchun hech narsadan toymas, har qanday nomus va adolatning betiga tupurar edi. Oybek. Qutlug' qon.

BETIGA (YUZIGA) CHARM QOPLAB OLMOQ surbetlik qilmoq, yuzsizlik qilmoq.

Ota-ona oxiri «qizim yosh, hali o'qishi lozim» deb, ixtiyorni Shahrixonga qo'yishibdi. Masaidov esa shundan keyin betiga charm tutib, qizni ovloq joylarda poylab, to'xtatib gapga tutadigan bo'ldi. Qizil O'zbekiston.

BET(I)NI KO'RMASLIK I kim? kimning? muomalada bo'lishni istamaslik. Varianti: **bet ko'rmaslik, yuz(i)ni ko'rmaslik.** Sinonimi: **bet(i)ga qaramaslik kim? kimning? yuz o'girmoq kim? kimdan?**

Lekin Shodmon ammam debdiki, agar Komila bir zum ko'rinish bermasa, bir yo'la betini ko'rmaganim bo'lsin. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. ...bu gaplar nari yoq-beri yog'idan o'tib ketardi-da, shu topdan boshlab bet ko'rmaslikka ahd qilardi. R.Fayziy. Qaynana. Dadasi ko'z tikkan qizni qochirish, unga uylanish ikkinchi marta ota yuzini ko'rmaslik bilan baravar edi. Oybek. Qutlug' qon.

BET(I)NI QATTIQ QILIB [o'zining] uyat-andishani pisand qilmagan holda. Varianti: **betini qotirib, yuzini qotirib.**

Bir kuni u betini qattiq qilib kuyovga ochiq aytdi: «Faxriddin, hali yoshsizlar. Uch-to'rt yil bolasiz yurish yaxshi. Doktor shu ishlarni bilarmikan?» A.Qahhor. Boshsiz odam.

bet(i)ni sidirib: bet(i)ning terisini sidirib

BET(I)NING TERISINI SIDIRIB [o'zining] behayolik bilan. Varianti: **bet(i)ni sidirib.**

Ishning chappa ketishini sezgan Begimxon, Sohib qori aytgandek, «betining terisini sidirib» bobillab berdi. I.Rahim. Chin muhabbat. Xolmirza iljaydi. Ro'paraga kelib qolgan polvon menga iljaydi deb o'yladi-da, paytdan foydalanib va betini sidirib haligi iltimosini yana qaytardi. H.Nazir. Odamning qadri.

BET(ING) QURSIN kimning? qarg'ishni bildiradi (asosan ayollar nutqida ishlatiladi). Varianti: **aft(ing) qursin; bashara(si) qursin.** Sinonimi: **aft(i)ni yel yopsin kimning?**

«Qiz bo'lmay beting qursin», – dedi-da, o'girilib tez-tez yurib ketdi. S.Zunnunova. Ko'ngil. U yog'ini so'rasang, afting qurg'ur azza-bazza aravasini to'xtatib, ko'zini chaqchaytirib: «Ha, Ruzvon kampir, Sarimsoq bobomning xo'p qadrlari o'tgandir-a?..» – deb tegajaklik qilgan. H.Nazir. Rashk. Ha, o'sha Boymat karvonning basharasi qursin. Qilig'i sovuq... H.Nazir. Rashk.

betga aytmoq: bet(i)ga aytmoq

BETGA CHOPAR BO'LMOQ kim? – **BETGA CHOPARLIK QILMOQ** kim? yuz-xotir, andisha qilmay, ko'ngli og'riydi demay shartta gapiradigan bo'lmoq.

Odamlar nechukdir shu taxlitda betga chopar, andishasiz bo'lib ketayotganini Qalandarov mana shunday o'z ko'zi bilan ko'rib, orqavorotdan eshitib, lekin birovga bir nima demay, hammasini ichiga solib yurgan edi, bir kuni yorildi. A.Qahhor. Sinchalak. Izzat-ikromlik yigit bo'lsa, Xalilovdek odamga betga choparlik qiladimi, unga o'rgatmoqchi bo'ladimi! I.Rahim. Ixlos.

BETGA CHOPAR yuz-xotir, andisha qilmay, ko'ngli og'riydi demay shartta gapiradigan. Varianti: **betga choparlik; yuzga chopar.**

Demak, bu mahmadonaning gapiga unga ham yoqmabdi. Betga chopar ekan bu Komil. I.Rahim. Ixlos. Yotoqda biroz sovigani asablari dekanatda yana vajillab toshgan, hammasini Akbarovdan ko'rib, betga choparlik bilan «Ehtimol!» degan va shundan so'ng alami sal pasaygan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Xafa bo'lmaydilar, boy. Bu bizning mulla Asqar yuzga choparroq chiqib qoldi. S.Abdulla. Muqimiy.

betga choparlik qilmoq: betga chopar bo'lmoq

betga choparlik: betga chopar

beti ochiq: yuzi ochiq

betini ko'rmaslik II yuzini ko'rmaslik I

betlamaslik: yurag(i) betlamadi

BEVA XOTINGA BUXORODAN IT HURAR eri yo'q ayolning sha'niga har xil gaplar aytiladi.

Trotuarda hassasini do'qillatib kelayotgan chol Sanobarxonga so'niq ko'zlarini pirqiratib qaradi. Uning lablari nimalardir deb pichirladi. Shukur qilmay ilojing yo'q. Beva xotingga Buxorodan it huradi, deyishadi. S.Zunnunova, Gulxan.

BEVAFODUNYO qadrlay olmaydigan, qadringizga yetmaydigan.

Albatta, aldamchi cho'ponning bu ishi menga alam qildi, go'yo u meni o'zicha ahmoq qilib, firib berib ketdi, gap pul va mol ustida emas. Men bevafo dunyo, mol orqasidan quvmayman. S.Ayniy. Doxunda.

BEZ BO'LIB (BEZDAY, BEZRAYIB) TURMOQ kim? surbetlaracha, orsizlarcha, bezbetlik bilan indamay turish.

Men sovg'ani ochmadim. – Qani ko'rsat! – deb turib olishdi og'aynilarim. Bez bo'lib turaverdim. Mush-tum. Nima qilay, ochib ko'rsataymi, yo boyagidek bez bo'lib turaveraymi? Mushtum.

BEZGAK TUTGANDEK qo'rqib qaltiramoq, titramoq.

Jumayev va boshqa rahbarlar qudratli Qurbonovning oldida go'yo bezgak tutgandek titrashardi. Qizil O'zbekiston. Shu chog'da ko'ziga bir qora narsa ko'rinib tezdin g'oyib bo'ldi. Bu hodisadan bezgak tutgandan qaltirab, yuragi tez-tez gupullab ura boshladi. S.Ayniy. Qullar. Qo'chqor bezgak tutganday qaltirayotgan polvonning zabardast gavdasiga nazari tushdi-yu, ichida nimadir yorilganday bo'ldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

bezori jon qilmoq: jon(i)dan bezor bo'lmoq

besh barmoq baravar emas: besh qo‘l baravar emas

besh barmoq bir xil emas: besh qo‘l baravar emas

BESH BARMOG‘(I)DAY [o‘zining] batafsil, atrofficha, mayda-chuydasigacha. Varianti: **besh barmoqday; besh qo‘lday.**

Butun tuman paxtasining past-balandi sizga besh barmoqday ma‘lum. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. *Oh-oh, qiz bechoraning ichki dunyosini besh qo‘lday bilar ekansiz-ku?! A.Muxtor. Tug‘ilish.*

besh barmoqday: besh barmog‘(i)day

BESH KETMOQ 1 pirra (karta) o‘yinida besh ochko olmoq; **2** gapni yoki ishni o‘rinlatib bajaruvchi odamga tan bermoq, qoyil qolmoq.

Sizning tantiligingizga, mardligingizga besh ketaman-da, doim va‘dangiz ustida chiqasiz.

besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq: ikki qo‘l(i)ni og‘z(i)ga tiqmoq

BESH BATTAR (BATTAR) BO‘LMOQ ilgarigidan ham yomon bo‘lmoq, juda yomon bo‘lmoq.

Ilgari bundan besh battar kasal bo‘lganimdayam, xo‘jayinlar «yotib bir pas dam ol!» degan emas. P.Tursun. O‘qituvchi.

BESH KETMOQ kim? kimga? yoki nimaga? qoyil qolmoq, boplamoq, besh ochko olmoq (karta o‘yinida).

Bu ishda besh ketdim, shohim. V.Shekspir. Gamlet. *Avrashiga besh ketib, qilmishiga ray bersang, quchoq ochib keladi.* Mushtum.

BESH KUNLIK DUNYO tez o‘tib ketadigan qisqa umr.

Sizlar ham katta boy ekansizlar, izvosh qiling, besh kunlik dunyoda davr-u davron suring. Oybek. Qutlug‘ qon. «*Iching, Salimjon, iching, Abdushukur! – xitob qildi Jamolboy, – Besh kunlik dunyoni kayfi chog‘lik bilan shiringina o‘tkazish kerak.*». Oybek. Qutlug‘ qon.

besh panja(si)day: besh barmog‘(i)day

besh panja(sini)ni og‘z(i)ga tiqmoq: ikki qo‘l(i)ni og‘z(i)ga tiqmoq

besh qo‘l(i)ni og‘z(i)ga tiqmoq: ikki qo‘l(i)ni og‘z(i)ga tiqmoq

besh qo‘lday: besh barmog‘(i)day

BESH-OLTI OG‘IZ SO‘Z (GAP)

AYTMOQ kim? kimga? bir necha gap aytmoq.

Bolam, endi meni yo‘ldan qoldirdingku, shunday bo‘lsa ham besh-olti og‘iz so‘zni aytib ketayin. E.Jumanbulbul. Ravshan.

BESH-OLTI QOVUN PISHIG‘I anchagina vaqt, besh-olti yil, bir necha yil.

Siz aytgan gaplarning amalga oshishiga besh-olti qovun pishig‘i borgan o‘xshaydi. Sharq yulduzi.

besh-oltita ko‘ylakni ortiqroq yirtgan: bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan

BESHIGINI TEBRATMOQ kim? kimning? o‘stirmoq, ulg‘aytirmoq.

Nega sen o‘z tinchingdan ayrilib golding? Ayrilganni bo‘ri yer edi-ku! Onang umid bilan beshigingni tebratgan. Shu bechora onang sendan nima ko‘rdi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

BESHIK KETDI tug‘ilganda, yoshlikda unashtirib qo‘yish (qizlarga nisbatan qo‘llaniladi).



Agar otasi rozi bo'lsa, shu qizga uylanardim, dedi o'ziga-o'zi. Bordiyu, ungacha otasi erga berib yubor-sa-chi? Yoki beshik ketdi qilib qo'yilgan bo'lsa, nima bo'ladi? R.Jalil. Po'lod va Gulro'.

BILAK SHIMARIB ISHGA KIRISHMOQ kim? nimaga? astoydil, sidqidillik bilan, qat'iyat bilan ishga kirishmoq.

Bilakni shimarib ishga kirishgan yoshlarni ko'rib buvining ko'ngli ko'tarildi, ularni alqab qo'ydi. Mush-tum.

bilganingdan qolma: o'z bilganingdan qolma

BILGAN(D)NI QILMOQ kim? [o'zining] xohlaganini, lozim topganini amalga oshirmoq.

«Shunchaligi ham bor, – dedi Zokir ota ketgani qo'zg'alib, – mayli, bilganini qilsin». A.Qahhor. Qo'sh-chinor chiroqlari. Nega biz o'z bilganimizni qilamiz deb turib olamiz. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

BINO QO'YMOQ kim? 1 o'ziga ortiqcha baho bermoq, yuksak fikrda bo'lmoq.

Nima qilish kerak? Qanday qilib o'zlariga bino qo'ygan, o'z baxtlarini faqat institut, universitetga kirsalargina ochiladi deb bilgan... anavi yoshlarga... nima desin? S.Anorboyev. Oqsoy. Hatto u Haydarning [keyingi kunlarda] o'ziga o'ta bino qo'yib, uyga deysinib kirib, deysinib chiqib ketishigacha kuzatdi. M.Muhamedov. Gavhar.

2 o'ziga qiyofasiga alohida e'tibor bermoq.

Sho'xliklari kamaydi, gaplari o'zgardi, katta qizlarday astoydil yuvi-

nib-taranib, o'ziga bino qo'yib yuradigan bo'ldi. A.Muxtor. Opa-singillar. Uning nazarida, Ziynatullayevning chiroyli polyak trikosidan tikilgan va hali dazmoli buzilmagan kostyumi ham, yaraqlab turgan qo'ng'ir tuftisi ham, har kuni soqol olaverishdan terisi noziklashib qolgan yuzi va jismoniy mehnat ko'rmagan ingichka barmoqlari ham uning o'ziga ko'p bino qo'yganidan dalolat berardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

2 kimga?yoki nimaga? e'tiqod bilan qaramoq. Sinonimi: **ixlos qo'y-moq** kim? kimga? yoki nimaga?

Uning bu qilib yurgan ishlari bino qo'ygan o'g'lini «yomon ko'z»lardan asray olmasligini... qanday tushuntirsa ekan? S.Anorboyev. Oqsoy. Arslonbek akam bu kabinetga juda bino qo'yganlar, yasatganlari-yasatgan. A.Qahhor. Sinchalak. Ruzvon xola keliniga ma'qul bo'lar deb, bino qo'yib pishirgan mastavasini suzib keltirganda, Shakarxon qayrilib ham qaramadi. H.Nazir. Rashk.

bir aytib, o'n kulmoq: bir gapirib, o'n kulmoq

BIR BAHYA QOLMOQ nimagaga? sal qolmoq, ozgina qolmoq.

O'lib ketishimga bir bahya qoldi-ya! Jaryoqasiga bilmay kelib qolibman. Xuddi bir bahya qolibdi-da, oz bo'lmasa qulab tushib, mayda-mayda bo'lardim. Sh. Shomaqsudov, S.Dolimov. Keng uyning kelinchagi.

BIR BALO BO'LDI kimga? yoki nimaga? biror ta'sir natijasida salbiy o'zgarish yuz berdi. Sinonimi: **bir gap bo'ldi** kimga? yoki nimaga?

Nahotki miyangni yeb, mana shundoq qo'l qovushtirib o'tirsang. Senga

bir balo bo'ldimi?! Mirmuhsin. Jami-la. «Bu qushga bir balo bo'ldi, bu odamni toza tanib oldi», – deb, yana qushni olib qaytdi. «Murodxon».

BIR BALO QILIB qandaydir yo'l bilan, biror ilojini topib. Sinonimi: **evini qilib, yo'lini qilib.**

Agar Botirni bir balo qilib o'rtadan ko'tarmasangiz, do'stingiz erkin nafas ololmaydi. S.Nazar. Yashil boylik.

BIR BALOGA YO'LIQMOQ kim? – **BIR BALOGA YO'LIQTIRMOQ** kim? kimni? ko'ngilsiz, og'ir ahvolga tushib qolmoq. Varianti: **baloga yo'liqmoq; ming baloga duchor bo'lmoq.**

Ulardan bitta-yarimtasiga uchrab qolib, tag'in bir baloga yo'liqmay. G'.G'ulom. Shum bola. Endi Bekning gapiga kirmayman. Jahli o'lgur chiqib, meni bir baloga yo'liqtirmasmi-kan-a. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Boshimni yo'qotib qo'yganim yo'q edi! O'zimni qo'yib berib, baloga yo'liqdim. P.Qodirov. Uch ildiz. Bular – o'limdan qolgan, Germaniyaga haydab olib ketilmagan, lekin ikki yil bo'yi ming baloga duchor bo'lib, ming marotaba o'limga rozi bo'lgan kishilar. A.Qahhor. Oltin yulduz.

bir baloga yo'liqtirmoq: bir baloga yo'liqmoq

BIR-BIRIGA SUYANMOQ kimlar? bir-birini himoya qilmoq, o'zaro ovunmoq.

Ikki sag'ir bir-biriga suyanib, bir-biriga hamdard bo'lib, hayotning achchiq-chuchugini birga baham ko'rishdi. S.Ahmad. Otalar.

BIR-BIRINI KO'ROLMASLIK kimlar? o'zaro zid munosabatda bo'lmoq.

E... Bizda boylar bir – birini ko'rolmaydi, birlashmaydi, shunisi chatoq-da, – shikoyatlandi Salimboyvachcha. Oybek. Qutlug' qon.

BIR BOR EKAN, BIR YO'Q EKAN xalq ertaklarining boshlanishida aytiladigan ibora, qissaning boshlanishi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda, Mamaniyoz degan bo'lar ekan Chust tomonda. G'.G'ulom. Ko'kan.

bir bosh(i)ni ikki[ta]qilmoq: bosh(i) ikki[ta] bo'ldi

BIR BOSH DAN boshlanishidan tartibi bilan. Varianti: **bir chekkadan.**

Umarali ularni bir boshdan qarab chiqdi: xarita, diagramma, sxema, plakat, shkafda kitoblar... I.Rahim. Ixlos. Nima ish qilib kelganimni bir chekkadan gapirib beray, axir. H.Nazir. Rashk.

BIR BOSHGA BIR O'LIM o'lsak ham mayli, kishi bir marta o'ladi.

Bir boshga bir o'lim. Men o'limdan qo'rqmayman. M.Ibrohimov. Shunday kun keladi. Bir boshga bir o'lim, xon istibdodini yemirib tashlash uchun Xivaga bostirib boramiz. Mirmuhsin. Cho'ri.

BIR BOSHI IKKI BO'LMOQ kimning? uylantirmoq.

– Qo'ying, deganing nimasi, Yo'ldoshboy! Senga otalik qilsam, bir boshing ikki bo'lsa yomonmi? Sharq yulduzi.

BIR BURDA BO'LIB QOLMOQ kim? ozib-to'zib, jussasi kichrayib, ojiz

bo'lib qolmoq. Varianti: **qoshiqday bo'lib qolmoq.**

– *Rustam aka, Azizani shu kunda ko'rsangiz, bir burda bo'lib qoldi, – dedi achinib Muhabbat. V.G'ofurov. Vafodor.*

BIR DUNYO juda ko'p.

U mehmon kutishda aytiladigan bir dunyo gapni tez-tez va bir nafas bilan to'kib tashladi-yu, Saidani ichkariga taklif qildi. A.Qahhor. Sinchalak. Bir pasda bir dunyo ishni qilib tashlaydi. S.Anorboyev. Pushaymon.

bir emas-bir kun: bir kun emas bir kun

BIR ETAK BOL biror ayol yoki oilaning bolasi ko'pligini bildiradi Varianti: **bir etak churvaqa.**

Otang tirik axir... ortimda bir etak bolam bor. S.Siyoyev. Yorug'lik.

BIR GAP BOR bir siri bo'lsa kerak, nimadir yashiringan.

Qadoqchi Hamroqulning tobi qochdi. Kim biladi, kecha kechqurungi xudoyi osh yoqmadimi, yo ertalab choynak qadoqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. – Bunda bir gap bor, – dedi Olga Petrovna. – Mening fikrimcha, odamlarni al-dab-suldab ishga solmoqchi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

BIR GAP BO'LAR nima? chorasini, iloji topilar.

Ish bo'lsa bir gap bo'lar, ota-bobodan ish qolibdimi?! G'.G'ulom. Tirilgan murda. Bitta ho'kiz bo'lsa, bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! A.Qahhor. O'g'ri.

BIR GAP BO'LDI kimga? yoki nimaga? biror ta'sir natijasida salbiy

o'zgarish yuz berdi. Sinonimi: **bir balo bo'ldi kimga?** yoki **nimaga?**

So'nggi kunlarda Gavharga bir gap bo'lganini uydagilar ham sezgan, onasi bir necha marta sababini so'ragan, lekin u aytmagan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ha, Burgut, turq-tarovating boshqacha, bir gap bo'ldimi? S.Ahmad. Cho'l burguti.

BIR GAPDAN QOLMOQ kim? janjal, aytishuv davomida muxolifining yomon gapiga yarasha javob berishdan tiyilmoq.

Jonuzoq cholning baqirig'i Suvonjonning jig'iga tega boshladi. Otamning do'sti, bir gapdan qola qolay degan edi, qo'ymaydiganga o'xshaydi. S.Anorboyev. Oqsoy. Ayajon, bir gapdan qoling. A.Qahhor. Yangi yer.

BIR GAPIRIB, O'N KULMOQ kim? suhbat davomida o'zini juda xushchaqchaq tutmoq Varianti: **bir aytib, o'n kulmoq; o'n kulib, bir gapirmoq.**

Ona o'limiga dastlab chiday olmagan kabi ko'ringan Nuri sekin-sekin taqdirga tan berib, hatto avvalgiday bir gapirib, o'n kuladigan bir holga kelgan esa-da, har kelishda eshikdan baqirib kirar edi. Oybek. Qutlug'qon. Uy-ro'zg'orga ham epchil: yaxshi kiyinadi, yaxshi yeydi. O'n kulib, bir gapiradi. Oydin. Ikki ko'zi shunda. Kozimbek bilan Manzuraxon peronda kezishar, ikkovi ham nimadan-dir benihoyat xursand – bir aytib, o'n kulishar edi. A.Qahhor. Sinchalak.

BIR GAPNI IKKITA QILMASLIK kim? bo'ysunish, itoat qilish, aytganini so'zsiz bajarish, so'z qaytar-masdan bajarish, fikriga qarshi chiq-maslik, e'tiroz qilmaslik.

– *Kambag'al odamsan, qozon-to-voq qilib qiynalib yurma. To'yni o'zim qilaman. Juma kuni to'y. Bitta gapimni ikkita qilma. Xotiningga ayt, qi-zingni tayyorlab tursin. Ayt dedim,* ayt. B.Rahmonov. Yurak sirlari.

BIR GO'R nima? yoki kim? bir-biriga o'xshash, farqi yo'q.

Mehnat bo'lgandan keyin, hammasi ham bir go'r-da. A.Muxtor. Opa-singillar.

BIR HISOBDA ma'lum darajada, ozmi-ko'pmi hisobga olinsa.

Bir hisobda ko'rmaganlaring ham ma'qul. A.Qahhor. Kartina. *Gaplaring, bir hisobda, to'g'ri, lekin bunda qololmayman.* S.Nazar. Yashil boylik.

BIR HOLATDA zaif, darmonsiz, ruhan ezilgan ahvol(da). Varianti: **bir holatga.**

Keyingi oylarda u cho'pdek ozib, bir holatda bo'lib qoldi. Mirmuhsin. Jamila. *U bir holatda chaylaning og'ziga kelib o'tirdi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Birovga aytib, tushuntirib bo'lmaydigan hasrat uyquni, darmonni qochirib, ruhni tushirib, bir holatga keltiradi odamni.* A.Muxtor. Tug'ilish.

bir holatga: bir holat(da)

BIR ISH IKKI BO'LDI mehnat-mashaqqat ortdi, ko'p kuch sarflash zaruriyati tug'ildi.

Gap yetkazish-yetkazmaslikda emas, uka, iliq-issiqda, yog'in-sochin-ga qolmay terib olsak, yaxshi bo'lar-di-da. Endi bir ish ikki bo'ldi. H.Nu'mon. Fasllar.

bir jon bo'lib-bir tan bo'lib: bir jon-bir tan bo'lmoq

BIR JON-BIR TAN BO'LMOQ (...BO'LIB) kimlar? hamjihat bo'l-

moq, yakdil bo'lmoq Varianti: **bir tan-bir jon bo'lmoq; bir jon bo'lib-bir tan bo'lib.** Sinonimi: **bir yoqadan bosh chiqarmoq kimlar? kim? kim bilan?**

Komandirlar yakdil bo'lib, Bir jon bo'lib – bir tan bo'lib, Samuraylar kat-tasining Yuganini oldi yulib. Po'lkon. Hasan ko'l. *Butun xalq bir tan – bir jon bo'lib mehnat qilayotgani mana shu kunlarda ayniqsa sezildi.* P.Qo-dirov. Uch ildiz. *Boyning o'g'illari bir tan bo'lib, menga kaftday yer, bir tiyin pul bermaslikni ochiqcha aytish-di.* Oybek. Qutlug' qon.

BIR JOYING KAMAYIB QO-LADIMI hech narsa bo'lmaydi, sen-dan nima ketyapti, hech narsa yo'qot-maysan.

– *Siz-chi, o'rtoq Kim, siz ham xabar ola olmaysizmi? Agar vaqt topsangiz, Qiziljar massividagi mol-larning ahvolidan bir xabar olib qo'ying, biror joyingiz kamayib qolmay-di.* Mushtum. *Besh-oltita yalangoyoq bundan keyin ham uy-joysiz kunini o'tkazar, shuncha vaqtlardan beri boshida boshpanasi bormidi – biror yeri kamayib qolgani yo'q!* Sh.Bo'ta-yev. Haykal.

BIR JOYLI BO'LMOQ kim? ixchamroq, chiroyli o'tirmoq, o'zini yig'moq (Qashqadaryo vil. Yakka-bog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.)

BIR KAM(I) [kimning?] mutlaqo kutilmagan, yetishmay turgan qaltis (ish, odam).

Obbo, bir kami sen qoluvdingmi?! Amali qorovullik-ku, aql o'rgatishini qara-ya! S.Ahmad. *Hukm. Xo'jabekov tilga kirgan emish. Bir kami shu*

edi! S.Anorboyev. Oqsoy. *Fuqaroga qiz berib, isnodga qolishmidi bir kamimiz?! A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.*

bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq

bir kesak bilan ikki qushni urmoq: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq

BIR KESAK BILAN IKKI QUYONNI URMOQ *kim?* ayni bir vaqtda ikki narsani ko'zlab ish tutmoq. Varianti: **bir kesak bilan ikki qushni urmoq; bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq; bir o'q bilan ikki quyonni urmoq; bir o'q bilan ikki qushni urmoq; bir o'q bilan ikki nishonga urmoq.**

«Bu o'lchashda bir kesak bilan ikki qushni uramiz-u», – dedi u og'zi qulog'iga yetib. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Ammo bir kesak bilan ikki qarg'a urilgan. S.Abdulla. Muqimiy. Agar bu ishni qila olsak, bir o'q bilan ikki qushni urgan bo'lamiz. S.Ayniy. Qullar. U bir o'q bilan ikki nishonga urishni – Bahrombek qo'rboshi shaykalarini to'plab..., katta musht tayyorlash, ...komandir qizdan o'ch olishni – niyat qildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

bir kun bo'lmasa-bir kun: bir kun emas-bir kun

BIR KUN EMAS-BIR KUN qachondir kelgusida, oxiri bir kuni. Varianti: **bir kunmas-bir kun; bir kun bo'lmasa-bir kun; bir emas-bir kun.**

Bir kun emas-bir kun o'z uyingning panjarali boloxonasidan ajoyib

shahar manzarasiga qarab, meni eslaysan... A.Muxtor. Tug'ilish. Ajali yetmagan bo'lsa, bir kunmas-bir kun azamatim bag'rimni qidirib kelar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Bir emas-bir kun shirin suhbatni badbo'y is etar. S.Abdulla. Yo'l-yo'lakay gaplar.

bir kuni: kunlardan bir kuni

bir kunmas-bir kun: bir kun emas-bir kun

BIR KO'RPADA TEPKILASHIB O'SMOQ *kim? kim bilan?* yoshlikda birga o'ynab o'sishlik, bolalikdan do'st bo'lmoq.

Biz Yo'ldoshvoy bilan bir ko'rpada tepkilashib o'sganmiz. S.Ahmad. Ufq.

BIR KO'YLAK ET *kim?* xomsemiz, beso'naqay, haddan tashqari semirib ketgan.

...mudiri Turg'unovni ko'rgan kishilar «bir ko'ylak et-ku» deydilar. Mushtum.

BIR KO'YLAKNI BURUN YIRTMOQ tajribali, yoshi katta, kattaroq; menga o'rgatma, o'zim bilaman. Varianti: **bir ko'ylakni oldin yirtmoq, bir ko'ylakni ortiq yirtmoq.**

Otabek bir ko'ylakni o'zidan burun yirtgan kishi to'g'risida, go'yo o'z sarguzashtining eski tarixini mulohaza qila boshlagan, qarshisida o'tiruvchini-da, qayin ota eshigidan quvlangan kishi deb bilgan edi. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

bir ko'ylakni oldin yirtmoq: bir ko'ylakni burun yirtmoq

bir ko'ylakni ortiq yirtmoq: bir ko'ylakni burun yirtmoq

BIR KO‘Z BILAN QARAMOQ kim? kimlarga? biror tomonga yon bosmay, xolis, betaraf muomala-munosabatda bo‘lmoq.

«O‘zingni tut, Saodat, kishilarni shubhaga solma, sen ularning hammasiga bir ko‘z bilan qaraydigan kishisan». I.Rahim. Ixlos.

BIR KO‘ZI O‘QDA BO‘LSA, BIR KO‘ZI GO‘NGDA kimning? hushyor turish, sergak holda, ziyalik bilan, juda ehtiyotkorlik bilan ish qilish.

Olaqarg‘a bolasi bilan xayrlasha turib: «bir ko‘zing o‘qda bo‘lsin, bir ko‘zing go‘ngda» deb nasihat qilar ekan... Olaxo‘janing ham bir ko‘zi doim o‘qda... P.Tursun. O‘qituvchi.

BIR KO‘NGL(I) [kimning?] dilidan o‘tgan o‘y-xayoli bo‘yicha.

Shundan keyin bir ko‘nglim Avliyootaga qaytib keta berayin dedim; ko‘rgulik ekan, yana qoldim. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Sherbek bir ko‘ngli hozir daraga tushib, Qo‘chqorni topmoqchi, undan hol-ahvol so‘rab, yuragidagi dardini bilib olmoqchi ham bo‘lgan edi. S.Anorbo-yev. Oqsoy.

BIR MAYIZNI TENG BO‘LIB YEYDIGAN kim? kim bilan? samimiy, chin do‘st.

Zavod direktori ko‘p o‘tmay kassir bilan shunday og‘iz-burun o‘pishib ketdiki, hatto ular bir mayizni teng bo‘lib yeydigan darajada bir-biriga suyanib qoldilar. Mushtum.

BIR MAYIZNI QIRQ KISHI BO‘LIB YEMOQ ahil, inoq.

– Balli, mulla Qo‘chqor. Ko‘p savob ish qilyapsiz. Bitta mayizni qirq

kishi bo‘lib yeyishgan ekan. I. Rahim. Ixlos.

BIRI MIRI HAYON, UCH MIRI ZIYON foyda ko‘raman deb, zarar ko‘rish, foydasidan zarari ko‘p.

Qiziq bo‘lyapti, klubimiz bir oyda taxminan 2145 so‘m daromad keltirayotgan bo‘lsa, u yerda ishlayotgan olti kishiga har oyda 2230 sum maosh kanda qilmay to‘lanayotir. Shuni aytadilar-da «bir miri hayon, uch miri ziyon» deb. Mushtum. Bir miri foyda, uch miri zararliligini o‘ylamaysizlarmi, axir?! Mushtum.

BIR NIMA DEB BO‘LMASLIK e’tiroz bildira olmaslik, qarshi so‘z ayta olmaslik.

Siz aytgan gaplarga bir nima deb bo‘larmidi? S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

BIR NIMALI BO‘LIB QOLMOQ kim? tasodifan, kutilmaganda boyib qolmoq.

Bozor-o‘charga aralashib tursang, bir nimali bo‘lib qolganingni o‘zing ham bilmay qolarkansan, – deb gap uqtirardi u. Mushtum.

BIR OVOZDAN 1 yakdillik bilan, hamjihatlik bilan. Sinonimi: **bir og‘izdan**.

«Yo‘q! Munosibmas!» – deyishdi bir ovozdan ular. H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari.

2 qarshi chiquvchisiz (ovozga qo‘yishda). Sinonimi: **bir og‘izdan**.

Aliqul e‘lon qildi: «Bir ovozdan!». Majlis tugab, odamlar idora eshigidan birin-sirin chiqa boshladi. P.Tursun, O‘qituvchi.

bir oyog‘(i) .. da (bo‘lmoq): bir oyog‘(i) .. da (bo‘lsa), bir oyog‘(i)..da bo‘lmoq



BIR OYOG‘(I) ..DA (BO‘LSA), BIR OYOG‘(I) ..DA (BO‘LMOQ) kimning? ma‘lum bir vaqt bir joyda bo‘lsa, boshqa vaqt ikkinchi bir joyda (bo‘lmoq). Varianti: **bir oyog‘(i) ..da, ikkinchi oyog‘(i) .. da (bo‘lmoq); bir oyog‘(i).. da.**

Lekin hayallama. Bir oyog‘ing betda, bir oyog‘ing etda bo‘lsin. S.Anorboyev. Oqsoy. ...bir oyog‘im endi Buxoroda bo‘ladi. Seni yolg‘iz qo‘ymayman, qizim. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

bir oyog‘(i) go‘rda: bir oyog‘(i) to‘rda [yu], bir oyog‘(i) go‘rda

BIR OYOG‘(I) TO‘RDA[-YU], BIR OYOG‘(I) GO‘RDA kimning? umri tugay deb qolgan. Varianti: **bir oyog‘(i) yerda, bir oyog‘(i) go‘rda; bir oyog‘(i) yerda bo‘lsa, bir oyog‘(i) go‘rda; bir oyog‘(i) go‘rda.**

Qolaversangiz bo‘lmaydimi?! – deb bidirlading. – Bir oyog‘ingiz to‘rda, bir oyog‘ingiz go‘rda. Tag‘in o‘liklaringiz allaqaylarda qolib ketmasin!» – deding. Oydin. Shiringa maktub. Bir oyog‘im to‘rda-yu, bir oyog‘im go‘rda, ajal degan ro‘dapo eshikning tirqishidan mo‘ralab turibdi-yu. A.Muxtor. Opa-singillar. Ashur mirzoning ko‘ziga ko‘ringan narsa... sevgili Jamilasi, shirin-shakar To‘tiqizi bo‘lmadi. Yo‘q, bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda bo‘lib qolgan, imonsiz xo‘jayinning sarqit joni bo‘ldi. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. Mening bir oyog‘im yerda bo‘lsa, bir oyog‘im go‘rda. To‘satdan o‘lib qolsam. O‘.Azimov. Qutlug‘ qon.

bir oyog‘(i) yerda bo‘lsa, bir oyog‘(i) go‘rda: bir oyog‘(i) to‘rda[-yu], bir oyog‘(i) go‘rda

bir oyog‘(i) yerda, bir oyog‘(i) go‘rda: bir oyog‘(i) to‘rda[-yu], bir oyog‘(i) go‘rda

bir oyog‘(i)..da, ikkinchi oyog‘(i)..da (bo‘lmoq): bir oyog‘(i)..da (bo‘lsa), bir oyog‘(i)..da (bo‘lmoq)

BIR OG‘IZ 1 juda oz, jindak, qittak («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **biron og‘iz; biror og‘iz.** Sinonimi: **bir shingil; bir chimdim.**

Matlubaning ana shu bir og‘iz so‘zi qalbidagi dunyo-dunyo minnatdorchiligini ifoda etdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Boshingga shunaqa ish tushgan ekan, bir og‘iz aytsang bo‘lmasmidi?! O.Yoqubov. Ota izidan. Ko‘nglingizda shunchalik gapingiz bor ekan, ota-onam shunchalik joningizga tekkan ekan, bir og‘izgina: «Hoy, xotin, men siqilib ketdim, uy ajratib chiqib ketaylik», – desangiz bo‘lmasmidi?! A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Loaqal mendan bir og‘iz bo‘lsa ham so‘rash kerak edi. N.Nazarov. Zamon. Shuning uchun u biron og‘iz ham so‘zni tushirib qoldirishdan qo‘rqib, bor epchilligini ishlatib yozardi. S.Ahmad. Hukm. Haligacha Saodat bilan betma-bet uchrashib, bir-birimizga uylanish to‘g‘risida biror og‘iz suhbatimiz bo‘lgan emas. G‘.G‘ulom. Yodgor.

2 muhim, zarur.

Jilla bo‘lmasa, o‘lim oldida bir og‘iz so‘zingni manga ayt. Oybek. Qutlug‘ qon. Bir og‘iz gapimiz bor, shuni sizga aytgani kelgan edik. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

BIR OG'IZDAN 1 yakdillik bilan, hamjihatlik bilan. Sinonimi: **bir ovozd**an. *Hamma bir og'izdan taklifni ma'qulladi.* S.Ahmad. Uzun til. **2** qarshi chiquvchisiz (ovozga qo'yishda). Sinonimi: **bir ovozd**an.

Ovozga qo'yaman. Tasdiq qilganlar qo'l ko'tarsin. Bir og'izdan. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

bir paqir bo'lmoq; bir pul bo'lmoq

BIR PARDA BALAND OLIB YUBORMOQ kim? sal ortiqcha yubormoq, sal qattiqroq gapirmoq.

– *Xo'sh, ne tilaging bor, tila! – dedi, u kishi ovozlarini bir parda yuqorilatib: – Farzand – dedi.* Mush-tum.

BIR PUL BO'LMOQ nima? – **BIR PUL QILMOQ** kim? nimani? barbod bo'lmoq. Varianti: **uch pul bo'lmoq – uch pul qilmoq; bir tiyin bo'lmoq; bir paqir bo'lmoq.**

Shu yoshga kelib, qilgan mehnatim ham, orttirgan obro'yim ham bir pul bo'ldi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Ostonaqulning butun umidlari bir pul bo'lib, «bo'yincha» bozoriga qarab jo'nadi.* G'.G'ulom. Farzandi solih. *Saida ketayotganda uning oshgacha, osh mahalida, oshdan keyin gapirgan gaplarini bir og'iz so'z bilan bir pul qildi-qo'ydi.* A.Qahhor. Sinchalak. *Haligi gapingni qara, bir og'iz gap bilan obro'ying uch pul bo'ldiya.* S.Ahmad. Xotinlar. *Musobaqada yutqizding. Meni ham, o'zingni ham sharmanda qilding, akasi. «Qizil yo'l»-liklar oldida obro'yimni uch pul qilding.* M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. ...shu kunlarda fosh etilgan

... haqida gaplashishdi. «Obro'si bir tiyin bo'ldi», – dedi O'ktam nafrat bilan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BIR PUL nima? ba'zan kim? **1** qadr-qiymatsiz. Varianti: **uch pul.**

Aytgani-aytgan, degani-degan. Otona so'zi bir pul. S.Zunnunova. Yangi direktor. *Shuning uchun bu yerdagi odamlar, bu yerning kelajagi sizga bir pul.* A.Muxtor. Tug'ilish. *Qayerga borsalar, ularning so'zi ma'qul, kambag'alning arz-dodi uch pul.* Oybek. Qutlug' qon.

2 foydasi yo'q. Varianti: **bir tiyin.**

O'zining u yog'ida bo'lmagandan keyin, yuz gapiring, ming gapiring, bir pul ekan. S.Anorboyev. Oqsoy. *Boshqa kitobni kitob dema! Hammasi bir tiyin.* Oybek. Qutlug' qon.

bir pul qilmoq; bir pul bo'lmoq
BIR PULLIK hech. Varianti: **bir chaqalik.** Sinonimi: **sariq chaqalik.**

O'rtoqlar! Bugungi dokladdan bir pullik bahra olmagan bo'lsak ham, lekin vaqtimiz bekor ketgani yo'q. A.Qahhor. Og'riq tishlar. *Mayli, sening ko'zingda mening bir chaqalik hurmatim yo'q ekan.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BIR QARICH 1 juda yosh, deyarli go'dak. Varianti: **bir qarichlik.**

...g'o'za parvarishining va ayniqsa chopiqning butun mashaqqatini bir qarich yoshidan juda yaxshi bilgan O'ktam mashina ishining tezligi va sifatiga yana bir karra qoyil qoldi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Kombinatda eng yaxshi kommater*

kim desangiz, G'ulomjon deyishadi. Men xursandman. Buning ustiga seni naq bir qarich mahalingdan bilaman. S.Abduqahhor. Usta bilan shogird. Ey bolam, bizlarga o'qish qayoqda edi. Bir qarichligimdan yetim qolib, amakining xizmatida o'tib ketganman. Oydin. Shiringa maktub.

2 sathi juda kichik, bir parcha.

Lekin bir qarich yerni birov chop-mabdi. S.Zunnunova. Gulxan.

Saodat bu gaplarga parvo qilmas, mendan bir qarich ham jilmasdi. S.Ahmad. Ko'klam taronalari. Menga qolsa, sizlardan bir nafas ajray, bir qarich nari ketay deymanni?! S.Abdulla. Muqimiy.

bir qarichlik: bir qarich

BIR QATORGA QO'YMOQ

kim? kimni? kim bilan? teng deb bilmoq, tenglashtirmoq.

Meni kimlar bilan bir qatorga qo'y-moqdasan, bilmadim, ammo men haqimda xato o'ylagansan. So'zlashuv uslubi.

BIR QAYNOVI ICHIDA ishi, fikrlashi qandaydir g'ayri tabiiy, nuqsonli; dovdur. Varianti: **bir qaynovi kam.**

Po'latjon iljayib oyoq uchida sekretarning oldiga keldi. Besh panjasini yozib, uning qoq yag'riniga bir tushirdi. Cho'chib ketgan sekretar ruchkasini qo'lidan tushirib yubordi. Po'latjon esa kula-kula idoradan chiqdi, besh panjaning izi tushib qolgan yag'rinini silay turib sekretar shikoyatomuz do'ng'illadi: «Tavba, bir qaynovi ichidami, o'zi». S.Ahmad. Qadrton dalalar. Jinni bo'lganmi u bola. Otasi tuppa-tuzuk odam-ku,

o'g'li bir qaynovi kam chiqibdi. I.Rahim. Hilola.

bir qaynovi kam: bir qaynovi ichida

bir qop yong'oq: bir qop yong'oq-day shaldir-shuldur

BIR QOPYONG'OQDAY SHALDIR-SHULDUR *kim?* bor gapni ochiq ko'ngillilik, xushchaqchaqlik bilan to'kib soladigan. Varianti: **bir qop yong'oq.**

San bir qop yong'oqday shaldir-shuldur eding, opang ham sho'x, qaqildoqqina edi. Oybek. Qutlug'qon. Asakada «bir qop yong'oqdek shaldir-shuldur qiz» deb nom chiqargan shaddod Xayri har kuni ko'rib yurgani Nazokatni bugun boshqacharoq sevib qoldi. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

BIR QORINDAN TALASHIB TUSHGAN *kim?* bir onadan tug'ilgan.

Bir qorindan talashib tushgan qondoshlarning bu kun bir-birini ko'rishga ko'zi, otishga o'qi yo'q. Gazetadan.

BIR QOSHIQ QON(I)DAN O'TMOQ *kim? kimning?* gunohini avf etib, hayotini saqlab qolmoq (tarixiy). Varianti: **qon(i)dan kechmoq.**

Esing borida etagingni yop. Menga yigit bo'! Bir qoshiq qoningdan o'taman. S.Ahmad. Hukm. «Qonimdan kech», – demoqchimisani?» – «Yo'q, begim, ikki ko'zdan ajragan kambag'alning orzusi undiq bo'lmaydi. Aksincha, meni o'ldirish niyatingizdan qaytmasangiz deyman». A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi.

BIR QOSHIQ SUV BILAN YUTIB YUBORGUDAY beqiyos go'zal, nihoyatda dilrabo.

Gulsanam bir qoshiq suv bilan yutgudek ajoyib bir kelinchak bo'ldi. Oydin. Gulsanam. Ular bir qoshiq suv bilan yutvorguday bo'lib yasanishdi. S.Ahmad. Mastonbibi.

bir qulog'(i)dan kirib, ikkinchi qulog'(i)dan chiqib ketmoq: bu qulog'(i)dan kirib, u qulog'(i)dan chiqib ketmoq

BIR SIQIMGINA BO'LIB QOLMOQ *kim?* qarib, kichrayib qolish, qarilarning jussasiga nisbatan qo'llanadi. Varianti: **bir parchagina bo'lib qolmoq, bir hovuch bo'lib qolmoq** (Qashqadaryo vil. Yakkabog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.)

BIR SO'Z(I) IKKI[TA] BO'L-MADI *kimning?* – **BIR SO'Z(I)NI IKKI[TA] QILMASLIK** *kim? kimning?* aytgani bajarildi. Varianti: **gap(i)ni ikki[ta] qilmaslik; so'z(i)ni ikki qilmaslik.**

Chuchvarani xom sanayapsiz, Begim. Shu paytgacha polvonning bir so'zi ikki bo'lgan emas. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Yemay yediribdi, kiymay kiydiribdi. Bir so'zini ikki qilmabdi. S.Anorboyev. Eh, yomon bo'ldi. Uning qaynanasi Risolat xola ro'zg'orda hech narsani ko'zdan qochirmaydigan, bir so'zini ikki qildir-maydigan xotin edi. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi. Gapimni ikkita qilsang, senday qizim yo'q! Bilib qo'y shuni! I.Rahim. Chin muhabbat. Siddiqjon ichida xo'p suyunsa ham, o'zini cholning so'zini ikkita qilmaslik uchungi-na solayotgan ko'rsatishga tirishdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

bir so'z(i)ni ikki[ta] qilmaslik: bir so'z(i) ikki[ta] bo'lmadi

BIR SO'ZLI aytganini amalga oshiradigan, o'z qarorini o'zgartirmaydigan. Varianti: **bir so'zlilik.**

«Sochim oqarib ketsa ham, Normat akamni kutaman», – debdi. Bir so'zli qiz. I.Rahim. Chin muhabbat. Agar Biryulin quruq olifta bo'lmasa, otasiday bir so'zli bo'lsa, birga ketadi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

bir so'zlik: bir so'zli

bir so'zlilik: bir so'zli

bir tan bo'lib: bir jon-bir tan bo'lmoq

bir tan-bir jon bo'lmoq: bir jon-bir tan bo'lmoq

bir tiyin bo'lmoq: bir pul bo'lmoq

bir tiyin: bir pul

BIR TIYIN USTIDA MING YU-MALAMOQ o'lgudek xasis, qizg'onchiq, ochko'z, qurumsoq.

Ammo xalq hamma narsaga ishonishi mumkin edi-yu, lekin bir tiyin ustida ming yumalaydigan boydan bunday gap chiqishiga ishonmas edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BIR TOVUQQA HAM DON KERAK, HAM SUV KERAK bir kishiga ham ko'p narsa kerak.

Natura haqi to'lashdan qutilganimiz bilan traktorlar ham yeyman, ham ichaman, deb turibdi, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv. I.Rahim, Hilola.

bir to'n(i) ikki bo'lmadi: bir(i) ikki bo'lmadi

BIR TUKI O'ZGAMAS yoki **BIR TUK HAM KAM EMAS** aynan o'zi, xuddi o'zi, o'zginasi.

Kampir suratni qo'liga olib tikilib goldi: – Xuddi o'zi, Kenjaginamning o'zi. Bir tuki o'zgamas. S.Ahmad.

Chevara. *Buvasi-ku «Dadasidan bir tuki kam emas», deb A'zamning bolalik chog'ini eslaydi. Shuhrat, Jannat qidirganlar.*

BIR TUKIGA HAMARZIMASLIK *kim? kimning?* tengi emas, hech arzimaydi, hech to'g'ri kelmaydi.

Koshki edi tega olsam, – dedi To'ybeka, men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang, uning bilan tenglashar eding. Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan... A.Qodiriy. O'tkan kunlar.

BIR TUTAM juda qisqa, oz vaqt davom etadigan.

Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko'rindi. Oybek. Qutlug' qon. Yana kitob! Yot endi, yoz tuni bir tutam. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

BIR VINTIKAM [YETISHMAYDI] *kimning?* farosatsiz, nuqsonli.

Bu nima qilgani? – deb so'ragan edim. – Usta, bir vintingiz kam ekan, demoqchi bo'lgandir-da! – dedi og'aynisi. Mushtum. O'zingni chertyojsiz yasashganga o'xshaydi. Ko'rinib turibdi: bir vinting yetishmaydi. Tilingni uzun qilgandan ko'ra, miyangni ishlatsang-chi. Sharq yulduzi.

bir xil bo'lib ketmoq: ko'ngl(i) bir xil bo'lib ketmoq

BIR YERDA O'TURMOQ [bir jerdä otur=] tar. *kim?* 1 bir joyda muqim yashamoq, qo'nim topmoq. Varianti: **bir joyda o'tirmoq.**

«Ey Sa'diy, bir safarim dag'i bor, ul safardan kelsam, umrumning baqiyasin bir yerda o'turub kechurgayman».

2 kim? shovqin qilmasdan jim o'tirmoq.

Bir joyda o'tir, juda charchatding odamni, dedi ona o'g'liga. So'zlashuv uslubi.

BIR YOQADAN BOSH CHI-QARMOQ *kimlar? kim? kim bilan?* hamjihat bo'lmoq, yakdil bo'lmoq. Sinonimi: **bir jon-bir tan bo'lmoq** *kimlar?*

Bechoraning hech kimi yo'q; yetim qiz edi. Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik. Oybek. Qutlug' qon. Dehqon ommasi o'zining eng yaqin, eng qalin do'sti bo'lgan mastero-voylar bilan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilib yotibdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

bir yoqda tursin: u yoqda tursin

BIR YOQLI BO'LMOQ 1 *nima?* bir yoqli qilmoq *kim? nimani?* yoki *kimni?* hal bo'lmoq, ajrim bo'lmoq. Varianti: **bir yoqli qilmoq.**

Dadamning arizasi bir yoqli bo'lguncha, Karimov amakim biznikiga telefon qilmadilar. S.Ahmad. Dadamning o'rtog'i. ...o'rganishi lozim bo'lgan har bir ishga chiyadek yopishadi. O'shani bir yoqli qilmaguncha qo'ymaydi. Oydin. Er yurak.

2 tugamoq.

Yana biroz sabr qilinglar, o'qishim bir yoqli bo'lsin, keyin. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Mingboshini bir yoqli qilib, uning zulmidan sindoshlarini xalos qilish yo'llarini o'yladi. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

bir yoqli qilmoq: bir yoqli bo'lmoq

BIR YOQQA YIG'ISHTIRIB QO'YMOQ *kim? nimani?* davom

etayotgan ish-amalini keskin to'xtatmoq.

U hech kimdan bunday dashnom yemagan edi. Endi nozni bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib, lo'lilikni boshladi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

BIR YOSTIQQA BOSH QO'Y-MOQ kimlar? o'zaro; kim? kim bilan? oilaviy hayot kechirmoq. Sinonimi: **turmush qurmoq** kim? kim bilan? kimlar? o'zaro; **oila qurmoq** kimlar? o'zaro.

Ikki yosh umr bo'yi birga yashash, baxtli turmush qurishga ahdlashib bir yostiqa bosh qo'ydilar. A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi. *Vafo deb sen bilan bir yostiqa bosh qo'ygan, yiqilganingda seni suyagan, mehribon umr yo'ldoshingni unutib bo'ladimi hech?! N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. Duoyi salom o'sha bachchalarning onasiga, umid bilan bir yostiqa bosh qo'yib, kecha-kunduz duoyi jonimda bo'lganga! Oydin.* Shiringa maktub.

BIR ZUVALA XAMIR(...), ISTASA(...), KULCHA, ISTASA(...), PATIR QILMOQ kim? kimning? qo'lida o'z xohish-irodasiga so'zsiz bo'ysundirmoq, aytganini qildirmoq. Varianti: **bir zuvala xamir (...), istasa(...), patir, istasa(...), kulcha qilmoq; bir zuvala xamir(...), tilasa(...), kulcha qilmoq, tilasa(...)** – **bo'g'irsoq.**

Oldingizga keldim, qo'lingizda bir zuvala xamirman, istasangiz kulcha, istasangiz patir qiling. Ammo lekin o'zim ko'nglida kiri yo'q bolaman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

Qo'lingizda bir zuvala xamirman, istasangiz patir, istasangiz kulcha qiling! Meni bu balodan xalos qiling. S.Ahmad. Hukm. *U bu kungacha «Saidiy mening qo'limda bir zuvala xamir; tilasam, kulcha qilaman, tilasam – bo'g'irsoq» deb o'ylar edi.* A.Qahhor. Sarob.

bir zuvala xamir(...), istasa(...), patir, istasa(...), kulcha qilmoq: bir zuvala xamir (...), istasa(...), kulcha, istasa(...), patir qilmoq

bir zuvala xamir(...), tilasa(...), kulcha qilmoq, tilasa(...) – **bo'g'irsoq:** bir zuvala xamir(...), istasa(...), kulcha, istasa(...), patir qilmoq

bir o'q bilan ikki nishonga urmoq: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq

bir o'q bilan ikki qushni urmoq: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq

bir o'q bilan ikki quyonni urmoq: bir kesak bilan ikki quyonni urmoq

bir chaqaga arzimaslik: sariq chaqaga arzimaslik

BIR SHINGIL jindak, qittak, juda oz («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **bir shingil-yarim shingil.** Sinonimi: **bir og'iz; bir chindim.**

Qani, shunaqa bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Payti kelganda doktorlardan, professorlardan ham bir shingil-yarim shingil maslahat oldim.* Oybek. Oltin vodiidan shabada-lar. «Majlisda bizning haqimizda ham gap bo'lar hali?» – deb kuldi Razzoq aka. «Ha, bir shingilgina». S.Anorbo-yev. Eh, yomon bo'ldi.



bir shingil-yarim shingil: bir shingil

BIR CHAQAGA OLMASLIK kim? kimni? nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik, o'ziga teng ko'rmaslik.

Bu kulishdan uning mehmonni bir chaqaga olmaligi aniq bilinib turardi. A.Muxtor. Opa-singillar. Sherbek o'zini bosib olib, ...Xo'jabekov kishilarga g'amxo'rlik qilish haqida soatlab nutq so'zlashi mumkinligi, ammo o'zidan boshqani bir chaqaga ham olmasligini, u ... faoliyatidagi va tabiatidagi yana ko'pgina nuqsonlarni dangal ochib tashladi. S.Anorboev. Oqsoy.

bir chaqalik: bir pullik

bir chekkadan: bir boshdan

BIR CHEKKASI atroflicha o'y-lab mulohaza yuritilsa.

Bir chekkasi, u Akbarovning «buzuq yo'nalish»dan borayotganiga, Hakimovning bu haqdagi fikrlariga ham ishonib yurar edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Biz ham buni, bir chekkasi, o'z xizmatimiz deb bilib, «shatakchilik»ni davom ettirdik. A.Muxtor. Xayri.

BIR CHIMDIM qittak, ozginagina («suhbat» yoki «uxlash»). Sinonimi: **bir og'iz, bir shingil.**

Hazil-huzul, bir chimdim suhbatdan so'ng Mirhaydar va O'ktam paxta dalasiga yo'l oldilar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BIR CHO'QISHDA QOCHIRMOQ kim? kimni? [nimada?] juda ustun chiqmoq, osonlikcha yengmoq. Varianti: **qochirmoq.**

«Durust, miyang to'libdi, – dedi kulib Tantiboyvachcha, – yaqin o'rtada uncha-muncha ulamoni bir cho'qish-

da qochirasan». Oybek. Qutlug' qon. Mulla Mamajon o'z davrida yalqovlik bilan «Alif layli»dagi Abutanbalni bir cho'qishda qochiradigan kishi bo'lgan ekan. G'.G'ulom. Tirilgan murda. Yangangiz holvaytarga usta-da. Ovqat qilishda har qanaqa oshpazni qochiradi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

BIRDA BO'LMASA, BIRDA bu safar bo'lmasa, boshqa bir safar, biror martasida.

Bilmaydi deysizmi? U ham uyda o'tirgan kelin emas-ku! Ishlaydi. Birda bo'lmasa, birda eshitadi. Teshik quloq emasmi? Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

BIRI BOG'DAN KELSA, BIRI TOG'DAN KELMOQ bir-birining gapiga tushunmaslik, anglab yetmaslik, bog'lanmaydigan gaplar.

Shunday qilib, bizning chempion minbarga savlat bilan chiqib, ... bir bog'dan, bir tog'dan kelib, gapga to'n kiydira boshladi. S.Abduqahhor. Qo'shnilar. Gapning ochig'i, ma'lumot emas, topishmoqnamo bir narsa edi. Raqamlar chalkash, biri bog'dan, biri tog'dan keladi. Mushtum.

BIR(I) IKKI BO'LMADI kimning?yoki nimaning? ro'zg'ori but bo'lmaslik, moddiy qiyinchilikdan qutulmaslik. Varianti: **bir to'n(i) ikki bo'lmadi kimning?** Sinonimi: **kosasi oqarmadi.**

Ko'rib turibmiz, birimiz ikki bo'layotgani yo'q. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Tez kunda o'ziga o'xshagan, bir to'ni ikki bo'lmagan bir erga tegdi. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha.

BIRI CHIROQ, BIRI PILIK juda yaqinlashib, do'stlashib, qalinlashib ketmoq.

Biri chiroq, biri pilik bo'lib ketgan Kamoliddin Mamatov va G'ofurjon G'aniyevlarning boshqa ishlari ham ko'p. Mushtum. Osh yesalar o'rta-da sarson ilik, Xo'ja – chiroq yog'i, Hakimjon – pilik. Muqimiy. Tanobchilar.

BIR(I)NI AKA, BIR(I)NI UKA DEB [kimlarning?] katta-kichik ham-maga birdek yaxshi muomala qilib. Varianti: **kattani aka, kichikni uka deb.**

Avvallari birini aka, birini uka deb yurgan Komiljon ko'kragiga medal taqib oldi-yu, hech kimga gap bermay qo'ydi. S.Ahmad. Oriyat. Qo'chqor endi... Oqsoy jamoasining oqsoqoli, o'zidan kattani aka, kichikni uka deb ish olib borishi kerakligini necha bor o'ziga-o'zi ta'kidlar edi-ku, ammo... S.Anorboyev. Oqsoy.

BIRINING DO'PPISINI BIRIGA [IKKINCHISIGA] KIYGIZMOQ kim? aldamoq, mug'ombirlik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq.

Bir tashkilotning do'ppisini ikkinchisiga kiydirishning o'zidan 50 ming so'm foyda qoldi. Gazetadan.

BIR(I)NING GO'SHT(I)NI BIR(I) YEMOQ kimlar? [o'zlarining?] ikki taraf bo'lib mushtlashmoq, janjallashmoq. Varianti: **bir-bir(i)ning go'sht(i)ni yemoq.**

Uning bu ishi ikkoviga ham o'zini xolis qilib ko'rsatib, aslida «Biringning go'shtingni biring ye», – deb sekingina chetga chiqib, tomoshalarini ko'rishga o'xshamaydimi? S.Anor-

boyev. Oqsoy. Ular o'z Rossiyasida bir-birining go'shtini yemaydimi, go'shtini! Buxoro ollo taolaning panohida. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

BIR(IMIZ) OLIB, BIR(IMIZ) QO'YDI(K) kimlar? nimani? galma-gal uzluksiz davom ettirmoq.

Xullas, Ilhomjon, o'sha leksiya kuni birimiz olib, birimiz qo'ydik. Gap sizib ketdi. M.Muhamedov. Yurak so'zlari. Shu yo'sinda biri olib, biri qo'yib gapirishardi. N.Nazarov. Zamon.

bir-bir(i)ning go'sht(i)ni yemoq: bir(i)ning go'sht(i)ni bir(i) yemoq

bir-ikki og'iz: ikki og'iz

BIR-IKKI QOVUN PISHIG'I bir-ikki yil, ancha vaqt, biroz vaqt.

Bizlar bunaqa etik kiyadigan bo'l-guncha, bir-ikki qovun pishig'i o'tadi A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

BIR-IKKI YAKTAKNI ORTIQROQ YIRTGAN kim? kimdan? yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko'proq. Varianti: **bash-oltita ko'ylakni ortiqroq yirtgan.**

Omon mendan bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan. G'.G'ulom. Shum bola.

bir-ikki shingil: ikki shingil

biron og'iz: bir og'iz

biror joy(i) kamayib qolarmidi?!: biror joy(i) kamib qolarmidi?!

BIROR JOY(I) KAMIB QOLARMIDI?!: kimning? hech narsa yo'qotmaslik, zarar ko'rmaslik. Varianti: **biror joy(i) kamayib qolarmidi?!:**

Shunday bo'lsa, biror joyi kamib qolarmidi?! S.Anorboyev. Oqsoy. «Og'ir bo'l, tanqid qilsa-qilibdi, biror joying kamayib qolarmidi?!» S.Anorboyev. Oqsoy.

biror og'iz: bir og'iz

bitta bosh(i)ni ikki[ta] qilmoq:
bosh(i) ikki[ta] bo'ldi

BIYLATMAY QO'YMOQ *kim?*
kimni? xo'jayinlik qildirmaslik, xo'-
jayinlikni olib qo'lishlik, huquqini
olib qo'yish.

*Kelin kelib qaynanani biylatmay
qo'ydi. Sh.Shomaqsudov, S.Dolimov.
Keng uyning kelinchagi.*

**BOLA BAHONA – DIYDOR
G'ANIMAT (IBORANING O'Z-
GARGAN SHAKLLARI: GUL BA-
HONA... G'O'ZA BAHONA...).**
Biror bahona bilan butunlay boshqa
maqsadda (xususan, sevgilisini ko'-
rish uchun) kelgan kishiga nisbatan
aytiladigan ibora.

*Bola bahona, diydor g'animat, deb
ular oldiniga yigitlar bilan yonma-yon
o'tirishga o'rganishadi. Hamza.*

BOLA KO'RMOQ *kim?* zurri-
yoti tug'ildi. Varianti: **farzand ko'r-
moq; o'g'il (qiz) ko'rmoq.**

*Qizing tenglari ikki bola ko'rdi.
I.Rahim. Chin muhabbat. Bechoralar,
farzand ko'raman deb ne-ne orzular
qilib yurardi-yu, vaqti-soati yaqin-
lashganda uyda yana bir nonxo'r
paydo bo'lsa, oilaning ahvoli bundan
ham mushkullanishi ko'z oldiga kelib,
tashvishga tushardi. R.Fayziy. Qay-
nana. G'ulomjon ...o'zining hali-ha-
li uylanmaganligini, o'zi ham mana
shunday shirin jajji qiz yo o'g'il ko'ri-
shi, ko'zimizning ochiqligida boshing-
ni ikkita qilib qo'ysak deb jag'illab
o'tayotgan ota-onasini baxtiyor qil-
ishi mumkinligini o'ylab achindi.
M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.*

BOLA TOPMOQ [bala tap=] tar.
kim? yoki *nima?* tug'moq, farzand
ko'rmoq. Sinonimi: **chaqaloq kel-
tirmoq, ko'zi yorimoq.**

*...hukamo tasniflarinda kelib turur-
kim, aqrabning bola topqan yeri
ma'lum degul, uylakim, o'zga joni-
vorlarning ma'lum durur dag'i onasi-
ning bag'irsug'in yer, qornin yir-
tib, sahrog'a chiqib ketar. S.Saroyi.
Gulistoni bit-turkiy.*

**BOLOXONADOR QILIB SO'K-
MOQ** *kim? kimni?* qattiq haqorat qil-
moq.

*Shundayam ponsod past tushmas,
yigitlarni boloxonador qilib so'kardi.
Sh.Bo'tayev. Qora tuman.*

**BOR OTANGGA, BOR ONANG-
GA** sansalorlik bilan ovora qilishni
bildiradi.

*Shu arzimagan ishga ham meni
«bor otangga, bor onangga» qilavera-
sizmi? I.Rahim. Ixlos.*

BORIGA BARAKA mavjud, naqd
narsaga qanoat qilish va shuning ye-
tarli bo'lishini istash.

*Xo'p, mayli. Boriga baraka, u yo-
g'ini og'zaki boplayman. A.Qahhor.
Og'riq tishlar. Ota-bobolarimizdan
qolgan bog'larga tikilib, boriga bara-
ka deb, qanoat qilib kelmoqdamiz.
S.Anorboyev. Oqsoy.*

bor-u yo'g'(i): bor-yo'g'(i)

BOR-YO'G'(I) hammasi bo'lib,
yig'ishtirib kelganda. Varianti: **bor-u
yo'g'(i).**

*Haqiqatan ham, xola aytmoqchi,
hozirgi har bir kun yilga tatiydi. Bor-
yo'g'i bir-ikki kun ichida shuncha-
lik bo'lganini qarang. S.Anorboyev.
Tashvish. Bor-u yo'g'im shu bitta
ho'kiz edi. A.Qahhor. O'g'ri.*

bor-yo'g'i: bor-yo'g'(i)

BOSAR-TUSAR(I)NIBILMASLIK kim? [o'zining] kekkayib, man-manlikka berilib, nazar-pisand qilmay qo'ymoq. Sinonimi: **o'z(i)ni bilmay ketmoq** kim?

O'sha kezlari Burgut bosar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib yurdi. S.Ahmad. Cho'l burguti. *Yo'q, Qorasoch, sen to'g'ri tanqid qilgan ekansan. Men u vaqtda bosar-tusarimni bilmay qolgan ekanman.* S.Anorboyev. Jasorat.

BOSGAN (yoki **QO'NGAN**) **YERINI QURITMOQ** kim? borgan yerida hech narsa qoldirmay yo'q qilmoq, yeb-ichib, talab bitirmoq.

Bundan buyon bog'imga qadam qo'ymang, siz boyo'g'lidan ham batar narsasiz! Qo'ngan yeringizni quritasiz! Mirmuhsin. Chiniqish.

bosgan qadam(i): qadam bosmoq

BOSIB O'TMOQ nimani? 1) ma'lum masofa yo'l yurmoq. 2) kesib o'tmoq, ustidan yoki yonidan o'tib ketmoq.

Maston necha kilometr yo'l bosib o'tganini va yana necha kilometr bosish kerakligini bilar edi. A. Qahhor. Asarlar.

botib ketmoq: ayil botmoq

BOVURIDAY BO'P KETGAN kim? bir-biri bilan aka-uka, opa-singilday yaqin bo'lib ketgan (Qashqadaryo vil. Yakkabog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.).

boy berilmoq: boy bermoq

BOY BERMOQ kim? nimani? 1 («pul»ni) qimorda yutqizmoq.

Ukaning hech haqi yo'q, hovlidan bo'ladigan tegishini ham sotib, qimorga boy bergan! S.Abdulla. Tarakana. ...tilmoch qimorga o'zini urdi. *Omadi ketib, hovlijoyni boy berib, qaynatasining uyiga ko'chib keldi.* S.Ahmad. Hukm.

2 («vaqt»ni) behuda, befoyda o'tkazmoq, yo'qotmoq. Varianti: **boy berilmoq nima?** Sinonimi: **qo'ldan bermoq** kim? nimani? yoki kimni?

Shunday qilib, bahorda boy bergan o'n besh kunni ham qo'shtirib oldik. I.Rahim. Hilola. *Payt qo'ldan boy berildi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

3 («sir»ni) oshkor qilmoq, bildirib, sezdirib qo'ymoq.

...oxiri uning ham ko'ngli buzildi. Ammo sir boy bermay, meni yupatishga tirishdi. I.Rahim. Olovkor. *Kulgiga to'lib turganlar endi sir boy berib qo'ygan yigitchaning ustidan xaxolashdi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

BOY BO'LIB BOLTA(SI) YO'Q, GADOY BO'LIB XALTA(SI) YO'Q kimning? arzigulik biror narsaga ega bo'lmaslik, nochor ahvolda bo'lmoq.

[O'rmonjon] *Siddiqjonni ko'rib, xiyla o'tirdi, nimagadir g'ashi kelayotganday undan kinoyaomuz holahvol so'radi-da, «Boy bo'lib boltang yo'q, gadoy bo'lib xaltang yo'q», – deb zaharxanda qildi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

BOYAGI-BOYAGI, BOY XO'JANING TAYOG'I hech qanday o'zgarishsiz; ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Sinonimi: **eski hammom, eski tos.**

Kecha Salim bilan uchrashib qoldim. Boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i. So'zlashuv uslubi.

boyagi-boyagi, xon xo'janing tayog'i: boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i.

BOZOR BAHOSI hamma qatori, hech yon bosmay; boshqalarga qanday bo'lsa, unga ham shunday («muomala qilmoq»).

Shu ishlar Sharifning qo'lida ekan, goldirarmikan degan umid bilan so'zlashgan edim, bozor bahosi muomala qildi. A.Qahhor. Sarob.

BOZOR(I) CHAQQON kimning? yoki nimaning? talabgori ko'p.

...shahardan artist chaqirmoqchi edi, artistlarning bozori chaqqon ekan, allaqachon har yoqqa va'da berib qo'yishibdi. H.Nazir. Tomosha. Avtobus, trolleybuslar hamon tiqilinch, taksilarning bozori chaqqon. S.Anorboyev. Oqsoy.

BOZORGA SOLMOQ 1 kim? nimani? sotish maqsadida fazilatlarini namoyish qilmoq.

U otini bozorga solib yurgan jiyaniga umid ko'zlarini tikkan. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 kim? [o'zini] husn-latofatini ko'z-ko'z qilib, diqqatni jalb qilmoq.

«Agar sevgining nimaligini bilsangiz, yuzingizdagi pardani yirtib tashlab, o'zingizni bozorga solib o'tirmas edingiz, Jo'raxon!» – «Ha, bozorga solsam, birovdan kamligim bormi?» M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BOG'DAN KELSA (...), TOG'DAN KELMOQ kim? suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo'q gap-so'z aytmoq. Varianti: **tog'dan kelsa (...), bog'dan kelmoq.**

O'qituvchi bog'dan kelsa, u tog'dan keladi: Sparta davlatini so'rasa,

Spartak yurishlariga o'tib ketyapti. H.Nazir. O'jar qizlar.

bosh aylandi: bosh(i) aylandi

BOSH CHAYQAMOQ I kim? boshini ikki yonga bir necha marta burib, yo'q javobini bildirmoq.

Keyindan Saidiy xotin-qizlarga yengillik borligini aytib harchand qistasa ham, qiz labini tishlab bosh chayqar edi. A.Qahhor. Sarob.

BOSH CHAYQAMOQ II kim? boshni ikki yelka tomon bir necha marta egib, taassuflanganini bildirmoq.

Boboqul tosh tegib, mayib bo'lgan qo'y go'shtini Qo'chqor olib qo'yganini eslab mayus bosh chayqadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

BOSH EGMOQ kim? kimga? 1 itoatkor bo'lmoq. Varianti: **bosh(i)ni egmoq** kim? [o'zining] kimga? Sinonimi: **bo'yin egmoq 1** kim? kimga? **bo'yn(i)ni xam qilmoq** kim? [o'zining] kimga? (eskirgan).

«Men uni oqlamayman, – dedi Mahkam aka Lyudmila Grigoryevnaning yoniga o'tirib, – lekin boshini egib, yalinib kelsa, nima qilay?» O.Yoqubov. Ota izidan.

2 itoat qilmoq, bo'ysunmoq. Varianti: **bosh(i)ni egmoq** kim? [o'zining] kimga? **egilmagan bosh (-).** Sinonimi: **bo'yin egmoq.**

3 kim? yoki nima? kimga? yoki nimaga? nima uchun?

Allonbiyga o'xshash bir yirtqichga qulday bosh egib keldik. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. ...bosh ko'targan «boshi buzuq»lar yana shalpayib, boshlarini egishga majbur bo'ldilar. S.Ayniy. Qullar. Egilgan boshni qilich kesmaydi. Maqol.

BOSH KO'TARIB YURMOQ I *kim?* o'zini halol, pokiza, boshqalarga teng deb bilib, kishilar orasida xijolat tortmay yashamoq.

Shu qushlarchalik qadr-u qiymating bo'lmagandan keyin, dunyoda odamman deb bosh ko'tarib yurishning qanchalik ma'nosi qoldi? M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

bosh ko'tarib yurmoq II: bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik

bosh ko'tarib yurolmay qolmoq: bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik

bosh ko'tarib yurolmaydigan qilmoq: bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik

BOSH KO'TARMASLIK [baš kötür=] tar. *kim?* tavof qilishni to'xtatmaslik.

Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh ko'turman. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

BOSH KO'TARMOQ I *kim?* 1 qaramoq.

«*Pochchayev, – deb bosh ko'tardi Elchibek, – sizning kasbingiz nima?*» A.Muxtor. Tug'ilish. ...yerga qaragancha kuldi. Birozdan so'ng bosh ko'tardi. Oydin. Yuragida o'ti bor.

2 *nimadan?* qilib turgan ishini to'xtatmoq. Varianti: **bosh(i)ni ko'tarmoq** *kim?* [*o'zining*] *nimadan?*

Safarali stoldan bosh ko'tardi, haligi rus qiziga bir nima deb kuldi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi. ...qalin daftardan boshini ko'tarmay, nimalarnidir hisoblashga tushdi. I.Rahim. Chin muhabbat.

3 *nima* qo'zg'almoq, harakatga kelmoq. *Qishloqda el erta yotadi, chunki quyoshdan oldin bosh ko'taradi.* I.Rahim. Hilola. *Qalbidam go'yo isyon, g'alayon ajdahosi bosh ko'tar-*

gan-u... M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

4 *nimaga?* qarshi kurashga chog'lanmoq.

U xo'rlikka, adolatsizlikka, zulmga qarshi bosh ko'targan edi xolos. S.Zunnunova. Gulxan. *Bosh ko'targan xalqni mardlikka yetaklagan kosisib Sanjar Malikning nafasi pok shabadaga qanot bo'lmoqda.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

BOSH KO'TARMOQ II *nima?* unib chiqmoq.

Xinalar muhabbat ko'klamida qizlar qo'lini o'pish uchun yerdan bosh ko'taradi. G'.G'ulom. Qizaloq. *Qir bo'ylab bosh ko'targan nimjon o't izg'irindan yashirinmoqchiday gohu, gohu bu tomonga engashadi, yer bag'irlab to'lg'anadi.* S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi.

bosh ko'tarmoq III: yostiqlan bosh ko'tarmoq

bosh ko'tarolmay qolmoq: bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik

bosh olib: bosh(i)ni olib

bosh omon bo'lsa: bosh(i) omon

bosh omon bo'lsin: bosh(i) omon

bosh oqqan: bosh(i) oqqan

BOSH OG'RIG'I ortiqcha tashvish, daxmaza. Varianti: **bosh og'riq.**

Majlis bo'ldi deguncha, bir bosh og'rig'ini o'ylab topasizlar. J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar. ...bu bosh og'riqlarning hammasi anavi osiy qullar erkiga ...solingan ma'naviy tushov ekan-da. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. *Rostini aytsam, shu zamonda gap-so'z qaynab ketgan... Hammasi bosh og'rig'i gaplar.* Oybek. Qutlug' qon.

bosh og'riq: bosh og'rig'i

bosh og'ritmoq: bosh(i)ni og'ritmoq

BOSH OCHMOQ [baš aç=] tar. kim? hojati ravo bo'lishini so'ramoq, ma'lum irim-sirim amallarni qilmoq, tilanmoq, yolvarmoq.

Men dag'i borib, uzun kechalarni qisqa qilib, ul ag'och ayoqinda bosh ochib, duo qilib, hojat tiladim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSH QASHIGANI kichik bir ishni bajarish uchun ham. Varianti: **bosh qashishga; boshni qashishga; bosh qashimoqqa.**

Traktor uzunasiga va ko'ndalan-giga ag'darilib yotibdi-yu, ketmonchilar ulgurmayapti. Bosh qashigani qo'l tegmaydi. I.Rahim. Ixlos. *Terim boshlandimi, bosh qashishga vaqt qolmaydi.* Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar.* «Bo'lmasa o'zingiz tushib chiqasizmi?» – «Yo'q, bir-ikki kun boshni qashishga ham qo'l tegmaydi». M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Keyingi vaqtlarda hatto bosh qashimoqqa vaqt tangligi to'g'risida gapirib, o'zini oqlashga tirishdi.* Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar.*

bosh qashimoqqa: bosh qashigani

bosh qashishga: bosh qashigani

bosh qashlagani: bosh qashigani

bosh qashlashga: bosh qashigani

bosh qorong'i: bosh(i) qorong'i

bosh qotdi: bosh(i) qotdi

BOSH QOTIRMOQ kim? astoydil o'ylamoq, chuqur fikrlamoq.

Qizni tashvishga solgan qiyinchiliklar nima bo'lishi mumkinligi to'g'risida yigit uzoq bosh qotirdi. Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar.* Zuhra

Karimovna, bu masala ustida ilgariyam, hozir ham ko'p olimlar bosh qotirgan. S.Anorboyev. Oqsoy. *Xalq sudi ishni olganidan so'ng ikki sutka uning ustiga bosh qotirib, mag'zini topolmadi.* A.Qahhor. Sarob.

BOSH QO'SHMOQ kim? nima-ga? aralashmoq. Sinonimi: **burn(i)-ni suqmoq** kim? [o'zining] nimaga? **bosh suqmoq** kim? nimaga? **chovli(-si)ni solmoq** kim? [o'zining] nimaga?

Kerak bo'lsa, bu ishga yana bosh qo'shamiz. S.Abdulla. Muqimiy. *Gazetaning shu ishga bosh qo'shganidan juda quvondim-u, avvalo bir narsasiga qo'shilolmadim.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 qatnashmoq.

...shu daryoni yuqori ko'tarib, yurtni obod qilishga bosh qo'shayotir. Oydin. Farhodlar.

BOSH SUQMOQ kim? **1.** qayerga? gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaramoq. Varianti: **bosh(i)ni suqmoq** kim? [o'zining] qayerga?

Inog'om buva tag'in derazadan bosh suqib, soatga qaradi. S.Ahmad. *Kutish taraddudi. Suvonjon ichkarigi xonaga boshini suqqanicha na chiqib ketishini, na kirib o'tirishini bilmay qoldi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

2 qayerga? kirmoq. Varianti: **bosh tiqmoq; bosh(i)ni suqmoq** kim? [o'zining] qayerga? **bosh(i)ni tiqmoq** kim? [o'zining] qayerga? Sinonimi: **burn(i)ni suqmoq 1** kim? [o'zining] qayerga?

Xullas, uch-to'rt yil mobaynida bir necha idora va muassasaga boshini suqib chiqdi. H.Nu'mon. Fasllar. Er-

tadan beri yolg'iz o'tiribman. Sen o'lgur bu uyga bir marta ham boshingni tiqmading. Oybek. Qutlug' qon.

3 nimaga? aralashmoq. Sinonimi: **bosh qo'shmoq 1 kim?** nimaga? **burn(i)ni suqmoq 2 kim?** [o'zining] nimaga? **chovli(si)ni solmoq kim?** [o'zining] nimaga?

Sobirjon birovlarining gapiga kibr, shunaqangi ishlarga bosh suqmasa edi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Kechagina kelgan odam ishchi kuchini taqsimlashday mas'uliyatli ishga maslahatsiz-nesiz bosh suqsa...* A.Muxtor. Tug'ilish.

bosh tiqmoq: bosh suqmoq

BOSH TORTMOQ kim? nima qilishdan? amalga oshirishga rozi bo'lmaslik, e'tiroz bildirmoq.

Zokir ota borishdan bosh tortgan edi, Novikova qistab qo'ymadi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Anvar to'satdan o'yinga qatnashishdan qat'iy bosh tortdi.* O.Yoqubov. *Dastlabki qadam. Jo'raxon bu muhim masalani aytishdan bosh tortgan-da, buning tomiri juda uzoq ekanligini G'ulomjon darrov fahmlab oldi.* M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. To'g'ri, boy otam mol-mulkini hujjatlab berishdan bosh tortgandan keyin Salim g'azablandi, bolalik qilib vaqiladi.* Oybek. Qutlug' qon.

BOSH TOVLAMOQ kim? nima-dan? bosh to'lg'amoq, bosh tortmoq.

Uzoqlamay Normuhammad qushbegi Qo'qondan bosh tovlab, o'z oldiga mustaqil hukumat e'lon qilgan bo'ldi. A.Qodiriy. *O'tgan kunlar. Bordi-yu, darhaqiqat, sen o'ylamagan*

ekansan, ozgina choy-chaqani aymasang, Azroil xam spravka berishdan bosh tovlamaydi... S.Abdulla. So-yalar.

BOSH URIB KELMOQ kim? najot izlab, panoh istab kelmoq.

Bosh urib keldim huzuringga... U.Ismoilov, Saylanma.

BOSH USTIGA mamnuniyat bilan qabul qilishga tayyorman. Varianti: **boshim ustiga; boshimizning ustiga.** Sinonimi: **ko'zim ustiga.**

Ular sizlarga ko'pdan-ko'p salom aytishdi. «Bizning tomonlarga albatta kelishsin, bosh ustiga deyishdi. H.Nazir. *Ko'korol chiroqlari. Bosh ustiga. Sizlar to'y qilasiz-u, biz bormaymizmi?!* S.Ahmad. *Qadr don dalar. «Boqijon aka, tanishing, ... yangi kelgan zootexnik o'rtoq Ahmadjonova!» – «O'-o', juda soz, bosh ustiga!»* S.Abduqahhor. *Hayotning boshlanishi. Mudir Iskandarovga sovgi bo'lib borganini, otasi, og'asi, qarindosh-urug'lari bosh ustiga deb qabul qilganlarini aytib... maqtanar edi.* Oybek. *Nur qidirib. «Oyi, – dedi Yulduzxon, – men ishga kirmoqchiman. Po'latga uch-to'rt kun qarab turasizmi?» – «Jonim bilan, bolam, boshim ustiga».* S.Zunnunova. *Latta. «Nega o'ylaysiz, – dedi eshon, – qizingizni kenjatoy o'g'limizga» – «Boshimizning ustiga, bir qiz emas, o'n qizimizni ham nazr qildik», – dedi Oxun. G'.G'ulom. Elatiyada bir ov.*

BOSH O'YNAB, JON TARKIN URMOQ [baş oynab, žan tarkin ur=] tar. kim? hayotini xavf ostiga qo'ymoq, jonini tikmoq.

*Yo'linda bosh o'ynab, jon tarkin
Urubmen ko'rgali dildor ko'rkini.*
S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSH(I) AYLANDI kimning?
1 behud bo'lmoq; muvozanatini yo'qotmoq (organizmning kasallangan holati, bunda go'yo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyuladi). Varianti: **bosh aylandi (-); boshni aylantirmoq nima?**

Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. «Muncha darmonsiz bo'lmasam», – o'yladi u. S.Zunnova. Gulxan. *Uchinchi ryumkani boshatgandan keyin Saodatning boshi aylanib; ko'zi tinayotgandek bo'ldi.* I.Rahim. Ixlos. *...choyxonaga burildim: bosh aylanib, ko'ngil ag'darila boshlagan edi.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *U yerda ...allaqanday ma'nosiz, boshni aylantiradigan doimiy bir g'ovur-g'uvur.* Oybek. Qutlug' qon.

2 nimadan? esankiramoq. Varianti: **bosh(i)ni aylantirmoq kim? kimning? boshni aylantirmoq kim? [nima bilan?]; bosh-ko'z(i)ni aylantirmoq kim? kimning? [nima bilan].**

...muloyim qarab qo'yishlarini, jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi. O.Yoqubov. Muqaddas. *Ilg'orlikdan boshing aylanib, ishni bo'shashtirib yubordingmi, bas, toshbaqa ... tush!* P.Qodirov. Uch ildiz. *Yosh, chiroyli xotin dadamning boshini shunday aylantirsinki...* Oybek. Qutlug' qon. *Uzundan-uzoq raportlari, vedomostlari, papka-papka qog'ozlari bilan boshni aylantirmoqchi bo'ladi.* A.Muxtor. Tug'ilish. *Matqovulning*

ishi bu. Bosh-ko'zimni aylantirib yurgan o'sha kasofat! H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

BOSH(I) BALOGA QOLDI kimning? yaxshilik qilaman deb yomonlikka yo'liqmoq, arzimagan narsani deb javobgar bo'lib qolmoq.

Sodiq, boshing baloga qolad i. Ko'rgiligingni ko'rsatadi Umarali. I.Rahim. Ixlos. *Agar boshqa vaqtda bo'lganda, bu butun boshli bir chinini kosa ekan-u, hatto sopol piyolacha mertilsa ham, Sharifa buvining bo'shi baloga qolardi.* N.Maqsudiy. «Laylat-ulqadr».

bosh(i) bilan kirib ketmoq: bosh(i) bilan sho'ng'i[b ket]moq

BOSH(I) BILAN SHO'NG'I[B KET]MOQ kim? [o'zining] nimaga? butunlay berilib, yaqindan qatnashmoq. Varianti: **bosh(i) bilan kirib ketmoq.**

Sherbek esa ...qo'ralar, molxonalar remontiga boshi bilan sho'ng'igan edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Mahallaning odamlari orasida yuz bergan har xil janjal va talashuvlarga boshi bilan kirib ketadi.* Oybek. Qutlug' qon.

BOSH(I) BOG'LIQ kimning? erga berish kelishib qo'yilgan, unash-tirilgan.

Hammasiga ham: «Yo'q, aylanaylar, hali qizim yosh, undan keyin buning boshi bog'liq», – deb javob beraman. G'.G'ulom. Yodgor. *Aylanay, nasihat qiling, mening gapimni qu-loqqa olmayapti. Unashib qo'yilgan, boshi bog'liq narsa, kamchiligi ko'p hali.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

bosh(i) bukildi: bosh(i)ni bukmoq

bosh(i) g'ovlab ketdi: miya(si) g'ovlab ketdi

BOSH(I) GARANG BO'LIB QOLDI kimning? nima qilishini bilmay esankiramoq, gangimoq.

Eng qiyini – odamlarga ma'qul tushadigan gap topib aytish kerak. Boshim garang bo'lib qoldi. I.Rahim. Hilola.

BOSH(I) IKKI[TA] BO'LDI kimning? – **BOSH(I)NI IKKI[TA] QILMOQ** kim? kimning? yoki [o'zining] uylanmoq – a) uylantirmoq (egalik qo'shimchasi bilan tuslovchi boshqa-boshqa shaxsni bildiradi), b) uylanmoq (egalik qo'shimchasi bilan tuslovchi ayni bir shaxsni bildiradi). Varianti: **bitta bosh(i)ni ikki[ta] qilmoq.**

Yigitning boshi ikki bo'lmaguncha, moli ikki bo'lmaydi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Ha, aylanay, o'zim tirikligimda bolaginamning boshini ikkita qilib qo'yay dedim. S.Zunnunova. Birinchi qadam. Chamasi, opasi: «Yonimda bo'lgin, bitta boshingni ikkita qilib qo'yay», – deb yurgan bo'lsa kerak. H.Nu'mon. Fasllar. Mulla G'ulom, bu ...boshingizni ikkita qilib oldingizmi yo?.. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Necha марта o'ziga aytganman: «Hoy Bo'ta, bir boshingni ikki qilib ol», – deb... S.Ahmad. Hukm.

BOSH(I) KAL BO'LSA HAM, KO'NGL(I) NOZIK kimning? arzimagan narsadan xafa bo'lib qoladigan, jirtaki odamga qarata aytiladigan ibora.

O'zing bilasan, dunyoda g'alamis odam ko'p. Biri: «Buning otasi unday, bunday», – deya berdi. Boshim kal bo'lsa ham, ko'nglim nozik – ortiqcha gapni ko'tara olmayman. Keta qolay dedim. A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

bosh(i) ko'kda: bosh(i) osmonda
BOSH(I) KO'KKA YETDI kimning? – **BOSH(I)NI KO'KKA YETQAZMOQ** nima? yoki kim? kimning? behad sevinmoq. Varianti: **bosh(i) osmonga yetdi – bosh(i) ni osmonga yetkazmoq.** Sinonimi: **teri(si)ga sig'may ketmoq** kim? [o'zining]; **og'z(i) qulog'(i)ga yetdi kimning?** **og'z(i)ning tanobi qochdi kimning?** **qo'y(i) mingga yetdi kimning?**

Karamatov bu ishga shuncha vaqtini sarflayotgani, shunchalik jon kuydirayotgani Temir Akbarovichning boshini ko'kka yetkazyapti. P.Qodirov. Uch ildiz. ...iltifotlarda bo'lib, Qosim akaning ko'nglini charag'on qilar, boshini ko'kka yetkazar edilar. G'.G'ulom. O'z kishilarini tanimagani qiziq. Yo'qlab kelibsana, boshim osmonga yetdi. A.Muxtor. Opa-singillar. Muqimiy domla bir kuni bizni yo'qlab kelib, boshimizni osmonga yetkizdilar. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BOSHI KO'KSIGA TUSHMOQ kimning? boshi egilgan.

Eng oldinda qo'li orqasiga bog'langan, boshi ko'ksiga tushib ketgan Saidmurod ponsod borar, undan keyin qo'lida to'pponcha bilan kepkali kishi va egarga murdani ko'ndalang yotqizib olgan o'tliq yuzma-yuz ketishardi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

BOSH(I) OCHIQ kimning? erga tegmagan yoki erdan ajralgan, eri yo‘q.

«To‘g‘ri, yosh, sho‘x, buning ustiga boshi ochiq, – dedi O‘rmonjon, – lekin buzuq emas». A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Endi uning boshi ochiq, to‘rt tomoni qibla, hamma so‘qmoq, hamma yo‘l-yo‘lak uning o‘z-o‘ziniki... I.Rahim. Chin muhabbat.

bosh(i) omon bo‘lsa: bosh(i) omon

bosh(i) omon bo‘lsin: bosh(i) omon

BOSH(I) OMON kimning? tirik, o‘lib ketmagan. Varianti: **bosh(i) omon bo‘lsa; bosh(i) omon bo‘lsin** kimning? ba‘zan nimaning? **bosh omon bo‘lsa (–); bosh omon bo‘lsin (–).**

«Zaynab nima bo‘ldi? – dedi Mahmud akaning sabri chidamay. – Boshi omonmi?» N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi. Boshimiz omon bo‘lsa, sizdaqalardan hali ko‘pini ko‘ramiz. S.Ahmad. Kuyov. «Qo‘y, xunob bo‘lma, bosh omon bo‘lsin! – dedi Bektemir. Oybek. Quyosh qoraymas.

BOSH(I) OQQAN [o‘zining] ro‘para kelgan, o‘ylab ko‘rilmagan («tomon»). Varianti: **bosh oqqan (–).**

Sevganidan ajragan bechora Rahmonqul: «Qo‘shqo‘noq endi menga harom», – deydi-da, boshi oqqan tomonga qarab ketadi. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil. Suyishgan qiz va yigit uchun birgina yo‘l qoladi: bosh oqqan tomonga qochish! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Yigitlarga qanday javob berib yuborsam

ekan, – o‘ylardi u. – Mayli, boshlari oqqan tomonga ketishsin. To‘rttalasi – Samad ham, Komil ham, Mannop ham, Hamid ham tog‘ni ursa talqon qiladigan baquvvat yigitlar. Sh.Bo‘tayev. Qora tuman. Aytdim-ku, senga qo‘l tegizishmaydi, deb... Boshing oqqan tomonga ketaverasan, dedim-ku... Sh.Bo‘tayev. Qora tuman.

BOSH(I) OSMONDA kimning? nihoyatda xursand. Varianti: **bosh(i) ko‘kda.** Sinonimi: **og‘z(i) qulog‘(i) da kimning? do‘ppi(si) osmonda kimning?**

Bu yangi ashulachi Foziljon edi. U uch o‘g‘il ko‘rganiga boshi osmonda. I.Rahim. Hilola. Mabodo xat kelib qolsa, boshimiz ko‘kda. Dunyoda bizdan baxtli odam yo‘qday. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

bosh(i) osmonga yetdi: bosh(i) ko‘kka yetdi

BOSH(I) QORONG‘I kimning? (ayolning) homiladorlikning dastlabki oylarida nimanidir ko‘ngli tusash holati. Varianti: **bosh qorong‘i kim?**

Kelin poshshaning boshlari qorong‘ilar; aylanay. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Haqiqatda bo‘lsa mening bosh qorong‘i xotinning harakatlarini tomosha qilishdan boshqa gunohim yo‘q edi. G‘.G‘ulom. Shum bola. Domla yo‘g‘ida shu bir xalta danakni chaqib yeb qo‘yibdi. Bosh qorong‘i ekan-da, bechora. S.Ahmad. O‘rik domla. Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka bosh qorong‘i bo‘lsam-chi! A.Qahhor. Anor.

BOSH(I) QOTDI kimning? 1. uzoq o‘ylab ham aniq bir fikrga kela

olmaslik. Sinonimi: **o‘ylab-o‘ylab, o‘y(i)ga yetolmaslik kim?** [o‘zining]

Tog‘ yo‘nishning nima zaruriyati bor ekan deya boshim qotdi. Oy-din. Shiringa maktub. Bu ishning har tomonini o‘ylay berib boshi qotgan Toshpo‘lat aka Qutbinisa bilan maslahatlashib... Mirmuhsin. Jamila. **2** o‘ylayverib gangimoq. Varianti: **bosh qotdi (-); bosh(i)ni qotirmoq kim? kimning? yoki [o‘zining], nima? kimning? boshni qotirmoq kim? miya(si) qotdi – miya(si)ni qotirmoq kim? yoki nima? kimning?** Sinonimi: **bosh(i) shishdi kimning? miya(si) g‘ovlab ketdi kimning?**

So‘z bilan dehqonning boshini qotirib, nihoyat to‘rt yarim so‘mga ko‘nishga majbur qildi. Oybek. Qutlug‘ qon. Bu savol bir haftadan beri Shukurjonning ham boshini qotirib, uyqusini qochirmoqda edi. O.Yoqubov. Ota izidan. «Bilib oldingmi?» – «Nimani?» – «Tovuqning qum yeyishini...» – «Hozir boshni qotirma! Keyin parranda fermasiga borib bilamiz». H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari.

BOSH(I) O‘NTA kimning? jur‘at qilmaslik, botina olmaslik.

...Qahramoni Po‘latjonsiz. Sizga g‘idi-bidi qiladiganning boshi o‘nta. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

BOSH(I) SHISHDI kimning? o‘ylayverib gangimoq. Varianti: **kalla-(si) shishdi.** Sinonimi: **bosh(i) qotdi kimning? miya(si) g‘ovlab ketdi kimning?**

Shu kunda hammaning boshi shishgan. Oybek. Qutlug‘ qon. Erta-in-din chiqadigan sonda ham bir to‘da

«Bosilmaydi» bordir-a, Yoqubjon? Bosmaxonaga borib, olib tashlang. Minba‘d jurnalda javob berishni tark qiling. Kallamiz toza shishgan ekan! A.Qahhor. Sarob.

BOSH(I) CHIQMADI kimning? niman? xalos bo‘lmaslik, qutulmaslik. Varianti: **chiqmagan bosh(i) kimning?**

«Ahvolimiz juda og‘ir, – dedi oldindagi dehqon dadil va keskin, – har xil jarimalar, soliqlardan boshimiz chiqmaydi». Oybek. Nur qidirib. Shushu bo‘ldi-yu, Zuhurjonning boshi komandirovkadan chiqmay qoldi. R.Fayziy. Yodgor. Xatosi shundaki, g‘av-g‘odan chiqmagan boshingni yana mashmasha oloviga suqibsan. I.Rahim. Ixlos.

bosh(i) toshdan bo‘lsa – bosh(i) toshdan

bosh(i) toshdan bo‘lsin – bosh(i) toshdan

BOSH(I) TOSHDAN kimning? turmush mashaqqatlariga bardoshli. Varianti: **bosh(i) toshdan bo‘lsa; bosh(i) toshdan bo‘lsin.**

Boshi toshdan bo‘lsa, axir bir kun topilib qolar... N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi. Ko‘rishguncha xayr, jon bolam. Boshing toshdan bo‘lsin, nuri diydam. A.Muxtor. Tug‘ilish.

bosh(i) yostiqa tekanda: bosh(i) yostiqa yetganda

BOSH(I) YOSTIQA YETGANDA kimning? kasal bo‘lib yotib qolganda. Varianti: **bosh(i) yostiqa tekanda.**

Ishqilib, baraka topsin shu doktorlar, boshing yostiqa yetganda jo-

ningga ora kirishadi. H.Nazir. Oltin qadah. *Kim qanday, boshing yostiqa tekanda bilinar ekan.* S.Abdulla. Tarakana.

bosh(i)da danak chaqmoq: bosh(i)da yong‘oq chaqmoq

BOSH(I)DA KALTAK SINDI kimning? zarbaga nohaq duchor bo‘lmoq. Varianti: **kaltak bosh(i)da sindi.**

Omon ham ishboshi, ham mendan katta bo‘lgani uchun kaltakning ko‘pi uning boshida sinar edi. G‘.G‘ulom. Shum bola. *Hech kim hech vaqt sevgan kishisining boshida kaltak sinishini istamaydi!* I.Rahim. Ixlos.

BOSH(I)DA TEGIRMON TOSHI YURGIZMOQ kim? kimning? ortiq darajada azoblamoq, qiynamoq. Sinonimi: **bosh(i)da yong‘oq chaqmoq** kim? kimning?

... sillam qurigan; jig‘ini ezaman, boshida tegirmon toshi yurgizaman, bir narsa desin-chi!.. A.Muxtor. Opa-singillar.

bosh(i)da tosh chaqmoq: bosh(i)da yong‘oq chaqmoq

bosh(i)da yong‘oq chaqildi: bosh(i)da yong‘oq chaqmoq

BOSH(I)DAYONG‘OQ CHAQMOQ kim? kimning? ortiq darajada azoblamoq, qiynamoq. Varianti: **bosh(i)da danak chaqmoq; bosh(i)da tosh chaqmoq; miya(si)da danak chaqmoq; bosh(i)da yong‘oq chaqildi kimning?** Sinonimi: **bosh(i)da tegirmon toshi yurgizmoq kim? kimning?**

Axir u har kun yangi bir dardisar ishni o‘ylab chiqaradi. Yana har kimning boshida yong‘oq chaqmoq-

chi bo‘ladi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Kundoshim badjahl, shang‘i ekan, uch kun o‘tmay boshimda tosh chaqishga boshladi.* Oybek. Qutlug‘ qon. «*O, Maston, – dedi Turg‘unoy, – erim miyamda danak chaqsa ham, uyda o‘tirganim bir davlat edi.*» A.Qahhor. Maston.

bosh(i)dan kechirmoq: bosh(i)dan kechmoq

BOSH(I)DAN KECHMOQ I nima? kimning? – **BOSH(I)DAN KECHIRMOQ** kim? [o‘zining] nimani? 1 o‘z hayotida ko‘rmoq, his qilmoq. Varianti: **boshdan kechirmoq kim? nimani? kechirmoq kim? nimani? bosh(i)dan o‘tmoq – bosh(i)dan o‘tkazmoq.**

Shu kecha-yu kunduzda boshidan kechayotgan voqealar uning fikrini hamon alamli bir noaniqlik bilan chulg‘ab turardi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Boshimdan kechirganlarimni sizga qisqacha qilib aytib beray.* N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi. *Bunday to‘ylardan o‘n-o‘n beshtasini boshidan o‘tkazgan.* G‘.G‘ulom. Elatiyada bir ov.

2 ma‘lum bir muddat fikrlamoq. Varianti: **bosh(i)dan o‘tmoq – bosh(i)dan o‘tkazmoq; miya(si)dan o‘tmoq; miya(si)dan kechmoq.** Sinonimi: **ko‘ngl(i)dan o‘tmoq nima? kimning? – ko‘ngl(i)dan o‘tkazmoq kim? [o‘zining] nimani? xayol(i)dan o‘tmoq nima? kimning? – xayol(i)dan o‘tkazmoq kim? [o‘zining] nimani? fikr(i)dan o‘tkazmoq kim? [o‘zining] nimani?**

Bektemirning boshidan gala-gala fikrlar, rang-barang xotiralar ke-

chardi. Oybek. Quyosh qoraymas. «Sarbozlar yo qamchilamay ketayotibdimi?» degan fikrni boshidan kechirar, ichidan tajang bo'lardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Qaytib ko'ramanmi-yo' qmi?» degan fikr boshidan o'tidida, allaqanday mubham va og'rituvchi sezgining turtkisi bilan og'ir xo'rsinib qo'ydi. Oybek. Quyosh qoraymas.

BOSH(I)DAN KECHMOQ II kim? [o'zining] o'limiga rozi bo'lmoq.

Qorobotir: O'z boshidan kechgan tushar o'rtaga. Tohir: Haq ish uchun tushsam agar o'rtaga. Yuz bosh uchun bir bosh ketsin – mana bosh! S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

bosh(i)dan o'tkazmoq: bosh(i)dan kechmoq

bosh(i)dan o'tmoq: bosh(i)dan kechmoq

bosh(i)dan ortib yotmoq: bosh(i)dan oshib yotmoq

BOSH(I)DAN OSHIB bosib o'tib, o'rtada tashlab ketib, hisoblashmay.

Shu vaqtgacha hech qaysi uchastka boshlig'i idora boshlig'ining boshidan oshib, to'g'ridan-to'g'ri trest bilan xatlashgan emas. A.Muxtor. Tug'ilish.

BOSH(I)DAN OSHIB YOTMOQ nima? kimning? ortiq darajada, benihoyat ko'p («ish»). Varianti: **bosh(i)dan ortib yotmoq; bosh(i)dan oshib-toshib yotmoq; boshdan oshib yotmoq nima? oshib-toshib yotmoq nima? bosh(i)dan oshib-toshib ketmoq.**

Bo'ldi, mulla Abdug'afur, men shoshilyapman, ishim boshimdan oshib yotibdi-ya. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Axir teatrqa boradigan paytmidi, ishlari boshidan oshib-toshib

yotibdi-ku. S.Anorboyev. Oqsoy. Voybuy, o'tirib qolibman, u yoqda ishim oshib-toshib yotibdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

bosh(i)dan oshib-toshib ketmoq: bosh(i)dan oshib yotmoq

bosh(i)dan oshib-toshib yotmoq: bosh(i)dan oshib yotmoq

bosh(i)dan oyoq: boshdan oyoq

bosh(i)dan soqit qilmoq: bo'y-ni(i)dan soqit qilmoq

BOSH(I)DAN CHIQARMOQ kim? nimani? o'ylamaslikka, unutishga harakat qilmoq.

Oradan ko'p vaqt o'tib, men Qori Ishkamba bilan tanish bo'luv xayolini boshimdan chiqardim. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. *Nojo'ya gaplarni boshingizdan chiqarib tashlang, akasi jonidan.* A.Muxtor. Opa-singillar.

bosh(i)ga balo bo'lmoq: bosh(i)ga bitgan balo bo'lmoq

bosh(i)ga balo qilmoq: bosh(i)ga bitgan balo bo'lmoq

BOSH(I)GA BITGAN BALO BO'LMOQ kim? yoki nima? kimning? qutulish qiyin bo'lgan ortiqcha tashvish, daxmaza bo'lmoq. Varianti: **boshga bitgan balo bo'lmoq nima? bosh(i)ga bitgan ofat bo'lmoq kim? kimning? bosh(i)ga balo bo'lmoq; bosh(i)ga balo qilmoq kim? [o'zining] kimni? boshga balo qilmoq kim? kimni?**

O'rtog'ingiz boshimga bitgan bir balo bo'ldi. Yodgordan kelgan xatlarini menga bermaydi. A.Qahhor. Asror bobo. «*Qurib ketsin shu o'lponi ham! – dedi u. – Bechora xalqning boshiga bitgan bir balo bo'ldi.*» M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *He, bu urush*



boshga bitgan balo bo'ldi-da. Oybek. Qutlug' qon. Juda boplabsan. Valixon xalqning boshiga bitgan ofat edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. U sheriklariga qarab: «...endi uni chiqarib olib, boshga balo qilamizmi?! – dedi. – Chiqarsak, oltinlarga teng sherik bo'ladi». O'.Azimov. Aql chirog'i.

bosh(i)ga bitgan ofat bo'lmoq:
bosh(i)ga bitgan balo bo'lmoq

BOSH(I)GA BOSHVOQ QILAR-MIDI(...)?! *kim? [o'zining] kimni? mutlaqo nomunosib, talab-ehtiyoj yo'q.*

E-ha, notavon ko'nglim qursin, shunday qahramon yigit turganda, Shokirvoyimni boshiga boshvoq qilarmidi?! A.Muhiddin. Zebo sevgisi.

bosh(i)ga kelmoq: miya(si)ga kelmoq

BOSH(I)GA KO'TARMOQ I
kim? [o'zining] nimani? qattiq shovqin qilmoq. Varianti: boshga ko'tarmoq kim? nimani? Sinonimi: shovqin solmoq kim?

...atrof-tevarakda ko'chani boshiga ko'tarib yurgan bolalarning shovqin tingan. R.Fayziy. Qaynana. Qo'qqis-dan uchrashib qolgan jigargo'shalar bir-birlari bilan quchoqlasha ketdilar; razyezdni boshlariga ko'tarib hol-ahvol so'rashdilar. M.Muhamedov. Kichik garnizon.

BOSH(I)GA KO'TARMOQ II
kim? [o'zining] kimni? yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq.

Jamila xola ham Hamida kelgunday bo'lsa, «qizim-qizim» deb boshiga ko'taradi. S.Anorboyev. Pushaymon. Bilaman, Komila ularni o'z boshiga ko'taradi, keragidan ortiqcha sharoit

hozirlaydi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

bosh(i)ga qilich kelganda ham:
bosh(i)ga qilich kelsa ham

BOSH(I)GA QILICH KELSA HAM *kimning? har qanday sharoitda ham. Varianti: bosh(i)ga qilich kelganda ham.*

E boy aka, men boshimga qilich kelsa ham yolg'on gapirmayman. N.Maqsudiy. Oltin soqqa. Boshimga qilich kelganda ham, eshonning buyrug'idan tashqariga chiqmayman. G'.G'ulom. Shum bola.

BOSH(I)GA SOLMOQ *kim? yoki nima? kimning? nimani? hayotida boshidan kechirishiga olib kelmoq, sababchi bo'lmoq. Varianti: boshga solmasin kim? nimani?*

Bu sil-simyon Lutfinisa Qutbinisaning boshiga ne-ne kunlarni solmadi! Mirmuhsin. Jamila. Hakimovning boshiga Umarov bilan Toshevning kunini solish kerak. P.Qodirov. Uch ildiz. Qaysi bir rahmsiz, noinsof, mal'un biz turgan joyni ularga yetkazganligini bilmayman; bundan keyin ko'rgan azobimni xudo hech bandasining boshiga solmasin. Oybek. Qutlug' qon.

BOSH(I)GA SUV QUYMOQ
kim? kimning? amalidan, obro'-e'tiboridan mahrum qilmoq, yo'q bo'lib ketish darajasiga yetkazmoq. Sinonimi: tag(i)ga suv quymoq kim? kimning?

Ota-bobom xonzodalar avlodi bo'la turib axir boshimga suv quydi. S.Ayniy. Qullar. Hasanning bo'lsa boshiga suv quydim hisob. Endi uning

ilgarigi obro‘yi, e‘tibori qolgan emas. S.Ayniy. Qullar.

BOSH(I)GA TUSHMOQ nima? kimning? hayotida kutilmagan tarzda sodir bo‘lmoq. Varianti: **boshga tushmoq** nima?

Uf... Muhabbat nima ekanini boshingga tushganda bilasan! A.Qahhor. Og‘riq tishlar. Ehtimol, mening boshimga tushgan fojea yuragingning allaqayerida kul bosib qolib ketgan muhabbat hislarini uyg‘otar. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. Tirikchilik boshga tushsa, har narsadan voz kechib, bola-chaqa deb qoladi. Oybek. Nur qidirib.

bosh(i)ga ur(sin)mi?!: bosh(i)ga urmoq

BOSH(D)GA URMOQ (...URADIMI?!; ...URSINMI?!) kim? [o‘zining] kimni? yoki nimani? kerak emas.

Boshqa qizni yaxshi ko‘rgandan keyin, sening qizingni boshiga uradimi?! S.Zunnunova. Ko‘ngil. Mayib, yarim jon, ishdan quvilgan, hech narsada yo‘q sizdaqa erni boshiga ursinmi?! S.Anorboyev. Oqsoy.

BOSH(D)GA YETMOQ kim? kimning? [nima bilan?] nima? kimning? yo‘q qilmoq, halok qilmoq. Sinonimi: **bosh(i)ni yemoq** kim? yoki nima? kimning? kim? nimaning? yoki [o‘zining].

Tug‘ilishi bilan onasining boshini yegan bola endi mening boshimga yetmoqchi. R.Fayziy. Yodgor. Shumliging o‘zingning boshingga yetsin... Mirmuhsin. Jamila. Mana shunaqa gaplar bilan u bechoraning boshiga yetuvdilaring! Endi... Endi mening

ham... O.Yoqubov. Tilla uzuk. Yetsa, shu yetadi uning boshiga. A.Muxtor. Tug‘ilish.

bosh(i)ga yostiq qilmoq: ona(si)ning boshiga yostiq bo‘lmoq

BOSH(I)GA CHIQUIB OLMOQ kim? kimning? xo‘jayin bo‘lib olmoq, hukmron holatga yetishmoq. Varianti: **yelka(si)ga chiqib olmoq.**

Ha, siz yaxshi qilyapsiz, boshingizga chiqib olsa ham, mana, indamay o‘tiribsiz! Kechagina institutdan chiqqan bir go‘dak o‘rningizni egal-la-a-b oldi. A.Muxtor. Dog‘. Mana, tomosha qiling. Cho‘ri qiz boshimizga chiqib, bizlarni oyoq uchi bilan ko‘rsatadi. Oybek. Qutlug‘ qon.

bosh(i)ni aylantirmoq: bosh(i) aylandi

bosh(i)ni band qilmoq: bosh(i)ni bog‘lamoq

BOSH(I)NI BERMOQ kim? [o‘zining] kimga? hayotini bag‘ishlashga ham tayyor.

Chin so‘z kerak. Man odamning xo‘roziga boshimni beraman. San u qizni sevasanmi? Ol, ket! Hech kimning ko‘z qorasi unga tushgani yo‘q. Oybek. Qutlug‘ qon.

BOSH(I)NI BOG‘LAMOQ kim? kimning? kelin qilib olishga shartlashib kelmoq. Varianti: **bosh(i)ni band qilmoq.**

Bu ishda har bir soat g‘animat, negaki dongdor boy qizga xaridor, havaskor ko‘p bo‘ladi. Darrov boshini bog‘lash kerak. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Qizning boshini band qilib kelamanda. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

BOSH(I)NI BUKMOQ kim? kimning? – **BOSH(I) BUKILDI** kimning? uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushirmoq. Varianti: **bosh(i)ni yerga bukmoq; bosh(i)ni quyi egmoq; egilgan bosh(i)** [kimning?]. Sinonimi: **yuz(i) yerga qaradi kimning?– yuz(i)ni yerga qaratmoq** kim? kimning? **yerga qaramoq** kim? – **yerga qaratmoq** kim? yoki nima? kimni? **bosh(i)ni xam qilmoq** kim? kimning? **nosir(i)ni yerga bukmoq** kim? kimning?

«Turing, qizim, – ellikboshining tovushi birdan muloyimlashdi,– otonaning boshini bukmang». Oybek. Qutlug' qon. *Egilgan boshini endi gap bilan emas, ish bilan ko'tarish mumkin ekanligini tushungan edi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

bosh(i)ni egmoq: bosh egmoq

bosh(i)ni ikki[ta] qilmoq: bosh(i) ikki[ta] bo'ldi

bosh(i)ni ko'kka yetkazmoq: bosh(i) ko'kka yetdi

BOSH(I)NI KO'TARIB YURA OLMASLIK kim? [o'zining] nimadan? nomus kuchlilik qilib, odamlar orasida bo'lishdan qattiq xijolat tortmoq. Varianti: **bosh(i)ni ko'tarolmasdan yurmoq; bosh ko'tarib yurolmay qolmoq** kim? nimadan? – **bosh ko'tarib yurolmaydigan qilmoq** nima? kimni? **bosh ko'tarolmay qolmoq** kim? nimadan? **bosh ko'tarib yurmoq** kim?

Bu qishloqda yo u tursin, yo biz! Xalq o'rtasida boshimizni ko'tarib yurolmaydigan bo'ldik. O.Yoqubov. Tilla uzuk. *Ikki yildan keyin qaytib kelsam, boshqasiga tegib ketibdi.*

O'zimdanda o'tdi ahmoqlik... boshimni ko'tarolmasdan, o'zimni qayoqqa qo'yishni bilmay yurganimda manavi borib qoldi. A.Muxtor. Tug'ilish. *Bu xabar boshlab eshitilganda, hamma og'izlaridan gullab, Shokir akani bosh ko'tarib yura olmaydigan qilgan edilar.* G'.G'ulom. Qizaloq.

bosh(i)ni ko'tarmoq I: bosh ko'tarmoq I

bosh(i)ni ko'tarmoq II: yostiqdan bosh ko'tarmoq

bosh(i)ni ko'tarolmasdan yurmoq: bosh(i)ni ko'tarib yura olmaslik

BOSH(I)NI OG'RITMOQ kim? 1 [o'zining] o'ylamoq. Varianti: **bosh og'ritmoq** kim?

Sushilka qurish shart bo'lsa, bir kun shartta quraman-olaman-da, shunga ham boshimni og'ritaymi?! A.Muhiddin. Oshnalar.

2 kimning? miyasini charchatmoq.

Bo'lmagan narsaga boshimni og'ritasiz. Yozmayman, hech yozmayman. Balki u meni tanishni istamas. Oydin. *Sadag'ang bo'lay, komandir.*

BOSH(I)NI OLIB [o'zining] butunlay tashlab va qaytmas bo'lib. Varianti: **bosh olib** (-).

Boshimni olib, «Yohu» deb ko'z ko'rgan yoqqa ketay deyman-u, yana tag'in bola-chaqalarni o'ylayman. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Bu galgisi juda ham jonimga tegdi. Boshimni olib biror yerga qochmoqchi ham bo'lib keldim.* G'.G'ulom. Yodgor.

bosh(i)ni olib chiqib ketmoq: bosh(i)ni olib

bosh(i)ni osmonga yetkazmoq: bosh(i) ko'kka yetdi

bosh(i)ni qashigani: bosh qashigani

bosh(i)ni qayerga urmoq: bosh(i)ni qayoqqa urmoq

BOSH(I)NI QAYOQQA URMOQ [?] *kim?* [o'zining] nima? iloj qilmoq [?], ilojini qanday topmoq [?]. Varianti: **bosh(i)ni qayerga urmoq** [?]; **qayoqqa bosh(i)ni urmoq** [?]; **qayoqqa bosh urmoq** [?]; **qaysi toshga bosh(i)ni urmoq** [?]; **qayga bosh(i)ni urmoq** [?] (*eskirgan*).

Kimga arz qiladi? Boshini qayerga uradi? Kim madad qo'lini uzatadi? Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Bechora qayoqqa bosh urishini bilmaydi. Xuddi qafasdagi mayna.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Yo parvardigor, sodiq qulingga shu kunni ravo ko'rdingmi? Men-chi, endi men nima qilaman? Qaysi toshga boshimni uraman?!* S.Ahmad. *Hukm. Qayga men boshim uray ham qayda g'avg'o aylayin.* S.Abdulla. Muqimiy.

bosh(i)ni qotirmoq: bosh(i) qotdi

bosh(i)ni quyi egmoq: bosh(i)ni bukmok

BOSH(I)NI SILAMOQ *kim? kimning?* 1 kaft yurgizib, erkalatmoq, suymoq, yupatmoq.

Kampir uning boshini silab, yostig'ini to'g'riladi. S.Ahmad. Ko'klam chechaklari. *O'zingiz borganingiz ma'qul, Ahadjon aka, xotin kishi – yaxshi gapning gadosi: boshini silasangiz, mushukday darrov xurрак otadi.* A.Qahhor. Og'riq tishlar.

2 g'amxo'rlik qilmoq, siylamoq, hayotini yengillashtirish yo'lida yordam bermoq. Sinonimi: **pešana-(si)ni silamoq** *kim? kimning?*

U qurilishning ilg'orlarini ishdan chetlatib, qoloqlarning boshini siladi. A.Muxtor. Tug'ilish. *Atrofdagi odamlar bari puldor odamlar, mana tog'ang, Hakim, Salim, men, yana qancha boylar bor! Ularga egilsang, boshingni silaydilar.* Oybek. Qutlug' qon.

bosh(i)ni suqmoq: bosh suqmoq

bosh(i)ni tiqmoq: bosh suqmoq

bosh(i)ni ushlamoq: boshini tutmoq

BOSH(I)NI XAM QILMOQ *kim? kimning?* uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushirmoq (*eskirgan*). Sinonimi: **bosh(i)ni bukmok** *kim? kimning?* **yuz(i)ni yerga qaratmoq** *kim? kimning?* **yerga qaratmoq** *kim?* yoki *nima? kimni?* **nosir(i)ni yerga bukmok** *kim? kimning?*

Arzimagan ish deb boshimni xam qilding. S.Ahmad. *Hukm.*

BOSH(I)NI XAM ETMOQ [bašini xam et=] tar. *kim?* yoki *nima? kimning?* mahzun qilmoq.

Vale javr toshi yog'ib boshi uzra, Etipi boshini xam qoshi uzra. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

BOSH(I)NI YEMOQ *kim?* yoki *nima? kimning? kim? nimaning?* yoki [o'zining] yo'q qilmoq, halok qilmoq. Varianti: **boshini yeb nimaning?** Sinonimi: **bosh(i)ga yetmoq** *kim? kimning?* [nima bilan?], *nima? kimning?*

Aytmadimmi Hilola boshingni yeydi deb! Ajab qilibdi, xo'p tuzlabdi. Bu ham senga oz! I.Rahim. Hilola. *Husning boshingni yeydi, husn mening ham umrimni Allohning oyog'i ostiga tashlagan...* A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

bosh(i)ni yerga bukmoq: bosh(i)-ni bukmoq

BOSH(I)NI YO‘QOTIB QO‘Y-MOQ kim? [o‘zining] his-hayajon ta’sirida normal fikrlay olmaydigan holatga tushmoq.

Men pok hislarimni o‘tkinchi hirs-ga qurbon qildim. O‘zimga o‘zim qildim!.. Boshimni yo‘qotib qo‘yganim yo‘q edi! O‘zimni qo‘yib berib, baloga yo‘liqdim. P.Qodirov. Uch ildiz.

bosh(i)ning g‘ovlashi: miya(si) g‘ovlab ketdi

BOSH(LARI) BIR JOYGA QOVUSHDI kimlarning? – **BOSH(LARI)NI BIR JOYGA QOVUSH-TIRMOQ** kim? kimlarning? ham-jihat bo‘lib birlashmoq. Varianti: **bosh(lari)ni bir yerga birlashtir-moq; bosh(lari)ni qovushtirmoq; bosh(lari)ni biriktirmoq.**

Albatta, bir necha kishining boshi bir joyga qovushganda, o‘yin-kulgi qilgisi, vaqtini xushchaqchaq o‘tkaz-gisi keladi. I.Rahim. Olovkor. *Bu xotin-qizlarning boshini bir joyga qovushtirish ham juda qiyin ekan.* G‘.G‘ulom. Yodgor.

bosh(lari)ni bir joyga qovushtir-moq: bosh(lari) bir joyga qovushdi

bosh(lari)ni bir yerga birlashtir-moq: bosh(lari) bir joyga qovushdi

bosh(lari)ni biriktirmoq I: bosh(lari) bir joyga qovushdi

bosh(lari)ni biriktirmoq II: bosh(lari)ni qovushtirmoq

bosh(lari)ni qo‘shmoq: bosh(lari) ni qovushtirmoq

bosh(lari)ni qovushtirmoq I: bosh(lari) bir joyga qovushdi

BOSH(LARI)NI QOVUSHTIR-MOQ II: kimlar? o‘zgalarning 1 ke-lin-kuyov qilmoq. Varianti: **bosh(lari)ni biriktirmoq II; bosh(lari)ni qo‘shmoq.**

Ko‘zimiz tirikligida shularning bo-shini qovushtirib, orzu-havasini ko‘-raylik. Mirmuhsin. Jamila. *Ashirmat boshimizga balo bo‘ldi. «Bolalarimiz-ning boshini biriktiraylik, to‘y kunini tayin qil», – dedi.* Oybek. Oltin vodi-y-dan shabadalar.

2 kimlar? [o‘zlarining] kelin-ku-yov bo‘lmoq.

Sheralini ham, Tamarani ham ha-yajon bosdi. Ular bosh qovushtirgan-larida, Afanas Gavrilovich kelin bi-lan kuyovni shu yerga olib chiqib... M.Muhamedov. Kichik garnizon.

boshdan kechirmoq: bosh(i)dan kechmoq

boshdan oshib yotmoq: bosh(i) dan oshib yotmoq

BOSHDAN OYOQ to‘la-to‘kis, bus-butun. Varianti: **boshidan oyoq.**

Nazarboy ko‘lidan qolgan ijara-ning qanday bo‘lib uning qo‘liga tushganini sizga boshdan oyoq hi-koya qilib beraman. S.Ayniy. Qullar. *Ergashni xuddi hozirgina ko‘rayot-gan kishidek boshidan oyoq ko‘zdan kechirdi.* G‘.Ahmadiy. Kamolot.

boshga balo qilmoq: bosh(i)ga bitgan balo bo‘lmoq

boshga bitgan balo bo‘lmoq: bosh(i)ga bitgan balo bo‘lmoq

boshga ko‘tarmoq: bosh(i)ga ko‘-tarmoq

BOSHGA QO‘NDIRMOQ ni-mani? kiymoq.

Kurtkani yelkamga tashladim, do'ngalak «gruzincha» shapkani boshga qo'ndirdim. S.Siyoyev. Yorug'lik.

boshga solmasin: bosh(i)ga solmoq

boshga tushmoq: bosh(i)ga tushmoq

BOSHI BERK noaniq, tumanli, oxiri ko'rinmagan.

Boyning boshi berk so'zlarining usti ochilib qolib, maqsadni tushungan Nabi polvon birdan quvonib ketib... S.Ayniy. Qullar. Boshimga yak-takni yopinib, boshi berk xayollar bilan yo'lga tushdim. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir.

BOSHI BERK KO'CHA mushkul ahvol.

Uni bu boshi berk ko'chaga boshlab kirgan ham, qutqarib olib chiqib keta oladigan ham shu malla qayini. S.Anorboyev. Oqsoy. To'rt kishi bir yerga to'plansa, Azimjondan gap ochilar; eng so'nggi hukmga kelganda boshi berk ko'chada qolishardi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

BOSHI BERK KO'CHAGA KIRIB QOLMOQ kim? – **BOSHI BERK KO'CHAGA KIRITIB QO'YMOQ** nima? yoki kim? nimani? mushkul ahvolga tushib qolmoq. Varianti: **boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ymoq; boshi berk ko'chaga tiqmoq.**

...jangchi uchun o'limdan boshqa chora qolmagandagina o'zini o'zi halok qiladi, deyiladi. Axir hali biz boshi berk ko'chaga kirib qolganimiz yo'q-ku. Ular bilan olishib ko'ramiz. S.Ahmad. Hukm. Bir yoqdan o'zi

bilan hayoti o'rtasidagi ishkal, ikkinchi yoqdan maktabining g'orat qilinishi uni boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

boshi berk ko'chaga kiritib qo'ymoq: boshi berk ko'chaga kirib qolmoq

boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ymoq: boshi berk ko'chaga kirib qolmoq

boshi berk ko'chaga tiqmoq: boshi berk ko'chaga kirib qolmoq

BOSHI KETMOQ [baši ket=] tar. kimning? qatl qilinmoq, o'lmoq.

Vaqt bo'lurkim, nadimlarga sul-ton hazratinda kisa bilan oltun tegar, dag'i vatq bo'lurkim boshi ketar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHI KO'KKA TEKKAN [baši kökkä tek=] tar. kimning? yuqori darajaga erishgan.

Men degulman yurub qilich chekkan, Ko'kka boshin sening beki tekkan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHI KO'KKA YETISHMOQ [baši kökkä jetiš=] tar. xursand bo'lmoq, juda qattiq quvonmoq.

Vale ko'kka ekinchining yetishti ul kecha boshi, Nechuk muftis farah etsa topub bir yerda ming oltun. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHI (yoki BO'YI) TUYNUKDAN CHIQIB KETAYOTGANI YO'Q kimning? hali yosh, balog'at davri o'tgan emas.

Xom o'ylibsiz, halitdan kuyov nimasi, Toshxonning boshi tuynukdan chiqib ketayotgani yo'q. A.Mirahmedov. O't yuraklar. Bironta xotini yo'q odam topilib qolardi. Qizimizning



boshi tuy nukdan chiqib ketayotgani yo 'q-ku! S.Zunnunova. Gulxan.

BOSHI UZRA JAVR TOSHI YOG'MOQ [baši üzrə žävr taši jay=] tar. *kimning?* musibatga duchor bo'lmoq.

Vale javr toshi yog'ib boshi uzra, Eipti boshini xam qoshi uzra. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

BOSHI XUSH [baši xoš] tar. *kimning?* fikr-u xayoli band, o'zida bo'lmaslik.

Hamadon qozisini ayturlar, bir baytor o'g'lon bila boshi xush edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHIYOSTUQQATEGMASLIK [baši jastuqqa tegmä=] tar. *kimning?* uxlamaslik, huzur-halovatini yo'qotmoq.

Maningdek necha oshiqlar sening husning xayolinda boshi yostuqqa tegmagay, to'shak ham ko'rmagay yoni. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHIDAN KETARMOQ [bašidan ketär=] tar. *kim?* [o'zining] bar-taraf etmoq.

Borg'il, bu savdoni boshingdan ketargil, yo'qsa ziyon qilursan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHIDAN KETMASLIK [bašidan ketmä=] tar. *kimning?* ta'siri yo'qolmaslik.

Boshimdan ketmadi hargiz sening-lan ichtugum boda, Na boda, bodayi masti, na masti, mastiyi sog'ar. Hasan o'g'li g'azali.

BOSHIDAN KECHMOQ [bašidan keč=] tar. yuz bermoq, bo'lib o'tmoq.

Ul kecha o'g'li o'turub, otasina boshindan kechkan hollarni hikoya

qilur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

boshim ustiga: bosh ustiga

boshimizning ustiga: bosh ustiga

BOSHIN KO'TARMOQ [bašin kötär=] tar. *kim.* qaramoq.

Shayx boshin tafakkur yoqasina chekib, ko'b taammul qilib, boshin ko'tardi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHIN TAFAKKUR YOQASINA CHEKMOQ [bašin täfäkkür jaqasina çek=] tar. *kim?* nima haqida? chuqur o'ylamoq, fikr yuritmoq.

Shayx boshin tafakkur yoqasina chekib, ko'b taammul qilib, boshin ko'tardi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHINA CHIQMOQ [bašina čiq=] tar. *nima?* *kimning?* qattiq ta'sir qilmoq. Sinonimi: **boshga minmoq.**

Yigit me'dasi o'ti boshina chiqib, toqatining inoni alindan ketib turur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BOSHINI, JONINI BERMOQ [bašini, žanini ber=] tar. *kim?* o'limiga rozi bo'lmoq.

«Boshimni, jonimni bergayman dag'i andan bir dirham bermagayman». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

boshingda qolsin: boshingdan ordona qolsin

boshingdan qolgur: boshingdan ordona qolsin

BOSHINI TUTMOQ *kim?* *nima-ning?* («ish»ning) o'z faoliyati uchun muvofiq deb tanlab amal qila bosh-lamoq. Varianti: **boshini ushlamoq.**

Keyin biron ishning boshini tutmay, har nav mayda-chuyda yumush-lar bilan shug'ullangan. Oybek. Qu-yosh qoraymas. «Ha, aylanay, – dedi

darchaga olazarak bo'lib, – haligacha bir ishning boshini tutmagan yigit-da». Mirmuhsin. Jamila.

boshini yeb I: bosh(i)ni yemoq

BOSHINI YEB II: [o'zining] juda ko'p meva (hosil) qilib.

Tut o'lgur boshini yeb, tagi bilan bitta bo'lib to'kilib yotibdi. Mirmuhsin. Jamila.

BOSHINGDAN ORDONA QOL-SIN kim? yoki nima? sen o'lg'in-u, egasiz qolsin (ayollarning qarg'ishi). Varianti: **boshingdan qolgur kim? boshingda qolsin; ordona qolsin.**

«*Qurib ketsin! – dedi u yig'lamsirab. – O'qishing boshingdan ordona qolsin, Maston!*» A.Qahhor. Maston. *Voy, muncha tiling zahar ekan! Bor-e, ering boshingda qolsin! Ol, olib ket!* A.Qahhor. Og'riq tishlar. «*Yo'qol bu uydan!*» – *Mannop etigi bilan gursilatib tepdi. Jamila yig'i aralash gapira boshladi: «Ketaman! Uying boshingda qolsin!»* Mirmuhsin. Jamila.

bosh-ko'z(i)ni aylantirmoq: bosh(i) aylandi

boshni aylantirmoq: bosh(i) aylandi

boshni qashishga: bosh qashigani

boshni qotirmoq: bosh(i) qotdi

BOSHQA GAP EDI o'shanga qarab ish tutish mumkin edi. Varianti: **bo'lak gap edi.**

Bu kampirning ustidan qayoqqa dod deb boraman, biron joyda ishlasa, boshqa gap edi. S.Ahmad. Hasrat. *O'qish vaqtlarida bo'lsa, bo'lak gap edi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

BOSHQA MINMOQ [ba'sqa min=] tar. nima? ta'sir qilmoq. Sinonimi: **boshga chiqmoq.**

Qadah chävrüldi may bashqa min-di. Xorazmiy Muhabbatnoma.

BOSHTIN-OYOQQA [bašt'in-ajajqa] tar. borliqqa.

Latofat mulkida sultonsen, ey jon, Qamuq boshtin-oyoqqa jonsen, ey jon. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

BOSHTIN KECHMOQ [bašt'in keč=] tar. kim? hayotidan voz kechmoq, hayotini xatarga qo'ymoq.

Boshtin kechib, qaro qon ichib, qon yoshin sochib, Tobmon ko'ngul tilagini, vohasrato, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

boshqorong'i: bosh(i) qorong'i

BOSHVOQ SOLMOQ kimni? kimga? bo'ysundirmoq, jilovlamoq.

Ha, ogoh bo'linglar, odamlar, ogoh, Urushga yo'l qo'ymang, solingiz boshvoq. Gazetadan.

BOSHG'A NE KELTURGAY [baš'ya ne keltür=] tar. kim? yoki nima? qanday sinovlarga duchor bo'lmoq.

Ko'rarman har kecha tushta qaro zulfingni zanjirtek, Ne kelturgay bu boshg'a, ajab, ul tush parishoni. Mavlonolano Is'hoq g'azali.

BU QULOG'(I)DAN KIRIB, U QULOG'(I)DAN CHIQUIB KETMOQ nima? kimning? e'tibor bermay, xotirasida tutib qolmaslik. Varianti: **u qulog'(i)dan kirib, bu qulog'(i)dan chiqib ketmoq; bir qulog'(i)dan kirib, ikkinchi qulog'(i)dan chiqib ketmoq.**

U vaqtda bu gaplar bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Bu gaplar, har kungiday, Nusratillaning bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan*

chiqib ketdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Xotining gaplari bir qulog'idan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqib ketayotgan Shodiyevga bu qahqaha xalaqit berdi.* A.Muxtor. Dog'.

BUDAY SOVRULDI, TUPROQ BO'TQA BO'LMOQ [büdaj savruldi, tupraq botqa bol=] tar. vayron bo'lmoq.

Ekinchi evlari yoqildi o'tqa, Bunday sovruldi, tuproq bo'ldi bo'tqa. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

bundan chiqdi: bundan chiqdiki
BUNDAN CHIQDIKI ma'lum bo'ldiki, demak, binobarin. Varianti: **bundan chiqdi.**

Bundan chiqdiki, Zunnunxo'ja seni so'roqlab topgan, undan keyin qizini yuborgan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «*Bundan chiqdiki, ichingiz to'la havo ekan*», – dedi vrach. N.Nazarov. Zamon. *Bundan chiqdi, ixtiyoringiz onangizning qo'li-da ekan-da?* P.Qodirov. Uch ildiz.

BUNING USTIGA voqe bo'lgani yetishmaganday yana.

Ko'p yerlar qatorida uning yeri ham ketdi. Buning ustiga bir necha g'alamis ... fitna ko'tarishdi. A.Qahhor. Sarob.

BUNYODGA KELMOQ nima? – **BUNYODGA Keltirmoq** kim? nimani? barpo bo'lmoq, yaratilmoq. Sinonimi: **vujudga kelmoq** nima? – **vujudga keltirmoq** kim? nimani? **yuzaga kelmoq** nima? – **yuzaga keltirmoq** kim? nimani?

O'sha vaqtda bu olim agar Sirdar-yo suvlari bilan cho'lni sug'orilsa, bu yerlarda ajoyib ekinzorlar bunyodga kelishini orzu qilgan edi. R.Fayziy.

Cho'lga bahor keldi. *Shunday qishloqni ko'rsam degan orzungiz yaxshi, lekin shu qishloqni bunyodga keltirishda qatnashsangiz, undan ham yaxshiroq bo'lar edi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

bunyodga keltirmoq: bunyodga kelmoq

BURD(I) KETDI kimning? – **BURD(I)NI KETKIZMOQ** kim? kimning? ishonch-e'tiborini yo'qotmoq.

...bir burding ketgandan keyin, hech kim seni odam qatorida ko'rmay qo'yadi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Do'stim bo'lsang, obro'yimni saqlamay, burdimni ketkizasanmi?* I.Rahim. Hilola.

burd(i)ni ketkizmoq: burd(i) ketdi
BURGA TEPDIMI? [kimni?] yengil-yelpi kasallanding[iz]mi?

«Ha, Umar aka, burga tepdimi?» – «*Tishim... Tish og'rig'idan yomoni yo'q ekan*». I.Rahim. Ixlos.

burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ymoq: burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirmoq

BURGAGA ACHCHIQ QILIB KO'RPANI KUYDIRMOQ kim? arzimagan narsani deb jahl ustida nojo'ya, zararli ishni qilib qo'ymoq. Varianti: **burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ymoq.**

O'z jiyaningiz, kuyganidan gapirgandir... Burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirish yaxshimas. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi. *Men ham uyimga borib yotib oldim... Burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ygan ekanman. Endi tushundim.* I.Rahim. Ixlos.

BURGANING DUMINI KO'R-GAN juda ham shum, ayyor, uddaburon. Varianti: **burganing ko'zini ko'rgan**.

Gavhar yaxshi qiz. Lekin anavi iblis burganing dumini ko'rgan! O'. Hoshimov. Qalbingga quloq sol.

burn(i) ko'tarildi: burn(i)ni ko'tarmoq

burn(i)dan buloq bo'lib chiqmoq: burn(i)dan chiqmoq

BURN(I)DAN CHIQMOQ *nima? kimning?* keyingi salbiy hodisa ijobiy hodisani tatitmadi, zoye ketkizdi. Varianti: **burn(i)dan buloq bo'lib chiqmoq**.

E, onamni borib ko'rganim ham burnimdan chiqdi: otam uraverib o'ldira yozdi. P.Tursun. O'qituvchi. *Xursandligingiz burningizdan buloq bo'lib chiqmasa yaxshiydi!* S.Anorboyev. Oqsoy.

burn(i)dan eshak qurti yog'iladi: dimog'(i)dan eshak qurti yog'iladi

BURN(I)DAN IP O'TKAZIB OLMOQ *kim? kimning?* o'z izmiga yuradigan, itoatkor qilib olmoq. Sinonimi: **tumshug'idan jilov o'tkazmoq**.

Kelinimdan o'tdek kuyganman. O'g'ilginamni yaxshi bilasan, qo'ydek yuvosh bola. Kelinim yashamagur uni ham rasvo qildi. Bolaginamga ega chiqib, burnidan ip o'tkazib oldi bu dog'uli. S.Ahmad. Hasrat. ...*tirikchilik bani basharning tumshug'idan jilov o'tkazib yetovga soladi...X. Do'st-muhammad. Jajman.*

BURN(I)DAN TORTSA, YIQIL-GUDEK BO'LIB o'ta darajada horib-tolib, darmonsizlanib.

Shomga yaqin Bibijon opa burnidan tortsa yiqilgudek bo'lib daladan qaytdi. Oydin. Gulsanam.

burn(i)ni bir qarich ko'tarmoq: burn(i)ni ko'tarmoq

BURN(I)NI KO'TARMOQ *kim? [o'zining]* – **BURN(I) KO'TARILDI** *kimning?* gerdaymoq, kibrlanmoq. Varianti: **burn(i)ni bir qarich ko'tarmoq; burn(i)ni osmonga ko'tarmoq; dimog'(i) ko'tarildi. Sinonimi: **dimog'(i) shishdi kimning? nimadan?****

Qozing yo Hojilatif devonbeking hozir biron tamizga burnini ko'tarib gapirsa, hammamiz darrov arazlab ketamiz. S.Ayniy. Qullar. *Keyin bunday kishilarga yaxshi gapirib, «Ishlang, ishlang», – deyaverish ham durust emas. «Mensiz eplab bo'psanlar!» – deb, dimog'lari ko'tarilib ketadi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

burn(i)ni osmonga ko'tarmoq: burn(i)ni ko'tarmoq

BURN(I)NI SUQMOQ *kim? [o'zining]* **1 qayerga?** kirmoq. Varianti: **tumshug'(i)ni tiqmoq** (salbiy). Sinonimi: **bosh suqmoq 2 kim? qayerga?**

Qish kuni uyingda o'tirsang bo'l-maydimi, qo'ni-qo'shninikiga burningni suqaverasanmi?! So'zlashuv uslubi. Qaysi yov tumshuq tiqar, unga javob shu daf'atan: «E o'limtiklar, keling go'r-u kafan ishqi bilan...» S.Abdulla. Vatan ishqi bilan.

2 nimaga? aralashmoq. Varianti: **burn(i)ni tiqmoq; tumshug' [(i)ni] suqmoq** (salbiy); **tumshug'(i)ni tiqmoq** (salbiy). Sinonimi: **bosh qo'shmoq 1 kim? nimaga? bosh**

suqmoq 3 kim? nimaga? chovli(si)ni solmoq kim? [o'zining] nimaga?

Mamlakatimizning yo'lini hali ham ular chizib bermoqda. Harbiy, siyosiy ishlarimizga burnini suqadi, yana biz mustaqil emishmiz. Oybek. Nur qidirib. Nega Nuri erkaklar ishi-ga burnini tiqadi? Xizmatkorlarni eri topsin. Yo'Ichidan boshqa yo'qmi? Oybek. Qutlug' qon. Birinchidan, meni afandixon demang. Ikkinchidan, tushunmagan ishingizga tumshug'i-ngizni suqmang. S.Ahmad. Hukm.

burn(i)ni tiqmoq: burn(i)ni suqmoq

BURN(I)NI TISHLAMOQ kim? [o'zining] kutganicha bo'lmagani tufayli ruhiy azob chekmoq.

Endi uyga qaytish yo'q. Mirzakarimboy burnini tishlab qolsin! Oybek. Qutlug' qon. O'ktamning haqqoniy tanqidiga chidamasangiz, burningizni tishlang! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

BURN(I)NI YERGA ISHQAMOQ kim? kimning? qattiq jazolamoq (do'q).

Burnini yerga ishqayman uning. Meni haqorat qilishi yetmay, yana ustimdan arz qilishi ham bormi?! I.Rahim. Chin muhabbat.

BURNIDAN BULOQ BO'LDI nima? kimni burnidan chiqdi, tatimadi, zoye ketdi.

To'ychi do'konchining ham yeganichgani burnidan buloq bo'lib chiqadi. Gazetadan.

BUTUN BOSHLI kap-katta.

Lekin eri butun boshli bir guldor chinni kosaning singanligini ko'rib, esiga ham keltirmadi. N.Maqsudiy.

«Laylatulqadr». *Bitta erni yo'lga sololmasang, butun boshli jamoani qanday udda qilayotibsan? A.Qahhor. Sinchalak.*

butun boshlik: butun boshli

butun boshliq: butun boshli

BUZOQNING HAQI BOR DEB SIGIRNING SUTINI ICHMASLIK kim? birovning haqiga zarracha xiyonat qilmaslik.

Yo'q, keyindan ma'lum bo'ldiki, Hamidulla buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan taqvodor odamlar toifasidan ekan. A.Qahhor. Sinchalak.

bo'lak gap edi: boshqa gap edi

BO'LAR ISH BO'LDI, BO'YOG'I SINDI endi o'zgartirib, avvalgi holatga qaytarib bo'lmaydi. Varianti: **bo'lari bo'ldi, bo'yovi sindi; bo'lar ish bo'ldi; bo'lgan ish bo'ldi.** Sinonimi: **g'isht qolipdan ko'chdi.**

Bo'lar ish bo'ldi, bo'yovi sindi. Ixtiyor o'zingda, agar shu gapni ko'chaga chiqaraman desang, mayli, chiqar, lekin o'ylab ish qil! A.Qahhor. Og'riq tishlar. «G'alati odam ekansan, endi bo'lari bo'ldi, bo'yog'i sindi» degan fikrni shavla haqidagi gapga bog'lab qochirib qildi. P.Qodirov. Uch ildiz. Diqqat bo'lma! Bo'lgan ish bo'ldi. Nomingni yomon qildingmi-qilding. G'.Ahmadiy. Kamolot.

bo'lar ish bo'ldi, bo'yovi sindi: bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi

bo'lar ish bo'ldi: bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi

bo'lari bo'ldi, bo'yog'i sindi: bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi

bo'lgan ish bo'ldi: bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi

BO'LMAGAN GAP shunday bo'lishi mumkin emas, shunday deyishga asos yo'q.

«Yo'q, qo'y, Kimsandan olarman», – dedi Juman pulni qaytarib. «Bo'lmagan gap, haligina moxovga oshna qilding, Kimsan senga qarz beradimi?!» A.Muxtor. Tug'ilish. «O'tgan kuni qazilik osh qilib berishni bo'yniga qo'yib yarastirib qo'ygan edik! Nasibangiz qo'shilmagan ekan». – «Bo'lmagan gap, ishonmang bu gapga, mehmon». S.Ahmad. Cho'l burguti.

BO'RI YEB KETARMIDI?! kimni? hech narsa bo'lmaydi, hech nima qilmaydi, qo'rqadigan hech narsa yo'q. Varianti: **bo'ri yeydimi?!**

«Voy-ey, sizam bir qiziqsizki, buvi, nima, meni bo'ri yeb ketarmidi?!» – dedi-yu, hovli etagiga yurib ketdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «Topilib qolar. Bo'ri yeydimi?!» – dedi bukurning xotini qandaydir sirdan darak beruvchi bir ohangda. Oybek. Quyosh qoraymas.

bo'ri yeydimi?!: bo'ri yeb ketarmidi?!

«BO'RK OL» DESA (...), BOSH OLMOQ kim? biror ishni lozim bo'lganidan ham o'tkazib va qo'pol qilib bajarmoq. Varianti: «**Do'ppi(sini) ol» desa (...), kalla(sini) olmoq kim? kimning?**

Bilamiz, «Bo'rk ol» desa, bosh olmoq, pashshadan fil yasamoq – politsiyaning suygani metodi. Oybek. Nur qidirib. Hoy Juman, «Do'ppisini ol» desa, sen ham xo'p kalla olasan-da. Bechora bolalarni issiq inlaridan quvib chiqarganlaring ham yetar. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

BO'SAG'ASI O DAM KO'R-MAGAN kimning? odamlarni xushlamaydigan inson (Qashqadaryo vil. Yakkabog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.). Mening bu kabi bo'sag'asi odam ko'rmagan oila bilan quda bo'lish niyatim yo'q. So'zlashuv uslubi.

bo'sh kelmaslik: bo'sh kelmoq

BO'SH KELMOQ kim? bo'shangelik qilmoq, qat'iyat bilan himoya qilmaslik, chekinmoq, yengilmoq. Varianti: **bo'sh kelmaslik.**

Xotini ham bo'sh kelmadi: «Men qayoqdan bilaman uning nima niyatida olib kelganini?» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Xotinimga tegadigan merosdan meni quruq qilishga urinishadi ular. Lekin bo'sh kelmayman! Oybek. Qutlug' qon.

bo'sh: qo'l(i) bo'sh

BO'TADAY BO'ZLAMOQ kim? zor-zor yig'lamoq.

U ozmuncha ko'z yosh to'kdimi, goh bo'taday bo'zladi, goh un chiqarmay, ichida nola tortdi. I.Shamsharov. Dovrug'.

BO'Y BERMASLIK kim? yoki nima? kimga? itoat qilmaslik, bo'y-sunmaslik; rozi bo'lmaslik. Sinonimi: **bo'yin bermaslik kim?** yoki nima? kimga?

ZAGSdagilar har ikkovimizni bosib qo'ymoqchi, iloji bo'lsa, bituvchilik bilan yarastirib qo'ymoqchi bo'ladilar. Men bo'y bermayman. G'.G'ulom. Yodgor. Uch soat ichida qirg'oq bilan birinchi sepoya oralig'ida bo'y bermay o'jarlik qilayotgan suvning yo'li to'sildi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

bo'y yetmoq: bo'y(i) yetdi

BO'Y(I) YETDI kimning?– **BO'YIGA YETMOQ** kim? [o'zining] yoshi oila qurish darajasiga bormoq (qizlarga qarata). Varianti: **bo'yga yetmoq** kim? **bo'y yetmoq** kim?

Hammasining bo'yi yetib, ko'zlari o'ynoqi bo'lib qolgan. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. Mulla Shoshqol domlanning beshta bo'yga yetgan, qaddi barkamol, saydovutday-saydovutday qizlari bo'lsa ham, bittagina o'g'ilning gadosi edi. G'.G'ulom. Farzandi solih.

BO'Y(I)DA BO'LMOQ kimning? homilador bo'lmoq. Sinonimi: **oyidan o'tmoq**.

To'y o'tdi. Niso buvining endigi qayg'usi – Mehrining bo'yida bo'lib qolishi, chunki Faxriddindan uning bo'yida bo'lishini sira xohlamas edi. A.Qahhor. Boshsiz odam. Sahro voqeasidan uch oy o'tganda bo'yimda bo'lib qolganiga ortiq gumonim qolmadi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BO'Y(I)GA QARAB TO'NBICHMOQ kim? [o'zining] munosib, to'g'ri keladigan ishni qilmoq.

«Nimasi soz? – eshik oldida turgan Zokir ota so'zga aralashdi. – Holva degan bilan og'iz chuchimaydi. Bo'yimizga qarab to'n bichaylik, o'rtoq G'iyosov». A.Muhiddin. Zeboning sevgisi.

bo'yga yetmoq: bo'y(i) yetdi

BO'YI TOL [boji tal] tar. kimning? novcha, uzun bo'yli.

Aning ortincha bir bo'yi tol, so'zi bol, sohibjamol qul bag'ishladi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

bo'yiga yetmoq: bo'y(i) yetdi

BO'YIN BERMASLIK kim? yoki nima? kimga? itoat qilmaslik, bo'y-sunmaslik; rozi bo'lmaslik. Sinonimi: **bo'y bermaslik** kim? yoki nima? kimga?

Baraka bobo Matlubaning bo'yin bermayotganidan «Ilm yog'in bo'ladi deb aytmedi, sening og'zaki gapingga ishonmayman» degan ma'no uqib, bir nafas o'ylanib qoldi. S.Abdughor. Hayotning boshlanishi. Haligi kishi orqaga tashlanib, oriq-chandir bo'ynidagi tomirlari o'qlog'day qabarib, sigirni bazo'r to'xtatdi. «Hech kuchga bo'yin bermaydi bu...» – boyg qarab dedi u. Oybek. Qutlug' qon.

BO'YIN EGMOQ 1 kim? kimga? itoatkor bo'lmoq. Sinonimi: **bosh egmoq 1** kim? kimga? **bo'yn(i)ni xam qilmoq** kim? [o'zining] kimga? (eskirgan).

Shuning uchun arzonroq foyda va uzunroq muddat bilan siz mening hojatimni chiqarasizmi deb oldingizga bo'yin egib keldim. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. Yo'q, nima desa, xo'p deb bo'yin egib o'tiraversak, hali hokim ekan-u, uning iti ham yelkamizga chiqib, ayri minib oladi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

2 kim? yoki nima? kimga? yoki nimaga? **bo'ysunmoq, itoat qilmoq**. Varianti: **bo'yn(i)ni bukmoq** kim? [o'zining] kimga? Sinonimi: **bosh egmoq 2** kim? kimga?

Chunki necha zamonlardan beri Qizilqum na odamga, na hayvonga va na qanotli qushga bo'yin eggan. I.Rahim. Olovkor. Bu dahshatni, bu ofatni u, ehtimol, ...o'lim kabi daf etil-

mas hodisa deb tushunar, balki kamtarinlik bilan bo'ynini bukkan bo'lar edi. Oybek. Qutlug' qon.

BO'YIN TOVLAMOQ kim? ba'zan nima? nima qilishdan? amalga oshirishi lozim bo'lgan ishni bajarishdan bosh tortmoq.

Terimdan bo'yin tovlaydigan yalqov-palqovlarning, har xil mug'om-bir; «Sindi belim»larning surobini to'g'rilab qo'yaman! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Deyarli har qadamda bir poy chirik kavsh oyoqdan tushib, loyga botar, qiz engashib yana ilar, qadamini har qancha avaylab qo'ysa ham, kavshlar yurishdan bo'yin tovlar edi.* Oybek Qutlug' qon.

bo'yinga olmoq: bo'yn(i)ga olmoq

bo'yn(i) yori bermadi: bo'yn(i) yori bermadi

BO'YN(I) YORI BERMADI kimning? nimaga? 1 izzat-nafsi yo'l qo'y-madi.

Lekin birovni chaqirib, shoti qo'yib berishini so'rashga bo'yning yori bermaydi, or qilasan. S.Ahmad. Qaytish. *Komiljonga itoat qilishga Umaralining bo'yni yori bermayotgan bo'l-sa kerak.* I.Rahim. Ixlos.

2 moyil bo'lmaslik, istamaslik (ish-mehnat haqida).

Ergash uni: «Mehnatga bo'yning yori bermasa, hoziroq bo'shatib qo'yaman», – deb qattiq ogohlantirdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Bu la'nati ayyor muridlarning ishga bo'yni yori bermaydi.* N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

bo'yn(i)dan bog'lagandek: bo'yin(i)dan ip bog'lagandek

BO'YN(I)DAN IPBOG'LAGAN-DEK istamagan holda, majburan. Varianti: **bo'yn(i)dan bog'lagandek.**

«To'ymas» bo'ynidan ip bog'lagandek zo'rg'a chiqib ketdi. Oydin. *Hazil emish. Qandolat opa yana qaysarlik qila boshladi. Men qo'ymadim. Bo'ynidan bog'lagandek ... sudradim.* Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir.

BO'YN(I)DAN SOQIT QILMOQ kim? [o'zining] nimani? o'zini javobgarlikdan xoli qilmoq. Varianti: **gardan(i)dan soqit qilmoq; bosh(i)dan soqit qilmoq.**

«Hu anavi so'rida o'tirganlardan so'raysizlar», – deb ular gapni bo'yinlaridan soqit qildilar. Sh.Rizo. O'ch. *Boshimdan soqit qilib aytib qo'yay, oqibatiga Komiljonning o'zi javob beradi.* I.Rahim. Ixlos.


bo'yn(i)ga minib olmoq: yelka-(si)ga minib olmoq

BO'YN(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] nimani? 1 e'tirof qilmoq. Varianti: **bo'yinga olmoq** kim? nimani? Sinonimi: **tan olmoq** kim? nimani? yoki kimni?

Saidova hamma gapni bo'yniga oldi. H.Nu'mon. *Yoshlikda bergan ko'ngil. Otasining o'z xatosini bo'yniga oladigan darajada kuchli odam ekanidan quvonib ketdi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

2 biror holatga rozi bo'lmoq, ko'nomoq. Varianti: **gardan(i)ga olmoq; yelka(si)ga olmoq.**

Hamon musofirchilikni bo'yningga oldingmi, egardan sal tushgin-da! H.Nazir. *Odamning qadri. Besh-to'rt kunlik og'irlikni gardanimizga olib, oydinda ko'chat o'tqazsak, qanday*



bo'larkin? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Eng oxiri joniga tegibdi va shu to'polonga boshliq bo'lishni yelkasi-ga olibdi. G'.G'ulom. Arkning yemirilishi.

3 biror ishni bajarishga rag'batlanmoq, biror ishni bajarishga mas'ul bo'lmoq. Varianti: **gardan(i)ga olmoq**. Sinonimi: **zimma(si)ga olmoq 1 kim?** [o'zining] nimani?

...kanal qazishga ajratilgan kishilarning chopiq normalarini bajarishni bo'yinlariga olibdilar. S.Nazar. Yashil boyluk.

bo'yn(i)ga qo'yilmoq: bo'yn(i)ga qo'ymoq

BO'YN(I)GA QO'YMOQ kim? kimning?nimani? 1 («ayb»ni) to'nkamoq, ag'darmoq. Varianti: **bo'yn(i)ga qo'yilmoq nima? kimning?**

«Xumoxon, – deb tezroq boshlay qoldi u, – Bo'riyevning bo'yniga jiddiy ayblar qo'yishibdi». A.Muxtor. Tug'ilish. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 («ayb»ni) isbotlab e'tirof qildirmoq.

Yo'q, o'zim so'roq qilaman! Guno-hini bo'yniga qo'yib, hokim kelguncha devor tagiga bostirib yuboraman. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. «Nayrangbozligimni bo'ynimga qo'yib bering!» – dedi ming'irlab, bo'g'ilib Karimqul. Oybek. Oltin vodi-dan shabadalar.

3 (biror ishni) bajarishga rozi qilmoq. O'tgan kuni qazilik osh qilib berishni bo'yniga qo'yib yarashtirib qo'ygan edik! S.Ahmad. Cho'l bur-guti. Borishini bo'yniga qo'yaman.

Qani, ko'nmasin-chi. S.Abdulla. Mu-qimiy.

BO'YN(I)GA TUSHMOQ nima? kimning? yuklanmoq. Varianti: **gardan(i)ga tushmoq**.

Bunday vaqtlarda oshpazlik vazifasi mening bo'ynimga tushar edi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. Keyin hisoblab qarashsa, yigitchaning gardaniga protsenti bilan rosa sakkiz yuz so'm pul tushibdi. Oybek. Qutlug' qon.

bo'yn(i)ni bukmoq: bo'yin egmoq

BO'YN(I)NI QISIB o'zini aybdordek tutib, aybini bo'yniga olgan-dek bo'lib.

Mehri bilan ora ochiq bo'lgani to'g'risida bo'ynini qisib gapirganida ko'ngliga kundan-kun ko'prog'ulg'ula solayotgan bu mojarodan o'zini sekin sug'urib olishni... ko'zlagan edi. A.Qahhor. Sinchalak. Bir kun erimning uzoq sayilga ketganini eshitib, uyimga yetim boladek bo'ynini qisib kirib keldi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

BO'YN(I)NI XAM QILMOQ kim? [o'zining] kimga? itoatkor bo'lmoq (eskirgan). Sinonimi: **bo'yin egmoq 1 kim? kimga? bosh egmoq 1 kim? kimga?**

Axir ro'parasida bo'ynini xam qilib turgan bu odam ...gerdayib turib gaplashadigan o'sha Xo'jabekov emas edi-da. S.Anorboyev. Oqsoy. Har uchovlari bo'yinlarini xam qilib Mahamat Oqilning oldiga bordilar. G'.G'ulom. To'rt hangoma.

BO'YNI YO'G'ON baquvvat, kuchga to'lgan, zo'ravon.

Boshiga bir musht urib, bir burda qattiq non beradigan bir bo'yini

yo'g'onga tegmasam, men ham yurgan ekanman! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Senga o'xshagan so-yaparvar; bo'yni yo'g'onlar o'zini salqinga urib, jo'jaxo'rozning sho'rvasini ichib o'tirganda, xotinlar terlab-pishib ketmon chopgan. S.Ahmad. Xotinlar.

BO'YNIGA ARQON SOLMOQ kimning? majbur qilmoq.

Albatta, mening bo'ynimga birov arqon solayotgani yo'q, Tushungan odam kiradi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

BO'YNIGA OSILMOQ kim? kimning? birovga xiralik qilib yopishib olmoq.

Buncha mening bo'ynimga osilib olding? So'zlashuv uslubi.

BO'YNUDA QOLMOQ [bojnu-da qal=] tar. nima? kimning? aybdor bo'lmoq, gunohkor bo'lmoq.

Bu uqubat menim uza bir nafas bilan kechar, dag'i qiyomatqa tegru sening bo'ynungda qolar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BO'YOQCHINING NILIMI?! oson ish emas.

Stanok o'ylab chiqish bo'yoqchining nilimidi?! I.Rahim. Ixlos.

BO'YUN SUNMOQ [bojun sun=] tar. kim? kimga? taslim bo'lmoq, sabr bilan qabul qilmoq.

Bo'yun sundum bu yo'lda ming balog'a, Ko'ngul parvona bo'ldi ul yulog'a. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

BO'ZCHINING MOKISIDAY to'xtovsiz ko'p marta. Varianti: **mokiday**.

Mehmontovoq bo'zchining mokisiday qatnab turibdi. I.Rahim. Hilola. *Bo'zchining mokisidek Avliyoota bilan Toshkent orasida yo'rg'alashdan nima foyda?* Oybek. Qutlug' qon. *Bir chimdim-bir chimdimdan tashib, mokiday qatnashim kerak ekan-da!* S.Anorboyev. Oqsoy.

BO'G'OZI KENG [bo'yazi keng] tar. kimning? ishtahasi yaxshi, ko'p taom iste'mol qiluvchi. Sinonimi: **ishtahasi karnay**.

Ayturlar: bir pahlavon yumruqchi yigitni dunyo jihatidan ali ovuchitor, dag'i bo'g'ozi keng edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BO'G'OZNI QURUTUB, OG'IZNI QAYNATMOQ [bo'yazini qurutub, ayizni qajnat=] tar. kimning?chanqamoq, suvga bo'lgan kuchli ehtiyojni his etmoq.

Issi tamuz kunlarinda bir kun eyla issi edikim, bo'g'ozni qurutub, og'izni qaynatur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

BO'G'ZIN YIRTMOQ [bo'yzin jirt=] tar. kim? baqirmoq, ovozini bandlatib gapirmoq.

Bir kecha toifa suhbatina tushutum, ul jam' ichinda bir parishon suratli mutrib o'turub, karih un bilan o'z bo'g'zin yirtib, xalq mag'zin ketarmakka yirlyay boshladi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

D

«**DARD**» **DESA (...)**, «**BALO**» **DEMOQ** *kim?* aytishmoq, e'tiroz javobini bermoq. Varianti: «**dard**» **desa (...)**, «**o'l**» **demoq**. Sinonimi: **gap qaytarmoq** *kim? kimga?* «**ali**» **desa (...)**, «**bali**» **demoq** *kim?*

...«*dard*» *desa*, «*bal*» *dem*asak, *kunimiz yana besh battar qora deyavering!* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Abdurasul ham bo'sh kelmasdi – «dard» desa, «o'l» deb turaverdi.* P.Tursun. O'qituvchi.

«**dard**» **desa (...)**, «**o'l**» **demoq**: «*dard*» *desa*, «*bal*» *demoq*

«**do'ppi ol**» **desa(...)**, **kalla olmoq**: «*bo'rk ol*» *desa (...)*, *bosh olmoq*

«**do'ppisini ol**» **desa (...)**, **kallasini olmoq**: «*bo'rk ol*» *desa (...)*, *bosh olmoq*

DABDALA BO'LMOQ yaroqsiz bo'lmoq, yirtilmoq; hamma narsasidan ajralmoq.

Uning kiyim-boshi dabdala bo'lgan edi. I.Rahim. Taqdir.

DABDALA QILMOQ *kim?* tartibsizlikni yuzaga keltirmoq.

– *Ishni eplamagani eplay olmaydi. Hamma yoqni dabdala qilib oshana-og'aynigarchilikka, bazm va yallaga berilib ketdi.* O.Yoqubov. Aytsam – tilim kuyadi, aytmasam – dilim.

DABDALA(SI) CHIQDI – DABDALA(SI)NI CHIQARMOQ 1 *nimaning?* – *kim? nimaning?* sifatini yo'qotib, yaroqsiz holga kelmoq. Sinonimi: **abjag'(i) chiqdi** *nimaning?* – **abjag'(i)ni chiqarmoq 2** *kim? nimaning?* **iyig'(i) chiqdi 2** *nimaning?*

Ko'ylakning dabdalasi chiqdi. «O'zbekcha-ruscha lug'at»dan. *Hozirgi tarbiyani olib shaxmatga urildi, shaxmatni olib tarbiyaga; ikkovining ham dabdalasi chiqarildi.* A.Qahhor. O'jar. *Eski tegirmonchi o'rnidan turib hoy hamqishloqlar, tegirmon buzilib, dabdalasi chiqib yotibdi-ku...* X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati.

2 *kimning?* – *kim? kimning?* yanchib tashlamoq.

Guvohlarning dabdalasi chiqqandan keyin, G'ulomjon dedi... M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Zebi opa, haligi yana g'iring deganda, dabdalasini chiqarib, o'sha yerga ko'mib kelar ekan-da.* S.Zunnunova. Gulxan.

dabdala(si)ni chiqarmoq: *dabdala(si) chiqdi*

DAFTARI OCHILDI *kimning?* hasrati boshlandi.

Shu bahona bilan uning daftari ochilib ketdi. H.Nazir.

DAHAGA KIRMOQ ishtaha bilan. *Hammalari dahaga kirgan qurtdek ovqatga tashlanishdi.* "Mush-tum".

DAHANAKI JANG gapirish bilangina ro'y beradigan tortishuv, janjal.

Atrofga alambok kishilar yig'ilgan, har ikkovlari o'rtasida bo'layotgan dahanaki jangni tomosha qiladi. G'.G'ulom. Aniq daromad. *Shu kuni kechasi yana uyimizda dahanaki jang bo'ldi.* Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. *Maktab domlasi va bir mudarris ham bu munosabat bilan bolalarga husni axloqi ta'lim xususida biroz dahanaki jang qilishdi.* Oybek. Qutlug' qon.

DAHMAZA BO'LMOQ kimga? ortiqcha tashvish.

Bu odam ham menga dahmaza bo'ldi-da. Nima qilishga hayronman... Sharq yulduzi.

DAKKI BERMOQ kim? kimga? nojo'ya ishi, xatti-harakati uchun achchiq gap, tanbeh so'zlari aytmoq. Sinonimi: **dashnom bermoq** kim? kimga? Antonimi: **dakki yemoq** kim? kimdan?

Ba'zan o'ylamay bir ish qilib qo'yasan-da, keyin pushaymon bo'lib, o'zingga o'zing dakki berib yurasan kishi. M.Muhamedov. Qahramon izidan. «*Bu ham menga dakki beradimi?!*» – *dedim-da, Hilolaning tarafini oldim.* I.Rahim. Hilola.

DAKKI YEMOQ kim? kimdan? nojo'ya ishi, xatti-harakati uchun achchiq gap, tanbeh so'zlari eshitmoq. Varianti: **dakki(si)ni yemoq** kim? kimning? Antonimi: **dakki bermoq**

kim? kimga? dashnom bermoq kim? kimga?

Qizingiz siz singari yig'lab, har kimning dakkisini yeb yurmasin. S.Zunnunova. Yangi direktor. *Egamberdi bilan Karimberdidan dakki yeb, goho kaltak ham yeb yurgan Isroil bilan G'ulom g'uppalar, buning ustiga biron aybini bo'yniga qo'yib jazolay olmagan, jazolay olmagani uchun alami oshib yurgan uchastka noziri Erkayev birlashib oldilar.* X. To'xtaboyev. Quyonlar saltanati.

dakki(si)ni yemoq: dakki yemoq

DALDA BERMOQ kim? kimga? yoki o'ziga; nima? kimga? yoki o'ziga? kim? nimaga? nima? nimaga? Varianti: **bergan dalda.**

Balki bu Hasan ovchining xayrixoh qarashlari bergan daldadandir? Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Muallima dalda berib, bunaqa narsalardan qo'rqmanglar, dedi.* X.To'xtaboyev. Quyonlar mamlakatida. *Jinlar bari bir meni ko'rolmaydi, deb o'zimga-o'zim dalda berdim-da, ular bilan uchrashish niyatida ovoz qaysi tomondan kelayotganligini aniqlash uchun shoshilib tomga chiqdim.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib. *U tomondan dalda beruvchi so'zlarni eshitgach, ko'ngli birroz tinchlandi.* T.Malik. Charxpalak.

DALI-G'ULI ochiq, hush-chaq-chaq.

O'rtog'im birdan kulib yubordi, o'zi juda serzavq, dali-g'uli, sho'x bola. Oybek. Bolalik. – *Nahoti tushunmasang? Axir biror marta xiyonat qilganmidim? Dali-g'uliligimdan bo'lak*

aybim yo 'q-ku?! Yo bormi? Sharq yulduzi.

DALLOLLIK QILMOQ kim? o'rinsiz aralashmoq, vositachilik qilmoq.

U onda-sonda bo'lsa-da, bozorda dallollik qilishni hech kanda qilmasdi... Mushtum.

DALOLAT BERMOQ nima? kimga? nimadan? ba'zan nimaga? ko'rsatib, tasdiqlab turmoq.

Uning har bir beti zax okoplarida qo'ldan qo'lga o'tib o'qilganidan dalolat berardi. S.Ahmad. Qo'shiq. Bu galgi ishi hammamizni bab-barobar ko'rayotganidan dalolat berardi. I.Rahim. Hilola.

DAM BERMOQ I kim? nimaga? havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq.

Keyin pista ko'mir solib, quvuriga mahsi kiydirib dam berdi. S.Ahmad. Hukm. Ularni [temirlarni] muloymilash uchun juda ko'p miqdorda dam berish, qizdirish va taqa shakliga keltirish uchun juda ko'p azoblanib bolg'a urish kerak bo'lar edi. G.G'ulom. Jahongirlik urushining so'nggi qurbonlaridan biri.

DAM BERMOQ II kim? kimga? yoki nimaga? istirohat qilishga imkon bermoq.

Uy yumushlaridan charchagan kezlaringda chaqaloqni birpasgina ovutib, menga dam berarmikan?.. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Ko'nglingni kengroq qil, oshiqma, asabingga biroz dam ber. A.Muxtor. Tug'ilish.

dam bosmoq: dam(i)ni bosmoq

DAM BO'LMOQ kim? ovoz chiqarmaslik, indamay qo'yish, gapirmaslik.

– *Dam bo'l, zumrasha, – deb ona qiziga zug'um qilardi. So'zlashuv uslubi.*

DAM OLMOQ kim? istirohat qilmoq. Varianti: **dam(i)ni olmoq** kim? [o'zi]; **hordiq olmoq** kim?

Ikkala professor idoradan olib chiqilgan stullarga o'tirishdi. Gullarni tomosha qilib, yoyilib dam ola boshlashdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Cho'ponlar ham odam axir! Dam olishni, muzika eshitishni kim istamaydi deysiz! O.Yoqubov. Tog' qizi. «O'tir, biroz damingni ol», – dedi kampir Slavikni bag'riga olib. I.Rahim. Chin muhabbat. 24-xonaga kirib, dam olishmoqchi shekilli, yechinib, yumshoq ko'rpalar, paryos-tiqlar to'shalgan karavotlarga cho'zilishdi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

dam soldirmoq: dam solmoq

DAM SOLMOQ kim? kimga? – **DAM SOLDIRMOQ** kim? kimga? davolash niyati bilan duo o'qib, «kuf-suf» qilmoq (diniy).

Eski turmushning butun yomon sarqitlarini yo'qotmoq uchun kurash olib borayotgan chog'imizda siz u bangini uyingizda ziyofat qilasiz, dam soldirasiz! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Ertalabki namozdan keyin qori pochcham dami chiqib ketib kasal bo'lgan kishilarga bismillo deya yenglarini shimarib dam solishga tushib ketdi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

DAM URA BILMASLIK [däm ura bilmä=] tar. kim? qo'rquvdan yoki boshqa sababdan kamchiliklarini ayta olmaslik.

Qatinda dam ura bilmas, yo 'qinda g'iybatin so 'zlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DAM YEMOQ nima? damlangandan keyin o'z bug'i bilan yetilmoq.

Ehtimol, bu ishning hali mavridi kelmagandir. Olma pishsa, tegiga tushadi, qovun yetilsa, dum beradi, osh dam yemasa, tirik qoladi, deyishadi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

DAM YEDIRMOQ kim? nimaga? me'yoriga yetishiga imkon bermoq.

– *Peshindan kechga qolmang. Men oshni dam yedirib, sizni kutib o'tiraman.* Sharq yulduzi.

DAM O'TMAY juda qisqa vaqt oralig'ida.

Uy egasi, ko'hna bisot boy, dam o'tmay hammasini hozir qildi. A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi. *Dam o'tmay Xarisovni olib kelishdi. Bo'limning ikki xodimi chiqib ketdi.* T.Malik. Charxpalak.

DAST BERMOQ [däst ber] tar. kim? yoki nima? kimga? yordam bermoq.

Javob kutti bo'lub u ishq aro mast, Vale taqdir kulib tez bermadi dast. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DAVR YETMOQ [dävr jet=] tar. vaqti kelmoq, kutilgan kun kelmoq.

Falak aylamasi-la davr yetgay, Adolat urlug'umdin baxt bitg'ay. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

DAVRON SURMOQ [dävransür=] tar. kim? rohatda yashamoq. Varianti: **davrin surmoq.**

Ul biri davlat bilan davron surar, Bu biri o'tdin o'zin bir yon surar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DAM(I) CHIQMOQ kimning? mullalar tomonidan o'qilgan duoning kuchi ketmoq.

Ertalabki namozdan keyin qori pochcham dami chiqib ketib kasal bo'lgan kishilarga bismillo deya yenglarini shimarib dam solishga tushib ketdi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

DAM(I) CHIQMADI kimning?–
DAM(I)NI CHIQARMASLIK kim? [o'zining] hech narsa demaslik, indamaslik. Varianti: **nafas(i) chiqmadi.**

Shuni bolalarga aytsam, hech qaysining dami chiqmaydi. Kamol bilan Zuhra bo'lsa piq-piq kulishadi, xolos. H.Nazir. Lola. *Bir mahalladan bir qizni olib qochishdi. Boyvachchanning xizmatkorining qizi emish... Damingni chiqarma!* Oybek. Qutlug' qon.

DAM(I) ICH(I)DA kimning? oshkor bo'lishidan qo'rqib gapirmaslik; imkonsizlikdan biror narsa deya olmaslik.

Er-xotinning dami ichida, undan bundan so'rab-surishtiraylik deyishsa, gap-so'z tarqab ketadi. S.Zunnunova. Gulxan. *Sirdan voqif xotinlar, damlari ichida, bir narsa deb yuborishdan qo'rqib, o'zlarini hech nima bilmaslikka solishardi.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

DAM(I) ICH(I)DA QOLDI kimning? bir so'z ham ayta olmay qolmoq.

Zavqiyning bu daliliga Mo'ydin maxsum javob qaytarolmay, dami ichida qola beradi, ammo undan, albatta, o'ch olish payiga tushadi. Sh.Rizo. O'ch.

dam(i) ich(i)ga tush[ib ket]di:
nafas(i) ich(i)ga tush[ib ket]di

dam(i) kesildi I: dam(i)ni kesmoq I
DAM(I)DA OSH PISHADI kimning? o'ta darajada kekkayib, kibrhavoli bo'lmoq. Sinonimi: **dimg'(i)ga qurt tushdi kimning? dimog'(i)dan eshak qurti yog'iladi kimning? dimog'(i)da osh pishadi kimning?**

Damingda osh pishadi-ya, Dada-jon. Soqol oqargandan keyin sen bilan bizning polvonligimiz qoldimi?! I.Rahim. Ixlos.

DAMIGATORTMOQ kim? kimni? tobe qilib olmoq, bo'ysundirmoq, o'z ta'siriga olmoq, ilintirmoq.

– *Bizni ilonday avrab damiga tortayotganlar kimlar? – Nu'mon xoji, Mirhaydar xo'ja, Oqilxon to'ralar. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.*

DAMIDAN TUSHMOQ kim? mo'min bo'lib qolmoq, oddiylashmoq.

Hali xomsan, pisharsan, bu damingdan tusharsan. Maqol.

DAMINGNI O'CHIR! jim bo'l.

– *E, damingni o'chirsang-chi, rosa bezor qilding-ku, bizni... So'zlashuv uslubi.*

DAM(I)NI BOSMOQ I kim? kimning? temirchilik qo'rasiga havo yuborib turmoq. Varianti: **dam bosmoq** kim?

Asrorqul uning damini bosib, bo'lak ishlariga qarashib, do'konida yotib yurdi. A.Qahhor. Asror bobo. Aqlini tanibdiki, dadasiga ko'maklashdi, ustaxonada dam bosdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

damini bosmoq II: damini kesmoq II

dam(i)ni chiqarmaslik: dam(i) chiqmadi

dam(i)ni ich(i)ga olmoq: dam(i)ni ich(i)ga yutmoq

dam(i)ni ich(i)ga tushirib yubormoq: nafas(i) ich(i)ga tush[ib ket]di

DAM(I)NI ICH(I)GA YUTMOQ kim? [*o'zining*] hech qanday tovush chiqarmaslik. Varianti: **dam(i)ni yutmoq; nafas(i)ni ich(i)ga yutmoq; dam(i)ni ich(i)ga olmoq; nafas(i)ni ich(i)ga olmoq.**

Damini ichiga yutib, oyog'ining uchida yurib yaqinlashdi. S.Anorboyev. Oqsoy. ... tepib uyg'otganini bilib, achchig'i gistasa ham, mehmonlar oldida damini yutib turadi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Qirg'oqda nafasini ichiga yutib kuzatib turgan quruvchilar birdan jonlanib, qichqira boshladilar. S.Ahmad. Qadrdon dalar. «Hakimov buni oldindan sezgan ekan-da», – deb damini ichiga olib o'ylanardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Tarafkashlar nafaslarini ichlariga olib, titrab-qaqshab itlarning har bir harakatini ta'qib qildilar. G'.G'ulom. Ikki janggoh.

DAM(I)NI KESMOQ I kim? kimning? – **DAM(I) KESILDI 1** kimning? gapirtirmaslik. Varianti: **nafas(i) kesildi.**

Valixonning qo'l siltab rad qilganini ko'rgan, dami kesilib, og'zini ochganicha tek qarab qoldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Kim gumon qiladi?» – «Olimxon ellikboshi». Salimboyvachchaning nafasi kesildi. Boshini ikki qo'li orasiga olib jim bo'ldi. Oybek. Qutlug' qon.

dam(i)ni olmoq: dam olmoq

dam(i)ni rostlamoq: nafas(i)ni rostlamoq

dam(i)ni yutmoq: dam(i)ni ich(i)-ga yutmoq

dami kesildi II: damini kesmoq II

DAMINI KESMOQ II nima? nimaning? – **DAMI KESILDI II** nimaning? ta'sir kuchini qaytarmoq, yo'qotmoq. Varianti: **damini bosmoq II**.

Issiqning va yog'liq ovqatlarning damini kesish uchun hech kim piyoladan, choynakdan qo'l uzmas edi. Oybek. Qutlug' qon. *Ana shu kambag'allar, ezilgan mehnatchilar birikib, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishsa, zulmning dami kesilmay qolmaydi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

dang qotib: dong qotib

dang qotmoq: dong qotmoq

DAQQI BO'LIB QOLGAN kim? ishdan bezor bo'lib, ishyoqmas bo'lib qolish.

E, nimasini aytasiz, xizmatkorlar daqqi bo'lib qolganmi, deyman, biror ish aytasang, betga sapchiydi. Sharq yulduzi.

daqqiyunusdan beri: daqyonusdan beri

daqqiyunusdan qolgan: daqyonusdan qolgan

daqyanusdan beri: daqyonusdan beri

DAQYUNUSDAN BERI juda qadimdan. Sinonimi: **almisoqdan beri**.

Daqyunusdan beri shu turishi – turish. A.Muxtor. Opa-singillar.

DAQYUNUSDAN QOLGAN juda eski, qadimgi. Varianti: **daqqiyunusdan qolgan; doqiyunusdan qolgan.**

Sinonimi: **almisoqdan qolgan; Odam Atodan qolgan.**

Men bolalarni Quadratilla qori singari yangi usulda o'qitishni bilmaganim uchun daqyonusdan qolgan usul bilan o'qitar edim. M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari. *Gulnor doqiyunusdan qolgan kavushni kiyib, chirik paranjiga o'ralib, Yo'lchi bilan jo'nadi.* Oybek. Qutlug' qon.

DARAJASI BALAND kimning? 1 yuqori martabali.

Uning darajasi balandga o'xshaydimi, deyman, yurishini qarang... Mushtum.

2 temperaturasi yuqori.

Baland darajadagi isitma bolaga sudurgi berishi mumkin. So'zlashuv uslubi.

3 mast.


Arang qadam tashlashidan, tebranib yurishidan otasining darajasi ancha balandligini anglab, sekin yonidan kirdi va uy tomonga boshladi. Gazetadan.

DARAK BERMOQ nima? [kimga?] nimadan? kim? kimga? [nimadan?] sezdirmoq, bildirmoq.

To'g'ri, ayrim dalalar borki, ko'ngilni g'ash qiladi, xavf-xatardan darak beradi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Obid Yo'ldoshevichning ko'zlarida norozilikdan darak beruvchi bir ifoda paydo bo'ldi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

DARAK BO'LMOQ kimdan? xabar yubormoq, kelmoq.

Oysha, akangdan darak bo'lma-di-ku? – deb so'radi oyim. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.



DARAK [DARAGINI] TOPMOQ kim? kim haqida? yoki nima haqida? biror to'g'rida xabar, ma'lumot eshitmoq.

Otam shu kuni ...xursand edi. Marg'ilonlik hojilardan darak topibdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

DARD TEGMOQ kimga? kasallanmoq; noma'qul narsaga ishqibozlik qilmoq.

– Bolamga qattiq dard tekkanga o'xshaydi, Eshon pochcha. Bir kuf-suf qilmasangiz bo'lmaydi. Mushtum.

DARD TUTMOQ kimni? to'lg'oq tutmoq.

Shu kelingizning dardi tutib qolsa bo'ladimi, doya xotin topilmasa, mashinada Zarkentga oborib tashlasam degan edim. Said Ahmad. Xazina.

DARD-U ALAMINI YOZMOQ kim? xafagarchilikdan qutulish chorasini qilmoq.

Hasan ovchi ham o'zi kabi g'arib-larning ko'rgan kunlariga afsuslan-ganicha tez-tez qadam bosar; shu bilan ko'nglidagi dard-u alamini yozmoqchiday edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

dard ustiga dard: dard ustiga chipqon

DARD USTIGA CHIPQON BO'LDI nima? mavjud g'am-alamni ustiga ustak yangi g'am-alam qo'shildi. Varianti: **dard(i) ustiga chipqon bo'ldi, dardiga dard qo'shilmoq** nima? kimning?

Zohidaxonning gapi dard ustiga chipqon bo'ldi. A.Muhiddin. Yuzga aytganning zahri yo'q. Keyingi keli-

shida Tamaradan gapirib berdi-yu, ammo dard ustiga chipqon bo'lmasin deb, Timofeydan eshitgan xabarini aytmadi. M.Muhamedov. Kichik garnizon. Badnafs shayxning bu so'zi Mahmud akaning dardi ustiga chipqon bo'ldi. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

dard(i) ustiga chipqon bo'ldi: dard ustiga chipqon bo'ldi

DARDDAN CHIQQASLIK doim kasal bo'lmoq.

Keyingi yillarda ularning oilasi darddan chiqmay qoldi... Sharq yulduzi.

DARDGA CHALINMOQ kim? kasallanmoq.

U tizzalab ho'l latta bilan stol tagini artar ekan, «Endi sira chektirmayman, bunaqada dardga chalinib qoladi», – deb dildan o'tkazdi. S.Ahmad. Oydin kechalar. O't qo'yishga moyillik dardiga chalingan biror yerga o't qo'yib, yong'in chiqarib, shundan miriqmasa xumoridan chiqmaydi. Fan va turmush.

DARDI ARIMOQ kimning? sog'aymoq, tuzalib ketmoq.

Bir nevarasi Rajabbek uch ming bemorni operatsiya qilib, dardini aritibdi. Mushtum.

dardiga dard qo'shilmoq: dard ustiga chipqon bo'lmoq.

DARDI BALAND og'ir kasal, og'ir ahvolga tushib qolish.

– E, nimasini so'raysiz, aka, Zamiraning dardi juda baland... Sharq yulduzi.

DARDI BEDAVO kim? yoki nima? epaqaga kelmaydigan, qutulish qiyin, daxmaza.

Jonimni sug'urib olguday bo'ldi Ashirmat. Boshimni egib, churq etmay o'tiraverdim. Dardi bedavo bo'ldi bu... Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Boboqul ota bosh chayqadi: «Uf, dardi bedavo bo'ldi-ku bularing. S.Anorboyev. Oqsoy.*

DARDI BOR maxfiy gapi bor, ishi bor.

– *Yuragingda shuncha darding bor bo'la turib, shu kungacha ochilmaganingga hayronman, odam ham shunaqa landovur bo'ladimi? Feruzani boshqa birov ilib ketsa, nima qilasan? H.G'ulom. Senga intilaman. – E attang, shu darding bor ekan, bir hafta oldin aytmaysanmi? S.Anorboyev. Oqsoy.*

dardi dunyosi qorong'u bo'lmoq: dunyosi qorong'u bo'lmoq

DARDI ICHIDA kimning? jur'at qilib atya olmay yurishlik.

Sevgan, ahdi paymonlar bilan tekkan erini tashlab keldi. Dardi ichida. Na ona, na ota unga botinib gapira oladi. S.Ahmad. Xotin. – Menga hech narsa demadi-ku, ammo uning ham dardi ichida. Rangi-ro'yi olingan. Shunday dilgir ko'rinadiki, hozir hech qayerga sig'may qolgan. K.Yashin. Gulsara.

dardi qattiq: dardi zo'r

DARDI XARINA qutulib bo'lmaydigan, tashvishli.

E, bu dardi xarinadan qachon qutulasiz. Shundan gapiring-da, aka. Mushtum.

DARDI YENGILLAMOQ sog'aya boshlamoq, o'zini yengil his qilmoq.

– *Biroz yig'lay, dardim yengilla-shadi. Ichimni bo'shatib olay. S.Ahmad. Turnalar.*

DARDI ZO'R og'ir kasal, og'ir ahvolda qolmoq. Varianti: **dardi qattiq.**

– *Bechoraning dardi zo'r; – Yo'ldosh tirsagiga suyanib yonboshladi-da, Sheraliga qaradi. – Ashulangi ayta ber, og'ayni, bari bir hech kim uxlayotgani yo'q. H.G'ulom. Senga intilaman.*

DARDIDA YURMOQ ishini bitira olmay yurish.

Revizor ketgandan so'ng uning kechagi ishini bir yoqli qilish dardida yurib oyoqlari rosa charchadi. Lekin hech ishi yurishmadi... Mushtum.

DARD(I)GA DARMON BO'LMOQ kim? kimning? boshiga mushkul ish tushganda qo'llab-quvvatlamoq. Sinonimi: **yara(si)ga malham bo'lmoq** kim? kimning?

Endi yaxshi kunlar kelganda, dardiga darmon bo'lgan o'sha eski qadrdonlarini tashlab ketsa, qanday bo'ladidi? S.Anorboyev. Oqsoy.

DARDIGA DAVO QILMOQ kim? zaruriga ishlatmoq.


– *Hisobga to'g'ri bo'lsin: «Bir ming to'rt yuz tanga kerak!» de, ortganini yana biror dardingga davo qilarsan. S.Ayniy. Sudxo'ning o'limi.*

DARDIGA DAVO TOPMOQ ishtaganini topib olmoq; sog'aymoq.

Bemorlar qumga, tuproqqa tushib, dardiga davo topadi. Oybek. Bolalik.

dardiga kuymoq: dardida yonmoq

DARDINI BILMOQ kim? kimning? nima maqsadda yurganligini bilmoq.



Bu odam Ehson kelgan kundan uning dardini biladi. Bu yigit ilmni mamlakat xizmatiga qo‘ymoqchi, o‘zi katta bir ilm ahli bo‘lish taraddudi-da... A.Qahhor. Sarob.

dardini ichiga solmoq: dardini ichiga yutmoq.

DARDINI ICHIGA YUTMOQ

kim? ayta olmay yurishga majbur bo‘lmoq.

Urush-janjal ko‘paymasin deb, butun dardimni ichimga yutaman. Oybek. Qutlug‘ qon. Akam dardini ichiga yutib yurgan ekan, keyinchalik uni menga aytdi. Q.Maksumov. Muhabbat qo‘shig‘i.

DARDINI OCHMOQ *kim? kimga? biror maqsadini aytmoq.*

Toshtemir bilan Hanifa bir-birlarini sevib qoldilar. Lekin Toshtemir qizga muhabbatini ayta olmay bir necha yil qiynalib yurdi. Toshtemir axir Ivan akaga dardini ochdi. H.G‘ulom. Senga intilaman.

DARDINI QO‘ZG‘AMOQ *kim? kimning? o‘tmish voqeani eslatmoq.*

Bu fikr uning qalbida yoqimli bir dardni qo‘zg‘ab, qizga qattiq bog‘langanini va uning iltifotidan mahrum bo‘lish o‘zi uchun o‘limdan ham og‘irroq bo‘lishini bildi. S.Ayniy. Dohunda.

DARD(I)NI YORMOQ *kim? kimga? tashvishga solib yurgan yashirin ish-o‘ylarini o‘ziga yaqin olib aytmoq. Varianti: rozi yorilmoq.*

Ana xolos! Gapni toza odamiga aytgan ekanman-da. Men yaqin jo‘ram deb dardimni senga yorsam, sening parvoying falak. S.Nazar. Yashil boyluk.

dardini yutib yubormoq: dardini ichiga yutmoq

DARDISAR BO‘LMOQ *kimga? ovvora qilib qo‘ymoq, ko‘tara tashvish bo‘lmoq.*

– Kechagi voqeani bir yoqli qilish ham menga dardisar bo‘ldi. Mush-tum.

dargoh(i)ga bosh urmoq: oyo-g‘(i)ga bosh urmoq

DARIG‘ TUTMOQ *kim? nima-ni? kimdan? qizg‘anmoq; noloyiq deb bilmoq.*

Mezbon uzoq yo‘ldan kelgan mehmonni ochiq chehra bilan qarshi olmasa, bir piyola choyini darig‘ tutsa,.. mehmonning qay holatda qolishini tasavvur qila olasizmi? A.Qahhor. Mirzo.

DARMON BO‘LMOQ *kimga? quvvatlanmoq.*

Ikki og‘iz shirin so‘zing ularga bir yil darmon bo‘ladi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Mening sirli tilni bilishim ularning dardiga darmon bo‘lib qoldi. G‘.G‘ulom. Yodgor.

DARMON OLMOQ *kim? kuch yig‘moq, ahvoli yaxshilanmoq.*

Ehe, ko‘rkam lagerning, Qucho-g‘ida ko‘p jonlar. Yangi o‘quv yiliga-cha, Quvnab olur darmonlar. Turob To‘la.

DARMONDAN QOLMOQ *kim? betobligi sababli asta-sekin kuch-quv-vati kamaydi. Antonimi: darmonga kirmoq kim?*

U o‘zining darmondan ketayotgani-ni sezar va shuning uchun «Men o‘lib-netib qolsam, bolam bechoraning holi nima bo‘ladi?» – deb vahimaga tushar,

bu to'g'rida Xolmurodga hech gapirmasdi. P.Tursun. O'qituvchi.

DARMONGA KIRMOQ kim? sog'aya boshlagani sababli asta-sekin kuch-quvvati qo'shildi. Antonimi: **darmondan ketmoq** kim?

Ikki martaba odam yuborganimda, xotini unamabdi, «Hali darmonga kirgani yo'q, uziladi», debdi. A.Qahhor. Asror bobo. Anorxon tug'ruxonadan kelgandan keyin darmonga kira olmadi. A.Muxtor. Oksana.

DARMONI QURIMOQ kimning? kuch-quvvati, madori qolmadi, madorsizlandi.

Kech kirdi. Darmonlar quridi. Qorinlar och. Qani endi issiq ovqat bo'lsa? J.Sharipov. Xorazm.

DAROMADI USHSHOQ biror maqsadni anglatish uchun shu maqsad atrofida uzoqdan gap boshlamoq.

Bu gaplarni eshitib terimga sig'may ketdim. Hamisha qo'llaringiz baland bo'lsin! Yuqoridagi gaplarim daromadli ushshoq. Vazifa e'tibori bilan endi gapni boshqa tomonga burishga majburman. Mushtum.

DAROMADGA YARASHA BUROMAD holiga qarab sarflamoq.

Zero, kuyov bolangiz kichkina emas. Biror ming tun ketishi bu yerda turgan gap. Albatta to'yga kelganlarning qo'llari quruq bo'lmas... Haram xonimlari bo'lsa yuz tillalik sarposiz kelmaslar, qizingizga cho'ri hadya qilsalar ham ajab emas. Albatta, daromadga yarasha buromad, degan gap bor. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

DARS BERMOQ kim? kimga? 1 o'quv yurtida mashg'ulot olib bormoq.

U kuni men Fransiyadan kelgan mehmonlar bilan gaplashib qoldim. Bittasi universitetda dars berar ekan. P.Qodirov. Uch ildiz. Maktabda fizikadan dars bergan Mahkam akaning kiyinishi odatdagiday odmi edi. T.Malik. Charxpalak.

2 o'rgatishga qodir bo'lmoq.

Bo'stonmi? Tegirmondan butun chiqadi. Yuzta yigitga dars beradi. S.Nazar. Yashil boylik.

DARS BO'LMOQ kimga? tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq.

Kechagi voqea unga yaxshi dars bo'ldi... Sharq yulduzi.

DARS OLMOQ kim? kimdan? yoki nimadan? 1 o'rganmoq.

Bo'taboy... o'qishga juda astoydil bo'lib, ba'zi kechalari O'rmonjonning uyiga borib, qo'shimcha dars ola boshladi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 savoy olmoq, kamchiliklarini tuzatish uchun tajriba hosil qilmoq

Har bir qoqilgan o'rnim, olgan zarbalarimdan o'zim uchun hayotiy dars oldim. Gazetadan.

DARU DUNYO(SI) QORONG'I BO'LDI kimning? – **DARU DUNYO(SI)NI QORONG'I QILIB YUBORMOQ** nima? kimning? xafaqon, o'ta darajada g'amgin bo'lmoq. Sinonimi: **daru dunyo(s)i qorong'ilashib ketdi** kimning? – **dunyo(s)i ni qorong'ilashtirib yubormoq** nima? kimning?

Busiz ham kuni bo'yi ko'ngli g'ash, daru dunyosi qorong'i bo'lib yurgan Farog'at beixtiyor nimchasining tugmalarini soldi-da, havoga qaradi.

R.Fayziy. Farog‘at. *Bir parcha qo-g‘ozdagi ikki og‘iz so‘z kishini shunchalar intizor qilib, o‘ziga asir qilganini qarang-a. Kishining daru dunyosini qorong‘i qilib yuboradi-ya.* R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.

DARUDUNYO(SI) QORONG‘I kimning? xafaqon, o‘ta darajada g‘amgin. Sinonimi: **ich(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi kimning?**

Qimmatli Azimjon aka, boshingizga tushgan kulfatga sherikman. Men sababli aziyat chekyapsiz. Eshitganimdan beri daru dunyoyim qorong‘i, ig‘vogarlar maqsadlariga erishdi. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil.

DARUDUNYO(SI) QORONG‘I-LASHIB KETDI kimning? – **DUNYO(SI)NI QORONG‘ILASHTIRIB YUBORMOQ** nima? kimning? xafaqon, o‘ta darajada g‘amgin bo‘lmoq. Sinonimi: **daru dunyo(si) qorong‘i bo‘ldi kimning? – daru dunyo(si)ni qorong‘i qilib yubormoq nima? kimning?**

Kampirning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmadi. Sirdaryo suvini ikki terak bo‘yi balandlikka ko‘tarib turgan bosh to‘g‘on ustidan o‘tib ketganini ham sezmedi. Daru dunyosi qorong‘ilashib ketdi. Oydin. Kelin o‘g‘il tug‘ibdi. ...lentaning oxirida «Sen meni qiziqtirmaysan» mazmunidagi so‘zlar uchrardi va dunyosini qorong‘ilashtirib, hamma fikrlarini chalkashtirib yuborar edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

daru dunyo(si)ni qorong‘i qilib yubormoq: daru dunyo(si) qorong‘i bo‘ldi

darvoza(si)ning turmini buzmoq: eshig(i)ning turmini buzmoq

darvoza(si)ning turmini teshmoq: eshig(i)ning turmini buzmoq

DARXON ETMOQ (yoki QILMOQ) muayyan ish, mansab yoki jismoniy mehnatdan ozod qilmoq; bo‘shatmoq.

Bosh vazirni mansabidan darxon etolmasligini Isfandiyor biladi. S.Siyoyev. Avaz.

daryo toshsa, suvi to‘pig‘iga chiqmaydi: dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi

DARYODAN BIR TOMCHI qolgan qismiga nisbatan mutlaqo oz. Varianti: **daryodan tomchi.**

Bu aytganlarim daryodan bir tomchigina. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar. *Lekin ularning u ro‘zadan bu ro‘zaga beradigan sadaqasi daryodan tomchi emasmi?!* Oybek. Qutlug‘ qon.

daryodan tomchi: daryodan bir tomchi

DARYOGA OBORIB SUG‘ORMAY KELMOQ kim? kimni? aldamoq, hiyla ishlatmoq, juda ayyor kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Varianti: **daryoga ho‘l olib borib, quruq qaytarib kelmoq, daryoning labiga olib borib, quruq qaytarib kelmoq.**

– *Unday demang, Xudo haqqi, unday demang! Savdo masalasida to‘g‘ri, yuz kishini daryoga oborib, sug‘ormay qaytarib kelishim mumkin. Lekin siyosat masalasida – yo‘q. Sharq yulduzi. Qo‘liga tushib qolsangiz, qorani oq, oqni qora qilib o‘tkazadi, imoni yo‘qlar! Daryoning labiga olib borib, quruq olib kelishadi.* S.Abduqahhorov. Qo‘shnilar.

daryoga ho‘l olib borib, quruq qaytarib kelmoq: daryoga oborib sug‘ormay kelmoq

daryoning labiga olib borib, qu-ruq qaytarib kelmoq: daryoga obo-rib sug'ormay kelmoq

DASTAK BO'LMOQ bahona bo'lmoq.

Homidning bu gapi unga katta dastak bo'ldi. A.Qahhor. Sarob.

DASTAK QILMOQ bahona qilmoq.

Mahkamaga borib Hakim boyvachchaning obro'sini dastak qilaman. Oybek. Qutlug' qon.

dastasini o'zidan chiqarmoq: sopini o'zidan chiqarmoq

DASTMOYA BO'LMOQ bahona topilmoq.

Bultur ishimning o'ngidan kelmagani bu yil sizga dastmoya bo'lib qoldimi! N.Safarov. Oliyaxon Sultonova.

DASTURXON QILMOQ 1 meh-monga yoki to'yga borganda olib bo-riladigan narsalar;

Qaynonam ovsinimga meh-monga borish uchun dasturxon qilishni aytib, o'zi qo'shning oldiga chiqib ko'ngil yozdi. So'zlashuv nutqidan.

2 bir gapni har qayerlarda har kim-larga gapirib, doston qilib yurmoq.

Siz kimga yaxshi ko'rinmoqchi edingiz, yolg'on gapni dasturxon qilib yuribsiz? P.Qodirov. Qadrim.

dasturxon tayyorlamoq: dastur-xon tuzamoq

DASTURXON TUZAMOQ meh-mon kutganda, dasturxonga har xil narsalarni qo'yimoq.

Bir zumdandan keyin yana qaytib kirdi-da: «Qozi, imom, ellikboshi sovchilikka kelibdi, darrov dasturxon tuzang-lar» dedi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

dasturxon yasatmoq: dasturxon tuzamoq

DASTURXONGA QARAB O'TI-RING dasturxonga qo'yilgan narsa-lardan yeb o'tirishga undash.

«Saidaxon, dasturxonga qarab o'tirsangiz-chi!» deb qistab qo'yib, yana o'tmishdagi xizmatlardan gap ochdi. A.Qahhor. Sinchalak.

DASTYORI BEMINNAT oila-da qo'ldan kelgan ishni bajarib, kat-talarning og'irini yengil qiluvchi bola.

Bolalaringiz ham dastyori bemin-nat bo'lib qolibdimi deyman, Sobir aka. – Ha, nimasini aytasiz... Sharq yulduzi.

davlat qushi boshiga qo'nmoq: boshiga baxat qushi qo'nmoq

DAVLAT YIG'MOQ kim? boyi-moq.

...yer-suv orttir, davlat orttir, uylan-joylan, Ibrat olgil yon qo'shni-miz Sharif boydan. G'.G'ulom, Ko'kan.

davlatningiz ko'lankasida: davla-tingiz soyasida

davlat(lari) soyasida: davlat(lari)-ning soyasida

DAVLAT(LARI)NING SOYASI-DA kimning? himoyasi ostida, rah-namoligida. Varianti: **davlat(lari) so-yasida; soya(lari)da.**

Ha, shu davlatningizning soyasi-da yuribmiz, taqsir. P.Qodirov. Uch ildiz. *Yo'g'e, davlatlari soyasida, inshoollo!* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Biz bo'lsak soyangizda rizqimizni te-rib yeb yuraveraylik!* S.Anorboyev. Oqsoy.

DAVOSINI TOPMOQ ilojini qil-moq; tuzalmoq, sog'aymoq.

– Hozir davosini topaman, – dedi-da, do'konga yugurdi. I.Rahim. Ixlos.

DAVR SURMOQ kim? 1 («hukmdor») hukmronlik qilib rohat-farog'atda yashamoq.

Xo 'p podsholar davr surgan ekan-da-ya! P.Tursun. O'qituvchi.

2 o'z erki bilan yashab, mehnatining natijasidan to'liq bahramand bo'lmoq. Varianti: **davr(i)ni surmoq** kim? [*o'zining*]

Zomin tog'larining ko'm-ko'k yonbag'irlari, ko'z ilg'amas yerlarga-chayin etak yoygan maysalari chorvadorlarning umr bo'yi davr surgan bo'stonidir. G'.G'ulom. Netay. Zamon yoshlariniki. Davrini surib, qandini urishaversin. I.Rahim. Ixlos.

davr(i)ni surmoq: davr surmoq

DAVRA OLMOQ (yoki **YASAMOQ, QURMOQ**) 1 doira shaklida tizilmoq; qurshov olib o'tirmoq.

Sakkiz yuz odam har tarafdin davra olib, kiyikni tutmoqchi bo'ldi.

DAVRI O'TMOQ kimning? yoki nimaning? obro'sizlanib qolmoq, aytganini qildir olmaslik.

Mahamadsherning endi davri o'tib qolgan edi. S.Anorboyev. Sayli.

davr-u davron surmoq: davr surmoq

DASHNOM BERMOQ kim? kimga? nojo'ya ishi, xatti-harakati uchun achchiq gap, tanbeh so'zlari aytmq. Sinonimi: **dakki bermoq** kim? kimga? Antonimi: **dakki yemoq** kim? kimdan?

Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta «ta'bir joyiz ko'rilsa» demadi. A.Qah-

hor. San'atkor. «Ko'rdingmi, qizim, mana shu kiygan narsang ipakdan, tut bargidan bo'lgan», – deb qizga dashnom bera boshladi. Roziya xola. N.Nazarov. Zamon.

degan(i) – degan, aytgan(i) – aytgan: aytgan(i) – aytgan, degan(i) – degan

degan(i) degan: aytgan(i) aytgan, degan(i) – degan

DEVONA BO'LMOQ kim? nima qilishini bilmay, sarson bo'lmoq.

Ey, dilrabo ishqing bilan devona bo'ldim sog'inib, Bulbul kabi tun kechalar giriyona bo'ldim sog'inib. Hamza.

DEVONA QILMOQ kim? kimni? kuydirmoq.

Qo'y gapirma, topgan qizing meni devona qiladiganga o'xshaydi. Har kuni bir qiliq chiqaradi. Sharq yulduzi.

DEVONALIK QILMOQ kim? bilib-bilmaslikka solib hazillashmoq, laqillatmoq; yengillik qilmoq.

Devonalik qilma, qizim, Boyning aytganiga ko'nsang, og'ziburning moy bo'ladi... Sharq yulduzi.

DEVOR BO'LIB QOLMOQ kim? qo'rqinch yoki hayratdan rangi oqarib serrayib turmoq. Sinonimi: **qotib qolmoq; taxtaday (yog'ochday) qotmoq.**

Bir zumdan keyin yana qaytib kirdi-da: «...darrov dasturxon tuzanglar» – dedi. Hayotxon rang-pangi o'chib devor bo'lib qotib qoldi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

DEVOR BO'LSA HAM KO'CHANI KO'RADI juda ayyor, o'z ishiga puxta odam.

Kecha siz bilan kelayotgan kishi anoyi emas. Devor bo'lsa ham ko'chani ko'radigan, pixini yorgan odam ko'rinadi... Mushtum.

DEVORGA TANBUR CHERTGANDAY kim? bironing gapi, nasihat e'tiborsiz qolganda ishlatiladigan ibora. Varianti: **qulog'iga tanbur chertganday.**

Madina hech narsani eshitmas, onasining so'zlari devorga tanbur chertganday edi. Ammo ona buni tushunishni xohlamas, qiziga nasihat qilishdan to'xtamasdi. So'zlashuv uslubi.

DEVORGA TAQAMOQ shoshirib, gangitib qo'ymoq; taslim bo'lishga majbur qilmoq.

Bora-bora Qoracha Hojibning hazillari siyqalashib, hammaning ensasini qotira boshladi. Oysuluv esa yangi-yangi so'zlar, o'xshatishlar topib, raqibini devorga taqab qo'ydi. M.Osim. O'tror.

DEVORNING KOVAGIDA YOTMOQ kim? odamlarga aralashmaslik.

Biz devorning kovagida yotgan bir odam-da. O'zimiz kim-u, ismimiz nima bo'lar edi... A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

DID(I) BALAND kimning? go'zallikni, nafislikni his etishi o'ta taraqqiy qilgan.

Kirgan kishiga eng avval uy egalaringining didi baland ekanligi, toza, pok hayot kechirishlari ko'zga chalinardi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. U ro'parasida didi baland, o'z ideasiga qattiq ishongan va uni dadil himoya qiladigan yigit o'tirganini his etdi. S.Nazar. Yashil boylik.

DIDIGA TO'G'RI KELMOQ yoqtirmoq.

Ma'qul, ma'qul didimga to'g'ri keldi. Oybek. Bolalik.

DIDI YO'Q tanlay olmaydigan kishi.

O'g'limiz biroz didi yo'qroq bunaqa narsalarga, aybga qo'shmaysiz... Saodat.

DID(I)GA O'TIRMASLIK kim? kimning? yoqinqiramaslik, ma'qul kelmaslik.

Lekin yolg'iz bitta odam – inspektor Orif Saidov uning didiga o'tirmay qolgan. A.Muhiddin. Qitmir. E boring-e, bizning didga o'tiradigan qizlar hali onasidan tug'ilmagan bo'lsa nima qilaylik... Sharq yulduzi.

DIDINI BERMOQ o'xshab ketmoq, o'xshab ko'rinmoq.

O'zi yosh bo'lsa ham oltmish yashar cholning didini beradi. Mirmuhsin. Degrez o'g'li.

DIDINGGA QOYILMAN tanlashingga ofarin; tanlashni bilmabsan (piching).

E didingizga qoyilman, Sobirjon. Bozorga borib shu piyozni ko'tarib keldingizmi? O'zbekiston madaniyati.

dil tortar: ko'ngl(i) tortdi

dil(i) boshqa, til(i) boshqa: til(i) boshqa, dil(i) boshqa

dil(i) g'ash bo'ldi: ko'ngl(i) g'ash bo'ldi

dil(i) g'ash: ko'ngl(i) g'ash

dil(i) kabob bo'ldi: bag'r(i)ni kabob qilmoq

dil(i) ochildi: bahr(i)ni ochmoq

dil(i) og'ridi: ko'ngl(i) og'ridi

dil(i) qon: bag'r(i) qon

DIL(I) SIYOH BO'LDI kimning? – **DIL(I)NI SIYOH QILMOQ**

kim? yoki *nima?* *kimning?* xafa bo'lmoq. Varianti: **ko'ngl(i) qora bo'ldi** – **ko'ngl(i)ni qora qilmoq** (oz ishlatiladi).

Qorasochning dili siyoh bo'lib, birdan xo'rligi keldi. S.Anorboyev. Jasorat. *Ayniqsa hosilotning majlisida «takasaltang», «nomard» degani uning qorniga qoziq qoqqandek dilini siyoh qildi.* S.Ahmad. Qaytish. *Shunday qilib desangiz, kecha mana shunaqangi dili siyohlik bo'lib o'tgan. Hozir ko'chaga chiqib shularni o'ylab yuragim qisilib ketdi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

DIL(I) SIYOH *kimning?* xafa. Sinonimi: **dil(i)da siyohlik bor kimning?**

Tongdan buyon dilim siyoh... Yomon tush ko'rdim. Oybek. Quyosh qoraymas.

dil(i) tortgan: ko'ngl(i) tortdi

dil(i) vayron bo'ldi: ko'ngl(i) vayron bo'ldi

dili xiralik: ko'ngl(i) xira

DILI (yoki **KO'NGLI, TA'BI**) **XUFTON** ko'ngli g'ash; xafa.

Bo'ringing dili xufton bo'ldi. T.Murod. Qo'shiq. *Ko'nglim birdan xufton bo'lib, o'zimni haqoratlangandek sezdim.* M.Qoriyev. Oydin kechalar.

dil(i) yoridi: ko'ngl(i) yorishdi

dil(i) yorishdi: ko'ngl(i) yorishdi

DILIDA KIRI YO'Q *kimning?* g'arazsiz.

Axir, o'zing kimsan? – Men dilida kiri yo'q, ma'qulgina odamman, ammo qarolday kambag'alman. Sharq yulduzi.

DIL(I)DA SIYOHLIK BOR *kimning?* xafa. Sinonimi: **dil(i) siyoh kimning?**

Yo tanida noxushlik, yoxud dilida siyohlik bordir? M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

DILIDA TUTMOQ *kim?* biron fikrni gapirmay, hech kimga bildirmay yurish.

Dod-voyning keragi yo'q, dedi qat'iy ellikboshi, – bu sirni dilingda tut. Uch-to'rt kun ichida daragi chiqib qoladi. Oybek. Qutlug' qon.

dil(i)dan kechmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

dil(i)dan o'tkazmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

dil(i)dan o'tmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

DILIDAN CHIQARMOQ o'z roziligi bilan berishni ma'qul ko'rmoq.

Salimjon yo'lda ketayotganda gadoyga besh-to'rt tangani dilidan chiqarib uzatdi... Sharq yulduzi.

DIL(I)GA JO QILIB OLMOQ *kim? nimani?* hech qachon unutmaydigan qilib mustahkamlamoq. Varianti: **qalb(i)ga jo qilib olmoq.**

G'ulomjon bir ko'rishda diliga jo qilib olgan dilbar siymoni ko'rdi-yu, birdan vujudida yugurgan nest qiluvchi qaltiroqdan o'zini yo'qotib qo'ya yozdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *...bu yangi so'zni takrorladi, bu takrorlash bilan qalbiga jo qilib oldi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

dil(i)ga solmoq: ko'ngl(i)ga solmoq

dil(i)ga tugmoq: ko'ngl(i)ga tugmoq

dil(i)ni og'ritmoq: ko'ngl(i) og'ridi

DILINI RAVSHAN QILMOQ *kimning?* xursand qilmoq.

Yomg'irdan keying musaffo havo Qumrining dilini ravshan qilgandek bo'ldi. S.Ahmad. Oydin kechalar.

dil(i)ni siyoh qilmoq: dil(i) siyoh bo'ldi

dil(i)ni tirnamoq: yurag(i)ni tirnamoq

DILINI VAYRON QILMOQ ishonchini poymol qilmoq; o'ta ranjimoq.

Dilingni vayron qilganman, yuragingda uyg'onib kelayotgan birinchi muhabbat hislarini oyoq ostiga olib tepkilaganman. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman.

dil(i)ni xira qilmoq: ko'ngl(i)ni xira qilmoq

dil(i)ni g'ash qilmoq: ko'ngl(i) g'ash bo'ldi

dilga solmoq: ko'ngl(i)ga solmoq

dilga tugmoq: ko'ngl(i)ga tugmoq

DIMOG' BILAN GAPIRMOQ

kim? kimga? kekkayib so'zlamog.

Mansabga o'tirganiga sal bo'ldiyu, dimog' bilan gapiradi-ya, xumpar. Mushtum.

DIMOG'(I) BALAND kimning? kibr-havoli, kekkaygan, kalondimog'.

Yo'q. Sal fursatda insofga kelib, ishga sho'ng'ib ketdi. Ammo lekin dimog'i baland. Birov buyurgan ishni qilmaydilar. S.Ahmad. Cho'l burgut. Bir oy sog'inib yashaydi keyin. Komil degan nom o'chadi, butunlay o'chadi. Dimog'i baland edi-ya, men uni kurortga yuboribman-u, u meni fosh qilmoqchi bo'libdi. T.Malik. Charxpalak.

DIMOG'I KUYMOQ kimning? xafa.

Xo'sh, yana dimog'ingiz kuygan ko'rinadimi? Uyg'un. Qaltis hazil.

DIMOG'(I) CHOG' BO'LDI kimning? [nimadan?] – **DIMOG'(I)-NI CHOG' QILMOQ** kim? (o'zining) kayfiyati yaxshilandi. Sinonimi: **bahr(i)ni ochmoq** nima? kimning? yoki kim? kimning? nima bilan? – **bahr(i) ochildi** kimning? nimadan? **kayf(i) chog' bo'ldi** kimning? nimadan? – **kayf(i)ni chog' qilmoq** nima? kimning?

«Xayriyat», – dedi mulla. Endi dimog'i biroz chog' bo'lgan edi. S.Ayniy. Qullar. Bugun chap yoning bilan turganga o'xshaysan, buni hidlab, dimog'ingni chog' qil. H.Nazir. Odamning qadri.

DIMOG'(I) CHOG' kimning? kayfiyati yaxshi. Varianti: **dimog'lar chog'(-)**. Sinonimi: **kayf(i) chog' kimning? vaqt(i) chog' kimning? ko'ngil chog' (-)**.

Xo'sh, tinchmisiz? Dimog'ingiz chog'mi? A.Qahhor. Sarob. «Qalay, dimog'laring chog'mi?» – so'radi u. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Hech kimning beli ham og'rimadi, yuragiga qil sig'maydigan payti ham bo'lmadi, aksincha, hamma sog', dimog'lar chog' edi. A.Qahhor. Kampirlar sim qoqdi.

dimog'(i) ko'tarildi: burn(i)ni ko'tarmoq

DIMOG'(I) SHISHDI kimning? (nimadan?) – **DIMOG'(I)NI SHISHIRMOQ** nima? kimning? kibrlanmoq, gerdaymoq. Varianti: **shishib ketgan (-)**. Sinonimi: **burn(i) ko'tarildi** kimning?

«Direktor bo'lganidan keyin dimog'i shishib ketibdi» degan ma'noda gap boshlayman. S.Zunnunova. Yangi direktor. Bu bezotning dimo-

g'ini shishirgan shu narsa! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

DIMOG'(I)DA OSH PISHADI *kimning?* o'ta darajada kekkayib, kibr-havoli bo'lmoq. Sinonimi: **dimog'(i)ga qurt tushdi kimning? dimog'(i)dan eshak qurti yog'iladi kimning? dam(i)da osh pishadi kimning?**

Ahmad Rustamov Pyotr Mixaylovichning nevarasi bilan teng. Hali uning mingdan bir ishini ham qilgani yo'q. Ammo uning dimog'ida osh pishadi. I.Rahim. Olovkor.

DIMOG'IGA SUV PURKAMOQ kekkayishga, takabburlanishga vosita bo'lish.

Bunaqa kishilarning dimog'iga kim suv purkab qo'yarkin?! Mushtum.

DIMOG'(I)DAN ESHAK QURTI YOG'ILADI *kimning?* o'ta darajada kekkayib, kibr-havoli bo'lmoq. Varianti: **burn(i)dan eshak qurti yog'iladi.** Sinonimi: **dimog'(i)ga qurt tushdi kimning? dimog'(i)da osh pishadi kimning? dam(i)da osh pishadi kimning?**

Boboxo'ja domla mudirlik vazifasiga o'tgandan beri, qorovul aytganicha, dimog'idan eshak qurti yog'iladigan bo'lib qolgan edi. P.Tursun. O'qituvchi.

DIMOG'IDAN KO'TARMOQ [dimağidan kötär=] tar. *kim? nima-ni?? unutmog, voz kechmog.*

Ey o'g'lum, bu xayoli muholni dimog'ingdan ko'targil, qanoat ayog'in salomat etakina chekib o'turg'il! S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DIMOG'IDAN QOR YOG'MOQ *kimning?* xomush o'tirmog, xafa bo'lib yurmog.

...u har kirib chiqqanida bir et-bir

et tushar, dimog'idan qor yog'ar va alamiga chiday olmasdan po'ng'illab o'tardi. H.Shams. Dushman.

DIMOG'(I)GA QURT TUSHDI *kimning?* o'ta darajada kekkayib, kibr-havoli bo'lmoq. Sinonimi: **dimog'(i)dan eshak qurti yog'iladi kimning? dimog'(i)da osh pishadi kimning? dam(i)da osh pishadi kimning?**

...mudarris o'ziga mahram qilib oldi. Ana shundan keyin Mamarayim afandining dimog'iga qurt tushdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

dimog'(i)ni chog' qilmoq: dimog'(i) chog' bo'ldi

dimog'(i)ni shishirmog: dimog'(i) shishdi

dimoglar chog': dimog'(i) chog'
DININI YUTMOQ ko'ra-bila yolg'on gapirmog.

E qo'ysangchi, Ahmadjon arzimas narsa uchun dinini yutarmidi? Sharq yulduzi.

DIQQAT BO'LMOQ bo'g'ilmog, siqilmog; zerikmog.

Shu bugun kechqurun haligiday diqqat bo'lib o'tirganida, yana Lato-fatxon esiga tushib, bir fikrga keldi. A.Qahhor. Asarlar.

DIQQAT QILMOQ *kim?* asabiy-lashtirmog.

Shunchalik gap ekan, muncha o'zini ham diqqat qilib, xizmatchilarini ham ortiq bog'masa... S.Abdulla. O'rtoq Xolnazarov.

DIQQATI OSHDI *kimning?* [nimadan?] – **DIQQAT(I)NI OSHIRMOQ** *kim? kimning?* yomon kayfiyati, xafaligi, xunoblighi kuchaydi.

Bek o'z nufuzini yo'qotib borayotganidan diqqati oshib, ich-etini yeb

yurgan bir paytda nahotki ziyofatga boshlab kelingan hofizlar ham josuslar bo'lib chiqsa, astag'furullo. Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Shu kunlari onaning juda diqqati oshgan, chunki bir og'iz solingandan keyin jimjit, suv quyganday, fotiha ham yo'q.* Oybek. Nur qidirib. *Barno ortiqcha kuttirib, hammaning diqqatini oshirganini bilib... boshqasini so'ray qoling», dedi yalingansimon.* H. Nazir. O'jar qizlar.

diqqat(i)ni jalb qilmoq: diqqat(i)-ni tortmoq

diqqat(i)ni oshirmoq: diqqat(i) oshdi

DIQQAT(I)NI TORTMOQ kim? kimning? o'ziga; kim? kimning? nima-ga? nima? kimning? [o'ziga] nazari-ni, fikrini qaratmoq. Varianti: **diqqat(i)ni jalb qilmoq** kim? kimning? [o'ziga]; nima? kimning? [o'ziga]; **e'tibor(i)ni tortmoq** kim? kimning? kimga? yoki o'ziga; nima? kimning? [o'ziga] **e'tibor(i)ni jalb qilmoq** nima? kimning? [o'ziga]

Bu so'roq Botirning diqqatini tort-ta boshladi. S. Nazar. Yashil boylik. *Martaba, boylik uni boshqa hamma erkaklardan ajratishi, Munisxonning diqqatini jalb qiladigan o'ringa qo'yishi kerak edi.* A. Qahhor. Sarob. *So'ng chetdagilarning e'tiborini o'ziga tortmaslik uchun gapni to'xtatdi.* Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Yozuv tushgacha o'tgan-ketganning e'tiborini o'ziga tortib paykalning boshida turdi.* P. Qodirov. Uch ildiz. *Siddiqjonning sobiq xotini kelib qilgan mojar o'sha vaqtda odamlarning e'tiborini uncha tortmagan bo'lsa ham, bu mojar qorining ming bir qilmishidan*

biri ekanligi ma'lum bo'lgandan keyin og'izga tushib ketdi. A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

DIQQINAFAS BO'LMOQ kim? yuragi siqilib asabiylashmoq; bo'g'ilmoq; xunob bo'lmoq, xunobi oshmoq; zerikmoq.

Kasaldan so'ng diqqinafas bo'lib yurgan Hafiza erta bilan odatdagidek o'qishga bordi. Mirmuhsin. Umid.

DIQQINAFAS QILMOQ nima? kimni? juda zeriktirmoq, bezor qilmoq.

To'g'risini aytganda, bunday mehmondorchiliklar Anzirat xolani toza diqqinafas qilayotgan edi. Sharq yulduzi.

DIYDA(SI) QATTIQ kimning? be-rahm, bemehr; ko'ziga yosh kelmaydi.

Cho'lda musofirchilikda diydasi qattiq bo'lib qolibmanmi, do'stlarim qarab turgani uchunmi, dadam singari ko'z yoshi to'kmadim. I. Rahim. Olovkor.

DIYDA(SI) QOTIB QOLGAN kimning? ko'raverib ko'nikkanidan ko'ziga yosh kelmaydigan bo'lib qolgan. Sinonimi: **qarog'i qotmoq.**

U vaqt ...akamni otdilar; otam surgunda o'ldi... O'shanda o'limni ko'raverib, diydam qotib qolgan ekanmi... A. Muxtor. Opa-singillar.

DIYDA(SI) USTIDA SAQLAMOQ kim? [o'zining?] kimni? yuk-sak darajada ardoqlamoq.

Haligacha jirkanib, xo'r tutilgan o'g'limga ham hech kim shamol-ni ravo ko'rmay, diydasining ustida saqlab, hurmat qiladigan bo'lib qoldi. G'. G'ulom. Yodgor.

DIYDA USTIGA marhamat, bosh ustiga, xush kelibsiz.

Sizning bilan bo'lsin endi davronim, Diydarning ustiga, aziz mehmonim. Shirin bilan Shakar.

DIYDASI BO'SH kimning? ko'ngli bo'sh, rahmdil, yig'loqi. Antonimi: **diydası qattiq**.

To'g'ri, biz xotinlarning diydami bo'shroq bo'ladi, ba'zan yig'lab yurakni bo'shatadi. Shuhrat. Shinelli yillar.

DIYDASI QATTIQ kimning? ko'ngli qattiq, berahm; ko'ziga yosh kelmaydigan.

Men erkaklarning diydasi qattiq bo'ladi deb eshitar, o'zim ham shunga ishonar edim. M.Ismoilıy. Farg'ona tong otguncha.

DIYDOR G'ANIMAT o'tkinchi dunyoda tez-tez ko'rishib uchrashib turish kerakligi ma'nosida ishlatiladigan ibora.

Odam omonat, diydor – g'animat. Maqol. Bu gaplarni qo'ying, jonim. Diydor g'animat, bu besh kunlik dunyoda o'ynab-kulaylik. Sharq yulduzi.

DIYDOR KO'RISHMOQ kimlar? kim? kim bilan? bir-birini orada ancha vaqt o'tgandan keyin ko'rmoq.

«Xayr, yaxshi boring! – Hanifa ham qo'lini silkidi. – Diydor ko'rishguncha». Sh.Toshmatov. Erk qushi. Usmon ota diydor ko'rishish ishtiyoqida sabri tugab, otiga qamchi bosdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

DIYDOR(I)GA MUYASSAR ETMOQ kimning? diydor ko'rsatmoq, yuz ko'rsatmoq.

Oxiri o'z diydoriga muyassar qilgan qutlug' va sharaflı kun keldi. Shuhrat. Shinelli yillar.

DIYDOR(I)GA TO'YMOQ kim? kimning? sog'ingan kishisi bilan qoniq-quncha yuzma-yuz birga bo'lmoq.

Voy bolam-ey, kelganingdan buyon ko'chadan beri kelmaysan-a, bundoq birpasgina diydoringga to'yib gaplasholmayman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Dadasi kelgandan beri qimir etmay, doim shu taxlitda, bir-birlarining diydoriga to'ymay, bir-biriga termilishib o'tirishgan bo'lsa kerak. S.Anorboyev. Oqsoy.

DIYDOR(I)GA ZOR BO'LMOQ kim? kimning? o'ziga yaqin, sog'ingan insonini ko'rishga mushtoq bo'lmoq.

Lekin faqat diydoringga bo'lib zor To'planishdik hamma ortiq beqaror. H.Olimjon. Sening sovuq diydoringga unchalik zor emas edim. G'G'ulom. Shum bola.

DIYONATINI YUTMOQ kim? vijdotsizlik qilmoq, vijdotsizlarcha ish tutmoq.

Men hali diyonatimni yutgan emasman, menda ham insof bor, vijdon bor... S.Ahmad. Sud.

DOD SOLMOQ kim? dod-voy qilmoq, qichqirmoq. Varianti: **dod ustiga dod solmoq**.

Nega oyim: «Dod solaman», – dedi-yu, keyin jim bo'lib qoldi? Sh.Toshmatov. Erk qushi. Begona xotin ayvonga chiqib, dod ustiga dod soldi. A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

dod ustiga dod solmoq: dod solmoq

DODIGA YETMOQ kimning? arzini tinglamoq, yordam bermoq.

Biz kambag'allarning dodiga kim yetarkin... N.Safarov. Navro'z.

DOD(I)NI BERMOQ *kim? kimning?* haqqoniy ravishda jazolamoq.

To 'xtab tursin, hali uyga borar-ku, bir dodini beray deyman. O 'z-o 'zim bilan so 'zlashaman. Oydin. Sadag 'ang bo 'lay, komandir. Bo 'taboy ancha ish ko 'rgan, ko 'p kurashlarda chiniqqan. Yorqishloqliklarning ta 'biri bilan aytganda, «islohotda mushtumzo 'rlarning dodini bergan» yigit edi. S.Ahmad. Hukm.

2 *nimalarning* qirib tashlamoq, ko 'plab o 'ldirmoq.

Olimjon aka, juda merganga o 'xshaysiz, qushlarning dodini beribsiz, kasbingiz ovchilik deyman? Oydin. Ikki ko 'zi shunda.

3 *kimlarning?* mag 'lub qilmoq, qatorasiga yutmoq.

Yaqinda Toshkentda milliy kurash bo 'yicha musobaqa bo 'ladimi? O 'shanga borsam, bir qozog 'istonlik polvon kurashda, hammaning dodini beryapti. S.Anorboyev. Oqsoy.

4 *kimning?oh-voh* qilishiga olib kelmoq.

Tilini moylab, ko 'zingni boylab, uyingga kirib olgach, dodingni bermasmikin. I.Rahim. Ixlos. Ular chindan ham bir haftadan beri ... sherdek olishib, nechasining jonini jahannamga yuborib, uyasiga o 't qo 'yib, dodini berib yurishgan ekan-ku. O.Yoqubov. Ota izidan.

DOM-DARAKSIZ KETMOQ *kim? yo 'qolib ketmoq, yo 'q bo 'lib ketmoq.*

Uch kun dom-daraksiz yo 'qolib ketdingiz. Oybek. Bolalik.

DOMI HAM YO 'Q, DARAGI HAM YO 'Q *kimning?* butunlay xabarsiz ketmoq.

O 'shandan beri uning domi ham yo 'q, daragi ham yo 'q. U.Ismoilov. Rustam.

DOMIGA ILINMOQ *kimning?* ta 'sir doirasida bo 'lmoq. Sinonimi: **domiga tushmoq.**

Ahmoq bo 'lmasam shularning hiylasiga laqqa tusharmidim, Akramning domiga ilinarmidim. O.Yoqubov. Aytсам tilim kuyadi, aytmasam – dilim.

domiga tushmoq: domiga ilinmoq

DOMINGIZDIN QUTULMAS [damingizdin qutulma=] tar. *kim? yoki nima? kimning?* asirlikdan chiqa olmaslik.

Vale ko 'ngul qutulmas domingizdin, Qamuq shakkar tomar dashnomingizdin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

DON OLISHMOQ *kim? kim bilan?* yaqin aloqada bo 'lmoq, yaqindan aloqa bog 'lamoq.

... qishloqdagi Oynisa degan qiz bilan don olishib yurgan edi. S.Ahmad. Cho 'l burguti. Qiz bilan don olishgan yigit kim? Oybek. Qutlug 'qon.

DONG ' (I) CHIQDI *kimning?* **DONG ' CHIQARMOQ** *kim? nima bilan? yoki nimada?* ma 'lum mashhur bo 'lmoq. Sinonimi: **nom(i) chiqdi** *kimning?* **nom chiqarmoq** *kim?* **dong '(i) ketdi** *kimning?*

Bu yerda uni hamma biladi. Tuproq qazishda azamatligi bilan dong chiqargan. Oydin. Kelin o 'g 'il tug 'ibdi. Beshyog 'och yigitlari ko 'ppaklar

boqishda dong chiqargan. G'.G'ulom. Ikki janggoh.

dong'(i) Dog'iston ketdi: dong'(i) ketdi

DONG'(I) KETDI *kimning? ma'lum mashhur bo'lmoq. Varianti: dong'(i) Dog'iston ketdi, dovrug'(i) ketdi. Sinonimi: dong'(i) chiqdi kimning? dong chiqarmoq kim? nima bilan? yoki nimada? nom(i) chiqdi kimning? nom chiqarmoq kim? dovrug'i doston bo'lmoq, dovrug' solmoq.*

Ba'zi bemorlarni, yara-chaqani suvda davolagach, unga ixlos kuchaydi. Atrofga uning dong'i ketdi. I.Rahim. Olovkor. Bersa, shunday odamga beradi. Qayeri kam? Kimsan dong'i ketgan Rixsiboy hosildorning o'g'li-ya. R.Fayziy. Cho'lda bahor keldi.

DORDAN QOCHGAN *kim? fi-ribgar, qallob, yaramas, muttaham.*

Ha, rostda! Buxgaltering muttaha- ham!..Zavxozlaring o'g'ri!.. Ekspedi- torlaring dordan qochgan!! Uyg'un. Navbahor.

DORIGA HAM TOPILMAYDI *nima? noyob, hech yo'q; sira ham yo'q.*

Kecha siz aytgan narsa doriga ham topilmaydiganga o'xshaydi... Sharq yulduzi.

DOSTON BO'LMOQ *kimning? shuhrati keng yoyilmoq; og'izga tushmoq.*

Nomi tillarda doston bo'lgan rus olimlarining kelishini Feruza sabrsizlik bilan kutdi. H.G'ulom. Senga intilaman.

dong qotdi: dong qotmoq

dong chiqarmoq: dong(i) chiqdi

doqiyunusdan beri: daqyonusdan beri

doqiyunusdan qolgan: daqyonus- dan qolgan

dosh bermoq: bardosh bermoq

dov berolmay: yurag(i) dov ber- madi

DOV-DASTGOHNI YIG'ISH- TIRMOQ (yoki **KO'TARMOQ**) *kim? ketishga hozirlanmoq. Varianti: tax- ta-o'qlog'ini yig'ishtirmoq.*

[Shokir] «Povurkon» mollari har yoqni to'ldirib, kosiblarning bozo- rini kasod qilganligi, ishi chippakka chiqqan kosiblar birin-ketin «taxta- o'qlog'ini» yig'ishtirayotganligi va hokazoni tasvirlab ketdi. Oybek. Tan- langan asarlar.

dovrug'i doston bo'lmoq: don- g'(i) ketdi

dovrug'(i) ketdi: dong'(i) ketdi

dovrug' solmoq: dong'(i) ketdi

DOG' TEKKIZMASLIK *kim? nimaga? badnom bo'lishiga, salbiy fikr tug'ilishiga yo'l qo'ymaslik. Va- rianti: dog' tegdirmaslik.*

Mahkam eshituvchilarni o'z gu- ruhlarining obro'siga dog' tekkizmas- likka chorlab «mehmon» so'zini ta'- kidlab aytdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Mahallamning birmuncha obro'li oda- miman, Olimxon aka. Alhamdulillah, shu vaqtgacha nomimga dog' tegdir- gan emasman. Oybek. Qutlug' qon.

DOG' TUSHDI *nimaga? – DOG' TUSHIRMOQ* *kim? nimaga? ijobiy holatga, mavqega zarar yetdi.*

Nomiga dog' tushgan kishining qizi ekanini o'ylagani sari so'nggi tax- mini ustun chiqardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Yo'q, – Nozima bosh chayqadi,

– kelinchakning sha'niga dog' tushishi mumkin. T.Malik. Charxpalak.

dog' tegdirmaslik: dog' tekkizmaslik

dog' tushirmoq: dog' tushdi

DOG'DA KUYMOQ kim? kimning? ruhiy azoblanmoq.

Tag'in boshqa bilan bo'lib, meni dog'da kuydirmang. K.Yashin. Yondiramiz.

dog'da qoldirmoq: dog'da qolmoq

DOG'DA QOLMOQ kim? biror narsaning kutilganicha bo'lmagani tufayli o'kinmoq, alamzada bo'lmoq. Varianti: **dog'da qoldirmoq** kim? kimni?

Shu qilganiga Sobirvoyga onasi o'pmagan qirq kokilni olib berayki, dog'da qolsin! A.Muhiddin. Ko'ngillar. O'yin boshlanishi bilan mehmonlar darhol hujumga o'tishdi-da, komandamizni dog'da qoldirib, darvozamizga boplab to'p urib qo'yishdi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

dom(i)ga ilinmoq: tuzog'(i)ga ilinmoq

DONG QOTIB kim? hech narsani sezmas darajada, qattiq (uxlamoq).

Yigitlar bo'lsa dong qotib uxlashardi. Mirmuhsin. Oq marmar. *Chol esa o'zining hikoyasi-yu achchiq-chuchuk gaplari bilan yosh yigitning qalbida chuqur muhabbat uyg'otganini bilmasdan dong qotib uxlaydi.* O.Yoqubov. Qahramon izlab.

dong qotib: dong qotmoq

DONG QOTMOQ I kim? kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo'lib qolmoq. Varianti: **dong qotib; dong qotmoq.**

Ko'chadan shu chog' kelgan Karimqulning nabirasi eshonni ko'rgach, bir lahza og'zini ochib dong qotdi. Oybek. Oltin vodiya shabaddalar. «...Lola tuzukmi, ayajon?» *Xotin turgan yerida dong qotib qoldi. Qunduz uni «ayajon» deb atadi...* S.Ahmad. Mehribon. *Buguncha birga yotmaylik, – dedi u. O'rin solayotgan Nozima yostiqliqni ushlaganicha dong qotdi.* T.Malik. Charxpalak.

DONG QOTMOQ II kim? hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq. Varianti: **dong qotib II.**

Juda charchagan ekan, yotdi-yu, dong qotdi. So'zlashuv uslubi. *U ariqning bo'yida, qanday yotgan bo'lsa o'shandayligicha dong qotib uxlab yotardi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

dud(i) osmonga chiqdi: tutun(i) osmonga chiqdi

DUM BERIB QOLMOQ kim? pishmoq, yetilmoq, tugab qolmoq (qarilarga oid).

Bu yil dumlaringiz tugiladigan yil. Vaqti-soatlaring tugab, palaklaring sarg'ayib, dum berib turibsizlar... Sharq yulduzi.

DUMIGA CHANGAL BOG'LANMOQ kim? kimning? qiyin ahvolga solmoq, azoblanmoq, qiynamoq...

Yerni suv buzadi, odamni – gap, daganlariday, shunaqa «dedi-qo'ydi»lar ko'paya bersa, o'zingizga ham, bizning dumimizga ham changal bog'laysiz. S.Ayniy. Doxunda.

DUMIGA QUMG'ON BOG'LANMOQ kim? holiga qaramay ish qilish.

...Shunchalik holing bor ekan, dumingga qumg'on bog'lashing nima hojat edi, deb kulaman. Egri to'nkaga



– egri to‘qmoq. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

DUMINI LIKILLATMOQ kim? xushomadgo‘ylik qilmoq.

Shunday ham odam bo‘ladimi, Satinboyvachcha, Sotvoldi oqsoqollarnikiga borganda, dumingizni likillatib, hammamni bir chetdan chaynab o‘tar emishsiz; gap keldi gapirdim. H.Shams. Dushman.

DUM(I)NI QISMOQ kim? kimning? yoki [o‘zining] qo‘rqitish natijasida faoliyat doirasini toraytirmoq.

Maskovga, Varshavaga va hokazo shaharlarga o‘zlari mol olib borsinlar; u yerlardan o‘zlari mol keltirsinlar deyman. O‘rtadagi shu yahudiy, o‘ris savdogarlarning dumini qisib qo‘yish kerak deyman. Oybek. Qutlug‘ qon. *Na tish-tirnoqlari, na farosati, na so‘zlari bilan ustun keldi. Laycha kabi dumini qisdi-yu, qochvordi.* T.Malik. Charxpalak.

DUM(I)NI TUGMOQ kim? kimning? qaytmas qilib haydamoq, quvmoq.

Bu yerdagi do‘stlari ham jim o‘tirmagandir: ... dumini tukkandir. A.Muxtor. Opa-singillar.

DUM(I)NI TUTQIZMASLIK kim? [o‘zining] yaqiniga yo‘latmay, ko‘rinmay yurmoq.

Dadam amaldan tushishi bilan Latifjon ham dumini tutqizmay qochib qoldi. S.Anorboyev. Yo‘llanma bilan. *Ishni pishiq qilmabsiz-ku, korchalon! Axir qiz na dumini tutqizadi, na so‘zimni tinglaydi.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

DUMI XURJUNDA kimning? yoki nimaning? o‘lda-jo‘lda, to‘mtoq, chatoq.

Jabr diydaning ham, guvohlarning ham dumi xurjunda gaplari... shunday savollar berilishini talab etardi. M.Ismoiliy. *Farg‘ona tong otguncha. Qayerda, qaysi kun o‘ldirilganligi ko‘rsatilmagan, boshqacha aytganda, xabarning dumi xurjunda.* Sh.Rizo. *Qor yog‘di, izlar bosildi.*

DUNYO BILAN VIDOLASHMOQ kim? o‘lmoq.

Ko‘klamga chiqar-chiqmas Salim bo‘yoqchining o‘zi ham dunyo bilan vidolashdi. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

DUNYO KO‘RMAGAN kim? hayot tajribasi bor, hamma narsani biladigan.

Boshqa xil tarbiya berishga men singari dunyo ko‘rmagan bo‘ydoq yigitning chorasi yo‘q... G‘.G‘ulom. Yodgor.

DUNYO KO‘Z(I)GA TOR kimning? chidab bo‘lmaydigan darajada diltang. Varianti: **ko‘z(i)ga dunyo tor, ko‘z(i)ga olam tor.**

Bo‘lmasa Matqovulning o‘ng qo‘shnisi Hasan so‘fi nima uchun besh bolasi bilan xor-u zor; muhtojlikdan dunyo ko‘ziga tor? M.Ismoiliy. *Farg‘ona tong otguncha. Eshon qizining bevoshligidan dunyo ko‘ziga tor bo‘lib turgan paytda Kozimbekning ko‘ngli boshqa qizda ekanini, Huriniso ahd-paymondan aynib, o‘g‘liga hech narsa demaganini eshitib chidolmadi – zahar ichdi.* A.Qahhor. Sinchalak.

DUNYO TARKIN URMOQ [dün-ja tarkin ur=] kim? uzlatga chekinmoq.

Bu dunyo tarkin urg‘on zohid erining, Qatinda bo‘lsa oltun tog‘ boqmas. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DUNYO YUZINI KO'RMOQ

kim? nima? tug'ilmoq, dunyoga kelmoq.

Sen dunyo yuzini ko'rib, chaqaloq ovozing jaranglagan kun sodda qishloq xotinlari bilan uyimizda kichkina bir to'y yasas edik. Oybek. Qutlug' qon.

dunyo(si)ni qorong'ilashtirib yubormoq: daru dunyo(si) qorong'ilashib ketdi

dunyoda o'tmoq: dunyodan o'tmoq

DUNYODAN KETMOQ *kim?* qazo qilmoq, o'lmoq. Varianti: **olamdan ketmoq; ketmoq.** Sinonimi: **dunyodan o'tmoq 2** *kim?* **ko'z(i)ni yummoq** *kim?* [*o'zining*]; **nafas(i) tindi kimning?** **oyog'(i)ni uzatmoq** *kim?* (*o'zining*); **engak tashlamoq** *kim?* Antonimi: **dunyoga kelmoq** *kim?* ba'zan *nima?* (jonli).

Rahmatlik Surmaxon olamdan ketayotib seni menga topshirganida... nasiyati yodimda. I.Rahim. Ixlos. *Afsus, ming afsuski, juda erta kelgan ekanman.. Juda-juda erta ketaman.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

DUNYODAN ETAK SILKIMOQ hayotning lazzatlaridan voz kechmoq.

U yoshligidan boshlab dunyodan etak silkib, odamlardan uzoqda, o'zining vahshiy tosh maskanida ibodat bilan mashg'ul edi. Oybek. Navoiy.

DUNYODAN KETMOQ [dunjadan ket=] tar. *kim?* o'lmoq, vafot etmoq.

Ikki kishi dunyodan ketti, dag'i hasrat nadomat eltti... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

DUNYODAN KECHMOQ mol-mulk kerak emas, demoq; umuman yashamaslikka ont ichmoq.

Bolani qaynatasiga topshirdi, o'zi bo'lsa dunyodan kechib, g'arbga ko'chib ketdi. Oydin. Hikoyalar.

dunyodan ko'z yummoq: ko'z(i)ni yummoq

DUNYODAN KO'Z(I) OCHIQ KETMOQ *kim?* [*o'zining*] qanoat hosil qilmay, rozi bo'lmay o'lmoq. Varianti: **ko'z(i) ochiq ketmoq.**

G'ulomdan alamimni chiqarib olmasam, dunyodan ko'zim ochiq ketadi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Chingizxon ham, uzoq umr ko'rgan bo'lishiga qaramay, joni chiqar mahalda: «Attang, ko'zim ochiq ketdi», – degan ekan.* S.Anorboyev. Oqsoy.

DUNYODAN TOQ O'TMOQ *kim?* umrini turmush qurmay o'tkazmoq. Varianti: **toq o'tmoq.**

«Aya, sira tashvish tortmang, – dedi Komila iljayib, – dunyodan toq o'tmasman, bir kunmas bir kun menga ham bir o'rtoq topilib qolar». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Endi shuki, dunyodan toq o'tib bo'lmaydi.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

DUNYODAN UMIDINI UZMOQ o'limiga rozi bo'lmoq.

U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. A.Qahhor. Muhabbat.

DUNYODAN O'TMOQ *kim?* I yashamoq. Varianti: **dunyoda o'tmoq; o'tavermoq.** Sinonimi: **umr ko'rmog** *kim?* **umr o'tkazmoq** *kim?* **turmush kechirmoq** *kim?*

O'rtaq sovuqchilik solib qo'yamiz. Farzandsiz odam dunyoda o't-

mabdimi?! H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Biz sho'ring qurg'urlar xudoga nima yozgan edik. Indamay o'ta bergan ekanmizda. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 qazo qilmoq, o'lmoq. Varianti: **olamdan o'tmoq; o'tib ketmoq**
I. Sinonimi: ko'zini yummoq kim? [o'zining] ko'z(i) yumildi kimning? dunyodan ketmoq kim? nafasi tindi kimning? oyog'(i)ni uzatmoq kim? [o'zining]; engak tashlamoq kim? Sinonimi: dunyoga kelmoq kim? ba'zan nima? (jonli).

Onam sho'rlik ham xudodan umid qila-qila yorug' kun ko'rmay dunyodan o'tdi. S.Zunnunova. Gulxan. O'sha kuni kechasi Rahmatulla Obidiy olamdan o'tdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Chol-kampir qarzni uzolmay o'tib ketsak, bitta-yu bitta o'g'limiz Ergash bo'ya umrbod mute bo'lib qoladi. A.Muxtor. Opa-singillar.

DUNYODAN CHIROQCHISIZ BORMOQ (O'TMOQ) kim? farzandsiz o'tmoq, befarzand qolmoq.

Bolam bechora dunyodan chiroqchisiz o'tib bormoqda. So'zlashuv uslubi.

DUNYOGA KELMOQ 1 kim? ba'zan nima? (jonli) tug'ilmoq. Varianti: **dunyoga keltirmoq kim? kimni?** (oz ishlatiladi); **olamga kelmoq.** Antonimi: **dunyodan ketmoq kim? dunyodan o'tmoq 2 kim? ko'z(i)ni yummoq kim? [o'zining]; oyog'(i)ni uzatmoq kim? [o'zining]; nafas(i) tindi kimning? engak tashlamoq kim?**

Qo'y, men olamga tom tuzatgani kelganim yo'q, undan tezroq ketgani kelganman. A.Qahhor. Sarob. Quri-

gan g'o'za nima ekan, eksang, o'rni-ga chiqaveradi. Uning o'rniga esa... boshqa Komil dunyoga kelmaydi endi... T.Malik. Charxpalak. Yozuvchi Hoshimjon, Akrom, Zafarning dunyoga kelishida vosita bo'lgan otana, o'zbekning saxiy, orzu-havasli, g'ururli, to'ysevar, ishomuvchan, qonunni bilmaydigan, olomonsifat, bolajon bo'lgani bilan uni qanday tarbiya qilish yo'riqlarini anglab yetmaganligi ekanligini ko'rsatadi. X.To'xtaboyev. Mungli ko'zlar.

2 nima? (jonsiz) paydo bo'lmoq, yaratilmoq (oz ishlatiladi).

dunyoga keltirmoq: dunyoga kelmoq

DUNYOGA QARASH kishining tabiat va jamiyatni anglash-bilishi, obyektiv voqelikni tushunish.

Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. A.Qahhor. Adabiyot muallimi.

dunyoga ustun bo'lmaslik: osmonga ustun bo'lmaslik

DUNYONI BOSHIGA KO'TARMOQ kim? baqirib janjallashmoq.

Baqiraman!! Dod deyman! Dunyoni boshimga ko'taraman! Uyg'un. Navbahor.

DUNYONI OSTIN-USTUN QILMOQ nima? hayot tarzini keskin o'zgartirib yubormoq. Varianti: **dunyoni ost-ust qilmoq kimlar?**

O'tgan bu yillar dunyoni ostin-ustun qildi!.. A.Qahhor. Yillar. Musulmonlar va hindlar to'polon ko'tarib, dunyoni ost-ust qilsa, qanday choramiz bor? Oybek. Nur qidirib.

dunyoni ost-ust qilmoq: dunyoni ostin-ustun qilmoq

dunyoni sel olsa, to'pig'(i)ga chiqmaslik: dunyoni suv bossa, to'pig'(i)ga chiqmaslik

DUNYONI SUV BOSSA, TO'PIG'(I)GA CHIQMASLIK kimning? o'ta ketgan beg'am, haddan tashqari beparvo. Varianti: **dunyoni suv olib ketsa, to'pig'(i)dan kelmaslik; dunyoni sel olsa, to'pig'(i)ga chiqmaslik.**

Quvnoq Abu kambag'al uying shamchirog'i edi. Dunyoni suv bossa, to'pig'iga ham chiqmasdi. Mirmuhsin. Jabrdiyda. ...go'yo Bo'tako'zda uning o'zidan boshqa kimsa, uning cho'tidan boshqa hayot yo'qday. Dunyoni suv olib ketsa, to'pig'idan kelmaydi. I.Rahim. Hilola.

dunyoni suv olib ketsa, to'pig'(i)dan kelmaslik: dunyoni suv bossa, to'pig'(i)ga chiqmaslik

DUNYONI TANIGANDAN BERRI kim? esi kirgandan beri, tushunadigan bo'lgandan buyon.

Xolmurod dadil o'rnidan turdi. ...Dunyoni taniy boshlagandan beri o'tgan qisqa umrida o'z boshidan kechirganlarini hikoya qila ketdi. P.Tursun. O'qituvchi.

dunyoning achchiq-chuchugini tatigan: dunyoning achchiq-chuchugini totgan

DUNYONING ACHCHIQ-CHUCHUGINI TOTGAN kim? hayotida turli-tuman hodisalarga duch kelib, ijobiy-salbiy narsalarni ko'rib tajriba orttirgan. Varianti: **turmushning achchiq-chuchugini totgan.**

U ko'pni ko'rgan, dunyoning achchiq-chuchugini totgan. S.Ayniy. Qullar.

DUO KETGAN kimga? nimaga? alohida xususiyatga ega.

Cho'lbobonikiga dam saqlayaptilar, – Zulukxon kesatdi. – Cholnikiga duo ketgan. H.G'ulom. Senga intilaman.

DUOYI BAD la'natlamoq.

Bolam, odamlarning duoyi badiga qolmagin tag'in... Sharq yulduzi.

DUOYI JON(I)DA BO'LMOQ kim? kimning? – **DUOYI JON(I)NI QILMOQ** kim? kimning? barhayot bo'lishini, uzoq umr ko'rishini istamoq (eskirgan). Varianti: **duoyi jon(i)ni tilamoq.**

Duoyi salom o'sha bachchalarning onasiga, umid bilan bir yostiqqabosh qo'yib, kecha-kunduz duoyi jonimda bo'lganga! Oydin. Shiringa maktub. Davlatingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, boy ota, bizlar bir g'arib-yetim bolalarmiz, sizning davlatingizda, duoyi joningizni qilib, non topib yuraylik! G'.G'ulom. Shum bola.

duoyi jon(i)ni qilmoq: duoyi jon(i)da bo'lmoq

duoyi jon(i)ni tilamoq: duoyi jon(i)da bo'lmoq

DUCH KELGAN daf'atan nima uchrasa – shu. Sinonimi: **to'g'ri kelgan.**

Ha, o't tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o'tiradimi, duch kelganini qo'shib tashiy beradi-da. G'.G'ulom. Shum bola.

DUCH KELMOQ kim? kimga? yoki **nimaga?** kutilmaganda yo'liqmoq, bexosdan uchramoq. Sinonimi: **ro'baro' kelmoq kim? kimga?**

Yakkama-yakka duch kelganlarida ham Ochil unga rasmiy salom berar, Zamira ham shunga yarasha alik olardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Jizzaki Karimqul bir necha majlislarda O'ktamning haqqoniy, lekin o'tkir tanqidiga duch kelib, unga nisbatan to'nini teskari kiyib olgan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

DO'MBIRA CHERTIB YURMOQ bekor, ishsiz, lallayib yurmoq.

Men ishonaman, vaqti kelib, u ham ishni eplab ketadi. U do'mbira chertib yurgani yo'q... Sh.Xolmirzaev. So'nggi bekat.

DO'PPI TOR imkoniyatlar juda cheklanib qolgan.

DO'PPI TOR KELDI iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq. Varianti: **do'ppi(s)i tor keldi kimning? tor kelib qolganda.**

Shunday do'ppi tor kelgan paytda Azim boyvachcha Xolxo'janing joniga ora kiradi. S.Ahmad. Hukm. U ko'zlarini suzib turib Saidovning uchastka qurayotganini, do'ppisi tor kelib, ikkinchi magazindan pora uchun gurunch olganini gapirgan edi. A.Muhiddin. Qitmir. Tor kelib qolganda hech narsasini ayamaydi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

do'ppi yarimta: do'ppi(s)i yarimta

DO'PPI(SI) OSMONDA [kimning?] nihoyatda xursand. Sinonimi: **bosh(i) osmonda kimning? og'z(i) qulog'(i)da kimning?**

«Oho, – qichqirdi Mirhaydar. – Xatoni tuzatsam, sizga yoqmaydi. Xatoga xato qo'shsam, do'ppingiz osmonda!» Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

do'ppi(s)i tor keldi: do'ppi tor keldi

DO'PPI(SI) YARIMTA [kimning?] shod-xurram; beg'am, beparvo. Varianti: **do'ppi yarimta (-).**

Ustaning ishi yirik, uning noni butun, do'ppisi yarimta... S.Abdugahhor. Gap norda emas. ...bir ko'p odamlar oyog'idan qarzga ilinadi. Hech nima bo'lmaganday, do'ppisi yarimta! Halqumigacha qarzga botganini o'zi sezmay qoladi. Oybek. Qutlug' qon.

DO'PPI(SI)NI OSMONGA OTMOQ kim? [o'zining] juda xursand bo'lmoq, quvonmoq. Varianti: **do'ppi(s)i ni osmonga irg'itmoq; do'ppi(s)i ni osmonga tashlamoq.**

Sizni qarang, men «to'rt» olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim! O.Yoqubov. Muqaddas. Boshqalarining kelini Xosiyatxondek bo'lsa, do'ppisini osmonga tashlaydi. Faqat sen qadriga yetmaysan. S.Ahmad. Mastonbibi.

do'ppi(s)i ni osmonga tashlamoq: do'ppi(s)i ni osmonga otmoq

DO'PPI(SI)NI YARIMTA QILIB [o'zining] g'am yemasdan, shod-xurram bo'lib, yallo qilib. Varianti: **do'ppini yarimta qilib (-); to'ppi(s)i ni yarimta qilib.**

«Sessiya, sessiya» deb qo'rqitishadi, sessiyasi hech gap emas ekan-ku», – deb, do'ppini yarimta qilib yurishuvdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

DO'PPI(SI)NI YERGA [OLIB] QO'YIB [o'zining] fikr-o'yini bir yerga to'plab, keng mushohada yurgizib.

Biz o'z aqlimiz bilan ishlashga o'rganib qolganmiz, odamlar bilan mana bundoq yuzma-yuz, yakkama-yakka, do'ppini yerga qo'yib, yurakdan sir-doshlashish kam bo'ladi. I.Rahim.

Hilola. *Uyga qaytgan-u, do'ppisini yerga olib qo'yib o'ylagan: «Nimaga shoshilyapman, elburutdan bo'ynimga to'rva-xalta ilib nima? qilaman», – deganda.* J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar.

do'ppini yarimta qilib: do'ppi-(si)ni yarimta qilib

DO'PPINING TAGIDA ODAM BOR har qanday nutqni eshitadigan quloq har doim atrofingda topiladi.


«Bundan keyin bunaqa gapni sekinroq gapiringlar, do'ppining tagida odam bor-a». U Xayrini imlab ko'rsatdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

DO'PPINING TAGIDAKKINA nisbatan juda kichik, kichkinagina.

Bizning Qamishkapa do'ppining tagidakkina joy bo'lsa ham, bu yerda turli toifa odamlar bor, o'rtoq Do'smatov. P.Tursun. O'qituvchi.

DO'Q URMOQ kim? [kimga?] qo'rqitish maqsadida baqirib-chaqirib gapirmoq.

«Siz meni kim deb o'yladingiz?!» – deb do'q ura boshladi. G'.G'ulom. Yigit. E aka, Samadov sizga do'q urgani yo'q. P.Qodirov. Uch ildiz. Qanday kunga qoldim. Shu g'unajinning do'q urishi yetmay turuvdi. T.Malik. Charxpalak.



EGA CHIQMOQ *kim? kimga?* yoki *nimaga?* huquqi, asosi bo‘lmagani holda o‘ziniki qilib olmoq, o‘ziga bo‘ysundirib olmoq.

O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim yashamagur uni ham rasvo qildi. Bolaginanamga ega chiqib, burnidan ip o‘tkazib oldi bu dog‘uli. S. Ahmad. Hasrat.

egardan tushmaslik: otdan tushsa(...) ham, egardan tushmaslik

EGARDAN TUSHMOQ *kim?* mavqeyini yo‘qotganiga iqror bo‘lmoq, o‘zini shunga mos holda tutmoq.

Faqat Samadiygina achitdi: «Endi egardan tushibsiz-da, dohiy». A. Muxtor. Tug‘ilish. *Hamon musofirchilikni bo‘yningga oldingmi, egardan sal tushgin-da!* H. Nazir. Odamning qadri.

EGARLAGAN OTDEK yo‘lga chiqish uchun tap-tayyor, shay.

Ikki o‘rim sochini boshiga chambar qildi, oyog‘iga etik kiyib, egarlagan otdek bo‘ldi. Oydin. Oltin uzukka olmos ko‘z.

egilgan bosh(i): bosh(i)ni bukmoq

egilmagan bosh: bosh egmoq

EGRI OYOQ *kim?* xotinlarga hirs bilan muomala qiladigan, shahvoniy tuyg‘usiga erk beradigan.

Axir xotinbozligi orqasida kuni kecha sharmandayi sharmisor bo‘lma-

dimi? Axir egri oyoq bu bo‘ydoq qanday qilib ... bo‘la olsin? S. Anorboyev. Oqsoy.

EGRI QO‘LLIK QILMOQ *kim?* mayda o‘g‘irlik qilmoq.

Xotini, qizi va urushdan ilgari magazinda egri qo‘llik qilib qamalib ketgan o‘g‘lining xotini xoxo-taralla bilan... chuchvara tugib o‘tirar edilar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

EGRIYO‘L g‘ayri qonuniy, g‘ayri axloqiy xatti-harakat, chora-tadbir.

O‘g‘lim aqli, odobli farzand edi, olchoqlar, haromilar uni aldashib, egri yo‘llarga boshlagan bo‘lishlari mumkin... Oybek. Nur qidirib. Tirikchilik har yo‘lga boshlar ekan, egri yo‘lga yurdim-u, qo‘lga tushdim. I. Rahim. Olovkor.

el burundan: eldan burun. So‘zlashuv uslubi.

elburutdan: eldan burun

EL OG‘ZIGA ELAK TUTIB BO‘LMA(Y)DI har kim o‘z bilgicha gapiraveradi, hech kimni gapirma deb ta‘qiqlab bo‘lmaydi.

Ba‘zan juda xafa bo‘lib ketaman, «Bor-e!» – degim keladi-yu, tag‘in ming andishaga boraman: el og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi, «Ordeni ko‘payib, erini tashladi», – deydi... A. Qahhor. Sinchalak. Har kim ko‘ngliga kelganini aytadi. El og‘ziga elak tutib bo‘larmidi. S. Anorboyev.

Oqsoy. *Haliyam odamlarning ta'nasidan o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim. Biri tug'mas deydi, biri u deydi, biri bu deydi; el og'ziga elak tutib bo'lmasa.* M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

EL OG'ZIN, IT TISHIN BOG'LAMOQ [el ayzin, it tishin bayla=] tar. *kim?* hammani jim qilmoq, og'zini yopmoq.

Alarkim ofiyat kunjin tutub okif bo'lubturlar, El og'zin, it tishin bog'lab savomi'ga to'lubturlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

EL SUNMOQ [el sun=] tar. *kim?* *kimga?* umidvor bo'lib harakat qilmoq, ega chiqishni maqsad qilmoq. Varianti: **el uzatmoq.**

Ko'rganga ko'z tikar qo'li yetmaska el sunar, Qo'yg'il bu ishni emdi baroyi xudo, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

EL TILINA TUSHMOQ [el tili-nä tüş=] tar. *kim?* gap-so'z qilinmoq, gapirilmoq.

Bu barcha xalq o'g'lonlarina kerak, xossa malik o'g'lonlari ne so'zlasalar dag'i ne ishlasalar, el tilina tushar, ammo avomning qavlini dag'i fe'lina ul qadar e'tibor yo'q turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

EL UZATMOQ [el uzat=] tar. *kim?* *kimga?* tilanmoq, birovdan ta'ma qilmoq.

Uyalmasankim, tekma bir xassis qatina borib buchuk habba uchun yuz suvun to'kub, aling uzatursan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

EL YUVMOQ [EL JUV=] tar. *kim?* *kimdan?* yoki *nimadan?* voz kechmoq, umid uzmoq. Varianti: **qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq, qo'lini yu-**

vib qo'ltig'iga solmoq, qo'lini su-pirmoq. Sinonimi: **umid uzmoq.**

Qari bo'ldung yigitlikdan aling yuv, Bilarsankim, yana qaytmas oqar suv. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ELAKDAN O'TKAZMOQ *kim?* *nimani?* o'ta sinchiklab tekshirmoq. Varianti: **elagidan o'tkazmoq** *kim?* *nimani?* *nimaning?*

Xolmirza ko'zimga chaqchayib qaradi: «Hilola bilan til biriktirib olganmisan? U ham tabellarimni elakdan o'tkazib ketdi. Endi sen bormi?!» I.Rahim. Hilola. *Bizning vazifamiz ilmni xalq tajribasi bilan boyitish va shu bilan birga xalq tajribasini ilmning elagidan o'tkazishdir.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

elagidan o'tkazmoq: elakdan o'tkazmoq

ELDAN ELA YURMOQ [eldän elä jür=] tar. *nima?* mulkga doimiy egalik qila olmaslik, boshqalarga o'tmoq.

Bukunkim bor alinda mol-u mulkat, Yurur aldan ela ul joh-u davlat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ELDAN KETMOQ [eldän ket=] tar. *kimning?* *kim?* yoki *nima?* yo'qotmoq, boy bermoq.

Kesildi yuk ko'turgan kuch belingdan, Ketibdur nozik erdamlar alingdan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ELDIN-ELGA KELMOQ [eldin elgä kel=] tar. *nima?* *kimga?* meros qolmoq, avloddan avlodga o'tmoq.

Aldinalga keldi bizga mamlakat, Ayla ham ketkay kelib aldan ravon. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Alqissa, mulk ul zolim elindan chiqib, bularg'a muqarrar bo'ldi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.



EL QATORI ko'pchilikka o'xshab, boshqalar singari.

Shuning uchun Malohat ko'zga ko'ringan sayin erini el qatori ishlashga undar, yalinar, ba'zan qattiq gapirar, hatto yig'lar ekan. A.Qahhor. Jonfig'on. U o'g'lini uylantirish uchun to'y jamg'armalarini jam qilganida..., el qatori uning o'g'li ham frontga ketdi. S.Ahmad. Kuyov.

ELDAN BURUN vaqtdan oldin, barvaqt.

Sharofatxon qo'rg'oncha eshigidan qarab, erining jo'namaganiga tushuna olmay, supaga keldi: «Eldan burun otlangan siz edingiz-ku, mana endi kun yonib ketdi». Oybek. Qutlug'qon.

ELINDAN CHIQMOQ [elindän čiq=] tar. kim? kimning? qutulmoq, boy bermoq, egalik huquqidan ayrilmoq.

ELLIK OG'IZ ko'p, juda ko'p («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **yuz og'iz; o'n og'iz.**

Menga ellik og'iz gapdan to'rt ellik xat afzal. A.Muhiddin. Xarakteristika. Suhbatda yuz og'iz umumiy gapdan ko'ra, fikrni uyg'otadigan bir og'iz jonli so'z yaxshi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ENDI TUSHINGIZDA KO'RASIZ kimni? nimani? «Endilikda aslo ko'rmasiz», «ko'rib ham bo'libsiz» kabi ma'nolarni ifodalovchi ibora.

Bunday kelinni endi tushingizda ko'rasiz. So'zlashuv uslubi.

ENGAK QOQMOQ kim? [kim-ga?] iyagini ko'tarib-tushirish bilan oldiga yur degan ma'noni bildirmoq.

Saidg'ozii. boshida tog'orasi bilan yonida turgan Zubayraning tir-

sagidan ushlab, «Oldimga tush» deganday engak qoqdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ENGAK TASHLAMOQ kim? qazo qilmoq, o'lmoq. Sinonimi: **dunyodan ketmoq kim? dunyodan o'tmoq 2 kim? ko'z(i)ni yummoq kim? [o'zining] nafasi tindi kimning? oyog'(i)ni uzatmoq kim? [o'zining]** Antonimi: **dunyoga kelmoq I kim? ba'zan nima?** (jonli).

Tavfiq afandi ingradi. Nizomiddinov gugurt chaqib, uning yuziga tutdi. Tavfiq afandi engak tashlagan edi. S.Ahmad. Hukm.

ENKA-TENKA(SI) CHIQDI kimning? 1 qiyalib ketmoq. Varianti: **enka-tenka(si)ni chiqarmoq kim? kimning?**

Bosh bermoq, ola-tasir qochgan otni to'xtatib, qayirib olguncha Qudratning enka-tenkasi chiqardi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Toza kishining enka-tenkasini chiqarishadi-da, kuni bilan ahvol shu... S.Abduqahhor. Nusxaoy.

2 to'satdan qattiq qo'rqmoq.

Jamilaning o'z yonidan g'oyib bo'lganini payqamay qolibdi. Birdan enka-tenkasi chiqib o'rnidan turgan edi, ikki oyog'i uvushib qolgan ekan, chalishib yiqilib tushdi. Mirmuhsin. Jamila.

enka-tenka(si)ni chiqarmoq: enka-tenka(si) chiqdi

ENSA(SI) QOTDI kimning? nima-dan? – **ENSA(SI)NI QOTIRMOQ** nima? yoki kim? kimning? ranjib, noxush bo'lmoq.

«Satqaiy do'ppi ketsin», – dedi va ensasi qotib, do'ppining qatini ham

*ochmay yoniga tashladi. Oydin. Ke-
lin o'g'il tug'ibdi. To'y-po'ya borib
qolsa, ashula eshitayotganlarning en-
sasini qotirib, o'rikdan gap boshlay-
di. S.Ahmad. O'rik domla.*

ensa(si)ni qotirmoq: ensa(si) qotdi

EP BILMASLIK *kim? nima? qi-
lishni? noloyiq, yarashmaydigan ish
deb bilmoq. Sinonimi: ep ko'rmas-
lik kim? nimani? kimga?*

*Muhiddinning xohishiga qarshi
ish ko'rishni ep bilmadi. R.Fayziy.
Cho'lga bahor keldi. Mehmonning
oldiga borishni ep bilmaganidanmi,
hamon o'rnidan qimirlamay turardi.
S. Zunnunova. Gulxan.*

EPKO'RMASLIK *kim? nimani?
kimga? noloyiq, yarashmaydigan ish
deb topmoq. Sinonimi: ep bilmaslik
kim? nima qilishni?*

*Nurmatjon past ishni o'ziga ep
ko'rmadi, tuzuk ish uchramadi. A.Qah-
hor. Qizlar. Sherbek: «Nimani? bil-
mas ekanman?» – deb ko'nglidan o't-
kazdi-yu, ammo so'rashni o'ziga ep
ko'rmadi. S.Anorboyev. Oqsoy.*

EPAQAGA KELMOQ *kim? –
EPAQAGA Keltirmoq* *kim? kim-
ni? nimani? gapga ko'nadigan, bosh-
qalar singari ish tutadigan bo'lmoq.
Varianti: epga keltirmoq.*

*Shu Rahimga o'xshagan bitta-ik-
kita o'yin buzuzi ko'pchilikning no-
mini bulg'ar ekan-da, hammamizga
tashvish orttirib yurar ekan. Onasi
bo'lib, biz bo'lib shuncha harakat qil-
sak ham, epaqaga kela qolmaganiga
hayronman. H.Nazir. So'nmas chaq-
moqlar. Yo'q, keyin tanqid qila-qila
biroz epaqaga keltirdik. Oybek. Oltin
vodiyan shabadalar.*

epaqaga keltirmoq: epaqaga kel-
moq

epga keltirmoq: epaqaga kelmoq

EPGA SOLMOQ *kim? kimni?
tadbir bilan ish tutib, to'g'ri yo'lga
yurgizmoq.*

*Qolaversa, uy ishlaringni qilib,
bolalaringni boqib, sizlarni epga
solib turganlar ham xotinlar. S.Anor-
boyev. Oqsoy.*

ER YETMOQ *kim? yoshi oila
qurish darajasiga bormoq (yigitga qa-
rata).*

*Akam er yetganda urushga ket-
di. Hamma yigitlar urushga ketdi.
Dalada xotinlar-u qarilar, tirmizak-
day bo'lib biz bolalar ishlaganmiz.
S.Anorboyev. Oqsoy.*

**ERDAMINDA ERDAMIN KO'R-
GUZMOQ** [erdämindä erdämin kör-
güz=] *tar. kim? kimga? o'zini ko'rsat-
moq, salohiyatini namoyon qilmoq.*

*Erdaminda erdamin ko'rguzgan
er. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Er-
da-minda erdamin ko'rguzmas, illo
er kishi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.*

ERDAN CHIQQOQ *kim? ajral-
moq (xotin-qizga nisbatan). Varianti:
er(i)dan chiqmoq* *kim? [o'zining];
chiqmoq III. Antonimi: erga teg-
moq* *kim? [kimga?]; erga chiqmoq*
kim? [kimga?]; turmushga chiqmoq
kim? [kimga?]

*Sevgidan gapirasanni hali? Sen-
ga kim qo'yibdi! Muhabbating bo'l-
sa, erdan chiqarmiding? I.Rahim. Chin
muhabbat. «O'zim tannoz bir qiz to-
pib, seni ichkuyov qilib qo'yaman».
– «Menga tannoz qiz kerakmas!» –
«Ha?» – «Adolatxonning o'zlari tu-
zuk!» – «Shundoqmi? a, xo'p, Ado-*

latga xat yozay, eridan chiqsin bo'l-masa...» A.Qahhor. Qizlar. Otam o'l-maganda, men bu alvastiga bir kun ham xotin bo'lmas edim. Otam o'ldi-darmonim quridi. Undan chiqib qayoqqa, kimnikiga boraman? A.Qahhor. Maston.

er(i)dan chiqmoq: erdan chiqmoq

ERGA BERMOQ kim? kimni? uzatmoq. Varianti: **bermoq**.

O'zim tekshirdim. Shu hikoyada ko'rsatilgan odamlarni topdim. Darrov topdim, chunki u odam o'z qizini zo'rlab erga berayotganidan boxabar edim. A. Qahhor. Sarob. Biz bir-birimizni sevishdik – bu mendan boshqaga tegmaydigan, men boshqani olmaydigan bo'ldim. Lekin buning otasi menga berishga rozilik bermas edi. G'. G'ulom. Yodgor.

ERGA TEGMOQ kim? [kimga?]
oila qurmoq (xotin-qizlarga nisbatan). Varianti: **tegmoq**. Sinonimi: **turmushga chiqmoq** kim? [kimga?]; **erga chiqmoq** kim? [kimga?]. Antonimi: **erdan chiqmoq** kim?

Qo'ling xuddi yigitning qo'liga o'xshaydi-ya, Maston, erga tegsang shu qo'ling tufayli ko'p dashnom yeysan-da. A. Qahhor. Maston. Eshmatga tegsang, har kuni paxtalik shim yuvib, toza ham o'lar ekansan-da, Zuhra! Oydin. Bechora.

ERGA CHIQMOQ kim? [kimga?]
oila qurmoq (xotin-qizlarga nisbatan). Sinonimi: **erga tegmoq** kim? [kimga?]; **turmushga chiqmoq** kim? [kimga?]. Antonimi: **erdan chiqmoq** kim?

«Mamajon degan bir yigit bor, shunga erga chiq...» G'.G'ulom. Ti-

rilgan murda. Shakarxon yosh jihatdan shu yerdagi qizlarning eng kattasi, lekin hali erga chiqmagan edi. I.Rahim. Chin muhabbat.

ERKIN NAFAS OLMOQ kim? ruhiy cheklanishdan holi bo'lib, o'zini yengil his etmoq.

«Bulbuli go'yo»... eshikni qattiq yopdi-da, chiqib ketdi. Saidiy, xuddi ko'ziga tushib, azob berayotgan qum donasi birdan chiqqanday, erkin nafas oldi. A.Qahhor. Sarob. Agar Bortirni bir balo qilib o'rtadan ko'tar-masangiz, do'stingiz erkin nafas ololmaydi. S.Nazar. Yashil boylik.

es kirdi: aql(i) kirdi

es(i)[ning] borida: es(i) bor

es(i) bo'lsa: es(i) bor

ES(I) BOR kimning? fikr-mulohaza yuritish qobiliyati yaxshi, aqlli. Varianti: **es(i)[ning] borida** [o'zining]; **es(i) bo'lsa** kimning? Antonimi: **es(i) yo'q** kimning?

Biznikiday katta dargohdan qiz olish har kimga nasib bo'lavermaydi. O'sha yigitning ham esi bordir. S.Zunnunova. Ko'ngil. Anorxonni oqlab ol yoki esing borida qo'lingni yuvib, qo'ltig'ingga art. I.Rahim. Ixlos. Esi bo'lsa, guldek yoshligini shu do'zaxda zoye qiladimi odam bolasi. A.Muxtor. Tug'ilish.

ES(I) BUTUN [kimning?]
anglash-bilish qobiliyati benuqson, to'g'iri fikrlaydigan. Varianti: **es-hush(i) butun**. Antonimi: **es(i) kirdi-chiqdi** [kimning?]

«Esing butun, begim, – dedi u baland ovoz bilan. – Yuragingda O'rinboy otaning o'giti bor-da». Oybek. Quyosh qoraymas. Saidiyning

atrofida Hodisalar son-sanoqsiz va bularning har biri hatto es-hushi butun odamlarni ham daf'atan hayron qoldirar edi. A.Qahhor. Sarob.

ES(I) JOYIDA kimning? xotirlash qobiliyati durust; xotirasi saqlangan.

Sizning esingiz joyida ekan. Eski gaplardan hech qaysisi mening esim-da yo'q. S.Anorboyev. Oqsoy.

es(i) joyiga keldi: es(i) o'z(i)ga keldi

ES(I) KETDI I kimning? 1 qiy-nalib holsizlanmoq.

Tavba, qudamning ajab odatlari bor-da! Seni yubora qolsa, bo'lmaydimi? Jonining huzurini bilmagan banda ekan, issiqda esi ketadi-ya. S.Zunnunova. Latta. «Ha, bolam, qayoqda qolding? – dedi kampir. – Yur, ovqatingni yeb olgin, esing ketdi». A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 qayta-qayta mehribonlik, xayri-xohlik bildirmoq. Varianti: **es(i) ketib I.**

Jilla chakki bola emasdi, shekilli, «Tog'ajon, tog'ajon», – deb esi ketgan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabada-lar.

Dorim bilan tuzalib ketganlar meni «Doktor opa», – deb eslari keti-shadi. M.Ismoilij. Farg'ona tong ot-guncha. *Hozir kelib qoladi. U menga sizning to'g'ringizda esi ketib gapi-radi.* A.Muxtor. Dog'.

es(i) ketdi II: es(i) og'ib ketdi

es(i) ketib I: es(i) ketdi I

ES(I) KETIB II [kimning?] beri-lib, mahliyo bo'lib.

Karomat o'rtada uyilib yotgan qim-matbaho kiyimlarga esi ketib qarab turardi. M.Ismoilij. Farg'ona tong ot-

guncha. *Yigit ularning baxtiyor o'yin-lariga esi ketib qarar; yuragi achi-shar; xo'rliigi kelar edi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

es(i) kirdi: aql(i) kirdi

ES(I) KIRDI-CHIQDI [kimning?] anglash-bilish qobiliyati nuqsonli, nor-mal fikrlay olmaydigan. Antonimi: **es(i) butun** [kimning?]

Darhaqiqat, turli zahar, og'ular – nasha, afyun, ko'knori va boshqalar-ga bandi bo'lganlardan tug'ilgan, esi kirdi-chiqdi bir guruh odamlar qaysi «Abu-tanbal»dan kelishadi? G'.G'u-lom. Tirilgan murda.

ES(I) OG'DI kimning? 1 telba bo'lmoq, jinni bo'lmoq (oz uchraydi). Sinonimi: **aqldan ozmoq kim? es(i)-dan og'moq kim?** [o'zining?]

Endi uning xayolida hamma narsa bo'sh va ma'nosiz edi. Ba'zi minutlar-da esi og'gan kabi ko'cha o'rtasida qanqayib qolar edi. Oybek. Qutlug'qon.

2 telbalanmoq. Varianti: **es(i)ni og'dirib qo'ymoq nima? kimning?**

O'ttiz to'rtga kirdim, hali uylan-ganim yo'q. Paranja ko'rsam, esim og'adi. Oybek. Qutlug'qon. *Ishq sirliroq ko'rinsa, ta'sirli bo'ladi, esi-ni og'dirib qo'yadi, qarab turarsiz.* A.Muxtor. Opa-singillar.

3 [nimaga?] mahliyo bo'lib qol-moq. Sinonimi: **hush(i) ketdi kim-ning?** [nimaga?]

U dengiz haqida gapirganda, yuz-lari, ko'zlari biram g'alati bo'lib ketardiki, beixtiyor esing og'ib qoladi. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. *Men nima qilarkan deb, esim og'ib turdim.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

Men esim og'ib, uning og'ziga tikilganimcha qimirlamay o'tirib qoldim. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir.

ES(I) OG'IB KETDI kimning? nimaga? yoki kimga? xayoli biror narsa haqidagi o'y-xotiralar bilan band bo'ldi. Varianti: **es(i) ketdi II**.

Aytgandek, o'zi suhbatning boshi nimada edi? Esim og'ib ketibdi. Qarichilik!.. M.Muhamedov. Yurak so'zlari. Rost aytasan, esim erimga ketdi, bolam, ha... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ES(I) QOLMABDI kimning? fahmlash, xotirlash qobiliyatini yo'qotmoq.

«Voy, qiz bo'lmay qoling, – dedi Qumri, – qiz degan ham gapni shunaqa cho'zadimi, nimaga keluvdik o'zi, qarib-churiganingizdan esingiz qolmabdi-da». A.Muxtor. Opa-singillar.

ES(I) YO'Q kimning? fikr-mulohaza yuritish qobiliyati yomon, joyida emas. Antonimi: **es(i) bor** kimning?

«Sizni kim odam emas dedi?» – «Mendan yuz o'girgan butun yordo'stlarim, o'rtoqlarim, esi bor odamning hammasi aytadi». – «Biz odam deb yurar edik, esimiz yo'q ekan-da?» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ES(I)DA QOLMOQ nima? kimning? xotirasida saqlanib qolmoq. Varianti: **esda qolmoq nima? yodda qoldirmoq** kim? nimani?

«Temir Akbarovich, hammasi esingizda qolarmikan?» – «Esda qoladigani uchrarmikan deb o'tiribman». P.Qodirov. Uch ildiz. Bobur, o'zingni o'rgata ko'r yorsizki, men istab jahonni, muncha qilib yor topmadim! – degan satrlar uning esida qolgan edi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

ES(I) O'Z(I)GA KELDI kimning? esankirashdan o'nnglanmoq. Varianti: **es(i) joyiga keldi**. Antonimi: **hush(i)ni yo'qotmoq 2** kim? [o'zining?]; **hush(i) bosh(i)dan uchdi** kimning?

Supada yotgan Buvinisa xolaning o'takasi yorilib, o'rni ustida o'tirib qoldi, dag'-dag' titray boshladi.. Nihoyat esi o'ziga keldi, keng yoqasini ochib, ketma-ket ko'kragiga tufladi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Suvon yalt etib Azimjonga qaradi. Qo'lidagi ruchkani dovotga tirab qo'yib, ko'zini uzolmay qoldi. Keyin esi joyiga kelgandek, ishida davom etdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

ES(I) CHIQIB KETDI kimning? – **ES(I)NI CHIQARIB YUBORMOQ** kim? kimning? nihoyatda qattiq qo'rqmoq. Varianti: **esxona(si) chiqib ketdi** – **esxona(si)ni chiqarib yubormoq** kim? nimaning? (jonlining). Sinonimi: **jon-pon(i) chiqib ketdi I** kimning? **jon(i) halqum(i)ga keldi 4** kimning?

E, qo'ying-e! Bu gapni kelib-kelib menga aytasizmi! Yoshlarning esini chiqarib yuboribsiz! Mirmuhsin. Jibilajibon. Ikki yoqdan fristni bir urib berdik. Esxonasi chiqib ketdi! Oybek. Quyosh qoraymas. Zamon pirpirakka qog'oz ilon bog'lab, chumchuqlarning esxonasini chiqarib yubordi. N.Nazarov. Zamon.

ES(I)DA TURMOQ kim? yoki nima? kimning? xotirasida saqlanib kelmoq. Varianti: **esda turmoq** kim? yoki nima?

Ko'k men Sulaymon Hurramo-vichni ham, To'laganni ham, bir yilda zavodda orttirgan boshqa do'stlarimni ham unutmagan edim, ularning

hammasi esimda turardi. O.Yoqubov. Muqaddas. *Ho' o'tgan yili meni bir leksiyaga kirgizmagan edi-ku, shu esida turgan ekan.* P.Qodirov. Uch ildiz.

ES(I)DA TUTMOQ kim? [o'zining] nimani? doim xotirasida saqlamoq, unutmastlik. Varianti: **esda tutmoq** kim? nimani?

«Tug'ilgan kun ziyofatiga taklif qilish shart emas. O'sha kunni esida tutgan odamlar borishaveradi», – dedi Nelya. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Yo'q singlim, bu to'g'rida gapirishdan ilgari senga bir narsani aytib qo'yay, sen har bir og'iz gapingni shuni esda tutib ayt: men sening akang, senga eng yaqin kishi.* A.Qahhor. Sarob.

es(i)dan chiqarmoq: es(i)dan chiqarmoq

ES(I)DAN CHIQQOQ [ozining] nimani? yoki kimni? unutmok. Varianti: **esdan chiqmoq nima?** yoki kim? **esdan chiqarmoq kim? nimani?** yoki kimni? **esdan chiqarilmoq nima?** **yod(i)dan chiqmoq; yod(i)dan chiqarmoq; yoddan chiqmoq kim? yoki nima? yoddan chiqarmoq kim? nimani? xotir(i)dan chiqmoq; xotirdan chiqarmoq, kim? nimani?** Sinonimi: **yod(i)dan ko'tarmoq kim?** [o'zining] yoki kimning? kimni? **yod(i)dan ko'tarilmoq nima?** yoki kim? kimning? Antonimi: **es(i)ga kelmoq nima kimning esga keltirmoq 1 kim? nimani? es(i)ga tushmoq nima? yoki kim? kimning? es(i)ga tushirmoq nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o'zining] nimani? xayoli(i)ga kelmoq kim? kimning? xayoli(i)ga keltirmoq 2 kim? [o'zining]**

kimni? **es(i)ga solmoq 1 nima?** yoki kim? kimning? nimani?

Esginamdan chiqmaydi, To'rtko'l, manzarang. E.Abbos. Amu bo'yolari. Albatta, o'g'lim Yodgorni ham u bilan bog'langan voqealarni hech qachon yodimdan chiqarmayman. G'.G'ulom. Yodgor. Yoddan chiqqan so'zlar o'rniga o'zicha to'qib, og'ziga kelganini qo'shib [ashula] aytmoqda. I.Rahim. Hilola. Boboqul otadek mu-borak bir zotni yoddan chiqarib bo'lur ekanmi?! S.Anorboyev. Oqsoy. Biri – unutilib, elning xotiridan chiqqan, askiyaning mavzusidan tushib qolgan Buxoro rastalarining tarixi, ikkinchisi... S.Ahmad. Hukm. Netay. Qutlug' Nigor xonimning yonida o'tirgan Qorako'z begim ovqatdan ham ko'proq bodring, handalak yer, sharbat ichar edi, kecha kun issig'ida tashnalikdan nihoyatda qiynalgani esidan chiqmas edi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

ES(I)GA HAM KIRIB CHIQQMASLIK nima? kimning? mutlaqo o'ylamaslik, idrok qilmaslik, shunday deb bilmaslik.

Ammo yil-o'n ikki oy aldama-qaldamni bilmay halol ishlagan hamkasbining noni butun bo'lmasligiga o'zi sababchi ekani esiga kirib chiqmaydi ham. S.Anorboyev. Oqsoy.

ES(I)GA KELMOQ kimning?– **ESGA Keltirmoq** kim? 1 nima? yoki kim? – nimani? xotirasida tiklanmoq. Varianti: **esga kelmoq nima? yoki kim? yod(i)ga kelmoq; xotir(i)ga kelmoq.** Sinonimi: **es(i)ga tushmoq nima? yoki kim? kimning?– es(i)ga tushirmoq nima? yoki kim? kimning?– es(i)ga tushirmoq nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o'zining] nima-**

ni? **es(i)ga solmoq 1** nima? yoki kim? kimning? nimani? **xayol(i)ga kelmoq** nima? kimning? – **xayol(i)ga keltirmoq 2** kim? [o‘zining] nimani? Antonimi: **es(i)dan chiqarmoq** nima? kimning? – **es(i)dan chiqarmoq** kim? [o‘zining] nimani? **yod(i)dan ko‘tarmoq** kim? [o‘zining] yoki kimning? kimni? – **yod(i)dan ko‘tarilmoq** nima? yoki kim? kimning?

Shoshmanglar, bir qiziq gap esimga kelib qoldi. N.Nazarov. Zamon. *Har bitta nina urganda Ubay esiga kelib turadi.* G‘.G‘ulom. Qizaloq. *O‘g‘lingiz, xotiningiz borligi endi yodimgizga keldimi?* S.Ahmad. Begona. *Yuraginga yaqin kishi topolmaydigan bir paytda sen yodimga kelding.* S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. *Birdan xurjun ichida yotgan ikkita non uning xotiriga keldi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 nima? – nimani? o‘ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq. Varianti: **esga kelmoq** nima? **yod(i)ga kelmoq**. Sinonimi: **xayol(i)ga kelmoq** nima? kimning? – **xayol(i)ga keltirmoq 1** kim? [o‘zining] nimani? **miya(s)ga kelmoq** nima? kimning?

U shunday bir holatda ediki, Ziyodaxonning so‘ziga kulish kerak ekani keyin esiga keldi. A.Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari. Uning chakmonidan o‘tgan yomg‘ir kalta yengil abosini nam qilgan edi. Lekin yoz oqshomi illiq bo‘lganligi uchun kiyim almashtirish esiga tushmadi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

es(i)ga olmoq: esga olmoq

ES(I)GA SOLMOQ 1 nima? yoki kim? kimning? nimani? xotirasida

tiklamoq. Varianti: **esga solmoq** nima? yoki kim? nimani? **yodga solmoq** nima? nimani? Sinonimi: **es(i)ga tushirmoq** nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o‘zining] nimani? **esga keltirmoq 1** kim? nimani? **xayol(i)ga keltirmoq 2** kim? [o‘zining] nimani? Antonimi: **es(i)dan chiqarmoq** kim? [o‘zining] nimani? yoki kimni? **yod(i)dan ko‘tarmoq** kim? [o‘zining] yoki kimning? kimni?

Hammangizga ma‘lum bo‘lgan bir voqeani eslaringga solmoqchiman. S.Anorboyev. Oqsoy. *Bu seskanish unga o‘z qilmishini – bugungi iztirobning boisini esga soldi.* S.Ahmad. Alla. *Skripka hamon nozik pardalarda – u bolalikning beozor o‘t-olov kunlaridan uzilib qolgan damlarini yodga solar, o‘sha kunlarga beixtiyor yetaklardi.* S.Ahmad. Ko‘klam taronalari.

2 kim? kimning? nimani? yoki kimni? unutila yozganni eslatmoq. Varianti: **esga solmoq** kim? nimani? yoki kimni?

Jo‘raxonni esimga solmasangiz bo‘lardi. A.Muxtor. Opa-singillar. *«To‘g‘ri, to‘g‘ri, men bu haqida gapirishni unutibman. Rahmat, Bo‘stonxon, esga soldingiz», – dedi Botir.* S.Nazar. Yashil boylik. *Attang, otasini esga solib, yarasini yangiladim shekilli.* A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

es(i)ga tushirmoq: es(i)ga tushirmoq

ES(I)GA TUSHMOQ nima? yoki kim? kimning? – **ES(I)GA TUSHIRMOQ** nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o‘zining] nimani? xotirasida tiklanmoq. Varianti: **esga**

tushmoq nima? yoki **kim?** – **esga tushirmoq nima?** yoki **kim? nima-ni?** **yod(i)ga tushmoq – yod(i)ga tushirmoq; yodga tushmoq nima?** Sinonimi: **es(i)ga kelmoq nima?** yoki **kim? kimning?** – **esga keltirmoq 1 kim? nimani? es(i)ga solmoq 1 nima?** yoki **kim? kimning? nima-ni?** **xayol(i)ga kelmoq nima? kimning?** – **xayol(i)ga keltirmoq 2 kim?** [o‘zining] **nimani?** Antonimi: **yod(i)dan ko‘tarmoq kim?** [o‘zining] yoki **kimning? kimni?** – **yod(i)dan ko‘tarilmoq nima?** yoki **kim? kimning? es(i)dan chiqmoq nima? kimning?** – **es(i)dan chiqarmoq kim?** [o‘zining] **nimani?** yoki **kimni?**

Birdan ikkalamizning Smolenskda razvedkaga borganimiz esimga tushdi. M.Muhamedov. Qahramon izlab. *Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi.* A.Qahhor. Anor. *Siz, bolalar, qayoqdagi gaplarni esga tushirasizlar.* H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari. *Ahmadjon: «Darrov miltiq olaman-u, urushga ketaveraman», deb o‘ylagani yodiga tushsa, kular edi.* A.Qahhor. Oltin yulduz. *Bugun birdan sen yodimga tushib qolding.* S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. *Shunda Robiyaning tushiga kirgan qo‘rqinchli voqea uning esiga tushdi-da, noma‘lum bir xatar vujudiga larzaga solib o‘tdi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

es(i)ni chiqarib yubormoq: es(i) chiqib ketdi

es(i)ni og‘dirib qo‘ymoq: es(i) og‘di

es(i)ni olib qo‘ymoq: es-hush(i)-ni olib qo‘ymoq

ES(I)NI TANIMIQ *kim?* [o‘zining] go‘daklik davridan chiqib, ong-li hayot yo‘liga kirmoq. Varianti: **es-hush(i)ni tanimoq** Varianti: **es-hush(i)ni tanimoq.**

Hoy, sizga nima bo‘ldi, girgitton. Esimni tanib yolg‘on gapirgan emasman. Eshitganimni aytdim-da. Dada-si ham eshitibdilar. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *U vaqtda hali es hushini tanimagan Bashorat bilan Tursunoy-ga nihoyatda dahshatli ko‘ringan bu voqealarni Onaxon to‘g‘ri baholar edi.* A.Muxtor. Opa-singillar.

es(i)ni yemoq: aql(i)ni yemoq

es(i)ni yig‘ishtirmoq: es-hush(i)-ni yig‘moq

es(i)ni yig‘moq: es-hush(i)ni yig‘moq

es(i)ni yo‘qotmoq: hush(i)ni yo‘qotmoq

ES-ES BILMOQ *kim?* xotirasida g‘ira-shira saqlanmoq, elas-elas xotirlamoq.

Har holda, es-es biladi: o‘sha oqshom oy juda ham katta chiqqan edi. A.Qahhor. Sinchalak. *Bolaligimda, es-es bilaman, bu yer katta obod qishloq edi.* A.Muxtor. Tug‘ilish.

ES(IM) QURSIN [o‘zimning] nimanidir esdan chiqarganda tanbehni, koyishni ifodalaydi (ayollar, qariyalar nutqida ishlatiladi).

«O‘rtoq, Bektemirovga xabar qildingizmi?» – «Yo‘g‘e, esim qursin». S.Ahmad. Hukm. *«Ha, aytganday, esim qursin, so‘ramabman... Ering durustmi? Ko‘p kuydirmaydimi?»* A.Qahhor. Sinchalak.

esga kelmoq: es(i)ga kelmoq

esga keltirmoq: es(i)ga kelmoq
esga olinmoq: esga olmoq

ESGA OLMOQ kim? nimani? yoki kimni? xotirlamoq, eslamoq. Varianti: **es(i)ga olmoq** kim? [o'zining] nimani? yoki kimni? **esga olinmoq** nima?

Biz bir pand yedik qizim. Esga ol-sam, hali ham toqat qilolmayman. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Dunyoda shunday odamlar borki, bir esga ol-sangiz; ko'nglingiz chiroqday yorug' bo'lib ketadi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *O'sha vaqtlarni esiga olib, endi jil-mayganida, [stanokning] vilkasida sap-sariq zang dog'larini ko'rib qol-di.* A. Muxtor. Tug'ilish. «*Baquvvat-misiz, kampir? Qosimjondan xat kelib turibdimi?*» – «*Ha, aylanay, xotiniga kelib turgan bo'lmasa, bizni esiga ham olmaydi.*» S.Ahmad. Mastonbibi.

esga solmoq: es(i)ga solmoq

esga tushirmoq: es(i)ga tushmoq

esga tushmoq: es(i)ga tushmoq

esdan ko'tarilmoq: yod(i)dan ko'tar-moq

esdan chiqarilmoq: es(i)dan chiq-moq

esdan chiqarmoq: es(i)dan chiq-moq

esdan chiqmoq: es(i)dan chiqmoq

esda turmoq: es(i)da turmoq

esda tutmoq: es(i)da tutmoq

esda qolmoq: es(i)da qolmoq

eshag(i) loydan o'tdi: ish(i) bitdi, eshag(i) loydan o'tdi

eshig(i)ga bosh qo'ymoq: oyo-g'(i)ga bosh urmoq

ESHAGIDAN TUSHOVI QIM-MAT[GA TUSHDI] nimaning? natija sarf-harajatni qoplashga ham yetmaydi.

Butun ish ketmonda bajarilar edi. Natijada eshagidan tushovi qimmat-ga tushardi. N.Safarov. Katta karvon yo'lda. «*Eshagidan tushovi qimmat*» deganlariday, *nahotki sotib olin-gan har bir qo'zi to'rt yuz, besh yuz so'mdan tushgan bo'lsa?* S.Anorbo-yev. Oqsoy.

ESHAGIGA (yoki **ULOVIGA**) **YARASHA TUSHOVI** bir-biriga ya-rasha, mos, munosib, monand kabi ma'nolarni ifodalaydigan ibora.

Eshagiga yarasha tushovi demoq-chisiz-da? Uyg'un. So'nggi pushay-mon. *Barakalla, uloviga yarasha tu-shovi deganlaridek... texnikadan qi-yinchilik tortgani uchun dard qolish-yapti bular.* Y. Shamsharov. Dovruq.

ESHIG(I)NI YEL OCHIB, YEL YOPADI kimning? hamma narsa hech qanday mehnat-mashaqqatsiz muhay-yo bo'ladi.

Xotinlarning xulqi, odati ma'lum. To'rtta qo'shni xotin orasiga kirs-a, «Boy tog'am bor, eshigini yel ochib, yel yopadi», – deb maqtansa kerak. Oybek. Qutlug' qon.

ESHIG(I)NING TURMINI BUZ-MOQ kim? kimning? xonadoniga qat'iy so'rov bilan juda ko'p marta kelmoq. Varianti: **darvoza(si)ning turmini buzmoq; darvoza(si)ning turmini teshmoq.**

Kuniga deng, aylanay egachi, sov-chilar eshigimning turmini buza-di. G'.G'ulom. Yodgor. «*Ishlamasa bo'ladimi, Bo'taka, shirkatdan: «Bo'-nakni kushtar», – deb darvozaning turmini buzib yotir»*, – dedi Ahmad-qulning kichik ukasi. G'.G'ulom. Jo'-rabo'za.

ESHİK BOG‘LAMOQ [eşik bayla=] tar. *kim?* berkinmoq, berkitmoq.

Eshik bog‘lab o‘turma ul sababdan, Ko‘runmasun de-yu bu mendagi ayb. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bir faqirni ko‘rdum, ta‘ma eshikin bog‘lab o‘turur edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Yoyildi chun kunashtek eygu oting, Eshikni bog‘lama doim karam.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ESHIKDAN KELMAY TESHIKDAN *kim?* shu zahotiyuq, darhol.

Toshkentga bir ketganicha o‘n besh kun yo‘q bo‘lib ketdi. Eshikdan kelmay teshikdan ishga chiqib ketdi. S. Ahmad. Mastonbibi.

es-hush(i) butun: es(i) butun

ES-HUSH(I)NI JOYIGA QO‘YMOQ *kim?* [o‘zining] o‘ylab, aql bilan ish qilish holatini tiklamoq.

U es-hushini joyiga qo‘ygani, yana qaytib kirishi va chimildiq ichida kuyovni kutishi kerak edi. P.Tursun. O‘qituvchi.

ES-HUSH(I)NI OLIB QOCHMOQ *nima? kimning?* xayolini o‘ziga tortib olmoq.

Tog‘ tomondan kelayotgan va tobora kuchayayotgan sovuq shamol es-hushini allaqayoqlarga olib qochdi. R. Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

ES-HUSH(I)NI OLIB QO‘YMOQ *kim? yoki nima? kimning?* o‘ziga o‘taketgan darajada mahliyo qilib olmoq. Varianti: **es(i)ni olib qo‘ymoq**: **hush(i)ni olib qo‘ymoq**.

Odam bunday ishni o‘z ixtiyori bilan qilmas ekan. Nimadir es-hushini olib qo‘yar emishda, odam o‘z qo‘llari

nima ish qilganini bilmay qolarmish. A.Muxtor. Opa-singillar. *G‘ulomjon: «To‘g‘ri aytasiz, esimni olib qo‘yishgan», – demoqchi bo‘ldi-yu, lekin nima uchundir demadi.* M.Ismoiliiy. Farg‘ona tong otguncha. *Voy u chalgan dutorni, to‘qigan g‘azallarni eshitsangiz! Odamning shundog‘-la hushini olib qo‘yadi.* M.Ismoiliiy. Farg‘ona tong otguncha.

es-hush(i)ni tanimoq: es(i)ni tanimoq etag(i)dan tutmoq

es-hush(i)ni yig‘ishtirmoq: es-hush(i)ni yig‘moq

ES-HUSH(I)NI YIG‘MOQ *kim?* [o‘zining?] 1 parishonlikdan qutulmoq. Varianti: **es-hush(i)ni yig‘ishtirmoq; es(i)ni yig‘moq; es(i)ni yig‘ishtirmoq.**

Birozdan keyin es-hushini yig‘ib olib, oyoq tovushi kelayotgan tomonga qaradi. Oydin. Gulsanam. *Axir shu go‘dakda nima ayb? Ayb ota-onasida. Es-hushimni yig‘ishtirib oldim. Qat‘iy qarorga keldim. Bolani quchoqlab tramvayga tushdim. Uyga qarab ketmoqdaman.* G‘.G‘ulom. Yodgor. «*Uni shunday tashlab ketaverdingmi?*» – *deysizmi? Yo‘q, men uyga borib esimni yig‘ib oldim. Bir xato qildim-qildim, endi, kech bo‘lsa ham, Xayri uchun kurashishim kerak edi.* A.Muxtor. Xayri.

2 o‘ylab ish tutadigan bo‘lmoq. Varianti: **es-hush(i)ni yig‘ishtirmoq; es(i)ni yig‘moq.**

Tez es-hushingni yig‘ib, halol mehnatga qayishmasang, battar baxting qora bo‘ladi. H.Nazir. – *Esingizni yig‘ing, Podshoh Bobur Mirzo huzu-*

ridasiz! *Shoh Ismoil shu hazrat tufayli sizni ozod qildi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

es-hush(i)ni yo'qotmoq: hush(i) ni yo'qotmoq

ESI KETGAN kimning? telba bo'lgan, jinni bo'lgan.

Siz aralashmang, er-xotinning o'rtasiga esi ketgan tushadi. S.Ahmad. Mullajon.

ESI PAST kimning? fikrlash qobiliyati normal emas, tentak, ovsar.

Yigit boyagi kampirning jiyani bo'lib, tug'ma esi past, xolasining uyiga yaqinda kelgan ekan. A.Qahhor. Sinchalak. *Besh-o'nta esi past va nodonlar so'z qiladi deb, buni baxtsiz qilmoqchimisizlar!* O.Yoqubov. Tilla uzuk.

ESING[IZ] JOYIDAMI?! nima qilayotibsan (... siz)?!; o'ylab ish qil-sang[iz]-chi! Varianti: **hushing[iz] joyidami?!**

«Xo, yoqmay qolsin-a, g'o'za bahona-yu, allakimlarning dardi g'animat ekan-da, Yulduzxon?» – «Nima deyapsan, Karomat, esing joyidami?! O'zing ashula boshlaysan-u, qo'shilsak, yana...» R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Men halitdan bir kun emas, bir kun Muqaddas bilan birga chamadon ko'tarib Begobodga borishimizni ko'z oldimga keltira boshlagan edim.* «Iye, doim shundaqa qilasiz-a? Hushingiz joyidami o'zi?!» Uyqudan uyg'ongandek cho'chib ketdim. O.Yoqubov. Muqaddas.

ESKI HAMMOM, ESKI TOS hech qanday o'zgarishsiz; ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Si-

nonimi: **boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i.**

Bunda bularning aytgani bo'ladi: eski hammom, eski tos, yana yerlarimiz qaqrab qolaveradi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

eski tos, eski hammom: eski hammom, eski tos

esxona(si)ni chiqarib yubormoq: es(i) chiqib ketdi

esxona(si) chiqib ketdi: es(i) chiqib ketdi

ET OLMOQ nima? etiga et qo'shilmok, semirmok (uy hayvonlariga nisbatan ishlatiladi). Sinonimi: **et qo'ymoq kim?**

Jonivorlar men yo'g'imda salkam o'n kilodan et olibdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ET QO'YMOQ kim? etiga et qo'shilmok, semirmok (kishiga nisbatan ishlatiladi). Sinonimi: **et olmoq nima?**

Uning baqquvvat gavdasi biroz et qo'ygandi. N.Nazarov. Zamon.

ETI JUNJIKMOQ kimning? seskanmok.

Bobur o'rnidan sakrab turdi. Takror eshitilgan alamli yig'idan eti junjikib, buvisining xonasiga qarab yugurdi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

ET(I) O'LDI kimning? – **ET(I)NI O'LDIRMOQ** kim? kimning? qayta-qayta ko'rish, eshitish tufayli salbiy ta'sirlanmaydigan, keskin norozilik bildirmaydigan bo'lmoq.

Pochchayev achchiq hazil, kino-yali gaplar, hatto kalaka qilishlar ham kor qilmaydigan bo'lib, eti o'lib qolgan edi. A.Muxtor. Tug'ilish. *Akram o'limni ko'ra berib, eti o'lib qol-*

gan bo'lishiga qaramay, yuragi shuv etib ketdi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Qo'rqmay-netmay, hech narsani andisha qilmay shuncha katta «sovg'a» olib kelgan bo'lsa, bundan chiqdiki, kichikroq «sovg'a»larni yedirib, etingizni o'ldirib yurgan ekan-da!* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ETAG(I)NI QOQMOQ kim? [o'zining] nimadan? ko'ngli qolgani, xafsalasi pir bo'lgani tufayli narsaga da'vogar bo'lmagani holda voz kechmoq. Varianti: **etak qoqmoq** kim? nimadan?

Boylik katta, G'ulomjon, yangangiz bilan ajralishgan vaqtda hamma narsadan voz kechib, etagimni qoqib chiqib ketganman, endi yangidan ro'zg'or tuzmasak bo'lmaydi... H.Nu'mon. Fasllar. [Pirim] *a'lo-avsat chopon-u ipak mursaklarni kiymay, bir parcha kuyuk kulcha, bir qultum sho'lonsho'rvaga rozi bo'lib, bu dunyoning davlat-u rohatidan etak qoqdilar-u, boshlarini olib chiqib ketdilar.* A.Muxtor. Opa-singillar.

etagidan tutmoq; etag(i)ni ushlamoq

etag(i)dan ushlamoq: etag(i)ni ushlamoq

etag(i)ni tutmoq: etag(i)ni ushlamoq

ETAG(I)NI USHLAMOQ kim? kimning? o'zi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi deb tanlamoq. Varianti: **etag(i)ni tutmoq;** **etag(i)dan ushlamoq;** **etag(i)dan tutmoq.**

Karim oxun, Qosim dallol pir aytab etagingdan Chunon ham ushladilar hovliqib, qurg'ur eshon Viktor.

S.Abdulla. Muqimiy. *Endi sening etagingdan mahkam tutdim, qaysi yo'lga boshlasang, o'zing bilasan.* A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

ETAGI OCHILMOQ kimning? siri ochilmoq, biror aybi, kamchiligi ma'lum bo'lib qolmoq.

Qo'yinglar.. xotin yo'lga chiqsa, etagi ochiladi. Kulgi bo'lasizlar. P.Tursun. O'qituvchi.

ETAGINI O'PMOQ kim? kimning? mute bo'lmoq, aytganini qiladigan holda bo'ysunmoq.

Yurt beklari yashab o'tgan, O'pib yovning etagin. «Sharq yulduzi».

ETAGINI TUTQIZMASLIK kim? nima? tutqich bermaslik.

Lekin uyqu etagini tutqizmay ketdi. S.Abduqahhor, Ko'zlar.

etak qoqmoq: etag(i)ni qoqmoq

ETAK SILKIMOQ kim? nimaga? butunlay umid uzmoq, kechmoq.

Etak silkib, Andijonga ketay desam, ruhsat bermaydir. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Keyin-keyin yurt sog'inchi ustun kelib, ularni bu yerga olib kelmoqchi bo'lgan, ko'ndirolmagan, keyin shartta bariga etak siltab kelavergan...* Sh.Bo'tayev. Qarz.

et-et(i)dan o'tib ketmoq: suyak-suyag(i)dan o'tib ketmoq

eti seniki, suyagi o'ziniki: eti sizniki, suyagi bizniki

ETAKIN TUTMOQ [etäk tut=] tar. kim? kimning? ergashmoq.

Ey o'zin Rustam sifatli pahlavon ko'rgan fato, Kuch bilan bo'lmas sadodatning etakin tutmag'o. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ETI SIZNIKI (SENIKI), SUYAGI BIZNIKI (MENIKI) biror kishi

bilan qanday lozim topsa – shunday muomala qilishga to‘liq huquq berishni bildirib aytiladigan ibora. Varianti: **eti seniki, suyagi o‘ziniki; etiyam, suyagiyam seniki.**

Kuchi – suv tekin, ishlayveradi. Sodda xalq. Aldasang, bas. Eti seniki, suyagi o‘ziniki. Oybek. Qutlug‘ qon. Boqijonni senga topshirdim, etiyam, suyagiyam seniki. Bag‘ringga ol, yo‘l-yo‘riq ko‘rsat. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

ETI SUYAGIGA YOPISHGAN haddan tashqari ozg‘in, haddan tashqari qotma. Varianti: **eti suyakka yopishgan; terisi suyagiga yopishgan.**

Tishlari tushib, jag‘i jag‘iga kirishib ketgan katta buvisi hassasini yerga taq etkizib urdi-yu, qurishib, eti suyagiga yopishib ketgan basharasini tirishtirib shang‘iy boshladi. M. Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. U oltmish yoshlarda, eti suyakka yopishgan, chuvak yuzi va peshanasi chuqur chiziqlar – burishiqlar bilan quyug qoplangan kamsoqol kekxa edi. Oybek. Qutlug‘ qon.

eti suyakka yopishgan: eti suyagiga yopishgan

ET(I)NI BIR BURDADAN QILMOQ kim? kimning? qattiq jazo beraman deb tahdid qilmoq.

«Ha, xira bo‘lmay yer yutsin sen ochofatni, – dedi Lutfixon, ariq labidan kesak ko‘chira turib, – qo‘limga tushsang, nax etingni bir burdadan qilaman. Ikkinchi shu uyga qadam qo‘ygini, nima qilar ekanman». S.Ahmad. Muhabbat.

et(i)ni yemoq: ich-et(i)ni yemoq

et(i)ni o‘ldirmoq: et(i) o‘ldi
etiyam, suyagiyam seniki: eti sizniki, suyagi bizniki

EV(I) KELMADI kimning? uquv qobiliyati yetmadi.

...boshqarishga evi kelmayotgan-dirki, ham o‘zi xunob, ham boshqalar xunob. S. Anorboyev. Oqsoy.

EVINI QILIB qandaydir yo‘l bilan, biror ilojini qilib. Sinonimi: **bir balo qilib.**

Mahmud ikki marta Ko‘rshermatning qo‘liga tushdi. Ikki martasida ham evini qilib qochib qoldi. S.Ahmad. Xotiralar.

EYGULUK YUZUN KO‘RMAGAY [eʁgʉlʉk jʉzʉn kʉrmä=] tar. kim? yaxshilik ko‘rmaslik, ro‘shnolik ko‘rmaslik.

Ul kishikim, yovuzlar bilan o‘lturg‘ay, ey guluk yuzun ko‘rmagay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Har kim o‘z aslina jafu qilsa, Lojaram ey guluk yuzun ko‘rmas. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

E‘TIBOR BERMOQ kim? nima-ga? diqqat qilmoq, diqqat bilan qaramoq.

Mahkam, avvalo, uning xotirjam ekaniga e‘tibor berdi. P. Qodirov. Uch ildiz. Men maktabga yaxshi e‘tibor bermas emishman. I.Rahim. Hilola.

E‘TIBOR QOZONMOQ (yoki **TOPMOQ**) kim? obro‘-hurmatga ega bo‘lmoq, yaxshi nom chiqarmoq.

[Hoji] Normuhammad qushbegi oldida undan ham yuqoriroq va ma‘noliroq e‘tibor qozondi. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar.

e‘tibor(i)ni jalb qilmoq: diqqat(i)ni tortmoq

e'tibor(i)ni tortmoq: diqqat(i)ni tortmoq

E'TIBORGA OLMAGANDA *nimani?* yoki *kimni?* nazardan soqit qilinsa. Sinonimi: **hisobga olmagan-da** *nimani?* yoki *kimni?*

Ochiq to'qnashuvga borib yetmagan Zulfiqorov masalasini e'tiborga olmagan, bu ikki orada bo'lgan birinchi to'qnashuv edi. A.Qahhor. Sinchalak. *Ba'zi yigitlarni e'tiborga olmagan, hamma Munisxonning Saidiy bilan aloqasiga ortiq qiziqmaydigan bo'ldi.* A. Qahhor. Sarob.

E'TIBORGA OLMOQ *kim? nima-ni?* yoki *kimni?* nazar-pisand qilmoq.

Uningapi gap, seniki faqat maslahat, e'tiborga olsa-oladi, bo'lmasa

– yo 'q, og'zingni ochib qolaverasan. I.Rahim. Ixlos. *Lekin imtihon komissiyasi tarjimayi holimda ko'rsatilgan asosiy faktlarni e'tiborga olib, universitetning birinchi kursiga qabul qildi.* G'.G'ulom. Yodgor.

E'TIQOD BOG'LAMOQ [eti-qad bayla=] tar. *kim? kimga?* ixlos qilmoq, ishonmoq.

Ul zamon beklarindan bir bek bu toifa haqqina g'oyat e'tiqod bog'lab, dag'i muhib bo'lub, idror muayyan qildi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

E'TIQOD QO'YMOQ *kim? nimaga?* e'tiqod bilan munosabatda bo'lmoq, bog'lanmoq.

Yerni sevgan, unga e'tiqod qo'ygan dehqon mo'l hosil uchun kurashni erta kuzdan boshlaydi. Gazetadan.





F

fahm(i) yetadi: aql(i) yetadi

fahm-farosat(i) yetadi: aql(i) yetadi

FALAK AYLANMASI [fālāk äy-länmäsi] tar. vaqtga nisbat bermoqda.

Falak aylanmasila davr yetg'ay, Adolat urlug'undin baxt bitg'ay. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

FALAKNING GARDISHI BILAN vaziyat talabi bilan tasodifiy ravishda.

Falakning gardishi bilan men qo'qonlik bo'lib qoldim. I.Rahim. Olovkor. *Falakning gardishi bilan yana o'sha bir vaqtlar o'zi ishlagan joyga ko'chib kelib qoldi.* S.Anorboev. Oqsoy.

FALOKAT BOSIB biror sabab bilan, o'ylamagan-istamagan holda.

Bitta-yarimta falokat bosib ilg'or ... orqadagilarga yumalab tushuvchilar ham bo'lar, ularni umumiy kulgi bilan kutib olishar, har holda, oldingi ... o'tuvchilar ko'proq edi va ko'payib borardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

FALOKAT OYOQ OSTIDA ofat, baxtsizlik kutilmaganda, qo'qqisdan yuz berishi mumkin.

– *Falokat oyoq ostida, deganlari haq gap ekan-da, – dedi kimdir.* T.Rustamov. Mangu jasorat.

FALSAFA SOTMOQ kim? befoйда, noo'rin gaplarni uzundan-uzun gapirmoq.

Kechgacha gapirishib o'tirdik. Shunda Salimxon falsafa sotdi. A.Qahhor. Sarob. *Siz meni falsafa sotayotganim uchun kechiring, men harbiy odamman. Falsafadan uzoqman. Lekin bu ish falsafasiz bitmaydi.* M.Muhamedov. Qahramon izidan.

FARISHTASI BOR kimning? Jozibali, fayzli.

Eson Davlat begim suratni qo'lga oldi va Navoiy tasviriga beixtiyor qiziqib: – Yuzlarida farishtalari bor zot ekanlar, – deb qo'ydi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

FARISHTASI QOCHMOQ Fayz-siz, ko'rimsiz bo'lib qolmoq; qut-barakasi yo'qolmoq.

Lekin yolg'izlik battar ezdi. Uydandan farishta qochgan, tabassum o'chgan edi. A.Muxtor. Asarlar. *Besh vaqt namozni kanda qilma! Bo'lmasa, uyingdan farishtalar qochadi.* Hamza. Boy ila xizmatchi. *Supurilmagan hovlidan farishta qochadi.* N.Aminov. Qahqaha.

FARISHTASI YO'Q kimning? o'ziga jalb qiladigan fazilati, ko'rki yo'q; xosiyatsiz.

Farishtasi yo'q uy kuyovning yuzida farishtasi yo'q, Hojarxon, farishtasi yo'q. Ko'ngilga xush kelmagan nikoh xudoga xush kelmaydi! A.Qahhor. Tobutdan tovush. *Iblis ustozlarningning farishtasi yo'q kitoblarini yondirib, kullarini ko'kka so-vurdim.* K. Yashin. Hamza.

FARYODI KO'KLARGA YETMOQ [farjadi köklärgä jet=] tar. *kimning? kuchli dod-faryod qilmoq.* Varianti: **ohi ko'kka yetmoq.**

Qatti quroqlik bo'ldi, uylakim, xalqning toqati inoni alindan yetib, ko'klar eshiki yer uza bog'lanib, dag'i yer ahlining faryodi ko'klarga yetib turur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

farzand ko'rmoq: bola ko'rmoq

FE'L(I) AYNIDI *kimning? 1* yaxshi kayfiyat o'rnini xafalik oldi. Varianti: **fe'l(i)ni aynitmoq** *kim? kimning? fe'l(i) buzildi.*

«Haligi xotin nimaga kelgan ekan, – dedi «bulbuligo'yo, – domlangiz aytmadilar, so'ray desam, fe'llari aynib turgan edi, qo'rqdim...» A.Qahhor. Sarob. *«Tutunsoliq» deb eshik qoqqan mirshabboshiga... duch kelgan kunlari Sobirjonning qo'li ishga bormas, qoni qaynar, fe'li buzilar edi.* A.Muxtor. Opa-singillar.

2 xulq-atvorida o'zgarish yuz berdi. Varianti: **fe'l(i) buzildi.**

Tustovuqlar tozalanib, tuzlanayotganda Qutbiddinovning fe'li aynidi, ya'ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilgisi keldi. A.Qahhor. O'jar. *U [Boboqul] odamlarga hayron edi. ...shunday zoti pokning yer-suvi, mol-mulkini tortib olishga*

qanday qilib betlari chidaydi?!. Ha, odamlarning fe'li buzilgani aniq. S.Anorboyev. Oqsoy.

fe'l(i) buzildi: fe'l(i) aynidi

FE'L(I) BUZUQ *kimning?* yomon xatti-harakatlarga moyil.

Avomning fe'li buzuq, bu yog'i sizga ayon. Sh. Toshmatov. Erk qushi.

FE'L(I) KENG *kimning?* tanti. Antonimi: **fe'l(i) tor** *kimning?*

Avval o'zi bir narsani tasmollab so'raydi-da, keyin uqtiradi. Fe'li keng, dilkash odam ekan. P.Tursun. O'qituvchi.

FE'L(I) TOR *kimning?* ziqna. Antonimi: **fe'l(i) keng** *kimning?*

«Lekin ayollarning fe'li tor. Kafalikka doka berishsa ham, katta gap», – dedi ming'irlab Yormat. Oybek. Qutlug' qon.

fe'l(i)ni aynitmoq: fe'l(i) aynidi

FIKR YURITMOQ *kim? nima to'g'risida atroflicha fikrlamoq.* Varianti: **o'y yurgizmoq.**

Nizomiddinov vaqtini boy bermay Andijonga qaytish, biron tirikchilikning payiga tushish haqida fikr yurita boshladi. S.Ahmad. Hukm. *Tarix yozila boshlagan kungacha va undan so'nggi jamiyatning yashash usullarini o'qib va shular ustida o'y yurgiza boshlasangiz, ko'p qiziq davrlarga ro'baro' kelasiz.* G'.G'ulom. Badal novcha afsona qahramoni.

FIKR(I)DAN O'TKAZMOQ *kim? [o'zining] nimani? ma'lum bir muddat fikrlamoq.* Varianti: **fikrdan o'tkazmoq** *kim? nimani? fikrdan kechirmoq* *kim? nimani? (eskirgan).* Sinonimi: **ko'ngl(i)dan o'tmoq** *nima? kimning? – ko'ngl(i)dan o'tkaz-*

moq kim? [o'zining] nimani? **xayol(i) dan o'tmoq nima? kimning?** – **xayol(i)dan o'tkazmoq kim?** [o'zining] nimani? **bosh(i)dan kechmoq nima? kimning?** – **bosh(i)dan kechirmoq 2 kim?** [o'zining] nimani?

Maynaning esa sira tap tortmay bahuzur o'tira berganini fikridan o'tkazdi. Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Es-hon eskirgan yo'l-yo'l kimxob to'nini yechar ekan, Olaxo'ja tez kelib, uning yengidan tortdi. Xolmurod ularning o'tirishlarini kutib tik turar va «Xayriyat, xayriyat, tanimadi» – deb fikrdan o'tkazar edi.* P.Tursun. O'qituvchi.

fikr(i)dan qaytmoq: so'z(i)dan qaytmoq

fikrdan kechirmoq: fikr(i)dan o'tkazmoq

fikrdan o'tkazmoq: fikr(i)dan o'tkazmoq

fikrga tolmoq: o'yga tolmoq

FITNA QO'BMOQ [fitna qob=] tar. qayerda? to'polon boshlanmoq.

Shom elinda fitna qo'bt bir zamon, Uylakim, bo'ldi jahonda doston.

fig'on(i) falakka ko'tarildi: fig'on(i) falakka chiqdi

fig'on(i) falakka yetdi: fig'on(i) falakka chiqdi

fig'on(i) chiqdi: fig'on(i) falakka chiqdi

fig'on(i) falakka chiqdi kimning?

FIG'ON(I)NI FALAKKA CHI-QARMOQ nima? kimning? ruhan ortiq darajada bo'g'ilib shovqin qilmoq. Varianti: **fig'on(i) falakka ko'tarildi; fig'on(i) falakka yetdi; fig'on(i) chiqdi.** Sinonimi: **tutun(i) osmonga chiqdi kimning?**

Xayri bog'chadan o'g'lini olgani kriganda tarbiyachining fig'oni falak-

ka chiqib turgan edi. S.Ahmad. Begona. *Xalqning hayoti nihoyat og'ir va mushkul, fig'onlari falakka yetgan.* Oybek. Nur qidirib.

fig'on(i)ni falakka chiqarmoq: fig'on(i) falakka chiqdi

FOTIHA BERMOQ kim? biror faoliyatni boshlashga rozilik bildirib duo qilmoq.

To'g'ri aytasan, – dedi o'ylanib Rixsiboy, – bo'lmasa men bir kuyov-ing Muhammadaminning oldidan ham o'tay...» – «Ha, ha, shunday qiling, Nazira», – dedi xotini va fotiha berdi... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

FOYDA BERMOQ nima? 1 daromad olishga olib kelmoq. Sinonimi: **foйда yetkazmoq nima? kimga?**

...bilmagan kishi tasodifiy tushgan mollar bilan savdo qilib, qo'l uchida tirikchilik qiladigan do'kondor gumon qilar edi. Bu juda qo'l keldi, ammo, har holda, ilgarigiday foyda bermas edi. A. Qahhor. Sarob.

2 ijobiy natijaga olib kelmoq. Sinonimi: **foйда keltirmoq nima?**

Oilada bo'ladigan turli-tuman turkona dorilar foyda bermagach, noiloj tabibi xoziq domla Hubbini chaqirib keltiribdi. G'G'ulom. Luqmon. Al-laqanday narsalarni eslab, bu xunuk voqeani xayoldan chiqarib tashlashga urinasan-u, bari bir, bular foyda bermaydi, miyangda o'rnashib qoladi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

FOYDA Keltirmoq nima? ijobiy natijaga olib kelmoq. Sinonimi: **foйда bermoq 2 nima?**

Ayniqsa, bu kashf harbiy istehkomda qo'llanilsa, zo'r foyda keltirishini alohida ta'kidladi. Shuhrat. Shinelli yillar.

FOYDA KO'RMOQ kim? nima-dan? daromad qilmoq.

Qamishkapaliklar Zokirxo'ja qas-sob to'g'risida gap borsa, «Har bir so'yilgan qo'ydan ikki hissa foyda ko'rmasa, o'zini changakka osadi», – deb ta'riflar edilar. P. Tursun. O'qituvchi.

FOYDA YETKAZMOQ: nima? kimga? daromad olishga olib kelmoq. Sinonimi: **foyda bermoq 1** nima?

O'z o'rnida bo'shatilgan ikki juft shisha unga yigirma juft kitobdan ortiqroq foyda yetkazar edi. A.Qahhor. Sarob.

FURSATNI G'ANIMAT KO'R-MOQ [fursatni yanima?t kör=] tar.kim? ayni vaqti deb bilmoq. Varianti: **fursatni g'animat bilmoq.**

Emdi bukun seni qo'ynuda ko'rub, fursatni g'animat ko'rdum. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

FUTUR KETDI kimdan? yoki nimadan? orqaga qarab ketish, inqiroz boshlandi. Varianti: **futuri ketdi nimaning? futur ketgani (-).**

U zamonlarda hunardan futur ketgan edi, O'ktamjon. Oybek. Oltin vodi-dan shabadalar. Rahbar tomog'iga zo'r berdimi, obro'yidan futur ketgani bo'ladi. A. Qahhor. Yangi yer.

FUTUR YETDI nimaga? [nima-dan?] – **FUTUR YETKAZMOQ** nima? nimaga? zararli bo'lib chiqmoq. Sinonimi: **xalal yetdi** nimaga? – **xalal yetkazmoq** nima? nimaga? yoki kimga? **ziyon yetdi** nimaga? – **ziyon yetkazmoq** kim? kimga? **zarar(i) tegdi** kimning? yoki nimaning? kimga? yoki nimaga? **zarar keltirmoq** nima? kimga?

Urush bo'lgandan keyin daromad-ga futur yetmay iloji yo'q. S.Ahmad. Qaytish. Qo'lga tushsang, mening obro'yimga futur yetadi. S.Ahmad. Hukm... qurilish ishlari g'o'za par-varishiga sira futur yetkazayotgani yo'q. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

futur ketgani: futur ketdi

futur yetkazmoq: futur yetdi

futuri ketdi: futur ketdi

G

GADOY TOPMAS topib borish juda qiyin bo'lgan.

Rosa gadoy topmas joyga o'zini uribman-da. Oybek. Qutlug' qon. Xonkeldidek gadoy topmas, xilvat bir qishloqda eskirib, chirib, achib borayotgan urf-odatlar saqlanayotgan chekka bir yurtida nikoh to'yiga boryo'g'i bir hafta qolganda qiz bolaning yo'q bo'lib qolishi... X.To'xtatoyev. Quyionlar saltanati.

«gah» deganda qo'lga qo'nadigan qilib olmoq: «gah» desa (...), qo'lga qo'nadigan qilib olmoq

«gah» desa (...), qo'l(i)ga qo'nadigan qilib olmoq: «gah» desa (...), qo'lga qo'nadigan qilib olmoq

«GAH» DESA (...), QO'LGA QO'NADIGAN QILIB OLMOQ kim? kimni? juda itoatkor qilib olmoq. Varianti: **«gah» desa (...), qo'l(i)ga qo'nadigan qilib olmoq** kim? [o'zining] kimni? **«gah» deganda qo'lga qo'nadigan qilib olmoq.**

Lekin bizning Boqijon ham xiyala pishi q yigit; u mahmadonani o'z quchog'iga olgandan keyin, «gah» desa, qo'lga qo'nadigan qilib oladi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. O'zi o'g'lim noshud. Xotinniki «gah» deganda qo'lga qo'nadigan qilib ol-

madimi, bunday erkakdan og'ildagi buzoq yaxshi. S. Ahmad. Hasrat.

GALGA SOLMOQ kim? nima ni? yanagi safar bajarishini mo'ljallab keyinga qoldirmoq.

Xotin, bola-chaqasini tashlab ketishga ko'zi qiyamay galga solgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Yana galga solishga qo'limda hech qanday vaj-karson bo'lmagani uchun, men ham bu ishga o'z roziligimni bergan edim. G'.G'ulom. Yodgor.

gap aylantirmoq: gapni aylantirmoq

gap bermaslik: so'z bermaslik

GAP BERMOQ I kim? kimga? tinmay gapirmoq.

Dadajon aka hammani og'ziga qaratib gap bermoqda. I.Rahim. Ixlos.

GAP BERMOQ II kim? kimlarga? ulfatchilikda o'z navbati kelib, o'yin-kulgi bilan to'kin-sochin mehmondorchilik o'tkazmoq.

Boylar bilan qish-yoz gap-gashtak yeydi. Lekin o'zi hech vaqt gap bermaydi. Oybek. Qutlug' qon. Qahraton Qish. Tuf desangiz, tupugingiz muzlaydi. Shunday vaqtda Azlarxon to'raning gap berganidan hamma xizmatchilari xafa. Oydin. Hazil emish.

GAP BILAN CHALMOQ kimni? gap bilan uzib olmoq.

Payti kelganda, Mikola ilmoqdor qilib, gap bilan chalib tashlar edi. S.Anorboyev. Do'stlar.

GAP BITTA qaror qat'iy.

Gap bitta. Yosh umrimni bola boqish bilan o'tkazmayman. S.Ahmad. Alla. «Nega tirjayasan? – Jonizoq oqsoqol o'qraydi. – Yuz so'm shtraf to'la, gap bitta!» S.Anorboyev. Oqsoy.

GAP BO'LMOQ kim? – **GAP QILMOQ** kim? kimni? salbiy muhokama, mish-mish obyekt bo'lmoq. Varianti: **gap-so'z bo'lmoq** – **gap-so'z qilmoq**.

Rahbarning gap bo'lib ketgani – obro'sining tushgani. I.Rahim. Ixlos. Qiziq, oyog'ini egri bosibdimiki, gap-so'z bo'lsa?! S.Anorboyev. Oqsoy. Adolatga ko'z olaytirib, orqavoratdan gap-so'z qilib yurgan bu g'alamisning xushomadidan Normatning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi. I.Rahim. Chin muhabbat.

GAP ESHITMOQ kim? kimdan? tanbeh, koyish so'zlarini tinglashga majbur bo'lmoq.

U uyidan «Mastonbibini bir boplayki, yerga kirib ketsin» deb chiqqan edi, bo'lmadi. Qaytaga o'zi gap eshitdi. S.Ahmad. Mastonbibi. Suyarova undan qattiq gap eshitib, Sotiboldiyevga shikoyat qildi. P.Qodirov. Uch ildiz. Shu ichganingiz chatoq ekan-da, biz sizni qo'yib yuborsag-u, bir kori hol bo'lsa, ertaga gap eshitamiz. O'rtoq Omonturdiyev ham xafa bo'ladilar. T.Malik. Charxpalak.

GAP KELGANDA biror fikrni aytish uchun qulay, mos sharoit tug'ilib qolganda.

«Men ham ko'pchilikka foydali biron ish bilan shug'ullansam, yaxshi bo'lardi», – dedi Mahkam aka gap kelganda yigitga. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. «Majlisda katta-kichik degan gap bo'lmaydi, gap kelganda otangni ham ayama!» – dedi Safarov. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

GAP KETDI kim? yoki nima haqda fikr yuritildi.

Umuman, yaxshi quruvchilar ustida gap ketib, ma'lum bo'ldiki, ular ikkovi ham so'nggi vaqtgacha hech kimni uchratmagan ekan. P.Qodirov. Uch ildiz.

GAP KOVLAMOQ kim? bo'lib o'tgan ishlar to'g'risida yomon niyat bilan gapirmoq.

Domla uning yolvorishiga qaramasdan yana gap kovladi: «Siz shoir bo'lsangiz ham, hali bo'qhasini tashlamagan chumchuq bolasiz...» A.Qahhor. Sarob. «Avvalo shuki, dada, boshingni silaganman deb minnat qilishingizga sira-sira o'rin qolgan emas. Odamga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak». – «Xo'sh, xo'sh?» – «Nima qilasiz gap kovlab!..» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

GAP KO'TARA OLMASLIK kim? o'z sha'niga aytilgan har qanday tanqidiy mulohazaga jizsakilik qilmoq. Varianti: **gapni ko'tara olmaslik?**

Qudrat juda nomusli bola, gap ko'tara olmaydi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Akam yoshlik qilgandir, ham o'zi uncha-muncha gapni ko'tarmaydigan yigit, ilgaridan fe'li shundiq. Oybek. Qutlug' qon.

GAP ORTTIRMOQ *kim?* [o'ziga] har xil ortiqcha fikr-mulohazalarining yuzaga kelishiga sababchi bo'lmoq.

Agar qattiq tegsa, bu gap bir kun emas bir kun Teshaboyning qulog'iga yetadi-da, tag'in o'ziga gap orttirib oladi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

gap otmoq: gap tashlamoq

gap ochildi: gap ochmoq

gap ochilishi: gap ochmoq

GAP OCHMOQ *kim? nimadan? yoki kimdan?* o'z tashabbusi bilan biror fikrni bayon qila boshlamoq. Varianti: **gap ochildi** *nimadan?* yoki *kimdan?* **gap ochilishi** *nimadan?* yoki *kimdan?* **so'z ochmoq;** **so'z ochildi** *kimdan?* **so'z ochilishi** *kimdan?*

Hozir Polvonning oldida devordan gap ochsang jon-poni chiqib ketadi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Uning qabul masalasida gap ochilishidan bezillayotgani sezilib qoldi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Nozima marhumning xotini bilan ko'risholmadi. Lekin shu ayol haqida gap ochilganda Omonturdiyev sal o'zgardi.* T.Malik. Charxpalak. *Keyin ishga tushib bedani o'rib bo'lgunimizcha ham bu haqda bir og'iz gap ochmadi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

GAP QAYTARMOQ *kim? 1 nimaga?* yoki *kimga?* javob qilmoq. Sinonimi: **javob bermoq** *1 kim?* yoki *nimaga?* yoki *kimga?* **javob qaytarmoq** *1 kim? nimaga?* yoki *kimga?* Antonimi: **savol bermoq** *kim? kimga?*

Ammo Jo'raxonning uch-to'rt yashar kichkina sizday erkalanib gap qayta-

rishi onasiga qattiq botmadi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Xolida eriga boshqa gap qaytarolmadi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

2 kimga? e'tiroz javobini bermoq, aytishmoq. Varianti: **so'z qaytarmoq;** **gap(i)ga gap qaytarmoq** *kim? kimning?* **so'z(i)ga so'z qaytarmoq** *kim? kimning?*

Oyi, men siznikiga kundosh ko'rib kelgan emasman. Gap qaytarishga o'zingiz majbur qildingiz. S.Zunnunova. Latta. *U o'jarlik qilib so'z qaytarish u yoqda tursin, Marhamatning va onasining aftiga biron marta tik boqolmadi ham.* H.Nazir. *So'nmas chaqmoqlar. Endi tag'in so'z qaytargin so'zimga.* S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

gap qilmoq: gap bo'lmoq

GAP QISTIRMOQ *kim?* biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo'luvchi so'z-gap ilova qilmoq. Varianti: **so'z qistirmoq.** Sinonimi: **luqma tashlamoq** *kim?*

«Suv boshidan loyqalanadi», – deb Zufar Hakimovich gap qistirdi. P.Qodirov. Uch ildiz. *«Texnikani ham!» – Kozim afandi so'z qistirdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

gap qo'zg'aldi: gap qo'zg'amoq

GAP QOPI OCHILMOQ *kimning?* suhbat davomida o'z muammolari haqida ko'p gapirib, hasrat qilmoq. Varianti: **hasrat qopi ochilmoq.** Sinonimi: **dil (ko'ngil) daftari ochilmoq.**

Gap qopi ochilib ketib, qo'shnisiznikiga nima uchun chiqqani ham esidan chiqdi. So'zlashuv uslubi.

GAP QOTMOQ kim? [kimga?] 1 suhbatga tortish maqsadida gap aytmoq. Varianti: **so‘z qotmoq**.

Bir kuni, nima ham bo‘ldi-yu, Asqarali yurak yutib Jamilaga gap qotdi. Mirmuhsin. Jamila. *Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurрак ota boshlagan edi, To‘raxon gap qotib qoldi.* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. *Qizning xatti-harakatlaridan taajjubda qolgan Turg‘un esa unga so‘z qotishga jur‘at qilolmas edi.* O.Yoqubov. Tog‘ qizi. *Chigitkuydiga yaqinlashib qolishgan edi. Komil muallimga gap qotmay, ergashib boraverdi.* T.Malik. Charxpalak.

2 biror kishining nutqi davomida yo‘l-yo‘lakay biror fikrni aytib qolmoq.

Oldingi qatorda iyagini hassasiyaga tirab o‘tirgan bir chol gap qotdi: «Yo‘q, bolam, bu Hodivoy remont qilishga arzimaydi...» S.Ahmad. Hodivoy. *«Po‘latjonning kelishi sharofati bilan uy ishiga aralashib qoldi-da», – deb gap qotdi.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

GAP QO‘ZGAMOQ kim? esdan chiqib ketgan hodisalarni yomon niyat bilan qaytadan kovlashtirmoq. Varianti: **gap qo‘zg‘aldi (-)**.

«Agar o‘ng kelib qolsa, bilganlarimni aytib berib, bir gap qo‘zg‘ayman», – deb ko‘ngliga tugdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

GAP SOTMOQ kim? zarur bo‘lmagan gaplarni ko‘p va uzoq gapirmoq.

Men razm soldim, allaqachondan beri gap sotasiz. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

O‘zi-ku darslardan u qadar yaxshi emas, gap sotib o‘tirishini qarang. S.Anorboyev. Pushaymon. *Oqshom chog‘ida xirmonda terimchi ayollar gap sotib turishgan edi.* T.Malik. Charxpalak.

GAP TALASHMOQ kim? kim bilan? ma‘lum bir fikrni to‘g‘ri deb isbotlashga harakat qilmoq.

[Ziyodaxon] sabablarini tushuntirayotib hatto qizishib, Sherbek bilan gap talashib ham qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Ikki qizcha maktabdan kelayotib gap talashib qolishdi.* H.Nazir. O‘jar qizlar. *Ishni kapitan Odilov bilan gap talashishdan emas, mana shularni aniqlashdan boshlash kerak edi.* T.Malik. Charxpalak.

GAP TASHLAMOQ kim? [kimga?] 1 fikrini bilish maqsadida biror gap-so‘z aytmoq.

Simyog‘och ustida radio tuzatayotgan montyor bola uning tajangligiga hayron qolib gap tashladi. S.Ahmad. Xotinlar. *Ba‘zan o‘smoqchilab cholga gap tashlar edi.* Oydin. Farhodlar.

2 suhbatga tortish maqsadida te-gajaklik bilan gapirmoq. Varianti: **so‘z tashlamoq; so‘z otmoq** (oz ishlatiladi).

...velosipedchi tugul, eshak mingan kishiga ham gap tashlashib, hazil qilmay qo‘yishmasdi bu terimchilar. I.Rahim. Chin muhabbat. *«Abdug‘afur otam ketib, juda yayrab qoldi-da», – deb so‘z tashlagan edi, Tursunoy qoshlarini chimirib, unga tikildi.* R.Fayziy. Cho‘lga bahor kel-di. *Muqaddas ikkimizni doim kuzatib yurgan, bir necha marta Muqaddasga*

so'z otib, tanishishga harakat qilib ko'rgan. O.Yoqubov. Muqaddas.

GAP TEGDI I *kimga?* gapirishga imkon berildi. Varianti: **so'z tegdi**.

Senga bir gap tegdimi, cho'zaverasan rezinka qilib. H.Nazir. «*Tamom,— dedi ichida, — og'iz solgani payt poylab yurganlarga ham so'z tegdi.*» A.Qahhor. Sinchalak.

gap tegdirmoq: gap tegdi II

gap tegizmoq: gap tegdi II

GAP TEGDI II *kimga?* – **GAP TEGIZMOQ** *kim? kimga?* tanbeh eshitmoq. Varianti: **so'z tegadigan bo'ldi**.

Boring tezroq. Bitta-yarimta ke-lib qolsa, gap tegadi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Bunaqangi gap tegizadigan mushukning boridan yo'g'i.* A.Muhiddin. Betob. *Endi!.. sening bir pullik bolangni deb menday bir qopqa ustuniga so'z tegadigan bo'ldi.* N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

GAP YEMOQ *kim? (kim bilan?)* ulfatlarning o'yin-kulgi bilan to'kin-sochin o'tkazadigan mehmondorchiligida qatnashmoq.

Hamma gap yeydi, biz nega yemaymiz? A.Qahhor. Sarob. *Qishning uzun tunlarida bu yerda ulfatlar gap yeyishadi, yigitlarning childirma bazzmlari, qiy-chuvlari katta yo'ldan eshitilib turadi.* P.Tursun. O'qituvchi.

GAP O'RGATMOQ *kim? kimga?* biror shart-sharoitda nima deb gapirish bo'yicha ko'rsatmalar bermoq.

Hilola gap o'rgatmadimikan? I.Rahim. Hilola. *Bu o'zingizning gaplaringiz emas. Kimdir o'rgatgan. Sadirovni o'limga majbur qilgan odam o'rgatgan. O'sha odam kim, nomini*

ayting? – *Menga hech kim gap o'rgatgani yo'q.* T.Malik. Charxpalak.

GAP(I) OG'Z(I)DA QOLDI *kimning?* gapini oxiriga yetkaza olmaslik. Varianti: **so'z(i) og'z(i)da qoldi**.

Domla nimadir demoqchi edi, qayerdadir Soraxonning dodlagan tovushi eshitilib, gapi og'zida qoldi. A.Qahhor. Sarob.

gap(i) o'tdi: so'z(i) o'tdi

GAP(I)DA JON BOR *kimning?* ba'zi fikrlari asosdan xoli emas.

Savrixon opaning gapida jon bor ekan-da, otamizning o'zini jin urib qo'ygan ekan-u, shuning uchun hali u ochiq-yorug' aytolmayotgan ekan. H.Nu'mon. *Yoshlikda bergan ko'ngil. Lekin o'sha sullohning bir gapida jon bor: «Jiddiyroq farazni o'rtağa tashlasang, avval «unvoni bormi buning?» deb so'rashadi.*» T.Malik. Charxpalak.

GAP(I)DA TURMOQ I *kim? [o'zining]* ahdini saqlamoq. Varianti: **so'z(i)da turmoq I; lafz(i)da turmoq**. Antonimi: **so'z(i)dan qaytmoq** *kim? [o'zining]*.

«Ishonmang, Marhamat opa! – dedi Quadrat, go'yo vojatiy darrov ishona qoladiganday. – Shu gapingizdan qaytmaysizmi-a? Xo'p?!» A.Qahhor. Qabrdan tovush. *Gapida turmaydi u.* H.Nazir. *Ko'korol chiroqlari. «Ixtiyor o'zingda, jigirim, – dedi u yig'lam-siragan bir tovush bilan. – Lekin o'z so'zingda turmaganing uchun xafaman».* Oybek. *Oltin vodiyan shabaddalar. Kecha borganimda yana pishitdim, Xolmat Yunusovich – lafzida turadigan odam.* A.Muxtor. Tug'ilish.

gap(i)da turmoq II: so'z(i)da qattiq turmoq

GAP(I)DAN LATTA HIDI KELMOQ (*kimning?*) fikr-mulohazalarida g'araz, adovat borligi bilinib turmoq.

Hodivoy, achchig'ing chiqmasin-u, anchadan beri gapingdan latta hidi keladigan bo'lib qolgan. S.Ahmad. Hodivoy.

GAP(I)DAN QAYTMASLIK *kim?* [*o'zining*] aytgan fikrini zarur bo'lgan o'rinda tasdiqlamoq, unga amal qilmoq.

Shu gapingiz gapmi? Shu gapingizdan qaytmaysizmi? A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

GAP(I)DAN CHIQQASLIK *kim?* *kimning?* aytganini qilmoq. Varianti: **so'z(i)dan chiqmaslik**. Sinonimi: **gap(i)ga kirmoq** *kim?* *kimning?* **qu-loq solmoq 2** *kim?* *nimaga?* («*gapiga*).

Ota-onani qattiq hurmatlab, ularning so'zidan chiqmay ish ko'rishga o'rgangan Jamila bu uyda ham xuddi shunday odatini davom ettirdi. Mir-muhsin. Jamila.

gap(i)ga gap qaytarmoq: gap qaytarmoq

GAP(I)GA KIRMOQ *kim?* *kimning?* aytganini qilmoq. Varianti: **gapga kirmoq** *kim?* **so'z(i)ga kirmoq;** **so'zga kirmoq** *kim?* Sinonimi: **qu-loq solmoq 2** *kim?* *kimga?* («*gapiga*); **gap(i)dan chiqmaslik** *kim?* *kimning?*

Roziq hech kimning gapiga kirmasa ham, uning gapiga kiradi. S.Anor-boyev. Oqsoy. *Hali kelin ham sizning gapingizga kirib, uydan chiqmay o'tiribdimi?* A.Qahhor. To'y. *O'g'lim, gapga kirgin, qulupnayni buzib, o'rniga rediska sepaylik.* So'zlashuv uslubi.

GAP(I)GA SUQILMOQ *kim?* *kimlarning?* suhbatdoshlar nutqiga o'z

so'zini noo'rin qistirmoq. Varianti: **gapga suqilmoq** *kim?*

Umrida qo'liga ketmon ushlama-gan odam, g'o'za egatini ko'rmagan bu farang nimaga bizning gapimizga suqiladi? I.Rahim. Ixlos. *Ona gapga endi og'zini ochganda Oysha gapga suqildi.* Oybek. Nur qidirib.

GAP(I)NI BO'LMOQ *kim?* *kimning?* biror kishi nutqini o'z so'zlari bilan noo'rin to'xtatmoq. Varianti: **so'z(i)ni bo'lmoq;** **gapni bo'lmoq** *kim;* **so'z(i) bo'lindi** *kimning?* **so'z bo'lindi** (-).

«*To'xtab turing, gapimni bo'lmang!*» – *deya yana so'zida davom etdi.* Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. *U gapga tushganda, hech kim so'zini bo'lmasdi.* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Kampirning so'zi bo'lingani uchun yana tutoqdi.* S.Ahmad. Mastonbibi. *Qudrat qop ko'tarib kelib qoldi-yu, so'z bo'lindi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Ilib ketdi! – dedi yigit uning gapini bo'lib. – Qarang! Ilib ketdi!* T.Malik. Charxpalak.

gap(i)ni ikki[ta] qilmaslik: bir so'z(i) ikki[ta] bo'lmadi

gap(i)ni ilib ketmoq: gapni ilib ketmoq

gap(i)ni ilib olmoq: gapni ilib olmoq

gap(i)ni o'tkazmoq: so'z(i) o'tdi

GAP(I)NI OG'Z(I)DAN OLMOQ *kim?* *kimning?* boshqa kishini gapirgani qo'ymay o'zi gapirmoq. Varianti: **so'z(i)ni og'z(i)dan olmoq;** **og'z(i)dan gap(i)ni olmoq;** **og'z(i)dan so'z(i)ni olmoq;** **gap(i)ni og'z(i)dan yulmoq;** **gapni og'z(i)dan yulmoq;** **og'z(i)dan so'z(i)ni yulmoq.**

Jonfig'on javob bermoqchi edi, Malohat gapini og'zidan oldi. A.Qahhor. Jonfig'on. «Yo'q, endi imtihonda uchrashamiz», – dedi og'zidan so'zimni olib. O.Yoqubov. Muqaddas. «Nega shukur qilmas ekanmiz, amaki?» – choy quyib o'tirgan O'rinbu To'lamatning gapini og'zidan yulib javob qaytardi. S.Anorboyev. Oqsoy.

gap(i)ni og'z(i)dan yulmoq: gap(i)ni og'z(i)dan olmoq

gap(i)ni qaytarmoq: so'z(i)ni qaytarmoq

GAP(I)NI QULOQQA OLMOQ kim? kimning? aytilgan fikrga amal qilib ish tutmoq. Varianti: **so'z(i)ni quloqqa olmoq.**

Aylanay, nasihat qiling, mening gapimni quloqqa olmayapti. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Chavandozlar, oling so'zni quloqqa, Bo'lur Qaldirg'ochim sovrin uloqqa!* S.Abdulla. Alpomish.

GAP(I)NI YERGA TASHLAMASLIK kim? kimning? aytganini inobatga olmoq, amalga oshirmoq. Varianti: **so'z(i)ni yerga tashlamaslik; iltimos(i)ni yerga tashlamaslik.**

Men Rahimjonni olib boraman. U mening gapimni yerga tashlamaydi. A.Qahhor. Sarob. *Qiz nihoyat, uning so'zini yerga tashlamay, eshik tomon yo'naldi.* A.Qahhor. Sarob. *Kenja muharrirning qayta-qayta qilgan iltimosini yerga tashlamadi – javob qaytarmadi.* A.Qahhor. Sarob.

GAP(I)NI YO'QOTIB QO'YMOQ kim? [o'zining] hayajonlanib, aytib turgan fikrini davom ettirmay esankiramoq.

O'shanda, totli kunlarda ham, boshqalarga o'xshab, gapini yo'qotib, dovdirab, titroq barmoqlari bilan bilagini ushlamagan. T.Malik. Charxpalak.

gap(i)ni shartta kesmoq: gapni cho'rt kesmoq

GAP(LARI) BIR JOYDAN CHIQDI kimlarning? fikr-o'ylari mos keldi. Varianti: **so'z(lari) bir joydan chiqdi.**

«Demak, gapimiz bir joydan chiqibdi-da», – Zamonning gapini bo'lib so'zida davom etdi u. N.Nazarov. Zamon. *Ola-g'ovur boshlandi. Teshaboy akadan boshqa hammaning so'zi bir joydan chiqdi.* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

GAPDAN GAP CHIQIB suhbat davomida yangi-yangi ma'lumotlar aytilib.

Qutbiniso xola bir kuni gapdan gap chiqib, «Bu suvratni Toshpo'lat aka olib kelganda, hali Jamila tug'il-magan edi», – deb qo'ydi. Mirmuhsin. Jamila.

gapdan qaytmoq: so'z(i)dan qaytmoq

GAPGA ARALASHMOQ kim? suhbatga o'z fikri bilan bir necha marta noo'rin suqilmoq. Varianti: **so'zga aralashmoq.**

Odamlar kech tarqadi. Iloji qancha, Saidg'ozini ham tishini tishiga qo'yib o'tirdi. Ora-chora gapga aralashdi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Ra'no so'zga aralashmasdi; Rahimjonni kuzatib o'tirar, ko'nglida Rahimjondan juda-juda minnatdor edi.* O.Yoqubov. Bahor kunlaridan birida.

GAPGA BICHGAN [kimni?] to-pib, chertib-chertib gapiradigan, gap-ga chechan.

«Hojimuqonning xotini. Juda ham gapga bichgan-da. Qofiyali qilib gapiradi». S.Ahmad. Cho‘l burguti.

gapga kirmoq: gap(i)ga kirmoq

GAPGA SOLMOQ kim? kimni? ma’lumot olish maqsadida gapirtirmoq.

Kampir yana qo‘yarda-qo‘ymay cholni gapga soldi. Oydin. Shirin keldi. *Osh ustida gapga solsam, o‘zi haqida uncha-muncha gapirib berar deb o‘ylagan edim.* S.Ahmad. Cho‘l burguti. *Sharofat kechgacha Anzirat xolani gapga solib, hamma narsani batafsil bilib oldi.* A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

gapga suqilmoq: gap(i)ga suqilmoq

GAPGA TEMIRCHI esk. **1** gapni juda cho‘zib yuboradigan, ezmalik qiladigan, ezma. **2** gapni aylantiradigan, gap bilan aldaydigan.

– *Tavba, – deb kuldi Kumush, – sen qo‘rqmasang ham bo‘ladi, deb tag‘in nina tiqasiz. Mana shuni, gapga temirchi, deb aytadilar!* A.Qodiriy. O‘tgan kunlar.

gapga tutilmoq: gapga tutmoq

GAPGA TUTMOQ kim? kimni? gap bilan band qilib turmoq. Varianti: **gapga tutilmoq** kim?

Yigit qizning qo‘lini qo‘yib yuborgisi kelmay gapga tutdi-da, noiloj xayrlashib, otni burdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

GAPGA TUSHMOQ kim? uzoq davom etadigan gapni boshlab yubormoq.

Dadajon aka Murodovaga qarab asta gapga tushdi. I.Rahim. Ixlos. *Chol endi gapga og‘iz juftlagan edi, Nizomiddinov: «Hap turing», – deb, o‘zi gapga tushib ketdi.* S.Ahmad. Hukm. *Nega desangiz. Fotima keli-noyim bidirlab gapiraveradi-gapiraveradi, Said aka ko‘zini sal olaytirib qo‘ysa, to‘satdan o‘ti o‘chib qolgan-dek taqa-taq to‘xtaydi. Ko‘zini chetga olishi bilan yana gapga tushib ketadi.* X.To‘xtaboyev. Sariq devni minib.

GAPGA TO‘N KIYGIZMOQ kim? gapni juda boplab, qoyilmaqom qilib gapirmoq.

Obbo siz-e.. Xo‘p gapga to‘n kiygizasiz-da... N. Safarov. Olovli izlar.

GAPING[IZ] OG‘ZING[IZ]DA [kimning?] shu o‘rinda men fikrimni aytib olay, siz yana o‘z fikringizni davom ettirasiz.

«*Juda yaxshi o‘ylagansiz. Ammo bunda bir qiyinchilik bor*»,– dedi. *Hasan so‘fi uning gapini ilib ketdi: «Gapingiz og‘zingizda, – dedi u kulib, – o‘zim ham bilaman, qiyinchilik mo‘miqda».* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

GAPNI AYLANTIRMOQ kim? suhbatdoshining fikrini bilish, undan ma’lumot olish maqsadida qayta-qayta o‘smoqchilab gapirmoq. Varianti: **gap aylantirmoq.**

Saida gapni harchand aylantirsa ham, Hurinisoni asl mavzuga yaqinlashtirolmadi. A.Qahhor. Sinchalak. *...ulug‘larning karmoniga chechak chiqmagandir, puliga olsin. Gapni aylantirmanglar, baribir bo‘lmaydi.* S.Ahmad. Qadrton dalalar.

GAPNI BIR JOYGA QO‘YMOQ kimlar? o‘zaro bir fikrga kelmoq. Varianti: **gapni bir yerga qo‘ymoq; maslahatni bir joyga qo‘ymoq; maslahatni bir yerga qo‘ymoq.**

Bir qiz bilan don olishib yurgan edi. Ikkovi ahd-u-paymon qilishib, gapni bir joyga qo‘yishgan yili urush boshlanib, Burgut frontga ketdi. S.Ahmad. Cho‘l burguti. Maslahatni bir joyga qo‘yishib, yo‘lga chiqishdi. S.Zunnunova. Gulxan.

gapni bir yerga qo‘ymoq: gapni bir joyga qo‘ymoq

gapni boshqa tomonga burmoq: gapni boshqa yoqqa burmoq

gapni bo‘lmoq: gap(i)ni bo‘lmoq

GAPNI BOSHQA YOQQA BURMOQ kim? chalg‘itish maqsadida to‘satdan yangi mavzuga o‘tmoq. Varianti: **gapni boshqa tomonga burmoq; gapni chetga burmoq; so‘zni boshqa tomonga burmoq.**

Nizomiddinov choy ustida gapni boshqa yoqqa burib yubordi. S.Ahmad. Hukm. «Aytmoqchi, bugun Lola-xonni ko‘rib qoldim!» – dedi Xo‘jaqul gapni boshqa tomonga burib. O.Yoqubov. Uchrashuv. Kel, gapni chetga burma, kechqurun bo‘shmisin? G‘.G‘ulom. Yodgor.

GAPNI BURMASLIK kim? boshqacha talqin berishdan tiyilmoq.

«Nima bo‘ldi sizga, taqsir! Hali siz mening kimligimni ham bilolmay qoldingizmi? Balki mening tilimga ham tushuna olmayotgandirsiz?» – «Yo‘q, yo‘q, unday demang. Gapni burmang!» P.Tursun. O‘qituvchi.

gapni chetga burmoq: gapni boshqa yoqqa burmoq

GAPNI GAPGA QOVUSHTIRMASLIK kim? suhbatning bir maromda uzluksiz davom etishiga xalaqit bermoq. Varianti: **gapni gapga qovushtirmoq.**

To‘y-u tomoshadan quruq qolmaydigan bolalar hammani jondan bezor qilib, gapni gapga qovushtirmaydi. S.Ahmad. Hukm. Yaxshiyam Mikola chechanning birga kelgani: gapni gapga qovushtirib, gurunni qizitib o‘tiribdi. S.Anorboyev. Do‘stlar.

gapni gapga qovushtirmoq: gapni gapga qovushtirmaslik

GAPNI ILIB KETMOQ kim? fikrni oxirigacha yetkazish uchun imkon bermay, o‘zi davom ettirmoq. Varianti: **gap(i)ni ilib ketmoq kim? kimning? so‘zni ilib ketmoq.**

Ammo G‘ozi so‘zini o‘ylaguncha, gapni boshqalar ilib ketdi. I.Rahim. Ixlos. Uning gapini Musa ko‘sa ilib ketdi. S.Ahmad. Hukm. Abdishukurning tili qichib, o‘zicha to‘y haqida, ulamo, shariat va maktab to‘g‘risida mufassal izoh bermoqqa chog‘langan edi, lekin so‘zni Hakimboyvachcha ilib ketdi. Oybek. Qutlug‘ qon.

GAPNI ILIB OLMOQ kim? suhbatdoshining biror gapini asosga olib, o‘sha fikrni o‘zi davom ettirmoq. Varianti: **gap(i)ni ilib olmoq kim? kimning?**

Ortiqboyning bu so‘rog‘iga Qodir javob bermoqchi bo‘lib turgan edi, gapni bir savdogar ilib olib: «Barakalla, o‘g‘lim, barakalla, aqlli kishining sadag‘asi ketsang bo‘ladi», – dedi. O‘.Azimov. Aql chirog‘i. Qizishib ketganidan biroz xijolat tortgan Sherali, shaxtidan tushib, darrov qay-

natasining gapini ilib oldi: «Men ham shuni aytaman-da,...» M.Muhamedov. Kichik Garnizon.

GAPNI KALTA QILMOQ kim? gapni cho‘zmaslik.

Ammo inson qalbini shilliq qurtdek kemirib tashlaydigan gumon va shubha ich-ichini kemirayotganidan ijirg‘andi, sezdirib qo‘ymaslik uchun gapni kalta qildi. S.Karomatov. Oltin qum.

gapni kesmoq: gapni cho‘rt kesmoq

gapni ko‘chaga chiqarmoq: gapni ko‘chaga olib chiqmoq

GAPNI KO‘CHAGA OLIB CHIQMOQ kim? tor doirada aytilgan fikrni keng doiraga ma‘lum qilmoq. Varianti: **gapni ko‘chaga chiqarmoq.**

G‘anisher – yig‘ilish, majlislarda bo‘lgan gaplarni ko‘chaga olib chiqishni yomon ko‘radigan odam. A.Muhiddin. G‘anisher. *Ixtiyor o‘zingda; agar shu gapni ko‘chaga chiqaraman desang, mayli, chiqar...* A.Qahhor. Og‘riq tishlar.

gapni ko‘tara olmaslik: gap ko‘tara olmaslik

gapni og‘z(i)dan yulmoq: gap(i)ni og‘z(i)dan olmoq

GAPNI PISHITIB QO‘YMOQ kim? kim bilan?? oldindan maslahatlashib, bir fikrga kelib qo‘ymoq.

Gapni avval Murodova bilan pishitib qo‘ygan ekansan-ku, nega menga ilgariroq aytmading. I.Rahim. Ixlos.

GAPNI TO‘KIB SOLMOQ kim? kimga? barcha bilgan; o‘ylaganlarini birvarakayiga aytmoq.

Uning katta yalpoq kaftini ikki qo‘llab siqarkanman, to‘satdan uydan chiqishda o‘ylab qo‘yganidek

unga bor gapni to‘kib sololmasligimni sezdim. O.Yoqubov. Muqaddas.

GAPNI ULAGAN kim? fikrlarini izchil bayon qilmoq; gapni avvalgi jumlagi bog‘lagan holda bayon qilmoq.

– Yo‘q, bek, – Saidmurod shoshapisha gapni ulagan bo‘lsa-da, ovozdagi qat‘iyatni yo‘qotmadi. Sh.Bo‘tayev. Qora tuman.

GAPNI CHO‘RT KESMOQ kim? biror fikr oxiriga yetmasdan unga o‘z so‘zlarini keskin ravishda kiritmoq. Varianti: **gap(i)ni shartta kesmoq** kim? kimning? **so‘z(i)ni kesmoq** kim? kimning? **gapni kesmoq; so‘zni kesmoq.**

Adolat bir xo‘mraydi-da, uning gapini shartta kesib qo‘ydi. I.Rahim. Chin muhabbat. «Men, – Gavhar qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib, uning so‘zini kesdi, – men sizni uyatga qoldirdim, Mahkam aka!» P.Qodirov. Uch ildiz. *Shuning uchun yana gapni kesib: «Men o‘qishimni bilaman, boshqa hech narsaga qiziqmayman», – dedi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

GAPNI CHO‘ZMOQ kim? me‘yoridan ortiq gapirmoq, ezmalik qilmoq.

U taklif qildi, siz rad etdingiz. Bo‘ldi, gapni cho‘zmang. T.Malik. Charxpalak. *Gapni cho‘zib o‘tirmasdan narigi kartalarga o‘tib ketdim. Mendan ko‘ra sal novcharoq bo‘lgan ikkita bola qovun chopiq qilish bilan ovora.* X.To‘xtaboyev. Sariq devni minib.

GAPNING OCHIG‘I to‘g‘risini aytganda. Varianti: **ochiq gap.**

...murg‘ak chaqalog‘iga qo‘shilib chaqaloq bo‘ladi, bolaning allaqayeri og‘rib, chinqirib yig‘lasa, gap-

ning ochig'i, unga termulib turib ko'z yoshi ham qilib oladi. Onalar shunday! R.Fayziy. Cho'lda. U vaqtda men Kimsanga ham ishonmas edim, ochiq gap. A.Muxtor. Tug'ilish.

GAPNING PO'SKALLASI fikrning lo'nda xulosasi.

Gapning po'skallasi shuki, orden-ga noloyiq bo'lsam, qaytarib beray... T.Malik. Charxpalak.

GAPNING UCHINI CHI-QAR-MOQ kim? noma'lum fikrning bir qisminigina aytmoq.

...Saida sarosimaga tushmasin uchun Kozimbek uni voqeadan xabar-dor qilib qo'yishni lozim ko'rdi-da, qishloq orqada qolib, dala yo'liga chiqilganda juda ehtiyot bilan gap-ning uchini chiqardi, lekin arizaning bunchalik shaltoq ekanini aytmadi. A.Qahhor. Sinchalak.

gap-so'z bo'lmoq: gap bo'lmoq

gap-so'z qilmoq: gap bo'lmoq

gardan(i)ga olmoq: bo'yn(i)ga olmoq

gardan(i)ga tushmoq: bo'yniga tushmoq

GARDAN(I)GA YUKLAMOQ kim? kimning? nimani? biror ishni bajarishga majbur qilmoq.

...xalq gardaniga to'lash mumkin bo'lmagan darajada og'ir harbiy jarimalar yuklanishi yosh shoir Zavqiyning ruhiga qattiq ta'sir qiladi. G'.G'ulom. Netay.

gardan(i)dan soqit qilmoq: bo'yn(i)dan soqit qilmoq

GASHTINI SURMOQ kim? ni-maning? tabiat manzaralaridan qo-niqib zavq olmoq.

Loaqa uch-to'rt kunga bo'lsa ham, bir kelib ket. Ammo jannatning gash-

tini surasan. O.Yoqubov. Ota izidan. *Ayniqsa g'arq pishiqchilik boshlandimi, qishloqning gashtini surasan.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

GEZ KELMOQ [gez kelmoq] kimga? kutilgan qulay vaziyat paydo bo'lmoq.

Varianti: **kezi kelmoq, vaqti kelmoq.**

Bu kech senga-yu menga keldi bir gez, Dedi Suhaylg'a Guldursun: «Turub tez. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

GIRIFTAR BO'LMOQ [giriftor bo'l=] tar. kim? kimga? yoki nima-ga? asir bo'lmoq, yo'liqmoq, duchor bo'lmoq.

Tilaymankim qiyomat kuni benim qonima giriftor bo'lg'aysan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bir zohidni ko'rdu, bir mahbub muhabbati bilan giriftor bo'lur, malomat ko'rub, g'aromat chekib, tarkin urmadi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Nogoh bir kun ul vazir malik qahrina giriftor bo'ldi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

GIRIFTOR QILDI [giriftar qil=] tar. kim? kimni? asir qilmoq, yo'liqtir-moq.

Balli, o'n oltung'a sotin oldi, dag'i yuz oltunga sening alingda giriftor qildi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

GUNOH(I)DAN O'TMOQ kim? kimning? diniy aqidalarga, axloq-odob qoidalariga xilof, ayb deb qaraladigan ishni qilgan kishini kechirmoq, afv et-moq.

Sharofat, qizim, tur! Tur, qizim. Otang gunohingdan o'tdi! A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. «Nonko'r yigit ekansan, bildingmi? – Bektemirov baqirmay, bosiq ovoz bilan gapirardi. – Xolxo'jaga yigit bo'lganing esing-*

dan chiqdimi? Hukumat gunohingdan o'tdi-ya». S.Ahmad. Hukm.

GUNOHGA BOTMOQ *kim?* diniy aqidalarga, axloq-odob qoidalari-ga xilof, ayb deb qaraladigan ishlar qilmoq.

«Kofir bo'lding, payg'ambarimiz zamonidan to shu vaqtgacha hech bir musulmon ayol senchalik gunohga botgan emas». Oybek. Oltin vodi-ydan shabadalar. *Shuncha gunohga botganim yetmasmidi? Ko'ryapsanmi, bir marta qilgan noma'qulchiligim uchun manavi yerim (u ko'kragiga tapillatib urdi) ezilib, sutilib ketdi-ku, tag'in nima deysan.* S.Ahmad. Hukm.

GUNOHINI YUVMOQ *kim?* [o'zining] o'zini oqlab, ayb, gunoh, kamchiliklardan forig' bo'lmoq.

– *Xudo nasib qilsa, hajga ketib, gunohlarimni o'sha yoqda yuvib ke-laman, deb niyat qildi otam, – dedi Hoji xola.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

GO'R AZOBI juda ham qiyin, mashaqqatli ish haqida.

Yo'l azobi – go'r azobi. Maqol.

GO'RIGA G'ISHT QALAMOQ kimnidir orqavotdan qarg'amoq.

– *Birovning go'riga g'isht qala-ma, o'g'lim. Halitdan bunaqa deysan, oldin surishtir, bil, keyin gapir-da.* S.Zunnunova, Gulxan.

GO'SH OSMASLIK [goš asma=] tar. *kim?* quloq solmaslik, eshitishni xohlamaslik.

Va oni tashladilar katta chohga, Sira osmayalar go'sh oh-u vohga. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

«**HA-HU**» **DEB** mayda-chuyda gaplar, ikir-chikir ishlar bilan.

Asal buvi nevaralarim oldida besholti kun turib qaytaman deb kelgan ekan. Ha-hu deb kunlar o'ta berdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

«**HA-HU**» **DEGUNCHA** juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: «**hash-pash**» **deguncha; ko'z ochib yumguncha.**

Odamning umri qanday tez o'tib ketadi, «Ha-hu» deguncha mana ko'klam ham kelib qolibdi. G'.G'ulom. Tirilgan murda. «Ha-hu» deguncha molning kalla-pochasi ajratib olinadi. S.Ahmad. Muzikali voqea.

«**HAM, SENIMI**» **DEB** payti kelganda qasd olishni ko'ngliga tugib.

«Senga bir otangning molini ko'rsatib qo'yay», – dedi-da, bir-ikki kuchangan edi, Qo'ziboy ham bo'sh kelmay, oz bo'lmasa ko'pchilik o'rtasida Pochchajonovning belini sindirib qo'yay dedi. Shu-shu bo'ldi-yu, «Ham, senimi» deb payt poyladi. Mirmuhsin. Bir munofiq haqida.

«**HASH-PASH**» **DEGUNCHA** juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: **ha-hu» deguncha; ko'z ochib yumguncha.**

Kech tushib qoldi, «hash-pash» deguncha tunning qorong'i chodiri qoplaydi har yoqni. Oybek. Oltin

vodiydan shabadalar. *«Hash-pash» deguncha dasturxonni mayiz, o'rik, pista-bodomga to'lg'izib yubordi.* M.Muhammedov. Qahramon izidan.

HA DEGANDA mo'ljal qilingan vaqt oralig'ida.

Mosh qurg'ur, bilmadim qaysi toshloqda bitgan ekanki, ha deganda ochila bermadi. G'.G'ulom. Shum bola. Eshonni ha deganda ajal ola kelmadi. S.Ahmad. Hukm. *«Pobeda» kutilmaganda ko'cha yuzida to'xtadi. Lekin ha deganda undan hech kim tusha qolmadi.* S.Zunnunova. Chin-nigul.

HA DEMAY tez orada, ko'p vaqt o'tmay. Sinonimi: **hali zamon.**

Bola-chaqali bo'lding, ha demay kuyov ko'rasan. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Tezroq kela qoling, otam ham ha demay qaytadi.* A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. *Ikki yil ha demay o'tib ketadi.* R.Fayziy. Tosh oyna. *Mana, ha demay paxta terimi boshlanadi.* S. Abduqahhor. Mirtolib ota.

HADDAN KECHMAGAY [haddan kečmä=] tar. *kim?* chegaradan, me'yordan oshmaslik.

Eylakim, intiqom haddan kechmagay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

hadd(i) bor[mi]?!: hadd(i) yo'q

HADD(I) SIG'(A)DI *kimning? nima qilishga?* talab qila olmoq, botina olmoq.

Men ham ... a'zosi bo'ladigan bo'l-sam, biron marotaba masala qo'yish-ga haddim sig'ar. Mirmuhsin. Dala baxti. *Bunaqa odobsizlikka, zo'rlik-ka Davidbeydan boshqaning haddi sig'masdi.* Sh. Toshmatov. Erk qushi.

HADD(I) YO'Q kimning? nima qilishga? botinishga haqli emas. Va-rianti: **hadd(i) bor[mi]?!**

Soraxonga qattiq gapirishga, ish buyurishga hech kimning haddi yo'q. A.Qahhor. Sarob. *Yondosh uyning qizil abajuri va chuqur sukunati ham: «Bu yerda ilmiy ish borayotibdi, bo'lajak olimning tinchini buzishga hadding yo'q», – deb turganga o'xshab ko'rindi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

hadd(i)dan oshirib yubormoq: hadd(i)dan oshmoq

HADD(I)DAN OSHMOQ 1 kim? [o'zining] o'ziga ortiqcha erk berib yubormoq. Varianti: **haddan oshmoq kim? hadd(i)dan oshirib yubormoq nima? kimni?** [o'zining] (oz ishlatiladi).

Ikkinchi bunaqa qilmang. Indama-sa, haddingizdan oshib ketayotibsiz-a? S.Ahmad. Muhabbat. *Saidiy haddan oshib ketdi, ehtiyotkorlik talab qilgan Yoqubjon bilan urishib, uni «sotqin» dedi.* A.Qahhor. Sarob. *Qattiq tegsa ham, o'g'lim, bu gapni qulog'ingda mahkam tut: boylik seni o'z hadding-dan oshirib yuboribdi. Senga sodiq bo'lgan bir bechoraga haqsizlik bilan o'limni ravo ko'rgansan... O'.Azimov. Aql chirog'i.*

2 nima? [o'zining] ortiq darajada kuchayib, zo'rayib ketmoq. Varianti: **haddan oshmoq nima?** (ko'p ishlatiladi).

Umida Saidaning kasal ekani-ni ko'rur, tez-tez xabar olib turdi.. [Huriniso] Saidani uyiga olib ketmoq-chi bo'ldi. Saidani qulluq qilib, «Kasal-ni erkalatsangiz, kasallik haddidan oshib ketadi» – deb tegishdi. A.Qahhor. Sinchalak. *Bir chetda quritilgan olcha va turshaklarni to'playotgan chollardan biri: «Shum bolalarning sho'xligi haddan oshdi, jo'natib yu-bor, o'zimiz ishlaymiz», – dedi yonida ko'p og'zini bog'layotgan bir cholga.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

haddan oshmoq: hadd(i)dan oshmoq

HADDAN TASHQARI ortiq dara-jada, nihoyatda. Sinonimi: **haddan ziyod.**

Yoqubjon o'zini ishga haddan tash-qari berilib ketgan va uning gapini eshitmaganga soldi. A.Qahhor. Sarob. *...seniyam xo'b gapirdi, «O'lguday erka xotinchangiz bor, haddan tash-qari pismiq», – dedi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

HADDAN ZIYOD ortiq daraja-da, nihoyatda (eskirgan). Varianti: **haddan ziyoda** (eskirgan). Sinonimi: **haddan tashqari.**

Mulla Ostonaqulning haddan zi-yod qorni ochdi. G'.G'ulom. Farzandi solih. Uning og'ilga kirib qilgan tafti-shi Qobil boboga bir umid bag'ish-lagan edi, bu so'zi haddan ziyoda se-vintirdi. A.Qahhor. O'g'ri.

haddan ziyoda: haddan ziyod

HADDIGA YETMOQ nima? [o'zi-ning] eng yuqori nuqtasiga ko'tarilmoq.

Salimboyvachchaning kayfi – mast-ligi haddiga yetgan. Ammo u endi oz

ichsa ham, ovqat, ichimliklarni avvalgidan ko'proq buyuradi. Oybek. Qutlug' qon.

hafsala keldi: hafsala(si) keldi

HAFSALA(SI) KELDI *kimning? nima qilishga?* biror ish qilishga xohish paydo bo'ldi. Varianti: **hafsala keldi nima?**

Agar har kun kechqurun hafsalangiz kelganda uch-to'rt sahifa qilib qo'ysangiz, bu ham oyiga uch-to'rt yuz so'm bo'ladi. A.Qahhor. Sarob. «Hay, menga qara, – deb iyagidan ko'tardim, – enang seni vaqti-soati yetganda tuqqanmi yo hafsalasi kelgandami?», – dedim. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. Ho'kizlarga kunjara maydalashga hafsala kelmadi. G'. G'ulom. Sabab.

HAFSALA(SI) PIR *kimning? [nimadan?]* biror ishni qilishga bo'lgan istak-intilish yo'q darajada.

O'zinning ham hafsalam pir. Agar ...g'iring-piring deyishadigan bo'lishsa, bor-e deyman-da, tinchgina o'z ishimni qilaveraman. J.Abdullaxonov. Ishonch.

hafsalani pir qilmoq: hafsala(si) pir bo'ldi

HAFSALA(SI) PIR BO'LDI 1 *kimning? ba'zan nimaning? (jonlining) nimadan?* biror ishni qilishga bo'lgan istak-intilishi yo'qola yozdi. Varianti: **hafsalani pir qilmoq nima?**

Bo'lmasa o'sha kuni shu ishingizdan [Pochchani yordamchi qilib olganingizdan] hafsalam pir bo'lib edi. A.Muxtor. Tug'ilish. Lekin qo'l-yozmani o'qib chiqqach, hafsalasi pir bo'lib, keyinchalik keskin to'qnashuv-

ga sabab bo'lgan salbiy taqriz yozib bergan edi. O.Yoqubov. Ota izidan.

2 *kimning? nimadan?* biror kishiga bo'lgan ishonch-hayrixohlik yo'qola yozdi.

Ammo o'zini islom dinining hi-moyachisi deb atagan Roziq, qo'r-boshidan ham tezda hafsalasi pir bo'libdi. S.Anorboyev. Oqsoy. Po'latjonni tuppa-tuzuk yigit deb ixlos qo'yib yurgan edim, hafsalam pir bo'lib, qo'limni qo'ltig'imga urib qo'yganman. S. Ahmad. Qadrton dalalar.

HALI ZAMON *tez orada, ko'p vaqt o'tmay. Sinonimi: ha demay.*

Nevarangiz magazindan halizamon kelib qoladi. S.Ahmad. Kutish taraddudi.

ham farz, ham qarz: ham farz, ham sunnat

HAM FARZ, HAM SUNNAT *kimga? amalga oshirish shart, lozim bo'lgan ish. Varianti: ham farz, ham qarz.*

O'ylab qarasam, yerni yaxlitlash ham farz, ham sunnat ekan. I.Rahim. Ixlos. Binobarin, bundan buyon ham adashganingizda to'g'ri yo'lga solish bizga ham farz, ham qarzdir. S.Anorboyev. Oqsoy.

HAM XURDADAN URMOQ, HAM BURDADAN *kim? har tomonlama yulib-yulqib qolmoq.*

Bu qanaqa noinsofgarchilik, boy? Ham xurdadan ursanglar, ham burdadan! Ikki chaksa zog'ora un tortib beruvdi anovi mirzangiz, eshikka obo-rib tortib boqsam, sal kam yuz paysa kam chiqdi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

HAMMANI QO'YIB nahotki, bo-rib-borib (ayollar nutqida ishlatiladi).

Voy o'lay, acha, buni tag'in Do'n-dig'ingiz ko'rib kulmasin, baloga qo'yadi-ya. Shu zamonning qizlari hammani qo'yib ko'zmunchoq taqar-midi?! Oydin. Do'ndiqdan ham yosh ekan. «Bo'lmasamchi, – burnini qiy-shatdi Xayri, – Hammani qo'yib siz-ning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zi uchib turibdimi?!» M.Muhamedov. Tasodif.

HAQ(I)NI TANIMOQ kim? [o'zining] – **HAQ(I)NI TANITMOQ** kim? kimga? [o'zining] nimalar qilish-qilmaslikka huquqi borligini bilib olmoq, o'z huquqiga asoslanib ish qiladigan bo'lmoq.

[Xotinlar] o'qisa, ishlasa, o'zining haqini taniydigan bo'ladi. S.Zunnu-nova. Gulxan. Chaqaloqni tuz suv-da cho'miltirayotgan doya kampir: «Haqini taniganning bolasi-da, bu-ning janggariligini qarang!», – dedi. S.Anorboyev. Oqsoy. Men unga fido-korman, Tanitdi haqimizni. E.Abbos. Minnatdorman.

haq(i)ni tanitmoq: haq(i)ni tani-moq

haq(i)ni yedirmoq: haq(i)ni yemoq

HAQ(I)NI YEMOQ kim? kim-ning? – **HAQ(I)NI YEDIRMOQ** kim? [o'zining] kimga? boshqa kishi-ga tegishli narsani nohaq ravishda o'ziniki qilmoq.

Men birovning haqini yeyish-dan qo'rqaman, bolam. Bu yog'idan ko'ngling to'q, bo'laversin. S.Anor-boyev. Oqsoy. Shu zamondi kim kim-ga haqini yediradi. Qo'ying shuna-qa gaplarni. Sahar turib qishloqqa jo'nayman, bering, men tezroq ketay,

ko'zimni uyqu bosayotir. Oybek. Qut-lug' qon.

HAQQAST ROST xuddi shun-day ekaniga hech qanday shubha yo'q (gap davomida aksa urilsa, aytiladi-gan ibora).

«Xotin-qizning boshidan besh qa-vat zulm o'tgan», – degan ekan o'sha rahmatlik. «Shuning biri – er zulmi», -degan ekan. To'g'ri aytgan... Xotin-lardan kimdir aksirib yubordi. «Ana,-dedi Ruzvon xola, – haqqast rost». A.Muxtor. Opa-singillar.

HAR EHTIMOLGA QARSHI 1 kutilmagan hodisa yuz berib qolmasin deb.

U har ehtimolga qarshi ro'yxat-ning Gavharlarga taalluqli joyini yirtib olib qo'ymoqchi bo'ldi. P. Qodirov. Uch ildiz. «Yaqin olganimdan sirimni ham gapirib qo'ydim, birovga aytib yurmang», – deb tayinladi u har ehti-molga qarshi. A.Muxtor. Dog'.

2 asqatib qolar degan o'y bilan. *Har ehtimolga qarshi yog'och qopingga bir burda non ham qistirib qo'ydi. S.Ah-mad. Muhabbat. Sapyorlar hozirdanoq, kechuv joylarini qidirmoqda, piyoda askarlar har ehtimolga qarshi okop qazimoqda. M.Muhamedov. Qahramon izidan.*

HAR HOLDA nima bo'lganda, ishqilib (kirish so'z bilan keladi). Si-nonimi: **har qalay.**

Har holda, bu gapni boshlash Po'-latjonning zimmasida edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Ha endi, har holda, sessiyaga ikki oy bor-ku. P.Qodirov. Uch ildiz.

HAR QALAY nima bo'lganda ham, ishqilib (kirish so'z bo'lib kela-di). Sinonimi: **har holda.**

U darrov uyiga kelib, har qalay, xotinini suyibdi, o'pibdi, lekin suhbat janjal bilan tugabdi. A.Qahhor. Jonfig'on. Choy uyquni qochiradimi yoki havoning issig'i ko'p choy ichiradimi, har qalay, qorovulning qo'ldan piyola tushmaydi. R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

HAR XIL XAYOLGA BORMOQ *kim?* 1 shubhalanmoq, yomon fikrga bormoq.

[Nigorani] Shu qadar ko'rgisi keladiki!.. Biroq kech bo'lib qoldi. Uy egalari har xil xayolga borishlari mumkin. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 biror narsadan tashvishlanmoq; xavotir olmoq.

[Stepan Sokolov:] Keldinglarmi.. Nega shuncha qolib ketdilaringiz, har xil xayolga borib, hayron bo'lib turgandim. K.Yashin. Hamza.

HAROM TUK(I)GA HAM ARZIMASLIK *kim? kimning?* kimgadir nisbatan hech qanday qadr-qiyamatga molik bo'lmaslik, o'ta salbiy baholanmoq. Sinonimi: **tirnog'(i)ga ham arzimaydi** *kim? kimning?*

Qo'nimi yo'q, subutsizga shunchalik motam tutishning nima keragi bor? Sizning harom tukungizga ham arzimaydi o'sha... S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

HASRAT(I)DAN CHANG CHIQADI *kimning?* ortiq darajada norozilik bildirib gapirmoq.

Ishonmasangiz, o'g'li Turob bilan gaplashsang, hasratidan chang chiqadi. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

HASRATGA TUSHIB KETMOQ *kim? kimdan? yoki nimadan?* zorlanib uzoq shikoyat qilmoq.

[Kanizak] uzr aytmoqchi bo'lib og'iz rostlagan edi, ko'zi jiqqa yoshga to'ldi-yu, uzr u yoqda qolib, hasratga tushib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

HAVAS(I) KELDI *kimning? kimga? yoki nimaga?* – **HAVAS(I)NI KELTIRMOQ** *kim? yoki nima? kimning?* biror narsaga erishish ishtiyoqi uyg'ondi.

Keyin bu begona yigitga boshdan-oyoq ko'z yugurtib, havasi kelib gapirdi. Oybek. Qutlug' qon. Dehqonchilikni o'zim qildim, yeri kuchli ekan, biram ekin bo'ldiki, havasingiz keladi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi. Marg'ilonning cho'g'rang bu yangi xil atlasini uning havasini keltirgan edi. Sh. Toshmatov. Erk qushi.

havas(i)ni keltirmoq: havas(i) keldi

HAVO BO'YLAB KETMOQ *kim?* kibrlanishi haddan tashqari kuchaymoq.

U: «Chiroyli bo'lgandan keyin, jazmani ko'p bo'ladi, jazmani ko'p bo'lgandan keyin, havo bo'ylab ketadi», – demoqchi edi, aytolmadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

HAVO OCHILDI osmon bulutlardan tozalandi.

Havo ochilib ketsa, bir-ikki kunda yer qurib qoladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

HAVOGA UCHMOQ *nima?* befoyda ketmoq. Sinonimi: **zoye ketmoq** *nima?* **shamolga uchmoq** *nima?*

Qishloq sho'rosining shunchalik jonkuyarlik bilan qilgan harakatlari havoga uchdi. G'.G'ulom. Chorasi ko'rildi. Berilgan maslahatlar havo-

ga uchaversa, sarf qilingan pul isrof hisoblanadi-da! A.Qahhor. Sarob. Agar ... intizom yaxshi bo'lmasa, ish mutlaq izidan chiqib, sarf qilingan mehnat havoga uchib ketishi turgan gap. N. Nazarov. Zamon.

HAVOG'A UCHMOQ [hava ya uč=] tar. kim? behuda o'tmoq.

Shukr qilkim, bir mu'jib yigit alina tushmadingkim, har kun bir havog'a uchkay dag'i har kecha yo'bada o'tqay...

HAVO(SI) BALAND kimning? kibrlanishi, o'zini manmanlik bilan tutishi haddan ziyod.

Ammo «Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi» deganlaridek, hamma yoqdan mosuvo bo'lsa hamki, la'natining hali havosi baland. A.Muhiddin. Xarakteristika.

HAVOSINI OLMOQ kim? nima-ning? malaka oshirib, mohir ustasi bo'lmoq.

Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havosini olsa, o'sha udarnik bo'laveradi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

hayot kechirmoq: turmush kechirmoq

HAYOTINING KO'KIN KESMOQ [hayatini kokin kes=] tar. kim? kimning? o'ldirmoq. Varianti: **ko'kayini kesmoq.**

...har kim tangri taolo xalqin ozor qilsa dag'i bir kimersa ko'ngli uchun haq taolo ul kimersani anga havola qilurkim, hayotining ko'kin kesar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

HAYRAT BARMOG'INI TISHLAMOQ kim? nihoyat darajada hayron bo'lmoq; hayratda qolmoq.

Xon oldiga u hamisha oq yo'rg'a-sini minib borardi. Bu otni ko'rganlar hayrat barmog'ini tishlab qolar va ichida «baayni dul-dul», – deb qo'yardi. J.Sharipov. Xorazm.

hayratda qoldirmoq: hayratda qolmoq

HAYRATDA QOLMOQ kim? – **HAYRATDA QOLDIRMOQ** nima? kimni? nihoyat darajada ajablanmoq. Sinonimi: **yoqa(si)ni ushlamoq** kim? [o'zining] – **yoqa(si)ni ushlatmoq** nima? kimni? [o'zining].

Rixsiboy akaning hayratda qolib, yelkasini qisganini ko'rgach, yana takrorladi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Dasturxondagi rango-rang nozne'matlar Hasan ovchini hayratda qoldirardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Qudratni, boshqa bolalarni hayratda qoldirgan narsa Qo'ziboyning chaq-qonligi edi. H. Nazir. Ko'korol chiroqlari.

hayron qoldirmoq: hayron qolmoq

HAYRON QOLMOQ kim? nima-ga? – **HAYRON QOLDIRMOQ** nima? kimni? ajablanmoq.

U [hamqishlog'im] mening ustim-dagi yuklarni ko'rib, hayron qoldi. Ayniqsa gardishni ko'rib, meni chalma quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti deb o'ylagan ekan. G'.G'ulom. Shum bola. Bularning har biri hatto eshushi butun odamlarni ham daf'atan hayron qoldirar edi. A.Qahhor. Sarob.

HE YO'Q, BE YO'Q qilayotgan ishini mutlaqo tushuntirmay, hech qanday izoh bermay.

U [Burgut] chamadonini samovarda qoldirib, to'ppa-to'g'ri Nu'mon-

jonning uyiga bostirib bordi. Er-xotin hovlidagi so'rida choy ichib o'tirishgan ekan. Burgut, he yo'q, be yo'q, qizning qo'lidan ushlab, ko'chaga yetaklab qolsa bo'ladimi?! S.Ahmad. Cho'l burguti. Uning, he yo'q, be yo'q, dabdurustdan to'nini teskari kiyib olganligi Nasibaning nafsi izzatiga qattiq tegdi. H. Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

HECH BO'LMASA 1 boshqa biror narsa qilmagan taqdirda, loaqal.

San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutoqib ketdi: «Hech bo'lmasa aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt», – emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas? A.Qahhor. San'atkor. Daraxt o'stirish bo'yoqchining nili emas. Bo'lmasa shuncha vaqtdan beri ota-bobolarimiz shu yerlarni hech bo'lmasa daraxtzor qilib yuborish-masmidi?! R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 bundan ortig'iga iloj topolmasa, eng kami.

Hech bo'lmasa pochchang yo'q vaqtlarda ham bormaysan... A.Qahhor. Sarob. Ro'yxatga Salimaxonni tirkab qo'yinglar. Hech bo'lmasa xotinlarning ko'nglini so'rab turar! S.Anorboyev. Oqsoy.

HECH GAP EMAS o'z-o'zidan, osongina amalga oshib ketadigan ish.

Omon-eson shu suvdan o'tib ol-sak, narigi yog'i hech gap emas. G'.G'ulom. Shum bola. Shunday paytda birov «Ajinaman!» deb qo'rqitsa, yuragi yorilib ketishi yoki aqldan ozishi hech gap emas edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Farhod tog'ini tolqon qil-

ganlar uchun bu ish hech gap emas. S. Ahmad. Qadrton dalalar.

HECH GAP CHIQMAYDI kimdan? biror foydali fikr-harakatni kutmasa ham bo'ladi.

«Har kim suygan oshini ichadi. Nasihat qiladiganim o'lib ketgan, yordam bergingiz kelmasa, joyingizda turavering. Demak, sizdan hech gap chiqmaydi». – «Eringizdan nega ajralasiz, gunohi nima, axir?» – Qodirov biroz qizishdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

HECH NARSADAN HECH NARSA YO'Q biror asos mavjud bo'lmagan holda.

Voy-voy, nima deyapsiz?! Qizimning oldidan o'tmay bir narsa aytolmayman. Hech narsadan hech narsa yo'q «Ko'ndi» deyishingiz yaxshi bo'lmas. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

HECH ZOG' YO'Q birorta ham odam ko'rinmaydi. Sinonimi: **zog' uchmaydi**.

Uyg'onsam, eshik g'iyq etdi. Mundoq hovliga chiqsam, hech zog' yo'q... H. Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

HECHQISI YO'Q shunday bo'l-gani ahamiyatsiz.

«To'satdan keldik, aybga qo'sh-maysiz», – dedi G'aniyeva ichkari uyga kira turib. La'lixon qo'lidagi kitobni stolga qo'yib: «Hechqisi yo'q. Do'st kishi shunaqa bo'ladi», – dedi va kelib mehmonlar bilan ko'rishdi. Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit? Mahmudjon afandi so'z orasida «Xayr, hechqisi yo'q», – degan edi, Murodxo'ja domla urishib berdi. A.Qahhor. Sarob.

HID OLMOQ kim? sezgirlik bilan xabardor bo'lmoq, daragini eshitmoq.

«A'zamjon bu gaplarni qayoqdan eshitibdi, kelgani yo'q-ku?», – dedi Saida ajablanib. «Muxbirlarning burni uzun bo'ladi, uch kilometr dan hid oladi. Zulfiqorov masalasida feleton yozmoqchi shekilli, yaqinda kelsa kerak...» A.Qahhor. Sinchalak.

HIMMAT BELIN RAG'BAT ELI BILAN BOG'LAMOQ [him-mät belin raYybat eli bilän baYy-la=] tar. kim? astoydil kirishmoq.

Man dag'i tangrig'a tavakkul qilib, himmat belin rag'bat eli bilan bog'lab boshladim, tamom bo'lg'ay deb. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

HIRS QO'YMOQ kim? nimaga? kuchli ehtiros bilan o'ta darajada berilib ketmoq.

Otasining fe'lini bilgan Tamanno bir-ikki kundan beri ichkilikka hirs qo'ygan erini turtib uyg'otdi: «Tur-ing-e, uyat bo'lib ketdi». Shuhrat. Jannat qidirganlar. Hatto Maxsum: «Biz boylarda insof-u diyonat qolmadi. Xudoning jamoliga oshiq bo'lish o'rniga, yolg'on dunyoning mol-mulkiga hirs qo'ydik», – deb ko'pchilik oldida va'z aytgan. S.Anorboyev. Oqsoy.

HISOB BERMOQ kim? 1 o'ziga, o'ziga o'zi nima haqida qilgan ishlarini fikran o'zicha baholamoq.

Bu uning umrida birinchi bor o'z o'tmishiga chuqurroq nazar tashlashi va bu haqda birinchi bor o'ziga hisob berishi edi. S.Ahmad. Alla. U kuni bo'yi yurib charchaydi, holdan toyadi va, nazarida, bir neklik borday bo'ladi, ammo kechqurun uyiga kelib, o'zi-

ga hisob berganida natija puch bo'lib chiqar edi. A.Qahhor. Sarob.

2 kimga? qayerda? qilgan ishlarini rasmiy ravishda bayon etib, boshqalar hukmiga havola qilmoq. Antonimi: **hisob olmoq kim? kimdan?**

Xalq oldida o'z ishlaringizdan hisob bermog – sizning vazifangiz. P.Tursun. O'qituvchi.

3 kimga? («tashkilot»ga) «bajarildi» deb ma'lumot yo'llamoq.

Hamma narsani «o'tkazdingmi – o'tkazdim» deb hisob berish uchun-gina qiladigan rasmiyatchilar bor. P.Qodirov. Uch ildiz.

HISOB OLMOQ kim? kimdan? biror kishining qilgan ishlariga baho berish uchun undan bayon talab qilmoq. Antonimi: **hisob bermog 2 kim? kimga? qayerda?**

Bugun byuroda Zokirga ancha kamchilik ko'rsatishgan bo'lsa ham, lekin Zuhriddinov suyab hisob oldi. P.Qodirov. Uch ildiz. «Mendan hisob olganda avvalo natijasiga qarashadi. Bu natijaga qanday metodlar bilan erishganim ikkinchi darajali masala...» P. Qodirov. Uch ildiz.

HISOB DAN CHI QARIB TASH-LAMOQ kim? kimni? hisoblashmagan holda ish tutmoq. Antonimi: **hisobga olmoq 2 kim? nimani? ba'zan kimni?**

Sizday rahbar bo'lgan joyda bizdaqa odamlarni hisobdan chiqarib tashlasa ham bo'ladi... A. Qahhor. Sinchalak.

HISOBGA OLMAGANDA nimani? yoki kimni? nazardan soqit qilinsa. Sinonimi: **e'tiborga olmaganda nimani? yoki kimni?**

Bir kuni Saidiy gazetaga shoshilinch ravishda tushiriladigan kompaniya materiallarini ishlab, ishga bormadi, tushki ovqatdan so'nggi bir soat istirohatni hisobga olmaganda, bu kuni ertadan kechgacha ishladi. A.Qahhor. Sarob.

HISOBGA OLMOQ kim? 1 nima[lar]ni? ba'zan kimlarni? miqdorini ma'lum tartibda belgilab bormoq, hisob-kitob qilmoq.

Vaqtidan ilgari binoga kelgan terini kim hisobga olib o'tiribdi. I. Rahim. Olovkor. *Universalning har borib kelishini hisobga olayotgan kishidek o'sha tomondan ko'zini uzmedi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 nimani? ba'zan kimni? hisoblashgan holda ish tutmoq. Antonimi: **hisobdan chiqarib tashlamoq** kim? kimni?

Xo'p, mayli, aytganlaringizni hisobga olaman. P. Qodirov. Uch ildiz. *Ha, siz turganda, bizni hisobga olishning nima hojati bor?! A.Qahhor.* Sinchalak.

HOJAT(I)NI CHIQARMOQ kim? kimning? yordam ko'rsatib, ehtiyojdan xalos etmoq.

Shuning uchun arzonroq va uzoqroq muddat bilan siz mening hojatimni chiqarasizmi deb oldingizga bo'yin egib keldim. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. *To'lamat mo'ylov hali ham o'sha-o'sha kichik fe'l: bu mening vazifamga kirmaydi deb o'tirmaydi. Duch kelgan ishni qilib ketaveradi. Hammaning hojatini chiqarib yuradi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

hol [i] -jon(i)ga qo'ymay II: hol [i] -jon(i)ga qo'ymaslik

HOL [I]-JON(I)GA QO'YMASLIK kim? kimni? nimanidir amalga oshirishga unashini talab qilib tinchlik bermaslik. Varianti: **hol[i]-jon [i]ga qo'ymay II** kimni? [o'zining].

Uning mo'ljaliga ko'ra Siddiqjon yana qasam ichishi, yur deb qis-tashi, hol-joniga qo'ymasligi kerak edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Otam uylantiraman deb ikki oyog'ini bir etikka suqib olgan. Holi-jonimga qo'ymaydi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

HOL(I)GA MAYMUNLAR YIG'LAYDI kimning? o'zi sabab bo'lgani holda o'ta og'ir, achinarli ahvolga tushib qolmoq. Varianti: **ahvol(i)ga maymunlar yig'laydi.**

Qachongacha men sening eringni poylayman? Kerak bo'lsa, o'zing qara!.. Shu ahvoling bo'lsa, mendan keyin holingga maymunlar yig'laydi. A.Qahhor. Sarob. *Yengil yo'l bilan omad kelishini kutding, omad kelmadi. Qaytaga ta'na-tavbalarga qolib, yuzing shuvut bo'ldi, yegan-ichganing burningdan chiqdi. Bu ham holva, tez es-hushingni yig'ib, halol mehnatga qayishmasang, battar baxting qora bo'ladi, holingga maymunlar yig'laydi...»* H.Nazir. Odamning qadri.

HOL[I]-JON[I]GA QO'YMAI I kimni? [o'zining] e'tiroz bildirishiga qaramay, majburan.

Bundan xabardor bo'lgan mahalla yoshlari uni hol-joniga qo'ymay choyxonaga olib chiqishdi. A.Qahhor. To'yda aza. *Vahob Murodov holi-jonimga qo'ymay Buxoroga olib ketdi.* I.Rahim. Olovkor. *U seni so'rayve-*

rib holi jonimga qo'ymayapti. Sh.Bo'tayev. Qarz.

holdan ketkazmoq: holdan ketmoq

HOLDAN KETMOQ kim? **HOLDAN KETKAZMOQ** nima? kimni? toliqmoq, darmonsizlanmoq. Sinonimi: **tinka(si) quridi kimning? tinka(si)ni quritmoq kim?** yoki nima? kimning? **holdan toymoq kim?** – **holdan toydirmoq nima? kimni? silla(si) quridi kimning?**

...olti kishining hammasi yaralangan, charchoqdan, ochlik va uyqusizlikdan bo'lsa kerak, shunaqayam holdan ketishganki, egarda zo'rg'a o'tirardilar; O.Yoqubov. Ota izidan. Yo'l azobi hammamizni holdan ketkazdi. So'zlashuv uslubi.

holdan toydirmoq: holdan toymoq

HOLDAN TOYMOQ kim? – **HOLDAN TOYDIRMOQ** nima? kimni? toliqmoq, darmonsizlanmoq. Sinonimi: **tinka(si) quridi kimning?– tinka(si)ni quritmoq kim?** yoki nima? kimning? **holdan ketmoq kim?** – **holdan ketkazmoq nima? kimni? silla(si) quridi kimning?**

Tong qorong'isida ko'zim yoridi. Oyim bechora tuni bo'yi mijja qoqmay yonimda o'tirib chiqdi. Choshgohga yaqinlashganda juda holdan toydim. R.Fayziy. Qaynana. Kunning isib ketgani, yo'lning ancha uzoqligi, buning ustiga kechagina sal shamolab qolgani Matlubani ancha holdan toydirdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

HOLVACHINING TESHASIDAY nima? 1 qisqa, kalta.

[Guljon] Mirzaraimga: Avval Rustambekning tilidan holvachining teshasiday kaltagina xat qildirdim. Hamza. Paranja sirlari.

2 chaqqon, epchil (kishi haqida).

Qizaloq holvachining teshasiday hovlidagi ishlarni o'rinlatib chiqdi. So'zlashuv uslubi.

HORDIQ OLMOQ kim? istirohat qilmoq. Sinonimi: **dam olmoq kim?**

Bu mahalda kuni bilan ter to'kib ishlagan kishilar hordiq oladi. S.Anorboyev. Oqsoy. Bu galgi uyqu chinakam hordiq olish uyqusi edi. G'.G'ulom. Netay.


hordiqni chiqarmoq: hordig'(i) chiqdi;

HORDIG'(I) CHIQDI kimning? – **HORDIG'(I)NI CHIQARMOQ** kim? [o'zining] istirohat qilmoq. Varianti: **hordiqni chiqarmoq kim?** Sinonimi: **dam olmoq kim? hordiq olmoq kim?**

Yoqubjon bir kechasi «O'zbektorg» magazinining cherdagiga orqa tomondan oltin gugurt yoqib tashlabdi, shuni birovga aytganida, xuddi ashaddiy bir dushmanidan o'ch olganday hordig'i chiqadi. A.Qahhor. Sarob. [Komila] ba'zan ovozi bor biron kishiga to'satdan dalada, ish ustida ashula ayttirar, birpasda odamlarning ko'nglini ko'tarib, hordiqni chiqarishni ham bilar edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

hordig'(i)ni chiqarmoq: kim? [o'zining]

hordig'(i)ni chiqarmoq: hordig'(i) chiqdi



hovr(i)dan tushmoq: hovur(i)dan tushmoq

hovur(i) bosildi: hovur(i)ni bosmoq

hovur(i) pasaydi: hovur(i)ni bosmoq

HOVUR(I)DAN TUSHMOQ kim?

[o'zining] – **HOVUR(I)DAN TUSHIRMOQ** kim? kimni? [o'zining]

kibr-havo bilan, hayajonlanib qahrg'azab qilishi pasaydi. Varianti: **hovurdan tushmoq** kim? – **hovurdan tushirmoq** kim? kimni? **hovur(i)ni tushirmoq** kim? kimning?

Xola hali ham hovuridan tushmagan, sho'r ter uning chakkasi, yuzidan keng to'shiga sirqirdi. «Tushunmas emishman-a, ho-o!.. Qani, bu yoqqa yuring, ko'zingizga ko'rsatib qo'ymasam bo'lmas ekan». S.Anorboyev. Tashvish. *Chakki qilding! Yaxshi gapirib, hovuridan tushirish kerak edi.* A.Qahhor. Og'riq tishlar.

hovur(i)dan tushirmoq: hovur(i)dan tushmoq

HOVUR(I)NI BOSMOQ kim? kimning? – **HOVUR(I) BOSILDI** kimning?

kibr-havo bilan, hayajonlanib qahrg'azab qilishini so'ndirmoq. Varianti: **hovur(i) pasaydi.**

Muhammadamin qaynatasining biroz hovuri bosilganiga ishonch hosil qilgach, sekin o'rnidan turdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

hovur(i)ni tushirmoq: hovur(i)dan tushmoq

hovurdan tushirmoq: hovur(i)dan tushmoq

hovurdan tushmoq: hovur(i)dan tushmoq

HOVURIGA OSH PISHADI (yoki **OSH DAMLASA BO'LADI**)

o'zini juda yuqori tutib, haddidan oshganlikni bildiradi.

...hovuriga ikkita osh pishadigan boshliq burniga qo'ngan pashshaga dag'dag'a qilib, mushti bilan qo'rib haydadi. M.Muhamedov. Qahramon izidan.

HOVUZDAN HO'PLAM juda oz, arzimagan darajada.

Muxurning sandig'idagi oltinlari oldida Bekning chervonlari hovuzdan ho'plam, xolos. H.G'ulom, Mash'al.

HUKM SURMOQ 1 kim? [kimning ustidan?] o'z hukmini o'tqazmoq, hukmronlik qilmoq.

Yana tag'in boylar, amaldorlar, hokimlar, mingboshi-oqsoqollar hukumat tepasida, mehnatkashlar ustidan hukm surib, qorinlarini qappaytirib, mo'ylovlarini silab yurishibdi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 nima? (abstrakt) [qayerda?] boshqa narsalardan ustun tarzda egallab, chulg'ab olmoq.

Odamlar Saidaga mana shunaqa luqmalar tashlab, savollar berib, so'zga chiqib, majlisda shunday ruh hukm surdiki, Qalandarov ... majlisni tezroq tugashini xohlab qoldi. A.Qahhor. Sinchalak. *Shu bilan suhbat tugadi va o'rtada jimlik hukm sura boshladi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

HUNAR KO'RSATMOQ kim? yashirin salbiy xususiyatini oshkor qilmoq.

Bir mahallar Xo'jabekovning ko'ziga shunday muloyim, shunday mehribon bo'lib ko'ringan bu yosh juvon asta-sekin hunar ko'rsata boshladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

hunar chiqarmoq: hunar(i) chiqdi

HUNAR(I) CHIQDI kimning?–
HUNAR CHIQARMOQ kim? sal-
biy xususiyat namoyon bo‘ldi.

«Ko‘p maqtanaverma, bir kuni se-
ning ham hunaring chiqib qolar»,
– deb Nosirga norozilik bildirdi Xa-
nifa. N.Nazarov. Zamon. «Qurama-
ning echkisi karnaychi bo‘lganday, bu
kishim ham endi yangi hunar chiqa-
ribdilar-da, – deya o‘zicha Rahmatni
urishib, jovrab borar edi u,– yana ke-
lasi shu bugunga to‘y qilarmish-a...»
J.Abdullaxonov. To‘yga kelinglar.

HUNAR(I)NI KO‘RSATMOQ
kim? [o‘zining] kimga? nimalar qilish-
ga mohir ekanini namoyish qilmoq.

«Ha, shovvozarim, tezroq qorni-
ngizni to‘yg‘azib olinglar. Hali ham-
mangiz hunaringizni ko‘rsatasiz»,
– dedi darrov qiziqchilikni boshlab
Xadicha aya. H.Nazir. Ko‘korol chi-
roqlari.

**HUSNI BOZORINING RAV-
NAQI KECHMOQ** [husni baza-
rini ravnaqi keč=] tar. kimning?
qarimoq.

Xalqi dobudiy ziyona ketib, Yu-
suf jamoli mutag‘ayyir bo‘lub olma
engakina ayva to‘ni o‘turub, hus-
ni bozorining ravnaqi kechib, tabvi
ulkim qarshi yurub ko‘rushkayman,
ko‘rushmayin ayttim... S.Saroyi. Gu-
listoni bit-turkiy.

**HUSNIGANON BOTIRIB YER-
MIDI (...)?!** kim? [kimning?] go‘zal
bo‘lishi shart emas.

«Boshqa tomondan bo‘lmasayam,
xotindan yolchidim, do‘stim! Rost, una-
qa ketvorganidan emas, ammo tur-
mush uchun chiroyining nima keragi

bor? Labbay?» Jabbor yana o‘zini
kulgidan tutolmadi: «Husniga non bo-
tirib yermidim», – demoqchisan-da?»
O.Yoqubov. Uchrashuv.

HUSHDIN AYRILMOQ [huš-
dīn ayril=] tar. kim? behud bo‘lmoq.

Ko‘rub uyquda ham qo‘rqvli tush-
din, Qolurdi ayrilib har damda hush-
din. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

HUSH(I) BOSH(I)DAN UCHDI
kimning? esankiramoq. Sinonimi:
hush(i)ni yo‘qotmoq **2** kim? [o‘zi-
ning]. Antonimi: es(i) o‘z(i)ga keldi
kimning?

«Daraksiz» degan so‘zni eshit-
di-yu, onaning hushi boshidan uch-
di. I.Raxim. Chin muhabbat. Mah-
mud akaning hushi boshidan uchib,
yelkasidagi hurjunining og‘irligini
ham sezmay, serrayib qotib qoldi.
N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi.

HUSH(I) KETDI kimning? [ni-
maga?] mahliyo bo‘lib qolmoq. Si-
nonimi: es(i) og‘di **3** kimning? [ni-
maga?]

Xolmurodning ularga qarab turib
hushi ketib qoldi. Nazarida, oddiy yi-
gitlar qo‘llariga miltiq olish bilan dar-
rov «bahodir» qiyofasiga kirib qolayot-
ganga o‘xshardi. P.Tursun. O‘qituvchi.

HUSH(I) O‘Z(I)GA KELDI kim-
ning? **1** behushlikdan qaytmoq. Si-
nonimi: o‘z(i)ga kelmoq **1** kim?
hush(i)ga kelmoq 1 kim? [o‘zining].
Antonimi: o‘z(i)dan ketmoq kim;
hush(i)dan ketmoq kim? [o‘zining];
hush(i)ni yo‘qotmoq 1 kim? [o‘zi-
ning]; **ko‘ngl(i) ozdi 1** kimning?

Shu arava ustida hali hushi o‘ziga
kelmagan Nazirqul yotibdi. S.Ahmad.
Hukm.

2 odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq. Sinonimi: **hush(i)ga kelmoq 2 kim?** [o'zining]; **o'z(i)ga kelmoq 2 kim?** **hush(i)ni yig'moq kim?** [o'zining].

Qiziq, Muqaddas kechikkan sayin, mening ham hushim o'zimga kela boshladi. O.Yoqubov. Muqaddas.

HUSH(I)DAN KETMOQ kim? [o'zining] behush bo'lmoq. Varianti: **hushdan ketmoq kim?** Sinonimi: **hush(i)ni yo'qotmoq kim?** [o'zining]; **ko'ngl(i) ozdi 1 kimning?** **o'z(i)dan ketmoq kim?** Antonimi: **hush(i)ga kelmoq 1 kim?** [o'zining]; **o'z(i)ga kelmoq 1 kim?** **hush(i) o'z(i)ga keldi 1 kimning?**

Boshimga yomon urishgan ekan, hushimdan ketib qolibman. S.Zunnunova. Gulxan. *Madmisa.. liftning ichida bor kuchi bilan: «Yordam beringiz, yordam beringiz!»*, – deya qichqirdida, hushidan ketib qoldi. G'.G'ulom. Kim?aybdor. *Volidamiz betob yotgan ekanlar, meni, ko'rib hushdan ketdilar.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

HUSH(I)GA KELMOQ kim? [o'zining] 1 behushlikdan qaytmoq. Sinonimi: **o'z(i)ga kelmoq 1 kim;** **hush(i) o'z(i)ga keldi 1 kimning?** Antonimi: **o'z(i)dan ketmoq kim?** **hush(i)dan ketmoq kim?** [o'zining]; **hush(i)ni yo'qotmoq 1 kim?** **ko'ngl(i) ozdi! kimning?**

Hushimga kelib qarasam, komentaturada yotibman. A. Qahhor. *Oltin yulduz. Onaxon keyin hushiga kelganida o'zining nimalar ko'rgani, nimalar deganini eslay olmas edi.* A.Muxtor. *Opa-singillar.*

2 odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq. Varianti: **hush(i)ga kel-**

tirmoq nima? kimni? [o'zining]. Sinonimi: **o'z(i)ga kelmoq.**

3 kim? hush(i) o'z(i)ga keldi.

4 kimning? hush(i)ni yig'moq kim? [o'zining].

Muqaddas yotoqxonaga kirib ketishi bilan men ham hushimga keldim. O. Yoqubov. Muqaddas. *Usta Bahrom tomog'ini qirib, sekin yo'talib qo'ydi. Lekin bu ham G'ulomjonni hushiga keltirmadi.* M.Ismoilij. *Farg'ona tong otguncha.*

hush(i)ga keltirmoq: hush(i)ga kelmoq

hush(i)ni olib qo'ymoq: es-hush(i)ni olib qo'ymoq

hush(i)ni yig'ishtirmoq: hush(i)ni yig'moq

HUSH(I)NI YIG'MOQ kim? [o'zining] odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq. Varianti: **hush(i)ni yig'ishtirmoq.** Sinonimi: **o'z(i)ga kelmoq 2 kim?** **hush(i)ga kelmoq 2 kim?** [o'zining]; **hush(i) o'z(i)ga keldi 2 kimning?**

«O'zi nima gap?» – dedi Turg'un hayron bo'lib, lekin Qodirjon hushini yig'ib unga javob berishga og'iz rostlaganda o'tovdan qo'lida xurjun Saodat chiqdi. O. Yoqubov. *Tog' qizi. Muhammadjonga bu gaplar yashin zarbasiday ta'sir qildi. U lampochkali simyog'ochga suyanib qancha vaqt turib qolganini bilmaydi. Hushini yig'ishtirgandan keyin daf'atan xayoliga kelgan narsa «Karamatovga kimdir chaqibdi» degan gumon bo'ldi.* P.Qodirov. *Uch ildiz.*

HUSH(I)NI YO'QOTMOQ kim? [o'zining] 1 behush bo'lmoq. Sinonimi: **hush(i)dan ketmoq kim?**

[o'zining]; **o'z(i)dan ketmoq** kim? **ko'ngl(i) ozdi 1 kimning?** Antonimi: **hush(i)ga kelmoq 1 kim?** [o'zining]; **o'z(i)ga kelmoq 1 kim?** **hush(i) o'z(i) ga keldi 1 kimning?**

Tun yarmiga borganda Boboqul otaning ahvoli yomonlashdi. Dam-badam hushini yo'qotib, alahlay boshladi. S. Anorboyev. Oqsoy. Onaxon tubsiz va dahshatli, qandaydir yoqimsiz iliq to'lqinda suzib ketayotganday bo'lar, hushini yo'qotar edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

2 esankiramoq. Varianti: **es-hush(i)ni yo'qotmoq; es(i)ni yo'qotmoq.** Sinonimi: **hush(i) bosh(i)-dan uchdi kimning?** Antonimi: **es(i) o'z(i)ga keldi kimning?**

Bir daqiqa hushimni yo'qotib, doydirab qoldim. O.Yoqubov. Muqaddas. Asqar chinqirgan qizchani olib, esini yo'qotgan onaga tutqizdi. Oybek. Quyosh qoraymas.

hushdan ketmoq: hush(i)dan ketmoq

hushing[iz] joyidami?!: esing[iz] joyidami

HUSHYOR TORTMOQ kim? es-hushini yig'ib sergaklanmoq.

«...Men ajrim qilaman buni. Yuring, Mirsaid, guvohim bo'lasiz». Mirsaid biroz hushyor tortdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ostidagi oti qoqilib, Qo'chqor hushyor tortdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

HO'KIZNING QULOG'IGA TANBUR CHERTMOQ kim? gap uqtirishga behuda urinmoq. Varianti: **qulog'(i)ga tanbur chertmoq kim? kimning?**

«Kimga depti xo'jayin?» – hayron bo'lib so'radi Gulsumbibi. «Ho'kizning qulog'iga tanbur chertdimmi, nodon xotin! – qizishib ketdi Yormat.– Kimga bo'lar edi, boy otam o'ziga so'rayapti». Oybek. Qutlug' qon. Tuhmatchilarga haqiqatni isbot qilmoqqa urinish – ho'kizning qulog'iga tanbur chertmoq bilan barobar emasmi? Oybek. Nur qidirib.

IBRAT OLMOQ *kim? kimdan?* ish-faoliyatida namunali deb bilib er-gashmoq, taqlid qilmoq.

Tojixon o'zlaridan ibrat olsa, ka-mina kuyovlaridan ibrat olsam, tur-mushimiz yaxshi bo'lib ketsa, ajab emas. A.Qahhor. Sinchalak.

IDORA ETMOQ (yoki **QILMOQ**). 1 boshqarmoq, rahbarlik qilmoq.

U katta bir tashkilotni idora qilib turibdi.

2 bosh bo'lib, belgili tartibda olib bormoq; amalga oshirmoq.

Har bir majlisning jonlantiruvchi, idora qiluvchi bir-ikki qahramoni bor bo'lganidek, bu qizlar majlisi ham shunday qahramonlardan xoli emas edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

IGNA BILAN QUDUQ QAZI-MOQ *kim?* ko'p kuch va vaqt talab qiladigan mashaqqatli mehnatni ba-jarmoq. Varianti: **nina bilan quduq qazimoq**.

Biz hozir igna bilan quduq qazi-maymiz, texnikamiz bor, shuni unut-mang. S.Nazar. Yashil boylik. *Keyin keksalikning ko'zoynagini taqib, igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi.* A. Qahhor. Sarob. *Boshqalar nina bi-lan quduq qazib, obi hayot chiqarsin, siz ichib ketavering, Zumradxon!* Oy-bek. Oltin vodiyan shabadalar.

IGNA TASHLASANG, YERGA TUSHMAYDI haddan tashqari ko'p va zich.

Kecha bu vaqtda pashsha ham uchmagan ko'chada odam qaynar edi. Igna tashlasang, yerga tushmay-di. Sh. Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

IGNADEKNI TUYADEK QIL-MOQ *kim?* mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq. Varianti: **ni[y]naday ... ni tuyaday qilmoq**. Sinonimi: **pashshadan fil yasamoq** *kim?*

Ha, sendaqalarga tushunib qoldim, ignadek gapni tuyadek qilib yubora-sanlar. A.Muhiddin. Qitmir. *Yig'lagan kunlari ham, ignadek kasalni tuyadek qilib, byulleten olib, ishga kelmagan vaqtlari ham bo'lgan.* Mirmuhsin. Jamila. *Qo'ziboyning ... ninaday nar-sani tuyaday, qilib gapirish odati bor.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

IGNANING UCHIDAY sira-si-ra, mutlaqo.

«Qiz... Shu gaplarning bari rost-mi? Tavba!» – «Hey-hey-hey, – ellik-boshi kulib, ko'zlarini artdi, – ignaning uchiday yolg'oni yo'q, quling bo'lay, boyvachcha». Oybek. Qutlug' qon.

ignasidan ipigacha: ipidan igna-sigacha

IJOZAT BERMOQ *kim? kimga?* biror ish-faoliyatni kimdir bajarishiga

rozi ekanini bildirmoq. Varianti: **ruxsat bermoq.**

Lekin men diplom ishini Toshkent-da qilishni so'ramoqchiman. Bu tarafi ixtiyoriy bo'lgani uchun ijozat berdilar. G'.G'ulom. Yodgor. Tushki ovqatdan so'ng rotaga bir soat istirohat qilgani ijozat berildi. A.Qahhor. Oltin yulduz. Yo'q, yo'q, mening haqqim yo'q. Faqat rektor ruxsat bera oladi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ikkala dunyoda ham: ikki dunyoda ham

ikki barmog'(i)ni burn(i)ga tiqib: ikki qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib

ikki bukilganча: ikki bukilib

IKKI BUKILIB ortiq darajada egilib. Varianti: **ikki bukilganча; yetti buklanib.**

Uni ko'rganda katta-kichik o'rni-dan turardi, ...ikki bukilib salom berardi. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri. Birpasda peshanasidan ter chiqib, ikki bukilganча u bilan so'rashdi va qo'lini ko'ziga surtdi. S.Ahmad. So'nggi nusxa.

IKKI DUNYO BIR QADAM kim uchun? yoki nima uchun? har qancha masofa ham cho't emas.

Bir vaqtlar sayoq yigitlarga qo'shilib qolgandim-da. Sayoq uchun ikki dunyo bir qadam. Shoh Mashrab ham shunday ekanlar: kechqurun bir shahardan chiqsalar, ertalab boshqa bir shaharning darvozasidan kirar ekanlar. Oybek. Qutlug' qon. Ilm-texnikaga hech shak keltirmanglar. «Ikki dunyo bir qadamdir avliyoning oldida» emas, «Ikki dunyo bir qadamdir avianing oldida!» Mirmuhsin. Dala baxti.

IKKI DUNYODA HAM hech qachon. Varianti: **ikki dunyoda; ikkala dunyoda ham.** Sinonimi: **u dunyo-bu dunyo 2.**

Ikki dunyoda ham o'g'lingiz yorilib, «Xotin olib ber» demaydi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «Molimni topib bermaguncha, badbaxt, ikki dunyoda mendan qutulmaysan. O'zing yo'q qilgansan», – dedi eshon. P.Tursun. O'qituvchi.

ikki dunyoda: ikki dunyoda ham

IKKI ELLIK qisqagina («xat»).

Varianti: **to'rt ellik.**


«Menga ellik og'iz gapdan to'rt ellik xat afzal», – debdi. A.Muhiddin. Xarakteristika.

IKKI GAPNING BIRIDA gap davomida dam-badam, qayta-qayta («gapirmoq»).

Ikki gapning birida: «O'zi zax joy, yerning tagida sizot suv ko'p», – deb bahona qiladi. M.Muhamedov. Yurak so'zlari. Ikki gapning birida: «Kishining husniga husn qo'shadigani zeb-u ziynat emas, mehnat», – derdi. R.Fayziy. Qaynana. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham, xafa bo'lmaydi kishi! Ikki gapning birida «ta'bir joiz ko'rilsa» deb turadi. A.Qahhor. San'atkor. Dadamni kasalligi tufayli urushga olishmagan, ammo oyim har ikki gapning birida akasini eslab yig'lardi. Hozir ham shuni gapirdi. Tushundim, fol ochirmoqchi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

ikki gapning o'rtasida: ikki gapning birida

IKKI JAHON OVORASI BO'LMOQ kim? na u yoqli, na bu yoqli bo'la olmaslik, ikki o'rtada sarson-sargardon bo'lmoq.



«Boyning ig'vosiga aldangan bechoralar ikki jahon ovorasi bo'ldi, dedi Safarqul, – boyning yer-suvi qo'lidan olingandan keyin ular uchun boyning eshigida ish qolmadi; ho'kiz bilan qo'lga tushganlaridan keyin bizdan ham butun ajraldilar». S.Ayniy. Qullar.

IKKI KEMANING BOSHINI TUTMOQ kim? ayni bir vaqtda amalga oshirish mumkin bo'lmagan ikki ishni boshlamoq.

Men shu jamoatning mehnatini hurmatlab aytamanki, ikki kemaning boshini tutmaylik. Kanal qazish, sakson gektar yerni bog' qilish, daraxtni parvarish qilish, hosilini yig'ishtirib saranjomlash hazilmi?! S.Nazar. Yashil boylik.

ikki ko'z(i) to'rt bo'lib: ko'z(i) to'rt bo'ldi

ikki oyog'(i) bir etikka suqildi: ikki oyog'(i)ni bir etikka tiqmoq

ikki oyog'(i) bir etikka tiqildi: ikki oyog'(i)ni bir etikka tiqmoq

IKKI OYOG'(I) BIR ETIKKA TIQILDI kimning? juda qiyin ahvolga tushirmoq. Varianti: **ikki oyog'(i) bir etikka suqildi; oyog'(i) ni bir etikka tiqmoq.**

Men uyda yo'q edim, o'g'limning ikki oyog'ini bir etikka tiqibdi, dadang uchun sen suyunchi ber deb. I.Rahim. Ixlos. Bunaqa gaplaringizni borib Hamro rafiqday odamlarga ayting, mening ikki oyog'im hali bir etikka tiqilgan emas. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

ikki oyog'(i)ni bir etikka tiqmoq II: ikki oyog'(i)ni bir etikka suqmoq

ikki oyog'(i)ni tirab olmoq: oyo-g'(i)ni tirab olmoq

IKKI OYOG'(I)NI BIR ETIKKA TIQMOQ I kim? kimning? **IKKI OYOQ(I)NI BIR ETIKKA SUQMOQ** kim? [o'zining] o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq. Varianti: **ikki oyog'(i) ni bir etikka tiqmoq II.** Sinonimi: **oyog'(i)ni tirab olmoq** kim? [o'zining].

Otam uylantiraman deb ikki oyo-g'ini bir etikka suqib olgan. Hol-jonimga qo'ymaydi. S.Ahmad. Qadr-don dalalar. Qo'ziboy o'zi yaxshi bola, menga bir ishi tushibdi, mayli deya qoluvdim. Lekin ikki oyog'ini bir etikka tiqib turib olayapti. Aytib qo'yinglar, xafa bo'lmasin, ertagacha bitkazaman. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

IKKI OG'IZ ozgina, andak («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **bir-ikki og'iz; ikki-uch og'iz.** Sinonimi: **ikki shingil.**

Men gapirsam, maylimi? Ikki og'izgina. S.Ahmad. Qadr-don dalalar. Siz bilan bir-ikki og'iz suhbatlashgani kelgan edim. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

IKKI QULOG'(I) BILAN (o'zining) diqqat-e'tibor bilan.

Ikki qulog'ing bilan eshit: kimda-kim xalq moliga joni achisa, avtokach-kaga minsin. S.Anorboyev. Oqsoy.

IKKI QULOG'IM SENDA/SIZDA kimning?gapingni diqqat bilan tinglashga tayyorman. Varianti: **qu-log'im senda/sizda.**

Bemalol, gapir. Qanday gaping bor? Ikki qulog'im senda. G'.Ahma-

diy. Kamolot. *Qani, qulog'im senda, durustmi, gapiraver!* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

IKKI QO'L(I) KO'KS(I)DA KETDI kimning? orzu-istagi amalga oshmay, armon bilan vafot etmoq.

Qizingni ko'ndir, ko'zing ochig'ida erga tegsin. Bo'lmasa ikki qo'ling ko'ksingda ketadi. I. Rahim. Ixlos.

ikki qo'l(i)ni burn(i)ga suqib: ikki qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib

IKKI QO'L(I)NI BURN(I)GA TIQIB [o'zining] quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay. Varianti: **ikki qo'l(i)ni burn(i)ga suqib; ikki barmog'(i)ni burn(i)ga tiqib; qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib.**

«Senga ish yo'q!» – deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib o'z uyimizga bordik. S.Ayniy. Qullar. Agar bu gal ham pulni sovurib, qo'lingni burningga tiqib kelsang, betingga qaramayman. O'.Azimov. Aql chirog'i.

IKKI QO'LI BIR TEPA boshni changallab, quruqdan-quruq, hech narsasiz.

[Mastura:] Doimo huzur-halovati shularcha-yu, ikki qo'li bir tepada men qolaman. Hamza. Paranjli sir-lari. Bolalarimni yetakladim-da, ikki qo'lim bir tepa, boyning dargohidan ketdim. H.Nu'mon va A.Shorahmedov. Ota.

IKKI QO'LING BURNINGDA [kimning?] hech narsaga ega bo'l-maysan.

Ishlasang – yeganing oldingda, yemaganing ketingda, ishlamasang – ikki qo'ling burningda. A.Muxtor. Opa-singillar.

IKKI QO'LLAB hech qanday e'tirozsiz va xursandlik bilan. Varianti: **qo'sh qo'llab.**

Menga qolsa, hali qizim ekan-u, jonimni so'rasangiz, ikki qo'llab tutar edim. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Abdug'afur ota ... yo'qligini sezdirmay, mehmonlarni qo'sh qo'llab kutib olardi.* R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ikki so'zning birida: ikki gapning birida

ikki so'zning orasida: ikki gapning birida

ikki-uch og'iz: ikki og'iz

IKKI YAMLAB, BIR YUTMOQ chaynamay yutib yubormoq, yo'q qilib yubormoq.

Laylakvoy: – Haq saloming bo'lmasa, ikki yamlab, bir yutardim. «Ertaklar».

IKKI O'RTADA tortishuvchi taraflar chetda qolib qaytaga (kimdir).

O'g'ilning jilovini bo'sh qo'yib yubordingiz. Ikki o'rtada qizim badnom bo'lib qoldi. S. Ahmad. Qadrdon dalalar. *Umar-ku joyini topib oldi-ya. Ikki o'rtada men sarson bo'lib qoldim.* I.Rahim. Ixlos.

IKKI O'T ORASIDA (yoki O'RTASIDA) QOLMOQ birini deb, boshqasidan kechib bo'lamaydigan, kechish qiyin holatga tushmoq.

Bobur o'zini ikki o't orasida qolganday sezdi. Beklar-u navkarlarning ko'nliga qaray desa, bu yoqda raiyat ocharchilikdan o'lyapti. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

IKKI SHINGIL ozgina, andak («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **bir-ikki shingil.** Sinonimi: **ikki og'iz.**

Xo'p, kelibsiz, ikki shingil gaplashaylik-chi. Oybek. Qutlug' qon. Gap orasida o'zining tarjimai holidan bir-ikki shingil qistirib o'tdi. Oybek. Nur qidirib.

ILDIZ OTMOQ 1 kim? nimaga? taraqqiy etib, chuqur kirib bormoq. Varianti: **otgan ildiz(i) kimning? tomir otmoq; otgan tomir(i) kimning?**

...kishi hayotga katta-katta ildiz otadigan payt ko'proq studentlik yillariga to'g'ri keladi. P. Qodirov. Uch ildiz. Meningcha, studentlikda otgan ildizlaringizdan ikkitasi ayniqsa muhim. Birinchisi, albatta, bilim, chunki sizlar bu yerda, avvalo, bilim deb yuribsizlar. P. Qodirov. Uch ildiz.

2 kim? yoki nima? nimada? mustahkam o'rnatib olmoq. Varianti: **tomir yoymoq//yozmoq.**

Butun bir o'lkani kashf etib, obod qilib, yangroq hayot yaratsang-u, unda chuqur ildiz otmay, unga o'zingni xo'jayin deb his etmay bo'ladimi?! A. Muxtor. Tug'ilish.

ILDIZ(I)GA BOLTA URMOQ kim? nimaning? yo'q qilib yuboradigan zarba bermoq. Varianti: **tomiriga bolta urmoq kim? kimning?**

Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi. U zulm ildiziga bolta urdi. Oybek. Qutlug' qon.

ILGARI BOSMOQ yaxshi tomonga o'zgarib, yurishib ketmoq

Ishi o'rin oldi ilgari bosib, Yo'lim bo'ldi, dedi ko'ngli o'sib. «Bahrom va Gulandom».

ILIGI BAQUVVAT (yoki **TO'Q**) kuch-madori yaxshi, kuch-quvvatga to'la; bo'liq.

Qopni bir hamla bilan orqaga olib, dadil ko'tarildi-yu, g'izillab yu-

rib ketdi. Sakson ota orqadan qarab qoldi va ichida dedi: «Iligi baquvvat ekan!» Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

ILON PO'ST TASHLAYDI nimga? chiday olmaslik, toqat qilib tura olmaslik (gapga). Varianti: **po'st tashlatadigan** («gap»).

...shunday achitib, piching bilan yozibdiki, so'zlariga ilon po'st tashlaydi. G'.G'ulom. Eri bilan bas boylashgan xotin. «O'zingiz ham ilon po'st tashlaydigan gap qildingiz-da», – dedi u xushomadgo'ylik qilib. I. Rahim. Ixlos. Xuddi shunday po'st tashlatadigan gapni yuziga bo'lmasa ham, orqasidan aytishlari mumkin-ku! S. Anorboyev. Oqsoy.

ILONNING YOG'INI YALAGAN juda ayyor, mug'ombir, quv. Varianti: **ilonning yog'ini yegan.**

Ey, qanaqa go'l odamsan o'zing. Bektemirov ilonning yog'ini yalagan odam. Kaltak yeb, indamay ketaveradi deb o'ylaysanmi?! S. Ahmad. Hukm. Ko'p ishni ko'rgan bu Zunnunov. Ilonning yog'ini yalagan. Juda nozik joyini topibdi. I. Rahim. Ixlos.

ilonning yog'ini yegan: ilonning yog'ini yalagan

iltimos(i)ni qaytarmoq: so'z(i)ni qaytarmoq

iltimos(i)ni yerga tashlamaslik: gap(i)ni yerga tashlamaslik

IMKON BERMOQ nima? nimga qilishga? sharoit va fursatdan foydalanishga yo'l qo'yimoq. Varianti: **imkoniyat bermoq.**

Ammo Akbarovning aytayotganlari shakl va mazmuni alohida olib

qarashga imkon bermas, chiroyli idish va zahar haqidagi tushunchaga hech to'g'ri kelmas edi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Qalandarov gazetaga qo'l uzatgan edi, Eshon qizil qalam bilan chizgan joylarini ko'rsatdi va boshqa joylarini o'qishga imkoniyat bermadi.* A.Qahhor. Sinchalak.

imkoniyat bermoq: imkon bermoq

IMON KELTIRMOQ kim? Xudoga ishonch-e'tiqod bildirib sig'inmoq.

Bu odamlar Xudoga erta-yu kech ibodat qilar, har bir so'zda unga imon keltirar, ammo ko'zni chapg'alat qilib turib, Xudoni mirkam tekinga sotar edilar. P.Tursun. O'qituvchi.

imon(i) komil: ishonch(i) komil

IMONSIZ KETMOQ kim? imonidan mahrum bo'lib, kofir bo'lib o'lmoq.

E, yolg'on gapirayotgan bo'lsam, til tortmay o'lay, imonsiz ketay! S.Ahmad. Hukm. *Voy, uch kun ilgari evara ko'rdi-ya! Imonsiz ketkur...* Oybek. Qutlug' qon.

IMZO CHEKMOQ kim? nimaga? o'z qo'li bilan familiyasini yoki shuning shartli ishorasini yozmoq. Varianti: **imzo qo'ymoq**. Sinonimi: **qo'l qo'ymoq** kim? nimaga?

«Davom eting!» – dedi Ro'ziyev hozirgina qizil qalam bilan imzo chekkan qog'ozni Parpivoy akaga uzatar ekan. S.Ahmad. Qadr don dala. *Qo'qonboy buxgalter olib kirgan cheklarga imzo qo'yib, pechat bosib bo'lgach, «Xo'sh, kelinglar» degandek Masharif otaga qaradi.* Mirmuhsin. Dala baxti.

imzo qo'ymoq: imzo chekmoq
INOBATGA OLMOQ kim? nima? hisoblashish lozim deb bilmoq.

Hukumatimiz ham o'sha norasidalarining ko'z yoshini inobatga oladi. S.Anorboyev. Oqsoy. *O'zingiz tupa-tuzuk qiz ekansiz-u, nahotki hukumatimizning buyrug'ini inobatga olmasangiz-a!* N.Nazarov. Zamon.

INOBATGA O'TMASLIK nima? nazar-e'tiborga noloyiq deb qaralmoq.

Axir, o'rtoq Nizomiddinup, ...astoydil ishlayappan, kuchimni ayamayappan. Nahotki shular inobatga o'tmasa. S.Ahmad. Hukm. – *Ikkovlari bir bo'lgandan keyin mening gapim inobatga o'tmay qo'ya qoldi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

INSOFGA KELMOQ kim? – **INSOFGA KELTIRMOQ** kim? kimni? halollik, to'g'rilik bilan ish tuta boshlamoq.

Xayriyat, Huriniso opamiz, insofga kelib, ishni o'z qo'llariga olibdilar. A.Qahhor. Sinchalak. *Olaxo'ja Mamasaidning insofga kelganidan xursand bo'ldi.* P.Tursun. O'qituvchi. *Undaylarni insofga keltirish oson emas.* S.Anorboyev. Oqsoy.

insofga keltirmoq: insofga kelmoq

IP ESHA OLMASLIK kim? kimning oldida? butunlay tenglasha olmaslik, zarracha qadr-qiyamatga loyiq bo'lmaslik.

Baland oxurdan o't yeydiganini topdim. O'ziyam shunaqa tannozki, uning oldida Huriliqo ham ip esholmaydi. M.Ismoilijon. Farg'ona tong otguncha. «*Shu qilganiga o'zimni bir*

ko'rsatay-ki, Solijon deganlar ip esholmay qolsin» deya ko'nglidan o'tkazdi, o'rtog'ini yanib qo'ydi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

IPGA TIZIB nimalarni? ma'lum tartibda birin-ketin joylashtirib.

Qalandarov Saidaning butun qilmishlarini ipga tizib, har qaysisiga o'zidan picha-picha qo'shib, o'qlangan miltiqday bo'lib borar edi. A.Qahhor. Sinchalak.

ipga chizib: ipga tizib

IPIDAN IGNASIGACHA butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, batafsil. Varianti: **ignasidan ipigacha** (oz ishlatiladi). Sinonimi: **miridan sirigacha; qilidan quyrug'igacha.**

...hammadan yashiraverib, yuragini to'ldirgan butun sirlari ipidan ignasigacha Kolyaga ayon bo'ldi. H. Nazir. So'nmas chaqmoqlar. Buni Burxon otamdan so'raysiz... U kishi ipidan ignasigacha hammasini gapirib beradilar. O.Yoqubov. Ota izidan. – Keyin bo'lgan voqeani ipidan ignasigacha gapirib berdim. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

IPSIZ BOG'LAMOQ kim? kimni? kimga? – **IPSIZ BOG'LANMOQ** kim? kimga? oxiriga yetkazilmagan ish-faoliyatning oqibatini bilish istagi orqali o'ziga qaram qilmoq.

Bizni hokim Teshaboyga ipsiz bog'lab berib ketdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «Devorning qulog'i bor, taqsir», – dedi choyfurush unga qaramay yo'lda davom etib. Naimiy ham unga ipsiz bog'langanday yonida ergashib ketaverdi. A.Muxtor. Opa-singillar.

ipsiz bog'lanmoq: ipsiz bog'lamoq
iqbol(i) baland: tole(i) baland

IRODATI AYOQ'I SINMOQ [iradati ajaqi sin=] tar. kimning?xohishi yo'q.

...boylardan boshlab so'zni bu yerga kelturdikim, faqirlarning qudrati ali bog'li dag'i boylarning irodati ayog'i sinib turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

IS CHIQARMOQ kim? kasallik, yomonliklardan qutulish, saqlanish niyati bilan ilohiy kuchlarga atab taom pishirmoq.

Latta bog'lab daraxtga, is chiqargan xonimlar, Ayting-chi, sizlar kimlar? S.Abdulla. Bitsin xurofot.

ISINI CHIQARMASLIK kim? nimaning? hech kimga oshkor qilmaslik, maxfiy tutmoq.

Bizga nimani buyurgan edingiz? Qizni olib qochish ham bir qancha vaqt isini chiqarmay saqlash, shundaymi? Oybek. Qutlug' qon.

ISKANJAGA OLMOQ kim? kimni? qattiq tergab, siquv bilan og'ir ahvolga solmoq.

Xo'jabekov qo'ralarni aylanib, buyrug'ini bajarmagan cho'ponlarni iskanjaga olayotgan, navbat endi Boboqul otaga yetgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

Isoning alamini Musodan olmoq: Musoning alamini Isodan olmoq

ISSI-SOVUQ TATMOQ [issi-savuuq tat=] tar. kim? hayotiy tajribaga ega bo'lmoq. Varianti: **issi-sovuuq tatmag'an.**

Buyuk baxting uyog', davlating boriy qildikim, bir kishiga tushtung, jahon, ko'rgan, ko'b tajriba qilgan, issi-sovuuq tatqan, eyguni, yomonni sinag'on, suhbat haqqin bilgan, do'st-

luq shartin yerina keturgan, mushfiq yorman. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Ko'lkada beslanmish, jahon ko'r-magan, safar javrin chekmagan, issi-sovuq tatmag'an, harb ko'sining uni qulog'ina tegmagan... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ISSI YUZLI [issi jüzli=] tar. kim? istarali.

Ul issi yuzli qiz savuq harakat qilib aytti... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

issiq («odam»): istara(si) issiq

ISSIQ JON odamning boshiga har xil narsa tushishi mumkin.

Buning ustiga o'zim betob yetib qoldim, issiq jon, mo'ljaldan ko'proq oyoq uzatib qolsam yoki shilqillab yiqiladigan bo'lsam, tashvish ortadi. I. Rahim. Hilola. *Issiq jon, bola kasal bo'lib qolsa, men qo'rqsam, shunday paytlarda-chi?* R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ISSIQ O'RN(I)NI SOVITMOQ kim? kimning? qulay, sharoiti yaxshi yerdan ketkazmoq

Uning o'rniga sen kelmasang, baribir boshqa kelar edi-ku. Uning issiq o'rnini sen sovitibsanmi, og'zidan nonini sen tortib olibsanmi? I. Rahim. Ixlos.

istarali: istara(si) issiq

ISTARA(SI) ISSIQ kimning? xush ko'rinishli, yoqimli, jozibador. Varianti: **yulduz(i) issiq; issiq (-); istarali (-)**. Antonimi: **so'xtasi sovuq**.

Parada sekin ochildi, sahna to'rida ... chiroyli bir kishi paydo bo'ldi. Istara issiq edi. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Bu istarasi issiqqina yigitni qayerda ko'rganligini eslay*

olmadi. N. Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. *Ko'rib, tanimay qolibman, yulduzi issiq, popukday qiz bo'libdi.* Mirmuhsin. Jamila.

istarasi sovuq: so'xtasi sovuq

IT AZOBIDA o'ta qiynalغان holatda.

Undan [Qalandarovdan] tezda tayinli bir ishora bo'lmagandan keyin Huriniso vinoni ichdi, lekin it azobida ichdi. A. Qahhor. Sinchalak. *«Yuzboshi (tillani) yeganicha yebdi, yutolmay qolganidan keyin, o'g'rilar og'ziga zo'rlab tiqishibdi».* Siddiqjon kuldi: *«Hammasini sizlarga tutdim», – desa, o'lar ekanmi?» – «Undoq dey-digan odam emas edi-da. Xullasi, it azobida o'libdi».* A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

IT FE'L xulq-atvori yoqimsiz, sovuq, muomalasi dag'al.

Dardi xarina! Halitdan it fe'lingni oshkor qilmoqchimisan? Ayt, nima bo'ldi, nonko'r? Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

IT HAM, BIT HAM kim bo'lishidan qat'i nazar, har bir kishi, noloyiq kishilar ham (mensimaslik ham bildiriladi).

Shaydoyilik ham evida-da! Mening Yangichekka kelishimni kutib turgan ekanmi! Yo'q, sen bunga yo'l qo'yma! Tul xotin deb endi it ham, bit ham og'iz solaveradimi?! I. Rahim. Ixlos.

IT KUNINI BOSH(I)GA SOLMOQ kim? kimning? juda og'ir mashaqqatni, tahqirlashlarni boshidan kechirishiga olib kelmoq. Sinonimi: **ko'rgilig(i)ni ko'rsatmoq** kim? kimning?

Qutbinisa xola belini bog'lab o'sha qarindoshinikiga borgan, «o'zi tuqqan» qizini ... bo'lmag'ur gaplar bilan ranjitgani uchun it kunini boshiga solgan, mahallani boshiga ko'tarib, Alining o'yinini ko'rsatib kelgan edi. Mirmuhsin. Jamila.

IT TEGIB CHIBIN USHTI [it tegib čibin üšti] tar. *nimaga?* yoki *kimga?* iflos bo'lmoq.

Susamish ul shakar suvin ichmas, Kim, anga it tegib, chibin ushti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

IT YOTISH, MIRZA TURISH yashash uchun hech qanday qulayliklar yo'q.

Avvalo, u Rahmonqulovning tura-digan joyini yomonlab ketdi. «Idora boshlig'imisiz, kimsiz? Bu nima? It yotish, mirza turish! Na stol, na kursi, na ko'rpa, na kitob! Yo'l-yo'lakay yotib ketgani kirgan odamga o'xshaysiz, men sizga aytsam!» A.Muxtor. Tug'ilish.

ITDAN OLIB, ITGA SOLMOQ *kim? kimni?* so'kish so'zlari ishlatgan holda tahqirlamoq.

Anov qor yoqqan kuni Japaq gadolarini to'plab, yana seni itdan olib, itga solibdi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

IT-MUSHUK dushman.

Shundan so'ng aholining bir-birlari bilan it-mushuk emas, balki og'agini ekanliklari, qadrdonliklari oydek ravshanlashibdi. Sh.Bo'tayev. Haykal.

ITNING KEYINGI OYOG'I bilish, rivojlanish jarayonida eng keyinda qolgan.

Biror hunar-punar o'rgansin. Yo'q-sa, o'zingga o'xshab, itning keyingi

oyog'i bo'lib qoladi. E.Raimov. Ajab qishloq.

IT(I)NING TUVAGI TILLADAN BO'LIB KETDI *kimning?* boyligi oshib-toshib ketmoq. Varianti: **tovog'(i) tilladan bo'lib ketdi kimning?** yoki *nimaning?*

Biram pul topadi deng, itining tuvagi ham tilladan bo'lib ketgan-dir. A.Muxtor. Tug'ilish. *Direktorga qilgan yordamlarinning birontasini boshqa kishiga qilganimda, itining tuvagi tillodan bo'lib ketar edi.* S.Ahmad. Uzun til.

ITYALOG'I TILLADAN BO'LADI (...BO'LGANDIR) *kimning?* boyligi oshib-toshib ketdi; o'ta badavlat bo'lib ketmoq. Sinonimi: **ostonasigacha oltindan bo'lib ketdi kimning?** yoki *nimaning?*

Ammo-lekin Mirza Muhiddinning it yalog'i tilladan bo'lgandir, porani ilikday yutadi. A.Qahhor. Sarob.

IXLOS QO'YMOQ *kim? kimga?* yoki *nimaga?* e'tiqod bilan qaramoq. Sinonimi: **bino qo'ymoq kim? kimga?** yoki *nimaga?*

Zokir ham ularga juda ixlos qo'ygan, ularning chizgan chizig'idan yuradi. P.Qodirov. Uch ildiz. – *Sizga ixlos qildim, aka, o'qib qo'ysangiz.* E.Malik. Champo otli ilon.

IXLOS(I) BALAND *kimning? kimga?* ishonch-e'tiqodi haddan tashqari ortiq.

Shundan keyin eshonning ixlosi menga juda baland bo'lib ketdi. G'.G'ulom. Shum bola. *Shoazimning yangi tarix o'qituvchisi Ziyinatulla-yevga ixlosi balandligini esladi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

IXLOS(I) QAYTDI kimning? kimdan? yoki nimadan? – **IXLOS(I)NI QAYTARMOQ** kim? kimning? [kimdan?] e'tiqod qilmay qo'ymoq.

Mana shundan keyin hamma narsadan ixlosim qaytdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. O'ktam ustida turli ... mish-mishlarni Komilaga yetkazib, do'stligini kesmoqqa, ixlosini qaytarmoqqa uringan edilar. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

ixlos(i)ni qaytarmoq: ixlos(i) qaytdi

IXTIYOR INONIN ALINDAN BIRAQMOQ [ixtiyar inanin elindän biraq=] tar. kimning? erki o'zida bo'lmaslik.

...uylakim Majnun fazl va balog'at bilan oshiq va devona bo'lub, yozi-larda ixtiyor inonin alindan bir aqib yurur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

IXTIYOR TASLIM QILDI [ixtiyar täslim qil=] tar. kim? voz kechmoq?

Cho'ng johillar bilan bo'ldi bu charxu baxtiyor, Oqil er ko'rub ani taslim qildi ixtiyor. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

IXTIYORINING INONI ALINDAN KETMOQ [ixtiyar inanï elindän ket=] tar. kimning?erki, xohishi o'zida bo'lmaslik.

Yo'l ustunda bir usruk yigit yotur edi, ixtiyorining inoni alindan ketib. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

IYIG'(I) CHIQDI 1 kimning?qat-tiq jarohatlanmoq. Sinonimi: **ab-jag'(i) chiqdi 1** kimning?

Ural temir yo'lida ishlayverib, iyig'im chiqqanini bilsang edi. N.Safarov. Uyg'onish.

2 nimaning? sifati yo'qolib, yaroqsiz holga kelmoq. Sinonimi: **ab-jag'i chiqdi 2 nimaning?** **dabdalasi chiqdi 1 nimaning?**

Yormatgami yo boshqa bir sobiq qarolga uzoq ish berib, iyig'i chiqqan, poshnasi qiyshiq, etikni kiydi. Oybek. Qutlug' qon.

IZ QOLDIRMOQ kim? yoki nima? kuchli ta'sir etib, xotirasida muhrlanib qolmoq.

Keyinchalik uch og'ayni botirlar, qirq xil hunar o'rgangan yigit uning ongida o'chmas iz qoldirdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Mana bugun ham uning yuragida Qosimov uyg'otgan og'ir tuyg'ular tarqab, uning o'rnini ma'yus, lekin allaqanday yorug' bir hislar egalladi. Otasining ismi bilan bog'liq bo'lgan va Shukurjonning xotirasida unutilmas iz qoldirgan juda ko'p esdaliklarni birdan uyg'otib yubordi. O.Yoqubov. Ota izidan.

IZ(I)DAN TUSHMOQ kim? kimning? qayerga borsa, zimdan ta'qib qilib bormoq. Sinonimi: **ket(i)dan tushmoq** kim? kimning? **orqa(si)dan tushmoq 1** kim? kimning? **pay(i)dan tushmoq** kim? kimning?

Muyulishda turgan bir chol izidan tushgan ayg'oqchiga o'xshab ko'ringdi unga. S.Anorboyev. Oqsoy.

IZ(I)GA QAYTMOQ kim? [o'zining] yetib kelgani zamon yana qaytib ketmoq.

Tunda o'rmondan juldur kiyimga o'ralib Viktoriya kelardi, ma'lumotni olib, iziga qaytardi. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon. Bevaqt kelibman deb, izimga qayta qolmoqchi ham

bo'lgan edim, o'zi gap ochib qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

IZ(D)GA TUSHMOQ I kim? kimning? zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq. Sinonimi: **ket(i)ga tushmoq I** kim? kimning? **orqa(si)ga tushmoq** kim? kimning? **pa-y(i)ga tushmoq I** kim? kimning?

Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma, iziga tush! Oybek. Qutlug' qon. *Pochchayev bor-ku, qurilishga biron fikri tetikroq bola kelib qolsa, darrov iziga tushadi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

IZ(D)NI BOSMOQ kim? kimning? kimningdir fe'l-atvorini, ish-amalini o'zlashtirmoq, shularni asosga olib ish qilmoq.

«Chidab bo'lmaydi, aya! Yigit o'lgur otasidan battar uyatsiz, surbet ekan. Yonimga kelib, nimalar demadi, ne qiliqlar qilmadi... Ertaga nikoh, go'yo men uning xotini..!» – *«Ota izini bosganga o'xshaydi»*, – dedi ona. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

IZ(D)NI QUVMOQ kim? kimning? kimningdir faoliyat sohasini tanlab, o'sha kishi darajasiga yetish yo'lida jadal harakat qilmoq.

«Domlajon, men sizning etagingizni tutganman. Bir umrga ustozim deganman. Endi, domlajon... – Latifjon iymandi. – Haligi, formalniy, ya'ni rasmiy tomonlariga o'zingiz ko'maklashsangiz...» – *«Qanday rasmiy?»* – hayron bo'lib so'radi Ehson Hasaniy. *«Ya'ni aspiranturaga... Izingizni quvsam...»* S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

izdan chiqarmoq: izdan chiqmoq

IZDAN CHIQMOQ nima? yoki kim? – **IZDAN CHIQARMOQ** kim?

nimani? yoki kimni? normal taraqqiyoti, holati buzildi. Varianti: **izdan chiqmoq nima?** [o'zining].

Ba'zan qattiqqo'llik ham kerak, o'rtoqlar! Usiz tartib-intizom izdan chiqadi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Kishi sessiyaning o'rtasida bir izdan chiqib ketsa, qaytib izga tushishi juda qiyin bo'lishini... Mahkam yaxshi bilardi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

IZGA SOLMOQ kim? nimani? chetga chiqishlarni bartaraf qilib, odatiy holatga keltirmoq.

Bir amallab ishlarni izga solib yuborarmiz. N.Nazarov. Zamon. *Maktabdagi butun ishlarni qayta izga solish kerakligini... sezdi.* S.Zunnunova. Yangi direktor.

IZGA TUSHMOQ nima? yoki kim? chetga chiqishlar bartaraf bo'lib, odatiy holga kelmoq. Varianti: **izga tushmoq II** nima? [o'zining].

Adolat, xafa bo'lma, oyning yarmi qorong'i bo'lsa, yarmi yorug'. *Hammasi izga tushib ketadi.* I.Rahim. Chin muhabbat. *Tillaboyev ancha izga tushib qoldi. Aslini olganda, uni ham agronom yo'lga soldi.* H.Nu'mon. *Yoshlikda bergan ko'ngil. Ishlar yana avvalgi iziga tushib ketadi.* Oybek. *Oltin vodiydan shabadalar. Onam aytganidek, o'sha kunlar unut bo'ldi. Turmush iziga tushib ketdi.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

izdan chiqmoq: izdan chiqmoq

izga tushmoq II: izga tushmoq

IZM(D)DAN CHIQMOQ kim? yoki nima? kimning? hukmiga itoat qilmaslik.

Begimxon esa ularning izmidan chiqishga jur'at etolmadi. I.Rahim. Chin muhabbat. *Afandim: «Barini ga-*

pirib o'tirma», – degan edilar, aytsam, «Nega unday qilding, nega izmimdan chiqding», – demasmikinlar? S.Ahmad. Hukm. «Bu mashinalarning «til»ini bilib olsangiz, izmingizdan chiqmaydi», – dedi u nihoyat. N.Nazarov. Zamon.

IZTIROB CHEKMOQ kim? ruhan ezilmoq.

Gavhar goh, «Bo'lib o'tgan ko'ngilsizliklardan o'ng'aysizlanyapti» deb o'ylardi, goh «Men bilan do'stlashganidan uyalyapti, pushaymon bo'lyapti» deb iztirob chekardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

IZZA TORTMOQ kim? nima-dan? izza bo'lmoq, uyalmoq.

...yangi kavush-mahsining g'arch-g'arch etayotganini endi fahmladi, bundan biroz izza tortdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

IZZATI NAFS(D)GA TEGMOQ nima? kimning? kamsitadigan gap-so'z, ish qilmoq. Varianti: **tegib ketmoq** nima? kimga?

Uning mag'rurligi Ra'noning qalbida ayni zamonda ham hurmat uyg'otar, ham qandaydir izzati nafsigaga tegardi. O.Yoqubov. Bahor kunlarining birida. Holbuki majlisda qabul qilingan qarorda uning izzati nafsigaga tegadigan hech qanday gap yo'q edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Shuning uchunmi, salgina gap, salgina hazil darrov unga tegib ketardi. I.Rahim. Chin muhabbat.

izzat-nafs(i)ga tegmoq: izzati nafs(i)ga tegmoq

ISH BERMOQ nima? yoki kim? kimga? nimada? manfaatiga xizmat qilmoq.

Shu g'ovg'a vaqtida Muxtorxon-day odamlar zarur edi. Xususan qishloqda bu g'ovg'a katta bo'ldi. Mana shu paytdan foydalanishda Muxtorxon ish berar edi. A.Qahhor. Sarob. Bu metod hozir bizga ish bermaydi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bular adabiyotga ish bermaydigan to'rt kunlik «mehmonlar-ku». S.Ahmad. Kiprikda qolgan tong.

ish bitadimi?!: ish bitmaydi

ish bitib, eshak loydan o'tgandan keyin: ish(i) bitdi, eshag(i) loydan o'tdi

ISH BITMAYDI maqsad, mudao amalga oshmaydi. Varianti: **ish bitadimi?!**

Bu kamchiliklarni chimdib olib tashlash bilan ish bitmaydi, bularni tomiri bilan sug'urib tashlash zarur. A.Qahhor. Sinchalak. Bunday ulug'ishga bel bog'lagan odam dastlab o'zi to'g'risida o'ylasa, ish bitadimi, do'stim?! R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ISH KO'RGAN tajriba orttirgan.

Bo'taboy ancha ish ko'rgan, ko'p kurashlarda chiniqqan ... yigit edi. S.Ahmad. Hukm.

ISH KO'RMOQ kim? biror faoliyatni amalga oshirmoq. Sinonimi: **ish tutmoq** kim?

Kapsanchilarda Abdusamadqori degan odam bor, mening bojam. O'sha bilan birga ish ko'rasiz. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ISH KO'RSATMOQ kim? 1 maq-tovga loyiq faoliyatni amalga oshirmoq.

Ish ko'rsatib obro'yingizni tiklashingiz mumkin, ish ko'rsatib muhabbat qozonishingiz mumkin. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 nojo'ya xatti-harakat qilmoq.

Sen bola yana qanday ish ko'rsatding, nega ustozing meni chaqirtiryapti. So'zlashuv uslubi.

ISH OLIB BORMOQ kim? biror faoliyatni muttasil amalga oshirmoq.

Akbarov unga juda samimiy ko'ringan, Hakimov noto'g'ri metod bilan ish olib borayotgan deb kuyinib gapirgan edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ISH QO'ZG'ATMOQ kim? kimning ustidan? jinoiy javobgarlikka tortish maqsadi bilan jarayon boshlamoq.

Yolg'iz o'zining ichki sezgim va sizning so'zingiz bilan uning eri ustidan ish qo'zg'atolmayman. Qonun yo'l qo'ymaydi. Sh.Rizo. Da'vogar sust kelsa, qozi muttaham.

ISH TUTMOQ kim? biror faoliyatni amalga oshirmoq. Sinonimi: **ish ko'rmoq** kim?

Dehqonboy, bolam, siz ham Mavlonning maslahati bilan ish tuting! A.Qahhor. Yangi yer. Bu yigitlarning bir qismi bizni raqib deb bilishlari mumkin edi-ku, nega shuni oldindan hisobga olib ish tutmadim? P.Qodirov. Uch ildiz. Shu yoshga yetib birovdan maslahat so'ramagan, o'z bilganicha ish tutadigan bu o'jar juvoning bugun, qorong'i kechada qanday maslahati chiqib qolibdi?.. I.Rahim. Chin muhabbat.

ISH O'NGIDAN KELMOQ ish ko'ngildagidek bo'lmoq, yurishmoq.

Ishimiz o'ngidan keldi, Polvon, xon hazratlari ikki yuz tanob yer in'om qildilar. J.Sharipov. Xorazm.

ISH CHIQMADI nima qilishdan? nimadan? yoki kimdan? – **ISH CHIQUARA OLMASLIK** kim? nima

qilishdan? biror natijaga erisha olmaslik. Varianti : ish chiqishi.

Keyin keksalikning ko'zoynagini taqib, igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi. A.Qahhor. Sarob. Rashidni-ku ko'plashib ko'ndirishdi-ya, Salimadan hech ish chiqmadi. H.Nazir. Tomosha.

ish chiqara olmaslik: ish chiqmadi

ish chiqishi: ish chiqmadi

ISH(I) BITDI, ESHAG(I) LOYDAN O'TDI kimning? 1 maqsadi amalga oshgach, aloqa va muomalani yig'ishtirmoq. Varianti: **ish bitib, eshak loydan o'tgandan keyin (-); eshag(i) loydan o'tdi.**

Ertasigayoq juvonning ishi bitdi. Shu-shu juvon: «Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi», – deb, unutib ketadigan «nomardlardan emasmiz», – deb, Xo'jabekovning oldiga kelib turadigan bo'ldi. S.Anorboyev. Oqsoy. Ish bitib, eshak loydan o'tgandan keyin, zo'ravonlar chiqib, yerlarni egallab oladigan bo'lsa... M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

2 hozirgisi hal bo'ldi, keyingisi bir gap bo'lar.

Bunaqada ish bitadimi?! Har qanday mexanizator ham ishim bitdi eshagim loydan o'tdi zaylida ishlab, jonab qolaveradi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ISH(I) TUSHDI kimning? kimga? biror ish yuzasidan muomalada bo'lmoq, biror masala yuzasidan murojaat qilmoq.

Muxtorxonning menga bir ishi tushib qoldi, joniga ora kirmaganimda, ketar edi. A.Qahhor. Sarob. «Hamug'ombir, yordam so'ramas ekan-

san-a, ishing tushmas ekan-a», – dedi Qobil. H. Nazir. Javob.

ISHDAN CHIQQMOQ nima? yoki kim? – **ISHDAN CHIQQARMOQ** kim? yoki nima? nimani? yaroqsiz holga kelmoq.

O'z vaziyati haqida so'zlash uchun og'iz ochganda telefon ishdan chiqdi. Oybek. Quyosh qoraymas. To adirning etagiga yotguncha Turg'unoyning kavushi ishdan chiqdi. A.Qahhor. Maston. Otlar omonat, izvosh ham. Bularni ishdan chiqarib qo'ysam, xo'jayindan baloga qolaman-da. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ishdan chiqarmoq: ishdan chiqmoq

ISHGA QO'YMOQ [iʃgā qoy=] tar. kimni? ish bilan ta'minlamoq.

Surati holin taqdir qildim esa, Bir muxtasar ishga qo'ydi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ISHGA SOLMOQ kim? 1 kimni? mehnat qilishga safarbar qilmoq.

«Qani! Chiroqlar, ish qolib ketdi!», – deya bolalarni ishga solib yubordi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

2 kimni? o'z maqsadi yo'lida xizmat qildirmoq.

Qarasaki, Po'latjon Nazokat bilan haligiday ekan, shularni ajrataman deb polvonni ishga solyapti. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

3 nimani? ishlata boshlamoq. Sinonimi: **ishga tushirmoq** kim? nimani?

Darrov gaz sushilkasini tuzattirib, ishga soling. S.Nazar. Yashil boylik. Batareya yo'q, batareya bo'lsa, radiolarni ham ishga solardik. I.Rahim. Ixlos.

4 nimani? safarbar qilmoq, foydalanmoq.

Yaxshi ko'rinish uchun butun hunarini, farosatini ishga soladi. S.Anorboyev. Oqsoy. Kuchimni, g'ayratimni to'la-to'kis ishga solib yuribman. A.Qahhor. Ming bir jon.

ishga tushirilmog: ishga tushmoq

ishga tushirmog: ishga tushmoq

ISHGA TUSHMOQ 1 kim? mehnat qilishni boshlamoq.

Odamlar bir zumda tarqalib, ishga tushib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ko'zni chirt yumib ishga tushaversak, bitib qolganini sezmay qolamiz. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

2 nima? ishlay boshlamoq. Varianti: **ishga tushirmog** kim? nimani? Sinonimi: **ishga solmog**. 3 kim? nimani?

Ekskavator va kranlar salmog bilan g'irchillab ishga tushadi. A.Muxtor. Tug'ilish. ...odamlarning qalbida yotgan qimmatbaho fazilatlar konini qidiradi, topadi, ishga tushiradi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ishongan bog'(i), suyangan tog'(i)

ishongan tog'(i): suyangan tog'(i)

ISHONCH(I) KOMIL kimning? mutlaqo amin. Varianti: **imon(i) komil**.

...lekin katta o'zgarish borligiga Ergashning ishonchi komil edi. A.Muxtor. Opa-singillar. Agar masalaning tagiga yetmasa, faqat hozirgina emas, balki butun umr unga azob berishiga imoni komil edi. O.Yoqubov. Tilla uzuk.

ISHONCHINI OQLAMOQ kim? kimning? bildirilgan ishonchga loyiq ekanini isbotlamoq.

– *Boylar nazdida, qazisan, qartasan asli naslingga tortasan, ularning*

ishonchlarini oqlolmadi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

ISHQ(I) TUSHDI kimning? kimga? yoki nimaga? sevib qolmoq.

Adolatga ko'zi tushgan, ishi tushgan va ishq tushgan yigitlarning hammasi ana shunday xayolning asiri edi. I.Rahim. Chin muhabbat. *Hozir cho'lga domlaning ishq tushib qolgan.* S.Ahmad. O'rik domla.

ISHTAHA KARNAY BO'LDI – ISHTAHANI KARNAY QILMOQ nimaga? yeb-ichish istagi juda kuchli.

Hoy oppoq, qiz, aravangni to'xtat-e, ishtahalar karnay bo'lib ketdi-ku. O.Yoqubov. Bahor kunlaridan birida. *Bu – tansiq ovqat. Palovga ishtahani karnay qilib turadi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

ISHTAHA(SI) BO'G'ILDI kimning? **ISHTAHA(SI)NI BO'G'MOQ** nima? kimning? yeb-ichish istagini yo'q qilmoq.

... diqqatchilik uning ishtahasini bo'g'ib qo'ygan edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Sangin oldidagi sho'rvani surib qo'ydi, negadir ko'ngli g'ash bo'lib, ishtahasi bo'g'ilgan edi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

ishtaha(si) bo'g'ildi: ishtaha(si)-ni bo'g'moq

ISHTAHASI INIGA KIRIB KETMOQ kimning? ovqatlanish xohishining yo'qolishi.

Endi Ochilning ishtahasi iniga kirib ketgandi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

ISHTAHA(SI) KARNAY kimning? **1** yeb-ichish istagi juda kuchli.

U bu taomlarning ko'pini umrida ko'rmagan. Ellikboshining ishtahasi karnay, u o'zini kuyovnavkarga kelgan sho'x yigitlarday his qilgan ... edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 nimagadir ega bo'lish istagi juda kuchli.

Qarz oz emas, kun sayin oshib ketyapti. Sudxo'arning ishtahasi karnay, sudxo'rdan insof kutish toshdan moy siqib chiqarish bilan baravar. Oybek. Nur qidirib.

ISHTAHA(SI) OCHILDI kimning? yoki nimaning? (jonlining) yeb-ichish istagi paydo bo'ldi.

Bugundan uning ishtahasi ochilib, tug'ruqxona ovqati uncha qanoatlan-tirmayotgan edi. Mirmuhsin. Jamila. *Kuz kelganda qo'ylarning ishtahasi ochilib ketib, «chopar ot ham qo'yning gorniga yetolmaydi».* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

ishtahani karnay qilmoq: ishtaha karnay bo'ldi

ISHTAHASI QAYTDI nimaning? (jonlining) yeb-ichish istagini qisman yo'qotmoq.

Negakim issiqda qo'yning ishtahasi qaytib, ko'proq quduqqa bog'lanib qoladi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

ICH(I) ACHIDI kimning? **1** kimga? ayab kuyinmoq. Varianti: **ich(i) achishdi.** Sinonimi: **yurag(i) achidi.**

Agar menga ichlari achimasa, o'sha gaplarni gapirmas edilar. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Elchiyevning qiziga ichi achirdi.* E.A'zamov, Javob.

2 kimning? kimga? yoki nimaga? **achinib kuyinmoq** Varianti: **jon(i) achi(y)di** **2** kimning? nimaga? ba'zan kimga?

Yo shunday paxta shu bo'zga xayb bo'libdi deb ichingiz achirmidi? P.Qo-dirov. Uch ildiz. *Qantarig'lik, turgan o'zining chavkari bilan Sherbekning to'rig'ini ko'rib, ichi achishdi.* S.Anor-boyev. Oqsoq.

ich(i) achishdi: ich(i) achidi

ich(i)ga solmoq: ich(i)ga yutmoq.

ich(i)da zil ketmoq: zil ketmoq

ICH(I) KUYDI kimning? avvalgi ustunligini yo'qotgani tufayli alam chekmoq.

U yolg'iz sening o'tkir tanqidning uchungina xafa emas, ...avvalgiday errayim bo'lolmaganidan, o'z xohlaganicha to'ralik qilolmaganidan ichi kuyib, o'rtanib boryapti. Oybek. *Ol-tin vodiyan shabadalar.* Saidmurod, *qo'rboshining bevaqt yo'lga chiqqaniga ichi kuyib, alamdanda tutab kelayotgan ponsod, royishsiz so'z boshlaganda Xolbo'ta ana shunday kayfiyatda edi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

ICH(I) OG'RIYDI kimning? nima qilishiga? istamagani, malol kelgani tufayli qiynalmoq.

[Chodirlarning] yangilari ombor-da chang bosib yotaversin, a'zolarga berishga ichlaring og'riydi, dedim. S.Anorboyev. Oqsoy.

ICH(I) OG'RIYDIMI?! kimning? – **ICH(I)NI OG'RITADIMI?! nima? kimning?** ortiqchalik qiladimi?!

Har bir kvartirantdan ikki yuzdan olsam... Lo'nda o'nta yuztalik. Ichim og'riydimi?! S.Anorboyev. Yo'llanma bilan. «Ishqilib, foydaning ketidan quvgani-quvgan».– «Ha, foyda sening ichingni og'ritadimi?!» S.Anorboyev. Oqsoy.

ICH(I) PISHDI kimning? 1 ruhan bezovta bo'lmoq, dilgir bo'lmoq.

Ko'chadan o'tayotgan Abdurasul-ni ko'rib, yana ichi pishdi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 sabri tugab, ruhan betoqat bo'lmoq. Sinonimi: **ich(i) toshdi 2 kimning?**

«Nima gap o'zi?» – deb ichi pishib so'rar; lekin hech kim unga e'tibor qilmasdi. P.Tursun. O'qituvchi.

ICH(I) QIZIDI kimning? 1 qiziqish uyg'ondi. Varianti: **ich(i)ni qizitmoq nima? kimning?**

«Xabarim bor. Hammasini bilib yuribman», – dedi ichi qizib Rahim. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. ...bolalar ancha kitob topshirganlarini aytib, Rahimning ichini qizitdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

2 zerikib siqilmoq.

Uyga kelsa, ichi qizib, o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi, aylanay. S.Anorboyev. Eh, yomon bo'ldi.

ich(i) tars yorilguday bo'ldi: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

ICH(I) TOSHDI kimning? 1 biror narsani shoshib bajarish davomida ruhan hovliqib ketmoq.

Qudrat shaldiraq ko'k konvertni ochguncha xuddi u yoqdan akagina-si kirib kelayotganday ichi toshdi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

2 sabri tugab, ruhan betoqat bo'lmoq. Sinonimi: **ich(i) pishdi kimning?**

Mening imillaganimni ko'rib, bolalarning ichi to'lib ketdi. H.Nazir. Cho'l havosi.

ICHI YONMOQ= [iči jan] kimning? jahli chiqmoq, alami kelmoq.

Dushmanning ichi yonib ne bo'lsa so'zlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Aning achig'indan ichi yonib o'turur edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ICH(I) G'ASH *kimning?* tashvishli, bezovta, notinch. Sinonimi: **ko'ngli(i) g'ash kimning? ko'ngli(i) xira kimning? nimadan?**

Safaralining nimagadir ichi g'ash ko'rinardi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

ICHAG(I) UZILDI *kimning? 1* qotib qolmoq («kulgi»dan). Varianti: **ichag(i)ni uzmoq kim? kimning?**

Kulaverib, ichagim uzildi. I.Rahim. Olovkor. «Endi tushirib bo'psanlar? Suyanchig'im bor!» – deb ichaklarini uzibdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 uzluksiz va qattiq yig'lab charchamoq (chaqaloq).

Hoy Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! G'.G'ulom. Yodgor.

ICHAG(I) UZILDI II *kimning?* juda-juda ochiqmoq.

Ol, oshingni ich, ichaging ham uzilib ketgandir. H.Nazir. Rashk. «Qizim, turing, bir piyola choy iching...» – «Rahmat». – «Undoq demang, turing. Bu so'qimlarni kutib, ichagingiz uzilib ketdi». Mirmuhsin. Ikki arab qizi.

ICHAG(I) UZILGUDAY BO'LIB [*o'zining*] qotib-qotib («kulmoq»). Varianti: **ichag(i) uzilguday; ichag(i) uzilib.**

Hamma to'xtaganda ham, Pochchayev ichagi uzilguday bo'lib qahqah otardi. A.Muxtor. Tug'ilish. – *Cho'chqa-ki nozik bo'lsa, – dedi Dilbarxon ichagi uzilguday kulib, – ho'kiz ipak ekan-da.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Chipor ilonni ko'rgan odamlar o'rinlaridan turib ketishdi. *Sohib bo'lsa ichagi uzilib xoxolab kula boshladi.* Mirmuhsin. Oq marmar.

ichag(i) uzilguday: ichag(i) uzilguday bo'lib

ichag(i) uzilib: ichag(i) uzilguday bo'lib

ICHAG(I)GA YUQ HAM BO'L-MASLIK *nima? kimning?* oz bo'l-gani sababli to'yish emas, ochlik his-sini so'ndirishga ham yetmaslik.

«Beradiganing bormi yo tamommi?», – dedi mehmon. «Bechoraning ichagiga yuq ham bo'lmagandir», – deb o'yladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ichag(i)ni uzmoq: ichag(i) uzildi I

ICH-ET(I)NI YEMOQ *kim?* [*o'zining*] ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikro'yini boshqalarga aytmay). Varianti: **ich(i)ni yemoq; et(i)ni yemoq.** Sinonimi: **o'z yog'(i)ga o'z(i) qovurilmoq kim?**

Sen ham o'zingni diqqat qilib, kasal bo'lib yurma, men ham seni ko'rib, ich-etimni yeb yurmayin. G'.G'ulom. Yodgor. *U shu og'ir fikrlar bilan ichini yeb turganda ichkaridan paranjili ikkita xotin chiqib, erkaklardan olisroqda to'xtadi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ICHI ILIMASLIK ko'ngli to'lmaslik; xotiri jam bo'lmaslik.

Sira ko'nglim chopmas bu yurishingga. Sira ichim ilimaydi qilgan ishingga. «Yodgor».

ICHI (yoki YURAGI) TO'LMOQ diqqinafas bo'lmoq, diqqati oshmoq.

To'g'risi, uydagi gaplarni hammadan bekita-bekita, ichim to'lib ketdi. H.Nazir. Yonar daryo. *Yuragi to'lib ketgan paytlarida esa hammahallasi Zubaydaxonlarnikiga chiqadi.* K.Yashin. Hamza.

ICHI QAYNAMOQ diqqati oshmoq, asabi qo'zg'amoq.

Qarshiboy ota... salomatligini yo'qotgan oshnasiga ozor berishni istamasa ham, ichi qaynab ketdi. H.Nazir. Suv gadosi.

ICHI QORA kimning? yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan. Varianti: **ichi qoralik** (-). Sinonimi: **ko'ngli qora kimning?** Antonimi: **oq ko'ngil – ko'ngli(i) oq kimning? ko'ngli(i) toza kimning?**

Hali ichi qora dushman chiyondek bijib yotibdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Shokir ichi qora bir odam edi. Ichi qoralikdan u ham rohatlanar, ham azoblanar edi.* H.Nu'mon. Fasllar.

ichi qoralik: ichi qora

ICHI YALANMOQ ichi sidirilmoq, ochqamoq.

[Kampir:] Bay-bay-yey, cholim bechora, ichi yalanib, och keldi-ya... Oybek. Ulug' yo'l.

ICH(IDAN) PISHGAN kim? [*o'zining*] fikr-o'yini, sirini hech kimga bildirmaydigan.

Azimjonning nazarida sodda bo'sh-bayov ko'ringan Rayimjon aka ichidan pishgan, aqli xiyla joyga yetadigan, shu bilan birga qiziqchi bir kishi bo'lib chiqdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. «*Yaxshi ko'rgani bor ekan-da, ichidan pishgan ekan Gulbahor*», – *deb o'ylardi.* S.Zunnunova. Gulbahor.

ICH(IDAN) QIRINDI O'TIB KETAR EDI kimning? hasadgo'ylik tufayli qattiq alam qilmoq. Varianti: **ich(i)dan qon o'tib ketar edi.**

Saidg'oz do'stining yordamini olishga olar, ammo ichidan qirindi

o'tib ketar edi. «*Nega Nazarov o'zidan orttirib, birovlariga ham bera oladi-yu, men o'zimni o'zim eplay olmayman?..*» S.Anorboyev. Oqsoy.

ich(i)dan zil ketmoq: zil ketmoq

“E, shunaqa demaysizmi! Men yaxshi bilaman u kishini”. Olga Petrovnaning ichiga chiroq yoqilganday bo'ldi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

ICH(I)GA CHIROQ YOQILGAN(DAY) BO'LDI kimning? ko'nglidagi g'ashlik tarqadi. Sinonimi: **ko'ngli(i) yorishdi kimning?** Antonimi: **ko'ngli(i) xira bo'ldi kimning?** (*nimadan?*) **ko'ngli(i) g'ash bo'ldi kimning?** [*nimadan?*]; **ko'ngli(i) g'ashlandi.**

ICH(I)GA CHIROQ YOQSA, YORIMAYDI Varianti: **ich(i)ga chiroq yoqsa, yorishmaydi; yurag(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi; ko'ngli(i)ga chiroq yoqsa, yorishmaydi; yurag(i) chiroq yoqsa, yorimaydi.** Sinonimi: **daru dunyo(si) qorong'i.**

Hurmatli Azimjon aka, qattiq, xafaman, shu kunlarda ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Yalang tovon bilan axlat bosib olgandek benihoya tirriqlangan, ichiga chiroq yoqsa yorimasdi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

ich(i)ga chiroq yoqsa, yorishmas: ich(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi

ICH(I)GA YUTMOQ kim? [*o'zining*] nimani? yashirmoq, pinhon tutmoq. Varianti: **o'z ich(i)ga solmoq.**

Urush-janjal ko'paymasin deb, butun dardimni ichimga yutaman. Oybek. Qutlug' qon. «*Mahkam aka, – dedi Gavhar, – ko'nglingizga kelgan hamma narsani ayting, o'tgan yildagi-*

day ichingizga yutib yurmang». P.Qodirov. Uch ildiz. *Boyadan beri nafasini ichiga yutib o'tirgan Xayri opa endi chidab turolmadi shekilli, hayqirib yubordi: – Asqar akam-chi?* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

ICHIGA O'T TUSHMOQ kimning? kuchli ruhiy bezovtalik tufayli halovatini yo'qotmoq.

U ichiga o't tushganday hovlida tipirchilab-potirlab yurar, o'zini panaroqqa olishga urinar, aksiga olgandek hadeb ko'zga tashlanib qolaverardi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

ICHINDA JON YO'Q [ičindä žan joq=] tar. kimning? madorsiz, holsiz.

Xorazmiyning ketib aqli boshidin, Turur tik surati, yo'q jon ichinda. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

ich(i)ni bir nima/nimadir tirnay boshladi: ich(i)ni mushuk tatalayapti
ich(i)ni bo'shatmoq: yurag(i) bo'shadi

ich(i)ni it tataladi: ich(i)ni mushuk tatalayapti

ich(i)ni it tirnadi: ich(i)ni mushuk tatalayapti

ICH(I)NI KEMIRMOQ nima? kimning? ruhan azoblamoq.

Qo'pol gapirib, qo'pol javob olganidan ham, mana shu narsa Ochilning ichini yomon kemirardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ICH(I)NI MUSHUK TATALAYAPTI kimning? yashirin holda ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq. Varianti: **ich(i)ni ola mushuk tirnayapti; ich(i)ni it tataladi; ich(i)ni it tirnadi; ich(i)ni bir nima || nimadir tirnay boshladi.**

Qolaversa, Rozaliyadan maslahat olganim yo'q. Ichimni ola mushuklar tirnayotibdi. Go'yo borsa-kelmasga jo'nayotgandayman. I.Rahim. Olovkor. *Mana sal kam bir oy bo'ldi, It tatarlar ichimni.* Uyg'un. Oltin ko'l. *Nima uchun bir kunga Muhlat berdim deb unga o'lgudayin pushaymon. Ichini it tirnadi, Ziyoda bo'ldi dardi.* H.Olimjon. Oygul va Baxtiyor.

ich(i)ni ola mushuk tirnayapti: ich(i)ni mushuk tatalayapti

ich(i)ni og'ritadimi?!: ich(i) og'riydimi?!

ich(i)ni qizitmoq: ich(i) qizidi

ich(i)ni yemoq: ich-et(i)ni yemoq

ich(i)ni yorsa (...), alif chiqmaydi: qorn(i)ni yorsa (...) alif chiqmaydi

ICH(I)NI TALAGAN [kimning?] ruhiy azob berayotgan!

Tojiboy to'rga chiqib, chordona qurdi. Lekin ichini talagan darddan darrov gap ocholmay, nos chekib, lablarini chirt yumgani holda beqasam yenglar ichidagi qo'llarini qovushtirib o'tirdi. P. Tursun. O'qituvchi.

ich-ich(i)dan zil ketmoq: zil ketmoq

ICHIMDAGINI TOP [mening] o'y-xayolini, birovga sirini aytmaydigan. Varianti: **ichimdan top.**

Bolalarigina emas, o'zlari ham ochiq, sizlarga o'xshagan ichimdagini toplardan emas. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Axir nega xomushsiz bo'lmasa? Odam degan bunaqa «ichimdan top» bo'lmaydi.* A.Qahhor. Sarob.

ichimdan top: ichimdagini top



JABR KO'RMOQ kim? kimdan? yoki nimadan? nohaq ravishda adolat-sizlikka yo'liqmoq, azobga qolmoq.

Ziynatullayev esa o'zining nohaq jabr ko'rganini endi studentlarga ham baralla gapirardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Nosirovning ichi qora, baxil ekanligi va bu ichi qoralikdan Ehsonning jabr ko'rishini ham biladi, g'azabi keladi, ammo uning tarafida turib, Nosirovga qarshi qo'l ko'targani andisha qiladi. A.Qahhor. Sarob. Yigit bechora Uzunquloq purning mozorini buzib o'rniga lager quraman deb o'z joniga jabr qildi. X.To'xtaboyev, Sariq devni minib.

JADDIGA TOYMOQ kimsaning qilmishi uchun aybdor bo'lib qolmoq, javob bermoq.

Qilgilikni Siddiqjon qildi-yu, jaddiga biz toyib ketdik-da. N.Safarov, Uyg'onish.

JAFO CHEKMOQ kim? o'zganing manfaati yo'lida o'zini azob-uqubatga qo'ymoq.

Bahroboddagi uy-joyini, qavm-qarindoshini, yor-do'stini tashlab kelib, biz bilan jafo cheki o'tiribdimi, barakalla! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

JAHL USTIDA achchiqlanib turgan paytida; aql bilan emas, achchiqlanish ta'sirida.

Qo'y, xafa bo'lma, jahl ustida aytdim. A.Qahhor. Anor. Jahl ustida qamchi bosganimda eti dirillab ketganini eslab, ko'nglim ranjidi. S.Ahmad. Cho'l burguti. Qo'ying-e, nima, men payg'ambar bo'pmanmi? Jahl ustida aytgan bo'lsam, ming marta qaytib oldim, o'rgilay! O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JAHLI BEADAD juda ko'p, keragidan ortiq jahl.

Mana, taqsir, hali kaminani gapirdilar, bizga jahli beadad qildilar. A.Muxtor. Opa-singillar.

JAHL(I) BURN(I)NING UCHIDA TURADI kimning? arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq. Sinonimi: **jahl(i) tez kimning?**

Ipak qurtini olib qochgan chumchuqni qarg'agan edim. Jahlingiz burningizning uchida turadi-ya. S.Ahmad. Muhabbat. U ustachilik qilar, poytesha-yu to'ng'izarra ishlatardi, kasbiga yarasha jahli ham burnining uchida turardi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

jahl(i) qistadi: achchig'(i) qistadi

JAHL(I) TEZ kimning? arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq. Varianti: **jahl(i) tezligi.** Sinonimi: **jahl(i) burn(i)ning uchida turadi kimning?**

Shahardan kelganning jahli tezroq ekan, gapiga o'rischa qo'shib so'kib yubormaydimi! Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Mahobat, hazil... Kifoyatxon urmaydi, lekin jahli tezligi rost.* A. Qahhor. Sinchalak.

jahl(i) tezligi: jahl(i) tez

jahl(i)dan tushmoq: achchig'(i)-dan tushmoq

jahl(i) keldi: achchig'(i) keldi

jahl(i)ni chiqarmoq: jahl(i) chiqdi

JAHL(I) CHIQDI kimning? –

JAHL(I)NI CHIQARMOQ nima? yoki kim? kimning? g'azablanmoq. Varianti: **achchig'(i) chiqdi; chiqqan jahl(i)** kimning? Sinonimi: **zahra(si) uchdi** kimning?

Sening shaxsiy hayotingga aralashayotganim uchun balki jahling chiqar. S.Zunnunova. Ikkinchi xotin. *Teshaboyning ta'nasi boyagi kifti yirtiq qotma cholning jahlini chiqardi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Qanaqa g'alcha odam bular o'zi?* – *Jahli chiqqanidan Dalavoyning ingichka moylovi ucha boshladi.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JAHONDA DOSTON BO'LMOQ [žähanda dastan bol=] tar. kim? mashhur bo'lmoq.

Shom elinda fitna qo'bt'i bir zamon, Uylakim, bo'ldi jahonda doston. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JAHONDAN KETMOQ [žähandan ket=] tar. kim? o'lmoq.

Ko'zyumub andin burunkim bu jahondan ketkasan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Gullarni qatinda qo'ymayin bir soat, Ul kim uyumas edi, jahondan ketti.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

jahondan o'tmoq: dunyodan o'tmoq

JAHONDAN TO'YMASLIK [žähandan tojma=] tar. kim? hayotdan umid uzmaslik, yashashni istamoq.

Ul aytti: «Rost ayting, ey yigit sen, Nelayimkim jahondan to'ymayib men». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy

jahonga kelmoq: dunyoga kelmoq

JAHONNI OTING TUTMOQ [žähanni ating tut=] tar. kimning? mashhur bo'lmoq.

Oshar yeldin sening yelganda oting, Quyosh yangliq jahonni tutti oting. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

JAHONNI TUTMOQ [žähanni tut=] tar. kim? yoki nima? mashhur bo'lmoq, nom qozonmoq.

Qilichtek til bila tuttum jahonni, Qanoat mulki ichra podshomen. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

JAMOAT JAM oilaning, jamoaning barcha a'zolari to'plangan.

Yotoqda, xuddi Pochchayev o'ylaganday, jamoat jam edi. A.Muxtor. Tug'ilish. *Kechqurun jamoat jam bo'lganda g'azabdan ko'karib ketgan kampir yetti pushtidan qolgan uch boylam vasiqani o'rtaga ko'tarib urdi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

JANJAL KO'TARMOQ kim? biror narsani bahona qilib baqiribchaqirmoq, nizoli holatni yuzaga keltirmoq. Varianti: **to'polon ko'tarmoq; g'avg'o ko'tarmoq.**

Men indamay yuribman. Har zamon g'ashiga tegib qo'yaman. O'zi bir janjal ko'tarsa-yu, ...mening uchun katta yo'l ochilar edi. A.Qahhor. Sarob. *Bundan boshqa, o'z qo'liga qo'ndirgan chiroyli qizdan ayrilgan Yo'lchi achchiqlanib, mahallada*

*biro*n to'olon ko'tarmasligi, agar uning qorasi ko'rinsa, tezda bir chora ko'rish uchun ko'chada yurishni zarur bildi. Oybek. Qutlug' qon. Bilamiz, xo'p mojaro, xo'p tortishuv bo'lgan edi. Ayniqsa vavaqi muttaham, haromi Muhammad Jamol ko'p g'avg'o ko'tarib tortishdi. Oybek. Nur qidirib.

JAR SOLMOQ kim? 1 jarchi vositasida eshittirmoq (*eski*).

Erta bilan Xo'jaorif bozorida bir jarchi yuqoridagi mazmunda jar solmoqda edi. S.Ayniy. Qullar. *Boyqishni Ko'rshermat chinorga bog'lab, yana jar soldi.* S.Ahmad. Xotiralar.

2 keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqatmoq.

Qariganda so'zining burdi ketibdi deb jar solaman-a! S.Anorboyev. Oqsoy. *Zunnunov eshita ko'rmasin uning dodini. Ikkovlashib hamma yoqqa jar soladi.* I.Rahim. Ixlos.

JAROHATI USTUNA TUZ QO'YMOQ [j̄arahatī üstünā tuz qoy=] tar. kimning? dardini yangilamoq, tashvishini esiga solmoq.

Muruvvat ko'rmadim: bir faqirning jarohati ustuna tuz qo'ymoqni, o'z ko'nghuma ayttim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JAVOB BERMOQ 1 kim? yoki nima? nimaga? yoki kimga? javob qilmoq. Varianti: **bergan javob(i) kimning? nimaga? yoki kimga? berilgan javob nimaga?** Sinonimi: **javob qaytarmoq** 1 kim? nimaga? yoki kimga? **gap qaytarmoq** 1 kim? nimaga? yoki kimga? Antonimi: **savol bermoq** kim? kimga?

Ha, mayli, qani javob ber-chi, turmushimiz to'g'risida sening qan-

day fikrlaring bor? G'.G'ulom. Yodgor. U menga tezda javob bermadi. O'ng'aysizlanayotganligini va xijolat bo'layotganligini sezib turardim. S.Zunnunova. Gulbahor. *Qizlarning ketma-ket yog'dirgan savollariga muammal javoblar berib turishardi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 kim? nimaga? nima bilan? javoban ish tutmoq. Varianti: **javob(i)ni bermoq** II kim? [o'zining] kimga?

Kimki bizning muhabbatimizga tikkan sanchar ekan, mehnatim, Po'latjonga vafodorligim bilan javob beraman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *O'zini zo'rg'a mudofaa qilar, hujumga hujum bilan javob berishni xayoliga ham keltirmasdi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Bunga o'zicha ma'no berib, Saida ham qattiq xafa bo'ldi, ilgari-giday past tushmay, tegishli javobini berdi.* A.Qahhor. Sinchalak. *G'o'za nobud bo'lsa, men javob beraman, agronom javob beradi, – deb baqirib yubordim to'satdan.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

3 nima? nimaga? qondirmoq.

Soldatni buyurtish mumkin emas, uni yasash, maqsadga javob beradigan yo'sinda qo'yish kerak. Oybek. Quyosh qoraymas. *So'ng Eshonqulov bu talablarga javob bera olmaganiga dalillar keltirgan edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

4 kim? nimaga? javobgarlikni o'z ustiga olmoq. Varianti: **javob(i)ni bermoq** II kim? nimaning?

Boshimdan soqit qilib aytib qo'ya qolay, oqibatiga Komiljonning o'zi javob beradi. I.Rahim. Ixlos. *O'rtoq Qo'chqorov, bir begunohning shaxsi-*

yatiga tegdingiz. Buning uchun javob berasiz. S.Anorboyev. Oqsoy.

5 kim? kimga? ketishga ruxsat bermoq.

Safarov soat beshlarda Ro‘zimat bilan Qambarali akaga javob berib, ... qaytib keldi. A. Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Kelay desam, anavingiz hech qo‘ymaydi. Bugun ham javob bermay qon qilib tashladi. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

JAVOB OLMOQ 1 kim? kimdan? nimaga? yoki nima haqida? so‘roq berib, biror ma‘lumot olmoq. Varianti: **javob olindi kimdan? nimaga?** yoki nima haqida?

U o‘z savoliga ha deganda javob ololmadi. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. Ahmedovdan so‘ralmagan va to‘liq javob olinmagan savol qolmaganday bo‘lgan edi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

2 biror masala qanday hal etilgani haqida xabarga ega bo‘lmoq

Arizaga javob olguncha o‘tgan uch kun uch yildek cho‘zildi. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. «Keling, qo‘ying, avval ayting, – dedi Ehsan Saidiyning tizzasiga urib, – nima? bo‘ldi, javob oldingizmi, qabul qilinibsizmi?» A.Qahhor. Sarob.

3 biror ishni qilishga ruxsat olmoq.

Qurbon ota MTSdan javob olib, Kapsanchilarga butunlay ko‘chib keldi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Adolat Moskvaga borib, kamol topish orzusida ishidan ham javob olgan edi, afsuski, orzusi amalga oshmadi. I.Rahim. Chin muhabbat.

JAVOB QAYTARMOQ 1 kim? nimaga? yoki kimga? javob qilmoq

(«so‘roq»qa). Varianti: **qaytargan javob(i) kimning?nimaga?** yoki kimga? Sinonimi: **javob bermoq 1 kim?** yoki nima? nimaga? yoki kimga? **gap qaytarmoq 1 kim? nimaga?** yoki kimga? Antonomi: **savol bermoq kim? kimga?**

Shoazimning bo‘lmaq‘ur pichinglariga durust javob qaytara olmagan yana esiga tushdi. P.Qodirov. Uchildiz. Nigoraning beparvogina qaytargan javobi Xo‘jabekovning g‘azabini qaynatdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 kim? kimga? javob xati yo‘llamoq.

Eringizning o‘sha xatiga javob qaytardingizmi, yo‘qmi? A.Qahhor. Xotinlar.

JAVOB TEGMOQ kimga? nimaga? ruxsat berilmoq, javob bo‘lmoq.

Bugun Sherzodning palatasidagi semiz bemorga javob tegdi. O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor.

JAVOB(I)NI BERMOQ kim? kimning? 1 (yollanuvchini) quvmoq, haydab yubormoq (*eski*).

Eshon yana bir bolani ko‘chadan topib keladi-yu, sening javobingni beradi. P.Tursun. O‘qituvchi.

2 (xotining) er-xotinlik holatini bekor qilishga rozilik bermoq, qo‘ymoq.

Mening hozir javobimni bering, xudo ko‘tarsin sizdek erni. G‘.G‘ulom. Aniq daromad.

3 sovchilarni rad qilmoq.

– Bo‘lmaydi! – dedi dadam keskin qo‘l siltab. – Sovchilar yana kelsa javobini berib yubor. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.

javob(i)ni bermoq II: javob bermoq

javob olindi: javob olmoq

JAVR KO'RMOQ [žävr kör=] tar. *kim? kim sabab? qiynalmoq.*

Aning uchunkim, bu ev ne'mati bilan beslanib tururman dag'i oz javr ko'rub, ko'b yilg'i ne'mat haqin unutub, vafosizlik etmak muruvvat degul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JAVRIN CHEKMOQ [žävrin çek=] tar. *kim?* qiynalmoq. Varianti: **javrlar chekib, javr chekmoq, javrin chekmagan.**

...ul mug'anniy javrin chekib o'l-turdim... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Mahbub muhabbati bilan giriftor bo'lub, ko'p turli javrlar chekib, farovon jafolarg'a tahammul qilur edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Javr chektim, rohat toptum.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ko'lkada beslanish, jahon ko'rmagan, safar javrin chekmagan, issi-sovuq tatmag'an, xarb ko'sining uni qulog'ina tegmagan ...* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JAZAVA(SI) TUTDI *kimning?-* jahl-g'azabi jo'sh urib, o'zini tuta olmaydigan holatga yetmoq.

Biroq hozir Shoazim a'zoyi badani titrab, jazavasi tutib; uni dekanatga tomon tortar; «Men nomard bo'lsam, yuring bu yoqqa! Yuring hozir!», – deyardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Boplabdi! Boplaganda qanday, so'zingiz to'g'ri, Ilhomjon. Mening ham jazavam tutib ketganini aytmaysizmi? Masala muhim bo'lganidan sahnaga chiqqanimni o'zim ham bilmay qolibman.* M.Muhamedov. Yurak so'zlari. *Zuvlamayman! Zuvlamayman! Toy to'*

satdan jazavasi tutib, yerni mushlagancha yig'lab yubordi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JAZO OLMOQ *kim?* ayb yoki jinoyat qilgani uchun ko'riladigan tadbir-choraga duchor bo'lmoq.

So'ng Toshevni qilmishiga yarasha jazo olgan odam deb, yomonga chiqarib yurganini esladi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Qilg'ilikni qilgandan keyin jazosini olsin-da.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

jazo tortmoq: jazo(si)ni tortmoq

JAZO(SI)NI BERMOQ *kim? kimning?* qilmishiga yarasha jazolamoq. Varianti: **jazo bermoq** *kim? kimga? bergan jazo kimga? jazo berdirmoq* *kim? kimga? kim orqali? jazo berildi kimga? berilgan jazo kimga?* Sinonimi: **adab(i)ni bermoq** *kim? kimning?*

Boyning yeriga o'tgan ariqdan bir ho'plam olib ko'r-chi, avloding bilan yo ko'chirib yuboradi, yo undan qattiqroq jazoyingni berardi. R.Fayziy. To'g'onboyning qizi. *Qani, shunga jazo bermanglar-chi, jazo bermanglar-chi, Oxunboboyevning oldilariga boraman.* S.Ahmad. Hukm. *Meni Oltmishvoyim ham pashistni jazosini beraman deb qilich o'ynatib yuribdi-da.* Bo'lmasa Azob dengizda suzish osonmi! O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JAZO(SI)NI TORTMOQ *kim?* ayb yoki jinoyat qilgani uchun ko'riladigan tadbir-chorani o'z boshidan kechirmoq. Varianti: **jazo tortmoq.**

«Bu – ochiq ayollardan chiqqan gap, qiz shularning yo'liga yurgan bo'lsa, jazosini tortsin», – deb, jo'rttaga ikkinchi og'iz ochmadi. A. Qahhor. Qizlar. *Jinoyat qilgan jazo torta-*

di-da, nahot mukofot olsa! A. Qahhor. Sinchalak.

jazza(si)ni bermog: jazo(si)ni bermog

jazo berdirmog: jazo(si)ni bermog

jazo beriladi: jazo(si)ni bermog

jazo bermog: jazo(si)ni bermog

jag'(i) ezildi: jag'(i)ni ezmog

jag'(i) ochildi: jag'(i)ni ochmog

JAG'(I) TINMADI kimning? gapirishdan to'xtamaslik.

«Bularning tuzsiz gapiga quloq solaman desangiz, osh sovib qoladi», – deb u o'zini tovoqqa rostlab oldi. Marahimning jag'i tinmas edi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Qo'ymading-da. Kuni bilan kutganing yetmasmidi, ishdan keyin ham jag'ing tinmaydi-ya.* H.Nazir. Cho'l havosi.

JAG'(I)DA JAG' QOLMADI kimning? va'z-nasihati qilishdan charchamog.

O'zinglar tushuntiringlar, gapiraverib, jag'imda jag' qolmadi. S.Ahmad. Lochin.

JAG'(I)NI OCHMOQ nima? kimning? – **JAG'(I) OCHILDI** kimning? nimanidir isbot qilish maqsadida uzundan-uzoq gap boshlamog.

«Sherbekning og'ziga qulf bo'larmikan deb o'ylovdim». – «Aksincha, jag'ini ochvordi-ku!» S.Anorboyev. Oqsoy. *Shu vajdan kampirning jag'i yana ochildi, Siddiqjonning o'tmishini, qizining qilmishini yana ta'na qila boshladi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

JIGAR(I)DAN URMOQ kim? [kimning?] o'ziga shaydo qilib olmog

(salbiy). Varianti: **jigardan urmog** kim? **jigar-bag'r(i)dan urmog**. Sinonimi: **yurag(i)dan urmog** kim? [kimning]

Qo'yavering, jigaridan urgan bo'lsa, kutadi. S.Ahmad. *Qadrton dalalar. Qo'yingki, do'ndiqcha jigardan urib qoldi. Nima qilsam, yoqarkanman deb o'lib bo'laman.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Pirmat sovungarning Sobir maymog o'g'li jigar-bag'ringizdan urgan bo'lsa, qo'sha qaringlar!* S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi.

jigar-bag'r(i) ezildi: yurag(i)ni ezmog

jigar-bag'r(i) xun bo'ldi: yurag(i) qon bo'ldi

jigar-bag'r(i)dan urmog: jigar(i)dan urmog

jigardan urmog: jigar(i)dan urmog

JIGARI SUV BO'LMOQ kimning? qiynalmog, azob chekmog.

Paxta deb jigarim suv bo'ldi-yu, makkajo'xoriga nima bor. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli.

JILO BERMOQ kim? nima? nimaga? **1** jilolatmog, sayqallab, pardoz berib yaltiratmog. **2** husn, ko'rk bermog. **3** yaltiramog, yarqiramog, jilva qilmog, tovlanmog.

Mo'yqalam sohiblarining didi-mahorati bilan mahsulotga jilo beriladi. «Guliston»; *Rango-rang marmarlardan ishlangan bu maqbara hozir ham yorqin jilo berib turibdi.* Z.Akramov. Hindiston lavhalari.

JILOV(I) QO'L(I)DA kimning? (o'zganing) kimning? (uning) nazoratidan xoli emas, erkin harakat qilish imkoniyati cheklangan. Varianti: **tizgin(i) qo'l(i)da.**

«Har holda, Buxoro tuprog'ida-misizlar, – ko'nglidan kechirdi Valixon, – jilovlarning mening qo'limda». Sh.Toshmatov. Erk qushi. Bozorov dastlab bunga uncha e'tibor bermay, «Tizgini qo'limda, qayoqqa qochib qutular edi», – deb beparvo yurdi. I.Rahim. Chin muhabbat.

JILOV(I)DAN TORTIB QO'YMOQ kim? kimning? nojo'ya xatti-harakatdan qaytarish maqsadida gapirmoq.

Buning hammasini o'z ko'zlari bilan ko'rgan akasining katta o'g'li bilan kelin oyisi uning jilovini tortib qo'ymoqchi bo'lganlarida, ularning o'zlarini jerkib tashlaganlari-chi! O.Yoqubov. Tilla uzuk.

JILOV(I)NI BO'SH QO'YMOQ kim? kimning? xatti-harakatini tejab-tergamay, o'z ixtiyoriga tashlab qo'ymoq.

O'g'ilning jilovini bo'sh qo'yib yubordingiz. Ikki o'rtada qizim badnom bo'lib qoldi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

JILOV(I)NI TORTIB QO'YMOQ kim? kimning? tartibga chaqirib, chek-chegaradan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik. Varianti: **jilov(i)ni tortib turmoq**.

Buning jilovini siz tortib qo'ymasangiz, kim tortadi?! S.Abdulla. Muqimiy. «Ishqilib, bir jilovini tortib qo'yishsa bo'ldi», – dedi Mirsaid qo'llarini lazzat bilan ishqab. P.Qodirov. Uch ildiz.

jilov(i)ni tortib turmoq: jilov(i)-ni tortib qo'ymoq

JILOVNI QO'LDAN BERMOQ kim? kimga? o'z izmi bilan idora qi-

lish, yo'lga solib turish huquqini ixtiyoridan ketkazmoq. Varianti: **jilovini berib qo'ymoq**. Antonimi: **jilovni qo'lga olmoq kim?**

Ishingni boshdan puxta qil, oxirigacha jilovni qo'ldan berma, erta tur, kech yot. ko'sakni to'q qilib, ofatdan saqlab, oldin pishir – ana shunda planing yuz! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Xotinining mix qoqqan-dek qarsillatib muomala qilishidan, o'zi bo'lsa shunchalik jilovini berib qo'ygandan g'ashi keldi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JILOVNI QO'LGA OLMOQ kim? o'z izmi bilan idora qilish, yo'lga solib turish, huquqini ixtiyoriga o'tkazmoq. Antonimi: **jilovni qo'ldan bermok kim? kimga?**

...suhbat jilovini berib qo'yganidan bezovtalanib o'tirgan edi, hozir paytdan foydalanib yana jilovni qo'lga oldi. P. Qodirov. Uch ildiz.

jIn ham urmaydi: jin urdi

jIn tegdimi?!: jin urdi

JIN URDI 1 kimni? dard-illatga chalindi. Varianti: **jIn tegdimi?! kimga? jIn-pin tegdimi?! kimga?**

...otamizning o'zini jin urib qo'ygan ekan-u, shuning uchun hali u ochiq-yorug' aytolmayotgan ekan. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. «Bir ishora qilsam, oyog'ingizdan ushlab, tanangizni do'zaxga tashlaydi». – «Jin urdimi senga, Topildi?! – dedi tashvishlanib. Nima deb aljirayapsan o'zing?» I.Rahim. Olovkor.

2 kimni? (so'roq formasida ishlatiladi) fikr-o'yi salbiy tomonga o'zgaradi. Varianti: **nima jin urdi?! kimni?** ba'zan kimga?

«I-i, jin urdimi seni?! – mushukning changaliga tushgan qushday tipirchiladi Oysuluv. – Qo'yib yubor dedim». S.Anorboyev. Oqsoy. «Hoy soqoling ko'ksingga to'kilgur, – dedi xotin, – bu qanday qiliq? Seni nima jin urdi?!» G'.G'ulom. Hiylayi shar'iy. Xo'p, meni-ku hazil bilan chalg'itibdi, Zokir otaga nima jin urgan edi? A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

3 (so'roq formasida yoki bo'lishsiz formada ishlatiladi) hech narsa bo'lmaydi, hech narsa qilmaydi. Varianti: **jin ham urmaydi kimga?**

«Men bir yarim botmon o'lchab keltirib edim, meniki dahsar kam chiqdi». – «Biroz kam chiqsa, jin uradimi?!» S.Ayniy. Qullar. Abdulkarim yamoqqa jin ham urgani yo'q. Hali him o'sha-o'sha. S.Ahmad. Hukm.

JIN(I) QO'ZIDI kimning? fe'l-atvoridagi tixirlik namoyon bo'ldi. Varianti: **jin(i) qo'zg'adi; jin(i) tutdi.**

Narimon akam kelmaydigan bo'lgani uchun jini qo'zib yuribdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Formada olib bora ko'rma, formani ko'rib, ZAGS mudirining jini qo'zg'amasin tag'in. A.Qahhor. Og'riq tishlar. So'zing so'zmi? Ertaga ishga chiqasanmi yo yana jining tutadimi? Ammo juda bulbuldek sayradig. S.Ahmad. Mastonbibi.

jin(i) sevmaydi: jin(i) suymaydi

JIN(I) SUYMAYDI kimning? kimni? yoki nimani? ta'biga to'g'ri kelmaslik. Varianti: **jin(i) sevmaydi.** Sinonimi: **jin(i)ga yoqmaslik** kim? yoki nima? kimning?

Birovning ishiga aralashgan kishini jinim suymaydi. S.Ahmad. Qadr-don dalalar. Yolg'iz aybi shuki, pul desa,

jonini beradi, shuning uchun ham bozorga serqatnov. Paxtani jini suymaydi. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. Xotin kishining yig'laganini shundan beri jinim sevmaydi. S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi. Shu Naim sartaroshning deng, birdaniga meni jini suyib qoldi. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.

jin(i) tutdi: jin(i) qo'zidi

JIN(I)DAN BATTAR o'zining nihoyat darajada, juda-juda.

U shunday ishtiyoq bilan shu qadar qattiq ishlar, shuning uchun ovqatgacha shu qadar ochiqar ediki, hatto baliqni, ayniqsa suvda pishirilgan baliqni jinidan battar yomon ko'rishiga qaramay, zo'r ishtaha bilan yer, ba'zan Ro'zimatga: «Yaxshi baliq tovuq go'shtidan qolishmaydi», – deb maqtab ham qo'yar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

JIN(I)GA YOQMASLIK kim? yoki nima? kimning? ta'biga to'g'ri kelmaslik. Sinonimi: **jin(i) suymaydi** kimning? kimni? yoki nimani?

Ayniqsa o'zlari yosh bo'la turib, qorin solib semirib ketgan boshliqlar, ... jiniga yoqmas edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Mayli, o'shanda deraza ham qursin, oqlatsin ham, tokcha jiniga yoqmasa, shuvatib tashlay qolsin. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

jin-pin tegdimi?!: jin urdi

JIR BITDI kimga? ba'zan nimagaga? et olib to'lishmoq.

Yog'och polvonga endi sal-pal jir bitib qolibdi. S. Ahmad. O'rik domla. Aslida ot yuzli bo'lsa ham, jir bitgach, chorpahilga aylangan basharasida bilinar-bilinmas xollar ko'rinadi.

H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Bular – jo'xorizor ichiga qo'noqqa kelgan bedanalar etiga jir bitib, xursandligidan sayrashdi.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

JIRI BOR qo'r-qutli, davlatmand.

Jiri bor oilalarning bolalariga maktab ham, madrasa ham yarashadi. Oybek. Qutlug' qon.

JIRTAQ CHALMOQ kim? [kimga?] masxara qilib gapirmoq, mayna qilib kulmoq.

Men ham yura bersam, tirikchiligimni qila bersam, birov jirtak chaladimi? A.Muxtor. Tug'ilish. *Ellik payasa urug'likdan o'nta tuyaga yuk unmasa, jirtak chaling, afandixon!* A.Qahhor. Sarob. *Menga jirtak chalmagan endi sen qolibmiding?!* N.Nazarov. Zamon.

JIZZA(SD)NI OLMOQ kim? kimning? iskanjaga olib qattiq urishmoq.

Taftish to'g'ri chiqqani uchun jim o'tiribsiz-da, bo'lmasa jizzamni olardingiz-a! I. Rahim. Hilola.

JIG'(I)GA TEGMOQ kim? yoki nima? kimning? asabini qo'zg'atib o'chakishtirmoq.

Ba'zan Anorxonning jig'iga tegish uchun yigitni ular o'zaro «Sobir pochcha» deyishar edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Buxgalterning o'rinsiz luqmasi Dadajonning jig'iga tegdi.* I.Rahim. Ixlos. *Bilganlar u bilan savdolashib o'tirmaydi. Bilganlar sal jig'iga tegishsa, tayoqdek qotib qolgan o'ng oyog'ning tovoni ni yerga urib-urib qo'yadi.* O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JIG'(I)NI EZMOQ kim? kimning? – **JIG'(I) EZILDI** kimning? jismoniy

zarba berib, nochor, abgor holatga tushirmoq.

Poxodlarda sillam qurigan, jig'ini ezaman, boshidan tegirmon toshi yurgizaman, bir narsa desin-chi!.. A.Muxtor. Opa-singillar. *Urush g'alaba bilan tugadi. La'nati fashistning jig'i ezildi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

JIG'IBIYRON(I) CHIQDI kimning? behad norozi bo'lib, nihoyatda tutaqib gapirmoq.

Jamoat chorvasiga sovuqqonlik bilan qaraydigan odamlarni javobgarlikka tortish kerak deb jig'ibiyroni chiqdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *U shaharga ish izlab ketib, anchadan keyin yana quruq, yalang'och, jig'ibiyroni chiqib qaytardi.* A. Muxtor. Opa-singillar.

jon achchig'i bilan: jon achchig'ida

JON ACHCHIG'IDA 1 o'limga qarshi kurashish istagi bilan, o'limdan saqlanish umidi bilan. Sinonimi: **jon talvasasida.**

Kunlardan bir kuni holsizlanib qolgan ona ko'z ochib, jon achchig'ida o'g'liga boqdi: «Abu, bolam, sariq shishani, qog'ozni, pulni olib, dorixonaga bor. Menga yana dori olib kel, jon bolam», – dedi. Mirmuhsin. Jabrdiyda.

2 xavf-xatardan saqlanish hissi bilan juda keskin hayajonlangan holda. Varianti: **jon achchig'i bilan.**

Shu payt hovli tomondan kimningdir jon achchig'ida dodlagan tovushi eshitildi. A.Qahhor. Sinchalak. *Ot jon achchig'ida boshini silkitib oldingi oyoqlari bilan yer tepina boshladi.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.



JON FIDO QILMOQ [žan fida qil=] tar. *kim? kim uchun?* o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lmoq.

Kelib o'ltur meni emdi, fido qildim senga jon ush, Menga sensiz tirilgincha sening alingda o'lsam xush. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON ICHINDA [žan içinda=] tar. qadrli, aziz.

Xatm etmakni aning uchun ixtiyor qildikim, Qur'on til uchinda dag'i oltun jon ichinda turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON OLMOQ [žan al=] tar. *kim? kimdan?* badal sifatida hayotini olmoq.

Ul qamar yuzli, shakar so'zli habib, Bir o'pushga jon olib minnat qilur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Jon olib husnin sotar, bu ne ajab bozor erur, Yo magar oshiqslarning'a noz etib bezor erur.* Ahmad Xoja As-Saroyi g'azali.

JON TARK ETMOQ [žan tärk et=] tar. *kim? o'lmoq.*

Nechalar ul mug'ilonning tubunda, Kechalar xush uyurlar tark etib jon. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON TARKIN URMOQ [žan tärkin ur=] tar. *kim? o'limini bo'yniga olmoq, o'lishga tayyor turmoq.*

Bir kimersaning ko'ngli aldan ketib dag'i jon tarkin urub, nazari halokat yerina tushub turar edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON TASLIM QILDI [žan taslim qil=] tar. *kim? o'lmoq.*

Dag'i muni aytti, jon taslim qildi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON CHIQMOQ [žan čiq=] tar. o'lmoq, vafot etmoq.

Kel, qiyos et, ne bo'lg'ay, ul soat Totli jon chiqsa, qolsa tan xoli. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

jon berib, jon olmoq: jon olib, jon bermoq

JON BERMASLIK *kim? ba'zan nima? taslim bo'lmaslik, o'zini yengilgan deb hisoblamaslik.*

Yo'q, Xo'jabekovga o'xshaganlar osonlikcha jon bermaydi. S.Anorboyev. Oqsoy. Axir fashistlar ham osonlikcha jon bermas ... M.Muhamedov. Kichik garnizo. Din osonlikcha jon bermaydi. S.Anorboyev. Oqsoy.

JON BERMOQ I 1 *kim? kimga?* barhayot qilmoq (*diniy*).

«... Odamzodga jon bergan ham, jonini oladigan ham yaratganning o'zi». P.Tursun. O'qituvchi.

2 *kim? nimaga?* hayot bag'ishlamoq.

Buning uchun uning soyada qolganligi... nimalarga jon berib, nimalarni so'litganini ko'ziga ko'rsatishimiz kerak. A.Qahhor. Sinchalak.

JON BERMOQ II 1 *kim? yoki nima? (jonli) o'lmoq, so'nggi mar-ta nafas chiqarmoq. Sinonimi: joni chiqdi. 1 kimning? yoki nimaning? (jonlining); joni uzildi kimning?*

U mana shu baxt uchun kurashda mening ko'zim o'ngida jon berdi. A.Muxtor. Opa-singillar. «Tilsiz jonivordan qasos oldingiz-a. Hayf shu sovlatingizga!» – dedi Boboqul qiynalib jon berayotgan itiga kuyinib. S.Anorboyev. Oqsoy.

JON BERMOQ III [žan ber=] tar. *kim? 1* ziqnalik qilmoq, pul berishga qiynalmoq, har qanday og'ir shartni, talabni bajarishga tayyor bo'ldi. Varianti: **jonin bermoq.**

Bir toifa kelib ani ko'rdikim, aqchalarini alinda qo'yub, tubroq ustuna jon berib yotur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. ...tilasang tanindagi jonin bergay dag'i alindagi o'tmakin bermagay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Vale bir aqcha izdasang berur jon, O'qu «alhamdu» desang, yuz o'qig'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 kim? kurashni, qarshilikni to'xtatmaslik.

Bizning qishloqda katta yer egalari osonlikcha jon bergani yo'q, birkkita odam ham o'ldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

JON BOR nimada? – **JONI BOR** II nimaning? asosga ega, zamirida haqiqat bor; bejiz emas.

O'ylab qarasam, uning gapida jon bor. Keyingi vaqtda paxtaning tonnasi ko'paydi-yu, tolasi uzaygani yo'q. I.Rahim. Hilola. Unday desa, Soliyaning pichingida ham jon bor. Axir ilgarilari «aka» demas edi-ku? S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi. Ammo gapingning joni bor. Merganlikdan ham xabari bor. H. Nazir. Cho'l havosi.

jon boricha: jon(i)ning boricha

JON DEB mamnuniyat bilan. Varianti: **jon-jon deb.**

Javobsiz sevgiga qarshi kurashda she'r yordam berishini sezgan Ochil bu topshiriqni jon deb qabul qildi. P.Qodirov. Uch ildiz. Keyin bilsam, xola bu «jazo»ni jon-jon deb zimmasiga olar ekan: ishqilib, Xayrixon dars tayyorlasa – bas. A.Muxtor. Xayri. O'zimga qolsa echkimni jon deb o'tloqda boqardim-u, Xo'janing bir o'zini jiydazorda qoldirgim kelmadi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JON DEMOQ kim? xursand bo'lmoq. Varianti: **jon-jon demoq.**

Qani endi, tuzukkina bir ish bersalar, jon derdim. ...mayda-chuyda ishga yugurtgani-yugurtgan. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. Hamma Akbarovday leksiya o'qisa, jon der edingiz. P.Qodirov. Uch ildiz.

jon fido qilmoq: jon(i)ni fido qilmoq

JON HOLATDA qo'rqqani holda va shiddat bilan.

U yiqildi. Jon holatda o'rnidan turib, yana ko'chaga otildi. S.Zunnunova. Gulxan. Jon holatda yo'rgakdagi bolaga qaradi. R.Fayziy. Yodgor.

jon hovuchlab: jon(i)ni hovuchlab
JON KIRDI – JON KIRGIZMOQ //KIRITMOQ 1 kimga? yoki nimaga? tetiklashmoq, jonlilashmoq – nima? kimga? kim? nimaga? tetiklashtirmoq, jonlilashtirmoq.

Xojarbibiga jon kirdi, kavushini yechib, dasturxonning ustiga chiqdi-da, ushatilgan non-u qand-qursni chaqqon-chaqqon yig'ishtira boshladi. A.Muxtor. Opa-singillar. Qorovulning bu gapi unga jon kirgizdi. Eshik yaqiniga borib, ichkariga quloq soldi. S.Ahmad. Hukm.

2 a) nimaga? jonlanmoq – nima? yoki kim? nimaga? jonlantirmoq.

Arava sig'maydigan ichkarilik ko'chaga bugun jon kirgan. Oybek. Qutlug' qon. Bahorning hayotbaxsh damlari madrasaga ham jon kirgizdi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Dadam eski paxtaligini kiyib, kechqurungi smenaga ishga jo'nadi. Biz – aka-ukalarga jon kirdi. O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

2 b) kim? nimaga? nimanidir go'yo tirik jonga aylantirmoq.

Lekin o'zi ham qoyil qilar edi-da! Tarixga jon kirgizib yuborardi. P.Qodirov. Uch ildiz. «*Tanbur chalishni bu kishiga chiqarganda, – ofisiant priyomnikka qarab qosh qoqdi. – Jon kiritib, sayratvoradi!*» S.Anorboyev. Oqsoy.

3 kimga? kimning nimasiga? hayotga qaytmoq, tirilmoq – *kim? kimga?* hayotga qaytarmoq, tiriltirmoq.

Shunday qilib qozoq yotganlarning barchasiga jon kirgizdi. S. Ayniy. Qullar.

4 nimaga? avvalgi normal faoliyatiga qaytmoq – *nima? kim[ning nimasig]ga?* avvalgi normal faoliyatiga qaytarmoq.

Balki sovliqlarga qo'shsa, jon kitarar?! S.Anorboyev. Oqsoy.

jon kiritmoq: jon kirdi

JON KOSHKI EDI xursand bo'lar edim-a! Varianti: **jon koshki.**

...yerni sotib bo'lsa, jon koshki edi! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «*Bo'lmasa kechga dovur o'sha yoqdaman deng?*» – «*Kechgacha qutulsam, jon koshki-ya!*» M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

jon koshki: jon koshki edi

jon koshkiydi: jon koshki edi

jon koyitmoq: jon(i) koyidi

jon kuydirib I: jon(i) kuydi

JON KUYDIRIB II mashaqqatni o'z ustiga olgani holda, tirishib («ishlamoq»). Varianti: **jon(i)ni kuydirib** [o'zining].

Xalq jon kuydirib qilayotgan bu katta ishlar o'z holiga tashlab qo'yilgan. M.Ismoilij. Farg'ona tong ot-

guncha. Erkaklar ham unchalik jon kuydirib ishlamagan. S.Ahmad. Hukm. Sababi o'zinikiga jonini kuydirib ishlagan. S.Anorboyev. Oqsoy.

jon kuydirmoq: jon(i) kuydi

jon olg'uchi: jon(i)ni olmoq

JON OLIB, JON BERMOQ kim?

o'z jonini ham ayamasdan og'ir va mashaqqatli kurash olib bormoq. Varianti: **jon berib, jon olmoq.**

Ha, janglarda to'plarning guldurashi, jon olib, jon berayotgan quruldoshlarimizning oh-vohlari odamlarning ko'nglini toshdek qattiq qilib qo'ygan. M.Muhamedov. Qahramon izidan.

jon oluvchi: jon(i)ni olmoq

JON QULOG'I BILAN o'ta darajada diqqat bilan va qiziqib.

Hamma boy nima shartlar qo'yar kin deb jon qulog'i bilan tinglar edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Temir yo'lchi sheriklarimiz ham jon qulog'i bilan tinglab o'tirishgan ekan.* Oydin. Suhbati jonon.

JON SAQLAMOQ I kim? hayotini o'limdan himoya qilmoq, o'limdan omon qolmoq. Varianti: **jon(i)ni saqlamoq** kim? [o'zining].

Uchala akasi qonli jangda baravar jon berganda, bu asir tushib, qayoqlardadir jon saqlagan. A.Muxtor. Tug'ilish. *Bu jang unga g'alaba va'da qilmasa-da, o'z jonini saqlab qolmoq uchun bir garov vazifasini o'tamog'i kerak.* S.Ahmad. Hukm.

2 kim? qaqshatqich zarbadan, og'ir jazodan qutulib qolmoq. Varianti: **jon(i)ni asramoq** kim? [o'zining].

Bu tuhmatchilar Ahmedovning panohida jon saqlab kelayotganlikla-

rini, eski direktor Karimovning suvdan quruq chiqib ketishida ham Ahmedovning qo'li borligini aytib, so'zining oxirida Vohidovga murojaat qildi. S.Zunnunova. Yangi direktor.

3 kim? yoki nima? ma'lum vaqt o'zini noqulay sharoitdan olib qochmoq.

Matluba jon saqlab o'tirgan mashinaning bir parcha soyasi quyosh tik kelgan sari kichrayib borardi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Kuni bilan issiqdan jon saqlagan qushlar yana jivir-jivir sayray ketdi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

JON TALASHMOQ nima? hayot uchun kurashning oxirgi daqiqalarini kechirmoq.

Axir kuni kecha Buloqboshi mahallasidagi Abdulaziz boqqolnikiga shu yer islohoti jo'nidan kirib borganlarida bir necha ho'kiz o'lib, bir nechtasi jon talashayotganining ustidan chiqishgan edi-da! S.Anorboyev. Oqsoy.

JON TALVASASIDA o'limga qarshi kurashish istagi bilan, o'limdan saqlanish umidi bilan. Sinonimi: **jon achchig'ida.**

...uning boshiga og'ir bir narsa bilan urgan, bola yiqilgan va jon talvasasida o'rnidan turmoqchi bo'lgan-u, shundayligicha qolgan. A.Qahhor. Oltin yulduz. *Bor kuchni to'plab, jon talvasasida shu joyga yetib kelib, okopga yashirinmoqchi bo'lganini Normat payqadi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

JON TALVASASIGA TUSHMOQ kim? o'limdan saqlanish, tirik qolish haqida qayg'urib hayajonlanmoq.

Besh marta qarshi ataka qilib, hech ish chiqara olmagandan keyin quturgan, endi qurshovda qolib, jon talvasasiga tushgan dushman o'rmonga kirib ketish uchun qanday urinishini... Sobko yaxshi bilar, tasavvur qilar edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

JON TERIGA TUSHMOQ 1 qattiq tirishmoq, bor kuchini sarflamoq.

Yoz saratonida jon teriga tushib ishlayotgan dehqonlar ayron ichib tashnalik taftini bosar edi. So'zlashuv uslubi.

2 qattiq azoblanmoq, azobning, og'riqning zo'rligidan majolsizlanmoq, holdan toymoq.

Otlar jon teriga tushib kishnaganlaricha yiqila boshladi, oyoqlari ot ostida qolgan suvoriylar ham merganlarning o'qini yeb, yer tishlab qolaverdilar. M.Osim. Iskandar va Spitamen.

jon tikmoq: jon(i)ni tikmoq

JON CHEKMOQ kim? astoydil, jonini jabborga berib ishlamoq, harakat qilmoq.

Me'morning dasht oftobida sardoba qurib beraman, deb jon chekib yurganini ko'rayotgan shogirdlari ustodga achinishardi. Mirmuhsin. Me'mor.

JONA KELMOQ [žana kel=] tar. azobning haddan oshishi natijasida xunob bo'lmoq, o'lar holatga kelmoq.

Umr mehnat bila poyona keldi, Ko'ngul javrung alindin jona keldi. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

JONDAN ALYUVG'AN [žandin el juv=] tar. kim? yashashdan umid uzmoq, o'lishga tayyor turmoq.

Har kim jondan al yuvg'an, ne kim ko'ngulda bo'lsa, tilina keturgay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JONDIN KETMASLIK [žandīn ketmä=] tar. *nima?* tark etmaslik.

Muhabbat nori jondin ketmadi hech, Qo'lum sim olmangizg'a yetmadi hech. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

JONI BURNUNA KELMOQ [žanī burnuna kel=] tar. *kimning?* o'lar holatga kelmoq, xunob bo'lmoq.

Andan ajabrak g'urob to'tining suhbatidan joni burnuna kelib, malul bo'lub, «lo havla va lo» der edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JONIMA ASAR ETMOQ [žanīma asar et=] tar. *kimning?* ta'sirlantirdi.

Ul so'zi jonima asar etti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JONING FIDO QILURSAN [žanīj fida qīl=] tar. *kim?* o'lishga tayyor turmoq.

Bir gul-yonoqli jodu qaroqlig'a ug'rasang, Joning fido qilursan ushul dam anga, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

JONINI TORTIQ QILMOQ [žanīnī tartīq qīl=] tar. *kim? kim uchun?* hayotini hadya qilmoq.

O'lurmu sevgi ham bil, shundin ortuq, Ki ikkisi qilur jonini tortiq. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

JONLARI BURNINA YETMOQ [žanlarī burnuna jet=] tar. *kimning?* qiynalmoq, o'lar holatga kelmoq.

Bir kun bir kecha suv ichinda joni burnina yetib yoqag'a chiqdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JONNIXATARG'A QO'YMOQ [žannī xatarʻa qoj=] tar. *kim?* o'limni bo'yniga olib bir ishga kirishmoq.

Ul ishkim oltun bila bitkay, aning uchun jonni xatarg'a qo'ymoq kerakmas. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JON-U KO'NGULNI OLMOQ [žan-u kōñūlni al=] tar. *kim?* ko'nglini ovlamoq, o'ziga moyil qilmoq.

Javr necha oshiqinga qilg'asan, Jon-u ko'ngulni ne bilan olg'asan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

JONG'A DARMON BERMOQ [žanya dārman ber=] tar. *kim? kimga?* yoki *nimaga?* yordam bermoq.

Suhayl bordi topurg'a suvg'a, dong'a, Vale darmon berolmay goldi jong'a. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

JON(I) ACHI(Y)DI *kimning?* 1 *kimga?* ayab kuyinmoq. Sinonimi: **ich(i) achidi** 1 *kimning? kimga?* **yurag(i)achidi** 1 *kimning? kimga?*

O'z otasining joni achimagandan keyin, men nima derdim. S.Zunnunova. Gulxan.

2 *nimaga?* ba'zan *kimga?* achinib kuyinmoq. Sinonimi: **ich(i) achidi** 2 *kimning? nimaga?* **yurag(i) achidi** 2 *kimning? kimga?* yoki *nimaga?*

«Ixtiyor sizda, – dedi sovuqqina qilib Boqijon. – Jonim achigandan gapiraman-da, Tansiqoy». Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Bir necha tup o'rik, olmaning singaniga bunchalik joni achigani bejiz emas ekan-da.* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

JON(I) BOR I *kimning?* hali tirik.

Joni borida shunchalik xunuk, joni chiqqanda juda qo'rqinchli bo'lsa kerak. S.Anorboyev. Oqsoy.

jon(i) boricha: jon(i)ning boricha

JON(I) HALAK *kimning?* kuyinib tashvishda; bezovta bo'lgani sababli halovati yo'q.

«To'yni tezroq o'tkazmasak, maktab ishni chatoq qiladiganga o'xshay-

di». – «*Albatta! Mening nima deb jonim halak! Qachongacha o'rgataman*». A.Qahhor. Og'riq tishlar. *Mening jonim halak bo'layotgani shularga bo'lib, hosilni terishda shoshilib qolamizmi deya*man. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

JON(I) HALQUM(I)GA KELDI kimning? 1 o'lar holatga yetmoq.

Dushmanlar joni halqumiga kelganda mana bunday quturadilar. A.Muxtor. Opa-singillar.

2 chidami tugab, yashashdan ham bezor bo'lib ketmoq. Varianti: **jon(i)ni halqum(i)ga keltirmoq nima? kimning? jon(i) halqum(i)ga yetdi; jon(i) bo'g'z(i)ga keldi**.

«*Qo'ying-e, – dedi Lutfixon uy derazasini yopa turib. – O'zi jonim halqumimga kelib turibdi*». S.Ahmad. Muhabbat. *Qolaversa, qizi tufayli eshitgan nadomatlari, onasining muttasil miyaga urib turgan to'qmoqdek g'idi-bidilari jonini halqumiga keltirib qo'ygan edi!* A.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

3 nihoyatda qattiq g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq. Varianti: **jon(i) bo'g'z(i)ga keldi; jon(i) hiqildog'(i)ga keldi**. Sinonimi: **jon(i) chiqdi II kimning? [nimaga? yoki nimadan?] g'azab(i) qaynadi kimning?**

Bola desa, joni halqumiga keldi! S.Abdulla. Devor orqasida suhbat. *O'n oltita mirshab miltig'ini shundoqqina yerga qaratdi-qo'ydi. Haligi mo'ylovning joni bo'g'ziga keldi...* A.Muxtor. Opa-singillar. *Otin oyining shu gapini eshitib, mening ham jonim hiqildog'imga kelgan edi*. Mirmuhsin. Jamila.

4 nihoyatda qattiq qo'rqmoq. Varianti: **jon(i) hiqildog'(i)ga keldi**. Sinonimi: **jon-pon(i) chiqib ketdi I kimning? es(i) chiqib ketdi kimning?**

Mol doktori desa, jonimiz halqumimizga keladi. I.Rahim. Ixlos. *Ana Hakim boyvachcha! Joni hiqildog'iga kelganga o'xshaydi, ko'rdingmi?* Oybek. Qutlug' qon.

jon(i) halqum(i)ga tiqildi: jon(i) halqum(i)ga keldi

jon(i) hiqildog'(i)ga keldi: jon(i) halqum(i)ga keldi

joni-hol(i)ga qo'ymaslik: jon-u hol(i)ga qo'ymaslik

jon kirgizmoq: jon kirdi

jon(i) halqum(i)ga yetdi: jon(i) halqum(i)ga keldi

JON(I) KIRDI kimning? yoki nimaning? – **JON(I)NI KIRGIZMOQ** kim? yoki nima? kimning? yayramoq, rohatlanmoq.

Yoz yozligini qilsin, yer qancha qizisa, g'o'zaning shuncha joni kiradi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Birpasda bir dunyo ishni qilib tashlaydi. Jamila xolaning jonini kirgizadi-qo'yadi*. S.Anorboyev. Pushaymon. *Yangi sug'orish sistemasiga o'tganimizdan keyin, men sizga aytsam, g'o'zalarning jonini kirgizyapti-da*. R.Fayziy. Suvchi.

JON(I) KOYIDI kimning? – **JON(I)NI KOYITMOQ** kim? [o'zining] biror ishni kuyib-pishib, o'zini urintirib bajarmoq. Varianti: **jon koyitmoq kim?**

U qishlog'iga qaytib ketaversa, ishsiz ham qolmaydi, joni ham koyimaydi. Bu yerda-chi? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *O'zi jonini koyi-*

tib pul topmaydi-yu, oyisiga bir erkalanadi, oyisi cho'ntagini pulga to'ldirib beradi. P. Qodirov. Uch ildiz.

JON(I) KUYDI kimning?nimagaga? – **JON KUYDIRMOQ** kim? nimaga? yoki kimga? ruhan bezovta bo'lgani holda harakat qilmoq. Varianti: **jon kuydirib I** nimaga? yoki kimga?

Chorvaga joning kuysa, yuqoridagilar chorvaning ahvoli uchun seni jazolasa, indarding. I.Rahim. Ixlos. *Joni kuyganidan gapiryapti bu odam.* I.Rahim. Ixlos. *Ular Sobirjon Sulton o'g'lining «ko'p yaxshi odam bo'lganini, kambag'allarga jon kuydirib, boylarning dodini berib, ko'p yaxshilik qilgani»ni gapirib berdilar.* O. Yoqubov. Ota izidan.

JON(I) OMON QOLDI kimning? o'limdan qutulib qolmoq.

Vasilichning kuchli qo'li uni shash-tidan qaytardi, jonim omon qoldi. Bo'lmasa deng naq o'lib ketardim. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Bu xizmatlari evaziga o'zining, bola-chaqasi-ning joni omon qoldi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

jon(i) tomog'(i)ga keldi: jon(i) halqum(i)ga keldi

jon(i) chiqib keta yozdi: jonpon(i) chiqib ketdi I

JON(I)DA JON QOLMADI kimning? azob chekaverib nihoyat darajada qiynalib ketmoq.

Yoshligimda qaynananing jabrini torta-torta jonimda jon qolgan emas. A.Qahhor. Og'riq tishlar. *Ishqilib, hajga yetguncha jonimda jon qolmadi.* M. Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

JON(I)DAN AZIZ KO'RMOQ kim? [o'zining] kimni? yuksak dara-

jada qadrlab, suyib mehr-oqibat ko'rsatmoq. Varianti: **jon(i)dan ortiq ko'rmoq.**

Dunyoda o'z taqdirini sizning taqdiringiz bilan umrbod bog'lamoqchi bo'lgan, sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko'rgan kishining yuziga oyoq bosishdan ham og'ir jinoyat bormi?! A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi. Men otamning kenja qizi edim. Kenja bola har vaqt shirin bo'ladi. Otam meni jonidan ortiq ko'rar edi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

JON(I)DAN BEZOR BO'LMOQ kim? [o'zining]. **JON(I)DAN BEZOR QILMOQ** kim? kimni? [o'zining] ortiq toqat qilolmasligi tufayli o'limiga ham rozi bo'lmoq. Varianti: **jondan bezor qilmoq kim? kimni? bezori jon qilmoq kim? kimni?** Sinonimi: **jon(i)dan to'ymoq kim? [o'zining] –jon(i)dan to'ydirmoq 2 kim? kimni? [o'zining].**

Qullar ochlikdan o'lsin, qarollar charchab, jonidan bezor bo'lsin, har nima bo'lsa-bo'lsin, senga foyda bo'lsin. S.Ayniy. Qullar. ... *sut, qatiq ustida janjal chiqarib, jondan bezor qiladi.* S.Ayniy. Qullar. *Qurt-qumursqa qidirib bezori jon qiladigan chumchuqlargacha talvasasiz uxlaydi.* G'.G'ulom. Soyalar.

jon(i)dan bezor qilmoq: jon(i)dan bezor bo'lmoq

JON(I)DAN KECHMOQ kim? [o'zining] hamma qiyinchiliklarga, hatto o'limga ham rozi bo'lmoq.

Bunday askar urush kunida jonidan kechgan inqilobchilarga qarshi turadimi? S.Ayniy. Qullar. *Jondan kechmaguncha, jonona qayda!* Oybek. Nur qidirib.

jon(i)dan ortiq ko'rmoq: jon(i)-dan aziz ko'rmoq

jon(i)dan to'ydirmoq: jon(i)dan to'ymoq

JON(I)DAN TO'YMOQ kim? [o'zining] **1** yashashni istamaslik.

Ha, sizlar bu yerda nima qilib yuribsizlar? Jonlaringdan to'ydilaringmi?! Sh.Rizo. O'ch.

2 ortiq toqat qilolmasligi tufayli o'limiga ham rozi bo'lmoq. Varianti: **jon(i)dan to'ydirmoq** kim? kimni? [o'zining]. Sinonimi: **jon(i)dan bezor bo'lmoq** kim? [o'zining] –**jon(i)dan bezor qilmoq** kim? kimni? [o'zining].

Ana beraman-mana beraman deb aldab keladi. Jonimdan to'yib ketdim, taqsir! Yo haqimni bersin, yo qilmishiga yarasha jazosini tortsin! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Qaytmayman! O'ldirishsa, o'ldirib ketisha qolsin, jonimdan to'yirding meni. S. Zunnunova. Gulxan.

JON(I)DAN UMID(I)NI UZ-MOQ kim? [o'zining] o'lishiga iqror bo'lmoq.

Yo men boshlagan yo'lga yurasan, yo joningdan umidingni uzasan. S.Ahmad. Hukm. Jonidan umidini uzgan Kimsan butun kuchini to'plab turib dodladi. S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan.

jon(i)dan o'tib ketmoq: jon-jon(i)dan o'tib ketmoq

jon(i)dan o'tmoq: jon-jon(i)dan o'tib ketmoq

jon(i)ga aro kirmoq: jon(i)g'a ora kirmoq

JON(I)GA ORA KIRMOQ kimning? **1** kim? bir o'limdan qutqarib qolmoq.

U otilladigan edi, biroq, kimlardir joniga ora kirdi. A.Qahhor. Sarob.

Qani endi o'sha ... joningga ora kirsin-chi! Sh.Rizo. O'ch.

2 kim? yoki nima? og'ir ahvoldan qutqarmoq. Varianti: **jonga ora kirmoq** nima?

Soqolingdan aylanay Jonizoq ota, xuddi arvoh yo'qlaganday kep qoldi-yu, jonimizga ora kirdi. S.Anorbo-yev. Oqsoy. Har holda, usta Zamonning joniga ora kirgan yana o'sha Chashmamirondan kelib qolgan Abdukarim temirchi bo'ldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

jon(i)ga oro kirmoq: jon(i)ga ora kirmoq

JON(I)GA TEGMOQ kimning? **1** kim? bezor qilmoq. Varianti: **jon-ga tegmoq** kim?

Gap tarqatinglar, xalaqit beringlar, ishqilib, joniga teginglar-da. S.Zun-nunova. Yangi direktor. Endi bo'lsa uning ishi jonga tekkan bir kampirning chuchmol maqtoviga arzibdi xolos. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

2 nima? bezor bo'lmoq, zerikmoq. Varianti: **jonga tegmoq** nima?

Oxiri stol chertish joniga tegib, tokchadagi kitoblardan birini qo'lga oldi. S.Ahmad. Hukm. Musofirchilik qursin, jonga tegdi. Oybek. Qutlug'qon.

jon(i)ni asramoq: jon saqlamoq

JON(I)NI BERMOQ kim? [o'zining] har qanday og'ir shartni, talabni bajarishga tayyor bo'lmoq.

Biz, siz uchun jonini beradigan yigit, qadriga yetish kerak. A.Qahhor. Sarob. Tansiq muzika, qo'shiq, raqs desa jonini beruvchi Anorxonning kelmaganiga achindi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Hali yoshsiz»

degan kishiga jonini, jahonini berishga tayyor edi. A. Qahhor. To'yda aza. *Sexdagilar Haydar semiz deb chaqiradigan, ulfat desa jonini beradigan mana shu kishi har maosh olishganda pul yig'ib osh tashkil qilgan edi.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JON(I)NI DORILBAQOGA JO'NATMOQ o'ldirmoq.

U sho'rlik, sadoqatli yigitlar tun chogi qabrni ochishib, Xolbo'taning loshini olib ketishganini, uning o'rni-ga boshqa bir kishining jonini dorilbaqoga jo'natib, ko'mishganini tasavvur ham qilolmasdi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

JON(I)NI FIDO QILMOQ kim? [o'zining] o'zini qurbon qilishga ham tayyor bo'lmoq. Varianti: **jon fido qilmoq** kim?

Bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, bir-birimizga jonimizni fido qilishimiz kerak. Oybek. Quyosh qoraymas. *U ot deganda jonini fido qiladigan ishqibozlardan.* S.Anorboyev. Oqsoy.

JON(I)NI HAM AYAMASLIK kim? [o'zining].

1 nima uchun? biror maqsad yo'lida o'lishga ham tayyor bo'lmoq.

2 kim uchun? bisotida bor hamma narsasini berishga tayyor bo'lmoq.

Bilaman, qarindoshi uchun jonini ham ayamaydi dadam. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *O'zi tuppa-tuzuk odam. Do'st desa jonini ayamaydi-yu, biroq shu safar juda oshirib yubordi.* O.Yoqubov. Ota izidan.

JON(I)NI HOVUCHLAB [o'zining] biror falokatning voqe bo'lishi-

dan benihoya qo'rqqan holda. Varianti: **jon hovuchlab (-)**. Sinonimi: **yurag(i)ni hovuchlab** [o'zining].

Bu joylardan kunduz kuni yurgan kishi ham jonini hovuchlab o'tardi. S.Ahmad. Hukm. *O't ostida jon hovuchlab ovqat tayyorla. O'lim qaynagan joyga yana o't ostida elt.* Oybek. Quyosh qoraymas.

JON(I)NI JABBORGA BERIB [o'zining] bor kuchini safarbar qilgani holda.

Vaqtida xo'p ishlaganmiz joni-mizni jabborga berib! Oxirida nima ko'rdik. Rahmat o'rniga la'nat eshitdik. S.Anorboyev. Oqsoy. *Ter to'kib, joningni jabborga berib o'stirgan ekinlaringni ham ayab o'tirmaydi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

JON(I)NI JABBORGA BERMOQ kim? [o'zining] bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko'rsatmoq.

Endi u nega martaba, boylik orttirish uchun bunchalik jonini jabborga berayotir? A.Qahhor. Sarob. *Siz salqinda maza qilib o'tiribsiz! U yoqda xalq jonini jabborga berib yotibdi! Odamgarchilik degan narsa bormi axir?* M.Ismoilijev. Farg'ona tong otguncha.

JON(I)NI JAHANNAMGA YUBORMOQ kim? kimning? o'ldirmoq. Varianti: **jon(i)ni jannatga yubormoq, jonini jahannamga yo'llamoq.**

Ular chindan ham bir haftadan beri ... sherdek olishib, nechasing jonini jahannamga yuborib, uyasiga o't qo'yib, dodini berib yurishgan ekan. O.Yoqubov. Ota izidan. – Bek,

bo'riga o'xshab tentib yurganimizdan ko'ra o'sha lakotning jonini jahannamga yo'llamoq darkor edi... Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

jon(i)ni jannatga yubormoq:

jon(i)ni jahannamga yubormoq

jon(i)ni kaft(i)ga olib: jon(i)ni hovuchlab

jon(i)ni kirgizmoq: jon(i) kirdi

jon(i)ni koyitmoq: jon(i) koyidi

jon(i)ni kuydirib: jon kuydirib II

JON(I)NI OLMOQ kimning?1 «kim?» o'ldirmoq (diniy).

«Ha-a, men Azroilman. Qo'chqor do'stingning jonini olgan edim, endi sening joningni olgani keldim». S.Anorboyev. Oqsoy. **Zargarov.** Jonim! Imonim! **Xumorxon.** Muncha... Joningizni oladimi?! **Zargarov.** Ob-ro'yim to'kiladi. A.Qahhor. Og'riq tishlar. – Qarzga vino olib ichganingni otang bilsa meni jonimni sug'urib oladi, – dedi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

2 kim? ruhan juda qattiq ezib yubormoq. Varianti: **jon oluvchi** (–).

Yamoqchini bo'lsa Ismathoji har kuni masjidga chaqirib, odamlar o'rtasida haqorat qilaverib, jonini oldi. Oydin. Yamoqchi ko'chdi. Qodir: «Endi bu meni choy ichirib so'yib jonimni oladi-ku», – deb o'yladi. A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

3 nima? jismonan juda qattiq ezib yubormoq. Varianti: **jon olg'uchi** (–).

Bezgak o'lgur jonimni oldi. S.Zun-nunova. Gulxan. U tovonlarining jon olg'uchi og'rig'i va inson xo'rliqi evaziga qo'lga kiritgan edi bu baxtni! M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

JON(I)NI PARVONA QILMOQ kim? [o'zining] izzat-hurmat bildiruvchi xatti-harakatlar qilmoq.

Unga o'zimni Usmonjonning singlisi deb tanishtirdim. U sho'rlik ishonib, jonini parvona qildi. S.Zun-nunova. Ikkinchi xotin.

JON(I)NI QO'YARGA JOY TOPOLMASLIK kim? [o'zining] jismoniy azobdan nihoyat darajada betoqat bo'lmoq.

Bir kuni uloqda otdan yiqilib, jonimni qo'yarga joy topolmay voyvoylab yotibman-u, bu kishi ahvol so'rab kelib qoldilar. S.Anorboyev. Oqsoy.

jon(i)ni halqum(i)ga keltirmoq: jon(i) halqum(i)ga keldi

jon(i)ni saqlamoq: jon saqlamoq

JON(I)NI TIKMOQ kim? [o'zining] butun kuch va imkoniyatini, hatto hayotini bag'ishlamoq. Varianti: **jonni tikmoq** kim? **jon tikmoq** kim?

Men jonimni yaxshilik yo'lga tikkanman, Zokirjon. P.Qodirov. Uch ildiz. Do'stginam, Vatanga jonni tikkanmiz. S.Abdulla. Muqimiy. Endi men bu chirkin ro'daponi boshimga bir nafas yopinsam ham, o'z qadrimni, menga inson deb qaraganlarni, mening baxtim, yorug' kelajagim uchun jon tikib kurashgan millionlarni haqorat qilgan bo'laman. A.Mux-tor. Opa-singillar.

jon(i)ni chiqarmoq: jon(i) chiq-di II

JON(I)NING BORICHA [o'zining] kuch-quvvati yetganicha tiri-shib. Varianti: **jon(i) boricha.**

Men ham oyoq-oyoqlarimga tikan kirganiga qaramasdan, jonimning boricha uni suvlar edim. G'.G'ulom. Shum bola. ... qulog'ini ushladi va uch buklab turib qattiq qisdi; qisdi, jonining boricha qisdi! A.Qahhor. Yillar.

jondan bezor qilmoq: jon(i)dan bezor bo'lmoq

jonga ora kirmoq: jon(i)ga ora kirmoq

jonga tegmoq: jon(i)ga tegmoq

jon-hol(i)ga qo'ymaslik: jon-u hol(i)ga qo'ymaslik

joni bor II: jon bor

JONI UZILDI *kimning?* o'lmoq, so'nggi marta nafas chiqarmoq. Varianti: **uzildi kim?** Sinonimi: **jon bermoq II 1** *kim?* yoki *nima? (jonli); jon(i) chiqdi I* *kimning?* yoki *nimaning? (jonlining).*

Yotgan yerida to'lg'ana-to'lg'ana qorong'i tushganda joni uzildi. Mirmuhsin. Jabrdiyda. *Esiz... Bir bechoraning joni uzildi-ya...* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.

JONI CHIQDI I *kimning?* yoki *nimaning? (jonlining)* o'lmoq, so'nggi marta nafas chiqarmoq. Sinonimi: **joni uzildi kimning?** **jon bermoq II 1** *kim?* yoki *nima? (jonli).*

Sodiqjon ko'tarib qarasa, hali joni chiqmagan ekan, ko'zini ochibdi. A.Qahhor. Asror bobo. *Bo'ridan bir qo'zini ajratib olgan edi. Joni chiqmagan ekan.* S.Anorboyev. Oqsoy.

JON(I) CHIQDI II *kimning?* [nimaga? yoki nimadan?]- **JON(I)-NI CHIQARMOQ** *kim?* yoki *nima? kimning?* nihoyatda qattiq g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq. Varianti: **jon-pon(i) chiqib ketdi II** - **jon-pon(i)ni chiqarib yubormoq.** Sinonimi: **g'azab(i) qaynadi kimning?**- **g'azab(i)ni qaynatmoq** *nima? kimning?* **jon (i) halqum(i)ga keldi 3** *kimning?*

«Bolasi o'lgani yo'q-ku, nimasiga qoziga chaqirtiradi?» - «Oyog'i

singan emish. Shunga joni chiqayotgandir-da!» Oydin. Yamoqchi ko'chdi. *Menga nasihat qilaverib, jonimni chiqarmang!* Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit. *Hozir Polvonning oldida devordan gap ochsang, jon-poni chiqib ketadi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

JONIM TASADDUQ *kimning?* jonim sadaqa, qurbon bo'lay, jonim fido bo'lsin.

Jonim tasadduq senga, nigorim. Hamza. *Jonim tasadduq bo'lsin u kishiga.* Oybek. Navoiy.

JONIMNI QOQAY mehr bilan, suyib murojaat qilishni bildiradi (katta yoshli ayollar nutqida ishlatiladi, gapda undalma bo'lib keladi).

Qo'ying, aylanay, yig'lamang. Mayli, katta buvingiz, xafa bo'lmang, jonimni qoqay. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Childirmangizni oling, Latofatxon, jonimni qoqay.* S.Abdulla. Muqimiy.

jon-jon deb: jon deb

jon-jon demoq: jon demoq

JON-JON(I)DAN O'TIB KETMOQ *nima? kimning?* 1 jismonan alamli ta'sir qilmoq, qaqshatmoq («sovuq»). Varianti: **jon(i)dan o'tmoq.**

«Padariga la'nat», - *deb yubordi sovuq jonidan o'tgan temirchi Yunusbekov.* A.Muhiddin. Gigant. *Bu gap, bu xil muomala jon-jonimdan o'tib ketdi. Felyetonchilikni mutlaqo tashlab yubordim.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

2 ruhan alamli ta'sir qilmoq («gap», «alam»). Varianti: **jon(i)dan o'tib ketmoq; o'tib ketmoq II** *nima?*

Lekin birinchi bolasi o'lganda, uncha bilinmadi. Ikkinchisi juda alam

qildi. Uchinchisining o'limi jon-jonidan o'tib ketdi. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha.

jon-jon(i)ga, qon-qon(i)ga singib ketmoq: qon-qon(i)ga singib ketmoq.

jonni tikmoq: jon(i)ni tikmoq

jon-pon(i) chiqa yozdi: jon-pon(i) chiqib ketdi I

jon-pon(i) chiqib ketdi II: jon(i) chiqdi II

JON-PON(I) CHIQIB KETDI I kimning? JON-PON(I)NI CHIQA-RIB YUBORMOQ I nima? kimning? nihoyatda qattiq qo'rqmoq. Varianti: **jon-pon(i) chiqa yozdi; jon(i) chiqib keta yozdi; jon(i) chiqdi III kimning? yoki nimaning? (jonlining).** Sinonimi: **jon(i) halqum(i)ga keldi 4 kimning? es(i) chiqib ketdi kimning?**

«Ovozingni chiqazsang, yeringni quloq, qilaman», – deb pichoq ko'rsatdilar. Jon-ponim chiqib ketdi. S.Ahmad. Hukm. Danak to'g'ri borib xotinning peshanasiga tegdi. Qo'qqisdan kelib tekkan danak hoji xolaning jon-ponini chiqarib yubordi. O'zini tashlab yuborishiga oz qoldi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

jon-pon(i)ni chiqarib yubormoq I: jon-pon(i) chiqib ketdi I

jon-pon(i)ni chiqarib yubormoq II: jon(i) chiqdi II

JON-U HOL(I)GA QO'YMAS-LIK kim? kimni? 1 tinchlik bermaslik. Varianti: **jon-hol(i)ga qo'yamaslik.**

«Kasalman», – deb bahona qilsa, «Boqizing», – deb jon-u holiga qo'yamaydilar. Oydin. Ikki ko'zi shunda. «Hay Huri, nega uylantirmaysan Sherbegingni? Yo qurbing yetmay-

dimi?», – deb jon-holiga qo'yishmaydi. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 ra'yiga zid holda majbur qilmoq.

Uni jon-u holiga qo'yamadim, qo'lidan sudrab, yozuv stolining yoniga o'tqizdim. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir.

JOY OLMOQ kim? 1 qayerdan? biror sathni band qilmoq, o'tirmoq. Varianti: **o'rin olmoq.**

Anna Pogorelskaya degan uchinchi kursli xushro'y qiz Sergeyning to'g'risidan joy olgan. P.Qodirov. Uch ildiz. *Muhiddin skameykada o'tirgan chol hoynahoy ... oldiga kirsra kerak degan xayol bilan uning yonidan o'rin oldi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 kimlar? yoki nimalar qatoridan ma'lum bir mavqe, darajani egallamoq.

... *she'rlarining xalq orasida tez tarqalib ketishi natijasida u [Zavqiy] yurt ichida chinakam mo'tabar kishilar qatoridan joy olgan edi.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.


joyiga keltirmoq: o'rniga keltirmoq

joyiga qo'ymoq: o'rniga qo'ymoq
juftag(i)ni rostlamoq: juftakni rostlamoq

juftak otmoq: juftakni rostlamoq
juftak urmoq: juftakni rostlamoq

JUFTAKNI ROSTLAMOQ kim? juda tez qochib qolmoq, zudlik bilan ko'zdan g'oyib bo'lmoq. Varianti: **juftag(i)ni rostlamoq kim? [o'zining]; juftak otmoq; juftak urmoq**

Aytgancha, bizning xo'jayin juftakni rostlab qolibdilar-ku. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Buni eshitgan Salimjon shu kuniyoq juftagini rostlab qolgan.* A.Muhiddin. Davlat qoralovchi-



si. Hovliga tor koridor bilan ulangan, fasadi ko'chaga qaragan uydan beka chiqishi bilanoq [Ali tajang] aybdorday bo'ynini qisib, o'z «g'amxona»siga juftak otadi. Oybek. Quyosh qoraymas.

JO'JABIRDAY JON kim? bola-chaqasi, qaramog'idagi kishilar ko'p.

Jo'jabirday jonman, bolam, ulug' biladilar, bir beva qizim uch bolasi bilan ... o'zimda to'rt bola... Kampirim ishga yaramaydi. Shol bo'lib qolgan. S.Ahmad. Hukm. *Qani yordam qo'lini cho'zgani?! Qani rahm-shafqat qilgani?! Jo'jabirday jon edi. Aqalli o'sha norasidalarga ko'z yoshi to'ktirmaslikning yo'lini qilsa bo'lmasmidi?* S.Anorboyev. Oqsoy.

JO'JANI KUZDA SANAMOQ kim? mehnat-faoliyatga yakuniga qarab baho bermoq.

Chopiq vaqtida nima degan edilar, «Yaxshi ot keyin chopadi, jo'jani kuzda sanaymiz», – demaganmidilar? S.Ahmad. Qadrton dalalar. Voy, tilingni juda ham besh qarich qilaverma, ko'rarmiz kim betayinligini, jo'jani kuzda sanaymiz, oshna. A.Muhiddin. Oshnalar.

JO'SH URMOQ nima? qaynab to'lib-toshmoq.

Uning [Nazokatning] qalbida jo'sh urayotgan umidlar, fikrida uyg'ongan bo'rondek xayollar unga yangi kuch, yangi g'ayrat bag'ishlar edi. S.Ahmad. Qadrton dalalar. *Yuragi yana o'sha sog'inch hislar bilan jo'sh urar, etikning sirg'anishiga ham, g'o'zapoyalarga qoqilishiga ham parvo qilmasdi.* O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari.



kalava uchini topmoq: kalava-ning uchini topmoq

KALAVANING UCHINI TOPMOQ *kim?* jumboqni hal qilish yo‘lini topmoq. Varianti: **kalava uchini topmoq** *kim?*

Mahkam topolmay yurgan kalavaning uchini Ochil topib berdi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Ko‘p zamonlar murakkab bir muammo ustida bosh qotirib, axir kalava uchini topgan ixtirochilar o‘zlarini xuddi shunday his qilsalar kerak.* M.Muhamedov. Kichik garnizon.

kalava(si)ni yo‘qotmoq: kalava-(si)ning uchini yo‘qotmoq

KALAVA(SI)NING UCHINI YO‘QOTMOQ *kim?* [o‘zining] qilib turgan ishini bilmay qolmoq, gangimoq. Varianti: **kalava(si)ni yo‘qotmoq.**

«Undoq emas, Arslonbek aka, – dedi kulimsirab, – ayol kishi rahbarlik qilsa, kalavangizning uchini yo‘qotib qo‘yasiz...». A.Qahhor. Sinchalak. *«Tushunish kerak-da, berilib leksiya o‘qiyotgan edi, birdan kalavasini yo‘qotib qo‘ydi», – derdi.* P. Qodirov. Uch ildiz.

KALIMA KALTIRMOQ *kim?* musulmonligini tasdiqlovchi arabcha iborani aytmoq (*diniy*).

Jin urdimi deb quloq solsam, kalima keltiryapti. I.Rahim. Olovkor. *Siz ham Muhammad ummatimisiz, janobi amirul umaro? Qosimbek ham kalima keltirdi-yu, oxirida: – Hazratim, sizni, iloho, chohoryori bosafolar qo‘llab-quvvatlasinlar! – deb qo‘shib qo‘ydi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

KALIMA O‘GIRMOQ *kim?* musulmonligini tasdiqlovchi arabcha iborani takror-takror aytmoq (*diniy*).

Burun zamonda bularga o‘xshagan qarilar emas, hatto yoshlar ham har doim o‘lim kutib, kechalari kalima o‘girib yotar edi. A. Qahhor. To‘y.

kalla(si) g‘ovlab ketdi: miya(si) g‘ovlab ketdi

KALLA(SI) ISHLAYDI *kimning?* yaxshi fikrlamoq.

Pochchayevning do‘qi esiga tushsa, xayolida yaratilgan Edison obraziga dog‘ tushgani alam qiladi, xolos. Kallasi qattiq ishlaydigan odam bo‘lgan ekan. A. Muxtor. Tug‘ilish.

kalla(si) shishdi: bosh(i) shishdi

KALLA(SI)NI OLSA(...) **HAM** [*kimning?*] har qanday tahdidga, jazo xavfiga qaramay.

«Umar aka masalasida keldim, – dedi u mehmon bilan ko‘rishib bo‘lgach, Komiljonga qarab. – Uyida

yo'tib olibdi. «Kallamni olsang ham muhrni topshirmayman», – deyaпти. I.Rahim. Ixlos.

KALLAYI SAHARLAB azonda, juda erta.

Qo'y-e, bolam, bunaqa behuda xayollarni... Ol, oshingni ich, icha-ging ham uzilib ketgandir. Kallayi saharlab dalaga ketganingcha. H.Nazir. O'tlar tutashganda.

kalomullo sharif ursin: kalomullo ursin

kaltak bosh(i)da sindi: bosh(i)da kaltak sindi

KALOMULLO URSIN kimni? Qur'onni o'rta qo'yib qasam ichishni bildiradi. Varianti: **kalomullo sharif ursin.**

Agar men sizni tutib bergan bo'lsam, xudo ursin, non ursin, kalomullo ursin S.Anorboyev. Oqsoy. *Kalomullo sharif ursin, esimda bo'lsa.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

KAM BO'LMASLIK kim? hech narsa yutqizmaslik, ozmi-ko'pmi yutuqqa ega bo'lmoq.

Men bilan yuraversanglar, kam bo'lmay sizlar, hali ko'rasizlar! S.Anorboyev. Oqsoy. *Odamning qadriga yetgan kishi kam bo'lmaydi.* I.Rahim. Ixlos.

KAMOL TOPMOQ kim? yoki nima? yetuk, yuksak darajaga erishmoq. Sinonimi: **balog'atga yetmoq kim? kamolga yetmoq.**

Bizning muhabbatimiz kun sayin kamol topib, samimiy va chuqur bir hisga aylandi. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida.

KAMOLGA YETMOQ kim? yetuk, yuksak darajaga erishmoq. Si-

nonimi: **balog'atga yetmoq kim? kamol topmoq kim?** yoki nima?

Agar sen hayotni sevsang, agar sevimli o'g'ilchang yoki jajji qizchang bog'ingda o'ynab-o'sib kamolga yetsin desang, tinchlik uchun doim kurashgin! O.Yoqubov. Kaptar.

kampirag(i)ni uchirmoq: kayf(i) uchdi

kapalag(i)ni uchirmoq: kayf(i) uchdi

kapalag(i) uchdi: kayf(i) uchdi

KARAM ALIN OCHMOQ [käräm elin aç=] tar. kim? saxiylik qilmoq. Varianti: **karamga allarin ochmoq.**

Karam alin ochib saxo dodin berdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KARAM KO'RGUZMOQ [käräm körgüz=] tar. kim? kimga? marhamat qilmoq.

Xalq ani tilab kelib muovanat qildilar. Ul dag'i karam ko'rguzub sulton bo'ldi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KARAM ULASHMOQ [käräm ulaş=] tar. kim? kimga? marhamat qilmoq, saxovat qilmoq.

Erur karam ulashur yer hamisha bobul-loh. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KARAMGA ALLARIN OCHMOQ [kärämga ellärin aç=] tar. kim? saxovat qilishga shay turmoq.

Onlar ichinda bir toifa borkim, doyim xizmatqa bellarin bog'lab dag'i karamga allarin ochib tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KAROMAT KO'RSATMOQ kim? ajablanadigan yoki qoyil qoladigan ish qilmoq.

Ularning bolalari o'qib, ilm olib, nima karomat ko'rsatar edi? Oybek. Qutlug' qon.

KASAL (yoki DARD) CHALDI Kasalga yo'liqdi, kasal bo'ldi.

O'zi o'limdan qoldi, xudo rahm qildi. Mana endi qizini dard chaldi. A.Muxtor. Opa-singillar.

KASR(D)GA QOLMOQ kim? kimning? salbiy, aybli ish (oqibatida yomon ahvolga tushmoq).

To'g'risi, shuncha mehnat qilib, Jo'raning kasriga qolib gap eshitish Nosirga juda alam qildi. N.Nazarov. Zamon.

KASRI TEGDI nimaning? kimga? salbiy, aybli ish oqibatida yomonlikka duchor bo'lmoq.

«O'g'lingizga nima bo'ldi, amaki?» – Nigora qayta so'radi. «Nima bo'lardi! «Pangal»ning kasri tegdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

KATTA BOSH(D)NI KICHIK QILMOQ kim? [o'zining] yoshi, martabasiga qaramay o'zini kamtar tutmoq.

Vali polvon hamon katta boshini kichik qilgisi kelmay dedi: «... o'zingiz tushuntirasiz-da, uka». H.Nazir. Odamning qadri. «Modomiki katta boshlaringizni kichik qilib ... maslahatga kelibsizlar, men xolis gapni aytishim kerak», – dedi Murodova salmoqdor ohangda. I.Rahim. Ixlos.

KATTA GAP 1 nima? diqqatga sazovor, arzigulik (sodda gapda kesim bo'lib keladi).

Tashabbus qo'limizdan ketadi. Tashabbus katta gap. Uni biz o'zimiz sekretarlikka tavsiya etishimiz kerak... P.Qodirov. Uch ildiz. Boshqa

yer egalari kechalari bolta ko'tarib odam ovlab yurgan bir vaqtda bu odamning shundoq deb chiqishi katta gap edi. A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 qanoatlanishga yetarli, kifoya (shart ergash gapga bosh gap bo'lib keladi).

«Lekin ayollarning fe'li tor. Kafalikka doka berishsa ham, katta gap», – dedi ming'irlab Yormat. Oybek. Qutlug' qon. *Men o'z aravamni tortsam ham, katta gap.* S.Anorboyev. Oqsoy.

KATTA GAPIRMOQ kim? imkoniyatiga ortiqcha baho bermoq. Sinonimi: **katta ketmoq** kim?

«O'sha paxta ustalari bilan belashganim bo'lsin», – deb yana katta gapirdi-yu, o'zi guzardagi pivoxonadan chiqmadi. S.Ahmad. Oriyat. *Yaxshi niyat – yarim davlat, maqsadingga yet, qizim. Lekin ko'p ham katta gapirma, og'ir yuk bel sindiradi.* S.Nazar. Yashil boylik.

KATTA KETMOQ kim? imkoniyatiga ortiqcha baho bermoq. Varianti: **kattadan ketmoq**. Sinonimi: **katta gapirmoq** kim?

«Shunaqasi bo'lsa, menga ko'rsatib qo'yning, bir adabini... – «Xo-xo, – kulib yubordi Karomatxon, – katta ketib yubormadingizmi?» R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Katta ketib qo'yganingdan keyin, uddasidan chiq.* I.Rahim. Ixlos. *Ota juda kattadan ketyapti, O'ktamjon, mashina olaman deydi...* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KATTA KO'CHA qayoqqa xohlasang [iz], ketaver [ing]. Sinonimi: **to'rt taraf(i) qibla kimning?**

Nasiba. *Bas! Qalbaki gaplaringiz jonimga tegdi! Ko'r hassasini bir mar-ta yo'qotadi. Marasul. Joningga tekkan bo'lsa – katta ko'cha! A.Qahhor. Og'riq tishlar. U shu bilan qaynonasi-ga: «Chidasang – shu, chidamasang – katta ko'cha. Onam meni ish uchun tuqqan emas...» – demoqchi bo'ldi. Oybek. Qutlug' qon.*

KATTA OG'IZ BO'LMOQ kim?
– **KATTA OG'IZLIK QILMOQ** kim? imtiyozli mavqega ega bo'lmoq (kinoyali).

Bilgandirsiz, bir uchini, baland oxurdan yem yeganlardan. Katta og'iz bo'lib kelgan, degani-degan, aytgani – aytgan bo'lgan. Bu yerning sharoiti ko'tarmay qoldi. Katta og'izlik qila-man deydi-yu, o'pkasi ko'rinib qol-yapti. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

kattani aka, kichikni uka deb:
bir(i)ni aka, bir(i)ni uka deb

kattadan ketmoq: katta ketmoq
katta oxurdan yem ye[b o'rgan]-gan: baland oxurdan yem yeb o'rgan-gan

katta og'iz: og'zi katta
katta og'izlik qilmoq: katta og'iz bo'lmoq

KAVUSH(I)NI TO'G'RILAB QO'YMOQ kim? kimning? haydab yubormoq.

Kavushini to'g'rilab qo'yish ke-rak; qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi bu. A.Muxtor. Tug'ilish. Kavushini to'g'rilab qo'ya-man men uning shu bugunoq! Sabo-tajchi! A.Muxtor. Opa-singillar.

KAVUSHIM KO'CHADA QOL-GANI YO'Q ayn. oyog'im ko'chada qolgani yo'q.

Choramagan joyga borish uchun sening kavushing ko'chada qolgan emas. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

KAVSH QAYTARMOQ nima? (hayvon) chala chaynab yutilgan yem-xashakni og'ziga qaytarib, shoshmay chaynamoq, kavshamoq.

Qo'nishdagi taqir yalanglikda ku-ni bilan to'yib o'tlagan qo'y-qo'zilar kavsh qaytarib yotar, haligi to'rt-ta it qo'radan nariroqda tillarini chapillatib yaloqdan atala ichar edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Behi daraxti-ning shoxida qator tizilgan tovuqlar, yong'oq tagida kavsh qaytarib yotgan sigir, hatto ayvon oldiga qator osil-gan chambaraklardagi chinni kosalar ham ko'rinib turibdi. S.Ahmad. Qadr-don dalalar.

KAYF(I) BALAND kimning? o'ta mast holatda.

Bugun to'rt shisha bo'shatildi. Ul-fatlarning kayfi baland. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

kayf(i) buzildi: kayf(i)ni buzmoq
KAYF(I) BUZUQ kimning? kay-fiyati yomon, xafa. Sinonimi: **ta'b(i) xira** kimning? **ta'b(i) tirriq** kimning?

Qizingizning kayfi buzuq. Biror nar-sadan qattiq xafa bo'lganga o'xshay-di. S.Anorboyev. Pushaymon. Jo'ra-ning kayfi buzuqligidan taajjublandi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KAYF(I) JOYIDA kimning? kay-fiyati durust, xafa emas.

Ammo mingboshining hozir kayfi joyida emas edi. Uning ishtirokidan tashqarida qilinayotgan bu ishlar izzati nafsini xo'rlamoqda edi. M.Is-moilij. Farg'ona tong otguncha.

KAYF(I) OSHDI kimning? o'ta darajada mast bo'lib qolmoq.

Polvonning ancha kayfi oshib qolgan edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Valixonning kayfi oshib, ko'zlari biyo-biyo bo'lib suzilardi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

KAYF(I) UCHDI kimning? – **KAYF(I)NI UCHIRMOQ** kim? yoki nima? kimning? qattiq cho'chish bilan qo'rqmoq. Varianti: **kapalag(i) uchdi** – **kapalag(i)ni uchirmoq**; **kampirag(i)ni uchirmoq**.

Qambarali aka tugunni yechdi, bir dasta nuqul yuz so'mlik pulni ko'rib, kayfi uchib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Ha, bolam, tuzukmisan? Odamning kayfini uchirib yubordingku.* S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi. *Kuchli zilzila haqidagi xabar hammaning kayfini uchirib yubordi.* So'zlashuv uslubi.

kayf(i) xush bo'ldi: kayf(i) dog' bo'ldi

kayf(i) xush: kayf(i) chog'

KAYF(I) CHOG' kimning? kayfiyati yaxshi. Varianti: **kayf(i) xush**. Sinonimi: **vaqt(i) chog'** kimning? **dimog'(i) chog'** kimning? **ko'ngil chog' (-)**.

Teshaboy esa, qaynatasining aksiga o'laroq, juda xursand, kayfi chog' edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Uning borishi Mirza Muhiddinning kayfi chog' vaqtiga to'g'ri keldi.* A.Qahhor. Sarob. *Uning kayfi xush emasdi: kecha ukasidan olgan xat uning ko'nglini g'ash qilar edi.* Oybek. Oltin vodiydan shabada-lar. *Eshaklarni haydab ikkovimiz sal orqaroqda kelyapmiz, qorinlar to'q, kayfimiz chog', qori pochcham ashula aytib kelyapti.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

KAYF(I) CHOG' BO'LDI kimning? nimadan? – **KAYF(I)NI CHOG' QILMOQ** nima? kimning? Varianti: **kayf(i) xush bo'ldi**. Sinonimi: **bahr(i)ni ochmoq nima? kimning?** yoki **kim? kimning? nima bilan?**

bahr(i) ochildi kimning? nimada? **dimog'(i) chog' bo'ldi** kimning? nimadan?

dimog'(i)ni chog' qilmoq nima? kimning?

Sherbek ishida ishkal chiqmay... kayfi chog' bo'lib qaytguday bo'lsa, albatta, uyida biror ko'ngilsizlikka duch kelmasdan iloji yo'q edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Bu narsalar uning kayfini chog' qildi shekilli.* S.Anorboyev. Do'stlar. *Unda bu mergan qizga egalik qilish ishtiyoqi tug'ildi.* Bundan kayfi ham xush bo'ldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

KAYF(I)NI BUZMOQ kim? – **KAYF(I) BUZILDI** kimning? 1 [o'zining] kayfiyatini o'zgartirmoq.

Savol zahri qanchalik o'tkir bo'lsa ham, G'ulomjon kayfini buzmasdi, og'ir turib gapira berdi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Mahdum ayvonga chiqib o'tirar chog'ida yana bir «astag'firullo» deb qo'ydi, chunki kayfi juda ham buzilgan edi.* A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

2 kimning? yoki [o'zining] kayfiyatini yomonlashtirmoq, xafa bo'lmoq. Sinonimi: **ta'b(i) tirriq bo'ldi** kimning? **ta'b(i)ni tirriq qilmoq** nima? yoki **kim? kimning?** – **ta'b(i) xira bo'ldi** kimning? – **ta'b(i)ni xira qilmoq** kim? yoki nima? kimning?

...Sayoz olgan joylaring ham bor. *Kunduzi ko'rsataman dedim-u, kayfing-*

ni buzmadim. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Yosh bola, xafa bo'lmang... Er-talabdan kayfingizni buz-mang.* Sh.Ri-zo. Qor yog'di, izlar bosildi. *U Sa-odatxonning nimadandir kayfi buzil-ganligini sezib turardi.* S.Zunnunova. Yangi direktor.

kayf(i)ni chog' qilmoq: kayfi chog' bo'ldi

KAYF(I)NI JOYIGA KELTIR-MOQ kim? kimning? xafaligini tarqat-moq.

Botir boshqa bir jiddiy masala ustida maslahatlashmoqchi edi. Shu-ning uchun uning kayfini joyiga kelti-rishni istardi: S. Nazar. Yashil boylik.

kayf(i)ni uchirmoq: kayf(i) uchdi

KAYFI CHOG'LIK QILMOQ kim? [kim bilan?] xursandchilik qil-moq, dilxushlik qilmoq. Sinonimi: **vaqti chog'lik qilmoq** kim? [kim bi-lan?]; **ko'ngil ochmoq I** kim? [kim bilan?].

Ora-sira kayfi chog'lik qilsam, ona bilan qizdan dakki yeganim-yegan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KAYFINI SURMOQ kim? ni-maning? yaxshi ta'siridan vujudi yay-rab rohatlanmoq.

O'shanda dehqon ko'klam, yoz bo'yi qilgan mehnatining kayfini su-rib, qimtinib, biroz junjikib uxlab qoldi. S. Abdulla. Iqbol. *Halol ishlab, turmushni gullatish, kayfini surish ke-rak.* Albatta, rohatni ichkilikdan qi-dirish bema'nigarchilik... Oybek. Ol-tin vodiyan shabadalar.

KAYFIYATI KO'TARILMOQ kimning? ruhiy holati ijobiy tomonga o'zgar-moq.

Odamlar jonlanib ketdi, hamma-sining kayfiyati ko'tarildi. X.To'xta-boyev. Sariq devni minib.

KEK SAQLAMOQ kim? [kim-ga qarshi?] yomonlik ko'rgani, dili og'rigani sababli ginaxon bo'lib yur-moq.

Men, men bu yaxshiliklaringizni tushunmasdan, ko'nglimda sizga qar-shi kek saqladim. A.Qahhor. *Qo'shchi-nor chiroqlari. UZR so'ramoqchimi-san? Men unaqa kek saqlaydiganlar-dan emasman.* S.Ahmad. *Hukm. Ha-qiqatan ham u kishining dargohi juda keng ekan, menga o'xshab bironvga kek saqlashni yomon ko'rar ekan.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

KEKIRDAG(I)NI CHO'ZMOQ kim? [o'zining] **1** shovqin solib, dab-dabali qilib gapirmoq.

Bo'ldi, bo'ldi, ko'p kekirdagingiz-ni cho'zmang! M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha.*

2 o'dag'aylamoq. Varianti: **kekir-dak cho'zmoq** kim?

«Sanamay sakkiz deb yurgan ekan-siz, korchallon keksa!» – kekirdagini cho'zib dedi Boqijon. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Menga nega kekirdak cho'zasan, tirmizak, oriya-ting bo'lsa, Anoringni og'dirib olgan-ga irilla.* I.Rahim. Ixlos.

kekirdak cho'zmoq: kekirdag(i)-ni cho'zmoq

keladi: qo'l(i)dan kelmoq

kesak otmoq: tosh otmoq

KET(I)DAN TUSHMOQ kim? kimning? qayerga borsa, zimdan ta'-qib qilib bormoq. Sinonimi: **iz(i) dan tushmoq** kim? kimning? **orqa(si) dan tushmoq 1** kim? kimning? **pay(i) dan tushmoq** kim? kimning?

Yusuf ketidan hech kim tushmaganiga ishonch hosil qildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

KET(I)GA TUSHMOQ kim? 1 kimning? zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq. Sinonimi: **iz(i)ga tushmoq I** kim? kimning? **orqa(si)ga tushmoq** kim? kimning? **pay(i)ga tushmoq 1** kim? kimning?

Go'yoki siz uning ketiga tushgan-mishsiz. ...sizning so'zingizga kirib, uni ishdan bo'shatgan emish. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Bir vaqtlar Alisher Navoiydek odamga maxfiylarini yuborib qo'ygan podshohlar Boburning ketiga ham odam qo'ygan bo'lishlari mumkin edi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

2 nimaning? manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qilmoq. Sinonimi: **pay(i)ga tushmoq 2** kim? nimaning?

Nasimjon aka idorada ustalga boshini tashlab, «xur-xur» uxlagani-uxlagan edi. Undan so'ng bozor-o'charning ketiga tushardi, yaxshi bo'ldi, biroz tanobi tortilibdi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

KETI UZILMADI kimlarning? uzoq vaqtgacha birin-ketin kelib tushmoq.

Kechqurunlari silliq salla o'ragan, shapka kiygan turli qiyofadagi mehmonlarning keti uzilmas, ba'zan pogonlilar ham kelar edi. A.Qahhor. Sarob. Shu bir necha kun ichida muhtojlarning keti uzilmadi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

KETIDAN QOLMASLIK kim? nimaning? mo'ljallagan ish-harakatini izchil davom ettirmoq.

«Tursun akam sustkashlik qilayotirlar», – dedi. «Mayli, shoshilmaymiz. Lekin uning [bog' barpo qilishning] ketidan qolmaymiz ham», – dedi Botir Bo'stonga boshdan oyoq bir qarab olgach. S.Nazar. Yashil boylik.

ketmoq: dunyodan ketmoq

KEZI KELGANDA zaruriyat tug'ilib qolgan paytda. Varianti: **kezi kelsa.**

Kezi kelganda azamatlar miltiq bilan, granata bilan, temir parchalari bilan dushman ustiga otilar, to'zg'itar edilar. Oybek. Quyosh qoraymas. Dadam rahmatlining qo'li har hunarga epchil edi: kezi kelsa – pichoqchi, kezi kelsa – suvoqchi... Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

kezi kelsa: kezi kelganda

KECH KIRDI kunduz tugab, qorong'ilik tusha boshladi.

Kech kirib qoldi. Ular Senat maydoniga qadam qo'yishlari hamon Spassk minorasi bong urib yubordi. I.Rahim. Ixlos. Kech kirib, osmonda yulduzlarning ko'zi miltirab qolgandi. S.Ahmad. Hukm.

KECH QOLMOQ kim? mo'ljallangan paytdan keyin, kechikib qolmoq.

Keling, muncha kech goldingiz! H.H.Niyoziy. Tuhmatchilar jazosi. Chunki kelinning kech qolganligi haqida aytgan qistirma so'ziga Komilaning, go'yo eshitmagandek, beparvo qaraganini payqagandi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

kecha demay, kunduz demay: kechani kecha, kunduzni kunduz demay



kecha-kunduz demay: kechani kecha, kunduzni kunduz demay

kechani kecha, kunduzni kunduz demagan: kechani kecha, kunduzni kunduz demay

KECHANI KECHA, KUNDUZNI KUNDUZ DEMAY vaqt tanlamay, sutkaning istagan bo'lagida. Varianti: **kechani kecha, kunduzni kunduz demagan; kecha demay, kunduz demay; kecha-kunduz demay.**

Olti oy yoz, olti oy qish, kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qildi. G'.G'ulom. Eri bilan bas boylashgan xotin. Kecha demay, kunduz demay, yarim to'q, yarim och holda qilgan qora va og'ir mehnatlari uni oltmish yasharligida sakson yasharga aylantirgan edi. S.Ayniy. Qullar.

kechirmoq: bosh(i)dan kechmoq
KENG OLAM KO'ZIGA KO'RINMAY QOLMOQ [keʃ 'aläm közigä körinmäy qal=] tar. *kimning?* hayotda yashagisi kelmaslik.

Shu so'zni aytti, tig' urdi o'zig'a, Ko'rinmay qoldi keng olam ko'ziga. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

KIFTINI KELITIRMOQ [kim?] *nimaning?* boplab, qoyil qilib ijro etmoq (salbiy baholash bilan).

«Aytmoqchi... haligi otinchangiz qayoqda?» – «Kechirasiz, aka, gapingizga tushunmadim?!» – iljaydi Akram. «Haligi, Nazarovning qizichi». – «Nigora deng. Hazilniyam kiftini keltirasiz-a, aka. – Akram o'rni-dan dik etib turdi.– Hozir aytib kira-man». S.Anorboyev. Oqsoy.

KIM BILADI aniq aytib bo'lmaydi. Varianti: **kim biladi deysiz**

(...deysan); **kim bilsin.** Sinonimi: **xudo biladi.**

«Yo'q-e! Qo'y og'zidan cho'p olmagan bola-ya! Yanglishayotgandirsiz». – «Kim biladi, afandim. Balki yanglishayotgandirman». S.Ahmad. Hukm. Kim bilsin, balki u kishini titratuvchi mana shu baxtiyor ilhom minutlari uchun ham she'rni behad se-vib qolgandir. P.Qodirov. Uch ildiz.

kim biladi deysiz (... deysan): kim biladi?

kim bilsin: kim biladi

KIM KO'RGAN ro'para kelgan, tilga olingan har qanday kishi. Varianti: **kim ko'ringan.**

Xullasi, qarindosh-urug', mahalla, tanish-bilishlardan turtki yeyaverib xit bo'lib ketdim, nomim yomonlikka yoyildi, kim ko'rgan ta'na qilib ta'zir beradi. G'.G'ulom. Yodgor. Men adresniy stol emasmani, kim ko'ringan-ning turar joyini bilaversam. G'.G'ulom. Kim aybdor?

kim ko'ringan: kim ko'rgan?

KIM QO'YIBDI?! kimga? nima qilishni? lozim emas, loyiq emas.

«Jazzang! – dedi Sherbek ichida o'ziga-o'zi. – Er-xotinning o'rtasiga tushishni senga kim qo'yibdi?!» S.Anorboyev. Oqsoy. Sen gapirma! Senga kim qo'yibdi gapirishni! Usta Mavlonning o'g'lidan bir hovuch mayiz olganingni o'z ko'zim bilan ko'rgan-man! A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

KIMNI O'LDIRIBDI! nima? ol-sa olibdi-da, shu bilan katta yo'qotish sodir bo'larmidi!

Yigirma-o'ttiz qovun kimni o'ldiribdi! S.Ahmad. Qadr-don dalalar. Non

yemas sassiqpopishak, bir bosh savil uzum kimni o'ldiribdi! Qiztaloq, shunday ham baxil bo'lasanmi?! S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi.

kimning tobi bor?!: tob(i) bor-mi?! II

KINDIG(I) BIR kimning? kim bilan? yaqin tug'ishgan.

Mamasaid bilan sizning kindigingiz bir emas. Qo'ya bering uni. P.Tur-sun. O'qituvchi.

KINDIG(I) KESILGAN kimning? tug'ilgan. Sinonimi: **kindik qon(i) to'kilgan** kimning?

Baliq deb kindigim kesilgan yerimdan, sirdosh bo'lgan elimdan ketarimdim?! A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

KINDIK QON(I) TO'KILGAN kimning? tug'ilgan. Varianti: **kindik qoni tomgan**. Sinonimi: **kindig(i) kesilgan** kimning?

U o'z istagi bilan ... keldi, chunki shu yerda uning kindik qoni to'kilgan. S.Anorboyev. Oqsoy. *Biz ham kindik qoni tomgan joydan ayrildik, amirzodam. Musofirlik taqdirimizda bor ekan. So'xda ham musofirmiz.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

KINNA KIRDI kimga? yoki nimaga? suqlanib qarash natijasida kassallanmoq.

Lohas bo'lib ketyapman, kinna kirganga o'xshaydi. So'zlashuv uslubi. *Qarasam, tepamda o'sha Zumrad parixon shang'illab allaqanday turturiqsiz narsalarni o'qimoqda, ovozi kinna kirgan laycha kuchukning ovozigga o'xshab ketar edi.* G'.G'ulom. Shum bola. – *Kinna kirgan bolangga! – dedi buvijonim go'shtsiz, g'adibudur kaftini Dononing peshonasiga*

qo'yib, – bor, Sora kampirni aytib kel. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

kiprik qoqmaslik: mijja qoqmaslik
KIRMAGAN TESHIGI QOLMADI yoki **KIRMAGAN TESHIGI YO'Q** kirmagan, yo'liqmagan joyi qolmadi; hamma joyga kirib, suqilib yuradi.

Kirmagan teshiging yo'g'-a, Shokir, hamma joyni besh qo'lday bilasan. So'zlashuv uslubi.

KISHI BILMAS boshqalarga aytmay ish qilish, biron kishi xabardor emas.

Bandamiz, aylanay, kishi bilmas qancha aybimiz bor, faqat Alloh biladi. So'zlashuv uslubi.

kishi ko'rsin uchun: xo'ja ko'rsinga

kishi qo'ymoq: odam qo'ymoq

KICHIK FE'L har qanday topshiriqni yaxshi-yomon demasdan bajarib ketaveradigan.

To'lamat mo'ylov hali ham o'sha o'sha kichik fe'l: bu mening vazifamga kirmaydi deb o'tirmaydi. S.Anorboyev. Oqsoy.

KICHIK KO'NGIL kim? kishining diliga ozor berishni istamaydigan.

Agar bunaqa xotinlarning so'ziga quloq solsangiz, nimalarni gapirmaydi. ... xo'p kichik ko'ngilku-ya, hissasi bu yoqdan chiqqanda! S.Zunnunova. Ko'ngil.

KICHIK TO'Y qiz bilan yigit unashtirilishi munosabati bilan yigit tomon qiznikiga yuboradigan oziq-ovqat va sovg'a-salomlar, shu kuni o'tkaziladigan ziyofat.

Anav vaqtda patir ushatildi degan edingiz, bugun kichik to'y kelayotgan

emish, shunga ketyapman. Oydin. Shirin keldi.

KOMIGA TORTMOQ nima? [o'zining] kimni? butun fikr-o'yini egalab, o'ziga tobe qilib olmoq.

Meni o'ch bilan shafqat, g'azab bilan marhamatning kurashi o'z komiga tortgan edi. G'.G'ulom. Yodgor. – Bizning Samarqanddagi dushmanlarimiz yetti boshli ajdarhoday zo'r edi. Bu ajdarho ne-ne qo'shinlarni komiga tortib yutib yuborgan. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

KOMIL ISHONCH BILAN mutlaqo amin bo'lgan holda.

«Xudo xohlasa, faranglar kunfayakun bo'ladi», – dedi komil ishonch bilan. S.Anorboyev. Oqsoy.

KOR(I)GA YARAMOQ kim? yoki nima? kimning? biror hojat-eh-tiyojini bartaraf qilishda yordamlashmoq.

Sen uzoqda turib ham bizni unutmading. Zarur paytda osmondan kelib, korimizga yarading. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Agar qadaming qutlug' bo'lsa, u yerdan bironta shofyorni yollab, yap-yangi mashinaga minib qaytasan, paxta tashishda rosa korimizga yarar edi-da. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KOSA TAGIDA NIMKOSA sir saqlangan, yashirin fikr-o'y, niyat. Varianti: **kosa tagidagi nimkosa**.

Mashinada u bilan yonma-yon o'tirib, «Demak, kosa tagidanim kosa bor ekan-da!.. Biz undan hech bir sirimizni yashirmaganda, bu bizdan sirlarini yashirib yuribdi!» – degan fikrni ko'nglidan kechirdi. O.Yoqubov. Ota izidan. «Ob-bo, – deb Temir

Akbarovich kosa tagidagi nimkosaga endi tushundi. – Mendan ham shamol esayotganini sezib, parragini to'g'rilab qolyapti». P.Qodirov. Uch ildiz.

kosa tagidagi nimkosa: kosa tagida nimkosa

KOSA(SI) OQARMADI kim? turmushi yaxshilanmadi, o'nglanmadi. Varianti: **kosa(si)ning tagi oqarmadi**.

Shaharga borib, zovud-povudga kirib ketgim bor, mullaka. Bu ishdan kosang oqarmaydi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. Ammo hech vaqt bechoraning kosasi oqarmasdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Sizlar bilan bo'lsam, kosamning tagi oqarmaydi...», – demaganmidi? S.Ahmad. Qaytish.

kosa(si)ning tagi oqarmadi: kosa(si) oqarmadi

KULACH YUZLI [köläch jüzli] tar. kim? istarali, kulib turgan. Sinonimi: **ochiq yuzli**.

Turush yuzlining alindan yegincha bol-u tar qaymoq, Kulach yuzlining alindan olib hanzal yesa xushroq. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KULI KO'KKA SOVURILDI nimaning? butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq. Varianti: **ko'kka sovurmoq II** kim? nimani? Sinonimi: **yer bilan yakson bo'lmoq nima? – yer bilan yakson qilmoq kim?** yoki **nima? kimni?** yoki **nimani?**

Keyin dushman butun qishloqning kulini ko'kka sovuradi, deb, bu fikrdan voz kechdilar. Oybek. Quyosh qoraymas. ... tinch xalqning uyiga o't qo'yib, xonumonini ko'kka sovurasan! Oybek. Quyosh qoraymas.

kuli ko'kka sovurildi: kulini ko'kka sovurmoq

KULNI O'Z KO'MACHIGA TORTMOQ *kim?* o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab ish qilmoq. Varianti: **o'z ko'mach(i)ga kul tortmoq.**

O'ktam dastlab indamadi, ichida o'yladi: «Balo chol bu, kulni o'z ko'machiga tortishni biladi!» Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Siz faqat o'z ko'machingizga kul tortar ekan-siz-da!* A.Qahhor. Yangi yer.

KUN BERMASLIK *kim? kim-ga?* chiqishtirmaslik; ta'bini xira qiladigan, osoyishtaligini buzadigan harakatlar qilmoq.

U qizlar bilan chiqisholmas, ular-ga kun bermas edi. S.Ahmad. Muhabbatning tug'ilishi. *Bu bilan ishlashga to'g'ri kelib qolsa, kun bermaydi.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Bu to'g'rida [ovsinining pardozi to'g'risida] hech kim og'iz ochmasa ham, ko'pincha Savri xola luqma tashlab, kun bermasdi.* R.Fayziy. Qaynana.

KUN BOTDI quyosh falakda ko'rinmay, hamma yoq qorong'ilashdi. Antonimi: **kun chiqdi.**

U kishi hozir dalada. Kun botgan-da keladilar. O. Yoqubov. Ota izidan. ... *besh kishi paxta tersa, o'n kishi gaplashib, papiros chekib, dam olib o'tirar va kun botishini kutar; «Qachon shaharga qaytar ekansiz?» – deb kun sanashar edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

KUN KETAYAPTI ish qilish mumkin bo'lgan vaqtni befoyda o'tkazmoq, vaqtdan unumli foydalanmaslik.

«Kun ketyapti, «Nabijon aka», tez-roq jo'nashimiz kerak, – dedi Zebixon,

– aravani tayyorlayvering». S.Zunnunova. Gulxan.

KUN KO'RMOQ *kim?* tirikchilik qilmoq, tirikchilik o'tkazmoq. Varianti: **kun(i)ni ko'rmoq II** *kim?* [o'zining], **ko'rgan kun(i) kimning?** Sinonimi: **kun(i) o'tdi kimning?– kun o'tkazmoq 2** *kim?*

Bu oila ana shu do'kon orqasidan bir navi kun ko'rar edi. S.Zunnunova. Gulxan. *Uy egasi uch xonani ijaraga qo'yib, shu hisobdan kun ko'radigan, hech qayerda ishlamaydigan beva xotin edi.* A.Muxtor. Dog'. *Ertaga o'g'irlab kelingan matodan o'ziga to'shak ... tikishi kerak. Ko'rgan kuni qursin!* S.Anorboyev. Oqsoy.

kun nayzaga keldi: oftob nayza bo'yiga keldi

kun o'tdi: kun(i) o'tdi

kun o'tkazmoq: kun(i) o'tdi


KUN OG'DI vaqt peshindan o'tdi, kechqurun boshlandi.

Kun og'ib, supaga soya qaytgan edi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Kun og'andan keyin yana qizlar, yosh ayollar kelishdi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Ular kelajak haqida orzu qilib, qanchadan-qancha rejalar tuzib, kun og'ib qolganini ham sezmadilar.* P.Qodirov. Uch ildiz.

KUN QORAYDI falakda yorug'lik o'rnini qorong'ilik oldi. Sinonimi: **qosh qoraydi; ko'z qoraydi.**

Tansiq va o'rtoqlari, kun qoray-guncha harna terib qolganimiz deb, ishdan qo'l uzmas edilar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KUN TARTIBI majlisda muhokamaga qo'yiladigan masalalar (*rasmiy*).



Men bu bilan damba masalasini kun tartibidan chiqarib tashlash kerak demoqchi emasman. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Berdiqulov yig'ilishni ochib, kun tartibini tasdiqlatib olgach, Botirga so'z berdi. S.Nazar. Yashil boylik.

KUN TUG'MASA [kün tʏma=] tar. quyosh chiqmasa.

Agar kun tug'masa ham yoqtu qilg'ay, Yuzung nuri bu dunyoning saroyin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KUN YO'Q *kimga?* tinchlik bermaslik, tinch hayot kechirishiga yo'l qo'ymaslik.

Zunnunov tumanni o'ziniki qilib oldi. Yaxshilarga kun yo'q. I.Rahim. Ixlos. Siz uyda yo'q vaqtlarda Hamdamingizning dastidan menga kun yo'q. A.Qahhor. Ayb kimda?

KUN YOYILDI quyosh nuridan atrof yoridi.

Ertasiga kun yoyilguncha gazeta butun qishloqni aylanib chiqdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Kellinposhsha, kun yoyilmasdan hovlilarni yaxshilab supurib oling. Mirmuhsin. Jamila.

KUN CHIQDI quyosh falakda ko'rinib, hamma yoq yorishdi. Antonimi: **kun botdi**.

Kun chiqdi. Ammo Ilichevka qishlog'i qorong'i: tutun va kukun ko'kka ko'tarilib, qishloq havosini bo'g'ib qo'rgan. I.Rahim. Chin muhabbat. Gazetalar kun chiqmasdan agitatorlarning qo'liga tegsin. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

kun kechirmoq: kun(i) o'tdi

KUN(I) BITDI *kimning?* umri poyoniga yetdi. Varianti: **kun(i) tugadi**.

Bir joyda nima debdi deng: «Kunim bitgan bo'lsa-yu, o'q tegsa, onajon deb yiqilarmikanman, Umrixon deb yiqilarmikanman?» A.Qahhor. Xotinlar. Agar Salomat kishloqqa kelsa, albatta, Nazirqulning kuni bitadi. S.Ahmad. Hukm. Kuni bitgan – o'zi ham sezib turibdi chog'i, faqatgina uning qoni evaziga qizillarning ehtiromiga sazovor bo'lish mumkin. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

KUN(I) QOLDI *kimning? 1 kimga?* biror ishni bajarishda qaram bo'lmoq.

Toza qaqajonlarga kuningiz qolibdi-ku, bolam. Oydin. Yuragida o'ti bor. Kunimiz bo'ydoqqa qoladiganga o'xshaydi, Qo'chqor. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 nimaga? foydalanishga majbur bo'lmoq.

«Avtomobilni buzib tashlab, endi tarvuz pallasiga kuning qoldimi?» – dedi u Qutlug'jonni quchoqlab. Oybek. Oltin vodiiday shabadalar. Hay, ishi nimasi, bolam, kunimiz sening topadigan pulingga qoptimi?! A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

KUN(I) TUG'DI *kimning?* – **KUN(I) TUG'ILDI** *kimning?* ko'ngildagi tilak armonni ro'yobga chiqarishga imkoniyat paydo bo'ldi.

Ovga ishqiboz yosh-yalangning kuni tug'di: tog'da don topolmay och qolgan kakliklar gala-gala bo'lib Oqsoy tomonga yopirilib tushdi. S.Anorboyev. Oqsoy. «Kompleks»liklarning kuni tug'ildi, ular maqtanmay, kim maqtansin. I.Rahim. Hilola.

kun(i) tug'ildi: kun(i) tug'di

KUN(I) YETDI *kimning?* o'ladi-gan vaqti keldi. Sinonimi: **paymona(si) to'ldi kimning?**

Bir vaqt kelib, dadamning kuni yetsa, Gulnorning churvaqalari bosh ko'taradi. Oybek. Qutlug' qon.

KUN(I) O'TDI kimning? – **KUN O'TKAZMOQ** kim? 1 vaqti o'tdi. Varianti: **kun o'tdi** (–); **kunni o'tkazmoq**.

Qurbon ota har bir foydali narsani chumoliday o'z choyxonasiga tashish bilan kuni o'tganini, horiganini bilmas edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Bugun-ku kunni bir amallab o'tkazdi. Ertaga nima qiladi?* S.Ahmad. Hukm.

2 tirikchilik qilmoq, tirikchilik o'tkazmoq. Varianti: **kun(i)ni o'tkazmoq** kim? [o'zining]; **kun kechirmoq.** Sinonimi: **kun ko'rmoq** kim?

Uka, bor boricha, yo'q holicha, ishqilib, bir kunimiz o'tib turibdi. Oybek. Qutlug' qon. *Turmushdan tajribangiz yo'q. Shuning uchun ham ko'zingizga kun o'tkazish oppa-osonday ko'rinadi.* S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

KUN(I)GA TUSHMOQ kim? kimning? kimgadir o'xshab yomon ahvolga duchor bo'lmoq.

U meni tashlaganda qanchalik dog'-u hasratda qolsam, men uni tashlaganda u ham mening kunimga tushmaydimi? M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

KUN(I)GA YARATMOQ kim? [o'zining] nimani? boshiga mushkullik tushganda kerak bo'lib qolmoq, ish bermoq.

Bilimdon yigit ekansan, bu bilimlaring, albatta, bir kunmas-bir kun kuningga yaraydi. O'.Azimov. Aql chirog'i. *Yon soatini sotdi. Ikki oltin*

tishini sugurtirib, kuniga yaratdi. S.Ahmad. Hukm.

kun(i)ga yaratmoq: kun(i)ga yaramoq

KUN(I)NI KO'RMOQ I kim? [o'zining] – **KUN(I)NI KO'RSATMOQ** kim? kimning? hal etilishi qiyin muammoga duch kelib azobda qolmoq.

«Bir omadim keldi-da, – derdi u nihoyatda quvonib.– Sizga tushgan savollar menga tushganda, kunimni ko'rar edim». P.Qodirov. Uch ildiz. *«Arz qilaman ustingdan... Kuningni ko'rsataman !.. Dod!..» – deb po'pisa qildi u.* I.Rahim. Chin muhabbat.

kun(i)ni ko'rmoq II: kun ko'rmoq

kun(i)ni ko'rsatmoq: kun(i)ni ko'rmoq I

kun(i)ni o'tkazmoq: kun(i) o'tdi

kun(i) tugadi: kun(i) bitdi

KUNINI BOSH(I)GA SOLMOQ kim? kimning? kimgadir o'xshatib yomon ahvolga duchor qilmoq.

U sening boshingga ham o'sha xotinning kunini soladi, turgan gap. S.Zunnunova. Ikkinchi xotin.

kunlardan bir kun: kunlardan bir kuni

KUNLARDAN BIR KUNI o'tgan kunlardan birida. Varianti: **kunlardan bir kun; bir kuni.**

Kunlardan bir kuni mahallada dud-dud gap bo'lib qoldi: «Muxtorxon domla uylanarmishlar!..» A.Qahhor. To'yda aza. *Bir kuni uyda zaborniyo'qoldi-yu, u Bekni juda qattiq savalladi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

kunni o'tkazmoq: kun(i) o'tdi

kurag(i) yer ko'rmagan: yelka-
(si) yerga tegmagan

KURAKDA TURMAYDIGAN 1
aytib bo'lmas darajada beibo («so'z»).

*Normathojining joni chiqib, tom-
dagilarni kurakda turmaydigan so'z-
lar bilan so'kib, haydab yubordi.* Oy-
din. Bechora.

2 butunlay nomunosib, noma'qul
(«gap»).

*Shu qiyin-qistovning ustiga kurak-
da turmaydigan qiziq ish bo'ldi.*
«Mushtum»dan.

KUYIB KUL BO'LMOQ kim?
ruhan azoblanishning eng yuqori nuq-
tasiga yetmoq.

*Iloji bo'lsa, shu Boymat akam-
dek boyoqish invalidga ham ketmon
tutqizsa! Do'stlarim, birpas quloq so-
linglar, men kuyib kul bo'lyapman.*
Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KUCH ISHLATMOQ kim? jis-
moniy zarba bermoq.

*Pyotr Mixaylovich meni chekkaga
chaqirib, «Kuch ishlatma», – dedi.*
*Uning gapi to'g'ri, ammo zo'rlik qil-
may bo'lmas edi.* I. Rahim. Olovkor.

KUCH KELMOQ [küč kel=] tar.
kimga? nima? og'irlik qilmoq, qiyin-
chilik tug'dirmoq.

*Ani ko'rmak menga ul qadar kuch
kelmas kim onasini ko'rmak kuch
kelur.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KUCH YOG'ILIB TURAR EDI
nimadan? baquvvat ekanligi yaqqol
ko'rinish turar edi.

*Yo'lda shamol yegan yuzi cho'g'-
day yonar, tuni bilan uxlamay, yo'l
qoqib qo'rgan bo'lsa ham, kanikul da-
vomida olgan dami birdan yuziga
chiqib, butun borlig'idan kuch yog'i-
lib turar edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

KUCH(I) YETADI kimning?
nima qilishga? amalga oshirishga jis-
monan yoki aqlan qodir bo'lmoq,
ojizlik qilmaslik. Sinonimi: **qurb(i)**
yetadi kimning? nima qilishga?

*Ko'p yer ekkani kuchim yetmay-
di. Oz yer eksam, o'zidan chiqqanini
o'ziga chaplab qarab tura beraman.*
A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.
«Otga o'ngarib olib qochishdan ham
toymayman». – «Kuchingiz yetmay-
di». S.Ahmad. Qadrdon dalalar. ... u
muhabbatda g'olib kelgan bir paytda
ojiz ko'rinishdan qo'rqmas, kuchi yet-
mayotgan narsalarni ochiq ayta olar-
di. P.Qodirov. Uch ildiz.

KUCHDAN QOLMOQ kim?
jismoniy quvvati eng past me'yoriga
yetmoq. Antonimi: **kuchga to'lmoq**
kim?

*Qurbon ota yana necha yillar
eshonning xizmatida bo'lib, bevaqt
kuchdan qoldi.* A.Qahhor. To'y. Meh-
ribon ota! Keksa, kuchdan qolgan,
madorsiz... Sh.Toshmatov. Erk qushi.

KUCHGA TO'LMOQ kim? jis-
moniy quvvati eng yuqori me'yori-
ga yetmoq. Antonimi: **kuchdan
qolmoq** kim?

*Axir odamni po'stin emas, ish qiz-
diradi, keksalikni unutib, yana kuch-
ga to'lib ketamiz.* I.Rahim. Chin mu-
habbat.

KUCHUNG YETKANINCHA
[küčünj jetkäninčä] tar. kim? imkoni
boricha.

*Yetkanincha kuchung ko'ngul yob-
qil, Kim xaloyiq senga duo qilg'ay.*
S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'k bilan o'pishgan: osmon bi-
lan o'pishgan

ko'kka ko'tarib: ko'klarga ko'tarib

KO'KKA KO'TARMOQ *kim? kimni? yoki nimani?* ortiq darajada maqtamoq.

Varianti: **ko'klarga ko'tarmoq; osmonga ko'tarmoq; osmonlarga ko'tarmoq**. Antonimi: **yerga urmoq** *kim? yoki nima? kimni? yoki nimani?*

U nega o'z dushmanlarini o'zi ko'kka ko'taradi? I.Rahim. Hilola. *Qani, sen hali ko'kka ko'targan talimot qaysi?* Oybek. Nur qidirib. *Menga choy uzatarkan, bozorni mingboshi ham ko'klarga ko'tardi.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Ba'zi odamlar ulkan haqiqatning soyali tomonlarini mana shunday uzib olib, «Chin haqiqat!» deb osmonga ko'taryapti.* P.Qodirov. Uch ildiz. *O'sha siz osmonlarga ko'targan, og'zidan ona suti ketmagan bolalargina har qanday falokatga yo'liqishi mumkin.* A. Muxtor. Tug'ilish.

KO'KKA SOVURMOQ I *kim? nimani?* behuda sarflamoq. Sinonimi: **shamolga sovurmoq** *kim? nimani?*

O'rtoqlari ko'p vaqt undan qarz so'rashardi. Saidg'ozi berib ahmoqmi?! Bergani bilan, bari bir, ko'kka sovurishadi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Pul deganni topish qiyin, ko'kka sovurish oppa-oson.* O'.Azimov. Aql chirog'i.

ko'kka sovurmoq II: kulini ko'kka sovurmoq

KO'KLARGA KO'TARIB ortiq darajada, benihoya («maqtamoq»). Varianti: **ko'kka ko'tarib; osmonlarga ko'tarib; osmonga ko'tarib**.

Yana buni yurak stixiyasi deb ko'klarga ko'tarib maqtaydiganlar bor. P.Qodirov. Uch ildiz. *Ana shunda, qarabsizki, bizni osmonga ko'tarib maq-*

taydilar. M.Muhamedov. Qahramon izidan.

ko'klarga ko'tarmoq: ko'kka ko'tarmoq

KO'KRAG(I) TOG'DAY KO'TARILDI *kimning?* xursand bo'lib, benihoya ruhlanmoq. Varianti: **ko'ks(i) ko'tarildi**. Sinonimi: **ko'ngl(i) tog'day ko'tarildi** *kimning?*

Siz katta sovg'a tayyorlab qo'ygan ekansiz. Xursand bo'ldim. Ko'kragim tog'dek ko'tarildi. Oybek. *Quyosh qoraymas. Cho'ntagida puli bo'lsa, ko'kragi tog'day ko'tarilib yuradi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Bu ota mashina minsa, hammamizning ko'ksimiz ko'tariladi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KO'KRAG(I)DAN ITARMOQ *kim? yoki nima? kimning?* yaqin munosabatda bo'lmaslikka harakat qilmoq.

Nigoraga uning nimasidir yoqmas, nimasidir ko'kragidan itarar edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'krag(i)ga o't solmoq: yurag(i)ga o't solmoq

ko'krag(i)ga shabada tegdi: ko'krag(i)ga shamol tegdi

KO'KRAG(I)GA SHAMOL TEGDI *kimning?* mashaqqatli kunlardan keyin huzur-halovat ko'ra boshlamoq. Varianti: **ko'krag(i)ga shabada tegdi**.

Axir yoz bo'yi ishladi, qishda sal ko'kragiga shamol tegsin. G'.G'ulom. Jo'rabo'za. *Shuning uchun boring deymanda; yuragi sog' odamlarni ko'rsangiz, ko'kragingizga shabada tegsa, butkul tuzalib ketsangiz, ajab emas.* A.Qahhor. Og'riq tishlar.

KO'KRAG(I)GA URMOQ *kim?* [o'zining] chapnichasiga pisanda qilmoq. Varianti: **ko'krakka urmoq** *kim?*

Qachondan beri u «Men» deb ko'kragiga uradigan bo'lib qoldi? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Gunohim yo'q, aybsizman deb ko'krakka urgan bilan ish bitmaydi.* S.Ahmad. *Hukm.*

KO'KRAGINI (yoki **KO'KSINI, BAG'RINI, O'ZINI**) **QALQON QILMOQ** jonini ham ayamay qo'riqlamoq, ko'ksini tutib himoya qilmoq, daf etmoq.

Ana shu yillarda Xolmat Rajabov dushmanlarga ko'kragini qalqon qilganlardan. N.Safarov. Olovli izlar.

KO'KRAK KERIB o'z ko'ksini qalqon qilgan holda.

Bu muqaddas joyni ko'krak kerib himoya qilish uchun va'da berganlar. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

KO'KRAK KERMOQ *kim?* yelkalarini yonga surib, ko'ksini olg'a chiqarib, faxrlanganini, g'ururlanganini bildirmoq.

Ana shunda bu qurilishga mening ham hissam qo'shilgan deb, bema'lol ko'krak kera olishi mumkin ekan. M.Muhamedov. Yurak so'zlari.

ko'krakka urmoq: ko'krag(i)ga urmoq

ko'ks(i) ko'tarildi: ko'krag(i) tog'day ko'tarildi

KO'KS(I)NI DOG'LAMOQ *kim?* *kimning?* sevimli kishisidan judo qilib, ruhiy azobga duchor qilmoq.

Qizin tortib olib, ko'ksini dog'lab, Ketirsak begunoh ko'plarni bog'lab, Shu ham ish bo'ldimi?! S.Abdulla. *Alpomish.*

KO'KS(I)NI QALQON QILMOQ *kim?* [o'zining] har qanday zarbaga o'zini ro'para qilmoq.

Hammasi ko'ksini qalqon qilib turibdi Bo'riyev uchun! A.Muxtor. *Tug'ilish.*

KO'KSINI O'RTAMOQ *kimning?* azoblamoq.

– *Bek, – dedi Saidmurod ponsod yigitlardan ancha ilgarilab ketib, ikkalasi yolg'iz qolishganda, – hali tarqamagan alamzadalikni chuqurlashtirishga ko'nglida behad istak tuyub. – Sizga aytish noo'rin bir gap ko'ksimni o'rtayotir... Sh.Bo'tayev. Qora tuman.*

KO'LANKASI QOLIBDI *nimaning?* o'ta darajada oriqlamoq, ramajijon bo'lib qolmoq.

Qo'zilar erkin o'ssin deb qo'yib bersak, ular onalarini olti oy muttasil so'radi. So'rila-so'rila ko'lankasi qolgan sovliq nimaga yaraydi? S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'p ko'rmoq: xudo ko'p ko'radi
KO'P QON OQITMOQ [kop qan aqit=] tar. *kim?* ko'p odamni qatl qilmoq.

Qo'zutti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

ko'p qovun pishig'i: yetti qovun pishig'i

KO'P SUVLAR OQDI anchagina o'zgarishlar sodir bo'ldi. Varianti: **qancha suvlar oqib o'tdi!**

Ammo bu ikki yil orasida ko'p ishlari bo'ldi, ko'p suvlar oqdi. S.Ayniy. *Qullar. Bu mojarolar bo'lib o'tganiga ham ancha bo'ldi, ko'p suvlar oqib ketdi.* O.Yoqubov. Ota izidan. *Ha...*

Almisoqdagi gapni qo'zg'ayapsanmi? Ammo undan beri qancha suvlar oqib o'tdi! O.Yoqubov. Uchrashuv.

KO'PGA KELGAN TO'Y ko'pchilikning boshiga tushgan ish.

«Ota, – dedi Salim jerkib,– bu narsa ko'pga kelgan to'y. O'g'lingiz nihoyati bir necha oy ishlab qaytadi». Oybek. Qutlug' qon. *«Xafa bo'lmang, To'xta xola, ko'pga kelgan to'y, – dedi Bozorov uning ko'nglini ko'tarish uchun.– Qani endi bizni ham chaqirsa, biz ham frontga ketardik».* I.Rahim. Chin muhabbat.

KO'PI KETIB, OZI QOLDI *ni-maning?* kutish muddatining yarmidan ortig'i o'tdi, kelish vaqti yaqinlashdi.

«Baraka topsin, salomat bo'lsin, – dedi Xosiyat xola,– o'qishi ham tugab qolgandir?» – «Ha, ko'pi ketib ozi qoldi». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *«Qachon kelishlarini ayta qolsalar-u...» – «Mayli, bolam, shunisiga ham shukur, – dedi yupatib buvisi. Mana, ko'pi ketib, ozi qolibdi. Salomat bo'lsa, hademay diydor ko'rishamiz...»* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

KO'PIK SOCHMOQ *kim? kim-ga?* tupuklarini sachratgan holda dag'dag'a qilmoq.

Cho'zinchoq yuzi oqarib, dam qizarardi; sochlari to'zg'ib, ter bilan yuz-ko'ziga yopishganча ochiq sakvoyajini silkib turib vagondagilarga ko'pik sochdi: «Bunday elementlarga qarshi jamoatchilik fikrini uyg'otish kerak». A.Muxtor. Tug'ilish.

KO'PNI KO'RGAN turmush tajribasi boy, hayotning past-balandini biladigan.

Siz ko'pni ko'rgansiz. Sizni eshit-sak, aqlimizga aql qo'shiladi. S.Anor-boyev. Oqsoy. Qop-qora chayir yuzidan, iyagidagi qiyg'och ketgan pichoq izidan, g'alati, qayg'uli, lekin shafqatsiz, ayyor ko'zlaridan yosh boshi bilan ko'pni ko'rganligi bilinib turardi. A.Muxtor. Tug'ilish.

ko'rarga ko'z(i) yo'q: ko'rgani ko'z(i), otgani o'q(i) yo'q

ko'rgani ko'z(i) yo'q: ko'rgani ko'z(i), otgani o'q(i) yo'q

KO'RDIM DEMASLIK *kim? nimani?* sira qiynalmasdan bajarmoq.

Ana shu Ahmadjon – mehnatda chiniqqan, uncha-muncha og'ir mehnatni ko'rdim demaydigan shu yigit ham toliqar, ba'zan otga o'xshab tikka turgan joyida pinakka ketar edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

ko'rgan kun(i): kun ko'rmoq

ko'rgan tush(i): tush ko'rmoq

KO'RGANI KO'Z(I), OTGANI O'Q(I) YO'Q *kimning? kimni?* o'taketgan darajada yomon ko'rmoq. Varianti: **ko'rgani ko'z(i) yo'q; ko'rarga ko'z(i) yo'q; ko'rishga ko'z(i) yo'q.**

Hozir Xolmirzaning o'z bojasini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q edi, shuni sezib qoldi polvon. H.Nazir. Odamning qadri. Qo'ying! Oson turmush qidiruvchilarni ko'rgani ko'zim yo'q! O.Yoqubov. Tog' qizi. Ba'zilar, ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba'zilar esa aksincha gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko'payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko'rishga ko'zlari, otishga o'qlari yo'q, deyisharkan. Sh.Bo'tayev. Haykal.

KO'RGILIG(I)NI KO'RSATMOQ *kim? kimning?* juda og'ir mashaqqatni, tahqirlashlarni boshidan kechirishga olib kelmoq. Sinonimi: **it kunini bosh(i)ga solmoq** *kim? kimning?*

Orqangdagi qirilgan g'o'zalar-ga qara. Maydonda g'o'za qolyaptimi yoki bedadek o'ryaptimi?! Sodiq, boshing baloga qoladi. Ko'rgiligingni ko'rsatadi, Umarali. I.Rahim. Ixlos.

ko'rishga ko'z(i) yo'q: ko'rgani ko'z(i), otgani o'q(i) yo'q

KO'RPA(SI)GA QARAB OYOQ UZATMOQ *kim? [o'zining]* imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq. Varianti: **ko'rpaga qarab oyoq uzatmoq** *kim?*

Ha, onang ko'rpasiga qarab oyoq uzatsin, uqdingmi? Oybek. Qutlug' qon. «...keyin mablag' yetkazolmay, qurilishingiz o'lda-jo'lda qolib ketmasin tag'in, o'rtoq ...». – «Ko'rpang-ga qarab oyoq uzat demoqchisiz-ku, – deb kuldi Sherbek. S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'rpaga qarab oyoq uzatmoq: ko'rpa(si)ga qarab oyoq uzatmoq

KO'RPA-YOSTIQ QILIB YOTMOQ *kim?* kasalga jiddiy chalinib, o'rnidan turolmay qolmoq.

Ota mehri-ga qonmagan go'dak jajji qo'llarini uzatib, besh-olti qadamni yiqilib-turib bosadigan bo'l-ganda Ahmad aka ko'rpa-yostiq qilib yotardi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

ko'rsatib qo'ya(man): ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq

ko'rsatmasin: xudo ko'rsatmasin

KO'TARA SAVDO QILMOQ *kim?* bor gapni iymanmay, ochiq-oydin aytmoq.

«Undan keyin, – dedi yana ham tutaqib va ko'tara savdo qilib, – onayi zorini, vafodor xotinini qadrlamagan insondan nima karomat kutib bo'lardi!» H.Nazir. Odamning qadri.

KO'YGA SOLMOQ *nima? kimni?* ma'lum harakat-faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qilmoq, ma'lum holatga tushirmoq

Nahot bu odamni faqat Usmonjon masalasi, faqat nafsoniyat shu ko'yga solgan bo'lsa?! A.Qahhor. Sinchalak. Kambag'alchilik odamni ne ko'yga solmaydi! M.Ismoilii. Farg'ona tong otguncha.

ko'z (i)ning ola-kulasi chiqib ketdi: ko'z(i) ola-kula bo'lib ketdi

KO'Z [LAR](I)NING PAXTASI CHIQDI: *kimning?* – **KO'Z[LAR](I)NING PAXTASINI CHIQARMOQ** *kim? [o'zining]* g'azabi ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi. Sinonimi: **ko'z[lar](i) qinidan chiqib ket[a-yoz]di 1 kimning?**

Rangi quv o'chib, yupqa lablari tibrab, ko'zlarining paxtasi chiqib ketdi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. «Yana aravami?» – dedi Qodir aka, ko'zining paxtasi chiqib. I.Rahim. Chin muhabbat. «Nega o'ldirding?!» – ko'zlarining paxtasini chiqarib qichqirdi Xo'jabekov. S.Anorboyev. Oqsoy. Iye, nega? – boshqalarning ham ko'zlarining paxtasi chiqib ketayozdi. Sh.Bo'tayev. Haykal.

ko'z bo'yamoq: ko'z(i)ni bo'yamoq

KO'Z ILG'AMAS I bilinar-bilinas, mayda.

Ko'z ilg'amas qurt-qumursqalarining, chigirtkalarining chirillashi go'yo allalaydi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Uning kichkinagina o'z hayoti buning oldida ko'z ilg'amas bir qatraday edi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

KO'Z ILG'AMAS II cheksiz, poyoni ko'rinmaydigan.

Bir tomoni – ko'z ilg'amas cho'l, bir tomoni – yashil dalalar... S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Nihoyat, balandlikdan oshib, etagi ko'z ilg'amas uzoqlarga tutashgan va quyoshda ko'm-ko'k yongan maydonga tushdi yigit.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KO'Z ILG'AMAYDI nimani? poyoni ko'rinmaydi.

...hozir shu yerdan qaraganda ko'z ilg'amayotgan necha ming gekterni tashkil etgan qirg'oqlarni ham qoplab oladi. R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Na boshi, na etagini ko'z ilg'amaydigan tog' oralig'ida...* S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'z ilg'ardi: ko'z(i) ilg'amaydi

ko'z ilindi: ko'z(i) ilindi

KO'Z KO'R, QULOQ KAR BO'LMOQ [köz – kör, qulaq kar bol=] tar. *nimadan?* hayratlanmoq.

Temur Urganja tortib keldi lashkar, Ko'rub ko'z – ko'r, bo'lib qoldi quloq – kar. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

KO'Z KO'RMAGAN, QULOQ ESHITMAGAN mutlaqo noma'lum, notanish, hech kim bilmaydigan.

Ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan joylarda bo'layotgan urush xalqning boshiga kulfat ustiga kulfat soldi. P.Tursun. O'qituvchi.

ko'z ochgani qo'ymaslik: ko'z ochirmaslik

KO'Z OCHIB KO'RGAN birinchi nikohiga olgan (asosan ayol nutqida ishlatiladi).

Qimorboz bo'lsayam, ko'z ochib ko'rganim edi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. *Darvoqe, Sheralini ona yurtidan bu yerga... ko'z ochib ko'rganining vataniga taqdir boshlab kelgan edi.* M.Muhamedov. Kichik garnizon.

KO'Z OCHIB YUMGUNCHA juda qisqa muddatda, tezda. Sinonimi: «**hash-pash**» **deguncha;** «**ha-hu**» **deguncha.**

Umr degan narsa ko'z ochib yumguncha o'tib ketar ekan. Mirmuhsin. Jamila. «*Shu yerdan, naq shu yerdan Shayxantovurgacha qanchada borasiz?*» – biri jiddiy so'radi. – «*Ko'z ochib yumguncha*». Oybek. *Qutlug' qon. Ko'z ochib yumguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo'ldi.* A.Qahhor. Bashorat.

ko'z ochildi: ko'z(i)ni ochmoq

KO'Z OCHIRMASLIK kim? kimga? yoki [kimni?] biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib, tinchlik bermaslik; qattiq siquvga olmoq.

Hamma meni jinoyatchi deb barmoq o'qtalib ko'rsatayotganday... Ayniqsa Mehrining onasi menga ko'z ochirmaydi. G'.G'ulom. Yodgor. *O'sha qish Sherbek uni ko'z ochirmaydi: «Tormoz joyidami?» – deb so'rab qo'yadi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Ayniqsa keyingi kunlarda To'laganjon Farmonovlar qo'ygan odam ko'z ochirmayotganini ham aytdi.* Mirmuhsin. Jamila.

ko'z ochmoq: ko'z(i)ni ochmoq
KO'Z OLAYTIRMOQ kim? 1
kimga? o'qraymoq.

Jalilov yotgan yerida Nusratga bir ko'z olaytirib qaradi. S.Nazar. Yashil boylik.

2 nimaga? yoki kimga? o'z manfaatiga bo'ysundirish (olish) niyatida bo'lmoq.

Odamning hayvoni kishi haqidan qo'rqmaydi, kishi moliga ko'z olaytiradi. Oybek. Qutlug' qon. O'zimizning Qori akaning qiziga, singlimizdek Adolatxonga ko'z olaytiramizmi? Uyat bizga bu ishlar! I. Rahim. Chin muhabbat.

KO'Z OLD(I) QORONG'I-LASHDI kimning? qo'rqvudan, vahimadan bir on ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq. Varianti: **ko'z oldi qoraydi** – **ko'z o'ngini qoraytirmoq** nima? kimning?

Boshida butun g'ayrati, saxiyligi bilan porlagan qadrdon quyosh go'yo bir zumda so'ndi-yu, uning ko'z oldi qorayib ketgandek bo'ldi. Faqat yaqindan eshitilgan yangroq tovush uni o'ziga keltirdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Yo'q, u shu qilmishi, shu bir og'iz so'zi bilan o'zini do'zaxda kuyayotgan his qildi, bu his uni o'tdan olib o'tga soldi, ko'z o'ngini qoraytiradi, vujudini titratib, rangini bo'zartirdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

KO'Z OLD(I)DAN KETMASLIK kim? yoki nima? kimning? tasavvurida saqlanib turmoq, xotirasidan yo'qolmaslik. Varianti: **ko'z o'ng(i)-dan ketmaslik.**

Yig'lab chiqib ketgan Gavhar hech ko'z oldidan ketmayapti, uni shu zar-

badan pana qilolmagani uchun, hech bo'lmasa orqasidan chiqib, ko'nglini ko'tarmagani uchun ichini mushuk tatalayapti. P.Qodirov. Uch ildiz. Gimnastyorkani o'ziga yopishtirib turgan keng ko'krak, shimarilgan yengi tirsillab turgan baquvvat bilaklar, quyuyq qora qoshlar Yulduzxonning ko'z oldidan nari ketmasdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

KO'Z OLD(I)DAN O'TKAZMOQ kim? nimani? yoki kimni? tasavvurida ketma-ket gavdalanmoq. Varianti: **ko'z o'ng(i)dan o'tmoq** – **ko'z o'ng(i)dan o'tkazmoq.**

Butun boshidan kechirganlari birin-sirin ko'z oldidan o'ta berdi. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha. Bu orada u kechagi oqshomning eng quvonchli damlarini ko'z oldidan bir-bir o'tkazardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

KO'Z OLD(I)GA KELMOQ nima? yoki kimning?

KO'Z OLD(I)GA Keltirmoq kim? [o'zining] nimani? yoki kimni? tasavvurida gavdalanmoq.

KO'Z OLD(I)DAN O'TKAZMOQ: ko'z old(i)dan o'tmoq

KO'Z OLD(I)DAN O'TMOQ nima? yoki kim? kimning?

Varianti: **ko'z o'ng(i)ga kelmoq** – **ko'z o'ng(i)ga keltirmoq;** **ko'z(i)ning oldiga kelmoq.**

Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. A.Qahhor. Bemor. Of-tobda qoraygan yuzida doimo kishini o'ziga maftun qiluvchi kuldirgichi bor qiz ko'z oldimga keldi... S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

ko'z old(i)ga keltirmoq: ko'z old(i)ga kelmoq

ko'z oldi qoraydi: ko'z oldi qorong'lashdi

ko'z olmaslik: ko'z(i)ni olmoq

ko'z ostidan: ko'z tagidan

ko'z ostiga olmoq: ko'z tagiga olmoq

ko'z qamashadi: ko'z(i) qamashdi

KO'Z QIR(I) kimning? tez va sezilar-sezilmas qarash.

Ko'z qirimdan qaltirayverasan. Mayli, hozir erkalik qilib qol. Senga g'animat bu. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KO'Z QIRI BILAN yon tomonga sezdirilmagan holda qarab. Varianti: **ko'z(i)ning qiri bilan.**

Muhiddin o'tirishi bilanoq ko'z qiri bilan Yulduzxonni qidira boshladi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Saidiy Salimxonning intihosiz jovrashiga quloq berar ekan, payt poylab ko'zining qiri bilan Munisxonga qarab qo'yar edi. A.Qahhor. Sarob.

KO'Z QIRINI TASHLAMOQ kim? kimga? yoki nimaga? tez va sezilar-sezilmas qaramoq. Varianti: **ko'z(i)ning qirini tashlamoq** kim? [o'zining] kimga?

Bo'taboy nima deyishini bilmay, yordam so'rab Safarovga ko'z qirini tashladi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Xo'sh, nima beray? – deb so'radi sotuvchi uning qo'lidagi pulni ko'rgan zahotiyoy chap qo'lga olgan qog'ozni o'ng qo'li bilan karnayday o'ray boshlab, talabani ortidan kirib kelgan Tolikka ko'z qirini tashlab qo'yarkan. Sh.Bo'tayev. Qarz.

KO'Z QISMOQ 1 kimlar? o'zaro ko'zini yumib-ochish ishorasi bilan

biror fikrda birdamligini bildirmoq. Varianti: **ko'zlar(i)ni qismoq** kimlar? o'zaro [o'zlarining].

Qizlar bir-birlariga qarashib oldilar, Buvinisoga qarab ko'z qisdlar. Oydin. Yuragida o'ti bor. Qizlar bir-biriga qarashib, ko'zlarini qisishib qo'yishdi. I.Rahim. Chin muhabbat.

2 kim? kimga? ko'zini yumib-ochish ishorasi bilan voqelikka, fikrga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bildirmoq.

Qurbon ota Siddiqjonga qarab, «Vahima qilayotibdi» degan mazmunda ko'z qisdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

3 kim? kimga? ko'zini yumib-ochish ishorasi bilan ma'lum bir fikrni ataylab, sinash uchun aytayotganini bildirmoq.

«Qo'y-e, – dedi Burgut menga ko'z qisib qo'yib, – bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur. Ha, do'st! Pismiqsan, Yog'och!» S.Ahmad. Cho'l burguti. Qumriniso Sobiraxonga ko'z qisib, «O'yin-kulgimizning boshi Bahrixonning to'yi bo'ladi», – dedi. A.Qahhor. Xotinlar.

4 kim? kimga? ko'zini yumib-ochish ishorasi bilan intim aloqada bo'lish istagini bildirmoq.

Har kuni mingta odam bilan javobmuomala qiladi; axir bittasi bo'lmasa bittasi ko'z qisadi-da! A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

ko'z qiymas: ko'z(i) qiymadi

ko'z qiymaydi: ko'z(i) qiymadi

ko'z qiymaydigan: ko'z(i) qiymadi

KO'Z QORACHIG'(I) kimning? yakka-yu yagona va qadr-qiymati beqiyos yuksak kishisi. Varianti: **ko'z(i)ning qorachig'i**. Sinonimi: **ko'z(i)ning oq-u qorasi kimning?**

Jamila xolani tashvish bosdi. Bitta-yu bitta ko'z qorachig'i. Biror joyi og'riyaptimikan? S.Anorboyev. Puschaymon.

ko'z qorachig'iday: ko'z qorachig'idek

KO'Z QORACHIG'IDEK o'ta darajada avaylab, g'amxo'rlik ko'rsatib. Varianti: **ko'z qorasidek**.

Turna bola ochdi va ularni ko'z qorachig'iday asrab, tarbiyalay boshladi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Har chigitni ko'z qorasidek avaylab kuzgacha..* S.Abdulla. Paxtakor juvonga.

ko'z qorasidek: ko'z qorachig'idek

KO'Z QORAYDI falakda yorug'lik o'rnini qorong'ilik oldi. Sinonimi: **kun qoraydi; qosh qoraydi**.

Iqbol piyoz o'toqdan ko'z qorayganda keldi. S.Abdulla. Iqbol. *Ko'z qoraygach, Halim eshon yetib keldi.* I.Rahim. Olovkor.

ko'z solmoq: nazar solmoq

KO'Z SUZMOQ kim? kimga? e'tiborini jalb etish maqsadida noz-karashma bilan qaramoq.

«Nuqul atlas-u giripdishin kiyib, tovusday yaltiragan qizlar bilan bog'to'lib ketadi. Bilaman, bari o'g'limga ko'z suzadi». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *«Voy o'lmasam, anovining ko'z suzishiga qara-ya!»* – dedi Shakarxon Adolatni turtib. I.Rahim. Chin muhabbat.

KO'Z TAGIDAN yashiriqcha, sezdirmay, zimdan («qaramoq»). Va-

rianti: **ko'z ostidan**. Sinonimi: **yer ostidan**.

Botir bilan Bo'ston ko'z tagidan bir-biriga qarab kulib qo'ydi. S.Nazar. Yashil boylik. *K.arim polvon ko'z ostidan qarab, «Jo'nadilar», – deb kulib qo'ydi.* S.Nazar. Yashil boylik.

KO'Z TAGIGA OLMOQ kim? kimni? yoki nimani? biror maqsad bilan ko'zlab qo'ymoq. Varianti: **ko'z ostiga olmoq**.

Butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog'da boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'rgan edi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'Z TASHLAMOQ kim? nimaga? yoki kimga? qisqa muddat qaramoq. Varianti: **nazar tashlamoq; nigoh tashlamoq**.

Stol ustida to'dalanib qolgan gazetalariga ko'z tashlagan edi, ko'zi telegrammaga tushdi. Mirmuhsin. Hayotga qaytish. *Siddiqjon qip-qizarib ketdi va Zunnunxo jaga «Gapirsangiz-chi!» degan mazmunda nazar tashladi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. U oynaga yana bir nigoh tashladi: ingichka, uzun qoshlar kamalagi tagidan xumor qora ko'zlar suqlandi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Qizga bir achinish bilan termildi, mushfiq bir nigoh tashladi.* G'.G'ulom. Netay.

KO'Z TEGDI kimga? yoki nimaga? ko'zikmoq. Varianti: **ko'z(i) tegdi** kimning? kimga? yoki nimaga?

Ko'z tegmasin. Ajoyib kelinginam bor-da... S.Abdulla. Muqimiy. *Tekis unibdi, barvaqt ekkannarnikidan durust, ko'z tegmasin, qizlarim.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Uning eriga mening ko'zim tekkan emish.* I.Rahim. Chin muhabbat.

KO'Z TIKMOQ kim? 1 kimga? yoki nimaga? yoki qayerga? tikilib qaramoq. Varianti: **ko'z(i)ni tikmoq** kim? [o'zining] kimga? yoki nimaga?

Gavhar bu odamlarga ko'z tikib borardi. Ana u kassaning oldida turgan kim? P.Qodirov. Uch ildiz. U quyuq sochlarini salqin shamollarda hilpiratib, ko'zlarini qayrag'ochlar tepasida g'uj-g'uj yongan yulduzlarga tikkan holda «Quyosh bor yuragimda» she'rini o'qidi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

2 kimga? yoki nimaga? umidvor bo'lib qaramoq. Varianti: **ko'z(i)ni tikmoq** kim? [o'zining] nimaga?

Nenidir tutib ketdi qaldirg'och bir sho'ng'ishda, Anjirga ko'zin tikib xilvat poylar zarg'aldoq. S.Ahmad. Qorako'z Majnun. Ko'rganga ko'z tikkar, qo'li yetmaska el sunar, Qo'yg'il bu ishni emdi baroyi xudo, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

3 kimga? yoki nimaga? hirs bilan qaramoq. Varianti: **tikkan ko'zlar(i)** kimning? kimga?

...bo'lmasa yeringizga ko'z tikkan o'sha qishloq sudxo'rlari oldiga boravering! S.Ayniy. Sudxo'r. Uyatsiz, yosh qizga tikkan ko'zlarini o'yib olaman! Oybek. Qutlug' qon.

ko'z tirikligida: ko'z(i) tirik

KO'Z TIKIB, QULOQ QO'YMOQ [köz tikib, qulaq qoy=] tar. kim? kimga? yoki nimaga? astoydil kirishmoq, hushyor bo'lmoq.

...xizmatka mulozim dag'i farmonga ko'z tikib, quloq qo'yub turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'Z TUTMOQ kim? kimga? ke-lib qolar degan umidda kutmoq. Varianti: **yo'l(i)ga ko'z tutmoq** kim? kimning?

Dasturxon yoyishga sabrsizlik bilan onadan buyruq kutar va ota-ning yo'liga ko'z tutar edilar. Oybek. Nur qidirib. Kapsanchilar bir vaqtlar shunday azim daryo bo'yida osmondan tushadigan tomchiga ko'z tutib o'tirishar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ko'z tutdim, ko'zlarim nigoron bo'ldi. «Yoshlik».

KO'Z URISHTIRMOQ kim? kim bilan? kimlar? o'zaro, ba'zan kim? nima bilan? bir-biriga ma'noli qarab olmoq.

Nizomiddinov Azim boyvachcha bilan ko'z urishtirib oldi. S.Ahmad. Hukm. Baratov va Obidov bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishgach, ketishga qo'zg'alishdi. S.Zunnunova. Yangi direktor. Shu payt qizning xuddi go'daklarniki singari bejirim lablarida tabassum g'unchasi ochildi, yulduz bilan ko'z urishtirayotgandek, unga uzoq tikilib qoldi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ko'z uzmaslik: ko'z(i)ni uzmaslik


ko'z uzmay: ko'z(i)ni uzmay

ko'z yormoq: ko'z(i) yoridi

KO'Z YOSH(I)NI oqizmoq kim? [o'zining] tinimsiz yig'lamoq.

Birdan-bir g'amxo'rlaridan ayrilgan bechoralar ayriliq, xo'rlik alamidandan ko'z yoshlarini sel-sel oqizib yana yo'lga tushdilar. P.Tursun. O'qituvchi.

KO'Z YOSHI QILMOQ kim? biroz yig'lab olmoq. Varianti: **obi diyda qilmoq.**



Ammo yaqin bir yarim oydan beri na xat bor, na xabar. Onasi esa har kuni ko'z yoshi qiladi. S.Ahmad. Mastonbibi. «Voy uka, men g'aribman-a, sendan boshqa hech kimim yo 'q-a...» – «Obi diyda qilma, ey, yigit», – deb jekiradi. G'.G'ulom. Jo'rabo'za.

KO'Z YOSHI TO'KMOQ *kim?* qattiq yig'lamoq.

Cho'lda, musofirchilikda diydasi qattiq bo'lib qolibmanmi, do'stlarim qarab turganlari uchunmi, dadam singari ko'z yoshi to'kmadim. I.Rahim. Olovkor. Shuningdek, u hujrasiga borib, qo'lyozmalari ustida ko'z yoshi to'kkanda, uni pechkaga tiqib, tezroq yondirish uchun kosov bilan titib o'tirganida ham «Nega?» – deydigan kishi bo'lmadi. A.Qahhor. Sarob.

KO'Z YUGURTIRMOQ *kim?* nimaga? yoki kimga? tez va yuzaki qaramoq. Varianti: **ko'z(i)ni yugurtirmoq** *kim?* [o'zining] nimaga? yoki kimga?

Mahkam uzun satrlarga ko'z yugurtira boshladi. P.Qodirov. Uch ildiz. Marhamat atrofidagi bolalarga ko'z yugurtirib oldi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. 15–20 minut keyin Komila qaytdi. U har yoqqa ko'zlarini yugurtirdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Bobo ko'zlarini qisib unga tikildi, so'ng hududsiz osmonga ko'z yugurtirmoqchidek boshini vazmin ko'tarib, odamlarning boshi uzra to'g'riga – tim odog'i tomon nigoh soldi. X.Do'stmuhammad. Jajman.

KO'Z YUMMOQ I *kim?* nimadan? ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq.

«Bizning vazifa, – dedi Saida, – hamma ko'nikib qolgan yoki noilojlikdan ko'z yumgan hamma illatlarga odamlarning diqqatini tortish, bu illatlarning sababini, natijasini el ko'ziga ko'rsatish, odamlarda fikr uyg'otish, ularni bu illatlarga qarshi kurashga yo'llash». A.Qahhor. Sinchalak.

ko'z yummoq II: ko'z(i)ni yummoq

KO'Z YUMMOQ III [köz jum=] tar. **1** *kim kimdan?* yoki *nimadan?* voz kechmoq.

Yumar ko'z bu jahonning ziynatidan, Kima sabr-u qanoat yor bo'lsa. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 tar. *kim? kimdan?* umid uzmoq.

Dag'i boylarning yaxshiroqi ul dururkim, faqirlar qayg'usin yegay dag'i faqirlar yaxshiroqi ul dururkim, boylardan ko'z yumg'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'Z YUMMOQ IV [köz jum=] tar. *kim?* o'lmoq.

Ko'z yumub andin burunkim bu jahondan ketkasan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'Z O'NG(I)DA *kimning?* **1** bevosita ko'ringan, kuzatilgan holda (hol vazifasida keladi). Varianti: **ko'z(i) o'ngida.**

Axir u Zor qishloq ahlining ko'z o'ngida o'sgan bola-ku. S.Ahmad. Hukm. Bir necha yil mobaynida ko'zim o'ngida qancha-qancha takliflar amalga oshirildi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 *nima?* tasavvurida saqlanmoq (kesim vazifasida keladi)

Uy to'sinlari, vassalarning bir-biriga biqinib turishi hali-hali ko'z

o'ngimda. I.Rahim. Olovkor. Unda [xatda] Rahim Yo'lchiyevdan deb aniq ko'rsatilgani hali-hali ko'z o'ngimda. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ko'z o'ng(i)dan ketmaslik: ko'z old(i)dan ketmaslik

ko'z o'ng(i)dan o'tkazmoq: ko'z old(i)dan o'tmoq

ko'z o'ng(i)dan o'tmoq: ko'z old(i)dan o'tmoq

ko'z o'ng(i)ga kelmoq: ko'z old(i)ga kelmoq

ko'z o'ng(i)ga keltirmoq: ko'z old(i)ga kelmoq

ko'z o'ngini qoraytirmoq: ko'z oldi qorong'ilashdi

KO'Z(I) BEJO *kimning?* biror no-maqbul voqea yuz berishidan qo'rqish holatida, qarashi notinch, bezovta.

«O'sha siz maqtagan paxtaning chigitidan o'g'irlab ketgan ekan. Amerikada pullabdi».– *«Obbo zang'ar-e, ko'zi bejo edi haromining».* S.Ahmad. Qarddon dalalar.

ko'z(i) chig'anog'idan chiqib ketayozdi: ko'z[lar](i) qinidan chiqib ket[ayoz]di **ko'z(i) yumildi:** ko'z(i)ni yummoq

KO'ZI BOR (ODAM) *kimning?* nigohi o'tkirligi boshqalarga ta'sir qiladigan odam (Qashqadaryo vil. Yak-kabog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.)

Qo'shning uyiga chiqqanda cho'ntagingda tuz solib ol, buvisini ko'zi bor, sog' odamni bir qarashda yig'adi. So'zlashuv uslubi.

KO'Z(I) ILG'AMAYDI *kimning? nimani? yoki kimni?* kichik, sezilar-sezilmas bo'lgani uchun ko'ra olmaslik. Varianti: **ko'z ilg'ardi** *kimni?* yoki *nimani?*

Sen payvand qil, mening ko'zim yaxshi ilg'amaydi. N.Nazarov. Zamon. Paxtazorning u chekkasidagi kishilarni bu tarafdin arang ko'z ilg'ardi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

KO'Z(I) ILINDI *kimning?* mizg'imoq. Varianti: **ko'z ilindi** (–).

Hoji xola ko'zi ilinib, endi xur-rak ota boshlagan edi... M.Ismoilii. Farg'ona tong otguncha. *Shirin xayollar bilan ko'zi ilinganini bilmadi. R.Fayziy. Yodgor. Hamisha ziyralik lozim. Bir zum ko'z ilindimi, bas!* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Zardusht bolaning ko'zi ilingan ekan, Otash momosini devning hovuchida ko'rди, go'dak yuragi yorilay dedi, shuning barobarida qandaydir kuch topib moviy ko'zli devning chinor tanasidek yo'g'on bilagiga yopishdi – tirmashib-tirmashib hovuchga yetay deganda hovuch yoqasida boshini changallab turgan momosi uning ko'ksidan itarib yubordi...* X.Do'st-muhammad. Jajman.

ko'z(i) ketibdi: ko'z(i) uyquga ketibdi

KO'Z(I) KO'R, QULOG'(I) KAR BO'LDI *kimning?*– **KO'Z(I) KO'R, QULOG'(I) KAR** *kimning?* hech narsadan bexabar.

Biz cho'ponlarning ko'zimiz ko'r-u, qulog'imiz kar. Na radio, na gazeta! I.Rahim. Ixlos. *Dastlab men bu gaplarga e'tibor qilmadim, ko'zim ko'r-u, qulog'im kardek yuraverdim. I.Rahim. Hilola.*

KO'Z(I) KO'RDI *kimning? yoki nima[ning]? kimni? yoki nimani?* yomon niyatini amalga oshirish uchun obyekt qilib tanlamoq.

Yaylovda uch ming qo'ying, yuzdan ortiq yilqing bo'la turib, meni ko'rdimi ko'zing, noinsof? M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «Shu murg'ak narsani [toychoqni] ko'zi ko'ra qolgani!» – «Bo'ri bo'ladi-yu, ayab qo'yarmidi, o'rgilay!» S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'Z(I) KO'Z(I)GA TUSHDI kimning? kimnikiga? ko'z qarashlari bir daqiqa duch keldi. Varianti: ko'z ko'zga tushdi (–).

Saida stolga tirsaklanib, ikkala qo'li bilan boshini ushlab o'tirgan edi, Qalandarovning ko'zi ko'ziga tushishi bilan ikki marta tilini ko'rsatdi. A.Qahhor. Sinchalak. Faqat ko'z ko'zga tushgandagina u uyatchan oshiq obraziga kiradi. Boshqa vaqt uni butunlay esdan chiqaradi. S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'Z(I) KUYSIN kimning? o'zida yo'q, ega bo'la olmagan tufayli o'zgada ko'rib alam chekmoq.

Yovlar ko'zi kuysin rashk aylab. E.Abbos. O'limni yomon ko'rganim haqida.

KO'Z(I) MOSHDEK OCHILDI kimning? jazolab, hushyor qilmoq.

Mening sovunimga kir yuvmabsiz! Shoshmay turing, ko'zingizni moshday ochib qo'yganimda bilasiz! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Mana bugungi majlis ko'zimni moshdek ochdi. Kelinim bechora haq ekan. J.Abdullaxonov. Yangi odamlar. Davlat zo'r, unchalik bilinmaydi; ammo pirovardi yomon bo'ladi. Ana shunda ko'zi moshdek ochiladi. Oybek. Qutlug' qon.

ko'z(i) moshdek ochildi: ko'z(i)-ni moshdek ochmoq

KO'Z(I) OLA-KULA BO'LIB KETDI kimning? olayib qaramoq. Varianti: ko'z(i)ning ola-kulasi chiqib ketdi.

G'anijonning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi. S.Ahmad. Xotinlar. Ko'zining ola-kulasi chiqib ketgan Xo'jayev shu zahoti minbardan tushdi. A.Muhiddin. Yuzga aytganning zahri yo'q.

KO'Z(I) OLMA-KESAK TERIB kimning? har tarafga alanglab.

Salohiddinning ko'zi olma-kesak terib, oldingi qatorlarni, lojalarni qidirib boshladi. Mirmuhsin. Iskandariya ko'rfazi. «O'tirib, biroz tomosha qiling bu chiroyli joylarni, – deyar ekan Oyto'ti, ikki ko'zi olma-kesak terib, har tarafga bir qarar edi. Oydin. Fonar tagida.

KO'Z(I)NI OCHMOQ kim? kimning? yoki [o'zining] – **KO'Z(I) OCHILDI** kimning? hushyor qilmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan qilmoq (tuslovchi bilan egalik qo'shimchasi boshqa-boshqa shaxsni ko'rsatadi), hushyorlanmoq, yaxshi-yomonni tushunadigan bo'lmoq (tuslovchi bilan egalik qo'shimchasi ayni bir shaxsni ko'rsatadi). Varianti: ko'z ochmoq kim? ko'z ochildi (–); ochilgan ko'z(i) kimning?

Bo'taboy aka ko'zimni ochganlaridan keyin yangichasiga ham mashqimni raso qilish maqsadida astoydil o'qidim. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Sizniki bo'lsa nuqul «Ko'z ochaylik», «Ilm bog'ida sayraylik», «Jaholat pardasini kuydir», tag'in qiziq-lari bor. Oybek. Qutlug' qon. «Vey, yaxshilar, ko'zni ochaylik!» dey-digan biron zamonlik mard yo'g'-a!.. X.Do'stmuhammad. Jajman.

ko'z(i) o'ngida: ko'z o'ng(i)da

KO'Z(I) OCH kimning? ovqatga tashlanuvchan, ko'p ovqat bilan ham to'ymaydigan. Antonimi: **ko'z(i) to'q** kimning?

Nima qilsin, u sho'rlik ham yo'qchilikdan ko'zi och edi-da. R.Fayziy. Qaynana.

ko'z(i) ochildi: ko'z(i)ni ochmoq.

KO'Z(I) OCHIQ I [kimning?] barhayot. Varianti: **ko'z(i) ochiqligida; ko'z(i)ning ochiqligida; ko'z(i) ochig'ida.** Sinonimi: **ko'z(i) tirik** [kimning?]

Ko'zim ochiq vaqtda bola-chaqali bo'lganingni ko'ray. S.Nazar. Yashil boylik. *Qizingni ko'ndir: ko'zing ochiqligida erga tegsin.* I.Rahim. Ixlos. *Biz ham dunyodan orzu-havas ko'rmay o'tmasak, ko'zimizning ochiqligida boshingizni ikkita qilib qo'ysak...* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

KO'Z(I) OCHIQ II [kimning?] yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobiliyatli.

«Durust, Jamolboy aka,— Salim boyvachcha so'zga kirishdi,— ko'zimiz ochiq. Lekin savodli, o'qigan boy bilan o'qimagan boy orasida farq bor». Oybek. Qutlug' qon. *Xolidaning hozirgidek ko'zi ochiq bo'lib, to'rt tomonni ko'rganda, Qorining changaliga tusharmidi!* I.Rahim. Chin muhabbat.

ko'z(i) ochiq ketmoq: dunyodan ko'z(i) ochiq ketmoq

ko'z(i) ochiqligida: ko'z(i) ochiq I

ko'z(i) ochig'ida: ko'z(i) ochiq I

KO'Z(I) PISH[I]DI kimning? — **KO'Z(I)NI PISHITMOQ** kim? [o'zining] ko'raverib, o'rgandi, tajriba ort-tirdi.

«Bu — ota kasb,— javob berdi u.— Yoshligimda ko'zim pishib qolgandi». Oybek. Quyosh qoraymas. *Murodova ham Dadajondek ko'zi pishgan mi-rishkor odamning paxtada bo'lishini xohlaydi.* I. Rahim. Ixlos.

KO'Z(I) QAMASHDI kimning? nimadan? — **KO'Z(I)NI QAMASH-TIRMOQ** nima? kimning? 1 nur aks etib, ko'zi hech narsani ko'rma-di. Varianti: **ko'zni qamashtirmoq** nima?

Tik quyosh tig'laridan ko'zi qamashgan chol.. chavandozlar kelayotgan tomonga yugurdi. H.G'ulom. Mash'al. *So'nggi nurlar tushib, cho'g'dek yaltirab turgan terak uchlari uning ko'zini qamashtirdi.* S.Ahmad. Hukm. *...ko'lmaklarda muz oynasi ko'zni qamashtirardi.* Oybek. Quyosh qoraymas.

2 go'zalligiga, ko'pligiga mahliyo bo'lmoq. Varianti: **ko'z qamashadi** nimadan? **ko'zni qamashtirmoq** nima?

Tabiiy, hammadan Nurining uyi hashamatli: qiymatli jihozlar bilan magazinday yasatilgan, ko'rgan odamning ko'zi qamashadi. Oybek. Qutlug' qon. *Mollarni ko'rib, ko'zlari qamashgan odamlar, Safarqulning gap-lariga uncha ishonmagan bo'lsalar ham, bir daraja yupanib tarqaldilar.* S.Ayniy. Qullar. *Nahotki shu qalbaki husn uning ko'zlarini shu qadar qamashtirgan bo'lsa?* A.Muxtor. Tug'ilish. *«Ichkari» aksi urib qolgan, lekin bo'yni va qo'llaridagi ziynat asboblaridan ko'z qamashadigan Nasiba bolasini belanchakka solib allalamoqda.* A.Qahhor. Og'riq tishlar.

KO'Z QAROQINDA TUTMOQ
[köz qaraqında tut=] tar. kim? kimni?
e'zozlamoq.

Qanda bir erdam eri bo'lsa ani ko'zdan solib, Tekma bir erdamsiz er-ni ko'z qaroqinda tutar. S.Saroyi g'a-zali.

ko'z(i) qiyib: ko'z(i) qiymadi

KO'Z(I) QIYMADI kimning? 1 kimni? yoki nimani? nima qilishga? ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik. Varianti: **ko'z(i) qiyadi?!; ko'z qiy-maydi kimni?** yoki **nimani? nima qi-lishga? qiymoq kimni?** yoki **nimani? nima qilishga?** Sinonimi: **ko'ngl(i) bo'lmadi kimning? kimni?** yoki **ni-mani? nima qilishga? ko'ngl(i) bor-madi kimning? kimni?** yoki **nimani? nima qilishga?**

Bolani nobud qilishga hech qay-simizning ko'zimiz qiymadi. G'.G'ulo-m. Yodgor. *Chaman bo'lib ochilib turgan gulni qo'porib tashlashga kim-ning ko'zi qiyadi?! Mirmuhsin.* Ibis qushlari. *Shu asnoda Gazlidan ket-tib qolishga ko'z qiymaydi.* I.Ra-him. Olovkor. *Yetilib turgan singlim, mushtipar onamni yolg'iz tashlab ke-tishga qanday qiyaman demasa...* G'.G'ulom. Soyalar. «*To'rtta yon-g'oqni ko'zingiz qiymasa, o'zimiz bo-qardik*», *deya malomat yog'dirishdi Bobo yong'oqfurushga.* X.Do'stmu-hammad. Jajman.

2 kimni? rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik. Varianti: **ko'z(i) qiysa; ko'z(i) qiyib; ko'z(i) qiyadi?!; ko'z qiymaydigan (-); ko'z qiymas (-).**

Sizni ko'zim qiymaydi, sizdan uzoq-lashgim kelmaydi, Gulnor! Oybek.

Qutlug' qon. Agar bola-chaqangizni ko'zingiz qiysa, mening shartimga ko'nasiz... M.Muhamedov. Kichik gar-nizon.

3 nimani? ko'ngil tortar narsasi-dan voz kecha olmaslik. Varianti: **ko'z(i) qiyarda-qiymay.**

Agar men bu yomon, yovvoyi tog'larni ko'zimqiymasa-chi?! O.Yoqu-bov. Tog' qizi. Boray deyman-u, o'qish-ni ko'zim qiymay, chiqa olmayman. H.Nu'mon. Fasllar. *Mehri Zokirovna ham olxo'ri murabboni ko'zi qiyar-da-qiymay, beixtiyor o'rnidan turdi.* A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

ko'z(i) qiysa: ko'z(i) qiymadi

ko'z(i) qiyadi?!: ko'z(i) qiymadi

ko'z(i) qiyarda-qiymay: ko'z(i) qiymadi

ko'z(i) qonga to'ldi: ko'z(i)ga qon to'ldi

ko'z ko'zga tushdi: ko'z(i) ko'z(i)ga tushdi

KO'Z(I) TAKA-PUKA kimning? qarashi notinch, bezovta, olazarak.

U o'zini allaqanday qovushma-gandek sezar, tayyorliksiz doklad qil-gani kelgan notiqdek, ko'zi taka-puka bo'lar edi. Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit.

ko'z(i) tegdi: ko'z tegdi

KO'Z(I) TINDI kimning? 1 holsiz-lanish natijasida ko'z oldi xiralashmoq.

Botirjon, sal mazam qochdi. Bo-shim aylanib, ko'zim tinayapti. Keta qolay. S.Ahmad. *Hukm. Uninchi gav-ron urilgandan keyin yerga tushirildi. Ana shundagina Dilshodning ko'zlari tindi. Gandiraklab borib, ostonaga yi-gildi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong ot-guncha.

2 ko‘p va mayda narsaga tikilib, ko‘z oldi xiralashmoq.

Ota, tushunmasa ham, xaritadaagi jivir-jivir chiziq-larga ko‘z yugurtirdi va darrov ko‘zi tinib ketdi. H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari.

KO‘Z(I) TIRIK [kimning?] barhayot. Varianti: **ko‘z(i) tirikligida; ko‘z(i)ning tirikligida; ko‘z tirikligida(-).** Sinonimi: **ko‘z(i) ochiq I** [kimning?]

U nimani biladi? Ko‘zim tirik – men bilan muomala qilasiz. Oybek. Qutlug‘ qon. *Ko‘zimiz tirikligida shularning boshini qovushtirib, orzu-havasini ko‘raylik.* Mirmuhsin. Jamila. *Bisoting yetarli. Ko‘zimning tirikligida to‘y qil, bolam. Qo‘sha qaringlar deb duo qilay.* I.Rahim. Ixlos. *Keyin ko‘z tirikligida meni uzatmoqchi bo‘lgani-ni bildirdi.* Oybek. Qutlug‘ qon.

ko‘z(i) tirikligida: ko‘z(i) tirik

KO‘Z(I) TO‘Q kimning? ovqatga tashlanmaydigan, oz ovqat bilan to‘yadigan. Antonimi: **ko‘z(i) och kimning?**

O‘ktam mevalarni saralaydi, hidlaydi, biroq yegisi kelmaydi, ko‘zi t o‘q. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KO‘Z(I) TOR kimning? qizg‘anchiq.

Kelin va qaynana... chuchvarani lo‘nda-lo‘nda tugar edilar. Ko‘zi tor mahmadona qiz esa chuchvarani yalatmachoq, nusxada quritib tugar edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *O‘zlariyam o‘lguncha ko‘zi tor, ziqna.* G‘.G‘ulom. Shum bola.

KO‘Z(I) TO‘RT BO‘LDI kimning? – **KO‘Z(I)NI TO‘RT QIL-**

MOQ kim? kimning? intizor bo‘lmoq. Varianti: **ko‘zlar to‘rt bo‘ldi(–); ko‘z(i) to‘rt bo‘lib; ikki ko‘z(i) to‘rt bo‘lib; to‘rt ko‘z bo‘lib (–).**

Nahotki sakkiz oydan beri biron marta ko‘rish nasib etmasa? Yo‘lingizda ko‘zlarim to‘rt bo‘ldi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha. *Qani, qani... Keling, keling, o‘g‘lim. Kuttiraverib, ko‘zlarimizni to‘rt qildingiz-ku!* O‘.Azimov. Aql chirog‘i. *«Ana-ana. Hasan aka, omad, – dedi ellikboshi.– Axir bu kuta-kuta, ko‘zlar to‘rt bo‘ldi-ku».* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ko‘z(i) to‘rt bo‘lib: ko‘z(i) to‘rt bo‘ldi

KO‘Z(I) TO‘RT kimning? [kim-ga?] intizor.

Darhol telegramma qoq, bolam, ko‘zim to‘rt! I.Rahim. Olovkor. *Zuhraning ham ko‘zlari to‘rt, intizor.* S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

KO‘Z(I) TO‘YMAYDI kimning? 1 har qancha nazar solsa ham, qoniqmaslik.

Mana, farzand tug‘iladi-a, ota unga bor mehrini bag‘ishlaydi. Quvonadi, qarab ko‘zi to‘ymaydi. A.Muxtor. Opa-singillar.

2 mol-mulkka har qancha ega bo‘lsa ham, yetarli deb bilmaslik. Varianti: **ko‘z(i)ni to‘ydirilmaslik nima? kimning?**

«To‘ymas ko‘zing, hamisha so‘zing shu», – desam, dedi: «Kirmas quloqqa, so‘zlama sen ham, o‘zim bo‘lay». S.Abdulla. O‘zim bo‘lay.

KO‘Z(I) TUSHDI kimning? kim-ga? yoki nimaga? bexosdan, kutilmaganida ko‘rmoq. Varianti: **nazar(i) tushdi.**

Turobjon do'ppisini boshdan oldi va sotmoqchi bo'lganida ko'zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi. A.Qahhor. Anor. *Ko'zdan tushurdi bir yo'li ko'z tushkali anga, Tark et tesam tilagimi bermas rizo, ko'ngul.* Abdulmajid g'azali.

KO'ZI TO'LMASLIK [közi tolma=] tar. kimning? nimadan? qoniqmaslik. Varianti: **ko'zi to'ymaslik**.

Agar eshikda aning uchun qo'yub tururlarkim, tilanchilar alindan jonina yetib tururlar dag'i muholi aql erurkim, agar yozidag'i barcha qumlar inju bo'lsa, tilanchilarning ko'zi to'lmag'ay. S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

KO'ZI TO'Q [közi toq] tar. kimning? bori bilan qanoatlanadigan, qanoatli.

Varianti: **nazari to'q**.

Nechakim, minmaka hozir tevam yo'q, Yururman shodmon qornim, ko'zum to'q. S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

KO'ZI UYQUDAN KESILMOQ [közi uyqudan kesil=] tar. kimning? halovati yo'qolmoq.

Og'zi taomdan, ko'zi uyqudan kesilib, ne kunduz sabri bor edi, ne kecha qarori. S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

KO'Z(I) UCHIB TURIBDIMI?! kimning? kimga? ko'rish ishtiyoqida-midi(m)?! (kesatliq bilan).

Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zi uchib turibdimi?! M.Muhamedov. Tasodif. «Ha, bu ortiqcha tashvishga ko'zimiz uchib turganday!» – dedi Dilshod. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Va-

hobjon: «Otaxoningga ko'zing ucha-yotgan bo'lsa, Buxoroda ko'rsatib qo'yaman», – dedi. I. Rahim. Olovkor.

KO'Z(I) UYQUGAKETIBDI kimning? uxlay boshlamoq. Varianti: **ko'z(i) ketibdi**.

Shu ko'yi uzoq yotdi, ko'zlari uyguga ketdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Tavba, ko'zim ketibdi-ya», – dedi u boshidagi doka ro'molini tuzatib. P.Qodirov. Uch ildiz.

ko'z(i) xonasidan chiqay dedi: ko'z[lar](i) qinidan chiqib ket[ayoz]di

KO'Z(I) YETDI kimning? nimaga? ishonmoq, ishonch hosil qilmoq. Sinonimi: **aql(i) yetadi 2** kimning? nimaga?

Xullas, Marhamat hozir bu bola bilan gaplashib, biron natija chiqarolmasligiga ko'zi yetdi... H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Zarifa bilan Po'lat Shokirning darrov javob bera olmasligiga ko'zlari yetgach, uning qo'lidagi gazetani yulqib oldilar. O.Yoqubov. Tengdoshlar. Nosirovga qarshi qo'l ko'tarishga andisha qiladi, chunki ish ochiq janjalga aylansa, Ehsanning yutib chiqishiga ko'zi yetmaydi. A.Qahhor. Sarob.

KO'Z(I) YORIDI kimning? tug'moq. Varianti: **ko'z yormoq** kim? (oz ishlatiladi).

Tatyana eson-omon ko'z yorsin, Komilning kostyumini yechib olaman. I.Rahim. Ixlos. Ortiqcha sutni sotgani ... ikkita do'konimiz bor, lekin ko'z yorib yotgan ona bir stakan sut yoki kichkinagina bitta piyolada qaymoq yuzini ko'rmaydi! A.Qahhor. Sinchalak.

KO'ZDA UCHMOQ [közdä uçqan] tar. kim? yoki nima? ko'z oldi-

dan ketmaslik, doimo yor yodi bilan xayoli band bo'lmoq.

Visolingning bu kun shukrin qilurman, Xayoling ko'zda uchqonin bilurman. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

ko'z(i)dan g'oyib bo'lmoq: ko'zdan yo'qolmoq

ko'z(i)dan kechirmoq: ko'zdan kechirmoq

KO'Z(I)DAN QOCHIRMOQ *kim? kimni? yo'qotib qo'ymoq.*

Tog'lardan enib tushgan tuman atrof-tumonotni qoplagan, kepkali kishi bechora yigitni ko'zdan qochirib qo'ymay degan xavotirda ortiga qarab-qarab qo'yar, bir so'z... birgina yupanch so'z topishga ojiz edi... Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

KO'Z(I)DAN O'T CHIQIB KETDI *kimning? 1 qattiq g'azablangani-dan go'yo ko'zlari chaqnaq ketdi.*

Karimjonning ana shu g'ozalari-ni ko'rib, ko'zimdan o't chiqib ketdi. «Bu yer qaysi boqibeg'am suvchiniki ekan» deb surishtirgani shiyponga bordim. S.Abduqahhor. Mirtolib ota.

2 qattiq qo'rqqanidan go'yo ko'zlari chaqnaq ketdi.

Meni bilmaydi deysan-a. Bir yili po'rt etkazib sanchishganda [ukol qilganda], naq ko'zimdan o't chiqib ketay degan. S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'z(i)dan o'tkazmoq: ko'zdan kechirmoq

ko'z(i)ga chalinmoq: ko'zga chalinmoq

KO'ZDAN SOLMOQ [közdän sal=] tar. *kim? kimni? e'tibordan chetda qoldirmoq, nazardan quvmoq.*

Qanda bir erdam eri bo'lsa ani ko'zdan solib, Tekma bir erdamsiz

erni ko'z qaroqinda tutar. S.Saroyi g'azali.

KO'ZDAN TUSHURMOQ [közdän tüşür=] tar. *kim? kimni? e'tibordan chetda qoldirmoq, unutmog.*

Ko'zdan tushurdi bir yo'li ko'z tushkali anga, Tark et tesam tilagimi bermas rizo, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

KO'ZDIN YIROQ TUTMOQ [közdin jıraq tut=] tar. *kim? kimni? asramoq, nazardan himoyalamoq.*

Jahonni ezgu oting tutti mutlaq, Yamon ko'zdin yiroq tutsun seni haq. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'Z(I) O'TKIR *kimning? ko'rish qobiliyati juda yaxshi.*

Ko'zi o'tmaganing chiroqqa yaqin o'tir, ko'zi o'tkiring oydinga chiq, hunaringni ko'rsat hammang! I.Rahim. Chin muhabbat.

KO'Z(I) O'TMAYDI *kimning? nimaga? nuri ketib, ko'zi kamquvvat bo'lib qoldi.*

Bir vaqtlar do'ppi tikdim, ko'rpa qavidim, ishtonbog' to'qidim. Endi unday ishlarga ko'zim o'tmaydi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'Z(I)NI O'YNATMOQ *kim? kimning? ko'z-ko'z qilgani tufayli havasi keldi.*

Shunday rasmlar chizib kelayki, hammaning ko'zi o'ynasin. H.Nazir. Cho'l havosi. O'g'illari shayton aravada [velosipedda] uchib, atrof mahalla bolalarining ko'zlarini o'ynatdi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'ZGA ILMASLIK [közgä ilmä=] tar. *kim? yoki nima? kimni? yoki nimani? pisand qilmaslik.*

Ko'ngul ikki jahonni ko'zga ilmas, Sening ishqing umrning hosili bas. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'Z(I)GA ISSIQ KO'RINMOQ
kimning? **1** kim? yoki nima? tanish-
dek tuyilmoq.

*Ko'zimga issiq ko'rinasan, qa-
yerlikсан, o'g'lim?* A.Muhiddin. Ze-
boning sevgisi. «Yo'q, o'xshamaydi.
Ko'zimga issiq ko'rinyapti», – javob
berdi Komila tevarakka ko'z yugurtib.
Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 kim? o'ziga tortmoq, yoqimli
bo'lmoq. Varianti: **ko'z(i)ga o'tday
ko'rinmoq**. Antonimi: **ko'z(i)ga
sovuq ko'rinmoq** kim? yoki nima?
kimning?

*Kelganiga sal o'tmay, hammaning
ko'ziga issiq ko'rinib qoldi.* S.Nazar.
Yashil boylik.

KO'Z(I)GA ISHONMAY kim?
kutilmagan hodisadan hayratlanish
holatini ifodalaydi.

*Ko'zlariga ishonmasdan qarar-
di yo'q, bu haqiqatdan ham Xolbo'ta
emas, ko'pincha shu yaqin-atrofdagi
qo'y boqib yuruvchi cho'pon Sun-
nat aka edi.* Sh.Bo'tayev. Qora tu-
man. Uning qandoq qilib bironing
mayizini tortinmay-netmay paqqos
tushirayotganidan bobo hayron-u lol
bo'lganicha, ko'zlariga ishonmas,
xayolida esa: «Bu qanday maxluq
o'zi? Bu qanday maxluq?», degan
savol charx urardi. X.Do'stmuham-
mad. Hajman.

**KO'Z(I)GA KO'RINIB KET-
MOQ** nima? kimning? birdaniga xo-
tirasida gavdalanmoq.

*U bilan birga o'sgan g'amsiz,
beozor kunlari ko'ziga ko'rinib ketdi.*
S.Ahmad. Kuyov.

ko'z(i)ga ko'rinib qolmoq: ko'z-
ga ko'rinmoq

KO'Z(I)GA KO'RINMASLIK
I kim? kimning? ro'para bo'lmaslik,
duch kelmaslikka harakat qilmoq. Va-
rianti: **ko'zga ko'rinmaslik II** kim?

*Ular odamlarning ko'ziga ko'rin-
maslik uchun dalama-dala yurib, de-
vor oshib, Maxsumning ichkari hov-
lisiga tushganlarida mehmonxonada
chiroq ko'rindi.* S.Anorboyev. Oqsoy.
«O'sha polvonni yiqitib kelmagun-
cha, ko'zimga ko'rinma», – dedi.
S.Ahmad. Cho'l burguti. Bundan ke-
yin hech ko'zga ko'rinmang. A.Qah-
hor. Sarob. Sen, yaxshisi, uning ko'zi-
ga ko'rinmay yur. Sh.Bo'tayev. Qarz.

KO'Z(I)GA KO'RINMASLIK
II nima? yoki kim? kimning? **1** tati-
maslik; e'tiborini tortmaslik. Varian-
ti: **ko'zga ko'rinarmidi?!**

*Saidiy o'zini endi chinakam muh-
toj sezar, qo'lidagi ortiqcha yotgan
minglar ko'ziga ko'rinmasdi.* A.Qah-
hor. Sarob. Boringlar, senlar ham ko'-
zimga ko'rinmay qoldilaring. R.Fay-
ziy. Cho'lga bahor keldi. *Shu topda
dutorini gapiradi: ko'zga ko'rinadimi,
bu bo'ronga odam chidolmayapti-ku.*
R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 hisoblashmaslik; o'ylab-netib
o'tirmaslik. Varianti: **ko'z(i)ga ko'-
rinarmidi?!; ko'z(i)ga oq-qora ko'-
rinmaydi kimning? ko'zga ko'rin-
maslik kim?** yoki nima?

*Hech narsasi qolmaganda, butun
a'zolarini bitta-bitta tikaveradi: qo'li,
burni, oyog'i, oxiri borib kallasini...
Ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi.*
A.Muxtor. Opa-singillar. Jonini asrab
qolishga kelganda, ko'ziga Maxsum
ko'rinarmidi?! S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'z(i)ga olam tor: dunyo ko'z(i)-
ga tor.

ko'z(i)ga oq-qora ko'rinmaydi:
ko'z(i)ga ko'rinmaslik II.

KO'Z(I)GA QARAMOQ kim? [o'zining] ehtiyotkor bo'lmoq, hushyor bo'lmoq.

Ko'ziga qarasin-da, – dedi-yu, tiling ostiga bir otim nosvoy tashlab, indamay chiqib ketdi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

KO'Z(I)GA QON TO'LDI kimning? kuchli g'azablanganidan ko'zlari qizarib, alamini, o'chini olish holatiga yetmoq. Varianti: **ko'z(i) qonga to'ldi.**

Hozir baqirishib, ko'zlariga qon to'lib kelishyapti. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Biroq ko'ziga qon to'lgan bu johilga gap uqtirib bo'larmidi?! S.Anorboyev. Oqsoy. Eski alam Ergashning yodiga tushib, g'azabga keladi, ko'zi qonga to'ladi. Sh.Rizo. O'ch.

KO'Z(I)GA SOVUQ KO'RINMOQ kim? yoki nima? kimning? yoqmaslik, jirkanish hissini uyg'otmoq. Antonimi: **ko'z(i)ga issiq ko'rinmoq 2** kim? yoki nima? kimning?

Qori bolalarning ko'ziga sovuq ko'rinib qolgan edi. P.Tursun. O'qituvchi.

ko'z(i)ga surtmoq: ko'zga surtmoq

KO'Z(I)GA TIK QARAY OLMASLIK kim? kimning? nomus qilgani, aybdor bo'lgani sababli suhbatdoshi bilan yerga qaragan holatda muomala qilmoq. Varianti: **ko'z(i)ga qaray olmaslik.**

Begimxon qizlarning ko'ziga tik qaray olmasa ham, ularga so'z ber-

gisi kelmadi: «Ha, nima, Begimxon badarg'a bo'lib ketdi deb o'ylabmiding, Bodomxon?» – dedi u, yonidagi qizga qarab. I.Rahim. Chin muhabbat.

ko'z(i)ga tushmoq: ko'zga tushmoq

KO'Z(I)GA UYQU KELARMIDI?! kimning? uxlay olarmidi?!

Akang o'lgur kelmagan bo'lsa, men uyg'oqman-ku, yolg'iz qo'yib, ko'zimga uyqu keladimi, ...qizim. G'.G'ulom. Soyalar. Yuragingiz muncha ham keng bo'lmasa, ko'zingizga uyqu kelganiga hayronman. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

KO'Z(I)GA YOSH KELDI kimning? kuchli hayajonlanish, to'lqinlanish natijasida ko'zidan nam chiqdi. Sinonimi: **ko'z(i)dan yosh chiqdi** kimning?

Bahri ko'zi jovdirab hammaga bir-bir qaradi va birdan qizarib, ko'ziga yosh keldi. A.Qahhor. Xotinlar. Onaxonning tovushi tovlanib, ko'ziga yosh keldi. A.Muxtor. Opa-singillar. Ko'ngli birdan erib, ko'ziga yosh keldi. P.Qodirov. Uch ildiz.

KO'Z(I)GA YOSH OLMOQ kim? [o'zining] kuchli hayajonlanish, to'lqinlanish natijasida ko'zidan nam chiqarmoq.

Poyezd qo'zg'alib ketdi. Men ham haligacha o'zimda tajriba qilib ko'rmagan bir yurak ezilish, butun a'zoni jimirlatib keladigan qandaydir bir ichki hissiyot bilan beixtiyor ko'zimga yosh oldim. G'.G'ulom. Yodgor. U [opasi] Saidiyni chetga tortdi va chimmatining bir yog'ini ko'tarib ko'rishdi-da, ko'ziga yosh oldi. A.Qah-

hor. Sarob. «Yuragimni yorib yubording-ku, – dedi onasi ko'ziga yosh olib. – Sen hamma vaqt shundayсан. Qo'rqitganing-qo'rqitgan...» S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'Z(I)GA CHO'P BO'LMOQ kim? kimning? o'zining shu yerda bo'lishi bilan norozilik, tashvish uyg'otmoq.

«Bu do'ndiqchani ko'ziga cho'p bo'ldik», – dedi Asqar iymanganday qizarib. «Tez ich, ketamiz. Qo'rqa-yapti bizdan», – dedi Ali tajang. Oybek. Quyosh qoraymas.

KO'Z(I)GA CHO'P SOLMOQ kim? kimning? aldamoq, chalg'itmoq. Varianti: ko'z(i)ga cho'p tashlamoq...

Tanishlariga cho'ldaman derkan. Hatto shundoq deb uyidagilarning ham ko'ziga cho'p solib yurgan. H.Nazir. Odamning qadri. Nahotki Popuk shunday sharmanda, nahotki erining ko'ziga cho'p tashlab yuribdi. Tavba!.. Mirmuhsin.

ko'z(i)ga cho'p tashlamoq: ko'z(i)ga cho'p solmoq

ko'z(i)ga o'tday ko'rinmoq: ko'z(i)ga issiq ko'rinmoq

ko'z(i)ga qaray olmaslik: ko'z(i)ga tik qariy olmaslik

ko'z(i)ga dunyo tor: dunyo ko'z(i)ga tor

ko'z(i)ga ilinmoq: ko'zga ilinmoq

KO'ZINA KIBR YO'L BOG'LAMOQ [közinä kibr yol bayla=] tar. kimning? kibrga berilmoq, takabburlanmoq.

O'zindan mudda'i g'ayrin ko'ra olmas, Ko'zina kibr chun bog'lab

turur yo'l. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'Z(I)NI BAQRAYTIRIB [o'zining] ko'rib-bilib turganini pisand qilmay, surbetlik bilan.

U yerda ko'ringan mo'minlarga, shu jumladan Niyozmat hojiga ham, ko'zini baqraytirib yolg'on gapirdi. A.Qahhor. Sarob. Bu ko'kyollilar juda surbet bo'lib ketgan. Kuppa-kunduzi ko'zingni baqraytirib turib qo'raga chopadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'Z(I)NI BO'YAMOQ kim? kimning? aldamoq, laqillatmoq. Varianti: ko'zni bo'yamoq kim? ko'z bo'yamoq kim?

Yo'qolingiz, ifloslar, bizning ko'zlarimizni bo'yay olmay sizlar, bu – kambag'allar sho'rosi, sizga bu yerdan o'rin yo'q. G'.G'ulom. Arvohtar. «Silos bosishga bugun-erta kirishamiz», – debsiz, o'rtoq Xo'jabekov. Uyalmadin-gizmi davlatning ko'zini bo'yagani? S.Anorboyev. Oqsoy. Bo'yab ko'zni, urib ko'krakka, o'zni qahramon qilmang. S.Abdulla. Kekkaymang. «Yordam» bilan ko'z bo'yab, Amerika urush maydoni ochmoqda. Oybek. Nur qidirib.

KO'Z(I)NI BOG'LAMOQ kim? kimning?aldab, soxta gaplarga ishon-tirmoq. Varianti: ko'z(i)ni boylamoq.

Nemis soldatiga izoh beradigan boshqa «fyurer» topilsa, yo o'zi yolg'on gapiradi, yo Gitler ro'para bo'lib aytolmagan yolg'onlardan izoh to'qib, nemis soldatining ko'zini bog'laydi, unga osonlik bilan qo'lga kiritiladigan g'alabalar va'da qiladi. A.Qahhor. Ikkinning biri.

ko'z(i)ni boylamoq: ko'z(i)ni bog'-lamoq

KO'Z(I)NI CHIRT YUMIB [o'zining] tavakkal qilib. Varianti: **ko'zni chirt yumib(-)**.

Muhabbatga ko'r-ko'rona itoat qilsa, ko'zini chirt yumib, oqimga qarab oqsa – buning nimasi erk? P.Qodirov. Uch ildiz. «Ko'z qo'rqoq, qo'l botir», – deydilar. Ko'zni chirt yumib ishga tushaversak, bitib qolganini sezmay qolamiz. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

KO'Z(I)NI KO'R QILIB QO'Y-MOQ nima? kimning? voqea-hodisalarni anglashdan mahrum qilmoq.

Rostdan ham din Mahmud aka-ning didini past, ko'zini ko'r qilib qo'ygan ekan-da. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

KO'Z(I)NI KO'R, QULOG'(I)NI KAR QILMOQ kim? [o'zining] hech narsani ko'rmaydigan, eshitmaydigan bo'lmoq.

Said Jalolxon eshonning pand-nasihatlarini bilan ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lgan ixlosmandlar uchun hali ham uning bir kalima so'zi har qanday tashviqotdan kuchlilik qilardi. S.Ahmad. Hukm.

ko'z(i)ni ko'r, qulog'(i)ni kar qilmoq: ko'z(i) ko'r, qulog'(i) kar bo'ldi

KO'Z(I)NI KO'Z(I)GA TIK-MOQ kim? [o'zining] kimning? qat-tiq tikilib qaramoq.

Nazokat o't chaqnaq turgan ko'z-larini Hojimatning ko'ziga tikdi. Ho-jimat bir-ikki qadam orqaga chekindi. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

KO'Z(I)NI KOSA QILMOQ kim? [o'zining] g'azabdan ko'zlarini katta

ochib, chaqchaytirmoq.

Ertasi kun boy darg'azab bo'lib, kambag'al qo'shnisini yana yoniga chaqiribdi. Ko'zini kosa qilib, peshanasini burishtirib, unga shunday debdi: «Xo'sh, mulla Abdulkarim, qani ayt-chi, sening menda ololmay yurgan ni-ma qasding bor edi? Shunchalik nega meni aldading?» N.Maqsudiy. Hayot lavhalari.

KO'Z(I)NI MOSHDEK OCH-MOQ kim? yoki nima? kimning?

ko'z(i)ni o'ynatmoq: ko'z(i) o'y-nadi

KO'Z(I)NI OLDIRIB QO'Y-MOQ kim? [o'zining] ko'rish qobiliyatini yomonlashtirmoq.

Onaxon kechalari o'tirganini ko'rsa, «Qo'y, yig'ishtir endi, ko'zing-ni oldirib qo'yma tag'in», – der edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

KO'Z(I)NI OLIB QOCHMOQ kim? [o'zining] nazarini boshqa kishi-ning nazari bilan uchrashtirmaslikka harakat qilmoq.

Vohid uning to'satdan o'zgarib qolganidan, odatdagi sho'xligidan asar ham qolmaganidan, sababsiz qizari-shi va ko'zlarini olib qochishlaridan Roziyaga hamma narsa ayon ekanini tushundi-yu, birdan butun vujudi jimirlab, qo'lidan ushladi. O.Yoqubov. Tilla uzuk. Xolbo'ta Zokir lakotga bir muddat so'zsiz tikilib turdi. Lakot shohkosasidan chiqayozgan ko'z-larini betinim uyon-buyoniga olib qo-char, so'zlolmasdi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

KO'Z(I)NI OLMOQ kim? [o'zining] nimadan? yoki kimdan? qa-

rashni to'xtatmoq. Varianti: **ko'z olmaslik kim? nimadan?** yoki *kimdan?*

Shermatov qog'ozdan ko'zini olib, Azimjon bilan Salimovga qaradi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Bo'taboy qo'lidagi uzundan uzun yozilgan xatdan ko'zini olmay, yana nimanidir qo'shimcha qilmoqchi bo'lsa kerak, o'ylar edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

ko'z(i)ni pishitmoq: ko'z(i) pish[i]di

ko'z(i)ni qamashtirmoq: ko'z(i) qamashdi

ko'z(i)ni tikmoq: ko'z tikmoq

ko'z(i)ni to'ydirolmaslik: ko'z(i) to'ymaydi

ko'z(i)ni to'rt qilmoq: ko'z(i) to'rt bo'ldi

KO'Z(I)NI UZMASLIK *kim?* [*o'zining*] *kimdan?* yoki *nimadan?* muttasil qaramoq. Varianti: **ko'z uzmaslik kim? kimdan?** yoki *nimadan?*

...qirlar, so'lim bog'lardan ko'zini uzgisi kelmasdi. H.Nazir. Odamning qadri. Bekniyoz minut sayin uzoqlashib borayotgan mashinadan ko'z uzmay qo'l silkitib turdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

KO'Z(I)NI UZMAY [*o'zining*] muttasil («qaramoq»). Varianti: **ko'z uzmay(-)**.

Undan ko'zimni uzmay tikilib turaman. G'.G'ulom. Shum bola. Muslimov undan ko'zini olib qochar, Akim Borisovich, aksincha, ko'z uzmay qarardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ko'z(i)ni yerdan olmaslik: ko'z(i)ni yerdan uza olmaslik

KO'Z(I)NI YERDAN UZA OLMASLIK *kim?* [*o'zining*] uyalgani-

dan to'g'ri qaray olmaslik, boshini quyi egib turmoq. Varianti: **ko'z(i)ni yerdan olmaslik.**

Qiz yerga qaradi. Uning xayolida yigit hamon tikilib turgandek edi, anchagacha ko'zini yerdan uza olmadi. I.Rahim. Ixlos. U hech yuzimga qarolmas, kelganda ham, ko'zini yerdan olmas edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

KO'Z(I)NI YOG' BOSDI *kimning?* takabburlanmoq; tanib, tanimaganga olmoq. Sinonimi: **ko'z(i)ni shira bosdi kimning?**

E, ko'rishmaymizmi mundoq! Ko'zingizni yog' bosibdi-da. P. Qodirov. Uch ildiz.

ko'z(i)ni yugurtirmoq: ko'z yugurtirmoq

KO'Z(I)NI YUMMOQ *kim?* [*o'zining*] **KO'Z(I) YUMILDI III** o'lmoq. Varianti: **ko'z yummoq II** *kim?* Sinonimi: **dunyodan ketmoq.**

Lekin chol hali baquvvat, iligi sog'. Bir kun ko'zini yumar axir. Oybek. Qutlug' qon. Kelin tushdi ko'rmay ko'zim yumiladiganga o'xshaydi. I.Rahim. Ixlos. Kun yarimdan oqqanda o'ng qo'lini menga qarab bir cho'zdiy, ko'z yumdi. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon. Abadiy yumilgan ko'zlarning har biri ming ko'z bo'lib shu nurli olamga boqayotganiga iqrar bo'ldi. S.Ahmad. Xotiralar. Bu vaqt ichida Tamaraning onasi dunyodan ko'z yumdi. M.Muhamedov. Kichik garnizon. Ona kuni bitib, dunyodan ko'z yumganida boladan rozi bo'lishi zarur. A.Qahhor. Og'riq tishlar.

KO'Z(I)NI SHAMG'ALAT QILIB *kimning?* kuzatib turganiga qaramay sezdirilmagan holda.

Damingni chiqarma, boyning ko'zini shamg'alat qilib qochamiz. G'.G'u-lom. Shum bola. To'yga kelgan xotinar nima bo'lsa ham domlaning ko'zini shamg'alat qilib o'rigidan bir-ikkita uzib yeyishni niyat qilib qo'yishgan ekan. S.Ahmad. Cho'l burguti.

KO'Z(I)NI SHIRA BOSDI *kimning?* takabburlanmoq, tanib, tanimaganga olmoq. Sinonimi: **ko'z(i)ni yog' bosdi** *kimning?*

Yaxshi mol kelsa, ko'zingizni shira bosadi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ko'z(i)ning ochiqligida: ko'z(i) ochiq I

ko'z(i)ning oldiga kelmoq: ko'z old(i)ga kelmoq

KO'Z(I)NING OLOVI CHIQIB *kimning?* qattiq g'azablanganidan go'yo ko'zlari chaqnagan holda.

Sangin, ko'zining olovi chiqib, yoqasidan tutmoqchi bo'lganday, Xoldorning oldiga bordi. A.Muxtor. Tug'ilish.

KO'Z(I)NING OQ-U QORASI [*kimning?*] yakka-yu yagona va qadriyatini beqiyos yuksak. Sinonimi: **ko'z qorachig'(i)** [*kimning?*]

Gulnora og'ir dardga giriftor bo'ladi-yu, ko'zining oq-u qorasi Shukurjonni kampirga qoldirib, dunyodan o'tadi. O.Yoqubov. Ota izidan. Uning birdan-bir dunyosi, umid-orzusi, ko'zlarining oq -u qorasi bolalari edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ko'z(i)ning qiri bilan: ko'z qiri bilan

ko'z(i)ning qirini tashlamoq: ko'z qirini tashlamoq

ko'z(i)ning qorachig'i: ko'z qorachig'(i)

ko'z(i)ning tirikligida: ko'z(i) tirik

KO'Z(I)NING YOG'INI YEMOQ *kim? kimning?* o'zini kimgadir yaqin ko'rsatib, uning xayrixohligidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmoq.

Siz yaramas odamsiz! Sizda vijdon degan narsa yo'q! Ko'zimning yog'ini yeb, boshimga ish tushganda qochdingiz. S.Ahmad. Dadamning o'rtog'i.

KO'Z(I)DAN YOSH CHIQDI *kimning?* kuchli hayajonlanish, to'lqinlanish natijasida ko'ziga nam keldi. Sinonimi: **ko'z(i)ga yosh keldi** *kimning?*

... o'zini bir lahza gunohkor his qildimi, o'pkasi to'lib, ko'zidan yosh chiqib ketdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ko'z(i)ga ko'rinarmidi?!: ko'z(i)ga ko'rinmaslik II

ko'zda tutilmoq: ko'zda tutmoq

KO'ZDA TUTMOQ *kim? nima? yoki kimni?* fikran hisobga olmoq (*rasmiy*). Varianti: **nazarda tutmoq; ko'zda tutilmoq nima? nazarda tutilmoq nima?**

«Masalan?» – dedi Qalandarov, garchi Saida nimalarni ko'zda tutayotgani o'zi bilsa ham. A.Qahhor. Sinchalak. Kimlarni nazarda tutib ayt-yapsiz? P.Qodirov. Uch ildiz. Botirdan hadiksirashi va u haqda qilinishi ko'zda tutilgan ba'zi ishlarga jur'at etmasligi mumkin deb o'yladi. S.Nazar. Yashil boyluk.

ko'zdan g'oyib bo'lmoq: ko'zdan yo'qolmoq

ko'zdan kechirilmoq: ko'zdan kechirmoq

KO'ZDAN KECHIRMOQ kim? nimani? yoki kimni? qarab chiqmoq, birma-bir ko'rmoq, sinchiklab tanishmoq. Varianti: **ko'zdan kechirilmog nima?** **ko'z(i)dan kechirmog kim?** [o'zining] nimani? **ko'zdan o'tkazmog; ko'z(i)dan o'tkazmog kim?** [o'zining] nimani? **nazardan o'tkazmog; nazar(i)dan o'tkazmog kim?** [o'zining] nimani?

Tabib hammasini bir-bir ko'zdan kechirdi-da, o'ylanib qoldi. A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi. To'xta xola bir chekkada o'tirib, to'planganlarni ko'zdan kechirdi. I.Rahim. Chin muhabbat. Keksa militsioner hujjatlarni chiroqqa tutib, qayta-qayta ko'zdan o'tkazdi-d a. Oybek. Quyosh qoraymas. Kim yaxshi ishlayapti, kim yomon – bularning hammasini ko'zidan o'tkazib turadi. Oydin. Yamoqchi ko'chdi. U so'ri yoniga kelganida birdan to'xtab, xotinlarni nazardan o'tkazdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ko'zdan o'tkazmog: ko'zdan kechirmog

KO'ZDAN QOCHIRMASLIK kimning? kimni? yoki nimani? doim kuzatib turmog.

Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma, iziga tush! Oybek. Qutlug' qon. Kundoshlar maslahatlashib, cho'rini bir nafas ham ko'zdan qochirmaslikka qaror berdilar. A.Muxtor. Opa-singillar. Uning qaynanasi Risolat xola ro'zg'orda hech narsani ko'zdan qochirmaydigan xotin edi. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

KO'ZDAN QOCHMOQ e'tibordan chetda qolmog.

[Zokir ota:] Men sizga aytsam, katta ko'rmaganni kichik ko'radi,

kichik ko'rmaganni katta ko'radi, ikkalasi birlashib qarasa, hech narsa ko'zdan qochmaydi, deydi xalq. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

KO'ZDAN QOLMOQ kim? ko'rish qobiliyatini yo'qotmog.

Xudoga shukur, hali ko'zdan qolganimiz yo'q. Ko'zdan qolganimiz-dayam, xalqning jafu chekib turganini ko'ngil ko'zi bilan ham ko'rib olamiz. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

KO'ZDAN YO'QOLMOQ kim? yoki nima? biror tomonga harakatlanib ko'rinmay ketmog. Varianti: **ko'zdan yo'qotmog kim?** kimni? **ko'zdan g'oyib bo'lmoq kim?** yoki nima? **ko'z(i)dan g'oyib bo'lmoq kim?** kimning?

Orqasiga o'girilib Nazokatga bir qaradi-yu, so'ng jadal yurib, daraxtlar orasida ko'zdan yo'qoldi. S.Ahmad. Qadrton dalalar. Xo'jayinning ota meros, qadrton sigiri bo'lgani uchun ko'zdan yo'qolmasin deb men ham, oyoq-oyoqlarimga tikan kirganiga qaramasdan, jonimning boricha uni quvlar edim. G'.G'ulom. Shum bola.

ko'zdan yo'qotmog: ko'zdan yo'qolmog

KO'ZGA DORI nima? juda kam-yob, qadrli.

Tirikchilik qiyin. Bir vaqtlar tuya yong'oq... , endi qumaloq ham ko'zga dori. Non topolmay ko'chada gadoylik qilib yurganlar ozmi, uka? Oybek. Qutlug' qon.

KO'ZGA ILINARLI diqqat-e'tiborga loyiq.

Mana, sizda narsa bor ekan, so'tibsiz, bizda bir parcha yerdan bosh-

ga ko'zga ilinarli hech narsa yo'q edi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'ZGA ILINMOQ 1 nima? yoki kim? kimningdir nazari bir lahza to'xtab o'tmoq. Varianti: **ko'z(i)ga ilinmoq** nima? kimning?

Ishda ham Nazarov tez ko'tarildi. Saidg'ozu bo'lsa bir chekkada ko'zga ilinmay qolib ketaverdi. S.Anorbo- yev. Oqsoy. Yo'llarda yurar ekan, un- da-bunda to'kilgan bir chimdim paxta ko'ziga ilinib qolsa, «Uvol-ku!» – deb darhol engashib yig'ar edi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

2 nima? ko'rish mumkin bo'lmoq
Ko'zga ilinmas simlardan tuzoq- lar o'rnatdi. I. Rahim. Chin muhabbat.

ko'zga ko'rinadimi?! ko'rinar- midim?!: ko'z(i)ga ko'rinmaslik II

KO'ZGA KO'RINARLI ma'lum qiymatga ega, gapirsa arziydigan.

Ko'zga ko'rinarli ishimiz ham bor. Unga yarasha qadr-qiymatimiz ham bor. Oydin. Shiringa maktub.

ko'zga ko'rinmaslik 1: ko'zga ko'rinmoq

ko'zga ko'rinmaslik II: ko'z(i)- ga ko'rinmaslik I

ko'zga ko'rinmaslik III: ko'z(i)- ga ko'rinmaslik II

KO'ZGA KO'RINMOQ 1 kim? tanilmoq. Varianti: **ko'z(i)ga ko'- rinib qolmoq** kim? kimning?

U kombinatning ko'zga ko'ringan ip yigiruvchisi edi. S. Ahmad. Hasrat.

2 kim? yoki nima? o'ziga diqqat- e'tiborni jalb qiladigan bo'lmoq. Vari- anti: **ko'zga ko'rinmaslik I; ko'zga ko'rsatib yubormoq** nima? nimani?

Mana endi birgina tikilgani, ko'z- larining oq-u qorasi – Maynasi bo'yi

yetib, ko'zga ko'rinib qoldi. Sh.Tosh- matov. Erk qushi. Zarur ishlar-ku, lekin ko'zga ko'rinmaydi, bari sal- mog'i yo'q. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

ko'zga ko'rsatib yubormoq: ko'z- ga ko'rinmoq

ko'zga surmoq: ko'zga surtmoq

KO'ZGA SURTMOQ kim? ni- mani? noyob, topilishi qiyin bo'lgani sababli ortiq darajada qadrlamoq. Varianti: **ko'z(i)ga surtmoq** kim? [o'zining] nimani? **ko'zga surmoq.**

Bizning neft parmalash texnikamiz dunyoda yagona. Uni hamma joyda ko'zga surtguday bo'ladilar. I.Rahim. Olovkor. Qishloqda bir tutam pichan- ni ko'zingga surtasan, mana shular- ning mag'zini chaqib ko'r, Komiljon. I.Rahim. Ixlos. Omborlarda chirib qol- gan mollarni endi xaridor ko'zga su- rib oladi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'ZGA TASHLANMOQ nima? 1 ro'y-rost, aniq ko'rinmoq.

Bu joydan boyning butun paxta dalasi ko'zga tashlanib turardi. Oy- bek. Qutlug' qon. Tomorqa chegarasi faqat shox-shabba bilan ajratilgan bo'lib, bog'dagi hamma narsa ko'zga tashlanib turardi. H. Nazir. Ko'korol chiroqlari.

2 aniq ajralib, sezilib turmoq.

Ko'p narsalar shu qarordan ke- yin ko'zga tashlanib qoldi. I.Rahim. Hilola. Uning qoshi qop-qora bo'lsa ham, qoracha yuzida uncha ko'zga tashlanmaydi. P.Qodirov. Uch ildiz. U ichiga o't tushganday hovlida ti- pirchilab-potirlab yurar, o'zini pana- roqqa olishga urinar, aksiga olgandek

hadeb ko'zga tashlanib qolaverardi.
Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

KO'ZGA TIKAN kishilarga yomon ko'ringan kimsa yoki narsa haqida.

Xalqimizda ajoyib bir maqol bor: «Tekin yegan – ko'zga tikan». M.Ismoiliy. Bizning roman.

KO'ZGA TUSHMOQ kim? be-xosdan, kutilmaganda ko'rinmoq. Varianti: **ko'z(i)ga tushmoq nima? kimning?**

Shunisi tuzuk. Ko'zga tushmay uyga yetib oladigan bo'ldim. S.Anorboyev. Oqsoy. *Besh-olti marta ko'ziga tushgan haligi lavha kinofilmni eslatdi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

KO'ZGA TO'TIYO juda aziz, muqaddas yoki noyob narsa haqida.

Tuproq'ing ko'zimga to'tiyo bo'lsin. N.Safarov. Uyg'onish.

KO'ZGA YAQIN BO'LMOQ kim? chiroyi bilan diqqatni o'ziga tortadigan ko'rimli bo'lmoq.

Juvonning o'zi ham ko'zga yaqin bo'lgani kabi, ovozi ham yoqimli edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Qizing kundan-kun ko'zga yaqin bo'layotir, kelinjon, ehtiyot bo'!* Oydin. Do'ndiqdan ham yosh ekan.

KO'ZGA YAQIN kim? chiroyi bilan diqqatni o'ziga tortadigan, ko'rimli.

Yigit tomon ham shunga tarafdor edi, faqat Zamira ko'zga yaqin qiz bo'lgani uchun yigitlar ko'p orqasidan tushishini, biror kor-hol bo'lmasin uchun oldini olib qo'yish kerakligini aytishardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Alijon ko'zga yaqin, sog'lom, sho'x.* S. Abdulla. Sepli kelin.

KO'ZGA CHALINMOQ nima? bir marta noaniq holda ko'rinmoq. Varianti: **ko'z(i)ga chalinmoq nima? kimning?**

Ayni vaqtda, kimningdir tepada qorasi ko'zga chalindi. Oybek. Quyosh qoraymas. *Kirgan kishiga eng avval uy egalarining didi baland ekanligi, toza, pok hayot kechirishlari ko'zga chalinardi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Turkiston tizma tog'larining qorli cho'qqilari ko'zga chalinib qoldi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

KO'ZI QINIDAN CHIQMOQ ko'zi olayib ketmoq, ko'zi ola-kula bo'lmoq.

Dahshatli xabarni eshitgan Mahdumning ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi. H.G'ulom. Mash'al.

KO'ZI TESHILMOQ kutaverib ko'zi to'rt bo'lmoq, toqati toq bo'lmoq. *Yorning yo'liga boqib, Teshildi ko'zim mening.* Y.Mirzo.

KO'ZIM USTIGA [kimning?] mamnuniyat bilan qabul qilishga tayorman. Sinonimi: **bosh ustiga.**

«Birovga hech xolis xizmat qilib o'rganganmisiz?» – «...Agar xizmat-ingizga munosib bo'lsam, ko'zim ustiga». G'.G'ulom. Yodgor.

KO'ZINI BILMOQ kim? nima-ning? ustalik bilan bajara olmoq.

Bu chatoqliklarga men ro'para bo'lsam, bir kunda ilinaman. Hoji bo'lsa ishning ko'zini biladi. A.Qahhor. Sarob. *Qaynatam ishning ko'zini biladigan odamlardan.* O.Yoqubov. Uchrashuv.

ko'zlar to'rt bo'ldi: ko'z(i) to'rt bo'ldi

KO‘ZLARGA TO‘LMOQ [köz-lärgä tol=] tar. *kim?* quvontirmoq.

Bu sifatlar birla ko‘zlariga to‘lub, Ne ajab, bo‘lsa masobih-ul-qulub. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko‘z[lar](i) kosasidan chiqib ket **ta yoz[di]**: ko‘z[lar](i) qinidan chiqib ketayozdi

KO‘ZLARI YO‘LDA [közläri yolda] tar. *kimning?* intizor, mushtoq.

Agar muborak xotira tilar o‘lsa, bu yoni kelmakka, ko‘nglundagi murodincha izzat topqay dag‘i bu mam-lakatning ulug‘lari o‘zining qutlug‘ jamolina mushtoq bo‘lub, bu huruf-ning javobina muntazir bo‘lub, ko‘zlari yo‘lda turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO‘Z[LAR](I) QINIDAN CHI-QIB KET[A YOZ]DI *kimning?* 1 g‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi. Varianti: **ko‘zlar(i) qinidan chiqay dedi; ko‘z[lar](i) kosasidan chiqib ket[a yoz]di.** Sinonimi: **ko‘z [lar] (i)ning paxtasi chiqdi kimning?**

Ostonaqul butun bo‘lgan voqeani so‘zladi. Shoshqol domlaning ko‘zi qinidan chiqib ketayozdi. G‘.G‘ulom. Farzandi solih. «Bu yoqqa kirsam, maylimi?» – «A?! – Rixsiboy akaning ko‘zlari qinidan chiqay dedi, jahl bilan xotiniga qaradi. – Esing joyidami?...» R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

2 hayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi. Varianti: **ko‘z[lar](i) kosasidan chiqib ket[a yoz]di.**

Tuproqqa qorishgan kallalar, uzilgan qo‘llar, yerda cho‘zilgan ola-chipor ichaklarni ko‘rarkan, uning ko‘zlari qinidan chiqayozdi. Oybek. Quyosh qoraymas.

KO‘ZLAR(I)DAN QON TO-MARDI *kimning?* vajohatidan hamla qilib alamdand chiqish niyati ko‘rinib turibdi; o‘ta g‘azabli holatni qayd etadi.

Azim tajang bir qadam oldinga tashladi. Ko‘zlaridan qon tomardi. Juman pismi uning avzoyini ko‘rib, tashvishga tushib qoldi. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

ko‘zlar(i)ni qismoq: ko‘z qismoq
ko‘z[lar](i) chanog‘idan chiqar bo‘ldi: ko‘z[lar](i) qinidan chiqib ket[a yoz]di

ko‘zlar(i) qinidan chiqay dedi: ko‘z-[lar](i) qinidan chiqib ket[a yoz]di

KO‘ZLARINI TUBROQ TO‘L-DURMOQ [közlärini tubraq toldur=] tar. *kimning?* nafsini to‘ydira olmaslik.

Jahon sevgan kishining ko‘zlarini Qanoat to‘ldurur yo o‘lsa tubroq. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO‘ZLAR(I)NING OQINI O‘Y-NATMOQ *kim?* [o‘zining] rozi emasligini ko‘zini ola- kula qilib bildirmoq.

«*Ha, siz ot minishga emas, qaziga ishqiboz ekansiz. Siringizni bilib oldik, usta!*» – «*Aslo unday emas,– ko‘zlarining oqini o‘ynatdi Mirxoliq.– Ot askarning qanoti dedim-ku...*» Oybek. Quyosh qoraymas.

ko‘z[lar](i) ning paxtasini chiqar-moq: ko‘z[lar](i)ning paxtasi chiqdi

KO‘ZMI, PO‘STAKNING YIR-TIG‘IMI?! nega yaqqol ko‘rinib turgan narsani ham ko‘rmaysan?!

Xalq yap-yangi to‘plar, yap-yangi tanklarni shig‘ab berib turibdi-ya, ko‘zmi, po‘stakning yirtig‘imi?! Oybek. Quyosh qoraymas.

ko‘zni bo‘yamoq: ko‘z(i)ni bo‘yamoq

KO'ZNI CHALG'ITMOQ *nima?* adashtirish maqsadida diqqatni chetga, boshqa narsaga qaratmoq.

«Mayli desangiz, to'nimizni almashtiramiz». – «Mayli. Har qalay, ko'zni sal chalg'itar-ku». S.Zunnunova. Gulxan.

ko'zni chirt yumib: ko'z(i)ni chirt yumib

ko'zni qamashtirmoq: ko'z(i) qamashtirdi

KO'ZNI OLADI *nima?* qaragan kishini o'ziga mahliyo qilib qo'yadi.

«Ilgari atlas to'qirdim, uka, a o'rtoq komandir, – deb boshladi u. – Kamina marg'ilonlik. O'zingiz bilasiz, xon atlaski, o'ftobda o'n xil olov bo'lib yonadi-yu, ko'zni oladi». Oybek. Quyosh qoraymas. *Shiftga osilgan gaz fonar nuridan yerga to'shalgan qashqar gilami porlab, ko'zni oladi.* S.Ahmad. Hukm.

KO'ZUM BABAKI XAS BO'L-DI [küzüm bābāki xas bol=] tar. *kimning?* ko'z nuri kamaymoq, qarimoq.

Tiladim bir zamon ko'rsam jahonni, Darig' o, bo'ldi ko'zum babaki xas. S.Saroyi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUM USTUNDA YERI BOR [küzüm üstündä jeri bar] tar. *kimga?* bajonidil.

Ayo aqli tengsiz, so'zi guharbor, O'tursang ko'zum ustunda yering bor. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUMDAN KETMAS [küzümdän ketmä=] tar. *kim? kimning?* yodi bilan xayoli band bo'lmoq.

Erta kecha ko'zumdan ketmas uchun xayoling, Ne yerga boqsam anda husnung ayon ko'runur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUMNI YOQTU QILMOQ [küzümni jaqtu qil=] tar. *kim?* jamoli bilan ko'zini yashnatmoq.

Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy, Erur yuzi quyoshtek olamoroy. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'ZUMNI YUMMASLIK [küzümni jumma=] tar. *kim?* bedor bo'lmoq.

Tilosang bilmag'a mendan kelib so'r, Tong otqincha ko'zumni yummayin men. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bir kecha otam xidmatinda tong otqincha ko'zum yummayin Kalomulloh ilayimda qo'yub o'qur edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUN BOG'LAMOQ [küzün bayla=] tar. *kim? kimning?* ataylab adashtirmoq, xato qilishga undamoq.

Ko'z un bog'lar darohim oqil erining, Tama'solur uchar qushni tuzoqqa. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUN OCHMOQ I [küzün aç=] tar. *kim? kimning?* ko'z nurini qaytarmoq.

Ul ayyomda Hind iqlimidan bir hoziq hakim kelib, iloj qilib, ko'zsuzlar ko'zun ochar edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'ZUN OCHMOQ II [küzün aç] tar. *kim?* hushyor bo'lmoq.

Chekib yo, otting o'q dushman yuzina, Ko'zung och, o'qina qarshi o'turdung. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'CHA CHANGITIB foydali, natijali ish bilan shug'ullanmay.

Yoshlik o'tib ketdi ko'cha changitib, O'ksinaman o'ylanib, ushlab iyak. S.Abdulla. Oilada. «...Sog'im sigirlarni o'lim og'zidan qaytarib oldiya! Yo tavba, bu o'sha o'zining ilgari

ko'cha changitib yuradigan Sherimi?» Xola o'g'liga mehr bilan tikildi. S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'CHADA QOLMOQ kim?

1 boshpanaga, g'amxo'rlik qiladigan kishiga ega bo'lmaslik.

Bundan bir yarim yil burun yig'lagan edim. Unda bolalarim ko'chada qoladi deb o'ylagan ekanman. Yo'q, tirik yetim bo'ldi-yu, lekin ko'chada qolmadi. Bu zamonda hech kim ham ko'chada qolmas ekan. A.Qahhor. Og'riq tishlar.

2 qadr-qiymatini yo'qotmoq.

«Qoch! – dedi La'lixon qo'li bilan siltab.– Harom og'zingni menga tegizma!» – «Uyqisirayapsanmi, og'zim ko'chada qolgani yo'q». Oy-din. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit?

KO'CHASIDAN O'TMASLIK

kim? nimaning? xabardor bo'lmaslik, tanish bo'lmaslik, bilmaslik

«...E, bu qanaqa odam o'zi! – dedi Jumayev tutaqib. – Tarixning ko'chasidan o'tmagan bolalarni imtihonga kirgizibdi-yu...» P.Qodirov. Uch ildiz.

KO'CHASIGA KIRMOQ kim?

nimaning? biror faoliyatni boshlamoq.

Keyin oson tirikchilik izlab, sayoqlik ko'chasiga kirgan. H.Nazir. Odamning qadri. «Bu domla qayerlik, mulla Ramazon?» – «Domla emas, maktabning zavxozi edi... Domlalik ko'chasi-ga kirmagan». H.Nu'mon. Fasllar.

KO'NGIL BERMOQ kim? kimga?

sevmoq, oshiq (ma'shuq) bo'lmoq. Varianti: **bergan ko'ngil**. Sinonimi: **yaxshi ko'rmoq** **1** kim? kimni?

Lekin Bekniyoz sizni sevmaydi. U boshqa qizga ko'ngil bergan. S.Ab-

duqahhor. Hayotning boshlanishi. *Bir-biringizga ko'ngil berganliklaringizni bilaman.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

ko'ngil bo'lmadi: ko'ngil(i) bo'lmadi

KO'NGIL BOG'LAMOQ kim?

kimga? sevish hissiga erk bermoq (qiz bilan yigit). Sinonimi: **muhabat qo'ymoq** kim? kimga? **ko'ngil qo'ymoq** kim? kimga?

Chunki u menga ko'ngil bog'lagan, o'z ko'nglida men bilan turmush qurishni muqarrar qilgan. S.Ayniy. Qullar.

ko'ngil g'ashligi: ko'ngil(i) g'ash

ko'ngil joyiga tushdi: ko'ngil(i) joyiga tushdi

ko'ngil keng bo'lsa: ko'ngil(i) keng

ko'ngil ko'targuday: ko'ngil(i)ni ko'tarmoq

ko'ngil ko'tarmaydi: ko'ngil(i) ko'tarmaydi

ko'ngil ko'taruvchi: ko'ngil(i)ni ko'tarmoq

ko'ngil o'sishi: ko'ngil(i) o'sdi

KO'NGIL OCHMOQ I kim?

[nima bilan?] xursandchilik qilmoq, dilxushlik qilmoq. Varianti: **ko'ngil ochmoq nima?** Sinonimi: **vaqti chog'lik qilmoq** kim? [kim bilan?]; **kayfi chog'lik qilmoq** kim? [kim bilan?]

Bironta ko'ngil ochadigan joy ham yo'q: kinomi, pivoxonami... A.Muxtor. Tug'ilish. *Yalpizlarning dimoqqa urilgan hidi, qushlar ovozi ko'ngilni ochadi.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

ko'ngil ochmoq II: yurag(i)ni ochmoq

ko'ngil ovlamoq: ko'ngil(i)ni ovlamoq

KO'NGIL QO'YMOQ *kim? kimga?* sevish hissiga erk bermoq (qiz bilan yigit). Varianti: **qo'ygan ko'ngil(i)** *kimning? kimga?* Sinonimi: **muhabbat qo'ymoq** *kim? kimga?* **ko'ngil bog'lamoq** *kim? kimga?*

Tegsa, arziydigan yigit. «Bundan ortig'ini toparmidim», – dedim, ko'ngil qo'ydim. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Sobirning Onaxonga ko'ngil qo'ygani zveno qizlariga ma'lum bo'lgan edi. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar.

ko'ngil qoraligi bilan: ko'ngil(i) qora

ko'ngil so'ramoq: ko'ngil(i)ni so'ramoq

ko'ngil to'q: ko'ngil(i) to'q

ko'ngil tortar: ko'ngil(i) tortdi

ko'ngil uzmoq: ko'ngil(i)ni uzmoq

KO'NGIL UZOQLASHDI qadr-donlik aloqalari yo'qola boshladi.

Oraning uzoq bo'lishi mayli-ya, ko'ngil uzoqlashsa, yomon bo'lar ekan. H.Nu'mon. Fasllar.

ko'ngil xiralik: ko'ngil(i) xira

ko'ngil xushi: ko'ngil chog'

ko'ngil yozmoq: ko'ngil(i)ni yozmoq

ko'ngildan chiqarmoq: ko'ngil(i)-dan chiqarmoq

ko'ngildan kechirmoq: ko'ngil(i)-dan o'tmoq

ko'ngildan o'tkazmoq: ko'ngil(i)-dan o'tmoq

ko'ngilga kelmoq: ko'ngil(i)ga kelmoq

ko'ngilga keltirmoq: ko'ngil(i)ga kelmoq

ko'ngilga tegmoq: ko'ngil(i)ga tegmoq

ko'ngilga tugmoq: ko'ngil(i)ga tugmoq

ko'ngilga urmoq: ko'ngil(i)ga urmoq

ko'ngilni cho'ktirish: ko'ngil(i) cho'kdi

ko'ngilni g'ash qilmoq: ko'ngil(i) g'ash bo'ldi

ko'ngilni keng qilmoq: ko'ngil(i)-ni keng qilmoq

ko'ngilni ochmoq: ko'ngil ochmoq I

ko'ngilni ozdirmoq: ko'ngil(i) ozdi

ko'ngilni sovitmoq: ko'ngil(i) sovidi

ko'ngilni sovituvchi: ko'ngil(i) sovidi

ko'ngilni to'q qilmoq: ko'ngil(i) to'q bo'ldi

ko'ngilni to'q tutmoq: ko'ngil(i) to'q bo'ldi

ko'ngilni uzmoq: ko'ngil(i)ni uzmoq

ko'ngilni xira qilmoq: ko'ngil(i)-ni xira qilmoq

ko'ngilni xush qilmoq: ko'ngil(i) xush bo'ldi

ko'ngilning bir chekkasi g'ash: ko'ngil(i) g'ash

ko'ngilning chigilini yozmoq: ko'ngil(i)ni yozmoq

ko'ngilning ochilishi: yurag(i)ni ochmoq

ko'ngilning yaqinligi: ko'ngil(i) yaqin

KO'NGIL CHOG' kayfiyat yaxshi. Varianti: **ko'ngil(i) xush** *kimning?* **ko'ngil xushi** *kimning?* Sinonimi: **vaqt(i) chog'** *kimning?* **dimog'(i) chog'** *kimning?* **kayf(i) chog'** *kimning?*

«Hamma gap ko'ngilda,– javob berdi «Sakson» ota,– agar ko'ngil chog' bo'lsa, ostingdagi poxol zarrin to'shakday ko'rinadi, o'g'lim». Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. «Hamma narsa front uchun deb ishlasak, vaqti kelganda bitta ko'ylakni jomoshov tepasida turib kiysak-u, ko'ngil xushi uchun yeng ichida atlas uzatilsa». H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

KO'NGL(I) BORMADI kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga? ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik. Sinonimi: **ko'ngl(i) bo'lmadi** kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga? **ko'z(i) qiymadi 1** kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga?

Yangi mehmonlarni og'ir ishga, yangi yer ochishga qo'yishga ko'nglimiz bormayapti-da. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Keng dashtda erkin o'ynoqlab yurgan bu jonivorlarni otishga ko'ngli bormadi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ko'ngl(i)ni cho'ktirmoq: ko'ngl(i) cho'kdi

KO'NGLI ALDAN KETMOQ [kõnli eldän ket=] tar. kimning? sevmoq.

Bir kimersaning ko'ngli aldan ketib dag'i jon tarkin urub, nazari halokat yerina tushub turar edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGL(I) AYNIDI kimning? nimadan? **1** («ovqatadan) organizmi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ni aynitmoq** nima? («ovqat») kimning? Sinonimi: **ko'ngl(i) ozdi 3** kimning? nimadan? («ovqat»dan).

Biroq qovundan baliq hidi kel-sa, ko'nglingiz ayniydi... A.Qahhor. Ikki yorti – bir butun. Bu erta ham men lo'yasho'rak yeb edim. Tuzi oz-roq bo'lgan ekan, nonsiz ko'nglimni aynitdi. S.Ayniy. Qullar.

2 («ovqat»dan boshqa narsadan) tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'anmoq.

O'zini har qancha majbur qilsa ham, hech bo'lmay qoldi. Maktabini ko'rsa, ko'ngli ayniydigan bo'ldi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. Mening qalbimda ham unga joy yo'q, uzib itga tashladim. Endi eslasam, ko'nglim ayniydi. S.Anorboyev. Yo'l-lanma bilan.

KO'NGL(I) BEJO kimning? ruhan notinch, bezovta. Sinonimi: **yurag(i) taka-puka** kimning?

Faqat Tursunoy eriga tikilib, uning ko'ngli bejologiga hayron bo'ldi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

KO'NGL(I) BIR XIL BO'LIB KETDI kimning? ruhiyatida g'amgin to'lg'anish yuz berdi. Varianti: **bir xil bo'lib ketmoq** kim?

Ergash onaning yuziga astoydil tikildi, qizargan ko'zlarini, sal ko'karib shishgan qovoqlarini, kechagi dahshatli voqea va uyqusizlikdan ozib, so'lib qolgan chehrasini ko'rgach, ko'ngli bir xil bo'lib ketdi. A.Muxtor. Opa-singillar. «O'yurak, yor kelmay, orzuqqaning kelmay turib muncha o'rtanmasang!» G'ulomjon bir xil bo'lib ketdi. M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

KO'NGLI BO'LMOQ [kõnli bol=] tar. kimning? kimga? yoki nimga? mayli bo'lmoq, xohishi bo'lmoq.

Dushman bilan sulh etarg'a ko'nglung bo'lsa, Ul so'ksa qafodor qil yuzina tahsin. S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

ko'ngl(i) bo'ldi?! ko'ngl(i) bo'l-madi

KO'NGL(I) BO'LMADI *kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga? ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik.* Varianti: **ko'ngl(i) bo'ldi?! kimning? kimni? nima qilishga? ko'ngil bo'lmadi kimni? nima qilishga?** Sinonimi: **ko'ngl(i) bormadi kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga? ko'z(i) qiymadi 1 kimning? kimni? yoki nimani? nima qilishga?**

«Yo'q-e, xilvatga bormasin, o'zim olib kelaman», – dedi yana ko'ngli bo'lmay onasi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Tilab-tilab topgan bolangni yasliga bergani qandoq ko'ngling bo'ladi?! A.Qahhor. Og'riq tishlar. Bir-ikki bola juda og'ir yotgan edi, hozir ancha tuzuk. Shularni tashlab ketishga, rosti, ko'ngil bo'lmadi.* S.Abdulla. Muqimiy.

KO'NGL(I) BOR *kimning? 1 nimaga? moyil, xayrixoh.* Antonimi: **ko'ngl(i) yo'q kimning?**

Shu yerda qolib ishlashga ko'ngli borligini birdan aytishga bo'yni yori bermay o'ylandi. H.Nazir. Odamning qadri.

2 kimga? sevlashga moyil.

Unday desa, Soliyaning pichingida ham jon bor. Axir ilgarilari «aka» demas edi-ku? Ko'ngli bormikan-a! S.Anorboyev. Sherahli sevib qoldi. *Muhammad Aminxo'janing ham ko'ngli borligini payqab, shunga o'zlari bosh qo'shsalar deb keldim-da.* S.Abdulla. Muqimiy.

KO'NGL(I) BO'SH *kimning? ko'ngilchan, rahmdil.* Varianti: **ko'ngl(i)ning bo'sh [ekan]ligi.** Sinonimi: **ko'ngl(i) yumshoq kimning? – yumshoq ko'ngil kim?** Antonimi: **ko'ngli qattiq – qattiq ko'ngil; tosh yurak – yuragi tosh.**

Jahldan tushganingizdan keyin, yana yumshab qolasiz, ..., ko'nglingiz bo'sh. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Qarigandan keyin shunaqa ko'ngli bo'sh bo'lib qolar ekan kishining... O.Yoqubov. Ota izidan. Endi ko'nglimning bo'shligiga kelganda, bu ham uning sadoqatiga bog'liq.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

KO'NGL(I) BO'SHADI I *kimning? [nimadan?] ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetmoq.* Varianti: **ko'ngl(i) bo'shshadi.**

Burxon ota ham shuni esladimi yo boshqa bir narsadan ko'ngli bo'shab ketdimi, ishqilib, u ham ko'ziga yosh oldi. O.Yoqubov. Ota izidan.

ko'ngl(i) bo'shadi II: yurag(i) bo'shadi

ko'ngl(i) bo'shshadi: ko'ngl(i) bo'shadi I

KO'NGL(I) BUTUN *kimning? xotirjamligini topgan.* Antonimi: **ko'ngl(i) yarimta kimning?**

Mana Suvonjon o'z baxtini topgan: halol mehnat qilib, el-yurt o'rtasida obro' qozondi; dili diliga, tili tiliga tushadigan sevar yorini topdi; ro'zg'ori but, ko'ngli ham butun. S.Anorboyev. Oqsoy.

ko'ngl(i) buzildi: ko'ngl(i)ni buzmoq

KO'NGL(I) EGRI *kimning? har narsani yomonlikka yo'yadigan, yomon niyat bilan yondashadigan.*

«Ikkinchi aybi shuki, xotinidan ko'p kaltak yeydi, – dedi va o'zi bil-sa ham, yana so'radi. – Menga qara, ko'proq nima uchun uradi?» – «Rashki yomon». Ko'ngli egri! – dedi Eshon. – O'likdan-u hali tug'ilmagan chaqaloqdan rashk qilmaydi, xolos». A.Qahhor. Sinchalak.

KO'NGL(I) ERIDI kimning?–
KO'NGL(I)NI ERITMOQ nima? kimning? ta'sirlanib, dilida iliqlik, ijobiy munosabatda bo'lish hissi yuzaga keldi.

Chindan ham ishonishini sezib, a'zoyi badani jimirlab ketdi. Ko'ngli birdan erib, ko'ziga yosh keldi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bu so'zlar yana boyagiday Jabborning ko'nglini eritib yubordi-yu, kulimsiraganicha Xo'ja-qulning ketidan ergashdi. O.Yoqubov. Uchrashuv. Qimronning xushkayfligimi, cholning benihoya samimiyligimi polvonning ko'nglini eritdi. H.Nazir. Odamning qadri.

ko'ngl(i) ezildi: yurag(i)ni ezmoq

KO'NGL(I) JOYIGA TUSHDI kimning?xotirjam bo'lmoq, tinchlanmoq. Varianti: **ko'ngl(i) o'rniga tushdi; ko'ngil joyiga tushdi(–); ko'ngl(i)ni joyiga tushirmoq nima? kimning?** Antonimi: **yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi kimning?**

Kuniga bir bozor aylanib kelmasa, ko'ngli joyiga tushmas edi. A.Muxtor. Xayri. Keksa cho'pon o'z so'zi bekor ketmaganini ko'rib, ko'ngli o'rniga tushdi, shekilli, suhbatga yana qaytdi. S.Anorboyev. Oqsoy. Narzi naqdona bo'lmasa, ko'ngil ham joyiga tushmaydi, ish ham yurishmaydi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Kellingning tong paytida qaynananing bir

og'iz so'zi bilan erining yonidan sap-chib turib, ostonada paydo bo'lishi kampirning ko'nglini joyiga tushirdi. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi. Rasta ustida, ostida, qop-qanorga yonboshlab omonat uxlab yotgan keksa-yu yosh turshakfurush, yong'oqfurush, mayzfurush, pistafurush va hokazo furushlar uyquli ko'zi bilan apil-tapil yon-verini paypaslay ketdi, ko'ngli joyiga tushganlar birin-sirin oh chekayotgan juvon tevaragiga to'plana boshladi. X.Do'stmuhammad. Jajman.

KO'NGL(I) KENG kimning? oliy himmat, saxovatli. Varianti: **ko'ngil keng bo'lsa (–).**

U ko'ngli keng, vazmin bo'lishni, ancha-muncha narsani ichiga bema-lol sig'dirib, hech narsa ko'rmagan-day bo'lib yurishni havas qiladi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ko'ngil keng bo'lsa, hujra ham saroyday. Oybek. Nur qidirib.

ko'ngl(i) ko'tarildi: ko'ngl(i)ni ko'tarmoq

KO'NGL(I) KO'TARMAYDI kimning? nimani? **1** («ovqatni») yana yeb-icha olmaslik.

Shu kunlarda yog'liq ovqatni ko'nglim ko'tarmay qo'ydi. So'zlashuv uslubi.

2 («ovqat»dan boshqa narsani) yoqtirmaslik. Varianti: **ko'ngil ko'tarmaydi nimani? yurak ko'tarmaydi nimani?**

Qarindoshlar, qo'shnilar – hech kim yoqmas, hech narsani ko'ngli ko'tarmas, hech narsani istamas edi. Oybek. Nur qidirib. Shunday jimlik cho'kdiki, bu xildagi jimlik aytgani til bormaydigan, eslashni ko'ngil ko'tarmaydigan biron dahshatli fojeaga uchrab,

halok bo'lgan kishining nomini be-xosdan tilga olingan vaqtda bo'ladi. A.Qahhor. Xotinlar. *Sayilni yurak ko'tarmay, Yangiqo'rg'onga kela berdim.* S.Abdulla. Muqimiy.

KO'NGLI KUYMOQ [kõnli kuj=] tar. *kimning?* qalbi ozor ko'rmoq, xafa bo'lmoq.

Kuyar ko'nglum saboning ul ishidin, Nechukkim kuyisa xirmanlar yashindin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGL(I) NOZIK *kimning?* dili arzimagan narsadan ham ozor topadigan, ehtiyotkorlik bilan muomala qilishni talab etadigan.

Bolaning ko'ngli nozik. Otasiz o'ksib yuribdi. I.Rahim. *Ixlos. Beka, umrida eng aziz va ko'ngli nozik mehmonlarni kutgan kabi, katta shodlik va dovdirash bilan xizmat qila boshladi.* Oybek. Quyosh qoraymas.

ko'ngl(i) ochildi: ko'ngl(i)ni ochmoq I

ko'ngl(i) ochiq: ochiq ko'ngil

KO'NGL(I) OG'RIDI *kimning?* [nimadan?] – **KO'NGL(I) OLINDI** *kimning? kimdan?* avvalgi yaxshi munosabati o'rniga ranjish hissi uyg'ondi.

Kimsandan ko'ngli olingan Hasan bog'bon bilan boqqa yetguncha yo'lda Kimsandan shikoyat qilib bordi. S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan. *Sulton bu so'zni eshitib, ko'ngli og'rib, ko'zidan yosh keldi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i) oq: oq ko'ngil

KO'NGL(I) OZDI *kimning?* 1 behush bo'lmoq. Sinonimi: **hush(i)-dan ketmoq kim?** [o'zining?]; **hush(i)ni yo'qotmoq 1 kim?** [o'zining?];

o'z(i)dan ketmoq kim? Antonimi: **hush(i)ga kelmoq 1 kim?** [o'zining]; **o'z(i)ga kelmoq 1 kim?** **xush(i) o'z(i)ga keldi 1 kimning?**

U darmonsizlanganidan Nizomidinovni bir siltashidayoq o'zi gandaraklab ketdi. Ko'ngli ozdi. Chalqanchasiga yiqildi. S.Ahmad. Hukm.

2 nimadan? ochqagani tufayli behuzur bo'lmoq.

Ichim tortishib, ko'nglim ozgan-day bo'ldi. Ko'zim tindi. I.Rahim. Olovkor. *Hasan ovchining ochlikdan ko'ngli ozib ketdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

3 nimadan? («ovqat»dan) organizmi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ni ozdirmoq nima? kimning?** **ko'ngilni ozdirmoq nima?** Sinonimi: **ko'ngl(i) aynidi 1 kimning? nimadan?** («ovqat»dan).

...ammo qayrag'ochdagi chumchularning chig'irlashi negadir ko'nglini ozdirdi. A.Qahhor. Tomoshabog'.

KO'NGLI PARISHON [kõnli parişan] tar. *kimning?* fikri tarqoq.

Rizqi parishon odamiy ko'ngli parishon dam-badam. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i) pok: ko'ngl(i) toza

KO'NGL(I) QOLDI *kimning? kimdan? yoki nimadan?*

KO'NGL(I)NI QOLDIRMOQ *kim? kimning?* avvalgi yaxshi munosabati o'rniga xush ko'rmaslik hissi uyg'ondi.

«So'ziga yarasha javob qilsam, balki mendan shuni kutmagan bo'lar va ko'ngli qolar», – deb o'ylardi. A.Qahhor. Sarob. *U Juvonning egni-*

da odmi chit ko'ylak bo'lib, qo'llari bilan bo'yni bezaklardan xoli edi. Balki yoshi qaytgan, dunyo bezaklaridan ko'ngli qolgandir? Yo'q, bunday deb bo'lmaydi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

ko'ngli qora bo'ldi: dil(i) siyoh bo'ldi

KO'NGL(I) QORA kimning? yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan. Varianti: **ko'ngil qoraligi bilan (-)**. Sinonimi: **ichi qora kimning?** Antonimi: **ko'ngli toza kimning? oq ko'ngil - ko'ngli oq kimning?**

Qaysi ko'ngli qoradan chiqdi ekan bu gaplar? A.Muhiddin. Ko'ngillar. *Ko'ngil qoraligi bilan demagan, yo'q. To'tiqizning ko'ngli qora emas, alamiga chidamaganidan, xotining o'zi yomonligidan degan.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

KO'NGLI QORARMOQ [kõnli qarar=] tar. kimning? nimadan? yoki kimdan? kayfiyati buzilmoq, ozor topmoq.

Qur'on o'qusa, eshitganlarning ko'ngli qorarur edi. S.Saroyi. Gulis-toni bit-turkiy.

KO'NGLI QUTULMOQ [kõnli qutul=] tar. kimning? nimadan? ozod bo'lmoq, bartaraf bo'lmoq.

Bo'loli aysh-u ishrat peshalardin, Qutulsun ko'nglumiz andeshalardin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGL(I) RAVSHAN kimning? dili har qanday noxushliklardan xoli.

Chuqur ag'darilgan nam tuproq hidi dimoqqa uradi, har ikkisining ham ko'ngli ravshan, kayfi chog' edi. S.Nazar. Yashil boylik.

KO'NGL(I) RAVSHAN TOPDI kimning? dili har qanday noxushliklardan xoli bo'ldi.

Otasining xurragini eshitib, ko'ngli ravshan topdi. Onasi ham pish-pish uxlar edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

KO'NGL(I) RAVSHAN TORTDI kimning? dili noxushliklardan ozmi-ko'pmi xoli bo'ldi.

Besh-o'n minut ishlagandan so'ng, orqasiga bir qarab, ko'ngli ravshan tortdi. N.Nazarov. Zamon.

KO'NGL(I) SEZMOQ kim? oldindagi musibatni ichki sezgi orqali his qilmoq.

Bugun ko'z oldimni negadir qora tuman bosib kelaverdi. Ko'ngil sezar ekan-da. Sh.Bo'tayev. Qora tuman. *Tikka borib, nima gap, mana men keldim, desa bo'ladi-ku, ammo akasi uning bunday harakat qilishiga mutlaqo qarshi, tinch yur, u qandaydir kasofatni boshlab kelgan - hamma shunday deyapti, buni o'zimning ham ko'nglim sezib turipti, sen yaxshisi u bilan uchrashma, gaplashib ham yurma, deydi.* Sh.Bo'tayev. Qarz.

KO'NGL(I) SINDI kimning? - **KO'NGL(I)NI SINDIRMOQ** kim? kimning? zarba yeb, ma'naviy shikast topmoq. Varianti: **singan ko'ngli** [kimning?].

G'ulomjonning ko'ngli sindi, yo'q, ko'ngli emas, umr orzusining niholi sindi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Fotimaning sendan koyimoqqa haqqi bor. Boshda sen uning ko'nglini sindirding.* S.Ayniy. Qullar.

KO'NGL(I) SINIQ [kimning?] zarba yeb, ma'naviy shikast topgan. Varianti: **siniq ko'ngil.**

Muhammad Jamolning she'rlari ozod qushlar kabi ta'sirli. Ko'ngli siniq mazumlarga cho'g'day yoqadi. Oybek. Nur qidirib. «Niyatimizga yetolmadik», – dedi O'rinbu siniq ko'ngil bilan. S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'NGL(I) SOVIDI kimning? kimdan? yoki nimadan? **KO'NGL(I)-NI SOVITMOQ** kim? kimning? kimdan? avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi. Varianti: **ko'ngilni sovitmoq** kim? kimdan? **ko'ngilni sovituvchi** (–).

Keyin madrasa ilmlaridan ko'ngli soviy boshladi. Oybek. Qutlug' qon. Endi u malikani qo'lga kiritmoq uchun Botirdan ko'nglini sovitmoq kerak. S.Nazar. Yashil boylik. Mahkam yana o'sha hamma narsadan ko'ngilni sovituvchi xira shubha va noma'lum gunoh tuyg'usi bilan dekanatdan chiqdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

KO'NGL(I) SUST KETDI kimning? nimaga? nima qilishga? o'ta kuchli ishtiyoq his etmoq.

Saidiyga ko'p mol-dunyo, yaxshi xotin, uy-ro'zg'or va'da qildi. Opa-si buni entikib-entikib so'zlar edi. Saidiyning ham shunday maishatga ko'ngli sust ketgan minutlari bo'ldi. A.Qahhor. Sarob.

KO'NGL(I) SUV ICHDI [kimning?] iliq munosabatda bo'lishga moyillik tug'ildi.

Bularning ichida ko'nglim sal suv ichib, ichimda allanimalar to'g'risida plan chizib yuradiganim, brigadirimizning jiyani Qumri qiz ham bor ekan. G'.G'ulom. Tirilgan murda.

KO'NGL(I) TO'LDI kimning? 1 kimdan? mamnun bo'lmoq.

Ikkovi ham o'g'illaridan ko'ngil-lari to'lib suhbatlashayotganlari bilinib turardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

2 nimadan? qanoat hosil qilmoq, tinchimoq.

Ishning bu tomonidan ko'ngli to'lgan Jo'raboy xotirjam dala aylanadi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Belimning belbog'i endi bu. Ko'nglim to'ladimi busiz?! Akasini ko'rib, yozilib keladi, qo'zichog'im! I.Rahim. Chin muhabbat.

ko'ngl(i) to'q [ekan]ligi: ko'ngl(i) to'q

KO'NGL(I) TO'Q kimning? nimadan? yoki kimdan? ishongani holda xotirjam. Varianti: **ko'ngil to'q** kimdan? yoki nimadan? **ko'ngl(i) to'q [ekan]ligi.**

«Xo'jalik ishlaridan ko'nglim to'q», – dedi Saida. A.Qahhor. Sinchalak. Akramov qurilish ishlariga Toshpo'latov bosh bo'lganidan ko'ngli to'q edi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. «Bektemirdan ko'nglim to'q, – dedi Ali tajang, – kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho'tir – u ham qo'rqoq, ham ammamning buzog'i». Oybek. Quyosh qoraymas.

KO'NGL(I) TO'Q BO'LDI kimning? [nimadan? nimaga? yoki kimdan?].

KO'NGL(I)NI TO'Q QILMOQ kim? [o'zining] ishongani holda xotirjam bo'lmoq (o'z-o'zicha) – ishongani holda xotirjam qilmoq (o'zini o'zi). Varianti: **ko'ngl(i)ni to'q tutmoq; ko'ngilni to'q qilmoq** kim? **ko'ngilni to'q tutmoq** kim?

Men birovning haqini yeyishdan qo'rqaman, bolam. Bu yog'idan

ko'ngling to'q bo'laversin. S.Anor-boyev. Oqsoy. *Bu yerda hosilotlikni eplolmagan kishini u yerda hosilot qilishmaydi, bunga ko'nglingiz to'q bo'lsin.* S.Nazar. Yashil boylik. *O'g'lidan ko'ngli to'q bo'lgach, yana nimanidir qidirmoqqa, tevaragiga alanglab qaramoqqa boshladi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

KO'NGL(I) TOG'DAY KO'TARILDI kimning? xursand qilib, benihoyat ruhlantirmoq. Sinonimi: **ko'krag(i) tog'day ko'tarildi** kimning?

Nuri opa, esonmisiz? Bizning kulgaga qadam qo'yishingiz ko'nglimni tog'dek ko'tardi-da. Oybek. Qutlug' qon. *Husaynning o'n birdan o'n ikkiga qadam qo'yib, ishga yaraydigan bo'lib qolgani beva onasining ko'nglini tog'dek ko'tardi.* Mirmuhsin. Ibis qushlari.

ko'ngl(i) tog'day ko'tarildi: ko'ngl(i)ni tog'day ko'tarmoq

ko'ngl(i) topilsa: ko'ngl(i)ni topmoq

KO'NGLI TOR [kõnli tar] tar. kimning? xafa, dilgir.

Ko'nglum tor edi, ul sababdan-kim, Boshmoqim yo'q, yalin oyoq edim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGLI TORTMOQ [kõnli tart=] tar. kimning? nimaga? moyilligi bo'lmoq.

Kishining poklarg'a ko'ngli tortar, Husn xudpok domanliqtin ortar. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGL(I) TORTDI [kimning?] yoqtirmoq. Varianti: **ko'ngil tortar** (-); **dil tortar** (-); **dil(i) tortgan** [o'zining?]. Sinonimi: **xush ko'rmoq** kim? nimani? yoki kimni? **ta'b(i) tortdi** kimning?

Bilaman, mening narsamga zor emas-sizlar, aybga qo'shmaysizlar, ko'nglim tortdi keltirdim. Oydin. *Mardlik – mangulik.* *Kechki ovqatni ko'ngli tortmay zo'rg'a yedi-yu, hech kimga? hech narsa demay yotdi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.* *Said Jalolxon eshon qardoni Azim boyvachchadan boshqa ko'ngil tortar kishisi bo'lmagani-dan, u bilan qish kechalari uzoq-uzoq suhbat quradigan bo'ldi.* S.Ahmad. *Hukm.*

KO'NGL(I) TOZA kimning? yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan. Varianti: **yurag(i) toza; ko'ngl(i) pok; yurag(i) pokiza; yurag(i) sof; qalb(i) pok.** Sinonimi: **oq ko'ngil – ko'ngl(i) oq** kimning? Antonimi: **ich(i) qora** kimning? **ko'ngl(i) qora** kimning?

Xadicha yaxshi ayol: ko'ngli toza, mard, to'g'ri so'z. Oybek. *Oltin vodiydan shabadalar.* *Zumrad ancha sergap, shaddod qiz bo'lsa ham, ko'ngli pok, do'stlikka dog' tushirmaydigan qizlardan edi.* S.Zunnunova. Gulxan. *Buning sababi muhabbat qo'ygani-dan emas, Botirning olijanobligidan, yuragi pokizaligidan, bilimdonligidan deb bilardi.* S.Nazar. Yashil boylik. *Askaralining zahmatkash, yuragi sof yigit ekanligi kundan-kun ravshanroq ko'rina boshladi.* Mirmuhsin. Jamila.

ko'ngl(i) uvushdi: yurag(i) uvushdi

KO'NGL(I) VAYRON BO'LDI kimning? – **KO'NGL(I)NI VAYRON QILMOQ** kim? kimning? kuchli ruhiy ozor topmoq. Varianti: **dil(i) vayron bo'ldi.**

Mavj urib turgan shirin xayollar va yoshlikning unutilib bo'lmas zavq-

shavqiga to'lgan qiz ko'ngli vayron bo'ldi. S.Ahmad. Qadrton dalalar. Mengina o'lay, surishtirmasdan-netmasdan bola bechoraning ko'nglini vayron qildim-ku. U.Nazarov. G'urur.

KO'NGL(I) XOTIRJAM BO'LMOQ kim? tinchlanmoq.

Ko'ngli xotirjam bo'lganiga qanoat hosil qilgandek, Tolik ko'ksini to'ldirganicha chuqur nafas oldi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

KO'NGL(I) XIJIL BO'LDI kimning? nima sababli? **KO'NGL(I) NI XIJIL QILMOQ** nima? kimning? noqulay ahvolda qolib, o'zini notinch his etmoq.

...hech qachon bunaqa bemahalda telefon qilmagani, buning ustiga nima masalada chaqirayotganini aytmagani uchun Qalandarov, ko'ngli xijil bo'ldi-yu, ertasiga ertaroq yetib bordi. A.Qahhor. Sinchalak. Qizga bu bir tomondan yoqsa, bir tomondan ko'nglini xijil qilmoqda edi. N.Safarov. Uzoqni ko'zlagan qiz.

KO'NGL(I) XIRA BO'LDI kimning? [nimadan?]. **KO'NGL(I) NI XIRA QILMOQ** nima? yoki kim? kimning? tashvish qilmoq. Varianti: **ko'ngilni xira qilmoq nima? dil(i) ni xira qilmoq.** Sinonimi: **ko'ngl(i) g'ash bo'ldi kimning? (nimadan?) – ko'ngl(i)ni g'ash qilmoq nima? ba'zan kim? kimning? tashvish tortmoq 1 kim? nima haqda? ko'ngl(i)ni g'ashlamoq kim? kimning? – ko'ngl(i) g'ashlandi kimning? nimadan? Antonimi: ko'ngl(i) yorishdi kimning? – ko'ngl(i)ni yoritmoq nima? kimning? ich(i)ga chiroq yoqilganday bo'ldi kimning?**

Biroq Salomat opa choyga uringanda, yana birdan ko'ngli xira bo'la boshladi. A.Muxtor. Hayotga chaqiriq. Ko'nglimni xira qilgan yana bir gumon, andisha bor edi. Oybek. Oltin vodiydandan shabadalar. Siz uning erini bilmaysiz. Nojo'ya gapirib, ko'nglingizni xira qiladi. A.Muxtor. Opa-singillar.

KO'NGL(I) XIRA kimning? nimadan? tashvishli, bezovta, notinch. Varianti: **ko'ngil xiralik (–); xira ko'ngil bilan (–); ko'ngl(i)ning bir chekkasi xira; yurag(i) xira; xira yurag(i) kimning? dili xiralik (–).**

Azimjonning ko'ngli bugungi kun kabi xira edi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Ko'ngil xiralikdan, tinimsiz o'ylar va notayinlikdan qutulsaydi, balki biroz yengil tortardi. A.Muxtor. Tug'ilish. O'g'lining shikoyatlarini esa ma'nosiz topdi. Lekin baribir ko'nglining bir chekkasi qitday xira edi. Oybek. Oltin vodiydandan shabadalar.

KO'NGL(I) XIRALASHDI kimning? biroz tashvish qilmoq. Sinonimi: **ko'ngl(i) g'ash tortdi kimning?**

Saodatning ko'ngli kun sayin xiralasha bordi. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

KO'NGL(I) XUSH BO'LDI kimning? – **KO'NGILNI XUSH QILMOQ** kim? kayfiyati yaxshilandi, xursand bo'lmoq.

Shu bilan birga, bu yerda, qorinlari och bo'lsa ham, bir-birlariga hazil-mazax qilib, qiziq hangomalar aytib, ko'ngilni xush qiladigan kishilar bor edi.

ko'ngl(i) xush: ko'ngil chog'.

KO'NGL(I) YAQIN kimning? mehr-oqibat bilan munosabatda bo'-

ladigan. Varianti: **yaqin ko'ngilli; ko'ngilning yaqinligi.**

Bo, qiziq ekansiz, kishi ko'ngli tusamaganga ninadek narsani ravo ko'radimi?! Ko'nglim yaqin, bularning hammasini bolam deymen, topganimni tashyman. Oydin. Shirin keldi. Lekin u Shukurjon bilan shunchalik ko'ngli yaqin bo'la turib, uning sir saqlashini bilmagan edi. O.Yoqubov. Ota izidan.

ko'ngl(i) yarim: ko'ngl(i) yarimta

KO'NGL(I) YARIMTA kimning? xotirjamligini yo'qotgan. Varianti: **ko'ngl(i) yarim.** Antonimi: **ko'ngl(i) butun** kimning?

Qo'y endi, ozor berma, ko'ngli yarimta... A.Qahhor. Asror bobo. Ko'zidan yosh arimaydi uning. Ko'ngli yarim... I.Rahim. Ixlos.

KO'NGL(I) YO'Q kimning? nimagaga? istamaslik. Antonimi: **ko'ngl(i) bor 1** kimning?

Aslida Shodmon otaning beshikka ko'ngli yo'q edi. H.Nazir. Ko'rmana. Gazlidan ketishga sira ko'nglim yo'q edi. I.Rahim. Olovkor.

KO'NGL(I) YORISHDI kimning? – **KO'NGL(I)NI YORITMOQ** nima? kimning? ko'nglidagi g'ashlik tarqadi. Varianti: **ko'ngl(i)ni yorishtirmoq; yurag(i) yorishdi; dil(i) yorishdi; dil(i) yoridi.** Sinonimi: **ich(i)ga chiroq yoqilganday bo'ldi** kimning? Antonimi: **ko'ngl(i) xira bo'ldi** kimning? [nimadan?] – **ko'ngl(i)ni xira qilmoq** nima? yoki kim? kimning? **ko'ngl(i) g'ash bo'ldi** kimning? [nimadan?] – **ko'ngl(i)ni g'ash qilmoq** nima? ba'zan kim? kimning? **ko'ngl(i)ni g'ashlamoq** kim? kimning? – **ko'ngl(i) g'ashlandi** kim-

ning? nimadan? **tashvish tortmoq 1** kim?

Uyda u-buga alaxsisa ham, kechgacha ko'ngli yorishmadi. N.Nazarov. Zamon. Saodatxonning ko'ngli yorishib ketganligi chehrasidan ko'rinib turar edi. S.Zunnunova. Yangi direktor. Gavhar ketgandan beri boshidan kechirgan xilma-xil voqealar Mahkamning ko'nglini yoritib, o'ziga ham, odamlarga ham ishonchini behad oshirgan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Biroq bu narsalar Bektemirning ko'nglini yorishtirmadi. Oybek. Quyosh qoraymas. O'tkinchi ayollarining ko'zlarida ham Polvon minnatdorchilik ifodasini o'qirdi. Polvonning yuragi asta yorishib, ko'ksi yengilashdi. Oybek. Quyosh qoraymas. Shu topda Nasiba Azimjonga hammadan aziz va laziz tuyildi. Yigitning dili yorishib ketdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

ko'ngl(i) yozildi: ko'ngl(i)ni yozmoq

KO'NGL(I) YUMSHADI kimning? – **KO'NGL(I)NI YUMSHATMOQ** kim? kimning? rahmdilligi uyg'ondi.

Uning bu muloyim gapiga Boboqulning ko'ngli biroz yumshab, «Qorong'ida tog'da tentirab yurasizmi, qola qoling», – demoqchi ham bo'lgan edi, demadi. S.Anorboyev. Oqsoy. Lekin Hoji o'sha vaqtda shunday qilmasam bo'lar ekan, deb hozir aytishi mumkin va aytadi ham, chunki shu gap bilan birovning ko'nglini yumshatib, bir piyola choyini ichadi. A.Qahhor. Yillar.

KO'NGL(I) YUMSHOQ kimning? – **YUMSHOQ KO'NGIL** kim? ko'ngilchan, rahmdil. Varianti: **yumshoq ko'ngil [ekan]lig(i)** kimning? Sinonimi: **ko'ngl(i) bo'sh** kimning? Antonimi: **ko'ngli qattiq – qattiq ko'ngil; tosh yurak – yuragi tosh.**

O'zim aytgancha, uning ko'ngli yumshoq, tezgina shaxtidan tushadi. Oydin. Ikki ko'zi shunda. Nu'monjon yumshoq ko'ngil, qizdekina yigit ekan. S.Ahmad. Cho'l burguti. Yumshoq ko'ngilligining o'z boshingga yetmasa koshkiydi. S. Anorboyev. Oqsoy.

KO'NGL(I) ZIMZIYO kimning? o'ta darajada g'amgin.

Yovariqda suv shovullaydi, uzoqlarda ashula yangraydi. Ammo Anorxonning ko'ngli zimziyo. Hamma narsa o'z joyida, butun borliq olam jo'sh uryapti-yu, ammo uning eng qiymatli kishisi – aziz katta onasi abadiy ko'z yumdi. I.Rahim. Ixlos.

KO'NGL(I) O'KSIDI kimning? – ma'yuslanmoq, o'ksinmoq.

Qizning atrofga javdirab turgan ko'zlari xomush yerga boqdi. Qiz ko'ngli o'ksidi. S.Ahmad. Mehribon. O'z tengqurlari o'rtasida ko'ngli o'ksimasin deb kiyim-boshini shay qilib qo'ydi. S. Anorboyev. Tashvish.

ko'ngl(i) o'rniga tushdi: ko'ngl(i) joyiga tushdi

KO'NGL(I) O'SDI kimning? nimadan? – **KO'NGL(I)NI O'STIRMOQ** nima? kimning? ruhlanmoq. Varianti: **ko'ngil o'sishi (–).** Sinonimi: **ko'ngl(i)ni ko'tarmoq kim? kimning? nima bilan? nima? kimning? – ko'ngl(i) ko'tarildi kimning? nimadan?** Antonimi: **ko'ngl(i) cho'k-**

di kimning?– ko'ngl(i)ni cho'ktirmoq kim? [o'zining] yoki kimning?

O'ziga birinchi marta muhim vazifa ishonib topshirilganidan ko'ngli o'sib, Rahimning oyoq olishi boshqacha bo'lib ketdi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Bu gap Jumanning ko'nglini o'stirib yubordi. A.Muxtor. Tug'inish. Bu o'sish oddiy bo'y cho'zilishi emas, ko'ngil o'sishi edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

KO'NGL(I) G'ASH kimning? tashvishli, bezovta, notinch. Varianti: **ko'ngilning bir chekkasi g'ash (–); ko'ngil g'ashligi (–); g'ash ko'ngl(i); yurag(i) g'ash; yurag(i)ning bir chekkasi g'ash; yurak g'ash(i); dil(i) g'ash; g'ash dil(i).** Sinonimi: **ko'ngl(i) xira kimning? nimadan? ich(i) g'ash kimning?**

Ko'nglim g'ash, boyagi quvonchli, shirin, ammo tagi yo'q xayollardan asar ham qolmagan edi. O.Yoqubov. Muqaddas. Ko'ngilning bir chekkasi g'ash, shaharga ham chiqqim kelmaydi. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon. Ammo Komilaning shak-shubhasi, ko'ngil g'ashligi uzoq davom etmadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Oydin kechada bu xunuk ovoz Stepanning g'ash ko'nglini tirnab o'tganday bo'ldi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. Uning kayfi buzuv, yuragi g'ash edi. S.Nazar. Yashil boylik. Nazirali kampirning yurak g'ashini tarqatish uchun hamma narsaga tayyor. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

KO'NGL(I) G'ASH TORTDI kimning? biroz tashvish qilmoq. Varianti: **yurag(i) g'ash tortdi.** Sinonimi: **ko'ngl(i) xiralashdi kimning?**

Tog'dagi mashmashalar ko'z oldidan bir-bir o'tib, ko'ngli g'ash tortib ketdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *U «Baxtli bo'lsin» o'rniga «Peshanasi sho'r bo'lmasin» deganiga hayron qoldi, yuragi g'ash tortdi.* S.Anorboyev. Kuyov.

KO'NGL(I) G'ASHGA TO'LDI kimning? qattiq tashvishda bo'lmoq.

Tirikchilik bu yerda ham hamma yerdagiday ekanini darrov fahmladilar, ularning ko'ngillari yana g'ashga to'ldi. P.Tursun. O'qituvchi.

KO'NGL(I) G'ASHLANDI kimning? nimadan? tashvish qildirmoq. Varianti: **yurag(i) g'ashlandi.** Sinonimi: **ko'ngl(i) g'ash bo'ldi kimning?** [nimadan?] – **ko'ngl(i)ni g'ash qilmoq nima?** ba'zan **kim? kimning? ko'ngl(i) xira bo'ldi kimning? nimadan? – ko'ngl(i)ni xira qilmoq nima?** yoki **kim? kimning? tashvish tortmoq 1 kim? nima haqda?** Antonimi: **ko'ngl(i) yorishdi kimning? ko'ngl(i)ni yoritmoq nima? kimning? ich(i)ga chiroq yoqilganday bo'ldi kimning?**

Jon akajon, ketarmishsiz bizni tashlab, Notinch yurtida ko'nglimizni batar g'ashlab. S.Abdulla. Alpomish. *Keta turib xayoliga allaqanday shubhalar kelib, ko'ngli g'ashlandi-yu...* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Lekin akasidan buni yashirgani yuragi g'ashlanib, «To'g'risini aytsam bo'lar ekan...», – dedi.* N.Nazarov. Zamon.

ko'ngl(i) g'ashlandi: ko'ngl(i)ni g'ashlamoq

KO'NGL(I) CHO'KDI kimning? – **KO'NGL(I)NI CHO'KTIRMOQ** kim? (o'zining) yoki kimning? ruhsiz-

lanmoq – a) ruhsizlanmoq (tuslovchi va egalik qo'shimchasi boshqa-boshqa shaxsni ko'rsatadi, b) ruhsizlantirmoq (boshqa hollarda). Varianti: **ko'ngilni cho'ktirmoq kim?** Antonimi: **ko'ngl(i)ni ko'tarmoq kim? kimning? nima bilan? – ko'ngl(i) ko'tarildi kimning? nimadan? ko'ngl(i) o'sdi kimning? nimadan? – ko'ngl(i)ni o'stirmoq nima? kimning?**

Onasi u yoq-bu yoqqa tashlab ketganda, hamisha shunday ko'ngli cho'kib, xafa bo'lib qolardi. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Ko'nglingizni cho'ktirmang, domlajon, hali qirchillama yigitsiz.* S.Anorboyev. *Yo'llanma bilan. Lekin qiz bolaning ko'nglini cho'ktirmaslik ham lozim.* G'.G'ulom. Yodgor. *Qo'l baland kelganda suyunib, xotirjamlikka berilmalik, past kelganda esa ko'ngilni cho'ktirmaslik kerak.* M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha.*

KO'NGL(I) CHOPMADI kimning? kimga? nimaga? nima qilishga? ichki his-tuyg'u ta'sirida jazm qilmaslik, amalga oshirishni istamaslik.

U qishloqning boshqa hamma qizlarini birma-bir ko'z o'ngidan o'tkazdi. Biridan biri yaxshi. Lekin negadir hech qaysisiga ko'ngli chopmaydi. S.Anorboyev. *Sherali sevib qoldi. Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytgandek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim.* A.Qahhor. Ming bir jon. *Rahmonqulovga ay-*



tishga nima uchun ko'nglingiz chopmadi, Bakir? A.Muxtor. Tug'ilish.

KO'NGL(I)DA KIRI YO'Q kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q, begidir. Varianti: **yuragida kiri yo'q**.

Bizning odamlarimizdan. Juda dil-kash, ko'nglida kiri yo'q juvon. O'zi chevar. S.Zunnunova. Gulxan. *Sizning bir yomon odatingiz bor: odamga qo'shilmaysiz. Hatto Sharifday bir xushfe'l, ko'nglida kiri yo'q yigit-dan ham o'zingizni olib qochasiz.* A.Qahhor. Sarob. *Jamol xola ko'ngli ochiq, yuragida kiri yo'q xotinlardan.* H.Nu'mon. *Yoshlikda bergan ko'ngil.*

ko'ngl(i)da tugib yurmoq: ko'ngl(i)ga tugmoq

KO'NGL(I)DAN KO'TARILMOQ nima? kimning? o'y-xayolidan ketmoq, yo'q bo'lmoq.

Jumanning ta'bi ochilib, kunduzgi xafagarchiliklar ham ko'nglidan ko'tarilib ketgan edi. A.Muxtor. Tug'ilish.

KO'NGL(I)DAN O'TMOQ nima? kimning? – **KO'NGL(I)DAN O'TKAZMOQ** kim? [o'zining] nimani? ma'lum bir muddat fikrlamoq. Varianti: **dil(i)dan o'tmoq** – **dil(i)dan o'tkazmoq**; **dil(i)dan kechmoq** (*eskirgan*); **ko'ngl(i)dan kechmoq** – **ko'ngl(i)dan kechirmoq** (*eskirgan*); **ko'ngildan kechirmoq** *nimani?* (*eskirgan*); **ko'ngildan o'tkazmoq** *nimani?* *Sinonimi: bosh(i)dan kechmoq nima? kimning?* – **bosh(i)dan kechirmoq 2** *kim? [o'zining] nimani? xayol(i)dan o'tmoq nima? kimning?* – **xayol(i)dan o'tkazmoq** *kim? [o'zining] nimani? fikr(i)dan o'tkazmoq* *kim? [o'zining] nimani?*

«Kelib qolsa edi» degan fikr ko'nglidan o'tardi. S.Nazar. *Yashil. boylik. Anorxon uni zimdan kuzatar, «El bo'lmaydiganroq xotin ekan», – deb ko'nglidan o'tkazar edi.* A.Muxtor. Oksana. *«Yaxshiyam o'zini tashlab yubormadi» degan fikr dilidan o'tdi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *«Bir-birisini sevgani yaqqol ko'rinib turibdi-ku», – deb dilidan o'tkazadi.* G'.G'ulom. Zags. *Shu chog' uning dilidan «Eh, Kolyaga ham xabar berish kerak edi-da» degan fikr kechdi.* H.Nazir. *Ko'korol chiroqlari. Lutfi xola uning uyg'oqligini bilib turar, lekin ko'nglidan kechayotgan gaplarni bilmas edi.* S.Zunnunova. *Qon-qarindoshlar.*

ko'ngl(i)dan o'tkazmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

ko'ngl(i)ga ayil botmoq: ayil botmoq

ko'ngl(i)ga chiroq yoqsa, yorishmaydi: ich(i)ga chiroq yoqsa, yorishmaydi

ko'ngl(i)ga yaqin bilmoq: ko'ngl(i)ga yaqin olmoq

KO'NGL(I)DAN CHIQARMOQ *kim? nimani? yoki kimni? 1 [o'zining] butkul unutib yubormoq, o'ylamay, eslamay qo'ymoq.* Varianti: **ko'ngildan chiqarmoq** *kim? nimani? yoki kimni?* **yurag(i)dan chiqarmoq** *kim? nimani? ko'ngl(i)dan chiqmoq* *kim? kimning? yurag(i)dan chiqmoq* *nima? kimning?*

Zuhurjon allaqanday xayollarga olib borgan bu dili xiralikni butunlay ko'nglidan chiqarib yubormagan ham ediki, yoniga ikkinchisi qo'shildi. R.Fayziy. Yodgor. [O'g'irlangan xurjunlarini] *«Devonai Bahovaddin*

yo'lida sadaqa», – deb ko'ngildan chiqarishibdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. O'lim tushagida yotib, rozi-rizolik tilaganida ham Saidg'ozini onasining bu gapini yuragidan chiqarib tashlay olmagan. S.Anorboyev. Oqsoy. Sobirjonningni o'z ukamday bilardim. Sakkiz yil emas, sakson yil o'tsa ham, ko'nglimdan chiqmasligiga ishonaman. A.Muxtor. Opa-singillar. Chigitni besh kun kech ekanining alami sira yuragidan chiqmasdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 kimning? ko'nglidagi g'uborni tarqatmoq.

Bola bechoraning dilini og'ritgan edim... O'lmasam, bir yaxshi ish qilib, ko'nglidan chiqarib yuboraman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Endi nima qilib xotininin ko'nglidan bu shubhalarni chiqarib yuborish yo'lini izlab uyqusi kelmadi. H.Nazir. Rashk.

3 [o'zining] o'z roziligi bilan berishni ma'qul ko'rmoq.

Kim pul, kim poyafzal, kim yaktak, kim belbog', ishqilib, har kim ko'nglidan chiqarganini keltirar edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

ko'ngl(i)dan kechirmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

ko'ngl(i)dan kechmoq: ko'ngl(i)dan o'tmoq

ko'ngl(i)dan chiqmoq: ko'ngl(i)dan chiqarmoq

KO'NGL(I)GA KELMOQ nima?

1 [o'zining] yoki **kimning?** o'zicha o'ylamoq. Varianti: **ko'ngilga kelmoq nima?** **ko'ngl(i)ga keltirmoq kim?** **[o'zining] nimani?** **ko'ngilga keltirmoq kim?** **nimani?** Sinonimi: **o'ygaga bormoq 1 kim?**

«Mahkam aka, – dedi Gavhar, – ko'nglingizga kelgan hamma narsani ayting, o'tgan yildagiday ichingizga yutib yurmang». P.Qodirov. Uch ildiz. Karim ota hozir ba'zi birovlarining ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi. A.Qahhor. To'yda aza. «Ko'nglimga keldi-yu, sizning oldingizdan o'tay devdim». – «E, ko'ngilga kelgan narsani darrov qilish kerak». Mirmuhsin. Jamila. «Zo'rlikni ko'ngilga keltirmang. Jul haqini qo'yavering. Nikoh to'yining sarpolari tayyor», – dedi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 kimning? biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og'rinib qabul qilmoq.

Ammo rostimni aytsam, boya Sano barning ko'ngliga keladi deb gapirmagan edim. R.Fayziy. Yangi yil oqshomida. *Ko'nglingizga kelmasin, men Bo'taboyni yoqlamoqchi emasman...* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

3 [o'zining] xohlamoq. Sinonimi: **xush(i)ga kelmoq nima?** **kimning?**

Birorta olg'irning qo'liga tushmasin-da. Undaylar To'xtasinning qalbi bilan nima ishi bor! Qo'yday yuvosh ekan deb, ko'ngliga kelgan ko'yga yo'rg'alata berishi mumkin. S.Anorboyev. Oqsoy. *Bular uni ko'ngliga nima kelsa, shu bilan yupatardilar.* N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

ko'ngl(i)ga keltirmoq: ko'ngl(i)ga kelmoq

KO'NGL(I)GA NIMA KELSA, SHUNI QILMOQ kim? **[o'zining]** boshqalarning xohishi bilan hisoblashmay, o'z istagi asosida ish tutmoq.

Keyin Gulnorga xudo berdi, u erka-arzanda xotin bo'lib, eriga suyanib, ko'ngliga nima kelsa, shuni qiladi, bizni har narsadan chetga qoqadi, balki boshimizda yong'oq chaqadi. Oybek. Qutlug' qon.

KO'NGLIGA OTASH TASHLAMOQ [köñligä ataš tašla=] tar. kim? kimning? maftun qilmoq.

G'azoldek silkinib qochti parivash, Suhayl ko'ngliga tashlab katta otash. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

KO'NGL(I)GA O'TIRMOQ kim? kimning? ma'qul kelmoq, moyillik hissini uyg'otmoq.

O'zini Kovalev deb tanishtirgan, doim yoqimli kulimsirab turadigan, baquvvat gavdali bu odam birinchi gapidanoq injenerning ko'ngliga o'tirdi. A. Muxtor. Opa-singillar.

ko'ngl(i)ga og'ir botmoq: og'ir botmoq

KO'NGL(I)GA OG'IR OLMOQ kim? [o'zining] nimani? («gap»ni) adolatsiz deb bilib xafa bo'lmoq, qattiq o'ksinmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga qattiq olmoq; ko'ngl(i)ga olmoq.**

Tojiddin uning xalaqit berayotganini bilsa-da, ko'ngliga og'ir olar deb, tashib bo'lgunicha indamadi. S.Anorboyev. Jasorat. *Bolalar shunaqa sho'xroq bo'lib qolishgan. Ko'nglingga qattiq olma...* G'.Ahmadiy. Kamolot. *Men bo'lsam bir bema'ni xotinning gapini ko'ngliga olib o'tiribman.* S.Zunnunova. Yangi direktor. *Kishi har narsani ko'ngliga olaveradimi? Torga tor dunyo, kengga keng dunyo.* P.Qodirov. Uch ildiz.

ko'ngl(i)ga olmoq: ko'ngl(i)ga og'ir olmoq

KO'NGL(I)GA QARAMOQ kim? kimning? ba'zan [o'zining] ra'yiga yon bosmoq.

Mana shunaqa-da. Bolaning ko'ngliga qarayversangiz, haddidan oshib ketadi. Oydin. *O'zi monand. Ketgim keldi. Lekin Gulbahorning ko'ngliga qarab ancha o'tirib keldim.* S.Zunnunova. Gulbahor. *Mening ikkita tanishim bor, bir-biriga nihoyatda mehribon, bir-biriga sodiq, bir-biriga ishonadi, bir-birining ko'ngliga qaraydi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Endi qayoqqa ham boraman? O'tgan yil ko'nglinga qaragam bo'lar edi. Endi vaqt o'tgan. Taqdirim shu ekan-da.* P. Qodirov. Uch ildiz.

ko'ngl(i)ga qattiq botmoq: qattiq botmoq

ko'ngl(i)ga qattiq olmoq: ko'ngl(i)ta og'ir olmoq

ko'ngl(i)ga qattiq tegmoq: qattiq tegmoq

ko'ngl(i)ga qil sig'maydi: yurag(i)ga qil sig'maydi

KO'NGL(I)GA QO'L SOLMOQ kim? kimning? eng yashirin fikr-o'yni bilishga harakat qilmoq. Varianti: **yurag(i)ga qo'l solmoq.**

Kimning ko'ngliga qo'l solib ko'rsangiz, yaxshi niyat topasiz. S.Nazar. *Yashil boylik. Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotirlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish, undan keyin o'zimga ba'zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi.* S.Zunnunova. Gulxan. *Tezroq uy-uylariga tarqala qolishsa, nima qilar ekan bu takasaltanglar! Saidg'ozini Nazarovning yuragiga qo'l solib ko'rard edi.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Rizaning yuragiga qo'l solib*

ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ko'ngl(i)ga sig'armidi?!: ko'ngl(i)ga sig'maslik

KO'NGL(I)GA SIG'MASLIK nima? kimning? diqqatlik, xafalik tufayli mashg'ul bo'lolmaslik, istamaslik. Varianti: **yurag(i)ga sig'maslik; ko'ngl(i)ga sig'armidi?!; yurag(i)ga sig'armidi?!; yurakka sig'armidi?! Nima?**

«Pardoz-andoz ko'nglinga sig'maydi. Uyimni o'g'ri urganda o'sma qo'yib o'tirarmidim?!», – deb yurgan Mehrixonning yurish-turishi bugun boshqacha. S.Ahmad. Kutish taraddudi. Bu odamning lip etib kirib kelaverishi keyingi vaqtda Qudratillaxo'janing yuragiga sig'may qolgan edi. A.Muxtor. Opa-singillar. He, shu topda ko'ngliga ashula sig'armidi?! S.Anorboyev. Oqsoy. Shunday mas'uliyatli vaqtda uning yuragiga sig'adimi?! I.Rahim. Ixlos. Mehri opa bolaning biron kimi bor-yo'qligini so'rolmadi. Bu yurakka sig'armidi?! R.Fayziy. Ona.

KO'NGL(I)GA SOLMOQ kim? kimning? nimani? o'y-xayolida paydo qilmoq, miyasiga joylamoq. Varianti: **dil(i)ga solmoq; dilga solmoq** kim? nimani?

Qaydanam yo'liqa qoldi G'oz. Shu gapni uning ko'ngliga solmaganda, bu noxushlik yo'q edi. I.Rahim. Ixlos. Tomga chiqmaylik deb bir narsani bilib aytgan ekansan. Laylatulqadrning o'zi bu gapni sening dilingga solgan ekan-da, esiz-esiz... N.Maqsudiy. «Laylatulqadr». U mana shu yashil dalalarda yigitlik umrining

eng lazzatli onlarida muhabbat olivini dilga soldi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

KO'NGL(I)GA TEGMOQ kimning? **1 nima?** («ovqat») yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo'ymoq. Sinonimi: **me'da(si)ga tegmoq** **1 nima? kimning?** ba'zan nimaning?

Mastava ko'ngillaringizga tegib yurgandir. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

2 nima? («ovqat»dan boshqa) yoqtirmaslik hissi uyg'ondi. Varianti: **ko'ngilga tegmoq kim?**

Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning ko'ngliga tegdi. I.Rahim. Chin muhabbat. Haligi jononni ko'rdingmi?... Bugun bazm... Ko'ngilga tegdimi, yana o'z joyiga eltib qo'yamiz. Oybek. Qutlug' qon.

KO'NGL(I)GA TUGMOQ kim? [o'zining] nimani? **1** («gap»)ni o'rni kelganda aytishni mo'ljallab qo'ymoq. Varianti: **ko'ngl(i)da tugib yurmoq; yurag(i)ga tugmoq; yurag(i)da tugib yurmoq; dil(i)ga tugmoq.**

«Uning nimasi akademik? Bizning Baraka boboga o'xshagan chol-da!» Erkin ko'ngliga tugib qo'ygan gapni beixtiyor gapirib yubordi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Erining bu gapi Oysha xolaga dastak bo'ldi, shekilli, kecha aytolmay, yuragida tugib yurgan gaplarini tortinmay ayta boshladi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Roziya xola xuddi shu gapni kutib turganday, diliga tugib yurgan gaplarini birvarakay to'kib soldi. N.Nazarov. Zamon.

2 nima qilishni? ahd qilmoq. Varianti: **ko'ngilga tugmoq kim? nimani? dil(i)ga tugmoq.**



...ko'ngilga tukkan niyatim katta. H.Nazir. Odamning qadri. *Kasbidan qat'i nazar, insonga sidqidil xizmat qilishni diliga tukkan har kimga ham tegishli, Nigora. S.Anorboyev. Oqsoy.*

3 fikran belgilab qo'ymoq.

Ichkariga kirib, Begoyimga nimalar deyishini, nimalarni ko'rsatishini ko'ngliga tugib qo'ygan. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «E-e, gap bu yoqda ekan», – deb ko'ngliga tugib qo'ygan edi. S.Anorboyev. Do'stlar.

4 unutmay ichda saqlamoq. Varianti: ko'ngilga tugmoq kim? nimani? dilga tugmoq kim? nimani?

O'zing tushmagur ham har narsani ko'nglingga tuga berasan. H.Nazir. Rashk. To'g'ri, kambag'alning boshi g'amdan chiqmaydi. Hayiti ham aza, jumasi ham aza..., ko'ngilga tuga-versang, jinni bo'lib qolasan. Oybek. Qutlug' qon. Dunyo shunday yasalgan ekan, bolam. Birovga yorug', birovga qorong'i. Ammo har narsani o'ylab, dilga tugma, xafaqon bo'lib qolasan. Oybek. Qutlug' qon.

ko'ngl(i)ga tushgan g'ashlik: ko'ngl(i)ga g'ashlik tushdi

KO'NGL(I)GA URMOQ nima? kimning? qiziqishi yo'qoldi, zeriktirmoq. Varianti: **ko'ngilga urmoq nima?**

Bu «tomosha» darrov ko'nglimga urdi. Shundan keyin qo'limdagi kitobimni o'qishga tushdim. S.Abduqahhor. Nusxaoy. Bular hammasi ham ko'ngilga urdi, shekilli, gulzorlar bo'ylab bog'ni aylana boshladi. Oydin. Fonar tagida.

ko'ngl(i)ga vahima solmoq: yurag(i)ga vahima solmoq

KO'NGL(I)GA VAHIMA TUSHDI kimning? kuchli darajada qo'rqish hissi uyg'ondi.

Ha deganda kela bermagach, ko'ngliga vahima tushdi. Yig'lay boshladi. P.Tursun. O'qituvchi.

KO'NGL(I)GA YAQIN OLMOQ kim? [o'zining] kimni? o'z fikrini, dar-dini ishonib gapirish mumkin kishi deb qaramoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga yaqin bilmoq.**

Azbaroyi ko'ngliga yaqin olganidan «bek aka» deydi-da. S.Anorboyev. Oqsoy. Xotin birinchi marta oydin kechada xuddi shu tosh ustida o'tirib, ko'ngliga yaqin bilgan yigitning dard bilan entikib-entikib aytgan qaynoq yurak so'zlarini tinglagan edi. S.Ahmad. Xotiralar.

ko'ngl(i)ga zig'ir yog'day urmoq: ko'ngl(i)ga urmoq

KO'NGL(I)GA G'ASHLIK SOLMOQ nima? yoki kim? kimning? tashvish qilishiga sabab bo'lmoq, tashvishli holatga qo'ymoq. Sinonimi: **tashvishga solmoq kim? kimni?**

Bu odam nima uchundir o'zini g'alati his qila boshladi, yuragi tatalab, allanarsa ko'ngliga g'ashlik solayotganga o'xshadi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Agar biz: «O'ktam o'zi ... bo'lmoqchi, shunga tayyorgarlik ko'ryapti», – desak, uning ko'ngliga g'ashlik solgan bo'lamiz. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

KO'NGL(I)GA G'ASHLIK TUSHDI kimning? o'z-o'zicha tashvish qilmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga tushgan g'ashlik.** Sinonimi: **tashvishga tushmoq kim?**

Tesha bilan orasi buzilgandan keyin Saidiy qachon fakultetni o'ylasa, ko'ngliga g'ashlik tushadigan bo'ldi. A.Qahhor. Sarob. *Bu g'ashlik to'ydan keyingi kuni ertalab ko'ngliga tushgan g'ashlikka shu qadar o'xshar ediki, Saodat o'sha tongni darrov esladi.* A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi.

ko'ngl(i)ga g'ulg'ula solmoq: yurag(i)ga g'ulg'ula solmoq

ko'ngl(i)ga g'ulg'ula tushdi: yurag(i)ga g'ulg'ula tushdi

KO'NGLIMA KELMOQ [kõŋlimä kel=] tar. *kimning xayoliga kelmoq.*

Kelib ko'nglima Majnun, Layli yodi, Dafotir ustina so'z seli yog'di. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun. *Gelib Guldursun ko'nglina bu so'zlar; Kejib kunklarki, bunga chora izlar.* S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

ko'ngl(i)ni aynitmoq: ko'ngl(i) aynidi

KO'NGL(I)NI BO'LMASLIK *kim?* [o'zining] har xil o'y-xayollarga borib o'zini o'zi xafa qilmaslik.

...lekin faqat ko'nglingizni bo'lmang, keyingi vaqtlarda Saidov bilan oramiz butunlay buzildi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Urgan bilan odam o'lib qolmaydi, qaytaga gul unadi. Ko'nglingni bo'lmay o'qiy ber, jon bolam.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

ko'ngl(i)ni bo'shatmoq: yurag(i) bo'shadi

KO'NGL(I)NI BUZMOQ *nima?* yoki *kim? kimning? kim?* [o'zining]

KO'NGL(I) BUZILDI *kimning?* mungraymoq yoki mungraytirmoq – mungraymoq.

«Bu falokatzadalarining, – dedi unga qarshi boshqa bir sayis, – ko'ngillarini buzma, ulardan kulma». S.Ayniy. Qullar. *Go'yo bu ko'zlar unga «Sira ko'nglingizni buz mang, Farog'atxon, tun-u kun xayolim sizda» deyayotgandek bo'ldi.* R.Fayziy. Farog'at. *Muhiddin haqida gap boshlanganda, Salomat opaning ko'ngli buzildi, chehrasidan nur qochdi.* A.Muxtor. Hayotga chaqiriq.

ko'ngl(i)ni eritmoq: ko'ngl(i) eridi

ko'ngl(i)ni ezmoq: yurag(i)ni ezmoq

KO'NGL(I)NI KO'TARMOQ *kim? kimning? nima bilan? nima? kimning?*

KO'NGL(I) KO'TARILDI *kimning? nimadan? ruhlanmoq.* Varianti: **ko'ngil ko'taruvchi (–); ko'ngil ko'targuday(–).** Sinonimi: **ko'ngl(i) o'sdi** *kimning? nimadan? – ko'ngl(i)ni o'stirmoq* *nima? kimning? Antonimi: ko'ngl(i) cho'kdi* *kimning? – ko'ngl(i)ni cho'ktirmoq* *kim?* [o'zining] yoki *kimning?*

Chollar, kampirlar ahvolini surishtirdi, iliq so'zi, moddiy yordami bilan ularning ko'nglini ko'tardi. Oybek. Oltin vodiya shabadalar. *Professor ham shunday deydi, balki ko'nglimni ko'tarish uchun aytgandir.* S.Ahmad. Iqbol chiroqlari. *Qilgan ishi odamlarning e'tiboriga sazovor bo'lib chiqqani esa ko'nglini ko'tardi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Orzuli dunyo, juftingni topib, mani ham uyimni obod qilsang, ko'nglim ko'tarilardi deyman, bolam.* Mirmuhsin. Jamila. *Har yoqdan «Hormanglar, shovvozar, balli, bal-*

li!» degan ko'ngil ko'taruvchi so'zlar eshitilmoqda edi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Bu yaqin yillar ichida hech kimdan bunaqangi yumshoq muomala, ko'ngil ko'targuday iliq so'z eshitmagan edi. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

KO'NGL(I)NI O'RTAMOQ kim? kimning? nohaq ravishda iztirob chek-tirmoq.

Sanamay sakkiz deb ko'nglimni o'rtamang, hammasi yolg'on, – deb Sobirjonga xat yozib yubordi. A.Muhiddin. Ko'ngillar.

ko'ngl(i)ni o'stirmoq: ko'ngl(i) o'sdi

KO'NGL(I)NI OCHMOQ I nima? yoki kim? kimning?

KO'NGL(I) OCHILDI kimning? xafachiligini tarqatib, xursand qilmoq

Muzdek suv, g'amxo'r qizchasi-ning mehribon tovushi va bu lazzatli taom hidi onaning ko'nglini ochdi. A.Muxtor. Opa-singillar. «Kovlash-tirib, dardini yangilashning nima keragi bor», – deb o'ylab, uning ko'nglini ochishga harakat qildi. S.Anorboyev. Oqsoy. ...nima? bilan bo'lsa ham o'zini ovutmoqchi bo'ldi. Bari bir ko'ngli ochilmadi. Oydin. Farhodlar.

ko'ngl(i)ni ochmoq II: yurag(i)ni ochmoq

KO'NGL(I)NI OG'RITMOQ kim? kimning? ranjimoq. Varianti: **dil(i) og'ridi – dil(i)ni og'ritmoq.**

O'rtoqlariga sovuq rasmiyatchi bo'lib ko'ringanidan ko'ngli og'rib o'tirganda Sulaymon Ziynatullayev kirib keldi. P.Qodirov. Uch ildiz. Har qalay, birovning ko'nglini og'ritmay

ishlab turgan edim. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Tag'in biror nima deb o'tirma. Dili og'rimasin.* S.Zun-nunova. Latta. *Bola bechoraning dilini og'ritgan edim. Hali ham pushaymon-man.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

ko'ngl(i)ni og'ritmoq: ko'ngl(i) og'ridi

KO'NGLUN MALUL QILMOQ [kõjlin malul qil=] tar. kim? kimning? xafa qilmoq.

Malul qilma yasar orif er kishi ko'nglun. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGLIN OLDURMOQ [kõjül aldur=] tar. kim? sevib qolib izni ixtiyorini yo'qotmoq.

Ko'nglin anga oldirib, ko'b turli malomatlarga rozi bo'lub aytur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGLUN OG'RITMOQ [kõjlin ayrüt=] tar. kim? kimning? ranjitmoq. Varianti: **ko'ngullarin og'ritur.**

Aziz umrung xarj etib, totli jon bekin do'st hosil etting, Dag'i bir sahl so'z bilan aning ko'nglun og'ritting. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Har kun kelib, taqozo qilib qatti so'zlab, ko'ngullarin og'ritur edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGL(I)NI OLMOQ kim? kimning? xursand qilish bilan o'ziga xayrixoh qilmoq.

Pul bilan, bir parcha latta bilan ko'nglini olmoqchi, ko'rgan kunlarimni unuttirmoqchi bo'lding. S.Ahmad. Begona. «Birga topdik, birga!»– *Qo'ziboy ikki yoqning ham ko'nglini olmoqchi bo'ldi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Bilaman, Nigorim, kishining ko'nglini olish jahonda qiyin, ammo*

og'ritish oppa-oson. S.Anorboyev. Oqsoy.

KO'NGL(I)NI OVLAMOQ *kim? kimning?* o'ziga moyil qilish uchun intilmoq. Varianti: **ko'ngil ovlamoq** *kim?*

Ko'zingni suzib, ovloqda Po'latjonning ko'nglini ovlab yurgan emishsan. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Boshini o'girib, ko'ngil ovlar bir tovush bilan so'radi: «O'ktam aka, nega indamay-siz! Tomosha qilyapsizmi?» Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

ko'ngl(i)ni ozdirmoq: ko'ngl(i) ozdi

KO'NGLIN OZOR QILMOQ [kõŋlin azar qil=] tar. *kim? kimning?* ranjitmoq, xafa qilmoq.

Eshak ul odamiydan yaxshiroqkim, Qilur doim kishining ko'nglin ozor. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i)ni qoldirmoq: ko'ngl(i) qoldi

ko'ngl(i)ni qora qilmoq: dil(i) siyoh bo'ldi

KO'NGLIN SAYD ETMOQ [kõŋlin sajd et=] tar. *kim? kimning?* xushnud qilmoq, xursand qilmoq, o'ziga moyil qilishga intilmoq.

To'rtinchisi, xushvoz kerakkim, dovudiy nag'ma bilan uchar qushni, oqar suvni tiyg'ay dag'i ul bu fazilat bilan xaloyiq ko'nglin sayd eta bilgay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i)ni sindirmoq: ko'ngl(i) sindi

KO'NGL(I)NI SO'RAMOQ *kim? kimning?* boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol-ahvolini so'ramoq. Varianti: **ko'ngil so'ramoq** *kim?* (oz ishlatiladi).

«Hoshimjon akamning ko'ngillarini so'rab ko'rish kerak edi». – «Nima deb so'raysan ko'ngillarini?» S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Mana shu ko'ngil so'rab kelib turganlarningning o'zi menga har qancha dori-darmondan a'lo. S.Anorboyev. Oqsoy. O'sha kuni ko'ngil so'rashga ham yaramadim. P.Qodirov. Uch ildiz.

ko'ngl(i)ni sovitmoq: ko'ngl(i) sovidi

ko'ngl(i)ni to'q qilmoq: ko'ngl(i) to'q bo'ldi

ko'ngl(i)ni to'q tutmoq: ko'ngl(i) to'q bo'ldi

KO'NGL(I)NI TOG'DAY KO'TARMOQ *nima? kimning?*

KO'NGLIN TOPMOQ [kõŋlin tap=] tar. *kim? kimning?* xohish istagiga mos harakatlar bilan o'ziga moyil qilmoq.

Kerakli do'st ko'nglin topmoq uchun Otasi bog'ini sotsa ravodur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGL(I)NI TOPMOQ *kim? kimning?* istak-xohishiga mos tushadigan harakatlar qilish bilan o'ziga moyil qilmoq. Varianti: **ko'ngl(i) topilsa** *kimning?* (oz ishlatiladi).

Menga sening ko'nglingni topishdan katta baxt yo'q! A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi. ...ko'ngli topilsa, hamma ishni bitirish mumkinligiga ko'zi yetdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

KO'NGL(I)NI UZMOQ *kim? kimning?* [o'zining] nimadan? yoki kimdan? yuragiga yaqin, intilgan kishisidan yoki narsasidan ajralishga qaror qilmoq. Varianti: **ko'ngilni uzmoq** *kim? kimdan?* **ko'ngil uzmoq** *kim? kimdan?* yoki *nimadan?*

U mahalda Usmonjondan o'zini juda yiroqda his qilgan va unga yetishishdan ko'nglini uzib ham qo'ygan edi. S.Zunnunova. Gulxan. *Axir u shu vaqtgacha Nasibani dedi. Ko'nglini undan uzib, boshqaga berishni o'ylagan emas-ku!* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Haligacha sen Fotimadan ko'ngil uzmagani ekan-san-da?* S.Ayniy. Qullar. *Axir o'g'ilginamning peshana teri to'kilgan tuproqdan qanday ko'ngil uzayin.* H.Nazir. Odamning qadri.

ko'ngl(i)ni vayron qilmoq: ko'ngl(i) vayron bo'ldi

ko'ngl(i)ni xijil qilmoq: ko'ngl(i) xijil bo'ldi

ko'ngl(i)ni xira qilmoq: ko'ngl(i) xira bo'ldi

KO'NGLIN XUSH ETMOQ

[kõnlin xoš et=] *kim? kimning?* xohishini anglagan holda xursand qilmoq, shod qilmoq.

...avvalgi muallimning ko'nglin xush etib, burung'i yerina kechurub tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i)ni yaqin olmoq: ko'ngl(i)ni yaqin tutmoq

KO'NGL(I)NI YAQIN TUTMOQ *kim? [o'zining] kimga?* mehr-oqibat bilan munosabatda bo'lmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ni yaqin olmoq.**

Ayniqsa tumandan orttirilgan o'rtoqlarim ichida men ham unga, u ham menga ko'nglimizni juda yaqin tutar edik. G'.G'ulom. Yodgor. Menga ko'nglini yaqin olib hujrasidan avaxta qilganlar to'g'risida dodxohga iltimos qilishni so'rab kirgan edi. S.Abdulla. Muqimiy.

KO'NGLIN YIQMOQ [kõnlin jiq=] tar. *kim? kimning?* ranjitmoq, xafa qilmoq. Varianti: **ko'ngul yiqmoq.**

Odamiy ko'nglin yiqar so'z so'zlamama, Sulh eyasindan xusumat ko'zlamama. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bu ne'mat shukrini qilsam kerak cho'q, Kishi ko'nglun yiqarg'a odatim yo'q.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Karam qil kishiga va lekin boqib, Ko'ngul yiqqan erga karam bilmag'il.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ko'ngl(i)ni yorishtirmoq: ko'ngl(i) yorishdi

ko'ngl(i)ni yoritmoq: ko'ngl(i) yorishdi

ko'ngl(i)ni yormoq: yurag(i)ni ochmoq

KO'NGL(I)NI YOZMOQ *kim?*

[o'zining] – **KO'NGL(I) YOZILDI** *kimning?* xafachiligini tarqatmoq. Varianti: **ko'ngil yozmoq** *kim?* **ko'ngl(i)ning chigilini yozmoq;** **ko'ngilning chigilini yozmoq** *kim?* **yurag(i)ni yozmoq;** **yurag(i)ning chigili yozildi;** **yurakning chigili yozildi (-);** **chigilni yozmoq** *kim?* **chigili yoziladi** [*kimning?*]; **yoziymoq** *kim?*

U ko'ngli g'ash bo'lgan chog'larida pianino oldida vaqt o'tkazar, sevimli kuylarini chalib, ko'nglini yozardi. I.Rahim. Ixlos. *Har holda, mehmon: gaplashadi, hasratlashadi; zora xo'jayinning ko'ngli biroz yozilsa.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Ashulachi, o'yinchi o'rtoqlarim bor shaharda. Kelisha. bir o'tirishib, ko'ngil yozi-shardik degan edim.* S.Zunnunova. Gulxan. *Nigoralarnikiga «oyisi», «dadasasi» bilan gallashib, ko'nglining chigilini yozib kelish uchun borgan*

edi. S. Anorboyev. Oqsoy. Paxta terish Mahkam uchun faqat ko'p vaqt va kuch talab qiladigan bir ishgina emas, zavq, beradigan va ko'ngilning chigilini yozadigan bir go'zallik ham edi. P. Qodirov. Uch ildiz. Bu xonada yolg'iz, yuragini yozolmay xunob bo'lib turgan Abduvahob uzoq, qish kechasini gurunglashib o'tkazishni... istardi. Sh. Toshmatov. Erk qushi. Bo'lmasam Abdulla fonuschidan bir eshitardik. Qon bo'lgan yuraklarning chigili bir yozilardi. S. Ahmad. Hukm.

ko'ngl(i)ni yumshatmoq: ko'ngl(i) yumshadi

ko'ngl(i)ning bir chekkasi g'ash: ko'ngl(i) g'ash

ko'ngl(i)ning bir chekkasi xira: ko'ngl(i) xira

ko'ngl(i)ning bo'sh [ekan]ligi: ko'ngl(i) bo'sh

ko'ngl(i)ning chigilini yozmoq: ko'ngl(i)ni yozmoq

KO'NGL(I)NING KO'CHASIDAN HAM O'TMASLIK nima? kimning? mutlaqo o'ylamaslik, eslamaslik.

Darhaqiqat, Siddiqjon... oq ko'ngillik bilan muomala qilar, lekin bunday muomala qilganda bir marta xotin kishiga ola qarab, og'zi kuyganligi ko'ngilining ko'chasidan ham o'tmas edi. A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

KO'NGLI QATTIQ – QATTIQ
KO'NGIL rahm-shafqati yo'q. Varianti: **tosh ko'ngil; tosh ko'ngilli; tosh ko'ngil [ekan] lig(i) kimning?** Sinonimi: **tosh yurak – yuragi tosh.** Antonimi: **ko'ngl(i) bo'sh kimning? ko'ngl(i) yumshoq kimning? – yumshoq ko'ngil.**

Umrida faqat bir yoki ikki marta ko'ziga yosh olgan, ko'ngli qattiq, baquvvat erkaklargina shunday yig'laydi. A. Muxtor. Tug'ilish. *U yoshlikdan ko'ngli qattiq, bir so'zli bo'lib o'sgan, o'zini halok qilib qo'ymasa deb qo'rqaman.* Oydin. Gulsanam. *Shu yoshga kelib otalik mehrini juda kam ko'rsatgan qattiq ko'ngil otaning yuragi birdan erib ketdi.* M. Ismoilov. Farq'ona tong otguncha.

KO'NGLU KELIB KETMOQ [kõŋl-ü kelib ket=] tar. kimning? xayoli parishon bo'lmoq.

Bir yerda degul kelib ketadur ko'nglung, Xilvatda aning üçün safo topmassan. S. Saroyi. Gulistoni bitturkiy.

KO'NGLUNDA HIKMAT O'TURMAS [kõŋlinda hikmat oturma=] tar. kimning? gap ta'sir qilmaslik, nasihat olmaslik, gap uqmaslik.

O'turmas johil er ko'nglunda hikmat, Nechukkim tosh uza ursa temur mix. S. Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL BERMOQ [kõŋülni ber=] tar. kim? sevmoq. Varianti: **ko'ngil bermoq... ko'ngul bermaslik.**

Chunki berding ko'ngul ul oy yuzga, Qil tahammul necha jaf qilsa. S. Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ko'zuna kim o'pib bersa ko'ngulni, Ajabmidur anga buyla tutulmoq.* S. Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Unga do'st bo'l, uni sevgil, ko'ngil ber, Uning so'z bahridan gavharlarin ter!* S. Saroyi. Suhayl va Guldursun. *Bu kun ming jon bila kimki ko'ngulni Sango bermas, taninda jon yo'q, ey jon.* Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGUL BOG'LAMOQ [kõŋülni bayla=] tar. kim? 1 kim? nima-

ga? yoki kimga? biror narsaga qattiq kirishmoq. Varianti: **ko'ngulni bog'lamaslik.**

Yodimda bor, o'g'lonlik ayyomin-da kechalar uyumayin zuhdu taqvog'a ko'ngul bog'lab turur edim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ko'ngulni bog'lama bir yerga zinhor, Yana mushkildur andan olmoq, ey yor.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 kim? kimga? mehr qo'yimoq, sevmoq.

Saloyin o'zumi o'zga diyora, Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGUL OZORI [köñül azari] tar. xafagarchilik.

Qachonkim bir ishni kechurmakda xotiring mutaraddid bo'lsa, Ul tarafni ixtiyor qilg'ilkim, anda ko'ngul ozori bo'lmag'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL OCHMOQ [köñül aç=] tar. *kim?* diltushlik qilmoq.

Chiqib chohdin uzoqlarg'a qochaylik, Bu yerda ag'lamay ko'ngil ochaylik. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

KO'NGUL EYALARI [köñül ejälari=] tar. shafqatli, rahmdil, taqvodor kishilar.

Ko'ngul eyalarindan bir kimersa ko'rub ani aytti... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL PARVONA BO'LMOQ [köñül parvana bol=] tar. *kimga?* sevib qolmoq, mubtalo bo'lmoq.

Bo'yun sundum bu yo'lda ming balog'a, Ko'ngul parvona bo'ldi ul yulog'a. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

KO'NGUL TILAMOQ [köñül tilä=] tar. *nimani?* istamoq, xohlamoq.

Varianti: **ko'ngli tilamoq, ko'ngul tilamas.**

Ko'ngul sensiz tilamas tanda jonni, Ko'rar yuzungda Xorazmiy jahonni. Xorazmiy. Muhabbatnoma. *Har kim ne ko'ngul tilasa, ko'rkli uldur, Ishqina hamisha jon ichinda yo'ldur.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bir xastag'a so'rdilar: «Ko'nglung ne tilar?»* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL XASTA BO'LMOQ [köñül xasta bol=] tar. ozor topmoq.

Necha manglasang, ul karih un bilan Bo'lur xasta, loshak eshitkan ko'ngul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL XUSH ETMOQ [köñül xoš et=] tar. *kim bilan?* xursand bo'lmoq, yaxshi kayfiyatda bo'lmoq.

Bir kun sulton ul vazir bilan ko'ngul xush etib, anga vazorat berdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL YOB QILMOQ [köñül jab qil=] tar. *kim?* xursand qilmoq.

Yetkanincha kuchung ko'ngul yobqil, Kim xaloyiq senga duo qilg'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL SHOD BO'LMOQ [köñül šad bol=] tar. *nimadan?* quvonmoq.

Ey bulbuli gulshani ma'oniy, So'zung eshitib ko'ngul bo'lur shod. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGUL SHODMON BO'LMOQ [köñül šadman bol=] tar. *kim?* quvonmoq.

Jon qachon bo'lg'ay Gulistondin malul, Chun ko'rujak shodmon bo'lur ko'ngul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULDA BERK ETMOQ [köñüldä berk et=] tar. *kim? nimani?* sir tutmoq, yashirmoq.

Yo 'lungda dinu donish tark etibman, Bu mehringni ko 'ngulda berk etibman. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULDA NE KIM BO'L-SA [köñüldä ne kim bolsa] tar. o'y-laganini, xayolida borini.

Har kim jondan al yuvg'an, nekim ko 'ngulda bo'lsa, tilina keturgay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULDA SAQLAMOQ [köñüldä saqla=] tar. kim? nimani? ya-shirmoq, hech kimga aytmalik.

Siringni ko 'ngulda saqlag'il bek, Mushfiq senga yo 'q jahonda sentek. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULDA ZARRA G'AM YO'Q [köñüldä zarrä gam joq] tar. baxtli, beg'am, betashvish.

Ishratda o'zum, ko 'ngulda zarra g'am yo 'q. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULGA KELMOQ [köñülgä kel=] tar. kim? yoki nima? xayoliga kelmoq, o'ylamoq.

Ul aytti: «Kechalar ibodat uchun Tururda ko 'ngulga bu saqish kelur...» S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGILGA MALOL KEL-TURMOQ [köñülgä malal keltür=] tar. kim? og'rinmoq.

Ul qora dev chehrali qulning Keturur surati ko 'ngilga malol. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULGA XUSH KELMOQ [köñülgä xoš kel=] tar. kim? yoki nima? yoqmoq.

Har nima kim ko 'ngulga xush kelsa, ko 'zga ko 'rkli ko 'runur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULLAR NURONI BO'L-DI [köñüllär nurani bol=] tar. nima-dan? kayfiyati ko'tarilmoq.

Taolalloh, zehi surat, zehi mahbubi ravhoni, Kim oning husni shavqindan ko 'ngullar bo'ldi nuroni.

KO'NGULLAR RANJUR QIL-MASLIK [köñüllär ränžür qilma=] tar. kim? xafa qilmaslik.

Alo ey dilbari manzur, bu ko 'rk-inga bo 'lub mag'rur, Ko 'ngullar qil-mag'il ranjur, kechar bu husn dav-roni. S.Saroyi g'azalidan.

KO'NGULLARNI YOQMOQ [köñüllärni jaq=] tar. kim? azoblamoq, ruhan qiynamoq. Varianti: **ko'ngul yoqmoq.**

O'fqa bila ul qiyo boqishin ko 'run-guz. Bu ishva bilan ko 'ngul yoqishin ko 'runguz. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Erlik ul ish degul ko 'ngul yoqqay, Yo kishi aybini ko 'rub chiqqay.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

KO'NGULNI OLMOQ [köñülni al=] tar. kim? kimdan? muhabbatini qozonmoq.

Ol bilan oldi ko 'ngul mendan bir oy yuzli malih, Kim muanbar xoli asvad ol yanoqinda tutar. Abdulmajid g'azali.

KO'NGULNING QONI QAY-NAMOQ [köñülning qani qayna=] tar. kimdan? yoki nimadan? g'azabi kelmoq, g'azablanmoq.

Ko 'ngulning qoni qaynab, barcha toshqay, Ko 'zumning yoshidin kavsar buloshqay. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

L

LAB(I) LAB(D)GA TEGMAY kimning? juda tez va ko‘p («gapirmoq»).

Hojimat labi labiga tegmay javrab ketdi. S.Ahmad. Qadrondalalar. *Undan narida bir qalandar labi labiga tegmay g‘azal o‘qiya.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

LAB(I) LAB(I)GA TEGMAYDI kimning? juda tez va ko‘p gapirmoq.

Oltinbibi dam u, dam bu xotin oldiga boradi, labi labiga tegmaydi. A.Muhiddin. Qirq baxt egalari.

lab(i)ga uchuq chiqadi: lab(i)ga uchuq toshadi

LAB(D)GA UCHUQ TOSHADI kimning? qattiq qo‘rqish bilan cho‘chimoq. Varianti: **lab(i)ga uchuq chiqadi.**

Endi bu usuldan gapirsang, eshitganning labiga uchuq toshadi. Nega desangiz yaxshi ishning obro‘cini tushirib qo‘ydik. I.Rahim. Ixlos. «*Doim shunday qilasiz, yangilik desa, labingizga uchuq chiqaveradi*», – deb otani xijolat qilibdi ... oldida. A.Muhiddin. Ko‘ngillar.

LAB(D)NI JUFTLAMOQ kim? [o‘zining] gapirishga hozirlanmoq. Sinonimi: **og‘iz juftlamoq** kim? **og‘iz rostlamoq** kim?

Labini bir necha marta juftladiyu, hayajondan gapirolmay, ko‘ziga yosh oldi. S.Zunnunova. Gulxan.

LAB(I)NI TISHLAMOQ kim? [o‘zining] kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq.

«Ishga kirganimni bilishsa, o‘l-dirishadi», – «Kimlar» – «Sheriklarim». Juman labini tishlab qoldi. A.Muxtor. Tug‘ilish. *Xadicha buvi gapni qo‘zg‘ashga qo‘zg‘adiyu, lekin o‘g‘lining avzoyi buzilganini sezib, labini tishladi.* H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari.

LAB-DAHAN YO‘Q (kimda?) o‘z fikr-o‘yini durustroq izhor qilish qobiliyatiga ham ega emas.

Hozircha men biron qizni sevmanman. Vodilda ham biron qiz bilan muhabbat to‘g‘risida... Shunaqangi lab-dahan yo‘qligini yaxshi bilasizku, og‘ayni. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

LAB-LUNJ(I) OSILDI kimning? – **LAB-LUNJ(I)NI OSILTIRMOQ** kim? [o‘zining] ranjiganini, xafa bo‘lganini pastki jag‘ini quyiroqqa tushirib bildirmoq.

Bugun u vahm bo‘lgan kishiday har narsadan cho‘chib, qo‘rqib, hadiksirab, lab-lunji osilib yurgan kechagi Madumar mingboshiga sira

o'xshamas edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Qayerda ularni ko'rsa, qovog'ini solar, lab-lunjini osiltirar edi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

lab-lunj(i)ni osiltirmoq: lab-lunj(i) osildi

lafz(i)da turmoq: gap(i)da turmoq

lafz(i)dan qaytmoq: so'z(i)dan qaytmoq

LAFZI HALOL ahdida turadigan, va'dasini bajaradigan.

Lafzi halol paxtakor o'z va'dasini bajarib, el-yurtga paxtaday oqko'ngil, yorug' yuz bilan qarar ekan. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. U Gavharning lafzi halolligiga ishonar edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

LAQQA TUSHMOQ kim? nima-ga? osongina aldanib ko'nmoq.

«Beshiksiz bo'larmishmi, qiynalasan», – deganiga laqqa tushib, beshik to'yi qilmoqchi bo'ldi. R.Fayziy. Yangi yil oqshomida. Karimberdi gapiryapti, choyxo'rlar og'zini ochib mal'unning makriga laqqa tushib o'tirishibdi. Mulla Zoir bunga qanday chidasin! T.Malik. Charxpalak.

larzaga kelmoq: larzaga keltirmoq

LARZAGA KELTIRMOQ nima? nimani? **1** (konkret ot) qattiq silki-ganday, titraganday bo'lmoq. Varianti: **larzaga kelmoq** nima? nimadan?

Birdan ko'tarilgan qattiq olqish zalni larzaga keltirdi. A.Qahhor. Sa-rob. To'plar otilganda Xolmurodning ko'z oldi tinib, butun borliq silkinib, larzaga kelganday bo'ldi. P.Tursun. O'qituvchi.

2 (abstrakt ot) ruhan alg'ov-dalg'ov qilib yubormoq. Sinonimi: **Larzaga solmoq** nima? nimani?

Eshonboyev va Hakimovday ki-shilarning shuncha vaqt tayyorlab yurgan da'volari qanchalik larzaga keltirishi mumkinligini o'ylab ko'rsa, hozirgi voqea tasodif emasga o'xshardi. P.Qodirov. Uch ildiz. – Ag-ronom? Nima?! – Nosirov shunaqangi qattiq baqirdiki, nazarimda olis-olis-lardagi tog'lar ham larzaga kelib silkingandek bo'ldi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

LARZAGA SOLMOQ nima? nimani? (abstrakt ot) ruhan alg'ov-dalg'ov qilib yubormoq. Sinonimi: **larzaga keltirmoq** nima? nimani?

O'rmonjon uning ko'kragiga qa-rab tepib yubormaslik uchun o'rmidan turib, nariroq bordi va vujudini larzaga solayotgan titroqni bosgandan keyin, mumkin qadar muloyim tovush bi-lan: «Faqat shumi?» – deb so'radi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Bu voqea meni hali-hali larzaga soladi. Ilgari boshimga qora kunlar yog'ilganda Jezqozg'on mis konlari shaxtalarida ishlaganman. S.Ahmad. Qorako'z Majnun.

LAT YEMOQ 1 nima? jismonan shikastlanmoq.

Polvon o'rmidan turganidan keyin qo'lini qimirlatib ko'rib, sinmagan yoki lat yemaganiga sevindi. A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi.

2 kim? ruhan shikastlanmoq.

Bundan tashqari, Eshonboyev ham, Ziynatullayev kabi hayot cho'qqila-riga intilib, chiqa olmay, qattiq lat yegan odam edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

Necha bor yugurib kelib, oyog'im lat yeganday o'zimni ustiga tashlaganimni, kitoblarini yirtganimni, bekorchi bahonalar bilan janjal chiqarmoqchi bo'lganimni eslayman. Rashod Nuri Guntegin. Choliqushi.

LATTASI CHIQUIB QOLDI nimaning? g'araz bilan, yomon niyat bilan qilingan ish ekani oshkor bo'ldi.

«Nima bo'ldi?» – «Teshaboy suvga ham, yerga ham ega chiqib oldi». «A?» – «Ha». – «Aytmovdimmi sizga, keyin lattasi chiqib qolmasa go'rgaydi deb». – *Aytganingiz bo'ldi, Olga Petrovna*. M. Ismoilov. Farg'ona tong otguncha.

«lom» demaslik: «lom-mim» demaslik

«lom»-u «mim» demay: «lom-mim» demay II

«lom-mim» deb: «lom-mim» demaslik

«LOM-MIM» DEMASLIK kim? hech narsa demaslik, e'tiroz qilmaslik. Varianti: **«lom-mim» deb** (gapirmaslik); **«lom-mim» demay I** (–); **«lom» demaslik;** **«lom-mim»** (–). Sinonimi: **«churq» etmaslik** kim?

O'zi yaxshi yigit-u, onasiga «lom-mim» deyolmaydi-da. S. Ahmad. Hasrat. Ular yaylovga yetguncha «lom-mim» deb og'iz ochmadilar. O. Yoqubov. Tog' qizi. «Lom-mim» demay gapirganning og'ziga, jim turganning ko'ziga tikilib o'tiradi. I. Rahim. Hilola. Ashraf amaki to uyiga yetib kelguncha hamrohlariga «lom» demadi, o'z o'yi bilan bo'ldi. S. Anorboyev. Kuyov. Polvon lom-mim deyolmay qoldi. Tani boshqa dard bilmas ekan. S. Ahmad. Qorako'z majnun.

«lom-mim» demay I: «lom-mim» demaslik

«LOM-MIM» DEMAY II: e'tiroz qilmay, qarshilik qilmay. Varianti: **«lom» -u «mim» demay.**

Hamma uning aytganini «lom-mim» demay bajarayotganini Rahim ko'rib turgan edi. H. Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Qolgan fuqarolarning osoyishtalik bilan kori-xayr ishida «lom»-u «mim» demay ishlamoqlari lozim ekanini so'yladi.* G'. G'ulom. Arkning yemirilishi.

«lom-mim»: «lom-mim» demaslik

LOF URMOQ kim? haqiqatga to'g'ri kelmaydigan gaplarni ortiq darajada bo'rttirib gapirmoq.

Zamiraning o'qishdan boshqa narsaga qiziqmayman deb lof urgani, oxiri ahdining ustidan chiqa olmaganini Ochilni o'ziga haq ko'rsatardi. P. Qodirov. Uch ildiz.

LOL BO'LMOQ (yoki **QOL-MOQ**) 1 kim? tili tutilib, gapirolmay qolmoq.

Tili lol bo'ldi-yu, qoldi so'zidan. M. Alaviya.

2 biror narsa aytolmay, taajjub, hayron holda qolmoq.

Bu asar shu qadar sodda, o'ng'ay, tushunarliki, muallifning mushohadasi va iste'dodi oldida lol qolgan kishi. R. Rahmon. Xalq professori.

LOP DESA, OLA QOP OLIB YUGURMOQ kim? xato tushunish oqibatida noto'g'ri ish qilib qo'ymoq. Varianti: **lop desa, ola qopni ko'tarib ketmoq.**

Siz lop desa, ola qop olib yugurish o'rniga, ana shunaqa ig'vogarlarni tutib bershingiz kerak. S. Ahmad.

Hukm. *Boshida hamma ishni o'zim rasvo qildim. Chinoq bilan Eshon ayani terakzorda ko'rganimda lop desa, ola qopni ko'tarib ketibman. O'sha zahoti xotiniham ham, qizimni ham daladan uyga jo'natib yuboribman.* S.Ahmad. Hukm.

lop desa, ola qopni ko'tarib ketmoq: lop desa, ola qop olib yugurmoq

LOV ETIB YONIB, PIS ETIB O'CHMOQ nima? qanday tez paydo bo'lsa, shunday tez yo'q bo'lmoq; uzoq davom etmaslik.

Lekin ma'lum qurilishga ish haqi bilan bog'lanmagan, ya'ni yollanmagan odamlar bir kun tashabbus ko'rsatar, ikki kun tashabbus ko'rsatar... Axir, bu lov etib yonib, pis etib o'chadigan bir narsa-ku. Keyin nima bo'ladi? A.Muxtor. Opa-singillar.

LUQMA TASHLAMOQ kim? biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo'luvchi so'z – gap ilova qilmoq. Sinonimi: **gap qistamoq** kim?

...axborot berar ekan, pastdan luqma tashlab, uning gapini gapiga

qovushtirishmadi. S.Ahmad. Hodi-voy. «Asosiy masalaga o't. Shu ishga fikring qanaqa?» – Jo'ra polvon luqma tashladi. I.Rahim. Ixlos. Uning so'zi davomida zal bir necha martaba chapak chaldi, kimlardir uning so'zini ma'qullab luqmalar tashladi. A.Qahhor. Sinchalak.

lo'lining eshagini sug'or, pulini ol: lo'lining eshagini sug'orib, pulini olmoq

LO'LINING ESHAGINI SUG'ORIB, PULINI OLMOQ kim? har qanday yo'l bilan ham daromad topishga intilmoq. Varianti: **lo'lining eshagini sug'or, pulini ol.**

Bizning berasimiz bo'lgan joylarda sening olasing bo'ladimi, qilmaganing... shu qolgan ekan-da, nomard; lo'lining eshagini sug'orib, pulini olaman degin, ha-ha-ha... G'.G'ulom. Netay. Man senga ikki og'iz gapiray: birinchidan, pulning qadrini bil, lo'lining eshagini sug'or, pulini ol. Sanga yarashadi, negaki kambag'alsan. Oybek. Qutlug' qon.

M

MADH O'QIMOQ [mädh oqī=] tar. *kim? kimga?* maqtamoq.

Sayfi Saroyi xizmatiga madh o'qub to'kar, Bahri aruz ichindan olib durri javhari. S.Saroyi g'azali.

MADRASA TUPROG'INI YALAMOQ *kim?* madrasada ko'p yillar mashaqqatli tahsil ko'rmoq.

Turkistonning turli shaharlaridan ilm izlab, o'n yillar shu madrasa tuprog'ini yalagan ko'p kishilar bir munosib mahallaga imom bo'lganlar oxirda. G'.G'ulom. Netay. *Madrasa tuprog'ini yalamagan u tirrancha qayoqdan shariatni biluvchi bo'lib qoldi?* Oybek. Qutlug' qon.

MAHR(I) GA TUSHMOQ *nima? kimning?* doimiy xususiy mulk sifatida biriktirib berilmoq.

Mana bu yerda odamzodning boshi yanchiladi, uka! Uyimga nimaga kirasan, uyim enang mahriga tushganmi?! Oybek. Qutlug' qon.

MAJLISGA SOLMOQ *kim? nimanisi?* ko'pchilikning muhokamasiga, hukmiga havola qilmoq.

Echkini bahona qilib, bir halol ayolni qoralagani keldilaringmi? Ham-mangni majlisga solaman! A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.* Salim aka-

ning gapini o'zi majlisga solmoqchi bo'ldi. S.Nazar. Yashil boylik.

MAKKADAN HOJI KELGANDAY uzoq vaqtdan beri kutilgan tabarruk kishini ko'rganday.

«Bormisiz, ovsin,— u Qutbinisani taajjubga solib, Makkadan hoji kelganday, unga pechakday chirmashib ko'risha boshladi,— eson-omonmisiz, esonmisiz...» Mirmuhsin. Jamila.

MAKTAB KO'RMOQ *kim?* ma'lum bir ixtisoslik bo'yicha tahsil olmoq, tajribali mutaxassis qo'l ostida uzoq ishlamoq.

Yana maktab ko'rmaganligim ham ta'sir qildi. Rahmat ... har ishda hamisha yo'l-yo'riq ko'rsatdi, g'amxo'rlik qildi. Oybek. *Oltin vodiyan shabaddalar.*

MALOL KELMOQ *nima? kimga?* ortiqcha bir narsadek qabul qilmoq, og'ir tuyilmoq.

Mening nazarimda, bu so'rashlar mingboshiga nechundir malol keldi. Sh.Rizo. *Qor yog'di, izlar bosildi. O'zidan kichik bu yigitning sensiragani Ahmadjonga malol keldi.* A.Qahhor. *Oltin yulduz. — Itmi yo generalning o'zi befarzandmi? — deyman kinoya bilan. Nazoratchi, tiling*

qursin, zahargina ekan, dedi gapim malol kelganidan. S.Ahmad. Qora-ko'z Majnun.

MALOMATGA QOLMOQ *kim?* yoki *nima?* arzimagan narsa sababli noxush, ta'nali gaplar eshitmoq, gap-so'z bo'lmoq.

Ichkariga kiringlar, yaxshilab nasihat qilinglar, malomatga qolmaylik. S.Ahmad. Lochin. *Sizdaqalarning dastidan fakultet malomatga qolayotibdi, hammadan gap eshitayotibdi!* P.Qodirov. Uch ildiz. *Qishloqda qancha malomatga qolsam ham shahar-ga qaytmadim. O'lguday o'jar edim.* T.Malik. Charxpalak.

MANA MAN DEB o'zini o'zi ko'rsatib.

Tirnog'ing o'zi kirlab ketibdi.. Birov qidirmasa ham, mana man deb ko'karib turibdi. I.Rahim. Ixlos. *Mana bir ko'rang, g'o'zalarning qayeri yomon? Mana man deb turibdi-ku.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

MAN-MAN DEGAN eng oldingi, eng yuqori, o'ziga yuksak baho beradigan.

Man-man degan paxtakorlar, mexanizatorlar ham uning maslahatisiz ish qilishmasdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

MARMAR TOSH QO'YMOQ *kim?* [qayerga] o'lganidan keyin ham yuksak qadrlamoq, hurmat-e'tibor ko'rsatmoq.

«Ha, bo'ldi-da, muncha nevarangizga oro berdingiz, marmar tosh qo'yarmidi?! Savri xolaning bir jahli chiqdi-yu, tag'in o'zini bosdi: «Marmar tosh qo'ysa ham, qo'ymasa ham, umri uzoq bo'lsin. Bolamning bola-

si – bolam, ovsin. Qaramay tashlab qo'yarmidim». R.Fayziy. Qaynana.

MARRA BIZNIKI (SENIKI..) yutuq, g'alaba biz (sen..) tomonda bo'ladi.

Mana shuni Arslonbek akamga uqtirsak, uqtira olsak, marra bizniki. A.Qahhor. Sinchalak. *Sen ham bizga o'xshab xunob bo'lib o'tma, bolam kel, qo'y, kitob o'qishni o'rgan, ha, shuni bilib olsang, marra seniki!* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. – *Ko'ramiz, bu ham bir tajriba-da, ko'tara olsam marra bizniki, – dedim-u, boldirlaridan ushlab dast ko'tardim.* R.N.Guntegi. Choliqushi.

MASALA(SI) KO'RILDI *kimning?* muhokama qilinish, qaror chiqarildi.

Majlis bo'ldi. Majlisda islohotdan yer yashirganlar masalasi ko'rildi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

MASALA(SI)NI QO'YMOQ *kim?* *kimning?* ish-faoliyatini muhokama qilish va chora- tadbir belgilash haqida taklif kiritmoq.

...uning maslahatisiz bir ish qilib ko'rsin-chi, naq majlisga masalasi-ni qo'yib, sharmanda qiladi. S.Ahmad. Oqsoqol opa. *Kiring deyman!.. Kirmaysizmi? Hozir to'yni majlisga aylantirib, masalangizni qo'yaman!..* A.Qahhor. To'y.

masalani ko'ndalang qilib qo'y-moq: masalani ko'ndalang qo'y-moq

MASALANI KO'NDALANG QO'YMOQ *kim?* biror fikr-mulohazani qat'iyat bilan o'rta-ga tashlab, hal etilishini talab qilmoq. Varianti: **masalani ko'ndalang qilib qo'y-moq.**



Yo'q bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ertaga partiya majlisida masalani ko'ndalang qo'yaman... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Rost, biz hali masalani ko'ndalang qilib qo'yganimizcha yo'q, lekin ular o'rtamizdagi muhabbatdan xabar topganlaridan buyon Dilbarning har bir qadamini o'lchaydigan bo'lib qoldilar. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida.

MASLAHAT BERMOQ kim? kimga? nima qilishni? yoki nima qilishga? yoki nima? qilish to'g'risida yoki nima deb? biror ishni qanday amalga oshirish lozimligi haqida fikr-mulohaza bildirmoq. Antonimi: **maslahat olmoq** kim? kimdan? nima to'g'risida?

Abbosxon esa Saidiyga nasihat qilib, fakultetni tashlamaslikni maslahat berdi. A.Qahhor. Sarob. Kimdir unga chizg'ich va qalam uzatdi, satrlarning o'rnini chizib olishga maslahat berdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Axir men sizga shular bilan urishing deb maslahat berganmidim? P.Qodirov. Uch ildiz. –Agar charxpalak bilan boshqa odam shug'ullanganida men unga kamida yuzta maslahat berardim T.Malik. Charxpalak.

MASLAHAT OLMOQ kim? kimdan? nima to'g'risida? biror ishni qanday amalga oshirish lozimligi haqida fikr-mulohazasini bilmoq. Antonimi: **maslahat bermoq** kim? kimga? nima qilishni yoki nima qilishga? yoki nima qilish to'g'risida? yoki nima deb?

Xo'jayin bo'lgandan keyin, kishi o'z xo'jaligining kam-ko'sti, uning rivoji to'g'risida o'ylaydi, jon kuy-

diradi; maslahat soladi, maslahat oladi, gap uqtiradi, o'rgatadi, o'rganadi, tortishadi... A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

MASLAHAT OSHI biror marosimni qanday o'tkazish haqida fikrlashib olish uchun yig'ilgan kishilarga beriladigan kichik ziyofat.

Boshda bularning nazarida eng katta va muhim ish to'y ko'ringan edi, maslahat oshidan keyin eng katta va muhim ish to'y emas, yangi uyga ko'chib kirish bo'lib qoldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

MASLAHAT SOLMOQ kim? kimga? nima qilish to'g'risida? yoki nimada? biror ishni qanday amalga oshirish lozimligi haqida fikr-mulohaza bildirishni so'rab murojaat qilmoq.

Muharrirning ko'p masalalarda unga maslahat solishi, uning gapidan chiqmasligi boshqarmada Saidiyning salmog'ini juda oshirib yubordi. A.Qahhor. Sarob.

maslahatni bir joyga qo'ymoq: gapni bir joyga qo'ymoq

maslahatni bir yerga qo'ymoq: gapni bir joyga qo'ymoq

MAVJ URMOQ nima? 1 to'lqiniga o'xshab tebranib turmoq.

Ular ikki tomonda mavj urib turgan g'ozalar orasidan ketishar ekan, yoz kechasining shukuhli manzarasi yanada sehrli tusga kirgan edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

2 bosqichma-bosqich kuchayib-zo'rayib bormoq.

U nima deyishini, yuragida mavj urayotgan alam va g'azab hissi-ga kimni sherik qilishini bilmas edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

MAYDA GAP bo‘lar-bo‘lmas gaplarni dastak qilib gapirib yuruvchi.

Nyusha xola – hamma narsaga aralashaveradigan, ezma, mayda gap kam-pir. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *O‘zim chaqimchilarni, mayda gaplarni yomon ko‘raman.* I.Rahim. Olovkor.

MAYDONGA KELMOQ yuzaga kelmoq, paydo bo‘lmoq, tug‘ilmoq. *Movarounnahrda maydonga kelgan saltanat Amir Temur sa‘y-harakati bilan o‘z chegarasini kengaytirib bordi.* Gazetadan.

MAFTUN QILMOQ (yoki **ETMOQ**) Ishq-sevgi, zavq-havas tuyg‘usi bilan o‘ziga jalb etmoq, mahliyo qilmoq.

Saodat Kabulova va Botir Zokirov-larning sho‘x qo‘shiq-lari, o‘zbek raq-qosalarining jozibador o‘yinlari hammani maftun qildi. N. Safarov, Olovli izlar.

MAYL ETMOQ [mäjl et=] tar. kim? xohlamoq, istamoq.

Azob ichra yotib zindonda Suhayl, Etardi horg‘onida uyquni mayl. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

MAYLNI TASLIM ETMOQ [mäjlni taslim et=] tar. kim? xohish istagini jilovlamoq.

O‘zin gul bildi-yu, bulbul – Suhayl-ni, Ani sevdi-yu taslim etti maylni. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

MAYMUN O‘YNATAYOTIB-(MAN)MI?! kim? kulgili hech qanday voqea sodir bo‘layotgani yo‘q-ku!

Nimaga kulasan, maymun o‘ynatayotibmanmi?! S.Nazir. Yashil boylik. «Nima?, bu yerda maymun o‘ynatayaptimi?! Chiq hammang ko‘chaga! – Keyin mirshabga buyurdi – Hayda!» M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

MAZA(SI) KETDI 1 kimning? sog‘lig‘i yomonlashdi. Sinonimi: **maza(si) qochdi 1 kimning?**

Uning qoq tushga borganda qorni ochdi. Og‘zining suvi qochib, mazasi ketdi. N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi.

2 nimaning? biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. Sinonimi: **mazasi qochdi 2 kimning?**

Asl kiyimlarini eltib sotaverib, «Ishimning mazasi ketdi, qora chaqaga zorman...» – degin, uqdingmi? Oy-bek. Oltin vodiidan shabadalar. Ammo keyingi vaqtda savdoning mazasi ketdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

MAZA(SI) QOCHDI 1 kimning? sog‘lig‘i yomonlashdi. Varianti: **maza(si)ni qochirmoq nima? kimning?** Sinonimi: **maza(si) ketdi 1 kimning?**

Botirjon, sal mazam qochdi. Boshim aylanib, ko‘zim tinyapti. Keta qolay. S.Ahmad. Hukm. *Medpunktga kirib ko‘rsat. Mabodo mazang qochsa, qaytib chiqma. Xosiyat xolanikida kelaver, tuzukmi?* R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *Bezgak qurmag‘ur nari-beri oborib, toza mazamni qochirdi.* «Mushtum»dan. *To‘g‘ri, jo‘jabirdek jon edi rahmatli, yuragini ham mazasi qochib yurardi.* U.Hamdani. Ota.

2 nimaning? biror ish yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi. Sinonimi: **mazasi ketdi 2 nimaning?**

Dastmoyaning ham mazasi qochdi. S.Zunnunova. Gulxan. *Dalada ishning mazasi qochdi.* S.Ahmad. Hukm.

MAZA(SI) YO‘Q 1 kimning? sog‘lig‘i yomon holatda.

Men ham juda charchadim, mazam yo'q. Xo'p rohatda edik, oyimcha, tinchlik barbod bo'ldi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. ... bola faqirning mazasi yo'qroq ham edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 kimning? nimada? harakati, layoqati sust.

«Choyga qarang, quda buva. Hech mazangiz yo'q, olib o'tirsangizchi». S.Anorboyev. Kuyov. *Chunonchi men u kuni o'g'lingizni imtihon qilib ko'rdim. Mazasi yo'q!* A.Qahhor. O'jar.

3 kimning? yoki nimaning? yomon, sifatsiz.

Bu ishga sen aralashma. Kampir – mazasi yo'q ayol. S.Ahmad. Hasrat. *Kecha olib kelgan yog'ingizning mazasi yo'q ekan.* So'zlashuv uslubi.

maza(si)ni qochirmoq: maza(si) qochdi

MAZASI BO'LMADI nimaning? ko'ngildagidek, zarur darajada amalga oshmadi.

«O'yinda eng asosiy narsa – nastroyeniye, – der edi mo'ylabli yigit, – chirchiqliklar bilan o'ynaganda zashchitaning mazasi bo'lmadi. Nima uchun deganda, nastroyeniye yo'q edi». A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. *O'sha kuni seminarga tayyorlanishning ham mazasi bo'lmadi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

MAG'ZAVA(SI) CHIQDI kimning? sharmanda, sharmisor bo'lmoq.

Uning shaxmati [ekish usuli] oyoqqa turib ketsa, Zunnunovning mag'zavasi chiqqani! I.Rahim. Ixlos.

MAG'ZINI CHAQMOQ kim? nimaning? ma'nosini tag-tubigacha o'rganib anglab yetmoq («gap»ning).

«Yer sotgan er bo'lmaydi, er yer sotmaydi». Mana bu gapning mag'zini chaq. Oybek. Qutlug' qon. *Boringlar, O'rmonjon akam aytgan gaplarning mag'zini chaqib, xo'p o'ylab ko'ringlar.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Nazarida, har bir satrida olam-olam mazmun borday, uning mag'zini chaqmay turib navbatdagi satrga o'tish mumkin emasdek tuyuldi.* M.Muhamedov. Gavhar.

MASHAQQAT CHEKMOQ [ma'shaqqat ček=] tar. kim? qiynalmoq.

Bo'lusar ul yaqinda elga muhtoj, Chekib iflos alindan ko'b mashaqqat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

MASHQ(I) PASAYDI kimning? avvalgi yuqori kayfiyati, g'ayrat-shijoati yo'qoldi.

Bolalarning mashqi pasayib, «Shomstroy»ni ham bir haftadan beri o'lda-jo'lda tashlab qo'yishgan edi. A.Muxtor. Tug'ilish.

MASHQ(I) PAST kimning? kayfiyati, g'ayrat-shijoati avvalgidek yaxshi emas. Sinonimi: **shaxt(i) past** kimning?

Negadir Hoshimjon akamning mashqlari pastroq ko'rinadi, agar terimda shoshib qolgan bo'lsalar, yordamga tayyormiz. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

MASHQINI OLMOQ kim? nimaning? yaxshi malaka hosil qilmoq *«Biznikilarni Bo'stonga tenglashtirmang. Mashinaday tez harakat qila-yotgan qo'llarga birpas qarab turib, ko'zlarim qamashdi», – «Bo'ston osmondan tushgani yo'q-ku», – dedi Mavlon ota. «Durust.. Lekin... mashqini olgan-da», – dedi Jalilov.* S.Na-

zar. Yashil boyluk. «*Yaqinda men yakka dutorda «Dil kuyi»ni eshitdim, – zavq bilan so‘zini davom ettirdi shofyor, rohat qildim-da. O‘zi ham rosa mashqini olgan ekan, dutorni gapirtirib yubordi-ye»*. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

MA'LUMOT BERMOQ kim? 1 kimga? nima to‘g‘risida? boshqalarni ham xabardor qilish maqsadida so‘zlamok (ko‘p ishlatiladi, rasmiy). Varianti: **bergan ma‘lumot(i) kimning?**

... bu to‘g‘rida *Qurbon otaning o‘z-lari ma‘lumot berib o‘tdilar*. A.Qahhor. To‘y. *Razvedka va asirlarning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra dushman texnikani taxt qilib qo‘ygan edi*. A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 qayerga? kimning? ustidan yuqori organlarga shikoyat tarzida xabar yubormoq (oz ishlatiladi).

Ustidan ma‘lumot berib, maktabni bekittirib qo‘ydik. P.Tursun. O‘qituvchi.

MA'NO CHIQMAYDI nima? qilishdan hech qanday manfaat, foyda yo‘q.

Yog‘ erib oqqan, tuxum singan bo‘lganidan, xalfanachi o‘rtoqlarimning oldiga borishdan ma‘no chiqmas edi. G‘.G‘ulom. Shum bola.

MA'QUL KO'RMOQ kim? nimanisi? durust, ma‘qul deb bilmoq.

Qalandarov ichida Saidaning bu fikrini ma‘qul ko‘rsa ham, o‘z fikrini o‘tkazish uchun gapida turib oldi. A.Qahhor. Sinchalak. *Murodova ma‘qul ko‘rgan fikrni ular muhokamaga qo‘ydi*. I.Rahim. Ixlos. *Yil o‘rtasidagi o‘puskada Toshkentga kelishni o‘zim-*

ga ma‘qul ko‘rmadim. G‘.G‘ulom. Yodgor.

ma‘qul topildi: ma‘qul topmoq

MA'QUL TOPMOQ kim? nimanisi? to‘g‘ri deb hukm chiqarmoq. Varianti: **ma‘qul topildi nima?**

«*Mening sizga aytadigan hikoyam ham hordiq chiqaradigan hangoma tarzida bo‘ladi*». O‘quvchilar ma‘qul topdilar. G‘.G‘ulom. Guvohlikka o‘tgan ho‘kiz. *Sho‘ri kam bo‘lganidan g‘ishtni shu yerda quyish ma‘qul topildi*. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

MA'QUL TUSHMOQ nima? kimga? yoqmoq.

Shu sababdan uning so‘zlari ko‘pchilikka ma‘qul tushardi. S.Nazar. Yashil boyluk. *Qarangki, hammaga shu fikr ma‘qul tushsa bo‘ladimi!* R. Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

madad qo‘lini uzatmoq: yordam qo‘lini cho‘zmoq

MEHNAT KUNI mehnatni hisobga olish birligi, mehnatdan chiqib kelib belgilanadigan daromad birligi.

Ularning ba‘zilari ko‘proq mehnat kuni olish payiga tushib qoldilar. I.Rahim. Hilola.

MEHNAT CHEKMOQ [mihnät çek=] tar. kim? qiynalmoq, azoblanmoq.

Ikki kun anda balo va mehnat chekdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

MEHR QO'YMOQ kim? kimga? yoki nimaga? butun hiyosiyoti bilan suymoq.

Uy ichimizni ko‘rdingiz, oyim, singlim sizga juda mehr qo‘yanini ham bilasiz. P.Qodirov. Uch ildiz. *O‘zlari ham [ro‘molchani] ismlariga yarasha mehr qo‘yib tikibdilar-da, qani, guli-*



ni ham ko'rsat-chi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

MEHR(I) TUSHDI *kimning? kimga? suyib qolmoq.*

Seni birinchi ko'rganimdayoq ukamni ko'rgandek bo'ldim. Mehrim tushib qoldi. S.Ahmad. Hukm. *Qachondan beri uni «bolam» deydigan bo'lib qoldingiz? Qachondan beri unga mehringiz tushib qoldi?* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

MEHRI TOSH bemehr, iltifoti yo'q. Sinonimi: **bag'ri tosh.**

Muncha ham sen to'ramga g'ash bo'lmagin. Qattiq ko'ngil ham mehri tosh bo'lmagin. Ergash Jumanbulbul o'g'li. Qunduz bilan Yulduz.

MEHRI TOVLANMOQ mehri uyg'onmoq, qo'zg'almoq.

Poshsha xolaning mehri tovlanib ketdi: – Voy, onang aylansin! Rangini shunchalik oldirib qo'yibdi-ya, bolam bechora. D. Nuriy, Osmon ustuni. *Zubaydaning Shahzodaga yana mehri tovlanib, ko'ksiga boshini qo'ydi.* K.Yashin, Hamza.

MEHRINI TOVLAMOQ mehri ni uyg'otmoq.

Vasilaxonning qop-qora charos ko'zlari, kamon qoshlari Xadicha xolaning mehrini tovlab yubordi. T.Alimov. Sovg'a. *Har kuni bir yoqimtoy qiliq chiqarib, mehringni tovlaydi.* Shuhrat. Jannat qidirganlar.

MEN SIZGA AYTSAM suhbatdoshining diqqatini o'z fikriga tortish uchun aytiladigan ibora (kirish vazifasida keladi).

Men sizga aytsam, mulla Norqo'zi, gap paranjida emas. A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

MENDAN KETGUNCHA, EGASIGA YETGUNCHA o'z qo'l ostidan chiqqandan keyin nima bo'lsa bo'lar, sifatsiz ish uchun javobgarlik bo'yindan soqit.

Siz shuncha texnikani bizga o'rab-chunkab uzatdingiz. Ammo uzatdingiz-u, qo'lingizni yuvib, qo'ltig'ingizga artib qo'ya qoldingiz. Mendan ketguncha, egasiga yetguncha ekan-da. I.Rahim. Hilola.

ME'DA(SI)GA TEGMOQ nima? kimning? ba'zan nimaning? **1** (ovqat) yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo'ymoq. Sinonimi: **ko'ngl(i)ga tegmoq 1** nima? kimning?

Kishi har kuni bir xil ovqat yey bersa, me'dasiga tekkanidek, beda ham sigirlarning me'dasiga tekkandir? S.Anorboyev. Oqsoy.

2 (ovqatdan boshqa narsa) takror-takror uchrayverib, siyqasi chiqdi; o'ziga tortish o'rniga, o'zidan itarib tashlamoq.

Bu she'r me'daga tekkan madh emas, yangi gap ekani barchaning diqqatini tortdi. Mirmuhsin. Mashriqiy hayoti.

ME'DASI TO'Q [kimning?] nimaga? tashlanmaydigan, o'zini tiya oladigan.

Eshik tirqishi yana kattaroq ochildi va ... oshini oshab, yoshini yashagan bir qizning iljayib turgani ko'rindi. Alijon sho'x bo'lishiga qaramay, bunday masalalarda me'dasi to'q yigit. Ammo shu paytda o'z sho'xligini ko'rsatmay o'tib ketish Alijon uchun «jinoyat» edi. S.Abdulla. Sepli kelin.

ME'YORIGA YETKAZMOQ kim? nimani? [o'zining?] talab qilina-

digan, lozim ko‘riladigan darajaga olib bormoq.

Alohida kamchiliklari haqida gapirish mumkindir, ishlovini me‘yoriga yetkazish haqida gapirish mumkindir. P.Qodirov. Uch ildiz.

MIJJA QOQMASLIK kim? sira uxlamaslik, bedorlikda o‘tkazmoq. Varianti: **kiprik qoqmaslik.**

Tuni bilan hech kim mijja qoqmagani edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Bechora ikki kecha mijja qoqmasdan yonimda o‘tirib chiqdi-ya!* O.Yoqubov. Ota izidan. *Kech qolganda Jamol xola mijja qoqmay kutib o‘tirardi.* H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil. *Bir uyquni olib turgan xotini yana uyquga ketdi hamki G‘anijon kiprik qoqmadi.* A.Qahhor. Krovat.

MIJJA QOQMOQ kim? mizg‘imoq. ... *picha mijja qoqib olmoqchi bo‘lib turganda xotini kelib qoldi.* M.Ismoiliiy. Farg‘ona tong otguncha. *Xayolida yonidagi bir qozon suvni shimirib, qumlargacha bosh qo‘yib birpas mijja qoqib olsa..* Oydin. Bechora. – *Jinni bo‘p qoldim. Sizni ko‘raman deb mijja qoqmadim. O‘shandan beri qaramaysiz!* T.Malik. Charxpalak.

MIJOZ(D)GA TO‘G‘RI KELMADI nima? kimning? **1** (ovqat) kishi organizmi issiqlik-sovuqlikka salbiy reaksiya berdi.

«*Palov me‘damga mixdek qadaldidi, qazi-qarta mijozimga to‘g‘ri kelmaydi*», – *der ekan.* Oybek. Qutlug‘ qon.

2 (gap) kishi tabiatiga, xulq-atvoriga mos tushmaslik.

Latofatxon bu xatga ham javob qaytarmagandan keyin, Mirzayev: «Unaqa gaplar mijoziga to‘g‘ri kel-

madi, shekilli», – deb qattiq xijolat tortdi. A.Qahhor. Ko‘k konvert.

ming baloga duchor bo‘lmoq: bir baloga yo‘liqmoq

MIRIDAN SIRIGACHA butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, batafsil. Sinonimi: **ipidan ignasigacha, qilidan quyrug‘igacha.**

Muhammad Jamol qishloq hayotini miridan sirigacha bilsa-da... Oybek. Nur qidirib. *Hamma narsani miridan sirigacha qoldirmay gaplashishdi.* H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari. *Zo‘rning san‘atini, o‘ngi, chapini miridan-sirigacha sinchiklab o‘rganadi.* T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi.

MISI CHIQDI nimaning? ba‘zan kimning? asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo‘ldi.

Biroq yanagi yilga bu muruvvatning misini chiqibdi ... boylar bu ishni knyaz bilan til biriktirib qilishgan ekan. A.Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari. To‘g‘risi, tuzuk odam deb o‘ylovdim. Keyin misini chiqib qoldi. Chiqmay iloji ham yo‘q edi.* M.Ismoiliiy. Farg‘ona tong otguncha.

MISLI KO‘RILMAGAN ilgari hech qachon voqe bo‘lmagan.

Notanish qizga muhabbat izhor qilib maktub yozish va falon joyga kelib turing deb buyurish Zamira uchun misli ko‘rilmagan beadablik edi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Ikkinchidan, o‘rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy-xo‘jalik jihatdan misli ko‘rilmagan darajada mustahkamladik.* A.Qahhor. Nutq.

MISLI YO‘Q qiyoslab bo‘lmaydigan darajada, benihoya.

Xat orasida bir dona suvrat ham bor – Zeboning kulib turgan suvra-

ti. Zokir ota aytgandek, misli yo'q go'zal qiz!.. A.Muhiddin. Zeboning sevgisi.

MIYA(SI) AYNIDI kimning? normal fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq: Sinonimi: **miya(si) palag'da bo'lib qolibdi** kimning?

Bu – militsiya bo'lmasa, o'zi anchayin bir chol-ku, shtraf deydi-ya! Miyasi aynigani buning! S.Anorboyev. Oqsoy. ...miyasi aynigan chol bo'lsa kerak. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

miya achiydigan: miya(si) achidi
MIYA(SI) ACHIDI kimning?
– **MIYA(SI)NI ACHITMOQ** kim? kimning? yoki [o'zining] ko'p o'ylash natijasida normal fikr yurita olmaslik holatiga yetmoq. Varianti: **miya achiydigan (-)**.

314

Har gal dars tayyorlash vaqtida ... «Ke, qo'y, miyasi achib ketibdi, bir o'ynab kelsin» – deb turganingizdan keyin... S.Anorboyev. Eh, yomon bo'ldi. Ketmon qanaqa deng, temirchining miyasini achitib, tepasida turib, barkashdek qilib yasatib olgan. S.Ahmad. Cho'l burguti. Ha deb miyangizni achitib nima qilasiz? Bunday ishni injenerlarga chiqargan. J.Abdullaxonov. Ishonch. Doim shu. O'rtoq Hakimov hammasini yozga yig'ib yuradilar. Kun isib, miya achiydigan vaqtga. P.Qodirov. Uch ildiz.

MIYA(SI) G'OVLAB KETDI kimning? – **MIYA(SI) PALAG'DA BO'LIB QOLIBDI** kimning? normal fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq. Sinonimi: **miya(si) aynidi** kimning?

«Laqillamang, taqsir! – dedi u. – Hezalakchalish shirin-chuchmalligi-

ngizni yig'ishtiring. Yaxshilik, mo'minlik, mehribonlik, musulmonlik haqida bir umr va'z o'qib miyangiz palag'da bo'lib qolibdi». A.Muxtor. Opa-singillar.

miya(si) qotdi: bosh(i) qotdi

MIYA(SI) YO'Q kimning? fikrlash qobiliyati yaxshi ishlamaydigan, beaql.

Saidg'ozi Xo'jabekovga samimiy sog'-salomatlik tilayotgan xotiniga qarab ichida: «Voy miyasi yo'q!» – deb g'ijindi. S.Anorboyev. Oqsoy. Choliqushining miyasi yo'qligi ma'lum. Bir jinnilik qilib qo'ydim-da. Xayriyatki, o'zimni vaqtida tutib oldim. R.N.Guntegin. Choliqushi.

miya(si)da danak chaqmoq: bosh(i)da yong'oq chaqmoq

miya(si)dan kechmoq: bosh(i)dan kechmoq

miya(si)dan o'tmoq: bosh(i)dan kechmoq

MIYA(SI)GA KELMOQ nima? kimning? o'ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq. Varianti: **bosh(i)ga kelmoq**. Sinonimi: **es(i)ga kelmoq 2 nima? kimning? xayol(i)ga kelmoq 1 nima? kimning?**

Bu munosib tasodif fikr shaklida Usmonxon eshonning shuurisiz miyasiga keldi. G'.G'ulom. «Eshon» obod. Odam bolasining miyasiga bir gap keldimi, so'rab bilmaguncha ko'ngli o'rniga tushmaydi. S.Ahmad. Qorako'z Majnun.

MIYA(SI)GA KIRMASLIK nima? kimning? fikri tarqoq bo'lgani sababli idrok etmaslik.

Qo'limda kitob-u, bari bir o'qiganlarim miyamga kirmayapti. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.

MIYA(SI)GA QUYMOQ *kim? kimning? nimani?* qayta-qayta aytib ishontirmoq.

«Fritsni bu yerda rosa uramiz, jonli kuchini, texnikasini majaqlab, tinka-madorini quritamiz!» degan fikrni u har bir jangchining miyasiga quyishni istar; har munosabat bilan bu fikrni uqtirib o'tishga tirishar edi. Oybek. Quyosh qoraymas. *Kufr irq-u millatda, rang-u tusda deb qachon miyasiga quyishdi?* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

miya(si)ni achitmoq: miya(si) achidi

MIYA(SI)NI G'OVLATIB YUBORMOQ *kim? kimning?* o'ylayverib gangimoq. Varianti: **bosh(i) g'ovlab ketdi; kalla(si) g'ovlab ketdi; bosh(i)ning g'ovlashi kimning?** Sinonimi: **bosh(i) qotdi kimning?** – **bosh(i)ni qotirmoq 2 kim? kimning?** yoki [*o'zining*] **bosh(i) shishdi kimning?**

Ming xil xayol bilan miyam g'ovlab ketdi. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. *Ular hali «ichkaridagi xotin-qizlar yoniga pisib kirib kelib, har xil vahimali ig'volar bilan ularning miyasini g'ovlatadi.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Bu o'ylardan Sayyoraning boshi g'ovlab ketdi.* O.Yoqubov. Dastlabki qadam. *O'ylayverib, kallasi g'ovlab ketdi.* A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi. *Sochining damba-dam yuziga tushib, g'ashini keltirishi ko'p o'qib, boshining g'ovlashi ustiga qo'shildi-yu...* P.Qodirov. Uch ildiz.

miya(si)ni g'ovlatib yubormoq: miya(si) g'ovlab ketdi.

MIYA(SI)NI QOQIB, QO'L(I)-GA BERMOQ *kim? kimning?* so'ray-

verib, miyasini charchatmoq, sergapligi bilan bezdirmoq. Varianti: **miyani qoqib, qo'lga bermoq kim; quloq-miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga tutqazmoq; qulog'(i)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq; quloq-miya(si)ni qoqmoq.** Sinonimi: **quloq-miya(si)ni yemoq kim? yoki nima? kimning?**

«Qanday qilib yuz tonna teradilar?» – deb miyamni qoqib, qo'linga berdi. R.Fayziy. Xirmon etak. *Ayniqsa suv tarqatuvchi sisterna oldida navbatda turgan xotin-xalaj suvchining miyasini qoqib, qo'liga beryapti.* I.Rahim. Olovkor. *Bo'lmasa biron boshqa joyga borib g'o'ng'illang-da! Obdan miyani qoqib, qo'lga berdingiz-ku!* N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

miya(si)ni qotirmoq: bosh(i) qotdi **miya(si)ni yemoq:** aql(i)ni yemoq **MIYANGNING QATIG'INI O'YNATIB YUBORAMAN!** [kim] kuchli do'q urishni bildiradi.

Rajab bobo yerdan qoq guvala olib, unga o'qtaldi: «Yo'qol deya-man! Bo'lmasa shu guvala bilan miyangning qatig'ini o'ynatib yuboraman!» S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

miyani qoqib, qo'lga bermoq: miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq **MIYASI TO'LA** [kimning?] chuqur fikr yuritadigan, chuqur bilimli. Sinonimi: **aqli raso** [kimning?].

Rasmi, yigitmonand uylangandan keyin es-hushini yig'ishtirib oladi. Lekin o'zi miyasi to'la bola. Oybek. Oltin vodiyydan shabadalar.

MIYASIGA QURT TUSHMOQ *kimning?* miyasi aynimoq.

Lekin bularning yuztasini qo'shib bog'lasang, bitta sarjin bo'lmaydi. Shun-

chaki qo'g'irchoqlar, dimog'i shishgan pistafurush bilan miyasiga qurt tushgan g'o'zafurush chol... M.M.Do'st. Lolazor.

mokiday: bo'zchining mokisiday
MING BIR son-sanoqsiz, juda ko'p.

... jang maydonida ming bir ajalga chap berib olg'a borayotgan erining yuziga oyoq qo'yib, «ko'ngil xushligi» qiladigan makiyonni bizing ko'zimiz bilan .. ko'ra olmaydi. A.Qahhor. Xotinlar. To'p-to'p odamlar... Militsiya... Nazarov, Nigora, onasi... Nihoyat, sho'rlik Muhabbatning yig'lamsirab zorlanishi – hammasi unga ming bir azob berib, xayolidan bir-bir o'tdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

MING JONIM O'LSA, SENGATORTIQ [miñ žanīm olsa, sengā tartiq] tar. kimning? kimga? o'z jonini qurbon qilishga tayyor.

Agar ming jonim o'lsa senga tortiq, Bo'lurmu do'st-u yorliq shundan ortiq? S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

MING MAQOMGA SOLMOQ kim? nimani? ko'p marta o'zi istagancha harakat qildirmoq.

Suv tilini bilish kerak. Tilini bil-sang, suvni ming maqomga solasan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Sen qurgan GESni hali ming maqomga solamiz. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

MING MARTA 1 juda ko'p marta takror-takror.

«...tura turaylik, sinamagan yigitga qiz berib bo'ladimi», – deb ming marta aytdim-a. J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar. Bu gapingizni ming marta eshitganmiz. S.Anorboyev. Tashvish. Ming marta chaynalgan

«Har ikkimizning ham hech qanday kasalimiz yo'q» degan gapni yana aytishga majbur bo'ldim. Oydin. Ikki ko'zi shunda.

2 o'ta darajada.

Bilmaganimizni bildirib, tushunmaganimizni tushuntirib, shunchalik obro'ga ega qildingiz. Ming marta minnatdormiz sizdan. S.Ahmad. Qadrton dalalar. Biznikida ish ming marta yengil. Oybek. Qutlug' qon.

ming o'lchab, bir kesmoq: yetti o'lchab, bir kesmoq

MINGDAN MING chin ko'ngildan, xursandlik bilan.

«Ko'nglidaki sizga kuyov bo'lish orzusi bo'lgan ekan, mingdan ming rozi edim», – deb meni quchoqlab yig'lab yubordi Kamolxon. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.

MING OHANGGA TUSHMOQ kim? ko'p marta kimningdir istagi bo'yicha harakat qilmoq.

Hovlida haligina teskari qarashib o'tirishgan mehmonini bunday muloyimlik bilan kuzatayotgan erini ko'rib, Hojarbibi ham hayron bo'ldi, shu kunlarda ming ohangga tushayotgan eriga rahmi keldi. A.Muxtor. Opa-singillar.

MING QILSA HAM 1 har qancha harakat qilgani bilan.

Hali unday, hali bunday qaror yuborib, ijrosini talab qilishadi, u hammasini bajo keltirishni istaydi, biroq ming qilsa ham vatqi yetishmaydi. P.Qodirov. Uch ildiz.

2 har holda, aslida.

Ming qilsa ham xotin kishida, kabinetni ham o'z uyiday saranjomlabdi. I.Rahim. Ixlos.

MOS KELMOQ *nima? nima-ga? muvofiq bo'lmoq, mos bo'lmoq.* Sinonimi: **to'g'ri kelmoq I** *nima? yoki kim? nimaga? yoki kimga?*

Zalning olovli go'zalligi Gavhar-ning hozirgi tuyg'ulariga juda mos kelar edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Kartina. *Bolalarning ba'zan yoshlariga mos kelmagan g'alati sezgilari bo'la-di.* R.N.Guntegin.Choliqushi.

MOT BO'LMOQ [mat bol=] tar. *kim? yengilmoq, yutqazmoq.*

Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur, Ruhungni ko'rsa ming shah mot bo'lur. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

MOT ETMOQ [mat et=] tar. *kim? yoki nima? kimni? yoki nimani? yengmoq, yutmoq.*

Suhayl husni erur Yusufdin oliy, Etar mot olmani yuzining oli. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

MOTAM TUTMOQ *kim? motam holatida bo'lmoq, shunday holatni kechirmoq.*

Uning nazarida, butun Hirot qora ridoga o'ralib, motam tutayotganday. Mirmuhsin. Me'mor.

MOTGA TUTMOQ *kim? kimni? o'z mo'ljalini amalga oshirish talabini ko'ndalang qo'yimoq; qiyin-qistovga olmoq.*

Bu g'alvalardan xabar topgan ke-linning otasi bo'lsa «Tez qizimni ko'chirib ketaman», – deb motga tuta-yotganmish... H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

MOXOVGA OSHNA QILMOQ *kim? kimni? sha'niga tegadigan, obro'sini to'kadigan gaplar gapirmoq.*

Bo'lmagan gap, haligina moxovga shna qilding; Kimsan senga Qarz be-

rarmidi?! A.Muxtor. Tug'ilish. Turob bir kuni dadasining hushyor vaqtini topib, sal nasihat qilgan ekan, uni kelin oldida moxovga oshna qilibdi. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

moy to'kilsa – yalagu[n]day: *yog' tushsa – yalagu [n] dek*

moy tomsa–yalagu[n]day II yalagu[n]dek qilib: *yog' tushsa – yalagu[n]dek*

MOZOR BOSIB KELGAN *uzoq yerdan, tabarruk joylardan o'tib kelgan.*

Qandolatxon o'sha mozor bosib kelgan termosdan bir piyola choy tutdi. I.Rahim. Hilola. *Vali polvon burchakda turgan qopidan «mazor bosib kelgan» patir bilan turshak, anor olib qo'ydi.* H.Nazir. O'tlar tushganda.


MOG'OR BOSIB YOTMOQ *kim? qayerda? hech narsaga aralashmay, ko'p narsani ko'rmay, bexabar kun kechirmoq.*

«Mashinaga hech tushgan emasman», – dedi Siddiqjon kulib. Qurbon ota engashib samovarning ostiga sim tirayotgan edi, qaddini rostlab Siddiqjonga qaradi. «Nima?» – «Umrimda tushgan emasman». – «Shu choqqa-cha qaysi burchakda mog'or bosib yotgan edingiz?» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

MUBTALO BO'LMOQ [mubtala bol=] tar. *kim? kimga? yoki nimaga? duchor bo'lmoq, chalinmoq.*

Necha sening kabilar bu dard bilan mubtalo bo'lub tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

MUDROQ BOSMOQ *kimni? mudroq holat qo'zgalmoq, kuchaymoq.*



Ahmadning qovoqlari og'irlashib, mudroq bosdi. U ikkala oyog'ini uzatib, o'zini uyqu ixtiyoriga topshirdi. F.Musajonov, Himmat.

MUHABBAT BOG'LAMOQ [muhabbät bayla=] tar. *kim? kim bilan? sevishmoq.* Varianti: **muhabbatina bog'lamoq.**

Bir oy yuzli bilan bog'lab muhabbat. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

MUHABBAT QO'YMOQ *kim? kimga?* sevish hissiga erk bermoq (qiz bilan yigit). Sinonimi: **ko'ngil qo'ymoq** *kim? kimga?* **ko'ngil bog'lamoq** *kim? kimga?*

Uning eng aziz hislarini poymol qila turib, uning ukasiga muhabbat qo'ysa? O.Yoqubov. Tilla uzuk.

mukka ketmoq: mukka(si)dan ketmoq

mukka tushmoq: mukka(si)dan tushib ketmoq

MUKKA(SI) BILAN TUSHIB KETMOQ *kim?[o'zining] nimaga?* o'zini tiya olmaslik darajada berilib ketmoq. Varianti: **mukka tushmoq** *kim? nimaga?* Sinonimi: **mukka(si)dan ketmoq** *kim?[o'zining] nimaga?*

Tez orada unga bunday tanqidlar ham kor qilmaydigan bo'lib qoldi. Osoyishta, betashvish hayotga mukasi bilan tushib ketdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Shofer uni mazax qilyaptimi yoki o'zi muzikaga shunchalik mukka tushganki, dutorni ko'rib, yuragi chapak chalayotganidan shu gapni aytyaptimi?* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

MUKKA(SI)DAN KETMOQ *kim? [o'zining] nimaga?* o'zini tiya olmaslik

darajada berilib ketmoq (salbiy). Sinonimi: **mukka(si) bilan tushib ketmoq** *kim? [o'zining] nimaga?*

Genrixning bir zaif tomoni shu edi-ki, yoshligidan ichkilikka mukkasidan ketgan edi. I.Rahim. Chin muhabbat. *Ayol mol-dunyoga mukkasidan ketgan deyishadi, «yaltir-yultir» tillo-yu kumushning oldida erib ketadi, deyishadi. Bo'lsa bordir, lekin bolaning oldida o'sha dunyo ham, o'sha tillo ham hechga aylanadi.* U.Hamdani. Ota.

MULLA MINGAN ESHAKDAY **1** o'ta darajada.

Mening aslo xabarim yo'q, uni mulla mingan eshakday yuvosh deb fahmlar edim, ha haromi! Oybek. Nur qidirib.

2 o'ta darajada itoatkor, yuvosh.

Qamoqda ezilsa, mulla mingan eshakday, bo'ynini solib, bir kunmas-bir kun balki chiqib kelar.. Oybek. Qutlug' qon.

MULLA MIRQURUQ hatto mayda xarajatga ham puli yo'q, hamyoni bo'm-bo'sh.

Mana, hali ham na xotin, na sariq chaqalik mol-mulk, na bir hunar, kimsan so'ppaygan mullamir quruq bo'lib o'tiribsiz. A.Muxtor. Opa-singillar.

MULOYIM SUPURGI BO'LMOQ *kim?* fe'l-atvori asli salbiy bo'la turib, muomala-munosabatda o'zini supo, xush fe'l, yoqimtoy qilib ko'rsatmoq.

Muloyim supurgi bo'lib yer tagidan ish bitiradi bu qiz. So'zlashuv uslubi. Yerga qarab, iymanib gapiradigan, yumshoq supurgi boshbux Komil bilan astoydil hol-ahvol so'rashgach, papkasidan qog'ozlarini chiqardi. T.Malik. Charxpalak.

MUM TISHLAMOQ kim? mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik. Sinonimi: **og‘z(i)ga tolqon solmoq** kim? [o‘zining].

«Xo‘sh, mum tishlab qolding? Ichingdagini ayt», – dedi Mirhaydar boshini qashib. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Bir gapirib, o‘n kular-di, hammani og‘ziga qaratardi. Bu bor joyda hech kim zerikmasdi. Bugun mum tishlab qoldi. Oydin. Sadag‘ang bo‘lay, komandir.

MUROD(I)GA YETMOQ kim? [o‘zining] – **MUROD(I)GA YETKAZMOQ** kim? kimni [o‘zining] orzuniyatining amalga oshuviga erishmoq.

Darrov boshini bog‘lash kerak. Inshoollo, bu ish qiyin bo‘lmas, murodimizga yetamiz. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Ey, bolam, g‘animlar u bechorani murodiga yetkazmasdan halok qilibdilar! Oydin. Farhodlar. – Qo‘rqma. Qo‘rqoqlar hech qachon murodiga yetolmaydi. Shu gap esingdan chiqmasin, – ko‘nglimni ko‘tardi qalpoqcham! X.To‘xtaboyev. Sariq devni minib.

murod(i)ga yetkazmoq: murod(i)ga yetmoq

MUSONING ALAMINI ISODAN OLMOQ kim? aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq.

Men Musoning alamini Isodan olmoqchi bo‘lib, boyvachchadan so‘radim: «Bu itning sen bilan qanday aloqasi bor ediki, sening isingni iskab ke-lib, bizning davrani bulg‘atib ketdi?» S.Ayniy. Sudxo‘rning o‘limi.

MUSHKUL(I)NI OSON QILMOQ kim? kimning? yoki [o‘zining] qiyin, og‘ir ahvolini yengillashtirmoq.

Bog‘larni obod qilsam, yurtga osh berib, to‘ylar qilsam, to‘ylarda xizmat qilsam, otamning chirog‘ini o‘chirmasam, odamlarning mushkulini oson qilsam... S.Ahmad. Hukm. Bir marta, ikki marta, uch marta shunday qiladi-yu, keyin yolg‘on bilan mushkulini oson qilishga o‘rganib qoladi. P.Qodirov. Uch ildiz.

MUSHT(I)GA TUFLAB TURMOQ kim?[o‘zining] qarshi kurashga shay bo‘lib turmoq.

Navkarlarni juda ko‘paytirib yuborgan. Lekin xalq ham mushtiga tuflab turibdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

MUSHTDAY BOSH(I)DAN yoshiga nomunosib tarzda, erta.

Uy bilan uncha ishlari yo‘q. Dalarining ketidan qolmaydilar. Mushtday boshidan kattalik... H.Nazir. Ko‘k-oroq chiroqlari. Birpasdan keyin Juman o‘g‘ri bolani qulog‘idan tortib chiqardi-da, yoniga o‘tqazdi: «Uyat emasmi, nomard, mushtdek boshingdan...» A.Muxtor. Tug‘ilish.

mushug(i)ni «pisht» deb bo‘ladimi?!: mushug(i)ni «pisht» demaslik

MUSHUG(I)NI «PISHT» DEMASLIK kim? kimning? hech qanday ozor yetkazmaslik. Varianti: **mushug(i)ni «pisht» deb bo‘ladimi?! kimning? mushug(i)ni «pisht» desa...**

Otang temirchi o‘tmagan edi-ku, tuppa-tuzuk cho‘pon edi. Birovning mushugini «pisht» demas edi. I.Rahim. Ixlos. Siz padari buzruk, volidayi mehriboningizning yakka-yu yagona ko‘z qorachig‘isiz. Sizning mushugingizni «pisht» deb bo‘larmidi?! S.Anorboyev. Yo‘llanma bilan.

mushug(i)ni «pisht» desa: mushug(i)ni «pisht» demaslik

N

NA ISSIQQA KO'NMOQ, NA SOVUQQA *kim?* har ikki maslahatga ham unamaslik, rozi bo'lmaslik.

«Ha, qo'ya qol bo'lmasa, jon bolam, o'zingni qiynab senga nima zarur». – *«Men sizga qiynaldim dedimmi?»* Xosiyat xola xoxolab kulib yubordi. *«Nima qilgin deysan bo'lmasa, na is-siqqa ko'nasan, na sovuqqa».* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

320

na six kuysin, na kabob: six ham kuymasin, kabob ham

NADOMAT YEMOQ [nadamat je=] tar. *kim?nimadan?* afsuslanmoq.

Aql va adab bilan tirilgil, lahv va tarabni qo'yg'ulkim, alingdagi naqd ketsa, ko'b zahmatlar chekib, nadomat yegaysan, foyda qilmag'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NAFAS OLMOQ 1 *kim?* o'pkaga havo olib chiqarmoq. Varianti: **tin olmoq.**

Shuning uchun ham «uch-to'rt kun bu «quling o'rgilsin» salqin joylarda erkin nafas olib, muzdek chashmalardan suv ichib, to'qaylarda ov qilib, bir yayrab ketish» uchun chiqqan Mahmud akaga bu kutilmagan hodisa yoqmasi. O.Yoqubov. Ota izidan.

2 *kim?* yoki nima? yashamoq, mavjud bo'lmoq.

Zamon bilan baravar nafas ololmagan, yangiliklardan zavqlanmagan, ertangi kunga bugun asos qo'yolmagan kishilarni hamma vaqt qoralaymiz. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Kombinat baribir bu ko'priksiz nafas ololmaydi. Sozliqsoy ko'prigi bu yil qurilmasa, yanagi yil baribir qurilishi kerak.* A.Muxtor. Tug'ilish.

nafas rostlamoq: nafas(i)ni rostlamoq

NAFAS URMOQ [nāfās ur=] tar. *kim?* nafas olmoq, *ko'chma ma'noda:* farovon yashamoq.

Bir-ikki xush nafas urmaq tiladim, Nafas yo'li tutulli bo'ldum axras. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NAFAS YO'LI TUTULMOQ [nāfās joli tutul=] tar. *kimning?* umri nihoyasiga yetmoq.

Bir-ikki xush nafas urmaq tiladim, Nafas yo'li tutulli bo'ldum axras. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NAFAS(I) BO'G'ILDI *kimning?* hayajonlanganidan nafas olishi qiyinlashdi.

Bepoyon sahro ham do'ppiday joy bo'lib, atrofi temir panjara bilan o'rab olinganday, men esa qafasda cho'kka tushib o'tirganday nafasim bo'g'ilib ketdi. I.Rahim. Olovkor.

nafas(i) bo'g'z(i)ga tiqildi: nafas(i) og'z(i)ga tiqildi

nafas(i) chiqmadi: dam(i) chiqmadi

NAFAS(I) ICH(I)GA TUSHIB KETDI kimning? qo'rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo'lib qolmoq. Varianti: **nafaslar ichga tushib ketdi (-); dam(i) ich(i)ga tush[ib ket]di -dam(i)ni ich(i)ga tushirib yubormoq kim? kimning?**

«Kelinimiz topildi, inim Mir Is'hoq», – dedi shivirlab ellikboshi. *Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi.* Oybek. *Qutlug' qon. Po'latjonning nafasi ichiga tushib, ancha joygacha churq etmay bordi.* S.Ahmad. *Qadr don dalalar.* «Boyvachcha pichoqlanibdi», – dedi Mamajon yarim tovush bilan. «A?» – dedi hamma birdan, *nafaslar ichga tushib ketdi.* A.Muxtor. *Opa-singillar. Qani Adolat endi uni tergap ko'rsin-chi, Bozorovning nomini eshitishi bilan dami ichiga tushib ketadi.* I.Rahim. *Chin muhabbat. Shodmon otaning dami ichiga tushdi.* «Yallachilik» so'zi o'ziga nasha qilib ketgan edi. H.Nazir. *Ko'rmana.*

nafas(i) kesildi: dam(i)ni kesmoq I

NAFAS(I) OG'Z(I)GA TIQILDI kimning? hansiramoq, tez-tez og'ir nafas olmoq. Varianti: **nafas(i) tiqildi; nafas(i) bo'g'z(i)ga tiqildi.** Sinonimi: **o'pka(si) og'z(i)ga tiqildi I** kimning?

Bir-ikkitasi devordan oshib tushib, eshikni ochdi, qolganlari ham kirdilar, men nafasim og'zimga tiqilgani holda ularga voqeani aytdim. G'.G'ulom. *Shum bola. Ha, nima gap? Namun-*

cha nafasing og'zingga tiqilmasa? N.Nazarov. *Zamon.* «*Dadamni qidirib yuruvdim*», – dedi *Qudrat nafasi tiqilib.* H.Nazir. *So'nmas chaqmoqlar. U oyog'ini qo'liga olib, nafasi bo'g'ziga tiqilgan holda shaharga yetib keldi.* Oydin. *Gulsanam.*

NAFAS(I) QAYTDI kimning? – **NAFAS(I)NI QAYTARMOQ** kim? kimning? yoqtirmaslik hissi uyg'ondi.

«*Haydar hojingiz durust odam ekan,* – dedi *Saidiy, orada bir necha kun o'tgandan keyin Mirza Muhiddin-ga.* – *Dastlab ko'rganimda nafasim qaytgan edi. Yaxshi ulfat, ko'p fazilat-lari bor ko'rinadi.*» A.Qahhor. *Sarob.*

NAFAS(I) SOVUQ kimning? yomonlik yuz berishini gapiradigan va kutadigan.

Bu nafasi sovuqni qishloqdan haydash kerak! S.Anorboyev. *Oqsoy. Vilyam dedingizmi? Muncha ham nafasi sovuq odam ekan.* S.Nazar. *Yashil boyluk.*

NAFASI TINDI kimning? qazo qilmoq, o'lmoq. Sinonimi: **dunyodan o'tmoq 2 kim; dunyodan ketmoq kim? ko'z(i)ni yummoq kim? [o'zining]; oyog'(i)ni uzatmoq kim? [o'zining]; engak tashlamoq kim.** Antonimi: **dunyoga kelmoq 1 kim?** ba'zan nima?

Normatning oyog'i ostida cho'zilib yotgan nemisning nafasi tingan edi. I.Rahim. *Chin muhabbat.*

nafas(i) tiqildi: nafas(i) og'z(i)ga tiqildi

NAFAS(I) O'TKIR kimning? duosi ijobat bo'ladigan (diniy).

Lip etib bir Azayimxon domlaniki-ga bordim. Nafasi o'tkir deb eshitar edim. Oybek. *Qutlug' qon.*

NAFAS(I) O'CHDI kimning? – **NAFAS(I)NI O'CHIRMOQ** kim? [o'zining] gapirishdan shartta to'xtamoq.

«Shunday qaradinglearmi yoki ko'zoynak bilanmi? – dedi. Keyin Salim amin bilan xoxolab kulib yubordi. Chollar indamay turaverdilar. – Nimaga nafaslarining o'chib qoldi?» M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

nafas(i)ni ich(i)ga olmoq: dam(i)ni ich(i)ga yutmoq

nafas(i)ni ich(i)ga yutmoq: dam(i)ni ich(i)ga yutmoq

nafas(i)ni o'chirmoq: nafas(i) o'chdi

nafas(i)ni o'nglamoq: nafas(i)ni rostlamoq

nafas(i)ni qaytarmoq: nafas(i) qaytdi

322

NAFAS(I)NI ROSTLAMOQ kim? [o'zining] **1** nafas olish harakatini odatdagi holatiga keltirmoq. Varianti: **nafas rostlamoq** kim; **dam(i)ni rostlamoq;** **nafas(i)ni o'nglamoq.**

Mingboshining bog'i oldida to'xtab, nafasini rostlab oldi. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri. Kelgan deputatlar yig'ingacha nafasni rostlab olish uchun foyedagi divanlardan joy olmoqdalar. A.Muxtor. Janjalkash. Bobo salomlashgach, orqasi bilan skameykaga suyanib o'tirdi. Damini rostlagach, Botir tarafga sal burilib: «Biznikiga erta kechga marhamat qilasiz. Salim akang, Bo'ston so'rab yubordilar», – dedi. S.Nazar. Yashil boylik. Bas, picha dam oling, biz ham nafasimizni o'nglab olaylik-a, Zamon? M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

2 o'zini o'nglab olmoq.

Polk komandiri dushman nafasini rostlab olmasdan turib, qarshi hujumga o'tish to'g'risida buyruq berdi. A.Qahhor. Oltin yulduz. «Lekin bu dalillar siyosiy bo'lim uchun yetarli emas», – deganidan keyin, nafasini biroz rostlab oldi. S.Ayniy. Qullar.

NAFAS(I)NI SOVUQ QILMOQ kim? [o'zining] yomonlik yuz berishini gapirmoq va kutmoq. Varianti: **sovuq nafas qilmoq** kim? **yomon nafas qilmoq** kim?

Nafasingizni sovuq qilmang, aka... S.Anorboyev. Oqsoy. «Bu la'nati bir baloyi azimni bilmasa, – o'yladi u, – bunday sovuq nafas qilmasdi». Sh. Toshmatov. Erk qushi. «Qo'y, yomon nafas qilma, – Sanam otin Hasan ovchiga dalda berdi, – cho'ri qiladi deganing nimasi». Sh.Toshmatov. Erk qushi.

NAFASING[IZ]NI YEL UCHIR-SIN [kimning?] aytgan fikring[iz] aslo haqiqatga aylanmasin.

«Qazingiz sabil qoladigan bo'ldi, boyvachcha, kennoyim ertaga turmaga ... bormasalar deb qo'rqaman uni», – «Nafasingizni yel uchirsin-ey, bu qanaqa gap, afandixon?!» S.Ahmad. Hukm.

nafaslar ichga tushib ketdi: nafas(i) ich(i)ga tush[ib ket]di

NAFAS(I) OLINDI kimning? nimanidan? o'zini kamsitilgan deb his qilmoq.

Kutdi, xotin yo'q. «Kechagi koyishdan nafsi olingan bo'lsa, arazlab ketgandir» – deb o'yladi. G'.G'ulom. Cho'tir xotinning toleyi. ... agronom bilan birga yurganligidan nafsi olingan ... qovog'i solingan edi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

NAFS(I) OG'RIDI kimning? [nimadan?] qadr-qiymati, nafsoniyati ozor topdi.

G'ulomjon stoldagi nonlarga qarab ko'ngli buzildi. U nafsi og'rigan kishi tovushi bilan qulfi dilini ochdi: «Matqovul aka, men non toparmikanman deb, qorin g'amida maktab ochganim yo'q..» M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

NAFSI BUZUQ 1 ovqatdan o'zini tiya olmaydigan, ovqatni ortiq darajada iste'mol qiladigan.

«Nafsi buzuq hayitda o'ladi», – deydi o'zbeklar. Oybek. Quyosh qoraymas.

2 biror narsa undirib olishga o'rgangan, tamagir.

Nafsi buzuq odam. Jindak cho'zib qo'ymasang, molning yaxshisini ololmaysan. S.Ahmad. Cho'l burguti.

NAFSI HAYKALAK OTMOQ ayn. nafsi hakalak otmoq.

Shundan keyin nafsi battar haykalak otib, qo'l ostidagi ishchilarning maoshiga ham arra sola boshladi. «Mushtum».

nafsi-izzat(i)ga tegmoq: izzati nafs(i)ga tegmoq

NAFSIN YENGMOQ [nafs'in jey=] tar. kim? moddiyatga bo'lgan xohish-istaklarini jilovlamoq.

Har ki dunyo tark etib nafsini yengib, Charb-u shirin yemadi zohid bo'lur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NAHS BOSGAN yuvuqsiz, nopok bo'lgani sababli o'zining ham, o'zganing ham faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan.

Sening kasringga qolib munaqa bo'ldi. Bo'lmasa tuppa-tuzuk ishim

yurishib ketib edi. Ikki to'qli-yu bir echkidan ajradim. Sen o'zing naqs bosgan yigit ekansan. G'.G'ulom. Shum bola. *O'g'lini «Shum qadam, naqs bosgan» deb so'kdi va urmoqchiday qamchi o'qtaldi.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

NAM TORTMOQ kim? noqulay holatga tushib, qattiq xijolat bo'lmoq.

«Yuring, Polvon, o'zi kontorda ekan, kiramiz». – «Qo'ysang-chi, nomard, men yo'g'imda kirasan, puli bo'lmasa, mening oldimda nam tortib qoladi, qo'y, nomard». G'.G'ulom. Netay.

nam o'tkazmaslik: nam o'tmaydi

NAM O'TMAYDI kimga? – **NAM O'TKAZMASLIK** kim? barcha harakatlar zoye ketib, ijobiy tomonga o'zgarish, siljish voqe bo'lmaydi.

O'zi bir bachkana omborchi bo'lisa. Buning ustiga, harom-xarishdan hazar qilmaydigan, pixini yorgan tul-lakka o'xshaydi. Ming gapirsang, nam o'tmaydi. Uzundan-uzoq raportlari, ... papka-papka qog'ozlari bilan boshni aylantirmoqchi bo'ladi. A.Muxtor. Tug'ilish.

NARI-BERIGA BORMOQ kim? kim bilan? xafalashmoq, janjallashmoq.

U ... bilan birinchi uchrashish-dayoq nari-beriga borib qolishiga ko'zi yetdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

NARI BORIB, BERI KELMOQ kim? juda qattiq azoblanmoq, o'lim chegarasiga borib qaytmoq.

Chaqaloq uch kungacha nari borib, beri keldi. Vrachlar shunday bo'lishi mumkin deyishdi. R.Fayziy. Ona.

NARI BORSA ko'pi bilan, ortig'i bilan hisoblaganda.

Onasi vafot etganda Shukurjon nari borsa ikki yoshga to'lgan bir go'dak edi. O.Yoqubov. Ota izidan.

NARI TURSIN nima? zidlash ma'nosini ifodalab, bog'lovchi vazifasida keladi. Sinonimi: **u yoqda tursin** nima qilish? nima? yoki kim?

O'zining kiyim-kechagi nari tursin, ro'zg'orning ba'zi kamchiliklarini ham tugallab, mening yukimni ancha yengillashtirdi. S.Ayniy. Qullar.

NARI YOG'IYO'Q tavsiflab bo'lmaydigan darajada.

Okasi Sherbek, kennoyingiz qo'y yog'ga osh qilgan ekan, biram shirrin bo'libdiki, endi nari yog'i yo'q. S.Anorboyev. Oqsoy.

NARI YOQ-BERI YOG'(I)DAN O'TIB KETMOQ nima? kimning? ruhiga chuqur ta'sir qilmoq nima? («gap»). Sinonimi: **suyak-suyag(i)dan o'tib ketmoq 2** nima? («gap») kimning? **suyak-suyag(i)ga botib ketmoq** nima? («gap») kimning?

Bu gap ham Lutfnisaning nari yoq-beri yog'idan o'tib ketibdi. Mirmuhsin. Jamila. *Majlisga qo'ymanglar, juda og'ir bo'ladi, mana shu devoriy gazetasidagi ham nari yoq-beri yog'imdand o'tib ketdi, jon do'stim.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

NARIGA O'TMASLIK kim? nimadan? yoki nima qilishidan? chegaralanmoq, yetarli deb bilmoq.

Nimadan gap ochilmasin, ikki og'iz savol-javobdan nariga o'tmadi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. O'tmishda xalqimiz tegirmon va objuvozdan nariga o'tolmagan. Mana hozir Sirdaryo-*

da «Farhod»ni quryapti. Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. Shuning uchun siyqa gaplarni xom-xatala qilib takrorlashdan nariga o'ta olmaydi, jamiyat ishini quruq rasmiyatga aylantiradi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

naryoq-beryog'(i)dan o'tib ketmoq: nari yoq-beri yog'(i)dan o'tib ketmoq

naryog'i yo'q: nari yog'i yo'q

nas bosgan: nahs bosgan

NASIBA(SI) UZILDI kimning? qayerdan? butunlay tark etishga majbur bo'lmoq.

Nahot Zor qishloqdan ham nasibam uzilgan bo'lsa. S.Ahmad. Hukm.

NAYZAGA OLMOQ kim? kimni? rad etib bo'lmas darajada uzil-kesil qarshi gapirmoq.

«Ha, sizning diniy ta'limingiz odamlarni quldorlarga qul bo'lish ruhida tarbiyalar edi», – demoqchi bo'ldida, lekin darrov nayzaga olish yaxshi bo'lmas deb, bu keskin fikridan qaytdi. P.Tursun. O'qituvchi.

NAZAR SOLMOQ kim? nimagaga? yoki kimga? diqqat bilan qaramoq. Varianti: **ko'z solmoq.**

Qayerning g'o'zasi past, egat qanday olingan, tuproq yetilganmi – hammasiga nazar solib chiqaman. S.Abdudqahhor. *Mirtolib ota. Men ham unga nazar solgan edim, u yerga qaradi.* I.Rahim. *Olovkor. Biroq o'z uylari xurofotning chirik ini ekanini bilmaydilar yoki bunga ko'z solmaydilar.* Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. Ikkisiga ism qo'ying ko'z solib.* S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

nazar tashlamoq: ko'z tashlamoq

nazar(i) ilmaydi: nazarga ilmaslik

NAZAR(I) PAST kimning? 1 arzimagan narsani qo‘lga kiritish uchun o‘z izzat-obro‘sidan voz kechadigan.

Arz-u holing eshitmas, Unda ishing hech bitmas. Shunchalik nazari past – Nima bersang, olar u. «Mushtum»-dan.

2 katta ish uchun juda kichik narsanigina ravo ko‘radigan.

Meningcha, dastlabki yillarda qirq-ellikta ko‘chat bilan bitta kichkina xona ajratib bersak, o‘tin bilan mo‘l-ko‘l ta‘minlasak, nima deysizlar?» – «Buncha nazaringiz past», – deb teskari qaradi unga yonma-yon o‘tirgan Qumri. S.Nazar. Yashil boyluk .

nazar(i) tushdi: ko‘z (i) tushdi

nazar(i)dan o‘tkazmoq: ko‘zdan kechirmoq

NAZAR(I)DAN QOLMOQ kim? kimning? yaxshi munosabatidan, hurmat-e‘tiboridan mahrum bo‘lmoq. Varianti: **nazardan qolmoq** kim?

Yurt ulug‘larining nazaridan qolaversa, o‘ziga qiyin... S.Abdulla. Muqimiy. Bu ma‘nisizlikni noiloj qo‘llagan Elchibek o‘zining birdaniga nazardan qolganini his etdi. A.Muxtor. Tug‘ilish.

NAZAR(I)DAN QOCHMOQ nima? kimning? e‘tibordan tashqarida qolmoq, ko‘rinmay qolmoq.

Endi tushundim: sen tashlandiq yerlardan daromad olmoqchisan... Nazarimizdan qochgan o‘zga kirim yo‘llari bordir. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

nazar(i)ga ilarmidi?!: nazarga ilmaslik

nazar(i)ga ilib: nazarga ilmaslik

nazar(i)ga ilmaslik: nazarga ilmaslik

NAZAR(I)GA KIRMOQ kim? kimning? e‘tiborga loyiq degan fikr tug‘dirmoq.

G‘uzor begining nazariga kirish oson gapmi? Sh.Toshmatov. Erk qushi.

NAZAR(I)GA TUSHMOQ kim? kimning? ko‘rinib, o‘zini bildirib qo‘ymoq.

Hadya tez-tez o‘tib turgan sarbozlarning nazariga tushib qolishdan hadiksirab, madrasalar yonida kezardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

nazarda tutilmoq: ko‘zda tutmoq

nazarda tutmoq: ko‘zda tutmoq

nazardan qolmoq: nazar(i)dan qolmoq

nazardan o‘tkazmoq: ko‘zdan kechirmoq

NAZARGA ILMASLIK kim?–

NAZAR(I) ILMAYDI kimning? 1 kimni? mensimaslik, pisand qilmaslik. Varianti: **nazar(i)ga ilmaslik** kim? [o‘zining]; **nazar(i)ga ilarmidi?!** kim? [o‘zining] kimni; **nazar(i)ga ilib** kim? [o‘zining] kimni?

Bilsang, seni nazaringga ham ilmas edim. Sen bilan birga yurgani odamlardan uyalardim. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. Bizdaqa kichkina odamlarni nazarlaringga ilarmidinglar mayli. S.Anorboyev. Oqsoy. Menday bir mushtipar kampirni nazaringga ilib kelibsiz, rahmat. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 nimani? yoki qayerni? arzigulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaslik.

... «ko‘rkam» turmush qayg‘usida chin do‘stlik va muhabbatni nazarga ilmagan bir qizga nima deb xat yozishim mumkin? O.Yoqubov. Ikki muhabbat. Ba‘zilar chuchvarani xom

sanab, bu yerlarni nazari ilmay yuribdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

nazarga olindi: nazarga olmoq

NAZARGA OLMOQ kim? nima? – **NAZARGA OLINDI** nima? fikr-xulosa chiqarishda hisoblashmoq.

Mana shularni nazarga olganda, bugun bo'lmasa, ertaga juda dahshatli jang boshlanishi muqarrar edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

NAG'MA CHIQARMOQ kim? – kutilmagan salbiy ishlar qilmoq.

Endi ... odamning olasi ichida. Uning ichiga kim kirib chiqibdi deysiz. Keyincha biror nag'ma chiqarmasa go'rga edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

NA'RA URMOQ [na'ra ur=] tar. 1 kim? hayqirmoq.

Avval maydong'a sultonning ul qisqa bo'yli o'g'li kirdi dag'i na'ra urub bu baytni o'qudi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 kim? baqirmoq.

Yo'ldoshlarimizdan bir faqir na'ra urdi dag'i turdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NE KUNDUZ SABRI BOR EDI, NE KECHA QARORI [ne kunduz sabri bar edi, ne kecha qarori] tar. kimning? halovati yo'q, behalovat.

Og'zi taomdan, ko'zi uyqudan kesilib, ne kunduz sabri bor edi, ne kecha qarori. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NEST-NOBUT QILMOQ yo'q qilmoq, halok qilmoq.

Olis-olis manzillarda ilgangan umid shu'lasi aslida sarob u o'zicha intilgan, jang-u jadal qilgan ozodlik qanchadan-qancha begunoh qonlarni qurbonlikka oldi, maqsad-u muddaosini adashtirib-ayqashtirib barini zulmo-

niy, zulmat tumanlik izdihomi ichra nest-nobut qildi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

nechuk shamol uchirdi?!: qaysi shamol uchirdi

nigoh tashlamoq: ko'z tashlamoq
NIMA DEGAN ODAM BO'LMOQ kim? noqulay, uyatli ahvolga tushmoq.

... opa sendan xafa bo'ldilar, ko'rarsan, bir kun emas-bir kun shu gapni yuzingga soladilar. O'shanda nima degan odam bo'lasan. S.Ahmad. Xotinlar.

NIMA GAP, NIMA SO'Z qanday voqea sodir bo'lgani noma'lum.

«Hali nima gap, nima so'z, – Salimov yalt etib Tillaboyevga qaradi. – Oshsiz uy bo'ladi-yu, urishsiz uy bo'lmaydi. Azimjonning bunaqa qilishiga sira ishonmayman». H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

nima jin urdi: jin urdi

NIMA KETADI kimdan? hech narsa yo'qotmaslik.

«Keyin... yalinib-yolvorib qo'yamgandan keyin, mendan nima ketadi deb...» U so'zini tugatmagan edi hamki, Yunus Rajabovich o'rnidan dik etib turib ketdi: «Mendan nima ketadi, deydi-ya?! Kishida bir prinsip degan narsa bo'lishi kerak-da, hurmatli o'rtoq!» O.Yoqubov. Ota izidan.

NIMASINI AYTA-SAN (...AYTASAN) xuddi shunday, gaping[iz] to'ppa-to'g'ri.

«Qaynonangiz shunchalik qattiqmidi, xola?» – so'radi tarbiyachi juvon. «Voy, nimasini aytasan, bolam. Axir uyimizda janjal bo'lmagan kun yo'q edi-da». R.Fayziy. Qaynana.

nina bilan quduq qazimoq: igna bilan quduq qazimoq

ni[y]naday ...ni tuyaday qilmoq: ignadek ...ni tuyadek qilmoq

NISHONGA TEKKAN aytilgan soʻzning tinglovchiga taʼsir qilgani, maqsadga erishilgani.

Saidmurodning nigohida tantanavor, oʻz soʻzining nishonga borib tekkanidan masrurlik ifodasi oshkor jilvalanib oʻynardi... Sh.Boʻtayev. Qora tuman.

NOM QOLDIRMOQ kim? vafotidan keyin xotirlash uchun asos boʻladigan ezgu ishlar qilmoq.

Shunday qilsang, oʻzingni halokatdan qutqargan, oilang baxtini taʼmin etgan va dunyoda nom qoldirgan boʻlasan. A.Qahhor. Bos tepkini.

NOM(I) KETGAN [kimning?] maʼlum-mashhur boʻlgan.

U oʻziga ishonadi, nima boʻlganda ham, ... Tehron va Kobulga nomi ketgan savdogarning qizi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

NOM(I) OʻCHDI kimning? hech kim eslamaydi; unutilmoq.

Sevib, yoqtirsa xalq, oʻchmas asar shu, sen yoʻqolmaysan. Agar xalq sevmasa, noming oʻchar, dunyoda qolmaysan. S.Abdulla. Yozib manzur asarlar..

NOM(I) CHIQDI kimning? – **NOM CHIQARMOQ** kim? maʼlum-mashhur boʻlmoq. Sinonimi: **dong(i) chiqdi** kimning? – **dong chiqarmoq** kim? nima bilan yoki nima-da? **dong(i) ketdi** kimning?

Nomi chiqqan ashulachi-sanʼatkoridan boshqa hamma xursand boʻlib tarqaldi. A.Qahhor. Sanʼatkor. Bu joy-

da yer bilan bellashamiz, qarindosh. Osonlikcha nom chiqarib boʻlmaydi. H.Nazir. Odanning qadri. Choʻl burguti.

nom chiqarmoq: nom(i) chiqdi

NOMA TAMOM, VASSALOM gap tugadi, boshqa gapga hojat yoʻq. Varianti: vassalom.

Siz oʻz pulingizni bir yillik foydasi bilan, Temirdan boʻlsa ikki yillik foydasi bilan toʻla undirdingiz, men boʻlsam koʻp vaqtdan beri koʻz tikib yurganim yerlarni qoʻlga kirgizdim, «noma tamom, vassalom». S.Ayniy. Sudxoʻrning oʻlimi.

NOMAYI AʼMOL(I) kimning? qilgan ishlari, faoliyati haqidagi bayon, maʼlumot.

Berdisini aytguncha belimni bukmanglar. Axir bu yarim million sanatsa yarim million deb, uning nomayi aʼmolini surishtiringlar-da. I.Rahim. Hilola.

nomayi amal(i); nomai aʼmol(i)

NOMAʼQUL BUZOQNING GOʻSHTINI YEMOQ kim? bekorchi, bemaʼni fikrni bildirmoq.

Ha, oʻqing oʻzganmi?! Senga qol-sa, xotining qoshiga oʻsma, koʻziga surma qoʻyib, ipakday buralib oʻtir-sin, gah desang, qoʻlingga qoʻnsin! Agar shunday oʻylasang, nomaʼqul buzoqning goʻshtini yebsan. S.Ahmad. Xotinlar. «Ziynat buvi paranj-i yopinadi deb kim aytdi senlarga?» – «Oyim... – deya turib, gapini yana toʻgʻrilab oldi Zamira. – Yoʻq, yopinadi deganlari yoʻq-ku... buving-da bor, dedilar».– «Nomaʼqul buzoqning goʻshtini yebdi oying!» H.Nazir. Tomosha.

NOMER(I) O‘TMADI kimning? bundan buyon laqillata olmaslik; no-loyiq narsani ma’qul qildir olmaslik. Varianti: **o‘yin(i) o‘tmadi**.

«Sizni vazifangizdan vaqtincha bo‘shatib, qayta tayyorlov maktabiga yuboradigan bo‘ldik», – debdi maorif bo‘limi mudiri. Albatta, Karimiy hech qanday qarshilik qilmabdi-yu, lekin bu unga «Nomeringiz endi o‘tmay qoldi, aka, o‘qib keling» degandek tuyilgan, ya‘ni Karimiyga nisbatan qadr-sizlik bo‘lgan emish. A.Muhiddin. Qimirlagan qir oshar.

NOM(I)NI BULG‘AMOQ kim? kimning? isnod keltirmoq, uyat-ta’naga qoldirmoq.

Lekin «Birniki – mingga, mingniki – tumanga», – deydilar. Shu Rahimga o‘xshagan bitta-ikkita o‘yin buzuqi ko‘pchilikning nomini bulg‘ar ekan-da, hammamizga tashvish orttirib yurar ekan. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

NOM(I)NI SOTMOQ kim? kimning? o‘zga kishining nomidan uning ruxsatisiz gapirmoq, o‘zga kishining nomini pesh qilib ish bitirmoq.

Siz qurilish boshlig‘ining nomini sotmang, o‘rtoq Samandarov, uning buyruqlarini spekulyatsiya qilmang. A.Muxtor. Tug‘ilish.

NOMI ULUG‘, SUPRASI QURUQ kimning? daromadi mavqeyiga nomutanosib.

... nomi ulug‘, suprasi quruq bo‘lib qolayotganiga shular sabab emasmi? S.Anorboyev. Oqsoy.

nomimni boshqa qo‘yaman!: otimni boshqa qo‘yaman!

NOM-NISHON QOLMADI kimdan? 1 eslatib turadigan hamma narsa yo‘qoldi.

Boyning nazarida, o‘lgan kunining ertasigayoq o‘g‘li uning bor mulkini sovurib yo‘q qiladi-da, Qudratil-laxo‘jaboydan nom-nishon ham qolmaydi... A.Muxtor. Opa-singillar.

2 o‘zgarib, butunlay boshqa odam bo‘lib qolmoq.

Ilgari sen bilgan Saodatdan endi nom-nishon ham qolmagan. S.Ahmad. Ko‘klam taronalari.

nomus(i) bukildi: yetti nomus(i) ni yerga bukmoq

NON DEGANDA, KESAK G‘IRILLAGAN (G‘IRILLAYDIGAN) yoki **NON DEGANDA, KESAK G‘IRILLAYDI** turmush sharoitining juda og‘irligini bildiradi.

Non deganda kesak g‘irillagan zamonlar kishilar esidan chiqdi... Hayot yaxshi bo‘lib qoldi. Shuhrat. Umr pog‘onalari.

NON URSIN [kimni?] nonni o‘rtaga solib qasam ichishni bildiradi. Varianti: **non ursin agar**.

Yo tavba, ishonmadi-ya, non ursin, agar yolg‘on bo‘lsa. S.Ahmad. Qadr don dalalar. Endi uylanishni og‘zimga olsam, mana shu non ursin. A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi. Hozir ish yomon emas. Non ursin agar, qiyin bo‘lsa ham, qo‘llari zirqirab og‘risa ham, yaxshi! A.Muxtor. Tug‘ilish.

non ursin agar: non ursin

NON YEMOQ kim? biror kelim-daromad bilan tirikchilik o‘tkazmoq. Varianti: **nonini yemoq** kim? nima-ning?

«... oshnangiz ig‘vo bilan non yeb yurgan mansabparast bir odam», – dedi Shukurjon. O.Yoqubov. Ota izi-

dan. *Ana eshon. Necha yildan beri odamlarni shunga ishontirib non yemoqda. Ostonasigacha oltin bo'lib ketdi.* I.Rahim. Olovkor. *Qo'shmachi! Qo'shmachilikning nonini yeganingdan keyin, bunaqa ishini ham qilgin!* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

NON(I) BUTUN *kimning?* tirikchilik uchun zarur hamma narsasi muhayyo.

Ustaning ishi yirik, uning noni butun, do'ppisi yarimta... Ota-bobosi yolchib eshak arava mingan emas edi. Bu kishining tagida «Pobeda» mashina! S.Abdughahhor. Gap norda emas.

NON(I) BUTUN BO'LDI *kimning?* – **NON(I)NI BUTUN QILMOQ** *kim?* yoki *nima? kimning?* tirikchilik uchun zarur hamma narsasi muhayyo bo'lmoq. Varianti: **yarimta non(i)ni butun qilmoq** *nima? kimning?* **nonni butun qilmoq** *nima? kimning?* – **non(i)ni yarimta bo'lmoq** *kimning?* – **non(i)ni yarimta qilmoq** *kim? kimning?*

Ammo yil-o'n ikki oy aldam-qaldamni bilmay halol ishlagan hamkasbining noni butun bo'lmasligiga o'zi sababchi ekani esiga kirib chiqmaydi ham. S.Anorboyev. Oqsoy. «*Xudo bandasining nonini butun qilsa, hech kim uni yarimta qila olmaydi*», – *deb o'z mehmoni Bozor aminga so'z boshladi O'rmon polvon.* S.Ayniy. Qullar.

NON(I) YARIMTA BO'LDI *kimning?* – **NON(I)NI YARIMTA QILMOQ** *kim? kimning?* tirikchilik uchun zarur ayrim narsalardan mahrum bo'lmoq. Antonimi: **non(i) butun bo'ldi** *kimning?* – **non(i)ni butun qilmoq** *kim? yoki nima? kimning?*

Bular nonimiz yarimta bo'ladi deb, halitdan, hali traktor kelmasdan burun irillayotibdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Ha nomard. Yurtning nonini yarimta qilaman deb urushib kelganim yo'q. Mana shu yarimta bo'lib qolgan nonni butun qilaman deb jang qildim.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

non(i)ni butun qilmoq: non(i) butun bo'ldi

NON(I)NI TUYA QILMOQ *kim? kimning?* bo'sh-bayovligidan foydalanib, aldab-suldab haqini o'zlashtirmoq. Varianti: **tuya qilmoq** *kim? nimani?*

Ofarin, hali bolalarning nonini tuya qilib beraman, supurgi puli olaman, bo'ya puli olaman deng? M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «*...bo'shanglik qilsam nonimni tuya qilib berishlari aniq*», – *o'yladi u.* Oybek. Qutlug' qon.

non(i)ni yarimta qilmoq: non(i) yarimta bo'ldi

nonini yemoq: non yemoq

nonni butun qilmoq: non(i) butun bo'ldi

NOSIR(I)NI YERGA BUKMOQ *kim? kimning?* nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushirmoq. Sinonimi: **bosh(i)ni bukmoq** *kim? kimning?* **bosh(i)ni ham qilmoq** *kim? kimning?* **yerga qaratmoq** *kim? yoki nima? kimni;* **yuz(i)ni yerga qaratmoq** *kim? kimning?*

Bir kuni odamlar oldida nosirimni yerga bukib: «Siz zanglagan ketmonsiz, olovga toblab, o'tkir egovda charxlash kerak», – desa-ya, yuzsiz! H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

NOUMID SHAYTON har qanday sharoitda ham umidni uzmaslik kerak.

«Meniki bedavo dard. Har bir dori kuch-quvvatimni siqib-ezib, o'zimni lattaday majmag'il qiladi. Uh!..» – yengil xo'rsindi Tohirjon. «Unday dema, bolam: Noumid shayton; – yupatib gapirdi dadasi. – Xudoy taolo har bir dardga bir davo yaratgan». Oybek. Qutlug' qon.

nozik joydan tutmoq: nozik joy(i)dan tutmoq

NOZIK JOY(I)DAN TUTMOQ kim? kimning? yoki nimaning? ta'bg'a tegadigan, ammo rad etib bo'lmaydigan fikrni aytmok. Varianti: **nozik joydan tutmoq** kim? **nozik joy(i)dan ushlamoq.**

«O'zingizni xafa qilishmaydimi?» – deya kulimsiradi. U Gavharning nozik joyidan tutgan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bolasi tushkur juda nozik joydan tutdi. I.Rahim. Hilola. «Ammo-lekin, – dedi Jo'raboy tan berib, – nozik joyidan ushlabdi. Ochi-g'ini aytsam, kitob o'qishga toqat yo'q». S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

nozik joy(i)dan ushlamoq: nozik joy(i)dan tutmoq

NOG'ORA(SI)GA O'YNAMOQ kim? kimning? – **NOG'ORA(SI)GA O'YNATMOQ** kim?[o'zining] kimni? izmi bilan, yo'l-yo'rig'i bilan ish ko'rmoq. Varianti: **childirma(si)ga o'ynamoq, chirmandasiga o'ynamoq.**

Hafiza shuning nog'orasiga o'ynab, mening uyimdan chiqib ketdi. A.Qahhor. Yangi yer. Adolat Aliyeva – sobiq sotqin Jabbor Aliyevning singlisi. Tug'ilish. Senga kim qo'yibdi birovning chirmandasiga o'ynashni. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

nog'ora(si)ga o'ynatmoq: nog'ora(si)ga o'ynamoq

NUQSON TOPMOQ [nuqsan tap=] tar. kim? yoki nima? putur yetmoq, zarar ko'rmoq.

Xaloyiq zulmindan mutafarriq bo'ldi esa, irtifo'i viloyat nuqsan topti, xazina bo'shaladi, dag'i dushman g'olib bo'ldi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

NUQSI URDI nimaning? kimga? salbiy ta'siri yaqqol ko'rindi.

Sherbekka mehnat bilan o'tgan kunlarning nuqsi urdi. Sezilarli ozdi. Oldin qon tomib turgan yuzlari qorayib pishdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

NUR A'LO NUR yana ham yaxshi. Varianti: **nur ustiga a'lo nur; nurun a'lo nur; nuran a'lo nur.**

Ixtiyor o'zingizda, kutmayman de-sangiz, aytib ko'ring, xo'p desa, nur a'lo nur. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Buning ustiga aspirantura qo'shilganda, nur ustiga a'lo nur bo'lardi-ya. S.Anorboyev. Yo'llanma bilan. Anovi go'ringda to'ng'iz qo'pkur yuvuqsiz chol o'la qolsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

nur ustiga a'lo nur: nur alo nur

nuran a'lo nur: nur alo nur

NURI DIYDA(SI): kimning? ardoqli farzand.

Jamila – bebaho qiz. Mannopjonning ham bahosi yo'q, asl yigit. Bu ikki nuri diydami baxtli bo'lsin deb, shundan shunga harsillab keldim. Mirmuhsin. Jamila.

nurun a'lo nur: nur a'lo nur

nuchuk shamol uchirdi?!: qaysi shamol uchirdi?!



obi diyda qilmoq: ko'z yoshi qilmoq

obro' [y] baland: obro'y(i) baland

OBRO' TOPMOQ kim? nufuzga molik bo'lmoq. Antonimi: **obro'y(i) ni yo'qotmoq** kim? [o'zining].

Qalandarov ichida o'zini so'kdi: «Shu mahmadona bilan so'z urishtirib nima? obro' topar edim, nima? keragi bor edi?» A.Qahhor. Sinchalak.

obro' tushdi: obro'y(i) tushdi

obro'[y]ni tushirmoq: obro'y(i) tushdi

obro'ni to'kmoq: obro'y(i)ni to'kmoq

obro'ning tushishi: obro'y(i) tushdi

OBRO'Y(I) BALAND kimning? katta nufuzga ega. Varianti: **obro'[y] baland(-)**.

O'sha paytlarda ham qo'yfurosh boyning o'g'li puldor mirzoning obro'yi boshqalardan baland edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Yaxshi tersang, obro' baland, keyin tilla soat mukofot, eshitdingmi?* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

OBRO'Y(I)NI KO'TARMOQ kim? kimning? – **OBRO'Y(I) KO'TARILDI** kimning? yana ham nufuzli

bo'lmoq. Sinonimi: **obro'y(i) oshdi kimning?** – **obro'y(i)ni oshirmoq** kim? kimning? Antonimi: **obro'y(i) ni to'kmoq** kim? kimning? – **obro'y(i) to'kildi kimning?** **obro'y(i) tushdi kimning?** – **obro'y(i)ni tushirmoq** kim? kimning?


Sidqidil bilan mehnat qilsang, ham maoshing oshadi, ham obro'ying ko'tariladi. So'zlashuv uslubi.

obro'y(i) ko'tarildi: obro'y(i)ni ko'tarmoq

OBRO'Y(I) OSHDI kimning? – **OBRO'Y(I)NI OSHIRMOQ** kim? kimning? yana ham nufuzli bo'lmoq. Sinonimi: **obro'y(i)ni ko'tarmoq** kim? kimning? – **obro'y(i) ko'tarildi kimning?** Antonimi: **obro'y(i)ni to'kmoq** kim? kimning? – **obro'y(i) to'kildi kimning?** **obro'y(i) tushdi kimning?** – **obro'y(i)ni tushirmoq** kim? kimning?

Keyingi paytlarda maktab o'qituvchisiga e'tibor kuchayib, obro'yi osha boshladi. So'zlashuv uslubi. *Unaqada obro'yini oshiramiz deb sharmanda qilib qo'yamiz.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

obro'y(i) to'kildi: obro'y(i)ni to'kmoq



obro'y(i) tushirildi: obro'y(i) tushdi

obro'y(i)ni oshirmoq: obro'y(i) oshdi

OBRO'Y(I)NI TO'KMOQ *kim? kimning?* – **OBRO'Y(I) TO'KILDI** *kimning?* nufuziga zarba yetkazmoq. Varianti: **obro'ni to'kmoq** *kim? to'kilgan obro'y(i) nimaning?* Sinonimi: **obro'y(i) tushdi** *kimning?* – **obro'y(i)ni tushirmoq** *kim? kimning?* Antonimi: **obro'y(i) oshdi** *kimning?* – **obro'y(i)ni oshirmoq** *kim? kimning?* **obro'y(i)ni ko'tarmoq** *kim? kimning?* – **obro'y(i) ko'tarildi** *kimning?*

O'qituvchilar ichida shunchalik obro'yimni to'kdingiz, indamadim. S.Zunnunova. Yangi direktor. *Lekin direktor bo'lgani uchun obro'yi to'kilmasin deyman.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Mahmud aka, u odam bilan teng kelib bo'ladimi, obro'ni to'kadi xolos.* R.Fayziy. Rayaning archasi. *Gazeta o'z xatosini ochiq aytib, o'quvchilaridan uzr so'rasa, obro'yi tushar emishmi? Aksincha, qilgan xatosi orqasida to'kilgan obro'yi yana joyiga keladi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

OBRO'Y(I) TUSHDI *kimning?* – **OBRO'Y(I)NI TUSHIRMOQ** *kim? kimning?* nufuziga zarba yetdi. Varianti: **obro' tushdi** (–) – **obro'[y]ni tushirmoq** *kim? obro'y(i)ning tushgani kimning? obro'ning tushishi* (–); **obro'y(i) tushirildi** *kimning?* Sinonimi: **obro'y(i)ni to'kmoq** *kim? kimning?* – **obro'y(i) to'kildi** *kimning?* Antonimi: **obro'y(i) oshdi** *kimning?* **obro'y(i)ni oshirmoq** *kim? kimning?* **obro'y(i)ni ko'tarmoq**

kim? kimning? – **obro'y(i) ko'tarildi** *kimning?*

Agar bu mojarodan keyin faqat o'zingizninggina obro'yingiz tushgan bo'lsa, siz bilan gaplashib o'tirishimizning hojati ham yo'q edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Murodovaning obro'yini tushirayotgan menmi yoki Komil?* I.Rahim. Ixlos. *Ba'zilari uni ham adolatsizlikda ayblab, piching qilganlari uchun, obro'yini battarroq tushirmaslikni mo'ljalladi-da, o'z majruhlarini oldiga solib machit tomon jo'nadi.* Oybek. Qutlug' qon. *Rahbarning gap bo'lib ketgani – obro'yining tushgani...* I.Rahim. Ixlos. *Ammo o'limdan ham yomon narsa bor, opajon. Bu – obro'ning tushishi.* I.Rahim. Ixlos.

obro'y(i)ni tushirmoq: obro'y(i) tushdi

OBRO'Y(I)NI YO'QOTMOQ *kim?[o'zining]* nufuzidan mahrum bo'lmoq. Antonimi: **obro'y topmoq** *kim?*

Ish usulini suyuqlashtirib, ayron qiladi, obro'yini yo'qotib, burdini vayron qiladi. S.Abdulla. Ikki zveno.

obro'y(i)ning tushgani: obro'y(i) tushdi

ODAM (yoki **INSON**) **OYOG'I** **TEGMAGAN** inson bo'lmagan, kel-magan, inson qadam qo'ymagan.

Bu yer odam oyog'i tegmagan to'qay. «Chalpak yoqqan kun».

ODAMATODAN QOLGAN juda eski, qadimgi. Sinonimi: **almisoqdan qolgan; daqyunusdan qolgan.**

Men balki yanglisharman. Yanglishmoq Odam atodan qolgan meros. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

ODAM AYIRMOQ *kim?* kishilarga mavqeyini, boyligini nazarga olib har xil munosabatda bo'lmoq.

Hech kim tushuntirib bermadimi?» – «*Tushuntirish qayoqda deysiz, – dedi qassob, – bu yerdagi ba'zi bir o'zimizdan chiqqan kattalar odam ayiradigan bo'lib qolgan...*» P.Tursun. O'qituvchi.

ODAM QATORIDA KO'RMASLIK *kim? kimni?* muomala qilishga loyiq deb bilmaslik.

Qani, ayt-chi, qachongacha duch kelganning gapiga uchib, laqillab yurasan? Elning g'azabidan qo'rq. Ayb bo'ladi. Bir burding ketgandan keyin, hech kim seni odam qatorida ko'rmay qo'yadi. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

odam qatoriga kirgizmoq: odam qatoriga qo'shilmoq

odam qatoriga kirmoq: odam qatoriga qo'shilmoq

ODAM QATORIGA QO'SHILMOQ *kim?* jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lmoq. Varianti: **odam soniga qo'shilmoq; odam qatoriga kirmoq – odam qatoriga kirgizmoq kim? kimni?**

[Xatirchilik Norqobil] Mana endi isyonchilarga qo'shilib, Oqtosh stansiyasiga kelgandan beri odam qatoriga qo'shildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Endi, uka, odam qatoriga kirib golding. Mana 17 qop bug'doying bor; puling bor. G'.G'ulom. Tirilgan murda.

ODAM QATORIGA QO'SHMASLIK *kim? kimni?* inson deb bilmaslik, o'ziga teng deb ko'rmaslik.

Menga o'qish, bilim olish qayoqda, bir parcha non deb birovning

eshigida qulluq qilishdan o'zga tirikchilik chorasi yo'q edi. Xo'jayinlar meni odam qatoriga qo'shmasdilar. P.Tursun. O'qituvchi.

ODAM QO'YMOQ *kim? 1* oraga biror nozik masala bo'yicha o'zi bilan o'zga tomon orasida kimningdir vositachiligidan foydalanmoq. Varianti: **qo'ygan odam; kishi qo'ymoq.**

Sobirjon ismli yosh yigit nima ham bo'lib Gulra'noni ko'rib qoladi-yu, o'rtaga odam qo'yadi. O.Yoqubov. Ota izidan. Ayniqsa keyingi kunlarda To'laganjon Farmonovlar qo'ygan odam ko'z ochirmayotganini ham aytdi. Mirmuhsin. Jamila. Nima bo'ladi-yu, usta Abdurahmon kishi qo'yganda darrov rozi bo'la qoladi. A.Qahhor. Boshsiz odam.

2 biror kishi yordamida kimnidir orqasidan ta'qib qilmoq.

Orqasidan odam qo'ydim, uni, albatta, tutib qamaymiz. S.Abdulla. Muqimiy.

odam soniga qo'shilmoq: odam qatoriga qo'shilmoq

ODAM TANIMIQ *kim?* kishining yaxshi-yomonligini farq qila olmoq. Varianti: **odamni tanimoq.**

Lekin, do'stim, odam taniydigan bo'lib qoldim. Sen azaldan odam taniysan. A.Qahhor. Og'aynilar. Hilola ko'p yaxshi ekonomist, ammo odamni tanimaydi. Odam taniydigan bo'lsa, sizni tanib olmasmidi... I.Rahim. Hilola.

ODAM GARCHILIKDAN CHIQQIQ *kim?* insonparvarlik xislatidan mahrum bo'lmoq; kishilar bilan yomon munosabatda bo'lmoq.

O'rtoq Ro'ziyev, o'g'lim, mundoq o'ylab qaragam, odamgarchilikdan

chiqay deb qolibman. Har qancha uzr so'rasam ham, iltimos qilsam ham, inobatga o'tmasligini payqab turibman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Jon o'g'lim, senga nima bo'ldi. Bu gapingni qarindosh, mahalla-ko'y eshit-sa, nima deydi, falonchi odamgarchilikdan chiqib qola yozibdi demaydimi... S.Abdulla. «To'y» hangomasi.

odamni tanimoq: odam tanimoq
ODATDAN TASHQARI kuzatib kelinganidan ko'ra o'zgacha.

Dahlizda bir chol yotar, uning tirik ekanligini faqat odatdan tashqari ravshan ko'zlaridagina bilib bo'lar edi. A.Qahhor. Oltin yulduz. Yigitlar yonlarida ashula bitadigan odamning borayotganini qandaydir faxr bilan sezib, odatdan tashqari bir zavq bilan qo'shiq aytar edilar. Sh.Rizo. O'ch. *Ochilning ta'sirchanligi va yorqin faktlarga maftun bo'lib qolish odati hamma narsani odatdan tashqari bo'rttirib, goho bir tomonlama qilib ko'rsatardi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

ODATGA KIRGIZMOQ kim? niman? muntazam bo'lib turadigan ishga aylantirmoq.

Uchastka boshliqlarining ertalabki raportlarida u ilgariyidek raqamlarigina emas, odamlarning kayfiyati, bu yerlarning kelajagi haqida ham mulohazalar yurgizishni odatga kirgizdi. A.Muxtor. Tug'ilish.

odim otmoq: qadam tashlamoq
odim tashlamoq: qadam tashlamoq
odob(i)ni bermoq: adab(i)ni bermoq

odov(i)ni yemoq: adab(i)ni yemoq
OFOQ TO'LMOQ [afaq tol=] tar nimadan? dunyo to'ldi.

Jamoling madhidin ofoq to'ldi, Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

OFTOB NAYZA BO'YIGA KELDI kunduzning eng issiq payti boshlandi. Varianti: **oftob nayzaga keldi; quyosh nayzaga keldi; kun nayzaga keldi.**

O'roqchilar Qaynarga dovon oshib tushganlarida oftob nayza bo'yiga kelgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Oftob nayzaga kelib qoldi, eski shahar ko'chalarida bozor qaytgan payt: birov mol yetaklagan, birov yangi, serbezak beshik ko'targan...* A.Muxtor. Opa-singillar. *Quyosh nayzaga keldi. Saratonning issig'i tandirday qizdiradi.* S.Anorboyev. Tashvish.

oftob nayzaga keldi: oftob nayza bo'yiga keldi

OFTOB URDI kimni? yoki niman? quyosh nuri ta'sirida uzoq bo'lish tufayli kasallanmoq.

Ertalab maktabga jo'nayotganimda «Oftobda o'ynama, yomon bolalar bilan yurma, birov bilan urishma!» – deb qayta-qayta tayinlar, oftob urishidan, yomon kasridan, biron yerim mayib bo'lishidan qo'rqar edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Sizda vijdon bo'lsa, cho'chqa bolalarini shu ahvolda qoldirarmidingiz?! Oftob urib ketdi-ku bularni!* S.Anorboyev. Oqsoy.

OFTOB YEMAGAN quyosh nuri ostida ishlab chiniqmagan.

Ro'yxatni olib qaragam, ertagayoq dalaga chiqib ishlab ketadiganlari o'n-o'n besh kishi xolos. Qolganlarini o'rgatish kerak. Ko'plari – dala ko'rmagan, oftob yemagan qizlar.

Bundaylarni bog'chaga, dala yasli-lariga qo'yish mumkin. I.Rahim. Hila.

oftobda qatiq ichgan: oftobda qatiq ichishgan

OFTOBDA QATIQ ICHISHGAN ozmi-ko'pmi tanishligi bor, juda uzoq. Varianti: **oftobda qatiq ichgan.**

Ba'zi birovlar Yoqutoyimni qidiri-bdi deyishsa, boshqalar oftobda qatiq ichishgan kazo-kazo og'aynila-riga ko'rinish berib qaytibdi dedi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Kecha bu vaqtda pashsha ham uchmagan ko'chada odam qaynar edi... Afsuski, bular ichida bozorga chinakam ishi tushib kelganlardan tomoshaga kelgan bekorchixo'jalar ko'p edi. Har qadamda to'xtab, haftalab ko'rishmagan oshnalari, oftobda qatiqichishgan qarindoshlari bilan uzoq so'zlashib, o'tgan-ketganga yo'l bermasdilar.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

OHIDIN BO'RON QO'PTI [ahid'in boran qop=] tar. *kimning?* kuchli azobdan oh-dod solmoq, oh urib iztirob chekmoq.

Suhaylohidin shu dam qo'pti bo'ron, Aningtekkim, buzuldi charxi davron. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

OHOR(I) TO'KILDI *kimning?* (asli *nimaning?*) yangilik, kutilma-ganlik tusi yo'qoldi.

Qumri eski sochvonini Nazokatning oyog'i ostidan topibdi, shekilli, qorong'i burchakda ikkovi talasha ketdi: «Nega oyoq osti qilasan, juvon o'lgur!» – dedi Qumri erkakcha do'ril-lagan ovoz bilan:– So'lkavoyingni shartta yulib olib, yuzingga solaymi!»

Shovqin bo'lib ketdi. Nazokatning shallaqilik bilan chinqirgani eshitilardi: «Ha, ohoring to'kildimi, qo'tir jomashov!» A.Muxtor. Opa-singillar.

OHORI TO'KILMAGAN yap-yangi, hozirgacha ishlatilmagan.

Qaysi kuni Erkin keluvdi, shu bolasi tushmagur qayoqdagi ohori to'kilma-gan gaplarni topib yuradi. S.Abdu-qahhor. Hayotning boshlanishi.

OH-U AFG'ONI KO'KKA CHIQQOQ [ahü afyanî kökka çiq=] tar. *kimning?* kuchli azobdan oh-dod solmoq, juda qiynalmoq.

Qolmadi yerda jonvorkim aning Chiqmag'ay ko'kka oh-u afg'oni. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

OJIZ BO'LIB QOLDI [ažiz bol=] tar. *kim?* ilojsiz qolmoq.


Suhayl alpni eltilar asirga, Hama qoldi bo'lub ojiz bu sirga. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

OILA QURMOQ *kimlar?* o'zaro oilaviy hayot kechirmoq. Sinonimi: **bir yostiqa bosh qo'ymoq** *kimlar?* o'zaro, *kim? kim bilan? turmush qurmoq* *kim? kim bilan? kimlar? o'zaro.*

Quloqqa yomon eshitiladigan «yurish» asli ... ilgarigiday ko'r-ko'rona oila qurmaslik uchun kerak-da. P.Qo-dirov. Uch ildiz.

OL(ING)-U, OLDIRMA(NG) [*kim?*] *ishing(iz) doim muvaffaqiyat bilan, yutuq bilan yakunlansin.*

To'xta xola poyezd ko'zdan g'o-yib bo'lgandan keyin ham temir yo'li izlariga tikilib turib qoldi. «Olsin-u, oldirmasin!» – dedi kampir, ikki qo'li bilan yuzini silab. I.Rahim. Chin mu-habbat. *Olinglar, oldirmanglar, omin!* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.



OLA CHIQDI kimlardan? kimlar o'rtasidan? bir xil fikrlamaslik, boshqacha fikrda bo'lmoq.

Biroq vodokachkalardan qaysi biri tiklanishi to'g'risiga kelganda xaloyiqdan ola chiqdi. Kapsanchilar uch guruhga bo'lindi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Oq poshshoning askarlari o'rtasidan ola chiqib,.. «Urushmaymiz, urushsa, poshsho bilan vazirlar urusha bersin», – deb turgan emish. G'.G'ulom. Shum bola.

OLA QARAMOQ kim? kimga? 1 (erkak ayolga) jinsiy talabni qondirish istagi bilan munosabatda bo'lmoq.

Darhaqiqat, Siddiqjon hamma vaqt va har qanday sharoitda ham unga haddan tashqari, hatto xotin kishiga malol keladigan darajada oqko'ngilik bilan muomala qilar, lekin bunday muomala qilganda bir marta xotin kishiga ola qarab, og'zi kuyganligi ko'nglining ko'chasidan ham o'tmas edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 yoqtirmaslik, dushmanlik tuyg'usi bilan munosabatda bo'lmoq.

Xatda yozishicha, ...juda hadidan oshib, hatto Adashevni ham yuzxotir qilmay, Yo'ldoshevga ola qarab yurgan emish. A.Muhiddin. Xarakteristika.

OLAM GULISTON hamma narsa ko'ngildagidek, hech qanday e'tirozga o'rin yo'q (bosh gap bo'lib keladi).

Ammo siz «Xo'p», – desangiz, olam guliston. Oybek. Qutlug' qon. Shu qurilishning, sanoat korxonalarining jilovini mahalliy tashkilotlardan birontasiga berib qo'ya qolishsa-ku, olam guliston-a. A.Muxtor. Tug'ilish.

olam munavvar: olam guliston
olamdan ketmoq: dunyodan ketmoq

olamga kelmoq: dunyoga kelmoq

olamdan o'tmoq: dunyodan o'tmoq

OLAM QARONG'U [aläm qarayyu=] tar. *kimga?* hayot mazmun-siz, yashash bema'no.

Seningsiz manga olamdur qarong'u, O'lim-da solmag'ay bizlarga ulg'u. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

OLAMDA TO'FON QO'ZUTMOQ [alämdä tofan qozit=] tar. *kim?* urush boshlamoq, to'olon boshlamoq.

Qo'zutti jang bilan olamda to'fon, Oqitti suv tekin yer uzra ko'p qon. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

OLAMNI BUZMOQ nima? me'yordan ancha ortiq darajada namoyon bo'lmoq. Sinonimi: **olamni tutmoq** nima?

Ammo etigi... Hech qachon g'ir-chillamagan, kelib-kelib shu paytda g'arch chiqarganini qarang! Yana qanday deng, yog'lanmagan aravaning gupchagiday olamni buzadi. S.Anorboyev. Oqsoy. Ba'zilar borki, qilar ishining tayini yo'q, da'vosi olamni buzadi. Q.Nazir. Odamning qadri.

OLAMNI TUTMOQ I nima? me'yordan ortiq darajada namoyon bo'lmoq. Sinonimi: **olamni buzmoq** nima?

Bir marta-yarim marta qarashib qolibsiz-u, da'vongiz olamni tutadi-ya. H.Nazir, Ko'korol chiroqlari. Hoy Abdukarim! Menga ayt-chi, sen er-xotinning kulgisi olamni tutadi. Nega hadeb kulaverasanlar-kulaverasanlar? N.Maqsudiy. Oltin soqqa.

OLAMNI TUTMOQ II [alämni tut=] tar. *kim?* yoki *nima?* mashhur bo'Imoq.

Muhabbat nardini ko'plardin uttung, Shakartek til bila olamni tuttung. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

OLAMNI O'RTAMOQ [alämni örta=] tar. *kim?* yoki *nima?* barchani qiynamoq.

Sening ishqing kamandi bizni tortar, Jamoling ravnaqi olamni o'rtar. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

OLAXURJUN YELKA(SI)GA TUSHDI *kimning?* uylanib, turmush tashvishlarini zimmaga olmoq.

Oloxurjun yelkasiga tushgandan keyin asov ot ham bo'yin egadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

OLD(I)DAN O'TMOQ *kim? kimning?* biror ishni qilishdan oldin shundan kimnidir xabardor qilmoq, uning ra'yini bilmoq.

O'sha so'zimiz so'z. Zuhra Karimovnaning ham oldidan o'tdim. S.Anorboyev. Oqsoy. *Avval o'zingizning oldingizdan o'tib, keyin nomzodingizni ko'rsatmoqchiman.* P.Qodirov. Uch il-diz. *Voy-voy, nima deyapsiz. Qizimning oldidan o'tmay bir narsa aytolmayman.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

OLD(I)GA POXOL SOLMOQ *kim? kimning?* asli asossiz, lekin ishon-tirish oson bo'lgan dalil-mulohaza bilan laqillatmoq, aldamoq.

Tojiboy ham xo'ja urug'ining kam-bag'allaridan. Xo'ja urug'lar «o'z av-lodimiz» deb Tojiboyni qo'llashadi... Olaxo'ja maxsum: «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», – deb, no-donlarning oldiga poxol solib turadi. P.Tursun. O'qituvchi.

OLD(I)GA SOLIB [o'zining] **1** kimdir yoki nimadir oldinda, o'zi ketida yurib.

Maston kampir paranjisini yopindi, Hayotni oldiga solib ko'chaga yurdi. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong ot-guncha. Keyin kechga yaqin Boboqul ota Jonizozq oqsoqol bilan xayrlashib, yo'qolgan qo'chqorlarni oldiga solib haydab ketdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

2 kimnidir qarshi tomonga zudlik bilan yurg'izib, yugurtirib.

Xotini men bilan azza-bazza urish-gani chiqibdi. Oldimga solib quvdim. S.Ahmad. Mastonbibi. *Botir, Qodirqul ularni oldilariga solib Bo'stonlar jo'nagan hovliga olib keldilar.* S.Nazar. *Yashil boyluk. It bezor bo'ldi, shekil-li, ikkovini ham oldiga solib quvdi.* A.Qahhor. Millatchilar.

OLD(I)GA TUSHADIGAN *kimning?* ustunlik qila oladigan.

Hozir shaharda usta Bahromning oldiga tushadigan farang yo'q. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Sherali to o'ninchini bitirib ketguncha sinf boshlig'i bo'ldi. Uning oldiga tushadigani bo'lmagan.* S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi.

oldi olindi: oldini olmoq

OLDIGA BOSMOQ *nima?* [o'zining] ijobiy tomonga siljimoq, yurishmoq. Antonimi: **orqasiga ketmoq** *nima?* [o'zining].

Abduvahob ishining oldiga bosma-ganidan shikoyat qildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

OLDING[IZ]DAN O'TAVERSIN *kim? kimning?* tenglasha olmaydi, bahslasha olmaydi.

O'sha suluvmi? Sizdan ham-a? Har qandayi sizning oldingizdan o'taversin. H.Nazir. Rashk.

OLDINGABOSGAN OYOG'(I) KEYINGA KETAVERDI kimning? yo'l bosishi, olg'a siljishi keskin su-saydi.

Gulsanamning rangi bo'zdek oqardi, dir-dir titrab, oldinga bosgan oyo-g'i keyinga ketaverdi. U qo'lidagi ko'zasini tashlab bo'lsa ham, butun kuchini to'plab qochdi. Oydin. Gul-sanam.

OLDINI OLMOQ kim? nima-ning? – **OLDI OLINDI** nimaning? voqe bo'lishi kutilgan hodisaga qarshi chora-tadbir ko'rmoq.

Biz har bir yomon bahoning sa-babini vaqtida payqamaymiz. Shuning uchun oldini ololmaymiz. P.Qodirov. Uch ildiz. *Agar tezda oldini olmasa, butun qartani suv bosishi turgan gap.* S.Anorboyev. *Sherali sevib qoldi. Ko'sak qurti xayfli narsa, darrov oldini olish kerak.* S.Ahmad. *Qadrdon dalalar. Selxona ochib yuborilgan, ofatning oldi olingan edi.* H.Nazir. *Ko'korol chiroqlari.*

oldirib qo'ygan yurag(i): yura-g(i)ni olib qo'ymoq

old-ort(i)ga qaramoq: orqa-ol-d(i)ga qaramoq

olib qochmoq: aravani quruq olib qochmoq

OLINMAGAN BUZOQQA QO-ZIQ QOQMOQ kim? amalga oshi-shi gumon bo'lgan ish haqida oldin-dan baralla gapirmoq.

«Bu yil cho'lda shundan ekmoq-chiman. Jazirama issiqda traktordan lip etib sakrab, yugurib borib, bitta-

sini chirt etib uzib, jo'yakning ichida yorib yemasam, armondan chiqmay-man, aka... Albatta qovun sayiliga borasiz». – «O'zing ham rosa olib qochasan-da,– gapga qo'shildi chust do'ppisini qo'lida ushlab o'tirgan yigit, – olinmagan buzoqqa qoziq qo-qishingni-chi». R.Fayziy. Cho'lga ba-hor keldi.

OLLOHU AKBAR qat'iy qaror chiqarish uchun shuning o'zi kifoya, gap tamom.

Puldorlarga, ulamolarga bo'ysun-sang, yalinsang, tuzuk, ammo g'ing de-sang, ollohu akbar, muallimlikdan shu on haydaydilar! Oybek. Nur qidirib.

OLMA ENGAKINA AYVA TO'NI O'TURMOQ [alma eĵakinä ajva toni otur=] tar. kimning? ajin tush-moq, qarimoq.

Xalqi dobudiy ziyona ketib, Yu-suf jamoli mutag'ayyir bo'lub olma engakina ayva to'ni o'turub, hus-ni bozorining ravnaqi kechib, tabvi ulkim qarshi yurub ko'rushkayman, ko'rushmayin ayttim:.. S.Saroyi. Gulis-toni bit-turkiy.

«OLMA, PISH, OG'ZIMGA TUSH» DEMOQ kim? biror ish-ning mehnat qilmay, mashaqqatsiz, o'z-o'zicha ro'yobga chiqishini kut-moq.

Tushunsangiz-chi, «Olma, pish, og'zimga tush» deb o'tiraversak, hali ikki chorak don qarz bo'libsiz-u, ha demay besh chorak, o'n chorak don qarz bo'lasiz – qulog'ingizgacha qarzga botasiz, unda nima bo'ladi? M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. «Domullo! – dedi past tovush bilan Haydarga eshittirmay. – Olma pish,

og'zimga tush» degan bilan ish bitmaydi. S.Ayniy. Qullar.

olti qovun pishig'i: yetti qovun pishig'i

olti yashardan oltmish yashargacha: yetti yashardan yetmish yashargacha

OLTIN BILAN O'LCHANMOQ nima? o'ta darajada qimmat.

Bu mamlakatda dori oltin bilan o'lchanadi. Oybek. Nur qidirib.

omad keldi: omad(i) keldi

OMAD QOCHDI [kimdan?] qulaylik yo'qolib, ish yaxshi rivoj topmay qo'ydi. Sinonimi: **omad(i) ketdi kimning?** Antonimi: **omad(i) keldi kimning?** **omad(i) yurishdi kimning?**

Karimqul akayam hazilakam ishlagani yo'q, ammo bechora urilib, rasvosi chiqdi. Omad qochdi deb shuni aytadilar. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

OMAD YUZ O'GIRMOQ kimdan? muvaffaqiyatsizlikka uchramoq.

Hozir ko'zlari qizarib-shishgan, betinim o'ylayotganidan peshonasi g'ijimlanib-tirishib ketgan, ko'rayotgan narsasi – qora, qop-qora tuman omad undan yuz o'girganidan nishon berardi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

OMAD(I) BALAND kimning? ishi doim rivoj topib turadigan.

«Yetkazib deysizmi, o'zib ham ketdi deyavering, ovsin, keliningizning omadi baland». – «Mehnat bo'lmasa, omad osmondan tusharmidi, aylanay». R.Fayziy. Qaynana.

OMAD(I) KELDI kimning? qulaylik paydo bo'lib, ishi yaxshi rivoj topa boshladi. Varianti: **omad kel-**

di. Sinonimi: **omad(i) yurishdi kimning?** Antonimi: **omad(i) ketdi kimning?** **omad qochdi kimdan?**

«Bir omadim keldi-da, – derdi u nihoyatda quvonib. – Sizga tushgan savollar menga tushganda, kunimni ko'rar edim». P.Qodirov. Uch ildiz. *U hamma vaqt Saidiyga: «Omada kelganda pul topish va uni ushlab kerak. Mol-dunyo orttirish zarur», – deb nasihat qilgani-qilgan.* A.Qahhor. Sa-rob.

OMAD(I) KETDI kimning? qulaylik yo'qolib, ishi yaxshi rivoj topmay qoldi. Sinonimi: **omad qochdi kimdan?** Antonimi: **omad(i) keldi kimning?** **omad(i) yurishdi kimning?**


G'iyosiddin tilmoch qimorga o'zini urdi. Omadi ketib, hovli-joyni boy berib, qaynatasining uyiga ko'chib keldi. S.Ahmad. Hukm.

OMAD(I) YURISHDI kimning? qulaylik paydo bo'lib, ishi yaxshi rivoj topa boshladi. Sinonimi: **omad(i) keldi kimning?** Antonimi: **omad(i) ketdi kimning?** **omad qochdi** [kimdan?].

Shaftoli pishganda uni ham pul-lab, kampirga bo'z, Gulra'noga ro'mol, omadi yurishib, shaftolining bozori kelsa, bir kiyim atlas olib berib, yolg'iz qizini baxtiyor qiladi. O.Yo-qubov. Ota izidan.

OMAD(I)NI BERMOQ kim? (xudo) kimning? qulaylik tug'dirib, ishini yaxshi rivoj toptirmoq.

Polvon Toshkentga, degin, Ahmad polvonga taraf bo'lib ketayotibdi, degin. Nomard, xudo, degin, omadini bersa, degin, katta ziyofat qilib beradi, degin. G'.G'ulom. Netay.



OMON QO'YMASLIK *kim?*
kimni? sog'-salomat yashashiga imkon bermaslik, o'ldirmoq.

Lekin manavi malla qonxo'r sezib golsa yoki qamoqdan yana qutulib kelguday bo'lsa, omon qo'ymaydi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ONA SUT(I) OG'Z(I)DA [*kimning?*] hali yosh, tajribasiz (salbiy) Sinonimi: **ona sut(i) og'z(i)dan ketmagan** [*kimning?*]

Mahmadona, shumsan-da. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

ona sut(i) og'z(i)dan keldi: ona sut(i) og'z(i)ga keldi

ONA SUT(I) OG'Z(I)DAN KETMAGAN [*kimning?*] hali yosh, tajribasiz (salbiy) Varianti: **og'z(i)dan ona sut(i) ketmagan.** Sinonimi: **ona sut(i) og'z(i)da** [*kimning?*].

«Hoy bola, – deyman o'zimga. – Ona suting og'zingdan ketgani yo'q, o'qishingni o'yla». A.Muxtor. Xayri. *Shuncha yil biz qilmagan ishni og'zidan ona suti ketmagan, nevaramiz tengi bir qiz kelib qilmoq-chi.* S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi.

ONA SUT(I) OG'Z(I)GA KELDI *kimning?* haddan tashqari qiynalib ketmoq. Varianti: **ona sut(i) og'z(i)dan keldi.**

Yo'lga solguncha ona sutim og'zimga keldi. Bir yil sarson bo'ldim. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha.*

ONA SUTIDAY o'ta darajada, tabiiy ravishda.

Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo'lsin deb, o'ziga qaytarib berdim. A.Qah-

hor. *Qo'shchinor chiroqlari. Juda yaxshi, nimasini o'ylayapsiz, shu yerlarga siz xo'jayinmi, axir? Shunday bo'lgandan keyin, ektira bering, hech haromligi yo'q, ona sutiday halol.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ONA SUTINI OQLAMOQ *kim?* farzandlik burchini sadoqat bilan ado etmoq.

Ona sutini oqlashibdi, azamatlar! Boshda bir o'lim bor, shunday o'lish kerak! Oybek. Quyosh qoraymas.

ona(si)ni ko'rsatmoq: ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq

ONA(SI)NI UCHQO'RG'ONDAN KO'RSATMOQ 1 *kim? kimning?* do'q qilishni, qo'rqitishni ifodalaydi (bunda ikkinchi shaxs tuslovchisi va birinchi shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelmaydi). Varianti: **ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rmoq** *kim?* [*o'zining*]; **acha(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq; ona(si)ni ko'rsatmoq; ko'rsat[jib qo'yalman!** *kim? kimga? nimani?* Sinonimi: **ota(si)ning molini ko'rsatib qo'ymoq** *kim? kimga?* [*uning*].

Unomardga onasini Uchqo'rg'ondan ko'rsataman! S.Anorboyev. Oqsoy. *Ana shu «innaykeyin»ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'ondan ko'rasiz.* G'.G'ulom. *Shum bola. Jahli chiqib turganda ro'para kelmabsiz. Naq. Achangizni Uchqo'rg'ondan ko'rsatib qo'yadi.* S.Ahmad. *Qarddon dalalar. «Kelsin-chi, – dedi Normurod, – onasini ko'rsatarman, bular bizning shuncha hosilimizni, ekinimizni nobud qildilar».* S.Ayniy. *Qullar. Tanimaysan-a, tanimaysan. Men senga tanimaslikni ko'rsatib qo'yaman, xayr; Sharofat.*

Sening dastingdan men o'zimni otaman. G'G'ulom. Men o'zimni otaman. Seni qarab tur hali, ko'rsataman senga. I.Rahim. Ixlos.

2 kimdir? uning qo'rqishni, hadiksirashni ifodalaydi (bunda birinchi shaxs tuslovchisi va ikkinchi shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelmaydi)

Qani, kimga olma? Ha, birovga og'iz ocha ko'rmalaring. Komandir onamni Uchqo'rg'ondan ko'rsatadi - ya! Oybek. Quyosh qoraymas.

ONA(SI)NING BOSHIGA YOSTIQ BO'LMOQ kim? [o'zining] turmushga chiqmay, ota-onasi oldida qari qiz bo'lib qolib ketmoq. Varianti: **acha(si)ning boshiga bolish bo'lmoq; acha(si)ga yostiq bo'lmoq; yostiq bo'lmoq** kim? kimga? **bosh(i)ga yostiq qilmoq** kim? kimni?

U sochi oqarguncha onasining boshiga yostiq bo'lib qolishga rozi. G'G'ulom. Soyalar. «Kechagi aytganim nima bo'ldi? Javob berib keting...» – «Ahamni boshlariga bolish bo'lmoqchiman!» S.Ahmad. Muhabbat. *Ah, yana to'y! Boshqa gap qurib qolganmi...» – «Achangizga yostiq bo'larmidingiz, jonidan», – dedi Sobir kulib.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *«Bu ham birovning hasmi-da, menga yostiq bo'larmidi?»* S.Anorboev. Oqsoy. *Qiz yetilgach, uni egasiga topshirish kerak. Boshingga yostiq qilasanmi uni?* I.Rahim. Chin muhabbat.

ONASI O'PMAGAN erkak kishining qo'li ham tegmagan, iffatli, pok.

U hech kim bilan yurmagan, yurishni ham istamaydigan, onasi o'pmagan qizni izlardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Shu qilganiga Sobirvoyga onasi*

o'pmagan qirq kokilni olib berayki, dog'da qolsin! A.Muhiddin. Ko'ngillar.

ont ichmoq: qasam ichmoq

ONT ICHMOQ [ant iç=] tar. kim? qasamyod qilmoq, guvohlik bermoq.

Odamiy aybini ko'rib ochma, Egri so'zni ko'ni deb ont ichma! S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

opa(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rmoq: ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq

OPPOQXO'JAM URSIN [meni] pirini o'rtaqa solib qasam ichishni bildiradi.

«O'lma, Alioxun, so'zingda bitta xato bo'lsa, oppoqxo'jam ursin!» – deb qichqirdi bir mardikor. Oybek. Qutlug' qon.

oq bilan qorani ajratmoq: oq-qorani ajratmoq

oq bilan qorani bilmoq: oq-qorani tanimoq

OQ KO'NGIL – KO'NGL(I)
OQ kimning? yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan. Varianti: **oq ko'ngilli; oq ko'ngil [ekan] lik.** Sinonimi: **ko'ngil(i) toza kimning?** Antonimi: **ichi qora kimning? ko'ngli qora kimning?**

Uzoq Ukrainaning salqin havosi, poyonsiz o'rmonlariga o'rgangan qizga o'zbek qishlog'ining sodda hayoti, oq ko'ngil odamlari juda yoqdi. S.Ahmad. *Qo'shiq. U o'zi oq ko'ngil bo'lgani uchun, oshnasini yomonlagisi kelmasdan shunday deyaptimi, yo Qosimovdan manfaatdor bo'lgani uchun uni oqladimi?* O.Yoqubov. *Ota izidan. «Salimboyvachchadan qilcha shubhalanmang, – qat'iy ravishda*

dedi *Tantiboyvachcha*, – *uning ko'ngili oq*». Oybek. Qutlug' qon. *Oysha xola ochiq qo'l, oq ko'ngilli xotin edi*. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Men ham sizga ishonaman, o'rtoq Quliyev. Men hamma sexdoshlarimning oq ko'ngilligiga ishonaman. Ular hammasi ... ko'proq manfaat yetkazsam deydi*. A.Muxtor. Staxanovcha g'alaba kuni.

oq ko'ngil [ekan]ligi: oq ko'ngil

oq ko'ngilli: oq ko'ngil

OQ KO'NGILLIK to'g'rilik, yomonlikni bilmaslik. Varianti: **oq ko'ngillilik**.

«*Imom siznikiga nima uchun keladi?*» – *deb so'radi Onaxon. Nazokat oq ko'ngillik bilan bir boshdan gapirib berdi*. A.Muxtor. Opa-singillar. *Adolat borgan sari Usmonjonga bog'lanib borar, uning oq ko'ngilligi va mehribonligidan xursand va hayratda edi*. S.Zunnunova Gulxan.

oq ko'ngillilik: oq ko'ngillik

oq tuya ko'rdingmi – yo'q, ko'k tuya ko'rdingmi – yo'q: tuya ko'rdingmi yo'q.

OQ UY, OLA BARGAK boy jihozlangan serhasham bino. Varianti: **oq, ola bargak uy**.

Farhod tog'idan tilla topganmi desam, oq uy, ola bargaklarda o'tirgan ekan-da! Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi. *Men u materiallardan oq uy, ola bargak yasab olganim yo'q, oshna, o'ziga ishlatganman, ha*. A.Muhiddin. Oshnalar. *Tabiat bu kunning fayzidan Erkaxonga xabar bergandek, uni oq, ola bargak uydin chiqishga imlab chaqiradi*. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

OQ UYLIK, OLA BARGAKLIK BO'LMOQ kim? boy jihozlangan serhasham binoga ega bo'lmoq

Kim eding, bilasanmi? Oq uylik, ola bargaklik, badavlat xonadonlik bo'lding-a? A.Muhiddin. Mirishkor.

OQ YUZ(I)GA QORA SURMOQ kim? kimning? nohaq ravishda badnom qilishga urinmoq.

Sobirov tunov kuni kechasi Boymat bilan kayf qilishganda Nasimjonning O'ktam to'g'risidagi bo'htonini aytib berdi va oxirda jahl bilan dedi: «Bo'sh kelma, oq yuzingga qora suryapti u. Dumini munday burab qo'y, ortiq akillamasin!» Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar*.

oq, ola bargak uy: oq uy, ola bargak

OQ YO'L yo'lga chiqayotgan kishiga xavf-xatarga yo'liqmasligini tilab aytiladigan ibora.

Biroq uning [Saidaning] kutgani bo'lmadi: avtomat ruchkasiga siyohini to'ldirib, qalin daftarini qo'ltig'iga qisib kirganida Nosirov hatto o'tir ham demadi, o'rnidan turib xayrlashgani qo'l berdi, unga oq yo'l, ishda muvaffaqiyat tiladi. A.Qahhor. Sinchalak.

OQI OQ, QIZILI QIZIL kimning? jamoli barq urgan.

Oqi oq, qizili qizil! Qoshlari qunduzday! Ko'chaga chiqsa, hamma-ning ko'zi o'shanda. A.Qahhor. Sinchalak. *Kampir xonning oldidan chiqa solib qizni ko'rgani kichkina uyga kirdi va Gulsanamning oqi oq, qizili qizil bo'lib yashnab turgan yuzlariga tikildi*. Oydin. Gulsanam.

OQI OQQA, QIZILI QIZILGA AJRALDI kimning? jamoli barq urdi

«Sobir masterovoyning katta qizini ko'rib qoldim, – dedi u, – o'n to'rtdan o'n beshga qadam qo'yib, oqi oqqa, qizili qizilga ajralib, olma-dekkina qiz bo'libdi-da». A.Muxtor. Opa-singillar.

OQINI OQQA, KO'KINI KO'KKA CHIQARMOQ kim? yaxshini yaxshi deb, yomonni yomon deb ko'rsatmoq. Sinonimi: **oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq kim? oqni qoradan ajratmoq kim?**

Turib-turib kitob yozadiganlardan ham xafa bo'lib ketaman. Shunaqalarni yozib, oqini oqqa, ko'kini ko'kka chiqarib, ko'pchilikka mundaq ko'rsatib qo'ysa-ku bo'ladi-ya. R.Fayziy. Qaynana.

oqni oq demoq: oqni oq, qorani qora demoq

OQNI OQ, QORANI QORA DEMOQ kim? haqiqatga to'g'ri keladiganini aytmq. Varianti: **oqni oq demoq.**

Oqni oq deding - u, qolding baloga, Rost so'z sabab bo'lar zo'r mojaroga. Yomonni yomon deb og'iz-burning qon, Yomonni yaxshi deb vijdoningdan ton. S. Abdulla. Muqimiy.

OQNI OQQA, QORANI QORAGA AJRATMOQ kim? yaxshini yaxshi deb, yomonni yomon deb ko'rsatmoq. Sinonimi: **oqini oqqa, ko'kini ko'kka chiqarmoq kim? oqni qoradan ajratmoq kim?**

Har qayerda gap sotib, ishni chuvalashtirib yurmang, aya, bilgan undoq deydi, bilmagan bundoq deydi. Tekshiramiz, oqni oqqa, qorani qoraga

ajratamiz. S.Ahmad. Hukm. U oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoqchi bo'lgan sari kalava battar chigallashardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

OQNI QORA DEMOQ kim? haqiqatga teskari holda yaxshini yomonlamoq. Antonimi: **qorani oq demoq kim?**


Bunisi-ku yaxshi, ammo juda tez, qaysar odam. Shu tufayli ba'zan bir ishni o'ylamay qilish yoki bironi nohaq ranjitib qo'yish odati bor. Shunda polvonga haq gapni gapirish, tushuntirish foydasiz. U oqni qora deb turib olishdan toymaydi. Indalmasa, tezda hovuridan tushadi-da, o'z qilmishiga «attang» deb yura beradi. A.Muhiddin. Terimchilar.

OQNI QORADAN AJRATMOQ kim? yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ko'rsatmoq. Sinonimi: **oqni oqqa, ko'kini ko'kka chiqarmoq kim? oqni oqqa, qorani qoraga ajratmoq kim?**

Ammo Xo'jabekovni tanqid qilganingda oshib-toshib ketma. Bir chekasi o'zingni ham tanqid qilib o't: «Ko'zim ko'r ekan. Oqni qoradan ajrata olmay qolibman!» – degin. S.Anorboyev. Oqsoy. Aytib ko'rishgan notanish odamga nima deysan kishi. A.Muxtor. Hayotga chaqiriq.

OQ-QORANI AJRATMOQ kim? yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlamoq. Varianti: **oq-u qorani ajratmoq; oq bilan qorani ajratmoq; oq-u qorani farq qilmoq.**

Uni hayotga undagan, oq – qorani ajratishga o'rgatgan Usmonjon emasmi?! S.Zunnunova. Gulxan.Yangi tug'ilgan boladan qanday farqimiz



bor edi? Hech qanday. Balki rosmana ko'r edik, hayotning oq-u qorasini ajrata olmas edik. Mana shu yerga kelib, ko'zimiz ochildi, haq-huquqimizni tanib oldik. A.Muhiddin. Gigant. Kishilar oq bilan qorani ajratib qolgandan keyin isbotgagina ishonar ekan. I.Rahim. Hilola. Ayniqsa Quدرات aka bilan yaqinlashib, uning ajoyib suhbatlaridan bahramand bo'lgandan keyin oq-u qorani ancha farq qiladigan bo'ldim. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

OQ-QORANI TANIMOQ kim? yaxshi-yomonni, foyda-zararni bilmog; hayot tajribasiga ega bo'lmoq. Varianti: **oq-u qorani tanimoq; oq-qorasini tanimoq** kim? nimaning? **oq-u qora[si]ni bilmog** kim? nimaning? **oq bilan qorani bilmog; oq-u qorani tushunmog; oq-u qorasiga tushunmog** kim? nimaning?

U vaqtlarda Botirali oq-qorani yaxshi tanib olgan, tashkilotning har qanday topshirig'ini juda ustalik bilan bajaradigan bo'lib qolgan edi. S.Ahmad. Hukm. Siz oq-qorani tanigan odamsiz, Abdushukur. Oybek. Qutluq qon. Siz oliy ma'lumotli, oq-u qorani bizdan yaxshiroq tanigan bir intelligentsiz! O.Yoqubov. Tilla uzuk. Men reviziya qiling deytoganim yo'q, gap leksiyaning oq-qorasini tanish ustida boryapti. P.Qodirov. Uch ildiz. Omma o'sdi, oq-u qorani biladigan bo'lib qolishdi. Oybek. Nur qidirib. Yo'q, endi xalqni chalg'itish qiyin. U oq bilan qorani bilib bo'ldi. Sh. Toshmatov. Erk qushi. Teshaboyning boylar toifasida uchramagan g'alati g'amxo'rlik ko'rsata boshlagani

Quدرات singari oq-u qorani yaxshi tushunadiganlargina emas, Matqovul singari sodda dillarni ham ajablantirmay qolmadi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

oq-qorasini tanimoq: oq-qorani tanimoq

oq-u qora[si]ni ajratmog: oq-qorani ajratmog

oq-u qora[si]ni bilmog: oq-qorani tanimoq

oq-u qorani farq qilmog: oq-qorani ajratmog

oq-u qorani tanimoq: oq-qorani tanimoq

oq-u qorani tushunmog: oq-qorani tanimoq

oq-u qorasiga tushunmog: oq-qorani tanimoq

OR(I) KELDI kimning? uyalmog, xijolat bo'lmoq.

Savri xola yaslisiga uyma-uy tuxum yig'ib yuribdi. Orim kelib ketdi. I.Rahim. Hilola. «Y-yo'q, tog'a, o'rganib oldim», – dedi uquvsizlikdan ori kelgan Qo'ziboy. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

ora buzildi: ora(lari)ni buzmog

ORA OCHIQ BO'LMOQ kimlar o'zaro yoki kim? kim bilan? – **ORANI OCHIQ QILMOQ** kim? kim bilan? olish-berish muomalasini ro'y-rost hal etmog; ro'y-rost gaplashib, ajrim qilmog. Varianti: **ora(lari) ochiq bo'ldi** kimlarning? **orani ochdi qilmog.**

Mehri bilan ora ochiq bo'lganimizni sizga aytaman deb sira mavridini topolmadim. A.Qahhor. Sinchalak. To'xta, Sobir! Bu yoqqa yur, orani ochiq qilib olaylik! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Agar Hamro

rafiq foyda bilan tani pulni sizga to'lasa, sizlarning oralaringsiz ochiq bo'ladi. S.Ayniy. Sudxo'ring o'limi. Hoziroq Zarofat bilan orani ochdi qilsammikan? Yo'q. Buni qilolmayman. R.Fayziy. Yodgor.

ora ochiq: ora(lari) ochiq

ORA YO'LDA kim? yoki nima? na u yoqli, na bu yoqli emas.

O'zim-chi? O'zim ham xuddi shunday ora yo'lda emasmanmi? Na Toshpo'latovning, na Rixsiboyning gapini ma'qullayman. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. U quyosh tig'idan ko'zi qamashib, pastga qaradi: «Qish deb qishga o'xshamaydi, bahor deb bahorga. Ora yo'lda...» R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

ORA YO'LDA QOLMOQ kim? yoki nima? – **ORA YO'LDA QOLDIRMOQ** kim? nimani? na u yoqli, na bu yoqli bo'lmaslik. Varianti: **o'rta yo'lda qoldirmoq; yarim yo'lda qoldirmoq.**

«*Dadang boyaqishgayam jabr bo'ldi, – kuyinib javob berdi ona, – ora yo'lda qoldi : «xo'p» deyishga sen o'jardan cho'chidi, «yo'q» deyishga tili bormaydi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Kurort ora yo'lda qoldi – putyovkaning sakkiz kuni kuydi: er-xotin qaytib ketishdi. A.Qahhor. Sinchalak. O'qigan bo'lsa ham, o'qimagan yigitga o'xshaydi, yo'qsa Nasibaning o'qishini ora yo'lda qoldirib, maktabidan yulib olmoqchi bo'lmas edi. A.Qahhor. Og'riq tishlar. So'ng yana imtihondan yiqilib, nima qilishni bilmay yurgan Gavhar ko'z oldiga kelar, o'rta yo'lda qoldirib ketgan arizasi-ga, Eshonboyev shubhali deb atagan

takliflarga xayoli ketardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Ishni yarim yo'lda qoldirib bo'ladimi?!* I.Rahim. Ixlos.

ora yo'lda qoldirmoq: ora yo'lda qolmoq

ora(lari) buzildi: ora(lari)ni buzmoq

ORA(LARI) BUZUQ kimlarning? o'zaro munosabati yomon, raqibona. Varianti: **ora(lari) buzuqligi.** Antonimi: **ora(lari) yaqin** kimlarning.

Karimov bilan Homidxo'janing orasi buzuq edi. S.Ahmad. Poraxo'ring o'limi. *Dekanning kabinetidayoq Akbarov bilan Hakimovning orasi buzuqligi sezilgan, Mahkam sababini tushuna olmay hayron bo'lgan edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

ora(lari) buzuqligi: ora(lari) buzuq

ora(lari) ochiq bo'ldi: ora ochiq bo'ldi

ORA(LARI) OCHIQ kimlarning? bir-biriga qaram qiladigan, malol keladigan hech nima o'rtada yo'q. Varianti: **ora ochiq (–).**

«*Pul berar ekanmi?» – dedi O'roz. «Oramiz ochiq», – dedi xo'jayin.* Oybek. Qutlug' qon. *Ajab bo'ldi. Biror gapni aytdim – tegishimni oldim! Ajab bo'ldi, ora ochiq.* A.Muxtor. Tug'inish.

ORA(LARI) YAQIN kimlarning o'zaro munosabati yaxshi, do'stona! Antonimi: **ora(lari) buzuq** kimlarning?

Ilgari u Zokir nima desa, xo'p deb yurgani uchun oralari yaqin ko'rinaradi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ORA(LARI)DA GAP O'TDI kimlarning? bir-biriga qattiq tegadigan



gap-soʻz aytildi, noxush voqea sodir boʻldi. Varianti: **ora(lari)dan gap oʻtdi; oʻrta(lari)da gap oʻtdi; orada gap oʻtdi (-); ora(lari)da oʻtgan gap.**

Lekin u Toʻraga qizni nega ranjitding deb savol berib oʻtirmadi: bular orasida nima gap oʻtganini kim biladi... A.Muxtor. Tugʻilish. Latif bilan oʻrtalaringda qanday gap oʻtib edi? S.Anorboyev. Yoʻllanma bilan. Huriniso ham orada hech gap oʻtmaganday oʻzini xandon-xushon tutishga harakat qildi. A.Qahhor. Sinchalak.

ORA(LARIDA) GAP QOCHDI kimlarning bir-biriga qattiq ranjitadigan gap-soʻz aytildi, noxush voqea sodir boʻldi. Varianti: **oʻrta(lari)da gap qochdi; orada gap qochdi (-).**

Mavlon ota yaqinlashgach, «Xoʻsh, ishlar qalay, Botir?» – deb soʻradi. «Yomon emas, lekin Ravshanov bilan oramizda sal gap qochdi», – dedi Botir. S.Nazarov. Yashil boylik. Koʻrinishicha, ikkovining oʻrtasida gap qochganga oʻxshaydi. S.Anorboyev. Oqsoy. Saidiy pulning foydasini qistab unga qattiq gap aytolmadi, chunki orada gap qochsa, bu vaqtda ikki koʻzi ojiz boʻla boshlagan opasi tul qolar edi. A.Qahhor. Sarob.

ora(lari)da oʻtgan gap: ora(lari)-da gap oʻtdi

ora(lari)dan gap oʻtdi: ora(lari)-da gap oʻtdi

ORA(LARIDAN) OLA MUSHUK OʻTDI kimlarning oʻzaro normal munosabati yomonlashdi. Varianti: **ora(lari)dan qora mushuk oʻtdi; oʻrta(lari)dan ola mushuk oʻtdi.** Sinonimi: **oraga sovuqchilik tush-**

di – oraga sovuqchilik tushirmoq kim? ora(lari)ga sovuqchilik solmoq kim? kimlarning?

Ana shundan beri qishloqda ... bilan Erkinning oralaridan ola mushuk oʻtgan degan duv-duv gap... M.Muhamedov. Yurak soʻzlari. Shunday vaqtlarda Nuri: «Oralaringizdan qora mushuk oʻtdimi?» – derdi kulib. Oybek. Qutlugʻ qon. Bir kuni nima boʻldi-yu, ularning oʻrtasidan ola mushuk oʻtib qoldi. S.Anorboyev. Jasorat.

ORA(LARIDAN) QIL [HAM] OʻTMAYDI kimlarning nihoyatda ahil, inoq, yaqin. Varianti: **ora(lari)dan qil [ham] oʻtmaydigan («doʻst»); oradan qil [ham] oʻtmaydi (-).**

Sharofat menga soʻz bergan. Oramizdan qil ham oʻtmaydi. Baxt yurishib, men birorta ishga joylashib olsam, ikkinchi oyligimdan toʻy. Gʻ.Gʻulom. Men oʻzimni otaman. ... yoshlik oʻrtogʻim boʻlganda qanday, oramizda qil oʻtmas edi. S.Abdurqahhor. Gap norda emas. Chunki toʻyxonaning egasi – oralaridan qil oʻtmaydigan qadrdon ulfati. S.Anorboyev. Oqsoy. Ikkovi shunday ulfatki, oradan qil oʻtmaydi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

ora(lari)dan qil [ham] oʻtmaydigan: ora(lari)dan qil [ham] oʻtmaydi

ora(lari)dan qora mushuk oʻtdi: ora(lari)dan ola mushuk oʻtdi

ORA(LARIGA) QORA IP TASH-LAMOQ kim? kimlarning? oʻzaro munosabatni yomonlashtirishga harakat qilmoq.

Kishilar orasiga qora ip tashlashdan hazar qiling. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

ORA(LARI)GA SOVUQCHILIK SOLMOQ *kim? kimlarning o'zaro normal munosabatni yomonlashtirmoq. Varianti: oraga sovuqchilik solmoq kim. Sinonimi: oraga sovuqchilik tushdi – oraga sovuqchilik tushirmoq kim?*

Qo'chqor bechorani tursa, o'poq deb, yursa, so'poq deb, oralariga sovuqchilik soldi. Shu paytdayam yomonlashini qo'ymaydi! S.Anorboyev. Oqsoy.

ora(lari)ga sovuqchilik tushdi: oraga sovuqchilik tushdi

ora(lari)ga sovuqlik tushdi: oraga sovuqchilik tushdi

ORA(LARI)NI BUZMOQ *kim? kimlarning? – ORA(LARI) BUZILDI kimlarning? o'zaro munosabatini yomonlashtirmoq. Varianti: orani buzmoq kim? – ora buzildi (–).*

Eshon Saidaning payini qirqishga, uning Qalandarov bilan orasini buzishga bel bog'ladi. A.Qahhor. Sinchalak. Men ham achchiq ustida so'kib yubordim. Shu bilan oramiz buzilib, gaplashmay qo'ydik. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. Ro'y bergan janjallar, kelishmovchiliklar, chaplanishlar, koyinishlar orani buzadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. ...ne-ne niyatlar bilan kelgan Saida uch kunda ... bilan orani buzib, ... janjal yoki ariza ko'tarib boradimi? A.Qahhor. Sinchalak.

orada gap o'tdi: ora(lari)da gap o'tdi

orada gap qochdi: ora(lari)da gap qochdi

oradan ko'tarmoq: o'rtadan ko'tarmoq

oradan qil [ham] o'tmaydi: ora(lari)dan qil [ham] o'tmaydi

ORAGA KIRMOQ *kim? ikki tarafni kelishtirish maqsadida aralashmoq.*

Savdoning buzilayotganini ko'rgach, dallol darrov oraga kirib: «Buning hisobini topamiz, karvonboshi bolani sizga qip-yalang'och topshirmaslar», – dedi. S.Ayniy. Qullar.

ORAGA QO'YMOQ *kim? kimni? ikkinchi tomonni ko'ndirishda biror kishidan vositachi sifatida foydalanmoq.*

Shoshma, oraga ... qo'ysak, nima deysan? Senga ma'lum, Mirhaydar ota kishini so'z bilan eritishda bemisl. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Qiz bu tamagir jilmayuvchini tanidi: u filfakdan edi, Mirsaidni oraga qo'yib, Zamiraga uch-to'rt marta gap tashlab ko'rgan, ammo murodiga yetolmagandi. P.Qodirov. Uch ildiz.

oraga sovuqchilik solmoq: ora(lari)ga sovuqchilik solmoq

ORAGA SOVUQCHILIK TUSHDI – ORAGA SOVUQCHILIK TUSHIRMOQ *kim? o'zaro normal munosabat yomonlashdi. Varianti: ora(lari)ga sovuqchilik tushdi kimlarning? ora(lari)ga sovuqlik tushdi kimlarning? o'rta(ga) sovuqchilik tushdi; o'rta(lari)ga sovuqchilik tushdi kimlarning? Sinonimi: ora(lari)dan ola mushuk o'tdi kimlarning? ora(lari)ga sovuqchilik solmoq kim?*

Lekin oraga bir sovuqchilik tushgandan keyin mening o'sha uyga qaytib borishim to'g'ri kelmaydi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. ... endi, xotiningiz bilan onangiz rozi emas

ekan, shularni xafa qilish, oraga sovuqchilik tushiradigan gaplarga sabab bo'ladigan ishni qilishdan nima foyda? A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Agar domlanning har kimga qiladigan hasrati Saidiyning qulog'iga yetsa, qaynata bilan kuyov orasiga sovuqchilik tushadi. A.Qahhor. Sarob. *Bashoratxon qayerda? Nega yo'q? Yaxshilikka ko'rinsin! Yoki ikkovlarining oralariga sovuqlik tushib qoldimi?* G'.G'ulom. Zags. *O'rtaga sovuqchilik tushmasin deb, betoqat bo'la boshladi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Siz bilan biz yonma-yon qo'shni, tag'in o'rtamizga sovuqchilik tushib, nari-beri gapga qolmaylik.* G'.G'ulom. Ko'ngilsizning qilig'i.

oraga sovuqchilik tushirmoq:
oraga sovuqchilik tushdi

oraga tushmoq: o'rtaga tushmoq

orani buzmoq: ora(lari)ni buzmoq

orani ochdi qilmoq: ora ochiq bo'lmoq

orani ochiq qilmoq: ora ochiq bo'lmoq

ORANI UZMOQ kim? [kim bilan?] muomalada bo'lishni uzil-kesil to'xtatmoq. Sinonimi: **aloqa(s)ni uzmoq** kim? [o'zining] kim bilan?

Faqat shunisi esidaki, butunlay xayrlashib, orani uzmoqchi bo'ldi. P.Qodirov. Uch ildiz. ... *yurgan yigiti bilan so'zi kelishmasa-yu, orani uzsa, «Bu falonchi bilan yurgan», – deb gap-so'z bo'lmaydimi?* P.Qodirov. Uch ildiz.

ordona qolsin: boshingdan ordona qolsin

ORO BERMOQ kim? o'ziga yuvinib-taranib, pardo-andoz yordamida o'zini ko'rkam qilmoq.

Umri uning Farhodan kelishini sabrsizlik bilan kutib yurdi, kelganini eshitgan kuniyoq, o'ziga oro berib, yo'lga tushdi-yu, ikki kundan keyin lunjini bog'lab keldi. A.Qahhor. Keclinlar.

OROM BERMOQ nima? kimga? yoki nimaga? rohatlanish, huzurlanish kayfiyatini bag'ishlamoq.

Dalada salqin shamol esar, mehnat harorati bilan qizib ketayotgan odamlarning tanalariga orom berardi. S.Nazar. Yashil boylik.

OROM OLMOQ nima? nimadan? rohatlanish, huzurlanish kayfiyatida bo'lmoq.

Lekin ularning qiroatlari Xolmurodning qulog'iga kirmas, u hayajon ichida butun es-hushi bilan miltiq tovushlarini tinglar, shundan butun vujudi orom olgandek bo'lar edi. P.Tursun. O'qituvchi.

OROM TOPMOQ nima? rohatlanish, huzurlanish kayfiyatiga erishmoq.

Lekin hech qayerda o'zini yupa-tolmadi. Faqat endigina, shu odamlar orasida uning g'am-g'ussaga botgan joni biroz orom topdi. P.Tursun. O'qituvchi.

ORQA OLD(I)GA QARAMOQ kim? [o'zining] atrofficha mulohaza yuritib, ehtiyotkorlik bilan yondashmoq. Varianti: **old-ort(i)ga qaramoq; orqa-o'ng(i)ga qaramoq.**

Chakki qilibsiz, akasi jonidan, esingizni yo'qotib qo'yibsiz, hozir shunaqa qiladigan zamonmi, mun-

dog' orqa-oldingizga qarang-da. A.Muxtor. Opa-singillar. *O'rinbu-chi, he chechan bo'lmay ketkur! Valdirashini qara! Old-ortiga qaramaydi-ya.* S.Anorboyev. Oqsoy. *Akam orqa-o'nglariga qaramay qurt urug'iga zo'r beradilar.* S.Ahmad. Hodivoy.

orqada qoldirmoq: orqada qolmoq I

ORQADA QOLMOQ I kim? kimdan nimada? – **ORQADA QOLDIRMOQ** kim? kimni? nimada? bi-ror faoliyatda boshqalar erishgan darajaga yeta olmaslik. Varianti: **ortda qolmoq.**

To'g'ri, o'rtoq Toshpo'latov, – dedi u, – bizlar shu sohada biroz orqada qoldik. Ichimizda uch kishi sakkizinchini bitirganimizcha, men bo'lsam to'qqizinchi sinfda yarim yil o'qiganimcha qolib ketdik. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *U bayram oldi musobaqasiga qo'shilib, 2-noyabr kuni shu yangi yerning har gektaridan 94 sentnerdan hosil olib, musobaqadoshi Tojixonni orqada qoldirdi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Ular eng ibtidoiy tilga – harakatlar, imolar bilan fikr uqtirishga murojaat qildilar. Bu ishda Petrov mahorat ko'rsatdi. Yo'lchi ham undan ortda qolmaslikka tirishdi.* Oybek. Qutlug' qon.

ORQADA QOLMOQ II nima? taraqqiyotning keyingi bosqichida barham topmoq, xoli bo'lmoq.

Vaqtiki kelib, insoniyat balog'atga yetadi, uning sabiylik fe'l-atvorlari orqada qoladi. A.Qahhor. Sarob.

ORQA(SI)DA QOLMOQ kim? kimning? bevaqt o'lmay, kattalar va-fotidan keyin yoshini yashamoq.

Saidg'ozining yuragi battar siqildi. Xayoliga biridan biri qayg'uliroq fikrlar keldi: «Nom-nishoning ham o'chib ketadi. Orqangda qolgan bolalaring bir eslaydi, ikki eslaydi, uchinchi safar eslaganida: «Uh, o'lmay o'lgurning o'ligi ham qimmatga tushdi», – deb noliydi..» S.Anorboyev. Oqsoy.

ORQA(SI)DAN KO'RPACHA SOLDIRMOQ kim? kimning? kishilarda orqavorotdan izzat-hurmat his-sini uyg'otmoq.

Men seni kim ko'rganga maqtab, orqangdan ko'rpacha soldirib yurgan bo'lsam, ... sen juvonmarg axir chog' uyimga onasining tayini yo'q bolani ko'tarib kelsang. G'.G'ulom. Yodgor.

ORQA(SI)DAN TUSHMOQ kim? 1 kimning? qayerga borsa, zimdan ta'qib qilib bormoq. Sinonimi: **iz(i) dan tushmoq** kim? kimning? **ket(i) dan tushmoq** kim? kimning? **pay(i) dan tushmoq** kim? kimning?

Sizning bu oshnangiz, yomon bir g'araz bo'lsa kerak, mening orqamdan tushibdi. S.Ayniy. Sudxo'ring o'limi.

2 nimaning? parvarishlamoq, nazorat qilmoq.

Bu mollarning orqasidan tushganingga necha yil bo'ldi? P.Tursun. O'qituvchi.

ORQA(SI)DAN KESAK OTMOQ kim? [kimning?] oldida emas. ketganidan keyin yomonlab gapirmoq

Ba'zilar yog'li palov, bergan tuzingga do'stlar. Orqadan kessak otar; ko'rsa, ko'zingga do'stlar. S.Abdulla. Ba'zi «oshno»lar haqida.



ORQAGA SILTAMOQ kim? nimani? amalga oshuvini ataylab keying surmoq.

Nahotki u ko'ra-bila turib ishni orqaga siltaydi. S.Ahmad. Qadrton dalalar. *Qodirjon aka o'zi yaxshi yigit-u, biroq u ham shu ishni orqaga siltab yuruvdi-da!* O.Yoqubov. Tog' qizi.

ORQAGA SURMOQ kim? nimani? amalga oshirishni keyinga qoldirmoq. Sinonimi: **paysalga solmoq** kim? nimani?

Ilgari o'ylashga ham botinmay orqaga surib yurgan sevgi savollari balki shu sababli endi eshik tiqillatib kelayotgandir? P.Qodirov. Uch ildiz.

ORQAGA TASHLAMOQ kim? nimani? ongli ravishda hozircha e'tibordan soqit qilmoq. Varianti: **orqaga tashlanmoq** nima?

Ukalarimni, dadamni sevganimdan har qanday og'irlikni orqaga tashladim. Oybek. Qutlug' qon. *G'am-g'ussa orqaroqqa tashlansin, Karnay-surnay, shodiyona boshlansin.* S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

orqaga tashlanmoq: orqaga tashlamoq

ORQA(SI)GA OFTOB TEGDI kimning? ishi yurishib, hayoti yaxshilana boshladi. Varianti: **yag'rin(i)ga oftob tegdi; yelka(si)ga oftob tegdi.**

Jon aka, xo'p deng! Uch-to'rt kun bo'lsa ham, orqamga oftob tegsin [brigadir qilib tayinlanib]. A.Qahhor. Yangi yer. *E, xotin, mana bizning ham qo'limiz uzun bo'lib qoldi. Oshig'imiz olchi. Peshanamiz yaltirab, yag'rini-mizga oftob tegadigan bo'ldi.* S.Abduqahhor. Gap norda emas. *Ismoiljon*

... bir majlisda tanqid qilib, o'shandan beri nazardan qolgan, yaxshi brigadir bo'lsa ham, yelkasiga oftob tegmas ekan. A.Qahhor. Sinchalak.

ORQA(SI)GA TUSHMOQ kim? kimning? zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq. Sinonimi: **iz(i)ga tushmoq I** kim? kimning? **ket(i)ga tushmoq 1** kim? kimning? **pay(i)ga tushmoq 1** kim? kimning?

Ba'zi o'g'ri va chayqovchilar mening orqamga tushgan edilar. S.Ayniy. Sudxo'ring o'limi.

orqa-o'ng(i)ga qaramoq: orqa-old(i)ga qaramoq

ORQA-OLDINI (o'ylab) atrofli-cha, barcha tomonlarini (o'ylab).

Husayn bolaligida ko'p mashaqqat ko'rdi. Shu sababli bo'yi cho'zili-shi bilan kattalardek sabr-qanoatli, bir ish qilsa, orqa-oldini o'ylab qiladigan bo'ldi-yu, ...Mirmuhsin. Ibis qushlari.

ORQASIGA KETMOQ nima? [o'zining] muvaffaqiyatsiz bo'lmoq. Varianti: **chappasiga ketmoq.** Antonimi: **oldiga bosmoq** nima? [o'zining].

Nima balo, hamma ishim orqasiga ketyapti-ya ...» – deb ko'nglidan o'tkazdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Ishing bir chappasiga ketmasin ekan...* S.Anorboyev. Oqsoy.

ORQASIGA TEPMOQ kim? kimning? voz kechib haydamoq, quvmoq.

Dunyo yalinib kelgan vaqtda shoh Mashrab uning orqasiga tepgan ekanlar... dunyo o'zi bevafo, orqasiga tepsang arziydi. Oybek. Tanlangan asarlar.

ortda qolmoq: orqada qolmoq I
ORTINA TUSHMOQ [artina tüş=] tar. kim? yoki nima? kimning? yoki nimaning? ta'qib qilmoq, quvlamoq.

Itlar ortina tushti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ORZU(SI) USHALDI kimning? ezgu istak-niyati ro'yobga chiqdi.

Kechasi-kunduzi bog' bilan andarman bo'lib, to'y esingdan chiqmasin, bolam. Bizlarning ham orzumiz ushal-sin. Ko'zim ochiq vaqtda bola-chaqali bo'lganingni ko'ray. S.Nazar. Yashil boylik. Kozimbek ko'pdan beri qilgan orzusi ushalib, otasi o'zining eski «Moskvich»ini kasalxonada ixtiyoriga berdi. A.Qahhor. Sinchalak.

ORZU-HAVAS KO'RMOQ kim? to'y-tomosha qilib, ezgu istak-niyatini ro'yobga chiqarmoq.

Tushunaman, tushunib turibman! Lekin bitta-yu bitta qizim... (O'pkasi to'lib). Orzu-havas ko'raman deganimda meni tashlab ketsa... A.Qahhor. Yangi yer. Otasi qarshilik qilmadi, tirikligida orzu-havas ko'rgisi ke-lib, yakka-yagona o'g'lini uylantirib qo'ydi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

osmon bilan yercha: yer bilan osmoncha

OSMON BILAN O'PISHGAN juda baland. Varianti: **ko'k bilan o'pishgan.**

Ikkinchi bandeda zavod trubalari osmon bilan o'pishgani, uchinchi bandeda zavod tayyorlagan mashinalar shamoldan tez yurishi aytilgandi [she'rda]. P.Qodirov. Uch ildiz. Ularni qurshagan bu yovvoyi tog'ning bitta siri hali yashirin edi, u ham bo'lsa –

«Sho'xsoy»ning boshlanishi bo'lgan «Toshbuloq»! Chunki u balandda, ko'k bilan o'pishgan cho'qqida edi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

OSMON QO'L(I)DA BO'LSA, TASHLAB YUBORMOQ kim? [o'zining] eng og'ir jazo-choraga ham rozi bo'lmoq. Varianti: **osmon qo'l(i)da bo'lsa, ust(i)ga tashlab yubormoq** kim? [o'zining] kimning? **osmonni ust(i)ga tashlab yubormoq** kim? kimning?

«E, sen bolaga bu kuning ko'plik qilibdi!» – «Ko'plik qilsa-qilsin, men qo'rqmayman! – dedi. – Osmon qo'lingizda bo'lsa, tashlab yuboring! Sizdan mana bular qo'rqadi». P.Qodirov. Uch ildiz. Seni ishdan bo'shatgan, o'qitmagan ham men, bildingmi! Qo'lingdan kelsa, osmonni ustimga tashlab yubora qol! A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

osmon qo'l(i)da bo'lsa, ust(i)ga tashlab yubormoq: osmon qo'l(i)da bo'lsa, tashlab yubormoq

OSMON UZILIB, YERGA TUSHIBDIMI?! (... TUSHARMIDI?!) hech qanday favqulodda hodisa sodir bo'lgani yo'q (...sodir bo'lmaydi)

Bitta-yarimtasi gap tashlagan bo'lsa, erining achchig'i chiqqandir. Nima bo'lardi deysiz, osmon uzilib, yerga tushibdimi?! Mirmuhsin. Jamila. ...lokin ishlayman desa, ishlayveradida. Nima, osmon uzilib, yerga tusharmidi?! Mirmuhsin. Jamila.

OSMON UZOQ, YER QATTIQ kimga? najot kutadigan yer yo'q, har qanday iloj-imkoniyat yo'li berk. Varianti: **osmon yiroq, yer qattiq.**

Ishqilib, Shokir akaday bir kosib odamga osmon uzoq, yer qattiq. Qayerda ko'rganlari bilan, foydasiz. Bari bir borib, qiziga himoyat bo'lolmaydi. G'.G'ulom. Qizaloq. Endi, uka, men bundan chiqsam, uchta go'dak bilan qayerga boraman? Osmon yiroq, yer qattiq. Qo'l-oyog'ing yo'q bo'lsa ham, erkak bo'lgin ekan... A.Qahhor. Sarob. Yer qattiq-u, osmon yiroqdir, Sirrim qilayin ayon, Muqimiy. S.Abdulla. Muqimiy.

osmon uzoq, yer qattiqlik qildi: osmon yiroq, yer qattiq bo'ldi

OSMON YIROQ, YER QATTIQ BO'LDI *kimga?* – **OSMON UZOQ, YER QATTIQLIK QILDI** *kimga?* najot kutadigan yer qolmadi, har qanday iloj-imkoniyat yo'li berkildi.

352

Lekin odamzod joniga tekkan narsadan qutulish yo'lini bilmasa, osmon yiroq, yer qattiq bo'ladi, unga ko'nikadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Lekin bu tilagini ro'yobga chiqarish uchun osmon uzoq, yer qattiqlik qilar edi. O'.Azimov. Aql chirog'i.

osmon yiroq, yer qattiq: osmon uzoq, yer qattiq

OSMONDAN KELMOQ *kim?* g'ururlanib, kibr-havo bilan gapirmoq.

Bilmagan odamga osmondan kelib, chirs-chirs etar, Qalbini ochsang valekin, dam chiqib, pis-pis etar. S.Abdulla. Yo'l-yo'lakay gaplar.

OSMONDAN TUSHGANDAY BO'LMOQ *nima?* o'z-o'zidan to'planib, sovg'aday namoyon bo'lmoq.

Haftadami, oydami besh-o'n so'mdan tashlab qo'ya bersangiz, bir vaq-

ti kelib, ko'zingizga ulgurji bo'lib ko'rinsa, osmondan tushganday bo'ladi. A.Qahhor. Sarob.

OSMONDAN TUSHIBDIMI?! *kim?* boshqalardan ortiq yeri yo'q!

«Ha, bu uyga nima qipti? – dedi Kanizak va birdan achchig'i keldi. – Ha, muncha!.. Xotiningiz osmondan tushibdimi?! Biz ham odam bolasi, turibmiz. Odamlar butun umrini o'tkazgan joyda u kishi bir kecha yotsalar, hech nima qilmas!» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «Osmondan tushgan bo'lsang ham, «man-man»ingni tashla, – dedi ota yana sansirab, – «man» deb biring kelding, «man» deb boshqang kelding, – ota Jabborovga qarab oldi, – O'sha «man-man» deganing ishni rasvo qilyapti». H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

osmonga ko'tarib: ko'klarga ko'tarib

osmonga ko'tarmoq: ko'kka ko'tarmoq

OSMONGA SAKRAMOQ *nima?* haddan tashqari ortmoq, ko'paymoq.

Dehqon gardanida yana davlat soliqlari bor, bular ham yildan yil osmonga sakraydi. Oybek. Nur qidirib.

OSMONGA USTUN BO'LMASLIK *kim?* axiri bir kun o'lmoq, boqiy yashamaslik. Varianti: **dunyoga ustun bo'lmaslik.**

Biz kekxa cho'ponlar osmonga ustun bo'lmaymiz, bugun bo'lmasa, ertaga o'rnimizni bo'shatib berishimiz kerak, durustmi! S.Abdughahhor. Hayotning boshlanishi. Kecha o'lmagan bo'lsa, bugun o'lar, bugun

o'lmasa, ertaga o'lar, axir dunyoga ustun bo'lib qolmas-ku! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

OSMONGA UCHSA(...) – **OYO-G'(I)DAN, YERGA KIRSA(...)** – **QULOG'(I)DAN TORTMOQ** *kim? kimning?* qutulib ketishiga qo'ymaslik. Varianti: **osmonga chiqsa(...)** – **oyog'(i)dan, yerga kirsa(...)** – **qulog'(i)dan tortmoq; yerga kirsa(...)** – **qulog'(i)dan tortib chiqarmoq, osmonga chiqsa(...)** – **oyog'(i)dan tortib tushirmoq.**

«*Qo'yadigan xotinim yo'q, – mush-tini siqib dedi Boqijon. – Osmonga uchsang – oyog'ingdan, yerga kirsang – qulog'ingdan tortaman, bilib qo'y*». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Osmonga chiqsangiz – oyog'ingizdan, yerga kirsangiz – qulog'ingizdan tortaman; yo'lingizga ko'ndalang yotib olaman. Mayli, istasangiz, o'ligim ustidan hatlab o'ting.* S.Anorboyev. Yo'llanma bilan. *Yerga kirsa – qulog'idan tortib chiqaraman, osmonga chiqsa – oyog'idan tortib tushiraman!* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

osmonga chiqsa (...)–**oyog'(i)dan, yerga kirsa(...)** – **qulog'(i)dan tortmoq:** osmonga uchsa (...) – oyog'(i) dan, yerga kirsa(...) – qulog'(i)dan tortmoq

osmonlarga ko'tarib: ko'klarga ko'tarib

osmonlarga ko'tarmoq: ko'kka ko'tarmoq

osmonni ust(i)ga tashlab yubormoq: osmon qo'l(i)da bo'lsa, tashlab yubormoq

osmon-u yercha: yer bilan osmoncha

oson tutmoq: yengil tutmoq

ostiga suv ketdi: tagiga suv ketdi

OSTONA(SI)DAN HATLAMOQ *kim? kimning?* uyiga kirmoq. Sinonimi: **ostona(si)ga qadam bosmoq** *kim? kimning?*

«*Yaxshiyam Murodova kelibdilar, – dedi Dadajon, – agar bu kishi kelmasa, ostonangdan hatlamas edim*». I.Rahim. Ixlos.

OSTONADAN HATLAMOQ *kim? uyidan ko'chaga chiqmoq.*

Men hech qayerga borganim yo'q. Siz ketganingizdan beri ostonadan hatlagan bo'lsam, oyog'im sinsin. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ostonasi tilladan bo'ldi: ostonasigacha oltindan bo'lib ketdi


ostonasiga bosh qo'yomoq: oyo-g'(i)ga bosh urmoq

OSTONASIGACHA OLTINDAN BO'LIB KETDI *kimning? yoki nimaning?* boyligi oshib-toshib ketdi, o'ta badavlat bo'lib ketmoq. Varianti: **ostonasi tilladan bo'ldi nimaning?** Sinonimi: **ityalog'i tilladan bo'ladi (... bo'lgandir)** *kimning?*

Ana eshon. Necha yildan beri odamlarni shunga ishontirib non yemoqda. Ostonasigacha oltin bo'lib ketdi. I.Rahim. Olovkor.

OSTONA(SI)GA QADAM BOSMOQ *kim? kimning?* uyiga kirmoq. Sinonimi: **ostona(si)dan hatlamoq** *kim? kimning?*

Axir, yuzimga oyoq qo'yib, el-u yurt oldida shunday behurmat qilgan bu xonadon bilan qanaqa qilib qudalik qilaman? Qandoq qilib ostonasiga qadam bosaman! O.Yoqubov. Tilla uzuk.



OT BILAN TUYA BERARMIDI?! nimaga? biror yirik narsa sotib olishga yetmaslik, kichik bir miqdorga teng bo'lmoq.

Jonfig'on mukofotni o'z gazi bilan o'lchagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi: «Olgan mukofotiga ot bilan tuya berarmidi?!» – debdi. A.Qahhor. Jonfig'on.

OT BILAN TUYA BO'LARMIDI?! [nima?] juda katta sarf-xarajatni talab qilmaslik; u qadar katta, ko'p emaslikni bildiruvchi ibora.

Jonfig'on mukofotni o'z gazi bilan o'lchagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi – olgan mukofotiga «ot bilan tuya bo'larmidi», debdi. A.Qahhor. Qanotsiz chittak. «Bir keling, ot bilan tuya bo'larmidi?! Himmatlaringiz-da, xayr». Jo'rayov mo'ylovini silab Po'latjonning yoniga keldi: «Tushungan odamning sadag'asi ket-sang arziydi. GESlaring ertaga ochil-sa, sovg'aga nima olib boray, deydi. Himmatlaring biladi, dedim. S.Ahmad. Qadr don dalalar. «Har ko'chatga o'n tiyin, faqat o'n tiyin bo'lsa, go'rga edi». – «Bari bir ot bilan tuya bo'lmas ...» – «Qo'limdan kelmaydi, Mavlon aka, arzonidan topish kerak». – «Ko'p deganda ikki-uch yuz so'm oshiq bo'lar, nahot shuning uchun ishni kechiktirsangiz?» S.Nazar. Yashil boylik.

OT BILAN TUYA SO'YMASLIK kim? kimga? (atab) katta ziyofat bermaslik, katta hurmat-izzat bilan kutib olmaslik.

To'yda har kimning nasibasi o'z oldida. Mo'min shilpiq sizning borishingizga ot bilan tuya so'ymaydi.

Nihoyati bir osham osh-u bir piyola choy... P.Tursun. O'qituvchi.

OT BILAN TUYACHA juda katta («farq»). Sinonimi: **yer bilan osmoncha**.

Shahar havosi bilan qishloq havosi orasida ot bilan tuyacha farq bor. So'zlashuv uslubi.

OT QO'YMOQ I kim? 1 otini tez yugurtirmoq.

Usmon ota diydor ko'rishish ishtiyoqida, sabri tugab, otiga qamchi bosdi. Uning ketidan boshqalar ham ot qo'yishdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 otliq holda bostirib bormoq. Sinonimi: **ot solmoq kim?**

Bo'taboy bu yo'llardan juda ko'p qatnagan. Tuprog'i bilqillab yotgan shu ko'chalardan ... beshotar osib, Xolxo'ja yigitlari ketidan ot qo'ygan yillari hali esida. S.Ahmad. Hukm.

OT QO'YMOQ II kim? kimga? nom bermoq, nomlamoq.

«Zulfiqorov eringiz bo'lmasa, kimingiz deb bilamiz, o'ynashingizmi?» Juvon bir cho'chib tushdi. «Voy, qiz narsa shunaqa gapni og'zingizga olgani uyalmaysizmi?!» Saida uning aftiga qarab kulimsiradi. «Qilmishingizga o'zingiz yaxshiroq, og'izga olsa bo'ladigan bo'lak ot qo'yib bering bo'lmasa...» A.Qahhor. Sinchalak.

OT SOLMOQ kim? otliq holda bostirib bormoq. Sinonimi: **ot qo'ymoq I 2 kim?**

Tong otguncha hech kim uxlamadi. Mahmud shu kecha uch marta yigitlar bilan ot solib, ... S.Ahmad. Xotiralar.

OTA-BOBODAN ISH QOLGANMI?! ish-yumush hech qachon

tugamaydi, uni tugataman deb ovora bo'lma.

«Yig'im-terim emish, – dedi Bo'ta kinoya bilan, – ota-bobodan ish qolganmi, supraday yering bor-ku, tashvishing miriga besh bog'. Mana men ishlamasdan ochimdan o'lganim yo'q-ku. Davr kelganda tarallangni qilsang-chi, nodon». G'.G'ulom. Jo'ra-bo'za.

OTA GO'RI – QOZIXONAMI?! [nimaga?] janjallashib, xafalashib o'tirishga arzimaydi.

Biron ish-yumushi bo'lsa so'raydi-da, – dedi ota, shungayam ota go'ri qozixonami, degan ohangda. Sh.Bo'tayev. Qarz.

OTA O'G'IL! otasining munosib, tahsinga loyiq bo'lib yetishgan farzandi! (undalma bo'lib keladi).

«A, shirin masalani o'rtaga otding, galavangdan o'rgilay, ota o'g'il!» – dedi Ermatov. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

OTA(SI)NI HAM AYAMASLIK kim? [o'zining] hech kimni yuzxotir qilib o'tirmaslik, o'zini qarshi gapirishdan, qo'pol harakat qilishdan tiymaslik.

Shunaqa. Domla o'rik deganda otasini ham ayamaydi. S.Ahmad. O'rik domla. «Bizzi O'rinbu gap kelganda otasini ham ayamaydi», – dedi Yo'l-dosh novcha norozi ohangda. S.Anor-boyev. Oqsoy.

OTA(SI)NI HAM TANIMASLIK kim? [o'zining] hech kim bilan? hisoblashmay, o'z bilganicha ish tutmoq.

Hozirgi avzoyi ana shunday, otasini tanimaydigan. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

OTA(SI)NING MOLINI KO'R-SATIB QO'YMOQ kim? kimga? [uning] do'q qilishni, qo'rqitishni ifodalaydi (bunda ikkinchi shaxs tuslovchisi birinchi shaxs egalik qo'shimchasi bilan kelmaydi). Sinonimi: **ona(si)ni Uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq 1** kim? kimning? Bir kuni kimdandir. «Qo'ziboyev o'rningizga ... bo'lmoqchi» degan ig'vo gapni eshitib, «Senga bir otangning molini ko'rsatib qo'yay», – dedi-da, bir-ikki kuchangan edi, *Qo'ziboyev ham bo'sh kelmay, oz bo'lmasa ko'pchilik o'rtasida Pochchayevning belini sindirib qo'yay dedi. Mirmuhsin. Bir munofiq haqida.*

OTASI URMAS QO'NG'IZNI, BOLASI URAR TO'NG'IZNI ajdodlari kichik bir ishni ham uddalay olmagan holda, hozirgi avlod juda katta ishlar qilishga qodir.

Xonadonlarga Asakadan gaz keltiramiz. «Otasi urmas qo'ng'izni, bolasi urar to'ng'izni» degan gapni eshitganmisan? O'lmasak, hali ko'p ishlar qilamiz. S.Ahmad. Qarddon dalalar.

OTASHZABON gaplari o'tkir va ta'sirli, otashin nutqli.

U ming'irlab, ma'ruzachi otashzabon ko'p qadrli shoirlarga til tegizganini aytib, «Adabiyotimizning gullari bo'lgan u muhtaram shoirlarning obro'sini tushirish g'oyat uyat, fojiiy», – dedi. Oybek. Nur qidirib. Kimdir biron: «Otashzabon yigit ekan», – deb qo'ydi. Oybek. Qutlug' qon.

OTANG KIM – OSHQOVOQ, ONANG KIM – NOSQOVOQ ajdodlarining nasl-nasabi past.

Men baland poshnali tufti kiyganimda, «Otang kim – oshqovoq,

onang kim – nosqovoq, senga kim qo ‘yibdi tovonli tuflki kiyishni!» – deb masxara qilgan edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

OTANG TEMIRCHI O‘TMAGAN EDI-KU?! (... O‘TGANMI?!) muncha gapni ortiqcha cho‘zib yubor-masang?! Muncha ezma bo‘lmasang?!

«Sayrab qol, Dadash, sayra, – dedi Umarali piching bilan, – otang temirchi o‘tmagan edi-ku, tuppa-tuzuk cho‘pon edi». I.Rahim. Ixlos. *Otang temirchi o‘tganmi o‘zi, gapni cho‘zib nima qilasan?! S.Abdugahhor. Achchiq dori.*

OTANG YAXSHI, ONANG YAXSHI DEB moyil qilish maqsadida maqtab, yaxshi tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatib.

Shuning uchun hozir siyosat qiladigan payt emas. Xalqqa yaxshi muomala qilmasak, odamlarni otang yaxshi, onang yaxshi deb ishga solmasak bo‘lmaydi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

OTANGGA (OTASIGA) RAHMAT [kimning?] tasanno; tahsinlar bo‘lsin.

«Men ma‘rifatning bir quliman», – dedi-ya! E, otangga rahmat, o‘g‘il bola! M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

OTDAN TUSHMOQ kim? amalidan, mavqeyidan mahrum bo‘lmoq. Varianti: **otdan, egardan tushirmoq** kim? kimni?

Samovarchi ham hazilvon bola ekan, so‘ri tagida yotgan eski egarni Hodivoyning oldiga keltirib qo‘ydi: «Hodivoy aka, otdan tushishga tush-

dingiz, endi remonndan chiqquningizcha hech bo‘lmasa mana bu egarga minib o‘tiring». S.Ahmad. Hodivoy. Sizni otdan, egardan tushiradigan bo‘lsa, Murodova emas, Komil bilan Davronov tushiradi. Davronov yoqangizdan g‘ip bo‘g‘adi, Komil belingizga bir tepib, ikki buklab qo‘yadi. A‘zolaringiz ham o‘shalardan ta‘lim olyapti. I.Rahim.Ixlos.

OTDAN TUSHSA (...) HAM, EGARDAN TUSHMASLIK kim? mavqeyini yo‘qotganiga qaramay, o‘zini avvalgiday tutmoq. Varianti: **otdan tushsa(...) ham, uzangidan tushmaslik; egardan tushmaslik.**

«Bu gapni sizga aytmagan edim. Ipak qurtini olib qochgan chumchuqni qarq‘agan edim. Jahlingiz burningizning uchida turadi-ya». Tojiboy indamadi. O‘rinsiz arazlab yurgani o‘ziga ma‘lum bo‘lib qoldi. Lekin sir boy bermadi. Otdan tushsa ham egardan tushmay, o‘zini bir xil tutdi: «Shunaqa, kap-katta odam chumchuqdan farq qilmaydigan bo‘lib qolibmiz-da». S.Ahmad. Muhabbat. Ko‘rdingizmi, Davronov otdan tushsa ham, uzangidan tushgani yo‘q. Sababiki, yana qaytib egarga o‘tirmoqchi. Davronov – o‘z manfaati uchun partiyani sotadigan odam. I.Rahim. Ixlos. Valivoy Mirzacho‘l bozoridagi samovarchi oshnasining so‘ziga kirmaganiga pushaymon yedi. «Buguncha tura turing, joy bemalol», – dedi-ya! Kalandimog‘liging qolmadi-da, polvon! Hamon musofirchilikni bo‘yningga oldingmi, egardan sal tushgin-da! H.Nazir. Odamning qadri.

otdan tushsa(...) ham, **uzan-gidan tushmaslik:** otdan tushsa(...) ham, egardan tushmaslik

otdan, egardan tushirmoq: otdan tushmoq

otgan ildiz(i): ildiz otmoq

otgan qadam(i): qadam tashlamoq

otgan tomir(i): ildiz otmoq

OTI QOLMOQ [atī qal=] tar. *kimning?* nomi adabiy eslanmoq.

El yetarda ezguluk qil, ey falon, Kim oting qolg'ay jahonda jovidon. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi, Valekin yer yuzinda oti qoldi. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

OTI TILDA YURMOQ [atī tildä yür=] tar. *kimning?* nomi el orasida mashhur bo'lmoq.

Eygu oti doimo tilda yurur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

OTI YOYILMOQ [atī jajil=] tar. *kimning?* nomi mashhur bo'lmoq.

Yoyildi ezgu oting du jahong'a, Yetibtur qamringiz ush ansiz xong'a. Hojamiy g'azali.

OTIMNI BOSHQA QO'YAMAN! [*kim?*– men [*o'zimning*]] biror ishni bajarishga qasd qilganligini bildirishda aytiladi (ma'lum darajada qasam ichish bilan teng). Varianti: **nomimni boshqa qo'yaman! otimni boshqa qo'ying!** [*kim? kimning?*].

«U vaqtda yosh edim. Guldek ochilgan edim, endi o'ttiz ikki yashar xotinni u boshiga uradimi?!» – dedi, o'jarligi tutdi. Men ham o'z so'zimdada turib oldim. «Boshlagan ishimi oxiriga olib bormasam, otimni boshqa qo'yaman!»– dedim. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Kecha-

gina «Sodiq» desam, «Labbay» dey-digan bola bugun tutun qaytarib, dimog'ingda gapiradigan bo'lib qolibsan. Xo'jayining kelib qolar. Ta'ziringni bergizib qo'yamasam, Umar otimni boshqa qo'yaman! I.Rahim. Ixlos. «U xotinda nima gunoh, nega uni yumdalading? Ustingdan arz qilib yuribdi». Begimxonning ko'zlari chaqchayib ketdi. «Arz qilib yuribdi, deysizmi? Arz qilishni mendan ko'rsin! Aravonlik xotinni haydatib, o'zimni halollob olmasam, nomimni boshqa qo'yaman». I.Rahim. Chin muhabbat. O'sha Xudoynazar popishak zamonida bog' bergan hosildan ikki baravar oshirib hosil olmasam, Matxoliq nomimni boshqa qo'yaman! S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi. Bo'pti! Bu sher-per deganlaringizni qo'limda olmadek o'ynab, osmonga otmam, Kimsan otimni boshqa qo'ying! S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan.

otimni boshqa qo'ying: otimni boshqa qo'yaman!

OTING O'CHKUR nom-nishon-siz yo'q bo'lib ketishini tilab qarq'ash (ayollar nutqida ishlatiladi).

«Hoy, oting o'chkur», – Oysha xola yana qo'lini shop qilib Maynaga hujum boshladi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

OTNI QAMCHILAMOQ *kim?* fursatni qo'ldan bermay, tadbirkorlik bilan tez harakat qilmoq.

Bu agrotexnikadan, o'rtoq Ahmedov, g'o'za parvarishida kim otni oldin qamchilagan bo'lsa, o'sha yutdi. O'g'itni vaqtli berganlarning paxtasi ochildi. H.Nu'mon. Fasllar.

OTNING QASHQASI o'ta darajada taniqli.

«... Bizga o'xshagan otning qashqalariga kun yo'q edi...» – «To'g'ri, bir vaqtgi zamon shunaqa bo'lgan edi. Zamonaga qarab ish tutganmiz...» Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

OTNING QASHQASIDAY o'ta darajada, juda-juda.

Saidg'ozisi esa ularning bichimiga qarab darrov tanidi: davangirday qaqqaygani – ... otning qashqasiday taniqli To'lamat mo'ylov. S.Anorbo'yev. Oqsoy. Shu vaqtgacha ... o'z dangasaligi, o'jarligi va qoloqligi bilan otning qashqasiday tanilib kelgan Ergashning bugun hammadan ilgari ishga kelib, stanogini tozalab yurishi, Ergashdagi bu keskin burilish uni quvontirmay kimni quvontirsin?!

G'.Ahmadiy. Kamolot.

OV(I) YURDI kimning? ijobiy natijaga erishmoq.

«Qayoqdan ichib olibdi? Maxsumchasi tushkur yashirin aroq ombori ochib qo'ydimikin? Pismiqli Maxsumning ovi yurgan kun bugun...» I.Rahim. Ixlos. Bugun ham mening ovim yurmadi. Yurmadigina emas, tuzoq oldiga kelgan «ov» hurkib qochgan edi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

OVOZ BERMOQ kim? kimga? yoki nimaga? (rasmiy) tarafdor yoki qarshi ekanini bildirmoq. Sinonimi: **qo'l ko'tarmoq II 1** kim?

Qarshilik bo'lmasa, ana shu uch kishiga ovoz berib qo'ya qolaylik. A.Qahhor. Sinchalak. Mahkamni faqat Karimov va Anna quvvatlab chiqdi. Sotiboldiyevning taklifiga to'rt kishi ovoz berdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

OVOZASI KETGAN turli gap-so'z tarqalib tanilgan.

Xalq ichida ovozasi ketgan, Valixon tomonidan isyonchi kofirlar deb e'lon qilingan shaykaning o'tog'alari – shular. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

OVOZGA QO'YILMOQ: ovozga qo'yilmoq

OVOZGA QO'YILMOQ kim? nimaning? (rasmiy) tarafdor yoki qarshi ekanini bildirish taklifini kiritmoq. Varianti: **OVOZGA QO'YILMOQ** nima?

Qalandarov smetani o'qimasdan ovoza qo'yilmoqchi bo'lgan edi, Saidga unga majlis ... borligini eslatdi. A.Qahhor. Sinchalak. Biroq uni kandidatlikka qabul qilish masalasi ovozga qo'yilganda, Hakimov o'zi betaraf qoldi. P.Qodirov. Uch ildiz.

OVOZ(I)NING BORICHA [o'zining] eng kuchli tovush bilan, kuchi yetgan darajada baqirib.

Egarda bir yoniga biroz qiyshayib o'tirib olgan aravakash yigit otining qadam olishiga moslab tebranib borar va ovozining boricha ashula aytardi. S.Zunnunova. Ko'ngil.

OXIR ZAMON[A] yer yuzida hayot tugab, qiyomat yaqinlashgan vaqt (diniy).

Ulamolar esa hadeb ishtirokiyularning oxir zamoni boshlaganlari ... haqida vahimalar tarqatardilar. Sh. Toshmatov. Erk qushi. «Oxir zamonada deb shuni aytadilar-da. Qizlarda sharm-hayo yo'q. «Falonchi ochilibdi, pismadonchi paranjisini tashlabdi» degan gaplar ko'payib ketyapti», – dedi To'tibu. S.Zunnunova. Gulxan.

OXIRI BAXAYR BO'LSIN [nimaning?] biror ishning yaxshilik bi-

lan tugashini hadiksiragan holda tilab aytiladigan ibora.

Shunda mahallaning qariyalari-dan Karim ota hozir ba'zi birovlar-ning ko'ngliga kelgan gapdan ham xunukroq bir taxminni aytib qoldi: «Xayr, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin dedi, – kelinimiz yoshga o'xshaydi... Qiz bo'lmasa deb qo'rqaman!» A.Qah-hor. To'yda aza. Mana, qizi tufayli yetti yot – begona odamlar bilan qarindosh-urug' bo'lib oldi. Shu kelishi-da ikki avlod bir-biri bilan tanishadi, balki qattiq inoq ham bo'lib ketar... Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin. S.Anor-boyev. Kuyov.

OY BORIB, OMON KEL[ING] [kim? qayerga?] uzoq yerlarga ketayotgan kishi bexatar, sihat-salomat borib-kelishini tilab aytiladi.

Oy borib, omon kelinglar! A.Qah-hor. Og'riq tishlar. Safaring bexatar bo'lsin. Oy borib, omon kel, o'g'lim. S.Anorboyev. Oqsoy.

OY DESAM – OG'ZI BOR, KUN DESAM – KO'ZI [kimning?] beqiyos go'zal.

«Jononmi?» – dedi Xoldor pichirlab. «Jonon bo'lganda qandoq! Oy desam – og'zi bor, kun desam ko'zi. Asqad Muxtor. Tug'ilish.

OY TUYNUKKA, ARAVA ESHIKKA KELGANDA ish tiqilinch bo'lib qolgandagina harakatga tushganda aytiladigan ibora.

Oy tuynukka, arava eshikka kelganda darding chiqadi sen bolaning ham! Shuncha darding bor ekan, shu paytgacha nega aytmading. Gazetadan.

oydinda oyog'(i) bajarib qo'yadi: oydinda oyog'(i) bilan qilib qo'ymoq.

OYDINDA OYOG'(I) BILAN QILIB QO'YMOQ kim? [o'zining] nimani? mutlaqo qiynalmasdan amalga oshira olmoq. Varianti: **oydinda oyog'(i) bajarib qo'yadi** [kimning?] nimani?

Maqtagan bo'lmasin-ku, lekin siz uncha-muncha odamning ishini oydinda oyog'ingiz bilan qilib qo'yasiz. P.Qodirov. Uch ildiz. Shu ham ish bo'libdimi. Ancha-muncha yumushlarni oydinda oyog'im bajarib qo'yadi. R.Fayziy. To'g'onboyning qizi.

OY-KUN(I) TO'LDI [kimning?] tug'ish fursati yetdi.

Agar uning qalin va yoyma soqoli bilan yoyilgan sochi olinib, kiyimlari ham yechib tashlansa, tuyaning ishkambasidan kattaroq va tusi ham qizilroq bo'lib, oy-kuni to'lgan semiz, keksa, tullagan bo'g'oz cho'chqaning xuddi o'zi bo'lib qolar edi. S.Ayniy. Sudxo'ring o'limi.

OY-KUN(I) YAQIN [kimning?] tug'ish oldida, tug'ishiga yana ozgina fursat bor.

Birozdan keyin qaytmoqchi ham bo'ldi, lekin opasining oy-kuni yaqinligidan yana borgisi keldi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

OY-KUN(I) YAQIN QOLDI [kimning?] tug'ish fursatigacha oz vaqt qoldi. Sinonimi: **oy-kun(i) yaqinlashdi** [kimning?].

Birinchi bor homilalik nash'asini tuygan, oy-kunim yaqin qolgan kunlar sira-sira esimdan chiqmaydi. S.Ahmad. Begona.

OY-KUN(I) YAQINLASHDI [kimning?] tug'ish fursatigacha oz vaqt qoldi. Sinonimi: **oy-kun(i) yaqin qoldi** [kimning?].

Saodat o y-kuni yaqinlashganini yoz o'rtalariga borib sezdi. I.Rahim. Ixlos.

OYOQ BOSMASLIK kim? qayerga kelib yurgan yeriga kelishni tark etmoq. Varianti: **qadam bosmaslik; qadam(i)ni bosmaslik** kim? [o'zining] qayerga?

Yo'qol, mening maktabimga oyoq bosma! M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. Qori Ishkamba u qishloqlarda oldi-berdi qilish nari tursin, u tomonlarga qadamini bosmaydigan bo'ldi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

OYOQ OLMOQ kim? biror xatti-harakatni, faoliyatni amalga oshirmoq.

Biz mana shuni tushunmasak, shu talablarni ko'rmasak, shunga qarab oyoq olmasak, obro' orttira olmaymiz. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. O'ziga birinchi marta muhim vazifa ishonib topshirilganidan ko'ngli o'sib, Rahimning oyoq olishi boshqacha bo'lib ketdi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

OYOQ OSTI BO'LMOQ – **OYOQ OSTI QILMOQ 1** nima? – kim? nimani? poymol bo'ldi, tahqirlandi. Varianti: **oyoq osti qilinmoq** nima? **oyoq osti qildirmoq** kim? nimani? kimga?

Boboqulning otasi ham, onasi ham shu yerga dafn qilingan. Oyoq osti bo'lib ketmasin deb, atrofiga tosh qalagan edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Mehrixon menga juda qattiq termildi. Andisha oyoq osti bo'ldi, or-u nomus – bir pul! G'.G'ulom. Yodgor. Bilaman, tajriba uchun ashqol-dashqolini ko'tarib kelishadi, g'o'zani oyoq osti qilishlari mumkin. Oybek. Oltin

vodiydan shabadalar. *Quadratillaxo* 'jaboy muruvvatini oyoq osti qilganlarni maymunday o'ynatib kelgan. A.Muxtor. Opa-singillar. *Biz sevgi, sadoqat, vafo oyoq osti qilingan dahshatli bir zamonda yashaganimiz uchun gunohkormiz.* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. *Shunday paytda yo'qligimni bildirma, Sevgimizni oyoq osti qildirma!* S.Abdulla. Alpomish.

2 kim? – kim? kimni? xor bo'lmoq, xo'rланmoq.

Ilohi tan-joni sog' bo'lsin. *Dushmanlari oyoq osti bo'lsin.* S.Zunnu-nova. Gulxan. *Ammo odamni muncha oyoq osti qilmasa!* H.Nazir. Odamning qadri. *Aybdor emasligingizni bilasiz-ku? O'zingizni oyoq osti qilib nima qilasiz?* A.Muxtor. Tug'ilish.

OYOQ OSTI odamlar tez-tez ke-lib-ketib turadigan

Bodomzorlaring shinam joy ekan-u, oyoq ostiroq ko'rinadi. Bizga xoliroq yer bo'lmasa, qimtinib o'tirib, rohatlana olmaysan kishi... S.Abdulla. O'rtoq Xolnazarov.

oyoq osti qildirmoq: oyoq osti bo'lmoq

oyoq osti qilinmoq: oyoq osti bo'lmoq

oyoq osti qilmoq: oyoq osti bo'lmoq

OYOQ QO'YMOQ kim? **1** qayerga yura turib oyog'ini biror sathga tegizmoq. Sinonimi: **qadam qo'ymoq 1** kim? qayerga?

Pochchayev boshqarmaning zinasiga oyoq qo'yganda, ro'paradan, Rahmonqulovning eshigidan Samadiy chiqib keldi. A.Muxtor. Tug'ilish. *Buning ustiga, umri bino bo'lib oyoq*

qo'ymagan yerlarga kelyapti, osonmi?! S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

2 nimaga? (abstrakt ot) toptamoq, poymol qilmoq, tahqirlamoq.

Meni elning sha'niga oyoq qo'ygan nomard deb sen aytgan eding, Palmon. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

3 nimadan? nimaga? biror holatdan, yoshdan boshqasiga o'ta boshlamoq. Sinonimi: **qadam qo'ymoq.**

2 kim? nimadan? nimaga? *U endi ancha yoshi ulg'ayib, yigitlikdan keksalik ostonasiga oyoq qo'ygan edi. S.Ahmad. Hukm.*

oyoq tiramoq: oyog'(i)ni tirab olmoq

OYOQ (OYOG'INI, QADAMI-NI) UZMOQ doim kelib yurgan manziliga kelmay qo'ymoq.

Huv o'sha Mohiro'y jahonda o'qilgan tarixdan keyin u Tabibiyning uyidan oyoq uzib ketgan edi. S.Siyoyev. Avaz. Nega biznikidan qadam uzib ketdingiz yo ko'ngil qolarlik gap o'tdimi bizdan? K.Yashin. Hamza.

OYOQ UCHI BILAN KO'RSATMOQ kim? kimni? nazarga ilmay, mensimay munosabatda bo'lmoq. Varianti: **oyoq uchida ko'rsatmoq; oyoq'(i) bilan ko'rsatmoq** kim? [o'zining] kimni?

... og'irligi taxminan bir pudga yetadigan haligi bezaklarini taqib, uncha-muncha boy oila qizlarini taajjublantirar, kambag'al, hatto o'rta hol oila qizlarini oyoq uchi bilan ko'rsatib, tomosha qilar, «kelin ko'rish»ga yurar edi. Oybek. Qutlug'qon. Nima qilay, odamni oyoq uchida ko'rsatib kalaka qilsalar... Meni

qo'yavering-a, sizdan oldingi ... ham u kishini yo'lga sololmagan. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi. Uning uchun olamda o'ziga teng odam yo'q, u bilgan odamlar yo o'zidan past, yo o'zidan yuqori; o'zidan past odamni oyog'i bilan ko'rsatar, o'zidan yuqori odamning esa oyog'iga yiqilar edi. A.Qahhor. Xotinlar.

oyoq uchida ko'rsatmoq: oyoq uchi bilan ko'rsatmoq

OYOQ YALANG kambag'al, qashshoq. Varianti: **yalang oyoq.**

Bizning hiyla va nayranglarimiz bo'lmasa, bu oyoq yalang xalq bir kunda bularning oyog'ini osmondan keltiradi. S.Ayniy. Qullar. Sandan ham qoladi, xo'jayiningdan ham qoladi bu qo'ylar. Bari yalang oyoqlarga o'tib ketadi, nomard! S.Anorboyev. Oqsoy.

OYOQDAN QOLMOQ kim? keraksiz, ortiqcha bo'lib qolmoq, taqdiri hech kimni qiziqitirmay qo'ymoq.

U o'zining bunchalik pastlab, oyoqdan qolishiga, asosan, Yoqutoyimni sababchi deb bilar, lekin dami ichida edi. S.Anorboyev. Oqsoy.


OYOQDAN YIQITMOQ kim? kimni? yoki nimani? biror faoliyat ko'rsatishga nochor qilib qo'ymoq, zaiflashtirmoq. Varianti: **oyoqdan yiqimoq** (eskirgan).

«Dastavval Bo'taboy degan baloni oyoqdan yiqish kerak» dedi Azimboyvachcha zardali, lekin surnayday ingichka ovoz bilan. S.Ahmad. Hukm.

oyoqdan yiqimoq: oyoqdan yiqitmoq

oyoqni tiramoq: oyog'(i)ni tirab olmoq

oyoqni uzatmoq: oyog'(i)ni uzatmoq



OYOQNING BOG'I BO'LMOQ boshiga tashvish, dardisar bo'lmoq; xalaqit bermoq.

– *Akam Qurbon biroz esliroq bo'lgani uchun, ko'pincha o'z o'rtoqlari bilan ko'chadan beri kelmas, men bo'lsam onam oyog'ining bog'i, yuragining dog'i bo'lib, xarxashadan boshim chiqmas edi, – dedi Po'lat. G'ayratiy. Yoshligimiz.*

OYOQQA BOSMOQ – OYOQQA BOSTIRMOQ 1 kim? – kimni? sog'ayib yurib ketmoq. Sinonimi: **oyoqqa turmoq kim? – oyoqqa turg'izmoq 1 kim? kimni?**

Serjant yarador bo'lib, shu shaharga kelayotganida yana Latofatxonni eslab, «Oyoqqa bosishim bilanoq yo'qlab boraman», – deb jazm qilgan edi, oyoqqa bosganidan keyin o'ylab qarasa, to'g'ri kelmaydi. A.Qahhor. Ko'k konvert. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib, ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa, hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi. A.Qahhor. Bemor.

2 nima? – kim? nimani? o'nglanib, yashashga qodir darajaga yetmoq. Sinonimi: **oyoqqa turmoq nima? – oyoqqa turg'izmoq 2 kim? nimani? oyoqqa qo'ymoq 1 kim? nimani?**

oyoqqa bostirmoq: oyoqqa bosmoq

OYOQQA QALQMOQ qo'zg'almoq.

Tong sahargi bu alamli qarg'ishdan tim ichi oyoqqa qalqdi. X.Do'st-muhammad. Jajman.

OYOQQA QO'YMOQ 1 kim? nimani? o'nglab, yashashga qodir darajaga yetkazmoq. Sinonimi: **oyoq-**

qa bostirmoq 2 kim? nimani? oyoqqa turg'izmoq.

Ayol – oilasini mustahkamlash, farzandlarini oyoqqa qo'yish uchun kichik yelkasida olamcha tashvishlarni ko'tarishga o'zida kuch topa oluvchi yuksak matonat egasi. Gazetadan.

2 kim? kimni? aktiv harakatga qo'z-g'atmoq. Sinonimi: **oyoqqa turg'izmoq 3 kim? yoki nima? kimni?**

To'shakka mixlanib qolgan bemorlarni oyoqqa qo'yayotgan yosh doktor ta'rifini eshitgan o'g'il onasini shu shifoxonaga olib bordi. So'zlashuv uslubi.

OYOQQA TURMOQ – OYOQQA TURG'IZMOQ 1 kim? – kimni? sog'ayib yurib ketmoq. Sinonimi: **oyoqqa bosmoq kim? – oyoqqa bostirmoq 1 kim? kimni?**

Oyoqqa turishi noma'lum bo'lgan bemorga tikilib yosh umrini o'tkaz-yapti. S.Ahmad. Ko'klam chechaklari. Meni o'zing tezda oyoqqa turg'izasan. Qizimning katta imtihoniga, albatta, qatnashuvim kerak. H.Nazir. Oltin qadah.

2 nima? – kim? nimani? o'nglanib, yashashga qodir darajaga yetmoq. Sinonimi: **oyoqqa bosmoq nima? – oyoqqa bostirmoq 2 kim? nimani? oyoqqa qo'ymoq 1 kim? nimani?**

Kattalar: «Xo'jabekov, sen Oqsoyni oyoqqa turg'iz», – deb ishonch bildirishgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

3 kim? – kim? yoki nima? kimni? faol harakatga qo'zg'almoq. Varianti: **oyoqqa turg'izilmoq kim?** Sinonimi: **oyoqqa qo'ymoq 2 kim? kimni?**

Shoshilish kerak. Hammani oyoqqa turg'izib, yer ostidan uch yuzga

yaqin quvurni sug'orib oldik. I.Rahim. Olovkor. *Yo'qolgan boylikni qaytarish, yirtilgan ko'k bayroqni yamab ko'tarish umidi uni hamma vaqt oyoqqa turg'izardi.* S.Ahmad. *Hukm. Hamma oyoqqa turg'izilgan.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Zardusht boboning nazarida timdoshlari hoziroq oyoqqa turadi-yu anov maxluqni tutib tilkapor qiladigandek, supurib-supurib timdan chiqarib tashlaydigandek edi, lekin timning burchak-burchaklariga urilib-qaldirab qaytgan boboning ovozi hech kimning qulog'iga kirmedi.* X.Do'stmuhammad. Jajman.

oyoqqa turg'izilmoq: oyoqqa turmoq

oyoqqa turg'izmoq: oyoqqa turmoq

OYOQQA TUSHOV BO'LMOQ kim? yoki nima? erkin harakatlanishga to'siq bo'lmoq, imkon bermaslik.

...o'z vaqtida olib ketmaganimiz uchun o'g'it oyog'imizga tushov bo'ladi. «Mushtum».

OYOQ-QO'LI YENGIL yugurib-yelib xizmat qiladigan.

«Har hovliga bitta yugurdak kerak... Otinbuvingiz «Oyoq-qo'li yengilgina dastyor bo'lsa», – deb erta-kech tayinlaydilar», – dedi mo'ysafid. P.Tursun. O'qituvchi.

oyog'(i) bilan ko'rsatmoq: oyoq uchi bilan ko'rsatmoq

OYOG'(I) KO'CHADA QOLIB-DIMI?! [kimning?] nazari ilmagan, o'ziga teng ko'rmagan joyga bormaslikni bildirishda ishlatiladi.

Davraning to'rida edim, «Oyog'im ko'chada qolibdimi?!» – deb, unchamuncha to'yga bormasdim, xo'jam,

mana men ham poygakka tushib qoldim-ku. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

OYOG'(I) OLTII, QO'L(I) YETTI kimning? xursandligidan kuchiga kuch qo'shilib, oyoq-qo'li chaqqon. Varianti: **oyog'(i) olti; oyog'(i)ning olti bo'lishi.**

Matluba olam-olam shodlik baxsh etgan ana shu bir parcha qog'ozni olib, oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib direktor kabinetiga yugurdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Bu gapni eshitib, onamning oyog'i olti bo'lib, butun kuni bilan tinmadi.* Oydin. Fonar tagida. *Adolatga ko'z olaytirib, orqavorotdan gap-so'z qilib yurgan bu g'alamisning xushomadidan Normatning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi.* «Oyog'ining olti bo'lishi bejiz emas...» – deb o'yladi-da, Bozorovga yov qarash qildi. I.Rahim. Chin muhabbat.

oyog'(i) olti: oyog'(i) olti, qo'l(i) yetti

OYOG'(I) OSMONDA [kimning?] mag'lub, o'nglanib ololmaydigan holatda.

«Lashkarboshi usta bo'lsa, dushman oyog'i osmonda bo'ladi», degan eski gap bor. Oybek. Quyosh qoraymas.

OYOG'(I) OSTIDA [kimning?] nima? kimning? hammasi baxshida, qanday xohlasa, shunday foydalanishi mumkin.

Mayli, falon shahar kerak desin, dunyoning narigi chekkasiga borib, falon narsani topib kel desin – Qudratillaxo'janing qurbi yetadi, u hammasiga tayyor, uning butun davlati shu bebaho o'g'ilning oyog'i ostida. A.Muxtor. Opa-singillar.

OYOG‘(I) SIYRAKLASHDI kimning? qatnovi kamaydi.

Bu holat unda bozor tarqab, kishilar oyog‘i siyraklashgan vaqtgacha davom etdi. N.Maqsudiy. Bola yo‘qotgan kishi.

oyog‘(i) tegdi: qadam(i) tegdi

OYOG‘(I) TIYILDI kimning? kelishi to‘xtadi, boshqa kelmay qo‘ydi

Qo‘ni-qo‘shnilarning oyog‘i tiyilgandan keyin ham Sharifa buvining yig‘isi tinmadi. N.Maqsudiy. «Laylat-ulqadr».

OYOG‘(I) TORTMADI kimning? qayergadir borishiga ichki bir tuyg‘usining qarshi turayotganini his qilmoq.

«Ketmayman», – dedi Mayna. «Jinni bo‘ldimi bu?» – Oyog‘im tortmayapti», – dedi yig‘lamsirab. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Nima uchundir yurishga oyog‘i tortmay, bir necha minutni shu turganicha o‘tkazdi.* R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *Sekretarlik go‘yo senga osmon edi, seni shu osmondan tashlab yubordilar... Ko‘zingni yum, oyog‘ing qayoqqa tortsa, o‘sha yoqqa jo‘na. O‘zingga boshpana, bolalaringga bir burda non topishni bil...* I.Rahim. Ixlos.

OYOG‘I TOVSILMOQ odamlar keldi-ketdisi, yo‘ldagi harakati siyraklashmoq, kamaymoq.

Oqshom, odamlar oyog‘i tovsilgach, eshikni ichidan tanballab, devor oshib, ko‘chaga chiqdim. H.Nazir, Ko‘kterak shabadasi.

OYOG‘(I) UZILMADI kimning? qayerdan? uzluksiz kelib turmoq.

Shokirvoy ham dam-badam kelib turadigan bo‘lib qoldi. Ayniqsa keyingi kunlar oyog‘ini uzmayoq qo‘ydi.

J.Abdullaxonov. Albatta kut. *U tomoni Namangan, Farg‘ona, bu tomoni Toshkentdan tirband kelib turadigan ixlosmandlarning oyog‘i Zor qishloqdan uzilmas edi.* S.Ahmad. Hukm.

oyog‘i yerga tegmay: oyog‘(i) yerga tegmaydi

OYOG‘(I) YERGA TEGMAYDI kimning? biror yumushni tinimsiz harakatlanib bajarmoq, yelib-yugurib xizmat qilmoq. Varianti: **oyog‘i yerga tegmay.**

G‘ulomjon, ishni bugunoq tugatmoqchimisiz?.. Yugurasiz, oyog‘ingiz yerga tegmaydi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha. *Hojarbibining oyog‘i yerga tegmaydi. Keldi-ketdi, kechalari sham yetishmaydi.* A.Muxtor. Opa-singillar. *To‘xta xola oyog‘i yerga tegmay taraddudda, halloslab yuribdi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

oyog‘(i) yetdi: qadam(i) yetdi

OYOG‘I YENGIL yengiltak, suyuq. Sinonimi: **yengil tabiat.**

Biri hech kimga ma‘lum bo‘lmagan allaqanday ziyofatlar, birov birovni urgani, kim ekanligi noma‘lum suyuq erkaklar va oyog‘i yengil xotinlar to‘g‘risida gap aylantiradi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

OYOG‘(I)DA OYOQ QOLMADI kimning? juda ko‘p yurib tolmoq

Sizni qidira berib, oyog‘imda oyoq qolmadi, Rahimjon aka! A.Qahhor. Yangi yer.

OYOG‘(I)DAN TORTMOQ kim? kimning? mavqeyiga futur yetkazadigan xatti-harakat qilmoq.

Bilishimcha, bular Hakimovning oyog‘idan tortishyapti. Siz hozir quyidan nazoratni kuchaytirish kerak de-

dingiz, to'g'ri. Lekin ba'zilar mana shu vaziyatdan foydalanib, tanqid bilan obro' orttirmoqchi bo'lyapti. Boshliqlarni tanqid qilib tanilish oson-da, hammaga botir bo'lib ko'rinadi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Nechun bir-birining ko'ziga cho'p solur, bir-birining oyog'idan tortur, vaqti kelsa, bir-birining bo'g'ziga panja urmoqdan toy-mas.* S.Siyoyev. Avaz.

OYOG'(I)GA BOLTA URMOQ

kim? kimning? mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq. Sinonimi: **pay(i)ni qirqmoq** *kim? kimning?*

Hozir biz tanqid olovini Mannonovga sochsak, o'z oyog'imizga o'zimiz bolta urib, ... tegirmoniga suv quygan bo'lamiz. P.Qodirov. Uch ildiz. *Xalq va mamlakat tarixiga chuqur nazar solsangiz, o'z oyog'ingizga o'zingiz bolta urganingizni ravshan tushunasiz.* Oybek. Nur qidirib.

oyog'(i)ga bosh qo'ymoq: oyo-g'(i)ga bosh urmoq

OYOG'(I)GA BOSH URMOQ

kim? kimning? xokisor bo'lmoq, xokisorlik qilmoq. Varianti: **oyog'(i)ga bosh qo'ymoq.** Sinonimi: **oyog'(i)ga ya yiqilmoq** *kim? kimning?*

Habibaxonim [tushida] Maynaning oyog'iga bosh urib iltimos qilarmish... Sh.Toshmatov. Erk qushi. Uyga boring, ota-ona oyog'iga bosh qo'ying, ulardan rozilik oling! Oybek. Qutlug' qon. *Jumaniyoz aka o'zi borib, Xiva xonining oyog'iga bosh urmoqchi.* Oydin. Gulsanam. *Kechir meni, oyog'ingga bosh qo'yib, yolvorib qoluvchi Hasan.* S.Ahmad. Begona.

OYOG'(I)GA TASHLAMOQ 1

kim?o'zini kimning? o'ta xokisorlik bilan yalinib-yolvormoq.

U endi o'zini Xayrining oyoqlariga tashlamoqchi, uzilgan ipni yana ulamoqchi. S.Ahmad. Begona.

2 kim? kimni? kimning? tahqirlab munosabatda bo'lish huquqini berib qo'ymoq.

To'g'ri, eri yomon odam emas. Ichmaydi, chekmaydi, chakki yurmaydi. Aybi – xotinini onasining oyog'iga tashlab qo'ygani, xolos. S.Zunnunova. Latta.

OYOG'IGA (TAGIGA, ILDIZIGA) TESHA URMOQ ayn. oyog'iga bolta urmoq.

Bir necha qizimizning nomusini barbod etgan, xonadonlarni buzgan, mustahkam axloqimizga tesha urmoqchi bo'lgan iblisni fosh qilib, sizni falokatdan qutqarib qolmoqchiman. G'.G'ulom. Xalq hukmiga havola.

OYOG'(I)GA YIQILMOQ *kim? kimning?* xokisor bo'lmoq, xokisorlik qilmoq. Sinonimi: **oyog'(i)ga bosh urmoq** *kim? kimning?*

«Ulug' zotlar»ingiz amerikaliklar oyog'iga yiqilib o'tiribdi. Oybek. Nur qidirib. *Kechasigi gaplariga qaraganda, uchragan har bir qiz uning oyog'iga yiqilavergan ekan deysiz.* A.Muxtor. Tug'ilish.

OYOG'(I)NI BILIB BOSMOQ *kim? [o'zining]* mulohaza yuritib ish tutmoq. Varianti: **qadam(i)ni bilib (o'ylab, o'lchab) bosmoq; qadamni o'ylab (o'lchab) bosmoq** *kim?*

Men senga aytsam, endi oyog'ingni bilib bos! Hey, shoshib qilingan ishning oqibati yomon bo'ladi-ya! J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar. *Agar shu savolga ilgariroq javob topilsa,*

partiya tashkilotimiz shunga qarab ish tutsa, ehtimol, Zulfiqorov ham qadamini bilib bosar edi, Mehri ham uning izidan yurmas edi. A.Qahhor. Sinchalak. Qadamingni bilib bos, ukam. S.Anorboyev. Oqsoy. U qadamini o'lchab bosadigan farosatli makkorlardan. S.Anorboyev. Oqsoy. Qadamni o'ylab, o'lchab bosishga to'g'ri keladi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

oyog'(i)ni bir etikka tiqmoq: ikki oyog'(i)ni bir etikka tiqmoq

oyog'(i)ni egri bosmoq: qadam(i)-ni chakki bosmoq

OYOG'(I)NI OSMONDAN KEL-TIRMOQ kim? kimning? mag'lub qilmoq; o'nglanib ololmaydigan darajada zarba yetkazmoq.

Tulki tumshug'idan ilindi. Bu dallillar bilan bolaning oyog'ini osmondan keltirish mumkin. S.Anorboyev. Oqsoy. Jindak chatog'ini topsa, otasini ham ayamaydigan muxbir bu!.. Anchalarning oyog'ini osmondan keltirdi! S.Abdulla. O'rtoq Xolnazarov. Agar biz bo'lmasak, bizning hiyla va nayranglarimiz bo'lmas, bu oyoq yalang xalq bir kunda bularning oyog'ini osmondan keltiradi. S.Ayniy. Qullar.

OYOG'(I)NI QO'L(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] masofani o'ta tez sur'at bilan bosmoq.

«Men borib ayta qolay». – «Ha, mayli, – rozi bo'ldi Umurzoq aka. – Oyog'ingni qo'lingga ol!» H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Otajon bu xabarini shu kun azonda jarchi orqaligina eshitdi. U oyog'ini qo'lga olib, nafasi bo'g'ziga tiqilgan holda shaharga yetib keldi. Oydin. Gulsanam.

OYOG'(I)NI TIRAB OLMOQ kim? [o'zining] o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq. Varianti: **oyog'(i)ni tirab turmoq; oyog'(i)ni tirab turib olmoq; oyog'(i)ni yerga tiramoq; ikki oyoq'(i)ni tirab olmoq; oyoq tiramoq kim; oyoqni tiramoq kim; turib olmoq kim?** (ko'p ishlatiladi). Sinonimi: **ikki oyog'(i)ni bir etikka suqmoq kim?** [o'zining].

Dadajon oyog'ini tirab turibdi. «Murodovaga va'da berganman. Unga qandayvaj ko'rsataman?» – deydi. I.Rahim. Ixlos. Qurbon ota oyog'ini tirab turib oldi. Oraga Novikova tushgandan keyin, nihoyat murosaga kelishdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Qimorboz eri bugun unga yoqmay qolgan bo'lsa, besh yil avval oyog'ini yerga tirab, hayo pardasini yirtib tashlab, «Men Azimjon akamni xohladim, yaxshi ko'raman, tegmasam – o'laman», – degani yolg'on ekan-da? M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Murodovaga ma'qul. Ammo Zunnunov ikki oyog'ini tirab turibdi. Siz xo'p desangiz, masala hal. I.Rahim. Ixlos. E! Siz hali javobgarlikdan qo'rqib oyoq tirayapsizmi? S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Narx-navo har kun tom bo'yi sakrab turibdi. Oyoqni nechog'liq tirang, oq podshohning urushi bitguncha narx oshaveradi. Oybek. Qutlug' qon. «Kuch bo'lindi, paxtaga o'z vaqtida ishlov berolmaymiz, hosil kamayadi», – deb turib oldingiz. S.Nazar. Yashil boyluk.

oyog'(i)ni tirab turib olmoq: oyog'(i)ni tirab olmoq

oyog'(i)ni tirab turmoq: oyog'(i)-ni tirab olmoq

OYOG‘(I)NI TORTMOQ *kim?* [o‘zining] qayerdan? borib yurgan yeriga bormay qo‘ymoq.

U qamalgan kundan beri oyog‘ini tortgan, hatto ko‘chib ketganlar ham keldi. S.Yunusov. Kutilmagan xazina.

OYOG‘(I)NI UZATMOQ *kim?* [o‘zining] qazo qilmoq. Varianti: **oyoqni uzatmoq** *kim?*; **oyog‘(i)ni yozmoq 1** Sinonimi: **dunyodan ketmoq** *kim?* **dunyodan o‘tmoq 2** *kim?* **ko‘z(i)ni yummoq** *kim?* [o‘zining]; **nafasi tindi kimning?;** **engak tashlamoq** *kim?* Antonimi: **dunyoga kelmoq 1** *kim?* ba‘zan nima? (jonli)

O‘zimga o‘xshash faqir, mehnatkash bir yigit bo‘lsa, men ham qarigan chog‘imda oyog‘imni bemalol uzatardim. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Bo‘lar ish bo‘ldi, endi ayting, ishqilib oyog‘ni uzatib qolmaylik!* M.Muhammedov. Kichik garnizon. *Sening g‘aming ... qizim. Shu ilinchig‘imdan xalos bo‘lsam edi, oyog‘imni bemalol-roq yozardim.* I.Rahim. Ixlos.

OYOG‘(I)NI UZMASLIK *kim?* [o‘zining] qayerdan?

OYOG‘(I)NI YERGA TEGIZMAY [kimning?] zudlik bilan.

O‘shanda o‘qariq urib ketib, bir tanobcha yerni suv bosib ketgan edi. Mirazim oyog‘imni yerga tegizmay boy oldiga haydab keldi. S.Abdugahhor. Mirtolib ota. *Bu mashmashadan xabardor bo‘lgan podsho odamlari Kimsanning oyog‘ini yerga tekkizmay podsho oldiga olib bordilar.* S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan.

oyog‘(i)ni yerga tekkizmay: oyoq‘(i)ni yerga tegizmay

oyog‘(i)ni yerga tiramoq: oyoq‘(i)ni tirab olmoq

oyog‘(i)ni yozmoq I: oyog‘(i)ni uzatmoq

oyog‘(i)ni yozmoq II: oyog‘(i)ning chigilini yozmoq

oyog‘(i)ni chakki bosmoq: qadam(i)ni chakki bosmoq

oyog‘(i)ning olti bo‘lishi: oyoq‘(i) olti, qo‘l(i) yetti

OYOG‘(I)NING CHIGILINI YOZMOQ *kim?* [o‘zining] uzoq o‘tirgandan keyin biroz yurmoq. Varianti: **oyog‘(i)ni yozmoq II.**

Ukalarim, singillarim, endi oyoqlaringizning chigilini yozinglar. S.Anorboyev. Oqsoy. *Ibrohimov oyog‘ini yozgani o‘rmidan turdi.* A.Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari.*

OZ BO‘LMASA yana ozgina qo‘yib berilsa.

– *Birgina qaltis haziling tufayli oz bo‘lmasa shunday qadrdonimdan ayrilar edim, sal fikr yuritmaysanmi, axir.* Gazetadan.

OZIQ BERMOQ *nima? nimagaga?* o‘shisini, takomillashuvini zarur kuch bilan ta‘minlamoq.

Bilim mana shunaqa past maqsadlarga oziq bermasligi uchun kishining yana bir zo‘r ildizi bo‘lishi kerak. P.Qodirov. Uch ildiz.

OZOR BERMOQ *kim? yoki nima? kimga? yoki nimaga?* ruhan ezilishiga sababchi bo‘lmoq. Sinonimi: **ozor yetkazmoq** *kim? nimaga?*

Beri kel, qizim, senga ozor berdim, ko‘nglingni ranjitdim, gunohkorman, meni afv et. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *U ham birovning diliga ozor bergan bola emas.* Sh.Rizo. *Qor yog‘di, izlar bosildi. Ko‘chadan ketayotgan avtomobil birovni bossa yoki tur-*

tibmi, yiqitibmi, unga ozor bersa nima bo'ladi? A.Qahhor. Sinchalak. *Boya, kelinoyisi gapning uchini chiqargan paytda faqat bema'ni bir narsa bo'lib tuyilgan bu yangilik Ruzvon xolaning nolasidan keyin boshqa bir ma'no kashf etib, diliga ozor bera boshladi.* O.Yoqubov. Tilla uzuk.

OZOR TOPMOQ *nima? nimadan?* ruhan ezilmoq. Sinonimi: **ozor yemoq kim? kimdan?**

Buning ustiga, Hadyaxonning dili ozor topgani esimga tushib, ishtaham taqa-taq bo'g'ildi-qo'ydi. I.Rahim. Hilola.

OZOR YEMOQ *kim? kimdan?* ruhan ezilmoq. Sinonimi: **ozor topmoq nima? nimadan?**

«Kerak emas! – dedi qiz o'zining bu savolidan cho'chib. – O'zi bilan o'zi bo'lib ketaversin, mendan ozor yeganga o'xshab hadeb mung'ayib qarayvermasa bo'lgani». P.Qodirov. Uch ildiz.

OZOR YETKAZMOQ *kim? nimaga?* ruhan ezilishiga sababchi bo'lmoq.

Sinonimi: **ozor bermoq kim? yoki nima? kimga? yoki nimaga?**

Singlisi Jamilaxon ham opasining ra'yidan, maylidan tashqari biron narsa qilib, Hamidaxonning ko'ngliga ozor yetkazmagan edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

OZOR CHEKMOQ *kim? nimadan?* ma'lum muddat ruhan ezilish holatida bo'lmoq.

Dilbar yerga tikilib sekin gapirar ekan, uning ham ko'ngli g'ash ekani, u ham yangi yil kechasida birga bo'lolmasligimizdan ozor chekayot-

ganini payqab turardim. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida. *Farida endi bu sirni ko'ksiga kirib qolgan zangli bir oskolkaday ozor chekib ko'tarib yurardi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

OG'IR BOTMOQ *nima? kimga?* adolatsiz deb bilgani uchun malol kelmoq. Varianti: **ko'ngli(i)ga og'ir botmoq nima? kimning?** Sinonimi: **qattiq tegmoq nima? kimga? qattiq botmoq nima? kimga? ayil botmoq nima? kimga?**

Bu gap Umaraliga juda og'ir botdi, hurmatsizlik bo'lib tuyuldi. I.Rahim. Ixlos. *Baraka boboning istehzoli kulishi Matlubaga og'ir botdi.* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Og'zingizga qaramay gapiraverasizmi?! Nega menga og'ir botmas ekan. «Kelgindi» degan so'zning mag'zini chaqib ko'ring-chi avval.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Bir kuni molidan xabar olgani kelib qoldi. Xuddi sen yotgan joyga o'rin solib berdim. Oyoq tomoniga, yangi bostirilgan oq namatim bor edi, shuni yopdim. «Nopok kigizingni yopding, tahoratimni buzding», – deb jerkib, namatni tepib tashladi. Ko'nglimga og'ir botsa ham, indamadim.* S.Anorboyev. Oqsoy. – *Juda soz. Ko'p odamlar shunday qilishadi. Lekin cholga og'ir botmasmikan? – dedi.* Oybek. Qutlug' qon.

OG'IR KARVON shoshilmay, bama'ylixotir ish qiladigan, sustkash.

«Yo'q, menga sira o'xshamaydi, – dedi Sharofatbibi shikoyatlangan holda.– Og'ir karvon u. Yonimizdagi kinoga ham ahyon-ahyonda bir chiqadi. Kitobga tikilib xayol sur-

gani-surgan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Og'ir karvon bo'lmay keting, oxirini aytasangiz-chi, oxiri nima? bo'ldi? S.Anorboyev. Tashvish.

OG'ZI OCHILMOQ [ayzi açil=] tar. *kim?* hayron qolmoq.

Ochilsa la'lingiz shakkar sochilur; Ko'rib gulg'unchani og'zi ochilur. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

OG'IZ OCHMASLIK [ayiz açma=] tar. *kim?* gapirmaslik.

Sen shunday ovozlisan ki, og'iz ochmay jim o'tirsang bizga yoqadi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

OG'ZIN SHIRIN QILMOQ [ayzin širin qil=] tar. *kim? kimning?* tilini qisq qilmoq, og'zini moylamoq.

Gar achi so'zin eshitmagayin deresang, Ehson bila qil hamisha og'zin shirin. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

OG'IR OYOQ homilador.

«Matlubaxon, yaxshi emas, nega o'zingizni ehtiyot qilmaysiz, – xafa bo'lib stulga avaylab o'tqazdi uni Bekniyoz, – har qalay... – u shivirladi, – og'ir oyoqsiz...» S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

OG'IR TABIATLI o'zini sipo tutadigan, bo'lar-bo'lmasga hovliqib keta bermaydigan.

Byuro a'zoliciga saylanganlar orasida Nasiba ham bor edi. Mening u haqdagi fikrim ham ana o'shanda, birga ishlay boshlaganimizda o'zgaradi, chunki Nasiba g'ayratli, ishchan, tashabbuskor bir qiz bo'lib chiqdi. Men «U mag'rur emas, shunchaki og'ir tabiatli, bosiq bir qiz ekan-da» degan xulosaga keldim. O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

OG'IR(I) YENGIL BO'LDI *kimning?* – **OG'IR(I)NI YENGIL QIL-**

MOQ *kim? kimning?* mashaqqatdan ozmi-ko'pmi xalos bo'lmoq.

Rauf Ibrohimov borgandan beri og'iringiz ancha yengil bo'ldi, lekin, shundoq bo'lsa ham, ish ko'p. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Iloji bo'lsa-yu, yonida birga ishlasa, og'irini yengil qilsa... S.Zunnunova. Gulxan. Quruq tomoshabinday qarab turmasdan, qo'lidan kelgancha ularga yordam berishga, og'irini yengil qilishga harakat qilar edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

og'ir(i)ni yengil qilmoq: og'ir(i) yengil bo'ldi

OG'IRLIG(I) TUSHDI *kimning? kimga?* malol keladigan ortiqcha ishtashvish bo'lmoq.

Men Marusyaga tayinlab qo'ydim, ertadan boshlab [o'glingni] bog'chaga ber. Har kuni ertalab ishga ketayotganingda eltib qo'yasan, qaytishda olib ketasan. Shundoq qilsang, o'zingdan boshqa hech kimga? og'irligi tushmaydi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Nega onasi unga doim erga teg deyaveradi? Qizining og'irligi tushdimi? I.Rahim. Ixlos.

OG'IZ BOG'ICHLARI BIR QARICH QOCHDI *kimning?* yoqib tushganidan lab-lunji yalpayib ketdi.

Iqbol deganda o'sha qishloq yigitlarining quloqlari ding bo'lib, og'iz bog'ichlari bir qarich qochadi. S.Abdulla. Iqbol.

OG'IZ JUFTLAMOQ *kim?* gapirishga hozirlanmoq. Varianti: **og'z(i)ni juftlamoq** *kim?* [o'zining]. Sinonimi: **lab(i)ni juftlamoq** *kim?* [o'zining]; **og'iz rostlamoq** *kim?*

«Bu – mening ishim, aralash-mang» demoqchi bo‘lib og‘iz juftlayapsiz-u, aytishga andisha qilyapsiz, sezib turibman. R.Fayziy. Tosh oyna. Bizga ko‘zi tushib, bir narsa demoqchi bo‘lib og‘iz juftlaganida, Golovin uning so‘zini bo‘ldi. M.Muhamedov. Qahramon izidan. Bir narsa aytmoqchi bo‘lib og‘izimni juftlab turgan edim, telefon jiringlab qoldi. Oydin. Uyaldi shekilli, yerga qaradi.

OG‘IZ KO‘PIRTIRMOQ kim? ko‘p va maqtanib gapirmoq. Varianti: **og‘z(i)ni ko‘pirtirmoq** kim? [o‘zining] (oz ishlatiladi)

Qudratga nasha qilgan narsa, Rahimning qilg‘idan ko‘ra, Qo‘zi-boyning og‘iz ko‘pirtirishi edi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar. Ahmoq majlis chaqirib, «Ishga ichib keladi, ... intizomsiz. Barcha ma‘muriy choralarni ko‘rib bo‘ldik, endi haydash qoldi», – deb og‘iz ko‘pirtirib va‘zxonlik qildi. Boshqa gapirsa, indamas edim. Men uni do‘st deb yursam, ilonning yog‘ini yalagan kazzob ekan! S.Abdughahhor. Gap norda emas.

og‘iz ochilibdi: og‘z(i)ni ochmoq

og‘iz ochirmaslik: og‘iz ochmoq

OG‘IZ OCHMOQ kim? kimga? nima haqda? yoki kim haqda? gap boshlamoq. Varianti: **og‘iz ochirmaslik** kim? kimni? **og‘z(i)ni ochmoq II** kim? [o‘zining] kimga? **og‘z(i)ni ochirmaslik** kim? kimning? nima haqda?

«Bilaman, bunaqa maqtov Parpi-voy akaning o‘ziga ham yoqmaydi. Birov uni maqtasa, g‘o‘ra olcha yegandek aftini burishtiradi». – «Hamma ham shunaqa emas-da, uka, ba‘zi ... borki, tanqiddan og‘iz ochsang, naq tavba qilguningcha yoqalashadi».

S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Chamasi, ikkimiz o‘tirganimizda bekinib gapimizni eshitgan. Men hammaga ovoza qilib yurmasin deb voqeani aytdim va zinhor birovga bu haqda og‘iz ocha ko‘rmang deb qayta-qayta iltimos qildim. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil. Na ona, na qizlar ota oldida Ahmad haqida og‘iz ocholmas edilar, u jerkib tashlar edi. Uning zahridan, qovog‘idan qo‘rqib, churq etmas edilar. Oybek. Nur qidirib. Uning boshlig‘i haqida lof-qof tarqagan edi: Rahmonqulovni og‘iz ochirmasmish, buyruqlarini bekor qilibdi...A.Muxtor. Tug‘ilish. Adolatning tili qisiq. Qani endi og‘zini ochib ko‘rsin-chi, o‘sha joyda tishlarini qoqib oladi. I.Rahim. Chin muhabbat. Xo‘p, hozircha hech kimga og‘zingni ochma. Uzoq to‘yga oldindan nog‘ora qoqish yaramaydi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Ishqdan og‘zim ochirmas edi ham rashkdan ko‘zim. Boqmadi, oldi qasosim behayolardan ko‘zing. S.Abdulla. Ko‘zing.

OG‘IZ ROSTLAMOQ kim? gapirishga hozirlanmoq. Sinonimi: **og‘iz juftlamoq** kim? **lab(i)ni juftlamoq** kim? [o‘zining].

Haydar ota shuni so‘ray deb endi og‘iz rostlagan edi, kampirga ko‘zi tushib qoldi. A.Qahhor. Asror bobo. Sekretar nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz rostlaganda eshik ochilib, so‘zi og‘zida qoldi. A.Qahhor. Sarob. Nizomiddinov esankirab qoldi, ikki-uch marta og‘iz rostlab, hech narsa deymadi. A.Qahhor. Munofiq.

OG‘IZ SOLMOQ kim? 1 kimga? qayliq yoki kuyov qilish niyati borligini aytmoq.

Bazzoz uning o'ziga emas, o'n yettiga kirib borayotgan sohibjamol qiziga, ya'ni Kifoyatxonning onasiga og'iz solgan ekan. A.Qahhor. Sinchalak. Nasibaga og'iz soluvchilarga avvalgidek: «Ayttirib qo'ygani bor, u armiyadan eson-omon qaytib kelsa, to'yi bo'ladi», – degan javobni qaytaradi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Sodiqjonning o'qishi tugab qolganini eshitib, qarindosh-urug'imizda men kuyov qilaman deganlar ham topilib qoldi. Anavi Xolposhshani aytmay-sizmi, o'sha ham bir-ikki og'iz soldi, parvo qilmadim. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

2 nimaga? g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirishga harakat qilmoq.

«Idoradan mehnat kuni qirqishni Hilola chiqargan. Eng avval ... boshlar emish...» – «... mehnat kuniga og'iz solayotganini o'zingdan eshitdim. Menga bu haqda og'iz ham ochgani, yo'q». I.Rahim. Hilola.

og'iz tanobi qochib: og'z(i)ning tanobi qochdi

og'iz-burn(i)ni moylamoq: og'z(i)-ni moylamoq

OG'IZ-BURUN O'PISHMOQ
kim? kim bilan? apoq-chapoq bo'lib ketmoq.

U tilmochlik qilib yurgan kezlarda shaharning kazo-kazolari bilan og'iz - burn o'pishib qoldi. S.Ahmad. Hukm.

og'izdagi oshni oldirmoq: og'z(i)-dagi osh(i)ni oldirmoq

og'izdan tushmaslik: og'z(i)dan tushmaslik

og'izdan chiqarmaslik: og'z(i)-dan chiqarmaslik

og'izga kelgan: og'z(i)ga kelgan
og'izga olinmoq: og'z(i)ga olmoq
og'izga olmaslik I: og'z(i)ga olmaslik I

og'izga olmaslik II: og'z(i)ga olmoq

og'izga olmoq: og'z(i)ga olmoq

og'izga qarab: og'z(i)ga qarab

og'izga tushmoq: og'z(i)ga tushmoq

OG'Z(I) BILAN YURMOQ
kim? [o'zining] bo'lar-bo'lmas, bema'ni gaplar gapirmoq.

Bu vaqtda odamlar og'zi bilan yuradigan bo'lib ketgan. Ko'chamizdagi og'zi bilan yuradigan boyvachchalarning dastidan ketib qutulmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

OG'Z(I) BO'SH [kimning?]
ko'rgan-bilganini sir saqlay olmaydigan, birovga aytib qo'yadigan. Varianti: **og'z(i) bo'shligi kimning?** Antonimi: **og'z(i) mahkam** [kimning?]

Sadr va uning o'rtoqlari ertalab masxaralari chiqqandan beri achchiq qilib yurishar, karta o'ynaganlari haqida «ayg'oqchilik» qilganni qidirishardi. Nihoyat, og'zi bo'shroq Shavkatdan gumonsirab, obedda uni bir chetga olib chiqib ketishdi. P.Qodirov. Uch ildiz. To'lamat mo'ylov uyiga kirgandan so'ng xotiniga: «Qiz tarbiyalashni bilasanmi-yo'qmi? Og'zi bo'shlar ko'rsa, nima deydi!» – deb siyosat qildi. S.Anorboyev. Oqsoy. Saidiyning og'zi bo'shligi, shoshqaloqligi xavf keltiradigan bo'lsa, qo'mita a'zolari aytganday, o'z ustida bir mas'uliyat his qilganidan keyin tuza-ladi, quyuladi. A.Qahhor. Sarob.

OG'Z(I) BORMADI kimning? nima qilishga? biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmaslik. Sinonimi: **til(i) bormadi** kimning? nima qilishga?

Ana shunda otasiga istagini aytmoqchi bo'ldi, lekin tortindi og'zi bormadi. Kuzdan boshlab yana eski maktabiga yubordilar. Birinchi kuniyoq, Dilshod chidayolmadi. Bu Olga Petrovnaning maktabi oldida chindan ham otxonaga o'xshardi: qorong'i, iflos, shovqin, sassiq, yana nima balolar! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. G'oz, o'zi gapirishga og'zi bormay, «Sen gapir» degandek Umaraliga qaradi. I.Rahim. Ixlos.

OG'Z(I) BO'SHAMADI kimning? nima qilishdan? tinmay gapirish bilan band bo'lmoq.

Chol esa to ko'zlari uyquga ketguncha Xolmirzaning azamatligi, odamshavandaligini ta'riflashdan og'zi bo'shamadi. H.Nazir. Odamning qadri.

og'z(i) bo'shligi: og'z(i) bo'sh

OG'ZI KATTA – KATTA OG'IZ 1 soxta kibr-havoli; maqtanishni yaxshi ko'radigan.

Qo'chqor firqaga o'xshagan og'zi kattalarga «Ha, seniki ma'qul» deb qo'yib, savdo qilavermaydimi! S.Anorboyev. Oqsoy. Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy, o'z xotininin katta og'iz va betamizligiga achchiqlanib, yuzini teskari burdi. Oybek. Qutlug' qon. Qaynatalari Gulnorga uylanish niyati ular uchun katta motam bo'ldi. Chunki ular katta og'iz, butun ro'zg'or, mol-mulkka o'zini yagona xo'jayin hisoblagan, o'ziga izzat va hurmatni benihoyat

talab qilgan qaynanadan yaqinda qutulib, uy ichida o'zlarini endi bir daraja mustaqil seza boshlagan edilar. Oybek. Qutlug' qon.

2 imtiyozli mavqega ega (kinoyali)

Oxiri uydagilar ko'nishdi-yu, qishloqdagi bir-ikkita og'zi kattalar aslo bo'lmaydi deyishibdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

OG'Z(I) KUYDI kimning? nima qilib? o'ylab ish tutmaganligi tufayli yomon ahvolga tushib qolmoq. Varianti: **og'z(i) kuyganligi.**

Tag'in ko'nglingga bir gap olmagin. Sani bir marta erga berib, og'zimiz kuygan. Shundog'bo'lsa ham, aytamanda. Yoshsan, ayni o'ynab-kuladigan chog'ing... Mirmuhsin. Jamila. Lekin bunday muomala qilganda bir marta xotin kishiga ola qarab og'zi kuyganligi ko'nglining ko'chasidan ham o'tmas edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

og'z(i) kuyganligi: og'z(i) kuydi

OG'Z(I) MAHKAM kimning? ko'rgan-bilganini sir saqlay oladigan, birovga aytib qo'ymaydigan. Antonimi: **og'z(i) bo'sh** [kimning?].

«Brigadir deganingiz... og'zi mahkammi?» – «Bu tomondan shubham yo'q, mana to'rt yildan buyon changini chiqarmaydi». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

og'z(i) moylandi: og'z(i)ni moylamoq

OG'Z(I) MUHRLI BO'LDI kimning? – **OG'Z(I)GA MUHR BOSMOQ** kim? kimning? nimanidir? hech kimga gapirmaydigan bo'lmoq.

Avvalo, g'alva-g'ulva qilma, nihoyat pinhon tut, xufiya ish qil, hech kim bilmasin, og'zing muhrl bo'lsin.

Oybek. Nur qidirib. *Men shunday qarorga keldim: bugun biz xayrlashaylik! Biz bu bilan og'izlariga muhr bosamiz-da!* Oybek. Nur qidirib.

og'z(i) ochildi: og'z(i)ni ochmoq I

OG'Z(I) OQQATEGDI kimning? sut beradigan hayvonga ega bo'lmoq.

Tunov kun Alim buvaning g'unajinini o'lponga olib chiqib ketishdiyu! Hech bo'lmasa qariganimda og'zim oqqa tegsin deb, po'palab boqib yurgan edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

OG'Z(I) OSHGA YETDI kimning? ish-faoliyati evaziga topgan tutganidan bahramand bo'lmoq. Varianti: **og'z(i)ga osh yetdi.**

Qani endi u hozir yonida bo'lsa, yurt tinchigan, dehqonning og'zi oshga yetib, ro'zg'origa baraka kirgan vaqtlarni ko'rsa. S.Ahmad. Hukm. *Bir vaqt baxtiyor bo'lib, Qo'shrobdning bir uzoq qishlog'ida magazinchilik qildim. Endi og'zimga osh yetganda: «Tosh-tarozidan urding», – deb qamab yuborishdi.* S.Nazar. Yashil boylik.

OG'Z(I) QULOG'(I)GA YETDI kimning? behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmaslik. Sinonimi: **og'z(i)ning tano-bi qochdi kimning? bosh(i) ko'kka yetdi kimning? teri(si)ga sig'may ketmoq kim? [o'zining] qo'y(i) mingga yetdi kimning?**

«Issiq nonni oldin yeb ko'raylik keyin maqta, kuyov!» – deb gap otdi To'lamat mo'ylov. «Ha, to'g'ri, keyin birgalashib maqtaymiz!» – deyishdi hammalari. Suvonjon og'zi qulog'iga

yetib qichqirdi: «Suluv! Noning pishdimi?» – «Uzyapma-an, hozir»,– Oysuluv o'zi yopgan nonlariday larsillab qallig'iga kulimsiradi. S.Anorboyev. *Oqsoy. Besh minutchadan keyin adyutant nima uchundir og'zi qulog'iga yetib chiqdi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

OG'Z(I) QULOG'IDA kimning? nihoyatda xursand. Sinonimi: **bosh(i) osmonda kimning? do'ppi(si) osmonda kimning?**

Shodmon otaning og'zi qulog'ida: uch kam yetmishga kirganda nevara ko'rdi! H.Nazir. *Ko'rmana. Bu narsa menga juda yoqib tushdi. Og'zim qulog'imda.* G'.G'ulom. *Yodgor. U, juda katta ishni bitirib kelganday, og'zi qulog'ida bo'lib, nuqul sement to'g'risida gapirar edi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

OG'Z(I) SUV OCHDI kimning? til osti bezlari mo'l-ko'l so'lakay ishlab chiqardi. Sinonimi: **og'z(i)ning suvi keldi 1 kimning?**

Ko'm-ko'k barglar orasida tizilib, g'uch-g'uch bo'lib, oftobda sadafdek yarqirab turgan tutni ko'rib, juvonning ham og'zi suv ochdi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Zokir garde-robga poxol shlyapasini topshirayotganda yoqimli piyozdog' dimog'iga urilib, og'zi suv ocha boshladi.* P.Qodirov. *Uch ildiz.*

OG'Z(I) TEGDI kimning? nimgaga? biroz tatib ko'rmoq.

«Oyi, juda qiziq odatingiz borda, shundan shunga erinmay og'iz olib kelibsiz-a!» – dedi. «Ilindim-da, qizim, Olaniki, og'zing tegsin dedim.» S.Abduqahhor. *Ola sigir. «Kel-*

yapti»,- deb sevindi G‘ozi va qozonga yugurdi. O‘choqqa mayda tarashalar-dan tashlarkan, «Umar ... Murodo-vani ham boshlab kelyaptimikin?» – deb o‘yladi. «Mening oshimga bir marta og‘zi tegsa, kifoya». I.Rahim. Ixlos.

og‘z(i) yumildi: og‘z(i)ni yum-moq

OG‘Z(I)DA DOSTON BO‘L-MOQ kim? kimning? kishilar orasida ko‘p tilga olinib, mashhur bo‘lmoq.

Majlisda hammani og‘ziga qarat-gan, g‘ayrati, mehnati bilan ishxona-sidagilarning og‘zida doston bo‘lgan bir yigit bu qizning oldida o‘zini chu-molidek ojiz sezar edi. S.Zunnunova. Chinnigul.

OG‘Z(I)DAGI OSH(I)NI OL-DIRMOQ kim?[o‘zining] kimga? o‘ziniki bo‘lishi aniq narsani ham o‘zganing ixtiyoriga berib qo‘ymoq. Varianti: **og‘izdagi oshni oldirmoq** kim? kimga?

Ahmad ilgari shunaqa edi, gapi-ni eplab gapirolmas, og‘zidagi oshi-ni oldirib yurardi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar. Bu nima og‘izdagi oshni birovga oldirish? Bo‘yraday joyga sholg‘om ekan odamga ham suvmi! Oybek. Qutlug‘ qon.

OG‘Z(I)DAN BODI KIRIB, SHO-DI CHIQADI kimning? beadab so‘z-lar bilan so‘kinmoq.

U – serjahl odam. Sal narsaga ranjiydi, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadi. Oybek. Quyosh qoraymas. Ota uning kayfi borligini va hozir uning og‘zidan bodi kirib, shodi chi-qishini bildi-yu, yuzini teskari o‘girib o‘tib ketdi. S.Ahmad. Kuyov.

OG‘Z(I)DAN BOL TOMADI kimning? shirinsuxan bo‘lmoq, shi-rinsuxanlik qilmoq.

Ilgari bilmaganini o‘rgatar, ko‘r-satar edi. So‘zlaganda og‘zidan bol tomar, yuzlaridan tabassum so‘nmas edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Ostonaqul Mirzakarim to‘g‘risida hamon og‘-zidan bol tomib gapirar edi. S.Abdu-qahhor. Gap norda emas.

og‘z(i)dan gap(i)ni olmoq: gap(i)-ni og‘z(i)dan olmoq

OG‘Z(I)DAN GULLAMOQ kim? [o‘zining] nojo‘ya, noo‘rin gaplarni gapirmoq.

Mahalla-ko‘ydagilar bo‘lsa, bu xa-bar boshlab eshitilganda, hamma og‘iz-laridan gullab, Shokir akani bosh ko‘-tarib yura olmaydigan qilgan edilar. G‘.G‘ulom. Qizaloq. «Og‘zidan gul-ladi ... Hammamizni chalpib chiqdi... Bir o‘ziga bino qo‘ygan, suyagi yo‘q shaloq ekan. «Nigora meni seva-di, bilaman, – deydi. Ammo men uni sevmayman, chunki uning dadasi...» – «Bas! – Nigora sapchib o‘rnidan turdi. – Suyunchi olgani keldingizmi? Rahmat sizga!» S. Anorboyev. Oqsoy.

og‘z(i)dan ona sut(i) ketmagan: ona sut(i) og‘z(i)dan ketmagan

OG‘Z(I)DAN QO‘YMASLIK kim? [o‘zining] kimni? yoki nimani? doim, takror-takror gapirmoq, eslab turmoq.

«To‘rt oyda o‘tishi lozim bo‘lgan tajribani bir oyda bajarib qo‘ydi. Endi parovozni mensiz o‘zi hayday-di». – «Bola-chaqangizning orzusini ko‘ring, otalik qildingiz. O‘zi ham sizni og‘zidan qo‘ymay gapiradi». Oydin. Eryurak. Yodgoringning ham tili chiqib qoldi: «dada-dada»ni og‘-

zidan qo'ymaydi. G'.G'ulom. Yodgor. *O'rtoqlaring seni judayam yaxshi ko'rar ekan. «Zuhra-Zuhra» deb og'izlaridan qo'yishmaydi. Meni o'shalar yuborishdi.* S.Zunnunova. Yangi direktor.

og'z(i)dan so'z(i)ni olmoq: gap(i) ni og'z(i)dan olmoq

og'z(i)dan so'z(i)ni yulmoq: gap(i)ni og'z(i)dan olmoq

OG'Z(I)DAN TUSHMASLIK nima? kimning? mudom aytilib, gapirilib turmoq. Varianti: **og'izdan tushmaslik nima?**

Shundan keyin hammaning og'zidan Buxoro gazi tushmay qoldi. I.Rahim. Olovkor. *Hadeb «Xoldor», «Xoldor»!* «Xoldor» og'zidan tushmay qoldi. S.Anorboyev. Jasorat. *Xususan «Qalandar»dan so'ng jurnalda bosilgan «Olimning yosh chog'lari» degan hikoyasi har o'tirishda og'izdan tushmas edi.* A.Qahhor. Sarob. *Hatto dunyoning kengligini o'choq boshigacha deb bilgan, ostona hatlab ko'chaga chiqmagan xotinsizlar o'rtasida ham bu voqea og'izlardan tushmadi.* N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.

OG'Z(I)DAN CHIQUARMASLIK kim?[o'zining] nimani? zinhor aytmaslik gapirmaslik. Varianti: **og'izdan chiqarmaslik kim? nimani?**

Bu gapni menga aytding, o'rtoq, boshqa odamga og'zingdan chiqarma! Uyat bo'ladi... A.Qahhor. Sinchalak. *Buning evaziga eshitganlarini hech qayerda og'zidan chiqarmaslikka ahd qilib qo'ydi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Chunki erlari bu sirni hozircha zinhor og'izdan chiqarmaslikka buyurishgan edi.* Oybek. Qutlug' qon.

OG'Z(I)DAN CHIQIB, YOQA-(SI)GA YOPISHSIN! menga (senga) tilagan yomonligi o'zining boshiga tushsin (I shaxs egalik affiksi bilan ishlatilmaydi).

«Oxiratga munchalik hirs qo'ygan ekansan, boraver». – *«Og'zingdan chiqib, yoqangga yopishsin!»* A.Qahhor. Og'riq tishlar.

OG'Z(I)DAN CHIQQOQ nima? kimning? biror gapni aytib yubormoq.

Tasodifan aytilgan bo'lsa ham, shu gap mening og'zimdan chiqdi. I.Rahim. Hilola. *Samovar qaynab turgan edi, «Bitta choy damlang» degan gap og'zimdan chiqib ketibdi.* Baloga *goldim...* A.Qahhor. Sinchalak. *Bola bechorani unaqa ko'p uyaltiraver-mang! Bilmasdan og'zidan chiqib ketdi-da.* Til degan narsa shunaqa besuyak bo'ladi. S.Ahmad. Xotinlar.

OG'ZIGA (yoki TILIGA) BU-ROV SOLMOQ kim? kimning? gapirish imkoniyatidan, huquqidan mahrum qilmoq, gapirtirmay qo'ymoq.

– *Hunarmandlarning og'ziga burov solib qo'ymoq kerak ekan, – dedi u [xon] ko'zini chaqchaytirib.* M.Osim. Elchilar.

OG'Z(I)GA KELGAN [o'zining] daf'atan nimani aytish fikri tug'ilsa, shu. Varianti: **og'izga kelgan.**

Xullasi, sho'rlik Abutanbal to'g'risida «Alif laylo»ni yozgan kishi og'ziga kelgan mazammatni ayama-gan. G'.G'ulom. Tirilgan murda. Ha, *aytganday, bir kuni Haydar hoji bilan xo'p urishdi, og'ziga kelgan gapni qay-tarmadi.* A.Qahhor. Sarob. *Reviziya keldi deb og'izga kelganini aytavera-sizlarmi?!* S.Nazar. Yashil boylik.

OG'Z(I)GA KELGANINI BO'G'-Z(I)DAN QAYTARMAY [o'zining] daf'atan tiliga kelgan so'z-gapni aytishdan o'zini tiymay. Varianti: **og'z(i)ga kelganini**.

Onasi qizining ra'yini qaytarmadi. Eriga aytdi. Madaminxo'ja ham qarshilik qilmaydigan bo'ldi. Ammo u Maston kampirga og'iz ochdi-yu, baloga qoldi. Kampir sochlarini yulib dod soldi, og'ziga kelganini bo'g'zidan qaytarmay o'g'lini yomon haqorat qildi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Hovli yuzida atlas ko'ylagining yengini tirsagigacha shimargan Oyshaxon paydo bo'ldi. U jahlidan ko'karib ketgan, vajohatidan xuddi birov bilan yoqalashmoqchiga o'xshar edi. U oshxonada Mastonbibini ko'rgach, ko'prik u yoqda qolib, ariqdan hatlab o'tdi. «Bekorchi xo'ja bo'lib sizdan osh-non so'radimmi, tumonat ichida og'zingizga kelganini vaysabsiz?» S.Ahmad. Mastonbibi.

og'z(i)ga kelganini: og'z(i)ga kelganini bo'g'z(i)dan qaytarmay

OG'Z(I)GA KELMOQ nima? [kimning?] daf'atan nimanidir aytish fikri tug'ildi.

«Uyning ishi ham bir kishiga yetarli, – debdi xotini. – Kuniga ellik-oltmish chaqirim yo'l yuraman, oyog'im og'riydi...» Eri ishonmabdi. «Ishonmasangiz, o'lchab ko'ring», – degan ekan, oyog'iga spidometr bog'lab, kuni bo'yi xotining yonida yuribdi. Kechga borib qarasa, salkam yetmish kilometr yo'l yurib qo'yibdi... Bu, albatta, yangi chiqqan latifa... Og'zimga kelib qolgani uchun aytdim-qo'ydim. I.Rahim. Hilola.

OG'Z(I)GA KUCHI YETMAGAN [o'zining] bilib-bilmay gapirishdan o'zini tiya olmaydigan.

Aytgani shu bo'ldiki, xotinini juda sevar ekan. O'rtalarida biron ko'ngil qoladigan gap ham bo'lmabdi. «Bir borib ko'rsangiz, qanday bo'lar ekan?» – deganday qiluvdim, «Siz aytsangiz, borib kelaveraman-u, ammo og'ziga kuchi yetmagan ba'zilar boshqacha tushunishadi», – dedi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Ba'zi bir og'ziga kuchi yetmaganlar Saidg'ozini dunyoga hirs qo'ygan deyishadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

og'z(i)ga muhr bosmoq: og'z(i) muhrli bo'ldi

OG'Z(I)GA OLMASLIK I kim? [o'zining] nimani? umuman iste'mol qilmaslik. Varianti: **og'izga olmaslik I** kim? nimani?

«U yerda bu qurg'urni [aroqni] og'izga olmadik hisob», – dedi Sobir o'zini oqlashga tirishganday. – Odam qalin. Kunduzlari ishga shunday berilib ketasanki, kayf esingga kelmaydi». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Bizning bu cho'ldagi quduqlarning suvi sho'r, – dedi Qulmurod, – hali unisi xayrli, suvni o'zimizdan yarim tosh naridagi quduqdan tashiyimiz, ammo o'z qo'ramizdagi quduqning suvini sira og'izga olib bo'lmaydi». S.Ayniy. Qullar.

og'z(i)ga olmaslik II: og'z(i)ga olmoq

OG'Z(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] nimani? – **OG'Z(I)GA OLMASLIK II** kim? [o'zining] nimani? yoki kimni? gapirmoq – umuman gapirmaslik. Varianti: **og'izga olmoq**

kim? nimani? **og'izga olinmoq** nima? **og'ziga olmaslik II** kim? nimani? yoki kimni? Sinonimi: **tilga olmoq** kim? nimani? yoki kimni? nima? nimani?

U yerda bolalarni domlasi so'kmas ekan, bunday sassiq narsalarni og'ziga olishga jirkanar ekan. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Bu yilgi saylovda esa uning kandidaturasini hech kim og'ziga olmadi. S.Zunnunova. Birinchi qadam. ...ana u qilgan ahmoqchiligimiz to'g'ri bo'lib ketganini, Mehri bilan ora ochiq bo'lganimizni sizga aytaman deb sira mavridini topolmadim. Mavridini topganimda shu gapni yana og'izga olgani betim chidamadi. A.Qahhor. Sinchalak. Bu nom og'izga olinganda, birov achinish va hayrat bilan tanglayini taqillatsa, birov allaqanday gunohdan qo'rqqanday yuzini chetga o'girar, xotin-qizlarning esa tani jimirlab ketar edi. A.Muxtor. Opa-singillar. «..Dadamga tahorat suvi beradigan, erta-kech holidan xabar oladigan bir mo'min ma'qul zaifa topilsa, yaxshi bo'ladidi...» – «Ammo, mulla Hakim, man hali dedim-ku, boy otamning ko'ngli yosh. Ko'ngilni yana yosh qilmoqchilar, tushundingizmi? Tahorat suvi beruvchi ayolni og'izga olmang, inim». Oybek.Qutlug' qon.

OG'Z(I)GA OQ IT KIRIB, QORA IT CHIQDI [kimning?] har xil haqorat so'zlarini aytmoq.

Ismathoji boshida Xayri opani, keyin o'sha yerdagilarni qattiq urishdi. Hammasining kapalagi uchib bo'zrayishib qoldilar. «Yo'qollaring, ham-mangning basharang qursin!» – deb

og'ziga oq it kirib, qora it chiqdi. Oy-din. Yamoqchi ko'chdi.

og'z(i)ga osh yetdi: og'z(i) oshga yetdi

OG'Z(I)GA QARAB [o'zining] o'ylab («gapirmoq»). Varianti: **og'z(i)ga qaramay.**

«Og'zingga qarab gapir, – dedi Dadajon jahli chiqib, – menmi non tepki, senmi?» I.Rahim. Ixlos. «Eshitishga eshitgandirsan. Kelgindi deganingiz nimasi?» – «Hoy, nega sizga og'ir botdi-a?» – «Gapning gapdan farqi bor. Yetmish ikki narxi bor. Og'zingizga qaramay gapiravera-sizmi?! Nega menga og'ir botmas ekan. «Kelgindi» degan so'zning mag'zini chaqib ko'ringchi avval...» R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. «Nafsanbirini aytganda, opa o'sha yerda eringizdan yaxshi odam yo'q.

og'z(i)ga qaramay: og'z(i)ga qarab

OG'Z(I)GA QARAMOQ kim? kimning? **1** tinglamoq, nima deyishini diqqat bilan kutmoq.

Badalsho quchog'idagi qopni yerga qo'ydi. U hamma uning og'ziga qarab turganini, hatto «polvon ato» bilan «ako Qo'chqor» ham mahtal ekanini ko'rib hayajonlandi. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 o'z bilganicha ish qilmay, kimningdir ko'rsatmasini kutmoq.

«O'zingning kimligingni endi bildingmi,– dedi Dadajon unga o'g'irilib. – ... og'ziga qaraganing-qaragan. Yarimtasani». I.Rahim. Ixlos. Qiz hozir allaqaysi zavodning boshlig'i, zavodda ishlaydigan mingdan ortiq erkak, shular qatori eri ham o'shaning og'ziga qaraydi. A.Qahhor. Qizlar.

OG'Z(I)GA QARATMOQ *kim?*
[o'zining] *kimni?* nutqi bilan mahliyo qilib olmoq.

Gapga chaqqon, tetik xotin ediku! Bir gapirib, o'n kulardi, hammani og'ziga qarataradi. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Ko'sanamo bir kishi o'tirganlarni og'ziga qaratib nimadir hikoya qilardi. S.Ahmad. Hukm.

OG'ZIGA QATIQ IVITGAN *kim?* jim bo'lmoq, savol berilganda javob bermay, gapirmaslik ma'nosida ishlatiladi. (Oripova Zaxro Qashqadaryo viloyati, Shahrissabz shahri shevasidan).

Hoy qiz, og'zingga qatig ivitganmisan, bir nima de axir. So'zlashuv uslubi.

og'z(i)ga qoqmoq: og'z(i)ga urmoq

OG'ZIGA QULF SOLMOQ (yoki **URMOQ**) *1 kim? kimning?* gapirtirmay qo'ymoq, og'ziga urmoq.

Uning javobi barchaning og'ziga qulf soldi. Shuhrat. Shinelli yillar. 2 hech narsa deya olmaydigan qilib qo'ymoq.

Aldamchi, riyokor, g'alamis so'zin fosh etib, og'ziga qulf urgan sensan. Shuhrat.

og'z(i)ga so'k solmoq: og'z(i)ga to'lqon solmoq

OG'ZI(GA) TEGDI *kimning?* ye-yilmoq.

Erkak kishining og'ziga tegdimi.. Yuring, boqqa chiqamiz. N.Safarov. Sharq tongi. Olma, o'rik va shu kabi mevalar ham birin-ketin pishib, odamlarning og'izlariga tegdi. K.Yashin. Hamza.

OG'ZIGA TIKILMOQ *kim? kimning?* gap kutmoq (suhbatdoshidan, qarshisidagi kimsadan).

Biz bir zumda jimib, Hasan akaning og'zilariga tikildik. E.Raimov. Ajab qishloq.

OG'Z(D)GA TOLQON SOLMOQ *kim?*[o'zining] mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaqo qatnashmaslik. Varianti: **og'z(i)ga so'k solmoq.** Sinonimi: **mum tishlamoq** *kim?*

Majlisdagi og'ziga so'k solib o'tirgan Xoliqjon odamlar tarqalgandan keyin tilga kirib, ... nolib qoldi. H.Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

OG'ZIGA TUSHMOQ *nima? kimning?* ko'pchilik orasida gapirilmog; ma'lum-mashhur bo'lmoq. Varianti: **og'izga tushmoq** *kim?* yoki *nima?* Sinonimi: **tiliga tushmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?*

og'z(i)ni ochirmoq: og'z(i)ni ochmoq I

OG'Z(I)NI OCHMOQ I *kim?* [o'zining] – **OG'Z(I) OCHILDI** *kimning?* angraymoq. Varianti: **og'z(i)ni ochirmoq** *kim? kimning?* **og'iz ochilibdi** (–) (oz ishlatiladi).

Uning gapigap, seniki faqat maslahat, e'tiborga olsa-oladi, bo'lmasa – yo'q, og'zingni ochib qolaverasan. I.Rahim. Ixlos. Gapiraversa, og'zimiz ochilib qolibdi. Hammasini o'zi ko'rganday biladi-ya! P.Qodirov. Uch ildiz. Normatning nazarida, u, kimsan imom bo'la turib, ancha fuqaroparvar, shirinkalom, dilxush odam chiqdi. Shariat-tariqatdan gapirsa, birovning og'zini ochirib qo'yadigan bilimi bor. A.Muxtor. Opa-singillar. Tolikning bu qiligi sotuvchining ham og'zini ochib qo'ygandi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

og'z(i)ni ochmoq II: og'iz ochmoq

OG'Z(I)NI POYLAMOQ kim? kimning? biror fikrni o'zicha aytishini kutmoq.

Kampir hamon kelinining og'zini poyladi. Lekin kelindan hech bir hasrat qiladigan gap chiqmadi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi. Rosa uch yuz oltin kun og'zingni poyladim. «Ichimdan top» deb dimiqib yuraverding. I.Rahim. Ixlos. Churq etgan sas eshitilmas, jamoat nafas olmay, boboning og'zini poylayotgan edi. X.Do'stmuhammad. Jajman.

OG'ZINI (yoki TILINI) TIYMOQ I biror narsa deyishdan, gapdan o'zini tutmoq, gapirishdan to'xtamoq, og'ziga erk bermaslik.

Yigitcha... cholga dashnom berib borardi, og'zini tiyadiganga o'xshamaydi. «Mushtum». Hoy bola, tilingni tiy! Komila ham hazil bilan javobga hozirlandi-yu, yana tilini tiydi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 gapirtirmay qo'ymoq, gapirishdan to'xtatmoq, gapirmaslikka majbur qilmoq.

Og'zini tiyib qo'yolmaysizlarmi?! I.Rahim Ixlos. [Elmurod:] Ko'p alam o'tganidan tilim shunaqa yomon bo'lib qolgan. Xo'jayinlar urib-so'ksalar ham, tilimni tiya olmadim. P.Tursun, O'qituvchi.

OG'Z(I)NI TO'LATIB [o'zining] muhim bir ishni amalga oshirgan kishiday baralla.

Og'iz to'latib «muhabbat» deyishdan avval o'sha ko'nglingiz tushgan odam bilan ancha vaqt sinashta bo'ling, hamnafas bo'ling. A.Mux-

tor. Hayotga chaqiriq. Senlar bilgan narsa – o'choqboshi-yu ayvon, oyim supurgi-yu shiypon... Hiqq... Tag'in og'zingni to'latib gapirganlaring ortiqcha. S.Abduqahhor. Gap norda emas.

OG'Z(I)NI YEL YEMAYDI [kimning?] hech qanday noxushlik sodir bo'lmaydi; hech nima qilmaydi...

«Biror tuyaga bir-ikki yashik molni yoppa qildirib bor, yaylovda bir shabadalab kel, po'panak bosib yotaverma!» – desalar, og'izlarini yel yemaydi-ku. I.Rahim. Ixlos.

OG'Z(I)NI YUMMOQ kim? [o'zining] – **OG'Z(I) YUMILDI** kimning? gapirishini to'xtatmoq – gapirishdan to'xtamoq.


Bozorovdan boshqa kim bor qishloqda? Og'zingni yum, ishingni qil. I.Rahim. Chin muhabbat. Ey badbaxt! Yum og'zingni, bunday ig'vo tarqatma! S.Abdulla. Alpomish. Uyimga kelib, tuzimni yalab, eshigimdan yaltiroq to'n kiyib chiqsalar, hammaning og'zi yumiladi. Oybek. Qutlug' qon.

OG'Z(I)NING BIR CHEKASIDAN CHIQQMOQ nima? kimning? oson amalga oshadigan ishdek gapiravermoq.

Ikki yarim million aytmoqqa osonmi! Qanchadan-qancha tuyoqning puli-ya! Bardoshga balli. Shuncha pul yetishmaydi-yu, manglayi terlamaydi bularning!.. Ikki yarim million og'izlaringning bir chekkasidan chiqadi. I.Rahim. Hilola.

og'z(i)ning bog'ini qochirmoq: og'z(i)ning jilovi qochdi

OG'Z(I)NING JILOVI QOCHDI kimning? – **OG'Z(I)NING BOG'INI QOCHIRMOQ** kim? [o'zining] o'zi-



ni bo‘lar-bo‘lmas gaplarni aytishdan to‘xtata olmaslik. Antonimi: **og‘z(i)-ning tanobini tortmoq** kim? [o‘zining]

«Og‘zingning jilovi qochmasin, bola! Quloq solku, damingni yut», – To‘lamat qilib qilgan sho‘x yigitning yelkasiga qo‘l tashladi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Og‘zining bog‘ini qochirgan Marayim «xotin-qiz masalasida erishgan muvaffaqiyatlari» haqida yana ko‘p yolg‘on-yashiqlarni aytib charchadi.* Sh.Rizo. Qor yog‘di, izlar bosildi.

OG‘Z(I)NING SUVI KELDI kimning? 1 til osti bezlari mo‘l-ko‘l so‘lakay ishlab chiqardi. Sinonimi: **og‘z(i) suv ochdi** kimning?

Mana shu lazzatli taomlarning nomlarini tilga olib, bir huzur qilmoqchi edi, lekin og‘zining suvi kelib, palovga ham o‘tmasdan, sanoqni somsada tugatdi. M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

2 nimaga? erishish, ega bo‘lish tuyg‘usi uyg‘ondi. Varianti: **og‘z(i)-ning suvini keltirmoq** kim? kimning?

Oqsoyliklar ko‘rsin deb, ayniqsa Nigoraga og‘zining suvi kelib yurgan yigitlar ko‘rsin-u, bizlarni tinch qo‘yishsin degan maqsadda atayin Nigora bilan birga yurar edi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Hammaning: «O‘g‘ling bo‘lsa, shunday bo‘lsa koshki edi», – deb og‘zining suvini keltirib, havasini qo‘zg‘ovchi yagona bolaning sira-sira kutilmaganda to‘satdan bir baloga yo‘liqib qolishligi kishi ko‘ngliga qanchalik dahshat soladi.* N.Maqsudiy. Dunyoda nima shirin?

og‘z(i)ning suvini keltirmoq: og‘z(i)ning suvi keldi

OG‘Z(I)NING TANOBINI QOCHDI kimning? behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. Varianti: **og‘iz tanobi qochib (–)** (oz ishlatiladi, sun‘iy). Sinonimi: **og‘z(i) qulog‘(i)ga yetdi kimning? bosh(i) ko‘kka yetdi kimning? teri(si)ga sig‘may ketmoq kim?** [o‘zining] **qo‘y(i) mingga yetdi kimning.**

O‘rik domlaning kelini o‘g‘il tug‘ibdi Og‘zining tanobi qochgan. Bir joyda turolmaydi. S.Ahmad. *O‘rik domla. Murodovani ko‘rganda og‘zining tanobi qochadigan Zunnunov bugun haqiqatan ham xomush ko‘rindi.* I.Rahim. Ixlos. «Qosimjon akam bir vaqtlar piyozning shunaqa pishganini yaxshi ko‘rguchi edilar... Sizga ham yaxshi-a, acha, yumshoqqina?» – deb kuldi [La‘lixon]. – «Bo‘lmasam-chi... Aylanib ketay sendan, g‘amxo‘rim-san-da, g‘amxo‘r», – deya kampirning og‘iz tanobi qochib, nevarasini erkalagan bo‘ldi. Oydin. Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit.

OG‘Z(I)NING TANOBINI TORTMOQ kim? [o‘zining] o‘zini bo‘lar-bo‘lmas gaplarni aytishdan to‘xtatmoq. Antonimi: **og‘z(i)ning jilovi qochdi kimning? og‘z(i)ning bog‘ini qochirmoq** kim? [o‘zining].

«Yefim Danilovich!.. – Ergash hozir bu ajoyib odamni olovli qucho-g‘iga olishga tayyor edi. – Yefim Danilovich...» – «Og‘zingning tanobini tort, nachalnik», – dedi Yefim Danilovich uni sekin bir yoqqa boshlab. A.Muxtor. Opa-singillar.

OG‘Z(I)NING YELI kimning? hech qanday sarf-xarajatsiz, qiyinchiliksiz, gap bilan amalga oshadigan ish

«Qovunlarni uzsamman deb o'y-lab o'tiribman». – «Be... Zab erin-magansan-da... Ukalaring o'lganmi, «Shuni shundoq qil», – deb bir og'iz aytsang, og'zingning yeli. Kechgacha dunyo to'la ish tayyor». G'.G'ulom. Jo'rabo'za. Menimcha, siz ham aspi-ranturaga kirishingiz kerak. Dada-ngizning og'izlarining yeli, medinsti-tutda nima ko'p – og'aynilari ko'p. S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

«OG'ZING QANI?» – DESA, QULOG'(I)NI KO'RSATMOQ kim? o'taketgan noshud, merov, anqov.

O'qituvchi bog'dan kelsa, u tog'dan keladi: Sparta davlatini so'rasa, Spartak yurishlariga o'tib ketyapti. «Og'zing qani?» – desa, qulog'ini ko'rsatadi. H.Nazir. O'jar qizlar.

osh berildi: osh bermoq

OSH BERMOQ kim? kimga? to'y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o'tkazmoq. Varianti: **osh berildi** kimga?

To'y-to'kin kuni [tug'ilganman] degin. Iqboling baland bo'lar ekan. Bir hafta elga osh berilgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

OSHA PASHSHA TUSHDI ya-qin kishilar suhbatini nomaqbul kishi-ni kelishi bilan bo'lindi, buzildi.

«Esizgina, endi gaplasha boshla-gan edik-a. Oshga pashsha tushdi», – dedi Xolmurod boshini chayqab. P.Tursun. O'qituvchi.

oshih-toshih yotmoq: bosh(i)dan oshib yotmoq

OSH(I)NI OSHAB, YOSH(I)NI YASHAMOQ kim? [o'zining] umr-ni poyoniga yetay deb qolmoq, ko'p qismini yashab bo'lmoq. Varianti:

yosh(i)ni yashab, osh(i)ni oshamoq; yosh(i)ni yashamoq. Sinonimi: **yosh(i) bir joyga borib qoldi kimning? yosh(i) qaytib qoldi kimning?**

Saidg'uzi buzuq emish deb tuh-mat qilishsa, ko'pchilik ishonmasligi mumkin, chunki oshini oshab, yoshi-ni yashab qolgan bola-chaqali odam. S.Anorboyev. Oqsoy. «Anorxon, qi-zim, – dedi kampir, – yoshimni ya-shab, oshimni oshab bo'ldim. Ammo halqumimda birgina narsa tiqilib tu-ribdi... To'yingni ko'rsam deyman. Bi-soting yetarli. Ko'zimning tirikligida to'y qil, bolam». I.Rahim. Ixlos.

OSH-QATIQ BO'LMOQ kim? kim bilan? munosabatlari juda yaxshi bo'lmoq, do'stlashmoq, o'zaro yaxshi kelishmoq.

Uy egasi bilan ko'p ham osh - qa-tiq bo'lib o'tirmasa-da, negadir shu yerni xushlardi, o'z uyidek emin-er-kin, yayrab dam olardi... Sh.Bo'ta-yev. Qora tuman.

OSHIQI BEQAROR BO'LMOQ kim? shaydo bo'lib, maftun bo'lib, tinchligini yo'qotmoq.

Ikkita qilib o'rigan tim qora so-chini boshiga chambarak qilib olgan. Charosdek qora ko'zlari kulib turib-di. Mayda tishlari sadafdek yarqi-ramoqda. «Aytganlaricha bor ekan, – deb xayolidan o'tkazdi Umar. Berdi bekorga oshiqi beqaror bo'lmagan ekan...» I.Rahim. Ixlos.

OSHIQ'(I) OLCHI kimning? omad, yutuq uniki (meniki...)

Menimcha, ... bilan uning ora-sini buzish kerak. Butun gap shunda. ... uni yomon ko'rsatsak, bas, oshi-g'imiz olchi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

OSHIQ‘(I) OLCHI KELDI kimning? omadi kelib, ishi olg‘a bosdi.

Isoxonning oshig‘i olchi kelib turgan bir vaqtda uning arzandasiga kim ham qo‘l tekkizadi deysiz? N.Maqsudiy. Hayot lavhalari.

OSHIQ‘I TOVVA ishi yurishmagan, ishi pachava.

Nega mening oshig‘im tovva-yu, uniki olchi? Uning mendan nimasi ortiq? S. Anorboev, Oqsoy.

OCHKO‘ZLI [ač közli=] tar. kim? har narsaga ortiqcha hirs qo‘ygan.

...tursh yuzli, achi so‘zli, chirkin xulqli, yomon tirlikli, ko‘ngullar ozor qilinchi, och ko‘zli kimersa edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

OCH QORNIM, TINCH QULOG‘IM hech narsaga intilmasdan, mavjud holatning o‘ziga qanoat qilib yashash tarafdori ekanlikni bildiradi.

Yuqoridan ... qo‘ylarni mayin junli qil degan ko‘rsatma olmadikmi – olmadik! Planda yo‘qmi – yo‘q! Shunday ekan, topshirilgan vazifani bajar-ring! Ha, och qornim tinch qulog‘im... S.Anorboyev. Oqsoy.

ochilgan ko‘z(i): ko‘z(i)ni ochmoq

ochiq: yuzi ochiq

ochiq gap: gapning ochig‘i

OCHIQQO‘NGIL–KO‘NGL(I)
OCHIQ kimning? samimiy, g‘ayirlikni bilmaydigan. Varianti: **ochiq ko‘ngilli; ochiq ko‘ngil [ekan]lik.**

Hasan ovchi bu dilkash yigitning ochiq ko‘ngil bilan dardlashib o‘tirishidan juda huzur qilardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Uning ko‘ngli ochiq, sodda yigit ekanini bilib, bolalar birin-sirin yaqinlasha boshladilar.* Oy-

bek. Qutlug‘ qon. *Bu student juda ochiq ko‘ngilli yigit ekan, u o‘z turmushidan, o‘qishlarining borishidan va boshqalardan so‘zlar edi.* G‘.G‘ulom. Yodgor.

ochiq ko‘ngilli: ochiq ko‘ngil

OCHIQQO‘NGILLIK samimiylik; g‘ayirlikni bilmaslik. Varianti: **ochiq ko‘ngillilik.**

Lekin endi u suvratdagidek yuvosh, muloyim yigit emas, bundan ikki yil burungi ochiq ko‘ngillik, yaxshi niyat, samimiy do‘stlikdan butunlay yiroqlashgan, allaqanday mag‘rur begona bir yigit bo‘lib qolgan. J.Abdullaxonov. Albatta kut. *Salomat opa shoshib qoldi. Shunday ochiq ko‘ngillik bilan uyingga kirib kelib, otingni aytib ko‘rishgan notanish odamga nima deysan kishi.* A.Muxtor. Hayotga chaqiriq.

ochiq ko‘ngillilik: ochiq ko‘ngillik

ochiq ko‘ngil [ekan] lik: ochiq ko‘ngil

ochiq qo‘l: qo‘l(i) ochiq

ochiq qo‘l [li]: qo‘l(i) ochiq

ochiq yuz bilan: ochiq chehra bilan

ochiq yuz[li]: chehrasi ochiq

OCHIQQO‘NGIL CHEHRA BILAN yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan. Varianti: **ochiq yuz bilan.**

Matluba ichkariga tortinibroq kirdi: u Baraka bobo bo‘lgan gapni Xosiyatga aytgandir deb gumon qilgan edi. «Keling, kiravering, tortinmang! – dedi u ochiq chehra bilan. – O‘zingizning uyingiz, rosayam toliqqandirsiz?..» Bu so‘roq Matlubani tinchitdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

ochiq chehra[li]: chehrasi ochiq.



PALAGI TOZA urug'-aymog'i, avlodi va oila a'zolaridan ibrat olsa bo'ladigan; namunali, zotli.

[Po'lat] *Grexovning palagi toza emas.* N. Safarov. Sharq tongi.

PAND BERMOQ I kim? kimga? kamchiliklarini aytib, yaxshi bo'lishga undamoq, nasihat qilmoq.

Ba'zi o'rtoqlari pand bermoqchi bo'ladi: «O'tganning o'rog'ini, ketganining ketmonini olasan», – deyishadi. A.Muxtor. Janjalkash.

PAND BERMOQ II kim? kimga? aldab, zarar yetkazmoq.

Miyangni ishlat, hiyla bilan dushmanga pand ber. Uyg'un. Hayot qo'shig'i.

PAND YEMOQ kim? kimdan? aldanib, zarar ko'rmoq.

Ahmoqlar va qalloblarga quloq solsang, ana shunday pand yeysan. Oybek Oltin vodiyan shabadalar. *Mayna pand yeganini, qattiq pand yeganini sezdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

PANJA ORASIDAN QARAMOQ kim? nimaga? e'tibor bermay, sovuq-qonlik bilan yondashmoq. Varianti: **barmoq orasidan qaramoq.**

Bo'taboy aka ba'zan murosa yo'lini tutganda siz bunga barmoq orasidan qarayotibsiz. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

PANJA TUTMOQ [pänžä tut=] tar. kim? kim bilan? kurashmoq.

Arslon bilan panja tutmoq dag'i qilichqa yumruq urmoq oqillar ishi degul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

PANOH(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] kimni? homiylik qilmoq.


Besh bolalik bir ayolning Xolmu-rodga jon kuydirib, uni o'z panohiga olmoqchi bo'lgani to'g'risidagi gaplar Buvinisoga juda xush keldi. P.Tursun. O'qituvchi.

PARVOY(I) FALAK [kimning?] beparvo, beg'am.

Men yaqin jo'ram deb dardimni senga yorsam, sening parvoying falak. S.Nazar. Yashil boylik. *Ammo uning bardoshiga balli, asabiga qoyil!.. Odatdagiday parvoyi falak o'tiribdi.* I.Rahim. Hilola.

parvoy(i)ga kelmaslik: parvoy(i)-ga keltirmaslik.

PARVOY(D)GA KELTIRMASLIK kim? [o'zining] nimani? e'tibor qilmaslik; o'ylanib ham o'tirmaslik.



Varianti: **parvoy(i)ga kelmaslik** nima? kimning? (oz ishlatiladi).

«Bu kelishingda omon ketasan, ikkinchi qaytib qadam bossang, Naymanchadan o'linging chiqadi...» Xotinlarning nafasi ichiga tushib ketdi... Bo'rijarlik kampir Jo'raxonning oldiga bordi... «Qizim, parvoyingga keltirma, bunaqangi xat yozganning ko'ziga xasmol chiqsin, iloyo. Sening aziz boshingga hech kim qo'l ko'tara olmaydi». A.Muxtor. Opa-singillar. «Isqirt. Axir tut mayizini boshiga uradimi?.. Bu xasisni yo'q qilish kerak», – deya boshladilar. Ammo bu gaplar Ravshanovning parvoyiga ham kelmasdi. S.Nazar. Yashil boylik.

parvoyi falag(i)ga kel [tir] maslik: parvoy(i)ga keltirmaslik

PAST KELMOQ kim? [kimdan?] do'q-po'pisa bilan yengishdan tiyilmoq. Antonimi: **baland kelmoq 2** kim? [kimdan?].

«Yaxshisi bitta semiz qo'zini so'y, boplab najirxo'rlik qilaylik». – «Yo'q, taqsir! Birovning haqidan qo'rqaman». – «Gap qaytarma!» – malla kishi ko'k ko'zlarini chaqchaytirib Boboqulga o'shqirdi. Chayladan nariroqda... cho'zilib yotgan targ'il boshini ko'tarib, g'azabli irillay boshladi. Malla kishi bo'ribosarga bir qarab qo'yib, past keldi. Qurtdan olib belbog'iga qistirdi. «Bergan tuz-namagingga rozi bo'l», – dedi. S.Anorbo'yev. Oqsoy. Rahim kattalar oldida past kelishga majbur bo'lib, «Endi qilmayman», – deb va'da berarkan, xotinlardan biri taklif qildi: «Va'dasi chin bo'lsa, bitta o'ynab bersin». H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

PAST TUSHMOQ kim? oldingi jur'at-talabini susaytirmoq, boshqa kishining jur'at-talabiga yon bosmoq.

Bunga o'zicha ma'no berib, Saida ham qattiq xafa bo'ldi, ilgarigiday past tushmay, tegishli javobini berdi. A.Qahhor. Sinchalak. Muqaddasning «Yuring» degan keskin gapidan keyin birdan past tushib, jur'atsiz bo'lib qolgan edim. O.Yoqubov. Muqaddas. Shundayam ponsod past tushmas, yigitlarni boloxonador qilib so'kardi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

PAST-BALANDINI (bilmoq) kishilar orasidagi muomala-munosabat qanday ekanini (bilmoq).

Siz kabi shahar kishisi ham qishloq bilan ko'p oldi-berdi qilolmaydi, chunki qishloqning past-balandini bilmaydi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. Murodova qarab turdi-da, davom etdi: «Ko'nglingizga boshqa gap kelmasin, o'rtoq Davronov. Siz Yakkachekning past-balandini bilasiz. Bu yerga ko'p xizimatingiz singgan». I.Rahim. Ixlos.

pastga urmoq: yerga urmoq

PAT(I) YOTIBDI kimning? to'sto'polon bilan ish qilish odatini tashlamoq.

«Yo'q, o'g'lingizning bu yil ilgari shahdi yo'q. Pati yotib ketibdi». – «Be... o'zini to'xtatib olgani uchun shunday. Umri uzoq bo'lsin, bu yil ancha bosilib kelibdi. Bosiq yigit bo'ladi». P.Qodirov. Uch ildiz.

PAT(D)NI YULMOQ kim?kimning? tirikchiligiga yetarlisini qoldirib, boshqa barcha mol-mulkini, boyligini tortib olmoq.

...ya'ni sakkiz yoshida Olaxo'jaboyning yaxshilab patini yuldi. Uning og'zi

ni katta qilgan yer-suv, mol-mulklarini qirqib, kambag'allarga – batraklarga bo'lib berdi. P.Tursun. O'qituvchi.

PATIR USHATMOQ kim? qizini berib, quda bo'lishga rozilik bildirmoq.

Anov vaqtda patir ushatildi degan edingiz, bugun kichik to'y kelayotgan emish, shunga ketyapman. Oydin. Shirin keldi.

PATIR USHATTI qizini berib, quda bo'lishga rozilik bildirish marosimi, biror yaxshi voqeaning boshlanishi.

Mana bu yuqoriga ko'tarilgan dar-yodan Mirzacho'l suv ichadi, ekin bitadi. Fabrika gazmol to'qiydi, kiyim tikadi. Sen bilan menga o'xshaganlar yorug' nur tagida ularning duoyi jonini qilib o'tiradi. Bu karnay-surnay shu ulug'to'yning patir ushattisi. Oydin. Shirin keldi.

PATTA(SI) TEGDI kimning? vazifasidan bo'shatilmoq, haydalmoq.

Bir ishga joylanib, bir hafta o'tmay tegdi so'ng pattam. S.Abdulla. Mayli.

PATTA(SI)NI QO'L(I)GA BERMOQ kim? kimning? **1** xotini bilan yashamasligini aytib, orani ochiq qilmoq.

Yoqutoyimning Xo'jabekovdan orttirganlarini shilib yeb bo'lib, keyin pattasini qo'liga bergandir! S.Anorboyev. Oqsoy.

2 uzil-kesil umidini uzib jo'natmoq.

Yaxshiki, bu gap ustida Nodiraning o'zi bo'lmadi. Bo'lganida, sovchilarning pattasini qo'liga berib, qadam qo'ymaydigan qilib yuborardi-ya. R.Fayziy. To'g'onbekning qizi.

3 vazifasidan bo'shatmoq; haydamoq.

...pattasini qo'liga berib yuborganimizga bu yil rosa to'rt yil bo'ldi. N.Safarov. Katta karvon yo'lda.

PAXTA(SI) CHIQDI kimning? yoki nimaning? – **PAXTA(SI)NI CHIQARMOQ** kim? kimning? yashirin salbiy tomon oshkora bo'ldi

Halol mehnat qil. Hunar o'rgan. Hunarsiz qaytib ketishni o'ylama, boyagi ertakdagi polvonday paxtang chiqib qoladi! I.Rahim. Chin muhabbat. *Ot ustida beparvo qiyshayib, miyig'ida ashula aytib kelayotgan Karim polvon jo'rttaga hammaga eshitarli qilib: «O'h-ho', ishning paxtasi chiqdi-ku!» – dedi.* S.Nazar. Yashil boylik. *Agapov Komiljon dokladining bir nusxasini olgandan keyin, uni hijjalab o'qiy boshladi.. «Xalilovning nomini tilga olmabdi-yu, uning paxtasini chiqarishibdi. Iye, Zunnunovni boplashibdi-ku! O'zi o'qidimikin?...»* I.Rahim. Ixlos.

paxta(si)ni chiqarmoq: paxta(si) chiqdi

PAYIDAN BO'LMOQ kim? nima qilishning? uzluksiz va astoydil harakat qilmoq.

Pulni ushlash kerak. Davlat bir boqadi... Xotin olasiz. Uy-joy... Narsa orttirishning payidan bo'ling. A.Qahhor. Sarob. *Sexdami, oshxonadami, majlisdami – kamchilik qayerda uch-rasa, o'sha yerning o'zida shartta gapirib, darrov yo'qotishning payidan bo'ladi.* A.Muxtor. Janjalkash.

PAY(ID)DAN TUSHMOQ kim? kimning? qayerga borsa, zimdan ta'qib qilib bormoq (*eskirgan*). Sinonimi: **iz(i)dan tushmoq** kim? kimning? **ket(i)dan tushmoq** kim? kimning? **orqa(si)dan tushmoq 1** kim? kimning?

Davlatyor Madaminning payidan tushgan bo'lsa ham, uning qayoqqa ketganini aniqlay olmay ovora bo'ldi. P.Tursun. O'qituvchi.

PAY(I)GA TUSHMOQ kim? 1 kimning? zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq (*eskirgan*). Sinonimi: **iz(i)ga tushmoq** 1 kim? kimning? **ket(i)ga tushmoq** 1 kim? kimning? **orqa(si)ga tushmoq** kim? kimning?

Ammo uning [Eshonboyevning] Akbarovga o'chakishganini ham tushunib bo'lmasdi. «Lekin amalparast bo'lganida ham, to'g'ri kelmaydi-ku? – o'ylardi Mahkam.– Akbarovning amali yo'q. Amalparast bo'lsa, uning payiga tushib nima qiladi? Yo Akbarov bilan Toshev bir taraf-u, bular bir tarafmi?» P.Qodirov. Uch ildiz.

2 nimaning? manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qilmoq. Sinonimi: **ket(i)ga tushmoq** 2 kim? nimaning?

G'iyosiddinning nomi tez kunda Andijonga tarqaldi... Oqsoqol uni kuyov qilish payiga tushib, tez-tez uyiga chaqiradigan bo'ldi. Choy keltirish bahonasi bilan qizini ko'rsatib ham oldi. S.Ahmad. Hukm. *U paydo bo'lganda, odamlar darrov orqa-oldilariga qarab, kamchilikni o'zlari topishar va bu kamchilikni tezdan yo'qotish payiga tushishar edi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

PAY(I)NI QIRQMOQ kim? kimning? mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazmoq. Sinonimi: **oyog'(i)ga bolta urmoq** kim? kimning?

Eshon Saidaning payini qirqishga, uning Qalandarov bilan orasini

buzishga bel bog'ladi. A.Qahhor. *Sinchalak. O'zidan chiqqan yoqmaydi, yuqoridan kelganni sig'dirmaydi... Nima talasharkan-a?.. Davronovning ham payini qirqishdi.* I.Rahim. Ixlos.

PAYMONA(SI) TO'LDI kimning? o'ladigan vaqti keldi. Varianti: **paymona to'ldi** (–). Sinonimi: **kun(i) yetdi** kimning?

Naimiy... nechaga kirding? 37. Oz, juda oz! Nahotki shugina bo'lsa! Nahotki paymona to'lgan bo'lsa? Qachon, kim qo'lida?.. A.Muxtor. *Opa-singillar.*

paymona to'ldi: paymona(si) to'ldi
PAYSALGA SOLMOQ kim? nimani? amalga oshirishni keyinga qoldirmoq. Sinonimi: **orqaga surmoq** kim? nimani?

Ona unga necha marta: «Uylan, bolam»,– deb og'iz ochdi, lekin o'g'li paysalga solib yurdi. I.Rahim. Ixlos. *Ertasiga Qalandarov, hech kim bilan kengashmay-netmay, shaharga borib, apparatura sotib olibdi, lekin qiziq bosilgandan keyin sovib, o'rnatish ishini paysalga solibdi-yu, shu bilan qolib ketibdi.* A.Qahhor. *Sinchalak.*

PAYTAVA(SI)GA QURT TUSHDI kimning? xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik bezovta bo'lavermoq.

Kim yig'laydi? Mingboshining o'g'limi? Sevgani, oltini-ya!.. Ko'chada go'yo bo'ron qo'zg'algandek... Har yoqdan hushtak tovushlari churullab eshitildi. Politsiyalarning paytavalariga qurt tushdi. Ulardan ikkitasi jon holatda qochib borayotgan bolani quvlab tutdi. N.Maqsudiy. *Ilon bolasi-ning zahri.*

PASHSHA QO'RIMOQ kim? foydali, ko'zga ko'rinarli ish bilan shug'ullanmaslik, vaqtini befoyda o'tkazmoq.

«Xayri ayamni odam qilgan Egamberdiyev...» – «Ha-ha?! Egamberdiyev ekanmi? Biz pashsha qo'rib yurgan ekanmiz-da». A.Muhiddin. Qirq baxt egalari. *Aytganingizday, bir soatdan beri pashsha qo'rib o'tiribman, Komil aka.* I.Rahim. Ixlos.

PASHSHA UCHSA, ESHITILARLI har qanday tovushsiz, mutlaq. Varianti: **pashsha «g'ing» desa, eshitiladigan.**

Sada qayrag'och va tol shoxlarida chiqillashgan tinimsiz chumchuqlar, allaqayerlarda g'uv-g'uvlashgan g'ur-raklar bo'lmasa, guzarni pashsha uchsa, eshitilarli jimlik qamradi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *O'ktam hovliga bet-qo'li shira, changga botgan bir to'da bolalar bilan qurshalgan holda kirdi. Haligina pashsha «g'ing» desa, eshitiladigan jimjit hovli qiy-chuvga to'ldi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

pashsha «g'ing» desa, eshitiladigan: pashsha uchsa, eshitilardi

PASHSHADAN FIL YASAMOQ kim? mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq. Varianti: **pashshani fil qilmoq; pashshasini fil qilmoq** kim? nimaning? Sinonimi: **ignadek ...ni tuyadek qilmoq** kim?

Bilasiz, «Bo'rk ol», – desa, bosh olmoq, pashshadan fil yasamoq – politsiyaning suygan metodi. Oybek. Nur qidirib. *U bizning oqsoqol bo'lib, biz tomondan tortishib-talashishi lozim bo'lsa ham, amaldorga tilchilik*

qiladi, rost-yolg'on xabarlarining pashshasini fil qilib yetkazib, uyimizni kuydiradi. S.Ayniy. Qullar.

pashshani fil qilmoq: pashshadan fil yasamoq

pashshasini fil qilmoq: pashshadan fil yasamoq

PACHAVASINI CHIQARMOQ kim? nimaning? butunlay rasvo qilmoq, yomon ahvolga tushirmoq.

Xuddi shu oraga Yo'ldosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. G'.G'ulom. Shum bola. *Sud bo'ladigan haftasi hamma narsa taxt bo'lganda mahalla komissiyasining ... ishning pachavasini chiqaradigan bo'lib qoldi.* A.Qahhor. Sarob.

PACHAG'(I) CHIQDI kimning? ezib, yanchib tashlanmoq.

Ba'zan joni halqumiga kelib, o'zini nimalarga urmadi, necha marta qaltis tavakkallarga bordi, necha marta pachag'i chiqib, yana tiklanib oldi. A.Muxtor. Opa-singillar. *Urushda pachag'i chiqqan bu «zobit»lar hali ham o'zlarini ko'klarda his qilar, hali ham g'oliblardek mag'rur edilar.* H.G'ulom. Mash'al.

PESHANA TERI mashaqqatli halol mehnat.

Bir xizmatchining qizini o'z qarindoshiga, o'z eshigida halol ishlagan yigitga olib beradi, yana o'z hamyonidan emas, yigitning peshana teri bilan topgan aqchasiga... Oybek. Qutlug' qon. *Oz bo'lsa ham, peshana terim bilan topaman, suqtoylik, mo'ltonilikka sira yurmayman!* Oybek. Qutlug' qon.

peshana ter(i) to'kildi: ter to'kmoq

peshana teri to'kmoq: ter to'kmoq

peshanada bor: peshana(si)da bor

peshanadagini ko'rmoq: peshana (si)dagini ko'rmoq

peshanaga bitmoq: peshana(si)-ga bitmoq I

peshanaga yozilgan: peshana(si)-ga bitmoq I

peshana(si) ochildi: peshana(si)-ni ochmoq

PESHANA(SI) QURSIN [kimning?] taqdiridan, qismatidan nolib aytiladigan ibora.

Peshanam qursin, boyvachcha aka, g'am ustiga g'am ko'rdim. Men o'n beshga kirganda ayam o'ldi. Oybek. Qutlug' qon.

PESHANA(SI) SHO'R kimning?
– **SHO'R PESHANA** kim? hayoti xorlik-zorlikda, azobda o'tishi avvaldanoq ma'lum.

Bu o'shanda ham pushaymon bo'lmaydi, «Peshanam sho'r ekan, toleyim yo'q ekan», – deydi-qo'yadi! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Mana endi mening ahvolimga qara: boshim zamindorga bog'liq, oyog'imda sudxo'r kishani. Supramdan sichqon hazar qiladi. Ho'p, ehtimol, peshanam sho'rdir, ammo boshqalar-chi? Dehqon xalqi balo girdobiga g'arq bo'lib ketdi-ku! Oybek. Nur qidirib. Matqovulning ayanch ahvoliga tushunish uchun Matqovul bo'lish, bolalarining sho'riga tushunish uchun esa o'sha sho'r peshanalardan biri bo'lish kerak. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Shokirjon boyvachchaning yerini ekib yoki undan yerni

ijaraga olib yurgan vaqtlarimda bu odam orttirayotgan tuman boylikni ko'rib, sho'r peshanaligimga birdan-bir sabab yersizlik, suvsizlik deb o'ylar edim. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ancha fursat o'tib eshikka chiqishga chog'langan Hayit badal yana qaytib taqir yerga o'tirdi: peshonasi sho'r ekan, bunday bahonalar bilan bosmachilarni aldab bo'larmidi? Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

PESHANA(SI) SHO'R BO'LDI kimning? – **PESHANA(SI)NI SHO'R QILMOQ** kim? kimning? hayoti xorlik-zorlikda, azobda o'tishi avvaldan ma'lum bo'lmoq (diniy).

Xayoliga qizi keldi. Ilhaq bo'lib atrofqa qaradi. Intizorlik qursin, yomon ekan. Ishqilib, peshanasi sho'r bo'lmasin. Ha, sho'r bo'lmasin. S.Anorboyev. Kuyov. Ey parvardigor, biz bechoralarning peshanamizni muncha ham sho'r qilmasang! Mirmuhsin. Al Mahdiy.

PESHANA(SI)DA BOR [nima? kimning?] azaldan belgilab qo'yilgan (diniy). Varianti: **peshanada bor** [nima?]

«...axir bitta yetim uyingning burchagida katta bo'lib ketar», – desam... Sira olgisi yo'q. «O'zingning jigaring, «Sulton suyagini xorlamas» degan gap bor, – dedim, – peshanasida bor ekan, shundoq bo'libdi. Har kim peshanasida yozig'ligini ko'radi», – dedim. Mirmuhsin. Jamila. Maniyam sizdan boshqa kimim bor? Suyanganim, ishonganim o'zingiz edingiz. Peshanada bor ekan, ko'chib ketdingiz. Mirmuhsin. Jamila.

PESHANA(SI)DA SHO'RI BOR kimning? taqdirida turli jabr-kulfat-

larni boshidan kechirishi yozilgan (diniy).

Biroq Tohir bechoraning peshanasida sho'ri bor ekan: ... Zuhra: «Mening senday erim yo'q, qo'rqqoq», – deb, o'rtalarida ikkita bolalari bo'lishiga qaramay, haydab yuboribdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

PESHANA(SID)DAGINI KO'RMOQ kim? [o'zining] azaldan belgilab qo'yilgan voqea-hodisalarni boshidan kechirmoq (diniy). Varianti: **peshanadagini ko'rmoq** kim?

Hammasidan ham «Mayli, peshanamdagini ko'raman» degani Sobirga qattiq ta'sir qildi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Adolat, bolam. Tur o'ringandan. Bo'ldi. Peshanadagini ko'ramasdan ilojimiz yo'q... S.Zunnunova. Gulxan.

PESHANA(SID)DAN KO'RMOQ kim? [o'zining] nimani? taqdiri nima bo'lsa, shunga rozi bo'lmoq, hammasiga taqdiri aybli deb ko'nikmoq.

Yo'q, mayli, kim nima desa-desin, endi bu yog'ini peshanasidan ko'radi. S.Zunnunova. Gulxan.

pehana(si)dan sovuq ter chiqdi: a'zoyi badan(i)dan sovuq ter chiqib ketdi

PESHANA(SID)GA BITMOQ I kim? (xudo) kimning? – **PESHANA(SID)GA BITILGAN** nima? [kimning?] azaldan belgilab qo'ymoq (diniy). Varianti: **pehanaga bitmoq kim?** (xudo); **pehana(si)ga yozilgan; peshanaga yozilgan.**

Orzu-havas ko'rish peshanamga bitmagan bo'lsa, nima ham deyman! A.Qahhor. Og'riq tishlar. U o'zi, o'z baxti haqida sira o'yilgan emas, xud-

di shunday bo'lishi kerak, peshanaga bitgani shu deb bilar; o'zi haqida bunday gaplarni hech ham eshitgan emas edi. A.Muxtor. Opa-singillar. Biroz chiqimdor bo'lishi peshanasiga bitilgan ekan-da. S.Anorboyev. Oqsoy. Mayli, peshanamga yozilganini ko'raman. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Kambag'allik boylik taqdiri azaldan peshanaga yozilgan bo'ladi. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. «U kimning qizi? Uni yana bir ko'rish peshanamga yozilganmikan?» kabi savollar edi. Hozir esa Nurining to'yini eshitarkan, yuragi allanechuk o'ksinganday bo'ldi, kimdir, uni kamsitganday tuyuldi. Oybek. Qutlug' qon.

pehana(si)ga bitilgan: peshana(si)ga bitmoq I

PESHANA(SID)GA BITMOQ II nima? kimning? kim? nimaning? ega bo'lmoq.

Yuzta? Peshanasiga hech qachon bunchalik ko'p tuyuq bitmagan Boboqul «xudoyi taoloning bu marhamati»dan gangib qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy. O'zingizni ko'rganim ko'p yaxshi bo'ldi-da. Nihoyat Zor qishloqning peshanasiga muallim bitdi. S.Ahmad. Hukm.

PESHANA(SID)GA SIG'MOQ kim? kimning? judo bo'lmaslik, ayrilmaslik.

Ishqilib, falokati arisin, o'g'ilchang bir shirin bo'lganki, o'zingga o'xshaydi. Qiliqlarini aytmay-sanmi? Ha, ishqilib, peshanangga sig'sin. Mirmuhsin. Hayotga qaytish.

PESHANA(SI)NI OCHMOQ kim? [o'zining] – **PESHANA(SI) OCHILDI** kimning? mustaqil hayot



yo'lini boshlab, turish-turmushi yaxshi yo'lga tushib ketdi.

Endi, opa, men O'rmonjon, Boltaboy akamlarning, shu yerda peshanasini ochayotgan hammaning etagini ushlaganim-ushlagan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Boy ham shu mulkning badaliga peshanam ochilib, biror ish-pishga tushib ketgunimcha biror yil chamasi boqmoqchi bo'libdi.* G'.G'ulom. Tirilgan murda.

pešana(si)ni sho'r qilmoq: pešana(si) sho'r bo'ldi

PESHANA(SI)NI SILAMOQ kim? kimning? g'amxo'rlik qilmoq, siylamoq, hayotini yengillashtirish yo'lida yordam bermoq. Sinonimi: **bo-sh(i)ni silamoq** kim? kimning?

Xo'jabekov bilan Saidg'ozini rasmiyat uchungina el og'asi. Biroq ular kimning peshanasini silabdi-ki, endi silasin?! S.Anorboyev. Oqsoy «Siddiqjonning peshanasini silagim kelib yurar edi, qizim unga ko'ngil qo'yish bilan boshimni osmonga yetkazdi». A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

PESHANA(SI)NING SHO'RI [kimning?] taqdirida yozilgan jabra-kulfat (diniy).

«Bu ham bo'lsa peshanamning sho'ri ekan, – gap boshladi juvon og'ir xo'rsinib, – Qo'y og'zidan cho'p olmagan lapashang erim bor. Ichku-yov qilishgan». S.Anorboyev. Oqsoy.

PESHANASI DEVORGA TEG-MOQ kimning? anglab yetmoq, ko'zi ochilmoq.

Peshonam devorga borib taq etib tegdi. Onam, kelinoyim, o'rtoqlarim haq. «Yoshlik».

PINAG(I)NI BUZMASLIK kim? [o'zining] o'ziga qaratilgan gap yoki

harakatga bila-ko'ra turib e'tibor qilmalik o'zini go'yo hech narsa sezmagandek tutmoq. Varianti: **pinak buzmay (-)**.

Xolmirza ham yuz foiz o'zgarib ketdi. «Hilolaga da'vomiz yo'q!» – deb gapni tamomlab qo'ydi. Shunda ham Hilola pinagini buzadi. So'z ham so'ramadi. Ammo uning yuragida gapi ko'p. I.Rahim. Hilola. Aminjon: *«Xo'p, eringni o'ldiga chiqarasan, uning yor-u do'stlari yig'iladi, gap-so'z bo'ladi, shunda bir chekkada yolg'ondan yig'lab o'tirish qo'lingdan keladimi?»*, – deb so'rabdi. *Umri hech pinagini buzmay: «Keldi!» debdi.* A.Qahhor. Xotinlar. *«Men siz bilan gaplashmasam ham bo'lar edi, Sariyev, tushundingizmi?» – «Yo'q, gaplashmasangiz bo'lmas edi», – dedi yigit pinak buzmay.* Rahmonqulov *bat-tar asabiylashdi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

pinak buzmay: pinag(i)ni buzmaslik

PINAKKA KETMOQ kim? 1 uxlab qolmoq.

Ali tajang boshini sal qimirlatgan holda pinakka ketarkan, beka stolga non va sut keltirdi, oshamoqqa undadi. Oybek. Quyosh qoraymas. *Saida uyga kech soat o'n birlarda qaytdi. Xolasi uni kutib o'tirib, so'rida yon-boshlaganicha pinakka ketibdi.* A.Qahhor. Sinchalak.

2 o'ylanish holatida bo'lmoq. Sinonimi: **xayolga cho'mmoq** kim?

Qariya pinakka ketdi. Oq sochli boshini qo'llari bilan siqib, ko'zlarini yumib, uzoq o'yga toldi. Oybek. Nur qidirib. *Novcha nega pinakka ketdi desam, haliyam o'g'ling bilan neva-*

rangning dardini chekayapsanmi? S.Anorboyev. Oqsoy.

PINJ(I)GA KIRMOQ kim? kimning? so'zi, xatti-harakati bilan ko'nglini topib, yaqin kishisi bo'lib olmoq.

Nasimjon laganbardorligi orqasida ba'zi kishilarning pinjiga juda kirib olgan. Oybek. Oltin vodiya shabadalar.

PINJ(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] kimni? o'z qaramog'iga, homiy-ligiga o'tkazmoq.

Xayriyatki, badavlat bazzozga tushgan ammasi bor ekan, uni pinjiga oldi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Ertasi atrof qorayarkan, Jondor vagonchini o'z pinjiga olib «suhbat»ga jo'nadi. Ostonada Qora Ahmadning gavdasi qoraydi. Oybek. Qutlug' qon.

PIR URGANI nimaning? eng yomoni, eng yaramasi.

«Ziqna odammidi u?» – «Ziqnaning pir urgani edi». Oybek. Qutlug' qon. Ular daraxt ostida, salqinda o'tirishdi. Yormat nonni ushatib, dastlab Yo'lchiga choy uzatdi va jiddiy tus bilan dedi: «Ishning pir urgani – shu [to'nka kovlash]. Kishini chaqib qo'yadi». Oybek. Qutlug' qon.

PISTONICHAQILGAN avvalgi mavqeyini, ta'sir kuchini yo'qotgan.

Bizning qayiqda mohir eshkakchi bo'lmagan odam – ortiqcha yuk. Bundan tashqari, sen pistonicha qilgan odamsan, bizning qo'limizda uzun kosov bo'lib xizmat qilishdan boshqa ishga yaramaysan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

PIX(I) QAYRILGAN o'taketgan uddaburon, quv. Sinonimi: **pixini yorgan**.

Lutfinisa... yashirincha Qutbinisaning izidan bir chimdim tuproq olib, isiriqqa qo'shib, sigirining yelini ostiga olib kelib tutatgan emish. Buni eshitgan Qutbinisa: «Pixingiz qayrilgan ustomon xotin ekansiz», – debdi. Mirmuhsin. Jamila. Sumbut domla – pixi qayrilgan eski tullak. Qattiq siyosat qilish yoki keskin chorako'rish bilan o'jar bolani qo'lga olib bo'lmasligini biladi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

PIXI CHIQQAN uzoqni o'ylab ish qiladigan, tadbirkor.

Bu nemis firibgar qiladigan ishini bilib qiladi. O, u pixi chiqqan tullak! Shoshmay turinglar, avval suv chiqsin, keyin haqiqiy basharasini ko'rsatadi u. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

PIXINI YORGAN o'taketgan uddaburon, quv. Sinonimi: **pix(i) qayrilgan**.

«Moddasi moddasiga to'g'rilandi. Pixini yorgan yurist ham materialdan xato topolmaydi», – Xo'jabekov stolga asta musht tushirdi... S.Anorboyev. Oqsoy.

PIYOLADAGI CHOY SOVIGUNCHA qisqa suhbat oralig'ida.

Ziyrak yuz o'ylab, bir so'zlaydigan, piyoladagi choy soviguncha ham-suhbatining yurak dardini payqab oladigan Riza Muhiddinning xayolini buzishga botinmadi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

PIYOZI KUYMAGAN kimning? hali gapi o'tmaydi, aytganini qildir olmaydi. (Buxoro viloyati Qorako'l shevasida).

– Bo'lajak kelin bilan shahar aylanishga onasidan ruxsat olib bering,

onajon, iltimos. – Hali piyozim kuy-
magan, to‘ydan keyin aylansangiz
ham bo‘ladi. So‘zlashuv uslubi.

PIYOZNING PO‘STI nima? o‘ta
darajada och.

«Qorinlaring qalay?» – «Piyoz-
ning po‘sti», – dedi Jo‘raboym. S.Ah-
mad. Qadrdon dalalar.

**PIYOZNING PO‘STIDEK BO‘-
LIB KETMOQ** nima? o‘ta darajada
ochqamoq.

Nonushta qilib olsak bo‘lardi,
Muhiddin, qorin ham piyozning po‘s-
tidek bo‘lib ketdi. R.Fayziy. Cho‘lga
bahor keldi.

PISHIRIB YE[NG] (...YESIN)
kim? nimani? hech keragi yo‘q, o‘zi-
ng[iz]ga buyursin.

Hatto mana shu Nazarov bir kuni
.. qoyil qolgan edi: «Saidg‘ozi, o‘zing
kichkinasan-ku, lekin eshakday ish-
laysan, og‘ayni», – deb tegishgan edi.
Bunday maqtovingni pishirib ye, och-
ko‘z. S.Anorboyev. Oqsoy.

PICHING OTMOQ kim? kimga?
sha‘niga tegadigan qilib gapirmoq.

«Hammalari sog‘-salomat, diydo-
ringizga muntazir...» – «Hoy nomard
Samad, buning nima deydi? Diydori
nima o‘zi, kimga piching otmoqchi
bu nomarding? Boshini qo‘ltiqatib
qo‘yaymi?» G‘.G‘ulom. Netay. Mu-
nisxon kitobda ostiga chizilgan jum-
lalarini daftariga ko‘chirayotib pi-
ching otdi: «Dam olmasdan bir necha
soat o‘qish ko‘zni tindirar ekan-da!
Ehtiyot bo‘ling, o‘zingizni biron nar-
saga urib olmang tag‘in...» A.Qah-
hor. Sarob.

pichoq borib suyag(i)ga tegdi:
pichoq suyakka yetdi

pichoq suyag(i)ga taqaldi: pi-
choq suyakka yetdi

pichoq suyakka borib taqaldi:
pichoq suyakka yetdi

PICHOQ SUYAKKA YETDI
ortiq chidab bo‘lmaydi. Varianti: **pi-
choq borib suyag(i)ga tegdi kim-
ning? pichoq suyakka borib taqaldi;**
pichoq suyag(i)ga taqaldi kimning?

*Pichoq suyakka yetdi: Matqovul
bo‘z yaktaginging yengi bilan ko‘zlari-
ni artdi, boshini barala ko‘tardi, yosh
o‘rniga g‘azab to‘la ko‘zlar bilan
mingboshiga tikildi, keyin o‘ziga yot
bir tovush bilan baqirdi. M.Ismoiliy.
Farg‘ona tong otguncha. Nisobuvi
pichoq borib suyagiga tekkandan ke-
yin qizlarini internatga berishni ham
o‘yladi. A.Qahhor. Boshsiz odam. U
[A‘zam] Muhiddinni chekkaroqqa cha-
qirdi-da, yalingansimon gapira bosh-
ladi: «Jon do‘stim, pichoq suyakka
borib taqaldi, bu kecha ham uxlamay
chiqdim. Bo‘lar endi, menga ishona-
ver». R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.*

PICHOQQA ILINADIGAN oz-
mi-ko‘pmi qiymatga ega, tilga olishga
arzigulik.

..redaksiyaga qachon qaytishimni
bilolmayman. O‘sha ikkita lavhadan
boshqa narsa yuborolmadim. Hozir-
cha qo‘limda pichoqqa ilinadigan
material yo‘q. M.Muhamedov. Qah-
ramon izidan.

podadan avval chang chiqarmoq:
podadan oldin chang chiqarmoq

podadan ilgari chang chiqarmoq:
podadan oldin chang chiqarmoq

**PODADAN OLDIN CHANG
CHIQRAMOQ** kim? ro‘yobga chi-
qishi aniq bo‘lmagan narsa haqida

hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yurmoq. Varianti: **podadan avval chang chiqarmoq; podadan ilgari chang chiqarmoq**. Sinonimi: **to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq**.

Lekin Qo'ziboyning goho podadan oldin chang chiqarish odati borligidan, odamlar uni «So'nggi axborot» deb ham atasharkan. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. «Og'ayni, – dedi Muhiddin, – ko'p katta ketaverma. Podadan avval chang chiqarish yaxshi emas. Mana endi har ko'rganida piching qilaveradi». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Xolnisa (ovqat olib chiqadi), qarilik qursin, podadan ilgari chang chiqarib, seni xafa qilayozdik-a... Dehqonboy. Sizlar xafa bo'lmasalaring bo'lgani, onajon...* A.Qahhor. Yangi yer.

PODANI KIM BOQADI?! oddiy, qora ishlarni bajarishga odam topilmay qoladi-ku!

Hammalaring mulla bo'lib ketaversalaring, podani kim boqadi?! Men bilan Ahmadqulning o'qimaganimiz ham ma'qul. Ora-sira omiyi benavolar ham bo'lib tursin. G'.G'ulom. Jo'rabo'za. «Har kim o'qiyversa, podani kim boqadi?! – dedi achchiqlanib Mirzakarimboy. – Mardikor, ahli kosib, beva-bechora o'z qornini to'ydirsa, bas-da!...» Oybek. Qutlug' qon.

POPUG(I) PASAYDI kimning? – **POPUG(I)NI PASAYTIRMOQ** kim? kimning? harakat-faoliyatidagi qat'iylik keskinlik deyarli yo'qolmoq.

«Bo'pti, olasan, – dedi miyig'ida kulib Quadrat, – lekin buni [qalamtarashni] qayerda yo'qotganingni aytasan avval». Rahimning popu-

gi pasayib, nafasi chiqmay qoldi... H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Lekin Kimsan menga sizni sira qaytmaydigan, boshlig'ining ham popugini pasaytirib qo'ygan jangari deb ta'rif qildi-ku?* A.Muxtor. Tug'ilish.

POPUG(I)NI PASAYTIRMOQ: popug(i) pasaydi

«**PUF**» **DESA, BUXOROGA UCHADIGAN** juda yengil va yupqa.

Boshqa ayollar ayvonlarga o'tqazilib, kichkina iflos patnislarda «puf» desa, Buxoroga uchadigan taxir chapchap non, qurtloqi turshak, jiyda va tishga yopishsa, ombir bilan ham sug'urib olish qiyin bo'lgan yopishqoq popuk tortildi. Oybek. Qutlug' qon.

PULGA CHAQMOQ kim? nimani? qiymatini pul bilan hisob-kitob qilmoq.

Yolg'iz shu urug'ning o'zidan o'n besh tonnaga yaqin yog' olinar edi. Buni pulga chaqqudek bo'lsa, ikki yuz ming so'mdan oshib ketadi. N.Safarov. Uzoqni ko'zlagan qiz. *Hilolangiz ... «Fermaga qancha po'choq beryapsiz?» – deb so'roq qilibdi. Shu ham gap bo'ldimi?! Bu Hilolangiz mening payimni qirqmoqchi». – «Po'choq bilan bironing payi qirqilarmidi?» – dedim hazil qilib. «Bu ham material-da. Buxgalterlarni bilasiz-ku, «o'ho'» desangiz ham, pulga chaqadi».* I.Rahim. Hilola.

putur ketdi: futur ketdi

putur yetdi: futur yetdi

PUSHAYMON YEMOQ kim? nimaga? (nima qilganiga?) biror ishni qilmasam bo'lar ekan, deb ruhiy ezilmoq, afsuslanmoq.



«Doktor, yo Toshkentga olib borsammikin-a?» – dedi Manzura. Ho-zirgina iljayib turgan keksa vrachning qovog'idan qor yog'di. Manzuraning bu so'zi unga qattiq botdi shekilli, xafa bo'ldi, asabiylashdi... Manzura o'z so'zlariga ming-ming pushaymon yedi. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda.

puch yong'oq bilan qo'yn(i)ni to'ldirmoq: qo'yn(i)ni puch yong'oqqa to'ldirmoq

puchakka chiqarmoq: puchga chiqmoq

puchakka chiqmoq: puchga chiqmoq

puchga chiqarmoq: puchga chiqmoq

PUCHGA CHIQMOQ nima? – **PUCHGA CHIQARMOQ** nima? yoki kim? nimani? xom xayol bo'lib qolmoq. Varianti: **puchakka chiqmoq – puchakka chiqarmoq.**

Ota-onaning umidi puchga chiqib, o'g'lining bu ishidan ranjib, nima qilishlarini bilmay ag'rayib qolishdi. O'.Azimov. Aql chirog'i. Onaxonday, Ergashday odamlarning o'sib chiqishi esa ularning bu niyatini puchga chiqaryapti. A.Muxtor. Opa-singillar. O'g'limiz orzu-umidlarimizni puchga chiqardi: Toshkentda o'qib yurib, bir qizga uylanibdi. So'zlashuv uslubi. Nasimjon xotiniga dedi: «Bas qil, bo'ldi. O'ktamga ko'p ilashma, u ziyrak yigit. Ho'p avrading, xushtor bo'lding, ish puchakka chiqdi. Bas endi, odamlar mazax qilyapti, sharmanda

bo'lamiz». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

PO'K BERIB QO'YMOQ kim? kimga? qo'rqish, cho'chish bilan sir tutilgan narsani bildirib, sezdirib qo'ymoq.

Nima balo bo'ldi, ering ikkovimizning ishimizni sezib qolgan deyman-ov yoki po'k berib qo'ydingmi? Bugun do'konidan bir miriga nos olgani borsam, juda it xo'mrayishi bilan qarab, bir miriga bergan nosiga nosqovog'im yarim ham bo'lmadi. G'.G'ulom. Shum bola.

PO'M CHIQMOQ kim? kim bilan? urishib, arazlab, bir-biri bilan gaplashmay qo'ymoq.

Qizim bunaqa qattiq gap eshitmagan edi. O'ksinib, ko'ziga jiqqa yosh oldi. Yana salgina qo'shimcha qilsam, ho'ngrab yuboradi. Keyin sevimli qizcham bilan ham po'm chiqib qolamiz. Bu xavfli. I.Rahim. Hilola.

po'st tashlatadigan: ilon po'st tashlaydi.

po'st(i)ga somon tiqmoq: teri(si)ga somon tiqmoq

PO'STAG(I)NI QOQMOQ kim? kimning? ayovsiz tanqid qilmoq. Varianti: **po'stag(i)ni qoqtirmoq** kim? kimning? kimga? (oz ishlatiladi).

Maorif xodimlarining kechagi konferensiyasida esa g'oyaviy-nazariy bilimini pastligiga beg'amlik qilgani, turmushdan orqada qolayotgani uchun uning [Karimiyning] rosa po'stagini qoqishdi. A.Muhiddin. Qimirlagan qir oshar.

po'stag(i)ni qoqtirmoq: po'stag(i)ni qoqmoq



QAD KO'TARMOQ *nima?* 1 baland bo'lib o'smoq («o'simlik»).

...*rayhonlar qad ko'tarib, hid sochdi, birin-ketin ochilgan rang-barang gullar ustida kapalaklar qanot qoqa boshladi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Bular hali o'sadi, qad ko'taradi, gullaydi, ko'sak tugadi, paxta ochiladi.* R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Saodat o'ng tomonda, jarlikning tepasida qad ko'targan keksa tutga qarab yo'l oldi.* O.Yoqubov. *Tog' qizi.*

2 baland qilib qurilmoq («imorat»).

Birdaniga ko'p qavatli, yorug', chiroyli uylar qad ko'taribdi. A.Muxtor. *Tug'ilish. Gulzor o'rtasida qad ko'targan marmar yodgorlik atrofini allaqaydan kelgan sayyohlar o'ragan.* S.Ahmad. *Xotiralar.*

QADAM BOSGAN («joy») yetib borgan («joy»).

Ular qadam bosgan yerda shaharlar, domlar qad ko'tardi, so'rilar ochilib, bo'stonlar yashnadi! A.Muxtor. *Tug'ilish.*

qadam bosildi: qadam bosmoq

qadam bosmaslik: oyoq bosmaslik

QADAM BOSMOQ 1 *kim?* ba'zan *nima?* oyoqlarini oldinga tashlab harakatlanmoq, yurmoq. Varianti: **qadam bosildi** (–); **bosgan qadam(i)** *kimning?* Sinonimi: **qadam tashlamoq** 1 *kim?* yoki *nima?*

Nosirov Saidani uzoqdan ko'rish bilan o'rnidan turdi, unga tomon bir necha qadam bosdi, hurmat bilan so'rashgach, chetlanib yo'l berdi. A.Qahhor. *Sinchalak. To'g'ri... Bilmay qadam bossa, ot ham qoqiladi.* R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Bir-ikki qadam bosilgandan keyingina Saidiy hushiga keldi.* A.Qahhor. *Sarob. Chamadonimni olib gospitalga qaytdim. Yengilgina chamadon yo'lda bir necha marta qo'limdan tushib ketdi. Bosgan qadamim orqaga ketayotganday, sira darmonim qolmagan edi.* R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Yahyo Nozima uzatgan qog'ozga imzo chekib, noxush bir kayfiyatda xayrlashdi-da, paxtazor ichiga kirib ketdi. U og'ir-og'ir qadam bosar, go'yo oyog'iga botmon-botmon tosh osilgan edi.* T.Malik. *Charxpalak.*

2 *kim?* biror manzilga tomon harakatlanmoq, bormoq.

Studentlarga qo‘shilib, qimmatbaho oshxonalar; restoranlarga ham hech qachon qadam bosmagan. S.Anorboev. Oqsoy.

3 kim? biron xatti-harakatni amalga oshirmoq. Varianti: **bosgan qadam(i) kimning?** Sinonimi: **qadam qo‘ymoq 3 kim?**

U ba‘zan o‘ng kelib qolganda O‘rmonjondan biron qadam oldinda yurishga intilar, shuning orqasida ba‘zan nojo‘ya qadam ham bosib qo‘yar edi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Yo‘q, kelinlarim juda tirishqoq, har ishda bahamjihat. Mendan kengashsiz qadam bosmaydilar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Tavba. Aqlga sig‘maydigan gaplar. Telba emasmikan bu qiz? O‘ylanib qoldim. Uning har bir bosgan qadami ko‘z oldimga keldi. G‘o‘zaning necha santimetr bo‘lgani-yu, cho‘ltoq sigir buzog‘ining qayerda turgani bilan ... qanchalik ishi bor? I.Rahim. Hilola.

qadam otmoq: qadam tashlamoq

qadam qo‘yildi: qadam qo‘ymoq

QADAM QO‘YMOQ kim? 1

qayerga? yura turib oyog‘ini biror sathga tegizmoq. Varianti: **qadam qo‘yildi qayerga?** Sinonimi: **oyoq qo‘ymoq 1 kim? qayerga?**

Qalbining har zarbida takrorlanayotgan shu savol bilan Teatr maydoniga qadam qo‘ydi. P.Qodirov. Uch ildiz. U ostonaga qadam qo‘yganda Saidiyga to‘qnash keldi. A.Qahhor. Sarob. Mirhaydar kechga yaqin uyga qaytdi. U kechadan buyon ostonasiga qadam qo‘ymagan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Hamma kasal yerni yaxshi bilmaganimda, Komiljon

aka. Bu joylarga endi birinchi qadam qo‘yilyapti, men ham shu bugun ko‘rib turibman-da. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. Biroq bir necha qadam yurib, yiqilgan «jayra»ning behad katta ekanini payqadi, endi jayra otganiga ishonmay to‘xtagan edi, yigitning ingragan ovozini eshitdi. Yana shittob bilan bir qadam qo‘ydi-yu, taqqa to‘xtadi. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. Ichkari kirmoqchi bo‘lib g‘isht zinaga qadam qo‘ydi. T.Malik. Charxpalak. Shahar jinoyat qidiruv bo‘limi boshlig‘i mayor Ahmedov tezkor guruh a‘zolari bilan professor Kamol Kamtariyning hovlisiga qadam qo‘yiboq, allaqanday g‘ayritabiiy sukunatni his etdi-yu, birdan yuragi uvishdi. A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

2 nimadan? nimaga? biror holatdan, yoshdan boshqasiga o‘ta boshlamoq. Sinonimi: **oyoq qo‘ymoq.**

Endi u o‘zini mustaqil hayot yo‘liga qadam qo‘ygan bir kishi deb hisoblardi. S.Ahmad. Hukm. Men bo‘lsam endi 17dan 18ga qadam qo‘ygan navqiron, niholday bir qiz edim. G‘.G‘ulom. Ko‘ngilsizning qilig‘i. «Rahim ota, qanchaga bordingiz?» – «Oltmish oltiga qadam qo‘ydim». R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. Lekin, hayotda tasodif ko‘p. Bekxo‘ja o‘n to‘rt yoshga qadam qo‘yganida to‘satdan shol bo‘lib qoldi. A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

3 kim? nimadan? nimaga? biron xatti-harakatni amalga oshira boshlamoq. Sinonimi: **qadam bosmoq.**

Qay hunarga tushsa ishkim, men dadil qo‘ydim qadam. S.Abdulla. Ishqida. Yakka xo‘jalik, albatta, bunaqa

tavakkallik ishga qadam qo'yolmaydi, qo'rqadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Bu tilsimning sirlarini bilmadan turib bu sohaga qadam qo'yish halokat darajasida xavfli.* A.Qahhor. Sarob. *To'xtamish Omon-turdiyev qayerga qadam qo'yishni oldindan chamalardi.* «Hayot – botqoq, oyoq bosadigan joyni puxta tanlamasang, cho'kib nobud bo'lasan». *Bu uning aqidasi.* T.Malik. Charxpalak. *Insonni takomillashtirish yo'lidagi urinishlar minglab yillardan beri davom etib kelayotgan bo'lsa-da, bugungi hodisa bashariyatning barcha izlanishlarini xotimalab, yangi pallaga qadam qo'yayotganidan dalolat berib namoyon bo'lgan edi.* I.Sulton. Boqiy darbadar.

QADAM RANJIDA QILMOQ kim? kelmoq (ko'tarinki).

Shu shart bilanki, keyin biznikiga ham qadam ranjida qilasiz. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Bir qadam ranjida qilsangiz, dilkashlik qilib o'tirarmidik deb ko'z tutdim, bo'lmadi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. – *Sandig'ingni ochib, bitta to'n bilan bir kiyimlik atlas o'rab qo'y.* – *To'xtamish shunday deb o'rnidan turib o'tirdi.* «Do'ppi tor kelib qolibdi-da, mayorning o'zi qadam ranjida qilayotgan bo'lsa, demak, akaxonim yaxshilab tuzlaganlar. T.Malik. Charxpalak. *Mulla Zoir bu yoqlarga murid ovlab keluvchi shayxning yo'lga zoriqib ko'z tikmoqda edi. Ne karamki, Ah-madxo'ja hech kutilmaganda, barvaqt qadam ranjida qildi.* T.Malik. Charxpalak.

QADAM TASHLAMOQ kim? yoki nima? **1** oyoqlarini oldinga siljitiib harakatlanmoq. Varianti: **qadam otmoq kim? otgan qadam(i) kimning? odim otmoq kim? (ko'tarinki); odim tashlamoq kim? (ko'tarinki).** Sinonimi: **qadam bosmoq 1 kim?** ba'zan nima?

Quda shalvirab tushgan edim. Oyoqlaringga ham ishonmayman, sudralib qadam tashlar edim. O'sha kuni uzun, keng, serqatnov shahar ko'chasida bola ko'tarib tentirab yurganimni ko'p kishi ko'rgan edi. G'.G'ulom. Yodgor. *Pulemyot ortilgan ot horigan. U terga pishib, og'ir qadam tashlardi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Qiz esa shamol hamlalarini pisand qilmay, dadil qadam otib borardi.* A.Muhiddin. Zeboning sevgisi. *Berdiqulov kishilarning yurish-turishlari, har bir otgan qadamini ham hisobga olardi.* S.Nazar. Yashil boyluk. *O'ktam indamasdan, boshini minut sayin quyiroq eggan holda odim otar, goh o'zicha nimalarnidir shivirlab qo'yar edi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Taksi qaytib ketgach, Ko'rshapalak anhor ustidagi ko'prik taxtalarini mayishtiradigan darajada vazmin qadam tashlab, ko'hna qayrag'ochlar og'ushidagi g'ishtin uy tomonga yurdi.* A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

2 nimaga? [tomon], nimada? (abstrakt ot) o'rtadagi masofa yoki vaqtni ozaytirish sari harakatlanmoq.

U birinchi marta Gavharga ko'nglini shunday ochib ko'rsatdi va o'zaro sirdoshlik tomon katta qadam tashladi. P.Qodirov. Uch ildiz.

qadam(i) qirqildi: qadam(i)ni qirqmoq.

QADAM(I) YETDI kimning? qayerga? borib yoki kelib, biror sathni ishg'ol qilib turmoq. Varianti: **oyog'(i) yetdi.** Sinonimi: **qadam(i) tegdi** kimning? qayerga?

Xuddi shu kuni bu yerda to'y bo'ladiganday, hech qachon hech kimning qadami yetmaganday. S.Anorboyev. Oqsoy. *O'-o'-o'!* Sherbek Qo'chqorovich, biz bechoralarning xizmatgohimizga qadamingiz yetadigan kun kelar ekan-a. S.Anorboyev. Oqsoy. *Ha, o'zigina emas, xatarli tog' so'qmoqlariga oyog'i yetgan odam borki, hammaning yuragi shuvullagani muqarrar.* S.Anorboyev. Oqsoy.

QADAMI TEGDI kimning? qayerga? borib yoki kelib, biror sathni ishg'ol qilib turmoq. Varianti: **oyog'(i) tegdi.** Sinonimi: **qadam(i) yetdi** kimning? qayerga?

Qayerga qadami tegsa, u yerni birpasda odambop qiladi-qo'yadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Xiva xonining oyog'i tekkan emas u yerlarga...* A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

qadam(i)ni bilib bosmoq: oyoq g'(i)ni bilib bosmoq

qadam(i)ni bosmaslik: oyoq bosmaslik

QADAM(I)NI KATTA BOSMOQ kim? [o'zining] o'ziga odatdagidan ko'ra ortiqcha erk bermoq, ortiqcha xatti-harakatlar qilmoq.

«Yana qanaqa mehmon? Borgan sayin kerilib, qadamingizni katta bosadigan bo'lib ketyapsiz-a?», – dedi Mastura jerkinib. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

QADAM(I)NI QIRQMOQ kim? kimning? qayerdan? – **QADAM(I) QIRQILDI** kimning? qayerdan? biror yerga kelmaydigan qilib qo'ymoq.

Endi Zor qishloqdan uning qadami bir umrga qirqildi. S.Ahmad. Hukm.

QADAM(I)NI SANAMOQ kim? kimning? yurish-turishini qattiq nazorat ostiga olmoq. Sinonimi: **qadam(i)ni o'lchamoq** kim? kimning?

Ishsiz odam zerikadi... Xotiningiz ham shunday bo'lib qolgan. Uning sizning qadamingizni sanashdan boshqa ishi qolmagan. Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit.

QADAM(I)NI YIG'ISHTIRMOQ kim? [o'zining] biror dargohga borishni to'xtatmoq.

Qadamingni juda yig'ishtirib qo'yding. Kelib, tog'angdan holing qalay deb so'ramaysan ham? P.Tursun. O'qituvchi.

qadam(i)ni o'lchab bosmoq: oyoq g'(i)ni bilib bosmoq

QADAM(I)NI O'LCHAMOQ kim? kimning? yurish-turishini qattiq nazorat ostiga olmoq. Sinonimi: **qadam(i)ni sanamoq** kim? kimning?

Ular o'rtamizdagi muhabbatdan xabar topganlaridan buyon Dilbarning har bir qadamini o'lchaydigan bo'lib qoldilar. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida.

qadam(i)ni o'ylab bosmoq: oyoq g'(i)ni bilib bosmoq

QADAM(I)NI CHAKKI BOSMOQ kim? [o'zining] nomusini bulg'atadigan ish qilmoq. Varianti: **chakki qadam bosmoq** kim? **oyog'(i)ni chakki bosmoq;** **oyog'(i)ni egri bosmoq;** **chakki yurmoq.**

Sizga tuhmat qilsa, odamlar ishonishi mumkin. Bo'yoq narsa, qadamini chakki bosgani chindir deb shubhalanadi... S.Anorboyev. Oqsoy. «Bu Dadajonov chakki qadam bosadigan bo'lib qoldi! – dedi g'azab bilan. – Qat'iy chora ko'rish kerak axir!» S.Abdug'ahhor. Hayotning boshlanishi. Frontda ekan, ko'p o'rtoqlari o'z xotinlarini sog'inishlarini va «Meni unutib, erga chiqdimi yo oyog'ini chakki bosyaptimi» deb goho qayg'urishlarini ko'rar, bo'yoqligiga xursand bo'lar edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Qiziq, oyog'ini egri bosibdimiki, gap-so'z bo'lsa?! S.Anorboyev. Oqsoy. To'g'ri, eri yomon odam emas. Ichmaydi, chekmaydi, chakki yurmaydi. Aybi – xotinini onasining oyog'iga tashlab qo'ygani, xolos. S.Zunnunova. Latta.

QADAMINGIZGA HASANOT! [kimning?] o'zi kelgan mehmonni qutlab aytiladigan ibora (*hasanot* – «yaxshiliklar»).

Qadamingizga hasanot! Quda mah-tal edik, Zokirjon. S.Abdulla. Muqimiy. *Qadamingizga hasanot! Shoirlarimiz, san'atkorlarimiz mana shundoq yo'qlab kelishsa, qandoq, yaxshi!* A.Qahhor. Kartina.

qadamni o'lchab bosmoq: oyo-g'(i)ni bilib bosmoq

qadamni o'ylab bosmoq: oyo-g'(i)ni bilib bosmoq

qadd(i) bukildi: qadd(i)ni bukmoq

QADD(I) DOL BO'LDI kimning? nimadan? gavdaning beldan yuqori qismini ko'tara olmay enkayib qolmoq. Sinonimi: **qadd(i) yo[y]**

bo'ldi kimning? nimadan? qadd(i)-ni yo[y] qilmoq nima? kimning? nimada? **qadd(i)ni duto etmoq** nima? kimning? **qadd(i)ni kamon etmoq** kim?[o'zining] nimada?

Ammo musibatdan qaddidol bo'lgan, yuz-ko'zi nursizlangan onaga hozir bu gapni qanday qilib aytish kerak. A.Muxtor. Tug'ilish.

QADD(I) KAMON kimning? nimadan? gavdaning beldan yuqori qismi egik (zulmdan).

Ingliz zulmidan qadlari kamon, Ona yurt – Hindiston ularga zindon. S.Abdulla. Muqimiy. Yana xorlik, yana u intizorlik, Qaddi kamon, yana non uchun zorlik. E.Abbos. Ukraina.

QADD(I) YO[Y] BO'LDI kimning? nimadan? – **QADD(I)NI YO[Y] QILMOQ** nima? kimning? nimada? Sinonimi: **qadd(i) dol bo'ldi kimning? nimadan? qadd(i)ni kamon etmoq** kim?[o'zining]; **qadd(i)ni duto etmoq** nima? kimning?

G'am yukidin, oh, qaddim yo bo'lurmu muncha ham. S.Abdulla. Muqimiy. Aytgin menga, nima o'zing, e dunyo? Sevganimni eltib ko'mib tuproqqa, Firoqimda ona qaddin qilib yo, Meni bog'lab, uloqtirding yiroqqa! S.Abdulla. Ostona polvon o'g'li.

QADD(I)NI BUKMOQ kim? kimning? nima qilib? – **QADD(I) BUKILDI** kimning? nimadan? boshqalarning yuziga tik qaray olmaydigan holatga tushirmoq.

Qalandarov toza yalinibdi: «Jon aka, nachalnikka ro'para qilib, erkak qaddimni bukma, qancha shtraf olsang, ol», – deb cho'ntagini tutibdi. A.Qahhor. Sinchalak. O'g'lining



qiliqlaridan deyarli xabardor bo'lib turgan chitfurush nomusdan qaddi bukilib, ko'chaga chiqolmay qoldi. S.Ahmad. Hukm.

QADD(I)NI DUTO ETMOQ nima? kimning? gavdaning beldan yuqori qismini ko'tara olmay enkayib qolmoq. Sinonimi: **qadd(i) yo[y] bo'ldi** kimning? nimadan? qadd(i)-ni **yo[y] qilmoq** nima? kimning? nimada? **qadd(i)ni kamon etmoq** kim? [o'zining] nimada? **qadd(i) dol bo'ldi** kimning? nimadan?

G'amyuki yoshim egib, qaddim duto etmish meni. S.Abdulla. Muqimiy.

QADD(I)NI KAMON ETMOQ kim? [o'zining] nimada? gavdaning beldan yuqori qismini ko'tara olmay enkayib qolmoq. Sinonimi: **qadd(i) yo[y] bo'ldi** kimning? nimadan?— **qadd(i)ni yo[y] qilmoq** nima? kimning? nimada? **qadd(i)ni duto etmoq** nima? kimning? **qadd(i) dol bo'ldi** kimning? nimadan?

Men bunda asirlikda, yor unda chekar faryod, Hijron-u firoqimda qaddini kamon etdi. S.Abdulla. Alpo-mish.

QADDINI KO'TARMOQ kim? 1 tik holatda qomatini tutib turmoq.

Inod qaddini ko'tarib turdi. O'roqni o'rik tanasiga qattiq san-chib: — Keling, — dedi do'rillab. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. — Ovora bo'lasiz. Ish yopilgan. Tergov to'xta-gan. Ishonmasangiz borib keling, opachangizning oldiga. Endi gapla-ringiz bir pul. — To'xtamish shunday deb qaddini ko'tardi. Qovog'ini uydi. T.Malik. Charxpalak.

2 moliyaviy jihatdan mustahkam-lamoq.

Rahmat, Islomjon. Gap shundaki, o'zingiz aytganingizdek, tuman ham, gazeta ham yangitdan tashkil bo'ldi. Hali ikkalasi yosh, tajribasi kam... Maqsadimiz avvalo, tumanni tiklab, qaddini ko'tartirib olish. So'ngra, gazeta ishlarini ham yaxshilash. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QADD(I)NI ROSTLAMOQ 1 kim? [o'zining] egilgan holatdan tik holatga o'tmoq.

G'ulomjon orqalab chiqqan toshi-ni ag'darib, qaddini endi rostlagan edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otgun-cha. —Ko'ramiz, ko'ramiz, — dedi qiz, u boshini burib, quchoqqa sig'mas oyga qaradi. Toshga qoqilib ketdi. Kulib, qaddini rostlab oldi. Sh.Xol-mirzayev. Hikoyalar.

2 kim? yoki nima? [o'zining] no-chor holatdan chiqib, o'nglanib ol-moq. Varianti: **qadd(i)ni tiklamoq** kim? [o'zining].

Hosilot o'jarlik qilmaganida, chi-git rosa besh kun avval yerga tushardi. Hozir ancha qaddini rostlab olardi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Baxti-ga o'sha ayiqqa o'xshagan qo'polning sharmandasi chiqdi-yu, Akram qaddi-ni tiklab oldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

qadd(i)ni tiklamoq: qadd(i)ni rostlamoq

qadd(i)ni yo[y] qilmoq: qadd(i) yo[y] bo'ldi

QADR(I) O'TDI kimning? yoki nimaning? foydasi tegadigan kishi yoki narsaning yo'qligi hozir ochiq-oydin sezildi.

Ulg'ayganim sari otam, onam-ning qadri o'ta boshladi. I.Rahim. Olovkor. Unga jonajon do'sti Kolya-

ning qadri o'tdi. U bo'lganda, Quدرات yuragini to'ldirgan hamma gaplarni bitta qoldirmay ochib solardi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Temir yo'lni yoqalab uzun yo'lda qo'ylar juda tixirlik bilan ilgarilamoqda. Echkining qadri g'oyat o'tmoqda. G'.G'ulom. Shum bola.

QADR(I)GA YETMOQ kim? kimning? yoki nimaning? tegishli qadrlamoq, qadr-qiymatini, ahamiyatini to'g'ri baholay bilmoq.

Shafrin – yaxshi yigit. Siz uni yomon ko'rasiz, bu bilan uning haqiga jabr qilasiz. Biz-siz uchun jonini beradigan yigit qadriga yetish kerak. A.Qahhor. Sarob. *Kuyov kelinning qadriga yetmaydi, ulfatchiliklarga beriladi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Meningcha, rahbarlik, avvalo, odamlarning mehnat psixologiyasini tushunish, insonning, mehnatning qadriga yetish degan gap.* A.Muxtor. Tug'ilish. *Yaxshisi ... mashinaning qadriga yetadigan yangi ... ayirbosh qilib qo'ya qolgan ma'qul.* S.Ahmad. Hodivoy. *Kishi qiyinchilikka duch kelmaguncha asl do'stlikning qadriga yetmas ekan.* O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

QADRIN BILMOQ [qadrin bil=] tar. kim?kimning? e'zozlamoq.

Xuroson maliklaridan bir malik bu xojag'a xufya varaqa soldikim, aning kabi malik munung kabi ulug'ning qadrin bilmadi, izzatsizlik etti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QAHQAHA URIB qattiq ovoz chiqarib, bemalol xoxolab (kulmoq). Sinonimi: **xandon tashlab** [Kanizak].

Sharofat bolani qanday tashlab ketganiga guvohlik beradigan odamlar bilan so'zlashish kerakligini aytganda, qah qaha urib kuldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qahr(i) keldi: achchig'(i) keldi

QALAM HAQI biror narsani yozib bergani uchun to'lanadigan pul.

Boshqarmadan oladigan qalam haqi har oyda bularning hammasidan ortiqroq bo'ladi. A.Qahhor. Sarob. ... *yolg'onni yozsang, boshingni silaydilar-u, lekin, bari bir, qalam haqi masalasida o'lguday xasislik qiladilar.* Oybek. Nur qidirib.

qalb(i) pok: ko'ngl(i) toza

qalb(i)dan sidirib tashlamoq: yurag(i)dan sidirib tashlamoq

qalb(i)a jo qilib olmoq: dil(i)ga jo qilib olmoq

qalb(i)ni ochmoq: yurag(i)ni ochmoq

QALPOQ QILIB KIYMOQ biror narsani qoyil qilib bajaruvchi, biror ish-faoliyatning juda ustasi bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llanadi.

– *Ishni qalpoq qilib kiyib so'yamiz, – deya javob qaytardik.* X.To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati.

QAMISHDAN BEL BOG'LAB sidqidil bilan, astoydil.

To'ylaringizga qamishdan bel bog'lab xizmat qilayin, ukajon. N.Qobil. Unutilgan sohillar.

qamchidan qon tomadi: qamchisidan qon tomadi

QAMCHISI UCHINDIN QON TOMMOQ [qamchisi uchindin qan tam=] tar. kimning? qattiqqo'llik qilish orqali intizomni saqlamoq.

Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin, Cherikta qon tomar qamching uchindin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

QAMCHISIDAN QON TOMA-DI kimning? shafqatsiz, zolim.

O, onang aylansin Marasul, u zamonada erkaklarning qamchisidan qon tomar edi! A.Qahhor. Og'riq tishlar.

QANDAY BO'LMASIN I nima qilib bo'lsa ham.

Har holda, qanday bo'lmasin, shuni [dushman patrulini] qo'lga tushirish kerak edi. M.Muhamedov. Kichik garnizon.

QANDAY BO'LMASIN II nimaligidan qat'i nazar qandaydir.

Endi u Fazliddinning hamma sifatlarida qanday bo'lmasin bir kamchilik ko'ra boshladi. Oybek. Qutlug' qon.

402

qanday shamol(lar) uchirdi?: qaysi shamol uchirdi?!

QAND(I)NI UR(SIN) kim? [*o'zining*] haqli ravishda xursandchilik qilmoq (odatda I shaxsda ishlatilmaydi).

Qandingni ur, yulduzlaring juft tushgan bo'lsa-chi, odam bolasi senlarni ajrata olmaydi! Oybek. Qutlug' qon. *Ha, aka, xilvatda don olishib qolibsizlar, qandingizni uring, o'g'il bola...* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Zamon yoshlarniki. Davrini surib, qandini urishaversin.* I.Rahim. Ixlos.

qandoqqina shamol uchirdi: qaysi shamol uchirdi

qanoat hosil etmoq: qanoat hosil qilmoq

qanoat hosil qildirmoq: qanoat hosil qilmoq

QANOAT HOSIL QILMOQ kim? **1** nimadan? qoniqarli deb bil-

moq, qoniqmoq. Varianti: **qanoat hosil etmoq.**

G'ulomjon javobdan qanoat hosil qilmadi, lekin gap talashib o'tirishni ham lozim ko'rmadi. M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Uning gapi-dan hayotga to'ymanlik, o'tgan umridan qanoat hosil etmaganligi ko'rinib turardi.* Shuhrat. Shinelli yillar.

2 nimaga? aniq ishonmoq. Varianti: **qanoat hosil qildirmoq kim? kimga?**

Boyagi so'zlarni tushida emas, o'ngida eshitganiga qanoat hosil qilgandan keyin so'radi: «Siz Razzoqni bilasizmi, o'g'lim?» H.G'ulom. Mash'al. *Har toycha ham o'z suv ichgan bulog'ini maqtaydi; agar biz buni bilib tarbiya qila olsak, o'z bolamizdan ham ziyoda bo'ladi deb xotiniga qanoat hosil qildirdi.* G'.G'ulom. Netay.

qanot ostiga olmoq: qanot(i) ostiga olmoq

QANOT QOQMOQ 1 nima? uchmoq, parvoz qilmoq.

Rayhonlar qad ko'tarib, hid sochdi, birin-ketin rang-barang gullar ustida kapalaklar qanot qoqa boshladi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Do'stning amri vojib. Bularni uchirib yuborsak ham bo'ladi. – To'xtamish shunday deb qo'shni xonaga kirib ketdi. Qani, qushchalar, qanot qoqadigan paytlaring keldi.* T.Malik. Charxpalak.

2 juda tez yetib borishga intilmoq.

Yo'lchini, albatta, keltiraman. O'zi ham qanot qoqib kelar... Oybek. Qutlug' qon. *Sizdan bo'lak ham bilimdon topilib qolardi yuborishga. O'zingiz*

elburutdan qanot qoqib qoldingiz.
H.Nazir. Rashk.

QANOT(I) OSTIDA kimning?
panohida, himoyasida, qaramida.

Bularning qanoti ostida unga qilich o'tmaydigan, o'q tegmaydigan bo'lib qoldi. A.Qahhor. Sinchalak.

QANOT(I) OSTIDA SAQLAMOQ kim? [o'zini] kimning? homiylik qilib turmoq, himoya qilishda davom etmoq. Varianti: **qanot(i) ostida tutmoq.**

Sanam otinning o'g'illari bola-chaqali bo'lgan bo'lsalar-da, ularni o'z qanoti ostida tutar, shuning uchun ham bolalari uning so'zidan chiqmay, xohishiga qarab ish yuritishardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

qanot(i) ostida tutmoq: qanot(i) ostida saqlamoq

QANOT(I) OSTIDAN kimning?
panohidan, himoyasidan, qaramidan.

Tansiqni qanday qilib u o'z qanoti ostidan qayoqqadir, katalakday va fayzsiz uyga uzatadi?! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

QANOT(I) OSTIGA KIRMOQ kim? kimning? kimnidir homiy sanab, uning himoyasiga o'tmoq.

Ehtimol, Cho'loq turna uyaga kirolmaganda, Ota-turna unga parvosiz qolaverar edi. Biroq, endi uning harakatda ekanini sezib, qanoti ostiga kirishga qarshilik qilmadi. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QANOT(I) OSTIGA OLMOQ kim? [o'zining] kimni? homiylik ko'rsatmoq.

qanot(i)ga olmoq: qanot(i) ostiga olmoq Varianti: **qanot ostiga olmoq** kim? kimni; **qanot(i)ga olmoq**

Shundan keyin Karima xolasi bilan Saidani o'z qanoti ostiga oldi – Mirzacho'lga ko'chirib keldi. A.Qahhor. Sinchalak. Yo'q, yaxshisi, piyoda bo'lsa ham, bu yerdan ketish kerak! Lekin qayoqqa?! Qora tortib boradigan joyi, qanoti ostiga oladigan ota-onasi yo'q-ku! S.Abdughahhor. Hayotning boshlanishi. Injener Smirnov bir guruh spetsialistlarni o'z qanotiga olib, ko'pdan buyon ishlar edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. – Agronomni shu direktor odam qilib yurgan edi. Institutda birga o'qishgan ekan. Ilmiy ishni uddalolmay haydalib, xor bo'lib yurgan ekan. Araqxo'rga kimning toqati bor. O'rtoq Omonturdiyev insof qilib uni qanotiga oldi, amal berdi, uy berdi. Hatto kurortga ham yubordi. U yoqda ikki hafta ham turmabdi. Ketgan bo'lsa, haydashgan-da... T.Malik. Charxpalak.

QANOT(I)NI QAYIRMOQ kim? kimning? jismoniy yoki ma'naviy shikast yetkazib, harakat-faoliyatiga zarba bermoq.

Sherbekni qanot bo'lar degan fikrda qo'ltig'iga olgan edi. Yaxshilikka yomonlik deb shuni aytadilar-da. Qanot bo'lish qayoqda! Qanotini qayirmoqchi shum oyoq! S.Anorboyev. Oqsoy.

QANOT(I)NI YOZMOQ [o'zining] layoqat va imkoniyatlarini to'liq namoyish qilmoq.

«O'zbek xalqi, – davom etdi kapitan, – endi qanotini rosa yoza boshlagan edi. O'zbek xalqi endigina quyoshli yo'lga chiqqan edi». Oybek. Quyosh qoraymas.

qancha suvlar oqib o'tdi!: ko'p suvlar oqdi

QARAB TURMOQ (yoki **O'TIRMOQ**) 1 sinchiklab qaramoq, razm solmoq, tikilmoq.

– *Qiziq, – dedi hokim cholga qarab turib. Uning so'zi ohangida masxaralash ham bor edi. M. Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.*

2 biror kimsa yoki narsaga ko'z-quloq bo'lib turmoq yoki parvarish qilmoq.

Men bolaga qarab turdim, onasi non yopdi. Saroyda birmuncha mollarimiz bo'lar edi. Saroyda mollarga qarab turadir. A. Qodiriy. O'tgan kunlar.

3 asosan bo'lishsiz shaklda. Ish-mashg'ulotsiz holda bo'lmaslik, biror narsa qilmay, jim holatda bo'lmaslik.

Siz uy solsangiz, men ham qarab turmayman. [Yo'lchi:] Men qarab turmadim: poda boqdim, o'roqchilik qildim, otboqar bo'ldim. Oybek. Tanlangan asarlar. [Boy:] Bittasi manmi? Bittasi Shoyunus karvonmi? Har kimning karmoni o'ziga ma'lum. Ammo bizlar qarab turmaymiz, qo'ldan kelgancha, hukumatga yordam beramiz. Oybek. Tanlangan asarlar.

QARI QIZ kim? erga tegmay (er olmay) o'tirib qolgan yosh ayol.

Negadir unga hech bir yigit gap tashlamaydi. Nega bunday? Mana, u o'ttiz yoshdan ham oshib qoldi. Yuziga aytishmasa ham, orqavorotdan «qari qiz» deb qo'yishadi. Mirmuhsin. Jamila.

QARIB QUYULMAGAN, ACHIB SUYULMAGAN kim? yoshiga nomunosib yengiltak, havoyi. Varianti:

achib suyulmagan, qarib quyulmagan.

Ali tajang.. g'izillab yugurgan ishchi qizga biron so'z aytgisi kelib, ochlikdan, horg'inlikdan gezargan lablarini ochdi-yu, yana jim soldi. Asqar polvon o'qrayib: «Qarib quyulmagan, achib suyulmagan! Modabozlikni sizga kim qo'yibdi?!» – deya jerkidi. «O'zing-chi? Gulzorga bo'yin cho'zgan tuyaday, har ayolga suqlanasan!» – dedi Ali tajang jahl bilan. Oybek. Quyosh qoraymas.

QARIGANDA QARMOQQA ILINMOQ kim? yoshiga nomunosib gap gapirmoq, ish tutmoq.

«Mana, bolam, hamma ish paratka. Nazokatning boshini bog'lab keldim. Endi birga yurib kartinka ko'rasanmi, padrishka qilasanmi, o'zing bilasan».– «Bizni ham shu kunlarga yetkazsin, ..., qani oling!», – dedi polvon Jo'raboyni dasturxonga imlab. «Voy savil, qariganda qarmoqqa ilinib-a?» – «E, nima deb yuribsan hali, kampir, dunyodan umidim bor, uylanmoqchiman». S.Ahmad. Qadr don dalalar.

QARO QON ICHMOQ [qara qan iç=] tar. kim? qattiq siqilmoq.

Boshtin kechib, qaro qon ichib, qon yoshin sochib, Tobmon ko'ngul tilagini, vohasrato, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

QAROR BERMOQ kim? qanday ish tutishni o'zi uchun hal etmoq.

U kecha uning xizmatkorlari yotadigan qushxonada yotishga qaror berdim. G'.G'ulom. Shum bola. Yo'lga chiqish oldida sovg'a to'g'risida ota-o'g'il uzoq maslahatlashib, chiqim qilmaslikka qaror berishgan edi. Oybek.

Oltin vodiydan shabadalar. *Siddiqjon Anzirat xolaning uyida turmaslikka qaror berib, boshqa joy so'ragani bir kuni kechqurun Bo'taboyning uyiga bordi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qarorga kelindi: qarorga kelmoq

QARORGA KELMOQ kim?—

QARORGA KELINDI qanday ish tutish haqida ma'lum fikr-mulohazani tanlamoq.

Ayb ota-onasida. Es-hushimni yig'ishtirib oldim. Qat'iy qarorga keldim. Bolani quchoqlab tramvayga tushdim. G'.G'ulom. Yodgor. Eski alam Ergashning yodiga tushib, g'azabga keladi, ko'zi qonga to'ladi. Salohiddindan xatni olib, dilida bir qarorga keladi. Sh.Rizo. Uch. *Hech qanday qarorga kelinmadi. Yana o'ylab ko'rgani va'dalashib hamma tarqaldi.* A.Qahhor. Sinchalak. *Menga nima? Bolaning mendan bo'lganini baribir isbot qila olmaydi-ku. Battar bo'lsin!» degan qarorga keldi-da, uyiga kirib ketdi.* T.Malik. Charxpalak. *U o'zini o'zi arzon-garovga sotganiga chidolmaydi. Ishq nima, havas nimaligini farqlay olmaganidan nafratlanadi. «Bu traktoringni ko'rarga ko'zim yo'q, nima bo'lsam bo'ldim», degan qarorga kelolmagani uchun o'zini la'natlaydi.* T.Malik. Charxpalak.

QARSHI CHIQQOQ kim? 1 kimga? zid ish qilmoq. Sinonimi: **qarshi turmoq I** kim? kimga?

Ulyana Barsova degan yosh gidrogeolog katta-katta olimlarning fikriga qarshi chiqib, Qayroqqir rudasini olish mumkin deb isbot qildi. A.Muxtor. Tug'ilish.

2 nimaga? monelik qilmoq. Sinonimi: **qarshi turmoq 2** kim? nimaga?

Magnit o'z atrofidagi narsalarga loqayd qololmagani kabi, Ochil ham hech kimga nisbatan loqayd munosabatda bo'la olmaydi: u albatta, kimdandir zavqlanadi, kimnidir yoqtirmaydi, kimdandir nafratlanadi, kimgadir qarshi chiqadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

qarshi olinmoq: qarshi olmoq

QARSHI OLMOQ kim? kimni? yoki nimani? kutib olmoq. Varianti: **qarshi olinmoq** kim?

U Maynani ochiq chehra bilan qarshi oldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *1882-yilning ramazoni musulmonlar tarafidan juda hurmat bilan qarshi olingan edi.* G'.G'ulom. Badal novcha – afsona qahramoni.

QARSHI QO'YMOQ kim? kimni? kimga? norozilik tuyg'usini uyg'otmoq, muxolifiga aylantirmoq.

Leksiya bahonasi bilan xotin-xalajni chuvillatganingiz, ... qarshi qo'yganingiz ham mish-mishmi? A.Qahhor. Sinchalak. *O'sha maqolada yozilgan kamchiliklaringizni ko'rsam, men ham ayamay tanqid qilar edim. Hech bir joyi ommani rahbarlarga qarshi qo'yish bo'lmas edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

QARSHI TURMOQ kim? 1 kimga? zid ish qilmoq. Sinonimi: **qarshi chiqmoq 1** kim? kimga?

...och-yupun bolalikni birga baham ko'rgan, to shu damgacha do'st bo'lgan kishiga qarshi turdim. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

2 nimaga? monelik qilmoq. Sinonimi: **qarshi chiqmoq 2** kim? nimaga?



Yaxshi niyat bilan boshlagan ishingga qarshi turdim, odamlarning ta'nasiga qoldim. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Siddiqjonning: «Ovoza qilish kerak emas», – deb qarshi turishiga qaramay, ... sud ishini biladigan odamlarga uchradi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qasam ichirmoq: qasam ichmoq

QASAM ICHMOQ *kim?*– **QASAM ICHIRMOQ** *kim? kimga?* o'z fikr-qarorini muqaddas, qadrli narsani tilga olib qat'iy yo'sinda ma'lum qilmoq. Varianti: **ont ichmoq.**

«E, yolg'on gapirayotgan bo'lsam, til tortmay o'lay...» – «Qasam ichmang. Shundoq aytavering». S.Ahmad. *Hukm. Meni chiqarib yuborishdi, chiqishimda.* «Tuya ko'rdingmi – yo'q» qilib menga qasam ham ichirdilar. G'.G'ulom. *Shum bola. Bular to'rachasi haqidagi mingboshining farmonlarini shunday bekam-u ko'st bajarishga ont ichgan kishilar edi.* N.Maqsudiy. *Ilon bolasining zahri.*

qasd olmoq: o'ch olmoq

qasos olmoq: o'ch olmoq

qatordan qoldirmay: qatordan qolmay

QATORDAN QOLMASLIK *kim?* biror ishni hamma bilan bir vaqtda bajarimoq.

«Qatordan qolmaymiz, og'a, – dedi Hasan ovchi, uning so'zini kesib. – Shomgacha yetkazib beraman, og'a [julni]». Sh.Toshmatov. *Erk qushi.*

QATORDAN QOLMAY – QATORDAN QOLDIRMAY hamma nima qilsa – shuni qilib, hamma nima bo'lsa – shunday bo'lib.

Ammo hayotdan umidimiz katta, shuning uchun ham qatordan qolmay yuribmiz. I.Rahim. *Ixlos. ... ziyoratchilardan ba'zilari tuproqdan tugib olishar edi.* Mahmud aka ham qatordan quruq qolmay, muridlar qoqlagan katta hamyonini tuproqqa liq to'ldirib oldi. N.Maqsudiy. *Bola yo'qotgan kishi.*

QATTI YUZLI [qatti yuzli] *tar. kim?* bezbet.

Bir muddat kechti, ul qiz qatti yuzli, achi so'zli edi, til uzatib vaqtimni mukaddar qilur edi. S.Saroyi. *Gulistoni bit-turkiy. Aning bekin qatti yuzli, yumshoq tanli mahubdan vafo kelur.* S.Saroyi. *Gulistoni bit-turkiy.*

QATTIG'IDAN TEGMOQ [*kimga?*] tezda tarqalmaydigan his-tuyg'uga duchor bo'lmoq.

U gapirmadi. Men biroz hazilla-shib ko'rdim, bo'lmadi. Keyin qattig'idan tekkan ekan deb indamay bora berdim. Oydin. *Sadag'ang bo'lay, komandir.*

QATTIQ BOTMOQ *nima? kimga?* adolatsiz deb bilgani uchun malol kelmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga qattiq botmoq** *nima? kimning?* Sinonimi: **qattiq tegmoq** *nima? kimga?* **og'ir botmoq** *nima? kimga?* **ayil botmoq** *nima? kimga?*

Zamiraning bu javobi Ochilga juda qattiq botdi. P.Qodirov. *Uch il-diz. Saidovning ma'nosiz va nursiz ko'ringan yaltiroq ko'zlari bilan mensimay qarashi, gerdayib turishi Nasibaga qattiq botdi.* H.Nu'mon. *Yoshlikda bergan ko'ngil. Hadicha ayaga bu gaplar qattiq botmadi.* H.Nazir. *So'nmas chaqmoqlar. Siddiqjon ming*

gumonicha, u hozir Kanizakka qattiqroq botadigan biron gap aytishi kerak edi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Burgutdan gap aylantiray desam, Nu'monjonning ko'ngliga qattiq botmasmikan deb xijolatda edim.* S.Ahmad. Cho'l burguti.

QATTIQ KETMOQ *kim?* amalga oshirish talabini qat'iy qo'ymoq.

E, qizim, O'ktam g'oyat qattiq ketdi. Ahvolning qandayligini surishtirmaydi u. Mana shu bir qo'y bilan nafasi o'chadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

qattiq ko'ngil: ko'ngl(i) qattiq

QATTIQ TEGMOQ *nima? kimga?* adolatsiz deb bilgani uchun malol kelmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga qattiq tegmoq** *nima? kimning?* Sinonimi: **qattiq botmoq** *nima? kimga?* **og'ir botmoq** *nima? kimga?* **ayil botmoq** *nima? kimga?*

Bu gaplar Naziraliga qattiq tegdi. To'rtinchi sinfni bitirgan bola yo'l yurishni bilmaydi deytogandek tuyildi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi. *Shu gapni boshqa odam aytsa, albatta, Qurbon otaga qattiqroq tegar edi; ko'ngli tortib yurgan odami aytgani uchun xafa bo'lmadi.* A.Qahhor. *To'y. So'nggi voqea Manzuraning ko'ngliga qattiq tegdi.* A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. *Usiz ham jigar-bag'ri xun bo'lgan onayizoriga ko'ngliga qattiq tegadigan so'z aytalormidi!* S.Anorboyev. Oqsoy.

QATTIQ TURMOQ *kim? [nimada? («gap»da)]* o'z aytganining amalga oshishini qat'iy talab qilmoq

«Bag'rimda bo'lsin, uylantirib qo'yaylik», – deb qattiq turdi-yu, bo'lma-

di. R.Fayziy. *Cho'lga bahor keldi. Murodova qattiq turib olib shu ishni amalga oshirmaganda, bunchalik hosil to'play olmas edik.* I.Rahim. Ixlos.

qay yuz bilan: qaysi yuz bilan

qayerga qo'l cho'zsa(...), yetadi: qayoqqa qo'l uzatsa (...), qo'l(i) yetadi

qayga bosh(i)[ni] urmoq: bosh(i) ni qayoqqa urmoq

QAYOQDAN KUN CHIQDI?! nechuk bunday favqulodda ish bo'ldi?! (ahyon-ahyonda keladigan kishi kutilmaganda kirib kelganida aytiladi).

Obbo Rahim ota-e, qayoqdan kun chiqdi?! Biz tomonlarga ham kelar ekansiz-a... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

qayoqqa bosh urmoq: bosh(i)ni qayoqqa urmoq

qayoqqa bosh(i)ni urmoq: bosh(i)ni qayoqqa urmoq

qayoqqa qo'l cho'zsa(...), yetadi: qayoqqa qo'l uzatsa (...), qo'l(i) yetadi

QAYOQQA QO'L UZATSA (...), QO'L(I) YETADI *kimning?* har qanday ishni amalga oshirishga qodir. Varianti: **qayoqqa qo'l(i)ni uzatsa(...), yetadi; qo'l(i)ni qayoqqa uzatsa(...), yetadi; qayoqqa qo'l cho'zsa(...), yetadi(-); qayerga qo'l cho'zsa(...), yetadi (-).**

Hosilni o'ttiz sentnerga yetkazib olsam, qayoqqa q o'limni uzat sam, yetadi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Omboringiz dondan, dasturxonigiz nondan to'liq. Qo'lingizni qayoqqa uzatsangiz, yetadi...* S.Nazar. Yashil boylik. *Pluglarni ham, paxta terish mashinalarini ham sotib*



olishimiz mumkin. Unda qayoqqa qo'l cho'zsak yetar edi. I.Rahim. Ixlos.

qayoqqa qo'l(i)ni uzatsa(...), yetadi: qayoqqa qo'l uzatsa(...), qo'l(i) yetadi

qaysi bet bilan: qaysi yuz bilan

qaysi bet(i) bilan: qaysi yuz bilan

QAYSI GO'RDA qaysi noma'lum tomonlarda, qayoqlarda.

Labbay! Ahadjon aka! Qaysi go'rda yuribsiz? Telefon qilmagan joyim qolmadi! A.Qahhor. Og'riq tishlar.

QAYSI GO'RDAN qaysi noma'lum tomonlardan, qayoqlardan.

Bu qurib ketkur ... tag'in qaysi go'rdan bosh ko'tarishdi-ya! S.Zun-nunova. Gulxan. – *Rost, – dedi ota quloq solib. – Qaysi go'rdan paydo bo'ldi u? Otib o'ldiraymi, onasi?* Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QAYSI GO'RGA qaysi noma'lum tomonlarga, qayoqlarga.

«Qaysi go'rga yo'qolding, bachchag'ar! – o'shqirdi Boboqulga qarab, – O'tni yoq. Bir piyoladan choy ichib, yo'lga tushaylik!» S.Anorbo-ye. Oqsoy.

QAYSI SHAMOL UCHIRDI?! kimni? bu tomonga kelishingizga nima sabab bo'ldi? Varianti: **qanday shamollar uchirdi? qandoqqina shamol uchirdi? nechuk shamol uchirdi?!**

Jonginam, qaysi shamol uchirdi seni? Yana bir qara, Zaynabmisan, jonim! Oybek. Oltin vodi-dan shabadalar. Keling, G'ozu aka, ilk saharda qanday shamol uchirdi? I.Rahim. Ixlos. «*Xo'sh, qanday shamol uchirdi?»* G'ulomjon bir zarur yumush bilan kelganini aytdi. M.Ismoi-

liy. Farg'ona tong otguncha. *Voy o'lay, qandoqqina shamol uchirdi, esingizdan chiqarmabsiz-da.* A.Muxtor. Xayri. «*Onajonlarim! Nechik shamol uchirdi?!*» – «*Shamol emas, samolyotda uchib keldik*»; A.Qahhor. Yangi yer. *To'xtamish bir qo'lini panjaradan osiltirib. jilmayib qarshi oldi uni. Qaysi shamol uchirdi. Latofatxon, opoq bo'lib ketdingizmi?* T.Malik. Charxpalak.

qaysi toshga bosh(i)ni urmoq: bosh(i)ni qayoqqa urmoq

QAYSI YUZ BILAN qanday qilib uyalmay. Varianti: **qay yuz bilan; qaysi yuz(i) bilan** [o'zining]; **qaysi bet(i) bilan** [o'zining]; **qaysi bet bilan** (oxirgi varianti oz uchraydi).

... akam qaysi yuz bilan shu ishni muvaffaqiyat deb atadi? S.Anorbo-ye. Oqsoy. *Nahotki qiz bolaga shunday gap aytib bo'lsa? Karim polvon qay yuz bilan shunday deya oldi?* S.Ahmad. Qadr-don dalalar. *Akam – jigarim! Suyunaman! Lekin... endi unga qaysi betim bilan ro'para bo'laman!* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. O'zi badnom bo'lishi ustiga, begunoh hayotni sharmanda qilmaydimi? Ota-onasining ko'ziga qaysi bet bilan qaraydi?* M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Bugun talayapti! Ertaga qotillik qilsa-chi? Unda, keksa olim odamlarga qaysi yuz bilan qaraydi? Men buni istamagandim, uni boshqalar yo'ldan urishdi, de-yish bilan o'zini oqlashi mumkinmi?* A.Obijon. Oltin yurakli Avtobola.

qaysi yuz(i) bilan: qaysi yuz bilan **qaytargan javob(i):** javob qaytarmoq

QAYG'U YEMOQ [qajyu je=] tar. kim? kim uchun? qayg'urmoq, kuyunmoq. Varianti: **qayg'usin yemoq**.

O'turur bo'lsa meni bu qinda ul yori aziz, Sen saqinmakim, yegayman qayg'u ul dam jon uchun. Jon amonatdur ani bermak kerak, lekin menim Qayg'um uldurkim, yerinda tutmag'an farmon uchun. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Dag'i boylarning yaxshiroqi ul dururkim, faqirlar qayg'usin yegay dag'i faqirlar yaxshiroqi ul dururkim, boylardan ko'z yumg'ay.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QASHINISHGA TIRNOG' (I) HAM QOLMADI kimning? o'taketgan darajada qashshoqlashmoq.

Urush qursin, qashinishga tirnog'im ham qolmadi, hammasini Mekalay yedi! Oybek. Qutlug' qon.

QIL USTIDA nima? o'ta qaltis vaziyatda; yo'q bo'lish, tugash.

...Daftarni saqlash chorasini ko'ring. Umrimiz qil ustida. Oybek. Quyosh qoraymas.

QIL USTIDA TURMOQ nima? o'ta qaltis vaziyat!

Bilasizmi, Raisa, hayotim qil ustida turgan edi, boshim ustida ayol kishining ovozini eshitib, beixtiyor «osmondan tushgan farishtadir» degan fikr miyamga keldi. S.Anorboyev. Do'stlar.

QIL YORMOQ [qil jar=] tar. 1 kim? mahorat bilan bajarmoq.

Har biriga jon bekin elga yarar, O'turub yorg'u yozarda qil yorar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

2 kim? nimaga? yo'lini topmoq.

Gar yesa qozi olib bartul sendan besh xiyor, O'n qovunluq ul senga ho-

sil etarga qil yorar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

qildan qiyiq axtarmoq: qildan qiyiq qidirmoq

qildan qiyiq chiqarmoq: qildan qiyiq topmoq

QILDAN QIYIQ QIDIRMOQ kim? yomon niyat bilan ayb, kamchilik topishga harakat qilmoq. Varianti: **qildan qiyiq axtarmoq**. Sinonimi: **tirnoq orasidan kir izlamoq** kim?

Bunaqa qildan qiyiq qidiradigan odatingiz yo'q edi, shekilli. Yo chini bilan o'rtoq Eshonqulovdan namuna olyapsizmi? P.Qodirov. Uch ildiz. *Bir vaqtlar ham xo'b musobaqa bo'lar ekan-da, ba'zi kishilar qildan qiyiq axtarishardi.* H.Nu'mon. Fasllar.

QILDAN QIYIQ TOPMOQ kim? yomon niyat bilan arzimagan, maydachuyda kamchiliklarni pisanda qilmoq. Varianti: **qildan qiyiq chiqarmoq**.

Saida uning kecha to'qimi teskari bo'lib yurgani va hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi: «... xatosi topilgan emish, masalasi qachon ko'riladi?» degan mish-mishga kimdir libos kiygizib, uning yuragiga g'ulg'ula solgan. A.Qahhor. Sinchalak.

QILIDAN QUYRUG'IGACHA butun tafsiloti bilan, maydachuydasi-gacha, batafsil. Sinonimi: **ipidan ignasigacha; miridan sirigacha**.

Men uning boshidan o'tganlarni, jumladan, qozikalon va qushbegiga borib arz qilganini, ularning bunga qanday muomala qilganlarini qildan quyrug'igacha butun bilib olgan

bo'lsam ham, o'zimni bilmaslikka solib... S.Ayniy. Qullar.

qilni qirq yormoq: qilni qirqqa yormoq

qilni qirqqa ajratmoq: qilni qirqqa yormoq

QILNI QIRQQA YORMOQ kim? o'ta sinchkovlik bilan tekshirmoq. Varianti: **qilni qirq yormoq; qilni qirqqa ajratmoq.**

Qilni qirqqa yorgan sudda ma'lum bo'lishicha, bir o'rta yashar ezma xotin hammomda ko'rgan ekan. Mirmuhsin. Jamila. Qilni qirq yoradigan Saidg'uzi nahotki shunga kelganda, o'zi aytmoqchi, shashti yetmay qolgan bo'lsa?! S.Anorboyev. Oqsoy.

qilichdan kechirmoq: qilichdan o'tkazmoq

QILICHDAN O'TKAZMOQ kim? kimlarni? qilich bilan qirg'in qilmoq. Varianti: **qilichdan kechirmoq.**

Muttahamlarni tutib bersang – berding, bo'lmasa hammangni hozir qilichdan o'tkazaman! M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. U qo'zg'algan qishloqni qilichdan kechirgani bu jonkuyurlarning yoniga necha ming so'filardan qo'shib berdi. A.Qahhor. Bashorat.

QILICHIDAN QON TOMADIGAN shafqatsiz.

Toshkentga qilichidan qon tomadigan generallar, jazolaydiganlari kelganmish. A.Muxtor. Opa-singillar.

QIMMATGA TUSHMOQ nima? kimga? 1 odatdagidan ko'ra yuqori sarf-xarajatga olib kelmoq.

Shu odam «Qishloqni bu xilda radiolashtirish qimmatga tushmaydi-

mi?» degan gapni o'rtaga tashladi. A.Qahhor. Sinchalak.

2 moddiy va ma'naviy tazyiq ko'rib, nimanidir yo'qotmoq.

«Eshonboyev tanqid qilgani juda qimmatga tushibdi-da», – deb bosh chayqadi Mahkam. P.Qodirov. Uch ildiz. – Bu keksa shallaqi oxiri avtomatlarning ham joniga tega boshlabdi-ku, – dedi u kulgidan zo'rg'a tiyilib. Keyin, hozir aytadigan gap kelgusida unga qimmatga tushishini xayoliga ham keltirmagan holda, qo'shib qo'ydi. A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

QIRCHININGDAN QIYILGUR navqiron yoshida nobud bo'lishini tilab qarg'ash (ayollar nutqida ishlatiladi).

... paranjisi yelkasiga tushib ketgan eshon aya ovozining boricha dod solib, uni qarg'ardi: «Qirchiningdan qiyilgur Chinoq, o'ynashgani o'z tenging topilmadimi?! S.Ahmad. Hukm.

QIROVI TO'KILMAGAN hali o'z kuchini mehnatda ko'rsatmagan (odam).

Sizga o'zingizga o'xshagan qirovi to'kilmagan odamlardan ikkitasini qo'shib beraman, uchchovlaring Qo'g'azorning yuqorisidagi to'qaydan o'tin qilasizlar. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qirq o'lchab, bir kesmoq: yetti o'lchab, bir kesmoq

QIRQ YIGITGA BOSH BO'LADIGAN tadbir-shijoatli. Varianti: **qirq yigitga sardor bo'ladigan.**

Odamlarning aytishiga qaraganda, xotini Farmonqul bilan bab-barobar

yurib, ...otishibdi. Ishonaman! Qirq yigitga bosh bo'ladigan xotin edi! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qirq yigitga sardor bo'ladigan:

qirq yigitga bosh bo'ladigan

QIRQI KETIB, BIRI QOLDI nimaning? qutulishga yaqinlashmoq.

«Qattiqchilikning qirqi ketib, biri qolgandir endi?» – «Ha, otaxon, qirqi ketib, biri qolgan, lekin birakayi qolgan». A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

QISQA CHIZGAN kimning? umri qisqa bo'lmoq, yosh vafot etmoq. (Buxoro viloyati Olot tumani shevasida).

– Jiyaningiz yosh o'lim topibdi, bandalik, opa. Banda bo'lmay ilojimiz qancha, qisqa chizgan ekan, chidaymiz. So'zlashuv uslubi.

QISSADAN HISSA xulosa sifatida aytiladigan fikr.

U barmog'ini ham unutib yuborib, qanday qilib kultivatsiya, chopiq o'tkazishni gapirib ketdi. Keyin birdan: «Qissadan hissa shu,- deb so'ziga yakun yasadi,- Solijonga chora ko'rish kerak...» S.Abdugahhor. Mirtolib ota.

QISTIRIB O'TMOQ kim? aytib ketmoq, suhbat orasida gapiga qo'shib aytib o'tmoq.

U faqat shahar o'rtasidan o'tadigan, bir vaqtlar suvi zilolday bo'lgan daryoning endilikda chiqindilarga to'lib-toshib, bo'tanaga aylanib, tuproq qal'adagi devday to'lg'anib oqib yotishini o'z hikoyasiga qistirib o'tgandi. Sh.Bo'tayev. Haykal.

QITDAY (QITDAY-QITDAY) **QILMOQ** spirtli ichimlik ichmoq.

Ziyofat boshlandi, quyuq-suyuq tortildi, yeng ichida qitday qitday ham qilindi. «Mushtum».

QITIG'(I)GA TEGMOQ kim? kimning? g'ashini keltirib, gap-so'z aytishga undamoq. Varianti: **qitiq par(i)ga tegmoq**.

«Men albatta o'qiyman, – dedi Saidiy va jo'rttaga qizning qitig'iga tegdi, – siz hech bo'lmasa eshikning tirqishidan dars eshishga ham rozidirsiz?» A.Qahhor. Sarob. «Qitig'imga tegaverma, Haydar!» – dedi u jahl bilan. I.Rahim. Ixlos. Kunlarning birida ... Matxoliq otani chaqirib olib, qitiq pariga tegadigan gaplar bilan tegishdi... S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi.

qitig'(i)ni o'ldirmoq: qitiq par(i) o'lgan

QITIQ PAR(I) O'LGAN kimning? uncha-muncha gap-so'zga, ishga sapchib tushmaydigan bo'lmoq, ko'nikmoq. Varianti: **qitig'(i)ni o'ldirmoq** kim? kimning?

Shu bugundan e'tiboran boshliq tob yeb, qitiq parlari o'lib, gapni fahmlaydigan va ancha pashshaxo'rda bo'lib qoldi. S.Abdulla. O'rtoq Xolnazarov. Shu vaqtda yordam qo'li uzatilsa, shubhasiz «jon» deydi. Bu qo'l erish ko'rinmasligi, hurkitmasligi uchun hozirdan uning ko'ziga issiq ko'rinish, qitig'ini o'ldirish kerak. A.Qahhor. Sarob.

qitiq par(i)ga tegmoq: qitig'(i)ga tegmoq

QIYG'IR QARASH QILMOQ o'qrayib qaramoq.

Yo'lda keta turib, Bolta akamiz bir qiyg'ir qarash qilib qo'ydilar. N.Safarov. Hayot maktabi.

qiyamoq[?!]: ko'z(i) qiymadi

QIYOMAT KO'TARMOQ kim?

baqirib-chaqirib janjal-to'polon qilmoq.

Mana endi nima bo'ldi? Hali eshikdan kirishim bilan kelin qiyomat ko'taradi, yig'laydi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

QIYOMAT QARZ tirikligida (o'l-gunga qadar) albatta ado etishi lozim bo'lgan burch, majburiyat.

Yetib boranimizdan keyin, xudo xohlasa, boshingni ikkita qilib qo'ya-man». – «Davlatingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, taqsir...» – «Bu – bo'ynimdagi qiyomat qarz». S.Anorboyev. Oqsoy.

QIYOMATLAR QO'PMOQ

[qijamätlär qop=] tar. to'polon boshlanmoq, borliq ostun-ustun bo'lmoq.

O'tursang o'turur fitna, ketar g'am, Agar qo'psang qiyomatlar qo'por ham. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

QIYOMIGA YETQAZMOQ

kim? nimani? eng maqbul darajada amalga oshirmoq.

Ko'klamda...birinchi bo'lib kuzda haydalgan yerga belgilangan agrotexnika muddatida chigit ekib oldi. Keyin g'o'za parvarishini ham juda qiyomiga yetkazdi azamat. A.Muhiddin. G'anisher.

qizarmoq: yuz(i) qizardi

QOFIYASI KELGANDA aytish

uchun juda qulay vaziyat paydo bo'lganda.

Hozir qizning avzoyiga razm solib, qofiyasi kelganda sir pardasining bir uchini ko'tarishni ma'qul ko'rdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

qon bo'lgan yuraklar: yurag(i) qon bo'ldi

qon bo'lmoq: yurag(i) qon bo'ldi

QON KECHMOQ kim? haddan

ortiq ko'p qurbonlar bermoq.

Odamlar qon kechayotgan chog'-da siz moyga botib, non tepib yotibsiz. Uvolidan qo'rqmaysizmi bu isrofgarchilikning? I.Rahim. Chin muhabbat.

qon qaqshamoq: qon qora qaqshamoq

qon qaqshatmoq: qon qora qaqshamoq

qon qilmoq: yurag(i) qon bo'ldi

QON QORA QAQSHAMOQ

kim? – **QON QORA QAQSHATMOQ** kim? kimni? behad iztirob chekmoq. Varianti: **qon qaqshamoq – qon qaqshatmoq.**

Axir musulmon komil bir mo'tabar kishini qon qora qaqshatib, mol-mulkini tortib olayotgan bir zo'ra vonning avvalgi Qo'chqorga nimasi o'xshar edi! S.Anorboyev. Oqsoy. Oh bechora el, qon qaqshab, zor-giryon! Madad kutib, yo'lga ko'zlar nigoron! S.Abdulla. Alpomish. Kim uchun miltiq ko'tarib, tog'-u tosh kezib yuribsizlar? Kim uchun o'z yor-birodarlarini qon qaqshatasizlar? A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi.

qon qora qaqshatmoq: qon qora qaqshamoq

qon to'kilmasin: qon to'kmoq

QON TO'KMOQ kim? urush,

janjalda yarador qilmoq, qurbon qilmoq. Varianti: **qon(i)ni to'kmoq** kim? kimning? **qon to'kilmasin(–).**

Yigitlarimiz jang maydonida qon to'kayotgan bo'lsa-yu, biz ularga yordam berishga harakat qilmay, bu yerda tosh chaqib yursak deb hayron bo'ldim. Oydin. Shiringa maktub. Be-

korga qon to 'kilmasin-ey!!! Jonlaring omon qolishini istasanglar, taslim bo 'linglar!!! S. Anorboyev. Oqsoy.

QON YOSHIN SOCHMOQ [qan jašin sač=] tar. kim? giryon yig'lamoq, ko'p ko'z yosh to'kmoq.

Boshtin kechib, qaro qon ichib, qon yoshin sochib Tobmon ko'ngul tilagini, vohasrato, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

QON YUTMOQ kim? ich-ichidan kuchli darajada ruhan azoblanmoq.

O'zimdanda o'tadi, o'zim bilaman. «Aldadimi?» – deyman, ishonmayman. «Bosmachilar o'ldirdimi?» – deyman, qon yutaman. Sochlarimni yulib yig'lagim keladi. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Olti-yetti yildan beri qovusholmay qon yutib kelayotganimizni nainki muttaham mingboshi bilan go'rso'xta qozi bilmaydi? M. Ismoilijon. Farg'ona tong otguncha.

QON CHIQARMOQ kim? xudo yo'liga jonlik so'yimoq (diniy).

Xaloyiqning ko'ziga musulmoni komilday ko'rinadi-ku, biroq biror марта qon chiqarib qurbonlik qilganini ... hech kim bilmaydi. S. Anorboyev. Oqsoy.

QON(I) QAYNADI kimning? – **QON(I)NI QAYNATMOQ** kim? yoki nima? kimning? achchiqlanmoq, qizishmoq. Sinonimi: **achchig'(i) keldi** kimning? nimaga? [yoki nimadan?]; **achchig'(i)ni keltirmoq** kim? yoki nima? kimning? **g'azabga kelmoq** kim? nimadan? **g'azabga keltirmoq** nima? kimni? **achchig'(i) qis-tadi** kimning? nimadan?

Sherbek o'zi ustidan ... yozilgan xatni eslab, qoni qaynadi. «Saidg'oz

fisq-fasod bilan band», – demoqchi edi, vaqtida o'zini tiyib qoldi. S. Anorboyev. Oqsoy. Mudir gapni ko'paytirib, xaridorning qonini qaynatmaslik uchun oqsoqlanib ichkari kirib ketdi. I. Rahim. Ixlos. Maxsumning keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi. «Tinchingizni buzmaydi, qo'rqmang. Muridingiz-ku?» – dedi o'zini zo'rg'a tutib. S. Anorboyev. Oqsoy.

qon(i)dan kechmoq: bir qoshiq qon(i)dan o'tmoq

QON(I)GA TASHNA BO'LMOQ kim? [o'zining].

QON(I)GA TASHNA QILMOQ nima? kimni? [o'zining] xunoblikdan, diltanglikdan o'ta darajada betoqat bo'lmoq.

Ostonaqul ketdi boyning yoniga, kira olmay ostonada ko'z tutdi. Turganida tashna bo'lib qoniga, Yonboshini asta bir kishi turti. S. Abdulla. Ostana polvon o'g'li. Hunarim, ma'lumingiz, g'azallar yozish. Ba'zan bir hijo qilur qonimga tashna. G'.G'ulom.


qon(i)ga tashna qilmoq: qon(i)ga tashna bo'lmoq

QONIM BOG'ISHLAMOQ [qanım bayışla=] tar. kimning? gunohini kechirmoq.

Bog'ishlasang qonim sultonsen oxir, Ko'zumga nur tanimga jonsen oxir. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

QONIN TO'KMOQ [qanin tök=] tar. kim? kimning? o'ldirmoq.

Qozi fatvo berdikim, sulton salomati uchun raiyatdan birining qonin to'ksa, ravodurur. S. Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Har kim ulug'larg'a so'kar,



tili bilan o'z qonin to'kar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QONINA TANUQLUQ BERMOQ [qanina tanuqluq ber=] tar. kim? kimning? nohaq ayblamoq.

Aning xojadoshlari hasad eltib, tuhmat etib, sulton xidmatinda qonina tanuqluq berdilar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QON(I)NI BUZMOQ kim? kimning? yoki [o'zining], nima? kimning? asabiylashishiga olib kelmoq.

Tohir uchun ko'p qayg'urib, Sen buzmagin qonim mening. S.Abdulla. Tohir va Zuhra. «Hamro uka, rozi bo'lmasang, mayling, – dedi – lekin qoningni buzmasdan joyingga o'tir va mening gaplarimga javob ber!» S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi. Jumaning nazarida, doimiy yolg'izlik fojiasi bu o'zining qonini buzib, hech kimga el bo'lmaydigan qilib qo'ygan bo'lishi kerak edi. A.Muxtor. Tug'inish..

qon(i)ni qaynatmoq: qon(i) qaynadi

QON(I)NI SO'RMOQ kim? kimning? o'z manfaati yo'lida uzoq vaqt shafqatsiz mehnat qildirmoq.

Mening bu yerga kelishdan maqsadim hamma mehnatkashlarning qonini so'rib kelgan mushtumzo'rni tag-tomiri bilan yulib tashlashda siz og'a-inilarimga yordam berishdir. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

qon(i)ni to'kmoq: qon to'kmoq

QON-QON(I)GA SINGIB KETMOQ nima? kimning? ruhiyatiga juda chuqur o'rnashmoq. Varianti: **jon-jon(i)ga, qon-qon(i)ga singib ketmoq.**

Lekin bu kuch uning bolaligidan qon-qoniga singib ketgan noto'g'ri tarbiya oldida gurullab yongan xasdek tezda so'nadi. S.Zunnunova. Latta. *Axir yosh bolalik chog'laridan beri eshitaverib, jon-joniga, qon-qoniga singib ketgan va hamisha ko'z o'ngida bo'lgan do'zax dahshati shunday kezlarda qaysi bir mazlum qaddini yana beshbattar bukmabdiki,..* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

QOQQAN QOZIQDAY qimirlamay.

Ahmadjon uning nima demoqchi bo'lganini fahmlab, darhol soyga tushdi va o'rtasiga kelib, qoqqan qoziqday turib oldi. A.Qahhor. Oltin yulduz. *Tapillab tushgan toshlardan cho'chigan sariq yumron lip etib teshikka kirib ketardi, yana bir damdan so'ng yuzaga chiqib, qoqqan qoziqday g'o'dayib turardi.* Mirmuhsin. Oq marmar.

qoqqanda qozig'(i), osganda cho'mich(i) qolmadi: qoqqanda qozig'(i), osganda xurmacha(si) qolmadi

QOQQANDA QOZIG'(I), OSGANDA XURMACHA(SI) QOLMADI kimning? butun bud-shudini sarflab yubormoq. Varianti: **qoqqanda qozig'(i), osganda cho'mich(i) qolmadi.**

«Nahotki besh oydan beri bu kuyukni tuzatib bo'lmasa, aylanay ega-chi! – deb yig'laydi. – Qoqqanda qozig'im, osganda xurmacham qolmadi». Oydin. Bechora. *Uyalmaganini qarang, uni odam qilguncha qoqqanda qozig'im, osganda cho'michim qolmadi.* S.Ahmad. Uzun til. *Bu talaba uchun kutilmagan hol edi: negaki,*

bu qishloqda qoqqani qozig'i, osgani xurmachasi bo'lmaganlar ham qarzhavola qilishni xayollariga keltirishmasdi. Sh Bo'tayev. Qarz.

qor yog'ib turgan qovog'(i): qovog'(i)dan qor yog'adi

QORA KIYGAN [qara kijgän=] tar. kim? yoki nima? xafa bo'lgan.

Suhayl shu yo'l uzar bormoqda g'amgin, Sevinchi qora kiygan, ko'zi namgin. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

QORA KUN turmushning azob-uqubatli davri.

U-bu narsa orttirib, nariroqda tura tursin degan bo'lsa, xudo ko'rsatmasin, qora kuningga asqotadi. S.Anorboyev. Oqsoy. Vatanimiz boshiga qora kunlar tushgandan beri vistavka darvozalari yopilgan. I.Rahim. Chin muhabbat.

QORA OLIB kim? kimni? yura turib uzoqdan ko'rgan holda.

Shu ko'yi ular bir-birlarini qora olib, avval katta yo'l chetidan, keyin xilvat so'qmoq bo'ylab G'uzorga kirishdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

QORA TERGA BOTMOQ kim? haddan tashqari zo'r berish natijasida mo'l-ko'l terlamog. Varianti: **qora terga tushmoq.**

Biz bu yerda kechani kecha, kunduzni kunduz demay qora terga botib ishlaymiz! A.Muxtor. Opa-singillar. Solijon mashinada turib sigirning boshidan tortaman deb qora terga tushdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Paxtalarni olib ketgan traktorchi yigit mototsiklni tarillatib kelib qoldi. Aft-basharasi qora terga botgan,

hovliqqanidan eplab gapirolmaydi. T.Malik. Charxpalak.

qora terga tushmoq: qora terga botmoq

QORA TORTIB kimni? yordamiga, himoyasiga umid va ishonch bilan.

Men sizni qora tortib keldim, O'rmonjon aka. Sizdan boshqa hech kimga gapira olmayman. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Chimkentga bir amakisini qora tortib borgan ekan. G'.G'ulom. Shum bola. Boyoqish Usmonalining o'g'li ekan, hamqishlog'imiz ekan, qondoshimiz ekan, qora tortib kelibdimi, o'shangga balli... Sh.Bo'tayev. Qarz.

QORA XAT halok bo'lganini ma'lum qiluvchi xabarnoma.

Bu orada To'tinisoning eri qazo qildi, urushga ketgan o'g'li to'g'risida qora xat keldi. A.Qahhor. Sinchalak. Ayagan ko'zga cho'p tushar ekan. O'g'lidan qora xat keldi. S.Ahmad. Kuyov.

QORA YURAK – YURAG(I) **QORA** [kimning?] g'arazgo'y, buzuq niyatli.

Qora yurak dushmanning mash'um changali sevikli do'stimiz, mehribon opamiz, bizning qo'rqmas Jo'raxonimizni oramizdan yulib ketdi. A.Muxtor. Opa-singillar. Balki yuragi toza odamlar o'rtasida yuragi qoralarni ko'rganda uning sochlari tikka-tikka bo'lib ketar. S.Anorboyev. Oqsoy.

QORA(SI) O'CHDI kimning? uzoqlashib, ko'rinmay ketmoq.

Nemislarning qorasi o'char-o'chmas beka ko'cha eshigini qulflab oldi. Oybek. Quyosh qoraymas. Hoji xolaning qorasi o'chgandan keyin Dilshod

tomga qichqirdi: «To'ti, tush pastga!» M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

QORA(SI)NI KO'RSATMASLIK kim? [o'zining] kimningdir ko'ziga hech ko'rinmaslik.

Juda ham yon bermaslik va boshlagan janjalini bekorga ketkazmaslik uchun xotin arazlab singlisinikiga ketib qoldi va bir hafta qorasini ko'rsatmadi. A.Qahhor. Sinchalak. *Dori bergan tabib, go'yo kasaldan umid uzganday, shu bo'yi qorasini ko'rsatmay ketdi.* N.Maqsudiy. *Bola yo'qotgan kishi. Faqat anavi jikkak, o'g'ri ko'z qorasini ko'rsatmasin. Pora bermoqchi deb qamatib yuboraman-a!* T.Malik. Charxpalak.

QORAGA OLIB QO'YMOQ kim? nimani? kuzatib turish lozim deb belgilab qo'ymoq.

416 *Bu yerning har bir qarichida mina bor. Undan keyin, bu yer – nemisning qoraga olib qo'ygan joyi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

QORANI OQ DEMOQ kim? haqiqatga teskari holda yomonni yaxshilamoq. Antonimi: **oqni qora demoq** kim?

Ota va akalarining huzurida jilla oshib-toshmasa ham, ular yo'q vaqtda qiz o'zini uyboshi hisoblar, har bir ishda o'z ra'yini o'tkazishga astoydil urinar, o'jarlik bilan qorani oq deb isbot qilishga tirishar edi. Oybek. Qutlug' qon.

QORDAN QUTULIB, YOMG'IRGA TUTILMOQ kim? avvalgisidan ham yomoniga uchramoq.

«Ketidan ko'sak qurti degan falokat chiqdi. Mana, ko'ringlar, tuxum qo'ya boshlabdi.» – «Qordan qutu-

lib, yomg'irga tutilibmiz-da», – dedi norozilik bilan Umrzoq aka. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Amerika quv, zolim, u bizning jilovimizni qo'liga oldi, qordan qutulib, yomg'irga tutil-yapmiz.* Oybek. Nur qidirib.

QORN(I)NI YORSA(...), ALIF CHIQMAYDI kim? kimning? g'irt savodsiz bo'lmoq, hech narsa bilmaslik. Varianti: **ich(i)ni yorsa(...), alif chiqmaydi.** Sinonimi: **alifni kaltak deyolmaslik** kim?

Endi u hozirgina Navoiy ruboiylarini zo'r hayajon va ilhom bilan o'qib, ilm osmonining yorug' yulduzlaridan biri sifatida charaqlab turgan mul-la G'ulomjonga emas, ichini yorsa alif chiqmaydigan olifta chapaniga o'xshadi-qoldi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

qovog'(i) ochildi: qovog'(i)ni ochmoq

qovog'(i) osildi: qovoq-tumshug'(i) osildi

qovog'(i) solindi: qovog'(i)ni solmoq

QOVOG'(I) SOLIQ 1 kimning? ranjigani, xafa bo'lganidan qovoqlari odatdagidan quyi holatda. Sinonimi: **qovog'(i) tushib ketgan** kimning?

«Muncha qovog'ingiz soliq, – dedi u Zamiraga, – yig'lab yubormang tag'in. P.Qodirov. Uch ildiz. *Qizlar Sobirni maqtashdi. Anorxon indamadi, uning qovog'i soliq edi, ba'zan beixtiyor uh tortar edi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 nimaning? quyuq qora bulutlar bilan burkangan.

Qovog'i soliq osmonning chehrasi asta ochila boshladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

QOVOG‘(I) TUSHIB KETGAN *kimning?* ranjigani, xafa bo‘lganidan qovoqlari odatdagidan ko‘ra quyi holatda. Sinonimi: **qovog‘(i) soliq 1 kimning?**

Bir nechalarining qovog‘i tushib ketgan, mendan norozidek ko‘rinadi. Oydin. Sadag‘ang bo‘lay, komandir.

qovog‘(i) uyildi: qovog‘(i)ni uyimoq

QOVOG‘(I)DAN QOR YOG‘ADI *kimning?* **QOVOG‘(I)DAN QOR YOG‘ILADI** o‘ta darajada xafa. Varianti: **qor yog‘ib turgan qovog‘(i).**

«So‘zing qurmasin, – kampir jilmaydi, – endi tiling chiqib qoldi. Boyadan beri qovog‘ingdan qor yog‘ayotgan edi...» Oydin. Kelin o‘g‘il tug‘ibdi. *Voy dadasi tushmagur-ey, muncha qovog‘ingizdan qor yog‘masa?! S.Zunnunova. Ko‘ngil. Hoy bolam, namuncha sening qovog‘ingdan qor yog‘ilib turibdi, ayta qolsang-chi, kim kelyapti? G‘.G‘ulom. Yodgor. Valixon, qor yog‘ib turgan qovog‘ini ochmay, yana Maynaga xunuk bir qarab oldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Subhi kozibda qo‘nalg‘a-multajolarini tark etib bemavrid maskan-tumanli tog‘ sari yo‘l olishgan besh nafar otliq – guruhning boshida qovog‘idan qor yog‘ib Xolbo‘ta borardi. Sh.Bo‘tayev. Qora tuman.*

qovog‘(i)dan qor yog‘iladi: qovog‘(i)dan qor yog‘adi

QOVOG‘(I)NI OCHMOQ *kim?* (o‘zining) – **QOVOG‘(I) OCHILDI** *kimning?* ranjigani, xafa bo‘lgani tarqab, qovoqlarini odatdagi holatga qaytarmoq. Antonimi: **qovog‘(i)ni solmoq** *kim?* [o‘zining]; **qovog‘(i)**


solindi kimning? **qovoq-tumshug‘(i) osildi kimning?** **qovoq-tumshug‘(i) ni osiltirmoq** *kim?* [o‘zining].

Qo‘ying endi, Mahkam aka, qovog‘ingizni oching. Bir kuling. P.Qodirov. Uch ildiz. Shu-shu bo‘ldi-yu, Siddiqjon Kanizakdan o‘zini mumkin qadar olib qochishga, gaplashganda ham qovog‘ini ochmaslikka harakat qildi. A.Qahhor. «Qo‘shchinor chiroqlari». Endi men ko‘rsataman ish qanday bo‘lishini. Lekin Shoniyozboy, qovog‘ingiz ochilmadi-da, uka!.. Sir bekitmas edingiz? Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

qovog‘(i)ni osiltirmoq: qovoq-tumshug‘(i) osildi

QOVOG‘(I)NI SOLMOQ *kim?* [o‘zining] – **QOVOG‘(I) SOLINDI** *kimning?* xafa bo‘lganini qovoqlarini quyiroqqa tushirib bildirmoq. Varianti: **qovoq solmoq** *kim?* **qosh-qovog‘(i)ni solmoq.** Sinonimi: **qovoq-tumshug‘(i) osildi kimning?** **qovoq-tumshug‘(i)ni osiltirmoq** *kim?* o‘zi. Antonimi: **qovog‘(i)ni ochmoq** *kim?* [o‘zining]; **qovog‘(i) ochildi kimning?**

Qambarali kalishini yechayotib Ro‘zimatga qaragan edi, Ro‘zimat qovog‘ini soldi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Bu Ismathojiga ayil botdi shekilli, dami ichiga tushib, qovog‘i solinib ketdi. Oydin. Yamoqchi ko‘chdi. Uning odati ham o‘zga: g‘azablansa, kuladi, maqtasa, qovoq soladi; hushi tutsa, undan o‘zar odam yo‘q. I.Rahim. Hilola. O‘ylamay qattiqroq gapirib qo‘ysang, qosh-qovog‘i osilib, shartta bir narsa aytadi, keyin pushaymon bo‘lasan. S.Nazar. Yashil boylik.



QOVOG‘(I)NI UYMOQ 1 *kim?* (*o‘zining*) kuchli darajada ranjiganini, xafa bo‘lganini qovoqlarini quyiroqqa tushirib va bir-biriga yaqinlashtirib bildirmoq. Varianti: **qovog‘(i) uyildi kimning?**

Barvasta G‘uzor begi suyakdor yuzini Hasan ovchiga burdi, qovog‘ini uyib, sovuq, bir nazar tashladi-da, indamadi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Havoning ortiqcha dim bo‘lib ketishidan biluvdim-a!» – dedi Umrzoq, aka, qovog‘i uyilib. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

2 *nima?* [*o‘zining*] quyuyq qora bulutlar bilan qoplanmoq.

Osmon qovog‘ini uygan – quyuyq bulutlar ko‘k yuziga parda tashlagan. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Xolbo‘ta mog‘orlaganday qora xarsang tosh ustida qovoq uyub o‘tirardi. Sh.Bo‘tayev. Qora tuman. Keyin qovog‘ini uyib karavotdan tushdi. Tufisini oyoq‘iga ilib, kichkinagina bo‘lib, eshikdan chiqdi. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. Mana bu xotin yig‘lab, ezilyapti. Nozima-chi? Suv berdi. Endi qovoq uyub qarab turibdi. Yupatishga urinmayapti. Qoidasi shunaqamikin? T.Malik. Charxpalak.

qovoq solmoq: qovog‘(i)ni solmoq

qovoq-dimog‘(i)ni osiltirmoq: qovoq-tumshug‘(i) osilgan

QOVOQ-TUMSHUG‘(I) OSILDI *kimning?* – **QOVOQ-TUMSHUG‘(I)NI OSILTIRMOQ** *kim?* [*o‘zining*] ranjiganini, xafa bo‘lganini qovoqlarini quyiroqqa tushirib, boshini egib bildirmoq. Varianti: **qovog‘(i) osildi – qovog‘(i)ni osilt-**

irmoq; tumshug‘(i) osildi; qosh-qovog‘(i) osildi; qovoq-dimog‘(i)ni osiltirmoq. Sinonimi: **qovog‘(i)ni solmoq** *kim?* [*o‘zining*] – **qovog‘(i) solindi kimning?** Antonimi: **qovog‘(i)ni ochmoq** *kim?* [*o‘zining*] – **qovog‘(i) ochildi kimning?**

Qalandarovning qovoq-tumshug‘i osilib ketdi: «Himm... Xotinlar xatomizni topgani to‘g‘ri ekan-da!» A.Qahhor. Sinchalak. Deraza tagida qovoq-tumshug‘ini osiltirib o‘tirgan Musa ko‘sa do‘ng‘irladi: «Xotinbozdan ... saylasang, shunaqa bo‘ladi...» S.Ahmad. Hukm. Ichidan ezilib, bo‘g‘ilib yurgan edi. Bugungisi ortib tushdi shekilli, qovoqlari osilib ketdi. I.Rahim. Hilola. «Vaqt ziq, mulla Abdug‘afur, – qovog‘ini osiltirib gapira boshladi, Rixsiboy aka, – o‘zingiz bilasiz, eng muhimi – paxta». R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. Bu yerda uning (Ashirning) turmushi chakki bo‘lmadi. Lekin «O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa, qo‘ymas» degandek, uning turmushdan nolishi qolmadi. Yurganda ham noliydi, turganda ham. Doim tumshug‘i osilgan. S.Anorboyev. Oqsoy. Tursunoy u yerdan qosh-qovog‘i osilganicha eshikni taraqlatib yopib chiqdi. S.Anorboyev. Pushaymon. Boya qovoq-dimog‘ini osiltirib kirgan Zebi endi ochilib-sochilib, hamma bilan qo‘l berib xayrlashib chiqib ketdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Qabulxonada uzoq o‘tirdi. Polkovnikning xonasidan chiqqan bo‘lim boshlig‘ini ko‘rib, noqulay ahvolda qoldi. Polkovnik «qiynalsangiz to‘g‘ri o‘zimga uchrayvering», degani bilan, bo‘lim boshlig‘ini chetlab kelishi

qoidaga xilofedi. Lekin, Nozima uchun kutilmaganda, boshliq qovoq osmadi, aksincha, xiyol jilmayib salomlashdi-da, «keyin menga kiring», deb chiqib ketdi. T.Malik. Charxpalak.

qovoq-tumshug‘(i)ni osiltirmoq: qovoq-tumshug‘(i) osildi

QOVUN PISHIG‘I bu kuzdan yanagi kuzgacha bo‘lgan muddat.

Oradan to‘rt qovun pishig‘i o‘tdi, dalalar to‘rt gal chigit yutib, to‘rt gal paxtalar gul ochdi. G‘.G‘ulom. Netay.

QOVUN TUSHIRIB, SHAG‘AL TO‘KMOQ kim? suhbat mavzusiga qovushmaydigan, noo‘rin gap-so‘z aytmoq. Varianti: **qovun tushirmoq.**

Bu yer o‘rtoq Xolnazarovga yoqdi shekilli, ancha yechilib, bahri dillari ochilib, dilkashliklar qilib, yo‘l bilmasalar ham, ashulalarga qo‘shilib, poyma-poy bo‘lsa ham, askiyalarga luqma tashlab, qovun tushirib, shag‘al to‘kib o‘tirdilar. S.Abdulla. O‘rtoq Xolnazarov. «Nega ... bunday deysiz?», – dedi Mahkam. «Kechirasiz, men yaxshi ma‘noda...» – «Yo‘q, endi mayli-ku, har holda... – Mahkam hazil qildi, – bir qovun tushirdingiz-tushirdingiz-da». P.Qodirov. Uch ildiz. Sultonov, gap tamom, deganday orqasiga burildi. Bo‘lim boshlig‘i qovun tushirib qo‘rganini sezib, indamay chiqib ketdi. T.Malik. Charxpalak. *Hozir-ku, Hamidova Sadirovni ayblamadi, – dedi Nozima Mavludadagi o‘zgarishni sezmaganday. – Berdisini aytguncha o‘zingiz qovun tushirdingiz. Xo‘sh, ertaga: «Bola Sadirovdan edi», deb tursa, «Sadirov shu isnodga chidamay o‘zini suvga tashlagan», desa ham tuhmat yuki-*

ni ko‘tarib yuraverasizmi? T.Malik. Charxpalak. – *Unga nima bo‘libdi? – Qovun tushirmay, deb ko‘p surishtirmadim. Balki o‘zingiz kelarsiz?* T.Malik. Charxpalak.

qovun tushirmoq: qovun tushirib, shag‘al to‘kmoq

QOVURG‘A(SI) QAYISHDI kimning? kimga? yoki nimaga? ahvoli yomonlashganini ko‘rib ozor chekmoq.

Ko‘rdingki, daraxt zararlangan, darrov qarashing kerak-da. Axir ko‘ra turib nahotki qovurg‘alaring qayishmasa. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

QOVURG‘ASI SANALIB TURARDI (nimaning?) haddan tashqari ozg‘in bo‘lmoq.

Qishdan toliqib chiqqan hayvonlarning qovurg‘asi sanalib turar, qorni ich-ichiga yopishgan edi. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil.

qozon osildi: qozon osmoq

QOZON OSMOQ kim? – **QOZON OSILDI** issiq ovqat pishirmoq.

Nima ovoragarchiligi bor, o‘zimizga ham qozon osamiz axir. S.Zun-nunova. Yangi direktor. *Bu bechoralarning nimasi bor? U haftadan bu haftaga bir marta qozon osishsa – osishadi, bo‘lmasa u ham yo‘q.* M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha. «Nima, oziq bitdimi, qozon osmadinglarmi?» – «Qozon qaynatishga suvdan boshqa narsalar kerak bo‘ladimi?» Oybek. Qutlug‘ qon. *Bularning yegan-ichgani qayoqqa borar edi. Bular uchun alohida qozon osilarmidi?* A.Qahhor. Boshsiz odam.

QOZON(I) OSIQSIZ QOLDI kimning? issiq ovqat pishirilmay qoldi.

Sening yo'qligingni bildirmasam, bolalaring ayozda sovuq qotmasa, kiri yuvuqsiz, qozoni osiqsiz qolmasa deyman.. S.Ahmad. Mehribon.

QOZON(I) QAYNAB TURIBDI kimning? issiq ovqat tayyorlanib, iste'mol qilinib turibdi.

Ishqilib, har kuni bir mahal qozonimiz qaynab turibdi-ku! S.Zun-nunova. Latta.

QOZON(I)NI SUVGA TASH-LAMOQ kim? (o'zining) non-choy bilangina tirikchilik qilmoq, issiq ovqat iste'mol qilmay qo'ymoq. Vari-anti: **qozonni suvga tashlamoq** kim?

Shu yigirma juft mahsini olib ke-taverasiz, butun oila qozonini suvga tashlab o'tiradimi? Oybek. Qutlug' qon. *Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.* A.Qahhor. O'g'ri.

qozonni suvga tashlamoq: qozon(i)ni suvga tashlamoq

QOSH QO'YAMAN DEB, KO'Z CHIQARMOQ kim? yaxshilik qila-man degan holda yomonlik qilib qo'y-moq.

Yaralarimizga, dardlarimizga mal-ham qidirgan va olamdan xabardor, ko'zi ochiq odamlarimiz bor. Yurt qayg'usiga ular chora ko'radi. San-ga nima? San o'z tirikchiligingni qil. Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarma! Oybek. Qutlug' qon.

QOSH QORAYDI falakda yorug'lik o'rnini qorong'ilik oldi. Sinonimi: **kun qoraydi; ko'z qoraydi.**

Saida devorning raxnasidan o'tib, ishkomlar orasidan hujrasiga qarab

ketdi. Bu orada qosh qoraydi. A.Qah-hor. Sinchalak. *Qosh qorayib, odam odamni tanimaydigan bo'lib qoldi. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha. Shu kuni Iqbol bilan qosh qorayguncha gaplashib o'tirdim.* S.Ahmad. Iqbol chiroqlari.

QOSHINI KERMOQ 1) qoshini ko'tarmoq; 2) taajjublanib qaramoq.

Qudratning dami ichiga tushib ketdi, qoshini kerib, javob kutib tur-gan Kolyaning aftiga tik boqolmadi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

qosh-qovog'(i) osildi: qovoq-tum-shug' (i) osildi

QOSH-QOVOG'(I)GA QARA-MOQ kim? kimning? har qanday ishni bajarishda kimningdir kayfiyati bilan, xohish-istagi bilan hisoblashishga maj-bur bo'lmoq. Varianti: **qovog'(i)ga qaramoq.**

Yosh bir joyga borib qolgan-da birovning eshigida yurib, qosh-qovog'iga qarashdan og'irroq ish bormi? A.Qahhor. Sinchalak. – *Ket-voraylik! – dedi Ikroma. – Shuning qovog'iga qarashimiz qolganmidi!* Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

qosh-qovog'(i)ni solmoq: qovo-g'(i)ni solmoq

qochirmoq: bir cho'qishda qochir-moq

quday urgan: xudo urgan

QULF URMOQ nima? tez sur'at bilan rivojlanmoq (o'simlik).

Sabzi, piyoz, kartoshka qulf urib yo-tibdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *Yoni-beriga qarasangiz, to'l-qinlari shamoldan chimirilayotgan tutash ko'lchalarni, barglari salobat-li shovullab turgan daraxtlarni, qulf*

urib ko'kargan giyohlarni ko'rasiz. P.Qodirov. Uch ildiz.

qulfi dil(i) ochildi: qulfi dil(i)ni ochmoq

QULFI DIL(I)NI OCHMOQ kim? [o'zining] – **QULFI DIL(I) OCHILDI** kimning? ko'nglida saqlab yurgan fikr-o'ylarini hayajon bilan, kuyunib gapirmoq.

G'ulomjon stoldagi nonlarga qarab ko'ngli buzildi. Uning sofniyatiga bu bir haqorat bo'lsa ham, ...Matqovul kambag'alga rahmi kelib ketdi. U nafsi og'rikan kishi tovushi bilan qulfi dilini ochdi: «Matqovul aka, men non toparmikanman, deb qorin g'amida maktab ochganim yo'q...» M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Siddiqjon Nasibalini Sharofat tashlab ketganini onasidan hanuz yashirib yurgan edi, endi yashirishni lozim ko'rmay, yo'lda aytdi. Shundan keyin Xadi cha xolaning qulfi dili ochilib ketdi. Ma'lum bo'lishicha, yozda Sharofat kelib, butun hovlini boshiga ko'targan ekan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Boya domla o'rik haqida qanday to'lib-toshib gapirgan bo'lsa, Burgut ham qulfi dili ochilib, cho'l haqida xuddi shunday miriqib gapira ketdi. S.Ahmad. O'rik domla.

QULING O'RGILSIN ajoyib (yigit-yalang nutqida ishlatiladi).

1941-yilning kuzida, achchiq izg'irinli bir kunda u Vatan mudofaasi uchun armiyaga jo'narkan, bu teraklar nozik novda ko'chatlar edi. Mana bugun quling o'rgilsin bir xiyobonki, ko'lankasida yastanging keladi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. [Adishhev] ishga tayinlanib kelgan zahotiyog

idorani quling o'rgilsin qilib remont qildiribdi. A.Muhiddin. Xarakteristika.

QULOQ BERMOQ kim? nimaga? («gap»ga) tinglamoq. Sinonimi: **quloq solmoq 1** kim? nimaga? («gap»ga).

Quloq ber: uzoq yili majburiyatga deb bozordan qancha go'sht sotib oling? I.Rahim. Ixlos. Qiz uning so'ziga o'zi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq berar edi. A.Qahhor. Sarob.

QULOQ KERAK BO'LSA, KESIB OL[ING] kim? ezmalanib gapirishni, shovqin-suronni to'xtat[ing].

«Aka, quloq kerak bo'lsa, kesib oling! – dedi achchiq aralash. – Bo'lmasa biron boshqa joyga borib g'o'ng'illang-da!». Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. Chulduravermalaring chug'urchuqday! Quloq kerak bo'lsa kesib ollaring. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

quloq osmoq: quloq solmoq

QULOQ SOLMOQ: kim? nimaga? («gap»ga) 1 tinglamoq. Varianti: **quloq osmoq** (eskirgan). Sinonimi: **quloq bermoq** kim? nimaga? («gap»ga).

Uzoqdan ashula eshitilib qoldi. Notanish, ammo juda yoqimli ovoz. Beixtiyor quloq soldim. I.Rahim. Hिलola. Anorxon, so'zimga birpas quloq osa sizmi? Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

2 aytganini qilmoq. Varianti: **quloq osmoq** (eskirgan). Sinonimi: **gap(i)ga kirmoq** kim? kimning?; **gap(i)dan chiqmaslik** kim? kimning?

Tajriba uchastkasi Kanizak zvenosidan ajratilishiga Zokir ota sira

ko'nmay turib oldi. Ibrohimov unga tushuntirishga harakat qildi, chol quloq solmadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. O'z urug'ingdan ishlatish hammadan rohat... Begona qursin, so'zga quloq osmaydi. Oybek. Qutlug' qon.

QULOQ TUTMOQ [qulaq tut=] tar. kim? tinglamoq.

Karam qilib, quloq tutsang, javob aytayin. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QULOQINDA TUTMOQ [qulaqinda tut=] kim? [o'zining] tar. eslab qolmoq, yodda saqlamoq.

So'zlarimning javharin orif ko'rub, qadrin bilib, Ko'b baholi dur bikin doyim quloqinda tutar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QULOQ[LAR](I) OSTIDA SHAVLA QAYNATMOQ kim? kimning? shapalog'i bilan boshning yon tomoniga qattiq urmoq. Varianti: **qulog'(i) tagida shavla qaynatmoq.**

Shu on Saidaning quloqlari ostida shavla qaynatgim keldi. Ammo iloji yo'q, rasmiy idoradaman. Aytgan gapiga tonib turib olgandan keyin, nima qilasiz? Sh.Rizo. Da'vogar sust kelsa, qozi muttahaq. Turdiqulg'azablanganidan o'rnidan turib ketayozdi: ko'zlaridan nafrat sachradi, beixtiyor musht tugib, xayolan nimalarnidir chilparchin qilgisi, kimlarningdir qulog'i ostida shavla qaynatgisi keldi. Sh.Bo'tayev. Haykal.

QULOQ[LAR]NI QOMATGA KELTIRMOQ nima? (jonli, jon-siz) yoki kim? tovushi baland, ko'p bo'lganidan garang qilmoq. Sinonimi: **qulog'(i)ni batangga keltirmoq** kim? kimning?

To'rt karnayning «vaha-vaha, vahu-vaha» degan tovushi boshqa hamma tovushlarni bosib, quloqlarni qomatga keltira boshladi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Tovuqlar che-tanlardan boshlarini chiqarib qa-qoqlashib, quloqni qomatga keltirmoqda. I.Rahim. Hilola. Himm... O'sha yoqlarda yuravergani ma'qul edi. Hech qaysisi paxtani bilmaydi, boshqa masala bo'lsa, mahmadonalik qilib, quloqni qomatga keltiradi. A.Qahhor. Sinchalak.

QULOQDAN QOLMOQ kim? eshitish qobiliyatini yo'qotmoq.

«Salom berdim-ku, oyi?» – dedi Go'zal kulgi aralash. «Voy tovba-yey, hali quloqdan qolganim yo'q-ku. Yolg'on gapirishni ham o'rgandingmi?» R.Fayziy. Ni xao.

quloq-miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga tutqizmoq: miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq

quloq-miya(si)ni qoqmoq: miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq

QULOQ-MIYA(SI)NI YEMOQ kim? yoki nima? kimning? so'rayverib, sergapligi bilan miyasini charchatmoq; shovqini bilan bezdirmoq. Sinonimi: **miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq** kim? kimning?

Ha, sadag'ang ketay malikalar, unaga emas, bunaqa deb to gap uqtirguningimcha chuvurlashib, quloq-miyamni yevoray deyishdi. S.Anorboyev. Oqsoy. «Shaharga, xolamnikiga meni ham olib boring!» – deb quloq-miyasini yedim. Oydin. Fonar tagida. O'zlarining bilasizlar, tapirlab quloq-miyani yeydigan elektrostansiyamiz ellik-oltmishta lampochkani arang qizartiradi. A.Qahhor. Sinchalak.

quloqqa kirmaslik: qulog‘(i)ga kirmaslik

quloqqa olmoq: qulog‘(i)ga olmoq

QULOG‘(I) DING BO‘LDI kimning? – **QULOG‘(I)NI DING QILMOQ** kim? [o‘zining] diqqat bilan tinglashga tayyor bo‘lmoq.

Uning qulog‘i ding bo‘lib, ko‘zi alangladi. Saodat ko‘rinmasmikin, bolaning ovozi eshitilmasmikin? I.Rahim. Ixlos.

QULOG‘(I) DING kimning? diqqat bilan tinglashga tayyor.

Vakillarga so‘z berila boshlandi. Umaralining qulog‘i ding. Notiqlarning boshidan oyog‘igacha va oyog‘idan boshigacha sinchiklab qarab, og‘ziga tikilib, bir-bir kuzatmoqda. I.Rahim. Ixlos.

QULOG‘(I) OG‘IR kimning? eshish qobiliyatini anchagina yo‘qotgan.

«Dunyoni sel olsa, to‘pig‘iga chiqmaydigan», «olam bilan ishi yo‘q», «tentaknamo» Timofey gospitalda yurgan vaqtida «qulog‘i og‘irroq» bo‘lib kelardi. M.Muhamedov. Kichik garnizon. *Endi ishim yuribdi-yu, daryoning suvi quribdi, deganlaridek, qulog‘i og‘ir do‘konchi quvonchimni bir zunda chippakka chiqarayozdi – u o‘ng yonimda tarvuzga chatishtirilgan pomidordek qip-qizarib turgan qorindor to‘pni olib, bolakayga uzatdi. Birdan ichikib, battar shalvirab qoldim. Nima, aybim qizil bo‘lmaganimmi?* A.Obidjon Oltin yurakli Avtobola.

QULOG‘(I) PISH[I]DI kimning? nima qilib? yoki nima bilan? eshita-verib, anchagina o‘rgandi, tajriba ort-tirdi.

Avvallari ham dalada Borisga boqishib yurib, undan mashinaga xos ancha-muncha so‘zlarni eshitib, qulog‘i pishib qolgan edi. H.Nazir. Ko‘korol chiroqlari.

qulog‘(i) tagida shavla qaynatmoq: quloq[lar](i) ostida shavla qaynatmoq

QULOG‘(I) TIKKAYDI kimning? – **QULOG‘(I) TINCHIDI** kimning? – **QULOG‘(I)NI TINCHITMASLIK** kim? kimning? har xil noxush gaplardan, ta‘na-tazarrulardan qutulmoq.

Ming tovuq bir yilda sigirlaridan ko‘ra ko‘proq daromad beradi, serobgarchilik, farovonlik bo‘ladi. Savri xola ham tuxum so‘rab uyma-uy yurishdan qutuladi. Qulog‘ing tinchiydi. I.Rahim. Hilola. *Ergash fabrika qurilishi uchun undan mahalliy daromadning qariyb ellik foizini undirib, uchta artel, bitta ustaxonani butun boshliq apparati bilan «tortib» olgan bo‘lsa ham, Tojiyevning qulog‘i tinchimadi.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Biror obunachining gazetasi kelmay qolsa, Ramazon aka pochta mudirining qulog‘ini tinchitmaydi.* H.Nu‘mon. Fasllar. *Uning baribir qulog‘i tinchimadi.* Sh.Bo‘tayev. Qarz.

QULOG‘(I)DAN NARI KETMASLIK nima? kimning? ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, go‘yo hozir aytilganday, xotirasida saqlanib turmoq.

Qulog‘imdan boyagi kelinning gapini nari ketmasdi. S.Ahmad. Hasrat.

QULOG‘(I)GA CHALINMOQ nima? kimning? biror gapni (yoki tovushni) noaniq tarzda eshitmoq.



«Nima gap o'zi?» – u shivirlab so'radi yoniga cho'nqaygan eridan; garchi yumush bilan ovora bo'lsa ham, erkaklar orasidagi gap Asalbibining qulog'iga chalingan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Hamma yoq qorong'i, faqat uzoqdan traktorlarning guvillagan ovozi quloqqa chalinadi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Ancha olisda, qoya etaklarida yoyilib, o'tlab yurgan qo'ylar jimitdekkinna kurinar, cho'pon qiyqiriqlarining aks-sadosi damo-dam zo'r-bazo'r quloqqa chalinardi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

qulog'(i)ga kiradimi?!: qulog'(i)ga kirmaslik

QULOG'(I)GA KIRMASLIK nima? kimning? **1** parishon bo'lish, kuchli hayajonlanish yoki mashg'ul bo'lish tufayli o'ziga qarata aytilayotgan gaplarni anglamaslik, eshitmaslik. Varianti: **quloqqa kirmaslik** nima?

Opa ukasining oldida ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini saqlash bilan ovora bo'lib, qulog'iga gap kirmadi. A.Qahhor. Sarob. *Odamning xayoli biror narsa bilan band bo'lganda, boshqa narsa quloqqa kirmaydi.* I.Rahim. Olovkor.

2 e'tiborsiz qoldirmoq, qabul qilmaslik. Varianti: **qulog'(i)ga kiradimi?! quloqqa kirmaslik** nima?

Mana bunday botiribroq ur, har safar aytaman qolib ketmasin deb. Qulog'ingga hech gap kirmaydi. S.Nazir. Yashil boylik. *O'git kirmas quloqqa, men uchun hech tortmangiz tashvish.* S.Abdulla.

QULOG'(I)GA KIRMOQ nima? («gap») kimning? maxsus tinglamagani, qiziqmagani holda eshitmoq.

«*Shu odam Bo'ta emasmikan? Bir gap yurgan edi, Salomatni Bo'taboy yo'q qilgan degan.*» – «*Bilmadim, bolam. Bir qulog'imga kirgan edi-yu, qaydam, odamning olasi ichida bo'ladi.*» S.Ahmad. Hukm. *Siddiqjon to'xtadi, xotining tovushini eshitganda «Bolangni olib ket» degani emas, uning sensiragani qulog'iga kirdi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

QULOG'(I)GA OLMOQ kim? [o'zining] nimani? («gap»ni) kimningdir fikriga amal qilib ish tutmoq. Varianti: **quloqqa olmoq** kim? nimani?

Kampir Saodatning ona nasihatini qulog'iga olganidan mamnun edi. I.Rahim. Ixlos. [Kimsan] aqlli, fikrli, mehnatsevar *Hasanning oldida o'zining naqadar kalta fikr, hovliqma ekanligidan, uning so'zlarini quloqqa olmaganligidan pushaymon qilar, o'zo'zidan xijolat bo'lar edi.* S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan.

qulog'(i)ga quyilib qolmoq: qulog'(i)ga quymoq

QULOG'(I)GA QUYMOQ 1 kim? kimning? nimani? gap uqtirmoq.

«*Xo'jabekov tuni bilan toza qulog'iga quyibdi,*» – *deb ko'nglidan o'tkazdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

2 kim?[o'zining] nimani? xotirasida mustahkam saqlamoq. Varianti: **qulog'(i)ga quyilib qolmoq** nima? [kimning?]

Beshinchi kursda o'qisa ham, intizomni buzsa, ayamaymiz, shuni qulog'laringga quyib olinglar. P.Qodirov. Uch ildiz. «*Qizim, barvaqt turishga*

odat qil. *Ko'zing ochildimi, irg'ib tur; erinib yota bersa, kishi lanj bo'ladi», – degani qulog'iga shundoqqina quyilib qolgan ekan.* R.Fayziy. Tosh oyna.

qulog'(i)ga tanbur chertmoq:

ho'kizning qulog'iga tanbur chertmoq

QULOG'(I)GA YETMOQ nima?

kimning? – QULOG'(I)GA YETKAZMOQ kim? kimning? nimani? biror kishi orqali eshitib, xabardor bo'lmoq.

Bu gaplar katta janjalga aylanib, muharrirning qulog'iga yetdi. A.Qahhor. Sarob. *Koshkiydi Gulsumbibi shu yerda bo'lsa, Gulorning «buzuq»ligini uning qulog'iga yetkazsa...* Oybek. Qutlug' qon.

qulog'(i)ga yetkazmoq: qulog'(i) ga yetmoq

QULOG'IN OG'IR YARATMOQ [qulayin ayir jarat=] tar. *kimning?* eshitish qobiliyati past, kar.

Haq taolo aningkim irodati qulog'in og'ir yaratib turur, ul netkaykim, eshitkay; dag'i anikim, saodat mandi bilan chekkay, ul nechuk ilgari kelmagay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QULOG'INA TEGMAGAN [qulaqina tegmagän=] tar. *kim?* eshitmagan.

Ko'lkada beslanmish, jahon ko'rmagan, safar javrin chekmagan, issi-sovuq tatmag'an, harb ko'sining uni qulog'ina tegmagan ... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QULOG'(I)NI BATANGGA KELTIRMOQ *kim? kimning?* tovushi baland, ko'p bo'lganidan garang qilmoq. Sinonimi: **quloq[lar]ni qomatga keltirmoq** nima? (jonli, jonsiz) yoki kim?

Ammo Matxoliq ota ham o'zini uzum mirishkori hisoblab, ha deganda ... qulog'ini batangga keltiradi. S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi.

QULOG'(I)NI BURAB QO'YMOQ *kim? kimning? 1* nomaqbul ishni boshqa takrorlamaydigan qilib ta'zirini bermog.

Kim o'qishingizga xalaqit bersa, tortinmay ayting, qulog'ini burab qo'yamiz. P.Qodirov. Uch ildiz.

2 nima deyish, nima qilish haqida oldindan maxsus tayinlamoq. Sinonimi: **qulog'(i)ni pishitmoq** *kim? kimning?*

Axir qo'li lazzat-de. Xotirjam bo'ling, o'z ishini xuddi askarday joyiga qo'yadi. Men o'zim ham qulog'ini burab qo'ydim. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Hozir ular komissiyani kutyapti. O'qituvchilarning ham xo'p qulog'ini buragandir. Biroz eslaridan chiqsin, keyin boramiz.* S.Zunnunova. Yangi direktor.

qulog'(i)ni ding qilmoq: qulog'(i) ding bo'ldi

qulog'(i)ni kar, ko'z(i)ni ko'r qilmoq: ko'z(i)ni ko'r, qulog'(i)ni kar qilmoq

qulog'(i)ni pishiqtirmoq: qulog'(i)ni pishitmoq

QULOG'(I)NI PISHITMOQ *kim? kimning?* nima? deyish, nima qilish haqida oldindan maxsus tayinlamoq. Varianti: **qulog'(i)ni pishiqtirmoq.** Sinonimi: **qulog'(i)ni burab qo'y-moq 2** *kim? kimning?*

«Ataylab sizni kutib o'tirgan emish...» – «Nima derdi! Zunnunov qulog'ini xo'p pishitgandir.» I.Rahim.

Ixlos. *Qizining qulog'ini pishiqtirib qo'ymaganiga mana endi afsus yeb qoldi. Yo Solivoy pishiqtirib qo'yganimikan-a?* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

qulog'(i)ni qoqib, qo'l(i)g'a bermoq: miya(si)ni qoqib, qo'l(i)ga bermoq

QULOG'(I)NI TIKKAYTIRMOQ kim? [o'zining] har qanday salbiy (noxush) gap-so'zni eshitishga tayyor turmoq.

Har kun mol narxi oshadi, bozorda savdogarlarning qulog'i tikkaygan. Bitta-yarimtasi vahimaliroq bir gap eshitdimi, darrov mol narxini oshiradilar. Oybek. Qutlug' qon. *Man bir parcha boshpanamga tish-tirnog'im bilan yopishganimdan hafsalasi pir bo'la yozgandi. Ammo Tohirjonning kasali, ro'zg'ordan qiynalganim uchun yana qulog'ini tikkaytirdi benomus...* Oybek. Qutlug' qon.

qulog'(i)ni tikkaytirmoq: qulog'(i) tikkaydi

qulog'(i)ni tinchitmaslik: qulog'(i) tinchidi

QULOG'(I)NI TISHLAB KETMOQ nima? [o'zining] behuda, befoйда, yo'q bo'lib ketmoq. Varianti: **qulog'ini ushlab ketmoq.**

Kuzda yaylovning semirgan yosh-yosh g'unajinlarini sotdingmi?.. Juda arzon sotding. Bechora g'unajinlar bekordan bekorga qulog'ini tishlab ketdi. I.Rahim. Ixlos. *Lekin hokim bizning ko'chadan o'tmaydi, bari sepgan suvimiz qulog'ini ushlab ketadi-da!* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. «*To'pponchayam qulog'ini ushlab ketdi, – Avtobola bilan be-*

mavrid garov o'ynaganidan afsuslanib, bosh qashladi Xoldor. – Kattaroq narsadan bahs boylasang, oymomogayam chiqib keladi, shekilli, bu Temirtak». A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

QULOG'(I)NI TISHLAMOQ kim? kimning? qiz bolani go'dakligidayoq bo'lajak qaylig'i deb belgilab qo'ymoq.

Qizimni tilga olaverma, tug'ilgan kunida qulog'ini tishlagan kuyovi bor; o'g'ling kelib, kuyov bilan oramiz buzilay deb qoldi. S.Nazar. *Yashil boyluk. Yoshligimizdan bir-birimizni yaxshi ko'rishib yurardik, qo'shni edik, qulog'ini tishlab ham qo'yganim edim.* Sh.Rizo. *Qor yog'di, izlar bosildi. – Unday bo'lsa, nabiramni qulog'ini tishla, – ko'zlarini baqraytirib iljaydi Pufak momo.– Shu qiz katta bo'lsun, keyin uni sanga beroyin.* A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

QULOG'I OSTIDA QOLDI kimning? yoki nimaning? (jonlining) to'satdan, bemavrid o'lmoq.

Shunday qilinmaganda, har ikki tomondan bir necha kishining qulog'i ostida qolishi turgan gap edi. M.Muhammadjonov. *Turmush urinishlari. Qushxonaga kirib, ne ko'zim bilan ko'ray: miqqushning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi.* G'.G'ulom. Shum bola.

QULOG'IDAN KUN KO'RINADI juda ozib ketgan.

Voy xudo! Bu qizni kim boqibdiki, qulog'idan kun ko'rinadi. So'zlashuv uslubi.

qulog'im senda: ikki qulog'im senda

qulog'ini ushlab ketmoq: qu-log'ini tishlab ketmoq

quloch ochib: quloch yozib

QULOCH OTMOQ kim? yoki nima? keng ko'lamda rivojlanmoq.

Paxtakorlikda chinakam quloch otish uchun endi ilmga zo'r berish kerak. Oybek. Oltin vodiyan shabada-lar. *Mana shu ildizlarimizning qu-loch otishiga xalaqit beradigan eski to'nkalar bor.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Endi esa Cho'loq turna o'z safdosh-lari bilan o'sha bulutlar ichidan suzib o'tmoqda. Lekin u bundan vahima-ga tushayotgani yo'q, aksincha – bu g'aroyib makonda erkin-erkin quloch otmoqda.* Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QULOCH YOZIB bajon-u dil, mamnuniyat bilan. Varianti: **quloch ochib.**

... sizlar ularni quloch ochib kutib olasiz. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

QURB(I) YETADI kimning? nima qilishga? amalga oshirishga jismonan yoki aqlan qodir bo'lmoq, ojizlik qil-maslik. Sinonimi: **kuch(i) yetadi** kimning? nima qilishga?

Ota-onam keksayganda yoniga kirib, ro'zg'origa ko'maklashishga qurbim yetadi. I.Rahim. Olovkor. *Yo-niga birorta shogird yoki xalfa so-lib ishlatishga qurbi yetmas edi.* G'.G'ulom. Ko'ngilsizning «qilig'i». *Zokir Faridaning mensimaganini se-zib, o'zining nimalarga qurbi yetishi-ni ko'rsatib qo'ygisi keldi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

QURBON BO'LMOQ [qurban bol=] tar. kim? jonini fido qilishga tayyor turmoq.

Yuzungda ko'rdum, ey jon, bayram oyin, Munung shukronasi qurbon bo'loyin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

quruq aravani olib qochmoq: aravani quruq olib qochmoq

QURUQ QO'L BILAN hech nar-sa olmagan holda.

Xona tinch. ...hamon uyqusiz. U o'ylaydi: «Shunday bo'lsa ham, ular bu yerdan quruq qo'l bilan ketmas-liklari kerak...» A.Muxtor. Kuzatish.

QURUQ QOLMOQ kim? nima-dan? o'z manfaati yo'lida foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lmoq.

Soy yoqalab samanni yo'rg'ala-tib Qudrat kelmoqda, uning orqa-sida buvisi mingashib olgan edi... Axir buvisi shu narsadan quruq qol-sa, nima qilardi. Qudratning o'zida ham ayb bor. Buvisi: «Meni ham obo-rasan, o'ladigan dunyoda bir ko'ray bu tomoshani!» – desa, oborib yurib-di-da!.. H.Nazir. So'nmas chaqmoq-lar. *To'y-u tomoshadan quruq qolmay-digan bolalar hammani jondan bezor qilib, gapni gapga qovushtirmaydi.* S.Ahmad. Hukm.

qush kabi yengil tortmoq: yengil tortmoq

QUSH UCHSA – QANOTI, ODAM YURSA – OYOG'I KUYA-DI aslo chidab bo'lmaydigan daraja-da issiq, jazirama.

Qush uchsa – qanoti, odam yur-sa – oyog'i kuyadi bizning qirlarda. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Oldimda katta bir cho'li azim pay-do bo'lgan edi, qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadigan bu cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan*

ketib borar edim. G'.G'ulom. Shum bola.

qushday (qushdek) yengil tortmoq: yengil tortmoq

QUT(I) O'CHDI kimning? qattiq qo'rqqanidan, g'azablanganidan rangi oqarib ketdi.

«Kim aytdi sizga Eshon yozgan deb?» – «O'qigan yozuvingizga ko'zim tushgan edi. Eshonning xatini yaxshi taniyman». Qalandarovning quti o'chdi: darhaqiqat, rezolyutsiya qo'yiladigan qog'ozlarga rezolyutsiyani Eshonga yozdirib, o'zi qo'l qo'yib yurar edi. A.Qahhor. Sinchalak. «Onaxon! Kirmang. Siz uning erini bilmaysiz. Nojo'ya gapirib, ko'nglingizni xira qiladi». Onaxon to'xtamadi. «Onaxon! – dedi Anzirat quti o'chib.– Qayting, bolam». A.Muxtor. Opa-singillar.

qut(i) uchdi: qut(i) o'chdi

QUVONCH(I) OLAMGA SIG'MAYDI kimning? xursandligi oshib-toshib ketdi. Sinonimi: **sevinch(i) ich(i)ga sig'maydi** kimning?

Alohida komissiyadan o'tib, akademiya putyovka ham oldim. Quvonchim olamga sig'maydi. G'.G'ulom. Yodgor.

QUYON YURAK o'ta qo'rqoq, jur'atsiz.

Quyion yuraklar, quyionlar, shitir etgan tovush eshitilsa, yuraklaring uzun quloqlaringdan chiqib ketay deydi. A.Qahhor. Sarob. Sizni durust odam deb yurardim. Qo'rqoq, quyion yurak odam ekansiz. S.Ahmad. Hukm.

QUYOSH NAYZADA kunduzning eng issiq payti.

Quyosh nayzada. Miyasini qaynatgudek qizdiradi, u chakkasidan ham, bu chakkasidan ham yuziga yopishgan changni yuvib qop-qora ter oqadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

quyosh nayzaga keldi: oftob nayza bo'yiga keldi

quyushqon tor keldi: quyushqon(i) tor keldi

QUYUSHQON(I) TOR KELDI kimning? imkoniyatlari cheklanib, noqulay ahvolga tushib qolmoq. Varianti: **quyushqon tor keldi (-)**.

General Shmidtning quyush qoni tor kelib qolganga o'xshaydi. Chap qanotimizdagi soldatlarini Moskva frontiga chaqirib olibdi... I.Rahim. Chin muhabbat. Notiq kavkazcha tasmasining kumush qadalgan uchini aylantirib turib: «Ba'zi joylarda ruhoniylar, savdogarlar, hatto boylar ham yer islohotini samimiy tabriklamoqdalar», – degan edi. «...Samimiy emish. Bekorgap! Quyushqon tor kelgan, quyushqon!..» S.Anorboyev. Oqsoy.

QUYUSHQONDAN [TASHQARI] CHIQQOQ kim? mumkin bo'lganidan ortiq narsaga botinmoq.

Unaqa taltaymang. Indamaganim sayin quyush qondan chiqib ketyapsiz. Ochilgan bitta shisha bor – yetadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Qandoq qilay, leksiya o'qiganda quyushqondan tashqari chiqib bo'lmaydi, shuni talab qilishadi... A.Qahhor. Quyushqon.

qo'l baland kelganda: qo'l(i) baland keldi

QO'L BERMOQ I kim? kimga? salomlashish uchun dastpanjasini uzatmoq.

Saidiy hali o'rnidan turishga ulgurmagani edi, Salohiddin kelib qo'l berdi. A.Qahhor. Sarob.

QO'L BERMOQ II kim? kimga? murid bo'lmoq (eski).

Bir kun Marg'ilondan bir eshon keldi. Boyimiz o'sha kishiga qo'l bergan ekan, ya'ni o'sha kishining muridi ekan. I.Rahim. Ixlos. Tavba-tazaruru qilib, o'sha joydagi eshonga qo'l bering. Biroz xayr-u ehson qiling. Qiyomat yaqin qoldi. I.Rahim. Olovkor.

qo'l bo'shadi: qo'l(i) bo'shadi

qo'l cho'zmoq: qo'l uzatmoq

qo'l kalta bo'ldi: qo'l(i) kalta bo'ldi

qo'l kaltalik qildi: qo'l(i) kalta bo'ldi

QO'L KELMOQ nima? kimga? manfaatiga mos tushgan holda qulaylik bermoq.

Eskilik bizning dushmanlarimizga ana shunday qo'l keladi. A.Muxtor. Xayri. U qo'l kelgan narsaning hammasi bilan savdo qiladi. G'.G'ulom. Chorbozorchi. Qozi ... goh yig'lar, goh yalinar, lekin bu nayranglarning hech biri qo'l kelmasdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

QO'L KO'TARMOQ I kim? kimga? 1 urmoqchi bo'lmoq.

Ro'zimat uni: «Hozir ... olib bo'rib, tegishli joyga topshiraman», – deb sudrabdi, yigit ortiqcha qo'rslik qilib qo'l ko'targan ekan, Ro'zimat uni tutib olib rosa uribdi. A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas. Haqorat qilishga tili bormaydi. R. Fayziy. Yodgor.

2 zarba yetkazish harakatida bo'lmoq.

Nosirovning ichi qora, baxil ekanligi va bu ichi qoralikdan Ehsonning jabr ko'rishini ham biladi, g'azabi keladi, ammo uning tarafida turib, Nosirovga qarshi qo'l ko'targani andisha qiladi. A. Qahhor. Sarob.

QO'L KO'TARMOQ II kim? 1 tarafdor yoki qarshi ekanini bildirmoq (ovozga qo'yishda). Varianti: **qo'l(i)-ni ko'tarmoq II** kim? [o'zining]. Sinonimi: **ovoz bermoq** kim? kimga? yoki nimaga? (rasmiy).

«Shu yangi yerga kim paxta ekadi?» – deyilganda, birinchi bo'lib Umrzoq aka bilan ... Lolaxon qo'l ko'tarishgan edi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Kimda-kim Nu'mon Hoji Qalandarovning xo'jaligi tugatilsin, o'zi bu yerdan badarg'a qilinsin desa, qo'lini ko'tarsin. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

2 gapirmoqchi ekanini bildirmoq (yig'ilishda, darsda). Varianti: **qo'l(i)-ni ko'tarmoq II** kim? [o'zining].

Xo'jabekov zalga bir nazar tashladi-da, majlisni yopish uchun o'rnidan qo'zg'alganida, orqaroqda kimdir qo'l ko'tardi. S. Anorboyev. Oqsoy. Savol yog'ilib ketdi. Hammadan keyin zahil bir yigit xuddi don tiqilgan tovuqday bir tovush chiqarib qo'lini ko'tardi: «Savol... Hukumat o'zi bergan yerni o'zi tortib olar ekan-da?» A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

QO'L OLISHMOQ kimlar? o'zaro 1 bir-birining qo'lini siqib salomlashmoq.

Ochereddan asta sirg'alib, samarqandlik birodarlarimning oldiga bo'rib, qo'l olishdik. G'.G'ulom. Shoshilinch telegramma. Bir-birining qo'lini siqib ahdlashmoq.

Mehmonxonada ziyofat qilib berdik. G'anisher bilan urishtirib ichdim. Ikkovimiz o'sha yerda qo'l olishdik. Nima deysiz, mehmon. G'anisher zo'r-a? S. Ahmad. O'rik domla.

QO'L OST(D)DA kimning? – bo'y-sungan holatda, itoatda. Varianti: **qo'l(i) ostida.**

Xo'jabekov – ... Saidg'ozini uning qo'l ostida yurgan bir kichkina odam... S. Anorboyev. Oqsoy. Turkiston musulmonlari shuncha yildan buyon oq podshohning qo'l ostida tinch yashab keladi. Oybek. Qutlug' qon. Ketmonda, ayniqsa Xoliqjon qo'li ostida ishlashga bo'yni yor bermay yurgan odamga bu ishonch oltin tog' hadya qilingan bilan teng edi! H. Nazir. Quruq yog'och ham egiladi.

QO'L OSTIDAGI kimning? bo'y-sungan, itoatidagi.

Sherbekning qo'l ostidagi o'roqchilarni g'allaga olib tashlashdi. S. Anorboyev. Oqsoy. Amirlik qo'l ostidagi xatarli bu yurtida to'satdan bir falokat yuz berishi ham ehtimoldan uzoq emas. Sh. Toshmatov. Erk qushi.

QO'L OSTIGA bo'ysunuvchi xodim bo'lib.

U axir Nigora o'z qo'l ostiga ishga kelganda, «Baxti kulgan yigitman-da», – deb xursand bo'lmaganmidi? S. Anorboyev. Oqsoy.

qo'l qisqalik qildi: qo'l(i) kalta bo'ldi

qo'l qo'ydirmoq: qo'l qo'ymoq

qo'l qo'yildi: qo'l qo'ymoq

QO'L QO'YMOQ kim? nimaga?

– **QO'L QO'YILDI** nimaga? o'z qo'li bilan familiyasini yoki shuning shartli ishorasini yozmoq. Varianti:

qo'l(i)ni qo'ymoq kim? [o'zining] nimaga? **qo'l qo'ydirmoq kim? kimga? nimaga?** Sinonimi: **imzo chekmoq kim? nimaga?**

Har bir qog'ozni yaxshi tekshirib qo'l qo'yinglar. A. Muxtor. Opa-singillar. Hujjatlarga qo'l qo'yilgan... Muhr bosilgan... Ba'zi odamlarning ko'zi ham tushgan... Qo'ying, yosh bolalik qilmang. S. Anorboyev. Oqsoy. Menga qara, mana pensiyangni olib keldim, manavi kaptansaga qo'lingni qo'y. S. Ahmad. Ko'klam chechaklari. Ishni puxta qil. Ertaga bitta-bitta ketadi hammasi. Sen bulturgiga qarab tayyorlab qo'yaver, qo'l qo'ydirib olasan. Opachang ham qo'l qo'yib beradi. T. Malik. Charxpalak.

QO'L QOVUSHTIRMOQ kim? 1 kimga? qo'llarini tirsakdan egib, ustma-ust qoringa qo'yib hurmat ifodalamoq.

Yetti yashardan yetmish yashargacha unga salom beradi, qo'l qovushtiradi. Oybek. Qutlug' qon. Gubernator yoki uning noiblari yo'liga gilam solishib, butun qishloq qo'l qovushtirib, tiz cho'kib, bosh egib turardi. I. Rahim. Ixlos. Supadan uch qadam narida qo'l qovushtirib turgan G'ulomjonga Kamoliddin maxdum xo'mrayib qaradi. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

2 kimga? mutelik bilan itoat qilmoq.

Lekin men bir narsaga xursandman: kechagina har kimga qo'l qovushtirib yurgan, hech kimning yuziga tik qarolmagan Kapsanchilar bugun ... ko'rdingizmi, hech kimdan tap tortmaydi. A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Zamonni ko'rib turibsan,

nima deb bo'lardi. Tag'in bizning tagimiz nozik. Xo'p deb qo'l qovush-tirishdan boshqa ilojimiz yo'q. S.Zun-nunova. Gulxan.

3 biror tadbir-chora ko'rishga intilmaslik, loqayd munosabatda bo'lmoq. Varianti: **qo'l(i)ni qovushtirmoq** kim? [o'zining].

Boriga baraka deb qo'l qovush-tirib yotadigan, yo'g'onni yo'nib, ori-g'iga qanoat qiladigan zamonlar o'tdi. Endi boshqacha yashashimiz kerak. S.Anorboyev. Oqsoy. Paxta ekishga faqat biz javobgar-u, MTS qo'l qovushtirib tura beradimi? Insofdanmi shu? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Qishloqda bosh ko'tarib yuraman desang, qo'lingni qovushtirib yuraverma. I.Rahim. Ixlos.

QO'L SILTAMOQ kim? [kim-ga? yoki nimaga?] diqqat-e'tiborga noloyiq deb topmoq. Varianti: **qo'lni siltamoq; qo'l(i)ni siltamoq.**

Bo'lmasa shunga fahmi yetsa, yangi kelayotgan odamlarga qo'l siltab qararmidi! R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Agar qiz mujmal javob bersa, u vaqt qo'lingni siltaysan-da, yurave-rasan! Oybek. Qutlug' qon. Olam-ning na'masiga quloq solsang, har xil narsa eshitasan. Qo'lni siltash kerak. Oybek. Qutlug' qon. Ilgari: «Xotini meni yaxshi ko'radi, meni ayaydi, shuning uchun aytganimga ko'nadi», deb o'ylardi. Agar o'shanda... Mavlu-da shunday demaganida, Komil ham-masiga qo'l siltab ketvorardi. Yangi farazlari ham ko'ziga ko'rinmas edi. T.Malik. Charxpalak.

QO'L SUNMOQ I [qol sun=] tar.kim? kimga? yordam bermoq.

Yomong'a eyguluk qilsang, sunub qo'l, Alingdan davlating olmoq tilar ul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QO'L SUNMOQ II [qol sun=] tar.kim? qayerga? cho'zilmoq, uzatilmoq.

Aningdek yerga qo'l sundi ilikkim, Yiroqtin boqmag' o imkon yo'q, ey jon. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

qo'l tegibdimi?!: qo'l (i) tegmadi

qo'l tegsa: qo'l(i) tegmadi

QO'L TEKKIZMOQ kim? 1 nimaga? iste'mol qilish, foydalanish maqsadida ozmi-ko'pmi olmoq. Varianti: **qo'l tekkizmoq.**

O'z oila a'zolari ham vaqt-bemahal ishkonga kirib, bir shingil uzish-dan mahrumlar. Qani, birov qo'l tegizib ko'rsin-chi! S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi. Juvon o'lgur kelinim mabodo kalitni topib, meva-ga qo'l tekkizgan bo'lsa-ya! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 kimga? yengil-yelpi urmoq. Varianti: **qo'l tekkizmoq.**

Qo'rqmang, men sizni urmayman – sizga qo'l tekkizgani hazar qilaman. A.Qahhor. Og'riq tishlar. Isoxonning oshig'i olchi kelib turgan bir vaqtda uning arzandasiga kim ham qo'l tek-kizadi deysiz?! N. Maqsudiy. Ilon bo-lasining zahri.

qo'l tegmadi: qo'l(i) tegmadi

qo'l tekkizmoq: qo'l tegizmoq

qo'l uchi bilan: qo'l uchida I

QO'L UCHIDA I istar-istamas, shunchaki. Varianti: **qo'l uchi bilan.**

Suvanjon ichkari kirib, Oysuluv-ning bobosiga qo'l berdi. Jonizoq ota qo'l uchidagina so'rashib, burni-ning tagida allanarsa deb ping'illadi,

S.Anorboyev. Oqsoy. *Biroq doktor uni qo'l uchidagina ko'rdi, dori bermadi, tayinli bir gap ham aytmadi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Hosilot ... kelinlari ham dalada oz ko'rinishadi, ham xo'jako'rsin uchun, qo'l uchi bilan ishlashadi.* Oybek. *Oltin vodiydan shabadalar.*

QO'L UCHIDA II bir amallab, zo'rg'a-zo'rg'a.

Bu yangi do'konda ombordagi mollarning namunasigina turar, bilmagani kishi tasodifiy tushgan mollar bilan savdo qilib, qo'l uchida tirikchilik qiladigan do'kondor gumon qilar edi. A.Qahhor. Sarob. *Inim, nima ham deyman. O'zim qo'l uchida kun ko'rib yurgan bechora odamman.* S.Ahmad. *Hukm.*

QO'L URMOQ kim? nimaga? 1 tegmoq. Varianti: **qo'l(i)ni urmoq** kim? [o'zining].

Nimaga ba'zida piyola qidira turib, gugurtga qo'l urganligini o'zi payqab qolardi. N.Maqsud. *Bola yo'qotgan kishi. Bularni Orifjonovning o'zi, So'ramasam ham, zo'rlab bergan, bu narsalarga hali o'zim qo'l urganim yo'q.* S. Ahmad. *Uzun til...*

2 biror ishni qila boshlamoq.

Janjalli ishga polvon qo'l urdimi, ovora bo'lasan, yutadi. S.Ahmad. *Qarddon dalalar. Qaysi ishga qo'l urmasin, qayoqqa bormasin, har qadamda Nigora esiga tushar edi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

QO'L UZATMOQ kim? 1 nimaga? biror narsani bevosita olish uchun qo'lini bor bo'yi yo'naltirmoq. Varianti: **qo'l cho'zmoq.**

U faqat Shakarxonning «Sovimasin» degan so'zidan keyingina nonga qo'l uzatdi. Oydin. *O'zidan ko'rsin. «Ha, shunday», – dedi Xolmurod va indamasdan patnisdagi o'rikka qo'l cho'zdi.* P.Tursun. *O'qituvchi.*

2 kimga? salom-alik qilish uchun qo'lini bor bo'yi yo'naltirmoq. Varianti: **qo'l(i)ni cho'zmoq** kim? [o'zining] kimga?

Samandarov kelib, bolani supaga chiqarib qo'ydi, so'rashgani Siddiqjonga qo'l uzatdi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. «E-e-e, Urmonjon aka... Keling», – dedi so'rashgani ikkala qo'lini cho'zib.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

3 kimga? (ayolga) shahvoniy tuyg'u bilan muomala qilmoq. Varianti: **qo'l cho'zmoq.**

O'rmonjon aka, bu xotin to'g'risida bunaqa gaplar bo'lsa, mening o'sha yerda turishim qandoq bo'lar ekan? Men-ku qo'l uzatmayman, lekin... Iloji bo'lsa, menga boshqa joy topib bersangiz. A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Avval bitta xotinni eplab, keyin boshqasiga qo'l cho'z.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

QO'L UZATMOQ 1 nimaga? o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qilmoq. Varianti: **qo'l cho'zmoq.**

Men hech qachon bironing haqiqatiga qo'l uzatmaganman. Sh. Toshmatov. *Erk qushi. Yodgorliklar – xalq mulki, kim qo'l cho'zsa, qo'lini sindirib tashlaymiz.* S.Nazar. *Yashil boyluk.*

2 kimga? najot istab murojaat qilmoq. *Zoraiki bu kurashda Eson yengilisa, zoraiki mag'lubiyatdan gangisa,*

yordam va 'da qiladigan har bir kishiga, jumladan Abbosxonga qo'l uzat-sa! A.Qahhor. Sarob.

QO'L UZMOQ kim? nimadan? 1 («ish»dan) qilib turgan mehnatini to'xtatmoq.

Qizlar quyosh botgandan keyin ham daladan chiqqilari kelmay, terimdan birin-sirin qo'l uzishdi. Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. Men buni yaxshi bilaman, u kishi hali ishdan qo'l uzganlari yo'q, xushchaqchaq suhbatni yaxshi ko'radilar.* Oybek. Qutlug' qon.

2 (iste'mol buyumidan) foydalanishni to'xtatmoq.

Issiqning va yog'liq ovqatlarning damini kesish uchun hech kim piyoladan, choynakdan qo'l uzmas edi. Oybek. Qutlug' qon.

QO'L YUGURTIRMOQ kim? nimaga? panjasini tezda tegizib o'tmoq. Varianti: **qo'l yugurtmoq**.

U ko'krak cho'ntagiga qo'l yugurtirib, «turibdimi» deganday to'g'nog'ichni ushlab ko'rdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Navkar Maynani ko'rishi bilanoq jilmayib qo'ydi va uzun mo'yloviga viqor bilan qo'l yugurtib, chuqur entikdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

qo'l yugurtmoq: qo'l yugurtirmoq

QO'L(I) BALAND BO'LDI kimning? – **QO'L(I)NI BALAND QILMOQ** kim? kimning? raqobatda, musobaqada vaziyati ustun bo'ldi. Varianti: **qo'l(i) yuqori bo'ldi**.

Kimiyki xalq yo'lida, xalq g'amida ter to'ksa, qo'li hamma yerda baland bo'lsin. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Mana, yangi qarordan ke-*

yin daromadingiz oshib, qo'llaringiz yuqori bo'lib ketadi. I.Rahim. Hilola.

QO'L(I) BALAND KELDI kimning? [nimada?] raqobatda, musobaqada yutadigan mavqeda bo'lmoq. Varianti: **qo'l baland kelganda (-)**.

... yangi kuchlar bilan dushman-ni qarshilaysan, o'lasan, o'ldirasan. Qo'ling baland kelsa, dushman-ni zir-qiratib quvib, chekinish yo'lini g'alaba va qahramonlik yo'liga aylantirasan. Oybek. *Quyosh qoraymas. Kurashda goho qo'lingiz baland keladi, goho past. Qo'l baland kelganda suyunib, xotirjamlikka berilmaslik kerak.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

QO'L(I) BALAND kimning? nimada? raqobatda, musobaqada vaziyati ustun.

Ishqilib, koreys xalqining qo'li balandmi?... Xayriyat... H.Nazir. Ko'krol chiroqlari. «... oq podshoh degan xunasa farmon chiqarib, xalqdan mardikor so'rab qoldi. Urushda qo'li baland emas shekilli». Oybek. Qutlug' qon.

qo'l(i) bandligi: qo'l(i) band

QO'L(I) BO'SH kimning? biror ishni bajarish bilan mashg'ul emas, ishli (band) emas. Varianti: **qo'l(i) bo'shligi; bo'sh** kim? Antonimi: **qo'l(i) band** kimning?

«Qo'ling bo'shmi?» – «Bo'sh», – *dedi Shokir.* O.Yoqubov. Tengdoshlar. «Jilla bo'lmasa yamat mahsingni!» – «Dadam: Yo'lichiboy akang yamaydi», – *degan edi, bilmadim, qo'li bo'sh emas shekilli.* Oybek. Qutlug' qon. *Maktab qurilishiga mahallada qo'li bo'sh odamlarning hammasi chiqishi kerak.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Botir*

yerto'laning eshiklarini berkitib, qo'li bo'shligidan foydalanib narigi qartada chopiq qilayotgan Bo'ston tarafga bordi. S.Nazar. Yashil boylik.

QO'L(I) BO'SHADI kimning? [nima qilishdan?] biror ishni bajarib bo'lmoq, bo'sh bo'lmoq. Varianti: **qo'l bo'shadi**.

Ikki yil deganda qadaming zo'rg'a yetsa-ya! Roman yozishdan qo'lim bo'shamadi degin? M.Muhamedov. Kichik garnizon. ... sal qo'li bo'shagan paytlarda yoki kechki ovqatdan keyin vaqtini shu yerda o'tkazadi. S.Nazar. Yashil boylik. «O'g'limni to'y qilmoqchi edim-ku, – deb yelkasi-dagi qo'ndog'ining siri ko'chgan berdankasini ko'rsatdi, – tirikchilikdan qo'l bo'shamayapti...» Sh.Rizo. O'ch.

qo'l(i) bo'shligi: qo'l(i) bo'sh

qo'l(i) bog'landi: qo'l(i)ni bog'lamoq

QO'L(I) BOR kimning? nimada? voqe bo'lishiga qandaydir ta'sir o'tkazgan. Varianti: **qo'l(i) borligi**.

Zuhraning yo'qolishida bu afandining qo'li bor. Ishi tergovga berilsin. Said, N.Safarov. Tarix tilga kirdi. Bu tuhmatchilar Ahmedovning panohida jon saqlab kelayotganliklarini, eski direktor Karimovning suvdan quruq chiqib ketishida ham Ahmedovning qo'li borligini aytib, so'zining oxirida Vohidovga murojaat qildi.. S.Zunnunova. Yangi direktor.

qo'l(i) borligi: qo'l(i) bor

QO'L(I) EGRI kimning? o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlyaydi; mayda o'g'ri.

Ovqatga hech to'y maydi. Buning ustiga qo'li egri: non o'g'irlyaydi, haromi. P. Tursun. O'qituvchi.

QO'L(I) KALTA BO'LDI kimning? – **QO'L(I)NI KALTA QILMOQ** nima? kimning? cheklangan imkoniyatga ega bo'lmoq. Varianti: **qo'l kalta bo'ldi (-) qo'l kaltalik qildi (-)**.

Bu yil tomorqadan yaxshi daromad ololmadik, kattaroq sarf-xarajatga qo'limiz kalta bo'lib turibdi. So'zlashuv uslubi. O'shanday beozor kunlarning tagiga suv ketdi. Inqilob eshonning qo'lini kalta qilib qo'ydi. S.Ahmad. Hukm. Ekinimiz yaxshi bo'lmadi. Qo'l kalta bo'lgandan keyin, qayoqqa uzatasan? Oybek. Qutlug' qon. Ferma quraman, hammom solaman, klub qilaman. Eh, hozir qo'l kaltalik qilib turibdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Ba'zilar deydi, donga qarasak, paxta qolayapti, paxtaga zo'r bersak, donga qo'l qisqalik qiladi... To'g'ri emas. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Lekin ayoli Tursunoyga munosabatda... bu hikmatli so'zning ham «qo'li kaltalik» qilib qolardi. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QO'L(I) KALTA kimning? cheklangan imkoniyatga ega. Varianti: **qo'l(i) qisqa; qo'l(i) qisqa [ekan]ligi**. Antonimi: **qo'l(i) uzun kimning?**

O'ylab qarasam, do'ppi tor ekan... Kattaroq ish qilishga qo'limiz kalta ekan. I.Rahim. Ixlos. O'z holimga yarasha to'yona bilan borib, xursandchiligingni qutlashga qodir emasmidim? Shukur, qo'lim qisqa emas. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Shokir ota yana o'zining «qo'li qisqaligi» dan, ro'zg'or tangligidan g'oyat kuyunib so'zladi. Oybek. Qutlug' qon.

QO'L(I) KELADI kimning? nima qilishga? amalga oshirish uquvi hosil bo'ldi; uquvi bor.

[Pianino chalishga] tuppa-tuzuk qo'ling kelib qolibdi-ku. H.Nazir. Ko'k-oro'l chiroqlari. Siz otasini tanimaysiz, biz Farhodda birga bo'lgan edik. O'zi usta, hamma narsaga qo'li keladigan epchil odam. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

QO'L(I) OCHIQ kimning? – **OCHIQ QO'L** saxiy. Varianti: **ochiq qo'li**.

Mirahmad – juda sodda, qo'li ochiq dehqon. Xudo xohlasa, qishlog'iga borsam, ancha narsa yulib-yulqib kelaman. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Otam kamtar, to'g'ri so'z, ochiq qo'l odam edi. Uni shu fazilat-lari uchun ko'p odam hurmat qilardi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Albatta, boshqa odamning yerini ham ekaverasiz-ku, ammo domladay ochiq qo'li odamni yo topamiz, yo yo'q. A.Qahhor. Sarob. Men Sodiqbekning tug'ilgan kunlari hali ko'p bo'lishi, Husan akam qo'li ochiq, mehmon-do'st ekanini aytib, o'shandoq ziyo-fatlarga jon deb borishga so'z berdim. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

qo'l(i) ostida: qo'l ost(i)da

QO'L(I) QICHIYAPTI kimning? nima bilandir shug'ullanishga istak-moyillik his etmoq. Varianti: **qo'l(i) qichishayapti**.

Qilichboz yigitlarning yuraklari toshib, qo'llari qichib, jangni qo'm-sar, bo'ronli kunlarni kutib sabrsizlanardilar. Oybek. Navoiy. Hozir, bilimadim, sendan yuqdimi, yana qo'lim qichishyapti. Biron imoratni boshlab

yuborsakmi? Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

qo'l(i) qisqa [ekan]ligi: qo'l(i) kal-ta

qo'l(i) qichishayapti: qo'l(i) qichiyapti

qo'l(i) qisqa: qo'l(i) kalta

QO'L(I) QO'L(I)GA TEGMAY [kimning?] juda tez va tinimsiz.

Yigit-yalanglarning qo'llari-qo'llariga tegmay xizmat qilib yurmoqdalar. G'.G'ulom. Haji qabul bo'ldi. Otasi qo'li qo'lga tegmay savdo bilan shug'ullanarkan, Shokir qalin ko'rpachada pashmak va shirmoy non yeb o'tirar edi. H. Nu'mon. Fasllar.

QO'L(I) QO'L(I)GA TEGMAY-DI kimning? juda tez va tinimsiz mehnat qilmoq.

Qurbon otaning qo'li qo'lga tegmas edi. Uyordamchi so'rab ikki marta direktorga ariza berdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Bir haftadan beri ... qo'li qo'lga tegmaydi. Bo'lajak klub binosi uchun shu yerning o'zida g'isht quyishdi. S.Abdughahhor. Hayotning boshlanishi. Darhaqiqat, Murod mug'ambirning qo'li qo'lga tegmayotgan edi. Nozima bilan tanishib, rangi bir o'zgardi-yu, darrov o'zini tutdi. «Komil bilan Latofat ko'p o'tirgan bu bog'da. T.Malik. Charxpalak.

QO'L(I) TEGMADI kimning? nima qilishga? juda bandligi tufayli vaqt topolmaslik. Varianti: **qo'l tegmadi nima qilishga? qo'l(i) tegsa; qo'l tegsa nima qilishga? qo'l tegibdimi?! nima qilishga?**

Tura qol, bolam, sening ham boshko'zlaringni yuvib qo'yay! Kunduzi

qo'lim tegmaydi. Oydin. Do'ndiqdan ham yosh ekan. *Kechirasiz, bizdan xatolik o'tibdi! Hammasining emas, faqat o'n to'rt kishining ishini yozibmiz. Qo'l tegmadi.* S.Nazar. Yashil boylik. *Kel, qizim! Kechadan beri seni ko'rsam deb ko'zim to'rt bo'lib turuvdi. Yo'qlab borishga qani qo'lim tegsa! Ertalab, kechqurun Zebi xolang bilan qurtga qarayman. Kunduzi bo'lsa, o'zingga ma'lum, daladagilarga ovqat pishirib beraman.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. *Har qancha gina qilsangiz arziydi. Asti qo'l tegsa-chi! Ayniqsa keyingi vaqtlarda kecha-kunduz dars tayyorlashga to'g'ri keladi.* H.Nu'mon. Fasllar.

qo'l(i) tegsa: qo'l(i) tegmadi

QO'L(I) UZUN kimning? ortiq darajada imkoniyatga ega. Antonimi: **qo'l(i) kalta** kimning?

E, xotin, mana bizning ham qo'limiz uzun bo'lib qoldi. S.Abduqahhor. Gap norda emas. *Eha, munday o'ylab qarasa, u chaqirgan odamlarning bari lakot, soqolli-soqolsiz, oriq-semiz, katta-kichik lakotlar – birortasining ham tayini yo'q, kimning qo'li uzun kelsa, o'shaning tarafida...* Sh.Bo'tayev. Qora tuman. – *Bu go'dakni quruq safsatalar qulligidan qutqarib oldik, – degandi u o'shanda. – Endi hamma puldor odamlardek tili o'tkir, qo'li uzun bo'lib ulg'ayadi.* A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

QO'L(I) YENGIL kimning? nimaga qo'l ursa – o'sha ish tez va qulay hal bo'ladi.

«Hech xavotirlanma, uka! – dedi Halima endi unga dalda berib. – Dok-

toringning ko'zi o'tkir, qo'li yengil deb ta'riflashadi. Qanchayam og'ir bemorlar uning qo'lidan shifo topgan-ku...» H. Nazir. Oltin qadah.

QO'L(I) YETADI kimning? nima qilishga? amalga oshira olmoq. Varianti: **qo'l yetadi** (–).

Qaydam, hozircha xarxasha yo'q, biroq u haromining bunga [tomorqani tekshirishga] ham qo'li yetadi. Oybek. Oltin vodiya shabadalar. – *Hech kim yo'q, – dedi. – Lekin shu tolni kesish kerak. Ko'chadan bir sakrasa, qo'li yetadi kishining...* Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

QO'LI YETMASKA [qoli jetmäs-kä=] tar. kim? erisha olmas kishiga.

Ko'rganga ko'z tikar qo'li yetmaska el sunar, Qo'yg'il bu ishni emdi baroyi xudo, ko'ngul. Abdulmajid g'azali.

QO'L(I) YETMAYDIGAN kimning? hukmini o'tkaza olmaydigan, aytganini qildira olmaydigan.

«Qayoqqa?! Qayoqqa qochaman?!» – «Hukumatning qo'li yetmaydigan joyga». S.Ahmad. Hukm. *Bunday majlislarni gullatib, savlat to'kib o'tiradigan yigitlarning ko'pi... davlat mulkini sharq tomonga, dushmaning qo'li yetmaydigan joylarga ko'chirib ketgan edilar.* M.Muhamedov. Kichik garnizon.

qo'l(i) yuqori bo'ldi: qo'l(i) baland bo'ldi

QO'L(I) BAND kimning? [nima bilan?] biror ishni bajarish bilan mashg'ul; beish (bo'sh) emas. Varianti: **qo'l(i) bandligi** kimning? Antonimi: **qo'l(i) bo'sh** kimning?

[Teshaboy afandining] *ish-pishi bo'lsa, hozir qo'lim band. Bo'shaganimda uchrayman, albatta.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Fosiq afandi qo'li nima bilan bandligini so'rab edi, usta Bahrom rus-tuzem maktabiga partalar qilayotganini aytdi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

QO'L(I) BORMADI *kimning? nima qilishga?* nimanidir qilmaslikka undovchi his-tuyg'uning ta'sirida biror faoliyatga kirisha olmaslik.

Qisqasi, endi unga xat yozishga qo'lim bormadi. A.Muxtor. Xayri. *G'ulomjon qo'li borib-bormay kun qizig'igacha paxta terdi.* M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

qo'l(i)dan chiqarmoq: qo'ldan chiqmoq I

qo'l(i)dan chiqmoq: qo'ldan chiqmoq I

QO'L(I)DAN KELGAN[I]CHA [o'zining] qila olganicha, bilganicha, kuchi yetganicha. Varianti: **qo'ldan kelgan[i]cha (-).**

[Zamira oyisining] *endi ikkinchi marta turmush qilishi zarur ekanini tushunib, yig'lab chiqib ketdi. Keyin oyisiga bo'lishadigan, Sattor akaga ham qo'lidan kelganicha yaxshi muomala qiladigan bo'ldi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Mana, biz eringizning do'stlarimiz. Sizni tashlab qo'ymaymiz. Qo'limizdan kelganicha yordam beramiz.* S.Zunnunova. Gulxan. *Mixail Akaskin ... Komilaning to'garak va hosilotxona tuzish fikrini quvvatlab dedi: «Siz boshlang, men qo'ldan kelganicha yordam beraman».* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «*Ishingga muvaffaqiyat tilayman, bo'sh kelma,*

aytganlarni unutma, Nikolay!» – dedi uning bilan xayrlashar ekan Ergash. «Rahmat, xotirjam bo'l! Qo'ldan kelganicha urinamiz», – javob berdi Nikolay qo'lidagi detalni stanokka joylar ekan. G'. Ahmadiy. Kamolot.

QO'L(I)DAN KELMOQ (KELADI) *nima qilish? kimning?* bajarishga, qilishga qodir, bajara oladi, qila oladi. Varianti: **keladi.**

Yomon odam bo'lsangiz, meni nima qilish qo'lingizdan kelar edi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Yaxshisi, bu ishdan voz kech. Qo'lingdan kelgan ishni qil.* I.Rahim. *Ixlos. Komila xolam «Qani endi, qizim, yurtdan qarzingni uz qo'lingdan nima ish keladi?»*, – dedilar. *Alamimga chidolmay turgan edim. «Uy qizi bo'lib o'tirishdan boshqa hamma ish keladi!» – deb javob berdim.* A.Qahhor. *Xotinlar. Taqdir ekan, kelib-kelib, qiz bola bilan murosqa qilishga majbur bo'pqoldim. Mundoq o'ylab qaralsa, qiz bolaning futbol to'piga nima aloqasi bor? Kichikroq kigiz to'p bo'lsa, bu boshqa gap – tennis o'ynash, hartugur, ularning qo'lidan keladi.* A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

qo'l(i)dan ketmoq: qo'ldan ketmoq

QO'L(I)DAN O'TMOQ *kimlar? kimning?* ma'lum muddat xizmat qilib ketmoq.

Boy o'z umrida ko'pni ko'rgan, ko'pni tanigan, turli shahar va turli odamlar bilan muomala qilgan, uning qo'lidan juda ko'p xizmatkor, qarol, chorakor va hokazo o'tgan. Oybek. Qutlug' qon.

qo'l(i)ga kirgizmoq: qo'lga kirmoq

QO'L(I)GA O'TMOQ nima? kimning? xo'jayinlik huquqini olmoq.

G'iyosiddin qiziq holga tushdi. Oqsoqol uni ikki modda bilan taxtaga tortib, til-jag'ini bog'lab qo'ygan edi: biri – unutilib, elning xotiridan chiqqan, askiyaning mavzuidan tushib qolgan Buxoro rastalarining tarixi, ikkinchisi – sherdek o'kirib turgan paxta zavodining uning qo'lga o'tishi. S.Ahmad. Hukm.

qo'l(i)ga olmoq: qo'lga olmoq

QO'L(I)GA QARAMOQ kim? kimning? berishiga bog'liq bo'lmoq; moddiy jihatdan qaram bo'lmoq.

Xotini ... ikki butilka konyakka ko'zi tusharkan: «O'z g'amingizni yeb kelibsiz-da!», – deb gap qotdi. «Sizlarni koyitmay dedim-da, – dedi Alijon tavozze bilan. – Axir xonimlarning qo'llariga qaraydigan bo'lsak, tashnalikdan bag'rimiz kabob bo'lib ketadi..» H.Nazir. Oltin qadah.

qo'l(i)ga qo'ndirmoq: qo'l(i)ga qo'nmoq

QO'L(I)GA QO'NMOQ kim? kimning? – **QO'L(I)GA QO'NDIRMOQ** kim? [o'zining] kimni? izmiga itoat qilmoq, erk-ixtiyorini berib qo'ymoq. Varianti: **qo'lga qo'ndirmoq** kim? kimni?

Iloji yo'q buning qo'ngay qo'limga, Qayoqqa yur desam, yurgay yo'limga. S.Abdulla. Tohir va Zuhra. «Komilaning muddaosi menga darrov ayon bo'ldi, – dedi Sobir mo'ylov ichida kulib. – U seni qo'lga qo'ndirmoqchi. Mayli, agar xotinchalishlardan bo'lsang, biz seni kelin qilib «Elobod»ga uzatamiz». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Baxt izarlar so'qmoq» deganlaricha ham bor

ekan, bu yo'lakcha ko'pdan beri yetisholmagan baxtingni qo'lingga qo'ndirib qo'ydi. Bo'shshama endi, Berdi, qushing qo'lingdan uchmasin». I.Rahim. Ixlos. Har qanday yo'l bilan qo'ndirgin qo'lga, Muhabbat bildirib, tez solgin yo'lga. S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

qo'l(i)ga tushmoq: qo'lga tushmoq

qo'l(i)ni baland qilmoq: qo'l(i) baland bo'ldi

QO'L(I)NI BIGIZ qilmoq kim? [o'zining] kimga? niqtab ko'rsatmoq. Varianti: **barmog'(i)ni bigiz qilmoq.**

«Ayb o'zingizda!» – dedi Saida qo'lini bigiz qilib. A.Qahhor. Sinchalak. Boshqarma endi o'z xatosi uchun javobgarlikdan qo'rqib, bizga barmog'ini bigiz qilayapti. A.Muxtor. Tug'ilish.

QO'L(I)NI BOG'LAMOQ kim? yoki nima? kimning? – **QO'L(I) BOG'LANDI** kimning? faoliyatini cheklab qo'ymoq, biror ish-tadbirning amalga oshuviga monelik qilmoq.

Men sira tushunmay qoldim, nega ilmdan hurkasiz? Olimlar qo'lingizni bog'layaptimi? Yo'q, xotirjam bo'ling, boshingizga zarracha tashvish ortmaydi ular. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. G'ulomjonning Zamon, Barrot polvon kabi devsifat do'stlari, tog' qazuvchilarning G'ulomjonga bo'lgan mehr-u muhabbatlari mingboshining qo'lini bog'lab kelardi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Qosim chorshanba kuni bozor chiqmasa, bir haftagacha qo'li bog'lanib qoladi. Oybek. Qutlug' qon.

qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib: ikki qo'l(i)ni burn(i)ga tiqib

qo'l(i)ni cho'zmoq: qo'l uzatmoq
QO'L(I)NI HALOLLAHQ kim?

kimning? (o'g'lining) xatna qildirmoq.

Dadamning miyasida ham meni erga berishdan ilgari ukalarimning qo'llarini halollab olish tashvishi kattaroq edi. G'.G'ulom. Ko'ngilsizning «qilig'»i.

qo'l(i)ni kalta qilmoq: qo'l(i) kalta bo'ldi

QO'L(I)NI KO'TARMOQ I kim? [*o'zining*] taslim bo'lganini bildirmoq.

Bo'taboy, askiyadan yengilib taslim bo'ldim degandek, ikki qo'lini ko'tardi. S.Ahmad. Hukm.

qo'l(i)ni ko'tarmoq II: qo'l ko'tarmoq I, qo'l ko'tarmoq

II qo'l(i)ni nayza qilmoq: qo'l(i)ni bigiz qilmoq

QO'L(I)NI PANSHAXA QILMOQ kim? [*o'zining*] do'q-po'pisa qilayotganini bildirib barmoqlarini kergan holda panjasini silkitmoq. Sinonimi: **qo'l(i)ni paxsa qilmoq kim?** [*o'zining*].

Qori qo'lini panshaxa qilib o'zini oqlay boshladi. P. Tursun. O'qituvchi.

QO'L(I)NI PAXSA QILMOQ kim? [*o'zining*] do'q-po'pisa qilayotganini bildirib barmoqlarini yozgan holda panjasini silkitmoq. Sinonimi: **qo'l(i)ni panshaxa qilmoq kim?** [*o'zining*].

«Qo'lingni paxsa qilma, – ota yana bir qadam bosdi, – andishaning otini qo'rqoq deb tushunar ekansan». H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. *«Hoy, xaloyiq, nimadan qo'rqasan!»* – dedi o'tirgan yerida qo'lini paxsa qilib. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Bunaqangi g'avg'olar joniga tekkan qo'shni xotin qo'lini paxsa qilib*

Mullajonning oldiga keldi. S.Ahmad. Mullajon.

qo'l(i)ni qayoqqa uzatsa (...), yetadi: qayoqqa qo'l uzatsa(...), qo'l(i) yetadi

QO'L(I)NI QAYTARMOQ kim? *kimning?* berilayotgan narsani olishdan bosh tortmoq, rad etmoq.

Juvonning butun bergan dashnomi ham bir bo'ldi-yu, hozir bodring uzatgani ham bir bo'ldi. Siddiqjon.. «Qulluq, bahuzur...», – dedi. «Oling qo'limni qaytarmang!» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Qo'rqmang, Yulduzxon, tikan emas, arzimas sovg'a... Chin qalbdan... Iltimos qilaman, qo'limni qaytarmang. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.*

qo'l(i)ni qo'ltig'(i)ga urmoq: qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga urmoq

qo'l(i)ni qo'ymoq: qo'l qo'ymoq
qo'l(i)ni qovushtirmoq: qo'l qovushtirmoq

qo'l(i)ni siltamoq: qo'l siltamoq
qo'l(i)ni sovuq suvga urdirmaslik: qo'l(i)ni sovuq suvga urmaslik

QO'L(I)NI SOVUQ SUVGA URDIRMASLIK kim? kimning? qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaslik.

Nusratilla ro'zg'orda qo'lini sovuq suvga urmaydi, ota mulkiga biror tiyinlik naf qo'shgan emas, hali qo'lidan biror ish kelishini ko'rsatgani yo'q. A.Muxtor. Opa-singillar. Bukchayib qolgan qaynataning qo'lini sovuq suvga urdirmadi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

QO'L(I)NI SOVUQ SUVGA URDIRMASLIK kim? [*o'zining*] – **QO'L(I)NI TORTMOQ kim?** [*o'zining*] *nimadan?* biror faoliyatni davom ettir-

rishdan tiyilmoq. Varianti: **qo'l tortmoq kim? nimadan?**

Lekin qarshidagi ayvonda ayol shoshib-pishib sabzi to'g'rayotganini ko'rib, palovga dam saqlash uchun sarimoyning taxminan uchdan biri qolganda talinkadan qo'lini tortdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Bir necha nodon odamlar gap-so'z qiladi deb foydali ishdan qo'l tortsam, yaxshi bo'larmidi! S.Nazar. Yashil boylik.

qo'l(i)ni urmoq: qo'l urmoq

qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga artmoq: qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga urmoq

qo'l(i)ni yuvib, qo'ltiqqa urmoq: qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga urmoq

QO'L(I)NI YUVIB, QO'LTIG'(I)GA URMOQ kim? [o'zining] ixlosi qaytib, ishonmay qo'yib, diqqat-e'tiboridan soqit qilmoq. Varianti: **qo'l(i)ni yuvib, qo'ltiqqa urmoq;**

qo'lni yuvib, qo'ltiqqa urmoq kim?

qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga artmoq;

qo'lni yuvib, qo'ltiqqa artmoq kim?

qo'l(i)ni qo'ltig'(i)ga urmoq.

«Laylatulqadr»dan qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urgan xotinini yana o'sha bezillab qolgan narsasiga ro'baro' qilish oson emas edi. N.Maqsudiy. «Laylatulqadr». Qoyilman. Agar fermaga o'taman deganingizda bormi, qo'limni yuvib qo'ltiqqa urardim-u, betingizga ikkinchi qaramay qo'ya qolardim. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Ha, shunday edim, yorug' dunyodan qo'lni yuvib qo'ltiqqa urgan vaqtlarim bo'lgan edi. A.Muxtor. Opa-singillar. Vishka montajchilari allaqachon qo'llarini yuvib, qo'ltiqlariga artib o'tiribdilar. I.Rahim. Olovkor.

Shunaqa degin? Demak. seningcha, olimlarning shaxsini bolalarga ochishimiz, kerak ekan-da? Demak. bola olimga mehr qo'ymay. unga ergashmay, maktabdayoq «qo'lini qo'ltiqqa urishi» kerak ekan-da? Olim ham tirik odam. T.Malik. Charxpalak.

QO'LDAN BERMOQ kim? nimani? yoki kimni? yo'qotmoq; behuda, befoyda o'tkazmoq. Sinonimi: **boy bermoq 2** kim? nimani? («vaqt»ni).

Eshonboyev gapni tez ilib olish va kutilmagan darajada tez javob qilish qobiliyatiga ega edi. Shuning uchun ko'pincha suhbatda tashabbusni qo'ldan bermasdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Men paytni qo'ldan bermaslikka tirishtirdim, yana so'z boshladim. Oydin. Ikki ko'zi shunda. Boyagi ehtimol tutilgan to'qinishda, ajab emaski, biznikilar o'n kishini qo'ldan bergan bo'lsalar... S.Ayniy. Qullar.

qo'ldan chiqarilmoq: qo'ldan chiqmoq III

qo'ldan chiqarmoq I: qo'ldan chiqmoq I

qo'ldan chiqarmoq II: qo'ldan chiqmoq II

QO'LDAN CHIQQOQ I nima? yoki kim? – **QO'LDAN CHIQQOQ I** kim? nimani? yoki kimni? kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketmoq. Varianti: **qo'l(i)dan chiqarmoq nima? kimning? – qo'l(i)dan chiqarmoq kim? [o'zining] nimani?** Sinonimi: **qo'ldan ketmoq nima? – qo'ldan ketkizmoq nima? nimani?** Antonimi: **qo'lga kirmoq nima? – qo'lga kiritmoq kim? nimani?**

Har kuni kamida yuz so'mdan uch yuz so'm cho'ntaklariga tushadigan

tekin daromad qo'ldan chiqib ketsa, nega xafa bo'lishmasin?! S.Anorboyev. Oqsoy. **Po'latjon domla.** *Baxt xususida uni yanglishtirmang! Yanglishtirmang qiz bechorani! Rohila.* *Voy, men yanglishtirganim yo'q! O'qigan yigit bo'lgani uchun qo'ldan chiqmasin deb...* A.Qahhor. Og'riq tishlar. *Nasiya bir manfaat uchun naqd foydani qo'ldan chiqarish aqlli odamning ishi emas.* S.Ayniy. Qullar. *Validamiz shunday yaxshi kelinni qo'ldan chiqargani ko'zlari qiymadi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Faqat Nigora o'ziniki bo'lsa, qo'ldan chiqib ketmasa bas.* S.Anorboyev. Oqsoy. *«Oqibat yaxshi bo'lsa, qo'limdan sira chiqarmayman. Yalqov va g'irrom yo'qo'li egri bo'lsa, sillilik bilan haydayman», – deb o'yiladi.* Oybek. Qutlug' qon. – *Qani, tur, Qo'chqorali! – o'g'lini shitobladi Qo'zi qassob. – Shuni tag'in qo'ldan chiqarsang, ikki kun ovqatdan tortib qo'yaman.* A.Obidjon. *Oltin yurakli Avtobola.*

QO'LDAN CHIQMOQ nima? – **QO'LDAN CHIQARMOQ II** kim? nimani? bitmoq (qurish, tikish, yozish kabilar). Varianti: **qo'ldan chiqarilmoq** nima?

[Rixsiboy aka] *uy qurilayotgan tomonga tikilib turib so'radi: «Uylarning bir qismi qo'ldan chiqa yozibdiku, mulla Abdug'ofur? Buni qarang, tuppa-tuzuk usta ekanligingizni bilmas ekanmiz-da?»* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Oyna, eshiklarni qo'ldan chiqardik, endi polni bo'yaymiz.* So'zlashuv uslubi. *O'ng chekkadagi uchta uy batamom qo'ldan chiqarilib, dera-*

zalariga oyna solish-u, oqlashi qolgan. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

qo'ldan kelgan[i]cha: qo'l (i)dan kelgan

qo'ldan ketkizmoq: qo'ldan ketmoq

QO'LDAN KETMOQ nima? – **QO'LDAN KETQIZMOQ** nima? nimani? kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketmoq. Varianti: **qo'l(i)dan ketmoq** nima? kimning? Sinonimi: **qo'ldan chiqmoq I** nima? yoki kim? – **qo'ldan chiqarmoq I** kim? nimani? yoki kimni? Antonimi: **qo'lga kirmoq** nima? – **qo'lga kiritmoq** kim? nimani?

Har nima bo'lsa-bo'lsin-u, ishqilib, mingboshilik qo'ldan ketmasin... M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Belorussiyaning yana bir shahri, daryo bo'yidagi shahar – sanoat shahri qo'limizdan ketdi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

QO'LDAN O'TKAZMOQ kim? nimalarni? birma-bir kuzatib tekshirmoq.

Itidan tortib qoramolgacha barcha jonivorlarni qo'ldan o'tkazamiz. Brutsellyoz bilan og'rigan uvoqmol, qaramollarni aniqlab, so'yamiz, yo'q qilamiz. S.Anorboyev. Oqsoy.

qo'l yetadi: qo'l(i) yetadi

QO'LGA ILINMOQ nima? o'z ixtiyoriga olishga ozmi-ko'pmi arziymoq.

U yerdan qatiq deysizmi, sut deysizmi, ko'mach deysizmi, xullas, ni maiki qo'lga ilinsa – hammasini olib, yana to'qayzorga chopadi. O.Yoqubov. Ota izidan. *Biroq o'z chegaramizda qo'lga ilinadigan yangi yer*

yo‘q hisob. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

qo‘lga kirgizilmoq: qo‘lga kirmoq

qo‘lga kirgizmoq: qo‘lga kirmoq

qo‘lga kiritilmoq: qo‘lga kirmoq

qo‘lga kiritmoq: qo‘lga kirmoq

QO‘LGA KIRMOQ kim? –

QO‘LGA KIRITMOQ kim? nimani?

ixtiyoriga o‘tmoq, egallamoq (keyingi variant rasmiy). Varianti: **qo‘lga kiritilmoq nima?**

qo‘lga kirgizmoq;

qo‘l(i)ga kirgizmoq kim? [o‘zining]

nimani? **qo‘lga kirgizilmoq nima?**

Antonimi: **qo‘ldan ketmoq nima?**

– **qo‘ldan ketkazmoq nima? nimani?**

qo‘ldan chiqmoq I nima? yoki kim?

– **qo‘ldan chiqarmoq kim? nimani?**

yoki kimni?

Yonveri bilan qo‘shilib bir tanob-

dan mo‘l yer qo‘lga kiradi. Boplab

kundakov qil, ildizi qolmasin, uqding-

mi? Oybek. Qutlug‘ qon. Biz baxti-

mizni kurashlarda qo‘lga kiryapmiz.

Nasibamizni mehnatda topamiz. Tur-

mushimizni bezashimiz ham, ma‘mur-

chilikda yashashimiz ham barchasi

o‘zimizga bog‘liq. S.Anorboyev. Oq-

soy. Pul topildi. Hovli qo‘lga kiritil-

di. Kuzning o‘rtalarida uning shi-

kast-rextlarini tuzatib, Saidiy ko‘chib

ketdi. A.Qahhor. Sarob. Bolta ko‘pas

... qoratuproq yerlarning barisini

qo‘lga kirgizib oldi-ya! M.Ismoiliiy.

Farg‘ona tong otguncha. U uy-joyini,

maishatini ko‘rsatish bilan maqtan-

moqchi emas, chunki qo‘lga kirgizgan

narsasi o‘z qadr-qiymatidan yuqori

bo‘lgan odam maqtanadi. A.Qahhor.

Yillar.

qo‘lga olinmoq: qo‘lga olmoq

QO‘LGA OLMOQ kim? 1 nima-
ni? o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq. Vari-
anti: **o‘z qo‘l(i)ga olmoq; qo‘l(i)ga**
olmoq kim? [o‘zining] nimani?

... *dehqonlar hokimiyatni o‘z qo‘l-*
lariga olib, birinchi navbatda och xa-
loyiq ovqat-oziq bilan ta‘minlansin...
P. Tursun. O‘qituvchi.

2 *nimani?* qo‘qqisdan hujum qilib
bosib olmoq (rasmiy). Varianti: **qo‘l-**
ga olinmoq nima?

...*bankani butun qog‘oz oqcha-*
lari, oltin, kumush pullari va boshqa
qiyimatli ashyolari bilan qo‘lga olib,
xalqniki deb e‘lon qildilar. S.Ayniy.
Sudxo‘rning o‘limi. Menga qaysi tran-
sheyalarga kirganini va qaysi nuqtalar
qo‘lga olinganini aytsin. I.Rahim. Chin
muhabbat.

3 *kimni?* hibs qilmoq, qamash maq-
sadida tutmoq (rasmiy). Varianti:
qo‘lga olinmoq kim?

Bobomurod tovlamachini qo‘lga
olishga qaror qilinib, ijrosiga kirishil-
di. S.Ayniy. Qullar. – Shu gaplar shart-
midi? Bolalarni gumon bilan emas,
jinoyat ustida qo‘lga olishgan. Odam-
lar yaralangan. Axir ota-onang... – E,
– Qodir qo‘l siltadi. – Boraver, bu-
gungi so‘roq tugadi, – dedi Jiyanbo-
yev. T.Malik. Charxpalak.

4 *kimni?* biror yo‘l bilan o‘z xo-
hishiga bo‘ysunadigan qilmoq.

Nosirov bu hovliqma nodonni xo‘p
o‘rgangan, qo‘liga olgan, ko‘p ish-
larni uning orqasiga o‘tib turib qila-
di. A.Qahhor. Sarob. Selpodagi Bo-
zorovni yaxshi bilasiz. O‘sha surbet
otamni qo‘lga olgan. I.Rahim. Chin
muhabbat.

qo‘lga qo‘l bermoq: qo‘lni qo‘lga
bermoq

qo'lga qo'ndirmoq: qo'l(i)ga qo'nmoq

QO'LGA TEGMOQ nima? ega bo'lmoq; bevosita o'ziniki bo'lmoq.

Nihoyat, diplom qo'lga tegdi. Meni Farg'ona vodiysiga ishga tayinladilar. O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

qo'lga tushirilmog: qo'lga tushmoq

qo'lga tushirmog: qo'lga tushmoq

QO'LGA TUSHMOQ kim? – **QO'LGA TUSHIRMOQ** kim? kimni? **1** tutqun bo'lmoq. Varianti: **qo'l(i)ga tushmoq** kim? kimning? **qo'lga tushirilmog** kim? (rasmiy).

Men ham hukumatning odami-man. Qo'lga tushsang, mening obro'yimga futur yetadi. S.Ahmad. Hukm. – *Qo'lga tushirib, manashi tim shiftiga osish kerak!* – dedi boshqasi dag'dag'a qilib. X.Do'stmuhammad. Jajman.

2 biror nojo'ya ish bilan tutilmoq. Varianti: **qo'l(i)ga tushmoq** kim? kimning? Sinonimi: **tumshug'(i)-dan ilinmoq** kim?

«Bahonangni qo'y, bola! Samanining esi bor, adashmaydi! – Chol hech gap bermasdi. – Ot sening tagingdami – bo'ldi, qo'lga tushding». H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. Ha, mayli, tanqid qila qolsin, men o'sha O'ktamni shunday qo'lga tushirayki,.. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

3 aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'y-moq. Varianti: **qo'l(i)ga tushmoq** kim? kimning? **qo'lga tushirilmog** kim? (rasmiy).

«Nahotki... qo'lga ololmasalar-ing-a?» – «qo'lga tushib bo'пти». S.Zunnunova. Yangi direktor. Isqirt

odamsiz, aldab qo'lga tushirdingiz meni, bir daf'a qizimni o'tga tashladim,... endi bas... Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Aftidan, o'sha ma'sum chog'larini Siddiqjonga eslatmoqchi va uning qo'lga tushuviga go'llik emas, muhabbat sabab bo'lganini aytmoqchi edi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Islovotxonolari (fohishaxonalari) taraqqiy topgan mam-lakatlarda adashgan qizlar, ozgan juvonlar ko'pincha Fuod afandi tutgan yo'llar bilan qo'lga tushirilar edi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

QO'LI EGRILIK o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlash.

Eshonnikida yuraverib, xiyla qo'li egrilikka o'rganib qolganman. G'.G'ulom. Shum bola.

QO'LI GUL [kimning?] o'z ishini juda mohirlik bilan va chiroyli bajaradigan.

Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor, qo'li gul. Unga ayrim e'tibor qilish, shubhasiz, yaxshi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

QO'LNI BERING! kelishdik!

«... qulay fursat kelganda, xalqni yig'asiz, kamina eshonlar, so'filar, har xil avroqchilar, tovlamachilarni fosh etaman. Qani, sizga ma'qulmi?» – «Ma'qul, ayni muddao. Qo'lni bering...» Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

QO'LNI QO'LGA BERMOQ kimlar? ma'lum maqsad yo'lida birlashmoq, hamjihat bo'lmoq. Varianti: **qo'lga qo'l bermog.**

«Rus bilan o'zbek qo'lni qo'lga bersa, har mushkul oson», – dedi «Sakson» ota. Oybek. Oltin vodiyan



shabadalar. *Jamiki kambag'al qo'lni qo'lga berib, yaktan bo'lib tursa, kimning haddi bor mardikor olishga!* Oybek. Qutlug' qon. *Barcha islom mamlakatlari birlashsak, qo'lga qo'l bersak, inshoollo, mushkul ishlari-miz oson bo'lur.* Oybek. Nur qidirib. *Uyushib, qo'lga qo'l berib ishlayot-ganimizni ko'rib kuysin, kuyib o'lsin.* S.Ahmad. *Hukm.*

qo'lni siltamoq: qo'l siltamoq

qo'lni yuvib, qo'ltiqqa artmoq:

qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ga urmoq

qo'lni yuvib, qo'ltiqqa urmoq:

qo'l(i)ni yuvib, qo'ltig'(i)ni urmoq

QO'LTIG'(I)GA KIRMOQ *kim?*

kimning? qo'llab-quvvatlash zarur bo'lib qolganda yordam bermoq.

Bir ulgurji soliq chiqib, Muhammadrajabni tentiratdi, bunday vaqtlarda Saidiy qo'ltig'iga kirar edi. A.Qahhor. Sarob. «*Bitta Davronov ayblimi, jiyan? – dedim men unga. – Senlar qayoqda eding? Ko'pdan quyon qochib qutulmas. O'shaning qo'ltig'iga kirsalaring bo'lmasmidi?* I.Rahim. *Ixlos.*

QO'LTIG'(I)GA OLMOQ *kim?*

[o'zining] kimni? homiylik qilib, o'z tarafdorlari qatoriga qo'shib olmoq.

Yormat esa Yo'lchini o'z qo'ltig'iga olib, boshqalarga qarshi qo'yishni istar edi. Oybek. Qutlug' qon.

qo'ltig'(i)dan tarvuz(i) tushdi: tarvuz(i) qo'ltig'(i)dan tushdi

qo'l tortmoq: qo'l(i)ni tortmoq

QO'LTIG'(I)GA SUV PURKAMOQ *kim? kimning?* biror ishni qilishga o'chakishtirmoq; gijgijlamoq.

Ha, uning qo'ltig'iga suv purkayotgan ham shu Bek. S.Ahmad. Qadr-don dalalar. «*Kimdir qo'ltig'iga suv*

purkayotganga o'xshaydi», – deb o'y-ladi. M.Muhamedov. Gavhar.

QO'LTIG'IGA KIRMOQ *kim? kimning?* 1 qo'llab-quvvatlamok, yordam bermoq.

Kasal bo'lib qolsam, nima bo'ladi?.. Qo'ltig'imga kim kiradi? Akam bo'lmasa, ukam bo'lmasa. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari; [Olxo'ja:].*

2 birovning ishonchini qozonib, uning pinjiga kirmoq.

Endi, bu bilan hazil qilma, kattarog'ini «aka» de, qo'ltig'iga kir, kichikrog'ini «uka» de, deb o'rgatadigan bo'ldi. P.Tursun. O'qituvchi.

QO'LTIG'IGA SUV PURKAMOQ *kim? kimning?* birovga qarshi oyoqlantirmoq, gijgijlamoq.

Eshonning xotinini kimdir tezlayapti, kimlardir qo'ltig'iga suv purkayapti. S.Ahmad, *Hukm.*

QO'LUNG TUTMOQ [qolun tut=] tar. *kim? kimning?* qo'llab-quvvatlamok.

Haqiqat do'stung'oringdur ulkim, Qo'lung tutsa ayoqdan tushganingda. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QO'LUNDAN KELMASLIK [qo'lundan kelmä=] tar. *kim?* qila olmaslik, bajara olmaslik.

Yomon ish kelmagay hargiz qo'lundan, Kechibdur Hotami Toyi va lekin to adab oti. Xaloyiqning tilindadur, karam birlan bo'lub mashhur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

QO'NDOQDATEKKAN (DARD) yoshligidan bor (salbiy odat).

Bu – sizga qo'ndoqda tekkan dard! M. Boboyev. Go'zallik istab.

QO'Y OG'ZIDAN CHO'P OLMAGAN nihoyat darajada beozor, mo'min.

Bizning qishloqda G'afforjon degan qo'y og'zidan cho'p olmagan, buning ustiga hech kimi yo'q bir yigit bor edi. A.Qahhor. Xotinlar.

QO'Y(I) MINGGA YETDI *kimning?* behad sevinmoq. Sinonimi: **bosh(i) ko'kka yetdi kimning? teri(-si)ga sig'may ketmoq** *kim?* [o'zining]; **og'z(i) qulog'(i)ga yetdi kimning? og'z(i)ning tanobi qochdi kimning?**

Singlisi bolalari bilan yo'qlab kelganini ko'rib tog'amizning qo'yi mingga yetdi. So'zlashuv uslubi.

qo'ygan ko'ngl(i): ko'ngil qo'y-moq

qo'ygan odam: odam qo'y-moq

qo'yib bermoq: o'z(i)ga qo'yib bermoq

QO'YN(D)GA QO'L SOLMOQ *kim? kimning?* fikr-niyatini bilishga harakat qilmoq.

Ularga qaragan sari Baraka bobo xursand bo'lardi. «Demak, bizning kasbimiz ham bolalarni qiziqtiribdi. Ular orasida cho'pon-u zootexnik bo'laman deganlari topiladimi? Qo'yniga qo'l solib ko'rish kerak». S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. So'ngra ... xotin-xalajni ishga soldi. Ular payti-payti bilan Nasibaning qo'yniga qo'l solib ko'rar edilar. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

QO'YN(D)NI PUCH YONG'OQQA TO'LDIRMOQ *kim? kimning?* yolg'on va'dalar bilan aldarmoq.

Hoy Nazirbibi, shu bo'ladigan ishmi yo ... qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib jo'natdikmi? A.Qahhor. Kampirlar sim qoqdi.

qo'yn(i)ni puch yong'oqqa to'lg'izmoq: qo'yn(i)ni puch yong'oqqa to'ldirmoq

QO'YNI BO'RIGA TOPSHIRMOQ *kim?* bilmay turib eng nomaqbul kishiga ishonch bildirmoq, murojaat qilmoq.

«Murodova bilmaydi. Shuning uchun keyingi arizani Davronovga yuboribdi». – «Qo'yni bo'riga topshiribdida». I.Rahim. Ixlos.

qo'sh qo'llab: ikki qo'llab

QO'SHA QARIMOQ *kim? kim bilan?* umrining oxirigacha birgalikda uzoq yashamoq.

Xudoyo kuyov bola bilan qo'sha qaring! Oybek. Qutlug' qon. Mukarrama boy bilan qo'sha qarishlikni orzu qiladi. G'.G'ulom. Qizaloq.

QO'SHGA QO'SHBDIMI?! kim? kimni? og'ir jismoniy mehnat qilibdimi?!

«Katta oyim shaharda qo'shga qo'shibdimi bu ablahni?! Charchaganmish, o'lib ket!» – Gulsumbibiga, qiziga o'qrayib vaysadi Yormat. Oybek. Qutlug' qon.

QO'SHMOZOR BO'LMOQ birga, bir vaqtda o'lmoq; qirilmov

– Xudo xohlasa, hammasi qo'shmozor bo'ladi! – dedi Rohatbibi. – Haq joyida qaror topadi. H.G'ulom, Mash'al.

QO'SHOQNING ORQASIDA (yoki ICHIDA) BO'SHOQ bir necha aybdor, gunohkor, jinoyatchi va sh.k. ichida begunoh jazolangan kishiga nisbatan aytiladigan ibora.

Alijonim yomon do'stning kasriga qoldi, qo'shoqning orqasidan boshqoq jabr ko'rdi-ya! So'zlashuv uslubi.



R

RABBIMSAN DEB muttasil katta kuch sarf qilib.

O'ziga o'xshagan yigitlarni ham cho'lga boshladi. Rabbimsan deb chunonam ketmon chopishdiki, hash-pash deguncha allaqancha yerni cho'ldan yulib olishdi. S.Ahmad. Cho'l burguti.

RAHM(I) KELDI kimning? kimga? yoki nimaga? – **RAHM(I)NI KELTIRMOQ** nima? yoki kim? kimning? ayash, achinish hissi uyg'ondi.

«Qilgulikni qilib qo'yib, yana ko'zini mo'ltiratadi-ya. Uning ustiga tilini chiqarib yo'taladigan odat chiqazibdi». – *«Rahmi kelarmikin deydi-da», – dedi qo'shni xotin. Hamma xoxolab kulib yubordi.* S. Ahmad. Mullajon. *«Gavhar ketib, qiynalibdi-da», – o'yladi Zamira va unga biroz rahmi keldi. Lekin yana bir qarab, Mahkamning yuzida kishining rahmini keltiradigan hech narsa topa olmadi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Ko'z yoshi yo ko'ngildagi g'am-g'ussaning damini kesish, yo berahmning rahmini keltirish uchun to'kiladi, mening ko'nglimda qanaqa g'ussa bor, yig'lab kimning rahmini keltirmoqchiman?* A.Qahhor. Sinchalak.

rahm(i)ni keltirmoq: rahm(i) keldi

RAHMI QAT'IY [rahmi qat'ij] tar. kimning? rahmsiz, shafqatsiz.

Yaqinda bo'lmasa gar zuhdu taqvo, Rahmi qat'iy mavaddatdan ko'b avlo. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

RANJ CHEKMOQ [ränž çek=] tar. kim? qiynalmoq. Varianti: **ranjni chekmoq, ranj chekmay.**

Muddatlar ul ranjni chekib dambadam aytur edi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ey ota, bali, ranj chekmayin ganj hosil bo'lmas.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

RASVO(SI) CHIQQI kimning? – **RASVOSINI CHIQARMOQ** kim? nimaning? yomon ahvolga tushmoq.

Karimqul aka ham hazilakam ishlagani yo'q, ammo bechora urilib, rasvosi chiqdi. Oybek. *Oltin vodiydan shabadalar.* – *Chakki qiladi Shoqosim aka. Nasha bir kuni uni rasvo etadi.* Oybek. *Qutlug' qon. Biroq u nozik masalalarda esankirab qolar, o'z bilgicha qilgan ishning albatta rasvosini chiqazardi.* S. Ahmad. Hukm.

rasvosini chiqarmoq (... chiqarmoq); rasvo(si) chiqdi

RASVOYI JAHON BO'LMOQ kim? – **RASVOYI JAHON QILMOQ** kim? nimani? (asli kimni?) xa-

loyiq orasida badnom, bebro‘, shar-
manda bo‘lmoq.

*Bu xil odamni hech nima bilan
qayirib bo‘lmaydi.. Abdurasul bilan
kelishib, «Kulak urug‘-aymog‘i bor
ekan» deb gazetagami, Moskvagami
xat tashlab, nomingni rasvoyi jahon
qilganini ko‘rib qolasan. P.Tursun.
O‘qituvchi.*

rasvoyi jahon qilmoq: rasvoyi ja-
hon bo‘lmoq

RAVO KO‘RMOQ *kim? nimani?
kimga?* 1 biror salbiy voqea-holatni
ko‘rish-kechirishga loyiq deb bilmoq.

*Nahot o‘g‘limga o‘shandoq qat-
tiqchilikni ravo ko‘rsam! Siz ravo ko‘-
rasiz, sizga o‘xshagan mehri qattiq
otalar ravo ko‘rar. A.Qahhor. Qo‘sh-
chinor chiroqlari. Haligacha jirkanib,
xor tutilgan o‘g‘limga ham hech kim
shamolni ravo ko‘rmay, diydasing us-
tida saqlab, hurmat qiladigan bo‘lib
goldi. G‘.G‘ulom. Yodgor. Mayiblar
hamma vaqt sog‘ kishilarga hasad
qiladi, boshqalarga o‘z kunlarini ravo
ko‘radilar. S. Ahmad. Hukm.*

2 (faqat bo‘lishsiz formada ishlati-
ladi) hech narsaga, har qanday iltifot-
ga loyiq emas deb bilmoq.

*Yo‘q, o‘rtog‘ingiz hujrasini biz-
dan ayamasi, lekin boshqalar bizga
hech nimani ravo ko‘rmaydilar. O‘z
ko‘nglimizda va o‘zimizniki bo‘lgan
ishlarni ham yulib tashlamoqchilar.
Oybek. Qutlug‘ qon.*

RAXNA SOLMOQ *kim? nima-
ga?* buzilishiga, parchalanishiga olib
keladigan ta‘sir ko‘rsatmoq.

*Ulamodan tashqari shariat ish-
lariga aralashish – shariatga raxna*

*solish, uni buzish bilan baravar. Bu-
ning oqibati, albatta, yomon. Oybek.
Qutlug‘ qon. Dilbar ... gruppamiz
studentlarining kechasida mening ham
boshqalardek o‘ynab-kulishimni ilti-
mos qildi, chunki men qovog‘imni solib
o‘tirsam, hammaning g‘ashiga tegib,
umumiy quvonchli kayfiyatga raxna
solishligimni aytdi. O. Yoqubov. Yan-
gi yil kechasida.*

razm solinsa: razm solmoq

RA‘Y(D)GA QARAMOQ *kim? kim-
ning?* mayl-xohishi bilan hisoblashib
ish tutmoq.

*Xotin erning quli; xotinning ko‘ng-
liga, ra‘yiga qarab ish qilgan erkak
odam emas, jiyan. Ishim to‘g‘rilanib
ketdi, yerim o‘zimda qoldi. Oybek. Qut-
lug‘ qon. Maktabgacha bir chaqirim
yo‘l. O‘z oyog‘im bilan borishimga
ko‘nmaydi. Mingashasan, vassalom!
O‘g‘limning ra‘yiga qarashga maj-
bur bo‘ldim. I.Rahim. Hilola.*

RA‘Y(I)NI QAYTARMOQ *kim?
kimning?* mayl-xohishi bilan hisob-
lashmasdan ish tutmoq. Sinonimi:
**ra‘yiga qarshi bormoq; ra‘yiga to‘-
siq bo‘lmoq.**

*Nima deyishar edi, bunday paytda
ko‘pchilikning ra‘yini qaytarib bo‘-
ladimi?! H.Nu‘mon. Yoshlikda ber-
gan ko‘ngil. Lekin u taqdir temirini
sindirishdan o‘jiz ekanini tez angladi.
Erining ra‘yiga qarshi borishdan foy-
da yo‘qligini bildi va ko‘nikdi. Oybek.
Qutlug‘ qon. Uning ketishini eshitib,
ko‘nglim yana buzildi, yalinib-yol-
vorib olib qolmoqchi bo‘ldim, ammo
qizning ham sizning ra‘yingizga to‘-
siq bo‘lishni munosib ko‘rmasdim, ham
bu uydagi xotinlar Unsinni og‘ir yu-*

mushlarga sola boshladilar, buni ko'rish manga juda og'ir edi. Oybek. Qutlug' qon.

RAZM SOLMOQ *kim? nimaga? yoki kimga?* sinchkovlik bilan kuzatmoq. Varianti: **razm solinsa** *nimaga?*

U [Yo'lchi] yo'q ekan, bugun kelibdi, darrov shu voqea yuz beribdi. Sen unga hech nima dema, ammo yurish-turishiga razm sol! Oybek. Qutlug' qon. Shundan keyin Asqar ota unga alohida e'tibor bilan razm solgan edi, ko'ziga juda yosh ko'rindi. A.Qahhor. Xotinlar. Yaxshilab razm solinsa, tiniq qop-qora ko'zlari hamma vaqt hozirgiday quvnoq, yuzlarida allaqanday issiqlik bo'rtib turganday. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

RASHK(I) KELDI *kimning? kimga?* hasad, g'ayirlik tuyg'usi namoyon bo'ldi.

Yer tagidan goh Solijonga, goh Rizaga qarab qo'yadi. Ularning bir-birlariga kulib boqishlari Muhiddinga g'alati tuyular, havasi kelayotganini ham, rashki kelayotganini ham bilmas edi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

RANG(I)DA QON QOLMADI *kimning?* qo'rquvdan, jahldan yuzidagi qizillik yo'qoldi. Varianti: **rang(i)da qut(i) qolmadi**. Sinonimi: **rang(i) bo'z bo'lib ketdi** *kimning?* **rang(i)dan qon qochdi** *kimning?* **rang(i) o'chdi** *kimning?*

Usta Bahrom shoshib borib, bolasining bosh tomoniga o'tirdi. Peshanasini ushladi. Isitmasi baland edi. Ustaning rangida qon qolmadi. Qo'rqib ketdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. «Bittagina bola boqilib qolar», – dedi yuzidagi yasama tabassumi birdan o'chib, rangida quti qol-

magan Risolatbu sekingina. S.Zun-nunova. Latta.

RANG(I)DA QON(I) YO'Q *kimning?* yuzidan qizillik tusi yo'qolgan.

O'g'li esa otasining aksi, rangida qoni yo'q, sap-sariqqina, chuvakkina bir yigit edi. P.Tursun. O'qituvchi.

rang(i)da qut(i) qolmadi: rang(i)da qon qolmadi

RANG(I)DAN QON QOCHDI *kimning?* qo'rquvdan, jahldan yuzidagi qizillik yo'qoldi. Sinonimi: **rang(i) bo'z bo'lib ketdi** *kimning?* **rang(i)da qon qolmadi** *kimning?* **rang(i) o'chdi** *kimning?*

Mirzakamoliddin uy jihozlarini ko'rib, hayron bo'ldi. Rangidan qon qochib, ko'zi pirlpiradi. S.Ahmad. So'nggi nusxa.

RANG(I)NI OLDIRMOQ *kim?* [o'zining] – **RANG(I) OLINDI** *kimning?* ruhan, jismonan azoblanib, kasal kishi qiyofasiga ega bo'lmoq. Sinonimi: **rang(i) ketdi** *kimning?* **rang(i) qochdi** *kimning?*

Balki buni [tekshirishlarni] Akbarovning o'zi ham sezar, balki u shuning uchun rangini oldirib qo'yayotgandir, shuning uchun ko'zi atrofidagi surma rang soya quyushlab borayotgandir? P. Qodirov. Uch ildiz.

rang(i)ni somon etmoq: rang(i) somon bo'ldi

rang(i) olindi: rang(i)ni oldirmoq
REJAGA SOLMOQ *kim? nimanini?* bajarish tartibini belgilamoq.

«Ishni rejaga solganda meni esdan chiqarma», – dedi. N.Nazarov. Zamon.

RIYOZAT CHEKMOQ *kim?* qiyinchiliklarni boshdan kechirmoq. Varianti: **riyozat tortmoq.**

Kamina necha yillar madrasalarda riyozat chekib, mana shunday oyimposhshalarga darkor bo'lar ekanmizmi deb o'qiganmiz-da. H.Ha-kimzoda. Tuhmatchilar jazosi. [Sham-siddinxon eshon] qancha zamon riyozat tortib, minglab murid-muxlis ort-tirgan edilar. G'.G'ulom. Elatiyada bir ov.

RIZQI PARISHON [rizqi pari-
shan] tar. kimning? muqim daromadi
yo'q, yemishining tayini yo'q.

*Rizqi parishon odamiy ko'ngli
parishon dam-badam. S.Saroyi. Gu-
listoni bit-turkiy.*

**RIZQ(I)NI TERIB YEB YUR-
MOQ** kim? [o'zining] nasibasiga ya-
rasha tirikchiligini o'tkazmoq (diniy).

*O'sha yili bahorgacha har qayer-
da rizqimni terib yeb, bahorda Avliyo-
otaga ketib qolganman. A.Qahhor.
Qo'shchinor chiroqlari. «Bek aka, siz
misoli chinorsiz. Odam ham, shamol
ham qo'porolmaydigan chinorsiz. Ha,
hech kim qo'porolmaydi! – dedi u
qizishib ketib.– Biz bo'lsak soyangiz-
da rizqimizni terib yeb yuraveraylik!»
S. Anorboyev. Oqsoy.*

ROL O'YNAMOQ nima? ma'-
lum ta'sir kuchiga ega bo'lmoq.

*Katta bir qit'adagi xilma-xil tari-
xiy jarayonlarning qaysisi qayoqqa
ketayotganini, ... qaysi ijtimoiy kuch
qanday rol o'ynayotganini bilishi, tek-
shiriishi, yoritishi kerak. P.Qodirov.
Uch ildiz.*

ROLIGA KIRMOQ kim? kim-
ning? mavqeyiga yarasha tuta bosh-
lamoq.

*Kamol O'rinboyev tezda o'z roli-
ga kirdi, o'z jangovar ruhini, kayfiya-
tini topdi. Oybek. Quyosh qoraymas.*

*Ajabo, u yana ilgarigi holiga qaytdi,
go'yo muhim bir narsani isbotlagan
edi; ruhi ko'tarildi, chiroyi ochildi,
boshliq roliga kirdi. A.Muxtor. Tu-
g'ilish.*

ROST GAP to'g'risi; to'g'risini
aytganda (modal ibora, kirish vazi-
fasida keladi).

*«Bizning Yog'och polvon ham shu-
naqa [xotinidan juda qo'rqadigan]
polvonlardan, – dedi Burgut uning
biqiniga turtib. – Ha do'st! Qomating-
ga qoyilman!» Yog'och polvon qizarib
ketdi. «Hech-da, ichadigan vaqtim-
da, rost gap, jindakina qo'rqardim.
O'shanda ham hadeb mashmasha qila-
vergandan keyin yolg'ondakasi qo'rq-
qanga o'xshab turardim». S.Ahmad.
Cho'l burguti.*

ROY KO'RGUZUB [raj körgüz=]
tar. kim? kimga? maslahat bermoq.

*Har biri aqli qadrincha bir roy ko'-
guzub, malik dag'i bir tadbir andisha
qildi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.*

RUH(I) BALAND kimning? his-
tuyg'usi mavj urgan holatda. Sino-
nimi: **ruhi dadil**.

*Bublik bilan qiz chirs-chirs qilib
tutoqqan kichkina gulxan oldida ko'z-
lari ola-qaroq, lekin ahil va jiddiy
so'zlashardilar, bajarishga azm qil-
gani xavfli ishning hayajoni bilan
yuraklari to'la! Ruhlari baland – ko'-
tarinki edi. Oybek. Quyosh qoraymas.
Bugun uning ko'ngli shod, ruhi dadil
edi: kecha dadasi qo'y so'yish bilan
ovora bo'lganda Yo'lchi unga qara-
shib turarkan, Gulnor mana shu deraza
orqali uning sevgi to'la ko'zlarini bir
qancha uchrata bilgan edi. Oybek.
Qutlug' qon.*



RUH(I) KO'TARILDI kimning? ruhiy tushkunlikdan qutqarmoq. Sinonimi: **ruh(i) dadil**. Antonimi: **ruh(i) tushdi** kimning? – **ruh(i)ni tushirmoq** kim? [o'zining].

So'nggi yillarda yuz berayotgan katta voqealar otasining ruhini ko'tarayotganini sezgan Gavhar uning ertangi kuniga umid bilan qarardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

ruh(i) ko'tarildi: ruh(i)ni ko'tarmoq

RUH(I) TUSHDI kimning? – **RUH(I)NI TUSHIRMOQ** kim? [o'zining] ruhiy tushkunlikka berilmoq. Varianti: **ruhni tushirmoq** nima? (oz ishlatiladi). Antonimi: **ruh(i)ni ko'tarmoq** kim? yoki nima? kimning? – **ruh(i) ko'tarildi** kimning?

Galya yalt etib orqasiga qaradi, ikki-uch qadam narida Timofey turardi. U Galyaning oldiga keldi. «Kim aytdi senga hayot tugadi deb? Nega muncha ruhing tushib ketdi?» M.Muhamedov. Kichik garnizon. Tushirmang ruhingizni, ota-ona, mining ot yovga qarshi g'olibona. S. Abdulla. Alpomish. Birovga aytib, tushuntirib bo'lmaydigan hasrat uyquni, darmonni qochirib, ruhni tushirib, bir holatga keltiradi odamni. A.Muxtor. Tug'ilish.

RUH(I) YENGIL BO'LDI kimning? – **RUH(I)NI YENGIL SEZMOQ** kim? [o'zining] ruhiy azoblanishdan xoli bo'lmoq.

Siddiqjon shu kundan boshlab .. har jihatdan xotirjam va ruhi yengil bo'lib qoldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Bugungi osoyishta uyqu Po'latjonga ancha quvvat kirgizdi: o'zini tetik, ruhini yengil seza boshladi. Oydin. Asl yor.

RUH(I) YENGIL kimning? ruhiy azob-tashvishdan xoli.

Beshta qo'yni yo'qotganimiz, xo'jayindan qochoq bo'lishimizga qaramasdan, Omonni-ku bilmayman, mening juda ruhim yengil edi. O'zimni har qanday band-bo'g'uvdan ozodday his qilar edim. G'. G'ulom. Shum bola. Hozir uning ruhi yengil, dalaning uzoqda ufq bilan tutashgan gunafsha rang etaklariga termilar va bu jozibador manzaralar unga shirin tuyg'u, ko'ngilga orom va huzur bag'ishlovchi ertak so'yilayotgandek bo'lardi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

RUH(I) YENGIL TORTDI kimning? ruhiy azoblanishi tarqadi. Sinonimi: **yengil tortmoq 1** kim? **ruh(i) yengillashdi** kimning?

Bu qo'shiq saraton qizig'idagi hayotbaxsh shabadaday unga orom bag'ishladi. Ruhi yengil tortib, yuziga tabassum yugurdi. S.Zunnunova. Ko'ngil. – Sizni qiynab qo'yaman. To'g'ri, qiynalasiz. Ruhim picha yengil tortsin. Qilcha darmonim yo'q. Ular sezmasmikan? – Gulnor go'yo o'zini jaso ratsizlikda ayblagan va o'z ahvolidan umidsizlangan, o'ksingan kabi ko'zlari yosh bilan to'ldi, tomchilar uning yonib bo'rtgan yuziga yumalana-verdi. Oybek. Qutlug' qon.

RUH(I) YENGILLASHDI kimning? ruhiy azoblanishi tarqadi. Sinonimi: **yengil tortmoq 1** kim? **ruh(i) yengil tortdi** kimning?

Yo'lchi shamni qizning tepasidagi tokchaga o'rnatdi, keyin ro'molcha bilan uning ko'z yoshlarini avaylab artib dedi: «Yig'lamang, yig'lamang, ruhingiz yengillashsin». Oybek. Qut-

lug' qon. *Kechga yaqin Gulnorning ruhi ancha yengillashdi, issig'i ozaydi, nafas olishi ham asta-asta durustlashdi. Shoqosim qayerdadir pishirib bergan serqatiq xo'rda oshdan u yarim kosa ichdi.* Oybek. Qutlug' qon.

RUH(I)NI KO'TARMOQ kim? yoki nima? kimning?

ruh(i)ni tushirmoq: ruh(i) tushdi

ruh(i)ni yengil sezmoq: ruh(i) yengil bo'ldi

ruhni tushirmoq: ruh(i) tushdi

ruxsat bermoq: ijozat bermoq

RO'BARO' KELMOQ kim? nimaga? kutilmaganda yo'liqmoq be-xosdan uchramoq. Sinonimi: **duch kelmoq** kim? kimga? yoki nimaga? nima? nimaga?

Tarix yozila boshlagan kungacha va undan so'nggi jamiyatning yashash usullarini o'qib va shular ustida o'y yurgiza boshlasangiz, ko'p qiziq davrlarga ro'baro' kelasiz. G'.G'ulom. Badal novcha – afsona qahramoni.

ro'y bermoq: yuz bermoq

RO'YIXUSH BERMOQ kim? kimga? yon bosibroq muomala qilmoq. Varianti: **ro'yixushlik bermoq** kim? kimga? yoki nimaga?

Kampir yig'lardi: «Shundan boshqa erkak qurib ketganmidi». – «Oyijon, bozor emas ekanki, tanlab ol-sangiz. Olti yildan beri ro'yixushlik bermadim, urishdim ham, haydab ham yubordim, qo'y masa, nima qilaman. U ham odam axir». P.Qodirov. Uch ildiz. *Lekin Zamira yotoqqa, ko'pchilikka o'rganib qolgani uchun avval uncha ro'yixushlik bermadi [yotoqdan ko'chishga].* P.Qodirov. Uch ildiz.

ro'yixushlik bermoq: ro'yixush bermoq

ro'yobga chiqarmoq: ro'yobga chiqmoq

RO'YOBGA CHIQQOQ – RO'YOBGA CHIQQOQ 1 nima? – kim? nimani? ko'ngildagi istak-rejalar voqelikka aylandi. Sinonimi: **yuzaga chiqmoq!** nima? – **yuzaga chiqarmoq 1** kim? nimani?

Nurining hech qanday so'zga, ishga tobi yo'q edi. U o'z rejasini yuzaga chiqara olmagani uchun, dam g'azablanar, umidsizlanar, dam yana yangi hiylalar to'qishga urinar edi. Oybek. Qutlug' qon.

2 kim? – kim? kimni? moddiy-ma'naviy ojizlikdan xalos bo'lmoq. Sinonimi: **yuzaga chiqmoq 2** kim?

Lekin, biz deymizki turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema'ni ishlarni yo'qotaylik dini islomning ravnaqiga qo'shish qilaylik. Oybek. Qutlug' qon. *Sening butun xonadoningni kim ro'yobga chiqardi?* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

RO'ZA TUTADIMI?! nima? (hayvon) nimani yeydi?! yeyishga hech narsa qolmaydi-ku!

Bedani, jo'xoripoyani yozda yedirib tugatilsa, qishda, erta bahorda mollar ro'za tutadimi?! S.Anorboyev. Oqsoy.

RO'ZG'OR(I)NI TEBRATMOQ kim? [o'zining] oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlab turmoq. Sinonimi: **uy tutmoq** kim?

Mana besh-olti yildan beri shu do'kon orqasidan ro'zg'or tebratib keladi. S.Zunnunova. Gulxan. – *U yana ilgari-gicha faqir ro'zg'orini tebratmoqda va loy qo'rasiga turli-tuman arzon baho temir-tersaklarni solib, qimmatbaho taqalar ishlab chiqarmoqda.* G'.G'ulom. Jahongirlik urushining so'nggi qurbonlaridan biri.



SABOQ BERMOQ nima? kimga? yaxshi-yomonni anglashga ozmi-ko'pmi o'rgatmoq.

Bugungi kun unga turmush haqiqatidan shunday saboq berdiki, Xolmurod ilgari bu to'g'rida o'ylamas edi. P.Tursun. O'qituvchi.

SABOQ OLMOQ kim? kimdan? o'rganib, o'shanday ish tutmoq.

...O'ktamning chizgan chizig'idan chiqmaydi, undan saboq olib, qattiq qo'l bo'lib ketayapti. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

sabr kosa(si) to'lib-toshdi: sabr kosa(si) to'ldi

SABR KOSA(SI) TO'LDI kimning? – **SABR KOSA(SI)NI TO'LDIRMOQ** nima? yoki kim? kimning? sabr-chidami tugadi. Varianti: **sabr kosa(si) to'lib-toshdi.** Sinonimi: **toqat(i) toq bo'ldi** kimning? – **toqat(i)ni toq qilmoq** kim? kimning?

Tanlagan qo'chqorlarini berishmagach, Gerasimovning sabr kosasi to'lib, jahli chiqdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Ashirmat to'y masalasini qarindoshlar oldiga uzilkesil qilib qo'ydi. Chunki ularning muomalasi dallolning sabr kosasini*

nihoyat to'ldirgan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

sabr kosa(si)ni to'ldirmoq: sabr kosa(si) to'ldi

sabz urmoq: sabza urmoq

sabza otmoq: sabza urmoq

SABZA URMOQ nima? **1** yer sathini ko'm-ko'k bo'lib qoplay boshlamoq.

Endi sabza urib kelayotgan ko'katlarning, hali ochilmagan o'rik gulining muattar hidlarini taratib yengil shamol esmoqda. O. Yoqubov. Bahor kunlaridan birida.

2 o'sib chiqa boshlamoq. Varianti: **sabz urmoq; sabza otmoq.**

Bola-da, murti sabza urib qolgan bo'lsa hamki, bolaligini qo'ymaydi: behiga hushi ketdi. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Deraza yonida endigina sabz urgan mo'ylovi teskari qo'yilgan qoshga o'xshash bir yigit vagonning g'ildirak qoqishi muqomiga allaqanday bir kuyni xirgoyi qilib borar edi.* A.Qahhor. Oltin yulduz.

SADAQA(SI) KETAY [kim? kimning? yoki nimaning?] hurmati baland ekanini ifodalaydi, kirish vazifasida keladi.

Hoji: «*Hukumatimizning sadaqalari ketay, zap fuqaroparvar chiqdilar-da*», – deb turgan edi, [Jo‘ravoy] polvonni ko‘rib, gapi og‘zida qoldi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. O‘g‘il deng [xatida]: «... Oyi, xafa bo‘lmang, qishloqqa borolmayman, ilmiy ekspeditsiyaga ketayapman. Qaytib kelgach, aspiranturada qolib, o‘qishni davom ettirmoqchiman..» – deb yozibdi. Sadaqasi ketay, bu ilm deganing tagi yo‘q daryoyi azim ekan-da-a? S.Anorboyev. Tashvish.

SADAQASI KETSANG ARZIYDI [kim? kimning?] hatto o‘zini xayr-ehson qilishga rozi bo‘lmoq.

Tushungan odamning sadaqasi ketsang arziydi. «*GESlaring ertaga ochilsa, sovg‘aga nima olib boray?*» – deydi. «*Himmatingiz biladi*», – dedim. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Saida bosh chayqadi: «*Men bu yerga ariza berib kelgan emasman, ariza berib ketmayman. Umuman ketmayman!*» A.Qahhor. Sinchalak.

SADAQAYI SAR(I) [kimning?] xayr-ehson qilinishga tayyor.

«*Mening, – dedi O‘rmon polvon, – eski zamonlardan qolgan bir to‘pponcham va shohdor eski miltig‘im bor edi. Urush munosabati bilan amir odamlari menga majburiy suvratda bir berdanka taqqan edilar. Bularning hammasi o‘z uyimda, qachonki keltir desangiz, hammasini keltirib beraman, sadqayi saringiz*». S.Ayniy. Qullar.

SADO CHIQMADI kimdan? munosabatini aytmaslik.

Risolat «*Gapiraymi, yo‘qmi?*» deganday hammaga bir-bir nazar tash-

ladi, hech kimdan sado chiqmagan-dan so‘ng, davom etdi. A.Qahhor. Xotinlar. Oy nuri bog‘-u rog‘larga oppoq nur sochib turgan shu sokin saraton tunida ularning ikkovi jimgina kelisharkan, na unisidan, na bunisidan sado chiqardi. S.Ahmad. Muhabbatning tug‘ilishi.

SADQAYI SAR bundan ham bat-tar bo‘lsin.

Sadqayi sar. Valixoningni inqilob sog‘ qo‘yarmidi?! Padariga la‘nat u dajjolning! Sh. Toshmatov. Erk qushi.

«**SAN-MAN»GABORMOQ** kim? kim bilan? janjallashuv, tortishuv darajasiga yetmoq. Varianti: «**san**»-u «**man**»ga bormoq; «**san-man**»gacha bormoq; «**san-man**»gacha yetib bormoq (oz ishlatiladi). Sinonimi: **adi-badiga bormoq** kim? kim bilan?

Azimjon bilan shunchalik «san»-u «man»ga borib yurgan Tillaboyev uni yoqlamoqda. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil. Agar Saidiy vahimali bir xabar olib kelmaganida, bahs «san-man»gacha borar edi. A.Qahhor. Sarob. Sunnat Sultonov bilan ikkimizning mojaromiz zo‘rayib, «san-man»gacha yetib bordi. I.Rahim. Olovkor.

«**san-man**»gacha bormoq: «san-man»ga bormoq

«**san-man**»gacha yetib bormoq: «san-man»ga bormoq

«**san**»-u «**man**»ga bormoq: «san-man»ga bormoq

saragini sarakka, puchagini puchakka ajratmoq: saragi sarakka, puchagi puchakka ajraldi

SAF TORTMOQ kimlar? ma‘lum tartibda bir qator bo‘lib tizilib turmoq.

Rota saharda oyoqqa turib, kazarma eshigi oldiga – yo'lkaga saf tortdi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

SAFAR QOCHDI QILMOQ kim? kimni? o'ta darajada behurmat qilib quvmoq, badarg'a qilmoq.

Uyimni, ro'zg'orimni, nimaiki mol-mulkim bo'lsa, hammasini ko'rsataman. Hammadan qolgan ovqatni oldiga qo'yaman, yemasa, mushtlab yediraman. Ana undan keyin orqasiga patnis bog'lab, safar qochdi qilib haydayman. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Hali so'zlagan kekxa boy o'zini bazo'r chetga ola bildi. Qolganlari olomonning oyoqlari ostida yumalanib, safar qochdi qilingan itday savalandi.* Oybek. Qutlug' qon.

safdan chiqarmoq: safdan chiqarmoq

454

SAFDAN CHIQMOQ kim? – **SAFDAN CHIQARMOQ** nima? kimni? faoliyat ko'rsatishga yaroqsiz bo'lib qolmoq.

Tabiat hodisalari oldida ojizlik tuppa-tuzuk parmachini safdan chiqardi. I.Rahim. Olovkor.

SAFSATA SOTMOQ kim? asossiz, bema'ni gaplarni ko'p gapirmoq **Dodxoh.** *Sovchilikka borasizmi, yo'q-mi? Muqimiy.* *Yo'q, bormayman! Bunday ishlarga kaminada layoqat yo'q. Dodxoh.* *So'z qaytarishga sizga kim huquq berdi? Muqimiy.* *Insof, vijdon, idrok va andisha. Dodxoh.* *Safsata sotmang. Sovchilikka borasiz dedim – borasiz. Gap tamom.* S. Abdulla. Muqimiy.

sakkiz yoshidan saxon yoshigacha: yetti yashardan yetmish yashargacha

salobat bosdi: salobat(i) bosdi

SALOBAT(I) BOSDI kimning? kimni? kimningdir mavqeyi, obro'e'tibori ta'sirida o'zini odatdagiday erkin tuta olmaslik. Varianti: **salobat bosdi** kimni?

Shundan beri duch kelganlarida qizni Muhammadjonning salobati bosadigan bo'ldi. P.Qodirov. Uch ildiz. *«Abdug'afur otam bo'lganlarida, – deb gapga aralashdi Yulduzxon, – bunchalik taltaymasdinglar, salobatlari bosib turrardi».* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

SALOM BERMOQ kim? kimga? **1** kelinchaklik davrida er xonadoniga ta'zim ijro etmoq [eski].

Ayol uy ostonasida paydo bo'ldi. Gulbahor unga oldin egilib salom berdi, keyin borib yelkasini tutib ko'rishdi. S.Zunnunova. Gulbahor. *«Salom berishga ham usta bo'lib ketibsan».* – *«Qo'yaver, kelinchaklikning ziynati».* S.Zunnunova. Gulbahor.

2 salomlashganda tabrik so'zini aytmoq yoki shuni imo-ishora bilan bildirmoq. Antonimi: **alik olmoq** kim?

Zamira og'zaki quruqqina so'rashdi. Ochil ham rasmiy salom berdi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Jamol Karimiy uning yonidan ko'zi bilan salom berib o'tib ketdi.* A. Qahhor. Sarob.

salom(i)ga alik olmoq: alik olmoq

SALOM-ALIK QILISHMOQ kim? kim bilan? yoki kimlar? o'zaro salomlashganda bir-biriga tabrik-javob so'zlarini aytmoq.

Darvozadan chiqib borayotganda ... sex boshlig'i Nikiforov bilan Pavel Ivanovichga duch keldi. Ular

bilan salom-alik qilishgandan so'ng, masterga murojaat qildi: «Pavel Ivanovich, sizni qidirib yuribman». G'.Ahmadiy. Kamolot.

SAN KO'RMAN KO'R BO'LIB kishi bilar-bilmas, sezar-sezmas.

Sheralining qiyofasidan qattiq og'riqdan qiynalayotgani bilinib turar edi. Keksa cho'pon buni bir qarashda sezdi. «Sabr qil, bolam.. Do'xtir dori surtib bog'lab qo'ysa, san ko'rman ko'r bo'lib tuzalasan-qolasan». S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi.

sanamay «o'ttiz» demoq: sanamay «sakkiz» demoq

SANAMAY «SAKKIZ» DEMOQ kim? aniq bilmay turib gapirmoq.

...sanamay «sakkiz» deyishdan qo'rqaman. Biroq, xotiring jam bo'lsin, maqsadga yetish uchun qo'limdan kelganini ayamayman. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *O'ylamay ish tutmasang, sanamay «sakkiz» demasang, marra seniki.* I.Rahim. Ixlos.

SARAGI SARAKKA, PUCHAGI PUCHAKKA AJRALDI kimning? – **SARAGINI SARAKKA, PUCHAGINI PUCHAKKA AJRATMOQ** kim? nimaning? yaxshisi, loyig'i bir tomon, yomoni, noloyig'i bir tomon bo'lib qoldi. Varianti: **sarani sarakka, puchakni puchakka ayirmoq** kim? Sinonimi: **saragi sarakka, puchagi puchakka chiqdi kimning?** yoki **nimaning?**

Bu yerda katta-yu kichik baravar sinaladi, saragi sarakka, puchagi puchakka ajraladi. H.Nazir. Odamning qadri. *Ibrohimov ... o'rtaga tashlangan fikrlarni va bularning to'g'ri yo noto'g'ri ekanligini isbot qilish uchun*

ko'rsatilgan dalillarni o'lchab, salmoqlab ko'rdi, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib yozib oldi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. ... ammo odamlar boshlarini qashib-qashib asta-sekin qizitayapti, o'ylayapti, atrofga qarab sarani sarakka, puchakni puchakka ayiryapti.* Oybek. Nur qidirib.


SARAGI SARAKKA, PUCHAGI PUCHAKKA CHIQDI kimning? yoki **nimaning?** yaxshisi, loyig'i bir tomon, yomoni, noloyig'i bir tomon bo'lib qoldi. Sinonimi: **saragi sarakka, puchagi puchakka ajraldi kimning?** – **saragini sarakka, puchagini puchakka ajratmoq** kim? nimaning?

«Endi nima bo'ladi?» – «Nima? bo'lar edi, odamlarning saragi sarakka, hozircha puchagi puchakka chiqadi...». A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Menga qolsa, odamlarni byuroga sudrashdan oldin leksiyaga qatnashish ixtiyoriy bo'lsin der edim. Ana shunda hamma narsaning saragi sarakka, puchagi puchakka chiqadi.* P. Qodirov. Uch ildiz.

sarani sarakka, puchakni puchakka ayirmoq: saragi sarakka, puchagi puchakka ajraldi

SARIQ CHAQAGA ARZIMASLIK nima? hech qanday qiymatga ega emas. Varianti: **bir chaqaga arzimaslik.**

So'zni tangaday jaranglatib so'zlashga ustasiz. Ammo hozirgi so'zingiz puchak sariq chaqaga arzimaydi. Mehnatda mehnat bor... Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Anorxon, umr savdosida eski-tuski odat bir chaqa-



ga arzimaydi. Yangi zamonda yigit bilan siz o'rtasidagi muomalalar ham yangicha bo'lishi kerak. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

SARIQ CHAQALIK hech. Sinonimi: **bir pullik**.

Bu qora afg'oningiz xo'p dono gaplarni gapiradi-yu, o'zi sariq chaqalik ish qilmaydi. A.Muxtor. Opa-singillar. Polvon bu ko'ngilsiz voqyeada tasalli kutgan eng so'nggi kishisining mada-didan ham umid uzdi. Sariq chaqalik qadr-qiymati solmaganini, kechikib bo'lsa-da, angladi. H.Nazir. Odamning qadri.

sarkalava(si)ni yo'qotmoq: kala-va(si)ning uchini yo'qotmoq

SAROSIMAGA SOLMOQ kim? kimni? gangitib, esankiratib, nima qilarini bilmaydigan ahvolga tushirmoq.

Bir kechada yuz bergan bu mash'um voqealar oqsoyliklarni sarosimaga solib qo'ydi. S. Anorboyev. Oqsoy.

SAROSIMAGA TUSHMOQ kim? gangib, esankirab, nima qilarini bilmaydigan ahvolda bo'lmoq. Varianti: **sarosimalikka tushmoq**.

Salimboyvachcha akasining bunday «bo'shang»ligiga g'azablanib, uni koyimoqchi bo'lgan paytda, eshik ochilib, Tantiboyvachcha kirib keldi. Ikki og'a-ini bir qadar sarosimaga tushib, o'rinlaridan turishdi. Oybek. Qutlug' qon. Ahmadjon butun umrida birinchi martaba shunday sarosimalikka tushgan edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

sarosimalikka tushmoq: sarosimaga tushmoq

SAVLAT TO'KIB kim? salobati-ni namoyish qilib.

Bu yerda, havasga laylak boqqan-dek bekorga savlat to'kib yurmasin. S.Ahmad. Oriyat. Ruzvon xola axir o'z aytganini qildirdi, ertasigayoq o'ziga yaqin xotinlarni to'plab, qu-dasinikiga savlat to'kib chiqdi. O. Yo-qubov. Tilla uzuk.

SAVLAT(I) OT HURKITADI kimning? tashqi qiyofasi salobatli, lekin ma'naviy dunyosi kambag'al; quruq savlatga zo'r bergan.

Savlatidan ot hurkadi, xumdek kal-la, To'y qilishga bezillaydi yurt, ma-halla. S.Abdulla. Aqlmirzoning «don-ishmandliklari. Chiqib tez-tez, satang, bema'ni nodonlarni «ur to'qmoq», Ichi po'k savlati ot hurkitar jonlarni «ur to'qmoq». S.Abdulla. «Ur to'q-moq». Agar xotiningga atir-upami, bi-ror narsa sovg'a qilmoqchi bo'lsang, adangga: «Kelingizga bir nima so-tib olmoqchi edim, pul bering»,– deb yalinasanmi? Savlatingni qara, ot hur-kitadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

savlat(i) ot hurkitadi: savlat(i)-dan ot hurkadi

SAVLAT(IDAN OT HURKA-DI kimning? – **SAVOD(I) CHIQDI – SAVOD(I)NI CHIQARMOQ 1** kimning? – kim? [o'zining] o'qish-yozish-ni bilmoq.

[Malohatxon] o'qibdi, ha demay savodi chiqibdi, bir yil-yarim yildan keyin hatto dokladchiga: «O'rtoq, siz-ga savolim bor»,– deydigan bo'libdi. A.Qahhor. Jonfig'on.

2 kimning? nimadan? – kim? kimning? nimadan? nimaningdir sirlarini bilib, o'rganib olmoq.

«...Sevgi nimaligini sizni ko'rib bildim. Sevgidan savodimni chiqar-

gan Rohatim», – deb yurgan odam, agar muttaham tulki bo'lmasa, oxirida «Jonsiz devorning ham qulog'i bor», – deb, dag'-dag' qaltirarmidi! S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

savod(i)ni chiqarmoq: savod(i) chiqdi

SAVOL BERMOQ kim? kimga? javob talab qiluvchi so'z-gap aytmq. Varianti: **savolni bermq; bergan savol(i)** kimning? kimga? Antonimi: **javob bermq 1** kim? yoki nima? nimaga? yoki kimga? **javob qaytarmoq 1** kim? nimaga? yoki kimga? **gap qaytarmoq 1** kim? nimaga? yoki kimga?

Karamatov unga Akbarov va Toshhev haqida savollar berdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bo'taboy bu savolni nima uchun berganini bilib Ahmedov qoshini chimirdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

savolni bermq: savol bermq

SAXO DODIN BERMOQ [SÄ-XA DADİN BER=] tar. kim? saxiyligni yuqori darajada amalga oshirmoq, o'rniga qo'yib bajarmoq.

Karam alin ochib saxo dodin berdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

SAZO BERMOQ kim? kimga? alamini olish maqsadida tanbeh so'zlarini aytmq.

Zokir qurg'ur tikka turg'izib qo'yib, «Otangizning kimligini bilamiz!» – deb shunday sazo berdiki, bechora yig'lab chiqib ketdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

SAZO(SI) O'LMADI kimning?– **SAZO(SI)NI O'LDIRMASLIK** kim? kimning? gapi e'tiborsiz qolsa, xafa bo'lmasin deb aytganini bajarmoq.

Mehrixonning o'g'li bo'lsa «Atir hidi ko'ylagimni kiyaman»,– deb turib oldi. «Axir u ko'ylagingni «jiy» qilib qo'ygansan-ku». «Bolaning sazosi o'lmasin. Kiygizing atir hidi ko'ylagini»,– dedi. S.Ahmad. Kutish taraddudi. Qurbon ota uning suhbatini xushlamasa ham, odamning yuzi issiq, hamsafar bo'lish to'g'risidagi sazosi o'ldirolmadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

sazo(si)ni o'ldirmaslik: sazo(si) o'lmadi

SEKINROQ AYTASIZMI?! siz o'ylagandan ko'ra ham ortiq darajada.

«Shu aniq gapmi, o'g'lim? – dedi Qurbon ota.– Ikki yuz yigirma gektar, yana buning ko'pi to'qay bo'lsa... Juda qiyin bo'lar?» – «Ha, sekinroq aytasizmi, – dedi O'rmonjon va Sidiqjonga imo qilib ko'z qisdi.– Bu yil qish yana elanadigan bo'lib turibmiz». A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «Hoy ovsin, odam odamga g'animat, hm...» – «Sekinroq aytasizmi, Lutfinisa opog'oyi», – dedi Qutbinisa. Mirmuhsin. Jamila.

SEVINCH(I) ICH(I)GA SIG'MAYDI kimning? xursandligi oshib-toshib ketdi. Varianti: **sevinch(i) yurag(i)ga sig'maydi** – **sevinch(i)ni yurag(i)ga sig'dirolmaslik** kim? [o'zining]; **xursandlig(i) ich(i)ga sig'maydi; shodlig(i) ich(i)ga sig'maydi.** Sinonimi: **quvonch(i) olamga sig'maydi** kimning?

Adolat go'yo sovg'asi frontga yetib borgandek Normat uning ro'molchasiga peshana terini artayotgandek va Adolatni eslab kulib turgandek his qildi-da, ...sevinchi yuragiga sig'may

uyiga qaytdi. I.Rahim. Chin muhabbat. Bolalarning kattasi pochta yonning yelkasidan bo'ynini cho'zib, konvertidagi tanish adresni ko'rib oldi, sevinchini yuragiga sig'dirolmay, «Oyi, Validan...», deb qichqirib yubordi. R.Fayziy. Ona. Davronov shodligi ichiga sig'may, atrofga zavq bilan qarab o'tirar edi. I.Rahim. Ixlos. Kiyik otib olinganda, ota-bolaning quvonch-lari ichiga sig'masdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

sevinch(i)ni yurag(i)ga sig'dirolmaslik: sevinch(i) ich(i)ga sig'maydi

sevinch(i) yurag(i)ga sig'maydi: sevinch(i) ich(i)ga sig'maydi

sichqon ini ming tanga bo'ldi Sichqonning ini ming tanga bo'ldi

SILLA(SI) QURIDI kimning? toliqmoq, darmonsizlanmoq. Sinonimi: **tinka(si) quridi** kimning? – **tinka(si)ni quritmoq** kim? yoki nima? kimning? **holdan toymoq** kim? – **holdan toydirmoq** nima? kimni? **holdan ketmoq** kim? – **holdan ketkazmoq** nima? kimni?

Ingliz janoblari tanimizga kanadek yopishib, qonimizni ichmoqda. Bir kuni sillamiz qurib, yiqilishimiz turgan gap. Mirmuhsin. Al Mahdiy. Ammo, afsuski, veterinar vrachning ogohlantirishi to'g'ri bo'lib chiqdi: qo'ylar emlovdan o'tgandan keyin sillasi qurigan odamday bo'shashib qoldi, kundan kunga ozib ketaverdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

SIM QOQMOQ kim? kimga? qayerga? telegramma yubormoq, telefon qilmoq.

Qizim Komilaoyning paxtasi nechuk? Bu yil ham Moskvadagi ulug'

larimizga sim qoqarmikan? Oybek. Oltin vodiya shabadalar. Zveno ... Toshkentga sim qoqqani to'g'risida xabar kutib To'xtabuvining uyida o'tirar edi. A.Qahhor. Kampirlar sim qoqdi.

SINDI BELIM jonini koyitib ish qilmaydigan.

Terimdan bo'yin tovlaydigan yalqov-palqovlarning, har xil mug'om-bir, «sindi belim»larning surobini to'g'rilab qo'yaman! Oybek. Oltin vodiya shabadalar.

siniq ko'ngil: ko'ngil(i) siniq

singan ko'ngil(i): ko'ngil(i) sindi

SIQIB SUV(I)NI ICHMOQ kim? kimning? tejab-tergab, zo'g'im o'tkazib qiynamoq. Varianti: **suv(i)ni siqib ichmoq; siqmay suv(i)ni ichmoq.**

Axir, o'zingiz bilasiz, bufet bahonasi bilan ham ancha-muncha to'kinchilik bo'lib turardi uyda. Endi bufetchining yaqiniga borib ko'ring-chi! «O'quvchilarning haqiga tegmanglar», – deb, butun maktabni boshiga ko'taradi. Bufetchining ham siqib, suvini ichayapti. S.Zunnunova. Yangi direktor. «Nedurki sen xotiningning g'amini yebsan, kecha men kinnachiga pul so'rasam, yo'q devding». Oyim menga, men oyimga qarayman. Qo'ying-chi, xullas, o'g'lining siqmay suvini ichdi-da. R.Fayziy. Qaynana.

siqilib ketgan yurag(i): yurag(i)ni siqmoq siqilmoq; yurag(i)ni siqmoq **siqmay suv(i)ni ichmoq:** siqib, suv(i)ni ichmoq

SIR BERMOQ kim? kimga? ko'ngildagi fikr-o'yini oshkor qilib, bildirib, sezdirib qo'ymoq. A n t o n i m i : **sir tutmoq** kim? nimani? kimdan?

Gohda terga pishib, gohda chang-ga belanib ketadi. Aftiga qarab bo'lmaydi. Ammo birovga sir bermaydi: doim o'zini dadil tutishga urinadi, ko'zlari birday sho'x, yuzlari qat'iy, talabchan. I.Rahim. Hilola. Xo'jayinlardan hech biriga sir bermay, ular-ga bir xil so'zla: qizim o'ynab kelish uchun bir o'rtog'inikiga ketdi, vassalom. Oybek. Qutlug' qon.

SIR TUTMOQ kim? nimani? kim-dan? boshidagi fikr-o'yini yashirmoq. Sinonimi: **sir bermoq** kim? kimga?

Shukurjon bilan besh-olti yildan beri sirdosh bo'lishiga qaramasdan bu gaplardan, xususan, uning otasi to'g'risi, mutlaqo bexabar edi. Nahotki Shukurjon undan sir tutgan bo'lsa. O.Yoqubov. Ota izidan.

SIRASINI AYTMOQ kim? bor haqiqatni yana bir karra tasdiqlab gapirmoq.

O'tib ketgan gap, endi gapirib o'tirishning hojati yo'q-u, sirasini aytaman. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Teng tengi bilan-da, aylanay. O'g'limni-ku maqtamayman-u, sirasini aytaman-da. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Sirasini aytganda, Alijon yaxshi gaplarni yozgan. H.Nu'mon. Fasllar.

SIRKA(SI) SUV KO'TARMA-YDI kimning? tanqidga mutlaqo chidamaydi. Varianti: **sirkasi suv ko'tarmaydigan; sirkasi suv ko'tarmas** (oz ishlatiladi).

Ha, rostdan, ko'ngillarining nozikligini aytmaydizmi! Sirkalari suv ko'tarmaydi. A.Muhiddin. «Tatatat-xo'ja». Nasihatga toqatim yo'q, bilasizki, sirkam suv ko'tarmaydigan

shoirlardanman. M.Muhamedov. Gavhar. Mirhayit kulolning kenja o'g'li Mirsalim alomatroq chiqdi. Ba'zilar: «Unga bitta gap kam, ikkita gap ortiqcha», – deydilar. Bir kuni uning katta og'asi Toshpo'lat aka ham, yonini olibmi yoki so'kibmi, «Sirkasi suv ko'tarmas yigit chiqdi», – degan edi. Darhaqiqat, unga tushunib bo'lmaydi. Mirmuhsin. Jamila.

sirkasi suv ko'tarmas: sirka(si) suv ko'tarmaydi

sirkasi suv ko'tarmaydigan: sirka(si) suv ko'tarmaydi

SIRT(I)GA KIR YUQTIRMAS-LIK kim? [o'zining] sha'niga dog'tushiradigan xatti-harakat qilmaslik. Sinonimi: **sirt(i)ga suv tegizmaslik** kim? [o'zining].

Sherbek o'zi haqida bir vaqt Akramning Nigoraga aytgan fisq-fujur gaplarini eslab, kinoyali jilmaydi. Doim kulib turadi. Sirtiga kir yuqtirmaydi. Muomalasining muloyimligi-chi! Qaddi-qomati ham o'ziga yarashgan yigit. Ilk bor tanishganida Akram-ga havasi kelgan edi. Keyin bilsa... S.Anorboyev. Oqsoy.

SIRT(I)GA SUV TEGIZMAS-LIK kim? [o'zining] sha'niga dog'tushiradigan xatti-harakat qilmaslik. Sinonimi: **sirt(i)ga kir yuqtirmaslik** kim? [o'zining].

«G'oyibdan yetqizdi, daromad ko'paydi deb ishni tashlab qo'yganga o'xshaysizlar...» – desam, suhbatdoshlarimning ko'zlari chaqchaydi. «Sirtimizga suv tegizmaydigan odamlarmiz, ... aka, – dedi ulardan biri. – Ishimizni roslab qo'yib, keyin bu yoqqa keldik». I.Rahim. Hilola.

SIRT(I)GA YUQTIRMASLIK kim? [o'zining] nimani? o'ziga tegishli deb bilmaslik. Sinonimi: **o'z(i)-ga yuqtirmaslik** kim? nimani?

Uncha-muncha narsani sirtiga yuqtirmaydigan Vali polvon bu kutilmagan muomaladan hijolat chekkani sezdirmay, qimtinibgina atrofdagilarga ko'z tashlab oldi. H.Nazir. Odanning qadri.

sirti yaltiroq, ichi qaltiroq: usti yaltiroq, ichi qaltiroq

sitora(si) issiq: istara(si) issiq

SIX HAM KUYMASIN, KABOB HAM har ikki tomon manfaatini hisobga olmoq. Varianti: **na six kuysin, na kabob.**

Nihoyat charchaganday bir uh tortdi-da, sekin gapirdi: «Bir iloj top. Six ham kuymasin, kabob ham. Oybek. Qutlug' qon. Bir ish qilingki, na six kuysin, na kabob: na mening yerlarim qo'ldan qo'ldan ketsin, na siz shahar xalqidan oladiganingiz foydaning ikki baravari bo'lgan foydadan mahrum qiling! S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

SIZ (SEN) AYTGAN TOLLAR KESILIB KETGAN hamma narsa ilgarigidek emas, o'zgarib ketgan.

Siz xotin-qizlarni yerda yotgan tosh deb o'ylardingiz. Yo'q, siz aytgan tollar kesilib ketgan! A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

SIZ SO'RAMANG (SEN SO'RAMA), MEN AYTMAY bilib qo'ying-ki.

E, xo'jayin, siz so'ramang, men aytmay, Po'latjon to armiyadan kelguncha, uning qahramonligini bilib qolib, qizini unashib qo'yishgan. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

SICHQONNING INI MING TANGA BO'LDI kimga? – **SICHQONNING ININI MING TANGA QILIB YUBORMOQ** kim? kimga? qochib qutulgani joy topolmay qolmoq. Varianti: **sichqon ini ming tanga bo'lib ketdi** (oz ishlatiladi).

Shu vaqt deng otam birdan «hay-hay»lab kelib qoldilar-ku; Rahimvoyga sichqonning ini ming tanga bo'ldi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. «Ha, qalaysan...» «Sichqonning inini ming tanga qilib yubordilaring-ku, tag'in mendan hol so'raysanmi! Uyalinglar-e». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

sichqonning inini ming tanga qilib yubormoq: sichqonning ini ming tanga bo'ldi

SOCH(I) OQARDI kimning? 1 qarimoq.

«Ehson doktor bo'lgan bo'lsa, men o'z turmushimni tashkil qildim. Meniki singari uy, ro'zg'orga ega bo'lguncha sochlari oqarib ketadi. Nahot shuni anglamasa!» A.Qahhor. Sarob. Men bu yerda Gulnor opam uchun sochim oqarguncha xizmat qilishni istar edim. Oybek. Qutlug' qon.

2 nimada? biror xizmatda umrining talay qismini sarflab, tajriba orttirmoq. Sinonimi: **soqol(i) oqardi** kimning? nimada?

Buni ko'p sinaganman, sochim paxtada oqardi. Qalay, qirma chopiq qilayapsizlarmi? Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Savdo aqli uni sharqning hamma mamlakatlarini kezgan, sayohat va tijoratda sochi oqargan mashhur savdogar deb tanir edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

soch(i) tikka bo'ldi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

soch(i) tikka turib ketdi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

soch(i)ni tikka qilmoq: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

SOCHIGA OQ ORALAGAN umrining keksalik fasli boshlangan.

Biologiya o'qituvchisi, sochiga oq oralab qolgan ayol, kaptarning patlarini silar ekan: «Mumkin, – dedi boshini irg'itib. – O'rgangan joyiga qayta uchib kelish odati qushlarda juda ko'p bo'ladi». O. Yoqubov. Kaptar.

sochlar(i) tikka-tikka bo'lib ketdi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

sonda qoldirmoq: soyada qolmoq

sodda dil [ekan]lig(i): sodda dil

SODDA DIL inonuvchan, jo'n.

Varianti: **sodda ko'ngil; sodda dil [ekan]lig(i) kimning? sodda ko'ngil [ekan]lig(i) kimning?**

Sodda dil ovchining yolg'on so'zlashga tili bormadi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Rahimning maqtanchoqligiga sodda dil Quadratning g'ashi keladi.*H.Nazir. *Ko'korol chiroqlari. Bunday sodda ko'ngil ziyoratchi-musofirlardan allaqanchasining haligi bo'yni yo'g'on shayxga o'xshaganlar tomonidan shilib olinganligi unga besh qo'lday ma'lum edi.* N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. *U erta-kech o'z-o'zini koyidi, o'zining sodda dil-ligi, inonuvchanligidan achchiqlandi.* Oybek. Qutlug' qon.

SODDA DILLIK BILAN inonuvchanlik jo'nlik oqibatida.

«Bo'ron qachon tinadi?» – deb so'radi Asqar polvon sodda dillik bilan. Oybek. Quyosh qoraymas.

sodda ko'ngil [ekan]lig(i): sodda dil

sodda ko'ngil: sodda dil

SOF DIL vijdonli. Varianti: **sof ko'ngil; sof ko'ngilli.**

Onaxon-chi? Ishondi-qo'ydi: «yaxshi, sof ko'ngil kishi ekan», deb, zavq bilan maqtab yurdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *U tezak tutagan o'choq atrofida mungli qoraqalpoq kuyiga tebranib o'tirgan sof ko'ngilli sodda dil odamlarni esladi.* Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

2 beg'araz. Varianti: **sof ko'ngilli.**

Zolim er changalidan qutulishiga yordam bergan bu sof ko'ngilli, mehribon kishilar oldida o'zini biror ish bilan ko'rsatkisi kelardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

SOF DILLIK 1 vijdonlilik.

...demak majlisda faqat chin ishligini emas, shu bilan birga haqqoniylik sof dillik kamtarlik va yana ko'p narsalar to'g'srisida ham gap boradi, albatta. O.Yoqubov. Muqaddas.

2 beg'arazlik.

Men xotin-qizlar orasida o'zimni qanday erkin sezsam, erkaklar orasida ham shunday sezaman: xotinlarga do'stona sof dillik bilan qaraganim kabi, erkaklarga ham shunday qarayman. Oydin. Ikki ko'zi shunda.

sof ko'ngil: sof dil

sof ko'ngilli: sof dil

SON MINGTA kimlar? yoki nimalar? nihoyatda ko'p, hisobiga yetib bo'lmaydi. Sinonimi: **son-sanog'i yo'q kimlarning? yoki nimalarning?**

Men ersirab kelibmanmi?.. Ersiragan bo'lsam, bo'yni yo'g'on son mingta! A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Bu yerda o'qishni orzu qilib yurganlar son mingta.* P.Qodirov. Uch ildiz.

SON-SANOG'I YO'Q kimlarning? yoki nimalarning? nihoyatda ko'p; hisobiga yetib bo'lmaydi. Sinonimi: **son mingta kimlar?** yoki nimalar?

Qozi bo'lsam deb hiqillab turgan g'alamis mullalarning son-sanog'i yo'q. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

SON TEGDI kimga? rang-ro'yi avvalgidan ancha durust bo'lib qoldi.

Qutbinisa o'z ichida: «Bola-chaqasi katta bo'lib, sil-simyon xasis ovsinimga son tegib qoldi», – dedi. Mirmuhsin. Jamila.

SOQOL(I) KO'KS(D)GA TO'KILSIN kimning? o'lim tilab turib qasam ichishni bildiradi (I shaxs egalik affiksi bilan ishlatilganda) yoki qarg'ashni bildiradi (II, III shaxs egalik affiksi bilan ishlatilganda).

«Agar yolg'on bo'lsa, til tortmay o'lay». – «Unaqa demang, yaxshisi «Soqolim ko'ksimga to'kilsin» deb qo'ya qoling». S.Ahmad. Hukm. *Kecha eshitsam, soqoling ko'ksingga to'kilgur ana shu imonsiz chol chevarasi teng 12 yashar qizning nomusiga tajovuz qilgani uchun 15 yil qamoq jazosiga hukm qilinibdi.* «Mushtumdan».

SOQOL(I) OQARDI kimning? nimada? biror xizmatga umrining talay qismini sarflab, tajriba orttirmoq. Sinonimi: **soch(i) oqardi 2** kimning? nimada?

Qiziq gaplarni gapirasan. Axir soqolim gazlama savdosi bilan oqardi. Men dadil bo'lmay, kim dadil bo'lsin yana. Oybek. Qutlug' qon. *Mirtolib ota, yerni o'zingiz shunday ham yaxshi*

bilasiz-ku, soqolingiz g'o'za sug'orib oqargan. S.Abduqahhor. *Mirtolib ota.*

SOQOLGA OQ TUSHDI umrining keksalik fasli boshlandi.

«Ha, soqolga oq tushganda o'quvchi bo'lib yuribmiz. Ivan Kuzmich-ku yosh-a, – yonidagi yigitga ishora qilib gapirdi, – men o'z haqimda aytayapman. Moskvaga imtihon bergani ketayotibmiz». Oydin. Suhbati jonon.

SOVUN(D)GA KIR YUVMASLIK kim? kimning? fe'l-atvori yomon ekanini hali bilmaslik, fe'l-atvori namoyon bo'ladigan sharoitga duch kelmaslik (I shaxs tuslovchisi bilan ishlatilmaydi).

G'ulomjon, dimog'iga qo'qqisdan sassiq hid kirgandek yuzini burishtirdi. Ammo unga bir nima demadi, hatto xo'mrayib ham qaramadi. O'rikdan chapdast tushib ketdi. Jo'raxon avval o'zini yo'qotib turdi, keyin chinqiriq tovush bilan shang'illadi; «Mening sovunimga kir yuvmabsiz! Shoshmay turing, ko'zingizni moshday ochib qo'yganimda bilasiz!» M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

sovuq nafas qilmoq: nafas(i)ni sovuq qilmoq

SOVUQ SO'Z gaplari kishiga yoqimsiz. Antonimi: **shirin so'z.**

Ashirmat o'zining ochko'zligi, ayniqsa, sovuq so'zligi, iflosligi bilan yolg'iz bu xonadonning emas, hatto qo'ni-qo'shnilarning ham joniga tegdi. Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar.*

SOVUQ TER BOSDI kimni? qo'rquvdan terlab ketmoq. Sinonimi: **sovuq terga botmoq** kim?

Nuri o'zini chinakam jinxonada his qildi, atrofini go'yo jinlar o'ra-

di, boshi aylanib, sovuq ter bosib, ko'zlari yumila bordi... *Kampirning: «Turing, Nurioy!» degan tovushini eshitar-eshitmas qoqila-suqila o'zini eshikka otdi.* Oybek. Qutlug' qon. Nizomiddinovni sovuq ter bosdi: «Chol o'lgur aljib qo'yasmikan?» S.Ahmad. Hukm. *Lekin terak bo'yi balandlikdagi armaturaning ustki qavatiga chiqqanda, Luqmonchani sovuq ter bosib ketdi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

SOVUQ TERGABOTMOQ kim? qo'rquvdan terlab ketmoq. Sinonimi: **sovuq ter bosdi** kimni?

«Kechirasiz, Obid Yo'ldoshevich, – dedi Muhammadjon sovuq terga botib, – men tushuna olmayapman. Agar mumkin bo'lsa, gap nimadaligini bil-sam». P.Qodirov. Uch ildiz.

SOVUQ URDI nimani? sovuq ta'sir etib, nobud bo'lmoq, kasallanmoq. Varianti: **ushuk urdi** (*shevaga xos*).

Hovlilardagi sovuq urganidan qorayib, iljirab ketgan bulturgi gullar qor tagidan shumshayib bosh chiqardi. S.Anorboyev. Oqsoy.

SOVUQ YEMOQ kim? a'zoyi badaniga sovuq ta'sir qilmoq.

Qani, aylanay, tezroq ichkariga. Sovuq yeb ketibsiz. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

SOVUQQA OLDIRMOQ kim? nimani? sovuq ta'sirida kasalga chaltirmoq.

Saidjalolxon eshonga muridlik qilib yurganlarida o'pkalarini sovuqqa oldirgan ekanlar. S.Ahmad. So'nggi nusxa.

SOVUQQA QOTMOQ kim? a'zoyi badaniga sovuq juda kuchli ta'sir qilmoq. Varianti: **sovuq qotmoq**.

Saidalimxon chenani qor uyumi-ning tepasiga chiqarib, ustiga o'tirdi va «To'ymas»ga «Itar», – dedi. «To'ymas» bir-ikki ularni sekinlik bilan itardi va tortib yuqoriga chiqardi. Keyin: «Endi bo'ldi, ketamiz; juda sovuqqa qotdim, – deb turib oldi. Oydin. Hazil emish. «Sovuq qotdim», – dedi qiz titragan tovush bilan. «Uyingga keta qol bo'lmasa», – dedi yigit unga rahmi kelib. S.Ahmad. Muhabbatning tug'ilishi.

sovuq qotmoq: sovuqqa qotmoq **soya solmoq** nima? nimaga? 1 ko'lanka tushirib turmoq.

Tepalikdagi chinor, ikki tup sada qayrag'och to'rt-besh kishilik talay supalarga soya solib turardi. A.Qahhor. Asror bobo.

2 noxush, nomatlub ta'sir ko'rsatmoq.

Shoazimning (undan oldin Ziyonatullayevning) Hakimovlar haqidagi pichingida ham shunga o'xshash bir toshmehrlilik begonalik bor edi va Mahkamning eng aziz tuyg'ulariga soya solib, ta'bini tirriq qilardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

soya(lari)da: davlat(lari)ning soyasida

SOVUG'(I)NI OSHIRIB YUBORMOQ nima? kimning? sovuqlik ovqatni me'yoridan ko'p iste'mol qilib, o'zini xasta his etmoq.

Sut-qatiqlaring sovug'imni oshirib yuborayapti. Shaharda bozor yaqin edi, asal oldirib turardim. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

SOYA(S)IDA QOLIB KETMOQ kim? kimning? nima? nimaning? biri ikkinchisi tufayli e'tiborsiz holatga o'tmoq.



To'g'ri, tashkilotchilikning ahamiyati katta, lekin tashkil qilingan odamlar tashkilotchining soyasida qolib ketmasligi kerak. A.Qahhor. Sinchalak. Oqtovda o't o'sib chiqsa, bu gaplarning bari uning soyasida qolib ketadi deb ishongan edi. S. Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

SOYA(SI)GA KO'RPACHA SOLMOQ kim? kimning? izzat-hurmat qilishni me'yoridan o'tkazib yubormoq. Varianti: **soya(si)ga ko'rpacha yozmoq; soya(si)ga ko'rpacha to'shamoq.**

«Sizga nima bo'ldi, jo'ra? ...Bunaga qildan qiyiq qidiradigan odatingiz yo'q edi shekilli. Yo chini bilan o'rtoq Eshonqulovdan namuna olayapsizmi?».. Eshonboyevning tarafini olib, «O'rgansam-chi?» – degani esiga tushdi. Bu endi Eshonboyevning soyasiga ko'rpacha to'shshaday tuyulib ketdi, uning g'ashi kelib, qo'llarini beixtiyor tugdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

soya(si)ga ko'rpacha to'shamoq: soya(si)ga ko'rpacha solmoq

soya(si)ga ko'rpacha yozmoq: soya(si)ga ko'rpacha solmoq

SOYASIGA NAMOZ O'QIMOQ kim? kimning? sajda qilish darajasida ishonch-e'tiqod bildirmoq.

Anavu valakisalang to'rt yigit buni tushunmaydi-yu, qo'rboshining soyasiga hamon ilgari gidek namoz o'qishadi». Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

SOYA(SI)GA SALOM BERMOQ kim? kimning? laganbardorlikni me'yoridan o'tkazib yubormoq.

Tojiddin Qosim shunday razillardanki, mulkdor va yuqori amaldorlarning soyasiga salom beradi. Oybek. Nur qidirib.

SOYA(SI)GA SIG'INMOQ kim? kimning? sajda qilish darajasida ishonch-e'tiqod bildirmoq.

Juman Sariyevning «axloqiy qiyo-fasi»ni byuroga masala qilib qo'ygan sen emasmiding? Endi uning soyasiga sig'inasan! Subuting yo'q sening. A.Muxtor. Tug'ilish.

SOYADA QOLMOQ kim? – **SOYADA QOLDIRMOQ** kim? kimni? taraqqiyotda, ishda keyingi o'ringda bo'lmoq, ilg'orlar safidan tushib qolmoq.

Qalandarovni katta tashkilotchi qilgan fazilatlarini, uni soyaga tortgan sabablar, soyada qolganligining yomon oqibatlarini o'rganishga harakat qildi. A.Qahhor. Sinchalak. Yo'q, bu biror ish bilan o'zini ko'rsatmoqchi, boshqalarni soyada qoldirishni o'ylaydi. A. Muxtor. Tug'ilish.

soyayi davlat(lari)da: davlat(lari)ning soyasida

SOG' BOSH(I)NI SAVDOGA QO'YMOQ kim? [o'zining] o'ziga o'zi tashvish orttirmoq.

«Oyim aytardi-ya «Sog' boshimni savdoga qo'ydim» deb, men ham xuddi shuning o'zini qildim-da [cho'lga kelib]». R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

sog' qo'yarmidi?!: sog' qo'ymaslik
SOG' QO'YMASLIK kim? yoki kimni? jazosiz qoldirmaslik.

Fazliddin bu ishni yashirincha qilgan. Agar shariat peshvolari ularning odam suratini chizganini bilib qolishsa, sog' qo'yishmasdi. P.Qodirov. Yulduzli tuilir.

SOG'IB ICHMOQ kim? kimni? kimningdir barcha topgan-tutganini o'z manfaatiga ishlatmoq.

«Nizomiddin sudxoʻrning puli bilan qutuldim. U endi bir umr bizni sogʻib ichadi». Xotinning nafasi ichiga tushib ketdi, boshini tizzasiga qoʻyib, jim qotdi. Qarz degan soʻz u uchun goʻyo tomoqqa qadalgan pichoqday edi, ayol Nizomiddin sudxoʻrdan xud-di azroilday qoʻrqardi. Oybek. Nur qidirib.

sogʻim sigir: sogʻin sigir

SOGʻIN SIGIR kim? yoki nima? kim uchun? maʼlum miqdordagi mablagʻ bilan muntazam taʼminlab turadigan manba.

Tantiboyvachcha uning sogʻin sigiri boʻlgani uchun xursand qilish kerak edi. Oybek. Qutlugʻ qon.

SUBUT(I) YOʻQ kimning? oʻz fikrida qatʼiy turmaydi, oʻz nuqtayi nazarini tez oʻzgartirib yuboradi.

Juman Saryiyevning «axloqiy qiyofasi»ni byuroga masala qilib qoʻygan sen emasmiding? Endi uning soyasiga sigʻinasan! Subuting yoʻq sening. A.Muxtor. Tugʻilish.

SUFRA TOʻKMOQ [süfrä tök=] tar. kim? ehson berdi, osh-ovqat bermoq.

Ali ovuchi tor miskinlarga oltun aqcha ulashturdi dagʻi musofirlarga sufralar toʻkdi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

SUFRASIN OCHUQ KOʻRMASLIK [süfräsin açuq körmä=] tar. kim? xasis.

Filjumla, kim ersa eshikin dagʻi sufrasin ochuq koʻrmadi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

sukutga botmoq: sukutga choʻm-moq

sukutga ketmoq: sukutga choʻm-moq

SUKUTGA CHOʻMMOQ kim? yoki nima? chuqur xayol bilan, hech qanday tovush chiqarmay oʻtirmoq. Varianti: **sukutga botmoq** kim? **sukutga ketmoq** kim?

Sukutga choʻmib gulxanga quruq shoxlarni qalab oʻtirgan bu moʻysafid esa ... Ergash ota emas, goʻzal Noilaning otasi loʻli Chudraga oʻxshab ketadi.. O.Yoqubov. Qahramon izlab. *Oʻquv korpuslari odatdan tashqari sukutga choʻmgan edi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

SUPRA QOQDI asosiy sarf-xarajatdan ortgan pul, xomashyo, oziq-ovqatni yigʻib-terib amalga oshiriladigan ish.

...gulzorning yonlariga skameykalalar qoʻyilgan. «Binokorlarning «supra qoqdi»ga qilgan ishi bu», – deydi kulib Abdugʻafur ota. R.Fayziy. Choʻlga bahor keldi. *Har yili aprel oyiga kelganda supra qoqdi qilib bor pulni zayomga berar edik.* I.Rahim. Hilola.

SUPRADAGI UNGA QARAMAY TANDIRGA OʻT QALAMOQ kim? imkoniyatini aniq hisob-kitob qilmay turib katta vaʼda berib qoʻymoq.

Plan mana shu bir yuz oʻn bir protsent boʻlguncha, yigitlarimizning peshanasi yuz oʻn bittadan gʻurra boʻldi. Sabab – ... supradagi unga qaramay tandirga oʻt qalaydigan xilidan. S.Ahmad. Hodivoy.

SUQ(I) KELDI kimning? kimga? ehtiros bilan suqlanib qarab, moyil boʻlmoq.

Malohatga Asqaralining hech qachon suqi kelmagan, aytgan gaplarining barchasi yolgʻon ekanligini sez-

sa ham, Jamila bu gaplarni qabul qildi. Mirmuhsin. Jamila.

SUQ(I) KIRDI kimning? kimga? ehtiros bilan suqlanib qaramoq.

[Manzuraning husn-latofatiga] er-kak kishining emas, xotin kishining ham suqi kiradigan edi. A.Qahhor. Sinchalak. Yaxshi kiyinsa, parilarning suqi kiradigan qiz bo'ladi-ku, aylana-yin suqsurimdan. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

SURATI HOLI [surāti ḥali] tar. kimning? ahvoli.

Surati holin taqrir qildim esa, bir muxtasar ishga qo'ydi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

SUROB(I) TORTILDI kimning? jazo-tanbeh berib, noma'qul ishlarni takrorlamaydigan qilib qo'ymoq. Varianti: **surob(i)ni to'g'rilab qo'ymoq.**

«Bu ham oz senga! – deb ta'na qildi u o'ziga o'zi. – Qarab tur, tong otguncha bir surobing tortilsin!» S.Anorboyev. Oqsoy. Terimdan bo'yin tovlaydigan yalqov-palqovlarning, har xil mug'ombir, «sindi belimalarning surobini to'g'rilab qo'yaman! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

surob(i)ni to'g'rilab qo'ymoq: surob(i)ni tortib qo'ymoq

surob(i) tortildi: surob(i)ni tortib qo'ymoq

SUROB(I)NI TORTIB QO'Y-MOQ kim? [kimning?]

SUTDAN OQ, QORDAN TOZA pokdomon, pokdil, mutlaq begunoh (kesatiq bilan). Sinonimi: **sutdek oq.**

«Ana sutdan oq, qordan toza otinchangiz», – deb piching qildi. «Nega mening otincham bo'larkan, aftini yel yopsin haromxo'rning», – javob qildi

oshpaz ijirg'anib. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi,

SUTDEK OQ pokdomon, pokdil, mutlaq begunoh. Sinonimi: **sutdan oq, qordan toza.**

U so'zini tamomlaganidan keyin prokuror dedi: «Sizning gapingizcha; Komiljon sutdek oq, shundaymi?» – «Shunday!» dedi Anorxon. I.Rahim. Ixlos.

SUV BILAN HAVODAY (HAVORDEK) nihoyatda, juda-juda.

Keyin pushaymon bo'lmaslik uchun qadamni o'ylab bosish kerak. Ayniqsa, bu sizga o'xshagan turmush tajribasi kam yoshlar uchun suv bilan havodek zarur. S.Anorboyev. Oqsoy.

SUV KELSA – SIMIRMOQ, TOSH KELSA – KEMIRMOQ kim? har qanday qiyinchilik-to'siqlarni bardosh berib yengib o'tmoq.

Ha, Valixon-chi, aylanay!.. Qo'ylarim deb suv kelsa – simiradi, tosh kelsa – kemiradi. Yangi uy ana o'shanning xizmatiga arziydi. S. Abduqahhor. Yangi uy.

SUV QILIB ICHMOQ kim? ni-mani? ikir-chikirigacha to'la-to'kis bilib olmoq, puxta egallamoq.

Shogirdligimning oxirlarida shashmaqomni suv qilib ichgan edim, u meni bazmlarga o'zi bilan birga olib boradigan bo'ldi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

SUV QUYGANDAY hech qanday tovush-sharpa yo'q. Varianti: **suv sepganday.**

Shiftida o'rgimchak to'riga ilinib, bir maqomda g'ing'illab turgan pashsha uning g'ashiga tegdi. Taburetka ustiga chiqdi-da, bo'y cho'zib,

o'rgimchak uyasini supurib tashladi. Uy endi suv quyganday jimib qoldi.
S.Ahmad. Hukm.

suv sepganday: suv quyganday

SUV TEKIN nihoyatda arzon, deyarli sarf-xarajatsiz.

Keyin, qozoq qirg'izdan kishi bahra topadi. Yilbay qilib sahrodan keltirasan. Kuchi – suv tekin, ishlayveradi. Oybek. Qutlug' qon. «*Shunaqa, eshon, dehqon qishin-yozin ishlaydi-yu, kuzga borib iligi quriydi. Go'r azobi bilan yetishtirgan paxtasini zavodga keltirib, suv tekin sotadi*», – deyar edi kuyinib Vali aka. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

SUV YUGURDI nimaga? (meva g'o'rasiga) pishishga yaqinlashib, maza kirib qolmoq.

Atrofko'm-ko'k. Daraxtlar quyuqlashgan. Oq o'rik g'o'rasiga suv yugurib, danagi qoraymoqda, gilolar qizarib yetilmoqda. I.Rahim. Ixlos.

SUV YUQMAS yaxshi-yomonligini, muomala-munosabatini aniq bilib bo'lmaydigan.

Boshlig'imiz fe'liga sira tushunib yetmadim. O'ziyam xo'p suv yuqmas ekan-da. Kishiga sira el bo'lay demaydi-ya, men bo'lsam jonimni jabborga berib unga oyim ostonada tug'ib qo'yganlari uchun otini Ostonaqul qo'yganlarini gapirib o'tiribman. Nazarimda, o'larday ichak uzildi qilib gapirdim. Lekin qani endi sal tirjaysa... S.Abdugahhor. Gap norda emas.

suv(i)ni siqib ichmoq: siqib, suv(i)ni ichmoq

SUV YO'G'IDA TAYAMMUM yo'q narsa o'rnida boshqa narsadan foydalanishga, boshqa narsa bilan ki-

foylanishga to'g'ri kelgan hollarda aytiladigan ibora.

Ahmad Husayn biroz o'ylanib turgandan so'ng dedi: – Yaxshi, roziman, suv yo'g'ida tayammum, deganlar-ku. Oybek, Nur qidirib.

SUVDAN HOLVA YASAMOQ bo'lmaydigan ishga urinmoq, bekor-ga urinmoq.

Mamlakatda chet el kapitalini sotib chiqarmasdan turib, xalqni qattiq oyoqqa bostirish – suvdan holva yasayman, deyish bilan baravar. S.Akbariy, Sevgi bilan tirilgan yurak.

SUVDAN QURUQ CHIQMOQ kim? [nima bilan?] mushkul vaziyatdan, jazodan nopok yo'l bilan qutulib qolmoq.

Mana shunaqa g'irromlik bilan suvdan quruq chiqayapsiz-u, lekin ish oldinga bosmayapti. Mirmuhsin. Dala baxti. Jalilov qancha harakat qilib, hujjatlarni «to'g'rilasa» ham, suvdan quruq chiqishiga aqli ishonmadi. H.Nazar. Yashil boylik.

SUVDAY (SUVDEK) ICHMOQ kim? nimani? (yolg'onni) zarracha ham tap tortmay, oddiy bir narsadek gapiravermoq.

Karimqul va unga o'xshash ichi qora, yolg'onni suvdan ichadigan yomonlar paxta masalasida, O'ktam ustida turli uydirma gaplar, bo'htonlar, mish-mishlarni Komilaga yetkazib, uning do'stligini kesmoqqa, ixlosini qaytarmoqqa uringan edilar. Oybek. Oltin vodiya shabadalar. \

SUVGA OQIZMOQ kim? nimani? befoyda sarflamoq; deyarli tekin-ga bermoq.

Haligi dehqon qovun ekibdi. Qancha mehnat, qancha mashaqqat! Yol-

g'iz o'zi emas, butun uy ichi bilan ishlagan, albatta. Dastlabki sotish bu xilda bo'lib chiqdi. U molini sotmadi – suvga oqizdi. Oybek. Qutlug' qon.

SUVGA TUSHSA(...)- CHO'K-MASLIK, O'TGA TUSHSA (...) – **YONMASLIK** kim? yoki nima? har qanday og'ir sinovga ham bardosh berib, o'zligini saqlab qolmoq. Varianti: **o'tda kuymas, suvda cho'kmas.**

Haqiqat shunday bir narsaki, u suvga tushsa – cho'kmaydi, o'tga tushsa – yonmaydi. I.Rahim. Ixlos. Yo'q, bizning Egamberdi o'tda kuymas, suvda cho'kmas yigitcha. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

SUVGA URIB KETMOQ nima? bordan yo'q bo'lib ketmoq, izsiz yo'qolmoq.

Dunyodan umidi bo'lmagan odamda did ham, orzu-havas ham suvga urib ketar ekan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Pirlar, arvohtar suvga urib ketganday – hech narsa yo'q. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

SUVI QOCHGAN 1 biroz qota boshlagan.

Kampir o'choqda yonib turgan eski gupchakning cho'g'ini bozillatib tanchaga tashladi, eski dasturxon yozib, suvi qochgan ikkita nonni sindirib, o'rtaga jiyda to'kdi. A.Muxtor. Tug'ilish.

2 yetilish davridan o'tgan, so'linqiragan.

Latofatxonning hovlisini topib, eshigini taqillatayotganida ko'nglidan bir gap o'tdi: «Bordi-yu Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo'lgan

kampirsimon bir inson bo'lsa-chi?» A.Qahhor. Ko'k konvert.

SUVNI LOYQALATMOQ kim? biror masalani ataylab chalkashtirib, orada ishonchsizlik ixtilof keltirib chiqarishga harakat qilmoq.

Fazliddin qori ikkinchi bor qamaldi-yu, bunday ig'volar o'z-o'zidan bosilib qolgan edi. Yana qaytib kelib, yana suvni loyqalata boshladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

SUYAG(I) QOTDI kimning? nimada? yoshlikdan biror ish bilan shug'ullanib katta bo'lmoq.

Men, albatta, chorvani deyman. Negaki suyagim chorvada qotgan. Bu menga ota kasbi. Tashlab bo'ladimi! I.Rahim. Ixlos. Umrzoq akaning iltimosi bilan yetim tog'a qishloqda bir-ikki oy mehmon bo'ldi. Faqat mehmon bo'libgina qolmadi, mehnat bilan suyagi qotgan Yetim tog'a ... qurilish ishlariga ham aralashib ketdi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

SUYAG(I) YO'Q kimning? **1** nima qilishga? mashqini olgan, juda usta.

U «oldi-qochdi» gaplarni hikoya qilishga suyagi yo'q ekan, darhol o'ldirish tafsilotlarini ayta boshladi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

2 nimaga? ishqiboz, o'ta darajada berilgan.

Obbo, muncha suyuldingiz? Shunaqa gaplarga sizning ham suyagingiz yo'q. Nari yoting. A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin. Ochig'ini aytganda, Adashevingiz qarindoshchilik maishatbozlikka suyagi yo'q, mo'nidan maymun chiqarishga usta odam ekan, qurg'ur. A.Muhiddin. Xarakteristika.

3 o'z hunarini mukammal egallagan. Og'zidan gulladi... Hammamizni chalpiib chiqdi... Bir o'ziga bino qo'rgan, suyagi yo'q shaloq ekan. S.Anorboyev. Oqsoy.

suyag(i)dan o'tib ketmoq: suyak-suyag(i)dan o'tib ketmoq

SUYAK SURMOQ nima? nasldan naslga o'tmoq.

Kampirishga yaramaydi. Shol bo'lib qolgan. Otasi ham shol bo'lib o'lgan. O'zi suyak suradigan bir dard ekan bu. S.Ahmad. Hukum.

SUYAK-SUYAG(I)DAN O'TIB KETMOQ nima? kimning? 1 jismiga chuqur ta'sir qilmoq («sovuq»).

Qarilik qursin. Salgina zax sovuq suyak-suyagimdan o'tib ketadi, chiroq. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 ruhiga chuqur ta'sir qilmoq («gap»). Varianti: **suyag(i)dan o'tib ketmoq; et-et(i)dan o'tib ketmoq.** Sinonimi: **nari yoq-beri yog'(i)dan o'tib ketmoq nima?** («gap») kimning?; **suyak-suyag(i)ga botib ketmoq nima?** («gap») kimning?

«Kim eding, nari borsa, bitta xotini kishisan-da», – degan ta'nalar suyak-suyagimdan o'tib ketdi. S.Zun-nunova. Gulbahor. *Lekin Xo'jabekovning keyingi nasihati suyagidan o'tib ketdi.* S.Anorboyev. Oqsoy. «Bu – ongsizlik» emish! *Shu gapingiz et-etimdan o'tib ketdi.* S.Abdugahhor. Sarqit.

SUYAK-SUYAG(I)GA BOTIB KETMOQ nima? («gap») kimning? ruhiga chuqur ta'sir qilmoq. Varianti: **suyak-suyag(i)gacha borib yetmoq.** Sinonimi: **suyak-suyag(i)dan o'tib ketmoq.**

2 nima? («gap») kimning? **nari yoq-beri yog'(i)dan o'tib ketmoq nima?** kimning?

Uzumning soyasida turib sinchiklab quloq soldim, bechora [Hadyaxon] to'lg'anib, tebranib, o'ksinib yotibdi. Gapim suyak-suyagiga botib ketganga o'xshaydi, dili ezilib, o'y-sanoda azoblanmoqda. I.Rahim. Hilola.

suyak-suyag(i)gacha borib yetmoq: suyak-suyag(i)ga botib ketmoq

SUYANGAN TOG'(I) kimning? 1 kim? suyanchig'i, g'amxo'ri. Varianti: **suyangan(i).**

Rovza bitta-yu bitta suyangan tog'i, dunyoda yagona mehriboni, yolg'iz otasidan ayrildi! J.Abdullaxonov. *To'yga kelinglar. Olamda uning suyangani eri, birdan-bir orzusi – anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo'qqa chiqdi.* A.Qahhor. Anor.

2 kim? yoki nima? orqa qiladigani, e'tiqod-ishonch bilan qaraydigan. Varianti: **ishongan tog'(i); ishongan bog'(i), suyangan tog'(i); suyangan tog'(i), ishongan bog'(i).**

Bilaman, siz qo'rqmaysiz! Suyangan tog'ingiz baland! O'rtoq Nosirovga hech kimning bo'yi yetmaydi! A.Qahhor. Sinchalak.

suyangan tog'(i), ishongan bog'(i): suyangan tog'(i)

suyangan(i): suyangan tog'(i)
SO'LOG'I O'YNAGAN yemirilish darajasiga yetgan. Varianti: **so'log'i chiqqan.**

Bular qayta boshdan qurol, oltin va'da qilib so'log'i chiqqan bosmachilarni yana tiklamoqchi. K.Yashin. Tor-mor.

SO'NGGI TOMCHI QON(I) QOLGUNCHA butun borlig'ini, ha-

yotini baxshida qilgan holda. Varianti: **so'nggi qoni qolguncha.**

Biz Azimovdan yaxshi jangchi chiqishi qiyin deb o'ylagan, ovozga qo'ygan edik. U boshqacha bo'lib chiqdi. Jangda haqiqiy botirlik ko'rsatdi. So'nggi qoni qolguncha jang qilib ham «Yaralandim», – demabdi. I.Rahim. Chin muhabbat.

SO'XTASI SOVUQ yoqimsiz, badhazm. Varianti: **so'xti sovuq.** Antonimi: **istara(si) issiq.**

Xumoxon yomon ko'radi shu so'xtasi sovuq Rahmonqulovni. A.Muxtor. Tug'ilish. «Aya, o'lgur so'xti sovuq jo'nadimi? Nazarimda hovlimiz, uyimiz kengayib qolganga o'xshaydiya», – dedi xoxolab Tansiq. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

so'xti sovuq: so'xtasi sovuq.

so'z bera(di)mi?!: so'z bermaslik I

so'z berildi: so'z bermoq I

SO'Z BERMASLIK I kim? kimga? boshqalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirmoq. Varianti: **gap bermaslik.**

Xolmirza hammani og'ziga qarab olibdi, hech kimga so'z bermay gap ma'qullamoqda. I.Rahim. Hillo-la. Xuftongacha Marahimning jag'i tinmadi, u hech kimga gap bermaslikka harakat qilar edi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

2 kim? kimga? yoki nimaga? «nima (jonli)» kimga? itoat qilmaslik, o'z bilganicha ish tutmoq. Varianti: **so'z bera(di)mi?! kim? kimga? so'z(i)ni bermaslik kim? [o'zining] kimga? gap bermaslik.**

Qarib qolibsana, soqolingni ham oqartirib qo'yibsana. Ha, soqolga so'z

berma, bemaza soqol oqaraveradi, qalbing salomat bo'lsin, shuning o'zi bas, oshnam. S. Ahmad. Qadrdon dalalar.

3 kim? kimga? bahslashuvda yutib chiqishga qodir bo'lmoq.

Ammo Egamberdi – mashinaning quli. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham so'z bermay qo'yadi u. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

so'z bermaslik II: so'z bermoq I

SO'Z BERMOQ I kim? kimga?

– **SO'Z BERILDI** kimga? muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat bermoq. Varianti: **so'zni bermoq; so'z bermaslik II.** Antonimi: **so'z olmoq I** kim?

«Menga so'z bering, o'rtoq Toshpo'latov», – dedi keksa brigadir Ortiqov joyidan qo'zg'ala turib. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Kun tartibi tasdiqlangandan keyin, axborot uchun so'z o'rtoq Ubaydullayevga berildi. N.Nazarov. Zamon.

SO'Z BERMOQ II kim? kimga? ahd-u paymon qilmoq. Varianti: **bergan so'z(i) kimning? kimga?** Antonimi: **so'z olmoq II** kim? kimdan?

Men ham sizday haqqoniy bo'lishga so'z beraman. Bizni haqiqat birlashtirsin. Doim haqiqat! P.Qodirov. Uch ildiz. Lekin onasiga bergan so'z esiga tushib, ko'z yoshini yutib, akasi-ning choponi ustida uxlab qoldi. I.Rahim. Chin muhabbat.

so'z bo'lindi: gap(i)ni bo'lmoq

SO'Z BORDI kim? yoki nima to'g'risida? (ustida) gapirildi. Varianti: **so'z ketdi.**

Saidaga oylik belgilab bo'lmas, shuning uchun unga biron ish berish

to'g'risida so'z borar edi. A.Qahhor. Sinchalak.

so'z qistirmoq: gap qistirmoq

so'z o'tmas: so'z(i) o'tdi

SO'Z OLMOQ I kim? Muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat olmoq. Varianti: **so'zni ... olmoq** (oz ishlatiladi). Antonimi: **so'z bermoq I**.

Abdujabbor otadan keyin Bo'ston so'z oldi. S.Nazar. Yashil boylik. Bit-ta-bitta so'z olib gapirish kerak. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. So'zni Juman Sariyev oldi. A.Muxtor. Tug'ilish.

so'z olmoq II kim? kimdan? ahd-u paymon qildirmoq. Antonimi: **so'z bermoq II**.

Biz unga vigovor berib, minba'd o'sha Saidova bilan aloqa qilmaslikka so'z olaylik. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil. Unsin akasini quchoqlab, bir kun kelishga undan so'z olib, quvonch bilan chol orqasidan ketdi. Oybek. Qutlug' qon.

so'z otmoq: gap tashlamoq

so'z qaytarmoq: gap qaytarmoq

so'z qotmoq: gap qotmoq

so'z tashlamoq: gap tashlamoq

so'z tegadigan bo'ldi: gap tegdi II

SO'Z OCHMOQ [söz aç=] tar. kim? gap boshlamoq.

O'turub, har bir bobdan so'z ochib so'zladim taqrib bilan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

SO'ZI BOL [sözi bal] tar. kim? shirinso'z.

Aning ortincha bir bo'yi tol, so'zi bol, sohibjamol qul bag'ishladi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

so'z(i) bo'lindi: gap(i)ni bo'lmoq

SO'Z(I) KELISHMADI kimlarining? fe'l-atvori, biror jihati bilan bir-biriga mos kelmaslik.

Axir Gavharning qizlik sha'ni xayf ostida qolmaydimi? Ya'ni yurgan yigiti bilan so'zi kelishmasa-yu, orani uzsa, «Bu falonchi bilan yurgan» deb gap-so'z bo'lmaydimi? P.Qodirov. Uch ildiz.

SO'ZI TOTLI [sözi tatli] tar. kim? kimning? shirinso'z.

Ul aytti: «Ey so'zi totli, yuzi qutli, o'zi komil, Menim aybim ingan ko'btur, meni mentek kishi bilmas». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

SO'Z(I) O'TDI kimning? kimga?

SO'Z(I)NI O'TKAZMOQ kim? [o'zining] kimga? aytgani inobatga olindi, ma'qullandi. Varianti: **gap(i) o'tdi – gap(i)ni o'tkazmoq; so'z o'tmas.**

Po'latjon qahramon, ko'kragi to'la orden. Hamma yoqda gapi o'tadi. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. Tabiati juda yumshoq bo'lgan Mo'min Muslimovich esa hech kimga gapini o'tkaza olmasdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Mening ham xo'jayinim bor, so'z o'tmas, o'jar ingliz u. Oybek. Nur qidirib.

SO'Z(I)DA QATTIQ TURMOQ kim? [o'zining] o'z fikrini o'tkazishga intilib qaysarlik qilmoq. Varianti: **so'z(i)da turmoq II: gap(i)da turmoq II.**

U [Matluba] faqat olgan ilmi-ning kuchini Baraka boboga amalda ko'rsatishi lozim, ishonchi komil bo'lsa, so'zida qattiq turib, o't ekishi, o'tni o'stirib, Baraka boboga taklifining o'rinniligini isbotlab berishi ke-

rak. S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi.

so‘z(i)da turmoq I: gap(i)da turmoq I

so‘z(i)da turmoq II: so‘z(i)da qattiq turmoq

so‘z(i)dan chiqmaslik: gap(i)dan chiqmaslik

SO‘Z(I)DAN QAYTMOQ *kim?* [o‘zining] ahdidan voz kechmoq, ahдини buzmoq. Varianti: **so‘zdan qaytmoq kim?** **gapdan qaytmoq kim?** **lafz(i)dan qaytmoq;** **fikr(i)dan qaytmoq.** Antonimi: **gap(i)da turmoq I kim?** [o‘ziqing].

«*Dadang boyaqishgayam jabr bo‘l-di, – kuyunib javob berdi ona, – ketini o‘ylamasdan va‘da bergan, endi so‘zidan qaytishni o‘ziga ep bilmaydi.*» Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «*Agar o‘zim rozi bo‘lmasam traktorga surgatib ham olib kelolmasdilar.*» – «*Shu gapdan qaytmaysiz-a? Bo‘pti, bitta universal sizniki.*» S.Ahmad. Lochin. *Kechagina nima degan edingiz, yana lafzingizdan qaytdingizmi? Noinsof!* A.Qahhor. Og‘riq tishlar.

so‘z(i)ga kirmoq: gap(i)ga kirmoq

so‘z(i)ga so‘z qaytarmoq: gap qaytarmoq

so‘z(i)ni bermaslik: so‘z bermaslik I

so‘z(i)ni bermoq: so‘z bermoq II

so‘z(i)ni bo‘lmoq: gap(i)ni bo‘lmoq

so‘z(i)ni ikki[ta] qilmaslik: bir so‘z(i) ikki[ta] bo‘lmadi

so‘z(i)ni kesmoq: gapni cho‘rt kesmoq

so‘z(i)ni o‘tkazmoq: so‘z(i) o‘tdi

so‘z(i)ni og‘z(i)dan olmoq: gap(i)ni og‘z(i)dan olmoq

SO‘Z(I)NI QAYTARMOQ: *kim? kimning?* rad javobi bermoq. Varianti: **gap(i)ni qaytarmoq;** iltimos(i)ni qaytarmoq.

Tashqari chiqib, xiyobon bilan biroz yurgach, Botir Bo‘stonni o‘z hovlisiga taklif qildi. «Kampirga va‘da berib keldim, shu safar so‘zimni qaytarmaysiz», – dedi. S.Nazar. Yashil boylik. Shu soddaligi, ko‘ngilchanligi orqasida bironing iltimosini qaytara olmas edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

so‘z(i)ni quloqqa olmoq: gap(i)ni quloqqa olmoq

so‘z(i)ni yerga tashlamaslik: gap(i)ni yerga tashlamaslik

so‘z(lari) bir yerdan chiqdi: gap(lari) bir joydan chiqdi

so‘z(lari) bir joydan chiqdi: gap(lari) bir joydan chiqdi

so‘zni bermoq: so‘z bermoq I

so‘zdan qaytmoq: so‘z(i)dan qaytmoq


so‘zga aralashmoq: gapga aralashmoq

so‘zga kirmoq: gap(i)ga kirmoq

SO‘ZGA CHIQMOQ *kim?* majlisda rasmiy ravishda gapirmoq.

Ochil so‘zini tamom qilar-qilmas Vitaliy Aleksandrovich so‘zga chiqdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Majlis qanday o‘tdi, nega so‘zga chiqmadingiz? Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Bular asosan o‘zlaridan oldin so‘zga chiqqan notiqning fikrlarini yangidan-yangi faktlar bilan tasdiqlashdi. A.Qahhor. Sinchalak.

so‘zni olmoq: so‘z olmoq I



TAAJJUBGA SOLMOQ kim? kimni? ajablanishiga sabab bo'lmoq.

Shunday paytlarda u Turg'unga do-vulga sevingan bo'ron qushiga o'x-shab ko'rinar va taajjubga solardi. O.Yoqubov. Tog' qizi.

tabiat(i)ni xira qilmoq: ta'b(i) xira bo'ldi

tabiat(i) tirriq bo'ldi: ta'b(i) tirriq bo'ldi

tabiat(i) xira: ta'b(i) xira

tabiat(i) xira bo'ldi: ta'b(i) xira bo'ldi

TABIATTA O'TURMOQ [tabi'atta otur=] tar. nima? paydo bo'lmoq, shakllanmoq.

Yomon odat tabiatta o'tursa, Ul andan ketmayur to o'lmoyincha. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TAFT(I)DAN TUSHMOQ kim? [o'zining] 1 nima? qizitish kuchi pasaydi.

Ko'k yuzida olov sochib yurgan quyosh og'ib bormoqda. Lekin uning issiq nafasi hanuz taftidan tushma gan. S.Abdugahhor. Dugonalar uchrashganda.

2 kim? qiziqqonlik holati pasaydi.

...xotiningiz sal taftidan tushsin, baribir onalik muhabbati qo'ymaydi, bolani sizdan olib qo'yadi. G'.G'u-

lom. Yodgor. «*Qarib quyulmagan chol-e*», dedi kampir sal taftidan tushib, so'ng arazlagannamo choy uzatib, yalindi. H.Nazir. Ko'rmana.

TAFTINI KESMOQ nima? nimaning? (issiqning...) salbiy ta'sirini pasaytirmoq.

Kun misday qizib ketgan, faqat adir va soylardan kelgan shabada kunning taftini kesib, odamlarga orom berib turmoqda. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.


TAFTINI OLMOQ kim? nimaning? (alamning...) dard-alamiga she-rik bo'lmoq, hamdard bo'lmoq.

Ko'z yoshi buloq Boboqulning do'sti edi. Voh, qancha-qancha hasratlarini tinglagan uning! ...Otasi o'lib, yetim qolganida ko'z yoshini yuvgan, dardini birga tortishgan, ko'ksidagi alamning taftini olgan. S.Anorboyev. Oqsoy.

tag(i) past: zot(i) past

TAGI CHIQDI nimaning? zamini yotgan ma'no, mohiyat oshkor bo'ldi.

«... Botir aka, hozir odamlar, mo-xovdan hazar qilgandek mendan qochishadi. Hayronman nima qilishga». – «Hayron bo'lma. Bu gapning tagi chiqib qolar. Eshonning xotinini kim-



dir tezlayapti. Kimlardir qo'ltig'iga suv purkayapti». S.Ahmad. Hukm.

TAGIGA SUV KETDI kimning? puchga chiqdi, unutildi. Sinonimi: **ostiga suv ketdi**.

O'shanday beozor kunlarning tagiga suv ketdi. S.Ahmad. Hukm. *O'ylab turib, Munisxonning so'ziga ishonmaslikka yaqinroq bir fikrga keldi, ammo bir bahona bilan ularning oldiga yana kirganida bu fikrning ham ostiga suv ketdi.* A.Qahhor. Sarob.

TAG(DGA SUV QUYMOQ kim? kimning? amalidan, obro'-e'tiboridan mahrum qilmoq, yo'q bo'lib ketish darajasiga yetkazmoq. Sinonimi: **bo-sh(i)ga suv quymoq** kim? kimning?

Jo'raboy, uka, unaqa katta ketma. Hammang bir bo'lib Umarbekning tagiga suv quymoqchisizlarmi? Yo'q, ish degan unaqa bo'lmaydi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

TAGIGA YETMOQ kim? nima-ning? mohiyatini, sababiyatini oxirigacha aniqlab, anglab olmoq.

Kimlardir qo'ltig'iga suv purkayapti. Albatta, buning tagiga yetaman. S.Ahmad. Hukm. *Samovarchining javobi Marahimga chuqur piching bo'lsa kerak, ammo men uning tagiga yetolmadim.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

TAHAMMUL QILMOQ yoki **ETMOQ 1** bardosh bermoq, chidamoq. sabr-toqat qilmoq; sabr-toqat bilan kutmoq.

Bek... yana yarim soatga tahammul qilsangiz, oshni yeb, yo'lga tushasiz. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

2 kifoyalanmoq.

Tushda ishtaha bo'lmay, qovun bilangina tahammul qilganlaridan,

qorin och, buning ustiga-ustak, jazirama oftob. I.Qalandarov. Shoxidamas bargida.

TAHLIKAGA SOLMOQ kim? nimani? tahlika qilishiga sabab bo'lmoq; tahlikali holatga qo'yimoq.

Laqma Nazirqul o'z jonini tahlikaga solib uning istaklarini ro'yobga chiqardi. S.Ahmad. Hukm.

TAHSIN O'QIMOQ kim? kimga? yuksak baho berib maqtamoq.

Men cho'lda ro'y berayotgan bu hodisalarni, cho'l bag'riga qo'l solib, uning yashirgan boyliklarini tortib olayotgan bu tanti, mard odamlarni ko'rib, yuragimdan ularga tahsin o'qidim. S.Ahmad. Lochin.

TAKA BO'LSIN, SUTI BO'LSIN qanday yo'l bilan borilsa ham, ijobiy, foydali yakunlansin. Varianti: **taka bo'lsin-u, sut bersin.**

«Kichkina xizmat, biroq tushumi chakki emas, – dedi Boqijon ko'zlarini ma'nodor qisib, – taka bo'lsin, suti bo'lsin...» Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Maqsad – diplom olish. U yog'i baribir: Taka bo'lsin-u, sut bersin.* P.Qodirov. Uch ildiz.

taka bo'lsin-u, sut bersin: taka bo'lsin, suti bo'lsin

TALVASAGA SOLMOQ kim? kimni? kuchli qo'rquv aralash ruhan ezmoq.

Qiltiriq maxsum juda azob chekdi, anchagacha o'ziga joy topolmay yurdi... Xo'jayinning titrab-qaqshagani-dan, shum xabarni aytib, uni talvasaga solib qo'yganidan azob chekdi. Xo'jayinni bu holda ko'rish unga har qanday haqoratdan ham og'ir edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

TALVASAGA TUSHMOQ *kim?* kuchli qoʻrquv aralash ruhan ezilmoq.

Xolmurodni toʻsatdan vahima bosdi. Onasi xuddi shu ondayoq oʻlib qoʻlayotgandek talvasaga tushib, uning qoʻllariga yopishdi. P.Tursun. Oʻqituvchi.

TAN BERMOQ *kim? nimaga? yoki kimga?* eʼtirof qilishga majbur boʻlmoq, rozi boʻlmoq.

Sizlar shirin xayolga mast boʻlib, darrov choʻlda bogʻ qilmoqchi boʻldingiz. Hali oldingizda katta balandliklar turibdi. Ogʻir mehnat bilan achchiq ter toʻkib, keyin hushingizga kelasiz, Salim akaning soʻzi haq deb tan berasiz. S.Nazir. Yashil boylik. *Bu yerda oʻrtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak.* A.Qahhor. Munofiq.

tan olinmoq: tan olmoq

TAN OLMOQ *kim? nimani? yoki kimni?* eʼtirof qilmoq. Varianti: **tan olinmoq** *nima?* Sinonimi: **boʻyn(i)-ga olmoq 1** *kim?[oʻzining] nimani?*

Bilar ekansiz... Bizning boboy oʻqatlardan faqat palovni, rahbarlardan faqat oʻrtoq Qodirovni, dorilardan faqat penitsillinni tan oladilar. A.Qahhor. Sinchalak. ...*Ozroq don soʻratib yuboribdilar. Yoʻq deyolmovdim. Endi taftish komissiyasi tan olmayapti.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Hamma tomonidan tan olindi va shubhasiz fakt qatoriga kiritildi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

TANA QOʻYMOQ *nima?* poya qismi gurkirab oʻsa boshladi.

Xayriyatki, yogʻingarchilikning turgan-bitgani zarardan iborat boʻlmadi; uning foydasi shu boʻldiki,

chigit yerning namiga unib chiqdi. Gʻoʻzalar tekis tana qoʻydi. Shuning oʻzi besh kunlik qoloqlikni koʻtarib ketdi. I.Rahim. Hilola.

TANA(SI)GA OʻYLAB QARAMOQ (KOʻRMOQ) *kim?* [oʻzining] chuqur mulohaza yuritmoq.

Xaloyiq, oʻzlaring axir tanalaringga oʻylab koʻringlar, mana biz, oʻtgan gal saylab qoʻygan ulugʻlaring, shu choqqacha dehqonlar, qishloq fuqarosining yarasiga malham boʻlib kelamiz. Gʻ.Gʻulom. Arvohlar.

TANBEH BERMOQ *kim? kimga?* yengil-yelpi jazolamoq, urishib qoʻymoq. Varianti: **tanbeh(i)ni berdirmoq** *kim? kimning?kimga?* Sinonimi: **taʼzir(i)ni bermoq** *kim? kimning?*

Keyin u oʻziga oʻzi tanbeh berdi: «Yomonlikni tilga olma, Normat, bunday boʻlishi mumkin emas». I.Rahim. Chin muhabbat. *Bir moʻminning mashaqqat bilan topgan moli senday badbaxtlarning qoʻlida shunday talon-toroj boʻlib yuribdimi. Qoraxoʻjani koʻrib, senlarning yaxshilab tanbehingni berdirib qoʻyaman.* Gʻ.Gʻulom. Shum bola.

tanbeh(i)ni berdirmoq: tanbeh bermoq

TANIM BORINCHA [tänim ba-rinča] tar. *kim?* imkoni boricha, imkoniyati yetganicha.

Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh koʻturman. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

TANIMDA JON BORINCHA [tänimdä žan barinča] tar. *kim?* umrining oxirigacha.



Tirik bo'lung shaho davron borincha, Qulunguzmen tanimda jon borincha. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

TANINGIZNI BAG'ISHLADINGIZMI? *kim?kimga?* xotin bo'lishga rozimisiz? (nikoh o'qishdan oldin ayol kishiga beriladigan so'roq).

«*Mulla Isoxon mulla Mamashoh o'g'liga taningizni bag'ishladingizmi?*» – deb so'radi Oysanamdan. N.Maqsudiy. Ikki hayotdan ikki lavha.

TANLAB-TANLAB, TOZGA UCHRAMOQ *kim?* yaxshisini qidirib, yomoniga yo'liqmoq. Varianti: **tanlab-tanlab, toziga uchramoq; tanlab-tanlab, tozisiga uchramoq.**

Endi peshanamizdagi bitta-yu bitta qizimizning, tanlab-tanlab, toziga uchragandek bir oyoq yalang xizmatkor isqirtga tegishi qavm-qarindoshlarimiz ichida biz uchun nomus emasmi? O'.Azimov. Aql chirog'i. Tumorcha qilib buklangan xatda: «Tanlab-tanlab, tozisiga uchrabdi» degan so'zlarni eshitib, hayron bo'ldi. «Bilsam, siz besh ketvorgan yigit mototsiklda qahramonlarcha silanib yurgani bilan, o'zi mendaqa bir traktorchi ekan-u. Didingizga qullug'-e!» – degan so'zlar bor edi. A.Muhiddin. Zeboning sevgisi.

tanlab-tanlab, toziga uchramoq: tanlab-tanlab, tozga uchramoq

tanlab-tanlab, tozisiga uchramoq: tanlab-tanlab, toziga uchramoq

tanob(i)ni kesmoq: tanob(i)ni tortmoq

TANOB(I)NI TORTMOQ *kim?* **1** *kimning?* o'lchamini qisqartirmoq, kamaytirmoq. Varianti: **tanobi tortildi nimaning?**

Oldinda kattakon ko'k serka, uning ketidan uloqning onasi chivich echki butun qo'rani ergashtirib kelayotganini his etdi... Orqaroqda dadasi. U qo'lidagi tayog'ini siltab tashlab, go'yo yerning tanobini tortar edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Shohmashrab yo'lga chiqsalar, xudoning qudrati bilan yerning tanobi tortilib, yo'l qisqarar ekan. Oybek. Qutlug' qon.

2 *nimaning?* o'z xohish-irodasiga itoat ettirmoq, tizginlamoq.

Shu, nazarimda, Burgutning yuragi tanasiga sig'mayotganga o'xshaydi qo'lni siqsam, tanobini tortsam deydi. S.Ahmad. Cho'l burguti.

3 *kimning?* faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo'ymoq. Varianti: **tanob(i)ni kesmoq; tanob(i)ni torttirmoq** *kim? kimning? kimga? tanob(i) tortildi kimning?*

...hukumatga chap berib, kuchsiz xo'jaliklarning badanida zulukday yopishib olgan mana shunaqa odamlarning tanobini tortish kerak. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Tomorqa masalasini ham tekshirib yuribman. Bu xususda ba'zi akamlarning tanobini kesib qo'yishga to'g'ri keladi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Undan so'ng bozor o'charning ketiga tushardi. Yaxshi bo'ldi, biroz tanobi tortilibdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

tanob(i)ni torttirmoq: tanob(i)ni tortmoq

tanob(i) tortildi: tanob(i)ni tortmoq

TAP TORTMASLIK *kim?* [kimdan?] yoki nimadan? qo'rqmay bo'tinmoq, hayiqmaslik.

Kechalari ham dalaga chiqishdan tap tortishmaydi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. «Urmang. Nimaga urasiz? Kitob o'qisa, gunohmi?», – dedi Dilshod tap tortmay. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Bunday ishlarni u Roziq qo'rboshiga o'xshagan hech narsadan tap tortmaydigan johil odamlar orqali bitiradi. S. Anorboyev. Oqsoy. Nimadan tap torta-man?! Olsa, stolini oladi-da. Artilimga borib, yana ... qilaveraman. Muovinlik o'zimga ham o'tirishmayotibdi. A. Qahhor. Og'riq tishlar.

tapt(i)dan tushmoq: taft(i)dan tushmoq

taptini kesmoq: taftini kesmoq

taptini olmoq: taftini olmoq

TAQDIR KULIB [taqdir kül=] tar. *kimga?* omadi kelib.

Javob kutti bo'lub u ish aro mast, Vale taqdir kulib tez bermadi dast. S. Saroyi. Suhayl va Guldursun.

TAQDIRGA TAN BERMOQ
1 kim? o'z qismatiga, ko'rgiliklariga xudoning irodasi, xohishi deb rozi bo'lmoq.

To'xta xola o'zini bosib, ko'z yoshlarini yutib, taqdirga tan berib tura qoldi. I. Rahim. Chin muhabbat.

2 umuman ko'nikmoq; chidamoq.

Hasratdan, yig'idan zerikkan fuqaro taqdirga tan bergisi kelmaydi. H. Shams, Oqpadar.

TARAF YO'Q *kimga? nimada?* teng kela oluvchi, bas kela oluvchi topilmaydi.

Ammo lekin hunarda o'risga taraf yo'qligini bilaman. S. Ahmad. Hukm. «Gapdan gap chiqarishda senga ta-

raf yo'q-a, xotin», – dedi Qodir ota. A. Muhiddin. Ko'ngillar.

tarafga o'tmoq: tomon(i)ga o'tmoq

taraf(i)ni olmoq: yon(i)ni olmoq

TARKI DUNYO QILMOQ *kim?* barcha dunyoviy ishlardan voz kechmoq, dunyoviy ishlar bilan qiziqmay, shug'ullanmay qo'ymoq.

U zamonlarda qo'ralarimiz qo'y bilan, qo'rg'onlarimiz suli bilan to'la edi. Sen tarki dunyo qilgandan keyin xayr-u baraka uchdi, bu kunlarda qul topib sotish nari tursin, o'z qulligimni o'zim qilishga majburman. S. Ayniy. Qullar.

TAROZI BOSADIGAN mazmun, muhimligi bilan ustunlikni ta'minlaydigan.

U bu majlisga Saidg'ozini bilan birga kechalari uyqusini harom qilib tayyorlandi. Tarozni bosadigan dalillar to'pladi. S. Anorboyev. Oqsoy.

tars yorilib ketgudek bo'lmoq: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

TARVUZ(I) QO'LTIG'(I)DAN TUSHDI *kimning?* umidi puchga chiqib, bo'sharmoq.

Haligi [«Sovchilikka borasiz deb solsa-chi» degan] xayoli chippakka chiqqanini ko'rib, xolaning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. S. Anorboyev. Oqsoy. Talaba tarvuzi qo'ltig'idan tushgan tashqariga chiqdi. Sh. Bo'tayev. Qarz.

TATA-TAT, USTA NADIRMAT behuda, natijasiz shovqin-suron, quruq gap-so'z.

Mana, xabaringiz bordir, fabrika qurmoqchimiz... Bilim kerak axir qurish uchun. Tata-tat, usta Nadirmat bilan ish bitmaydi. A. Muxtor. Opa-singillar.

TATIG'INI YEMOQ (yoki **TOTMOQ**) kam. qo'll. **1** jazosini tortmoq, adabini, ta'zirini yemoq.

Ha, bu qilmishing uchun tatig'ingni yeysan. So'zlashuv uslubi.

2 mazasini, lazzatini totmoq.

Ko'p yillar tinchgina turgan qilichning tatig'in dushman totajak endi. G'.G'ulom. Tanlangan asarlar.

TAXI BUZILMAGAN nima? nimaning? yap-yangi, hali iste'molda bo'lmagan.

Shu topda Zebo taxi buzilmagan atlas ro'molchasini unga tutqizgisi kelib turgan edi. A.Muhiddin. Zeboning sevgisi. U qalbining tubiga qarasa, hali «taxi buzilmagan» sevgi istagi ko'rinadi, har safar o'zini sevimli his qilsa, bu istak qo'zg'alib, bir daraja o'sadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

TAXIRINI CHIQARMOQ kim? kimning? sharmanda qilmoq, izza qilmoq; pachavasini chiqarmoq.

...vaqti kelib, hovuridan tushib qolar, deb o'ziga sabr berib, erining taxirini ko'chaga chiqarmadi. R.Rahmon. Qiz – aziz farzand-ku! Ammo so'kaverib, bir-ikkita vakilning taxirini chiqarib yubordi. «Mushtum».

taxtaga tortilmoq: taxtaga tortmoq

TAXTAGA TORTMOQ 1 kim? kimni? o'ta qiyin-qistovli ahvolga tushirmoq. Varianti: **taxtaga tortilmoq** kim?

Oqsoqol uni ikki modda bilan taxtaga tortib, til-jag'ini bog'lab qo'ygan edi. S.Ahmad. Hukm. ...shu lahzada [Qalandarov] o'zi taxtaga tortilayotganini payqadi-da, bu holatdan chiqish uchun shovqin solishdan boshqa chora topolmadi. A.Qahhor. Sinchalak.

2 nima? nimani? o'lik holatga keltirmoq, har qanday ijobiy xislatdan mahrum qilmoq.

Bu til har qanday jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorni g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi! A.Qahhor. Quyushqon.

TAXTA-O'QLOG'INI YIG'ISH-TIRMOQ kim? biror faoliyat bilan shug'ullanishni to'xtatmoq.

... ishi chippakka chiqqan kosiblar birin-ketin taxta-o'qlog'ini yig'ishtirayotganligini va hokazoni tasvirlab ketdi. Oybek. Qutlug' qon.

TAXTDAN TUSHMOQ kim? hukmdorlik lavozimidan mahrum bo'lmoq. Antonimi: **taxtga o'tirmoq** kim?

Bir kuni Haydar ota shaharga borgan edi, «... taxtdan tushdi», – degan gapni eshitib qoldi. A.Qahhor. Asror bobo.

TAXTGA O'TIRMOQ kim? hukmdorlik lavozimiga molik bo'lmoq. Antonimi: **taxtdan tushmoq** kim?

Xudoyorxon 1283-yil taxtga o'tirishida eshigi ochiq – bo'sh xazinagagina ega bo'lgan edi. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon.

TAYIN(I) YO'Q kimning? ishonib bo'lmaydigan, muqimlik yetishmaydigan.

«Menga hadeb bunaqangi tikilavermang!», – dedim. Shundan beri nariroqdan yuradi. Sen ham shunday qil! Uning tayini yo'q. Mirmuhsin. Jamila. Eha, munday o'ylab qarasa, u chaqirgan odamlarning bari la-

kot, soqolli-soqolsiz, oriq-semiz, katta-kichik lakotlar – birortasining ham tayini yo‘q, kimning qo‘li uzun kelsa, o‘shaning tarafida... Sh.Bo‘tayev. Qora tuman.

tayoqni alif deguncha: alifni kaltak deyolmaslik

TAYYOR OSH mehnatsiz daromad.

...Endi tushundim... Chakki o‘y-labsan. Kemaga tushganlarning joni bir-u, seniki boshqa ekan-da... Bilib qo‘y, bizda ham tayyor osh yo‘q. S.Ahmad. Qaytish.

TAYYOR OSHGA BAKOVUL BO‘LMOQ *kim?* boshqalar mehnati samarasidan o‘zi hissa qo‘shmay foydalanmoq. Sinonimi: **tayyorga ayyor bo‘lmoq** *kim?*

Tayyor oshga bakovul bo‘laman desang, hammaning ham ko‘ziga xunuk ko‘rinasan. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

TAYYOR OSHGA BAKOVUL *kim? kimlar?* boshqalar mehnati samarasidan o‘zi hissa qo‘shmay foydalanuvchi (*kishi*).

Shu deyman, bog‘lari gurkirab turgan katta, chiroyli shahar qursak bir-ikki yildan keyin bu yerga har xil ola-quroq odam yopirilib kelsa... Ular orasida yulg‘ichlar, meshchanlar bo‘ladi. Shunisi alam qiladi, tayyor oshga bakovul. Ana o‘shalarni bu yerga qo‘ymaslikning chorasi yo‘qmikan? A.Muxtor. Tug‘ilish.

TAYYOR OSHGA QOSHIQ SOLMOQ *kim?* boshqalar mehnati samarasidan foydalanmoq.

«...Lekin asosiy daromadlarni katta o‘pirmasdan, har yoqdan mablag‘

jamg‘arib, yaxshigina bir ishni bajar-sak deyman-da». – «To‘g‘ri, tayyor oshga qoshiq solmoq – juda oson narsa», – dedi. Durust, hiyla izlab topar aqling bor ekan, O‘ktam». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TAYYORGA AYYOR BO‘LMOQ *kim?* boshqalar mehnati samarasidan o‘zi hissa qo‘shmay foydalanmoq. Sinonimi: **tayyor oshga bakovul bo‘lmoq**.

O‘ktam «Sakson» ota bilan uchrashdi. Qish pallasini cholni koyitmaslik uchun qishloqda qolishga qistasalar ham, uni ko‘ndira olmagan edilar. U qovog‘ini solib degan edi: «Suvni yoshlar chiqarsin, men tayyorga ayyor bo‘lay. Yo‘q! Suv keltirar mard kishi, ekin ekar har kishi». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TASHRIF BUYURMOQ *kim?* biror kishi huzuriga o‘z izzat-hurmati bilan kelmoq (*ko‘tarinki*).

Ulug‘ amir Nizomiddin Alisher tashrif buyurdilar. Uyg‘un va I.Sulton. Navoiy.

TASHVISH TORTMOQ *kim? nima haqida?* tashvish qilmoq. Sinonimi: **ko‘ngl(i) g‘ashlandi kimning? nimadan?;** **ko‘ngl(i) g‘ash bo‘ldi kimning? [nimadan?];** **ko‘ngl(i) xira bo‘ldi kimning? [nimadan?].** Antonimi: **ko‘ngl(i) yorishdi kimning? ich(i)ga chiroq yoqilganday bo‘ldi kimning?**

Saodat bilan bo‘lsa va‘dalashib qo‘yganmiz, bu to‘g‘rida hech tashvish tortmasam ham bo‘ladi. G‘.G‘ulom. Yodgor. «Aya, sira, tashvish tortmang, – dedi Komila iljayib, – dunyodan toq o‘tmasman». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 nimadan? xavotir bo'lmoq.
Varianti: **tashvish chekmoq**.

Siddiqjonning isitmasi bu qadar ko'tarilganidan tashvish tortgan Boltaboy doktor olib keldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Rixsiboy aka-ning sir ochilib qolishidan tashvish chekayotgani uni ham cho'chitdi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

tashvish chekmoq: tashvish tortmoq

TASHVISHGA SOLMOQ *kim? kimni?* tashvish qilishiga sabab bo'lmoq, tashvishli holatga qo'ymoq. Sinonimi: **ko'ngl(i)ga g'ashlik solmoq nima?** yoki *kim? kimning?*

Qizni tashvishga solgan qiyinchiliklar nima bo'lishi mumkinligi to'g'risida yigit uzoq bosh qotirdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. To'g'risini aytsam, bu narsa shu bugungacha meni tashvishga solmagan edi. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida.

TASHVISHGA TUSHMOQ *kim? o'z-o'zicha* tashvish qilmoq. Sinonimi: **ko'ngl(i)ga g'ashlik tushdi kimning?**

Tanqid deganda ... og'zidan chiqqan bu gapdan Saida tashvishga tushgan bo'lsa ham, qah-qah urib kuldi. A.Qahhor. Sinchalak. Vohid kecha telegrammani olganda qanchalik tashvishga tushmasin, bunchalik bema'ni va ahmaqona bir muammoga duch kelishini tasavvur etmagan edi! O.Yoqubov. Tilla uzuk.

TANGLAY(I)NI TAQILLATMOQ *kim? [o'zining]* tanglay bilan til orasida qandaydir tovush chiqarib, hayrat, ofarin mazmunini bildirmoq.

Chetlari yelimdan sarg'ayib ketgan gazeta parchasida aqlli ko'zlarida jasorat chaqnagan, sochi qalin, yuzi yumaloqqina qiz kulib turardi. Hamma bir-bir qo'lga olarkan, birov qilgan ishiga, birov husniga qoyil qolib, tanglayini taqillatdi. A.Muxtor. Tug'ilish. Onaxon uch gazlik arqoqqa mugizmokini shunday qulochkashlab otar ediki, mokining chodir pesh tomoniga tushib qolmagani hammani hayratga soldirardi. Shuning uchun xotinlar ko'pincha uning do'koni atrofida to'planib, tanglaylarini taqillatishib ishini tomosha qilishar edi. A.Muxtor. Opa-singillar.

tang qoldirmoq: tong qoldirmoq

tang qotmoq: dong qotmoq I

TANGRI KO'TURMOQ [täŋri kötür=] tar. *kimni?* o'lmoq.

No'shiravoni odilga bir kishi kelib bashorat keturdikim: «Falon dushmaningni tangri ko'turdi». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TANGRIG'A TAVAKKAL QILMOQ [täŋriyä täväkkäl qil=] tar. *kim?* oqibati qanday bo'lishidan qat'i nazar biror ishga kirishmoq.

Men dag'i tangrig'a tavakkal qilib, himmat belin rag'bat eli bilan bog'lab boshladim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TA'B(I) OLINDI *kimning?* nimadan? yaxshi kayfiyati yomon kayfiyat bilan almashdi. Antonimi: **ta'b(i) ochildi** *kimning?* nimadan?

Haydar nimadandir Anorxonning ta'bi olinganini sezdi. I.Rahim. Ixlos.

TA'B(I) OCHILDI *kimning?* nimadan? – **TA'B(I)NI OCHIB YU-BORMOQ** *nima? kimning?* yomon

kayfiyati yaxshi kayfiyat bilan almashdi. Antonimi: **ta' b(i) olindi kimning? nimadan?**

Bu muhabbat hikoyasidan, balki ikki pok dil do'st topganidan Jumaning ta'bi ochilib, kunduzgi xafagarchiliklar ham ko'nglidan ko'tarilib ketgan edi. A.Muxtor. Tug'ilish. Bo'taboy nimadandir ta'bi ochilib, nimadandir ko'ngliga g'ashlik tushib chiqib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Saidaning ustidan arz qilishiga arzimaydi degan qanoat Qalandarovning ta'bini ochib yuborgan edi. A.Qahhor. Sinchalak.

TA'B(I) TIRRIQ BO'LDI kimning? – **TA'B(I)NI TIRRIQ QILMOQ nima?** yoki *kim? kimning?* kayfiyati yomonlashdi. Varianti: **tabiat(i) tirriq bo'ldi**. Sinonimi: **ta' b(i) xira bo'ldi kimning?** – **ta' b(i)ni xira qilmoq kim?** yoki *nima? kimning?* **kayf(i)ni buzmoq kim? kimning?** yoki *[o'zining]* – **kayf(i) buzildi. 2 kimning?**

O'zi-ku qandaydir ayb sezib, lekin buning nimaligini aniqlay olmay ta'bi tirriq bo'lib yuribdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bunday izg'irin cho'l bag'rida kezib qolar, A'zamga o'xshaganlarni junjitib, ta'bini tirriq qilardi. R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

TA'B(I) TIRRIQ kimning? kayfiyati yomon, xafa. Varianti: **ta' b(i) tirriq [ekan]ligi**. Sinonimi: **kayf(i) buzuq kimning?: ta' b(i) xira kimning?**

Lekin endi Elchibekning hafsalasipi, iflos, shilimshiq bir narsa yeb qo'yganday, ta'bi tirriq edi. A.Muxtor. Tug'ilish. Ta'bi tirriqligi ham

tarqab, «Bizning yorga salom denglar», – deb pichirladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

ta' b(i) tirriq [ekan]ligi: ta' b(i) tirriq

TA'B(I) TORTDI [kimning?] yoq-tirmoq. Sinonimi: **ko'ngl(i) tortdi [kimning?]; xush ko'rmoq kim? niman?** yoki *kimni?*

[Yormat] ba'zi bir ta'bi tortgan odamlarga: «To'yga birga bo'ling», – deb qo'yadi o'zicha. Oybek. Qutlug'qon.

TA'B(I) XIRA kimning? kayfiyati yomon, xafa. Varianti: **ta' b(i) namozshom; tabiat(i) xira**. Sinonimi: **kayf(i) buzuq kimning? ta' b(i) tirriq kimning?**

Faqat G'uzor begining ta'bi xira, qovog'ini ochmas edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Muhokama boshlandi. Ammo Sherbekning qulog'iga gap kirmas, ta'bi namozshom edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Rahmonqulov idorasiga qaytib ketdi. U juda horg'in, bir nimasini yo'qotganday tabiati xira, asabiy edi. A.Muxtor. Tug'ilish.

TA'B(I) XIRA BO'LDI kimning? – **TA'B(I)NI XIRA QILMOQ kim?** yoki *nima? kimning?* kayfiyati yomonlashdi. Varianti: **ta'bni xira qilmoq nima? ta' b(i) kir bo'ldi – ta' b(i)ni kir qilmoq; tabiat(i) xira bo'ldi – tabiat(i)ni xira qilmoq**. Sinonimi: **ta' b(i) tirriq bo'ldi kimning? – ta' b(i)ni tirriq qilmoq nima?** yoki *kim? kimning? kayf(i)ni buzmoq kim? kimning?* yoki *[o'zining]* – **kayf(i) buzildi kimning?**

Hasan ovchi... ta'bi xira bo'lganicha indamay pastga tushib ketdi.



Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Bu gap ancha vaqtdan buyon Roziya xolaning ta'bini xira qilib kelgan.* N. Nazarov. Zamon. *Xushxabar bo'lsa, o'z oyog'i bilan kelaveradi, o'rtoq Murodova. Mening gapim biroz ta'bni xira qiladiganroq.* I. Rahim. Ixlos. *Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha ko'nglim g'ash, ta'bim kir bo'lib yurdim.* A. Qahhor. Mayiz yemagan xotin. *Bu xunuk ma'lumotdan tabiati xira bo'lgan Mavlon ota issiqroq javob olish maqsadida yana so'radi..* S. Nazar. Yashil boylik.

ta'bni xira qilmoq: ta'b(i) xira bo'ldi

TA'B(I) XIRALASHDI kimning? kayfiyati yomonlashdi.

Rahmonqulovning diliga tosh botganday bo'ldi. Huvillagan uyiga qaytib kelganda, ta'bi battar xiralashdi. A. Muxtor. Tug'ilish.

ta'b(i) kir bo'ldi: ta'b(i) xira bo'ldi

ta'b(i) namozshom: ta'b(i) xira

ta'b(i)ni kir qilmoq: ta'b(i) xira bo'ldi

ta'b(i)ni ochib yubormoq: ta'b(i) ochildi

ta'b(i)ni tirriq qilmoq: ta'b(i) tirriq bo'ldi

ta'b(i)ni xira qilmoq: ta'b(i) xira bo'ldi

TA'BIR JOIZ BO'LSA agar shunday deyish mumkin yoki o'rinli bo'lsa.

Showvovzlarimiz, ta'bir joiz bo'lsa, cho'lga dastlab hujum boshlagan tankchilarimiz shular. I. Shamsharov. Qahramonlik yo'li. *Ta'bir joiz bo'lsa,*

tomir urishini sezib turish kerak. Gazetadan.

TA'NA(SI)GA QOLMOQ kim? kimning? noto'g'ri faoliyati uchun tanbeh so'zlari eshitmoq. Varianti: **ta'naga qolmoq** kim?

Yaxshi niyat bilan boshlagan ishingga qarshi turdim, odamlarning ta'nasiga qoldim. S. Ahmad. Qadr don dalar. *Ayb menda, seni shu fakultetga yo'latmasligim kerak edi. Kiraman deb qo'ymading, lekin tushuntirishim kerak ediki, otasi badnom bo'lib ketgan joyda bolasi ta'naga qoladi.* P. Qodirov. Uch ildiz.

ta'naga qolmoq: ta'na(si)ga qolmoq.

TA'SIR KO'RSATMOQ kim? kimga? ta'sir qilishga urinmoq.

Lekin unda kishilarga namuna bo'ladigan katta fazilatlar yo'q edi, har bir odamni o'rganib, olijanob ta'sir ko'rsatib boshqarish juda qiyin edi. P. Qodirov. Uch ildiz.

ta'sir o'tkazmoq: ta'sir(i)ni o'tkazmoq

TA'SIR(I)NI O'TKAZMOQ kim? [o'zining] kimga? ta'sir qilib, o'z xohish-irodasiga bo'ysundirmoq. Varianti: **ta'sir o'tkazmoq** kim? kimga?

Siz Kenja, Po'latov va boshqa shunga o'xshaganlarga ta'siringizni o'tkazing, qoyil qolay. A. Qahhor. Sarob. [Toshpo'latov] Akramovga ham chakana ta'sir o'tkazmadi! R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

TA'ZIR(I)NI BERMOQ kim? kimning? yengil-yelpi jazolamoq. Varianti: **ta'zir bermoq** kim? kimga? **ta'zir(i)ni berdirmoq** kim? kimning?

kim orqali? Sinonimi: **tanbeh bermoq kim? kimga?**

«Nega unaqa kulasan, Xayri, yaxshi emas. Yaxshi ko'rmasang, ochiq ayt, unaqa masxara qilma-da bola bechorani». – «Yaxshi ko'raman, juda yaxshi ko'raman. Bir ta'zirini berib qo'yay deb, atayin qilyapman». S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Xullasi, qarindosh-urug', mahalla, tanish-bilishdan turtki yeyaverib, xit bo'lib ketdim, nomim yomonlikka yoyildi, kim ko'rgan ta'na qilib, ta'zir beradi. G'.G'ulom. Yodgor.

TA'ZIR(I)NI YEMOQ kim? [o'zining] qilmishiga yarasha jazo olmoq. Varianti: **ta'zir yemoq kim?** [kimdan?] Sinonimi: **adab(i)ni yemoq kim?** [o'zining].

Aslida yuvosh, kamtar, lekin o'z ishiga pishiq Nasimjonni Mastura quvlikka, olg'irlikka, qalbaki ishlarga undaydi. Nasimjonning topgan-tutgani necha bor sovurilgan, hayoti va erki necha bor xavf ostida qolgan bo'lsa ham, «Tarki odat – amri mahol» degandek hali ta'zirini yemagan va tava qilmagan. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Dushmanlarning fisq-fujuriga, uchishyapti. Keyin ta'zir yeb, ko'zlari moshdek ochilib qoladi. Sh. Toshmatov. Erk qushi.

ta'zir bermoq: ta'zir(i)ni bermoq

ta'zir yemoq: ta'zir(i)ni yemoq

ta'zir(i)ni berdirmoq: ta'zir(i)ni bermoq

teg(i) bo'sh: tag(i) bo'sh

tegit ketmoq: izzati nafs(i)ga tegmoq

TEGIRMON NAVBATI BILAN har qanday ishning o'z muddati, bun-

da har kimning navbat bilan keladigan tartib o'rni bor (bo'ladi), degan ma'noli ibora.

Nega shoshasiz, tegirmon ham navbati bilan.

TEGIRMON TOSHINI YURGIZMOQ kim? og'ir va mushkul ishni bajarmoq.

Nasimjon ... tuganmas ishlardan shikoyat etdi va peshanasini siqib, uzun bir uh tortdi. «Nima, tegirmon toshini yurgizyapsizmi?», – dedi Boymat ranjib. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TEGIRMON(D)GA SUV QUYMOQ kim? kimning? [nima qilshi bilan?] bilib-bilmay o'z faoliyati bilan nomaqbul tomonni qo'llab-quvvatlaydigan ish qilib qo'ymoq. Varianti: **tegirmoniga quyiladigan suv kimning?**

U Matqovullarning urug'inigina emas, ularning urug'ini ko'kartiradigan har qanday sharoitlarni, ularning tegirmoniga quyiladigan har qanday suvlarni ham quritadi. A.Muxtor. Opa-singillar.

tegirmoniga quyiladigan suv: tegirmon(i)ga suv quymoq

TEGIRMONGA TUSHSA(...), BUTUN CHIQMOQ kim? har qanday qiyin sharoitdan ham qutulish yo'lini topa olmoq. Varianti: **tegirmondan butun chiqmoq.**

Fotima. Tashvish tortma, Ahadjon tegirmonga tushsa, butun chiqadi. A.Qahhor. Og'riq tishlar. To'xtasin azbaroyi soddaligidan yeb turgan nonini og'zidan oldirib qo'yishi mumkin... Ukasi-chi, ukasi – o'ho'. U – o't-olov. To'xtasinning hissasi undan

chiqqan. U hech kimga haqini yedirib qo‘ymaydi. Tegirmondan butun chiqadigan yigit bo‘ladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

tegirmondan butun chiqmoq: tegirmonga tushsa(...), butun chiqmoq
TEGIRMONNING NOVI bitmas-tuganmas, behisob ko‘p.

Urush bahona bo‘ldi ularga. Bizning xo‘jayin-chi? Ishi taraql.. Omborlarda chirib qolgan mollarni endi xaridor ko‘zga surib oladi. Tushgan pul – tegirmonning novi! Oybek. Qutlug‘ qon.

TEGMA NOZIK arzimagan narsadan achchig‘i chiqadigan; jirtaki.

Mahkamning izzati nafsi Ochilnikichalik tegma nozik emas edi, ayniqsa hozir, u muhabbatda g‘olib kelgan bir paytda, o‘jiz ko‘rinishdan qo‘rqmas, kuchi yetmayotgan narsalarni ochiq ayta olardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Iye, qachondan beri bunaqa hazil ko‘tarmaydigan tegma nozik bo‘lib qolding? O.Yoqubov. Muqaddas.

tegmoq: erga tegmoq

TEKKANGA TEGIB, TEGMANGA KESAK OTMOQ kim? tegajaklik qilib, hech kimga tinchlik bermaslik.

Karim degan bola bor edi. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otar edi. S.Anorboyev. Eh, yomon bo‘ldi. Hakimjon beso‘naqay gavdali, ertayu kech mahalla choyxonasida o‘tirib olib, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan Soli jallobn darrov ko‘z oldiga keltirdi. R.Fayziy. Rayaning archasi.

TELBA TO‘NINI TESKARI KIYMOQ ayn. to‘nini teskari kiymoq.

Ba‘zan telba to‘nini teskari kiyib...muomalalari dag‘allashib qoladi. G‘ayratiy. Dovdirash.

TEMURDAN TOG‘ BO‘LSA, YERINDAN QO‘PORMOQ [temürdän tay bolsa, jerindän qopar=] tar. kim? payhon qilmoq, ostun-ustun qilmoq.

O‘g‘lon usruk fil kabi maydona kirib, tasavvur ettikim, temurdan tog‘ bo‘lsa, yerindan qo‘porg‘ayman. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TEMIRNI QIZIG‘IDA BOSMOQ kim? biror ishni ayni vaqtda qilmoq. Varianti: **temirni qizig‘ida urmoq.**

«Aybni yashirmoq – nodonlar ishi, – dedi ... qizishib, – ko‘pincha temirni qizig‘ida bosolmay qoldim». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Amir temirni qizig‘ida urmoqchi – bir zarb bilan ulug‘ Turkistonga podsho bo‘lmoqchi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

temirni qizig‘ida urmoq: temirni qizig‘ida bosmoq

TEPA SOCH(I) TIK BO‘LIB KETDI kimning? – **TEPA SOCH(I) NI TIK QILIB YUBORMOQ** nima? kimning? bir lahzaning o‘zida nihoyatda qattiq g‘azablanmoq. Varianti: **soch(i) tikka bo‘ldi – soch(i) ni tikka qilmoq; tepa soch(i) tikka bo‘ldi; tepa soch(i) tik turdi; tepa soch(i) tikka turdi; soch(i) tikka turib ketdi; sochlar(i) tikka-tikka bo‘lib ketdi; tepa soch(i) tikkaydi.**

«Meni tergov qilib, surishtirdi...» – deganida esa Dadajonovning tepa sochi tik bo‘lib ketdi. Sariq amirkon etigini g‘irchillatib jahl bilan u yoqbu yoqqa yurdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Kampirning fi-

g'oni falakka chiqib, sochlari tikka bo'lib ketibdi: «Yurtdan-eldan ayrilib qochgandan ko'ra, qora yerga qochsak bo'lmaydimi, qo'shni!» Oydin. Oltmish gaz arqon. Shuning uchun bu oson ish emas, Nuriddinovlarning tikka qiladi, ularga bu qaltis va xayfli bo'lib ko'rinadi. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. La'lixonning sha'niga bir gap aytdi, hammaning tepa sochi tikka bo'ldi. S.Ahmad. Xotinlar. Endi-chi, endi bu otni eshitsam, jirkanaman, tepa sochim tik turadi. S.Abdulla. Muqimiy. Tojiddinning keng manglayini bir-biriga mingashgan ajinlar bosdi. Sochlari tikka-tikka bo'lib ketdi. S.Anorboyev. Jasorat.

tepa soch(i) tikka bo'ldi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

tepa soch(i) tikkaydi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

tepa soch(i) tikka turdi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

tepa soch(i) tik turdi: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

tepa soch(i)ni tik qilib yubormoq: tepa soch(i) tik bo'lib ketdi

TEPASIDA TURMOQ *kim? nimaning?* bosh-qosh bo'lib kuzatmoq.

Shodmon ota qurtxona qurish hazilakam ish emasligi, o'zi tepasida turmasa, ko'nglidagicha chiqmay, qurt boquvchilardan baloga qolishi mumkinligini aytdi. H.Nazir. Ko'rmana.

TEPSA-TEBRANMAS *kim?* har qanday ishni ham imillab qiladigan, sustkash.

Inson sog'lig'i uchun shunchalik jon kuydirib, ba'zi tepsa-tebranmas konservatorlar bilan olishib yurgan ekan, demak yaxshi qiz bo'lsa kerak. S.Anorboyev. Oqsoy.

TER TO'KIB II mashaqqat bilan, qattiq («ishlamoq»).

Hozir.. har qaysi oila o'z topgan-tutganini dasturxonga qo'yib, baham ko'radigan muqaddas payt. Bu mahalda kuni bilan ter to'kib ishlagan kishilar hordiq oladi. S.Anorboyev. Oqsoy. ... paxta terishni emas, tezroq shaharga qaytishni o'ylab kun sanab yurganlar; ter to'kib ishlamagani uchun, kuchini, vaqtini qayerga sarflashini bilmay bezovta bo'layotganlar shu g'oya bilan yonmasmikin? P.Qodirov. Uch ildiz.

TER TO'KMOQ *kim?*– **TER(I) TO'KILDI** *kimning?* mashaqqatli jismoniy mehnat qilmoq. Varianti: **pe-shana teri to'kmoq**–**pe-shana ter(i) to'kildi; ter to'kib 1(–).**

Dalada suqsurdek qiz-juvonlari-miz ter to'ksa-yu, Qo'chqorbeklar tog'ni tolqon qiladigan paytida idora qorovuli bo'lib o'tirsa. Mirmuhsin. Momo. Bu bedalarga ozmuncha terim to'kilganmi, eh-ha! Oybek. Qutlug' qon. Bu yerni siz peshana teri to'kib topgansiz. A.Qahhor. Sarob.

ter chiqib ketdi: a'zoyi badan(i)-dan sovuq ter chiqib ketdi

ter(i) to'kildi: ter to'kmoq

TERGA PISHMOQ *kim?* mo'l-ko'l terlab, jiqqa ho'l bo'lmoq.

«...suv olib kel», – dedi. Ariq bo'yidan uyga kelgunimcha terga pishib ketdim, chelakning qirrasi sonimni shilib yubordi. I.Rahim. Olovkor. Terga pishgan odamlar tashqariga – ochiq havoga emas, zalning to'riga – e'lon taxtalariga qarab oqadi. A.Qahhor. Sarob.

teringga somon tiqilgur: teri(si)-ga somon tiqmoq

teri to'n(i)ni ters kiyib olmoq:
to'n(i)ni teskari kiyib olmoq

ter to'kib: ter to'kmoq

TERI(SI) QALIN kimning? har qancha xatti-harakat, gap-so'z ham tabiatiga ta'sir etmaydigan, har qanday tanbehga e'tiborsiz qaraydigan. Antonimi: **teri(si) yupqa** kimning?

Tushki ovqatdan keyin ...Chinnixon yo'q bo'lganicha, bir soat o'tsa hamki, undan darak bo'lmadi. «Axir, odam deganning ham shunaqa terisi qalin bo'ladimi?», dedi diqqat bo'lib Oqsoqol opa. «Bilmadim, qizchamga qizamiq chiqdi deb aytayotgan edi, uyiga ketdi, chog'i», – dedi Nurmat. S.Ahmad. Oqsoqol opa.

TERI(SI) YUPQA kimning? ar-zimas xatti-harakat, gap-so'z ham tabiatiga ta'sir etadigan, har qanday tanbehni o'ziga og'ir oladigan. Antonimi: **teri(si) qalin** kimning?

«Tanqiddan shunaqa yoqimli xulosalar chiqsa, Ochilni ham bir tanqid qilinglar bo'lmasa. Kechasi bilan uxlayolmay, koykada eshilib chiqadi, ertalabga kelib mana bunaqa sulayib qoladi». Mahkam Ochilning qip-qizarib ketganini ko'rdi-yu, o'zini kulgidan tutdi. Ochilning hazilga terisi yupqaroq edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

TERI(SI)GA SIG'MAY II [o'zining] behad («sevinmoq»). Sinonimi: **o'z(i)ga sig'may**.

Zebi xolani ko'rsangiz! U aka-ukaning suhbatini tinglarkan,.. xuddi uyi to'lib ketganday, terisiga sig'may quvonardi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. O'qishim tamom bo'lganini bilgan onam terisiga sig'may sevinar edi. G'.G'ulom. Yodgor.

teri(si)ga sig'may!: teri(si)ga sig'may ketmoq

TERI(SI)GA SOMON TIQMOQ kim? kimning? juda qattiq jazolamoq. Varianti: **teringga somon tiqilgur (-); po'st(i)ga somon tiqmoq.**

Mahkam soatiga qarab o'rnidan turdi: «Ha, yuring tezroq. Endi kech qolsak naq terimizga somon tiqadi». P.Qodirov. Uch ildiz. «Yomon, ayyor odamlar ko'p, ichingizdagi asl, gavhar sirlaringizni ohista-ohista kavlab, so'ng oshkora qiladi. Tushundirgizmi? Ha, «Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga» degan gap bor, ehtiyot bo'ling har bir ishda», – dedi Oysha. Oybek. Nur qidirib.

TERI(SI)GA SIG'MAY KETMOQ kim? [o'zining] behad sevinmoq. Varianti: **teri(si)ga sig'may I** [o'zining] Sinonimi: **bosh(i) ko'kka yetdi kimning? qo'y(i) mingga yetdi kimning? og'z(i) qulog'(i)ga yetdi kimning? og'z(i)ning tanobi qochdi kimning?**

«Subhonqul Rahmonqulovich siz chiqib ketgandan keyinok kadrlar bo'limiga pasportlar egalariga tarqatib berilsin deb buyurdilar». Haligina «Podumayesh pasport», – deb ketayotgan Elchibek bu xabardan terisiga sig'may ketdi. Har holda, dastlabki g'alaba. A.Muxtor. Tug'ilish. «Voy bo'yginangdan-ey, tushimmi-o'ngimmi, bolaginam... Biram basavlat bo'lib, gungursday bo'lib ketibsanki, yigit bo'yingdan onaginang aylansin, bolam». Ruzvon xola terisigasi sig'may gapira-gapira o'choq boshida ivirsirdi. A.Muxtor. Opa-singillar.

TERI(SI)NI SHILMOQ *nima? kimning?* o'ta darajada qiynoqqa duchor etmoq.

Mening ovozim yakkalanib, bo'g'ilib qolmasin desang, Anorxonlarni qo'lga ol, Dadajon-u Ernazarlarga hushyor bo'l. Tillari qursin ularning. Har bir gapi teringni shilib oladi. I.Rahim. Ixlos.

terisi suyagiga yopishgan: eti suyagiga yopishgan

TESHA TEGMAGAN butunlay yangi, hozirgacha ishlatilmagan.

Stol yoniga markaziy va mahalliy gazetalarning muqovalangan qalin podshivkalarini qavat-qavat qilib suyab qo'yilgan. U [Ochil] suhbat uchun tasha tegmagan faktlar axtarar, dunyoda bo'layotgan muhim narsalarning hammasini bilmoqchi bo'lardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Fikrini biram chiroyli, tasha tegmagan iboralar bilan sodda qilib tushuntirardiki, kishining sira esidan chiqmasdi. R.Fayziy. Yodgor.

TESHIK MUNCHOQ YERDA QOLMAS uzoq vaqt turmush qilmay, uyda o'tirib qolgan qiz-juvonlar haqida, shuningdek, har bir narsa vaqti kelganda kerak bo'lishi, ishlatilishi mumkinligi haqida aytiladigan ibora.

Bo xudo, teshik munchoq yerda qoptimi? Sochingning mo'yicha er. Kimlar olmaydi seni?! O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol.

TESHIK QULOQ ESHITADI qulog'i bor, albatta eshitadi, gap albatta yetib boradi.

U ham... ishlaydi. Birda bo'lmasa birda eshitadi. Teshik quloq emasmi? Oydin. Mardlik – mangulik.

TESHIK TOMOQ (yoki **JIG'ILDON**) har qanday ovqat talab kishi; xo'randa.

Qaramog'imda o'n ikkita yeyar og'iz, teshik tomoq bor. Biz bunaqangi teshik jig'ildonlarning bahridan o'tmasak bo'lmaydi. A.Muhiddin. Nuqsonboy.

TENG KELMOQ *kim? kimga?* kurashda, tortishuvda teng holatga erishmoq Sinonimi: **bas kelmoq nima?** yoki *kim? nimaga?* yoki *kimga? nimada?*

Sotuvchi yigit tag'in menga tasalli berdi: «Mahmud aka, u odam bilan teng kelib bo'ladimi, obro'ni to'kadi, xolos. Ko'nglingizga olmang», – deydi baraka topkur. R.Fayziy. Rayaning archasi. Yo'q, inim, men bo'ynimga lolmayman. Kelinim qurg'ur shaddod, unga hech teng kelib bo'lmaydi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TENG KO'RMOQ *kim? kimni? kimga?* (o'ziga) o'ziga teng bilib munosabatda bo'lmoq.

Shuncha odam meni gapga soladi, kulmasdan, meni kalaka qilmasdan, meni o'ziga teng ko'rib gapimga quloq soladi... A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Jonkuyar bo'lsa ..., bilsa u ishning ko'zini, Do'q emas, astagina o'tkaza olgay so'zini, Hammani ko'rsa, u teng, hurmati ortar o'zining, Shuhrati, dong'i oshar, orqada qolmas surilib. S.Abdulla. Ikki zveno.

TENG(I) YO'Q *kimning? nimada?* hammadan ustun, beqiyos.

[Oysha] o'zi juda suluv qiz. Shaddodlikda tengi yo'q. Esimda bor, yosh vaqtida o'g'il bolalar bilan kurash tushaverardi. Kap-katta bolalarni



urib yig'latardi. S.Ahmad. Lochin. «Tengi yo'q g'amxo'rim, katta kishi bo'lishimga sababchi bo'ladigan kishi» deb domlaga ixlos qo'ygan Saidiy ... ko'nglidagi bu ikki qarama-qarshilikni bir-biri bilan uchrashtirmaslikka tirishdi. A.Qahhor. Sarob.

TIK SURATI TURMOQ [tik surāti tur=] tar. kimning? qimirlolmay qolmoq.

Xorazmiyning ketib aqli boshidin, Turur tik surati, yo'q jon ichinda. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

TIKAN BO'LMOQ o'rtada to'siq, g'ov bo'lmoq.

Uning [Zaynabning] bu holi ersa mening uchun yaxshi emas, u yana ko'p vaqt bizning oramizda tikan bo'lmoqchi. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

TIKAN USTIDA O'TIRMOQ kim? ayn. igna ustida o'tirmoq.

– Siporish qilsam-u, tikan ustida tipirchilab o'tirsam, baribir, gap qovushmaydi. Undan ko'ra dangal gap yaxshi: men dalaga chiqmoqchiman, – dedi Parpiyev. Y.Shamsharov. Yengish.

TIKANGA AG'ANAMOQ (yoki **DUMALAMOQ**) kim? tinchligini yo'qotmoq, notinch bo'lmoq, ruhiy azob tortmoq, qiynalmoq.

Otabek qizga uylanib qo'ygach, bizning Homid tikanga ag'anab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko'tarish fikriga tushgan. A.Qodiriy. O'tgan kunlar. Odiljon shu kecha tikan ustida dumalab chiqdi. I.Rahim. Qo'shnilar.

TIKILGANI QORA, TINCHIGANI CHORA TOPOLMASLIK kim? kuchli hayajonlangan holda to-

qatsizlanmoq. Sinonimi: **o'z(i)ni qayerga qo'yish(i)ni bilmaslik** kim? **o'z(i)ni qo'ygani joy topolmaslik** kim? **o'z(i)ni qayoqqa urish(i)ni bilmaslik** kim? **o'tirgani joy topolmaslik** kim?

«Bemahalda Muhammadamin nimaga kerak bo'lib qoldi?..» Buvinisa xolaning ko'zlaridan uyqu qochgan, tikilgani qora, tinchigani chora topolmaydi... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

tikkan ko'zlar(i): ko'z tikmoq

TIL BIRIKTIRMOQ kim? kim bilan? yashirin holda kelishib olmoq.

Gulnorni sevgan va u bilan til biriktirgan bir yigitning mavjudligini o'sha vaqtlarda bilgan bo'lsa ham, uning xotiridan Yo'lchi sira kechmagan edi. Oybek. Qutlug' qon. Biroq yanagi yilga bu muruvvatning misi chiqibdi: boylar bu ishni knyaz bilan til biriktirib qilishgan ekan. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

til bormaydi: til(i) bormadi

TIL(I) ACHCHIQ kimning? kishining ta'biga tegib gapiradigan.

Balki bu yosh yigitning [Sherbekning] tili achchiqdir,.. Balki u ba'zi birovlar qilgani kabi hayotimizdagi nuqsonlarni ko'ra-bila turib ko'z yumib o'ta olmas.. S.Anorboyev. Oqsoy. Elmurodga rota komandiri yoqmaydi: qalampir, tili achchiq, har gapni pisanda qilganday burab gapiradi. Shuhrat. Shinelli yillar.

TIL(I) BIR QARICH BO'LDI kimning? – **TIL(I)NI BIR QARICH QILMOQ** kim? [o'zining] maqtanishga, gapirishga haqli bo'lmoq. Varianti: **til(i)ni besh qarich qilmoq.**

«O'lgunday besabr ekansan, se-ning nima ishing bor, tinchgina to-moshangni qilib o'tiravermaysan-mi?» – «Voy, tilingizni bir qarich qilib gapirishni bilasiz; sizning otangiz ham shunday bir ishlab ko'rsin-chi». Oydin. Bechora. *Bir mahal qarasam, o'g'lim kichkina qizini «Mana buni ovutib turing», – deb menga beryapti. «Obor, obor, tilini besh qarich qil-guncha, bolasini eplab olsin», – dedim. Rost-da, ovsin, alam qilmaydimi?! R.Fayziy. Qaynana.*

til(i) bir quloch: til(i) bir qarich
til(i) boradi?!: til(i) bormadi

TIL(I) BIR QARICH kimning? maqtanishga, gapirishga haqli (*kinoya bilan*).

«Tillaring bir qarich, yuz sent-nerchi, – dedi otni to'xtatib.– Kelar yil zveno tuzib, shunday hosil olayki, vang bo'lib qollaring». Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar.*

TIL(I) BORMADI kimning? ni-ma qilishga? biror andisha-muloha-za bilan aytishni ma'qul ko'rmaslik. Varianti: **til bormaydi nima qilish-ga? til(i) boradi?!** Sinonimi: **og'z(i) bormadi kimning? nima qilishga?**

U onasining avzoyidan biron alam o'tganligini sezdi-yu, lekin «Nima bo'ldi?» – deb so'rashga tili bormadi. N.Nazarov. Zamon. Uyatni bilmay-sizmi!..ilmga qarshi odamlar bor de-gani kimning tili boradi?! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

TIL(I) BOSHQA, DIL(I) BOSH-QA kimning? aytgan gapi bilan qilgan ishi maqsadi mos emas, teskari. Vari-anti: **dil(i) boshqa, til(i) boshqa.**

Otangiz ham sizga o'xshab juda gapga chechan edi. Ammo tili boshqa, dili boshqa ekan. S.Anorboyev. Oqsoy. Nahotki xotining kinoga ham borishni istamasa? Qo'y-e, diling boshqa, tiling boshqa ekan. S.Zun-nunova. Birinchi qadam.

TIL(I) KELISHADI kimning? nima qilishga? (aytishga), nimaga? (so'ziga) to'g'ri, aslicha talaffuz qila olmoq. Varianti: **til(i) kelmadi; ti-l(i) keladi; til kelmaydi nima qilish-ga? (aytishga), nimaga? (so'zga).**

Arab yozuvida uch xil «s» bor edi. Shulardan biriga bolalarning tillari kelardi-yu, ikkitasiga hech tillari kel-mas edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong ot-guncha. «Bolaga yaxshi nom qo'yish – otaning qarzi va farzi. Bolalarga otasi nom bersin».– «Otasining top-gan nomi yangicha bo'ladi-da,– deb qoldi qaynana.– Yangicha nomlarga til kelmaydi». I.Rahim. Hilola.

TIL(I) KELMADI I kimning? nima qilishga? (so'zlashga), nimaga? (so'zga) kuchli hayajon, g'azab holati-da o'z fikrini aytolmay, lol bo'lib tur-moq. Varianti: **til(i) [zo'rg'a] keldi; til(i) kelguncha.**

Xat keltirgan bola, Saodatning uka-si, Turg'unning hayajonidan oqara boshlagan yuziga qarab bir kuldi-yu, tili gapga kelguncha shataloq otib chopib ketdi. O.Yoqubov. Tog' qizi.

til(i) kelmadi II: til(i) kelishadi
til(i) kesildi: til(i)ni kesmoq

TIL(I) KESIQ kimning? biror fikr ayta olmaydigan holatda.

Yo'lchi. ...bir zumda odamlarga qarab chiqdi. Ba'zilarining ko'zida zulmga nafrat, ba'zilarida yolg'iz

qo'rquv ko'rdi. Hammaning tili kesiq, faqat shiftga osilgan bedanalar urinadi. Oybek. Qutlug' qon.

TIL(I) QISIQ kimning? gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur. Varianti: **til qisiqlik**(-). Antonimi: **til(i) uzun** kimning?

Pilla xususida til qisiqlik joyim yo'q. S.Ahmad. Hodivoy. *Uni tili qisiq qilgan gunohi shunday sodir bo'lgan edi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

TIL(I) TEZ kimning? ko'ngil og'ritar so'zlarni ham aytib yuboraveradigan.

«Mayli, endigi davlatning nishobi biz tomonga, – deb o'ylar edi ichida Ashirmat. – Qizi qo'lga kirgandan keyin bu sodda qarindoshlarni bir sog'ib ichayki... Biroq qiz qurg'ur ota-onaga o'xshamaydi-da. Ko'zi qattiq, tili tez, dimog'dor qiz bo'пти». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

til degan bir qarich: til(i) bir qarich

TIL(I) TINMAYDI kimning? gapirishdan to'xtamaslik.

«E, buvijon, gap ko'p, – dedi O'sarjon, – Qo'y shu joyga kelibdi-ku, Karimqulning tili tinmaydi. Nuqul o'zi bilan teng qiladi O'ktam akamni». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TIL(I) TUTILDI kimning? aytib turgan fikrini davom ettira olmaslik.

Yer yorilmadi, yerga kirib ketmadim. Tilim tutildi, gapirishga holim kelmadi. Oydin. Ikki ko'zi shunda. *Juvonning gapidan xijolat tortganidanmi yoki ko'kragi tog'day ko'tarilib ketganidanmi, Xo'jabekovning ko'z oldi jimirlashdi, tili tutilib, tuzukroq*

so'z ham kelmay qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

TIL UZATIB [til uzat=] tar. kim? gap kovlamoq.

Johillar aro agar hakim er tushsa, hikmat kamarin kerak belindan sheshsa, qachon johil er til uzatib so'zga kelsa, ajab degul hakim uzra g'olib bo'lsa, aning uchunkim, asli yomon tosh turur, javharni sindirur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ul o'rtada bir kim ersa til uzatib, malomat qilib aytti.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TIL(I) UZUN I kimning? har qancha gapirsa, haqi bor. Antonimi: **til(i) qisiq** kimning?

Shu tobda uning tili uzun edi, chunki u hammadan oldin o'z uyidan bir zambilg'altak novda keltirgan edi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Xolmirza degan brigadirimiz bor. Tili uzun brigadirlardan. Tabelchilar ham, hisobchilar ham zirillab turadi undan.* I.Rahim. Hilola.

TILI UZUN II [tili uzun] tar. kimning? betgachopar.

Ey hayf bu husn va jamolina ko'ra tili uzun dag'i adabsiz bo'lmasa edi, ne xush bo'lg'ay edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TIL(I) UZUN BO'LDI kimning? –**TIL(I)NI UZUN QILMOQ** nima?

kimning? yoki kim? [o'zining] har qancha gapirishga huquqli bo'lmoq. Varianti: **til(i)ning uzun bo'lgani** kimning? (oz ishlatiladi). Antonimi: **til(i) qisiq bo'ldi** kimning? – **til(i)ni qisiq qilmoq** kim? yoki nima? kimning? **til(i)ni qismoq** kim? kimning? yoki [o'zining] – **til(i) qisildi** kimning?

Ishni o'rinlatgan kishining yuzi issiq, tili uzun bo'ladi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Yer islohoti uning tilini uzun qildi, chunki Siddiqjon bo'lmaganda, Zunnunxo'janing Tarnovboshidagi sholikorlik yeri ham ketar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Lekin urushga mardikor olish munosabati bilan o'z mansabini, mavqeyini baland darajaga ko'targan va yuqori hokimlar oldida tilining uzun bo'lganiga to'la ishongan ellikboshi fuqaroni sira mensimadi. Oybek. Qutlug' qon.

TIL(I) O'TKIR kimning? gaplarida mantiq kuchli, fikr ifodalashga usta.

Gapingni bilib gapir, hushyorroq muomala qil. Ko'ngli nozik, tili o'tkir – bir so'z bilan umidingni shart kesib qo'yishi mumkin. I.Rahim. Ixlos.

til(i) qisildi: til(i)ni qismoq

TIL(I) CHIQQI kimning? (go'dakning) nutqqa ega bo'lmoq. Varianti: **til chiqarmoq kim?** Sinonimi: **tilga kirmoq 1 kim?** (go'dak).

Yodgoringning ham tili chiqib qoldi: «dada-dada»ni og'zidan qo'ymaydi. G'.G'ulom. Yodgor. «Ha, darvoqe, To'tiqiz qalay, katta bo'lyaptimi?» – «O, uchga qadam qo'yib qoldi-ku. Tili biram shirin bo'lib chiqqanki, sira qo'ya berasiz». M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

2 kimning? (nutqqa ega kishining) indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qoldi.

«Ko'zing qurmasin, – kampir jilmaydi, – endi tiling chiqib qoldi. Boyadan beri qovog'ingdan qor yog'ayotgan edi». Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

3 kimning? (nutqqa ega kishining) aytishadigan bo'lmoq. Varianti: **til chiqarmoq kim?**

«Ko'rib turibsiz, kasalmas. Ana, pulni olib, uyga dingillab kirib ketdi». – «Oyim aytganday, borgan sari tiling chiqyapti». S.Zunnunova. Latta. «[Fasohatxon] nonga piyozning hidi urib qolishini bilmagandirlar». – «Gap qaytarma! Tiling chiqib qolibdi, padar la'nat!» Mirmuhsin. Jamila.

TIL(I) CHUCHUK kimning? ayrim tovushlarni talaffuz qilishi nuqsonli. Varianti: **chuchuk til bilan.**

Yugurib, o'pkasini qo'ltiqlab kelgan tili chuchuk kotib «Qo'ziboyev o'libdi, erta bilan chiqarilarmish...» degan gapni aytishi bilanoq Pochchajonov buyruq berdi. Mirmuhsin. Bir munofiq haqida. «Nasimjon Fayzullayev, – dedi chuchuk til bilan sekretar va gilam chetiga omonatgina o'tirib, so'zini davom ettirdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TILDAN QOLMOQ kim? – **TILDAN QOLDIRMOQ** kim? kimni? gapirish qobiliyatini yo'qotmoq.

Xo'jabekov tishlarini g'ijirlatar, allanarsalar deb so'kinar, ingranardi. Ammo Saidg'ozini .. undan battar joniga tegar, jon olishga kelgan ajalday tepasida irg'ishlar edi. Xo'jabekov tildan qoldi, ket deganday imo qildi. S.Anorboyev. Oqsoy. Uning qizi Tursunoyini hech qanaqa dard chalgani yo'q, mana bu Toshxonga o'xshaganlar o'takasini yordi sho'rlikning. Bolani qo'rqitib, tildan qoldirgan parixonotin degan go'rso'xta. A.Muxtor. Opa-singillar.

TILDAN QO'YMASLIK kim? kimni? doim eslab, gapirib turmoq.

Anorxon tug'ruqxonadan kelgandan keyin darmonga kira olmadi, Salimjonni tildan qo'ymaydigan bo'ldi. Uyqudan qoldi, ishtahasi buzildi. A.Muxtor. Oksana. Zarofatning kelishgan qomati, tim qora sochlari, pirlar o'ynab turadigan ko'zlari Haydarni maftun qilgan edi. Zarofat bilan achchiqlashib tursa hamki, uni sira tildan va dildan qo'ymas edi. M.Muhamedov. Gavhar.

TILGA KELMOQ kim? gapirish qobiliyati tiklandi.

«Xo'jabekov o'la qolmadi.. Butun sir u bilan birga yerga ko'milib ketar edi. Xo'jabekov tilga kelgan emish. Bir kami shu edi!» S.Ayorboyev. Oqsoy.

TILGA KIRMOQ 1 kim? (go'dak) nutqqa ega bo'lmoq. Sinonimi: **til(i) chiqdi** kimning? (go'dakning).

Yoshi yigirma uchlarga borib qolgan bug'doyrang «oppoq qiz» endi tilga kirgan shirin qizaloq erkaligi bilan zorlandi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

2 kim? (nutqqa ega kishi) ma'lum fursat o'tgandan so'ng gapira boshlamoq.

Oqsoqol derazaning zihiga omonatgina o'tirib, hakkam-dukkam soqol o'sgan iyagiga qo'lini tirab o'ylanib qoldi. Oxiri tilga kirdi. S.Ahmad. Hukm.

3 nima? o'q uza boshlamoq.

Hozirgina ko'prikdan o'tgan og'ir to'plarimiz tilga kirgach, nemis batalyonlari jimib qoldi. I.Rahim. Chin muhabbat.

TILGA KO'CHMOQ nima? ichki, shaxsiy fikr-o'y holatidan chiqib, oshkora gapirilmoq.

Endi bilsa, bu narsalar faqat o'ydagina vahmsiz ekan. Tilga ko'chganda, ayniqsa boshqa kishining og'zidan eshitilganda yuragi orziqib ketdi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

tilga olinmoq: tilga olmoq

TILGA OLMOQ kim? nimani? yoki kimni? nima? nimani? gapirmoq. Varianti: **til(i)ga olmoq** kim? [o'zining] nimani? (juda oz ishlatiladi); **tilga olinmoq** nima? yoki kim? Sinonimi: **og'z(i)ga olmoq** kim? [o'zining] nimani?

Xuddi o'sha kezlarda Nasiba aspirantura so'zini juda ko'p tilga oladigan bo'ldi. O.Yoqubov. Ikki muhabbat. *Keksa arxitektor Gavharni ko'p tilga olibdi, uning bolalikdagi ahdini eslabdi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Madaniy inqilob! Hazil ish qilayotganimiz yo'q. Mayli, jon chekmasak bo'lmas ekan, tarix nomimizni tilga olib qolar, tarix...* A.Muxtor. Opa-singillar.

tildan qoldirmoq: tildan qolmoq

TIL(D)DAN TUSHMASLIK kim? kimning? nutqida doim aks etmoq, ta'kidlanmoq.

Bu qizga tushunib bo'lmaydi. Tegajoq bo'lgan odamlarini maqtab o'tiribdi. «Yo'qolsin Hilola!» degan Xolmirza ham, og'zida o'ti bilan yurgan Foziljon ham uning tilidan tushmay qoldi. I.Rahim. Hilola.

til(i) [zo'rg'a keldi] til(i) kelmadi

til(i) keladi: til(i) kelishadi

til(i) kelguncha: til(i) kelmadi

TIL(D)GA KALTAK KELDI kimning? kutilmagan hodisaga duch ke-

lib, biror soʻz aytishdan ojiz boʻlib qolmoq.

Musobaqada yutqizding. Meni ham, oʻzingni ham sharmanda qilding, akasi. Ularning hosiloti telefon qoqib, meni «quda xola», seni «kelinposhsha» dedi. Churq etolmadim. Nafasim ichimga tushib, tilimga kaltak kelib qolsa boʻladimi? M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat.

til(i)ga olmoq: tilga olmoq

TILI EVRILMAS [tilim evril-mä=] tar. *kimning?* tili aylanmas.

Bor edi shoh qizi Guldursun oti, Tilim evrilmas aytmogʻa sifoti(n). S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

TILIGA TUSHMOQ *kim?* yoki *nima?* *kimning?* koʻpchilik orasida gap-soʻz boʻlmoq, maʼlum-mashhur boʻlmoq. Sinonimi: **ogʻziga tushmoq** *nima?* *kimning?*

Qizim elga bergan vaʼdasining ustidan chiqadi, hammaning tiliga tushadi-yu, men sevinmay, kim sevinisin. R.Fayziy. Farogʻat. *Onaxon bugun ishdan juda charchab qaytgan boʻlsa ham koʻngli shod... oʻzining «Onaxon» degan taniqli nomi ham, asosan, shu fabrika tufayli xotin-qiz tiliga tushib ketganini aniq fahmladi.* A.Muxtor. Opa-singillar.

TILIM KESILSIN *kimning?* biror kishi yoki narsa haqida kimgadir yaxshi-yomon gap aytmaganligini bildirib qasam ichish.

«Axir, men.. Kanizakka bir nima degan boʻlsam, tilim kesilsin!» – «Sabr qil, – dedi Oʻrmonjon qoʻlini koʻtarib, – bir nima demaganingga, demasligingga ishonaman. Lekin rashk qitiqlagan kezlarda chehrang oʻzgaradi». A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroq-

lari. *«Bundan uch kun ilgari kechasi eringiz mast boʻlib kelib, qattiq urmadimi? Hu, yomgʻir yoqqan kuni...» – «Tilim kesilsin, agar sizga biror narsa degan boʻlsam!» – deb Saida ont icha boshladi.* Sh.Rizo. Qor yogʻdi, izlar bosildi.

TILINA KETURMOQ [tilinä ketür=] tar. *kim?* gapirmoq, qoʻrqmasdan aytmoq.

Har kim jondan al yuvgʻan, ne kim koʻngulda boʻlsa, tilina keturgay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TILINI BILMOQ *kim?* *nima-ning?* qanday ishlatish, parvarish qilish malakasiga ega boʻlmoq.

[Kanizak] oʻzi yignachidakkina boʻlsa ham, qoʻtasga oʻxshagan baʼzi odamlardan ikkitasining ishini qiladi. Paxtaning tilini bilib oldi. U hozir Zokir otaning oʻng qoʻli! A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari. *Nahotki u, Toshpoʻlatov aytganday, texnologiyani, mashinaning tilini bilib ololmasa!* Gʻ.Ahmadiy. Kamolot. *Poda shov-shuvi ichidan Polvon otaning: «Qoʻrqma, chirogʻ, Polvonning qoʻlidan mol bolasi qochib qutulgan emas!» – degan ovozi doʻrilladi... «Mol tilini biladigan» bu chol xoʻp alomat-da.* H.Nazir. Soʻnmas chaqmoqlar.

til(i)ni bir qarich qilmoq: til(i) bir qarich boʻldi

til(i)ni bogʻlamoq: til-jagʻ(i)ni bogʻlamoq

TILINI TIYMOQ [tilini tīj=] tar. *kim?* gapdan toʻxtatmoq, gapirtirmaslik.

Har muddai tilini tiysa boʻlurmi, boʻlmas. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TIL-JAGʻ(I)NI BOGʻLAMOQ *kim?* *kimning?* oʻz fikrini ochiq ayta

olmaydigan qilib qo‘ymoq. Varianti: **til(i)ni bog‘lamoq.**

Oqsoqol uni ikki modda bilan taxtaga tortib, til-jag‘ini bog‘lab qo‘ygan edi. S.Ahmad. Hukm. «Nima balo, sizning gavharingiz bormi, – Rixsi xola Saodatxonga mehr bilan tikilib, kulimsiradi, – odamlarning tilini bog‘laysiz-qo‘yasiz». S.Zunnunova. Yangi direktor.

TIL(I)NI KESMOQ kim? kimning? – **TIL(I) KESILDI** kimning? bundan buyon biror fikrni boshqa aytolmaydigan bo‘lib qolmoq.

Dalaga qaytganing ma‘qul. Dalaning bag‘ri keng, osmoni bepoyon. Faqat qizlar... Ularning tilini kesib bo‘ladimi! Go‘ringga g‘isht to‘ldirib o‘tirishgandir. I.Rahim. Chin muhabbat. Mana endi o‘zingizga keldingiz. Karimqulning tili kesiladigan bo‘ldi, maqtanib o‘lib yurgan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

til(i)ni qisq qilmoq: til(i) qisq bo‘ldi

TIL(I)NI QISMOQ kim? kimning? yoki [o‘zining] – **TIL(I) QISILDI** kimning? gapirmaslikka, e‘tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq. Sinonimi: **til(i) qisq bo‘ldi** kimning? – **til(i)ni qisq qilmoq** kim? yoki nima? kimning? Antonimi: **til(i) uzun bo‘ldi** kimning? – **til(i)ni uzun qilmoq** nima? kimning? yoki kim? [o‘zining].

Har holda, ilm boshqa ekan-u, tajriba boshqa ekan. Rasmlar, jadvallarni oldinga tashlab qo‘yib, tilimni qisdi. I.Rahim. Hilola. «Dodvoyning keragi yo‘q, – dedi qat‘iy ellikboshi, – bu sirni dilingga tug. Uchto‘rt kun ichida daragi chiqib qoladi.

Ammo so‘z tarqalmasin, ayt, xotining tilini qissin». Oybek. Qutlug‘ qon.

til(i)ni qichitmoq: til(i) qichidi

til(i)ni qichishtirmoq: til(i) qichidi

TIL(I)NI TIYMOQ kim? [o‘zining]

biror fikrni aytishdan saqlanmoq.

«Xudodan qo‘rqing, taqdir. Yo shariatda gadoyvachchani o‘ldiraver, gunoh hisoblanmaydi deb yozilganmi?» – «Ha!!! «O‘ldir, qir», – deb yozilgan!! «Tilini tiymaganlarning tilini kes, og‘ziga qo‘rg‘oshin eritib quy», – deb bitilgan!» S.Anorboyev. Oqsoy.

TIL(I)NI TISHLAMOQ kim?

o‘zini gapirmaslikka majbur qilmoq.

Bu gap qayoqdan chiqdi deganda, zinhor-zinhor tilinglarni tishlanglar. Bo‘lmasa eshoni pirimning duoyi ba‘diga qolasizlar. S.Ahmad. Hukm. *G‘afforjon askarlikka ketayotganda Umri shunday dod soldiki, «Ayb Umrida» deganlar tilini tishlab qoldi.* A.Qahhor. Xotinlar.

TIL(I)NI TOPMOQ kim? kimning? fikr-o‘yini, maqsadini bilib olib, shunga moslashib muomala qilmoq.

Har bir insonning o‘ziga yarasha aqli bor. Hammaning aqli bir joyga to‘plansa, donolik unib chiqishi mumkin. «Boshqalarning ham tilini top, yuragiga qo‘l sol», – dedi menga ko‘nglim. I.Rahim. Hilola.

TIL(I)NI TUSHUNMOQ kim? kimning? fikr-maqsadini anglab yetmoq.

Bilaman, sizga ham qiyin, aya! Lekin siz meni tuqqansiz. Mening tilimni hammadan oldin siz tushunishingiz kerak. S.Zunnunova. Gulxan.

til(i)ni uzun qilmoq: til(i) uzun bo‘ldi

TIL(I)NING UCHIDA TURMOQ nima? kimning? bila turib, shu daqiqada xotirasida tiklab ayta olmaslik.

«Nimadan ekanligini aytolmayman, tilimning uchida turganga o'xshaydi-yu, lekin aytolmayman», – dedi Siddiqjon. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Azbaroyi shifo, shoshib qolganimdan jonivorning otini ham unutilib turibman. Xuddi tilimning uchinasida turibdi-ya... N.Maqsudiy. «Laylatulqadr».

TILINGGA KUYDIRGI CHIQQUR kimning? har xil gaplarni gapiravergan kishiga qarshi aytiladigan qarg'ish (odatda ayollar nutqida ishlatiladi).

«Astag'firullo, manavi xudoning bir balosi-ku. Xuddi Azroilning o'ziya», – deb pichirladi Boboqul. U piriga bo'lgan ishonchini tamoman yo'qotdi, qalbini sovuq nafrat qoplab oldi. «Nima deding?! Tilingga kuydirgi chiqqur! yedirib-ichirib, sendan eshitganim shu bo'ldimi, ko'rnamak!!! S.Anorboyev. Oqsoy.

til(i)ni besh qarich qilmoq: til(i) bir qarich bo'ldi

til(i)ning uzun bo'lgani: til(i) uzun bo'ldi

til(i)ning uchida: til uchida

TIRI OYRILMOQ [tiri ayril=] tar. kim? yetim bo'lmoq.

O'lib katti so'g'ishda To'xtamishxon, Tiri oyridi tuvg'ondin tug'ushg'on. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

TIRIKCHILIK QILMOQ kim? hayot o'tkazmoq, kun kechirmoq; yashamoq.

Qishloqda tirikchilik qilish juda qiyin. Ochlik, yalang'ochlikka chidab, tirikchiligimizni qilar edik. Oybek. Tanlangan asarlar. Kichkina do'konchamdan kelgan daromad bilan tirikchilik qilib bo'lmasdi. Sh.Rashidov. Qudratli to'lqin.

TIRNOQQA G'AROV YUGURTIRMOQ (yoki **SOLMOQ**) qattiq azob bermoq, qiynamoq.

Qishloqdagi mish-mishilar xunuk, zolimlar mening ham tirnog'imga g'arov yugurtmoqchi, – dedi chol. A.Muhiddin. Yodgorlikning to'yi.

TIRNOG'INI O'STIRMASLIK birovning biri ikki bo'lishiga, o'nglanishiga, boyishiga yo'l qo'ymaslik.

– Siz ham xizmatchining tirnog'ini o'stirmaydiganlardan ekansiz, – Yo'l-doshboy shunday dedi-yu, boyning betiga tik qaragancha turaverdi. H.Nu'mon va A.Shorahmedov. Ota.

TIRRAKDAY QOTMOQ kim? rosa qotmoq, butunlay qotib qolmoq (kishining holati haqida).

Yuvosh ham meni ko'rib, yutayotgan noni ham bo'g'zida qolib, tirrakday qotdi. E.Raimov. Ajab qishloq. Kecha meni ot qoqqan ekan, o'rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. A.Qodiriy. Uloqda.

TIRSAKNI TISHLAB BO'L-MAS ko'rinib turgan, ammo qo'lga kiritib bo'lmaydigan narsa yoki amalga oshmaydigan orzu va sh.k. haqida aytiladigan matal.

TIZ CHO'KMOQ kim? kimga? yoki kimning oldida? (qarshisida) – **TIZ CHO'KTIRMOQ** kim? yoki nima? kimni? yengilmoq, taslim bo'lmoq.

«Bu kurashda hali, – Valixon ichidan istehzoli fikrni o‘tkazdi, – Usmonbekning oldida tiz cho‘kmasang deb qo‘rqaman». Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Dunyoda bizga bas keladigan hech qanday kuch yo‘q. Biz butun dunyoni tiz cho‘ktiramiz». A.Qahhor. Bos tepkini. Baloyi nafs har qanday man-man deganni ham oldingda tiz cho‘ktiradi. P.Tursun. O‘qituvchi.

tiz cho‘ktirmoq: tiz cho‘kmoq

tizgin(i) qo‘l(i)da: jilov(i) qo‘l(i)da

TERI(SI) YUPQALIK QILDI

kimning? qiyinchiliklarga yo‘liqib, bardosh berolmay chekinmoq.

«Ha, yo‘q, yo‘q! Qishloqda lazzat nima qilsin. Institutdan paxta tergani chiqqanimizda ko‘rganman. Ikki kun terib, uchinchi kunga o‘tganda qochirvorganman». Latifjon boplaganman degandek qah-qah urib kuldi. «Terimgiz yupqalik qilibdi-da». S.Anorboyev. Yo‘llanma bilan.

TIL(I) QISIQ BO‘LDI *kimning?* – **TIL(I)NI QISIQ QILMOQ** *kim?* yoki *nima?* *kimning?* gapirmaslikka, e‘tiroz bildirmaslikka majbur bo‘lmoq. Sinonimi: **til(i)ni qismoq** *kim?* *kimning?* yoki [o‘zining] – **til(i) qisildi** *kimning?* Antonimi: **til(i) uzun bo‘ldi** *kimning?* – **til(i)ni uzun qilmoq** *nima?* *kimning?* yoki *kim?* [o‘zining].

Uning tili qisiq bo‘lishiga sabab bo‘lgan gunohi shunday sodir bo‘lgan edi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. ...birov tekinga buyum berrarmishmi?! Qo‘y. Tilingni qisiq qilib qo‘ymoqchimi, ishqilib, tegida bir gap bor. A.Muxtor. Xayri. Bu hol uni ma‘lum darajada Eshondan tilini qi-

siq qilib qo‘yibdi. A.Qahhor. Sinchalak.

TIL(I) QICHIDI *kimning?* – **TIL(I)NI QICHITMOQ** *kim?* *kimning?* gapirgisi keldi. Varianti: **til(i) qichishdi** – **til(i)ni qichishtirmoq** (*bular oz ishlatiladi*).

Jo‘ra oti haqida gap sotishni yaxshi ko‘rar edi, darrov tili qichidi. Oybek. Qutlug‘ qon. Hammasi qip-qizil yolg‘on-ku! Nima qilasiz mening tilimni qichishtirib?! M.Ismoilijiy. Farg‘ona tong otguncha.

til(i) qichishdi: til(i) qichidi

TIL(I) QOTIB QOLGAN *kimning?* tovush talaffuz qilishga, o‘rganishga layoqatsiz bo‘lib qolmoq.

Mening tilim qotib qolgan, o‘qib nima bo‘lar edim. G‘.G‘ulom. Tirilgan murda.

til kelmaydi: til(i) kelishadi

TILLAGATUSHMOQ *nima?* me‘yorida ortiq sarf-mehnat natijasida yuzaga kelmoq.

Faraz qilaylik. ellikta sigirni og‘ilxonaga qamab, ularni to‘ydirish uchun ertadan kechgacha besh-oltita odam, qo‘sh otli ikkita arava ovora bo‘lsa, sog‘ilgan suti tillaga tushib ketadi-ku? S.Anorboyev. Oqsoy.

TIL(LARI) BIR *kimlarning?* yoki *kimning?* *kim bilan?* o‘y-maqsadi mos, bir xil.

«Voy Kolya-ye, voy adash-e! Avval sen topdingmi bu hiylani yo dadangmi?» Mehri hovliqib gapga qo‘shilishdi: «Menga qara, Quدرات, menga qara! Partukni-chi men keltirib berdim... opamnikini «Ha, mug‘ombir! – barmog‘ini o‘qtaldi Quدرات. – Ikko-

vingning tiling bir ekan-da!» H.Nazir. Soʻnmas chaqmoqlar.

TILNI YORMOQ nima? oʻta darajada shirin.

«Erboʻta yotib oldi, charchabdi shekilli bolam bechora, – onasining oʻrniga Xadicha buvi javob berdi. Keyin koʻkcha kosalarini yoshlar oldiga surib maqtadi: – Olinglar, biram shirin chiqdiki, tilni yoradi». M.Ismoiliy. Fargʻona tong otguncha.

til tegizildi: til tegizmoq

TIL TEGIZMOQ kim? kimga? yoki nimaga? – **TIL TEGIZILDI** kimga? yoki nimaga? shaʻniga nomunosib, nohaq gap aytmoq.

Chunki Hakimboyvachcha oʻz gʻurur-obroʻsiga birovning oz-moz til tegizishini koʻtarmas edi. Oybek. Qutlugʻ qon. Sizga til tegizilsa darrov umuman tashkilotga, umuman partiyaga til tegizilyapti deb daʻvo qilasiz. P.Qodirov. Uch ildiz.

til tekkizmoq: til tegizmoq

TIL TOPISHMOQ kim? kim bilan? bir-birining fikr-oʻyini bilib, hamjihatlik bilan ish olib borishga kelishmoq. Varianti: **umumiy til topishmoq.**

Kimsan degan bola bilan Xoldor til topishib qolgan edi. A.Muxtor. Tugʻilish. «Qoʻchqor! – deb oʻshqirdi Turdiqul qovogʻini solib. – Aqlingni yigʻ, bekorga oʻlib ketasan, bola!» – «Taslim boʻlsa, Shoʻro gunohimni kechirarmikin?» – deb maslahat soʻradi. Shu boʻldi-yu, ikkovi umumiy til topishdi. Toʻqayning ichiga kirib, xilvat joyda gaplashishdi. S.Anorbo-yev. Oqsoy.

TIL TORTMAY shu zahoti, shu onning oʻzida.

Muncha ham zahar boʻlmasangiz! Sizni chaqqan ilon til tortmay oʻladi. A.Qahhor. Sinchalak. Paygʻambar avlodidan boʻlgan sayid, nasabi pok aslzoda til tortmay, shilq etib obrezga yiqildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Agar yolgʻon boʻlsa, til tortmay oʻlay. S.Ahmad. Hukm.

TIL UCHINDA I [til uʻchinda] tar. nima? bajarishga oson, tayyor.

Xatm etmakni aning uchun ixtiyor qildikim, Qurʻon til uchinda dagʻi oltun jon ichinda turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TIL UCHIDA II shunchaki koʻngil uchun, nosamimiy. Varianti: **til(i)ning uchida.**

«Til uchida aytgan ekansiz-da bu gapni», – «Nega til uchida boʻladi?» A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari. «Men sening ketishingni hech istamayman». «Tilingning uchida gapirar ekansan». Mirmuhsin. Sevginging tugʻilishi.

til chiqarmoq: til(i) chiqdi

til qisiqlik: til(i) qisq

tinka-mador(i)ni quritmoq: tin-ka(si) quridi

tinka-mador(i) quridi: tin-ka(si) quridi

tinkani quritmoq: tin-ka(si) quridi

tinka(si)ni quritmoq: tin-ka(si) quridi

TINKA(SI) QURIDI kimning? – **TINKA(SI)NI QURITMOQ** kim? yoki nima? kimning? toliqmoq, daramonsizlanmoq. Varianti: **tinkani quritmoq** kim? yoki nima? **tinka-ma-**

dor(i) quridi – tinka-mador(i)ni quritmoq. Sinonimi: **holdan toymoq kim? – holdan toydirmoq nima? kimni? holdan ketmoq kim? – holdan ketkazmoq nima? kimni? silla(si) quridi kimning?**

Boy mening toza ham tinkamni quritdi. Ot qashlash, jodida beda qir-qish... va boshqa rang-barang hunarlarni chor-nochor o'rgandim. G'.G'ulom. Tirilgan murda. Ikki kun ustma-ust bo'lgan gudaz uning tinkasini quritdi. Juda ham charchaganligidan tong otguncha uxlay olmay, «Belim»lab ingrab chiqdi. Oydin. Bechora. Yurish borgan sayin mushkullashardi... Butalar, changalzorlar, chuqurliklar tinkani quritardi. Oybek. Quyosh qoraymas. Uch-to'rt oydan beri yumush qidira-qidira yigit boyaqishning tinka – madori qurigan va umidi ham uzilgan edi. Oybek. Nur qidirib.

tin olmoq: nafas olmoq

TIRIK YETIM BO'LMOQ kim? – **TIRIK YETIM QILMOQ** kim? kimni? hayotda otadan, onadan ular tashlab ketgani sababli judo bo'lmoq.

Men ko'chada qolganimdan bu yerga kelibmanmi?.. Shu bolam tirik yetim bo'lmasin, shu bolamning peshanasiga yer bitsin deb kelganman. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Nega erimga ega chiqding, beting sidirilsa bo'lmaydimi, beor! Bolalarimni tirik yetim qilib nima avzim topasan, behayo?.. I.Rahim. Chin muhabbat.

tirik yetim qilmoq: tirik yetim bo'lmoq

TIRIKLAY O'TGA TASHLAMOQ kim? kimni? benihoya og'ir

turmush sharoitiga duchor qilmoq. Varianti: **o'tga tashlamoq; o'tga solmoq.**

«Dadajon, xo'rlamang meni, – dedi Adolat, – tiriklay o'tga tashlamang!» I.Rahim. Chin muhabbat. Isqirt odamsiz, aldab qo'lga tushirdingiz meni, bir daf'a qizimni o'tga tashladim, eldan, yurtdan xo'p nomus qildim, endi bas, aqlim kirdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Hayotxon, meni o'tga solmang, azizim! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

TIRIK TOVON kim? o'lik-tirigini boshqa kishining zimmasiga yuklab olgan kishi.

«Qornim och». – «Tirik tovonga aylanib qoldim-ov», – dedi xotin. G'.G'ulom. Shum bola. Qiynab qo'yaman deb o'ylamagan edim. Men sizga tirik tovon bo'ldim. B.Rahmon. Oltin odamlar.

tirnoqdan kir izlamoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

tirnoq ko'rmaslik: tirnoq yuzini ko'rmaslik

TIRNOQ ORASIDAN KIR IZLAMOQ kim? yomon niyat bilan ayb, xato-kamchilik topishga harakat qilmoq. Varianti: **tirnoq ostidan kir izlamoq; tirnoq orasidan kir qidirmoq; tirnoq tagidan kir qidirmoq; tirnoq orasidan kir kovlamoq; tirnoqdan kir izlamoq; tironog'(i)dan kir izlamoq kim? kimning?** Sinonimi: **qildan qiyiq qidirmoq kim?**

O'zi maqsadlaring nima? Tirnoq orasidan kir izlab qoldinglar! Ochiq-roq aytib qo'ya qolinglar! S.Zunnunova. Yangi direktor. [Tekshirish komissiyasining a'zosi] tirnoq ostidan kir

izlaydi, bitta o't topib qolgudek bo'lsa, har gap qiladiki, ilon po'st tashlaydi. H.Nu'mon. Fasllar. Sizga o'xshab ig'vogar bo'lsam, tirnoq orasidan kir kovlasam, shivirlar edim. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Siz mana bu gapni qulog'ingizga quyib oling: gap tashuvchi, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men juda yomon ko'raman! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Ammo ba'zi odamlarga hayronman, birovning tirnog'idan kir izlaydi. A.Muhiddin. Qitmir.

tirnoq orasidan kir kovlamoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

tirnoq orasidan kir qidirmoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

tirnoq ostidan kir izlamoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

tirnoq tagidan kir qidirmoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

TIRNOQ YUZINI KO'RMASLIK kim? befarzand o'tmoq, tug'maslik. Varianti: **tirnoq ko'rmaslik**.

Gulnor bilan o'n uch yil birga turib, tirnoq yuzini ko'rmadik. Oydin. Ikki ko'zi shunda. Nima balo, tirnoq ko'rmay o'tarmishmi? M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

TIRNOQQA ZOR BO'LMOQ kim? befarzandlik o'kinchi bilan yashamoq.

Bu dunyodan tirnoqqa zor bo'lib o'tib ketaveramanmi? S.Anorboyev. Oqsoy. *U tug'mas, tirnoqqa zor bo'lsa ham, bola yoqtirmaydigan baxil xotin ekan.* I.Rahim. Olovkor.

TIRNOG'(I)GA HAM ARZIMASLIK kim? kimning? kimgadir nisbatan hech qanday qadr-qiymatga molik bo'lmaslik o'ta salbiy baho-

lanmoq. Sinonimi: **harom tuk(i)ga ham arzimasklik**.

Hilola hech narsaga qayrilib qaramadi, faqat likopchadan bitta qotgan qurutni og'ziga solib, «Qani, fermaga boshlang», – deb turib oldi. Yusuffonning tirnog'iga ham arzimaydi. Yaxshi ulfat edi. I.Rahim. Hilola.

tirnog'i(i)dan kir izlamoq: tirnoq orasidan kir izlamoq

TIRNOG'(I)DAN TORTIB TO'PIG'IGACHA turli tomondan, batafsil.

Buving senga yomonini qidirdim. Hali tirnog'idan tortib to'pig'igacha sinchiklab tekshiramiz. P.Tursun. O'qituvchi.

TIT-PIT(I)NI CHIQARMOQ 1 kim? yoki nima? nimaning? antartot'ntar qilib tashlamoq.

Traktor yerlarimizni hayday berib, tit-pitini chiqarib yubordi. Oydin. Yuragida o'ti bor.


2 kim? kimning? burda-burda qilib tashlamoq. Varianti: **tit-pit(i) chiqarilishi kimning?**

Ammo-lekin unga tuhmat qilganing tit-pitini chiqaramiz. S.Ahmad. Hukm. *Fosih afandi shoshib qoldi. Darvozaga qulf solingan bo'lsa ham, uning haqirlar g'azabi oldida ojiz ekanligini, xalq qo'liga tushsa, tit-piti chiqarilib yuborilishini o'ylab yuragi chiqib ketdi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

tit-pit(i) chiqarilishi: tit-pit(i)ni chiqarmoq

TISH BOTIRMOQ [tiš batir=] tar. kim? kimga? tishlamoq.

O'parda nogah o'ynab tish botirdi, Dudog'ina tishi mahkam o'turdu. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.



TISHI ICHIDA kimning? alami bor, qasos olish uchun qulay paytni poylab yurmoq.

Oxirgi musobaqadagi mag'lubiyatdan so'ng Alibekning bir tishi ichida, hali vaqtini topib albatta hisob-kitobini to'g'rilaydi. So'zlashuv uslubi.

TISHI MAHKAM O'TURMOQ [tiši mahkam otur=] tar. kimning? tishining izi qolmoq.

O'parda nogah o'ynab tish botirdi, Dudog'ina tishi mahkam o'turdu. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TISHIDA (yoki **TISHINING KAVAGIDA** yoxud **ORASIDA**) **SAQLAMOQ** nihoyatda ehtiyotlik bilan (*kimsaga bildirmay, ko'rsatmay*) saqlamoq.

Lekin bir iloj qilib tishimda saqlayman uni. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Ma, ol. Biror kuningga yarab qolar, tishimning orasida saqlab yurgandim. «Mushtum». Afandining tish kavagida asrab yurgan yuz tanga puli bor edi. «Latifalar».

TISHIDA TISHLAB nihoyatda ehtiyotlab.

Ikki-uch yoshida onadan yetim qoladi. Otasi uni tishida tishlab katta qiladi. H.Nosirova. Men o'zbek qiziman. ...topgan-tutganini tishida tishlab saqladi. Sh.Rashidov. Bo'rondan kuchli.

TISH-TIRNOG'I BILAN qat'iyat bilan, butun imkon bilan.

Tish-tirnog'im bilan shu yerda, shu bolalarning sevgan o'qituvchisi bo'lib qolishga tirishaman. P.Tursun, O'qituvchi.

TISHGA TEGMOQ kim? yoqtirmay qo'ymoq; egallab turgan lavozimidan ketishini istab qolmoq.

Bir kuni yo'lda tasodifan uchrashganda: «Aytdilar, qishlog'ingizda ancha tishga tegib qolibsiz», – degan edi. S.Nazar. Yashil boylik.

TISHI BUTUN kimning? o'zi keksa bo'lsa ham hali sog'lom va tetik (*qari*) kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Siz Halima momoni qari demang, momoning hali tishi butun. So'zlashuv uslubi.

TISHI ORASIDA berkitib, asrab, avaylab.

Gulnor tishi orasida saqlab yurgan buyumlarini nabirasiga berishni ko'ngliga tugib qo'ydi. So'zlashuv uslubi.

TISHINI SUG'URMOQ kim? kimning? qattiq jazolamoq.

Qani menga ro'baro'bo'lsinchi, tishini sug'uraman. So'zlashuv uslubi.

TISHINI QOQMOQ kim? kimning? – **TISHINI QOQIB QO'LIGA BERMOQ** gapirtirgani qo'ymasdan gap bilan talamoq.

Kecha buvingiz gaplashgani kelgan vakilning ham tishini qoqib qo'lga berib, haydab solibdi. So'zlashuv uslubi.

TISH(I)NING KIRINI SO'RMOQ kim? [o'zining] och, yegani hech narsasi yo'q holatda bo'lmoq.

Kennoyisi kuniga bitta zog'ora kulcha berardi. Uni belbog'iga tugar, ammo qirga chiqmasdanoq yeb bo'lar, keyin kechgacha tishining kirini so'rar edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

TISH(I)NING KOVAGIDA [o'zining] o'ta ehtiyot bilan va yashirin.

Axiyri, Yangibozor boylarining yerlarini besh yil ekib, butun orttirganini yemay-ichmay, tishining kovagida asrab to'playdi-da, barini qoqishtirib,

bir jiyron ot oladi va dovondan so'nggi marta o'tliq o'tadi. P.Tursun. O'qituvchi.

TISH(I)NING OQINI KO'R-SATMOQ kim? [o'zining] tirjayib, ishshayib qaramoq (salbiy).

«Ha, battol, to'ningni-ku o'zgartiribsan, diling aslo o'zgarmaydi, o'lganingning kunidan tishingning oqini ko'rsatasan; bilib turibman, ichingda yig'layapsan». S.Ahmad. So'nggi nusxa. Saidov kuldi. Nasiba istaristamas tishining oqini ko'rsatdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

tish(i)ni tish(i)ga bosmoq: tish(i)ni tish(i)ga qo'ymoq

TISH(I)NI TISH(I)GA QO'Y-MOQ kim? [o'zining] butun histuyg'usini iroda kuchi bilan yengib chidamoq. Varianti: **tishni tishga qo'ymoq** kim? **tish(i)ni tish(i)ga bosmoq.**

Xotinining xulqiga tushunib qolgan Zuhurjon bunday paytlarda tishini tishiga qo'yib turishdan boshqasini bilmasdi. R.Fayziy. Yodgor. «Tushundingmi?» – yuzimga qaramasdan dedi u va javobimni ham kutmasdan vazmin, og'ir qadamlar bilan hovlidan chiqib ketdi. Tishimni tishimga bosib, mush-timni tugdim. O.Yoqubov. Muqaddas.

TISH(I)NI QAYRAB [o'zining] fursat kelganida qasdini, alamini olishga shaylanib.

Har holda... Akbarov ham tishini qayrab yuribdi. Yangi o'quv yili qiyin bo'ladiganga o'xshaydi. P.Qodirov. Uch ildiz.

TISH(I) TISH(I)GA TEGMAY-DI [kimning?] nihoyat darajada sovqotganidan qaltirab, tishlari titramoq.

Qattiq uyquda yotgan ekanman: «Boboqul, ho' Boboqul», – deb birov chaqirib qoldi. Boshimni ko'tarsam, xo'jayinim. Tishi tishiga tegmaydi, takir-takir qiladi. «Kigiz tugul, eshakning to'qimi bo'lsa ham, olib kel bachchag'arni!» – dedi. S.Anorboyev. Oqsoy.

TISH(I) CHIQQAN kimning? nimada? juda yoshligidan ko'rib-bilib, aralashib yurmoq.

Paxtachilikda tishim chiqib, paxtachilikda soqolim oqargan! I.Rahim. Ixlos. Kechagina shinel kiygan Chernikov harbiyda tishi chiqib, harbiyda balog'atga yetgan kapitanga taktikadan dars bermoqchi deb o'yladi. I.Rahim. Chin muhabbat.

TISH(I) O'TMAYDI kimning? 1 nimaga? biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi.

Koshki nashvatiga tishlari o'tsa. S.Nazar. Yashil boylik.

2 kimga? yoki nimaga? yenga olmaslik o'zlashtira olmaslik.

Bunday gaplar bilan yoshlarni aldash mumkin, ammo tajribali keksalarga tishingiz o'tmaydi. S.Nazar. Yashil boylik.

3 nimaga? idrok qilib yeta olmaslik uqib yeta olmaslik.

Kechirasiz, bunday jumboqlarga tishim o'tavermaydi. Sizdaqa filolog emasmiz. S.Anorboyev. Yo'llanma bilan. Rauf aka, shunaqa kitoblarga qachon tishim o'tadigan bo'ladi? A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

TISHLAR(I)NI G'IJIRLATMOQ kim? [o'zining] jahl-g'azabini ost-ust tishlarini qattiq bosib tovush chiqarish bilan ifodalamoq.

Boqijon tishlarini g'ijirlatib, so'r-raygancha qoldi. Oybek. Oltin vodi-ydan shabadalar.

tishni tishga qo'ymoq: tish(i)ni tish(i)ga qo'ymoq

TIG'DAN O'TKAZMOQ kim? kimni? qilich bilan o'ldirmoq, qirg'in qilmoq

[Eshon ayaga] ... Hazrat Ali zulfiqorini qindan chiqarib, tig'dan o'tkazaman», – deb aytgan emish. S.Ahmad. Hukm.

TOB BEROLMASLIK kim? nimaga? chiday olmaslik qarshi tura olmaslik. Sinonimi: **tob keltirolmaslik** kim? nimaga?

Anzirat xola endigina yorug' kun ko'rishga umid bog'laganida damba va undan keyin kanal ishi boshlandi-yu, kuyov, evazi naqd bo'lmagan og'ir mehnatga tob bera olmay, Kimsanoyini olib shaharga ketib qoldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Oxiri bu o'tli qarashga tob berolmay, ikki qadam orqaga chekindi. S.Ahmad. Xotiralar.

TOB(I) BORMI? I kimning? nimaga? bellashuvga xohish-rag'bat bildiradi oladimi?

Qani, qo'lni ber, uka, kelar yil musobaqada ikkimiz bel ushlashamiz. Yuz sentnerga tobing bormi? Oybek. Oltin vodi-ydan shabadalar.

TOB(I) BORMI?! II kimning? nimaga? bardosh qilishga rozi emas. Varianti: **kimning tobi bor?! nimaga?** Sinonimi: **tob(i)yo'q**

2 kimning? nimaga?

Yoqutoyimga o'xshaganlar bilan adi-badi aytishuvga tobi bormi uning?! S.Anorboyev. Oqsoy. Birpas turib

«Falon pul berasan», – deb o'tirsang, oramizda janjal chiqsa, bunga kimning tobi bor?! G'.G'ulom. Kim aybdor?

TOBIGA YETKAZMOQ kim? nimani? yetiltirmoq, ishlov uchun eng yaxshi holatga erishmoq.

Mana, hosilni ko'rarmiz. Sizing zo'rlashingiz bilan yerni tobiga yetkazib ekanlar qanday bo'ladi-yu, besh-olti kun ilgari ekanlar qanday bo'ladi? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

TOBIGA KELMOQ 1 nima? [o'zining] qaynab yetilmoq.

Tobiga kelgan choydoshdek sharaqlab kulib Palmontoz kirib keldi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

2 kim? [o'zining] biror faoliyatga tayyor bo'lmoq, yetilmoq.

Mayli, sen vavaqlab tura tur, tobi kelganlar sayrasin. Qani, Foziljon, topganingni to'kaver. I.Rahim. Hilola.

TOB(I) YO'Q kimning? **1** kasal.

Aka, nimaga jim bo'lib ketdingiz? Tobingiz yo'qmi? Ozibsiz-a... Oybek. Qutlug' qon. Dalaga o'tayotgan edim, tobingiz yo'qligini eshitib, ko'rgani kirdim. Qalay, og'rig'i bosildimi? I.Rahim. Ixlos.

2 nimaga? bardosh qilishga rozi emas. Sinonimi: **tob(i) bormi?! II** kimning? nimaga?

Doktor Shodiyevning janjalga tobi yo'q, u o'z odati bo'yicha mumkin qadar bosiq bo'lishga, gapni yotig'i bilan tushuntirishga urindi. A.Muxtor. Dog'. Borsam, spravka topa olaman, ammo bormayman, o'rtoqjon. Shunaqa ishlarga tobim yo'q. A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

TOB(I) KELMADI kimning? nimaga? xohish-rag'bat bildirmaslik.

Otasi o'lgach, ro'zg'or boshiga tushgan Shokirga turmush bir azo-bi jon bo'ldi. Mundoqroq ishga tobi kelmay, bir necha vaqt bekor yurdi. Oxiri bir magazinga mudir bo'ldi. H.Nu'mon. Fasllar.

TOB(I) QOCHDI kimning? kasal bo'lmoq.

Borardim-u, bolam, lekin tobim qochib turibdi-da. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. Nurixonning tobi qochib goldi. Doktor bilan tillashib bering, baraka topkur. S.Ahmad. Qo'shiq. *Kechirasiz, Mavlon aka, tobingiz qochgani esimdan chiqibdi.* A.Qahhor. Yangi yer.

TOB KELTIROLMASLIK kim? nimaga? chiday olmaslik qarshi tura olmaslik (*oz ishlatiladi*). Sinonimi: **tob berolmaslik** kim? nimaga?

Bu misralar: Abdurahmonlarning Surxon, Qashqadaryodagi kambag'algina dehqonchiliklaridan Amir Olimxonning zulmi, hadsiz soliqlariga tob keltira olmay, oilalarini otasiz qoldirib, uzoq yerlarga ish qidirib kelgan qullarning cho'zib-cho'zib mung bilan aytadigan o'lanlari. G'.G'ulom. Netay.

TOB TASHLAMOQ 1 nima? nomi qochib (yoki **issiqdan qiyshaymoq**).

Uy ham havas, hafsala va did borasida hovlini eslatar edi: derazaning chap tomoniga qo'yilgan chiroyli yozuv stoli ustida kattakon sariq samovar, qopqog'i tob tashlagan qizil patefon... A.Qahhor. Sinchalak.

2 kim? avvalgi g'ayratini yo'qotmoq, bo'sharmoq, sustkashlik qilmoq.

Suvchilarni-ku yo'lga solib oldik. Ular kecha-kunduz egatda. Ammo uni-

versalchilar, andak tob tashlab turishibdi. I.Rahim. Hilola. *Voy Madrayim-ey, senga nima bo'ldi? Bu safar tob tashladingmi?* M.Muhamedov. Qahramon izidan.

TOLE(YI) BALAND kimning? kelajagi porloq, hayot yo'lida baxt unga doim yor. Varianti: **iqbol(i) baland**.

Bichiming kelishgan, rangingda g'ubor yo'q. Ko'zlaring chaq nab turibdi. Baxting kulgan, toleing baland ekansan, chirog'im! N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. *Uning ilmiy dokladi yaxshi baho olibdi. Shunday, Gulshanning iqboli baland. Juda pishiq, juda tirishqoq.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

TOLE(IY) PASTLIK QILDI kimning? baxt-iqbolga ega bo'lmaslik.

Xushro'ybibining tolei pastlik qilib, ota o'lgandan so'ng amakilari qishloqqa, Sheraliga yerga borganliklari va hokazoni so'zлади. Oybek. Qutlug'qon.

TOMDAN TARASHA TUSHGANDAY qo'qqisdan, kutilmagan holda va qo'pol tarzda. Varianti: **tomdan tarasha tushganday qilib**.

Har qanday bo'lsa ham gapni tomdan tarasha tushgandek emas, yotig'i bilan boshlab, o'zini oppoq qilib ko'rsatishga mo'ljallab qo'ydi. R.Fayziy. Qaynana. *Qiziq, tuppa-tuzuk yigit, u yo'q-bu yo'q, tomdan tarasha tushganday qilib birdan sovchi yuborgani qanaqasi?* O.Yoqubov. Bahor kunlarining birida.

tomdan tarasha tushganday qilib: tomdan tarasha tushganday

TOMDAN TASHLAMOQ kim? [*o'zini*] biror narsaga juda berilgan,

o'ch; biror narsaga yetishish yo'lida qiynoqqa ham rozi.

Qayoqqa borishardi, bolam, tomoshagadir-da. Tomosha degan joyda tomdan tashlaydi nevaram tushmagur... H. Nazir. Cho'l havosi. Seminar tamom bo'lgach, Qodirjon Lyuba tayinlagan yangi kitoblarni olib kelish uchun ... yana bir kun qoldi. Olib kelmay iloji yo'q edi, kitob desa o'zini tomdan tashlaydigan Lyubadan baloga qolib ketardi. S. Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

tomir yoymoq (.. yozmoq): ildiz otmoq

tomir(i)ga bolta urmoq: ildiz(i)ga bolta urmoq

tomir otmoq: ildiz otmoq

TOMON(I)GA O'TMOQ kim? kimning? bahslashuvda, muhokamada hamfikir bo'lmoq, qo'llab-quvvatlamoq. Varianti: **tarafga o'tmoq** kim?

Bo'ta masalasini davraga tashlaymiz. O'shanda aksariyat uning tomoniga o'tishi aniq. S.Ahmad. Hukm.

TOMON(I)NI OLMOQ yon(i)ni olmoq, tomoq qoqmoq nima? (laylak) tumshug'ini ochib-yopib, o'ziga xos tovush chiqarmoq.

Adir yoqasida ko'kka tomon bo'y cho'zgan terakning uchidagi savatdek uyada bir oyoqlab turgan laylak erinibgina har zamon bir tomoq qoqadi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

TOMOG'INI YOG'LAMOQ (yoki **MOYLAMOQ**) pora bermoq, pora o'rnidagi narsa bilan siylamoq.

Ular boyning qo'zi va qazilari bilan tomog'i moylanib, ishni yopib yuborgan edilar. S.Ayniy. Qullar. Mudirga cho'tal to'lagan yuqoridagi kishilar «boshliqning tomog'ini moy-

ladik, endi ovozi chiqmaydi», – deb bir portsiyali ovqatni uch portsiya qilib, xo'randalarni cho'michdan qoqa boshladilar. «Mushtum».

TOMOQNI HO'LLAMOQ kim? nima bilan? ichimlikdan (asosan, spirtli ichimlikdan) biroz olmoq, ichmoq.

Yoshlikning oxiri, qarilikning boshi, deganday, ozroq tomoqni ho'llab olsak bo'lardi. «Mushtum».

TOMOG'(I)DAN O'TMASLIK nima? kimning? asabiylashish, siqilish oqibatida yeb icha olmaslik; ishtahasini yo'qotmoq.

«Tug'ishing uchun qand-qurslarni ham keltirib qo'ygan bo'lsam, tag'in nimaga xafa bo'lasan? Odam degan munaqa ziqna bo'lmaydi», deb erining ham tomog'idan osh o'tmay qoldi. Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha. «Tomog'imdan hech narsa o'tmaydi», – dedi-da, darvozaga qarab ketdi. S.Ayniy. Qullar.

TOMOG'(I)NI QIRMOQ kim? [o'zining] nima maqsadda? og'izni yumib, tomoqda yo'talga o'xshash tovush hosil qilmoq.

[Homid baymoq] gap tashlayman deb tomog'ini qirib qo'ydi-yu, biroz hayiqdi shekilli, bo'g'ziga yutib, baqraygancha qoldi. S.Abdulla. Iqbol. Alim buva gapirmoqchi bo'lib tomog'ini qirdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

TOMOG'(I) TAQILLAB kimning? kishi bilmas ilhaq bo'lib, betoqatlik bilan kutib.

Ha, shunaqa, o'rtoq Do'smatov. Hali hukumatdan yashirib qalin olishlar bor. Haligi, Mamasayid deganimizning qizi ham bo'yi yetib, ko'zga ko'rinib qoldi. Shuning uchun qizini

ko'chaga chiqarmay qo'ydi. Birorta hamyoni kattaroqqa pullasam deb tomog'i taqilla bo'lib yuribdi. P.Tursun. O'qituvchi.

TOMOG'(I) TAQIRLAB KETDI kimning? betoqat bo'lish darajasi-da suvsamoq.

Bir quloch tarashani yoqib yuborsam ham, choy qaynamadi. Choy kutaverib pirimning tomog'i taqirlab ketibdi. I. Rahim. Ixlos.

TOQAT KETURMASLIK [taqat ketürmä=] tar. kim? toqat qilolmay.

Bashariyat zaifindan kunash issisina toqat keturmayin bir devor ko'lankasina iltijo qilib, bu issi zahmati mendan bir ichim suv bilan kim daf' etkay, deb boqib o'tirur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TOQAT KO'TURMAYIN [taqat kötürmä=] tar. kim? toqat qilolmay, kuchi yetmay.

Tutmag'il po'lod qo'lli birla panja, ey zaif – Kim, aling emgak ko'rub toqat ko'turmayin sinor. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TOQATI INONI ALINDAN YETMOQ [taqati inani elindän jet=] tar. kimning? sabri tugamoq. Varianti: **toqatining inoni alindan ketmoq.**

Qatti quroqlik bo'ldi, uylakim, xalqning toqati inoni alindan yettib, ko'klar eshiki yer uza bog'lanib, dag'i yer ahlining faryodi ko'klarga yetib turur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

toqat(i)ni toq qilmoq: toqat(i) toq bo'ldi

TOQAT(I) TOQ kimning? chidashga boshqa toqati yo'q.

... lekin uni [Masturani] tez-tez eslar edim; bu toqati toq, joni temirdan

insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. A.Qahhor. Ming bir jon. Qumri yaqinda ishlayotgan yigitga bir piyola to'ldirib [ko'k choy] uzatarkan: «Navbat kuting», – dedi. Karim polvon kegmonga suyanib peshana terini artarkan: «Toqatim toq bo'ldi, kelmasangiz, yurak pojar bo'ladi», – deb qichqirdi. S.Nazar. Yashil boylik.

TOQAT(I) TOQ BO'LDI kimning? – **TOQAT(I)NI TOQ QILMOQ** kim? kimning? sabr-chidami tugadi. Varianti: **toqatini toq qiluvchi.** Sinonimi: **sabr kosa(si) to'ldi** kimning? – sabr kosa(si)ni to'ldirmoq nima? yoki kim? kimning?

Xatini kuta berib kampirning toqati toq bo'ldi. Oydin. Shirin keldi. Shu kishiningki toqatini toq qilibsizlar; demak keskin chora ko'rish payti kelibdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Quyosh qoraymas. Aka-ukaning tik turgancha nimalarnidir muhokama qilishayotganidan toqati toq bo'lib. Sh.Bo'tayev. Qarz.

toqatini toq qiluvchi: toqat(i) toq bo'ldi

TOQATI YO'Q [taqati joq] tar. kimning? sabr etmaslik.

Maslahat ul tururkim, safar etkaymankim, mundan ortuq toqatim yo'q turmog'a. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TOQI SANAB CHIQMOQ kim? tuni bilan uxlay olmaslik, tunni bedor o'tkazmoq. Sinonimi: **yulduz sanab chiqmoq** kim?

O'rinboy shu kuni tong ottirib toqi sanab chiqdi. Oydin. Yuragida o'tibor.

toq o'tmoq: dunyodan toq o'tmoq
tog'dan kelsa (...), bog'dan kelmoq: bog'dan kelsa (...), tog'dan kelmoq

tog'ni tolqon qiladigan: togni ursa – tolqon qiladigan

TOVON(I)GA QOLMOQ kim? kimning? o'limiga sababchi bo'lmoq, javobgarlikka tortilmoq.

...ko'nmabdi, «Hammasi yig'ilganda bitta shaftoliga tishi o'tmaydi-yu, to'rt quti urug' tutar emishmi! Yo'q, kampirlarning tovoniga qolaman», – debdi. A.Qahhor. Kampirlar sim qoqdi. Hoy kennoyi, tovonimga qolasizlar, jonamdan to'yib ketdim. S.Anorboyev. Tashvish.

tovog'(i) tilladan bo'lib ketdi: it(i)ning tuvagi tilladan bo'lib ketdi

TOY-TOY TURMOQ shv. ayn. g'oz-g'oz turmoq q. g'oz-g'oz.

Omontoyning qizi Bo'stonxon toytoy turadigan bo'lib qolibdi. S.Ahmad. Cho'l shamollari.

TOG'NI TOLQON QILMOQ kim? har qanday katta va og'ir ishni ham bajarmoq.

Undan keyin charchaguningcha chopma, ayni qizishgan vaqtingda, g'ayrating kelib, tog'ni tolqon qilaman deganingda dam ol, birpasgina dam ol! A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

TOG'NI URSA – TOLQON QILADIGAN zabardast, pahlavon. Varianti: **tog'ni tolqon qiladigan.**

Dalada suqsurdek qiz-juvonlarimiz ter to'ksa-yu, Qo'chqorbeklar tog'ni tolqon qiladigan paytida idora qorovuli bo'lib o'tirsa. Mirmuhsin.

Momo. «Yigitlarga qanday javob berib yuborsam ekan, – o'ylardi u. – Mayli, boshlari oqqan tomonga ketishsin. To'rttalasi – Samad ham, Komil ham, Mannop ham, Hamid ham tog'ni ursa talqon qiladigan baquvvat yigitlar». Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

toshbaqa yurish bilan: toshbaqa qadam bilan

TOSHBAQA QADAM BILAN imillab, juda sekin yurib. Varianti: **toshbaqa yurish bilan.**

Ha, buning joyida. Lekin toshbaqa qadam bilan ikki soatlik yo'lga rosa bir kun sudralsa kerak-da. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. Shu zaylda toshbaqa yurish bilan «boya o'zlari ko'rgan» qirlarni, tog'-u toshlarni oshib, to'qayzorlardan o'tib, o'sha tosh qal'aga yetib olguncha yarim kecha bo'ladi. O. Yoqubov. Ota izidan.

tosh bag'ir: bag'ri tosh

TOSH BOYLADIMI?! nimasi? nimaga shu vaqtgacha qaynamaydi?!

«Samovaringiz tosh boyladimi?!», deb shovqin soldi ichkaridan bittasi. Oydin. Bechora.

TOSH BOSMOQ nima? salmoqli vaznga ega bo'lmoq.

Paxtaning g'ozini ketib, tosh bosmaydiganroq bo'lib qoldi. I.Rahim. Hilola.

TOSHGA AZON AYTGAN BILAN BAROBAR mutlaqo beta'sir, befoyda.

E, taqsir, bu itvachchaga gap uqtirish toshga azon aytgan bilan barobar. Kecha gapirib ko'rsam, onam rahmatlikning o'sma-surmalarigacha qo'ymay so'kdi. A.Muxtor. Opa-singillar.

TOSH(ING)NI TER (...) kim? [o'zining] boshqaning ishiga aralashguncha, o'zing qodir ishni qilaver. Sinonimi: **arava(si)ni tortmoq 2** kim? [o'zining].

Senga gap tushgani yo'q, ...toshingni ter! J.Abdullaxonov. To'yga kelinglar. *Men bundaylar bilan oftobda non-qatitq yeyolmayman. Aravasini tortsin, toshini tersin.* S.Abduqahhor. Gap norda emas.

tosh ko'ngil: ko'ngli tosh

tosh ko'ngilli: ko'ngli qattiq

tosh ko'ngil [ekanligi]

TOSHNI YORMOQ (...YORADI) eshitilishi juda kuchli.

...jilg'ani kuchli ovozi tutdi. «O'zi mushtumday, ovozi toshni yoradi-ya!» –ajablendi Nigora. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 (gapi) ta'sir etishi juda kuchli.

Qayoqdan keladi unga bu gaplar. Har biri toshni yoradi, tinglashga majburman. I. Rahim. Hilola.

TOSH OTMOQ kim? kimga? yovuzlik (dushmanlik) xatti-harakatlari qilmoq. Varianti: **kesak otmoq.**

«Tanqid yegan odam xafa bo'lmasligi kerak, chunki mevali daraxtga tosh otila-di!», – «Shu gapni chin ko'ngildan chiqarib aytayotgan bo'l-sangiz, ijizat bering, men sizga bir-ikkita tosh otay. A.Qahhor. Sinchalak.

TOSHYURAK – YURAGI TOSH kimning? Sinonimi: **ko'ngli qattiq – qattiq ko'ngil.** Antonimi: **ko'ngli bo'sh kimning? ko'ngli(i) yumshoq kimning? – yumshoq ko'ngil kim?**

Yigit har qancha tosh yurak bo'lsa ham, bu avrovchi dog'uli oldida erib ketar edi. N.Maqsudiy. Bola yo'qot-

gan kishi. *«Hali yoshlikni tiklash mumkin, o'rtoqlar orttiring, kasb orttiring», – dedi Bo'riyev. Buyuragi tosh odamning qo'pol tadbirlarida mantiq bor.* A.Muxtor. Tug'ilish.

TOSH QOTIB mutlaqo qimirlamay / qimir etmay.

Otryad jardan chiqib, yo'l chetida butalar ostida tosh qotib yotdi. Oybek. Quyosh qoraymas. *Hamma o'zini panaga urdi, alamdanda tosh qotib falokatga o'qraydi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

TOSH QO'YMOQ kim? [kimga] nimaga? qarab faoliyat, talab me'yorini belgilamoq.

Qani, u nima deydi. O'shanga qarab tosh, qum berasiz. Bordi-yu birovga aytgan bo'lsa, uni qo'lga oling. R.Fayziy. Yana bahor keldi. *Ikki bola bilan ro'zg'or tebratib o'qish oson emasligini, bola kasal bo'lganda Nasrulla kechasi uxlamay chiqishini, har kimning sharoitiga qarab tosh qo'yish kerakligini aytdi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

TONG OTADI, KUN BOTADI kecha bilan kunduz almashib, umr o'taveradi. Varianti: **tong ham otmaydi, kun ham botmaydi.**

Tong otardi, kun botardi. Lekin uyda yakka-yolg'iz qolgan Mayna qalbida alam ortardi. Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Qo'y, senga qolsa, tong ham otmaydi, kun ham botmaydi, qo'yim, qo'zim deb yuraverasan.* S.Anorboyev. Oqsoy.

TONG OTDI tun tugab, kun boshlandi; quyosh chiqish payti yaqinlashdi.

Yulduzlar birin-sirin o'chib, tong ota boshladi. Oybek. Oltin vodiyan

shabadalar. *Siddiqjonning niyati shu ketishda hech qayerda to'xtamasdan, tong otguncha yurib bo'lsa ham, Qapsanchilarga borish... edi.* A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. U Salomatning jasadini oppoq tong otayotgan mahalda qishloqqa xuddi shu xilda arava ortidan yurib olib kelgan edi.* S.Ahmad. Hukm.

TONG OTTIRMOQ kim? tunni sahargacha uyg'og o'tkazmoq.

O'rmonjon kursida o'tirib tong ottirdi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Hozir choy qaynaydi, chaq-chaqlashib tong ottiramiz.* S.Ahmad. *Iqbol chiroqlari. Mehri opa tuni bo'yi osmonga tikilib, mijja qoqmay tong ottirdi.* R. Fayziy. Ona.

TONG QOLDIRMOQ kim? yoki nima? kimni? kutilmagan holda hayratlantirmoq.

Saidg'oz Eron podshosi Muhammad Rizo Pahlaviyning oldingi xotini bir uchuvchi bilan qochib ketganini aytib berib, qariyalarni tong qoldirdi. S.Anorboyev. *Oqsoy. Bir kishining orzu-umidi xato yozilgan bir harfday bemalol chizib tashlangani uni tong qoldirdi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

tong qotmoq: dong qotmoq **I tong ham otmaydi, kun ham botmaydi:** tong otadi, kun botadi

tor kelib qolganda: do'ppi tor keldi **tortgan azob(i):** azob chekmoq

TONGNI TONG OTTIRIB, KUNNI KUN BOTTIRIB ertalabdan kechgacha va kechasi bilan tinmay.

Hozirgi yoshlar mehnat qilishdan qochadi, biz yoshligimizda tongni tong ottirib, kunni kun bottirib ishlar edik. So'zlashuv uslubi.

TUBROQ BO'LMOQ [tubraq bol=] tar. kim? kamtar bo'lmoq.

Bukun tubroq bo'l, andan burunroq, Kim, erta gul taning tuproq bo'l-g'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TUFLAB TUGMOQ kim? nima-ni? (pulni) topganini jamg'armoq.

«Sadbar, Xoldor qurilishdan qochibdi». – *«Uzi ablah edi, afsus qiladigan joyi yo'q, qochsa – undan nari! – dedi Sangin. Sadbarning eti jimirlab ketdi. – Lekin Kimsanni yo'ldan urgani yomon bo'libdi».*– *«Ikkalasi-ning ham dardi pul edi, tuflab tugib yurishardi».* A.Muxtor. Tug'ilish.

TUFLAGAN TUFUG(I)NI QAYTIB OLMOQ kim? [o'zining] aytgan gapida qat'iy turmaslik, gapidan voz kechmoq.

«Nima qilib qo'ydingiz, Nazokat, – deb sekin, yurakka yetadigan hasratli tovush bilan gap boshladi Onaxon, – xotinlar jirkanch o'tmishning sarqiti deb tuproqqa tashlab, oyoqlari bilan toptagan la'nati ro'daponi siz ko'tarib, yana yelkangizga soldingizmi?.. Bir tuflagan tufugingizni yana qaytib olishga kim majbur etdi?» A.Muxtor. Opa-singillar.

TUMSHUG'(I)DAN ILINMOQ kim? [o'zining] biror nojo'ya ish bilan tutilmoq. Sinonimi: **qo'lga tushmoq 2** kim?

Bu tulki tumshug'idan ilinayotganini sezib, shunaqa yo'llar bilan chap bermoqchi yoki bu ishda johil odamlarning jig'iga tegib, bir baloni boshlamoqchi emasmikin? A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Ha, bu Ziy-natullayev sog'lom odam emasligini sezgan edim, lekin tutqich bermay*

yurgan edi. Mana endi tumshug‘idan ilinibdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

tumshug‘(i)ii suqmoq: burn(i)ni suqmoq

tumshug‘(i)ni tiqmoq: burn(i)ni suqmoq

TUMSHUG‘(I)NI EZMOQ kim? kimning? ustun kelib, zo‘ravonlik qilmoq.

Bektemir xuddi bolaga so‘z uqtirgandek qayta-qayta takrorladi: «Egriga egrimiz, yomonga yomon! Fashistning tumshug‘ini ezamiz!» Oybek. Quyosh qoraymas.

tumshug‘(i) osildi: qovoq-tumshug‘(i) osildi

TUMTARAQAY BO‘LMOQ kim? tumtaraqay holga tushmoq, har tomonga qochish, ketish holatiga tushmoq.

Birpasda darvozaxona bo‘shab qoldi. Qalandarlar mo‘r-malaxday to‘rt tomonga tumtaraqay bo‘ldi. S.Siyoyev. Avaz. Tong otganda kimdir: «Yog‘iy bosdi!» deb qichqirdi-da, tura qochdi. Uyqusiragan odamlar vahima ichida tumtaraqay bo‘lab ketdi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

TUMTARAQAY QILMOQ kimni? yoki nimani? har tomonga tartibsiz ravishda qochishga majbur etmoq, to‘zitmoq.

– *Tur o‘rningdan! – deb qoldi Poshsha xola Umidning xayollarini.. tumtaraqay qilib. D.Nuriy. Osmon ustuni.*

TUMSHUG‘I OSTIDA (yoki **TAGIDA**) shundoqqina oldida, yonginasida.

Qaynona shundoq Yigitalining tumshug‘i ostiga kelib, gulduroq ovoz bilan bir kulib qo‘ydi.. D.Nuriy. Osmon

ustuni. Poyezddan tushgandan keyin tumshug‘imiz tagida ekansan-ku, biz bo‘lsak qayoqlarga borib yuribmiz. E.Raimov. Ajab qishloq.

TUN OG‘DI vaqt yarim kechadan o‘tdi.

Tun og‘gach, batalyon keldi. Shuhrat. Shinelli yillar.

TUNNI TONGGA ULAMOQ yoki **TONG OTTIRMOQ** kechasi bilan uxlamay, biror ish, xayol va sh.k. bilan mashg‘ul bo‘lmoq.

[Nizomjon] Kechalari yulduz to‘la osmonga tikilib, tunni tongga ulab, qushlar na‘masidan, suvlar shildirashidan ko‘ngilga allaqanday yupanch izlardi. S.Ahmad. Ufq. To‘xta xola chinakchilikdan chiqqan paxtasini kechalari yigirar, charx oldida tong ottirardi. I. Rahim. Chin muhabbat.

TUPKANING TAGIDA juda olis, chekka joyda.


Xo‘jabekovni tupkaning tagida bo‘lsa ham topib kelamiz! S.Anorboyev. Oqsoy.

TUPROQ BILAN TENG QILMOQ 1 yer bilan yakson qilmoq, vayron qilmoq. Urush ko‘p shahar va qishloqlarni tuproq bilan teng qildi; 2 xor qilmoq, poymol, oyog‘osti qilmoq.

[G‘ofir:] Men hali kelib-kelib odamgarchilikni, diyonatni, nomusni tuproq bilan teng qilgan sizday razil, xotinfurush qo‘shmachilar oldida shunchalik past tushdimmi?! Hamza. Boy ila xizmatchi.

TUPROQDAN TASHQARI[DA] YURMOQ kim? bir amallab yashamoq, tirikchilik qilmoq.

Endi, faqir kishi panada, taq-sir, tuproqdan tashqarida yuribmiz.



A.Muxtor. Opa-singillar. «O'zingizdan so'rasak?», – deb hol-ahvol so'radilar. «Xudoga shukur, tuproqdan tashqari yuribmiz», – dedi Shokir javobda. S.Ayniy. Qullar.

TUPROQQA TOPSHIRMOQ kimni? dafn etmoq, qabrga qo'ymoq.

O'g'li Shodmonbekning Farg'ona jangidan qaytmagani, uni o'z qo'li bilan tuproqqa topshirgan Nizomiddinning ham tuproqqa qo'shilib ketgani yomon iz qoldirgan bu ustalar xonadonida anchadan buyon xafaqonlik, motamsarolik hukm surardi. Mirmuhsin. Me'mor.

TUPROG'I SOVIMASDAN kimning? vafot etganiga ko'p vaqt bo'lmay.

Qanday ota u.. Oyimning tuprog'i sovimasdan cho'ri qizga uylanadimi? Oybek. Tanlangan asarlar.

TUPROG'I TORTMOQ tug'ilib o'sgan (o'z) joyi undamoq, jalb qilmoq.

Bu ishlar – xudoning ishi, xaloyiq, Yo tuprog'im, non-nasibam tortgandi, Elni yig'ing, yuring, jovliq ketamiz. «Yusuf va Ahmad».

TUPROG'INI YALAMOQ ma'lum joy, hududda ko'p yillar muqim bo'lmoq.

...xalqimning zulmatli kechasida lo-aqal jinchiroq bo'larmikanman, deb madrasa tuprog'ini olti yildan beri yalab keldim. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

TUPROG'I SHU YERDAN OLINGAN asli shu yerning odami, shu yerning o'ziniki degan ma'noni qayd etadi.

– Do'smatov o'zimizniki, – dedi Sotvoldi, – Do'smatovning tuprog'i shu yerdan olingan. Hech qayoqqa ketolmaydi. P.Tursun. O'qituvchi.

TUPROG'(I) BIR YERDAN OLINGAN kimlarning? bir-biriga o'xshash (qiyofasi, fe'l-atvori). Varianti: **tuprog'(i) bir joydan olingan.**

Ikkovining tuprog'i bir yerdan olingani bilinib turibdi – juda o'xshash. S.Anorboyev. Oqsoy. Unga [Zunnunovga] faqat «Qizil kuch»ning ... Umar aka yoqadi. Mana, turmushda sinarsiz, ikkisining tuprog'i bir joydan olingan. I.Rahim. Ixlos.

tuprog'(i) bir joydan olingan: tuprog'(i) bir yerdan olingan

TUPROG'(I) YENGIL BO'LA-DI kimning? arzimagan narsa ham gap-so'z bo'lishiga olib keladi.

U akam bilan uchrashib, «Endi bo'lar ishning bo'lgani yaxshi, qiz bolaning tuprog'i juda yengil bo'ladi. Jo'ravoy bu yil o'qishdan qola qolib, to'yni qilib ketgani ma'qul bo'lar edi...», – degan emish. G'.G'ulom. Yodgor.

TURGAN-BITGANI shundoqqina, bus-butun.

«Nima ekanini bildingmi? – dedi. – Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang, asal chiqadi». A.Qahhor. Anor.

TURGAN GAP I nima qilish? aniq, shak-shubhasiz (kesim vazifasida keladi). Varianti: **turgan gap edi.**

Bunday taqdirda Eshonning Saida to'g'risida aytadigan har qanday gapini Qalandarov xusumat deb bilishi turgan gap. A.Qahhor. Sinchalak. Agar sevmaganida, har gapning birida dakki berishi turgan gap edi. R.Fayziy. Kuzatish.

TURGAN GAP II albatta, shak-shubhasiz (kirish bo'lak vazifasida keladi). Varianti: **turgan gapki.**

Iye, ishimiz chatoq-ku. Suvsiz qol-sak turgan gap, hammamiz o'lamiz. O'.Azimov. Aql chirog'i. U sening boshingga ham o'sha xotinning kuni-ni soladi, turgan gap. S.Zunnunova. Ikkinchi xotin. Turgan gapki, u «inti-zori»ning tayinlagan joyiga bormadi. P. Qodirov. Uch ildiz.

turgan gapki: turgan gap II

turgan gap edi: turgan gap I

turib olmoq: oyog'(i)ni tirab olmoq

TURMUSH KECHIRMOQ *kim?* yashamoq. Varianti: **hayot kechir-moq**. Sinonimi: **dunyodan o'tmoq I kim? umr ko'rmoq kim? umr o't-kazmoq kim?**

Men hech qachon qishloqda yashab ko'rgan emasman. U yerda qanday turmush kechirishimni ko'z oldimga keltira olmayman. O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

turmushning achchiq-chuchugi-ni totgan: dunyoning achchiq-chu-chugini totgan

TURMUSH QURMOQ *kim?* kim bilan? kimlar o'zaro? oilaviy ha-yot kechirmoq. Sinonimi: **bir yos-tiqqa bosh qo'ymoq kimlar o'zaro? kim? kim bilan? oila qurmoq kimlar? o'zaro.**

Lola Xoshimova yaqinda o'z ham-kursi Sotiboldiyev bilan turmush qurgan va hali kelinchaklik kiyimida yuribdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ikki yosh umr bo'yi birga yashash, baxt-li turmush qurishga ahdlashib, bir yostiqa bosh qo'ydilar. A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

tursa(...) – o'poq demoq, yursa (...) – so'poq demoq: o'tirsa (...) – o'poq, tursa(...) – so'poq demoq

TURMUSHGA CHIQQOQ *kim?* [kimga?] oila qurmoq (*ayollarga nis-batan*). Varianti: **chiqqoq I**. Si-nonimi: **erga tegmoq kim? [kim-ga?]; **erga chiqqoq kim? [kimga?] Antonimi: **erdan chiqqoq kim?******

Shu kezlarda ipak zavodidagi bir ishchi yigit bilan so'z biriktirib, unga turmushga chiqqan. G'.G'ulom. Soya-lar. «Sovchi yuborgan ekan, qarasam, tuzukkina odamga o'xshab ko'rindi, chiqdim-qo'ydim», – deb kuldi Gul-bahor. S.Zunnunova. Gulbahor.

TURTKIYEMOQ *kim? kimdan?* yengil-yelpi tanbeh-koyish eshitmoq. Varianti: **turtkisini yeb ketavermoq.**

Xullasi, Rahim har qadamda Ah-maddan turtki yeb tursa ham, tishini tishiga qo'yib, o'z vazifasini qoyilla-tish harakatida edi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. U ko'rinishda sodda, yu-voshroq bo'lgani bilan, uncha-mun-cha odamning turtkisini yeb ketave-radigan bo'sh-bayovlardan emas. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

turtkisini yeb ketavermoq: turt-ki yemoq

TURSH YUZLI [turš jüzli] tar. *kim?* badqovoq, qovog'i soliq.

...bir yigitga ani ahdi nikoh qildi-larkim, tursh yuzli, achi so'zli, yomon xulqli edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-tur-kiy. ...tursh yuzli, achi so'zli, chirkin xulqli, yomon tirlikli, ko'ngullar ozor qilinchi, och ko'zli kim ersa edi. S.Sa-royi. Gulistoni bit-turkiy.

TUS OLMOQ *nima?* ma'lum bir ko'rinish kasb etmoq.

Saida bunga juda suyundi: demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzo-kara qizg'in tus oladi ... A.Qahhor.

Sinchalak. ... *kanikul juda sekin o'tayotganday bo'lar, kutish, sog'inish hislari tobora iztirobli tus olib borardi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

TUSINGNI YEL YEMASIN [*kimning?*] ayollarning teskari qarg'ishlaridan.

Tusingni yel yemasin, o'g'lim, hoy, sen qanaqa bola chiqding? Nega axir bu yoshgina go'dakni onasidan ajratib, tentiratib yuribsan? G'.G'ulom. Yodgor.

tutgan yerini kesmoq: tutgan joyidan kesmoq

TUTANTIRIQ HAM BO'LMAYDI juda oz, kifoya qilmaydi, urvoq ham bo'lmaydi.

TUTDAY (TUTDEK) TO'KILMOQ 1 *nima?* biror ta'sir natijasida nurash holatiga yetmoq.

Yo'lchi uning orqasidan serdaxt, lekin uy-joyi tutday to'kilib turgan katta hovliga kirdi. Oybek. Qutlug' qon. *Xudoga shukur, men sizdaqa tishim tutday to'kilib, temir kiydirib olganimcha yo'q hali.* H.Nazir. Ko'rmana.

2 *kim?* o'qqa uchrab, ko'p miqdorda o'lmoq, qirilmoq.

Qara, qara, ularning [nemislarining] tutdek to'kilishini qara! I.Rahim. Chin muhabbat.

TUTGAN JOY(D)DAN KESMOQ *kim?* [*o'zining*] aytganida qattiq turib o'z hukmini o'tkazmoq. Varianti: **tutgan yerini kesmoq; tutganini kesmoq.**

Nizomjon onasining fe'lini yaxshi biladi. U tutgan joyidan kesadigan xotinlardan. S.Ahmad. Ufq. Yangi yil oqshomida. *Quadrat o'zi behuda xar-*

xashani yoqtirmaydigan, tutganini kesadigan bola! H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

tutganini kesmoq: tutgan joyidan kesmoq

TUTQICH BERMASLIK *nima?* (abstrakt) *kimga?* tasavvurida aniq-ravshan gavdalanmaslik.

Muhammadjon. *Boshimda bir kuy bir haftadan beri aylanar edi-yu, tutqich bermay kelar edi. She'ringizni eshitib yaqin keldi. Pardasini topdim.* S. Abdulla. Muqimiy.

TUTUN(I) OSMONGA CHIQDI *kimning?* ruhan ortiq darajada bo'g'ilib, shovqin qilmoq.

Varianti: **tutun(i) falakka o'rladi; dud(i) osmonga chiqdi; tutun(i) chiqdi.** Sinonimi: **fig'on(i) falakka chiqdi** *kimning?*

Chorbozordagi bog'imni pullashning uchini chiqarganimdayoq vazohati bir xil bo'lib, tutuni osmonga chiqvdi. A.Muxtor. Opa-singillar. «*Bolam bechorani ko'zimning ochiqligida uyli-joyli qilib qo'yay dedim*», – *devdi, Hayotxonning dudi osmonga chiqdi-yu, yugurib kelib katta buvisining yoqasiga chang soldi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

tutun(i) falakka o'rladi: tutun(i) osmonga chiqdi

tutun(i) chiqdi: tutun(i) osmonga chiqdi

TUTUN QAYTARMOQ *kim?* [*kimga?*] norozilik bilan, ta'bga tegadigan qilib gapirmoq; oddiy gapga ham qo'rslik bilan javob qaytarmoq.

«*Jo'ram, o'qni qachon beradi?*», – *deb so'radi.* Devorga suyanib turgan jangchi yo'lda – *poyezdda to'nglik qilgan yigit edi.* «*Ha, zog'cha*

otarmidingiz?», – deb yana to‘nglik gildi. Ahmadjon tovushidan bildiki, o‘sha yigit ekan. Bu safar g‘ashi keldi: «Nima bu, hadeb tutun qaytardi, arpasini birov xom o‘ribdimi?!» A.Qahhor. Oltin yulduz. Menga qarshi gapirish instinkt bo‘lib qolibdi sizga. Tutun qaytarganingiz-qaytargan. A.Muxtor. Tug‘ilish.

TUXUM BOSMOQ kim? uydan eshikka chiqmaslik, hech qanday foydali ish bilan shug‘ullanmaslik.

Shu hangama ustiga Quدرات kelib goldi-yu, Rahimning joniga ora kirdi. Agar Quدرات: «To‘xtalaring, avval borib, tekshiraylik-chi, gapi to‘g‘irimi-noto‘g‘irimi. Undan keyin nima qilsak qilaveramiz!», – deb o‘rtaga tushmaganda, ehtimolki, Rahim chetga surilar, balki yana chakagini bog‘lab, uyda tuxum bosib qolardi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

tuxum(i)ni quritmoq: urug‘(i)ni quritmoq

TUXUM(I) OG‘Z(I)GA TIQLIB QOLDI kimning? qiyin-qistovli holatga tushmoq.

Uchinchi ataka soat 4 dan 32 minut o‘tganda boshlandi. «Frik bugun hamma rejasini buzib yubordi...» – «Nemisning tuxumi og‘ziga tiqilib goldi», – dedi Normat. I.Rahim. Chin muhabbat.

TUYA GO‘SHTI YEGAN biror ish, narsaning bitishi, amalga oshishi juda sudralishi, cho‘zilishini qayd etuvchi ibora.

Tuya go‘shiti yegan teatr. «Mush-tum».

TUYA HAMMOMNI HAVAS QILGANDAY o‘ziga xos va mos

bo‘lmaydigan, yarashmaydigan urinish, intilish, orzu qilish holatiga nisbatan qo‘llanadigan ibora.

Tuya hammomni havas qilganday, senga kim qo‘yibdi bunday ishlar-ni. ... o‘zingga buyursin. Men tuya emasmanki, hammomni orzu qilsam. T.Malik. Ajab dunyo.

TUYA KO‘RDINGMI – YO‘Q o‘zini ko‘rmaganga, bilmaganga chiqarmoq.

Iloji bo‘lsa, yamatganningizni ayt-mang, koyib-netib yurmasin tag‘in. Tuya ko‘rdingmi – yo‘q, vassalom. Oybek. Qutlug‘ qon. Shuning bilan «Yopiqli qozon yopiqli», meni chiqarib yuborishdi, chiqishimda «Tuya ko‘rdingmi – yo‘q qilib, menga qasam ham ichirdilar. G‘.G‘ulom. Shum bola. Tuya bo‘lsa ham, dumini ko‘rsat-may yutib yuborib, tuya ko‘rdingmi – yo‘q, deb bezrayib turaveradiganlar chiqib goldi. «Mushtum».

tuya ko‘rdingmi – yo‘q, biya ko‘rdingmi – yo‘q: tuya ko‘rdingmi –yo‘q

TUYA CHO‘KSA, JOY TOPAR o‘tiruvchilar tig‘iz, zich bo‘lgan holatlarda yana boshqa kimsa o‘tirish-ni xohlasa, joy topilishini, sig‘ishini qayd etuvchi ibora.

Eshikdan birin-ketin odamlar kirar... so‘ngra «tuya cho‘ksa, joy topar» qilib, u yer-bu yerga siqilib o‘tirardilar. P.Tursun. O‘qituvchi.

TUYANI TUZLAMASDAN YUT-MOQ kim? har qanday ishni udda qila olmoq, uddaburonlik bilan ish qilmoq.

«Mening bir amakim bor. Yoshi yet-mish oltida shekilli» dedi Bektimir jonlanib, e‘tiroz bilan... «Ha, u chol tu-

yani tuzlamasdan yutadiganlardan ...», – dedi Asqar polvon. Oybek. Quyosh qoraymas.

TUYANIYUTIB, DUMINIKO'R-SATMAYDI har qanday katta (ko'p) narsani ham o'zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslikni bildiruvchi ibora.

Hozir u tomog'ining qurtini o'ldirish uchun tuya bo'lsa ham, dumini ko'rsatmay yutib yuborishdan toy-maydi. «Mushtum». Tuyani yut, lekin dumi og'zingdan ko'rinib turmasin. Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.

TUYANING DUMI YERGA YETGANDA hech qachon.

Hasan so'fi tog'ning ikki tomonini sinchiklab qaradi-da, kallasini chayqab: «Suv chiqadi-yu, lekigin boyga yarasha chiqadi. Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganda tegadi», – dedi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

TUYANING KALLASIDAY hajmi odatdagidan ancha katta; yirik.

Qovunga qarang. Har biri tuyaning kallasiday. Oybek. Qutlug' qon.

TUYANING USTIDA [HAM] IT QOPADI kimni? ishi biror to'siqqa uchrab, doim yurishmaydi.

Ammo mudom uni tuyaning ustida it qopar edi: ukasidan yashirincha do'ppi tikkani ipak oldirgan edi, nima falokat bo'lib, uning ustiga binafsha siyoh to'kib yubordi. A.Qahhor. Sarob.

tuya qilmoq: non(i)ni tuya qilmoq

TUYOG'IDAN O'T CHAQNAMOQ (ot, toyga nisbatan) tez va yengil chopadigan; uchqur.

Uch yoshga kirganida, [Qora Jayron] bulutga sakraydigan, tuyog'idan

o't chaqnaydigan ot bo'ldi. S.Ahmad. Jimjitlik.

TUYOG'(I)NI SHIQILLATMOQ kim? [o'zining] jo'nab qolmoq. Sinonimi: **arava(si)ni tortmoq 1 kim?** [o'zining].

«Xo'p anoyisini topibsan-da! Tuyog'ingni shiqillati qol!», – dedi teskari qarab Ahmad zarda bilan. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. «Ingliz jallodlarining hukmronligiga qattiq zarba berdik, – dedi Ahmad Xusayn ishonch bilan, – janoblar endi bu yerdan tuyog'ini shiqillatishga majbur». Oybek. Nur qidirib.

TUZ BERMOQ kim? kimga? xonadonida ovqat bilan ta'minlamoq.

Men sizga uy berdim, joy berdim, vaqtida tuz berdim. A. Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Nazirqul tuz bergan eshonga astoydil xizmat qildi. S. Ahmad. Hukm.

TUZ-NAMAK BO'LMOQ ma'lum muddat hamtovoq bo'lmoq, topganini kimsa bilan o'rtada baham ko'rmoq.

Cho'lni yashnatayotgan odamlar yonida bo'lish ishtiyoqiuni \Yayrani\.. cho'lquvar bilan tuz-namak bo'lib yashashga da'vat etdi. S.Akbary. U hayotni sevadi.

TUZ TOTMASLIK kim? butunlay ovqat yemaslik.

Sevinganimdan kuni bo'yi tuz totmabman. Kechga tomon toliqqanimni bildim. R. Fayziy. Cho'lga bahor keladi. Yigitlar dastavval Polvondan picha ovqat topib berishni iltimos qiladilar; negaki ikki kundan beri tuz totishmagan ekan. O. Yoqubov. Ota izidan.

tuz(i)ni yeb, tuzlug'(i)ga tupurmoq: tuz(i)ni ichib, tuzlug'(i)ga tuflamoq

tuz(i)ni yemoq: tuz(i)ni ichmoq

TUZ(I)NI ICHIB, TUZLUG'(I)-GA TUFLAMOQ kim? kimning? nontepkilik qilmoq, yaxshilikka yomonlik qaytarmoq. Varianti: **tuz(i)ni ichib, tuzlug'(i)ni bulg'atmoq; tuz(i)ni yeb, tuzlug'(i)ga tupurmoq; tuzlug'(i)ga tuflamoq.**

Uning qarshisida bir vaqtlar tuzini yeb, tuzlug'iga tupurib ketgan, chinqirtirib turib qo'ldan «baxt kushilni tortib olgan, keyingi hayotini zaharlagan, tortgan barcha azob-uqubatlari-ning sababchisi turar edi. S. Anorboyev. Oqsoy. Ularning ko'zlarida «Hiyatga ming yaxshilik qil, tuzlug'ingga tuflab ketadi» degan norozilik bor edi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.

tuz(i)ni ichib, tuzlug'(i)ni bulg'atmoq: tuz(i)ni ichib, tuzlug'(i)ga tuflamok

TUZ(I)NI ICHMOQ kim? kimning? xonadon ovqatidan bahramand bo'lmoq. Varianti: **tuz ichmoq** kim? **tuz(i)ni yemoq.**

Agar shuncha yil tuz ichgan qishlog'ingizning suvi endi sizga harom bo'lsa, soting-u, ko'nglingiz tortgan joydan o'g'lingizga atab boshqa yer olib qo'ying. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Siz uning tuzini qanday yegan edingizki, u sizga: «... ko'rnamaklik qilma!» deydi. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

TUZ(I)NI OQLAMOQ kim? kimning? sarf-mehnat zoye ketmaganini o'z faoliyati bilan isbot qilmoq.

Siz davlatning tuzini oqlash uchun yo'llanma olgan joyingizga boring. S.Anorboyev. Yo'llanma bilan.

TUZINI TOTMOQ kim? qayerining? shart-sharoiti bilan bevosita, amalda sinashta bo'lmoq.

Ular bu yerni Farg'onaning tuprog'iga tenglashtirishayapti, avval tuzini totib ko'rishsin-chi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

tuz ichmoq: tuz(i)ni ichmoq

tuzlug'(i)ga tuflamoq: tuz(i)ni ichib, tuzlug'(i)ga tuflamoq

tuzoqqa ilinmoq: tuzog'(i)ga ilinmoq

tuzoqqa ilintirmoq: tuzog'(i)ga ilinmoq


tuzoqqa tushmoq: tuzog'(i)ga ilinmoq

TUZOG'INA TUTULMOQ [tuzayina tutul=] tar. kim? kimni? sevib qolmoq.

Men ul qushman – nechalardan qutulg'an, Sening ishqing tuzog'ina tutulg'an. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

TUZOG'(I)GA ILINMOQ kim? kimning? istamagan holda kimningdir ra'y-ixtiyoriga bo'ysunmoq, erkidan mahrum bo'lmoq. Varianti: **tuzoqqa ilinmoq** kim? **tuzoqqa ilintirmoq** kim? kimni? **dom(i)ga ilinmoq; tuzog'(i)ga tushmoq; tuzoqqa tushmoq** kim?

Bu yerda Allonbiydan qutulib ediku yerga borib, falonchi boylarning tuzog'iga ilinmasak deyman. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. Ko'p choyxonalar bularga pakka, Mudrar, o'tirishda yakka-yakka. Ko'krakni berib



hamisha zaxga, To'ychi ilinarmi deb tuzoqqa. S.Abdulla. «Otarchilar» haqida. [Muridlar] laqma, bo'shang va sodda odamlarni topib, tuzoqqa ilintirishar ekan. N.Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi. «Ochilaman deganlar ochilaveradi-da, sizdan qo'rqadimi?» – «Ana, bir zumda kasofatlarning domiga ilinding. Chiq uyga! Chiq deyman senga!» S. Zunnunova. Gulxan.

tuzog'(i)ga tushmoq: tuzog'(i)ga ilinmoq

tuz tatimaslik: tuz totmaslik

tuz totimaslik: tuz totmaslik

TUSH KO'RMOQ kim? uyqusida turli obrazlar namoyon bo'lmoq. Varianti: **ko'rgan tush(i)** kimning?

«Ajoyib tush ko'rdim, qizlar!», – dedi Sadbar ko'rpaga o'ralib o'tirib. A.Muxtor. Tug'ilish. *Magazin mudiri Hoshimxo'ja tush ko'rsa, tushida o'lib qolgan emish.* S.Ahmad. Poraxo'rning o'limi. ...samovarchini chaqirib, ko'rgan tushimni yarim-yorti aytib berib, ta'bir so'radim. G'.G'ulom. Tirilgan murda.

TUSH(I)DA KO'RMOQ kim? nimani? hayotida boshqa voqe bo'lmaslik, takrorlanmaslik.

Abdishukur tushida ham ko'rman poytaxt teatrlarini maqtamoqchi bo'lib, endi so'z boshlagan edi, Yormat dasturxon keltirib, norin tayyor bo'lganini bildirdi. Oybek. Qutlug' qon.

TUSH(I)DA HAM KO'RMASLIK: yetti uxlab, tush(i)da ham ko'rmaslik.

TUSH(I)GA KIRMOQ kim? yoki nima? kimning? uyqusida namoyon bo'lmoq.

Yangi yil kechasi tushimga kirdingiz: kimningdir ayvonida birov bilan gaplashib turibsiz. A.Qahhor. Xotinarlar. *Ayamdan bir xabar olmasam bo'lmaydi. Hadeb tushimga kirayapti, xavotir olayapman.* S.Zunnunova. Gulxan. *Shu kuni kechgacha uning ko'z oldidan shaftoli ketmadi, hatto kechasi tushiga kiribdi.* A.Qahhor. Ko'k konvert.

tush(i)ga [ham] kirmaslik: yetti uxlab, tush(i)ga kirmaslik

TUSH(I)NI AYTAYAP(TI)MI?! kim? kimga? ega emasligini, yo'qligini ta'kidlamog.

Sizga tushimni aytayapmanmi, pochcha?! Menda pul nima qiladi?! S.Abdulla. Tarakana.

TUSH(I)NI SUVGA AYT(SIN) kim? behuda xomtama bo'lmasin, o'ylaganidek bo'ladi deb umid qilmasin (I shaxsda ishlatilmaydi).

«Rostmi, bizdan ketasizmi?..» – «Nuri opangiz tushini suvga aytsin, zanjir solib sudrasalar ham, boshqa yoqqa bormayman». Oybek. Qutlug' qon.

TUSHINGIZNI SUVGA AYTING bekor aytibsiz, bo'lmagan gap, aslo unday emas.

Es-hushini yo'qotib, garanglangan dehqon dastlab indamadi. Yosh baqqol vaysayvergandan so'ng, bir uh tortib, sekingina dedi: – O'n to'rt so'm berasiz.. – E? O'n to'rt so'm? Tushingizni suvga ayting. Oybek. Tanlangan asarlar.

TO'N BICHMOQ asl holat asosida yoki uni ko'rmay-bilmay xulosa qilmoq, ish qilmoq.

Kadrlarning savlatiga, so'zamolligiga qarab emas, ularning ishiga,

iste'dodiga qarab to'n bichinglar. «Mushtum». Kabinetdan turib to'n bichishlariga qaraganda, Shovot, Qo'sh-ko'pir, Xonqa tumanlaridagi kitob savdosi yaxshi. «Mushtum».

TO'N KIYGIZMOQ kim? nimga? qo'shib-chatib, pardoqlab, o'zga-cha tus-mazmun bermoq. Varianti: **to'n kiydirmoq**.

Auditoriyada bomba nima qiladi? Gapga ham to'n kiygizasiz-da, Shoazim. P. Qodirov. Uch ildiz. Jo'ra Zamoni o'ziga ashaddiy dushman deb biladi. Shuning uchun hamma shubhalariga to'n kiydirib, go'yo qo'riqchini o'zi yasab, yana uning rostakam «odam» ekanligiga ishon-gandek bo'ladi. N.Nazarov. Zamon.

TO'N(I)NI TESKARI KIY[IB OL]MOQ kim? [o'zining] o'chakish-gan holda qaysarlik qilmoq. Vari-an-ti: **teri to'n(i)ni ters kiyib olmoq** (oz ishlatiladi).

Bir majlisda Bekniyoz uni: «Zang-lab qolayapsiz, Boqijon aka», – deb tanqid qildi. Shu bo'ldi-yu, Boqijon aka to'nini teskari kiyib oldi. S.Ab-duqahhor. Hayotning boshlanishi. Shu voqeadan yillar o'tdi. Ilgari teri to'ni-ni ters kiyib olgan Zulayho xola bilan Shokir aka asta-asta bitta-yu bitta ar-zanda qizlarini sog'ina boshladilar. G'.G'ulom. Qizaloq. Bu sovuq gap tufayli tuyqusdan to'nini teskari kiydi. Sh.Bo'tayev. Qarz.

to'n(i)ni o'zgartirmoq: to'nini tes-kari kiyimoq

to'n kiydirmoq: to'n kiygizmoq

TO'NNI TESKARI KIYMOQ kim? gap-so'zda, xatti-harakatda o'zi-ni tarafdor, xayrixoh qilib ko'rsatmoq.

Varianti: **to'n(i)ni o'zgartirmoq** kim? [o'zining].

Mahkam ota: «Ha, battol, to'ning-ni o'zgartiribsan, diling aslo o'zgar-maydi..», – deb ko'nglidan o'tkazdi. S.Ahmad. So'nggi nusxa.

TO'NG'IZ QO'PMOQ kim? ru-han kuyib, o'lar holatga yetmoq.

Eshon tuni bilan uxlamay Qur'on o'qiydi. Nega o'qiydi? To'raxo'ja-boyning alamidan kuyib to'ng'iz qo'p-ganigami? Yo'q. Joni notinch, uyqu-si kelmaganidan o'qiydi. P.Tursun. O'qituvchi.

TO'PGA TUTMOQ kim? nimani? zambarakdan shiddatli o'q otmoq.

Tanklarimiz dushmanning oldingi okoplaridan o'tib, tankka qarshi ota-digan batareyani to'pga tuta boshla-di. A.Qahhor. Oltin yulduz.

TO'PIG'(I)NI YALAMOQ kim? kimning? xokisorlik bilan laganbar-dorlik qilmoq.

Qo'rqma, jinni! Qachongacha Ma-damingovning to'pig'ini yalaysan. Uning kuni bitdi. P.Tursun. O'qituv-chi.

to'polon ko'tarmoq: janjal ko'tar-moq

to'ppi(si)ni yarimta qilib: do'p-pi(si)ni yarimta qilib

TO'Q KO'Z [toq köz] tar. kim? nafsining to'qligi.

Ey, to'q ko'z unga arpa o'tmagi ko'runmas xush, Lekin menim ollimda izzatli mukarramdur. S.Saroyi. Gulis-toni bit-turkiy.

TO'QAYGA (yoki **O'RMONGA**) **O'T KETSA, HO'L-U QURUQ BAROBAR YONADI** ko'pchilikka tegishli bir ish, hodisa hech kim-

ni chetlab o'tmaydi, degan ma'noda qo'llanuvchi ibora.

To'qayga o't ketsa, ho'l-u quruq barobar yonganiday, dimog'dor, odamlardan jirkanib, o'zini ulug' tutadigan bek anchadan buyon kishshar g'azabini qo'zg'ab, toqatini toq qilib kelardi. Mirmuhsin. Me'mor.

TO'QIM TABIAT kim? didi yo'q, nafosatni fahmlamaydigan.

Mening ham didim chakki emas deb yurar edim, ammo bu kishining oldilarida to'qim tabiat ekanman deb qo'ydim. Didni ko'ring-a, trafaretning rangiga mos abajur! A.Qahhor. Qanotsiz chittak. Kecha haligi Xoldor degan to'qim tabiat bola sevgi haqida bemaza gap gapirdi... hech xayolimdandan ketmaydi. A.Muxtor. Tug'ilish.

TO'QQIZ PULDEK QILIB TUSHUNTIRIB (yoki TUGIB) BERMOMOQ juda oddiy qilib tushuntirib bermoq.

Hushyor savdogar uchun elchining bir imosi kifoya qildi, unga gapni to'qqiz puldek qilib tugib berishning hojati yo'q edi. M. Osim. Elchilar.

to'rt gapning birida: ikki gapning birida

TO'RT ISHKAL(I) BUT kimning? hamma zarur narsasi bor, sira yetishmovchiligi yo'q.

Bu odamlar to'rt ishkali but, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydigan, bahuzur yonboshlab yotib, farat xursandchilik bilan mashg'ul bo'lgan kishilarday bamaylixotir, huzur qilib kulishar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

TO'RT KO'Z BILAN intizorlik bilan.

Endi dehqon o'z otasining shahardan qaytishini to'rt ko'z bilan kutgan bolalari oldiga qanday boradi? Oybek. Qutlug' qon. [Nazirjon] Moskvada o'qirdi. Keyin askarlikka ketdi. Naq qarasangiz, urushlarda yurdi, urush to'xtagandan keyin keladi-keladi ovozasi bo'lib, opaginam to'rt ko'z bilan kutib o'ltirgan edi, birdan kelib qoldi. Oydin. O'zidan ko'rsin.

to'rt ko'z bo'lib: ko'z(i) to'rt bo'ldi

TO'RT KO'Z TUGALLIK hamma (oila a'zolari) sog'-salomat.

«To'rt ko'z tugallikmi? – so'radi chol. – Nima qilib yuribsanlar jala-da?», – deb o'shqirdi qizlariga. M. Muhamedov. Kichik garnizon.

TO'RT OG'IZ oz-moz, biroz, oz («gap» yoki «gapirmoq»). Varianti: **uch-to'rt og'iz.**

Shu zamon farog'at qiladigan zamonmi? Kel, to'rt og'iz gaplashaylik. S.Ayniy. Qullar. Keyin ko'z tirikligida meni uzatmoqchi bo'lganini uch-to'rt og'iz so'z bilan bildirdi. Oybek. Qutlug' qon.

TO'RT TARAF(I) QIBLA kimning? qayoqqa xohlasang[iz], ketaver[ing]. Varianti: **to'rt tomon(i) qibla.** Sinonimi: **katta ko'cha.**

Eshikka chiqing, to'rt tarafingiz qibla. Balki o'sha boyvuchcha xotinga yo'liqib qolarsiz. G'.G'ulom. Tirilgan murda. Yulib qochish uchun kelganlar bu gapdan cho'chigan bo'lishi tabiiy. Bizga ularning keragi yo'q, to'rt tomoni qibla. A.Muxtor. Tug'ilish.

to'rt tomon(i) qibla: to'rt taraf(i) qibla

to'rt ellik: ikki ellik

TO'RVA QOQDI oxirgi farzand, kenjatoy.

Haydar Abduraxmon otaning kenja o'g'li... to'rva qoqdi bolasi edi. M.Muhammedov. Qahramon izidan. *Ayniqsa, Mavlon akaning to'rva qoqdisi... Nishonboy serxarxasha.* H.G'ulom. Mash'al.

TO'YDIRGANNING QORNIGA TEPMOQ yaxshilik, himmat qilgan, qo'llab-quvvatlaganga yomonlik bilan javob bermoq ma'nosidagi ibora.

Endi to'ydirganning qorniga tepmada. A.Muhiddin. Chap cho'ntak.

TO'YDAN ILGARI NOG'ORA QOQMOQ kim? ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirib yurmoq. Varianti: **to'ydan oldin nog'ora chalmoq.** Sinonimi: **podadan oldin chang chiqarmoq** kim?

Kampirga aytib qo'ying, to'ydan ilgari nog'ora qoqib yurmasin... O'qishni tamom qilganimdan keyin bir gap bo'lar. G'.G'ulom. Yodgor. *To'ydan oldin nog'ora chalma, xotin, hali o'g'ling uylanadigan bo'lgani yo'q. Avval o'qishini bitirsin, ishi tayin bo'lsin.* P.Qodirov. Uch ildiz.

to'ydan oldin nog'ora chalmoq: to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq

to'kilgan obro'y(i): obro'y(i)ni to'kmoq

to'kilib turgan yurag(i): yurag(i) to'kilib turibdi

TO'ZIM BILMAS (yoki **BILMAYDI**) to'zib tarqamas, to'zib, yo'q bo'lib ketmaydi.

Sen-chi mangu chiqaverasan, To'zim bilmas sendagi bardosh. Sh.Rahmon. Yurak qirralari. *Sizning bu yarat-*

gan mo'jiza san'at Yuz yil to'zim bilmay turmoqligi rost. A. Oripov. Yillar armoni.

TO'G'RI KELGAN daf'atan nima yoki kim uchrasa shu. Sinonimi: **duch kelgan.**

Bek hech qachon hech kimning fikriga qo'shilmaydi, hamisha «o'z fikrida qoladi». Har bir notiqdan keyin albatta so'z so'rab qo'lini ko'taradi, mabodo so'z berilsa, minbarga chiqadi-da, to'g'ri kelgan ayolga qarab kuladi. A. Qahhor. Bek.

TO'G'RI KELMOQ 1 nima? yoki kim? nimaga? yoki kimga? munofiq bo'lmoq, mos bo'lmoq, yarashmoq. Sinonimi: **mos kelmoq** nima? nimaga?

Hoy-hoy, sabr qil, uka, suvga tushish senga to'g'ri kelmaydi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Zamira Muhammadjonning idealiga hamma jihatdan to'g'ri kelardi.* P.Qodirov. Uch ildiz. *Sen bizga to'g'ri kelmas ekan-san, uyatchan, qo'rqoq.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 nima? nimaga? bir vaqtda bo'lmoq.

«Yana bir haftadan keyin Salim akam gap berarmishlar». – «Bahona qilib boraverar ekanman. Ishqilib, Abdulla pochchamning ziyofatiga to'g'ri kelmayin». Oybek. Qutlug' qon.

3 nima? kimga? yoki nimaga? qanchadan? taqsimlaganda tegmoq.

Agar boshqa zvenolarga ham shunchadan yer to'g'ri kelsa, eplab bo'lmaydi, Komiljon. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

4 nima? yoki kim? kimga? yo'liqmoq, uchramoq.

Omon bilan mening qo'limga musulmon qoshiq to'g'ri kelib qolibdi.

G'.G'ulom. Shum bola. *Otasi, qandayin nozanin juvon to'g'ri kelsa ham, ko'z qirini tashlamasdi.* Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

5 nima? yoki nima qilish? qulay bo'lmoq. Sinonimi: **o'ng kelmoq I nima?**

Demak jazo xayfi ketsa-yu, sharoit to'g'ri kelib qolsa, yana qo'rqituv yo'liga o'tishi mumkin. P.Qodirov. Uch ildiz. *Biz kulgidan o'zimizni tiyolmadik, ammo baralla kulish to'g'ri kelmagani uchun birimiz mo'ylovimizni silab, birimiz yo'talib deganday, kulgimizni yashirdik.* A.Qahhor. Jonfig'on.

6 nima qilishga? lozim bo'lmoq, zarur bo'lmoq (*shaxssiz*).

Bog'chada radioda borligi uchun bitta plastinkanigina olishga to'g'ri keldi. N.Nazarov. Zamon. *Ikkita krujok tashkil qilishga to'g'ri kelayotibdi.* A.Qahhor. Yangi yer.

TO'G'RI KO'NGIL kim? quvlik-shumlikni bilmaydigan, nomaqbul ishni qilmaydigan.

Salima o'tgan yoz bir necha vart xuddi akasiday birga yurgan bu kuchli, sodda, to'g'riko'ngil elatining shunday musibatli kunlarda qidirib keltirib kelgani uchun xursand bo'ldi. Oybek. Quyosh qoraymas.

TO'G'RI SO'Z kim? har qanday sharoitda o'z fikrini ochiq va odil gapiradigan. Varianti: **to'g'ri so'zli; to'g'ri so'zlig(i) kimning?**

Hamdam aka – oriyatli, to'g'ri so'z, cho'rtkesar odam. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *«Ochig'ini aytaymi, Marhamat opa? Ahmadning to'g'ri so'zligi qistab ketdi. – Qo'ziboy, vaqti bo'lsayam, rasm chizgisi kelmayapti.»* H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

to'g'ri so'zli: to'g'ri so'z

to'g'ri so'zlig(i): to'g'ri so'z

TO'G'RI CHIQMOQ nima? haqiqat ekani, haqiqatga mos kelishi ma'lum bo'lmoq.

«Xushxabar bo'lganda qandoq! – dedi prorektor quvonch bilan.– Obid Yo'ldoshevichning gipotezasi to'g'ri chiqdi.» P.Qodirov. Uch ildiz.

TO'NG BO'YIN kim? nima? bo'yin bermaydigan, bo'yin egmaydigan, o'jar.

Bo'yin egib har to'ng bo'yin daryolar, Biz istagan yo'lga burildi, yurdi. Habibiy. *Chunki bu yerdagi to'ng bo'yinlar.. kundalik ish, kasb-korlari bo'lgan paxtachilikni tamoman yodlaridan chiqarganlar.* «Tanish basharalar».

U

U DESA(...), BU DEMOQ, BU DESA(...), U DEMOQ kim? soʻz talashmoq, janjallashmoq. Sinonimi: **adi-badi aytishmoq** kimlar oʻzaro.

«Doʻxtirning yordamisiz kela oladigan boʻlsa, sizning maslahatingiz-sizoq olib kelar edik», – dedim. U desa, bu dedim, bu desa, u dedim. Janjalimizning ustiga kasalxonadan bu opam chiqib qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

U DUNYO-BU DUNYO 1 hayotligida ham, oʻlimidan keyin ham.

Zerikkan boʻlsangiz, u dunyo-bu dunyo yuzimni qora qilmasdan javobimni bera qoling. A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

2 hech qachon va aslo. Varianti: **udunyo-yu bu dunyo**. Sinonimi: **ikki dunyoda ham**.

Yaxshiliklaringni ikki dunyoda unutmayman sira! Azalaringga emas, toʻylaringga yordam qilay!– Shoqosim oʻz chaylasiga yugurdi. Oybek. Qutlugʻ qon.

u dunyo-yu bu dunyo: u dunyo-bu dunyo

U QILIB, BU QILIB turli tadbirlarni ishga solib.

Shundan keyin u qilib, bu qilib togʻamning yordami bilan trikotaj

fabrikasiga buxgalter boʻlib ishga kirib oldim. J.Abdullaxonov. Yurak kuylari.

u qulogʻ(i)dan kirib, bu qulogʻ(i)dan chiqib ketmoq: bu qulogʻ(i)dan kirib, bu qulogʻ(i)dan chiqib ketmoq

U YOGʻ(I)DA BOʻLMAGAN-DAN KEYIN kimning? aql-idrok bilan ish tutish xislati yoʻq boʻlgach.

Oʻzining u yogʻida boʻlmagandan keyin, yuz gapiring, ming gapiring, bir pul ekan. S.Anorboyev. Oqsoy.


u yogʻini surishtirsang[iz]: u yogʻini soʻrasang[iz]

U YOGʻINI SOʻRASANG[IZ] [kim?] ahvol qanday ekanini bilmoqchi boʻlsang[iz]. Varianti: **u yogʻini surishtirsang[iz]**.

«U yogʻini soʻrasangiz, – kulib javob berdi Gulbahor, – plastinkalarning oʻzi ham bizning Toshkentda ishlangan». S.Abduqahhor. Tinchlik qoʻshigʻi. U yogʻini surishtirsangiz, qishloqda hammaning roʻzgʻori tang. Oybek. Qutlugʻ qon.

U YOQDA QOLIB eʼtiborsiz qoldirilib; zaruri, muhimi unutilib.

Muzokaraga chiqqanlar, asosiy masala u yoqda qolib ketib, koʻproq



Zulfiqorov ishi to'g'risida gapirishdi. A.Qahhor. Sinchalak. *Ha, ordona, mening aytganlarim u yoqda qolib, o'zingizning dardingizda yurgan ekan-siz-da!* H.Nazir. Ko'rmana.

U YOQDA TURSIN nima qilish? nima? yoki kim? zidlash ma'nosini ifodalab, bog'lovchi vazifasida keladi, Varianti: **bir yoqda tursin** (juda oz ishlatiladi)-... Sinonimi: **nari tursin** nima?

Kechki institut yoki texnikum u yoqda tursin, hunar maktabi ham yo'q. I.Rahim. Olovkor. *Xo'jabekov u yoqda tursin, Boboqul otadek kexsa cho'ponlar ham: «Bu dahmazangni qo'y»,— deb yuziga aytishgan.* S.Anorboyev. Oqsoy.

UDDASIDAN CHIQQOQ kim? nimaning? uddalay olmoq, eplay olmoq.

Unsin, boshqa yo'l yo'q. Choldan so'rang. U har baloni biladi, har ishning uddasidan chiqadi. Oybek. *Qutlug' qon. Koshki Elhibek u bilan bir yaxshilikcha gaplasha olsa! Negadir sira shuning uddasidan chiqolmayapti.* A.Muxtor. Tug'ilish.

uddasidan chiqmoq: uddasidan chiqmoq

UH TORTMOQ kim? ichki siqilishlarini ifodalovchi tovush chiqarmoq.

Chol uzun, dag'al barmoqlari bilan mo'ylovini silab, negadir uh tortdi. O.Yoqubov. *Qahramon izlab. Sherbek chuqur uh tortdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

ULUS TUTMOQ [ulustut=] tar. kim? boshqarmoq, hukmronlik qilmoq.

Ulus tutting qamuq aqling kuchindin, Cherikta qon tomar qamching uchindin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

UMID BOG'LAMOQ kim? 1 nima qilishiga? voqe bo'lar deb o'y-lamoq.

Qalandarov yetib kelib, ahvolini ko'rsa, darrov yuvosh samanni berib, o'zi toyni minishiga umid bog'ladi. A.Qahhor. Sinchalak.

2 *nimaga? kimga?* o'y-istaklarini ro'yobga chiqarar deb o'ylamoq.

Eshon uzoq vaqt hayotda yo'lini topolmay yuribdi; nihoyat shunday bo'libdiki, butun umidini oladigan xotiniga bog'labdi: biron uylik-joylik xotin bo'lsa, ro'zg'ori, bisoti bo'lsa.. A.Qahhor. Sinchalak.

umid rishtalari uzildi: umid(i)ni uzmoq

UMID TUTMOQ [umid tut=] tar. kim? kimdan? yoki nimadan? umidvor bo'lmoq.

Kecha-kunduz sulton xidmatina mashg'ulman, dag'i xayrindan umid tutub, uqubatindan qo'rqaman. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

umid uzildi: umid(i)ni uzmoq

umid uzmoq: umid(i)ni uzmoq

umid(i) uzildi: umid(i)ni uzmoq

UMIDIN KESMOQ [umidin kes=] tar. kim? kimdan? umidsiz bo'lmoq. Varianti: **umid kesmoq.**

Ul bechora tiriklikdan umidin kesib, sultong'a so'kdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Ajam maliklarindan bir malik qarilik holatinda xasta bo'lub, tiriklikdan umid kesib edi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

UMID(I)NI UZMOQ kim? [o'zining] nimadan? yoki kimdan? – **UMID(I) UZILDI** kimning? nimadan? yoki kimdan? ko'nglidagi oxirgi ilinjini ham yo'qotmoq. Varianti: **umid**

uzmoq kim? nimadan? yoki kimdan? – **umid uzildi** nimadan? **umidni uzmoq** kim? nimadan? yoki kimdan? **umid rishtalari uzildi** kimning? nimadan?

Buxoroda nima ko'p – cho'pon ko'p, nima ko'p – xoldor ayollar ko'p ekan, hech kim: «Men sening otangman», – demadi, onam ham topilavermadi. Ammo men aslo umidimni uzmadim. I.Rahim. Olovkor. «O'z qadri qiymatini biladigan yigit mendan umidini uzib, boshqaga ko'ngil qo'ysa-ya... Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Qolgan 5 qo'yni qidirish quduqqa tushgan nozik munchoqni qidirish bilan baravar edi. Umidimiz uzildi. G'.G'ulom. Shum bola. Ba'zan umr bo'yi izlab topolmagan narsa uni izlashdan umid uzgan bir paytda ro'baro' kelib qoladi: S.Ahmad. Ko'klam taronalari.

umidni uzmoq: umid(i)ni uzmoq

UMIDSIZLIKKA TUSHMOQ kim? voqe bo'lishiga, ro'yobga chiqishiga ishonchni yo'qotmoq.

Bu kamchiliklarni.. tomiri bilan sug'urib tashlash esa hovliqmasdan, shovqin solmasdan, umidsizlikka tushmasdan, sabr va qunt bilan qidirib, bu kamchiliklarning katta-kichik, yashirin-oshkora oqibatlarini topish, shu yo'l bilan bu kamchiliklarning payini qirg'ish... bilan bo'ladi. A.Qahhor. Sinchalak.

umr kechirmoq: umr o'tkazmoq

UMR KO'RMOQ kim? yashamoq. Sinonimi: **umr o'tkazmoq** kim? **dunyodan o'tmoq 1** kim? **turmush kechirmoq** kim?

Seni uch kun ortiqroq umr ko'rishga majbur qiladigan nima qoldi?! A.Qahhor. Sarob.

UMR SAVDOSI yigitning, qizning oila qurib, o'la-o'lguncha birga qilgan ahd-paymoni.

Yigit ham o'zinggi munosib bo'lsin, aqlli, nomusli bo'lsin. Umr savdosi og'ir... Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

UMR YO'LDOSH(I) kimning? xotin (eriga nisbat berib) yoki er (xotiniga nisbat berib).

Bizning boshimizga bir mushkul ish tushib qoldi-da. Umr yo'ldoshimiz qattiq betob... A.Qahhor. Og'riq tishlar. Deyarli qirq yil bir yostiqa bosh qo'rgan kampir umr yo'ldoshidan, qiz sevimli otasidan ayriladi. O.Yoqubov. Ota izidan.

UMR O'TKAZMOQ kim? yashamoq. Varianti: **umr(i)ni o'tkazmoq** kim? o'zining? **umr kechirmoq**. Sinonimi: **dunyodan o'tmoq 1** kim? **umr ko'rmoq** kim? **turmush kechirmoq** kim?

Dam olish kunlari ular bilan birlikda bir-birimizga bordi-keldi qilamiz, xushchaqchaqlik bilan umr o'tkazamiz. G'.G'ulom. Yodgor. [Boqi mirzo]... qolgan uch-to'rt kunlik umrini qanday qilib ham bo'lsa o'tkazish ko'yiga tushdi: har kimlarga turli arizalar, duoyi salomlar yozib berishni kasb qilib oldi. A.Qahhor. Mirzo.

UMR(I) BINO BO'LIB [o'zining] tug'ilganidan beri, hayotida.

Buning ustiga yarashganini qara, bunchalik yarashgan do'ppini umrim bino bo'lib endi ko'rishim. Tuf, tuf... Ko'z tegmasin, bolam. Mirmuhsin. Jamila. Yodgor umri bino bo'lib ba-

horning kirib kelishini shu qadar diqqat bilan kuzatmagan ekan. O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol.

UMR(I) BOQIY doimiy hayot, yo'q bo'lmaydigan.

Insoniyat qalbini munavvar etadigan ezgulikning – she'riyatning umri boqiy ekan, demak, shoir umri ham boqiy. Gazetadan. U ba'zan.. Shohruxni duo qilar, yurtida tinchlik bo'lsa, umri boqiy binolar qurib yurishini o'ylardi. Mirmuhsin. Me'mor.

UMR(I) BOG'INDAN YEMISH YEMISHI YO'Q [umri bayindan jemiš jemiši joq] tar. kim? yosh, o'smir yoshda.

Bu o'g'lon umri bog'indan yemish yemishi yo'q turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

UMRI QISQA kimning? nima-ning? ko'p yashamaydi, uzoqqa bormaydi, tez barham topadi.

Tuhmatning umri qisqa. Maqol.

UMR(I)DAN BARAKA TOP-[GUR] kim? uzoq umr tilab tahsin bildirmoq. Varianti: **umr(i)dan baraka topsin.**

Ermatimni ko'rsatgin, xudo xayr bersin, umringdan baraka topkur! I.Rahim. Chin muhabbat. Juda g'ayratli, keksa dehqonlar ham unga tan beradigan bo'lib qolishdi. Umridan baraka topsin. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

umr(i)dan baraka topsin: umr(i)-dan baraka top[kur]

UMR(I)NI TIKMOQ kim? [o'zining] nimaga? ongli hayotini bag'ishlamoq, fido qilmoq.

Qo'l ostingizda bilimimni takomillashтирам, umrimni fan yo'liga

tiksam degan umiddaman. S.Anorbo-yev. Yo'llanma bilan.

umr(i)ni o'tkazmoq: umr o'tkazmoq

UMRNING EGOVI kim? nima? sog'liqqa ta'sir qilib, uni yemiruvchi (kishi, narsa).

Yomon xotin – umrning egovi. Izohli lug'atdan. Eski maktablar umrning egovi edi. Bolalaringga ham, o'zlaringga ham yangisini ochamiz. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

umumiy til topishmoq: til topishmoq

UNDAN NARI shunday bo'lsa-bo'lar, sira xafa bo'lmayman.

O'zi ablah edi, afsus qiladigan joyi yo'q, qochsa, undan nari! A.Muxtor. Tug'ilish. «Yemayman», – «yemasang, undan nari», – dedi xafa bo'lgan Roziya xola. N.Nazarov. Zamon.

urdi xudo: xudo urdi

urpoq ham bo'lmaslik: urvoq ham bo'lmaslik

URUG'TASHLAMOQ kim? sepmoq, ekmoq.

Dehqon yaxshi niyat bilan zaminga baraka urug'ini tashlamoqda. Gazetadan.

urug'-purug'(i)gacha qo'ymay quritildi: urug'(i)ni quritmoq

URUG'(I)NI QURITMOQ kim? kimning? avlodi bilan birga o'ldirib yubormoq. Varianti: **tuxum(i)ni quritmoq; urug'-purug'(i)gacha qo'ymay quritildi kim?**

«Agar bermasang, xon tuxumingni quritib yuboradi», – dedilar. Haqiqatan, juvonmarglar tuxumimni quritishdi! Mirmuhsin. Oq marmar.

URUG‘(I)NI O‘YNATMOQ *kim?* *kimning?* qarindoshlari bilan birga azob-uqubatga giriftor qilmoq, og‘ir ahvolga tushirmoq.

Bechora hali ham haqini tanimay yuribdi-da. Bo‘lmasa Olaxo‘janing urug‘ini o‘ynatib yuborsa bo‘ladi. P.Tursun. O‘qituvchi.

URVOQ HAM BO‘LMASLIK *nima?* gapirishga arzimaydigan darajada oz bo‘lmoq (*abstrakt ot bilan bog‘lanadi*).

Agar muhabbat shunday kezlarda to‘kiladigan ko‘z yoshi bilan o‘lchansa, yuzta Shirin-u, yuzta Laylining muhabbati bunikiga urvoq ham bo‘lmas edi. A.Qahhor. Xotinlar. *Uning dardi Mansur topib kelgan bu dardga urvoq ham bo‘lolmasdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

ust(i)ga olmoq: zimma(si)ga olmoq

USTASI FARANG har qanday kasb-korni mukammal egallagan, har qanday ishni mohirlik bilan bajaradigan.

Bu o‘ris xalqi yomonam ustasi farang bo‘lar ekan. Qilaman degan ishini qilmay qo‘ymaydi. S.Ahmad. Hukm.

USTI YALTIROQ, ICHI QALTIROQ ko‘rinishi bejama, mazmun-mohiyati esa nochor, past bahoga loyiq. Varianti: **usti yaltiroq bo‘lsa ham, ichi qaltiroq; sirti yaltiroq, ichi qaltiroqlik.**

U sirti yaltiroq, ichi qaltiroqlikni tan olmaydi, baribir, vaqti kelganda avra-astarini ag‘darib ko‘rsatadi. S.Anorboyev. Oqsoy.

usti yaltiroq bo‘lsa ham, ichi qaltiroq: usti yaltiroq, ichi qaltiroq

USTIDAN CHIQMOQ I *kim? nimaning?* biror narsa qilinayotganida tepasiga borib qolmoq.

Valixon endi uning bu yengiltakligi ustidan chiqib, butunlay o‘zini yo‘qotib qo‘ygan edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Tixiy Don»ning to‘rtovi ham kelibdi deng, ustidan chiqib qolsam bo‘ladimi. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda.

USTIDAN CHIQMOQ II *kim? nimaning?* («va‘da»ning) bajarmoq.

Va‘damizning ustidan chiqmasak, hamqishloqlarga qaysi yuz bilan qaraymiz: R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *Demak, Hakimov telefonda bergan so‘zining ustidan chiqibdi.* P.Qodirov. Uch ildiz.


USTUN KELMOQ *kim? kimdan?* yoki *nima? nimadan?* kuchli bo‘lib chiqmoq. Sinonimi: **baland kelmoq I** *kim?* yoki *nima? nimada?* yoki *nimadan?* **zo‘r kelmoq I** *nima? g‘olib kelmoq* *kim? [kimdan?]* yoki *nima? [nimadan?]*

Zokir Akbarovdan ustun kelsa, yaxshi, lekin Akbarov hozirgiday ustma-ust yengga boshlasa, u bo‘g‘ilib ketadi. P.Qodirov. Uch ildiz. «Bari-bir, bizniki ustun keladi. Qadamimiz – zamon qadami», – dedi O‘ktam. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

USTUXON BO‘LMOQ *kim?* nihoyatda ozib ketmoq, qoqsuyak bo‘lib qolmoq.

Ozib, to‘zib, birgina ustuxon bo‘lib qolgan jafokash qiz bid‘at ovoqtasidan chiqarildi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

USTUXONI QOLGAN yoki **ETI (BORIB) USTUXONIGA YOPISH-**



GAN kimning? nihoyatda ozib ketgan, quruq suyak.

Kechqurunlari uxlash uchun yechinayotganda, u ozib-to'zib, ustuxoni qolgan badaniga qaramaslikka harakat qilishardi. Gazetadan.

UVADASI CHIQQAN nimaning? **1** eskirib, yirtilib to'zgan, dabdala bo'lgan.

Boyagi tikroq bola uvadasi chiqqan dasturxonni yozib, qotgan-qutgan burda nonlarni rasamadi bilan sochib yubordi. S.Karomatov. Oltin qum.

2 yaroqsiz holga kelgan, «dabdala» bo'lgan.

Komiljonning taklifi – uvadasi chiqqan eski gap. I.Rahim. Ixlos. ...kompozitorlar-ku qayta ishlayverib, xalq qo'shiqlarining uvadasini chiqardi, endi qayta ishlashni oshpazga kim qo'yibdi... I.Rahim. Hilola.

UVOL(I) TUTADI kimni? kimning? nojo'ya ishi uchun javobgar qilmoq (*diniy*).

Vodarig'o! Kun-kun battar ahvolim, Agar o'lsam, xonni tutar uvolim. S.Abdulla. Alpomish.

UVOL(I)GA QOLMOQ kim? kimning? yoki nimaning? nojo'ya ish qilib, gunohkor bo'lmoq (*diniy*).

Shundoq xotinni qo'yib yubor-dingiz-a, afandixon. Siz ham bir kunmas-bir kun shu xotinning uvoliga qolasiz. S.Ahmad. Hukm.

uxlab, tush(i)da ham ko'rmaslik: yetti uxlab, tush(i)da ham ko'rmaslik

UY TUTMOQ kim? oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlab turmoq. Sinonimi: **ro'zgor[(i)ni] tebratmoq** kim?[o'zining].

Onaxonning ustaxonada bo'z to'z-qib, topganini ikki qizchasi ro'z-

g'orda uchma-uch qilib binoyidek uy tutishadi. A.Muxtor. Opa-singillar.

UY-UYIGA – TAKA TO'YIGA kimlar? qayerga?

Nachalnik [boshliq] yotib qoldi, endi uy-uyiga–taka to'yiga. A.Muxtor. Opa-singillar.

UYA QO'YMOQ kimlar? qayerga? mustahkam o'rnatib olmoq.

Bu vaqtlarda «Bo'ston»ga uya qo'ygan ... boshliq bir to'da jinoyatchilar juda haddan oshgan, ibo-andishani bilmaydigan bo'lib qolgan edi. A.Qahhor. Sinchalak.

uyi buzilishi: uy(i)ni buzmoq

UY(I) KUYDI kimning? – **UY(I)-NI KUYDIRMOQ** kim? kimning? ayanchli, fojiali ahvolga tushmoq.

Sodiqning universali egatlar ko'ndalangiga yurdi, agregat orqasida yangi ko'ndalang egat paydo bo'la boshladi. Bu manzaradan Komiljon mamnun. Bu holatdan Umarali norizo!.. «Egatda g'o'za qolmabdi-ku! Uying kuydi Umarali». I.Rahim. Olovkor.

UY(D)NI BUZMOQ kim? kimning? er bilan xotinning ajralishiga sabab bo'lmoq, oilani barbod qilmoq. Varianti: **uyi buzilishi** kimning?

Balki uylangandir, bola-chaqa qilgandir. Birovning uyini buzish yaxshi emas. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Menga qolsa, birovning uyi buzilishidan yomon narsa yo'q olamda. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

uy(i)ni kuydirmoq: uy(i) kuydi

UYING KUYGUR kimning? yomonlik tilab, qarg'ab aytiladigan ibora.

Uying kuygur, shuncha yil ishlatib, endi ko'chaga tashlaydimi? Oy-

bek. Qutlug' qon. *Boy qal'aga ketgandan keyin biroz tinchlanarmiz deb o'ylagan edim, lekin bu uying kuygur Nabi polvon boydan ham shaddodroq chiqdi.* S.Ayniy. Qullar.

UYQU BOSDI kimni? uxlashga moyillik kuchayib, ko'zi yumila boshlamoq.

Bektemirni uyqu qattiq bosib keldi. Oybek. Quyosh qoraymas.

UYQU ELITMOQ kimni? ayn. uyqu olmoq.

Ko'p o'tmay Me'morni uyqu elitdi... Mirmuhsin. Me'mor.

uyqu keldi: uyqu(si) keldi

UYQU OLMOQ kimni? uyqu o'z ta'siriga tortmoq.

Ertadan kechgacha yaylov dala-da tinmay o'ynab charchagan sho'x bolalarni bir lahzada va birdan uyqu oldi. Oybek. Tanlangan asarlar. *Kechasi bilan uyqu olmadi, ko'zimni yumib, So'naguni ko'z oldimga keltirib.. gaplashib chiqdim.* A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.

UYQU TANG QILMOQ kimni? uyqu talabi kuchaymoq.

Nihoyat, kuta-kuta uyqusi tang qilgach, o'rniga cho'zilib... uxlab qolganini o'zi ham sezmay qoldi. A.Qodiriy. O'tgan kunlar.

UYQU(SI) KELDI kimning? uxlashga moyillik paydo bo'ldi. Varianti: **uyqu keldi.**

Shu kuni kechasi O'rinjonning uyqusi kelmay, onasi bilan gaplashib chiqdi. Oydin. O'zi monand. *Tun yarmidan oqquncha uyqu kelmadi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

uyqu(si)ni qochirib yubormoq: uyqu(si) qochdi

UYQU(SI) QOCHDI kimning? – **UYQU(SI)NI QOCHIRIB YUBORMOQ** kim? kimning? uxlamochi bo'la turib uxlay olmaslik.

Uyqum qochdi, fikr-xayolim cho'l burgutida. S.Ahmad. Cho'l burguti. *Karimjon ham o'rnidan turdi. Nega-dir uning ham uyqusi qochgan edi.* O.Yoqubov. Qahramon izlab.

UYUGA KETMOQ kim? uxlab qolmoq.

Qorin to'ygandan keyin, qopni boshga qo'yib uyquga ketdim. G'.G'ulom. Shum bola. *O'rtoqlari yostiqa bosh qo'yib, birpasgina gurunlashib yotishdi-da, oldinma-кетин uyquga ketishdi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

UYUGA TOLMOQ kim? qattiq uxlamochi.

Qudrat u yonboshidan bu yonboshiga ag'darila berib, yarim kechadan oqqanda uyquga toldi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

UYQUNI URMOQ kim? to'yib uxlamochi.

...ariq bo'yidagi tolning salqinida mazza qilib uyquni urdim. Ikki-uch kundan buyon bo'lgan hamma qordiqalarim chiqib ketdi. G'.G'ulom. Shum bola.

UZIB ULAMOQ [kim? nimani?] ayni bir masalani qayta-qayta gapirmoq.

Bo'lar ish bo'ldi, uzib ulashning foydasi yo'q. Qani, endi bu yog'ini gapirishaylik. H.Nu'mon. Fasllar.

uzildi: joni uzildi

UZILMAGAN GUL kim? ayollik iffatini, jozibasini yo'qotmagan.

«Ikkita huriliqo bor. Biri o'ris, biri o'zimizdan. Ikkovi ham – uzilmagan

gul. *Quling o'rgilsin jononlardan*». Oybek. Qutlug' qon.

UZOQNI KO'RMOQ kim? ke-lajak haqida to'g'ri fikr yurita bilmoq, oqibatini o'ylab ish tutmoq.

Bugunni emas, uzoqni ko'rish kerak, kosoving uzun bo'lsa, qo'ling kuymaydi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qis-sasi. *Hamma balo shu savodsizlikdan chiqyapti. Uzoqni ko'rolmaydi.* S.Ah-mad. Hukm.

UZUN KECHALARNI QISQA QILIB [uzun kechalarni qisqa qil=] tar. kim? uxlamay.

Men dag'i borib, uzun kechalarni qisqa qilib, ul ag'och ayoqinda bosh ochib, duo qilib, hojat tiladim. S.Sa-royi. Gulistoni bit-turkiy.

UZUN QULOQ I kim? gap tarqa-tadigan, mish-mishlarni eshitish va tarqatishga o'ch odam.

Lekin qitday sabr qil, jonim, bir uzun quloqdan eshitib qoldim... Oy-bek. Oltin vodiya shabadalar. *Bir zumda xonning qotili Gulshanam ekan-ligi uzun quloq orqali kattadan kichik-kacha ma'lum bo'ldi.* Oydin. Gulsa-nam.

UZUN QULOQ II nima? qu-loqdan quloqqa o'tgan, to'g'ri-no-to'g'riligi noma'lum.

Buni menga ... o'zi gapirgani-ga ancha vaqt bo'lgan edi. Uzun quloq gapdir-da, deb yurgan edim. H.Nu'mon. Fasllar.

UZUN KIRIB, UZUN CHIQUIB tayinli, foydali ish bilan mashg'ul bo'lmay, sanqib.

U safarga rozi bo'lganini bildi-rib, Abdurahmon fikrlari, darhaqiqat, to'g'ri ekanini, bu yerda uzun kirib, uzun chiqib yurmay, mavsumda pul ishlab olish ma'qul ekanini aytmoq-

chi bo'ldi. Mirmuhsin. Iskandariya ko'rfazi.

ushuk urdi: sovuq urdi

USHUK BO'LMOQ nima? unu-tildi, esdan chiqdi.

Bir paytdagiday shahar kezib hordiq chiqarishlar ushuk bo'ldi. So'zlashuv uslubi.

uch pul: bir pul

uch pul bo'lmoq: bir pul bo'lmoq

uch pul qilmoq: bir pul bo'lmoq

uch-to'rt og'iz: to'rt og'iz

UCHAR QUSHNI, OQAR SUV-NI TIYMOQ [uچار quşni, aqar suvni tij=] tar. kim? barchani maftun etmoq.

To'rtinchisi, xushovoz kerakkim, dovudiy nag'ma bilan uchar qushni, oqar suvni tiyg'ay dag'i ul bu fazilat bilan xaloyiq ko'nglin sayd eta bilgay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

UCHGANI QANOT(I) YO'Q kimning? borish istagi juda kuchli.

«Eng yaxshilarini tanlab ol». Irisali sevinib ketdi. *Razm solsam, ko'zlari chaqmoq chaqyapti, uchgani qanoti yo'q.* I.Rahim. Hilola.

uchiga chiqqan: uchchiga chiqqan

UCHINI CHIQARMOQ kim? nimaning? kimga? biror fikrni boshlab qo'ymoq, dastlabki ma'lumot bermoq.

Oyilariga gapning uchini chiqarib, tayyorgarlik ko'rib turadigan bo'lib ketdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

uchini chiqazmoq: uchini chiqar-moq

uchov(i) uzildi: ichag(i) uzildi **II UCHCHIGA CHIQQAN** o'taket-gan (salbiy).

Endi bildim. O'zingiz uchchiga chiq-qan g'arazgo'ysiz-u, meni g'arazgo'y deb tuhmat qilasiz! P.Qodirov. Uch ildiz.



VAHIMA BOSDI kimni? qo‘r-qinchli o‘y-xayollarga berilmoq. Varianti: **vahm bosdi**.

Bu atrofda ko‘knor qolmadi-ku, olti oydan keyin nima bo‘ladi? Said Jalolxonni vahima bosdi. A.Qahhor. Bashorat. *Birdaniga uch oy jim bo‘lib qoldi. Meni vahm bosa boshladi.* R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

VAHIMAGA SOL[JIB QO‘Y]-MOQ nima? kimni? qo‘rqitgan holda o‘ylantirib qo‘ymoq.

Xosiyat xolaning ovozi o‘zgarib ketgani Buvinisa xolani vahimaga solib qo‘ydi. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *Turg‘unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so‘nggilari esa uni vahimaga soldi.* A.Qahhor. Maston.

VAHIMAGA TUSHMOQ kim? qo‘rqan holda o‘ylanib qolmoq.

...bu iltifotning biror siri bo‘lsa kerak deb, vahimaga tushardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *«Hammasidan odam zo‘r. Oldindan vahimaga tushmang-lar!», – dedi Tansiq.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

vahm bosdi: vahima bosdi

VAJ KO‘RSATMOQ kim? kim-ga? o‘z xatti-harakatlarini oqlaydigan shunchaki dalil, bahona keltirmoq.

Dadajon oyog‘ini tirab turibdi. «Murodovaga va‘da berganman. Unga qanday vaj ko‘rsataman?», – deydi. I.Rahim. Ixlos. *Saida Nosirovning taklifiga rozilik bermaganini, unga vaj ko‘rsatganini kabinetdan chiqishi bilanoq unutdi.* A.Qahhor. Sinchalak.

vaqt-soati kelganda: vaqti kelganda

VAQT-SOATI YETIBDI nima-ning? tug‘ish payti kelibdi.

Bugun kechasi smenadan kelgach, Nafisani doktorga olib bordi. Uni «Vaqt-soati yetibdi», deb, uchastkaning med-punktida olib qolishdi. A.Muxtor. Tug‘ilish.


VAQTI KELGANDA o‘z fursati bilan. Varianti: **vaqti kelib; vaqti-soati kelganda.**

Vaqti kelib bu odamga nima uchun «inobatli» sifati berilgani kishilarning esidan chiqib ketdi. A.Qahhor. Mirzo. *Qo‘ya tur-chi, yov keldimi?! Yolg‘iz qizing, vaqti-soati kelganda uzatar-san.* Oybek. Qutlug‘ qon.

vaqti kelib: vaqti kelganda

VAQTI KELMOQ nimaning? fursati bo‘lmoq.

Orqanga qayt! – dahshatli ovozi eshitildi Siroj brigadirning, – osh-



xonaga kir, sen bilan gaplashadigan gapning vaqti keldi. X.To'xtaboyev. Quyionlar saltanati.

VAQTI-VAQTI BILAN ma'lum bir muddat oralatib.

Voy, nima deypsiz, Sherbek? Vaqti-vaqti bilan soy bo'yiga, tog' bag'riga yoyib turamiz (sigirlarni). Hali o't ko'p. S.Anorboyev. Oqsoy. *Xonkeldi qishlog'i vaqti-vaqti bilan goho quvonchli, goho tashvishli mish-mishlar ichida qoladi.* X.To'xtaboyev. Quyionlar saltanati.

VAQT(I) CHOG' kimning? kayfiyati yaxshi. Sinonimi: **kayf(i) chog'** kimning? **dimog'i chog'** kimning? **ko'ngil chog' (-)**.

Oshpaz Belochukning vaqti chog': bugun qozonga butun bir hisoriy qo'chqorning go'sht-yog'i solingan. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *G'ulomjonning vaqti chog' edi.* M.Ismoiliiy. *Farg'ona tong otguncha. Bugun vaqtim chog' bo'lgani uchunmi, bilmadim, har qalay, unga bir yaxshilik qilgim keldi.* O.Yoqubov. Muqaddas.

VAQTI CHOG'LIK QILMOQ kim? (kim bilan?) xursandchilik qilmoq; dilxushlik qilmoq. Sinonimi: **ko'ngil ochmoq I** kim? (kim bilan?); **kayfi chog'lik qilmoq** kim? (kim bilan?)

Mayna bilan qizg'in vaqti chog'lik qilib kulishayotgan Narzi tog'a odamlarni yorib, poyondozga yo'l ochdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

VARAQA SOLMOQ [varaqa sal=] tar. kim? kimga? xat yubormoq.

Xurosonmaliklaridan bir malik bu xojag'a xufya varaqa soldikim, aning kabi malik munung kabi ulug'ning qad-

rin bilmadi, izzatsizlik etti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

vassalom: noma tamom, vassalom **VASVASAGA TUSHMOQ** kim? turli o'y-xayollarga borib, telba bo'lish darajasida hayajonlanmoq.

Nimadandir vasvasaga tushgan Turdiboy xalfa ham ariza berdi. P.Tursun. O'qituvchi.

VATAN ETMOQ kim? qayerdan? yashash uchun boshpana qilmoq, uy qurmoq.

Mana o'n yildirki, Toshkentdan vatan etaman deb harakat qiladi, ammo qo'li yupqalik qiladi. So'zlashuv uslubi.

VATAN (yoki **MAKON**) **TUTMOQ** biron hudud yoki joyni yashash joyi (vatan) qilib olmoq.

Erbo'tayevlar oilasi ham yaydoq cho'lni vatan tutib, mehnatda dong taratib, o'zlaridan ko'payishib borishyapti. «O'zbekiston qo'riqlari».

VATANI YO'Q kimning? yashash uchun poshpanasi yo'q, shaxsiy uyi yo'q.

Oila qurishganiga ancha bo'ldi, lekin hali vatani yo'q, er-xotin mushtini bir yerga urmagandan so'ng biri ikki bo'lmaydi-da. So'zlashuv uslubi.

VA'DA BERMOQ kim? kimga? nima qilishga? ahd qilganini aytmq. Varianti: **bergan va'da(si)** kimning? kimga?

Men unga, Yodgorning butun hikoyasini to'ydan keyin aytishga va'da berdim. G'.G'ulom. Yodgor. *Qaytishda kirishga va'da berib o'tib ketdim.* S.Ahmad. Lochin. «*Va'dangiz qanaqa edi?*» – «*Va'da berganimda orada bola yo'q edi.*» T.Malik. Charxpalak.

Endi o'zingiz ham bilsangiz kerakki, va'da bergandan keyin uni bajarish masalasi ham bor. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

va'da olib qolmoq: va'da(si)ni olmoq

VA'DA(SI)NI OLMOQ kim? kimning? ahd qilganini aytirmoq. Varianti: **va'da olib qolmoq** kim? kimdan?

Ham o'sha yerda men uning chinakam va'dasini olmoqchi bo'laman. G'.G'ulom. Yodgor. «Men o'zim va'da berib kelganman». – «Shunaqa va'da olib qolishlari o'zi g'alati». P.Qodirov. Uch ildiz.

VOY O'LMASAM [kim?] qo'rquv, uyalish his-tuyg'usini ifodalaydi (ayollar nutqida ishlatiladi).

O'zlari loyqa to'la iflos chuqurga itarib yuborishadi-da, «voy o'lmasam, kiyim-boshlaring loy bo'ptiya, kelaqol, yuvib, tozalab beraman», deyishadi. X.To'xtaboyev. Mungli ko'zlar. Ovqatini o'zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinox'rlik qilishadi, – deb gapni chalg'itmoqchi bo'ldim. – Voy o'lmasam, suvam bermagan-ga o'xshaysan. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

voyaga yetkazmoq: voyaga yetmoq

VOYAGA YETMOQ kim? yoki nima? – **VOYAGA YETKAZMOQ** kim? kimni? yoki nimani? nima? kimni? o'sib-ulg'ayib, yetuklik bosqichiga erishmoq.

Biz sizlarning tarbiyatingizda go'daklikdan voyaga yetdik. P.Tursun. O'qituvchi. Har bir avlodni o'z davri voyaga yetkazadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

VOZ KECHMOQ kim? nimadan? yoki kimdan? uzil-kesil kechib yubormoq. Varianti: **voz kechtirmoq** kim? kimni? nimadan?

Butun umrga ota-onasidan, akalardan voz kechardi... Oybek. Qutlug'qon. Ammo qashshoq hayot, yashash uchun kurash bir lahzalik shafqatdan uni voz kechtirdi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Nima uchun jabr ko'rgan ayol hamma narsadan voz kechishi kerak?! T.Malik. Charxpalak.

voz kechtirmoq: voz kechmoq

VUJUDGA KELMOQ nima? – **VUJUDGA KELITIRMOQ** kim?nimani? barpo bo'lmoq, yaratilmoq. Sinonimi: **bunyodga kelmoq** nima? – **bunyodga keltirmoq** kim? nimani? **yuzaga kelmoq** nima? – **yuzaga keltirmoq** kim? nimani?

Mahkam bu shovur-shuvurda hayajon va qiziqish borligini, jimlik esa yuzlab kishining diqqat-e'tiboridan vujudga kelganini sezib gapirardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Garri Potter, garchi u ham xayolot olamida keza-da, yangi-yangi texnik vositalardan foydalanadi: uning sehrgarlik uskunalarining mo'jizaviy imkoniyatlarini ocha bilishi hozirgi o'smirlarda qoniqish tuyg'usini vujudga keltiradi. X.To'xtaboyev. Mungli ko'zlar.

vujudga keltirmoq: vujudga kelmoq

VUJUDINING AYOQI AJAL BALCHIQA BOTMOQ [vujudini ajaqi äžäl balçiqina bat=] tar.kimning? o'lmoq.

Nogoh vujudining ayoqi ajal balchiqina botti. S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

X

XABAR BERMOQ kim? kimga? [nima haqida?] xabardor qilib qo‘yimoq. Varianti: **bergan xabari kimning? kimga?**

Men beto‘xtov pristavga xabar beraman. O‘zi chaqirtiradi. A.Qahhor. O‘g‘ri. Tikka borib jinoyat qidiruv sho‘basiga xabar berdi. G‘.G‘ulom. Guvohlikka o‘tgan ho‘kiz.

xabar oldirmoq: xabar olmoq

XABAR OLMOQ kim? – **XABAR OLDIRMOQ** kim? kim orqali? **1** nimadan? o‘zi kelib xabardor bo‘lmoq.

Necha kundan beri tuxum bosib yotgan tovug‘idan xabar olmaganisi esiga tushdi. N.Nazarov. Zamon. Hech kim kelmadimi? Hozir xabar oldiring! Afg‘oniston yo‘liga kishi chiqaring! A.Qahhor. Bashorat.

2 kimdan? biror kishining turish-turmushini, ahvolini yengillatishda ko‘maklashmoq.

Umida Saidaning kasal ekanini ko‘rib, tez-tez xabar olib turdi. A.Qahhor. Sinchalak. Ko‘p urinmang, a‘zolaringizdan o‘zim xabar olib turaman. S.Ahmad. Oriyat.

XABAR TOPMOQ kim? nimadan? xabardor qilinmoq.

Zufar Hakimovich Sergeyning partbyuroga arzga kelganidan xabar

topgan va dekanatga telefon qilib, «Gazetani osinglar», – degan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ular o‘rtamizdagi muhabbatdan xabar topganlaridan buyon Dilbarning har bir qadamini o‘lchaydigan bo‘lib qoldilar. O.Yoqubov. Yangi yil kechasida.

XAFAQON BO‘LMOQ **1** diqqat bo‘lmoq, siqilmoq; xunob bo‘lmoq.

– Bugun seni ko‘rmaganim uchun juda zerikib, xafaqon bo‘lib o‘tirgan edim, – dedi Ra‘no Hafizaga. Mirmuhsin. Umid.

xalal bermoq: xalaqit bermoq

XALAL YETDI nimaga? – **XALAL YETKAZMOQ** nima? nimaga? yoki kimga? zararli bo‘lib chiqmoq. Sinonimi: **ziyon yetdi nimaga?** – **ziyon yetkazmoq** kim? kimga? **futur yetdi nimaga?** [nimadan?] – **futur yetkazmoq** nima? nimaga? **zarar(i) tegdi kimning?** yoki **nimaning?** kimga? yoki **nimaga?** **zarar keltirmoq** nima? kimga?

Shu qimmatli vaqtlardan ozgina, bir qismini bo‘lsa ham muhabbat mojarolariga sarf qilsam, darsga xalal yetishi mumkin edi. G‘.G‘ulom. Yodgor. Bu ishlarni qishloq xo‘jalik ishlariga zarracha bo‘lsa ham xalal yetkazmay bajarishimiz kerak. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

xalal yetkazmoq: xalal yetdi

xalaqit berilsa: xalaqit bermoq

XALAQIT BERMOQ nima? yoki kim? nimaga? yoki kimga? monelik qilmoq. Varianti: **xalaqit berilsa nimaga? xalal bermoq kim? yoki nima? nimaga? yoki kimga?**

Bu suhbatga narigi xonadagi qiz va juvonlarning sho'x ovozlari, mayin qo'shiqlari ahyon-ahyonda xalaqit berib turardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Siz kechqurunlari ishlay-siz. Xalaqit bermayin degan o'ygaham boraman-da. A.Qahhor. Sarob. [Dutorni] tik qilib o'tirsa, bo'lmaydi, yonlamasiga qo'ysa, shoferga xalaqit beradi. R.Fayziy. Cho'lga bahor kel-di. Bunday paytda muhabbat xalaqit beryapti, deyishadi. Lekin aslida muhabbatga xalaqit berilsagina, shunday bo'ladi. P.Qodirov. Uch ildiz. Aslida Botirdan uzoqroq yursang bo'lardi, u bo'sh xayollar bilan boshingni aylantirib, paxtadan mo'l hosil olishingga xalal beradi. S.Nazar. Yashil boylik. Qorong'i tushib, chiroq yoqilguncha yaxshi ishladi, ammo chiroq yoqil-gandan so'ng eshik oldida yotgan bir parcha loy unga xalal bera boshladi. A.Qahhor. Sarob.

XALOS TOPMOQ [xalas tap=] tar. kim? kimdan? qutilmoq.

«Netkaymankim, bu xalq alindan xalos topqayman». S.Saroyi. Guliston bit-turkiy.

XAMIR UCHIDAN PATIR katta, ko'p narsadan boshlang'ich va kichik bir qism. Varianti: **xamirning uchidan patir.**

«Xamir uchidan patir», – deb, hokim ziyofatidan oldin bir tovoqqi-

na «palovxonto'ra» qildirgan bo'lsalar, baham ko'rgani chaqirganlar-ov! M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. Qishki sessiyani ancha yaxshi yakunladik, lekin bu hali – xamir uchidan patir. Ular qilayotgan ishning samarasi nariroqqa borib yaqqolroq ko'rinadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

XAMIRDAN QILSUG'URGANDAY osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz.

Achchiq sho'rva ichib, ko'rpagaga o'ralib yotsangiz, chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug'urganday chiqib ketadi. S.Ahmad. Hukm. Dala havosi sizga yog'dek yoqadi, butun illatni xamirdan qil sug'urganday tortib oladi. Oybek. Qutlug' qon.

xamirning uchidan patir: xamir uchidan patir

XANDON TASHLAB qattiq ovoz chiqarib, bermalol xaxolab (kulmoq). Sinonimi: **qahqaha urib.**

Kampir hamon uning qosh-qovog'iga termilar, avzoyini sinchiklab-sinchiklab tekshirar edi. Lekin kelini onasi, qarindosh-urug'larini so'rar, xandon tashlab kular, kampirning ma'yusligini yo'l charchog'i deb o'y-lardi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

XATGA SOLMOQ kim? kimni? yoki nimani? biror hujjatda qayd etmoq.

Bodringning naychasi bormi, ko'k piyozning barrasi bormi, giyohlar-ning tomirigacha xatga solib ketdi, deyapti. I.Rahim. Hilola.

XATGA TUSHMOQ kim? yoki nima? biror hujjatda qayd etilmoq.

«Sher akam tosh o'choqqa non yopganingni yozyaptilar, – deb hazil-

ga oldi. – *Xatga tushding. Harakat-tingni qilaver*». S.Anorboyev. Oqsoy. *Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi*. A.Qahhor. O'g'ri.

XATM BO'LMOQ [xatm bol=] tar. *kimga?* odat bo'lmoq.

Xatm bo'ldi magar qabohat anga, Uylakim yusufa jamol-u kamol. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Jamoling madhidin ofoq to'ldi, Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi*. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

XATM ETMOQ [xatm et=] tar. *kim?* Qur'ondan oyat o'qimoq.

Xatm etmakni aning uchun ixtiyor qildikim, Qur'on til uchinda dag'i oltun jon ichinda turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

XAVOTIR OLMOQ *kim? kimdan?* biror noxushlik yuz bermadimikan deb bezovta bo'lmoq, xavotirlanmoq.

Ayamdan bir xabar olmasam bo'lmaydi. Hadeb tushimga kiryapti, xavotir olyapman. S.Zunnunova. Gulxan.

xayol daryosiga cho'mmoq: xayolga cho'mmoq

XAYOL SURMOQ *kim?* hamma narsani unutkan holda o'ylanmoq. Varianti: **xayolni surmoq; xayolini surmoq** *kim? nimaning?*

Nizomiddinov deraza oldida turib xayol surardi. S.Ahmad. Hukm. *Nihoyat, Saidiy Ulfatning oldiga borishga qasd qilib otlandi, u ishlaydigan idoraning eshigi oldiga borguncha ham, yerdan pul topib olib, o'shaning oldiga kirishdagi xijolatlikdan qutulish xayolini surdi*. A.Qahhor. Sarob.

XAYOLGA BORMOQ *kim?..* deb o'ylamoq taxmin qilmoq.

Mehrobning devoridagi qoziq o'rnidan mening mo'ralab turganimni ko'rgan eshon har xil bo'lmag'ur xayollarga borgan ekan. G'.G'ulom. Shum bola. *Vohid telegrammani olganda akalaridan birimi, Zarifami yo kampirning o'zimi, ishqilib, birov betob bo'lib qolmadimikan degan xayolga borgan edi*. O.Yoqubov. Tilla uzuk.

xayoldan kechirmoq: xayol(i)dan o'tmoq

xayoldan o'tkazmoq: xayol(i)dan o'tmoq

xayolga botmoq: xayolga cho'mmoq

xayolga kelmagan: xayol(i)ga kelmoq

XAYOLGA TOLMOQ *kim?* uzoq o'ylanmoq.

Chuqur xayolga tolgan Nazokat uyqudan uyg'onib ketgandek bosh ko'tarib, ufqni cho'g'dek yaltillatib borayotgan Quyoshga qaradi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Vohid Roziyaning yo'liga qanchalik tikilmasin, xayolga tolib, qayoqdan kelganini payqamay qoldi*. O.Yoqubov. Tilla uzuk.

XAYOLGA CHO'MMOQ *kim?* o'ylanish holatida bo'lmoq. Varianti: **xayol daryosiga cho'mmoq; xayolga botmoq**. Sinonimi: **pinakka ketmoq 2** *kim?*

Yigit osmonga tikilganча xayolga cho'mgan, chol esa gulxanga quruq shoxchalarni tashlab, sho'rva pishirmoqda. O.Yoqubov. Qahramon izlab. *Qudrat xayolga botdi... Eh, xayollar! Qachonki bu xayollarga*

berilarkan, yuragining dukurlab tepishi o'ziga eshitilib ketadi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

xayolni surmoq: xayol surmoq

xayol(i) bo'lindi: xayol(i)ni bo'lmoq

XAYOL(I) KETDI kimning? nimaga? g'ayrihuuriy ravishda o'ylanib qolmoq.

So'ng yana imtihondan yiqilib, nima qilishini bilmay yurgan Gavhar ko'z oldiga kelar, o'rta yo'lda qoldirib kelgan arizasiga, Eshonboyev shubhali deb atagan takliflariga xayoli ketardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

XAYOL(I) QOCHDI kimning? o'y-fikri boshqa narsalarga tortildi.

U [Saida] bir kechasi odatdagicha yarim kechagacha kitob o'qib o'tirib xayoli qochdi-yu, birdan o'zini ojiz, notavon sezdi. A.Qahhor. Sinchalak. «Koshkiydi, o'z qulog'im bilan eshitmagan bo'lsam», – deb pichirladi Nigora. Sherbek bo'lsa ishoning deb qistar, muhabbatlari, ahd-paymonlarini esiga solib, qizib-yonib so'zlar edi. Nigora uni tinglamas, xayoli qochgan edi. S.Anorboyev. Oqsoy.

xayol(i)dan kechirmoq: xayol(i)dan o'tmoq

xayol(i)dan kechmoq: xayol(i)dan o'tmoq

xayol(i)dan ko'tarilmoq: yod(i)dan ko'tarmoq

xayol(i)dan o'tkazmoq: xayol(i)dan o'tmoq

XAYOL(I)DAN O'TMOQ nima? kimning? – **XAYOL(I)DAN O'TKAZMOQ** kim? [o'zining] nimani? ma'lum bir muddat fikrlamoq. Varianti: **xayoldan o'tkazmoq** kim? ni-

mani? **xayol(i)dan kechmoq** – **xayol(i)dan kechirmoq** (eskirgan); **xayoldan kechirmoq** kim?nimani? (eskirgan). Sinonimi: **ko'ngl(i)dan o'tmoq** nima? kimning? – **ko'ngl(i)dan o'tkazmoq** kim? [o'zining] nimani? **fikr(i)dan o'tkazmoq** kim? [o'zining] nimani? **bosh(i)dan kechmoq** nima? kimning? – **bosh(i)dan kechirmoq** 2 kim? [o'zining] nimani?

«Ketish kerak!» – xayolidan o'tdi Jabborning. O.Yoqubov. Uchrashuv. Abdug'afur ota shularni xayolidan o'tkazar ekan, mayin shabadada barglari silkinib turgan yosh daraxtlarga tikildi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Tabib o'ziga ma'lum bo'lgan tabobatni xayolidan kechirdi. A.Qahhor. Ko'r ko'zning ochilishi.

XAYOL(I)GA KELMOQ kimning? – **XAYOL(I)GA Keltirmoq** kim? [o'zining] 1 nima? – nimani? o'ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq. Sinonimi: **es(i)ga kelmoq** nima? kimning? – **esga keltirmoq** 2 kim? nimani? **miya(si)ga kelmoq** nima? kimning?

Xayoliga kelgan hamma narsani Gavharga bir-bir aytib berdi. P.Qodirov. Uch ildiz. Bir hovlida yolg'iz turish noqulay bo'lmasmikan degan andishani na Kanizak xayoliga keltirar edi, na Siddiqjon. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Men bunday bo'lishini xayolimga ham keltirmagan edim, sen bilan endi hech ko'rishmasmiz degan edim. Oydin. Asl yor.

2 kim-kimni? xotirasida tiklanmoq. Varianti: **xayolga kelmagan** (-). Sinonimi: **es(i)ga kelmoq** nima? kimning? – **esga keltirmoq** 1 kim? nima-

ni? **es(i)ga tushmoq** nima? yoki kim? kimning? – **es(i)ga tushirmoq** nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o'zining] nimani? **es(i)ga solmoq** 1 nima? yoki kim? kimning? nimani? Antonimi: **yod(i)dan ko'tarmoq** kim? [o'zining] yoki kimning? kimni? – **yod(i)dan ko'tarilmoq** nima? yoki kim? kimning? **es(i)dan chiqmoq** nima? yoki kim? kimning? – **es(i)dan chiqarmoq** kim? [o'zining] nimani? yoki kimni?

Nima uchundir mashinaga chiqqanidan, sovuq ta'sir qila boshlaganidan buyon ko'proq onasi xayoliga keladigan bo'lib qoldi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Ota esa bolalarini xayoliga ham keltirmaydi.* A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

xayol(i)ga keltirmoq: xayol(i)ga kelmoq

XAYOL(I)NI BUZMOQ kim? kimning? o'y-fikrining davom etishi-ga xalal bermoq.

Ziyrak, yuz o'ylab, bir so'zlaydigan, piyoladagi choy soviguncha hamsuhbatining yurak dardini payqab oladigan Riza Muhiddinning xayolini buzishga botinmadi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

XAYOL(I)NI BO'LMOQ kim? [o'zining] nimaga? – **XAYOL(I) BO'LINDI** kimning? nimadan? boshqa bir maqsad-istak haqida ham o'ylay boshlamoq.

To oliy ma'lumotli bo'lmaguningcha hech narsaga xayolingni bo'lmay o'qi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Rost, oramiz buzilib, sizning o'qishdan xayolingiz bo'linmaganmikan dedim.* P.Qodirov. Uch ildiz.

XAYOL(I)NI OLIB QOCHMOQ nima? kimning? o'y-fikrini o'ziga tortmoq.

Hozir bu ovozga tomlar va paxsa devorlardagi dakang xo'rozlar qichqirig'i, sa'va, bulbullar navosi qo'shilishib, Quadratning xayolini olib qochdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. *Ko'z o'ngimda bo'lgan bu sarxush voqea hech unutilmasdi, hargiz xayolimni olib qochardi.* N.Maqsudiy. Ikki hayotdan ikki lavha.

XAYOL(I)NI OLMOQ nima? kimning? o'ziga mahliyo qilmoq.

Yarq etib ko'zimga qaradi. Go'yo nimadir yondi-yu, nimadir o'chdi. Hadyaxonning bu xil qarashlari xayolini oldi. I.Rahim. Hilola.

XAYOL(I)NI SOCHMOQ kim? yoki nima? kimning? o'y-fikrini parishon qilmoq.

Normat uning xayolini sochib yubormaslik uchun o'z o'rniga borib cho'zildi-da, ancha vaqt o'y surib, nihoyat uxlab qoldi. I.Rahim. Chin muhabbat. *Ko'rgan bilan to'yib bo'lmaydigan manzara, bahorning sho'x o'ylari charchagan Munisxonning xayolini har tomon sochar edi.* A.Qahhor. Sarob.

xayol(i)ni surmoq: xayol surmoq

XAYR-MA'ZURNI NASIYA QILIB kim? hech narsa demasdan, xayrlashmasdan. Varianti: **xayr-xo'shni nasiya qilib.**

Bugun Buxoroda maqtanib kelgan edim. Ertaga xayr-ma'zurni nasiya qilib jo'nab ketaman. Bu – mening yengilganim, Halim eshonning g'alaba qilgani. I.Rahim. Olovkor. *Attang-attang, qo'lga kiray deb qolgan*

naqdina jannatdan ajraldim. Shu ondayoq xayr-xo'shni nasiya qilib biyobonga yo'l soldim. G'.G'ulom. Shum bola.

xayr-xo'shni nasiya qilib: xayrma'zurni nasiya qilib.

XASHAG(I) OCHILDI kimning? aybli, nojo'ya ishi fosh bo'ldi.

«Qo'ylarni almashsam, tuyoqlar soni butligicha qoladi...» – o'ylardi Mirazim, lekin ko'ngli negadir alg'ov-dalg'ov: «Biron kishi sezib qolsa, xashagim ochilib, ishim sudga tushadimi!» S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

XIJOLAT TORTMOQ kim? nimanidan? noqulay, uyatli ahvolga tushmoq. Varianti: **xijolat chekmoq**.

Demak, Kozimbek otasining fe'l-atvorini, xulqini bilar ekan, kamchiliklaridan xijolat tortar ekan. A.Qahhor. Sinchalak. Zokir bilan urishgani qo'pol va ko'r-ko'rona portlash ekanini tushundi va esiga tushsa, xijolat chekadigan bo'ldi. P.Qodirov. Uch ildiz.

xijolat chekmoq: xijolat tortmoq

XIJOLATDA QOLMOQ kim? nima bilan? – **XIJOLATDA QOLDIRMOQ** kim? kimni? nima bilan? noqulay, uyatli ahvolda bo'lmoq.

Puxta tekshiring. Xom ishingiz bilan meni xijolatda qoldirdingiz. Sizga ishonib, men ham bu ishga yuzaki qarabman. S.Nazar. Yashil boylik.

xijolatda qoldirmoq: xijolatda qolmoq

XIJOLATGA QO'YMOQ kim? kimni? noqulay, uyatli ahvolga tushirmoq.

«Bundan chiqdi, uyat bo'ladi deb kuyovni siz qochirgan ekansiz-da? Hali kelin ham sizning gapingizga kirib, uydan chiqmay o'tiribdimi? Kiring hozir, kelinni olib chiqing!» – «Jon bolam, o'rgilay... Ikkovini xijolatga qo'yma!» A.Qahhor. To'y.

xira ko'ngil bilan: ko'ngil(i) xira

xira yurag(i): ko'ngil(i) xira

XIRADDIN OZDURMOQ [xiräddin azdur=] tar. kimni? aqlan ozdirmoq.

Xiraddin ozdurur g'amzang xumori, Yangoqlaring Xalilulloh nori. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

XIRMON KO'TARMOQ kim? ekin-tikinni yig'ib, hosil me'yorini hisob-kitob qilmoq. Varianti: **xirmonni ko'tarmoq**.

U bechoralar har yili yangi yer ochib, gektarini, tonnasini ko'paytirsa ham, xirmon ko'targanda ularga bizdan oz pul tegadi. I.Rahim. Hilola.

xirmonni ko'tarmoq: xirmon ko'tarmoq

XIZR NAZAR QILGAN boshqalarnikidan ko'ra huquqi ortiq, o'zi uchun imtiyoz talab qilishga haqli.

O'zini bilgan boshliqlar bitta mashina ham kifoya. O'zi ko'kargan zaminni unutganlarga to'qqiztasi ham kamlik qiladi. Undaylar o'zlarining oddiy fuqarodan o'zgacha, «Xizr nazar qilgan» kishi ekanini ko'rsatishga intiladi. S.Anorboyev. Oqsoy.

XIZRNI YO'QLASA(M) BO'LLAR EKAN kim? kimnidir ko'rish istagi qo'qqisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora.

Oldingizga kirib, maslahat olmoqchi edim. Iqbolimga o'zingiz uchrab

qoldingiz. Xizrni yo'qlasam bo'lar-kan! I.Rahim. Chin muhabbat.

XODA YUTMOQ kim? o'ta darajada kekkaymoq.

Tomosha qil, chiqib, taltaygan u o'rdak mijozlarni, Salom bersang, aliksiz xoda yutgan, bo'yni g'ozlarni. S.Abdulla. Tomoshani tomosha qil.

XOM SUT EMGAN kim? hamma qatori; boshqalardan ajralib turadigan joyi yo'q (banda, odam bolasi).

Endi... odamning olasi ichida. Uning ichiga kim kirib chiqibdi deysiz. Keyincha biror nag'ma chiqar-masa go'rga edi. Axir, u ham xom sut emgan banda-da! S.Anorboyev. Oqsoy.

XOM CHO'T yuzaki hisob-kitob, taxminiyl reja.

G'ulomjonning u o'ylagancha sod-da emasligi dodxohning xom cho'tini buzib yubordi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

xonasi kelganda: xonasi kelib qoldi

XONASI KELIB QOLDI nima-ning? suhbat davomida qulaylik tug'ilib qoldi. Varianti: **xonasi kelganda.** Sinonimi: **o'rni kelib qoldi.**

Endi, xonasi kelib qoldi, men ham gapirib beray: qishloqda ko'rnamak-lar chiqib qolgan. O'zidan kattani iz-zat qilish degan gap yo'q... Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Yo'q, xonasi kelganda bu yigitning asli yaramas niyati to'g'risida ... bilan alohida gaplashaman.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

xotinlarning xolasi: xotinlarning xolasi, qizlarning yangasi

XOTINLARNING XOLASI, QIZ-LARNING YANGASI kim? ko'p

vaqtini ayollar orasida o'tkazadigan erkak kishiga nisbatan aytiladigan ibora. Varianti: **xotinlarning xolasi.**

Bir necha minutdan so'ng ular smenani qabul qilib olib, ishga tushib ketishdi. Xotinlarning xolasi, qizlar-ning yangasi bo'lib turgan Asqarali ham qutisini ko'tarib qayoqqadir ket-di. Mirmuhsin. Jamila. «Xotinlarni mashinada gular aylantirib yurish-ning nima hojati bor! – dedi Komiljon Davronovga qarab. – Xotinlarning xolasi deb bekorga nom qo'yishmabdi unga». I.Rahim. Ixlos.

XOTIR(I) JAM kimning? nima-dan? tashvishlanadigan yeri yo'q, tinch.

«Birinchiidan, qishloqni, albatta, yoritish kerak, ikkinchiidan, har oila ro'zg'orida ham elektrdan foydalan-sin, uchinchiidan, dehqonchilikni ham birin-ketin elektrga ko'chiraylik. Maq-sad – shu. Mablag' jihatidan xotirimiz jam. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

XOTIR(I) PARISHON kimning? fikr-xayoli tarqoq.

Hozir uning ko'ngli g'ash, xotiri parishon edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

xotirdan chiqarmoq: es(i)dan chiqmoq

xotir(i)dan ko'tarilmoq: yod(i)-dan ko'tarmoq

xotir(i)dan chiqmoq: es(i)dan chiq-moq

xotir(i)ga kelmoq: es(i)ga kel-moq

XOTIRING[IZ] JAM BO'LSIN kimning? tashvishlanmang.

Biroq, xotiring jam bo'lsin, maq-sadga yetish uchun qo'limdan kel-ganini ayamayman. Oybek. Oltin vo-

diydan shabadalar. *Xotiringiz jam bo'lsin, mullaka! Men sizga bitta-ik-kita bemaza choy qilib beruvdimmi?* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. *Hamisha dadil bo'lamiz, Zayniddin aka, xotiringiz jam bo'lsin, – dedi o'zicha [Zayniddin].* S.Karomatov. Bir tomchi qon.

XUDO BERDI kimga? ma'lum talab bilan chiqish uchun vaj-dastak topildi.

Keyin Gulnorga xudo berdi: u erka-arzanda xotin bo'lib, eriga suyalib, ko'ngliga nima kelsa, shuni qiladi. Oybek. Qutlug' qon. *Buning ustiga «tanqid» degan gap chiqib qoldi. Endi bu qarollarigizga xudo berdi deng.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

XUDO BERGAN EKAN kimga? nimadan? me'yorida ortiq darajada mavjud ekan.

«Sizga tildan xudo bergan ekan. Gapiravering!» – deb kesatdi va boshini egib, indamay qoldi. P.Tur-sun. O'qituvchi.

XUDO BILADI aniq aytib bo'lmaydi. Sinonimi: **kim biladi?**

Ammo [o'g'irlangan ho'kizning] terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavsh bo'lib bozorga chiqdimi... A.Qahhor. O'g'ri. *Zubayra hozir tog'oradagi oshni ko'taraman deb terlab, bo'yni qayishib, xudo biladi, o'zini qarg'ab kelayotgandir.* S.Anor-boyev. Oqsoy.

XUDO HAQI ishontirish uchun qasam ichishni bildiradi (kirish bo'lak vazifasida keladi).

Ahmad Husayn sabrsizlik bilan gistirdi: «O'qi, o'qi... Xudo haqi, juda

g'alati guldasta bu». *She'rlar chindan ham yangi edi. Pokiston adabiyotida asrlardan buyon hukm surgan g'azallar, masnaviyalar, ruboiylar bilan bu she'rlar o'rtasida na mazmunan, na shakl jihatdan o'xshashlik qariyb yo'q edi.* Oybek. Nur qidirib, *Xudo haqi, odam haddan tashqari qo'rqsa, qiziq bo'lar ekan: bir to'g'ram nonni og'ziga solib chaynay-chaynay, hech yutolmaydi deng!* A.Qahhor. Sarob.


XUDO KO'P KO'RDI kimni? yoki nimani? judo qilmoq, mahrum qilmoq. Varianti: **ko'p ko'rmoq** kim? yoki nima? kimni? yoki nimani?

Mosh, gurunch tugul, so'k ham ololmadim. So'k oshini ham xudo ko'p ko'rdi. Oybek. Qutlug' qon. *Hech bo'lmasa qariganimda og'zim oqqa tegsin deb, po'palab boqib yurgan edi. Shuni ham ko'p ko'rdi bechora cholga.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong ot-guncha.

XUDO KO'RSATMASIN [nimani?] biror noxushlik yuz bermasligini tilab aytiladigan ibora. Varianti: **ko'rsatmasin.** Sinonimi: **xudo saqlasin.**

Hamma ko'saklar pishib bersa, ishimiz yirik. Mabodo, xudo ko'rsatmasin, kuz yomonlik qilsa, ishimizning beliga tepadi-da. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Yolg'iz kishi g'arib bo'ladi... Yolg'izlikni xudo ko'rsatmasin. Bu – halokat.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

XUDO KO'TARSIN kimni? yoki nimani? nomaqbul kishi yoki narsadan qutulishni tilab aytiladigan ibora. Sinonimi: **xudo olsin** kimni? yoki nimani?



«Bo, xudo ko'tarsin unaqa yigitni, – der emish, – kim ko'rgan bilan yurib, bola ko'tarib keladigan beboshvoqqa beradigan qizim yo'q». G'.G'ulom. Yodgor. Xudo ko'tarsin sen megajinni! Ikkita bolam bor! Bo'ydoq yigit qurib ketganmidi! A.Qahhor. Mayiz yemagan xotin.

XUDO OLSIN kimni? yoki nimani? nomaqbul kishi yoki narsadan qutulishni tilab aytiladigan ibora. Sinonimi: **xudo ko'tarsin kimni?** yoki **nimani?**

Yasan-tusan, zeb-ziynat ishlagan-ga yarashadi. Xudo olsin sen bachkanani. Patefon qo'yib, o'yin tushgani oshiqcha. S.Ahmad. Oqsoqol opa. *Yangi fasoning yengsiz, tizzadan kalta, shunaqami? Xudo olsin unaqa fasonni.* S.Nazar. Yashil boylik.

XUDO RAHMATI yoki **XUDO RAHMAT QILSIN** rahmatli (marhumni hurmat bilan tilga olganda aytiladigan ibora).

– *Kitoblar ikki joyda yolg'on aytishni ma'qul degan ekanlar: bittasi – er-u xotinning orasida, ikkinchisi – ikki mo'minni bitirish uchun. Buni xudo rahmati domlam o'qib berar edilar, – dedi Safar bo'zchi.* A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. [Olchinbek:] *Boshingizga tushgan ishlarning hammasidan xabarim bor. Kampirning o'limi, xudo rahmat qilsin, yangi yozgan asarlaringizning yo'q qilinishi.* K.Yashin. Hamza.

XUDO SAQLASIN biror noxushlik yuz bermasligini tilab aytiladigan ibora. Sinonimi: **xudo ko'rsatmasin.**

«Mening olijanob Otellom!» – dedi Nigora hazillashib. «Xudo saqla-

sin!», – dedi Sherbek. S.Anorboyev. Oqsoy. *Birovga aytimgan, singlim. Yaqinda, xudo saqlasin, sizdakalarni o'ldirib, tuni bilan murda tashishdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

XUDO URDI 1 kimni? ba'zan nimani? yomon vaziyatga tushmoq. Varianti: **urdi xudo.**

«Meni xudo uribdi, kissavur shilib ketibdi». G'.G'ulom. Kim aybdor. *Yaxshiyamki, qitday gumonsirab, so'zingizga kirmabman. Rosa xudo urar ekan-da meni.* Oybek. Oltin vodi-dan shabadalar. [Mehmon] *endi ikki qadam bosganida nimagadir qoqilib yiqildi va rayhonlar ichiga yumalab ketdi. Bundan boxabar Soraxon: «Voy, rayhonlarni xudo urdi», – deb qichqirdi.* A.Qahhor. Sarob.

2 ish rasvo bo'ldi.

Ichimda: «Obbo, xudo urdi, tag'in kelinning ustidan shikoyat boshlansa kerak», – deb o'yladim. G'.G'ulom. G'azna.

XUDO URDI-KETDI ajablanish-ga loyiq ish bo'ldi-ku.

Qo'ying-ey, Rahimjon, gapirmang-ey! Xudo urdi-ketdi. Qizim qo'lingiz-ga tushgandan beri bir kun ro'shnolik ko'rmadi. A.Qahhor. Sarob.

XUDO URDIMI?! nahotki shunday qilsam?!

«Formada olib bora ko'rma, formani ko'rib, ZAGS mudirining jini qo'zg'amasin tag'in». – «Yo'q-e. Xudo urdimi?!» A.Qahhor. Og'riq tishlar. «Aminligingizni aytdingizmi?» – «Yo'q-e. Xudo uribdimi?!» Sh.Toshmatov. Erk qushi.

XUDO URGAN 1 eng yaramas, qabih.

*Sariboy bo'lis haligacha xo'ja-
yinlarimning ichida eng xudo urgan
badbaxt edi. G'.G'ulom. Shum bola.
Sartning quday urgeni ekensen, o'ng-
magur. Oybek. Qutlug' qon.*

XUDO URSIN [kimni?] xudoni
o'rtaga solib qasam ichishni bildiradi.
Varianti: **xudo ursin agar**.

*Bo'lmasa eshiting. Avval birovga
aytsam, xudo ursin deb qasam iching.
S.Ahmad. Qadrdon dalalar. «Nima,
axir, bir gap bo'ldimi?» – «Yo'q, xudo
ursin agar ...» A.Qahhor. Sarob.*

xudo ursin agar: xudo ursin

xudo xayr bergur: xudo xayr ber-
sin

XUDO XAYR BERSIN iltijo
qilishni bildiradi (kirish gap vazifa-
sida keladi). Varianti: **xudo xayr
bergur; xudo xayr(ingiz)ni bersin**
[kimning?]

*Ermatimni ko'rsatgin, xudo xayr
bergur, umringdan baraka topkur!
I.Rahim. Chin muhabbat. Xudo xay-
ringizni bersin, sizning kuchingiz bor,
qutqarib oling, o'ldirib qo'yadi...
Sh.Toshmatov. Erk qushi.*

xudo xayr(ingiz)ni bersin: xudo
xayr bersin

XUDO XOHLASA nasib bo'lsa,
ro'yobga chiqsa, amalga ohsa.

*Sen hali dengizni ko'rganing yo'q,
qizim! Xudo xohlasa, kuyoving bilan
birga ko'rasan. A.Qahhor. Xotinlar.
Mirahmad juda sodda, qo'li ochiq de-
hqon. Xudo xohlasa, qishlog'iga bor-
sam, ancha narsa yulib-yulqab kela-
man. Oybek. Oltin vodiya shabada-
lar. Xudo xohlasa, etiklaringga g'arch
soldirib beraman. S.Ahmad. Maston-
bibibi.*

XUDO YORLAQADI ijobiy fao-
liyatga jazm qilmoq.

*Cho'chigan Xolmurod nima de-
yishini bilmay: «Xo'sh, taqdir, xush
kelibsiz. Nechuk xudo yorlaqadi?»,
– dedi. Darhaqiqat, o'zining oldiga
hammaning kelishini bilsa, eshonni
sira kutmas edi. P.Tursun. O'qituvchi.*

XUDOGA NIMA YOZDIM?
«Nima gunoh qildim, gunohim yo'q
edi-ku?!» mazmunidagi ibora.

*Xudoga nima yozdim? Nahot o't-
gan-ketganning qo'liga termilib, qa-
rib-chirib ado bo'lajakman? S.Siyov-
yev. Yorug'lik.*

XUDOGA SOLDIM kim? kim-
ni? jazosini xudo bersin.

*Gulsumbibi qizining boshini si-
ladi, yig'lab gapirdi: – Qo'y, qizim,
Nuri tuhmat qilgan bo'lsa, xudoga
soldim. O'zi bir kun jazosini tortar,
bir kun izza bo'lar. Oybek. Tanlangan
asarlar.*

XUDOGA TOPSHIRMOQ kim?
kimni? xudoning panohiga ishonib,
zimmasidan soqit qilib, o'z holiga
tashlab ketmoq.

*Xudoga topshirdim, Kumush, qa-
zom yetib ko'rolmay qolsam, mendan
rozi bo'l! A.Qodiriy. O'tgan kunlar.*

**XUDOGA (MING MARTA, BE-
ADAD) SHUKUR!** 1 biror narsaga
erishilganda aytilib, mamnunlik, shuk-
ronani bildiradi.

*Meni o'ylamay qo'ya qol. Xudo-
ga shukur, cholim bor, bayramga
quruq qaytmas. S.Ahmad. Ko'klam
chechaklari. Shundan beri, xudoga
shukur, qishlog'imiz tinchib qoldi.
Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.*

2 o'zaro hol-ahvol so'rashilganda,
javob tarzida aytiladi.

[Otabek:] Tuzukmisiz, ota? – Xudoga shukur!, – dedi Hasanali. A.Qo-diriy. O‘tgan kunlar.

XUDONING BERGAN KUNI har kuni muttasil.

«Birinchii kuni ham... Uchinchi, to‘rtinchi... – deb sanab ketdi Samadiy, boshini tebratib, – oxiri-keii yo‘q, xudoning bergan kuni shu ahvol deng?» A.Muxtor. Tug‘ilish. Yuzini hech ko‘rmayin deyma-u, aylanib, maktabning oldidan chiqib qolganimni bilmay qolaman, xudoning bergan kuni ko‘rmasam, iloji yo‘q, chidab turolmayman. Sh.Rizo. Qor yog‘di, izlar bosildi.

xudoy ko‘tarsin: xudo ko‘tarsin

xudoy urgan: xudo urgan

xullas kalom: xullasi kalom

XULLASI KALOM fikr-mulohazalarning yakuni shuki (kirish bo‘lak bo‘lib keladi).

Xullasi kalom, bizning «ahil» sayohatchilarimiz tun yarmiga yaqin uyga qaytishdi. Oybek. Oltin vodiidan shabadalar. ... Yaxshi yegisi, yaxshi ichgisi keladi, keyin qo‘sha-qo‘sha kiyim qilish orzusiga tushadi. Xullasi kalom, sabrni, qanoatni unutadi. Oybek. Qutlug‘ qon.

XUMORDAN CHIQQOQ kim? urib-so‘kib, o‘ch olib alamzadalikni tarqatmoq. Sinonimi: **alamdan chiqmoq** kim?

Agar shu qilgulikni Nazar otadan boshqa kishi qilganda, Alixo‘jadedk sirkasi suv ko‘tarmaydigan odam tek turolarmidi?! Yo‘q, belidan o‘g‘irning dastasidek ushlab, yerga bir urardi-yu, xumordan chiqardi. S.Ahmad. Kuyov.

XUMORI[SI] TUTDI 1 nima-ni? iste‘mol qiladigan vaqtdan o‘tib, betoqat bo‘lmoq.

Yo nos sop bo‘ldimikan? Xumori tutgan bo‘lsa kerak. P.Tursun. O‘qituvchi.

2 nimagadir? yana ega bo‘lishni qo‘msamoq.

Albatta, har yili o‘zidan o‘zi sharaqlab cho‘ntakka tushadigan pulning xumorisi tutmay qolmaydi. I.Rahim. Hilola. Uvada, isliqi to‘n, chilvir belbog‘ning xumorisi tutgandir! A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

xumordan chiqmoq: xumordan chiqmoq

XURMACHAGA SIG‘SA kim? ichkilikni ko‘tara olmaydigan mast kishiga nisbatan qo‘llanib, tanbeh ma‘nosida ishlatiladi.

Yana janjal boshladingmi, xurmachangga sig‘sa ichda, hammani jonidan to‘ydirdi sening har kungi tomoshang. So‘zlashuv uslubi.

XURMACHANING TAGINI YALAGANMIDING? to‘yi kuni qor yoki yomg‘ir yoqqan yigit yoki qizga nisbatan hazil tariqasida aytiladigan gap.

Churuk paranji yopingan bir xotin uzoqdan shang‘illab kelaverdi: – Qor ham qursin, kafshim ham qursin, Nuriy, xurmachaning tagini xo‘p yalagan ekansiz-da! Oybek. Qutlug‘ qon.

XURRAK OTMOQ kim? uxlaganda «xur-xur» kabi tovush chiqarmoq. Varianti: **xurрак tortmoq**.

Polvon indamasdan boshini qo‘ydi-da, yana xurрак ota boshladi. Oybek. Quyosh qoraymas. Samovar yotgan, bir chol choynak-piyola artar, hovuz bo‘yidagi supada kimdir xurрак

otib uxlar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Mushuk mijozman: jonim rohat qilsa, uxlamasam ham, xurrak torta beraman.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

xurrak tortmoq: xurrak otmoq.

xursandlig(i) ich(i)ga sig'maydi: sevinch(i) ich(i)ga sig'maydi

XUSH ENDI! xayrlashish vaqti-da aytiladi; xayr.

Mening bilan birga kelgan Mehribonlar, xush endi! «Bahrom va Gulandom».

XUSH KELIBSIZ! yoki **XUSH KELDINGIZ!** mehmon kelganda, hurmat yuzasidan aytiladigan ibora.

– *Xush kelibsiz, safo kelibsiz, juda xursandman.* M.Osim. Ibn Sino qissasi.

XUSH KELMOQ nima? kimga? yoqmoq.

Unga xush kelmagan faqat bitta narsa bor, u ham bo'lsa qiz judayam sho'x edi! O.Yoqubov. Tilla uzuk.*Bu latifa sultong'a xush keldi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Sultong'a aning bu siyrati g'oyat xush keldi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bu so'z sultonga xush kelmadi.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

XUSH KO'RMASLIK [xoš kör-mä=] tar. nima? yoki kim? kimga? yoq-maslik.

Ey to'q ko'zunga arpa o'tmagi ko'runmas xush, Lekin menim ollimda izzatli mukarramdur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

XUSH KO'RMOQ kim? nimani? yoki kimni? yoqtirmoq. Sinonimi: **ko'ngl(i) tortdi kimning? ta'b(i) tortdi kimning?**

Mevani xush ko'rmasligining sababi mevaning foydagirligi ozgina

bo'lganidan ekan. G'.G'ulom. Tirilgan murda. *Mirzakarimboy tog'andan so'rasam, qalay bo'larkin? Uni... xush ko'rmasam ham, u, til uchidami, har vaqt menga «jiyanim» deb shirin gapiradi.* Oybek. Qutlug' qon.

XUSH QOLING xayrlashish vaq-tida ketuvchining qoluvchiga yaxshilik tilab aytadigan iborasi.

Azamatlar, na'ra sherlar... Beg-u xonlar, xush qol endi! «Erali va Sher-ali».

XUSH YOQMOQ nima? kimga? ba'zan nimaga? ruhiga yoqimli ta'sir qilmoq, huzur bag'ishlamoq.

Bu, charchaganda bosib kelib, qovoqlarini og'irlashtiradigan shirin uyquday, odamga xush yoqadigan bosh aylanish edi.

XUSH(I) YO'Q kimning? nima-ga? yoqtirmaslik.

Mevalar shunchalik shirin va unum-li bo'lishiga qaramay, qishloq boyi Mirjalol quruqning mevaga unchalik xushi yo'q ekan. G'.G'ulom. Tirilgan murda. *Dasturxonda holva, novvot, murabbo. Zargarovning bularga xushi yo'q...* A.Muxtor. Bo'ronlarda bordek halovat.

XUSH(I)GA KELMOQ nima? kimning? xohlamoq. Sinonimi: **ko'ngl(i)ga kelmoq 3** nima? [o'zining].

Mol do'xtirining ko'ziga termulib, og'zini poylab, yuragimizni changal-lab turamiz, xushiga kelsa, «Kasallik-dan o'libdi», – deydi, bir to'lg'oqdan qutulgandek bo'lamiz. I.Rahim. Ix-los. *U ancha o'rnashib qoldim, obro'yim durust, menga hech kim til tegizolmaydi degan xayol bilan mast bo'lib yuribdi. Bilmaydiki, bu obro',*

izzat-hurmatlar xushiga kelganini qilaver degan gap emas. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

xo'ja ko'rsin qilib: xo'ja ko'rsinga
xo'ja ko'rsin uchun: xo'ja ko'rsinga

XO'JA KO'RSINGA shunchaki, nomigagina. Varianti: **xo'ja ko'rsin uchun; xo'ja ko'rsin qilib; kishi ko'rsin uchun.**

Hokimning boya qilgan zug'umi xo'ja ko'rsinga qilingan po'pisa ekani-bilgani uchun, zig'ircha ham ko'ngli cho'kmadi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Lekin o'zaro tekshirish o'tkazilganda ham, musobaqa yakunlanganda ham, hamma e'tibor xo'jalik masalalariga berilib, shart-nomaning boshqa moddalari faqat xo'ja ko'rsin uchungina tilga olinar edi. A.Qahhor. Sinchalak. Ashur hoji bo'lmasdan ilgari boshi sajdaga tegmagan, ahyon-ahyonda og'aynilaridan uyalib namoz o'qib qo'ysa ham, kishiko'rsin uchun, betahorat o'qir edi. G'.G'ulom. Haji qabul bo'ldi. Xo'ja ko'rsinga ishlab turmoq. Ba'zilar faqat xo'ja ko'rsin uchun [ishga]

chiqadi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

Xo'jaali – Alixo'ja: Alixo'ja – Xo'jaali

XO'RLIG(I) KELDI kimning? – **XO'RLIG(I)NI KELITIRMOQ** nima? kimning? o'ksinib, yig'lab yuborish holatiga bormoq (*keyingi varianti oz ishlatiladi*).

Borib-borib o'z mahallamizning bolalari ham meni kelgindi deb, o'yinga qo'shmaydigan bo'lishgan edi. Darbadarligim ana shunda bilinar edi-yu, juda-juda xo'rlicim kelar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Valixonning... bu qadar to'ng qarashi Hasan ovchining xo'rlicini keltirdi, tinkasi quriganday bo'ldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

xo'rlic(i)ni keltirmoq: xo'rlic(i) keldi.

XO'ROZ QICHQIRMASDAN nihoyatda barvaqt, erta tongda.

Vrach qabuliga birinchi bo'lib yozilay, deb xo'roz qichqirmasdan kelingandim. «Mushtum». Kelin xo'roz qichqirmasdan turib, nonga xamir qordi. Gazetadan.



YAKKA MOXOV BO‘LIB QOLMOQ *kim?* odamlarga aralasha olmay qolmoq, odamlarning muomala-munosabatidan mahrum bo‘lmoq.

Shundan keyin odamlarning ichidagisi yuziga chiqib, Umri yakka moxov bo‘lib qoldi, oradan ko‘p o‘tmay Dovruqqa ko‘chib ketdi. A.Qahhor. Xotinlar.

yakson qilmoq: yer bilan yakson bo‘lmoq

yalang oyoq: oyoq yalang

YAMLAMAY YUTMOQ *kim? nimani?* (yolg‘onni) shoshib-pishib, oxirini o‘ylamay gapiravermoq.

Voy To‘lamati tushmagur-ey, yolg‘onni yamlamay yutasan-a! S.Anorboyev. Oqsoy. «Voy, yolg‘onni yamlamay yutmay ketsin,–Rahbar labini burdi,– qayoqda doktor, artist-ku...» A.Muhiddin. Loy.

YAQIN OLMOQ *kim? 1 o‘zini kimga?* qadrdon qilib ko‘rsatmoq. Varianti: **yaqinroq olmoq; yaqin tutmoq.**

Bultur ishga kirganimda Sulaymon Akramovich meni unga shogird qilib tayinlagan edi. Shundan beri To‘lagan o‘zini menga yaqin olib yurar edi. O.Yoqubov. Muqaddas. Bu odam Qodirning kelganiga ko‘p xursandlik bildirib, o‘zini unga juda yaqin tutdi. A.Qahhor. Qanotsiz chittak.

2 kimni? o‘ziga qadrdon deb bilmok. Tohir ... qaytib chiqar ekan, Boburning unga o‘zini yaqin olib shuncha g‘alati gaplar aytganidan ko‘ngli ko‘tarilib kulib qo‘ydi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yaqin ko‘ngilli: ko‘ngilga yaqin

yaqin tutmoq: yaqin olmoq

yaqinroq olmoq: yaqin olmoq

YARA USTIGA CHIPQON dard ustiga dard, qayg‘u-alam ustiga yana og‘irroq‘i.

Bir malomat shubhasi hali yuragidan ketmay turib, bunisi yara ustiga chipqon bo‘lmasin. R.Rahmonov. Kelin.

YARA(SI)GA MALHAM BO‘LMOQ *kim? kimning?* boshiga mushkul ish tushganda qo‘llab-quvvatlamok. Sinonimi: **dardiga darmon bo‘lmoq** *kim? kimning?*

Xaloyiq, o‘zlaring axir tanalaringga o‘ylab ko‘ringlar, mana biz, o‘tgan gal saylab qo‘ygan ulug‘laring, shu choqqacha dehqonlar, qishloq fuqarosining yarasiga malham bo‘lib kelamiz. G‘. G‘ulom. Arvohlar.

YARA(SI)GA TUZ SEPMOQ *kim? kimning?* g‘am-alamini yana ham kuchaytirmok.

Bolam, shu mushtipar, shu baxtsiz onangning yarasiga tuz sepmasang,

yurak-bag'rini qon qilmasang, dadang keltirgan xabarni aytaman. Oybek. Qutlug' qon. *Hamma ishga ataylab uyushtirilgan bir maynabozlik yoki fitna deb qaraydigan Palmontoz xo'jasining yarasiga tuz sepayotganini bilmay hadeb xoxolar edi.* A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. *Muhammad Solih uning yarasiga tuz sepmaslik uchun gapni boshqa yoqqa burdi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

YARA(SI)NI TIRNAMOQ kim? kimning? unutila yozgan ko'ngilsiz voqeani atay esga solib, ko'ngilni buzmoq.

Mohimning so'ngi so'zlari Boburning dilidagi eng og'riydigan yarasini tirnaganday bo'ldi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

YARA(SI)NI YANGILAMOQ kim? kimning? unutila yozgan ko'ngilsiz voqeani esga solib, ko'ngilni buzmoq.

Muhiddinning halok bo'lganiga bir necha yil bo'lgani uchun suhbat bu qadar og'ir bo'lmas deb o'ylagan edi u. «Kechirasiz, Salomatxon... Men yarangizni yangilab qo'ydim, shekili». A.Muxtor. Hayotga chaqiriq.

YARASIGA TEGMOQ kim? kimning? o'tgan kunlarini, qilgan ishlari-ni eslatmoq, nozik joyiga tegmoq.

...yaxshi ko'rgan bu odamini maqtayman deb, uning yarasiga tegib ketganini bilmay qoldi. A.Muxtor. Bo'ronlarda bordek halovat.

YARIM UYQU chala uyqu, uyquli-uyqusiz holat.

Ana shunday kunlarning birida Shirmonxon yarim uyqu, yarim xayol orasida darvoza taqillaganini eshitdi. S.Zunnunova. Olov.

yarim yo'lda qoldirmoq: ora yo'lda qolmoq

yarimta non(i)ni butun qilmoq: non(i) butun bo'ldi

«YAXMAN» DEB TURIB OLMOQ kim? o'ziga qaratilgan gapga o'jarlik bilan javob qaytarmaslik.

Karimovning bejo ko'zlari davlat qoralovchisining sergak ko'zlariga to'qnashishi bilan bo'shshib, butun vujudini titroq bosdi, g'o'ldirab, nafasi ich(i)ga tushib ketdi-yu, «Yaxman» deb turib oldi. A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

YAXSHI BORING [kishi] kuzatish paytida mezbon mehmonga yaxshi tilak bildirib aytadigan ibora (*ayollar nutqida ishlatiladi*).

«Xayr, yaxshi boring! – Hanifa ham qo'lini silkidi.– Diydor ko'rishguncha». Sh.Toshmatov. Erk qushi.

YAXSHI KO'RMOQ 1 kim? kimni? sevmoq, oshiq-ma'shuq bo'lmoq (qiz bilan yigit, er bilan xotin). Sinonimi: **ko'ngil bermoq** kim? kimga? Antonimi: **yomon ko'rmoq 3** kim? kimni?

U mard yigit, muhabbatni oyoq osti qilmaydi. U meni yaxshi ko'radi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Shuncha gapni yozib, yana bir nima esingizdan chiqqan bo'lsa, xotiningizni juda ham yaxshi ko'rar ekansizda!* A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 kim? kimni? sevmoq, izzat-hurmat qilmoq (ona bolani, aka ukani). Antonimi: **yomon ko'rmoq 1** kim? kimni?

Uni kasallar juda yaxshi ko'rishar, hurmat bilan tilga olishardi. S.Zunnunova. Qaldirg'och. *Gapi bir shirin,*

o'zi bir yaxshi. Xuddi o'z akamdek yaxshi ko'rib ketdim. Oydin. Gulsanam.

3 kim? nimani? ba'zan nima? kimni? yoqtirmoq. Antonimi: **yomon ko'rmoq 2 nimani?** yoki kimni?

Muhammadjon chuchvarani yaxshi ko'radi, sizning qo'lingizdan ham bir yesin. P.Qodirov. Uch ildiz. Katta darvozaning ro'parasidagi yo'lakning tepasiga qafasda osib qo'yilgan bir juft qumrini juda ham yaxshi ko'rar edim. G'.G'ulom. Shum bola.

YAXSHI QOLING [kim?] kuza-tish paytida mehmon mezbonga yaxshi tilak bildirib aytadigan ibora (*ayollar nutqida ishlatiladi*).

«Xayr endi, – Mayna bosh silkidi. – Yaxshi qoling!» Sh. Toshmatov.

YASHIN (yoki **CHAQMOQ**) **TEZ-LIGIDA** juda tez, ko'z ochib yumguncha.

Birdan kallamga yashin tezligida bir fikr keldi. E.Raimov. Ajab qishloq. Bu fikr Ergashevning xayolidan chaqmoq tezligida o'tdi. N.Safarov. Vodillik qahramon.

yag'rin(i)ga oftob tegdi: orqa(si)ga oftob tegdi

YELGA BERMOQ [jelgä ber=] tar. *kim? nimani?* boy bermoq.

Gar Aflotun sening ishqingda tushsa, Berur yelga qamuq tadbir-u royin. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

YELKASINI TUTMOQ *kim?* majburiyatni o'ziga olmoq.

Siz ko'targan ulug'yukka yelkamni tutsam, mayib bo'lurmen. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

YER BILAN BITTA BO'LMOQ *nima?* sochilib ketmoq, betartib holda sochilib yotmoq.

Hoshimjonning xotining bo'ynida marvaridi bor ekan, yer bilan bitta bo'ldi. S.Zunnunova. Rashk. Kiyimkechaklari yer bilan bitta bo'lib uy yuzasida sochilib yotar edi. G'.G'ulom. Ko'ngilsizning «qilig'»i.

YER BILAN OSMONCHA juda katta, beqiyos (farq). Varianti: **osmon bilan yercha; osmon-u yercha.** Sinonimi: **ot bilan tuyacha.**

O'tmishdagi qozi bilan hozirgi xalq sudi o'rtasida osmon bilan yercha farq bor. N.Nazarov. Zamon. Bu qishloq bilan uning o'rtasida osmon-u yercha farq bor! S.Abdughahhor. Qishloqdan xat.

yer bilan yakson aylamoq: yer bilan yakson bo'lmoq

YER BILAN YAKSON BO'LMOQ *nima?* – **YER BILAN YAKSON QILMOQ** *kim?* yoki *nima? kimni?* yoki *nimani?* butunlay yemirilmoq, yo'q bo'lmoq. Varianti: **yer bilan yakson aylamoq; yakson qilmoq; yer bilan yakson qildirmoq** *kim? kimga? nimani? yer bilan yakson qilinmoq nima?* Sinonimii: **kulini ko'kka sovrmoq** *kim? nimaning?* – **kuli ko'kka sovrildi nimaning?**

– Lekin hozir mening ko'nglim yer bilan yakson. Taqdir menga iste'dod bergan, kuch bergan, g'ayrat bergan, ammo nechun baxt bermagan?! P.Qodirov. Yulduzli tunlar. «Nima birato'la yer bilan yakson bo'lishini xohlaysizmi?» – dedi Saidiy. A.Qahhor. Sarob. Ko'l bo'yiga quritgani yoygan to'rlarimizni Allonboyning podasiga toptatib, yer bilan yakson qilishibdi. A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. Direktor buva, ba'zan odamni yer

qilib yuborishingiz yomon-da, terim payti xotin esga kelami? T.Malik. Charxpalak. *U toqqa chiqmay do'lal-nali bo'lishga, kon qazimasdan xazina topishga, o'qimasdan obro'-e'tibor qozonishga, aqlni peshlamasdan raqiblarini yer bilan yakson qilishga intiladi.* X.To'xtaboyev. Mungli ko'zlar.

yer bilan yakson qildirmoq: yer bilan yakson bo'lmoq

yer bilan yakson qilinmoq: yer bilan yakson bo'lmoq

yer bilan yakson qilmoq: yer bilan yakson bo'lmoq

yerga kirgizib yubormoq: yerga kirib ketmoq

YER HAYDAMOQ kim? ekin ekish maqsadida yer sathini maxsus asbob bilan ag'darib yumshatmoq.

Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda. S.Ahmad. Mastonbibi.

YER-KO'KKA ISHONMASLIK kim? kimni? yoki nimani? o'ta darajada ardoqlamoq, parvona bo'lmoq. Varianti: **yerga ham, ko'kka ham ishonmaslik.** Sinonimi: **o'tqazgani joy topolmaslik** kim? kimni?

Zulayho xola Mukarramani yer-ko'kka ishonmaydi. G'.G'ulom. Qizaloq. *Bilasan, xotin ahli molga o'ch bo'ladi, alalxusus, sandiqdagi molni yer-ko'kka ishonmaydi.* Oybek. *Qutlug' qon. Bu yigit Olimjon emas! U o'z muhabbatini yerga ham, ko'kka ham ishonmaydi.* S. Abduqahhor. Muhabbat.

YER-KO'KKA SIG'MASLIK nima? o'ta darajada mo'l bo'lmoq.

Karimqul... g'o'zani maqtab, «Hosil yer-ko'kka sig'maydi, qarab tur»,

– deb pishqirar edi. Oybek. Oltin vodi-dan shabadalar.

yer osti bilan: yer ostidan

yer ostida ilon qimirlasa, bilmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

yer ostida ilon qimirlasa, sezmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

YER OSTIDAN yashiriqcha, sez-dirmay («qaramoq»). Varianti: **yer-tagidan; yer osti bilan.** Sinonimi: **ko'z tagidan.**

Muqaddas bir-ikki marta yer ostidan menga kulimsirab qarab qo'ydi. O.Yoqubov. *Muqaddas. Ayol paxtasini to'kib bo'lguncha, G'ulomjon unga yer ostidan razm solib turdi.* M.Ismoilij. *Farg'ona tong otguncha. Manglayini barmoqlari bilan qisib, yer tagidan Onaxon bilan Bashoratga qarab oldi.* A. Muxtor. Opa-singillar.

YER OCHMOQ kim? ekilmay yotgan yerlarni madaniy ekinlar ekish uchun hozirlamoq.

Yig'im-terimni olganimizdan keyin bahorgacha ikki yuz yigirma gektar yangi yer ochishimiz kerak. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

yer tagida ilon qimirlaganini bilmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

YER TAGIDA ILON QIMIRLASA, BILMOQ kim? nihoyatda ziy-rak, sezgir.

Varianti: **yer ostida ilon qimirlasa, bilmoq; yerning tagida ilon qimirlasa, bilmoq; yer tagida ilon qimirlaganini bilmoq; yerning tagida ilon qimirlaganini bilmoq; yer tagida ilon qimirlasa, sezmoq; yer ostida ilon qimirlasa, sezmoq.**

Nusrat uni: «yer tagida ilon qimirlasa, biladi» der, undan o'tdan qo'rq-

qandek qo'rqardi. S.Nazar. Yashil boylik. *Nasimjonning xotini yanglishmaydi. Yer ostida ilon qimirlasa, biladigan quv ayol.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Yer ostida ilon qimirlasa, sezadigan mug'ombir Asad qori ham qozi domlani ko'rinmas iplar bilan chulg'ab olgan o'sha qudratli o'yning qanday o'y ekanligini bilmasmikan?* M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

yer tagida ilon qimirlasa, sezmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

yer tagidan: yer ostidan

YER TISHLAMOQ kim? – **YER TISHLATMOQ** kim? kimni? o'ldirilmoq.

Chunki To'xtash aka qo'lidagi cho'yan to'qmoq bilan bir urishdayoq uni tappa sulaytirgan edi. Mirshab miq etmay yer tishladi. N. Maqsudiy. Ilon bolasining zahri. *To'xtatganida ham, bir musht bilan yer tishlatib qo'ya qolardim, o'rtoq komissar!* I.Rahim. Chin muhabbat.

yer tishlatmoq: yer tishlamoq

yer yorilmadi, yerga kirib ketmaslik: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilmadi, yerga kirib ketsa(...): yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilmadiki, kirib ketsa(...): yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilmadiki, kirib yo'qolsa(...): yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

YER YORILMADI-YU, YERGA KIRIB KETMASLIK kim? nomus qilganidan o'zini qayoqqa olib qochishni bilmaslik. Varianti: **yer**

yorilmadi-yu, kirib ketmaslik; yer yorilmadi, yerga kirib ketmaslik; yer yorilmadi-yu, yerga kirmaslik; yer yorilmadi, yerga kirib ketsa(...); yer yorilmadiki, kirib ketsa(...); yer yorilmadiki, kirib yo'qolsa(...); yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsa(...); yer yorilsa-yu, kirib ketsa(...); yer yorilsa, yerga kirkuday bo'lmoq; yer yorilsa, kirkuday bo'lmoq.


Bechoralar shuncha o'sal bo'lishdiki, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketishmadi. Ko'chaga zo'rga chiqib olishdi. M.Ismoiliy. Fargona tong otguncha. *Yer yorilmadi-yu, kirib keta qolmadim. Chog'ing yetsa, musobaqa o'ynagin edi-da.* M. Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. «*Hammaga ham qilig'ingiz shumi yoki meni shunday bir past xotin deb o'yladingizmi?*» yer yorilmadi, yerga kirib ketmadim. *Tilim tutildi, gapirishga holim kelmadi.* Oydin. Ikki ko'zi shunda. «*...bu pul qimordan emas, halol mehnatdan kelgan*», – dedi! *Yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim. Qara!...* S.Abdulla. Ota va o'g'il. «*Stipendiyangiz, – dedi Saidiyning yelkasiga qo'lini tashlab, – kecha fakultetingizga borgan edim...*» yer yorilmadiki, Saidiy kirib ketsa. A.Qahhor. Sarob.

yer yorilmadi-yu, kirib ketmaslik: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilmadi-yu, yerga kirmaslik: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilsa, kirkuday bo'lmoq: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilsa, yerga kirkuday bo'lmoq: yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik



yer yorilsa-yu, kirib ketsa(...): yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsa(...): yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik

YER YUTKUR nest-nobud bo'lishini tilab qarg'ash (ayollar nutqida ishlatiladi). Varianti: **yer yutsin**.

Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi! A.Qahhor. Anor. «*Ha, xira bo'lmay yer yutsin sen ochopatni*», – dedi Lutfixon. S.Ahmad. Muhabbat. *Yong'oq qorining hovlisi shumi? so'radi kampir.* – Shu. – *Yer yutkur o'zi uydami?* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

yer yutsin: yer yutkur

YER O'PMOQ [jer öp=] tar. kim? ta'zim qilmoq, hurmat ko'rsatmoq.

O'g'lon kelib otasi xidmatinga yer o'pti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Qabul qildim, yer o'ptum, aydim: «Ey shoh, Eshiking, tuprog'i – davlatli dargoh.* Xorazmiy. Muhabbatnoma.

YER CHIZMOQ kim? noqulay ahvolga tushib, xijolat bo'lib boshini quyi egmoq.

«Xudo bermagan yerni bandasi-ning qo'lidan olmayman», – deb avval yer olishdan bosh tortgan Qambarali akaga tegishib, hammani kuldirdi. Qambarali aka qizarib, yer chizib o'tirar edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

YERDA QOLMOQ nima? – **YERDA QOLDIRMOQ** kim? nimani? e'tiborsiz qolmoq (so'zi).

So'zi yerda qolganda, shu hisslari yerda qolganday bo'lar va qattiq

ozor chekardi. P.Qodirov. Uch ildiz. *Mening so'nggi iltimosimni yerda qoldirmay, o'z do'stlarim qatoriga qo'shsangiz.* S.Ahmad. Oriyat. *Lekin kamina sizning iltimosingizni yerda qoldirishdan ko'ra, har qanday mashaqqatni o'z zimmasiga olishni a'lo ko'radi.* Oybek. Qutlug' qon.

yerda qoldirmoq: yerda qolmoq

YERDAN KO'KARIB CHIQQIMOQ kim? o'lib, chirib, yo'q bo'lib ketmoq.

U[bola] hali katta bo'lib, boshimga bir piyola qatitq olib keladigan bo'lguncha, yerdan ko'karib chiqqiman. S.Zunnunova. Latta.

yerga ham, ko'kka ham ishonmaslik: yer-ko'kka ishonmaslik

YERGA KIRIB KETMOQ kim? – **YERGA KIRGIZIB YUBORMOQ** kim? kimni? qattiq izza bo'lmoq, o'sal bo'lmoq.

U uyidan: «Mastonbibini bir boplay-ki, yerga kirib ketsin», – deb chiqqan edi, bo'lmadi. Qaytaga o'zi gap eshitdi. S.Ahmad. Mastonbibi. *Barotning haqqoniy so'zi, hukmi mingboshini yerga kirgizib yubordi.* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Boshqa mo'min-muslim insof egasi bo'lganda sharmandalik yukidan cho'kib, yerga kirib ketardi.* T.Malik. Charxpalak.

yerga kirsas(...) – **qulog'(i)dan tortib chiqarmoq, osmonga chiqsa(...)** – **oyog'(i)dan tortib tushirmoq:** osmonga uchsa (...) – oyog'(i)dan, yerga kirsas (...) – qulog'(i)dan tortmoq.

YERGA QARAMOQ kim? – **YERGA QARATMOQ** kim? yoki nima? kimni? uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushmoq.

Sinonimi: **yuz(i) yerga qaradi kimning?** **yuz(i)ni yerga qaratmoq kim?** **kimning?** **bosh(i)ni bukmoq kim?** **kimning?** – **bosh(i) bukildi kimning?** **bosh(i)ni xam qilmoq kim?** **kimning?** **nosir(i)ni yerga bukmoq kim?** **kimning?**

Yo'q, uning fermadan ko'ngli to'lmadi. Buni Ziyodaxon ham sezib, yerga qaradi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Muhammadrajab yuzsizlik qilib, domlaning oldida Saidiyni yerga qaratib qo'ydi.* A.Qahhor. Sarob.

yerga qaratmoq: yerga qaramoq

yerga urilmoq: yerga urmoq

YERGA URMOQ *kim?* yoki *nima?* *kimni?* yoki *nimani?* ortiq darajada kamsitmoq. Varianti: **pastga urmoq;** **yerga urilmoq** *kim?* Antonimi: **ko'kka ko'tarmoq** *kim?* *kimni?* yoki *nimani?*

Bundan yaxshi xonadonlar ham og'zimga tikilib o'tiribdi, bolam. Bunaqa o'z qadringni o'zing yerga urmasdan, bilib gapirgin, ha! O.Yoqubov. Tilla uzuk. *Nima uchun aynan bir gunoh xotin kishini yerga urishi, erkak kishini ko'kka ko'tarishi kerak?* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Shunday bo'lsa ham maktabimizning sha'nini hecham yerga urgim kelmasdi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

YERGA URSA(...), KO'KKA SAPCHIMOQ *kim?* o'taketgan sho'x, o'taketgan betinim.

...tuppa-tuzuk vazmin yigit bo'lib qaytibdi. Bo'lmasa u ham ilgari yerga ursa, ko'kka sapchirdi. H.Nazir. Rashk.

yerga ursa(...), ko'kka sachramoq: yerga ursa (...), ko'kka sapchimoq

YERINA KETURMOQ [jerinä ketür=] tar. *kim?* *nimani?* o'rinlatib bajarmoq.

Nechuk bo'ldikim xilofi va'da qilding dag'i vafoning shartini yerina keturmading? S.Saroyi. Gulistoni biturkiy.

yerning tagida ilon qimirlagani ni bilmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq: yer tagida ilon qimirlasa, bilmoq

yetti buklanib: ikki bukilib

YETTI IQLIMDA [HAM] hech qayerda.

Bunday tuyg'un, bunday ziyraq bunday boadab qiz yetti iqlimda ham topilmaydi. Oybek. *Qutlug' qon. Dehqonboyday yigit yetti iqlimda topilarmikan?* A. Qahhor. Yangi yer.

YETTI NOMUS(I)NI YERGA BUKMOQ *kim?* *kimning?* sharmanda qilmoq. Varianti: **nomus(i) bukildi kimning?**

«Axir, – dedi kampir, – men endi qanday qilaman? Yetti nomusini yerga bukding, juvormarg!» G', G'ulom. Yodgor. *Shunga qaramay, u o'zini nomusi bukilgan, haqoratlangan deb bildi.* S. Anorboyev. Oqsoy.

YETTI PUSHTI bir necha bo'g'in ajdodlari yoki avlod-ajdodlari.

Qadimgi sovchilar kuyov bo'lmishning yoki kelin bo'lmishning yetti pushtini surishtirishar ekan. Balki odamning nasli yetti avlodda o'zgarar? Shu rost bo'lsa, g'o'zani ham olti-yetti avlodini koinotda yetishtirish kerakdir? T.Malik. Charxpalak. *Qadimgi sovchilar kuyov bo'lmish-*

ning yoki kelin bo'lmishning yetti pushtini surishtirishar ekan. T.Malik, Charxpalak.

YETTI PUSHTIDAN QOLGAN kimning? ajdodlari zamonida yozilgan, hozir eskirib qolgan.

Kechqurun jamoat jam bo'lganda g'azabdan ko'karib ketgan kampir yetti pushtidan qolgan uch boylam vasiqani o'rtaga ko'tarib urdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

YETTI QOVUN PISHIG'I bir qancha yilga teng muddat. Varianti: **olti qovun pishig'i; ko'p qovun pishig'i.**

O'q otishimizga hali yetti qovun pishig'i bor. Bu multiqalar otilmaydi, o'qdoni teshib qo'yilgan. A.Qahhor. Oltin yulduz. Jiyani tog'asiga yetguncha hali ko'p qovun pishig'i bor. A.Qahhor. Yangi yer.

YETTI UXLAB, TUSH(I)DA HAM KO'RMASLIK kim? o'zining? nimani? yoki kimni? hech qachon ko'rmaslik. Varianti: **uxlab, tush(i)da ham ko'rmaslik; tush(i)da ham ko'rmaslik.**

Ota-bobosi temirchining o'chog'ida yongan olovdan boshqani uxlab, tushida ham ko'rmagan. R.Fayziy. Daryolar tutashgan joyda. Abdushukur tushida ham ko'rmagan poytaxt teatrlarini maqtamoqchi bo'lib endi so'z boshlagan edi.. Oybek. Qutlug' qon.

yetti uxlab, tushga kirmaslik: yetti uxlab, tush(i)ga kirmaslik

YETTI UXLAB, TUSH(I)GA KIRMASLIK nima? yoki kim? kimning? mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik. Varianti: **yetti uxlab, tush(i)ga ham kirmaslik; yetti uxlab, tushga**

kirmaslik nima? yoki kim? tush(i)ga [ham] kirmaslik.

To o'zlariga kelishguncha bu pul-lar tillaga aylanib egalariga yetadi. Mening hiylam yetti uxlab tushlariga kirmaydi. T.Malik. Charxpalak. Hozir Nasibaning meni hech qachon sevmanligiga aminman. Lekin u chog'lar-da bu fikr yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi. O.Yoqubov. Ikki muhabbat. Kutilmagan hodisa yetti uxlab, tushga kirmagan gap. I.Rahim. Hilola. Imonsiz ablahlar xalqning ichiga kirib, bo'lmagan narsalarni, tushingga kirmagan ig'vo-fitnalarni asta-sekin tarqatmoqdalar. Oybek. Nur qidirib. Yetti uxlab tushimga kirmagan shoirlarning she'rlarini, kitoblarini so'raydi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

yetti uxlab, tush(i)ga ham kirmaslik: yetti uxlab, tush(i)ga kirmaslik
yetti xuftonga qadar: yetti xuftongacha

YETTI XUFTONGACHA qorong'i tushgandan keyin ancha vaqt, kechasi bemahalda. Varianti: **yetti xuftonga qadar.**

Akasi tushmagur o'lguncha beparvo, yetilib turgan singlim, mushtipar onamni yolg'iz tashlab ketishga qanday qiyaman demasa, yetti xuftongacha sakillab yursa, yon-berida qo'ni-qo'shni bo'lmasa, xudo ko'rsatmasin-ey... G'. G'ulom. Soyalar. Ota-si yo'q deya bolaning ko'ngliga qarab rasvo qilayapsizlar, yetti xuftonga qadar yurishga chakki o'rgandi. Oydin. Oltin uzukka olmos ko'z.

yetti yashardan oltmish yashargacha: yetti yashardan yetmish yashargacha

YETTI YASHARDAN YETMISH YASHARGACHA kattadan kichik – hamma. Varianti: **yetti yasharidan yetmish yasharigacha** *kimning?*; **yetti yoshdan yetmish yoshgacha**; **olti yashardan oltmish yashargacha**; **sakkiz yoshidan sakson yoshigacha** *kimning?* **yetti yashardan oltmish yashargacha**.

Ellikboshimiz qanaqa odam? Butun mahallaning otasi. Yetti yashardan yetmish yashargacha unga salom beradi. Oybek. Qutlug' qon. Axir qishloqning yetti yasharidan yetmish yasharigacha bilardi-ku! M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Miraziz militsiya shahardagi aholining sakkiz yoshidan sakson yoshigacha taniydi. S. Ahmad. Hukm.

yetti yasharidan yetmish yasharigacha: yetti yashardan yetmish yashargacha

yetti yot: yetti yot begona

YETTI YOT BEGONA mutlaqo qarindoshligi yo'q, butunlay notanish. Varianti: **yetti yot**.

Boshqa bir ayol esa, to'qqiz oy ilgari oniy lazzatlarini la'natlayla'natlay go'dakni bag'ridan yulib, yetti yot begonalarga tashlab ketadi. Zamon og'ir bo'lganda tushunish mumkin edi. T. Malik. Charxpalak. Unday qarindoshlardan yetti yot begona yaxshi. Oybek. Qutlug' qon. Mavluda birdan yumshadi. Qarshisida – endi ikkinchi marta ko'rayotgani, yetti yot begona emas, balki ko'pdan qo'msagani – qadrdoni, dardkashi turganday tuyuldi. T. Malik. Charxpalak.

yetti yoshdan yetmish yoshgacha: yetti yashardan yetmish yashargacha

yetti o'lcha, bir kes: yetti o'lchab, bir kesmoq

YETTI O'LCHAB, BIR KESMOQ *kim?* nihoyatda ehtiyotkorlik (tadbir) bilan ish ko'rmoq. Varianti: **yetti o'lchab, bitta kesmoq**; **yetti o'lcha, bir kes**; **qirq o'lchab, bir kesmoq**; **yuz o'lchab, bir kesmoq**; **ming o'lchab, bir kesmoq**.

Ha, albatta. Ular pixini yorgan toifa... Shuning uchun ularga qarshi kurashganda, yetti o'lchab, bir kesish kerak bo'ladi. S. Anorboyev. Oqsoy. ...yetti o'lchab, bitta kesadigan, tadbirli kishi ekanligidan darak berib turardi. Sh. Toshmatov. Erk qushi. Qizcham, shoshma, shoshgan kishidan aql qochadi, yetti o'lcha, bir kes. Oybek. Quyosh qoraymas.

yetti o'lchab, bitta kesmoq: yetti o'lchab, bir kesmoq

YENG ICHIDA ko'pchilikka oshkor qilmay, zimdan.

Ammo buning singari to'y-nikohlarning yeng ichida, birov bilib-bi-rov bilmaydigan bir yo'sinda bo'lishiga ishongani uchun tashvishi zo'rayar, hovliqar edi. Oybek. Qutlug' qon. U, avvalo, G'ulomjonni yeng ichida tergov qilib, yeng ichida jazo berish-u, shu bilan undan o'ch olish.. niyatida edi. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

yeng uchida: yeng ichida

yeng shimarib I: yeng shimarimoq

YENG SHIMARIB II astoydil, jiddiy ravishda. Varianti: **yeng(i)ni shimarib** [o'zining].

Sanab, vahima qilib o'tirmasdan, shartta yeng shimarib ishga tushib ketilaversa-chi, hammasi bajarilaverar

ekan. A. Muxtor. Opa-singillar. *Hamma jihatdan yordam beramiz, yengingizni shimarib ishga tushavering.* S.Abduqahhor. Yangi uy.

YENG SHIMARMOQ kim? biror yumushni bajarishga taxt bo'lmoq, biror ishni qilishga otlanmoq. Varianti: **yeng shimarib I.**

...katta-kichik – bari, yeng shimarib, erta-kech qizg'in ish bilan, kurash va yaratish bilan band. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Kattalar kattalarning gapiga tezroq kiradi-da, men bo'lsam bu yil yeng shimarib astoydil o'qimoqchi edim, o'zimni bir ko'rsatib qo'yay, degan orzum bor edi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

yeng(i)ni shimarib: yeng shimarib II

YENGIL NAFAS OLMOQ kim? tashvishi arib xotirjam bo'lmoq.

Xatni jo'natib, yelkandan og'ir tog' qulagandek yengil nafas oldim. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

YENGIL TABIAT kim? yengiltak suyuq. Sinonimi: **oyog'i yengil.**

«Rohatoy! – dedi u shiddat bilan. – Men sizni unchalik yengil tabiat deb o'ylamagan edim». R.Fayziy. Tosh oyna.

YENGIL TORTMOQ kim? 1 ruhiy azoblanishi tarqadi. Varianti: **qushday** (qushdek) **yengil tortmoq.** Sinonimi: **ruh(i) yengil tortdi kimning?; ruh(i) yengillashdi kimning?**

– Sizmi? – dedi-yu, nima bo'lganini fahmlab, kulimsiradi. *Qorako'z begim endi yengil tortdi va dadillanib ta'zim qildi.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar. *Nozima yelka qisdi. – Men*

endi boray, – dedi Mavluda uf tortib. U ancha yengil tortganday bo'ldi. T.Malik. Charxpalak. *Zulfiya «Mayli, picha yig'lab olsin, yengil tortadi» degandek imo qildi.* O.Yoqubov. *Ota izidan. Ichvor, yengil tortasan. Pul kelsa shukr qil, ketsa achinma. Bunaqada o'zingni yeb qo'yasan.* T.Malik. Charxpalak.

2 kasalligi yengillashdi.

O'sha doridan keyin singlingiz ancha yengil tortdi. S. Ahmad. *Qo'shiq. Bir piyola achchiq choy ichay, zora yengil tortsam.* J. Abdullaxonov. Ona hurmati.

YENGIL TUTMOQ kim? kimga? qiyinchilikka uchramaydi deb o'ylamoq. Varianti: **oson tutmoq.**

Biroq insof bilan o'ylab qaralsa, onasiga ham yengil tutish to'g'ri emas ekan. S.Anorboyev. *Oqsoy. Bizga tutib bo'lmaydi. Uning ustiga zavodga bor, kontorani top, mudiriga uchra...* Sh.Rizo. *Qor yog'di, izlar bosildi.*

YIL-O'N IKKI OY butun yil davomida, yozin-qishin.

Qish demay, yoz demay, qor demay, bo'ron demay, yil-o'n ikki oy cho'lda qo'yning orqasida yuramiz. S.Ayniy. *Qullar. Mablag' hisobli, binokorlik materiallari tanqis, ishchi kuchi yil-o'n ikki oy dala ishi va boshqa yumushlardan bo'shamaydi, transport yetishmaydi.* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

YIG'LAMOQDAN BERI BO'LMOQ kim? yig'lab yuborish darajasi-ga yetmoq (siqilganidan, alamidan).

«Ha; opajon-ay, ko'zlarim to'rt bo'ldi-ya! – Habiba opasini ravonga boshlarkan, yig'lamoqdan beri

bo'ldi. – *Muncha o'zingizni aziz qilmasangiz*». H.Nazir. Oltin qadah.

yig'lashdan beri bo'lmoq: yig'lamoqdan beri bo'lmoq

«**YO OL, XUDO, YO BER, XU-DO**» **DEB** natijasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, tavakkal qilib.

«*Yo ol, xudo, yo ber, xudo*» deb qochib, toleimizni bir sinab ko'raylik. S. Ayniy. Qullar.

YOD ETMOQ [jad et=] tar.kim? kimni? yoki nimani? eslamoq.

Nedur zoting, pari yo odamizod? Manga ayt, odingi doim etay yod. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

YOD OLMOQ kim? nimani? aynan aytib berish darajasida esida saqlamoq.

Jo'ra Pushkin she'rlarini sevar, yuqori ovoz bilan, zavq, maroq tuyib o'qir va ba'zan she'rlarni yod olardi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. *Bu gapni yaxshi yod olibsan-u, ma'nosiga tushunmabsan-da.* A.Qahhor. Qo'sh-chinor chiroqlari.

yodda qoldirmoq: es(i)da qolmoq
yoddan ko'tarilmoq: yod(i)dan ko'tarmoq

yoddan chiqarmoq: es(i)dan chiqmoq

yoddan chiqmoq: es(i)dan chiqmoq

yod(i)dan ko'tarilmoq: yod(i)dan ko'tarmoq

YOD(I)DAN KO'TARMOQ kim? [o'zining] yoki kimning? kimni?


– **YOD(I)DAN KO'TARILMOQ** nima? yoki kim? kimning? a) unutmok (egalik bilan tuslovchi bir shaxsni ko'rsatadi); b) unuttirmok (egalik bilan tuslovchi boshqa-boshqa shaxslar-

ni ko'rsatadi) – unutmok. Varianti: **yoddan ko'tarilmoq nima? xayol(i)dan ko'tarilmoq; xotir(i)dan ko'tarilmoq; es(i)dan ko'tarilmoq; esdan ko'tarilmoq nima?** Sinonimi: **es(i)dan chiqmoq nima? kimning? – es(i)dan chiqarmoq kim? [o'zining] nimani? yoki kimni?** Antonimi: **es(i)ga kelmoq nima? yoki kim? kimning? – esga keltirmok 1 kim? nimani? es(i)ga tushmoq nima? yoki kim? kimning? – es(i)ga tushirmok nima? yoki kim? kimning? nimani? kim? [o'zining] nimani? xayol(i)ga kelmoq kim? kimning? – xayol(i)ga keltirmok 2 kim?[o'zining] kimni? es(i)ga solmoq 1 nima? yoki kim? kimning? nimani?**

«...Yolg'izgina o'g'lingni yodingdan ko'tarmagin», – deb nasihatlar qilib yozar edi. G'.G'ulom. Yodgor. *Shu yodidan ko'tarilib ketgan ekan. Hozir butun fikr-u zikri shunga band bo'lib qoldi.* A.Muxtor. Tug'ilish. *Shoshib qolganimdan Dilbar ham yodimdan ko'tarilib, «Mana, men xizmatlaringga keldim-ku!» – deb yuboribman.* O.Yoqubov. *Shu oydin kechada hamma narsa uning xotiridan ko'tarildi-yu, birgina Omonning yuzi, ko'zi, gavdasi butun borligi bilan paydo bo'ldi.* S.Ahmad. Muhabbatning tug'ilishi. *Yakshanba kuni singlimnikida bo'ladigan yig'in esimdan ko'tarilgan edi.* So'zlashuv uslubi. *Rost, keyinchalik bu janjal asta-sekin esdan ko'tarilganday bo'ldi.* O.Yoqubov. Tog' qizi.

yod(i)dan chiqarmoq: es(i)dan chiqmoq

yod(i)dan chiqmoq: es(i)dan chiqmoq



yodga solmoq: es(i)ga solmoq
yodga tushmoq: es(i)ga tushmoq
yod(i)ga kelmoq: es(i)ga kelmoq
yod(i)ga tushirmoq: es(i)ga tushmoq

yod(i)ga tushmoq: es(i)ga tushmoq

YODGOR QO'YMOQ [jadgar qoj=] tar. *kim?* nom qoldirmoq.

Xayr etib bo'lg'an maliklar nomdor, Ketti qo'yub har biri bir yodgor. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YOLG'IZ OYOQ torligidan bir kishigina piyoda yurishi mumkin bo'lgan.

Aravasoz usta Qobil yolg'iz oyoq o'l bilan qo'rg'oniga kelar edi. S.Ahmad. Mastonbibi.

YOLG'IZ QO'L oilasida faqat o'zi mehnat qiladigan, ishda yoniga tushadigan kishisi yo'q. Varianti: **yolg'iz qo'llik; yolg'iz qo'llilik.**

Usta Mo'min yolg'iz qo'l bir kosib edi. A.Qahhor. Asror bobo. «*Qo'yning; siz ham yolg'iz qo'lsiz, o'g'il bo'lsinku, sizga o'xshasin*», – *deyar emish Yoqutoy eriga qarab.* G'.G'ulom. So-yalar. *Vaqt tangligi, yolg'iz qo'lligi tufayli ko'pdan beri bajarolmay yurgan o'zga yumushlar bilan shug'ullanmoqqa imkon topgan edi.* Oybek. Nur qidirib.

yolg'iz qo'llik: yolg'iz qo'l

YOLG'IZ QO'LLIK QILMOQ *kim?* biror ish-yumushni bajarishda yoniga tushadigan kishisiga ega bo'lmaslik.

Habiba kechadan beri bosar-tusarini bilmay, ziyofat taraddudini ko'rmoqda. U yolg'iz qo'llik qilib, juda shoshib qolgan, tiq etsa, eshikka

boqib, erini va opasini kutmoqda edi. H. Nazir. Oltin qadah.

yolg'iz qo'llilik: yolg'iz qo'l

YOMON KO'RMOQ *kim?* 1 *kimni?* sevmaslik izzat-hurmat qilmaslik (ona bolani, aka ukani...). Antonimi: **yaxshi ko'rmoq** 2 *kim?* *kimni?*

Bitta geograf yang chatoq deb meni yomon ko'rarmidi akam. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

2 *nimani?* yoki *kimni?* yoqtirmaslik. Antonimi: **yaxshi ko'rmoq**

3 *kim?* *nimani?* ba'zan *nima?* *kimni?*

O'zim chaqimchilarni, mayda gaplarni yomon ko'raman. I. Rahim. Olovkor. *Siddiqjon baliqni yomon ko'rar edi.* A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Lekin harbiyda bo'lmagan odamning jangdan gapirganini yomon ko'raman.* A. Muxtor. *Tug'ilish. Darveshgovni yomon ko'rishar, Ayniqsa dorug'a Uzun Hasan ko'pdan beri unga kek saqlab yurardi.* P.Qodirov. *Yulduzli tunlar.*

4 *kimni?* sevmaslik, oshiq (ma'shuq) bo'lmaslik (qiz bilan yigit, er bilan xotin). Antonimi: **yaxshi ko'rmoq** 1 *kim?* *kimni?*

Yo'q, u bilmayman deb xato aytdi – u biladi, Muhammadjonni yomon ko'rmasligini biladi. P. Qodirov. *Uch ildiz. Gapiga qarasang, yomon ko'radiganga, qilig'iga qarasang, naq yeb qo'yadiganga o'xshaydi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

YOMON KO'Z hasad bilan qaraydigan, buzuq niyatli kishi.

Tatyana Stepanovna uni yomon ko'zdan qizg'anib, oddiygina kiyintirdi. Sh. Toshmatov. Erk qushi.

YOMON KO‘Z BILAN QARAMOQ *kim? kimga?* 1 hirs bilan nazar tashlamoq (erkak kishi ayol kishiga).

O‘z qadrini bilgan xotinga erkak kishi yomon ko‘z bilan qaragani botinolmaydi. A.Qahhor. Xotinlar. *Shu choqqacha bir xotinga yomon ko‘z bilan qaraganim va o‘z xotinimga xiyonat qilganim yo‘q.* Oydin. Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit.

2 kamsitishga, tahqirlashga yaqin muomala-munosabatda bo‘lmoq.

Ikkinchi ona va uning bolalari Ochilga yomon ko‘z bilan qarash-masa ham, har holda, u begonasirab, sal narsani ko‘ngliga olib o‘ksir edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

yomon nafas qilmoq: nafas(i)ni sovuq qilmoq

YOMON YO‘LGA KIRIB KETMOQ *kim?* xulq-atvori yomon to-monga o‘zgarib, nojo‘ya, yaramas xatti-harakatlar qila boshlamoq.

Har qalay, yomon yo‘lga kirib ketgan bo‘lsa, bu yerga kelmas edi, kelganda ham, mehnatga, bu xilda mehnat qilishga bo‘yni yor bermas edi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. *Gapni qarang-u, birovni yaxshi ko‘rib qolsa, yomon yo‘lga kirib ketaverar ekanmi?* S.Zunnunova. Chin-nigul.

YON BERMOQ *kim? kimga?* yoki *nimaga? nima? nimaga?* ustun bo‘lishiga yo‘l qo‘ymoq. Sinonimi: **yon bosmoq** **2** *kim? kimga?* yoki *nimaga?*

Tortishuv davom etmoqda, Xalilov osonlikcha yon bermayapti. I.Rahim. Ixlos. *Har yilgidan ko‘ra uzoqroq cho‘zilgan qish nihoyat tabiatning ulug‘ qonuniga bo‘ysunib, bahorga*

yon berdi. O.Yoqubov. Bahor kunlaridan birida.

YON BOSMOQ *kim? 1 kimga?* homiylik qilmoq, yoqlamoq.

Hukumatimizni xotin-qizlarga yon bosadigan, odil deyishadi. S.Zunnunova. Gulxan. *Bir taraf Sohib qoriga, ikkinchi taraf Adolatga yon bosdi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

2 *kimga?* yoki *nimaga?* ustun bo‘lishiga yo‘l qo‘ymoq. Sinonimi: **yon bermoq** *kim? kimga?* yoki *nimaga? nima? nimaga?*

Hoji xola bo‘lsa yon bosadigan xilidan emas: aytganini oladi! M.Ismoiliiy. Farg‘ona tong otguncha.

yonga qolmoq: yon(i)ga qolmoq
YONI TO‘SHAK KO‘RMAGAY [janī tōšāk kōrmā=] tar. *kimning?* halovati yo‘qolmoq.

Maningtek necha oshiqlar sening husning xayolinda Boshi yostuqqa tegmagay, to‘shak ham ko‘rmagay yoni. Mavlono Is‘hoq g‘azali.

YON(D)GA KIRMOQ *kim? kimning?* qo‘llab-quvvatlab yordamlashmoq.

Qurbon ota shu ishni boshlagan vaqtda uning yoniga kiradigan odamlar paydo bo‘ldi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari... *xotnim el oldida uyatli bo‘lmasin deb yoniga kirib, hamma ishiga yordam berar eding.* S.Ahmad. Xotinlar.

YON(D)GA QOLMOQ *nima?* yoki *kim? kimning?* badalsiz naqd o‘ziniki bo‘lmoq. Varianti: **yonga qolmoq** *kim?*

Ikki-uch yildan keyin hamma sarf-harajat qoplanib, butun texnika yonimizga qolarkan. I.Rahim. Hilola.

«Qarz uzilar, xotin yonga qolar»
degan maqolni eshitmaganmisiz?
S.Abdulla. Kuyovlar, kelinlar...

YON(I)NI OLMOQ kim? kim-
ning? bahslashuvchi tomonlardan birini
himoya qilmoq, quvvatlamoq. Vari-
anti: **taraf(i)ni olmoq; tomon(i)ni
olmoq.**

*Biluvdim, pichir-pichir qilib qo-
luydingiz. Siz haqiqat qilmay, jinoyat-
chining yonini olyapsiz! Shikoyat qi-
laman. T.Malik. Charxpalak. Men
gangib qoldim. Xoliq yonimni olar-
mikan desam, u ham boshqalarga
qo'shilib, meni kalaka qilayapti.
H.Nazir. Cho'l havosi. Sizning tagi-
ngiz bo'sh, tarafingizni oladigan odam
bo'lmaydi. A.Muxtor. Tug'ilish. Sha-
rif akaning gapini quvvatlaganlar
go'yo Zamonning tomonini olganday
ko'rindi. N.Nazarov. Zamon.*

yopikli qozon yopikli: yopikli
qozon yopiqlicha qoldi

**YOPIQLI QOZON YOPIQLI-
GICHA QOLDI** yashirin narsa osh-
kor bo'lmay, yashirinligicha qoldi.
Varianti: **yopikli qozon yopiq qol-
di; yopiq qozonning yopiqlicha
qolgani; yopikli qozon yopikli.**

*Ayb o'zimizda. Endi hech narsani
ko'rmagandek ishingni qilaver. Yopiq-
li qozon yopiqlicha qoladi. I.Rahim.
Chin muhabbat. Yopikli qozon yopiq
qoli. G'iyosiddin tilmoch endi o'rtoq
Nizomiddinov bo'lib qishloq «faol»i-
ga aylandi. S.Ahmad. Hukm. Shuning
bilan «yopikli qozon yopikli», meni
chiqarib yuborishdilar, chiqishimda
«Tuya ko'rdingmi – yo'q» qilib, men-
ga qasam ham ichirdilar. G'.G'ulom.
Shum bola.*

yopikli qozon yopiq qoldi: yopiq-
li qozon yopikli qoldi

**yopikli qozonning yopiqlicha
qolgani:** yopikli qozon yopiqlicha
qoldi

**yopuqli qozon yopuqli'icha qol-
di:** yopikli qozon yopiqlicha qoldi

YOQA(SI)NI TUTAMLAMOQ
kim? hayratlanmoq.

*Ular shunchalik ko'p narsalarni
bilishadiki, eshitib yoqangni tutam-
laysan, tavba, tarvuzday bir kallaga
shuncha gap sig'adimi-ya, deya hay-
ron qolasan. Sh.Bo'tayev. Haykal.*

YOQA(SI)NI USHLAMOQ kim?
[o'zining?] – **YOQA(SI)NI USH-
LATMOQ** nima? kimni? [o'zining]
nihoyat darajada ajablanmoq (ikkin-
chi variant juda oz ishlatiladi). Si-
nonimi: **hayratda qolmoq kim?–
hayratda qoldirmoq nima? kimni?**

*Astoydil kirishsa, ishni o'piradi,
chaqqon juvon edi. Tunov kun katta
qayrag'ochni sudrab ketayotganini
ko'rib, yoqamni ushlagan edim. Oy-
bek. Oltin vodiyan shabadalar. Bu-
gungi yangilik hammani yoqasini ush-
latib qo'rgan edi. S. Ahmad. Hukm.*

yoqa(si)ni ushlatmoq: yoqa(si)ni
ushlamoq

yordam qo'li uzatilsa: yordam
qo'lini cho'zmoq

**YORDAM QO'LINI CHO'Z-
MOQ** kim? kimga? muhtojligini ko'-
rib, ko'maklashishga tayyor ekanini
bildirmoq. Varianti: **madad qo'li-
ni uzatmoq; yordam qo'li uzatilsa
kimga?**

*Do'ppi tor kelgan paytlarda Sa-
nam otin inisi Xasan ovchiga ham,
o'z jigarim deb, ko'p marta yordam*

qo'lini cho'zgan. Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Janjalning foydasi shundan iboratki, Ehson yengilsa, tentiraydi, yordam beradigan kishi izlaydi. Shu vaqtda yordam qo'li uzatilsa, shubhasiz «jon» deydi.* A. Qahhor. Sarob.

yorilmoq: dard(i)ni yormoq

YORUG' DUNYO 1 kishi hayot kechiradigan yer yuzi (diniy aqidaga ko'ra ikki dunyo bor, bu aqidada yorug' dunyo narigi, qorong'i dunyoga qarshi qo'yiladi).

Bilmaganga olmang o'zingizni, xonim. Siz mana bu yemi, – To'xtamish chap ko'kragiga mushtladi, – yetim qilib qo'yganingizdan beri mendan g'aribroq yo'q bu yorug' dunyoda. T.Malik. Charxpalak.

2 erkin, ozod turmush.

Biz yorug' dunyoni ko'rish uchun tug'ilganmiz, Turg'unoy! A.Qahhor. Maston. *To'rt devor ichida paranjida sarg'aygan boshqa ayollarni ham yorug' dunyoga olib chiqadi.* Sh. Toshmatov. Erk qushi.

yorug' dunyoga chiqarmoq: yorug' dunyoga chiqmoq

YORUG' DUNYOGA CHIQQARMOQ kim? – **YORUG' DUNYOGA CHIQQARMOQ** kim? kimni? erkin, ozod hayotga yetishmoq. Varianti: **yorug'likka chiqmoq.**

Axir endi mundoq yorug' dunyoga chiqaman deganingizda daydi o'qqa uchrab qolmang deyman-da. Sh. Toshmatov. Erk qushi. *Anoyi urush bo'layotgani yo'q, o'g'lim. Vatanning vayronasi – umrning g'amxonasi. Ammo oynning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'. Qorong'i kun*

mangu bo'lmas. Yorug'likka chiqib ketamiz. I.Rahim. Chin muhabbat.

YORUG' KUN baxtli, osoyishta hayot.

Onam sho'rlik ham xudodan umid qila-qila yorug' kun ko'rmay dunyodan o'tdi. S. Zunnunova. Gulxan.

yorug'likka chiqmoq: yorug' dunyoga chiqmoq

yosti bo'lmoq: ona(si)ning boshiga yosti bo'lmoq

YOSTIQDAN BOSH KO'TARMOQ kim? yotib qolgan xastalikdan keyin sog'aya boshlamoq. Varianti: **bosh ko'tarmoq III; bosh(i)ni ko'tarmoq II** kim? [o'zining].

Ular yaqindagina kasaldan bosh ko'targan dardmand kishilarga o'xshardilar. I. Rahim. Chin muhabbat.

YOSTIG'(I) QURIDI kimning? – **YOSTIG'(I)NI QURITMOQ** kim? kimning? butun oilasi bilan o'ldirib yuborildi.

O'z umrida ko'plarning yostig'ini quritgan, o'q yomg'irlaridan, olovlardan sog'omon chiqqan bu odam endi yakkalanib qolgan edi. S.Ahmad. *Hukm. Hozir bu oddiy haqiqat bo'lib tuyuladi. Lekin bu haqiqatga kelguncha necha yillar azobda o'tdi. Necha ming odamning yostig'i quridi, necha olim farazini o'z tanasida isbot etaman deb qurbon bo'ldi... Komil o'shalarga e'tiqod qildi.* T.Malik. Charxpalak.

yostig'(i)ni quritmoq: yostig'(i) quridi

YOTIB QOLGUNCHA, OTIB QOLMOQ kim? oxirgi imkoniyatdan ham foydalanish maqsadida harakat qilmoq.

Zor qishloq so'nggi tayanch edi. Suqiladigan boshqa kavak qolmadi. Yo'q yotib qolguncha, otib qolish kerak. S.Ahmad. Hukm.

YOTIB UYQU(SI) KELMAYDI kimning? tinchimaslik behalovat bo'lmoq.

Adashev «Xap senimi!» deb qo'ya-di-yu, to'satdan borib tekshiradi, tir-noqdan kir izlaydi, xullas, uni ishdan bo'shatib, o'rniga o'zining chatish-gan odamlarini qo'ymaguncha yotib uyqusi kelmaydi. A.Muhiddin. Xarakteristika.

YOTIB YEGANGA TURUM TOG'CHIDAMAYDI ishlamay-kuchlamay yotib yeyaversang, hech qanday jam-g'arma yetmaydi, degan ma'nodagi ibora.

Bolalarim, mendan xafa bo'lmang-lar. Yotib yeganga turum tog' ham chidamayd. Pul ustiga pul kelib qo'shilib turmasa, har qancha davlat ham darrov ketib qoladi. M.Osim. Tilsiz guvoh.

YOV KELDIMI?! bafurja ish qil, shoshilishga asos yo'q.

Qo'ya tur-chi, yov keldimi?! Yol-g'iz qizing, vaqt-soati kelganda uza-tarsan. Oybek. Qutlug' qon.

YOZ BOR, QISH BOR hozir bo'lmasa, yilning boshqa bir faslida (biror ishni amalga oshirishning vaqt-soati haqida).

«Borsangiz, sizni ham olib ketar-dik», – «Mavridi bo'lib qolar, – dedi Mayna, – Axir yoz bor, qish bor». Sh.Toshmatov. Erk qushi.

yozilmoq: ko'ngl(i)ni yozmoq

YOZUQIN BAG'ISHLAMOQ [jazuqin bay'isla=] tar. kim? kimning? kechirmoq.

Sulton ul o'g'lonning yozuqin ba-g'ishlab, ozod qildim, dedi va lekin maslahat ko'rmadi. S.Saroyi. Gulis-toni bit-turkiy. *Ey malik, otang joni uchun, boshing sadqasi, munung yo-zuqin bag'ishlagil, hatto meni dag'i balog'a solmasun...* S.Saroyi. Gulis-toni bit-turkiy.

yog' tomsa – yalagu[n]dek: yog' tushsa – yalagu[n]dek

YOG' TUSHSA – YALAGU[N] DEK 1 nihoyat darajada («toza»). Varianti: **yog' tomsa – yalagu[n] dek** («toza»); **yog' tushsa – yalagu[n] dek qilib** («tozalamoq»); **moy tomsa – yalagudek qilib** («tozalamoq»).

Yoz. Ko'chalarga suv sepilgan, yog' tushsa – yaqlagundek toza. Oy-din. Ikki ko'zi shunda. *Bu maydon yog'i tomsa – yalagudek ozoda.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Yog' tushsa – yalagudek qilib tozalab supurilgan keng hovlida gir aylanib o'tirgan yuz-ga yaqin odamni ko'rdi.* N. Maqsudiy. Bola yo'qotgan kishi.

2 nihoyatda toza.

Hamma narsasi saranjom. Hov-li-joy yog' tushsa – yalagundek. S.Anor-boyev. Pushaymon.

yog' tushsa – yalagu[n]dek qilib: yog' tushsa – yalagu[n]dek

yog' tushsa – yalaydigan qilib: yog' tushsa – yalagu[n]dek

YOG'I CHIQA DIMI?! [nima-ning? nima qilish bilan?] qayta-qay-ta aytish, biror ishni takrorlay berish hech qanday yangi natijaga olib kel-maydi.

Yana nimasini tekshiradi. Tek-shiravergan bilan yog'i chiqadimi?! S.Ahmad. Hukm.

YOSH(I) BIR JOYGA BORIB QOLDI *kimning?* umrning poyoniga yetay deb qolmoq, ko'p qismini yashab bo'lmoq. Sinonimi: **yosh(i) qaytib qoldi kimni? osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq kim?** [*o'zining*].

*Yoshi bir joyga borib qolgano bo'lsa ham, yuragida o'ti bor.*A.Qahhor, Yangi yer.

YOSH(I) QAYTIB QOLDI *kimning?* umrning poyoniga yetay deb qolmoq, ko'p qismini yashab qo'y-moq. Sinonimi: **yosh(i) bir joyga borib qoldi kimning? osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq kim?** [*o'zining*].

U juvonning egnida odmi chit ko'ylak bo'lib, qo'llari bilan bo'yni bezaklardan xoli edi. Balki yoshi qaytgan, dunyo bezaklaridan ko'ngli qolgandir? M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha. Yoshi qaytib qolgan bo'lsa ham, harakatchan, ko'z qarashlaridan bir so'zini ikki qildirmaydigan, tadbirli ko'rinardi.* A.Muxtor. Tug'ilish.

YOSH(I) O'TDI *kimning?* yoshlik davri tugab, keksalik davri boshlandi.

«Na soqolga qaraysiz, na kiyimboshga, uni qarang, soqolingizga oq tushmay shamolga silkinadigan bo'lib qolibdi». – *«Yoshimiz o'tdi. Bizni birov kuyov qilarmidi deysiz...»* S.Ahmad. Mastonbib. *Sherbek bir kuni Nazarovga: «Sizni agronomlarning malakasini oshirish kursiga yuborsak», – deb bergan o'z maslahatini beixtiyor esladi. U yoshi o'tib qolganini aytib chiqib ketgan edi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

yosh(i)ni yashab, osh(i)ni oshamoq: osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq

yosh(i)ni yashamoq: osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq

YUK(I) YENGIL *kimning?* sarfxarajati katta emas.

*Mening yukim yengil ... Ota-ona bo'lsa yo'q – o'lib ketgan.*P.Tursun. O'qituvchi.

YUK(I)NI YENGIL QILMOQ *kim? kimning?* sarf-to'lovni biroz kamaytirmoq. Varianti: **yuk(i)ni yengillashtirmoq.**

Bir yilgina yukimizni yengil qiling, o'zimizni eplab olaylik, keyin hissasini chiqararmiz. Oybek. *Nur qidirib. [Xotinim] o'zining kiyim-kechagi nari tursin, ro'zg'orning ba'zi kamchiliklarini ham tugallab, mening yukimni ancha yengillashtirdi.* S.Ayniy. Qullar.

yuk(i)ni yengillashtirmoq: yuk(i)ni yengil qilmoq

YUKUN CHEKMOQ [jükün chek=] tar. *kim? kimning?* tashvishini qilmoq.


Bir kishidan doimo ko'rub saxo, Umr borincha yukun cheksang ravo. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YULDUZ SANAB CHIQMOQ *kim?* tuni bilan uxlay olmaslik, tunni bedor o'tkazmoq. Sinonimi: **toqi sanab chiqmoq kim?**

Yulduz sanab chiqqan kechalaring-ku sanog'ini yo'qotdi. Ana shunday bedor tunlarda o'zi gapirib, o'zi javob berar, koyinardi. R.Fayziy. Farog'at.

yulduz(i) issiq: istara(si) issiq

YULDUZ(I) YULDUZ(I)GA TO'G'RI KELD *kimning?* bir-biriga mos bo'lmoq. Varianti: **yulduz(lari) to'g'ri keldi kimlarning?**



Bu nikohga o'zing rozi bo'lding, endi uni shubhaga solma. Yulduzi yulduziga to'g'ri kelsa, bas. I.Rahim. Ixlos. Yulduzimiz to'g'ri kelmadi. Sendaqa belbog'i yo'q erning menga keragi yo'q! S.Anorboyev. Oqsoy.

YULDUZLAR(I) JUFT TUSHGAN kimlarning? bir-biriga atab yaratilgan.

Qandingni ur, yulduzlaring juft tushgan bo'lsa-chi, odam bolasi senlarni ajrata olmaydi! Oybek. Qutlug' qon.

yulduz(lari) to'g'ri keldi: yulduz(i) yulduz(i)ga to'g'ri keldi

YULDUZNI BENARVON URADIGAN har qanday ishni abjirlik bilan bajaradigan (*salbiy*).

Odamlaringiz juda chapdast ekan. Yulduzni benarvon uradigan yigitlar o'shalar. Oybek. Qutlug' qon. To'qaboy deganimiz qayishday mahkam, tulkidek ayyor, bo'ridek olg'ir, yulduzni benarvon uradigan shayton edi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

yulduzni beshoti uradigan: yulduzni benarvon uradigan

YUMALOQ-YOSTIQ QILIB naridan beri, chala-chulpa, yuzaki.

Gruppalariga bir borib ko'ring. Agitator hammaga ma'lum gaplarni aytayotganini o'zi ham sezib turadi, shoshib, yumaloq yostiq qilib o'tkazadi. P.Qodirov. Uch ildiz.

yumilgan ko'z: ko'z(i)ni yummoq

yumshoq ko'ngil: ko'ngil(i) yumshoq

yumshoq ko'ngil [ekan]lig(i): ko'ngil(i) yumshoq

YUMRUQ URMOQ [jumruq ur=] tar. *kim? kimga?* mushtlamoq, musht bermoq.

Arslon bilan panja tutmoq dag'i qilichqa yumruq urmoq oqillar ishi degul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUMRUQLAR YEDURMOQ [jumruqlar jedir=] tar. *kim? kimga?* urmoq.

...yigit o'zina chekib bir necha mahkam yumruqlar yedurdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUMSHOQ TO'SHAKDAN ISSI KUL USTUNDA QOLMOQ [jumshaq tösäkdän issi kül üstündä qal=] tar. *kim? xonavayron bo'lmoq.*

Bu harif yumshoq to'shakdan issi kul ustunda qoldi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YURAG(I) ACHIDI kimning? 1 *kimga?* ayab kuyinmoq. Varianti: **yurag(i) achishdi.** Sinonimi: **ich(i) achidi 1** kimning? *kimga?* **jon(i) achi(y)di 1** kimning? *kimga?*

Qarasam, haligi qiz serjantni orqasiga chalqancha yotqizib, sudralib o'rmonga kirib ketayotir.. qizga yuragim achidi. Oydin. Suhbati jonon. *G'ulomjon sevgilisini shu ahvolda ko'rib, yuragim achishganidan bir narsa deyishga so'z topolmay qoldi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

2 *kimga?* yoki *nimaga?* achinib kuyinmoq. Varianti: **yurag(i) achishdi.** Sinonimi: **ich(i) achidi 2** kimning? *kimga?* **jon(i) achi(i)di 2** kimning? *nimaga?* ba'zan *kimga?*

Faqat do'stligimiz hurmati, yuragim achigandan gapiryapman. R.Fayziy. Tosh oyna. *Yigit ularning baxtiyor o'yinlariga esi ketib qarar, yuragi*

achishar, xo'rligi kelar edi. M. Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

yurag(i) achishdi: yurag(i) achidi

yurag(i) betladi: yurag(i) betlamadi

YURAG(I) BETLAMADI kimning? nima qilishga? nimadandir? xavfsirab, biror ishga jazm qila olmaslik. Varianti: **yurak betlamadi nima qilishga? betlamaslik kim? nima qilishga? yurag(i) betladi; yurak betlash nima qilishga?**

Ummat polvon indamaganiga, u ham so'ramadi. To'g'risi, so'rashga yuragi betlamadi. S. Anorboyev. Oqsoy. *G'aniyeva gap charxini aylantirib yuborish uchun: «La'lixonni ham olib kelmabsiz-da?», – dedi. «Bu yerga olib kelish u yoqda tursin, uyga borishga ham yuragi betlamay qoldi».* Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit?

YURAG(I) BEZILLAYDI kimning? zada bo'lish, hadiksirash, botinmaslik natijasida qo'rquv his etmoq.

Saida toyini mingani emas, diydorini ko'rgani yuragi bezillasa ham, noiloj borib yechdi. A. Qahhor. Sinchalak. *Yulduzxon bunday gaplardan qattiq ezilar, lekin ko'pincha unga gap qaytarmasdi. Chunki biron nima desa, o'rtada katta janjal boshlanib ketardi. Bundan Yulduzxonning yuragi bezillab qolgan edi.* S. Zunnunova. Latta. *Sulton bo'zchi har jumani yuragi bezillab kutar, ko'kragi qisishi, ko'zi ojizligiga qaramay, zax do'konida kechalari bilan sham yoqib bo'z to'qib chiqarardi.* A. Muxtor. Opa-singillar.

YURAG(I) BOTINMADI kimning? nima qilishga? jur'at etmas-

lik, dadil bo'la olmaslik. Varianti: **yurak botinmadi nima qilishga?**

Darvoza tagiga odamlar to'plangan, ular mo'ralashishar, lekin ichkariga kirishga hech kimning yuragi botinmasdi. S. Zunnunova. Gulxan. *Buni ko'rib, Gulsanam borarini ham, bormasini ham bilmay to'xtab qoldi. Borishga yurak botinolmay, orqaga tislandi.* Oydin. Gulsanam.

YURAG(I) BO'SHADI kimning? – **YURAG(I) NI BO'SHATMOQ** kim? Varianti: **ko'ngli(i) bo'shadi II – ko'ngli(i) ni bo'shatmoq; ich(i) ni bo'shatmoq.**

Bu gaplarni shu vaqtgacha hech kimga aytolmay to'lib-toshib yurgan edim. Yuragim bo'shadi. A. Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Qani endi, shu topda To'lagan bilan odam siyrak ko'chalarni kezib, ko'nglimdagilarini unga gapirib bersam, bir oy ichida to'plangan hasratlarimni to'kib, yuragimni bo'shatsam ...* O. Yoqubov. Muqaddas. *«Mening hasratim kimga kerak, og'a?» – «Hay tentak, gapir, ko'ngling bo'shaydi. Hasrat bitta sendami?»* Mirmuhsin. Oq marmar. *Unga qattiq gapirib, biroz ichini bo'shatgan Mahkam endi ancha yumshagan edi.* P. Qodirov. Uch ildiz.

yurag(i) daryo: yurag(i) keng

yurag(i) daryoday keng: yurag(i) keng

yurag(i) dov beradimi?!: yurag(i) dov bermadi

YURAG(I) DOV BERMADI kimning? nima qilishga? cho'chib botina olmaslik. Varianti: **yurag(i) dov beradimi?!; yurag(i) dovlamay; dov berolmay nima?** (oz ishlatiladi).

«Go‘yo mening erim bo‘lasiz-u, ZAGSga borib, meni taloq qo‘yasiz...» – «Bu qanday mumkin?» – «Yuragingiz dov bermaydimi, yigitcha? Do‘ppi, qiyiq sovlal deng-chi bo‘lmasa...» G‘.G‘ulom. Yodgor. Baraka bobo bilan qanday ko‘rishadi? Yuragi dov beradimi u bilan g‘aplashgani?! S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Yaqinda u Jamilaning eri bilan g‘ijillashib turgani ustiga kelib qoldi, ichkari uyga kirishga yuragi dovlamay, ayvonning bir burchagiga borib, shumshayib o‘tirdi. Mirmuhsin. Jamila.

yurag(i) dovlamay: yurag(i) dov bermadi

yurag(i) dukirlab urdi: yurag(i) urdi

yurag(i) dukirladi: yurag(i) urdi

yurag(i) ezildi: yurag(i)ni ezmoq

YURAG(I) JAZ ETDI kimning?

sevishga chorlovchi hissiyot paydo bo‘ldi. Varianti: **yurak jiz etdi (-)**.

O‘sha birinchi ko‘rganimdayoq yuragim jaz etibdimi bo‘ldi, mehri hali-hali ketmaydi. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. Faqat bu yerga keldik-u, mana shu Yulduzxonga yuragi jiz etib qoldi, borgan sari yonsa yonadiki, asti pasaymaydi. R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.

YURAG(I) JIG‘ ETIB QO‘YDI kimning? 1 bir lahza ich-ichidan qo‘rqish aralash hayajonlanmoq. Sinonimi: **yurag(i) shuv etib ketdi kimning?**

Bir kuni yarim kechasi Farmonqul kelib, «Volidangiz sizni yo‘qlayotibdilar», – dedi, yuragim jig‘ etib ketdi; borsam, tildan qolibdilar... A.Qahhor.

Qo‘shchinor chiroqlari. Bugun u suhbat o‘tkazishga kelib, Zamirani gruppasida ko‘rmadi va yuragi jig‘ etib ketdi. Kasalmi? Yoki boshqa biron narsa bo‘ldimi? P.Qodirov. Uch ildiz.

2 bir lahza ich-ichidan to‘lqinlanmoq. Sinonimi: **yurag(i) jizilladi kimning?**

G‘ulomjonning tikilib turganini sezgandek, u ham choponini ola turib yigitga yer ostidan qarab qo‘ydi. Shunda ko‘zlari to‘qnashdi. G‘ulomjonning yuragi jig‘ etib ketdi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

YURAG(I) JIZ ETDI kimning? bir lahza ich-ichidan ezilmoq.

Sharofat bolani olib darvozadan kirib ketgach, Siddiqjonning yuragi jiz etdi, ko‘ziga kelgan yoshini tez-tez kiprik qoqib yutdi-da... A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. Eng avval oq oralagan chekka sochlariga ko‘zi tushdi. Sattorovning ko‘zi yumuq, yuzi oriq, juda keksayganday ko‘rindi. Manzuraning yuragi jiz etib ketdi, ko‘z o‘ngi xiralashib, boshi aylandi.. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda.

YURAG(I) JIZILLADI kimning? bir lahza ich-ichida to‘lqinlanmoq. Sinonimi: **yurag(i) jig‘ etib ketdi 2 kimning?**

Yana bir yildan keyin har qaysimiz har tomonga ketamiz. Buni eslaganda kishining yuragi jizzillab ketadi. S.Zunnunova. Birinchi qadam.

YURAG(I) KENG kimning? hovliqmasdan, shoshmasdan ish tutadigan, og‘ir. Varianti: **yurag(i) daryoday keng; yurag(i) daryo; yurag(i) keng [ekan]ligi.**

Yuragingiz muncha ham keng bo‘lmasa, ko‘zingizga uyqu kelganiga

hayronman! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Sizni qarang-u, shu mahal-gacha menga bir og'iz aytmabsiz-a! Yuragingiz kengligiga balli-ey! S.Abd-uqahhor. Sirli gap. Umrzoq aka un-cha-muncha narsaga parvo qilmay-digan, yuragi daryoday keng odam edi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar. Tug'may o'lay, bolam, yaxshi aniqlab olmabsan-da. Onangning ham yuragi daryo. Bo'lmasa kelinining tuqqaniga uch oy bo'libdi-yu, bir kelib ketay demadi. Oydin. Kelin o'g'il tug'ibdi.

yurag(i) keng[ekan]ligi: yurag(i) keng

YURAG(I) KUYDI kimning? yoki nimaning? kuchli darajada chanqamoq.

«Qani, Muhiddin aka, yuragingiz ham kuygandir, qovunga marhamat», – dedi Muhiddin... R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Ot ariqdan tusha solib tushmug'ini suvga tiqdi. «Yuragi kuyibdi jonivorning», – deb o'yladi u. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

YURAG(I) ORQA(SI)GA TORTIB KETDI kimning? bir lahza ich-ichidan qo'rqish aralash qattiq hayajonlanmoq. Varianti: **yurag(i) orqa(si)ga urib ketdi, yuragi ortga tortdi.**

Siddiqjon sinchiklab qarab, bu xotin Sharofat ekanini tanidi-da, yuragi orqasiga tortib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ko'chada bolalar o'ynab yuribdi. Lekin Jami-la yo'q. Uning yuragi orqasiga tortib ketdi. Mirmuhsin. Jamila. Unga tuzukroq nazar solib, tizzalaridan butunlay mador ketdi, yuragi ortga tortdi, negadir qusgisi keldi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

yurag(i) orqa(si)ga urib ketdi: yurag(i) orqa[(si)]ga tortib ketdi

yurag(i) ochildi: yurag(i)ni ochmoq

yurag(i) pokiza: ko'ngl(i) toza

YURAG(I) PO'KILLADI kimning? biror yoqimsiz ishning voqe bo'lishidan hadiksiramoq.

Darhaqiqat, Kanizak O'rmonjonning oldiga yuragi pokillab bordi-yu, gul-gul ochilib qaytdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «Ishqilib, otdan gap ochmasa bo'lgani», – deb Qudratning yuragi pokillab turgan edi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

YURAG(I) QINIDAN CHIQ[A-YOZ]DI kimning? 1 betoqat bo'lmoq (tashvishlanib, zerikib).

Qo'rqmayman deb bo'lmaydi, o'g'lim, shunaqa vaqtda odamning yuragi qinidan chiqib ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Uyda o'tirish qayoqda deysan, yuragim qinidan chiqib ketay deydi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

2 sevinchdan kuchli to'lqinlanmoq.

Qizning paranjisini ko'rish bilan noq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi. Yerga mahkam tiralgan qo'pol etikli og'ir oyoqlari bir zumda zir titrab ketdi. Oybek. Qutlug' qon. «Oyi... Jo'raxon opam...» Bu shivirlashdan sal balandroq chinakam ovoz Tursunoyning ovozi edi. Onaxonning yuragi qinidan chiqib ketay dedi. A.Muxtor. Opa-singillar.

yurag(i) qisildi: yurag(i)ni siqmoq

yurag(i) qon: bag'r(i) qon

YURAG(I) QON BO'LDI kimning? – **YURAG(I)NI QON QILMOQ**

kim? kimning? 1 diltang bo'lmoq, ziq bo'lmoq. Varianti: **yurak-bag'r(i) qon bo'ldi; bag'r(i) qon bo'ldi; yuraklar qon bo'ldi(-); qon bo'lgan yuraklar (-); yurak-bag'r(i) xun bo'ldi (eskirgan); bag'r(i) xun bo'ldi (eskirgan); qon bo'lmoq kim? – qon qilmoq kim? kimni?** Sinonimi: **yurag(i)ni siqmoq nima? yoki kim? kimning? – yurag(i) siqildi kimning?**

Ertadan beri do'ppi, qiyiqcha, jiyak tikaverib, yuragi qon bo'lgan qizlar, xuddi qafasdan qutulgan qushdek, tomma-tom sakrab, gudaz tepasiga borib qolganlarini sezmaydilar. Oy-din. Bechora. «[O'g'lingizdan kelgan xatlarning] biron-tasini ko'rsatsangiz, o'lasizmi? Hammaning yuragini qon qildingiz-ku?» A.Qahhor. Asror bobo. «Nuri opa, zerikmadingizmi?», – dedi tanchaga o'tni ag'darib Gulnor. «Yurak bag'rim qon bo'lib ketdi, – qovog'ini solib bobilladi Nuri, – ertadan beri yolg'iz o'tiribman». Oybek. Qutlug' qon. *Ey Afandim, gram-mofonni ham oldirib qo'ydik, bo'lmasa Abdulla fonuschidan bir eshitardik. Qon bo'lgan yuraklarning chigili bir yozilardi.* S.Ahmad. *Hukm. Singling shomdan buyon churq etmaydi, zerikib naq yurak bag'rim xun bo'ldi. Endi sen ham kitobxonlik qil.* Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. Yotaverib, juda qon bo'lib ketdim, kechki havoda birpas dala aylanay degan edim.* S.Ahmad. *Hukm. Kelay desam, anov-ingiz hech qo'ymaydi... Bugun ham javob bermay qon qilib tashladi. Meni shunaqa erga berguncha, yerga bersangiz bo'lmas ekanmi!* M.Ismoiliy. *Farg'ona tong otguncha.*

2 ruhan azoblanmoq. Varianti: **yurak-bag'r(i) qon bo'ldi – yurak-bag'r(i)ni qon qilmoq; yurak-bag'r(i) xun bo'ldi (eskirgan); jigar-bag'r(i) xun bo'ldi (eskirgan); bag'r(i) xun bo'ldi (eskirgan); yurag(i) xun bo'ldi (eskirgan); qon bo'lmoq kim? Sinonimi: yurag(i)ni ezmoq nima? yoki kim? kimning? – yurag(i) ezildi kimning?**

Kuzning noqulayligidan har to'pda shoda-shoda ko'saklar ochilmay iriganini yuragi qon bo'lib ko'rgan edi u. Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. Ahmad Husaynga pochchasi-ning qishlog'idan bir tanish uchrab, bundan bir haftacha ilgari soliqni to'lay olmagan uchun Abduqodirni polislar qayergadir haydab ketganini aytdi. Yigitning yurak-bag'ri yana xun bo'ldi.* Oybek. *Nur qidirib. Shu baxtsiz onangning yarasiga tuz sepmasang, yurak – bag'rini qon qilmasang, dadang keltirgan xabar-ni aytaman.* Oybek. *Qutlug' qon. Bu hayotni okoplarda, zemlyankalarda, qorda, bo'ronda, o't va o'lim girdobida bag'ri xun bo'lib sog'inmaganmidi u?* Oybek. *Oltin vodiyan shabadalar. O'z ko'zim bilan ko'rib, o'z qulog'im bilan eshitmaganimda, senga qon bo'lib gapirib o'tirarmidim.* S.Ahmad. *Hukm.*

YURAG(I) QOQYORILAYOZ-DI kimning? sevinib, juda kuchli haya-jonlanmoq. Varianti: **yurag(i) yoril-gudek bo'ldi; yurag(i) yorilib ketar edi.**

Bu kun jumalik qilib chiqqan edim. Sizni ko'rib sevingandan yuragi qoq yorila yozdi; sizning vajohatingiz

– bu? Oybek. Qutlug‘ qon. *To‘xta xola hovlida idish-tovoq yuvib yurgan ekan, Olimjonni ko‘rib, yuragi yorilib ketgudek bo‘ldi.* I.Rahim. Chin muhabbat. *Dadang sening shunday bo‘lganingni ko‘rsa bormi, yuragi yorilib ketardi.* R.Fayziy. To‘g‘on-boyning qizi.

yurag(i) qora: qora yurak

yurag(i) siqildi: yurag(i)ni siqmoq

yurag(i) sof: ko‘ngl(i) toza

YURAG(I) SUV BO‘LIB OQADI kimning? butun borlig‘i bilan berilib tinglamoq.

U ashula aytganda erimagan sham eriydi, erigan ham eriydi. Ovozi qo‘ng‘iroqdek. O‘zi to‘qigan qo‘shiq-larni eshitsangiz, suv bo‘lib oqadi. S.Zunnunova. Gulxan.

YURAG(I) TAKA-PUKA BO‘L-DI kimning? – **YURAG(I)NI TAKA-PUKA QILMOQ** kim? kimning? nima bilan? ruhan notinch bo‘lmoq (keyingi variant juda oz ishlatiladi).

«Obbo, bir baloni boshlamasa yaxshi edi» deb yuragim taka-puka bo‘la boshladi. R.Fayziy. Qaynana. *Saida unga tayinli javob bermadi, kimni saylash majlisning ixtiyorida deganga ishora qildi-yu, shu bilan Usmonjonning yuragini taka-puka qilib qo‘ydi.* A.Qahhor. Sinchalak.

YURAG(I) TAKA-PUKA kimning? ruhan notinch, bezovta. Sinonimi: **ko‘ngl(i) bejo** kimning?

Oqpodshoh degan xumpar farmon chiqarib, xalqdan mardikor so‘rab qoldi. Urushda qo‘li baland emas, shekilli. Hammaning yuragi taka... Oybek. Qutlug‘ qon.

yurag(i) tars yorilguday bo‘ldi: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

YURAG(I) TARS YORILIB KETA YOZDI kimning? sabr-chidami tugab, xunob bo‘lib ketmoq. Varianti: **yurag(i) tars yorilguday bo‘ldi; yurag(i) yorilib ketay dedi; yurag(i) yorilguday bo‘l[ib ket]di; tars yorilib ketgudek bo‘lmoq kim?**

Lekin, to‘g‘risini aytsam, ot o‘yini ancha qiziq. Bularnikini ko‘rib bo‘lguncha yuragim tars yorilib keta yozdi. Oybek. Qutlug‘ qon. [Agapov] *vazmin, juda kamgap. Mashinamga tushib qolsa, yuragim tars yorilgudek bo‘ldi.* I.Rahim. Ixlos. *Hovlida to‘rtta tovuq bilan bitta yalqov mushukdan bo‘lak jonli narsa yo‘q gaplashgani, yuragi yorilib ketay dedi.* A.Muxtor. Tug‘ilish. *Aylanay, qizim, ana shunangangi jim o‘tirsang, yuragim yorilguday bo‘lib ketadi, ovozingni chiqaribroq o‘qi, men ham eshitay.* R.Fayziy. Cho‘lga bahor keldi. *Qishloqdan kelib, dalaga tarqalayotgan bu xil gapso‘zlardan Adolat tars yorilib ketgudek bo‘ldi.* I.Rahim. Chin muhabbat.

YURAG(I) TIPIRCHILADI kimning? kechinmalarning zo‘ridan bezovta bo‘lmoq.

Qudrat ot voqeasining bunchalik jiddiylashib ketishini sira-sira o‘ylamagan ekan. Hozir uning tili qichib keldi. Yuragim tipirchilab, bor gapni ochib solgisi keldi-yu, yana Xadicha ayaning qayta-qayta qilgan iltimosi esiga tushdi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

YURAG(I) TOR kimning? be-toqat, jirtaki. Antonimi: **yurag(i) keng** kimning?

Qo'yaver, uka, er-xotinlikda o'tadi. Ba'zi xotinlar yuragi torroq, g'ayirroq bo'ladi. H.Nazir. Rashk. Anzirat xola ham yuragi torgina bir kampir, bo'lar-bo'lmasga xarxasha qiladigan... A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

YURAG(I) TORLIK QILDI kimning? betoqatlik, jirtakilik kayfiyatini namoyon qilmoq.

[Qalandarov] tushgan bir-ikki savolga, yuragi torlik qilib, qisqa va to'mtoq javoblar berdi. Dokladning bemazaligini, ... kayfiyatini ko'rgan odamlar boshqa savol berishmadi. A.Qahhor. Sinchalak.

yurag(i) tors yorilib keta yozdi: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

yurag(i) toza: ko'ngl(i) toza

yuragi tosh: tosh yurak

YURAG(I) TOSHIB KETDI kimning? – **YURAG(I)NI TOSHIRIB YUBORMOQ** nima? kimning? kechinmalari ichiga sig'may, kimgadir aytish ehtiyoji tug'ildi.

Kampir ish bilan band, nevarasini ovutishga vaqti yo'q – Ra'noning yuragi toshib ketayapti. Qachon keladi uning oyisi? Nega kelmayapti shu choqqacha! I.Rahim. Ixlos. Bular hammasi hozir Yulduzxonning yuragini toshirib yubordi. Nima qilsin? Xammasini onasiga to'kib solsinmi? R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

YURAG(I) TO'KILIB TURIBDI kimning? alamidan yig'lab yuborish holatida bo'lmoq. Varianti: **to'kilib turgan yurag(i).**

U hayajondan qulog'i shovullab, yuragi to'kilib borardi. A.Muxtor. Tug'ilish. «Xafa bo'lmang, Dilshod-

jon, sizga qarab To'tiqizning ham yuragi to'kilyapti», – dedi onasi Dilshodning peshanasini silab. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. G'ulomjonning to'kilib turgan yuragiga qiz iltifoti madad berdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

YURAG(I) TO'LIB TURIBDI kimning? yig'ilib qolgan gaplarini aytishga ehtiyoj his etmoq.

Yaxshi kelibsizlar, yuragim to'lib turgan edi. Gaplashib yotamiz. S.Zun-nunova. Gulxan. Uning bosh og'rig'i ham bilinmay qoldi. Yuragi to'lib, dodlab yuborguday bo'ldi. Sekin cho'ntagidan ro'molchasini olib, ko'zini artdi. Mirmuhsin. Hayotga qaytish.

YURAG(I) URDI kim? hayajondan yurak tepishi tezlashmoq va kuchaymoq. Varianti: **yurag(i) dukurlab urdi; yurag(i) dukurladi.**

Imtihondan qanday o'tar ekanman» degan fikr bilan yuragim urib qo'yadi. G'.G'ulom. Yodgor. «Ey xolina, ey rahmsiz, bevafo! Sen yasha, shu mantiqsiz dunyodan bezdim. Be'ma'nilikdan bezdim, xayr!..» Yuragim dukullab urmoqqa boshladi. Tag'in biror falokat ro'y bersa, guvoh qatori lo'killay berib tinkam qurimasin deb astagina uyimga qaytdim. G'.G'ulom. Men o'zimni otaman...

YURAG(I) UVUSHDI kimning? salbiy o'y-xayol ta'sirida o'zini ruhan yomon his qilmoq Varianti: **ko'ngl(i) uvushdi.**

Qizning yig'isiga qarab Qutbini-saning dam ko'ngli uvushib, rahmi keladi, dam asabi buzilib, joniga tegib, tajang bo'ladi. Mirmuhsin. JAMILA. Men, yopirilib kelgan sovuq

tuyg'udan yuragim uvushib, archaga suyanib qoldim. O.Yoqubov. Izlayman. *U qolarkan qalbi uvushib, Qo'rqib boqar hovlisi tomon.* O.Hojiyeva. Hayotga ta'zim.

yurag(i) uyushdi: yurag(i) uvushdi

yurag(i) xira: ko'ngl(i) xira

yurag(i) xun bo'ldi: yurag(i) qon bo'ldi

yurag(i) yorildi: yurag(n)ni yormoq I

yurag(i) yorilguday bo'l [ib ket] di: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

yurag(i) yorilgudek bo'ldi: yurag(i) qoq yorila yozdi

yurag(i) yorilib ketay dedi: yurag(i) tars yorilib keta yozdi

yurag(i) yorilib ketar edi: yurag(i) qoq yorila yozdi

yurag(i) yorishdi: ko'ngl(i) yorishdi

yurag(i) yo'q: yurak yo'q

yurag(i) shig' etib ketdi: yurag(i) shuv etib ketdi

YURAG(I) O'YNADI kimning?

I yurak urishi odatdagidan ko'ra tezlashdi va kuchaydi.

Undan keyin [vishkadan] 100 metr-dan, 5-6 kun o'tgach, 150 metr-dan tashladim. Lekin sal qo'rqdim. Yuragim o'ynab, ozgina ko'zim ham tindi. A.Muhiddin. Lochin. *U ro'parasidagi oynadan erining aksini ko'rib, negadir qo'rqib ketdi. Qora ko'zlarini katta ochganicha sekin orqasiga o'girildi.* «Bandmisan, mayli, men kutib turaman», – dedi Qurbonali va pardani yopib qo'ydi. Sanobarning rangi o'chdi, yuragi o'ynadi. S.Zunnunova. Rashk.

2 qalbi hayajonga to'lin. Varianti: **yurag(i)ni o'ynatmoq** kim? kimning? **yurak o'ynashi** (–).

Bu joyga u doim vahima bilan tikilib, chetlab aylanib o'tardi. Hozir oyoq bosib qo'yib, yuragi o'ynab ketdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *U yana qancha-qancha odamlarning yuragini o'ynatib, «kindikyalarga borar, jo'rttaga o'zini tashlab yuborib, arqonga minib qolar edi.* Mirmuhsin. Dorbozlar. *Lekin yuzida aks urib turgan yurak o'ynashlarini sezdirib qo'ymaslik uchun o'zini bosib, Hasan so'fidan so'radi: «Xo'sh, o'zingiz bu yerda nima qilib turibsiz?»* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

YURAG(I) SHUV ETIB KETDI kimning? bir lahza ich-ichidan qo'rqish aralash hayajonlanmoq. Varianti: **yurag(i) shig' etib ketdi; jig' etib ketdi** I kimning? Sinonimi: **yurag(i).**

Ne ko'zi bilan ko'rsin, to'riq otning ustida hech kim yo'q... Yuragi shuv etib ketdi. G'.G'ulom. Jo'ra-bo'za. «Qizim, endi tashqariga chiqma, uyat bo'ladi», – dedi. Bunday gapni birinchi marta eshitganim uchun yuragim shig' etib ketdi. Oy-din. Do'ndiqdan ham yosh ekan.

YURAG(I) CHAPAK CHALIB YUBORDI kimning? nimadan? jo'shmoq, to'lib-toshib hayajonlanmoq.

«Borganimizdan keyin o'zlaridan ham bir eshitar ekanmiz-da». Umrida dutor chertmagan A'zam nima deb javob qaytarishini bilmasdi. Tohir uni mazax qilyaptimi yoki o'zi muzikaga shunchalik mukka tushganki, dutorni ko'rib, yuragi chapak chalayotganidan shu gapni aytyaptimi? R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

YURAG(I) CHIQIB KETDI kimning? – **YURAG(I)NI CHIQA-RIB YUBORMOQ** kim? kimning? (keyingi variant oz ishlatiladi) bir lahzada kuchli hayajonlanish bilan qattiq qo‘rqib ketmoq. Varianti: **yurak-purag(i) chiqib ketdi.**

Mahsisining qo‘njidan qizil sopli pichoq chiqarib, qorinbog‘ini shartta qirqib yubordi va otning jilovidan tortdi. Men bo‘lsam otni so‘yar ekanmi deb, xuddi yuragim chiqib ketayozdi. Oydin. Fonar tagida. *Shirmonxon opa ko‘ylagining yoqasini xiyol ochib, bir-ikki «tuf-tuf» dedi-yu, shu bir necha minut ichida yumaloq, yuzi qizarib, chiroyli ko‘zlari cho‘kib ketgandek tuyilgan Tursunoyga: «Voyey, yuragimizni chiqarib yubordingiz-a», – dedi.* M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha. *Ha, shoshma, avval o‘zim kirib, xabar olay, qo‘qqisdan kirib borsang, yurak – puragi chiqib ketmasin sho‘rlikning.* M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

yurag(i) chiroq yoqsa, yorimaydi: ich(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi
yuragida kiri yo‘q: ko‘nglida kiri yo‘q

yurag(i)da tugib yurmoq: ko‘ngl(i)ga tugmoq

yurag(i)da o‘t(i) bo‘lsa: yurag(i) da o‘t(i) bor

YURAG(I)DA O‘T(I) BOR kimning? g‘ayrat-shijoatli. Varianti: **yurag(i)da o‘t(i) bo‘lsa.** Antonimi: **yurag(i)da o‘t(i) yo‘q kimning?**

Yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa ham, yuragida o‘ti bor. A.Qahhor. Yangi yer. «Bilasizmi, o‘rtoq ... , o‘zlari ham charchash nimaligini bil-

maydilar», – «Yuragida o‘ti bor-da! Qizlar bilan quvonib-quvonib ishlasangiz bo‘ladi!» Oydin. Yuragida o‘ti bor.

YURAG(I)DA O‘T(I) YO‘Q kimning? g‘ayrat-shijoatdan mahrum. Antonimi: **yurag(i)da o‘t(i) bor kimning?**

Men bu Qo‘qoningga hayronman, yuragida o‘ti yo‘q, sasib-bijg‘ib gapirgani-gapirgan. Mirmuhsin. Dala baxti.

YURAG(I)DAN SIDIRIB TASH-LAMOQ kim?[o‘zining] kimni? yoki nimani uzil-kesil unutmok. Varianti: **qalb(i)dan sidirib tashlamoq.**

Shunday bir yengiltak qizni, albat-ta, yuragingda sidirib tashlagandir-san. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman. *Shu bilan bu hikoyaga go‘r qaziylik-da, yuragimizda sidirib tashlaylik.* G‘.G‘ulom. Yodgor. *Shunda men irodamni qo‘lga olib, qalbidan seni sidirib tashladim.* S.Ahmad. Begona.

YURAG(I)DAN URMOQ kim? [kimning?] o‘ziga shaydo qilib olmoq (salbiy). Varianti: **yurakdan urmoq kim?** Sinonimi: **jigar(i)dan urmoq kim?** [kimning?]

Bu bor joyda hech kim zerikmasdi. Bugun mum tishlab qoldi. Yoki yuragidan urdimikan? Xuddi shunday bo‘lgan. Oydin. *Sadag‘ang bo‘lay, komandir. Aytdim-ku, sal yurakdan uribdi deb, nega tushunmaysiz...* R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.

yurag(i)dan chiqarmoq: ko‘ngl(i)dan chiqarmoq

yurag(i)dan chiqmoq: ko‘ngl(i)dan chiqarmoq

yurag(i)ga og‘ir botmoq: og‘ir botmoq

YURAG(I)GA QIL SIG'MAYDI kimning? juda qattiq tajang bo'lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg'ul bo'la olmaslik; hech narsa yoqmaslik. Varianti: **yurakka qil sig'maydigan** (-); **ko'ngl(i)ga qil sig'maydi**; **yurag(i)ga si g'adi?!**

Nima kechqurun Salimxon keldi. U bir oydan beri qishloqlarda yurgan edi. U ham xafa, yuragiga qil sig'maydi. A.Qahhor. Sarob. Umrini halol, begunoh o'tkazgan yigitning hozir ko'ngliga qil sig'maydi. S.Ahmad. Hukm. «Qo'shiq aytsang-chi, Turg'unoy!...» – «Nima bo'lishimizni bilmaymiz..., qanday yuragingga sig'adi ashula?!» A. Qahhor. Maston.

yurag(i)ga qo'l solmoq: ko'ngl(i)ga qo'l solmoq

yurag(i)ga sig'adi?!: yurag(i)ga qil sig'maydi

yurag(i)ga sig'adimi?!: ko'ngl(i)ga sig'maslik

yurag(i)ga sig'maslik: ko'ngl(i)ga sig'maslik

yurag(i)ga tugmoq: ko'ngl(i)ga tugmoq

YURAG(I)GA VAHIMA SOLMOQ kim? kimning? kuchli darajada qo'rqish. Varianti: **ko'ngl(i)ga vahima solmoq**, **vahima solmoq**.

Bu to'zon hali zamon yer-u ko'kni qoplab, o'zi bilan qorong'i momoqal-diroq havosini boshlab keladiganday ko'rinadi. Ammo u hech kimning yuragiga vahima sola olmadi. S.Anorboyev. Oqsoy. Tug'ushlagan qo'llarini baland ko'targanicha vahima solib baqirib yubordi: – Qiyomat!! T.Malik. Charxpalak. Yuragimga vahima tushib qoldi. Qiziq, vahima kuchay-

gan sari Dev bilan bo'ladigan olishuv-ga bo'lgan qiziqishim ham oshaverdi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

YURAG(I)GA YAQIN [kim? kimning?] o'z fikrini, dardini aytib maslahatlashuvi, sirlashuvi mumkin bo'lgan.

Azizim, shunday kezlarda yuragimga yaqin kishi topolmaydigan bir paytda sen yodimga kelding. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman.

YURAG(I)GA O'T SOLMOQ kim? kimning? nima bilan? ruhan qiynalishiga sababchi bo'lmoq. Varianti: **ko'krag(i)ga o't solmoq**.

«Askar yigitga nima bo'ldi-ya, bolam, kelmay ketdi...», – deb qo'yadi. Yuragimga o't soladi. Indamayman. Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir. Bizning qizlarimiz ham judu sho'x bo'ladi. So'z bilan, noz bilan, hangoma bilan yigitlarning ko'kragiga o't soladi qirg'iz qizlari. Oybek. Qutlug' qon.

YURAG(I)GA O'T TUSHGANMI?! kimning? (I shaxs egalik affiksi bilan ishlatilmaydi) nimaga bu qadar ko'p suv ichasan?!

Yuragingga o't tushganmi, nima balo?! Xumni bo'shatding-ku, sho'r baliq yedingmi? S.Ahmad. Xotinlar.

YURAG(I)GA O'T YOQMOQ nima? yoki kim? kimning? ta'sir etib ruhlantirmoq, safarbarlik kayfiyatini yuzaga keltirmoq.

Uning so'zlari o'tirganlarga zavq bag'ishlar, yuragiga o't yoqar edi. A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. Agarda men rassom bo'lganimda-chi, mana shu paxtazorlar, mana shu azamat odamlarning ajoyib rasmini chizib,

hammaning yuragiga o't yoqardim!
H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

YURAG(I)GA G'ULG'ULA SOLMOQ kim? yoki nima? kimning? bezovta qilib qo'ymoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga g'ulg'ula solmoq**.

Ruzvon kampir har kelganda: «Qizing kundan-kun ko'zga yaqin bo'layotir, kelinjon, ehtiyot bo'!» – deb Halima opaning yuragiga g'ulg'ula soladi. Oydin. Do'ndiqdan ham yosh ekan. Yurakka g'ulg'ula soluvchi bu iztirobli o'ylarni ichkilik biroz bosar edi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

YURAG(I)GA G'ULG'ULA TUSHDI kimning? bezovta bo'lib qolmoq. Varianti: **ko'ngl(i)ga g'ulg'ula tushdi**. Antonimi: **ko'ngl(i) joyiga tushdi kimning?**

Yana xat to'xtab qoldi. Bu galgisi meni juda qo'rqitdi, tushlarim buzilib, yuragimga g'ulg'ula tusha boshladi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Buni kampir ham payqadimikin deb sekin razm solsa, payqabdi; payqabdi-yu, aftidan, ko'ngliga g'ulg'ula tushibdi. A.Qahhor. Asror bobo.

yurag(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi: ich(i)ga chiroq yoqsa, yorimaydi

yurag(i)ni bo'shatmoq: yurag(i) bo'shadi

YURAG(I)NI EZMOQ nima? yoki kim? kimning? – **YURAG(I) EZILDI** kimning? ruhan azoblamoq. Varianti: **yurakni ezmoq kim? yurak-bag'r(i)ni ezmoq kim? kimning?** – **yurak-bag'r(i) ezildi; yurak-bag'r(i)dan ezilmoq kim?** [o'zining]; **ko'ngl(i)ni ezmoq nima? kimning?** – **ko'ngl(i) ezildi; jigar-bag'r(i) ezil-**

di; bag'r(i)ni ezmoq nima? kimning? kim? [o'zining]. Sinonimi: **yurag(i) qon bo'ldi kimning? – yurag(i)ni qon qilmoq 2 kim? kimning?**

Paxtalarimni terib olay, yuragimni ezayotganu, boshimni quyi egishga sabab bo'lgan gunohdan pok bo'lay. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Yig'layverib, yuraklarimni ezib tashladi. S.Zunnunova. Gulxan. Azaga kelganlarning yurak-bag'rini ezib, yig'lamaganni ham yig'latdi. Mirmuhsin. Jamila. Yurak bag'ri ezilgan ona buni ko'rmaganlikka solib, biror ish bilan bandday, tashqarida ivirsigan bo'ldi. A.Muxtor. Opa-singillar. Bu narsa Yo'lchi ko'nglini yana chuqurroq ezdi. Oybek. Qutlug' qon. «Eh, – deb ko'ngli ezildi, – band emasligingda, odamlar gap qiladi deb, bo'lar-bo'lmasga o'zingni olib qochar eding...» P.Qodirov. Uch ildiz. Qandoqqina bo'lib o'sding ekan? Ko'z oldimga keltirolmay jigar bag'rim ezildi, yig'layman. A.Muxtor. Tug'ilish.

YURAG(I)NI HOVUCHLAB [o'zining] biror falokatning voqe bo'lishidan benihoya qo'rqan holda. Varianti: **yurag(i)ni changallab; yurag(i)ni hovuchlagan(i)cha. Sinonimi: jon(i)ni hovuchlab** [o'zining].

Tun bo'yi yuragimni hovuchlab ko'chaga qarab o'tirish osonmi axir?! S.Zunnunova. Gulxan. Onaxon bilan Anzirat kampir yuraklarini hovuchlaganlaricha Jo'raxon bilan Hojiya ikkovlarini ko'cha eshigigacha kuzatib qo'yishga majbur bo'ldilar. A.Muxtor. Opa-singillar. Olti oydan beri qo'rg'ondan chiqmagan bir dasta otlig'-u piyoda odamlar qorong'i

tunda yuraklarini hovuchlab, choh ko'prigidan o'tdilar. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yurag(i)ni hovuchlagan(i)cha: yurag(i)ni hovuchlab

YURAG(I)NI OLIB QO'YMOQ kim? kimning? – **YURAG(I)NI OLDIRIB QO'YMOQ** kim? [o'zining] bezillatib qo'ymoq. Varianti: **yurak oldir[ib qo'y]moq** kim? **oldirib qo'ygan yurag(i)** kimning?

Bu voqeadan yuragini oldirib qo'ygan Qutbinisa xola dam-badam derazadan uyga mo'ralardi. Mirmuhsin. Jamila. Yurak oldirib qo'ygan ekanman, har nafas orqamga qarab, qochish yo'lini mo'ljallar edim. G'.G'ulom. Shum bola. Tergov idoralarining chaqiruv qog'ozlarini ko'ra-ko'ra yurak oldirib qo'ygan Saidiy qo'rqib ketdi. A.Qahhor. Sarob. Mulla Fazliddin og'zidan chiqib ketgan so'nggi gapidan xavotirlanib, eshik tomonga qarab qo'ydi. Uning saroy ahliga yaqin yurib, ayg'oqchilardan yurak oldirib qo'yganini Tohir ham sezdi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yurag(i)ni oldirib qo'ymoq: yurag(i)ni olib qo'ymoq

YURAG(I)NI OCHMOQ kim? [o'zining] kimga? – **YURAG(I) OCHILDI** qalb(i)ni ochmoq.

Yaxshi ko'rgan kishi axir biroz yuragini ochmaydimi?! Mirmuhsin. Jamila. Shu ondan boshlab har ikki o'rtoqning yuraklari ochilib ketdi. Ular o'z boshlaridan kechirganlari haqida so'zlashdilar. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. Bunda gap ko'p. Qiz tushmagur yuragini kimga yorishni bilmay kirib qolgan ekan.

A.Muxtor. Dog'. «Dardimiz ichimizda, – deb ularning gruppalari Mahkamga kelib ko'nglini ochdi. – Men faqat sizga aytaman...» P.Qodirov. Uch ildiz. Qalbini ochmasa, dardini aytmasa, Chinnigul qayerdan bilsin. S. Zunnunova. Chinnigul. Men qo'niqo'shni dugonalarim bilan tez-tez gaplashib turaman, biz bir-birimizga ko'nglimizni yoramiz. A. Muxtor. Opa-singillar.

YURAG(I)NI QITIQLAMOQ nima? kimning? rohatbaxsh etadigan shirin his-tuyg'ular uyg'otmoq.

Hovlida dakang xo'rozning dam-badam qichqirishi, gullar shoxiga kelib qo'ngan bulbullarning sayrashi unga qo'shildi-da, Qudratning yuragini qitiqlab yubordi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

yurag(i)ni qon qilmoq: yurag(i) qon bo'ldi

YURAG(I)NI SIQMOQ nima? yoki kim? kimning? – **YURAG(I) SIQILDI** kimning? diltang bo'lmoq, ziq bo'lmoq. Varianti: **yurag(i) qisildi; yurak siqiladi (–); siqilib ketgan yurag(i)** [o'zining]; **siqilmoq** kim? Sinonimi: **yurag(i) qon bo'ldi** kimning? – **yurag(i)ni qon qilmoq** 1 kim? kimning?

Nega bunday qildi «Simyon» yuragini siqayotganmikan? Uy-joyini sog'indimikan?.. Mirmuhsin. Jamila. O'ylagan sari yuragi qisilib, ko'ngliga na Diloraning savollari va na terib turgan oppoq paxtalari sig'ar edi. A.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Juman siqilib ketgan yuragini haligina yonidan qochib chiqqan Xoldorga yordi. A.Muxtor. Tug'ilish.



Bugun juda siqilib ketdim. Dardlashadigan, yuragimni ezgan alam-sitamlarni eshitadigan do'st yo'q. S.Ahmad. Sevgingga sodiqman.

yurag(i)ni taka-puka qilmoq: yurag(i) taka-puka bo'ldi

YURAG(I)NI TIRNAMOQ nima? kimning? yashirin holda ruhan bezovta qilmoq. Varianti: **dil(i)ni tirnamoq; yurakni timdalamoq nima?**

G'ulomjonni bu yerga yuragini tirnab turgan bir badbaxtlik keltirgan edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Bu kulfat Adolatning ham uyiga kirdi, uning ham dilini tirnay boshladi.* I.Rahim. Chin muhabbat. *Tug'iladigan bolaning otasiz qolishi haqidagi achchiq fikr yurakni qattiqroq timdalar va ezardi.* I.Rahim. Ixlos.

574

yurag(i)ni toshirib yubormoq: yurag(i) toshib ketdi

YURAG(I)NI YORMOQ I kim? yoki nima? kimning? – **YURAG(I) YORILDI** kimning? qattiq cho'chitib qo'rqitmoq. Sinonimi: **o'taka(si)ni yormoq** kim? kimning? – **o'taka(si) yorildi** kimning?

Hay, bu nimasi, Tursunoy? Bolaning yuragini yorasiz-a, aylanay. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Qarg'aning tarnov tepasida o'tirib tashlagan kichkina suyagi bunga o'q tushgandek bo'lib ketdi. Jon holatda: «Voy juvormag-ey, yuragimni yording!» – deb ikki qo'li bilan yuragini ushladi.* Oydin. Yamoqchi ko'chdi.

yurag(i)ni yormoq II: yurag(i)ni ochmoq

yurag(i)ni yozmoq: ko'ngl(i)ni yozmoq

YURAGINI ZABT ETDI noxush kayfiyatni, qo'rquvni his qilmoq.

Bilmaydi, eslolmaydi – go'yo vahima o'z-o'zidan yuragini ilkis zabt etdi-qo'ydi. Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

yurag(i)ni o'ynatmoq: yurag(i) o'ynadi

yurag(i)ni g'ash qilmoq: ko'ngl(i) g'ash bo'ldi

yurag(i)ni changallab: yurag(i)ni hovuchlab

yurag(i)ni chiqarib yubormoq: yurag(i) chiqib ketdi

yurag(i)ning bir chekkasi g'ash: ko'ngl(i) g'ash

yurag(i)ning bir chekkasi g'ash bo'ldi: ko'ngl(i) g'ash bo'ldi

yurag(i)ning chigili yozildi: ko'ngl(i)ni yozmoq

YURAGING BORMI?! kimning? – *sening* nahotki shu qadar qo'rqqoq bo'lsang?!

«Yo'q, opajon, aylanib bora qo'laylik». – «Qaysarlik qilma, yuraging bormi o'zi?! Go'riston ko'rmanmisan, o'sha o'zimizning Naymanchaning yonidagi go'riston-da!» A.Muxtor. Opa-singillar.

yurak jiz etdi: yurag(i) jaz etdi
yurak ko'tarmaydi: ko'ngl(i) ko'tarmaydi

yurak oldir[ib qo'y]moq: yurag(i)ni olib qo'ymoq

yurak siqiladi: yurag(i)ni siqmoq

YURAK YO'Q kimda? nima qilishga? nima qilgani? qo'rqqanidan jazm qila olmaslik. Varianti: **yurag(i) yo'q** kimning? nima qilishga?

Uyga borishga yurak yo'q, kampirga ro'para bo'lgani toqatim qolmabdi. A.Qahhor. Sarob. «Men shuni

aniqlab bilaymi? Xotin-bolasi bo'lsa, indamaymiz; bo'lmasa, aytamiz». – «Hech yuragim yo'q. Mayli, nima bo'lsa ham, omon ekan-ku». Oydin. Sadag'ang bo'lay, komandir.

YURAK YUTIB qo'rqmasdan, botinib.

Shu kuni Zuhra kechgacha poyladi; ammo chumchuqlar yurak yutib qurtxonaga yo'lay olmadi. N.Nazarov. Zamon. *Shaharning amir lashkari Ixtiyoriddin Qo'shluning qo'l ostida to'rt yuz nafargina askar qolgani tufayli u yurak yutib yog'iyga yuzma-yuz bo'la olmayotgandi.* N.Qobul. Buyuk Turon amiri yohud aql va qilich. *Xayrixohlar ko'p, ammo yurak yutib, maydonga chiqadiganlar kam.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

YURAK YUTIB YUBORMOQ kim? botirlanmoq, jur'at-shijoat ko'rsatmoq.

Saodat bu safar, nima desam ekan-a, yurak yutib yuborgan bo'lsa kerak, xati kinoyalar bilan to'lib yotar edi. G'. G'ulom. Yodgor.

YURAK O'YNOG'I 1 kimning? yurakning bir fursat odatdagidan ko'ra tez va kuchli urishi (hayajonlanish holati).

Bir vaqt Vera Pavlovna xursand holda Azizni yetaklab koridordan chiqib keldi. Azizning og'zi qulog'ida. Rohat opaning chehrasi ochilib ketdi, yurak o'ynog'i bosildi, yugurib borib Vera Pavlovnaning qo'lidan tutib o'pdi va o'g'ilchasini achomlab oldi. H. Nazir. Cho'l havosi.

2 yurakning muttasil odatdagidan ko'ra tez va kuchli urishi (kasallik).

«Nima kasal ekan buving?», – «Bilmadim... Yurak o'ynog'imi, bezgakmi...» H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

yurakdan urmoq: yurag(i)dan urmoq

YURAKDAN CHIQRIB samimiy yo'sinda («gapirmoq»).

[Jalilov] so'zni yurakdan chiqarib gapirishga harakat qilar va tez-tez qasamyod qilib turardi. S.Nazar. Yashil boylik.

yurakka qil sig'maydigan: yurag(i)ga qil sig'maydi

yurakka sig'armidi?!: ko'ngl(i)ga sig'masliq

yuraklar qon bo'ldi: yurag(i) qon bo'ldi

yurakni ezmoq: yurag(i)ni ezmoq

yurakni timalamoq: yurag(i)ni tirnamoq

yurakning chigili yozildi: ko'ngl(i)ni yozmoq

yurak-purag(i) chiqib ketdi: yurag(i) chiqib ketdi

YUZ BERMOQ nima? sodir bo'lmoq, voqe bo'lmoq. Varianti: **ro'y bermoq.**

Birozdan keyin ko'prik ustida oldinma-кетин kuchli portlash yuz berdi. S.Ahmad. Iroda. *Har kuni bir ko'ngilsiz hodisa ro'y bera boshladi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Qishloqda keyingi yillarda ro'y bergan turli voqealar to'g'risida gap boshlandi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

YUZ BUZMOQ [jüz buz=] tar.kim? yuzini qonga belamoq.

Ikki johil qachon urush boshlar, Yuz buzlarlar urub, yorib boshlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZ EVURMOQ [jüz evür=] tar. *kim? kimdan?* voz kechmoq.

Evurmen yuz nechakim kelsa mehnat, Jafo sizdin, tag'i bizdin muhabbat. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

YUZ JOVURMOQ [jüz žavur=] tar. *kim? kimdan?* voz kechmoq.

Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh ko'turman. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

YUZ KO'RMAS BO'LMOQ *kim? kim bilan?* aloqani butunlay uzmoq.

Hoynahoy, keliningiz bilan kechadan boshlab yuz ko'rmas bo'lgandirsiz. R.Fayziy. Qaynana. *Har qalay, ular bizga qarindosh, yana yuz ko'rmas bo'lib ketishmasin. Dadang ham o'z so'zidan pushaymonga o'xshaydi. Sabr qil!* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

YUZ, KO'Z O'PUSHMOQ [jüz, köz öpüş=] tar. *kim? kim bilan?* xayrlashmoq.

Muni ayttim dag'i yuz, ko'z, o'pushub vido ettim. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Yuz, ko'z o'pushmak ne foyda qilur ul dam, Chunkim alar ayrilib yana yer emish g'am.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

yuz og'iz: ellik og'iz

YUZ QAYTARMOQ [jüz qajtar=] tar. *kim?* voz kechmoq.

Tangri qazosi bilan bir sa'b dushman cheriki yuz tutub keldi. Bu malikning hasham va hoshiyasi yuz qaytarib barcha ketti. S.Saroy Gulistoni bit-turkiy. *Ba'zi umaro aning buyrug'ina bo'yunsunmayin yuz qaytardilar.* S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZ SUVUN TO'KMOQ [jüz suvun tök=] tar. *kim?* obro'sizlanmoq, obro'sini yo'qotmoq.

Uyalmasmisankim, tekma bir xassis qatina borib buchuk habba uchun yuz sovun to'kub, aling uzatarsan. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZ SUVUN YELGA BERMOQ [jüz suvun jelgä ber=] tar. *kim?* obro'sini yo'qotmoq.

Dag'i oncha masturlar faqirliq sababi bilan fasod ishlarga tushub, yuz sovun yelga berib tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZ TUTMOQ *nima? ba'zan kim? nimaga? qayerga?* qat'iy yo'nalish olib harakatlana boshlamoq.

Bir vaqt Damashqda yoronlar suhbatindan ma'lul bo'lub, Quds yozilarina yuz tutub kettim, dag'i hayvonot bilan uns tuttum. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Bu orada oy ham G'ulomjon boshidan o'tib, g'arbga yuz tutdi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. *Beli yashashning maloli bilan bukilgan, ko'zi shom kabi zavolga yuz tutgan chol so'fi quyosh botuvini kutadi va azon aytishga og'zini juftlaydi.* G'.G'ulom. Netay.

YUZ XOTIR QILMOQ *kim? kimni?* 1 noqulay vaziyatlarda hurmat yuzasidan kimnidir izza qilmaslik.

Odotsizlik qilgan bu bolaning tanobini tortib qo'yardim-u, otasini yuz xotir qildim. So'zlashuv uslubi.

2 o'rni kelganda qilgan yaxshiliklari qaytarish.

Qo'shning bir paytlar oilamizga qilgan yaxshiliklarini yuz xotir qilib, quruq qo'l bilan qaytarishni lozim topmadim, yordam berdim. So'zlashuv uslubi.

yuz yorug‘: yuz(i) yorug‘

yuz yorug‘lig(i): yuz(i) yorug‘

YUZ O‘GIRMOQ I kim? kimga? yoki nimaga tomon? boshini burab qaramoq. Varianti: **yuz(i)ni o‘girmoq I** kim? [o‘zining] kimga? yoki nimaga tomon?

Xolxo‘ja unga g‘azabli nigoh bilan uzoq boqib turdi-da, po‘stakda ingrab yotgan yarador Tavfiq afandiga yuz o‘girdi. S.Ahmad. Hukm. *Keyin soqol-mo‘ylovi toza qilib qirilgani uchun o‘smirlarnikiga o‘xshash silliq yuzini qozi domlaga o‘girdi.* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.

2 kim? kimdan? muomalada bo‘lishni istamaslik. Varianti: **yuz(i)ni o‘girmoq II** kim? [o‘zining] kimdan? Sinonimi: **bet(i)ga qaramaslik** kim? kimning? **bet(i)ni ko‘rmaslik I** kim? kimning?

Allonbiy xonadonidagilarning serg‘azab bo‘lganicha bor. El yuz o‘girdi ulardan. X.Muxtor. *Qoraqalpoq qissasi. Mendan yuz o‘girgan butun yor-do‘stlarim, o‘rtoqlarim, esi bor odamning hammasi aytadi.* A.Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari. Piringiz Xo‘ja Yahyo ham sizdan yuz o‘girib, Boburga tarafdor bo‘lgan emishlar.* P.Qodirov. *Yulduzli tunlar.*

YUZ O‘GIRMOQ II. kim? kimdan? ba‘zan nimadan? qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burmoq. Varianti: **yuz(i)ni o‘girmoq II** kim? [o‘zining] kimdan (ko‘p ishlatiladi); **yuz(i)ni teskari o‘girmoq** kim? [o‘zining] kimdan? **yuzni ters burmoq.**

«*Bor, bor, sen bilan gaplashayotganim yo‘q!*» – deb Rahim undan yuz

o‘girdi. H.Nazir. *So‘nmas chaqmoqlar. U shartta oynadan yuz o‘girdi.* Sh.Toshmatov. *Erk qushi. Asalxon hovliga chiqqanida, chol undan yuzini o‘girib, ichida nimalarnidir pichirladi.* Mirmuhsin. *Dorbozlar. Odamlar unga [Nizomiddinovga] qaragani jirkanib, yuzlarini teskari o‘girishdi.* S.Ahmad. Hukm.

yuz o‘lchab, bir kesmoq: yetti o‘lchab, bir kesmoq

YUZ O‘YLAB, BIR SO‘ZLAMMOQ kim? o‘z fikr-mulohazasini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bildirmoq.

Ziyrak, yuz o‘ylab, bir so‘zlaydiganu, piyoladagi choy soviguncha ham-suhbatining yurak dardini payqab oladigan Riza Muhiddinning xayolini buzishga botinmadi. R.Fayziy. *Cho‘lga bahor keldi.*


YUZAGA KELMOQ nima? – **YUZAGA KELTIRMOQ** kim? nimani? barpo bo‘lmoq, yaratilmoq. Sinonimi: **bunyodga kelmoq** nima? – **bunyodga keltirmoq** kim? nimani? **vujudga kelmoq** nima? – **vujudga keltirmoq** kim? nimani?

Bu vaqtda ... ko‘pgina qishloqlari «Amiral muslimin» Ergashga qarashli yerlar – territoriya hisoblanar va bu o‘rtalarda tom ma‘nosi bilan xonlar zamonidagi tartib yuzaga keltirgan edi. Sh.Rizo. O‘ch.

yuzaga keltirmoq: yuzaga kelmoq

yuzaga chiqarmoq: yuzaga chiqmoq

YUZAGA CHIQMOQ 1 nima? ko‘ngildagi istak-rejalar voqelikka aylandi. Varianti: **yuzaga chiqarmoq** kim? nimani? Sinonimi: **ro‘yobga**



chiqmoq 1 nima? – ro'yobga chiqarmoq 1 kim? nimani?

Biror ishi o'ngidan kelmay, biror maqsadi yuzaga chiqmay, umri bekorga o'tib ketdi. A.Muxtor. Opa-singillar. *U o'z rejasini yuzaga chiqara olmagan uchun dam g'azablanar, umidsizlanar, dam yangi hiylalar to'qishga urinar edi.* Oybek. Qutlug' qon.

2 kim? moddiy-ma'naviy o'zlikdan xalos bo'lmoq. Sinonimi: ro'yobga chiqmoq 2 nima?

Sharoit og'ir. Tezda yuzaga chiqolmay, urinib qolarmikansiz. H.Nazir.

yuzga aytmoq: bet(i)ga aytmoq

yuzga solmoq: yuz(i)ga solmoq

yuzga chopar: betga chopar

YUZI OQ BO'LMOQ [jüzi aq bol=] tar. *kimning?* uyaladigan joyi yo'q, gunohi yo'q, olqishlashga loyiq bo'lmoq.

Jafolarg'a tahammul qil, tilasang, Yuzung tangri qatinda oq bo'lg'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZI OCHIQ paranji-chachvon yopinmay yuradigan. Varianti: **beti ochiq; ochiq.**

«Endi hamma gap qizingizda, – dedi Asalbibbi, – bilasiz, zamona sizlarniki... Yuzi ochiq, ko'zi ochiq, o'zim tanlab tegaman deydiganlardan u». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Bir vaqt machit yoqdan kelayotgan beti ochiq, xotinga ko'zi tushdi-yu, tikilib qarab qoldi.* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha.

YUZ(I) QIZARDI kimning? nojo'ya xatti-harakat, noqulay sharoit tufayli uyalmoq, xijolat bo'lmoq. Varianti: **qizarmoq.**

«Endi uning ta'rifini Normurod akamday to'g'ri so'zli bir kishidan eshitib, yuzlari qizarsin», – dedi Shoshmaqul. S.Ayniy. Qullar. *Modomiki mendan sodir bo'lmadi, tekshirsalar, haqiqat oldida o'zlari qizarib qoladilar, shunday emasmi?* Oybek. Nur qidirib.

YUZI QORA nojo'ya xatti-harakatlari bilan izzat-obro'sini yo'qotgan, el-yurt dashnomiga uchragan.

Endi, uka, mayli. U yuzi qora bilan san-manga borib o'tirma. A.Qahhor. Sarob.

YUZ(I) QORA BO'LDI kimning? – **YUZ(I)NI QORA QILMOQ** kim? kimning? nojo'ya xatti-harakatlari bilan izzat-obro'sini yo'qotmoq, el-yurt dashnomiga uchramoq.

Tanish-bilishlarga sharmisor, otanasi oldida yuzi qora bo'ldi. S.Zunnunova. Gulxan. *O'ldirilgan hayot uchun zolimlardan qasos olmasak, xalq oldida, avlod oldida yuzimiz qora bo'lsin!* M.Ismoiliiy. Farg'ona tong otguncha. *Ashaddiy vatan dushmani, tashviqotchi bo'lib yuribsan, badbaxt, yuzimni qora qilding, juvonmarg.* Oybek. Nur qidirib.

YUZI QUTLI [jüzi qutli] tar. ishtarali.

Ul aytti: «Ey so'zi totli, yuzi qutli, o'zi komil, Menim aybim ingan ko'btur, meni mentek kishi bilmas». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZI USTUNA TUSHMOQ [jüzi üstünä tüş=] tar. *kim?* yiqilmoq.

Sabr bilan bog'da g'o'ra bishar, dag'i oshiqqan kim ersa yuzi ustuna tushar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZ(I) YERGA QARADI kimning? – **YUZ(I)NI YERGA QARAT-**

MOQ kim? kimning? uyat-nomusdan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushmoq. Sinonimi: **yerga qaramoq kim?** – **yerga qaratmoq kim?** yoki **nima? kimni? bosh(i)ni bukmoq kim? kimning?** – **bosh(i) bukildi kimning? bosh(i)ni xam qilmoq kim? kimning? nosir(i)ni yerga bukmoq kim? kimning?**

Endi ta'na qilmanglar, yuzingizni aslo yerga qaratmayman, bolalarim. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Xosiyat buvi Adolatni nima deb yupatishni bilmas, uning softligini, nochorligini his qilsa-da, ba'zan ota-onasining yuzini yerga qaratganidan ko'nglida ranjirdi.* S.Zunnunova. Gulxan. *Hal qiluvchi jang men boshchilik qilgan minglik chekiga tushdi. Yaratganga beaded shukrlar bo'lsinkim, yuzimizni yerga qaratmadi.* N.Qobul. Buyuk Turon amiri yohud aql va qilich. *Kuzda qilgan bezoriliging, butun maktabni sharmanda qilganing kammidi, yana markazga borib yuzimizni yerga qaratib kelmoqchimisan?* X.To'xtaboyev. Quyonlar saltanati.

yuz(i) yorishdi: chehra(si) yorishdi

YUZ(I) YORUG' BO'LDI kimning? [kim oldida?] – **YUZ(I) YORUG'** kimning? uyaladigan joyi yo'q, olqishlashga loyiq. Varianti: **yuz yorug' (-); yuz yorug'lig(i)** [kimning?] Antonimi: **yuz(i) shuvut** [kimning?]

Siz bilan bizning yuzimiz yorug', uyaladigan joyimiz yo'q. S.Zunnunova. Yangi direktor. *Endi tabiblik qilmoqdamankim, ayblarim kishilarning ko'z oldida oshkora bo'lmayajak va ularni tuproq yashirajak (tuzalsalar –*

yuz yorug'ligim, tuzalmasalar – o'ljaklar). G'.G'ulom. Luqmon.

yuz(i) shamgin bo'ldi: yuz(i) shuvut bo'ldi

YUZ(I) SHUVUT BO'LDI kimning? – **YUZ(I)NI SHUVUT QILMOQ** kim? kimning? uyatli holatda qolmoq. Varianti: **yuz(i) shamgin bo'ldi; bet(i) shuvut bo'ldi.** Antonimi: **yuz(i) yorug' bo'ldi** kimning? [kim oldida?] – **yuz(i)ni yorug' qilmoq** kim? yoki nima? kimning? [kim oldida?]

Ishni yil boshidan pishik, qilsak, yuzimiz shuvut bo'lmaydi. A.Muhiddin. Mirishkor. *«Menga xudo bolamas, balo bergan ekan, – dedi birdan yig'lab [To'tibu], – dadangni qaytib kelar degandim... Yuzimizni shuvut qilganing yetmay, tiriklayin judo qilding».* S.Zunnunova. Gulxan.

YUZ(I) SHUVUT kimning? uyatli holatda. Antonimi: **yuz(i) yorug' kimning?**

Bola bechoraning dilini og'ritgan edim. Hali ham pushaymonman. UZR so'radim. Ammo hali ham yuzim shuvut. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Uzzukun pashshani fil silib, qayoqdagi gaplarni chulg'atib yurdingiz, mana endi el oldida yuzingiz shuvut.* A.Muhiddin. Ko'ngillar.

YUZ(I) CHIDAMADI kimning? nima qilishga? uyat-andisha qilmoq, nomus. Varianti: **bet(i) chidamadi; yuz(i) chidasa.**

«Xayri, meni kechir, ko'r edim. Endi ko'zim ochildi. Dissertatsiya yoqlabsan, gazetada e'lonni o'qiganimda hayajonimni bosolmay, tuni bilan uxlamay chiqdim. Institutga boray

desam, yuzim chidamadi». S.Ahmad. Begona. Meni borib ko'rishga yuzi chidamas, ko'rmay desa, sog'inch qo'ymas edi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Mayiz yemagan xotin. Biroq navkar-u sardorlari bilan bir joyda uzoq vaqt mehmon bo'lib turishga yuzi chidamaydi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yuz(i) chidasa: yuz(i) chidamadi
yuz(i) chidaydi [?]: bet(i) chidaydi [?]

YUZ(I)DA QON QOLMADI kimning? g'azablangani sababli rangi oqardi. Sinonimi: **yuz(i)dan qon(i) qochdi** kimning?

Zamira kutilmagan janjaldan qalt-qalt titrar edi. Muhammadjonning yuzida qon qolmagan, lablari pirpirab uchardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

YUZ(I)DAN NUR YOG'ILADI kimning? xushtabiat, xushmuloyim ekani qiyofasidan balqib turadi.

Narimon politexnika institutining to'rtinchi kursida o'qirdi. O'zi Akbarovday barvasta, yuzidan nur yog'iladi, hamma jihatdan Faridaga munosib. P.Qodirov. Uch ildiz.

YUZ(I)DAN QON(I) QOCHDI kimning? g'azablangani sababli rangi oqardi. Varianti: **yuz(i)ning qoni qochdi**. Sinonimi: **yuz(i)da qon qolmadi** kimning?

«Axir, o'rtoq Qo'chqorov o'zbi-larmonlik qilib, sal bo'lmasa qishloqni cho'ktirib qo'ya yozgani kimga sir?..» Sherbekning yuzidan qoni qochdi. «Men sabab bo'libmanmi? Ob-havo-ku»,– deb gap qotmoqchi ham bo'ldi. Ammo o'zini tiyib qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy. Mahkam esa nohaq gaplardan qattiq norozi bo'lib,

yana yuzining qoni qocha boshladi. P.Qodirov. Uch ildiz.

YUZ(I)DAN O'TA OLMASLIK kim? kimning? biror ishni qilishda kimningdir ra'yi, xohishi bilan hisoblashmoq.

Muhiddin «Birga kiraylik»,– deb qistay berganidan keyin, yuzidan o'tolmadim. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Sayohatchilar uning yuzidan o'tolmay, o'sha yoqlarda o'rik yesalar, danagini tashlamay olib kelaverishibdi. S.Ahmad. O'rik domla. Mirzo onasining yuzidan o'tolmagandek bo'lib saroyda qoldi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yuz(i)ga aytildi: bet(i)ga aytmoq

yuz(i)ga aytmoq: bet(i)ga aytmoq

YUZIGA BOTINIB QARAMOQ

uyatdan yoki aybdorlik hissi sabab majbur nigoh tashlamoq.

– Begim shahringizni sog'inganingiz yo'qmi? Oyisha begim endi Boburning yuziga botinib qaradi. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

yuz(i)ga gapirmoq: bet(i)ga aytmoq

YUZ(I)GA OYNA TUTMOQ kim? kimning? kim ekanligini? xulq-atvorini o'ziga oshkora gapirmoq. Varianti: **bashara(si)ga oyna tutmoq**.

Saidg'ozini Nazarov o'zining bu fikrlari bilan uning yuziga oyna tutganini payqamasligi mumkin emas edi. S.Anorboyev. Oqsoy. Shaxsga sig'inishni vujudga keltirgan sen, ha, sen! Senga o'xshagan xushomadgo'y-lar. Menga qara, basharangga oyna tutay, ko'r... S.Anorboyev. Oqsoy.

yuz(i)ga oyoq bosmoq: yuz(i)ga oyoq qo‘ymoq

YUZ(I)GA OYOQ QO‘YMOQ kim? kimning? behurmat qilish darajasida.

A, tog‘angning yuziga oyoq qo‘yding, endi meni ham pisand qilmaysanmi? A.Qahhor. Yangi yer. *Dunyoda o‘z taqdirini sizning taqdiringiz bilan umrbod bog‘lamoqchi bo‘lgan, sizga ishongan, sizni jonidan aziz ko‘rgan kishining yuziga oyoq bosishdan ham og‘ir jinoyat bormi?* A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

yuz(i)ga oyoq tiramoq: yuz(i)ga oyoq qo‘ymoq

YUZ(I)GA QANDAY QARAY(-DI)?! kim? kimning? o‘rtada uyatli, hijolatli voqea o‘tgani sababli ro‘para bo‘lib, ko‘ziga tik qaray olmaslik. Varianti: **bet(i)ga qanday qaraydi.** Sinonimi: **yuz(i)ga qaray olmaslik** kim? kimning?

Ishqilib, murodingizga yeting, inim. El-yurtning yuzingga qanday qarayman endi, bir bechora begunoh o‘lib ketdi. S.Ahmad. Hukm. «Falonchining qizi falonchiga xushtor bo‘lganmish, falonmish, pistonmish» kabi har xil g‘iybat va iftirolar tarqalsa, odamlarning betiga qanday qaraydi?! Oybek. Qutlug‘ qon.

yuz(i)ga qaramaslik: bet(i)ga qaramaslik

YUZ(I)GA QARAY OLMASLIK kim? kimning? o‘rtada uyatli, hijolatli voqea o‘tgani sababli ro‘para bo‘lib, ko‘ziga tik qaray olmaslik. Varianti: **bet(i)ga qaray olmaslik.** Sinonimi: **yuz(i)ga qanday qaray(-di)?!**

Birozdan keyin uydan oyim chiqqanda biz bir-birimizning yuzimizga qarayolmadik. O.Yoqubov. Muqaddas. *U Shafrinning yuziga qaray olmas va har bir harakati bilan go‘yo avf so‘rar edi.* A.Qahhor. Sarob.

YUZ(I)GA QON YUGURDI kimning? uyatli, noqulay ahvolga tushib qizarmoq. Varianti: **yuz(i)ga qon yurishdi.**

«Sharifa, – dedim nihoyat, – sening shaxsiy hayotingga aralashayotganim uchun balki jahling chiqar. Lekin o‘zing o‘ylab ko‘r. O‘rtoqlaring seni baxtsiz bo‘lsin deyishmaydi.» Sharifaning yuziga xiyol qon yugurdi. *U pastki labini tishlab, mendan yuzini o‘girdi.* S.Zunnunova. Ikkinchi xotin. «*Saidali akam...»* – yana so‘radi yigit. «*Ha, meni qayoqdan bilasiz?*» – so‘radi Marhamat. *Yigitning yuziga qon yurishdi, hamma unga qarardi.* R.Fayziy. Yo‘lda.

yuz(i)ga qon yurishdi: yuz(i)ga qon yugurdi

yuz(i)ga qorakuya surkamoq: yuz(i)ga qorakuya surtmoq

YUZ(I)GA QORAKUYA SURTMOQ kim? kimning? el-yurtga badnom qilib. Varianti: **yuz(i)ga qorakuya surkamoq.**

Boshiga shuncha tuhmat toshini yog‘dirgan, yuziga qora kuya surtgan noma‘lum dushmanini yumdalamoqchi bo‘lganday qo‘llarini ko‘ksiga qilib, changalini rostladi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Men Jumanning masalasini umumiy majlisga qo‘yishga qarshi emasman. Jumanni sud ham qilarmiz, yuziga qora kuya ham surkarmiz, bir umrga mayib ham qilarmiz, mayli... Lekin qurilishga bundan nima foy-*

da, o'ртоқ Pochchayev? A.Muxtor. Tug'ilish.

YUZ(I)GA SOLMOQ kim? kimning? nimani? aybli deb qaralgan kishining o'ziga shu haqda kesatib, achitib gapirmoq. Varianti: **yuzga solmoq** kim? nimani? **bet(i)ga solmoq**.

Saida uning, har nechuk, [dokladni o'zi yozmaganiga] iqror bo'lganiga suyundi-yu, qattiq tegmasin deb chala savod ekanini yuziga solmadi, boshqa gapga o'tdi. A. Qahhor. Sinchalak. *Qudrat xuddi bularning gapini eshitib olgan-u, endi betlariga solayotgandek gapirar edi.* M.Ismoilijiy. Farg'ona tong otguncha.

YUZ(I)GA TIK QARAY OLMASLIK kim? kimning? o'ta itoatkor bo'lmoq, o'z himoyasi uchun biror so'z ham ayta olmaslik.

Po'latjon shu paytgacha atasining yuziga qarayolmagandek edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Lekin men bir narsaga xursandman: kechagina har kimga qo'l qovushtirib yurgan, hech kimning yuziga tikqarayolmagan Kapsanchilar bugun... ko'rdingizmi, hech kimdan tap tortmaydi.* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

yuz(i)ga tupurmoq: bet(i)ga tupurmoq

YUZIN YERGA, KO'NGLIN O'LUMGA QO'YMOQ [jüzin jergä, köñlin ölümgä qoy=] tar. kim? hayotdan umid uzmoq, o'limiga rozi bo'lmoq.

Yuzin yerga, ko'nglin o'lumga qo'yub aytar edi... S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YUZINA TAHSIN QILMOQ [jüzinä tahsîn qıl=] tar. kim? kimni? maqtamoq.

Dushman bilan sulh etarg'a ko'nglung bo'lsa, Ul so'ksa qafodor qil yuzina tahsin. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

yuzini ko'rib: yuzini ko'rmaslik I
YUZINI KO'RMASLIK I kim? nimaning? ro'para kelmaslik, duchor bo'lmaslik; foydalanmaslik. Varianti: **betini ko'rmaslik II; yuzini ko'rib.**

O'zi umrida kurortning yuzini ko'rgan emas, meni har yili odam ko'shib kurortga yuboradi. A.Qahhor. Sinchalak. *O'sha mahalda Boltiq bo'yining qish fasli edi, qattiq, yog'ingarchilik bo'lib, quyosh betini ko'rmasdik.* M.Muhamedov. Qahramon izidan. «Oh, – dedi dahlizda bu so'zlarni eshitib o'tirgan Safarqul Ergashga, – bizda ham shunday bo'lsa edi, biz ham yorug' dunyoda yer va qo'sh ho'kizning yuzini ko'rib, qornimiz nonga to'yar edi». S.Ayniy. Qullar.

yuz(i)ni ko'rmaslik II: bet(i)ni ko'rmaslik I

YUZ(I)NI OCHIB YUBORMOQ kim? kimning? – **BET(I) OCHILIB KETDI** kimning? uyalmaydigan qilmoq.

«...Tezroq jo'namasam, maniyam yuzimni ochvoradiganga o'xshaysizlar». S.Anorboyev. Oqsoy. «Tergayotganim yo'q, uyat deyapman». – «Birovlarning o'rtasiga tushganing uchun o'zing uyal, qaqajon. Beting ertaroq ochilib ketibdi». I.Rahim. Chin muhabbat.

yuz(i)ni qora qilmoq: yuz(i) qora bo'ldi

yuz(i)ni teskari o'girmoq: yuz o'girmoq II

yuz(i)ni yerga qaratmoq: yuz(i) yerga qaradi

YUZ(I)NI YORUG‘ QILMOQ kim? yoki nima? kimning? [kim oldida?] uyatli holatdan xoli bo‘lmoq. Antonimi: **yuz(i) shuvut bo‘ldi kimning?** – **yuz(i)ni shuvut qilmoq kim? kimning?**

Farg‘onada kurash bo‘lib, Yog‘och polvon o‘sha polvonni charxpalak qilib yerga urdi-yu, yuzi yorug‘ bo‘ldi. S.Ahmad. Cho‘l burguti. *O‘y-laymanki, ahillik bilan, vijdon bilan ishlasak, bizdan hech ish qochib qutula olmaydi, ko‘zlagan maqsadimizga yetamiz, el oldida yuzimiz yorug‘ bo‘ladi.* A.Muhiddin. Mirishkor. *Ko‘pchilikka foydam tegsa, oxiri shu yuzimni yorug‘ qiladi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

yuz(i)ni o‘girmoq I: yuz o‘girmoq I

yuz(i)ni o‘girmoq II: yuz o‘girmoq II

yuz(i)ni shuvut qilmoq: yuz(i) shuvut bo‘ldi

yuz(i)ning qoni qochdi: yuz(i)-dan qon(i) qochdi

YUZINGDA KO‘ZING BORMI DEMAY har qanday yuz-xotir, uyat-andishani pisand qilmay.

Nima deganingiz bu, Rohatoy? Yuzingda ko‘zing bormi demay gapirasiz-a. Evi bilan-da. S.Anorboyev. Yo‘llanma bilan. – *Safsata! – dedi Turdiqul shartta, yuzingda kozing bormi demay.* Sh.Bo‘tayev. Haykal.

yuzni ters burmoq: yuz o‘girmoq II

YO‘L BERMOQ 1 kim? kimga? yoki nimaga? (harakatdagi narsaga) o‘zi chetlanib, boshqaning o‘tishiga imkon bermoq.

Ota tisarilib, yuk ko‘targan yigitga yo‘l berdi. S.Ahmad. Qaytish.

2 nima? yoki kim? nimaga? yoki kimga? monelik qilmaslik.

Xoinlikdan so‘ng ularning xotirasini haqorat qilishga vijdoningiz qanday qilib yo‘l berdi? O.Yoqubov. Ota izidan. *Muqaddas ostonaning bu qadar oyoq osti bo‘lishiga men yo‘l bermayman.* S.Abdulla. Muqimiy. *Mahkamga soxta g‘urur yo‘l bermayotganga o‘xshaydi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

YO‘L BOSMOQ kim? yoki nima? ma‘lum masofani o‘tmoq, ortda qoldirmoq.

Maston necha kilometr yo‘l bosganini va yana necha kilometr bosish kerakligini bilar edi. A.Qahhor. Maston. *Shu zaylda kunlar bir-birini quvib o‘tar, poyezd havoni kesib, o‘rmon va dashtlarni orqada qoldirib yo‘l bosar edi.* S.Ahmad. Qo‘shiq.


YO‘L BOSHLAMOQ kim? qayoqqa borishni ko‘rsatib o‘zi yura boshlamoq.

Bu kallakesar: «Oldimga tush!», – desa, o‘zidan qo‘rqqanidan yo‘l boshlab keta beribdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

YO‘L BO‘LSIN 1 kimga? qayerga ketayapsiz? qayerga bormoqchisiz? (so‘rash).

«Yo‘l bo‘lsin!», – dedi chol. «Ko‘p-dan quruq qolma deydilar. Anav vaqtda patir ushatildi degan edingiz, bugun kichik to‘y kelayotgan emish, shunga ketyapman». Oydin. Shirin keldi.

2 qayoqda! (biror ishni) qila olarmidi?! (ta‘kid).



«Siz ham yozasizmi?» – «Bizga yo'l bo'lsin ..., – deb kuldi Erkin. – Ishimiz – mashina haydash». S.Abdurahhor. Hayotning boshlanishi. Men bino qilganman bu uyni. Sizdaqa beshud erga yo'l bo'lsin uy qilish! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

yo'l bo'lg'ay: yo'l bo'lsin

YO'L KESMOQ [jol kes=] tar. kim? yo'lto'sarlik qilmoq.

Falon tog' boshinda haromiylar bor, kechkan korvonn urub, yo'l kesib o'tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

yo'l ko'rsatmoq: yo'l-yo'riq ko'rsatmoq

yo'l ochildi: yo'l ochmoq

yo'l ochiq: yo'l(i) ochiq

YO'L OCHMOQ nima? yoki kim? nimaga? kim kimga? kim? yoki nima? nima qilish uchun? (nima bo'lishi uchun?) – **YO'L OCHILDI** nimaga? yoki kimga? nima qilish uchun? (nima bo'lishi uchun?) imkoniyat yaratmoq.

Shu kulgi Saidiynning keyingi harakatiga yo'l ochdi. A.Qahhor. Sarob. Yomon niyatning yo'ldoshi ko'p bo'ladi, degandek, uning o'ch olishiga Said Jalolxon eshon yo'l ochib berdi. S.Ahmad. Hukm. Amalda siz aytganday qilinsa, beboshlikka katta yo'l ochiladi, hamma yoq anarxiya bo'lib ketadi. P.Qodirov. Uch ildiz. O'zi bir janjal ko'tarsa-da, buni gorkomga ko'tarib borsa, mening uchun katta yo'l ochilar edi. A.Qahhor. Sarob. Leksiyalar ixtiyoriy bo'lsa, o'sishning ijodiy mehnatga aylanishi uchun katta yo'l ochiladi. P.Qodirov. Uch ildiz.

YO'L OLMOQ kim? yoki nima? yo'nalmoq. Sinonimi: **yo'l solmoq** kim? yoki nima?

Katta yo'lga chiqqanida shofyorni chaqirib, yoniga o'tqizdi-da, tumanga tomon yo'l oldi. A.Qahhor. Sinchalak. Hammalari Jo'raning uyiga yo'l olishdi. N.Nazarov. Zamon. Tabiatning bu erkatoylari [kiyiklar] yakka tol tagidagi chashma suvlari tomon yo'l oladi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

YO'L OZMOQ [jol az=] tar. kim? adashmoq. Varianti: **yo'ldan ozmoq.**

Aning bekin bir sayyoh faqir dag'i yobon ichinda yo'l ozib, quti-quvvati tuganib, bir necha aqcha belinda bor edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Aningtek o'zdan edi ul yuzi oy, Ko'rar bo'lsa farishta yo'ldan ozg'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Aytur o'zgaga dag'i tutmas o'zi, Lojaram uyug'an anga yo'ldan ozar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YO'L QO'YMOQ kim? nimaga? voqe bo'lishiga imkon bermoq. Varianti: **yo'l qo'yilgan(-).**

Ha, katta bir xatoga yo'l qo'yganim endi aniq edi. O.Yoqubov. Muqaddas. Sen nega og'zingni ochib o'tiribsan, Zunnunov, nega zararkunandachilikka yo'l qo'yding? I.Rahim. Ixlos. Shu kuni Lutfinisa kelin bilan qudasining bir daqiqa xoli gaplashishlariga yo'l qo'ymadi. Mirmuhsin. Jamila.

YO'L SOLMOQ kim? yoki nima? yo'nalmoq. Sinonimi: **yo'l olmoq** kim? yoki nima?

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo'l soldim. G'.G'ulom. Shum bola. Maston ilang-bilang yo'l-

ni soldirib, mo'ljallagan tepalikka qarab tikka yo'l soldi. A.Qahhor. Maston. Sirli suv qudratli xalqimizning yangi topshiriqlarini bajarish uchun yangi izdan elektr stansiyasiga qarab yo'l soldi. Oydin. Farhodlar.

YO'L TOPMOQ I kim? kimning? mehrini qozonmoq.

Agar kishilar bilan yaxshi muomala qilsangiz ularning qalbiga yo'l topsangiz ish o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

yo'l topmoq II: yo'lini topmoq

yo'l tutmoq: yo'lini tutmoq

yo'l qilmoq: yo'lini qilmoq

yo'l qo'yilgan: yo'l qo'yimoq

YO'L YO'Q nima qilishga? mumkin emas, taqiq ostiga olingan.

Kechki kinoga ham kiritishmaydi. Teatrga-ku mutlaqo yo'l yo'q. S.Ahmad. Dadamning o'rtog'i.

YO'L CHEKMOQ [jol çek=] tar. kim? uzoq masofani bosib o'tmoq, ko'p yurmoq.

Faqir yo'l chekib, orib, ochib o'turur edi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YO'L(I) OCHIQ kimning? erki o'z qo'lida, xohlagan ishini qilishi, xohlagan yeriga ketishi mumkin. Varianti: **yo'l ochiq** kimga?

O'zingiz: «Yo'ling ochiq, keta ber, men ota-onamni deymen», – degan edingiz-ku. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Nega aljiraysiz?! Shaharni sog'ingan bo'lsangiz, yo'l ochiq, sizga. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

YO'L(I) TUSHDI kimning? qayerga? qayerdandir? avvaldan reja qilmay, o'z-o'zicha o'tmoq.

Huriniso bog'chaga faqat o'sha tomonga yo'li tushgandagina birrov

kirib chiqar, hamma ishni Kifoyatxonning o'zi qilib, oylikni ham o'zi olar ekan. A.Qahhor. Sinchalak. Agar o'sha tomonga yo'lingiz tushsa, bir kirib, Jamolxonni o'z ko'zingiz bilan ko'rib, menga xat yozib yuborsangiz. R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.

yo'l(i)ga ko'z tutmoq: ko'z tutmoq

YO'L(I)GA YURMOQ kim? kimning? fikr-mulohazalarini ma'qullab, aytganlariga amal qilmoq.

... lekin sizga maslahat soladilar, maslahatingizga yuradilar-da; yaxshi maslahat bersangiz, yurmaydilar-mi? Yo'lingizga yurganlari, chizgan chizig'ingizdan chiqmaganlari shu-da! A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

YO'L(I)NI QUVMOQ kim? kimning? kimningdir ish-faoliyatini tanlab, shuni astoydil davom ettirmoq.

«Biz qaynatamizning yo'lini quvdik, – dedi mast ko'zlarini suzib.– U kishi Maskovga, hatto Varshavaga qatnagan ekan». S.Anorboyev. Oqsoy.

YO'L(I)NI TOPIB OLMOQ (...TOPIB KETMOQ) kim? o'zining hayotini to'g'ri izga tushirib olmoq.

Bu zamonda hech kim ham ko'chada qolmas ekan: zavodda biri onam bo'ldi, biri akam bo'ldi – yo'limni topib oldim. A.Qahhor. Og'riq tishlar.

YO'L(I)NI TO'SMOQ kim? kimning? biror xatti-harakatni amalga oshirishda monelik qilmoq.

O'qishga ketmoqchi ekansan-ku. Nega bir og'iz menga shundoq-shundoq demaysan, yo'lingni to'smayman-ku. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Peshanam ekan, yolg'izimdan ayrildim, Nasibaning yo'lini to'sib o'tirishga

endi haqqim yo‘q, men rozi, joyi chiqsa, uzatib qutuling. H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil.

YO‘LDA QOLDIRMOQ kim? kimni? yoki nima? nimani? o‘zib ketmoq, ustun holatni egallamoq.

Qimmat musobaqadosh Himmatni yo‘lda qoldirdi. M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. *Uning tajriba uchun olib borayotgan bu ishi Jo‘ra-ning «piyoz», «jo‘ja»larini yo‘lda goldirib ketdi.* N.Nazarov. Zamon.

yo‘ldan ozdirmoq: yo‘ldan ozmoq

YO‘LDAN OZMOQ kim? – **YO‘LDAN OZDIRMOQ** kim? kimni? yomon yo‘lga kirmoq, aynimoq. Sinonimi: **yo‘ldan toymoq** kim? **yo‘ldan urmoq** kim? kimni? **yo‘ldan chiqarmoq** kim? kimni?

Sho‘rlik. Bohir, yo‘ldan ozding, O‘z yo‘lingga zovur qazding. S.Ab-dulla. Tohir va Zuhra. *Keyin bilsam, u xotinim Nasibani yo‘ldan ozdirish niyatida kelgan ekan.* H.Nu‘mon. Yoshlikda bergan ko‘ngil. – *Mulla Zoir masjididan qaytayotib ko‘rdiki shu hol; iblis yo‘ldan ozdirdimi, ish-qilib, u ham shu davraga yaqinlashdi.* T.Malik. Charxpalak.

yo‘ldan qoldirmoq: yo‘ldan qolmoq

YO‘LDAN QOLMOQ kim? – **YO‘LDAN QOLDIRMOQ** kim? kimni? keta turib, biror sabab bilan to‘xtatmoq. Sinonimi: **yo‘ldan qo‘ymoq** kim? kimni?

Gazetaga bergan bo‘lsangiz, chiqqandan keyin o‘qib, o‘zi tushunib oladi, tushunmasa, kovlashtiradi. Siz yo‘ldan qolmang. A.Qahhor. Sarob.

«Buyoqni yo‘ldan qoldirgan men edim», – dedi Saodat. O.Yoqubov. Tog‘ qizi.

YO‘LDAN QO‘YMOQ kim? kimni? ketayotgan kishini biror sabab bilan to‘xtatmoq. Sinonimi: **yo‘ldan qoldirmoq** kim? kimni?

«Meni yo‘ldan qo‘ymang! – dedi u hamon Qodirjonga qaramasdan.– Foydasi yo‘q!» O.Yoqubov. Tog‘ qizi.

YO‘LDAN TOYMOQ kim? yomon yo‘lga kirmoq, aynimoq. Sinonimi: **yo‘ldan ozmoq** kim?

Shaharda ba‘zi oliftalar bilan ul-fatchilik qilib, Boqijon yo‘ldan sal toydi: serchiqim bo‘ldi, choyxonada oshxo‘rlik qildi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

YO‘LDAN URMOQ kim? kimni? yomon yo‘lga boshlamoq, aynitmoq. Sinonimi: **yo‘ldan ozdirmoq** kim? kimni? **yo‘ldan chiqarmoq** kim? kimni?

Qaynana. Shunday ajoyib ishchi, ajoyib odam bo‘lib yetishayotgan o‘smirni yo‘ldan uribsiz-a? Bay-bay-bay! O.Yoqubov. Muqaddas. Uni kim qanday, qilib yo‘ldan urdi? Sh.Bo‘tayev. Qora tuman. Direktorni gapiga qaraganda, Sadirovni Omonturdiyev yo‘ldan urgan. T.Malik. Charxpalak.

YO‘LDAN CHIQARMOQ kim? kimni? yomon yo‘lga boshlamoq, aynitmoq. Sinonimi: **yo‘ldan ozdirmoq** kim? kimni? **yo‘ldan urmoq** kim? kimni?

Omonni yo‘ldan chiqarib, boyning birorta molini o‘lja qilib ketish payida edim. G‘.G‘ulom. Shum bola.

YO‘LGA KIRMOQ kim? yurib ketmoq, yurishni o‘rganmoq (go‘dak-

ning dastlabki qadam qo'yishlariga nisbatan).

Bemor unga shunday bir qaradiki, go'yo tilga, yo'lga kirmagan go'dak onasiga erkalanayotgandek edi. S.Ahmad. Ko'klam chechaklari.

YO'LGA QO'YMOQ kim? nimani? faoliyatini yaxshilamoq. Sinonimi: **yo'lga solmoq** 4 kim? nimani?

Yangi odamlar bilan yangi joyda ishni yo'lga qo'yib yuborish ancha og'ir bo'lar deb o'ylardi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. «Yon qo'shni – jon qo'shni», – deydi. Bordi-keldini yo'lga qo'yamiz, qiz berishamiz. A.Muxtor. Tug'ilish.

YO'LGA SOLMOQ kim? 1 kimni? yoki nimani? ketish tomoniga to'g'rilab jo'natmoq, yurg'izmoq.

Jon amaki, meni yo'lga solib qo'ying, o'z yurtimga keta qolay ... S.Abdulla. Hasan bilan Kimsan. *Eshon gohu yoqqa, goh bu yoqqa bosh tortgan qo'ylarni yo'lga solishga urinar edi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

2 kimni? to'g'ri yo'lga qaytarmoq.

To'g'risi, bir bebosh yigitni qayirib olmagan, yo'lga sololmagan Juman otadan hamma gina qilayotgandek, nomus qildi. S.Ahmad. Qaytish.

3 kimni? manfaatdor bo'lgani holda biror ishga rag'batlantirmoq.

Bitta erni yo'lga sololmasang, butun boshliq ... qanday udda qilayotibsang? A.Qahhor. Sinchalak. *Hokim desa, boy desa, fuqaro yuzini o'girib oladi; o'shalarini shirin so'z bilan yo'lga soling demabmidim?!* M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

4 nimani? faoliyatini yaxshilamoq. Sinonimi: **yo'lga qo'ymoq** kim? nimani?

Dastavval ustaxonamizning ishini yo'lga solib berdi. I.Rahim. Hilola.

YO'LGA TUSHMOQ kim? 1 jo'namoq, keta boshlamoq.

Jo'ra otga yana biroz dam berib, so'ng yo'lga tushajagini aytdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Bu yerda bo'lgan ishlardan hikoya qilib bersam, o'zing ham «Farhod tog'i qaydasan?» – deya yo'lga tushib qolasan.* Oydin. Shiringa maktub. *Nainki shu tobda, osmon hamma tarnovlarini baravariga ochib yuborgan bir paytda yo'lga tushilsa!* A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 to'g'ri yo'lga qaytmoq.

Siz ham, ayajon, qattiq tursangiz, Rahimingiz yo'lga tushib qoladi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

YO'LGA CHIQQOQ kim? jo'nab ketmoq, ravona bo'lmoq.

Siddiqjon ikki kundan keyin safar hozirligini ko'rib, tushga yaqin yo'lga chiqdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

yo'li topildi: yo'lini topmoq

YO'LIDAN TOYMOQ kim? nimaning? faoliyati uchun asos deb bilishdan, amal qilishdan bosh tortmoq.

«Jim! – ko'zlarini Yormatga olaytirib qichqirdi ellikboshi. – Xumkalla! Shariat yo'lidan toygan qizning so'ziga ishonasanmi?!» Oybek. Qutlug'qon.

YO'LIGA KIRMOQ kim? nimaning? nimanidir egallash nimagadir erishish maqsadida faoliyat boshlamoq.



Qizim, baxtli ekansanki, paxtakorlik yo'liga kiribsan. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

YO'LIGA TUSHMOQ kim? nimaning? nimagadir erishish uchun intilmoq.

Shuning uchun bu o'jar odam bilan pachakilashib o'tirishni munosib ko'rmay, uni u shubhadan butunlay chiqarish yo'liga tushdim. S.Ayniy. Sudxo'rning o'limi.

YO'LIGA YURMOQ birovning aytganini qilmoq, aytganini bajo keltirmoq.

Nurmatjon, «Bu ochiq ayollardan chiqqan gap, qiz shularning yo'liga yurgan bo'lsa, jazosini tortsin», deb jo'rttaga ikkinchi og'iz ochmadi. A.Qahhor. Qizlar.

YO'LIGA O'TIB OLMOQ kim? nimaning? faoliyati uchun asos qilib olmoq.

Shu paytgacha siz bilan murosasozlik qilib keldim. Siz esa tobora o'jarlik yo'liga o'tib oldingiz. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

YO'LIN TUTMOQ [jolin tüt=] tar. kim? tanlamoq.

Mundan o'zga xalos topmadikim, qumoshimizni dag'i silohimizni alar nazarinda qo'yub, salomat yo'lun tutub kettik. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YO'LINI BOG'LAMOQ yo'lini to'smoq, oldiga ro'para bo'lmoq, to'siq bo'lmoq.

Voy, o'qisin, otin bo'lsin, aylanay, uning yo'lini bog'lab qo'yganimiz yo'q, – dedi O'g'il xola Ahmedovaga chimirilib. T.Alimov.

YO'LINI QILMOQ kim? qiyin ahvoldan xalos bo'lish maqsadida bi-

ror chora-tadbir ishlatmoq. Varianti: **yo'l qilmoq** kim?

Uning qo'rqanini payqab, medsestra darrov yo'l qildi: «Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring!», – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. A.Qahhor. Ming bir jon.

YO'LINI TOPMOQ kim? nimaning? –**YO'LI TOPILDI** nimaning? qanday hal etish kerakligini idrok qilmoq. Varianti: **yo'l topmoq** kim?

Dastlab uning gapi Jalilovga unchalik qattiq ta'sir qilmadi. «Ha... bir yo'li topilib qolar...», – dedi. S.Nazar. Yashil boylik. «Nima qilsam ekan?», – deb o'ylanib qoldi. Keyin yo'l topdi shekilli, darcha orqasidagi bo'rining uloqqa qilgan muomalasi bilan muloyim; halim gapirdi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

YO'LINI TUTMOQ kim? nimaning? biror xatti-harakat usulini tanlab, o'z faoliyatida shunga amal qilmoq. Varianti: **yo'l tutmoq** kim?

Bo'taboy aka ba'zan murosa yo'lini tutganda, siz bunga barmoq orasidan qarayatibsiz. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Payqashimcha, siz yoshlarga hunar berish, ularni o'z ixtisosida ishlatish yo'lini tutyapsiz. A.Muxtor. Tug'ilish. To'g'ri yo'ldan borayotgan kishilarni oraga solmasa, ularning noto'g'ri yo'l tutayotganlari darhol bilinib qolardi. P.Qodirov. Uch ildiz.

YO'LING(IZ)DAN QOLMA[NG] kim? [o'zining] aralashmay ketavering.

«Bu gado qizni urmang!» – «Yo'lingizdan qolmang; mister». Mirmuh-sin. Al Mahdiy.

YO'LUNI KO'RGUZMOQ [joluṅni körgüz=] tar. *kim? kimga?* maslahat bermoq.

Ilohiy bu qari miskin qulungni Bag'ishla ko'rguzub to'g'ri yo'lungni. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

YO'L-YO'RIQ KO'RSATMOQ *kim? kimga?* nima qilish lozimligi haqida maslahat bermoq. Varianti: **yo'l ko'rsatmoq.**

Man g'aribga yo'l ko'rsating. Kimga arz qilay, qanday qidiray? Oybek. Qutlug' qon. Bo'linma komandirlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi, buyruqlar berildi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

yo'q joydan: yo'q yerdan

yo'q ... ni yo'na(miz)mi?!: yo'qni yo'ndirmoq

YO'Q YERDAGI hech kim bilmaydigan, hech kimning xayoliga kelmagan, bo'lmag'ur.

Qariganda qarmoqqa ilinib, yo'q yerdagi na'malarni chiqarib qoldingiz. S.Ahmad. Mastonbibi. ... *qizning otasiga yo'q yerdagi qarzni ortadi. Qarz badaliga Norxonni xotinlikka berishni shart qo'yadi.* H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

YO'Q YERDAN topilishi juda qiyin bo'la turib. Varianti: **yo'q joydan.**

Said Jalolxonning achchig'i keldi: yo'q yerdan ko'knor topib, kayf qilib o'tirganda, bu nimasi! A.Qahhor. Bashorat. *Men buni bog' uchun yo'q yerlardan undirib keldim.* H.Nazir. Cho'l havosi. *Yo'q, men ham Shoazimga achchiq qilib, yo'q joydan*

nuqson qidirayotganga o'xshayman. P.Qodirov. Uch ildiz.

yo'qdan yo'ndir(ay)mi?!: yo'qni yo'ndirmoq

YO'QNI YO'NDIRMOQ har qancha mashaqqat bilan bo'lsa ham, bunyod qilmoq. Varianti: **yo'q ... ni yo'na(miz)mi?!**

Xudoga shukur, ko'rpa-yostig'im ham yetadi. Dam iliq, dam sovuq tan-cham bor. *Yo'qni yo'ndiramiz, bu ayni maslahat...* *Kampirimga yo'ldosh, yetim go'daklarimga bosh bo'ladi bu qizim.* Oybek. Qutlug' qon.

yo'qqa chiqarmoq: yo'qqa chiqarmoq

YO'QQA CHIQQMOQ nima? – **YO'QQA CHIQQARMOQ** kim? yoki nima? nimani? kutilmagan holda baham topmoq.

Olamda uning suyangani – eri, birdan-bir orzusi – anor edi, birdaniga har ikkisi yo'qqa chiqdi. A.Qahhor. Anor. *Faqat kelinoyilarining xabari bir necha kun ichida birdan yo'qqa chiqar edi.* Oybek. Qutlug' qon. *Lekin insoniy erk insoniy mas'uliyatni ham yo'qqa chiqarmaosligi kerak.* P.Qodirov. Uch ildiz.

YO'RIG'(I) BOSHQA 1 kimning? o'z yo'liga, alohida hal etish lozim.

Sening yo'rig'ing boshqa. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 nimaning? (shart ergash gapdan keyin ishlatiladi) unda o'zgacha fikr yuritish, baholash mumkin.

Bu xato va kamchiliklarning sabablari to'g'risida gapirsangiz, yo'rig'i boshqa edi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

Z

ZABTIGA OLMOQ nima? [*o'zining*] juda kuchayib ketmoq («yog'in», «shamol»).

Kechqurun boshlangan qor ertasiga kechgacha zabtiga olib yog'di. Sh.Ashurov. Qora marvarid shaydosi.

ZADA BO'LMOQ kim? nimadan? yoki kimdan? biror kimsa yoki narsadan qo'rqib, hadiksirab, bezillab qolmoq.

Dushman zada bo'lib qolgan. Gazetadan.

ZAHAR BO'LMOQ nima? zaharga, og'uga aylanmoq, tatimaslik.

Yana dardga ko'mildi Nisoxon boshi, Zahar bo'ldi bir kosa sovigan oshi. G'ayratiy.

zahr sochmoq: zahr(i)ni sochmoq

zahr(i)ni sochmoq: zahr(i)ni sochmoq

ZAHMAT CHEKMOQ [zahmat ček=] tar. kim? nimadan? qiynalmoq. Varianti: **zahmatlar chekib.**

Faqir yostuqi ustuna kelib aytti: «...men yayog' yurub, zahmat chekib o'lmadim; dag'i sen teva ustunda o'turub o'ldung». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. *Aql va adab bilan tirilgil,*

lahv va tarabni qo'yg'ulkim alingdagi naqd ketsa, ko'b zahmatlar chekib, nadomat yegaysan, foyda qilmag'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

ZAHRI KELMOQ kimning? zahar (yoki zaharini) achchig'i kelmoq, jahli chiqmoq.

Bunyodning qahri keldi, Devning ham zahri keldi. H.Olimjon. Semurg' yoki Parizod va Bunyod.

zahr(i)dan tushmoq: achchig'(i)dan tushmoq

ZAHRI(SI) SOCHMOQ kim? [*o'zining*] kimga? zug'um qilmoq, g'azab bilan achitib-achitib gapirmoq. Varianti: **zahr(i)ni sochmoq; zahar sochmoq** kim?

UNazar otani qidirib, idoradan topmagach, uyga borib, xotiniga zahrini sochdi. S.Ahmad. Kuyov. *Qiltiriqmaxsumning ham avzoyi o'zgardi, borabora toshday qotdi: Kirib kelishi bilan, og'zidan salom-alik chiqmay, nuqul zahar sochadigan bo'ldi.* A.Muxtor. Opa-singillar.

ZAHRA(SI) KELDI kimning? jahllanmoq. Sinonimi: **zarda(si) qaynadi** kimning?

Maktab to'g'risida og'iz ochsam, otamning zahrasi keladi. Oybek. Nur qidirib.

ZAHRA(SI) UCHDI kimning? g'azablanmoq. Sinonimi: **jahl(i) chiqdi** kimning?

Yonidagi juvonlarning do'ppisini xaridor kelib, narxini so'ray boshladi. Ular uch barobar qimmat aytib, xaridorning ketidan: «So'rang, so'rang, qancha berasiz?» – deb chuvullashardi. Jamila «bahor» do'ppisini o'ttiz so'm deb to'g'risini aytdi-qo'ydi. Yonidagilarning zahrasi uchib ketdi. Mirmuhsin. Jamila.

ZAMONANING ZAYLI BILAN davr taqozosi bilan.

Bir vaqtlar zamonaning zayli bilan Oqtepa qishlog'iga kelib qolgan Ahror Fuzaylxonov shu yerdagi to'liqsiz o'rta maktabga xizmatga kirib, keyinchalik sekin-asta birinchi sinf o'qituvchisi bo'lib oldi. Mirmuhsin. Jibilajibon.

ZANJIRIN UZMOQ [zanjirin üz=] tar. kim? kuchga to'lmoq.

So'ng o'ynab, ot chopub, ko'p turli erdam ko'rguzub, aytti: «Ul zanjirin uzgan forisi devonaman». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

zaptiga olmoq: zabtiga olmoq

ZARAR KELITIRMOQ nima? kimga? zararli bo'lib chiqmoq. Sinonimi: **ziyon yetkazmoq** kim? kimga? **xalal yetkazmoq** nima? nimaga? yoki kimga? **futur yetkazmoq** nima? nimaga? **zarar(i) tegdi** kimning? yoki nimaning? kimga? yoki nimaga?

Nojo'ya ishing birinchi navbatda ukangga zarar keltirdi. So'zlashuv uslubi.

ZARAR KO'RMOQ kim? yoki nima? nimadan? yoki kimdan? zarar qilmoq. Varianti: **ziyon ko'rmoq**.

Bundan davlat ham ko'proq zarar ko'radi, Gavhar ham. P.Qodirov. Uch ildiz. Bizdan Mirzakarimboy hech vaqt zarar ko'rgani yo'q. Oybek. Qutlug' qon.

zarar yetkazmoq: ziyon yetdi

ZARAR(I) TEGDI kimning? yoki nimaning? kimga? yoki nimaga? zararli bo'lib chiqmoq. Varianti: **ziyon(i) tegdi**. Sinonimi: **ziyon yetkazmoq** kim? kimga? **zarar keltirmoq** nima? kimga? **xalal yetkazmoq** nima? nimaga? yoki kimga? **futur yetkazmoq** nima? nimaga?

Yana ... zararining tegishda davom qila bersa, biz sening kambag'alligingni siylab turolmaymiz. A.Qodiriy. Obid ketmon. «Biroq halitdan ... ikki yuz mingga ziyoni tekkan bo'lsa!» Sherbekning alangalanib turgan yuragiga qorong'i tun bosib kirganday bo'lib, beixtiyor boshini egdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

zarb yemoq: zarba yemoq

ZARBA BERMOQ kim? 1 kimga? hamla qilib, jismonan kuchsizlashtirmoq, shikast yetkazmoq.

Qismlarimiz shunday shiddatli zarbalar berar, shunday qisib borar ediki, dushman yo'llarni buzgani, ko'priklarni portlatgani ulgurolmas edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 kimga? yoki nimaga? qarshi harakat bilan mavqeini, ahamiyatini zaiflashtirmoq, ma'naviy jihatdan shikast yetkazmoq.

Endi Shoazimning fikriga qanchalik qattiq zarba bersa, Eshonboyev-

ning «Sizda tanqidiy qarash kuchsiz ekan» degani shunchalik asossiz bo'lib chiqishi mumkin. P.Qodirov. Uch ildiz. *Quyونlarni boqib o'quvchilarimizni yo'ldan urayotganga o'xshaydi ta'lim sistemamizga zarba berayotganga o'xshaydi.* X.To'xtaboyev. Quyونlar saltanati.

ZARBA YEMOQ kim? [kimdan?] yoki nima? [nimadan?] 1 hamla natijasida jismonan kuchsizlashmoq, shikastlanmoq. Varianti: **zarb yemoq.**

Bu o'rmonda turib, qaltis zarba yegan, lekin hali yanchib tashlanmagan dushmanga qarshi yangi hujumga tayyorgarlik ko'rish kerak edi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 qarshi harakat natijasida mavqei, ahamiyati zaiflashdi, ma'naviy jihatdan shikastlandi. Varianti: **zarb yemoq.**

Qahhor asosiy zarbani yedi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Ha, bu noto'g'rilikdan Mahkamning ham eng aziz tuyg'ulari zarba yedi.* P.Qodirov. Uch ildiz.

ZARBA YETDI nimaga? – **ZARBA YETKAZMOQ** kim? kimga? nima? kimga? yoki nimaga? zarar-ziyon keltiruvchi holatga duchor bo'ldi.

Soliq katta zarba yetkazdi. Tiklanish uchun bir necha ming so'm pul va talay vaqt kerak bo'lar edi. A.Qahhor. Sarob. *Ota-bola o'rtasidagi o'rinsiz tortishuv ko'pchilik manfaatiga, jamoat ishiga zarba yetkazmasin dedim.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

zarba yetkazmoq: zarba yetdi

ZARDA(SI) QAYNADI kimning? jahllanmoq. Sinonimi: **zahra(si) kel-di** kimning?

Bektemirovning zardasi qaynab ketdi: «Kimdan chiqdi bu gap?!» S.Ahmad. Hukm. *Qodir otaning zardasi qaynab, xotinini jerkib tashladi.* A.Muhiddin. Ko'ngillar. *Buxulosadan tutaqib ketdi. Zardasi qaynadi. Go'yo barchasiga Komil aybdorday unga o'qraydi.* T.Malik. Charxpalak.

ZARDOB YUTMOQ dard-alam chekmoq.

Suhbat qilsang Zuhra bilan gulbog'da, Men yashirin zardob yutdim shu chog'da. S.Abdulla. Tohir va Zuhra.

ZARUR KELIBDIMI?! kimga? nima qilish? hech kerak emas (ayollar nutqida ishlatiladi).

U kishiga yopishib menga zarur kelibdimi?! Terakzorga buzoqni bog'lagani chiqqan edim, bir mahal birov orqamdan kelib, bilagimdan ushladi. S.Ahmad. Hukm.

ZAVOL BO'LMOQ biror kimsaning yo'q (halok) bo'lishiga sabab bo'lmoq.

Lekin Xosiyat opa va qizingizning baxtiga zavol bo'lishni istamadim. M.Xayrullaev. Ko'ngil.

ZAVQINI KELTIRMOQ kim? kimning? kayfiyatini yaxshilamoq, ruhini ko'tarmoq.

Bahorda ko'm-ko'k maysa bilan qoplangan dalalar, kuzda oltinrang boshoqlarning shovullashi kishining zavqini keltirar edi. Gazetadan.

ZANG BOSIB YOTMOQ kim? ko'pchilikdan, ijtimoiy faoliyatdan ajralgan holda yashamoq.

Qo'mondonlik bizni tamom esidan chiqardi, shekilli, hali ham zang bosib yotibmiz. A.Qahhor. Oltin yulduz. *Qay-si kavakda zang bosib yotgan edingiz, mulla aka?* S.Ahmad. So'nging nusxa.

ZEB BERMOQ kim? [o'ziga] yoki nimaga? turli kiyim va taqinchoqlar yordamida ko'rkam qilmoq.

Qarilik o'ziga zeb berishni yaxshi ko'rgan bu satangnamo xotinni ham yenga boshlagan edi. O.Yoqubov. Tilla uzuk. [Yormat] otga chig'anoqli asboblarni taqib, yolini qizil lattalar bilan o'rab, otning atrofida aylanib, unga juda zeb berdi. Oybek. Qutlug' qon.

ZEHN SOLMOQ kim? nimaga? yoki kimga? diqqat-e'tibor bilan qaramoq, ko'zdan kechirmoq.

Sho'x ko'zlari va qalin qoshlariga yana zehn soldi-da, uni bokulikdir deb taxmin qildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Mingboshi oldida mulla Ziyodan boshqa yana ikki kishi o'tirar edi. Ularga zehn solmadim. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. Masturaga zehn solib, uning yuzida horg'inlik ko'rdi. A.Qahhor. Ming bir jon.

ZEHN(I) O'TKIR kimning? idrok qilish, fahmlash qobiliyati odatdagi darajadan kuchli.

Uning zehni juda o'tkir, o'zi tirishqoq edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Ziyolilar ko'zi ochiq, zehni o'tkir odamlarda. Ko'p narsaning fahmiga bormay yurarkanmiz. Mirmuhsin. Al Mahdiy.

zil ketkizmoq: zil ketmoq

ZIL KETMOQ kim? – **ZIL KETKIZMOQ** nima? kimni? ruhiy bo'shashmoq, ishonchidagi qat'iylikni yo'qotmoq. Varianti: **ich(i)dan zil ketmoq** kim? [o'zining]; **ich-ich(i)dan zil ketmoq** kim? [o'zining]; **ich(i)da zil ketmoq** kim? [o'zining].

Mingboshi qaltiradi, uni hokimning dahshati zil ketkizib yuborgan edi. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. O'rmonjonning bu gaplarini, ay-

niqsa tajribakor chollarni nom-banom aytganini ko'rib Bo'taboy ichidan zil ketdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ZIMMA(SI)GA OLMOQ kim? [o'zining] nimani? 1 biror ishni bajarishga rag'batlanmoq, biror ishni bajarishga mas'ul bo'lmoq. Sinonimi: **bo'yn(i)ga olmoq** 2 kim? [o'zining] nimani?

Shu byurolarning butun vazifasini gruppalar bilan fakultet byurosi to'liq o'z zimmasiga olishlari mumkin. P.Qodirov. Uch ildiz.

3 biror ishni bajarishga rozilik bermoq. Varianti: **ust(i)ga olmoq;** **o'z(i)ga olmoq II** kim? nimani?

Sharif aka shu zvenoga rahbarlik qilishni o'z zimmasiga oldi. N.Nazarov. Zamon. Bog'chaga olib borishni siz o'z ustingizga oling, yaslidagini onasiga topshiring. Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit? Baraka top, uch-to'rt kun qiyinchilikni o'zingga olasan. S.Ahmad. Muhabbat.

4 biror «chiqim»ni qoplamoq, to'lamoq.

Bolalarini o'qitmoqchi bo'lganlar xarajatini o'z zimmalariga olsinlar. Oybek. Qutluq qon.

ZIMMA(SI)GA TUSHMOQ nima? kimning? javobgar qilinmoq, javobgar bo'lmoq.

Kapsanchilar sirdan murosaga kelgan bo'lib, zimmalariga tushgan vazifalarni mumkin qadar tezroq bajarishga so'z berib tarqaldi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

ZIR TITRAMOQ kim? [kimdan?] qo'rqqanidan qaltiroq bosmoq.

Lekin Jo'raxonni ehtiyot qilishimiz kerak. U juda ham dadil. Dush-

man undan zir titrasa ham, talvasada...
A.Muxtor. Opa-singillar. *Danak qori pochcham bilan Bodom qori amakim u kishining nomini eshitgandayoq zir-zir titrab qolishadi.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

ziyon ko'rmoq: zarar ko'rmoq

ZIYON YETDI nima? – **ZIYON YETKAZMOQ** kim? kimga? zararli bo'lib chiqmoq. Varianti: **zarar yetkazmoq** nima? nima? kim? kimga? Sinonimi: **futur yetdi** nima? [nimadan?] – **futur yetkazmoq** nima? nima? **xalal yetdi** nima? – **xalal yetkazmoq** nima? nima? yoki kimga? **zarar(i) tegdi** kimning? yoki nimaning? kimga? yoki nima? **zarar keltirmoq** nima? kimga?

U, bir tomondan, Kanizakka nima bo'ldi, ko'z-po'ziga ziyon yetmadi-mikan deb tashvish tortsa, ikkinchi tomondan, Sharofat kelib, yana janjal boshlashini minut sayin kutgani uchun, uning ishga chiqmaganidan xursand edi. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Agar bir-birimizni yengamiz ...deb musobaqa o'ynasak, nima bo'ladi? Jamoat ishiga zarar yetkazishdan boshqa gap bo'lmaydi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Zavqiyning bu «odobsizlig»ini unutib yuborganligidanmi yoki boshqa sababdanmi, uzoq vaqtgacha unga zarar yetkazmaydi.* Sh.Rizo. O'ch. *Qo'rqmadim, qo'rqsam zarar yetkazardim, – deb tushuntirdi Sora xolam.* X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

ziyon yetkazmoq: ziyon yetdi

ziyon(i) tegdi: zarar(i) tegdi

zig'ir yog'day ko'ngl(i)ga urmoq: ko'ngl(i)ga urmoq

ZOT(I) PAST [kimning?] od-diy nasl-nasabga mansub, ajdodlari obro'-e'tiborga ega bo'lmagan. Varianti: **tag(i) past.**

Senga o'sha zoti past eringdan ko'ra ming chandon obro'li boyvachchalar topiladi. O'.Azimov. *Aql chirog'i. «Falonchi bo'zchining nevarasi-da, qayoqqa borardi» deganday gaplarni bironing tagi pastligiga katta dalil qilib gapirardilar.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Kimsan Mirzakarimboy tegi past, qashshoq qizga uylansa, men qanday chidayman!* Oybek. *Qutlug' qon.*

zoye ketkazmoq: zoye ketmoq

ZOYE KETMOQ nima? – **ZOYE KETKAZMOQ** kim? nima-ni? behuda, befoyda sarflamoq. Varianti: **bekor ketmoq** – **bekor ketkazmoq.** Sinonimi: **shamolga uchmoq** nima? **havoga uchmoq** nima?

Siddiqjon o'zining zoye ketgan botaligi va yoshligiga afsuslanib turgan edi... A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Juda ham yon bermaslik va boshlagan janjalini bekorga ketkazmaslik uchun xotin arazlab singlisinikiga ketib qoldi va bir hafta qorasini ko'rsatmadi.* A.Qahhor. Sinchalak.

ZOG' UCHMAYDI birorta ham odam ko'rinmaydi. Sinonimi: **hech zog' yo'q, zog' yo'q.**

Yomon odam bo'lsangiz, meni har nima qilish qo'lingizdan kelar edi: zog' uchmaydigan dala, baquvvat yigit ekansiz. Belingizda mana bunaqa pichoq... A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Mayna bilan Abduvahob stansiyaga yetib kelishdi. Hamma yoq huvullagan. Zog' uchmasdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

ZUVALASI BIR JOYDAN (yoki **YERDAN**) **OLINGAN** kimning? har jihatdan bir-biriga o'xshash odamlar haqida.

Sizga gapirib, ovozdin ajrash hech narsa emas. Botirov bilan sizning zuvalangiz bir joydan olinganga o'xshaydi. B. Rahmonov. Oltin odamlar.

ZUVALASI PISHIQ a'zoyi badani chiniqqan.

Zufar Mahkamov o'rta bo'yli, zuvalasi pishiq, ko'zlari chaqchaygan-roq kishi edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

zo'r berib I: zo'r bermoq

ZO'R BERIB II muttasil va as-toydil.

Trestimizning turboburga tobi yo'q. Zo'r berib talab qilaverganimizdan turbobur yubordi-yu, lekin... I.Rahim. Olovkor. *Uning bu o'jarligidan xunob bo'lgan Botirali zo'r berib tushuntirardi.* S.Ahmad. *Hukm.*

ZO'R BERMOQ kim? 1 nimasiga? ortiqcha kuch-harakat sarflamoq. Varianti: **zo'r berib I.**

Baqirishning xojati yo'q. Rahbar tomog'iga zo'r berdimi, obro'yidan futur ketgani bo'ladi. A.Qahhor. Yangi yer. *Qazuvchilarning zo'r berib ishlayotganlariga hayfi kelib qarab qoldi.* M.Ismoilij. Farg'ona tong ot-guncha.

2 butun kuch va g'ayratini safar-bar qilmoq. Varianti : **zo'r berib I.**

Zokirni boya leksiya paytida ham ko'rgan, «Ha, barakalla, bir zo'r beringlar», – deb o'tib ketgan edi. P.Qodirov. Uch ildiz.

3 nimaga? biror narsaga boshqalaridan ko'ra ortiqroq e'tibor qilmoq, kuch sarflamoq.

Paxtachilikda chinakam quloch otishi uchun endi ilmga zo'r berish kerak. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Akam orqa-o'nklariga qaramay qurt urug'iga zo'r beradilar.* S.Ahmad. Hodivoy.

ZO'R KELMOQ 1 nima? kuchli bo'lib chiqmoq. Sinonimi: **baland kelmoq 1** kim? yoki nima? nimada? yoki nimadan? **ustun kelmoq** kim? kimdan? yoki nima? nimadan? **g'olib kelmoq** kim? [kimdan?] yoki nima? [nimadan?]

Ubomdod namozini turib o'qisam-mikin deb yotib, ham jismoniy, ham asabiy horg'inlik zo'r keldi shekilli, uxlab qoldi. S.Anorboyev. Oqsoy.

2 kimga? og'irlik tushadi. Varianti: **zo'r keltirmoq** kim? nimaga?

Unda o'zimizga zo'r keladi, hamma ishga o'zimiz qo'l urishga majbur bo'lamiz. A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. Eshon dutorning qorniga barmoqlarini tekkizmay, toriga zo'r keltirmay, tovushini juda tiniq chiqarar edi.* A.Qahhor. Sinchalak.

ZO'R KELSA shundan boshqa yo'l topilmasa, boshqa iloji bo'lmasa, shunday qilish zarur bo'lib qolsa.

«Men ishlatganim yo'q. Saidiy ishlatgan»,– deydi. Zo'r kelsa, ish sudga tushar. A.Qahhor. Sarob. *Bu ham mayli, bir evi bo'lar, zo'r kelsa, bu yog'i – hukumatchilik: tuman yordam berar...* A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari.*

zo'r keltirmoq: zo'r kelmoq

ZO'RIGA TUSHSA kim? majbur bo'lsa.

Hozir ota-onasi bor, erkalik qiladi, zo'riga tushsa toshni yemiradi hali. So'zlashuv uslubi.



O'GAY KO'Z BILAN QARAMOQ *kim?nimaga?* yomon munosabatda bo'lmoq; zarur ish deb bilmaslik.

«Yumshoq bedani ho'kiz yesin-u, sigirlar qamish g'ajisinmi? Kimdan chiqqan aql bu? Sen-ku sen, tuman-dagilar ham chorvaga o'gay ko'z bilan qaraydi», – dedi Dadajon. I.Rahim. Ixlos. U paxtadan boshqa ekinga o'gay ko'z bilan qarar .. edi. S.Nazar. Yashil boyluk.

O'LAMAN SATTOR aslo, mutlaqo (qat'iyon rad etishni bildiradi).

Qaysi bir zveno boshlig'i bilan gaplashsam, «O'laman sattor Komilni ro'para qilma!» – deydi. S.Ahmad. Oriyat. Buni nima jin urdi, deb tekshirgan bo'ldim. Sovuq-povuq urgan emas – mol yeb ketibdi! «O'laman Sattor, mol kirgani yo'q!» deydi. Axir, ko'rib turibman, mol qiyratgan. Uyerbu yerga belgi qo'ydim. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. Men odamlar bilan muomala qilishni bilaman. O'laman Sattor deganda ham har balo qilib sotib olaman! Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

O'LAR BO'LSAM O'LIB BO'LDIM *kim? (men) nimadan?* turli ta'na-dashnomlar eshitaverib ruhan ezilib ketmoq.

Haliyam odamlarning ta'nasidan o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim. Biri tug'mas deydi, biri u deydi, biri bu deydi,

el og'ziga elak tutib bo'lmasa! M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

O'LGAN(I)NING KUNIDAN boshqa iloj topa olmagandan, majburiyat yuzasidan.

O'zimning gapimga o'zim pushaymon yeb, o'lganimning kundan «tap bosdi» qilib, shartnomaga qo'l qo'ydim. G'.G'ulom. Tirilgan murda. «Ha, battol, to'ningni-ku o'zgartiribsan, diling aslo o'zgarmaydi, o'lganingning kundan tishingning oqini ko'rsatasan...» S.Ahmad. So'nggi nusxa.

o'lganning ustiga ko'mmoq: o'lganning ustiga chiqib tepmoq

o'lganning ustiga tepmoq: o'lganning ustiga chiqib tepmoq

O'LGANNING USTIGA CHIQUIB TEPMOQ *kim?* bir ko'ngilsiz ish ustiga yana boshqa bir ko'ngilsiz ishni qilmoq. Varianti: **o'lganning ustiga tepmoq; o'lganning ustiga ko'mmoq.**

Bir dardga chalindingmi – biri ikkinchisini ergashtirib kelaverar ekan. O'lganning ustiga tepganday, manavi rejamizning buzilganini qara. S.Anorboyev. Oqsoy. Obro'yimni yer bilan yakson qil, qomatimni buk, yana kelib: «Qomatingni ko'tar», de! – Bu – yaraga tuz sepish. Bu – o'lganning ustiga ko'mgan! Bu – mendan kulish! Uyg'un. Navbahor.

O‘L DESANG – O‘LSA, TIRIL DESANG – TIRILSA kim? mutlaqo itoatkor, batamom mute bo‘lmoq.

Xizmatkor, malay qanday bo‘lsa? U tanini, jonini xo‘jayinlardan aya-masa, ninaday narsaga xiyonat qil-masa, o‘l desa – o‘lsa, tiril desa – tirilsa! Oybek. Qutlug‘ qon.

O‘LIG(I)NI ORTMOQ kim? [o‘zi-ning] kimga? chiqim-xarajatlarning katta qismini ko‘tarishga majbur qil-moq.

O‘rtoq Xolnazarov ulfatlarga o‘li-gini ortib qo‘ymaslik andishasi va to‘y bahonasi bilan gortorgdan «avans» qilib pul undirmoqchi bo‘lgan, buxgal-ter Komiljon bunga to‘nglik qilgan bo‘lsa kerak, ancha qizarishib olgan ekanlar. S.Abdulla. O‘rtoq Xolnaza-rov.

O‘LIK-TIRIG(I)GA QARAMAS- LIK kim? [o‘zining] astoydil, bu- tun kuchini sarflab ishlamoq, xizmat qilmoq.

«Qosim aka – haqiqatan durust odam, ish desa, o‘lik – tirigiga qara- maydi», – dedi mudir. G‘.G‘ulom. O‘z kishilarini tanimagani qiziq.

O‘LIM CHANGALI o‘lim xavfi, o‘lim iskanjasi.

Meni o‘lim changalidan sug‘urib olgan ofitserning kim ekanligini so‘- rab bilib olmaganligim uchun o‘zimni kechira olmayman. N.Safarov. Olovli izlar.

O‘LMAGAN JON(I) [kimning?] juda qiyin ahvolda yashab kelgan kishiga rahmdillik bilan aytiladigan ibora.

Shunda Kanizak: «Voy, Siddiq- jon aka, o‘lmagan joningiz, shunday

xotin bilan o‘n yil qanday umr qildi- ngiz?», – deydi. A.Qahhor. *Qo‘shchi- nor chiroqlari. Opa qurumli latta bi- lan pichoqni artarkan, o‘ylar edi:» O, uka, bilmaysan!.. Bular men notavon- ni shuncha so‘ryapti-yu, tag‘in ham sening o‘lmagan joning!..»* A.Qah- hor. Sarob.

O‘LSA(...) – **O‘LIG(I) ORTIQ** kimning? kimdan? nimaning? nima- dan? beqiyos afzal.

Buning [Xo‘jabekovning] Sher- bek bilan Nazarov oldida o‘lsa – o‘ligi ortiq, faqat qo‘rqoqlik qilib maydonni tashlab qochgani yomon bo‘ldi. S.Anorboyev. Oqsoy. *Buving o‘zimizniki ekan deb bemalol uylari- mizni, oshxona, molxonalarimizni ko‘- rib chiqdi. «Qalay, yaxshi ekanmi?»*, – desam, «Ajabmi, eski hovlisidan o‘l- sa – o‘ligi ortiq. Meni qistaganicha bor ekan», – deydi. H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

O‘LUMDAN O‘ZGA DAVO YO‘Q [ölümdän özgä dava joq] tar. kimga? yoki nimaga? bedavo.

Hasud ranjiga yo‘qtur o‘lumdan o‘zga davo, Xalosing ozdur esang, ul dag‘i ravon qurtul. S.Saroyi. Gulisto- ni bit-turkiy.

O‘N GUL(I)DAN BIR GUL(I) OCHILMAGAN kimning? husn-ja- moli endigina namoyon bo‘la bosh- lamoq.

«Kuyovni ko‘rib turibmiz-ku! Tav- ba!.. Ikki-uch xotinni beva qilgan, yoshi dadamdek odam-ku!..» – «Ho, og‘zingizga qarab gapiring, hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan yigit, tuhmat qilmang, yomon bo‘ladi!» S.Abdulla. Kuyovlar, kelinlar... Be-

gimxon urush boshlangandan beri eridan xat olmagan edi.. «o'n gulimdan bir gulim ochilmay turib tul bo'lib qoldimmi?!» – deb o'ksinardi u. I.Rahim. Chin muhabbat.

o'n kulib, bir gapirmoq: bir gapirib, o'n kulmoq

o'n og'iz: ellik og'iz;

O'NNI BIRGA OLMOQ *kim?* juda arzonga, deyarli tekinga xarid qilmoq.

Shoshmanglar, avom zeriksin, hali o'nni birga olamiz. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

O'PKA(SI) OG'Z(I)GA TIQILDI I *kimning?* – **O'PKA(SI)NI OG'Z(I)GA TIQILTIRMOQ** *nima? kimning?* hansiramoq, tez-tez og'ir nafas olmoq. Sinonimi: **nafas(i) og'z(i)ga tiqildi** *kimning?*

Sohib qori kiyinib, eshikka chiqdi-da, o'pkasi og'ziga tiqilib, darvozadan hovliqib qaytdi. I.Rahim. Chin muhabbat.

O'PKA(SI) OG'Z(I)GA TIQILDI II *kimning?* kuchli hayajonlanib qo'rqqanidan entikib ketmoq. Varianti: **o'pka(si) tomog'(i)ga keldi.**

[Ashula eshitib] anchagacha huzur qilib bordi. Biroq bosmachilar esiga tushishi bilan o'pkasi og'ziga tiqildi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. «Yech kiyimingni, kiy jandani!» Yuragim orqamga urib ketdi, o'pkam tomog'imga keldi. Shayxning oyog'iga yiqildim. I.Rahim. Olovkor.

o'pka(si) tomog'(i)ga keldi: o'pka(si) og'z(i)ga tiqildi **II**

O'PKA(SI) KO'RINADI *kimning? nimani deb?* nimanidir ro'yobga chiqarish dardiga chalinmoq, shunga kuchli istak bilan intilmoq.

Biz shu cho'lda qaridik, Rahmonqul suv, daraxt, bog'-rog' deb o'pkasi ko'rinsa, men paxta deyman. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

O'PKA(SI) KO'RINIB QOLADI *kimning?* avvalgi imkoniyat yo'qligi sababli ojizlik qilib qolmoq.

Katta og'iz bo'lib kelgan, degani degan, aytgani aytgan bo'lgan. Bu yerning sharoiti ko'tarmay qoldi. Katta og'izlik qilaman deydi-yu, o'pkasi ko'rinib qolyapti. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

O'PKA(SI) TO'LDI *kimning?* iztirob chekib, yig'lab yuborish holatiga yetmoq. Varianti: **o'pka(si) to'lishib.**

«Azizim, hayotim, nima bo'ldi?» – dedi G'ulomjon o'pkasi to'lib. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha. Shunday deb bir necha marta takrorladi, birdan o'pkasi to'lishib, yo'l bo'yidagi katta toshga suyanib qoldi. A.Muxtor. Tug'ilish. Kelin, bir yumush bilan keldik. Opangizning dardi bor. Nozima ovsiniga qaradi: u quyi labini qimtib olgan, o'pkasi to'lganidan gapirolmas edi. T.Malik. Charxpalak.

o'pka(si) to'lishib: o'pka(si) to'ldi
O'PKASI SHISHMOQ *kimning?* o'ta darajada charchamoq, holdan toymoq.

Barchasi charchadi, o'pkasi shishdi. «Bahrom va Gulandom».

o'pka(si)ni [zo'rg'a] bosib: o'pka(si)ni bosolmaslik

o'pka(si)ni bosib olgach: o'pka(ng)ni bos (...)

O'PKA(SI)NI BOSOLMASLIK *kim? [o'zining]* o'zini yig'lashdan saqlab qololmaslik. Varianti: **o'pka(si)ni [zo'rg'a] bosib [o'zining].**

Sinonimi: **o'pka(si)ni tutolmaslik kim?** [o'zining].

Onasining alahlayotganini ko'rgan qizning yuragi battar ezildi... «Onajon!» – dedi o'pkasini zo'rg'a bosib Natasha. J.Abdullaxonov. Ona hurmati.

o'pka(si)ni og'z(i)ga tiqiltirmoq:
o'pka(si) og'z(i)ga tiqildi

O'PKA(SI)NI QO'LTIQLAMOQ kim? [o'zining] – **O'PKA(SI)NI QO'LTIQLATIB QO'YMOQ** kim? kimning? me'yorida ortiq hovliqmoq Sinonimi: **o'pkasini chaqmoq.**

«Nima gap o'zi, o'pkangni qo'ltiqlab qolibsani? Tovuqni nima qilasan?» «Murabbo qilib yeyman! Nima qilar edim? Sobiq leytenanting To'ra fasonga fermi topshiryapman». S.Ahmad. Kuyov. «Polvonning o'pkasini qo'ltiqlatib qo'rgan Beg ekan-da». –«Ha, uning qo'ltig'iga suv purkayotgan ham shu Beg». S.Ahmad. Qadrton dalalar.

o'pka(si)ni qo'ltiqlatib qo'ymoq:
o'pka(si)ni qo'ltiqlamoq

O'PKA(SI)NI TUTOLMASLIK kim? [o'zining] o'zini yig'lashdan tiyib qololmaslik. Sinonimi: **o'pka(si)ni bosolmaslik kim?** [o'zining].

Kampir Normat bilan Adolatni quchoqlab ho'ngrab yig'lab yubordi. Normat ham o'pkasini tutolmadi, ammo ona bag'ridan chiqib, safga borib qo'shildi. I.Rahim. Chin muhabbat. «Men bu itga qanaqa qilib ikkinchi xotin bo'lib kelganimni o'zim ham bilmayman», – dedi Mehri o'pkasini tutolmay. A.Qahhor. Sinchalak.

O'PKA(NG)NI BOS (...) kim? [o'zining] yoki kimning? hovliqma,

tinchlan Varianti: **o'pka(si)ni bosib olgach.** kim? [o'zining].

O'shanda: «Undoq qilodurman, mundoq qilodurman»,– deb hovliqding «Hoy, o'pkangni bos, uka», – dedim, quloq solmading. M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. Matlub esa bu gapdan o'zicha «To'xta, o'pkangni bosib ol, biz qilmagan ishni senga kim qo'yibdi! Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi..» degan ma'no chiqardi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Shundan keyin u o'pkasini bosib oldi... Keyin shirin xayollarga toldi. Nima uchundir daf'atan yodiga Ikromjonning eng dilkash o'tirishlarda hikoya qiladigan manzari tushdi. «Yo'ng'ichqazor...Shudringi ko'tarilmagan...» Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

O'Q YEMOQ kim? qayeridan? yarador bo'lmoq.

«Buning ustiga rota komandiri safdan chiqdi. Juda yaxshi ofitser edi...» – «Nega «edi» deysiz?» – «Qornidan o'q yedi. Ahvoli og'ir». Baxtga qarshi u poxodning uchinchi kuniyoq oyog'idan o'q yeb, boshqa yaradorlar bilan qaytib ketgani uchun otryadning keyingi taqdirini yaxshi bilmas ekan. O.Yoqubov. Ota izidan.

O'QDAY OTILIB shiddat bilan juda tez («chiqmoq»).

Vanya Velikan Morozovning blindajidan o'qday otilib chiqdi-da, kapitariusga buyurdi: «Rotani cho'miltir!» I.Rahim. Chin muhabbat.

O'Q(I) O'ZGANMI?! kimning? kimdan? nima ustunligi bor?! hamma nima bo'lsa – u ham shu.

*Ha, o'qing o'zganmi?! Senga qol-
sa, xotining qoshiga o'sma, ko'ziga
surma qo'yib, ipakdek buralib o'tir-
sin, «gah» desang, qo'lingga qo'nsin!*
S.Ahmad. Xotinlar.

O'QQA TUTMOQ kim? nimani?
yoki kimni? [nimadan?] shiddatli o'q
otmoq.

*Nemislar buzilgan imoratning pod-
valiga o'rnashib, yo'lni, tepalik va tep-
alik oraliqlarini pulemyotdan o'qqa
tuta boshladi.* A.Qahhor. Oltin yul-
duz.

o'rin olmoq: joy olmoq

o'rin qoladimi?! o'rin qolmadi

o'rin qoldirmaslik: o'rin qolmadi

O'RIN QOLMADI nimaga? ni-
ma qilishga? – **O'RIN QOLDIR-
MASLIK** kim? nimaga? ortiqcha, ke-
raksiz bo'lib qolmoq. Varianti: **o'rin
qoladimi?!**

*Qalandarov biroz sabr qilsa, yoni-
da o'tirgan shofyor militsionerga ma-
shina yangi ekanini, og'ir yuk ortib
bo'lmasligini aytib, ortiqcha so'zga
o'rin ham qolmas edi.* A.Qahhor. Sin-
chalak. *Iltimosni qaytarishga o'rin qol-
magan edi.* Marhamat ko'ndi. R.Fay-
ziy. Yo'lda. *Shunday bo'lgandan ke-
yin. «Sizniki, meniki» deyishga o'rin
qoladimi?!* Oybek. Qutlug' qon.

o'rni kelganda: o'rni kelib qoldi

O'RNI KELIB QOLDI suh-
bat davomida qulaylik tug'ilib qol-
di. Varianti: **o'rni kelganda.** Si-
nonimi: **xonasi kelib qoldi.**

*Biroq orada o'tgan butun gap re-
mont, ehtiyot qismlar, ... yonilg'i
to'g'risida bordi va hatto hazil, o'rni
kelib qilingan bir-ikki askiya ham shu
mavzudan chetga chiqmadi.* A.Qah-

hor. Xotinlar. *Lekin Ochil aka bilan
Temir Akbarovich bekorga baloga qo-
lishyapti-da. O'rni kelganda ularda
ayb to'nkashadilar.* P.Qodirov. Uch
ildiz.

**O'RN(I) YO'QLANIB TURGAN
EDI** kimning? qatnashmayotgani, yo'q-
ligi tez-tez eslab turildi.

*Ana xolos!.. Ana xolos!.. (So'rash-
dilar). Sizning o'rningiz yo'qlanib tur-
gan edi, usta.* Isroil ota. *Hurmatli
Zokirjon Furqatni Toshkentga uza-
tish marosimi bo'larmish deb eshitib,
aytilmasa ham, kelaverdim.* S.Abdul-
la. Muqimiy.

O'RNIGA KELTIRMOQ kim?
nimani? [uning] o'rinlatmoq (ijobiy).
Varianti: **joyiga keltirmoq.** Sino-
nimi: **o'rniga qo'ymoq 2 kim? ni-
mani? [uning] bajo keltirmoq 2 kim?
nimani? [uning].**

*U gumashtalikni juda o'rniga kel-
tirdi.* A.Muxtor. Opa-singillar. *Er-xo-
tin bir-birovining fe'lini obdan tu-
shunib, izzatini joyiga keltirganidan,
shu choqqacha oraga andakkina bo'l-
sa ham sovuqchilik tushmagan edi.*
H.Nazir. Rashk.

O'RNIGA QO'YMOQ kim? ni-
mani? [uning] 1 bajarmoq. Varianti:
joyiga qo'ymoq. Sinonimi: **bajo
keltirmoq 1 kim? nimani?**

*U bu shartni to'la-to'kis o'rniga
qo'ya olmas va shu vajdan shundan
keladigan savobni ham yarimta hi-
soblar edi.* G'.G'ulom. *Haji qabul
bo'ldi.* Axir qo'li lazzat-da. *Xotirjam
bo'ling, o'z ishini xuddi askarday
joyiga qo'yadi.* Men o'zim ham qu-
log'ini burab qo'ydim. Oybek. Oltin
vodiyan shabadalar.

2 o'rinlatmoq (ijobiy). Varianti: **joyiga qo'ymoq.** Sinonimi: **o'rni-ga keltirmoq kim? nimani? [uning]; bajo keltirmoq 2 kim? nimani?**

Bir haftaning ichida hamma rasm-rusumni joyiga qo'yib Hurinisoni nikohlab olibdi. A.Qahhor. Sinchalak. Oyim undan qo'rqadi. Kelganda hurmatini joyiga qo'ymasin-chi, o'zini qayerda ko'rarkan. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.

O'RN(I)NI BOSA OLMASLIK nima? nimaning? kim? kimning? har jihatdan evazi bo'la olmaslik. Varianti: **o'rn(i)ni bosarmidi?!**

Lekin kunlar o'tgan sari Mahkamning sog'inch hissi chidab bo'lmas darajaga chiqib borar, xatlar endi bir lahza diydor ko'rishishning o'rnini bosa olmas edi. P.Qodirov. Uch ildiz. «Men ulfatingizning o'rnini bosolmaymanmi?» xontaxta yoniga o'tirayotib gap qotdi juvon. S.Anorboyev. Oqsoy.

o'rn(i)ni bosarmidi?! o'rn(i)ni bosa olmaslik

O'RN(I)NI TOPMOQ kim? [o'zining] ko'p urinishlardan keyin o'ziga munosib muhitga kirib bormoq.

Yoshlarning turmushida mehnat, bahs, qo'shiq, muhabbat asosiy narsalar ekan. Men ulardan bexabar ham bebahra edim... Endi o'rnimni topdim, chog'i, hamma bilan tengman, hunarim bor, hurmatim bor. A.Muxtor. Tug'ilish. Adolat Nazira bilan quchoqlashib xayrlashayotganda: «Rahmat, o'rtoqjon, – dedi, – men hali turmushda o'z o'rnimni topaman. Siz bu haqda eshitasiz! Albatta eshitasiz!..» S.Abdugahhor. Dugonalar uchrashganda.

O'RTA QO'LDAY juda durkun, zotli.

Daralar «qurrey, qurrey» deb aks sado qaytardi, ammo qo'chqorlarning «ba» degan ovozi eshitilmadi.. O'rta qo'lday to'qqiz qo'chqorni yer yutdimi, a? S.Anorboyev. Oqsoy.

o'rta yo'lda qoldirmoq: ora yo'lda qolmoq

O'RTADA TURMOQ kim? ikki tarafga vositachi sifatida faoliyat ko'rsatmoq.

To'lagan ... ayniqsa bir og'aynini ko'p so'kdi. U oltmish metr baxmal va o'n uch yarim kilo choyni pul-lashda o'rtada turib, To'laganni besh yuz yigirma sakkiz so'mga tushirgan ekan. A.Qahhor. Og'aynilar. Balki Muhammad Aminxo'janing ham bu qizga ko'ngli bordir. Nima dedingiz, Chevar?.. Agar shunday bo'lsa, ikkimiz o'rtada turib, to'y qilib yuborar edik. S.Abdulla. Muqimiy.

O'RTADAN KETMOQ [ortadan ket=] tar. nima? bartaraf bo'lmoq, yo'qolmoq.

Ey yori aziz, chun sevarman deding, xizmat tama'in andan keskil, chun oshiq va ma'shuq bir yerga keldi, xojaliq dag'i qulluq o'rtadan ket-ti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

o'rtadan ko'tarildi: o'rtadan ko'tarmoq

O'RTADAN KO'TARMOQ kim? kimni? yoki nimani? yo'q qilmoq. Varianti: **o'rtadan ko'tarildi nima? oradan ko'tarmoq kim? kimni?**

Nega bu gaplar yolg'on bo'lsa, men bilan yuzma-yuz uchrashib, shubhani o'rtadan ko'tarib tashlamadingiz? S.Anorboyev. Oqsoy. Biroq u bu oiladagilarning hammasi ham sa-

mimiy, quvnoq va oq ko'ngil odamlar ekanligiga ishongan sayin bu o'ng'aysizlik o'rtadan ko'tarilib borardi. S.Zunnunova. Yangi direktor.

O'RTAGA OLMOQ kimlar? kimni? tanbeh berish yoki ko'ndirish maqsadida ko'plashib gapirmoq.

«Shu ham uylanish bo'ldimi, kuyov bo'lib bittagina sayraydigan to'pping bo'lmasa», – deb yigitlar kuyovni o'rtaga oldilar. Oydin. Bechora. Bu gap kampirlarga nihoyatda alam qildi, ikki kundan keyin ... kelganda uni o'rtaga olib shunday qilishdiki, ... «Tegishgan edim, tavba qildim», – deb zo'rg'a qutuldi. A.Qahhor. Kampirlar sim qoqdi.

o'rtaga otmoq: o'rtaga tashlamoq

o'rtaga qo'yilmoq: o'rtaga qo'yilmoq

O'RTAGA QO'YMOQ I kim? kimni? ikkinchi tarafning ra'yini bilib beradigan vositachi sifatida foydalanmoq.

Mirzakarimboy yerga o'ch odam edi. Yerli-suvli odamlar qanday bo'lmasin bir sababdan qiynalib qolsalar, darrov ularning pinjiga kirar yo o'rtaga kishi qo'yib, yerni tezroq o'z qo'liga o'tkazishga tirishar edi. Oybek. Qutlug' qon.

O'RTAGA QO'YMOQ II kim? nimani? («fikr»ni) fikrlashish maqsadida o'z mulohazalarini aytmoq. Sinonimi: **o'rtaga tashlamoq** kim? nimani?

Muhabbat bu taklifni o'rtaga qo'ydi-da, rollarni taqsimlashda ko'p qiynaldi. H.Nazir. Tomosha.

O'RTAGA QO'YMOQ III kim? nimani? – **O'RTAGA QO'YILMOQ** nima? jamoa istifodasiga o'tkazmoq.

Turg'unboy akam: «Yakka otimni o'rtaga qo'yadigan bo'lsam, qo'shilmayman», – deb majlisdan chiqib ketib edi. P.Tursun. O'qituvchi.

O'RTAGA SOLMOQ kim? 1 nimani? ro'kach qilmoq.

«Hoy xotin! O'zi tinchlikmi?.. Brigadir degan sal vazminroq bo'ladi-da». – «Brigadirlikimni o'rtaga solmang. Kesatmang». H.Nazir. Rashk.

2 kimni? munozarada xizmatidan foydalanmoq.

«Men ketdim, – dedi Ashirmat, – bir-ikki obro'yli, katta odamlarni o'rtaga solaman, qo'ymayman, keladi kelin». Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

3 nimani? ko'pchilik hukmiga havola qilmoq. Varianti: **o'rta(si)ga solmoq** kim? kimning? nimani?

«Dambani qachon boshlash yaxshiroq bo'lishi to'g'risida bevosita ketmon uradigan, tuproq orqalaydigan odamlar bilan maslahat qilinglar...» – «Albatta! Umumiy majlis qilamiz, o'rtaga solamiz». A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

o'rtaga sovuqchilik tushdi: oraga sovuqchilik tushdi

O'RTAGA TASHLAMOQ kim? nimani? («fikr»ni) fikrlashish maqsadida o'z mulohazalarini boshqalarga aytmoq. Varianti: **o'rta(si)ga tashlamoq** kim? kimning? nimani? **o'rta-ga tashlandi nima?** **o'rta(si)ga tashlandi nima?** kimning? Sinonimi: **o'rtaga qo'yilmoq II** kim? nimani?

Yotig'i bilan ayting, afandim, o'zi nima gap? O'rtaga tashlang! Aqllashaylik. S.Ahmad. Hukm. Shu narsa ko'pchilikning o'rtasiga tashlangan-

da, majlisga qo'yilganda, nima qilasiz? A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «Elobod»da havaskorlar jamoasini qanday tashkil etish to'g'risida o'z mulohazalarini yosh, qizg'in ruhli yigitchalarga xos bir qaynoqlik bilan o'rtaga otdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Lekin o'sha sullohning bir gapida jon bor: «Jiddiyroq farazni o'rtaga tashlasang, avval. «unvoni bormi buning?», deb so'rashadi».* T.Malik. Charxpalak.

o'rtaga tashlandi: o'rtaga tashlamoq

O'RTAGA TUSHMOQ kim? 1 ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashmoq. Varianti: **o'rta(lari)ga tushmoq** kim? kimlarning? **oraga tushmoq.**

Odamlar o'rtaga tushib, har ikki tarafni ajratib qo'yidilar. G'.G'ulom. Aniq daromad. Bittani u aytdi, bittani men aytdim. Bundan Rahmatulla domla xabardor bo'lib, oraga tushdilar, yarashtirib qo'yidilar. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Ko'ziga odamning joni emas, telpak yoki shim ko'rinadi. Men shunaqa bolaning jazosini yengillatish uchun o'rtaga tushdim!! Qanday kaltabinlik! Men o'zim shundaylarning jazosini berish uchun bu kasbni tanlagan bo'lsam-u, yana xohishimga qarshi yursam?! Nimalar bo'lyapti o'zi? T.Malik. Charxpalak. – Menga qo'shilib aza tutayotganingdan minnatdorman, azizginam Supersur; – qup-quruq ko'zlariga shunchaki ro'molcha surtayotib, odob yuzasidan mungliroq ovozda gapirdi u. – Nachora, shaxsan yuqoridagi zotga tog'amizdek oddiy

zargar kerak bo'pqolgan ekan, sen bilan men o'rtaga tusholmaymiz. A.Obidjon. Oltin yurakli Avtobola.

2 jabrdiyda deb hisoblangan kishisini himoya qilib, biror janjalli ishga aralashmoq. Varianti: **oraga tushmoq.**

Uning oldiga borib, uzr so'ra. Biz ham o'rtaga tushaylikda, seni so'rab olaylik. I.Rahim. Ixlos. Nozima bankka hujum qilishning oqibatini yaxshi biladi. O'rtaga tushib, «ishni bir yoqlik» qilish niyati yo'q edi. Qaynog'a-sini yoqtirmagani uchun emas, balki Qodimning bu jinoyatga kirib kelish tarixini bilgani uchun ham yordam berishni o'ylamasdi. T.Malik. Charxpalak.

3 janjalga sabab bo'lmoq.

Nihoyat, oilada bo'ladigan tanqis-chilik ham o'rtaga tushadigan bo'p qoldi. Tursunoy o'shanda «tuzukroq yigitga chiqmaganini» bir-ikki marta armon bilan aytdi. Ikromjon tamom bo'ldi... Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar.

O'RTAGA TO'KMOQ kim? niman? hamma yashirin fikr-o'ylarini oshkora gapirmoq.

Sherbek yuragidagi hamma gaplarni o'rtaga to'kib soldi. S.Anorbo-yev. Oqsoy.

o'rta(lari)da gap qochdi: ora(lari)da gap qochdi

o'rta(lari)da gap o'tdi: ora(lari)da gap o'tdi

o'rta(lari)ga sovuqchilik tushdi: oraga sovuqchilik tushdi

o'rta(lari)ga tushmoq: o'rtaga tushmoq

o'rta(lari)dan ola mushuk o'tdi: ora(lari)dan ola mushuk o'tdi

o'rta(si)ga solmoq: o'rtaga solmoq

o'rta(si)ga tashlamoq: o'rtaga tashlamoq

o'rta(si)ga tashlandi: o'rtaga tashlamoq

O'RTAG'A KETURMOQ [ortağa ketür=] tar. *kim? nimani?* fosh qilmoq, ochiqqlamoq.

Hasudlar ta'nasi javrina toqat keturmayin tariqat shayxining xidmatina kelib, sirrin o'rtag'a keturdi, dag'i shikoyat vajhi bilan holin taqrir qildi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'SAL BO'LMOQ og'irlashib qolmoq, o'lim oldida yotmoq.

Kampir o'sal bo'lib qolibdi. Bemor kundan-kun battar bo'lib, oxiri o'sal bo'ldi. A.Qahhor. Bemor.

**O'T BILAN SUVDEK (... SUV-
DAY)** o'zaro zid, murosaga kela olmaydigan.

Xo'jabekov bilan Sherbek o't bilan suvday bir-biriga yov. S.Anorboyev. Oqsoy.

O'T OLMOQ *nima?* 1 elektr zaryadi bilan ishga tushmoq (motor).

Birgalashib u yer-bu yerini sinchiklab qarab chiqdilar; «boboy» motor ruchkasini aylantiraverib terlab-pishib ketdi, motor esa, xuddi o'chakishganday, sira o't olmas edi. O.Yoqubov. Bahor kunlarining birida.

2 kuchaymoq, qamrab olmoq («his-tuyg'u»).

Og'ir ishda o'zi ozgan va uyidagi ikki qo'yi semirgan sayin uning O'rmonjonga qarshi yuragidagi adovati o't ola bordi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. Mana endi yoshgina Maynaning bu qadar merganligini

eshitgach, Valixondagi hirs yana o't oldi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

O'T OCHMOQ *kim?* 1 ko'plab o'q uzmoq.

Petka dushman bostirib kelayotganda o't ochgani komanda bermagan komandirni xoin gumon qilib, o'zicha o't ochgan va shu bilan butun bir vzvodning halokatiga sabab bo'lgan bir pulemyotchi to'g'risida ham so'zlab berdi. A.Qahhor. Oltin yulduz.

2 keskin kurash boshlamoq.

So'zlarni tera-tera, Boshlab yumor-satira, Hech kimdan hayiqmasdan, Yuz-u xotir qilmasdan, Eskilikka o't ochsak, Yangilikdan nur sochsak. S.Abdulla. Bitsin xurofot.

O'T QO'YMOQ *kim? nimaga?* ataylab yondirmoq.

Kop uylarga, shular qatori bularning ham uyiga ... o't qo'yishdi. A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. *Roziq qo'rboshi dadasini o'ldirib, temirchilik ustaxonasiga o't qo'yib ketdi.* S.Anorboyev. Oqsoy.

**O'T SO'NDURUB KO'Z QO'Y-
MOQ** [ot söndürüb köz qoj=] tar. *kim?* yomonlikni oxirigacha tugatmaslik.

Bu fasod ahlining nasli munqati' bo'lsa kerak, yo'qsa o't so'ndurub ko'z qo'ymoq, yilon o'tturub balosin beslamak oqillar ishi degul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'T TUSHDI *nimaga?* yonib ketmoq.

Goho alanga yallig'ida qizarib ko'ringan do'stlarining tund basharalariga qarab, fahat uyga o't tushgan-u, uy egalariga hech narsa bo'lmaganday tuyiladi unga. S.Anorboyev. Oqsoy.

O‘T URMOQ [ot ur=] tar. *kim?* *kimga?* hujum qilmoq.

Ey eranlar, yot cherikka o‘t urung. S.Saroyi.Gulistoni bit-turkiy.

O‘T CHIQUIB KETDI *kimdan?* achchig‘idan tutaqmoq, qizarib-bo‘zarib ketmoq.

Nigora bu gapni yomon maqsadda aytmagandir-ku, lekin shu paytda Akramdan o‘t chiqib ketdi. Tili gapga kelmay kalovlanib qoldi. S.Anorbojev. Oqsoy.

o‘taka(si) yorildi: o‘taka(si)ni yormoq

O‘TAKA(SI)NI YORMOQ *kim? kimning?* – **O‘TAKA(SI) YORILDI** *kimning?* qattiq cho‘chitib qo‘rqitmoq. Varianti: **o‘taka(si) o‘nga bo‘lindi;** **o‘taka(si) o‘ttiz ikkiga bo‘lindi.** Sinonimi: **yurag(i)ni yormoq** **I** *kim? yoki nima? kimning?* – **yurag(i) yorildi** *kimning?*

«Xo‘jayin, katta sovliqlarni sizning qo‘zilaringizga almashtirganimga gap tegib qolmasmikin deymandada?» – *«Kimdan? – o‘dag‘aylab berdi Dadajonov. – Ko‘p o‘takang o‘nga bo‘linib, yuraging yorilavermasin».* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. *Mening do‘p etib koptokdek oldilariga sakrab tushganimni ko‘rib, o‘takalari o‘ttiz ikkiga bo‘linib ketsa bo‘ladimi?!* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

o‘taka(si) o‘nga bo‘lindi: o‘taka(si)ni yormoq

o‘taka(si) o‘ttiz ikkiga bo‘lindi: o‘taka(si)ni yormoq

o‘tavermoq: dunyodan o‘tmoq

o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas: suvga tushsa (...) – cho‘kmaslik, o‘tga tushsa (...) – yonmaslik

o‘tday kuydirmoq: o‘tday kuy-moq

O‘TDAY KUYMOQ *kim? 1 kimdan?* mehr-oqibatsiz bo‘lib chiqmoq. Varianti: **o‘tday kuydirmoq** *kim? kimni?*

Kelinimdan o‘tdek kuyganman. O‘g‘ilginamni yaxshi bilasan, qo‘ydek yuvosh bola. Kelinim yashamagur uni ham rasvo qildi. S.Ahmad. Hasrat. [Tilmoch] *juda shum odam edi, haromi. Oqsoqolni ham o‘tdek kuygan-u. Soy bo‘yida oqsoqolning zavodi bor edi, shaytonlik qilib zavodni notari-usdan o‘z otiga o‘tqazib olgan ekan..* S.Ahmad. Hukm.

2 qanchaga? befoyda chiqimdor bo‘lib qolmoq

«Yopiray, bu o‘zi qanday mo‘jiza yem bo‘lsa ekan, uch so‘m oltmish tiyinga o‘tdek kuymasam yaxshi edi», – deb bir yumalog‘ini olib, tekshira boshladi. G‘.G‘ulom. Guvohlikka o‘tgan ho‘kiz.

o‘tga ham, suvga ham kirishga (tayyor): o‘tga ham, suvga ham urishga (tayyor)

O‘TGA HAM, SUVGA HAM URISHGA (tayyor) har qanday mushkul ishni sira ikkilanmay bajarishga (tayyor). Varianti: **o‘tga ham, suvga ham kirishga** (tayyor).

Ular shunday odamlar bo‘lsinki, ... o‘tga ham, suvga ham o‘zini urishga tayyor ko‘rsatsin. Oybek. Qutlug‘qon. *Bu kishi uchun o‘tga ham, suvga ham kirishga tayyor turgan yuzlab yoshlar bor,..* A.Muxtor. Tug‘ilish.

o‘tga solmoq: tiriklay o‘tga tashlamoq

o‘tga tashlamoq: tiriklay o‘tga tashlamoq

O'TGANNING O'ROG'INI, KETGANNING KETMONINI OLMOQ *kim?* duch kelgan kishiga yengiltaklik bilan ozor bermoq.

O'sha kezlari Burgut bosar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib yurdi. S.Ahmad. Cho'l burguti. *Farixa shunaqangi janjal-kashki, aytganini qilmay qo'ymaydi. Ba'zi o'rtoqlari pand bermoqchi bo'ladi: «o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olasan», – deyi-shadi.* A.Muxtor. Janjalkash.

o'tib ketmoq I: dunyodan o'tmoq

o'tib ketmoq II: jon-jon(i)dan o'tib ketmoq

O'TIRGANI JOY TOPOLMASLIK *kim?* kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq. Varianti: **o'tirishga joy topolmaslik.** Sinonimi: **o'z(i)ni qayerga qo'yish(i)ni bilmaslik 1** *kim?* **o'z(i)ni qo'ygani joy topolmaslik** *kim?* **o'z(i)ni qayoqqa urish(i)ni bilmaslik** *kim?* **tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik** *kim?*

Boshiga ish tushgandan keyin biram o'tirgani joy topolmay yurdiki... «O'l-a», – deyman ichimda. A.Qahhor. Sarob. *Nega bo'lmasa kuyov pochchamning o'zlari katta gapiradilar? Tanqid qilganimizda, o'tirishga joy topolmay qolgan edilar-ku.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar.

o'tirishga joy topolmaslik: o'tirgani joy topolmaslik

o'tirsa(...) – **o'poq demoq, tursa(...)**–**so'poq:** o'tirsa(...)-o'poq, tursa(...)-so'poq demoq

O'TIRSA(...) – **O'POQ, TURSA(...)** – **SO'POQ DEMOQ** *kim?*

kimni? yo'q yerdan ayb topib, kam-sitishga harakat qilmoq. Varianti: **o'tirsa(...)** – **o'poq demoq, tursa(...)** – **so'poq; tursa(...)** – **o'poq demoq, yursa(...)** – **so'poq demoq.**

Qaynanam, qayinsingillarim bor edi. O'tirsam–o'poq, tursam–so'poq, deyishardi. S.Zunnunova. Yangi direktor. *Aravangni orqa ko'chaga olib chiq, Nuri o'shatda tushsin. Mahalla odamlari qursin, o'tirsang – o'poq deydi, tursang – so'poq, uqdingmi?* Oybek. Qutlug' qon. *Bu kishi ham o'zlariga yetguncha. Qo'chqor bechorani tursa – o'poq deb, yursa – so'poq deb, oralariga sovuqlik soldi.* S. Anorboyev. Oqsoy.

O'TQA YOQMASLIK [otqa jaqma=] tar. *kim?* *kimni?* qiynamaslik, xavf-xatarga kirmaslik.

Jahong'a ixtiyor urgan kim ersa, O'zini oltun uchun o'tqa yoqmas. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'TQAZGANI JOY TOPOLMASLIK *kim?* *kimni?* o'ta darajada ardoqlamoq, parvona bo'lmoq. Varianti: **o'tqazishga joy topolmaslik.** Sinonimi: **yer-ko'kka ishonmaslik** *kim?* *kimni?* yoki *nimani?*

Bahri xola qizini o'tqazgani joy topolmas, hadeb ayvonga chiqar, hovliga tushar, baland so'ri ostidagi stolga joy tayyorlar edi. H.Nazir. Albom. *Nigoraning onasining minnatdorchiligini aytmaysiz! O'tqazgani joy topolmaydi bechora!* S.Anorboyev. Oqsoy.

o'tqazishga joy topolmaslik: o'tqazgani joy topolmaslik

o'tqizgani joy topolmaslik: o'tqazgani joy topolmaslik

O'TSIZ O'RTANMOQ *kim?* dardini ayta olmay ruhan ezilmoq.

Bularni o'ylab o'tsiz o'rtanib yurgan Lobar bir oqshom hasrat chigilini yoza boshlagan edi, Salimjon lo-vullab ketdi. A.Muhiddin. Davlat qoralovchisi.

O'TTIZGA KIRIBOQ O'TIN BO'LMOQ *kim?* ayollik latofatini erta yo'qotmoq.

«*Sen ko'rpada ham g'o'zani o'y-laysan. O'ttizga kiriboq o'tin bo'lib goldingmi?*» – «*O'tin bo'lmay nima bo'lardim, oyi.*».– «*Umidsizlanma, Saodat o'zing kimdan kamsan! «Vaqt-ingni o'tkazmay boshingni ikkita qil», – deganimning boisi bor.*». I.Rahim. Ixlos.

O'TTIZ IKKI TISHINI QOQIB OLMOQ *kim? kimning?* qattiq jismoniy jazo berishini aytib do'q-po'pisa qilmoq.

Juvon o'lgur kelinim mabodo kalit-ni topib, mevaga qo'l tekkizgan bo'lsa-ya! Naq o'ttiz ikki tishini qoqib olay! Bilaman, shu sandiqqa qarab-qarab qo'yardi badbaxt. Oybek. Oltin vodiy-dan shabadalar.

O'Y SURMOQ *kim?* hamma nar-sani unutgan holda fikrlamoq.

Oysha xola Buxoroyi sharifni iz-voshlarda kezib tomosha qilish ha-qida o'y surardi. Sh.Toshmatov. Erk qushi.

o'y yurgizmoq: fikr yuritmoq

O'Y-XAYOLLARIGA G'ARQ BO'LMOQ *kim?* [o'zining] chuqur o'ylanib qolmoq.

Xolbo'taning qayrilib qaramagan-ligi-yu o'z o'y-xayollariga g'arq bo'lib ketayotganligi ponsodga nopisand-likdek tuyuldi, ichidan qirindi o'tib o'ylardi:

O'YGA BORMOQ *kim?* 1 o'zi-cha o'ylamoq. Sinonimi: **ko'ngl(i)-ga kelmoq** 1 nima? [o'zining] yoki kimning?

Siz kechqurunlari ishlaysiz. Ha-laqit bermayin degan o'ygam ham bo-raman-da... A.Qahhor. Sarob. Komil buni ko'r-di-yu, shamollab kelmoq-chidir, degan o'ygam borib indamadi. Keyin yonidagi qizlar bilan andarmon bo'lib uni esidan chiqaribdi. T.Malik. Charxpalak.

2 taxminiy mulohaza yuritmoq.

Muxtorxonning tashqi ko'rinishi to'g'risida ham shunday o'ygam bordi. A.Qahhor. Sarob. «Shoazimning bu fikrlari Ziyatullayev ta'sirida pay-do bo'lganmi?» degan o'ygam bordi. P.Qodirov. Uch ildiz.

o'yga botmoq: o'ygam cho'mmoq

O'YGA TOLMOQ *kim?* uzoq fikrlamoq. Varianti: **fikrga tolmoq.**

Chol-kampir oydinda uyga qay-tar ekanlar, har ikkovi ham chuqur fikrga toldilar. S.Ahmad. Mastonbi-bi. Habibulla pachkaga qarab o'ygam toldi, so'ng saxiylik bilan uch-to'rtta sigaretaning yarmigacha chiqarib, un-gam uzatdi. Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. Faqat... xalq orasida sharmanda bo'lganini yashirdi. Shayx o'ygam toldi: O'rusiyaga borgan bo'lsa, Karimber-di aqlini peshlab qaytgan. T.Malik. Charxpalak. Mavluda xonasiga kirib, o'ygam toldi: «Qanaqa hisobot? Kassir bilan uzoq o'tirishdi. Nima qilishdi? Pul bo'lishdimi? Endi tarqatadimi? Meni nimaga aralashtiryapti? Qiziq...» T.Malik. Charxpalak.

O'YGA CHO'MMOQ *kim?* chu-qur fikrlash holatida bo'lmoq. Vari-anti: **o'yga botmoq.**



Mahkam aka Shukurjondan gina qilish uchun og'iz juftladi-yu, uning bir nuqtaga tikilgan holda chuqur o'yga cho'mganini ko'rib, gapirishdan tortindi. O.Yoqubov. Ota izidan. Kechadan buyon o'yga botaman-u, taajjub qilaman. Axir necha-necha yuz yillardan beri bu do'zax bilan [cho'l bilan] hamsoya bo'lib yashaymiz-a? Bas-e, qo'shnicilikka barham beraylik endi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. – Hayot... – deya o'yga cho'mdi u. – Qiziq... Ammo-lekin muhabbat ham qiziq ekan! Sh.Xolmirzayev. Hikoyalar. Yoniga ikki shisha pivoni qo'yib olib, ufqqa tikilganicha o'yga cho'mib o'tirardi. Goho turib, u yoq–bu yoqqa yurardi. T.Malik. Charxpalak.

O'YIB OLMOQ kim? ataylab gap bilan ozor bermoq.

Nimani o'rganyapman, nimani o'rganmayapman, aytganim bilan bari-bir foydasi yo'q, dedi bo'sh kelmay dabdurustdan tig'li savol tashlaganini o'yib olish qasdida. Sh.Bo'tayev. Qarz.

O'YIN BUZUQI oraga raxna soluvchi, yomonlikni boshlovchi, g'alamis.

Shu Rahimga o'xshagan bitta-ikkita o'yin buzuqilar ko'pchilikning nomini bulg'ar ekan-da, hammamizga tashvish orttirib yurar ekan. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

o'yin(i) o'tmadi: nomer(i) o'tmadi;

o'ylab, o'y(i)ga yetolmaslik: o'y-lab-o'ylab, o'y(i)ga yetolmaslik

O'YLAB-O'YLAB, O'Y(I)GA YETOLMASLIK kim? [o'zining] uzoq o'ylab, aniq bir fikrga kela ol-

maslik. Varianti: **o'ylab, o'y(i)ga yetolmaslik.** Sinonimi: **bosh(i) qot-di 1** kimning?

O'ylab, o'yimga yetolmasdim: Nega o'n olti yoshdan oshgan kap-katta odam ishdan bo'shaydi? S.Ahmad. Dadamning o'rtog'i. Paxta tugagan-dan keyin ham xo'jako'rsinga yurish xo'jaliklarga qancha zarar yetkazadi? Komil shularni o'ylab, o'yiga yetolmaydi. Uning xayolini yana hasharchilar rahbarining ovozi bo'ldi: – Shoimov, uka, bu yoqqa qaranglar, qarashib yuboraylik! T.Malik. Charxpalak.

o'z arava(si)ni tortmoq: o'z arava(si)ni o'z(i) sudramoq

O'Z ARAVA(SI)NI O'Z(I) SUDRAMOQ kim? iqtisodiy qiyinchiliklarini boshqaning yordamisiz, o'zi amal-taqal qilib yengib yurmoq. Varianti: **o'z arava(si)ni tortmoq; arava(si)ni o'z(i) tortmoq.**

Po'latjon majlislarda prezidiumlarga saylanish va gazetaga tushish shavqini kechirmagan, bir chekkada o'z aravasini o'zi sudrab yurgan kishilardan edi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar. Tinchgina o'z aravasini tortib yurgan bir kishi bilan ularning nima ishi bor ekan. G'.G'ulom. Tirilgan murda. Bobom o'ziga to'q dehqon ekan. Otam boyaqish asta-sekin ayrildi-yu, qashshoqlik aravasini, har holda, o'zi tortib dunyodan o'tdi. Mana endi mening ahvolimga qara.. Oybek. Nur qidirib.

O'Z AYBINA KO'ZI KO'R [öz 'ajbina közi kör] tar. kimning? o'z kamchiliklarini bilmaydigan.

Kuzatur o'zga aybin sen ani ko'r, Magar o'z aybina doyim ko'zi ko'r. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'Z AYOĞ'I BILA GO'R OG'ZINA KELMOQ [öz ajayi bilä gür ayzina kel=] tar. *kim?* o'lishini bilmasdan kelmoq. Varianti: **o'z oyog'i bilan kelmoq.**

Bor esa ko'rguz eling'a bu kun erlikdan fan, O'z ayog'i bila go'r og'zina keldi dushman. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'Z BILGAN(I)DAN QOLMASLIK *kim?* o'jarlik bilan o'z rejasini amalga oshirmoq.

«Xo'sh, otang-ku o'z bilganidan qolmaydiganlardan, senga nima bo'ldi, nima qilib qo'yding, Sobir so'tak? Surishtirmay tutun qaytarib yura bergan ekansan-da, xumpar?» A.Muhiddin. Ko'ngillar.

O'Z BIYLIĞ(I) O'Z(I)DA *kimning?* nimani xohlama shuni qilishga huquqli. Sinonimi: **o'z(i)ga xon, o'z(i)ga bek** *kim?* **o'z(i) xon, ko'lanka(si) maydon** *kim?*

Ana o'sha Ahmadga ham tayinlab qo'ysalaring: Rahimni to'dadan chiqarib tashlamasa!.. Tag'in o'z biyligi o'zida bo'lib qolib, tunov kungiday bir xarxasha orttirmasin... H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

O'Z BOSH(I)CHA mustaqil holda, birovga qaram bo'lmagan holda.

...Lekin endi o'zim ishlab, o'z boshimcha tirikchilik qilaman deganimda shu to'rt tanobgina yerni ham qo'limdan olib qolaman desanglar, men rozi bo'la olmayman. S.Ayniy. Qullar.

O'Z GAZ(I) BILAN O'LCHAMOQ *kim? nimani?* anglash-bilish

qobiliyati darajasida baho bermoq, mu-lohaza yuritmoq. Varianti: **o'z tarozi(si) bilan o'lchamoq** *kim? kimni?*

Biroq Malohat ikki yilda uch mar-ta mukofotlanibdi. Jonfig'on mukofot-ni o'zgazi bilan o'lchagani uchun bunga ham uncha parvo qilmabdi. «Olgan mukofotiga ot bilan tuya berarmidi?» – debdi. A.Qahhor. Jonfig'on. «Voy, voy, nimalar deyapsiz, Vohidjon? – dedi u, o'rnidan qo'zg'alib, – Og'zingizga qarab gapiring!» – «Men emas, siz og'zingizga qarab gapiring! Siz hammani o'z tarozingiz bilan o'lchamang!...» O.Yoqubov. Til-la uzuk.

o'z ko'mach(i)ga kul tortmoq: kulni o'z ko'machiga tortmoq

O'Z QONI BILAN ELIN YUVMOQ [öz qani bilän elin yüv=] tar. *kim?* o'z o'limiga sabab bo'lmoq.

Kim izdar esa xilofi royi sulton, O'z qoni bilan yuvar elin ul nodon. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

o'z qo'l(i)ga olmoq: qo'lga olmoq
O'Z SO'ZLI fikrida qat'iy turadigan, aytganini qat'iyat bilan amalga oshiradigan.

Chunki dadasi o'z so'zli, vaqti kelganda har qanday monelikni yakson qiluvchi zabardast keksa bo'lganidan, uning qizga uylanishiga to'sqinlik qilish mumkin emasligini angladi. Oy-bek. Qutlug' qon.

o'z tarozi(si) bilan o'lchamoq: o'z gaz(i) bilan o'lchamoq

O'Z UYIM, O'LAN TUSHAGIM hech qayer o'z uy-joyidek bo'lmaydi, o'z uy-joyi o'rnini bosmaydi.

...yonboshlang, inim, yonboshlang. «O'z uyim, o'lan to'shagim»,

– deydilar. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. «Chakki o'ylabsizlar. «O'z uyim, o'lan to'shagim» degandek, hech kishining o'zi tug'ilib-o'sgan, kindik qoni to'kilgan joydek bo'lmaydi, kelin», – degan emish Erali. A.Muhammad. G'anisher.

O'Z ROHATIN KO'RMOQ [öz rahatın kör=] tar. kim? huzur-halovatini o'ylamoq.

Qo'yub o'g'lin, qizin mehnat ichinda, turub o'z rohatin ko'rmakka ketti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

o'z yog'(i)da o'z (i) qovurilmoq: o'z yog(i)ga o'z(i) qovurilmoq

O'Z YOG'(I)GA O'Z(I) QOVURILMOQ kim? ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikir-o'yini boshqalarga aytmay). Varianti: **o'z yog'(i)da o'z(i) qovurilmoq.** Sinonimi: **ich-et(i)ni yemoq** kim? [o'zining].

«Bo'ta-xotinboz, Bo'ta-xotin-qizlar ozodligining dushmani. Bo'ta Salomatni bir kechada yo'q qilib yorgan...» Bu gaplar uchlik komissiya a'zosi Nizomiddinov yig'gan materiallar. Bo'taboy ko'chaga chiqolmay qoldi.. Uch kundirki, Bo'taboy o'z yog'iga o'zi qovurilib uyda o'tiribdi. S.Ahmad. Hukm. [Dadang] «xo'p» deyishga sen o'jardan cho'chidi, «yo'q» deyishga tili bormaydi. Ketini o'ylamasdan va'da bergan, endi so'zdan qaytishni o'ziga ep bilmaydi. Qiz uzatishga ota ra'yi, ota so'zi shunday aziz bo'ladi, bolam. Mana hozir o'z yog'ida o'zi qovurilib, qorong'ida betoqat yuribdi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

O'ZDAN KECHMOQ [özdän keč=] tar.kim? o'zligini unutmoq.

Ul kecha qozi ani o'zdan kechub, Tark etib borin anga xizmat qilur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'ZGALAR ALINDA BO'LMOQ [özgälär elindä bol=] tar. nima? birov tasarrufiga o'tmoq.

Bir faqir kelib, bularning mushkulin hal etib, aytti: «Negakim aning mulki o'zgalalar alinda bo'lg'ay, muning ko'zlari ul mulk ortincha qolg'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'Z(I) BILAN O'Z(I) BO'LMOQ kim? hech narsaga e'tibor bermay, o'z o'y-xayollari bilan band bo'lmoq.

...nahotki. Gavhar murakkab ichki dardini tushuna oladigan darajada ulg'ayibdi? Qachon, qanday qilib? Toshev o'zi bilan o'zi bo'lib, buni ham sezmadimi? P.Qodirov. Uch ildiz. Egasining o'zi bilan o'zi bo'lib qolganini bilganday, oq ot bir-bir bosib ketayotib taqqa to'xtadi. Xo'jabekov boshini ko'tardi. S.Anorboyev. Oqsoy.

o'z(i) xon, o'z(i) bek: o'z(i)ga xon, o'z(i)ga bek

O'Z(I)DA YO'Q benihoyat, juda-juda («xursand»).

«Yarim soatcha ketdi, dedi Muhiddin Rizaga, – rosa ezmalik qildik-da», – «Bemalol yetamiz, havotir olma», – dedi og'zi qulog'ida bo'lgan Riza. Hozir u hammadan ham o'zida yo'q xursand. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi. Olimov paqirchadagi suvda bilanglashib yurgan baliqchalarni ko'rarkan, o'zida yo'q quvonib ketdi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

O'Z(I)DAN KETMOQ kim? behush bo'lmoq. Sinonimi: **hush(i)-**

dan ketmoq kim? [o'zining]; **hush(i)-ni yo'qotmoq 1** kim? [o'zining]; **ko'ngl(i) ozdi 1** kimning? Antonimi: **o'z(i)ga kelmoq** kim? **hush(i)ga kelmoq 1** kim? [o'zining]; **hush(i) (o'ziga)ga keldi 1** kimning?

Vera uni pastga sudraganda, Biryulin o'zidan ketib qoldi. Undan qon ko'p ketgan edi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Birdaniga Omon to'satdan o'zini orqaga tashlab, «g'iyq» degan ovoz chiqardi-da, o'zidan ketib yiqildi. G'. G'ulom. Shum bola.

O'Z(I)GA KELMOQ kim? **1** behushlikdan qaytmoq. Varianti: o'z(i)ga keltirmoq kim? kimni? Sinonimi: **hush(i)ga kelmoq 1** kim? **hush(i) o'z(i)ga keldi I** kimning? Antonimi: **o'z(i)dan ketmoq** kim? **hush(i)dan ketmoq** kim? [o'zining]; **hush(i)ni yo'qotmoq 1** kim? [o'zining]; **ko'ngl(i) ozdi** kimning?

Bu kunlarda jangchi goh o'ziga kelib, goh behush bo'lib yotdi. A.Muxtor. Qanot juft bo'ladi. Shokir aka: «Senga nima bo'ldi, ko'zingni och», – deguncha bo'lmay, [Jamol xola] hushidan ketdi. Eri boshidan ko'tarib, yuziga suv sepib, zo'rg'a o'ziga keltirdi. H.Nu'mon. Yoshlikda bergan ko'ngil.

2 odatdagi sezish, anglash holatiga qaytmoq. Sinonimi: **hush(i)ga kelmoq 2** kim? [o'zining]; **hush(i) o'z(i)ga keldi 2** kimning? **hush(i)ni yig'moq** kim? [o'zining].

Mathuba uzoq xayol surdi. O'ziga kelganda, qo'lida ochiq konvert, bir taxta qog'oz ko'rdi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

3 avvalgi sog'lig'ini, kuch-quvvatini tiklamoq.

Xalq xizmati desa, hamisha uchib turganingizni ko'rib, qoyil qolaman. Faqat sog'lig'ingiz meni tashvishga soladi, xolos. Hali uncha o'zingizga kelganingiz yo'q. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

4 to'g'ri idrok qilmoq.

«Ayb menda», – dedi Jo'ra dangal. «Ana endi o'zingga kelding». N.Nazarov. Zamon. «Tarsakidan qo'rqmayman-u, «Mushtum»dan qo'rqaman». – «Ana endi o'zingizga keldingiz». S.Abdulla. «To'y» hangomasi.

o'z(i)ga keltirmoq: o'z(i)ga kelmoq

O'Z(I)GA OLMOQ I kim? nima-ni? («gap»ni) o'ziga tegishli deb bilmoq.

Akbarov uning [leksiyalarning sifati haqidagi] gapini o'ziga olib, xato qilganini endi sezdi va battar oqardi. P.Qodirov. Uch ildiz. Xoliq uning boshqa gaplarini o'ziga olmasa ham, og'izdan gap ochganda achchig'i kelar edi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

o'z(i)ga olmoq II: zimma(si)ga olmoq

O'Z(I)GA QARATIB OLMOQ kim? kimni? tarafdoriga aylantirmoq, o'z tomoniga og'dirmoq.

Botir yangi katta bog' yaratish ideasini ilmiy asosda aktivlarga alohida-alohida tushuntirib, ularni o'zimizga birin-ketin qaratib olamiz dediyu, Bo'stonning ko'ngliga jiddiy tashvish solib qo'ydi. S.Nazar. Yashil boylik.

O'Z(I)GA QO'YIB BERMOQ kim? [kimning?] hech aralashmay, o'z-o'zicha davom etishiga imkon

bermoq. Varianti: **qo'yib bermoq kim?** [kimga? yoki nimaga?]

«Kuzga borib, tovuqdan ham ajrab qolma, tag'in». – «Kuzgacha o'zimga qo'yib bering», – dedi Komiljon qat'iyat bilan. I.Rahim. Ixlos. *Qo'yib bersang, [ko'sak qurti] bir necha kundayoq bosib ketadi.* H.Nazir. Ko'korol chiroqlari.

O'Z(I)GA SIG'MAY behad («sevinmoq»). Sinonimi: **teri(si)ga sig'may II** o'zining.

Adolat marshalning parad qabul qilish marosimini birinchi marta ko'rayotgani uchun ham o'ziga si'may sevinar, qora ko'zlari nurlanib chaqnardi. I.Rahim. Chin muhabbat. *Galya bu tasodifiy uchrashuvdan hayajonlanib ketganini yashira olmay, ham o'ziga sig'may sevinar, ham opasi va pochchasidan koyinar edi.* M.Muhamedov. Kichik garnizon.

O'Z(I)GA TAN nima? [kimning?] o'ziniki bo'lib qolavermoq.

Ergash kelib, «Bitta osh yasavoring, G'ozivoyaka», – deb hech jonimga qo'yimadi. Ha, nima osh yoqmadimi? Yoqmasa, o'zimizga tan. I.Rahim. Ixlos. «Rasm shunaqa bo'larkanmi!», – deb qo'ydi. «Bu eskizlar-ku. Yoqmasa, o'zimga tan!» – deb albomni tortib oldim-da, qo'litiqlab urib ketayotsam, Xoliq yugurib keldi. H.Nazir. Cho'l havosi.

O'ZIGA TINCH uy-ro'zg'ori, hayoti me'yorida, o'zidan tingan.

Nabi polvon va boshqa o'ziga tinchroq kishlarning hovlilari mehmon qo'narlik bir holga keltirilgan edi. S. Ayniy. Qullar.

O'Z(I)GA XON, O'Z(I)GA BEK kim nimani xohlasa – shuni qilishga

huquqli. Varianti: **o'z(i) xon, o'z(i) bek.** Sinonimi: **o'z biylik(i) o'z(i)-da kimning? o'z(i) xon, ko'lanka(si) maydon kim?**

«Bir og'iz aytib ketsangiz bo'lmaydimi! Yo o'zingiz xon, o'zingiz bekmisiz?» – «Uyqungizni buzmay dedim. Vaqt ziq edi». S.Anorboyev. Oqsoy.

O'Z(I)GA YUQTIRMASLIK kim? nimani? (gapni). Sinonimi: **sirt(i)-ga yuqtirmaslik kim?** [o'zining] nimani?

Saidg'ozini Nazarov o'zining bu fikrlari bilan uning yuziga oyna tutganini payqamasligi mumkin emas edi. Ammo u, Nazarov gapirayotgan toifaga hech aloqasi yo'qday, o'ziga yuqtirmay, boshini qimirlatib o'tira berdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

O'ZI YO'QNING KO'ZI YO'Q ko'z oldida bo'lmagan odamning manfaatiga xilof ish tutilganda aytiladigan ibora.

O'zi yo'qning ko'zi yo'q; sen yo'qsan, bu qizni xo'rlaydilar. Oybek. Qutlug' qon.

O'ZIM KAL, KO'NGLIM NOZIK nuqsonli bo'la turib, nuqsonli ish qila turib, benuqson kishini, ishni qilmaydigan odamga qarata aytiladigan ibora.

«Bo'tako'zda men sanab chiqmagan bola qolgani yo'q, – dedi Foziljon burnini jiyirib, – nomi yoqsa, qiligi'i yoqmadi. Odobi yoqqan bolaning nomi yoqmaydi. O'zim kal, ko'nglim nozik otaman». I.Rahim. Hilola.

O'ZINA CHEKMOQ [özina çek=] tar. kim? tortmoq.

Ul qadar yaqin keldikim, kema-chining yoqasi yigitning alina kirdi,

yigit o'zina chekib bir necha mahkam yumruqlar yedurdi. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'ZINDIN YOT BO'LMOQ [özindin yat bol=] tar. kim? **aqli hushini yo'qotmoq.**

Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur; Ruhungni ko'rsa ming shah mot bo'lur. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

O'Z(I)NI AKA DEB, ECHKI-(SI)NI TAKA DEB [kimning?] xushomadgo'ylik bilan maqtab.

«Voy, u kishinikimidi bu [ko'chatlar]? O'zimizniki! – dedi Qumri. – O'zlarini aka deb, echkisini taka deb zo'rg'a opkeltirdim». A.Muxtor. Opa-singillar.

O'Z(I)NI BALAND OLMOQ kim? mavqeini ustun qilib ko'rsatmoq. Varianti: **o'zni baland olmoq; o'z(i)ni baland tutmoq.**

Qarab bosh-u oyoqqa, jirkanib, yuzni ters burmang, Olib o'zni baland, bermay javob, so'zlashda o'shqirmang. S.Abdulla. Kekkaymang.

o'z(i)ni baland tutmoq: o'z(i)ni baland olmoq

O'Z(I)NI BILMAY o'z ahvolini idrok qilolmay.

Bu vaqt ichida og'ir yarador bo'lgan Sherali hushidan ketib, o'zini bilmay yotar edi. K.Muhamedov. Kichik garnizon.

O'Z(I)NI BILMAY KETMOQ kim? kekkayib, manmanlikka berilib, nazar-pisand qilmay qo'ymoq. Sinonimi: **bosar-tusar(i)ni bilmaslik** kim?

Yuvosh kishi ham xo'jayin bo'lgandan keyin o'zini bilmay ketadi, ko'rganmiz. Oybek. Qutlug' qon. Kechirasiz, oramizda shunaqa o'zini bil-

magan intizomsizlar ham bor. S.Anorboyev. Oqsoy.

O'Z(I)NI BOSMOQ kim? nojo'ya, noo'rin xatti-harakatdan tiyilmoq.

Dod deb qayerga borasiz? Mingboshi sizning dodingizni eshitadimi, aylanay? O'zingizni bosing. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. *Kulgi ko'tarildi. Qozon chetini kapgir bilan qirtishlayotgan Abdug'ofur ota ham o'zini bosolmadi.* R. Fayziy. Cho'lga bahor keldi. *Ana shu ifoda Xolbo'tani o'zini bosib olishga undadi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

O'Z(I)NI KATTA OLMOQ kim? mavqeini ortiq qilib ko'rsatmoq. Antonimi: **o'z(i)ni past olmoq** kim?

O'rtoq Mahmudov, hali yoshsiz, o'zingizni uncha katta olmang! P.Qodirov. Uch ildiz. *Bo'ston Botirga tomon sal burilib: «Ishlar yurishib ketay dedimi?» – deb so'radi. «Rahmat, hali unchalik emas», – deb javob berdi Botir past tovush bilan. «Yurishib ketadi, Botirjon», – dedi yigitlardan biri o'zini katta olib.* S.Nazar. Yashil boylik.

O'Z(I)NI KO'RSATMOQ kim? nimada? yoki nima bilan? kim? yoki nima? kimga? nimaga qodir ekanini namoyish qilmoq.

Odamning odami yurt ishida, xalq ishida o'zini ko'rsatadi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Zolim er changalidan qutulishga yordam bergan bu sofko'ngilli, mehribon kishilar oldida o'zini biror ish bilan ko'rsatgisi kelardi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Birinchi kundanoq qizimiz sizga o'zini ko'rsatibdi-da!* S.Abdug'ahhor. Hayotning boshlanishi.

O'Z(I)NI OLDIRMOQ *kim?* toliqish, qiynalish natijasida so'linkiramoq, siniqmoq.

E-e-e, O'rmon aka... keling, – dedi so'rashgani ikkala qo'lini cho'zib, – o'ho', o'zingizni juda oldirib qo'yibsiz-ku? Ish ko'pmi!» A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari. «*Tuf, tuf, yomon ko'zdan asrasin, Ma'sumaxon, o'zingizni sirayam oldirmabsiz-a», – desa biri, «Voy qaytanga ochilib ketibdilar», – derdi ikkinchisi.* R.Fayziy. Yodgor. *Turdiqul ham ancha o'zini oldirib qo'ydi.* Sh.Bo'tayev. Haykal.

O'Z(I)NI OLIB QOCHMOQ *kim?* **1** kimdan? duch kelmaslikka harakat qilmoq.

Hatto Sharifday bir xushfe'l, ko'nglida kiri yo'q yigitdan ham o'zingizni olib qochasiz. A.Qahhor. Sarob. *Nasiba mendan o'zini olib qochadigan, menga duch kelmaslikka tirishadigan bo'lib qoldi.* O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

2 nimadan? zimmasiga olmaslikka harakat qilmoq.

Mayli, tezroq olib qoching o'zingizni mas'uliyatdan. Ketsangiz, ish to'xtab qolmaydi-yu, bu tutgan yo'lingiz kommunistga xos emas, o'rtoq Rahmonqulov». A.Muxtor. Tug'ilish.

O'Z(I)NI PAST OLMOQ *kim?* mavqeini ozaytirib ko'rsatmoq; quyi mavqeli kishini o'ziga tenglashtirib muomala qilmoq. Antonimi: **o'z(i)ni katta olmoq** *kim?*

Salimxon o'zini past olgandan so'ng Saidiy tilga kirdi. A.Qahhor. Sarob.

o'z(i)ni qayerga qo'yar(i)ni bilmaslik: o'z(i)ni qayerga qo'yish(i)ni bilmaslik

O'Z(I)NI QAYERGA QO'YISH(I)NI BILMASLIK *kim?* **1** kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq. Varianti: **o'z(i)ni qayerga qo'yar(i)ni bilmaslik; o'z(i)ni qayoqqa qo'yish(i)ni bilmaslik; o'z(i)ni qayga qo'yar(i)ni bilmaslik.** Sinonimi: **o'z(i)ni qo'ygani joy topolmaslik kim? o'tirgani joy topolmaslik kim? o'z(i)ni qayoqqa urish(i)ni bilmaslik kim? tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik kim?**

Bir kun ishdan qaytsam, uyda xotinim o'zini qayerga qo'yishini bilmay chirqillab yig'lab yuribdi. O'g'limning ko'richak kasali tutib qolibdi. S.Ahmad. Oq yo'l. [Nuri] *o'zini qayoqqa qo'yishini bilmay, yuragini tirnagan kechinmalari, sirli umidlari bilan qarorsizlangan, mast bo'lgan kabi hovlida kezdi.* Oybek. Qutlug'qon. *U [Jamila] qattiq xafa bo'ldi. O'zini qayga qo'yarini bilmadi. Dardini kimga aytsin... «Salom, dalachi qiz!» – emish? Bu nima degani?* J.Abdullaxonov. Albatta, kut.

2 bekorchilikdan zerikib toqatsizlanmoq. Varianti: **o'z(i)ni qayga qo'yish(i)ni bilmaslik.**

[To'xtamurod] «*Uyga kelsa, ichi qizib, o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi, aylanay. Hali yaqinda ko'chaga o'ynagani chiquvdi.*» S.Anorboyev. Eh, yomon bo'ldi. *Qo'li ishga o'rgangan odamning bekor qo'lligi – katta fojea. Bo'taboy o'zini qayga qo'yishini bilmasdi.* S.Ahmad. Hukm.

3 sevinchdan kuchli hayajonlanmoq *Otam sho'rlik sevinib, quvonib, o'zini qayerga qo'yishini bilmay yurgandir?* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

o‘z(i)ni qayga qo‘yish(i)ni bilmaslik: o‘z(i)ni qayerga qo‘yish(i)ni bilmaslik

o‘z(i)ni qayga qo‘yar(i)ni bilmaslik: o‘z(i)ni qayerga qo‘yish(i)ni bilmaslik

o‘z(i)ni qayoqqa qo‘yish(i)ni bilmaslik: o‘z(i)ni qayerga qo‘yish(i)ni bilmaslik

O‘Z(I)NI QAYOQQA URISH(I)NI BILMASLIK *kim?* kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq. Sinonimi: **o‘z(i)ni qayerga qo‘yish(i)ni bilmaslik 1 kim?** **o‘tirgani joy topolmaslik kim?** **o‘tirgani joy topolmaslik kim?** **tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik kim?**

[Saodat] kuni bilan qo‘li ishga bormadi, o‘zini qayoqqa urishini bilmadi. A.Muxtor. Qanot juft bo‘ladi.

O‘Z(I)NI QURUQQA TORTMOQ *kim?* o‘zini begunoh qilib ko‘rsatib javobgarlikdan qochmoq.

Salim ham butun aybni Yo‘lchiga ag‘darib, o‘zini quruqqa tortdi. Oybek. Qutlug‘ qon.

O‘Z(I)NI QO‘LGA OLMOQ *kim?* o‘z xatti-harakatini irodasiga bo‘y-sundirmoq.

Munisxon hozir yana o‘sha nikoh kechasidagiday kuyinib yig‘lashga tayyor edi, ammo o‘zini qo‘lga oldi va kulgi bazonasi bilan yuzini berkitdi. A.Qahhor. Sarob. Darhol qo‘l ostidagi komandirlarini to‘pladi, lekin ular shoshmasdan, dovdiramasdan pishiq ish ko‘rishlari uchun o‘zini qo‘lga olishga tirishadi. Oybek. Quyosh qoraymas. Boshiga to‘qmoq urilganday Omonturdiyevning ko‘zlaridan olov sachrab ketdi. U Odilovga yalt etib qaradi. Ammo o‘zini qo‘lga oldi,

o‘rnidan turib, zalvarli qadam tashlaganicha xonadan chiqdi. T.Malik. Charxpalak.

O‘Z(I)NI QO‘YGANI JOY TOPOLMASLIK *kim?* kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq. Varianti: **o‘z(i)ni qo‘yarga joy topolmaslik.** Sinonimi: **o‘z(i)ni qayerga qo‘yish(i)ni bilmaslik 1 kim?** **o‘tirgani joy topolmaslik kim?** **o‘z(i)ni qayoqqa urish(i)ni bilmaslik kim?** **tikilgani qora, tinchigani chora topolmaslik kim?**

Ana shunday sag‘iz parketga parma solishimiz bilan eshonga xabar yetibdi. Salim eshon o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolibdi. I.Rahim. Olovkor.

O‘Z(I)NI QO‘YIB BERMOQ *kim?* xatti-harakatini cheklamay qo‘ymoq, o‘ziga erk bermoq.

Zamira esa, buvisi aytmoqchi, musofir shahriga o‘qishga kelgan, o‘zini sal qo‘yib bersa, daydi shamollar oyoq-g‘ini yerga tegizmay uchirib ketishi mumkin. P.Qodirov. Uch ildiz.

O‘Z(I)NI QO‘YMOQ *kim?* to‘lishmoq.

«Men ham semirarmikanman» deb yuradigan Nazmixon keyingi yillarda ancha o‘zini qo‘ydi. R.Fayziy. Go‘zal.

o‘z(i)ni qo‘yarga joy topolmaslik: o‘z(i)ni qo‘ygani joy topolmaslik

O‘ZINI TA G‘OFILGA SOLMOQ *kim?* ko‘rib ko‘rmaslikka, bilib bilmaslikka olmoq.

Garchi muddao kun kabi oshkora bo‘lgan bo‘lsa ham, nima uchundir qutidor yana o‘zini ta g‘ofilga solib so‘radi. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar.

O‘Z(I)NI TUTMOQ *kim?* 1 biror xatti-harakatdan, faoliyatdan saqlanib qolmoq.

U, bu tepkilarning zarbidan tanasi qanchalik zirqirab og‘rimasin, o‘zini tutdi, tishini tishiga qo‘yib chidadi. S.Ahmad. *Hukm. [Barinov] qo‘lida ushlab turgan o‘rog‘liq buyumni Dadajonovning o‘ziga tutqazib, chir o‘girilib chiqib ketmoqchi bo‘ldiyu, lekin, nimanidir mulohaza qilib, o‘zini tutdi.* S.Abdugahhor. Hayotning boshlanishi.

2 hayajonini yengib, his-tuyg‘u ta‘siridan xoli bo‘lmoq.

Lekin birozdan keyin Bektemir o‘zini tutib oldi. Hatto uni yana boyagi loqaydlik egalladi. Oybek. Quyosh qoraymas. Kasal bo‘lmasangiz, o‘zingizni tuting; kap-katta xotin yosh qizlarning qilg‘ini qilib o‘tirasizmi! Oydin. *Sadag‘ang bo‘lay, komandir. Lekin Shukurjon yotig‘i bilan tushuntirishga qancha urinmasin, o‘zini tutolmadi, Qosimovning kirdikorlarini eslashi bilan vujudini yana titroq bosdi.* O.Yoqubov. Ota izidan.

3 ulg‘ayib, tajriba orttirib, mustaqil ish yuritish darajasiga yetmoq.

Zamira unda o‘zini tutib olgan yigitlarga xos jozibali qat‘iyat va muloyimlikni endi birinchi marta ko‘rdi. P.Qodirov. *Uch ildiz. To‘g‘ri, Ahmad ilgari shunaqa edi, gapini eplab gapirolmas, og‘zidagi oshini oldirib yurardi. Hozir-chi? Hozir xiyla tutib oldi o‘zini.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

o‘z(i)ni yeb qo‘ymoq: o‘z(i)ni o‘z(i) yeb qo‘ymoq

O‘Z(I)NI YO‘QOTIB QO‘YMOQ kim? gangib qolmoq, dovdirab qolmoq.

Nasiba har doim bir xilda uzoqdan jilmayib kelar, hamisha o‘zini bo-

siq tutar, erkin sezardi. Men bo‘lsam uning yonida yosh boladek o‘zimni yo‘qotib qo‘yardim. Unga bir og‘iz bo‘lsa ham ortiqcha gapirishdan iymantar edim. O.Yoqubov. Ikki muhabbat.

O‘Z(I)NI O‘TGA, SUVGA URMOQ kim? har xil ishlarni astoydil qilib ko‘rmoq. Varianti: **o‘z(i)ni o‘tga urmoq, suvga urmoq; o‘z(i)ni o‘tga, cho‘qqa urmoq.**

O‘zini o‘tga urdi, suvga urdi, lekin oqibat ... turmush o‘z deganini qildi, qarasa, Naimiy o‘sha-o‘sha.. A.Muxtor. *Opa-singillar. Bekordan bekorga o‘zni o‘tga, cho‘qqa urishdan nima foyda? Hozirgi paytda yetti o‘lchab, bir kesish kerak.* Oybek. *Quyosh qoraymas.*

O‘Z(I)NI O‘Z(I) YEB QO‘YMOQ kim? ichki ruhiy azoblanish natijasida ozib-to‘zib ketmoq. Varianti: **o‘z(i)ni yeb qo‘ymoq.**

«Lekin hali biz hammamiz ham juda xommiz. Odam tanimaymiz. Mana, S. aldandi, juda qattiq aldandi... O‘zini o‘zi yeb qo‘yyapti. Unga yordam berish kerak edi. Lekin qandoq qilib?» A.Muxtor. Tug‘ilish.

O‘Z(I)NI O‘NGLAB OLMOQ kim? odatdagi, tabiiy holatini, vaziyatini tiklamoq.

U o‘zini o‘nglab olishi uchun nima desa, nima qilsa, hammasi aks natija berar edi. A.Qahhor. *Sinchalak. Bekxo‘ja kela solib, hech bir «muqaddima»siz uning ko‘kragiga kalla qo‘ydi. Kutilmagan zarbada yumalab tushgan Kamol o‘zini o‘nglab ulgurmay, Bekxo‘ja uning ustiga minib olib, ayovsiz do‘pposlay ketdi...* A.Obidjon. *Oltin yurakli Avtobola.*

O‘Z(I)NI CHETGA OLMOQ kim? biror faoliyatda qatnashishdan tiyilmoq. Varianti: **o‘z(i)ni chetga tortmoq** kim? [nimadan?]

Sezib yuribman, har dam ikkilanish, har narsaga darrov rozi bo‘lib, murosa qilish, sharoitga moslashish, qiyin paytda o‘zingni chetga olish – tabiatningda bor. A.Muxtor. Tug‘ilish. *Eski, tajribali paxtakor Zufar akam yukni olish uchun kurashdan o‘zini chetga tortadi.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

o‘z(i)ni chetga tortmoq: o‘z(i)ni chetga olmoq

O‘Z(I) XON, KO‘LANKA(SI) MAYDON kim? nimani xohlasa – shuni qilishga huquqli. Sinonimi: **o‘z biylik(i) o‘z(i)da kimning? o‘z(i)ga xon, o‘z(i)ga bek** kim?

[*Mashriqxo‘jayev*] o‘zlari xon ko‘lankalari maydon: har kuni ertalab tamanno yurish qilib tushga yaqin ishga yetib keladilar. Lekin ish stolida, ko‘pincha, do‘ppilari turadi. O‘zlari sekretarga «Men ketdim» degandek qarash qilib, ko‘ngillari tusagan to-monga ravona bo‘ladilar. A.Muhiddin. Tatatatxo‘ja.

O‘ZING UCHUN O‘L, YETIM homiylik qiluvchisi yo‘q, hamma narsaga o‘z harakati bilan erishadigan odamga qarata aytiladigan ibora.

Shuning uchun Xolmurod uni «O‘zing uchun o‘lyetim ba‘zan ko‘rsa, achchiqlanar edi. Mehmonlar kelsa, quvonardi. P.Tursun. O‘qituvchi.

o‘zing[iz]dan qolar gap yo‘q; o‘zing[iz]dan o‘tar gap yo‘q

O‘ZING[IZ]DAN O‘TAR GAP YO‘Q kimning? (II shaxs) hamma

narsani ko‘rib bilib turmoq. Varianti: **o‘zing[iz]dan qolar gap yo‘q.**

Bu ish kechasi bo‘lgani ma‘qul. Kunduzi bo‘lsa, o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q, xunukroq ko‘rinadi. A.Qahhor. *Qo‘shchinor chiroqlari. Ilgari bir o‘zim boqar edim. Endi o‘zingizdan qolar gap yo‘q, chirog‘im, qirq-ellik odam qo‘y boqamiz.* S.Anorboyev. Oqsoy.

o‘zni baland olmoq: o‘z(i)ni baland olmoq

O‘ZUNI CHEKMOQ [özünü çek=] tar. kim? kimdan? yoki nimadan? tiyilmoq.

Anga yoronlari nasihat berib aytillar; «Ey do‘st, bu xayoli muholdan o‘zugni chekkil. Necha sening kabilar bu dard bilan muftalo bo‘lub tururlar». S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O‘ZUMNI UNUTMOQ [özümni unut=] tar. kim? gangib qolmoq.

Ko‘rub ul oy bekin yuzni senga bo‘lubman qul, Yana unuttum o‘zumni bo‘lub senga mashg‘ul. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O‘G‘IL BOLA 1 kim? hotamtoy, mard.

Nainki birov meni «o‘g‘il bola ekan» desin deb kishi o‘z bolasidan, xotinidan... uzoqqa ketgani, o‘limga ro‘para bo‘lgani rozi bo‘lsa! A.Qahhor. Oltin yulduz. *O‘g‘il bola bo‘lsang, ochiq ayt bu yerda. Qandala emassan, chaqib sochgani. Qanaqa revansh u, a?* P.Qodirov. Uch ildiz.

2 mardonavor.

Bunaqa masalada rahmatli Yo‘ldoshboy Oxunboboyev shartta kesib, o‘g‘il bola ish qilardi. Shunda Oxunboboyev: «Hoy birodarlar! Qaqrab yotgan dalalarimiz suv ichgani ma‘qulmi yoki yantoqzor bo‘lib yotgani ma‘qul-

mi? Mirmuhsin. Dala baxti. *Gapingziga qaraganda uni mehnat tuzatadi, mehnatning o'g'il bolasi o'sha yerda.* A.Muxtor. Tug'ilish.

O'G'IL BOLALIK hotamtoy, mardlik.

O'g'il bolalik deysiz. Yo'q agar gap o'g'il bolalikni ko'rsatish bo'lsa, meni uyimdan ombir bilan ham sug'urib ololmas edingiz! A.Qahhor. Oltin yulduz.

O'G'IL BOLALIK QILMOQ kim? hotamtoy, mardlik ko'rsatmoq.

«Meni deb bebro' bo'lishingni xohlamayman. Ke, bir o'g'il bolalik qilib qo'yay». Sodiq tarang olifta yurish qilib stol oldiga bordi-da, bosh barmog'ini shartta siyohdonga tiqib, o'sha eski arizaning tagiga bosdi. S.Ahmad. Hukm.

o'g'il (qiz) ko'rmoq: bola ko'rmoq

O'G'IL, QIZ TASHVISHI [o'yul qiz tashvishi=] tar.oila boqish.

Malik buyurdikim; vajhi kifoyatin muayyan qildilar; hatto o'g'il, qiz tashvishi aning ustuna bo'lmag'ay. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

O'CH OLMOQ kim? kimdan? yomonlikka qasdma-qasd yomonlik qilmoq. Varianti: **o'ch(i)ni olmoq** kim? kimdan? kimning? **qasos olmoq** (rasmiy); **qasd olmoq.**

Shu yerda hikoya tamom, chunki uning mantiqiy davomi g'alaba qozongan Suyarning bu ikki tanqidchidan o'ch olishib o'lar edi. A.Qahhor. O'jar. *«Qasos! O'zbeklar «xun» ham deydi. Ya'ni qonga qon! – dedi Bektemir. – Kim qasos oladi?»* Oybek. Quyosh qoraymas. *Mahkamga soxta*

g'urur yo'l bermayotganga o'xshaydi, kechagi xafachilik uchun Zokirdan qasd olgan bo'lib ko'rinmoqchi emas, shekilli. P.Qodirov. Uch ildiz.

o'ch(i)ni olmoq: o'ch olmoq

O'NG KELMOQ I nima? qulay bo'lmoq. Sinonimi: **to'g'ri kelmoq.**

Eshon bu gapni Qalandarovning diqqatini gazetadan tortish, o'ng kel-sa, Saidaga to'nkash maqsadida aytgan edi. A.Qahhor. Sinchalak.

O'NG KELMOQ II nima? voqe-likka, chinga aylanmoq («tush»).

Dunyoda bir talay tushlarning o'ng kelganini eshitganman. Zora men sho'rlikning ham tushim o'ngdan kelib, Mirjalol quruq o'lsa-yu, kichik xotiniga ichkuyov bo'lsam, butun davlatlar menga qolsa... G'.G'ulom. Tirlilgan murda.

o'ng ko'zing chap ko'zingga oshna bo'lmaydi: chap ko'zing o'ng ko'zingga do'st bo'lmaydi

o'ngdan kelmoq: o'ngidan kelmoq

O'NGIDAN KELMOQ nima? [o'zining] muvaffaqiyatli bo'lmoq. Varianti: **o'ngdan kelmoq** nima?

Abdurahmonov batalyoni shtabini qidirib ketdim. Afsuski, bu yerda ham mening ishim o'ngidan kelmadi. Mayor Abdurahmonov yangi operativ topshiriq olib, jo'nab ketibdi. M.Muhamedov. Qahramon izidan. *Agar ish o'ngidan kelib, mashina qo'lga kirsam, magazin va skladlardan olinadigan buyumlarni mashina kabinasiga, yollangan shofyor yoniga o'tirib, erta yo'ldan bimalol kezib sotib olaman deb o'ylagandi.* Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.



G‘AFLAT BOSDI kimni? ma’lum muddat hushyorlikni, teran tushunib ish tutishni yo‘qotib qo‘ymoq.

«Dunyo shu, odamlar shunaqa deb o‘ylagansiz-da». – «Shunaqadir-da, – dedi Siddiqjon o‘zini o‘zi kalaka qilgan bir ohangda, – odamni g‘aflat bossa, shundoq bo‘lar ekan». A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari.

g‘alvir suvdan ko‘tarildi: g‘alvirni suvdan ko‘tarmoq

G‘ALVIRNI SUVDAN KO‘TARMOQ kim? – **G‘ALVIR SUVDAN KO‘TARILDI** qilingan ishning natijasini hisob-kitob qilmoq.

Chindan ham g‘alvirni suvdan ko‘taradigan payt keldi. U qo‘llagan yangi usuli qanday samara beradi? S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Vahima qilmang, ... hali dalada paxta ko‘p, kimning yutgani g‘alvir suvdan ko‘tarilganda bilinadi. M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat.

G‘AM BOSDI kimni? kuchli o‘y-tashvish ostida qolmoq.

Saidiyni g‘am bosdi: buni nima bilan mehmon qiladi? A.Qahhor. Sarob. Hammadan ham ko‘proq cho‘ponlarni g‘am bosdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

G‘AM YEMOQ kim? kuyinib qayg‘urmoq.

Siz bor, biz bor, to‘yni yaxshilab o‘tkazamiz, oqsoqol, g‘am yemang. S.Anorboyev. Oqsoy. To‘g‘risini aytib qo‘ya qolay, bolasi tushmagur shu kungacha bo‘ynidagi qarzdand g‘am yemay yurdi. Faqat bir-ikki kundan beri, shunda ham sizning kelish dargingizni eshitib, harakatga tushganday... H.Nazir. Javob.

G‘AM(D)NI YEMOQ kim? 1 kimning? g‘amxo‘rlik qilmoq.

Uni men qamatib yuborsam, «Buni kim o‘z qanoti ostida saqlab keldi?» degan savol tug‘iladimi? Tug‘iladi. Ko‘rib turibsiz – men sizning g‘amingizni yeb yuribman. Uni men emas, siz qamatishingiz kerak, siz! Agar birga ketmay desangiz. A.Muxtor. Tug‘ilish.

2 [o‘zining] yoki nimaning? ilgari-dan o‘ylab, hozirlik qilib qo‘ymoq

Kelajakni ham qo‘ying, yoshlarni ham qo‘ying, siz o‘z g‘amingizni yeyapsiz,.. sizga shoshilinch suvratda uy-joy kerak bo‘lib qolgan... A.Muxtor. Tug‘ilish. Hozir yaylovga mol suradigan vaqt. Shuni Zunnunovga aytsam, «Nima, molingizni yaylovga MTSning traktorida eltib beraymi?! Haydayvermaysizmi o‘zingiz», – deydi. Chorva g‘amini yeydiganlardan birining gapi bu. I.Rahim. Ixlos.

G'AM TORTMOQ *kim?* qayg'urmoq.

Normatning nazarida onasining ko'zlari kirtayib, yuzi burushib qol-ganga o'xshadi. «G'am tortyapti bechora...» I. Rahim. Chin muhabbat.

g'avg'o ko'tarmoq: janjal ko'tarmoq

G'AYRATGA MINMOQ *kim?* biror ishni bajarishga kuchli ishtiyoq his etmoq.

Shamsiddin eshon haddan ziyoda g'ayratga mingan, dolday qaddi lomday to'g'ri bo'la yozgan. G'.G'ulom. Elatiyada bir ov.

G'AZABGA KELMOQ *kim?* nimadan? – **G'AZABGA KELITIRMOQ** *nima? kimni?* achchiqlanmoq. Sinonimi: **achchig'(i) keldi** *kimning? nimaga?* [yoki *nimadan?*] – **achchig'(i)ni keltirmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?* **qon(i) qaynadi** *kimning?* – **qon(i)ni qaynatmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?* **achchig'(i) qis-tadi** *kimning? nimadan?*

Salohiddin bu xatni olgach, uning mazmuni haqida Ergashni xabardor qiladi. Eski alam Ergashning yodiga tushib, g'azabga keladi, ko'zi qonga to'ladi. Sh.Rizo. O'ch. Qizlarning biri shumshayib, biri zarda qilib chiqib ketdi. Bularning bu alfozda chiqib ketishi Qalandarovni yana ham g'azabga keltirdi. A.Qahhor. Sinchalak.

g'azabga keltirmoq: g'azabga kelmoq

g'azab(i)dan tushmoq: achchig'(i)dan tushmoq

g'azab(i) keldi: achchig'(i) keldi

G'AZABI KELMOQ [yazabi kel=] *tar. kim? kimdan?* g'azablanmoq.

Bir soli her ko'rdi: ming botmon tosh ko'turgan pahlavonni, g'azabi kelib, og'zi ko'puklanib o'turur. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

g'azab(i)ni keltirmoq: achchig'(i) keldi

g'azab(i)ni qaynatmoq: g'azab(i) qaynadi

G'AZAB(I) QAYNADI *kimning?* – **G'AZAB(I)NI QAYNATMOQ** *nima? kimning?* darg'azab bo'lmoq, nihoyatda qattiq g'azablanmoq. Sinonimi: **jon(i) chiqdi** *kimning?* [nima? yoki *nimadan?*] – **jon(i)ni chiqarmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?* **jon(i) halqum(i)ga keldi 3** *kimning?*

Sarimsoq g'azabi qaynab konvoyga do'ng'illaydi, lekin uning ham qo'lidan hech nima kelmaydi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Nigoraning beparvogina qaytargan javobi ... Xo'jabekovning g'azabini qaynatdi. S. Anorboyev. Oqsoy.

g'ash dil(i); ko'ngl(i) g'ash

g'ash ko'ngl(i): ko'ngl(i) g'ash

g'ashga tegmoq: g'ash(i)ga tegmoq

G'ASH(I) KELDI *kimning?* *nimaga?* yoki *nimadan?* – **G'ASH(I)NI KELITIRMOQ** *nima? kimning?* asabi qo'zg'adi, g'ijinmoq. Sinonimi: **g'ash(i)ga tegmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?* **asab(i)ga tegmoq** *kim?* yoki *nima? kimning?*

Rahimning maqtanchoqligigi sodadil Qudratning g'ashi keldi. H.Nazir. Ko'korol chiroqlari. Bu gapdan Ernazar akaning g'ashi keldi, uning nazarida Tatyana bilan Komiljon bu gapni oldindan pishitib qo'yganday... I.Rahim. Ixlos. Qutbiddinovning me'

yordan ortiq kulgisi Zargarovning g'ashini keltirdi. A.Qahhor. O'jar.

G'ASH(I)GA TEGMOQ kim? yoki nima? kimning? asabini qo'zg'atmoq. Varianti: **g'ashga tegmoq** kim? yoki nima? Sinonimi: **asab(i)ga tegmoq** kim? yoki nima? kimning? **g'ash(i)ni keltirmoq** nima? kimning?

Nahotki u ko'ra-bila turib ishni orqaga siltaydi. Kishilarning g'ashiga tegadi. S.Ahmad. Qadrton dalalar. *Darhaqiqat, Nusratning pastkashligi Karim polvonning g'ashiga tekkan edi.* S.Nazar. Yashil boylik. *Miyig'imda kulib, o'rnimdan turib; g'ashga tegadigan jinchiroqni o'chirib keldim.* Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

g'ash(i)ni keltirmoq: g'ash(i) keldi

G'IREV QO'PTI [yiri qop =] tar. kimdan? hayqiriq ovozi eshitilmoq.

Xalqdan g'irev qo'pti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

G'IRING DEMASLIK kim? hech qanday monelik, to'sqinliq qilmaslik. Varianti: **g'ing demaslik.**

Shartta zagskadan o'tib, pattani qo'lga ol. Undan keyin otang g'iring deyolmay qoladi. S.Ahmad. Qadrton daralar. *Shu kishi nima desa, g'iring demay bajarasan.* S.Ahmad. Cho'l burguti. *U kishi nima gapirsalar, to'g'rimini-noto'g'rimi, g'iring demasdan bajarardik.* M.Muhammadjonov. Turmush kundalıkları. *Fakultetimizga kir-*

sam, har qancha topshiriq bo'lsa ham, g'ing demay bajaraman. P.Qodirov. Uch ildiz.

G'ISHT QOLIPDAN KO'CHDI endi o'zgartirib, avvalgi holatga qaytarib bo'lmaydi. Varianti: **g'isht qolipidan ko'chdi** [o'zining]. Sinonimi: **bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi.**

G'isht endi qolipidan ko'chdi. Omon qizimni yo'qlab netasiz? Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. *Ammo endi puschaymonning foydasi yo'q, g'isht qolipidan ko'chgan edi.* S.Abdulla. O'rtoq Xolnazarov. «*Kel, bo'lmasa jiddiy ko'rishaylik*», – dedi. *Oddiy ishlar bo'lib o'tdi, g'isht qolipidan ko'chdi, endi na jiddiy so'z kerak, na hazil.* S.Ayniy. Qullar.

g'isht qolipidan ko'chdi: g'isht qolipidan ko'chdi

g'ing demaslik: g'iring demaslik

G'OLIB KELMOQ kim? [kimdan?] yoki nima? [nimadan?] kuchli bo'lib chiqmoq. Sinonimi: **baland kelmoq 1** kimga? nima? nimada? yoki **nimadan? zo'r kelmoq I** nima? **ustun kelmoq** kim? kimdan? yoki nima? **nimadan?**

Qiz o'z latofati bilan meni chaqirar edi. U g'olib keldi. G'.G'ulom. Yodgor. *To'satdan vujudini chulg'agan Olloh mehri g'olib kelib, tortgan azobi ham esidan chiqdi.* P.Tursun. O'qituvchi.



SHAK KELTSIRMASLIK kim? nimaga? e'tiqod bilan qarashda davom etmoq, e'tiqodiga qarshi gapirmaslik.

«Xudo qahrini oshkora qildi-ku, lekin rahmini bizdan yashirdi, shekilli...» – «Shak keltirma, bolam!» Oybek. Qutlug' qon.

SHAMOL TEGSA, YIQILGUDEK o'ta ozg'in va madorsiz.

Buvimga ayting, «Nigorangiz institutni bitirgan vaqtdagidek rangpar, shamol tegsa yiqilgudek Nigora emas, gup bo'lib semirib ketganmish», – deb ayting. S.Anorboyev. Oqsoy.

SHAMOLGA SOVURMOQ kim? nimani? behuda sarflamoq. Sinonimi: **ko'kka sovurmoq I** kim? nimani?

Lekin ming va'dani shamolga sovrurib, studentkani, muallimani, qo'g'irchoq qilishni istagan erlar ham oz emas! Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

SHAMOLGA UCHMOQ nima? behuda, befoyda ketmoq. Varianti: **yelga ketmoq**. Sinonimi: **zoye ketmoq nima? havoga uchmoq nima?**

«A'zolarangizni to'plasangiz, maslahatlashib olinsa...» Umarali hangmang bo'lib qoldi: «Shuncha gapim shamolga uchdimi...» I.Rahim. Ix-

los. Hozir, eshitishimcha, [boylikning] uchdan biri qolgan emish. Bu ham sotilib-sovrilib, shamolga uchadi. Oybek. Qutlug' qon. *Kexsa cho'pon so'zi yelga ketmaganini ko'rib, ko'ngli joyiga tushdi shekilli, qorday soqolini silab, Sherali bilan boshlangan suhbatga yana qaytdi.* S.Anorboyev. Sherali sevib qoldi.

SHARMANDA(SI) CHIQDI kimning? – **SHARMANDA(SI)NI CHI-QARMOQ** kim? kimning? yashirin kirdikorlari ochilib, rasvo bo'lmoq.

Men shu bugun uni o'z qo'lim bilan tutib, sharmandasini chiqarman, odam emasman. Oydin. Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit? Menga ilmoq tashlatib ko'rar... E, yo'q... Qorang o'chgur Nafisasi bilan sharmandasi chiqqanidan keyin mendan vafo talab qilib go'rga borsinmi?...» T.Malik. Murdalar gapirmaydilar.

sharmanda(si)ni chiqarmoq: sharmanda(si) chiqdi

SHART(I) KETIB, PART(I) QOLDI kimning? qarib, munkillab qolmoq.

Jujuncha kamzulning ko'krak cho'ntagiga oltin zanjirli soat solib, g'o'ddayib yuradigan Mirzakamoliddinning endi sharti ketib parti qolibdi. Basharasi tokning zangidek buj-

mayib, qovoqlari yong'oq pallasidek bo'rtib ketibdi. S.Ahmad. So'nggi nusxa. *Qudratli to'daning sharti ketib parti qolishini, o'shanda o'ziga qiyin bo'lishini o'ylab o'tirarmidi shunday damlarda.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

SHATAKKA OLMOQ kim? kimni? o'zi uddalay olmagan sababli yordamlashmoq.

Axir ular bizni qoloq deb yordamga kelayotganlari yo'q. Rixsiboy aka, ayting, agar ... eplamayotgan bo'lsak, shatakka olishadi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

SHATALOQ OTIB shiddat bilan, tez.

Nemisga yetolmadik, aka, kelishda qadamlab keldi-yu, qochishda yomon ham shatalo qotib qochdi-ye! A.Qahhor. Yangi yer.

SHAXT(I) PAST kimning? kayfiyati, g'ayrat-shijoati avvalgidek yaxshi emas. Sinonimi: **mashq(i) past** kimning?

Begimxon qizlarning haziliga ham, qochirim. pichinglariga ham quloq solmay, beparvo tura berdi, ammo u avvalgidek emas, shaxti past, kamgap. I.Rahim. Chin muhabbat.

SHAXT(I) QAYTDI kimning? – **SHAXT(I)NI QAYTARMOQ** kim? kimning? biror ishni qilishga jazm-harakati so'ndi.

U eshikdan juda hovliqib kirgan edi, bularni ko'rib shaxti qaytdi. A.Qahhor. O'jar. *Rahmonqulov qanday qilib bo'lsa ham murosaga kelmoqchi. Mayli, shaxti qaytmasin.* A.Muxtor. Tug'ilish. *Hayotning boshlanishidagi bunday hodisalar ba'zan kishining shaxtini qaytarib qo'yadi.* S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi.

shaxt(i)dan qaytarmoq: shaxt(i)-dan qaytmoq

SHAXT(I)DAN QAYTMOQ kim? yoki nima? [o'zining] – **SHAXT(I)-DAN QAYTARMOQ** kim? yoki nima? kimni? biror ish qilish jazm-harakatidan voz kechmoq.

Juda-juda xunuk ish qilib qo'ydingiz. Hali ham bu shaxtingizdan qayting. S.Ahmad. Hukm. *Mirzacho'lining mashhur shamoli shu bo'ladi... Hali bu shaxtidan qaytgani, buning yo'lini to'sish uchun juda ko'p daraxt o'tqazdik.* A.Muxtor. Daryolar tutashgan joyda. *Haligi navkar yonidan pichoq sug'urib, birdan menga intildi, Vasilich chaqqon ekan, uning bilagidan tutib qoldi. Vasilichning kuchli qo'li uni shaxtidan qaytardi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi. *Astoydil talashib, alamini olishga bel bog'lagan Samadiyni bu jimlik shaxtidan qaytardi.* A.Muxtor. Tug'ilish. *U ponsodning to'pponchani g'ilofdan sas-sabarsiz sug'urib olganligini sezdi-yu, uning ko'zlarida shu choq shaxtidan qaytgani bois qo'rboshiga nisbatan norozilik ko'lkalari paydo bo'lganini anglolmay qoldi.* Sh.Bo'tayev. Qora tuman.

shaxt(i)dan tushirmoq: shaxt(i)-dan tushmoq

SHAXT(I)DAN TUSHMOQ kim? 1 biror ishni qilish jazm-harakati susaydi, bo'shshadi. Varianti: **shaxt(i)-dan tushirmoq** nima? kimni?

Ammalaring ham shaxtidan tushgan, «Begonaga beradigan qizimiz yo'q, Saodat Jo'raniki», – deydigan bo'lib qolishdi. G'.G'ulom. Yodgor. *Mehmonlarning borligi uni shaxtidan tushirdi.* Sh.Toshmatov. Erk qushi.

2 qahr-gʻazabi pasaydi.

Oʻzim aytganicha, uning koʻngli yumshoq, tezgina shaxtidan tushadi. Oydin. Ikki koʻzi shunda. Qoʻying, taqsirim, qoʻying! Shaxtingizdan biroz tushing! Samovarchi picha yoshlik qilibdi. N.Maqsudiy. Bola yoʻqotgan kishi.

shaxt(i)ni qaytarmoq: shaxt(i) qaytdi

SHAYTONGA HAY BERMOQ kim? salbiy xatti-harakat qilish istigidan oʻzini tiyib qolmoq.

Bir toʻpolon chiqazib, obroʻsini uch pul qilay dedim-u, yana shaytonga hay berdim. S.Ahmad. Hasrat. Maston kampir nevarasining yigʻlab turib qilgan zoriga qaramay yana tishlab-tishlab olmoqchi boʻldi, lekin shaytonga hay berdi. M.Ismoiliy. Fargʻona tong otguncha.

shasht(i) past: shaxt(i) past

shasht(i) qaytdi: shaxt(i) qaytdi

shasht(i)dan qaytmoq: shaxt(i)-dan qaytmoq

shasht(i)dan tushmoq: shaxt(i)-dan tushmoq

SHERYURAK qoʻrqmas, dov-yurak.

Mana, uning qarshisida zabardast, boshijoat otasi gavdalandi. U goʻyo kechagina otasining dono, aqlli soʻzlarini eshitganday boʻldi...

U – soʻzamol, dilovar, sheryurak kishi. Oybek. Quyosh qoraymas. Har qanday sheryurak, har qanday burro til ham muhabbat soʻzlarini izhor etishga ojizlik qiladi. S.Ahmad. Qarddon dalalar. Abdulla! Pok qalbli, sheryurakli Abdulla! Sh.Toshmatov. Erk qushi.

sheryurakli: sheryurak

SHIFO TOPMOQ kim? sogʻaymoq.

«Oʻrtoq doktor, – dedi, – bir necha vaqtdan buyon tuzalmayotgan bir bemorim bor, koʻp doktorlarga koʻrsatdim, har qaysisi har xil fikr beradi, lekin birortasidan ham shifo topgani maʼlum emas». Gʻ.Gʻulom. Yodgor.

SHIRINSOʻZ gaplari kishiga yoqimli. Varianti: **shirin soʻzlik**. Antonimi: **sovuq soʻz**.

U odamlarning hammasi ham muloyim, sermulozamat, sertaʻzim, shirin soʻz edi. A.Qahhor. Sarob. Bu yumshoqlik, shirin soʻzlik bilan odamning odobini beradigan xilidan koʻrinadi. Hozirgina ikkala asarni ham yaroqli degan edi. Muloyimlik bilan sheʼrni chiqitga chiqardi. A.Qahhor. Sarob. Adhamning toʻlachadan kelgan yuzlari qizarib ketgan, qizlar oldida oʻzini madaniyatli, shirinsoʻz qilib koʻrsatishga urinayotgani sezilib turardi. R.Fayziy. Choʻlga bahor keldi.

shirinsoʻzlik: shirinsoʻz

shishib ketgan: dimogʻ(i) shishdi

shodlig(i) ich(i)ga sigʻmaydi: sevinch(i) ich(i)ga sigʻmaydi

SHOVQIN SOLMOQ kim? qat-tiq shovqin qilmoq. Sinonimi: **bosh(i)ga koʻtarmoq I** kim?[oʻzining] nimani?

Ha, eshitibdi, Kanizak nega ishga chiqmaganini bilibdi. Kimni soʻkayotibdi – menimi, Sharofatnimi? Meni soʻkayotibdi. Hozir kelib, shovqin soladi, dilimni siyoh qiladi. A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari.

SHOX(I) BORMI?! kimning? boshqalar qatori boʻlmay, nega imtiyoz olishi kerak?!

«Tog‘dan qaytib kelinglar deb chaqirdikmi? Nimadan quruq qolding?» – deb to‘ng‘illadi Suvonjon. «Unda nega oldin chang chiqarding? Yoki sening shoxing bormi?!» S.Anorbojev. Oqsoy.

SHOX(I) SINDI kimning? – SHOX(I)NI SINDIRMOQ kim? kimning? tashqi ta‘sir natijasida harakat-faoliyatidagi shitob-shijoat susaydi, kuchini yo‘qotdi. Varianti: **shoxiga urmoq.**

Qishloqni alg‘ov-dalg‘ov qilib yurganlardan bittasi shu. Ilgari Chinorning ukasi bilan qalin edi. O‘rtog‘i Chinor bilan yo‘q bo‘lib ketgandan keyin shoxi sinib qoldi. Sh.Rizo. Qor yog‘di, izlar bosildi. O‘tgan safar ... Xo‘jabekovning shoxini, qolaversa o‘zining ham shoxini sindirib, Sherbekning qo‘lini baland qilib ketgan edi. S. Anorbojev. Oqsoy.

SHOXIDA MAYIZ BO‘LGAN balog‘at davridan o‘tgan, qarimsiq tus olib qolgan.

Latofatxonning hovlisini topib, eshigini taqillatayotganida ko‘ngli-dan bir gap o‘tdi: «Bordi-yu Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo‘lgan kampsimon bir xotin bo‘lsa-chi?» A.Qahhor. Ko‘k konvert. Elikboshining yoshligida ustiga qaynab turgan samovar to‘kilib ketgan, er olmay, shoxida mayiz bo‘lib qolgan qari qizi bor edi. S.Ahmad. Hukm.

SHOXIDA YURSA(...), BARGIDA YURMOQ kim? ustomon kishi bilan muomalada undan ham zukko bo‘lmoq.

Sen ochiq so‘z, ochiq ko‘ngilsan. Boy – pishiq, mug‘ombir odam. Sen

ham pishiq bo‘l. U shoxida yursa, sen bargida yur. Shunda yutasan! Oybek. Qutlug‘ qon. Ha, Teshaboyvachcha qilviriqning shoxida yursa, Madumar mingboshi bargida yuradi. M.Ismoilij. Farg‘ona tong otguncha.

SHOX(I)GA URMOQ kim? kimning? bilinar-bilinmas, lekin ta‘sirli zarba bermoq.

«Murodovaga ishonsa kerak bu tirrancha, – deb o‘yladi Xalilov, – Dastavval Murodovaning shoxiga urib qo‘yish kerak...» I.Rahim. Ixlos.

shox(i)ni sindirmoq: shox(i) sindi **SHU KECHA-YU KUNDUZDA** hozirgi paytda, shu kunlarda.

Lekin shu kecha-yu kunduzda boshidan kechayotgan voqealar uning fikrini hamon alamli bir noaniqlik bilan chulg‘ab turardi. A.Muxtor. Opa-singillar.

SHUBHAGA SOLMOQ nima? yoki kim? kimni? ishonchsizlik hissiini uyg‘otmoq.

Bir soatdan ortiq uning tovush chiqmagani Saidiyni shubhaga soldi. A.Qahhor. Sarob. O‘zingni tut, Saodat, kishilarni shubhaga solma, sen ularning hammasiga bir ko‘z bilan qaraydigan kishisan. I.Rahim. Ixlos. Bu g‘alaba sabrli qo‘mondonni ozgina bo‘lsa-da, shubhaga solmadi, desak, haqiqatdan chekingan bo‘lamiz. T.Malik. Charxpalak.

SHUBHAGA TUSHMOQ kim? [nimadan? yoki nima to‘g‘risida?] o‘z-o‘zicha shubhalanmoq.

Balki siz hikoyaxonlar: «O‘zi yalqov bo‘lsa, savodli yalqovmida, savod chiqarishga qanday hafsalasi kelgan,

bu qanday mumkin?», – degan shubhaga tusharsiz. G'.G'ulom. Tirilgan murda. *Abdusamadqorining bu ishga bosh qo'shganidan shubhaga tushdi: «Bu tulki tumshug'idan ilinayotganini sezib, shunaqa yo'llar bilan chap bermoqchi emasmikan?»* A.Qahhor. Qo'shchinor chiroqlari.

shum oyoq: shum qadam

SHUMQADAM yomonlik baxtsizlik keltiruvchi kishi. Varianti: **shumoyoq.**

Bir marta shahardan sizga o'xshagan bir yigit kelib, shu siz yotgan samovarda yotib yurib, qishloqdagi shumqadamlarni to'plab, maylis qilgan edi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi. Yaxshilikka yomonlik deb shuni aytadilar-da. Qanot bo'lish qayoqda! Qanotini qayirmoqchi shumoyoq! S.Anorboyev. Oqsoy.

SHUKRIN QILMOQ [šükryn qil=] tar. kim? nimaning? qoniqmoq, boriga rozi bo'lmoq. Varianti: **shukur qilmoq.**

Ne'mat shukrin qilib, xizmat yerin o'pub, Xasorat uzrin tilab, ketar vaqtin aytti. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. Visolingning bu kun shukrin qilurman, Xayoling ko'zda uchqonin bilurman. Xorazmiy. Muhabbatnoma.

sho'r peshana: peshana(si) sho'r

SHO'R(I) QURIDI kimning? katta baxtsizlikka yo'liqmoq, xarob bo'lmoq. Sinonimi: **sho'r(i)ga sho'rva to'kildi kimning?**

Insof bilan gapirganda, Yormat aka, bizga o'xshash xizmatkorlarning sho'ri quridi. Oybek. Qutlug' qon. Kelindan baxtingiz bor-da, ovsin.

Qurigandan mening sho'rim quriyapti. Nahotki ikki kelin ko'rib, bittasidan yolchimasam-a. R. Fayziy. Qaynana.

SHO'R(I)GA SHO'RVA TO'KILDI kimning? katta baxtsizlikka yo'liqmoq, xarob bo'lmoq. Sinonimi: **sho'r(i) quridi kimning?**

«Siz qayerda bo'lsangiz, biz ham o'sha yerda bo'lamiz. Oftobda sherikchilikda qatiq ichgan odamlar oxirigacha birga bo'lishi kerak. Bo'lmasa sho'rimizga sho'rva to'kiladi», – dedi Odil Egamberdiga. B.Rahmonov. Yurak sirlari. Emishki, bu yerda ashaddiy kallakesarlar yotisharmish, bita-yarimtasi qochib chiqqudek bo'lsa, hammaning sho'riga sho'rva to'kilarmish... Sh.Bo'tayev. Haykal.

SHO'RIM QURSIN [kimning?] evoh, afsus, attang (ayollar nutqida ishlatiladi).

Meni qayoqlarga olib kelib tashladingiz?.. Tikkaygan daraxt yo'q. Suvi allaqayoqda, ham bemaza, iliq. Uh, sho'rim qursin mening! Oybek. Oltin vodiydan shabadalar. «Voy o'lay, dadasi, sho'rim qursin», – dedi xotini singan kosasiga achinib. N.Maqsudiy. «Laylatulqadr». Sho'rginam qursin... Qo'rmaysizlarmi... Besh-olti yildan beri bitta paypoq olib bergani yo'q-ku, ishlab-ishlab topgan pulimga qilgan hamma kiyimlarimga kerosin sepib, o't qo'ydi. A.Qahhor. Jonfig'on.

SHO'RING QURG'UR bechora, sho'rlik.

Biz sho'ring qurg'ur erkaklarga hamma vaqt bir xil fason. S.Ahmad. Ko'klam chechaklari.



CHAKAGI OCHILMOQ *kimning?* tinimsiz gapiravermoq, ezmalanmoq.

Hojimatning chakagi ochilib, gapga tushib ketdi. S.Ahmad. Qadrton dalalar.

CHAKAGI OCHIQ 1 yig'loqi (bola haqida); **2** sergap, ezma; **3** tinimsiz ovoz chiqaradigan hayvonlar (it, sigir, qo'y kabi) haqida.

– *Buncha chakagi ochiq odamsiz... – dedi registratsiya qiluvchi xotin cholgaga ko'zlarini olaytirib.* «Mushtum».. *chakagi ochiq itlarning vovullashi, otlarning kishnashi sokin qishloqni g'ala-g'ovurga to'ldirdi.* A.Muhiddin. H.Tojiboyev. Otash qalbli qiz. *Shuni kelin qilganning uyiga o't ketdi deyavering, munaqa kelindan ko'ra, chakagi ochiq qo'tir echki asragan yaxshi.* S.Ahmad. Qadrton dalalar.

CHAKAGI TINMAYDI ko'p be-to'xtov gapiradi; ezma.

Tarozi shayinlarini muttasil likilatib turganlarning chakagi tinmaydi. «Mushtum».

CHAKAGI TUSHMOQ gapiragapira charchamoq; biror gapni ko'p ta'kidlamoq.

Bu haqda gapiraverib, chakagim tushdi. So'zlashuv uslubi.

CHAKAG(I) UZILA YOZDI *kimning?* gapiraverib charchamoq.

O'zboshimcha! Kun qizig'ida, qosh qoraygan paytda, shamol-dovulda ko'chada yurmagin deb jovray-jovray chakagi uzila yozdi. Aslo quloq solmading. A.Muhiddin. O'lmas.

CHAKAGI CHAKAGIGA TEGMASLIK *kimning?* **1** tez va ko'p gapirmoq; ezmalanmoq; **2** ko'p ovoz chiqarmoq; **3** ko'p, tinimsiz yig'lamoq (bola haqida).

Ora-sira pulemyotlar chakagi chakagiga tegmagan g'azabli laychaday akillab qo'yadi. Oybek. Quyosh qoraymas.

CHAKAG(I)NI OCHMOQ *kim? kimning?* – **CHAKAG(I) OCHILDI** *kimning?* ko'p va tez gapirishiga sababchi bo'lmoq.

Mayli, kurka bo'lsam, kurkadirman. Ammo har bandai mo'minni sizdek chakagini ochib, qaqshatib qo'ymasin! Mirmuhsin. Jamila. *Hojimatning chakagi ochilib, gapga tushib ketdi.* S.Ahmad. Qadrton dalalar.

CHAKAG(I)NI O'CHIRMOQ *kim? kimning?* yig'idan to'xtatmoq.

«*Oyi, – dedim, – shu bolaning chakagini o'chiring, onasi hali-beri kelmaydi.*» G'.G'ulom. Yodgor.

chakag(i) ochildi: chakag(i)ni ochmoq

CHAKAK URMOQ ayn. chakagi tushmoq.

[Oyshaxon:] *O'lar holatga yetdim-ku bu qizingizga chakak uraverib.* A.Muhiddin. Aybsiz aybdor.

chakki qadam bosmoq: qadam(i)ni chakki bosmoq

chakki yurmoq: qadam(i)ni chakki bosmoq

CHALPAK BO'LMOQ yoki **CHALPAK(DEK) BO'LIB TUSHMOQ** yiqilib uzala tushmoq, chalqanchasiga yiqilmoq; chalqancha yotmoq.

Jim bo'l-e, bir urisa, chalpak bo'lib tushasan-u, kekirdak cho'zishingni qara! Z.Fatxullin. Obihayot. *Yuzlarini o'ftobdan yashirib, chalpak bo'lib yotib qoldilar.* M.Mansurov. Yombi.

CHALPAK QILMOQ ikkala qo'l va oyog'idan ushlab cho'ziltirib ko'tarmoq.

Tez yur! G'iring desang, chalpak qilamiz. Oybek. Bolalik.

CHAP BERMOQ 1 *kim? ba'zan nima? nimaga?* biror zarbadan epcillik bilan o'zini olib qochmoq.

Qalandarov Saidaning zarbga bunday epcillik bilan chap berishini sira xayoliga keltirmagan bo'lsa kerak o'zi shoshib qoldi. A.Qahhor. Sinchalak. *Bir necha dushman tanki chap berib, o'q yomg'iri sepa-sepa, nihoyat, ichkarilaganda, ularni bor jangchilarning g'azabi qarshiladi.* Oybek. Quyosh qoraymas. *Shunda kal katta ketimga tepmoqchi bo'lib shaylandi. Men o'zimni chetga oldim. Chap berib qoldim.* T.Murod. Ot kishnagan oqshom.

2 *kim? nimaga? yoki kimga?* ustalik bilan tutqich bermaslik, ro'para bo'lishdan olib qochmoq.

Xavf-xatarga yuzma-yuz kelib, unga chap berish qanday yaxshi! A.Qahhor. *Qo'shchinor chiroqlari. U... boshi uzra ko'tarilgan taqdir qilichiga chap berib kelardi.* S.Ahmad. *Hukm. Birdan unga: «Bu yerlik emasman», – deb chap bergani esiga tushib qoldi.* R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi.

CHAP ICHAKKA HAM YUQ BO'LMAYDI juda oz, ovora bo'lib yeyishga arzimaydi (ovqat haqida).

Bergan osh-noni chap ichakka yuq bo'lmaydi, yana bizga sekin ishlaysiz deb dakki berishini qarang, – dedi ustalarning biri. So'zlashuv uslubi.

CHAP KO'Z BILAN QARAMOQ boshqalarga nisbatan kamsitib, e'tiborsiz qaramoq.

... birovga o'ng ko'z, birovga chap ko'z bilan qaramasin. H.G'ulom. Senga intilaman.

CHAP KO'ZING O'NG KO'ZINGGA DO'ST BO'LMAYDI eng yaqin kishilar orasida ham ahillik yo'qolgan. Varianti: **o'ng ko'zing chap ko'zingga oshna bo'lmaydi.**

Mulla Shokirjon, shu vaqtda odamni bilib bo'lmaydi!.. O'ng ko'zing chap ko'zingga oshna bo'lmaydigan zamon bo'lib qoldi. Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

chap yonbosh(i) bilan turmoq: chap yon(i) bilan turmoq

CHAP YON(I) BILAN TURMOQ *kim?[o'zining]* ertalabdan oq kayfiyati buzuq, ishi yurishmagan kishiga qarata aytiladigan ibora. Varianti: **chap yonbosh(i) bilan turmoq.**

Nima balo, chap yonim bilan turgan ekanmanmi, ertalabdan boshim g'alvadan chiqmay qoldi. I.Rahim. Hilola. Muhammad Rasul o'z ichida: «Bu kun boy chap yoni bilan turgan shekilli», – deb ancha vaqtgacha kallasini osiltirib o'tirdi. Oybek. Tanlangan asarlar.

CHAPAK CHALIB QOLA BERMOQ kim? yetisholmay, ega bo'lolmay armonda qolmoq.

Uning [Latifiyning] kulimsiragan yuz va ko'zlarida: «Ana, olib ketdi. Sen bekorga o'pkangni qo'ltiqlab yuribsan-da. Chapak chalib qola berasan», – degan ma'no o'ynar edi. P.Tursun. O'qituvchi.

CHAPAQAY JAHLI CHIQMOQ s.t. astoydil jahli chiqmoq, g'azabi oshmoq, g'azabiga olmoq.

Kampirning ham chapaqay jahli chiqdi. S.Ahmad. Saylanma. Aka, hozir kayfim oshib, chapaqay jahli chiqib turibdi. Uyg'un. Hurriyat.

CHAPARASTA QILMOQ ostin-ustin qilmoq, astar-paxtasini chiqarmoq.

Shoir shu ketishda to'g'ri boshliqning oldiga kirib borib, chaparasta qilib so'kdi. T.Murod, Qo'shiq.

chappasiga ketmoq: orqasiga ketmoq

CHAQA QILMOQ sotmoq, pul-lamoq.

Mana, Barat supurgichi! Bozordan supurgisini chaqa qilolmay, yana orqalab qaytayotir. Oybek. Tanlangan asarlar.

CHAQCHAQ URIB 1 baland, yoqimli ovoz chiqarib.

Bulbullar sayrar, qushlar chaqchaq urib, har qush bir turda sayrab turibdi. «Nurali».

2 xushchaqchaq, xursand bo'lib.

Hamisha kulib, chaqchaq urib yuradigan dilkash odam edi u. M.Ismoiliy. Odamiylik qissasi.

CHAYON CHAQIB OLGANDAY (yoki **CHAYON CHAQQAN ODAMDAY**) birdaniga tezlik bilan; kuchli darajada.

Umar akam bu gapni shu qadar ishonch bilan aytdiki, chayon chaqqan odamday sapchib turib, bora solib, yoqasiga yopishgim keldi. O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi.

CHANG QO'NDIRMASLIK (yoki **YUQTIRMASLIK**) 1 gard, dog'tegizmaslik, ozoda tutish.

U kiyimiga chang qo'ndirmaydi.

2 ko'chma o'ziga, nomiga dog'tushirmaslik, gap tegizmaslik.

Hakimboyvachcha ilonday to'lg'andi.. u o'zining va oila a'zolari-ning ustiga chang qo'ndirishni istamas, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmas edi. Oybek. Tanlangan asarlar.

CHANG SOLMOQ 1 kim?nimagaga? yoki kimga? astoydil tashlanmoq.

Qarasa, xalq jonini jabborga berib ishga chang solyapti, uning yordamisiz ham suv chiqarib yuboradigan. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha. Bu vaqtlarda Bo'stonga uya qo'ygan ... bir to'da jinoyatchilar juda haddan oshgan, ibo-andishani bilmaydigan bo'lib ketgan edi. Mana shulardan biri Mehriga chang soldi. A.Qahhor. Sinchalak.

2 kim? nimaga? g'ayriqonuniy tarzda o'ziniki qilishga intilmoq. Varianti: **changal solmoq.**

«Umumxalq mulkini ko'paytirishimiz lozim», – degan odam endi umum-

xalq hamyoniga chang solyapsanmi!»), deb yuborganimni bilmay qolibman. I.Rahim. Hilola. Davlat yeriga chang solishga kim huquq berdi sizga? Oybek. Oltin vodiya shabadalar. Hisor hukmdori Xisravshoh iloj topsa, Samarqandga janubdan chang solg'usidir. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

CHANGAL SOLMOQ kimga? yoki nimaga? 1 chang solmoq.

Lekin To'rovoy [dushman o'qiga] burgutdek chap berdi va bir sakrab, uning bo'g'ziga changal soldi. N.Safarov. Olovli izlar.

2 barbod qilmoq, buzmoq.

Ha, leytenant, urush hammaning baxtiga changal soldi. H.G'ulom. Toshkentliklar.

CHANGINI CHIQARMOQ nimaning? 1 tez tamom qilmoq; pok-pokiza tushirmoq, yeb yubormoq, yeb tashlamoq.

Boqijon butun gavdasi bilan laganga tashlandi. Ota va o'g'il, go'yo bahslashganday, palovning changini chiqarishdi. Oybek. Oltin vodiya shabadalar.

to'zitib yubormoq, dabdala qilib tashlamoq

O'yinqaroq bolalar bir pasda uning changini chiqarishdi. Buni ko'rgan mezbonning rangi o'zgardi.

chehra(si) buzuq: avzo[y](i) buzuq
chehrasi ochildi: chehra(si)ni ochmoq I

CHEHRASI OCHIQ-OCHIQ
CHEHRA[LI] xushtabiat; kayfiyati yaxshi. Varianti: **ochiq yuz[li]**.

«O'rtoq Omonova... Men sizni darrov tanidim»,— dedi mehmon nihoyatda quvonib. Uning chehrasi ochiq,

tovushi samimiy va mehribon edi. A.Muxtor. Hayotga chaqiriq. Xayolimda bu ajoyib soldatning jonli obrazini paydo bo'ldi. Uning qora ko'zligi ochiq yuzi, dam olish vaqtidagi soldatcha go'zal jilmayishi, og'ir jang vaqtlarida esa chuqur ajinlar bosib ketadigan yuzi ko'z oldimga keldi. M.Muhamedov. Qahramon izidan.

CHEHRA(SI) YORISHDI kimning? – **CHEHRA(SI)NI YORITMOQ** nima? kimning? xafachiligi, yomon kayfiyati biroz tarqadi. Varianti: **yuz(i) yorishdi.**

Oyisining baland, sho'x ovozi boshqalarnikini bosib ketdi. Mehrinisoning chehrasi yorishdi: «Oyimdan aylanay, yoshlarning o'rtasiga kirsalar, yosh bo'lib ketadilar». S.Anorboyev. Tashvish. Hamdam aka bilan xayrlashib, uyiga kirdi-yu, xursandchilikdan yuzi yorishib ketdi. S.Zununova. Gulxan.

CHEHRA(SI)NI OCHMOQ I kim?[o'zining]; nima? kimning? – **CHEHRA(SI) OCHILDI** kimning? xafachiligining tarqalganini ko'rsatmoq – xafachiligi tarqadi. Varianti: **chehra(si)ning ochilib ketishi.** Sinonimi: **chiroy(i) ochildi** kimning?

Musaffo havo tobora uning chehrasini ochmoqda. I.Rahim. Ixlos. Chehrasining ochilib tishiga xuddi shu savol yetmay turgandek G'ulomjon birdan jonlandi. M.Ismoiliy. Farg'ona tong otguncha.

CHEHRA(SI)NI OCHMOQ II nima? kimning? go'zallashtirmoq.

Uning qoshi qop-qora bo'lsa ham, qoracha yuzida uncha ko'zga tashlanmaydi. Faqat zich oq tishlari ma-

yin yiltirab, chehrasini ochib turadi.
P.Qodirov. Uch ildiz. *Roziya o'ziga yarashadigan, chehrasini ochib yuboradigan oq shohi ko'ylagini kiyib olgan edi.* O.Yoqubov. Tilla uzuk.

chehra(s)i ni yoritmoq: chehra(-si) yorishdi

chehra(s)i ning ochilib ketishi:
chehra(s)i ni ochmoq I

chek qo'yildi: chek qo'ymoq

CHEK QO'YMOQ kim? nimaga? – **CHEK QO'YILDI** nimaga? tugaganini bildirmoq, to'xtatmoq.

«Nega masalani avval boshqarmada hal qilmaysiz? – kekirdagini cho'zib qichqirdi Karimqul. –... O'z-boshimchalikka qachon chek qo'yasiz?» Oybek. Oltin vodiya shabada-lar. *Shu bilan bu masala haqidagi mulohazaga chek qo'yilgandek bo'ldi.* O'.Azimov. Aql chirog'i.

CHEK TASHLAMOQ kim? bajarish lozim bo'lgan vazifani nima yozilgani noma'lum qog'oz vositasida aniqlamoq.

... *sheriklar uni [Xolmurodni] suvdan ko'tarib o'tkazib qo'yish uchun talashar edilar. Bunday paytlarda Yusufali tog'a chek tashlar, chek chiqqan kishi Xolmurodni ko'tarib o'tkazib qo'yish baxtiga sazovor bo'lar edi.* P.Tursun. O'qituvchi.

CHEK(D)GA TUSHMOQ kim-ga? bajarilish lozim bo'lgan vazifa-ning taqsimlab berilishi.

Ular to'yxonaga kirib kelganlari-da yosh-u qari – hamma har xil ish bilan band edi... Nonushtadan keyin Sherbek bilan Nigoraning chekiga joy hozirlash, dasturxon yasash tushdi. S.Anorboyev. Oqsoy.

CHERIK YASAMOQ [cherik ja-sa=] tar. kim? qo'shin tuzmoq.

Bular dag'i cherik yasab, qarshi yuridilar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy.

chetda qoldirmoq: chetda qolmoq

CHETDA QOLMOQ kim? nima-dan? – **CHETDA QOLDIRMOQ** kim? kimni? I qamrab olinmaslik.

Uzoqlashtirsalar ham el ila yorim-ni gar mendan, Ularning mehri aslo chetda qolmas e'tiborimdan. S.Ab-dulla. Tohir va Zuhra. *U Narimomni o'ylagan sari Zokir e'tiboridan chet-da qolar va ruhan qiynalardi.* P.Qodi-rov. Uch ildiz.

2 bebahra bo'lmoq, bilmaslik.

Qudrat ikki haftachadan beri ko'chaga chiqolmay, ancha yangilikdan chetda qolganiga ich-ichidan achindi va «Mitti» bilan hozir Buloqhovuzga boradigan bo'ldi. H.Nazir. So'nmas chaqmoqlar.

CHETDA TURMOQ kim? nima-dan? aralashmaslik, betaraf vaziyat egallamoq.

Yigirma birinchi kunlari mam-lakatda mehnat ... harakati boshlan-di. Bu harakatdan, albatta, bizning yoshlar ham chetda turgisi kelmadi. I.Rahim. Olovkor.

CHETGA QOQMOQ kim? kim-ni? nimadan? huquq-imtiyozlaridan chetlashtirmoq, mahrum qilmoq.

Keyin Gulnorga Xudo berdi, u er-ka-arzanda xotin bo'lib, eriga suya-nib, ko'ngliga nima kelsa, shuni qi-ladi, bizni har narsadan chetga qoqa-di, balki boshimizda yong'oq chaqadi. Oybek. Qutlug' qon.

CHETGA TORTMOQ kim? ni-masini? asosiy masaladan chalg'itmoq.

Eshon bu gapni Qalandarovning diqqatini gazetadan chetga tortish, o'ng kelsa, Saidaga to'nkash maqsadida aytgan edi. A.Qahhor. Sinchalak. Shu vaqt mashina ovozi eshitildi. Katta ko'chadan bemorxonada mashinasi keldi. Olomon o'zini chetga tortdi. T.Murod. Ot kishnagan oqshom.

chetga chiqarib qo'ymoq: chetga chiqib qolmoq

CHETGA CHIQIB QOLMOQ

kim? – chetga chiqarib qo'ymoq kim? kimni? voqelikning markazida surilib, e'tibordan qolmoq.

Boshda bu ishga qarshi chiqqan Sotiboldiyev endi bir chetga chiqib qolgan edi. P.Qodirov. Uch ildiz. Shoshma, hali qo'llarim qanotini yozgani yo'q, mana bu termakash O'sarjonni chetga chiqarib qo'yaman. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar.

CHETGA CHIQQOQ *kim?nimadan?* rioya qilmaslik, belgilangan tartib-qoidani buzib talqin qilmoq. Varianti: **chiqqoq II**.

Kenja dedi: «Suyanamiz biz qonunga, bu qonundan chiqqan kishi tortar jazo». S.Abdulla. Aqlmirzoning donishmandliklari.

CHIDAGANGA CHIQQARGAN *nimani?* qo'lidan keladigan, qurbi yetadigan kishi qiladi.

Lobar yigit, issiqda bayroqni pastga tushirib qo'y. Kim senga bayroqni ko'tarsin dedi? Axir buni ham chidaganga chiqqargan! M.Muhamedov. Qimmat bilan Himmat. «...kelinim sizga o'xshab: «Bersang, yeyman, ursang, o'laman», – deb, bo'lka nondek bo'kib o'tirgani yo'q, ishlang!» – «Chidaganga chiqqargan, koshki ishlab yoldchisangiz ekan. Bitta ketmon chopib,

o'n kun belingizni ushlab voyvoylay-siz». S.Ahmad. Mastonbibi.

chigili yoziladi: ko'ngil(i)ni yozmoq

chigilni yozmoq: ko'ngil(i)ni yozmoq

childirma(si)ga oyoq tashlamoq: nog'ora(si)ga o'ynamoq

childirma(si)ga o'ynamoq: nog'ora(si)ga o'ynamoq

CHILLA(SI) CHIQQI *kimning?* tuqqaniga (tug'ilganiga) qirq kun bo'ldi.

Chillasi chiqishi bilan Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga boradi. Sh.Toshmatov. Erk qushi. Ko'zi yorib, chillasi chiqqandan beri bo'lak o'rinda yotmagan edi. Xo'rliqi keldi. Dardini ichiga yutdi. T.Malik. Charxpalak.

chin ko'ngil bilan: chin ko'ngildan

CHIN KO'NGILDAN mutlaqo samimiy, samimiyat bilan. Varianti: **chin ko'ngil bilan.**

Anzirat xola birovning birovga chin ko'ngildan beminnat yordam berishiga ko'zi yetmas ekan. A.Muxtor. Xayri. Chunonchi, mening o'zim.. har qanday vazifa yuklatilsa qo'limdan kelganicha chin ko'ngil bilan ado etishimni bildiramani. A.Qahhor. Sarob.

CHINAQAYDA ILIB OTAMAN *kimni?* kuchi ko'plik polvonlikka davvo qilish, ko'proq maqtanish, manmanlik qilish (Kenjayeva Dildora. Qashqadaryo vil. Yakkabog' tum. Nurli yo'l q. Qozoq q.)

chippakka chiqarmoq: chippakka chiqmoq

CHIPPAKKA CHIQQOQ *nima? – CHIPPAKKA CHIQQARMOQ* *kim? yoki nima? nimani?* bekor bo'lmoq.

Dushman katta yo'lga ko'ndalang bo'lib yotgan muhim punktini nima qilib bo'lmasin bosib olishni, keyin oldinga sakrashni istardi. Butun kuch va butun vositalarimiz dushmanning bu niyatini chippakka chiqarishga qatnashdi. Oybek. Quyosh qoraymas.

CHIQMAGAN JONDAN UMID eng oxirgi ilinj bilan qilinadigan harakat.

Kozimbekning Manzuraxonni kuzatib chiqishi, chiqmagan jondan umid degandek Eshonning ko'ngliga jizmi yorug'lik soldi. A.Qahhor. Sinchalak. Yotib qolguncha, otib qol, deydilar. Xo'p desangiz, Hasan so'fi bilan shaharga tushib, hokim to'raga arz qilsak. Chiqmagan jondan umid-da. M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

chiqmoq I: turmushga chiqmoq

chiqmoq II: chetga chiqmoq

chiqmoq III: erdan chiqmoq

chiqqan jahl(i): jahl(i) chiqdi

chirmanda(si)ga o'ynamoq: no-g'ora(si)ga o'ynamoq

CHIRMANDA(SI)NI CHALMOQ kim? kimning? boshqa kishining fikrini aytmoq, ma'qullamoq.

Dastlab Xolmirza ham Hilolaning chirmandasini chalayotganday bo'lib tuyildi. Hilola menga aytgan gapini bularga aytmadimikin? «Paxtani sen beryapsan-ku, ular boyiyapti», – demaganmikin? Sinchiklab kuzatsam, bundan unda nishona ham yo'q. I.Rahim. Hilola.

CHIROY(I) OCHILDI kimning? xafachiligi tarqadi. Sinonimi: **chehra(si)ni ochmoq** kim? [o'zining]; nima? kimning? – **chehra(si) ochildi** kimning?

Bolalar «Ura» deb chapak chalib yuborishdi. O'shshayib turgan Mo'minjonning ham chiroyi ochilib ketdi. H.Nazir. Cho'l havosi. To'rt kun deganda Dorg'onotaga yetdi. Bu yerga yetguncha hech kimning chiroyi ochilmay, xafaqon bo'lib suzishdi. Mirmuhsin. Oq marmar.

chizgan chiziqdan chiqmaslik: chizgan chizig'(i)dan chiqmaslik

CHIZGAN CHIZIG'(I)DAN CHIQMASLIK kim? kimning? barcha talablarini to'la-to'kis bajarmoq, ko'rsatmasiga ko'ra ish tutmoq. Varianti: **chizgan chiziqdan chiqmaslik** kim? **chizig'(i)dan chiqmaslik;** **chizig'(i)dan chetga chiqmaslik;** **chiziqdan chiqmaslik** kim? **chizgan chizig'(i)dan chiqmoq.**

«Rustamjon juda esli chiqdi, aylanay, – bidirladi kampir qizi uzatgan choyni ola turib, – chizgan chizig'imdan chiqmaydi». S.Zunnunova. Birinchi qadam. *Keyin [Hoji xola To'raxonning] yuziga tikilib ta'kidladi: «Shu bugundan boshlab mening chizig'imdan chiqmaysiz!»* M.Ismoilij. Farg'ona tong otguncha.

chizgan chizig'(i)dan chiqmoq: chizgan chizig'(i)dan chiqmaslik

chiziqdan chiqmaslik: chizgan chizig'(i)dan chiqmaslik

chizig'(i)dan chetga chiqmaslik: chizgan chizig'(i)dan chiqmaslik

chizig'(i)dan chiqmaslik: chizgan chizig'(i)dan chiqmaslik

CHIG'IRIQDAN O'TKAZMOQ kim? nimani? har taraflama sinchiklab tekshirmoq.

Ammo shu masalaga kelganda Hilola ekonomistligini bir karra ko'r-

satdi. U smetalarni, qurilish obyekt-larini qayta-qayta chig'iriqdan o't-kazib, mablag' ham, material ham topdi. I.Rahim. Hilola.

chora ko'rildi: chora(si)ni ko'rmoq

chora ko'rmoq: chora(si)ni ko'rmoq

CHORA IZLAMOQ [čarä izlä=] tar. *kim?* bir mushkulning yechimini izlamoq.

U izlab chora, yaxshi chora topdi, Solib ichina g'urniq evi yopti. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

CHORA QILOLMAY QOLMOQ [čarä qilälma=] tar. *kim? kim-ga? yoki nimaga?* tadbir qila olmaslik.

Sipohiyalar qilolmay qoldi chora, Faqat qoldirdi bu g'am dilda yora. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

CHORA TOPMOQ [čarä tap=] tar. *kim?nimaga? yoki kimga?* biror muammoning yechimini topmoq.

U izlab chora, yaxshi chora topti, Solib ichina g'urniq evi yopti. S.Saroyi. Suhayl va Guldursun.

chora(si) ko'rildi: chora(si)ni ko'rmoq

CHORA(SI)NI KO'RMOQ *kim?* – **CHORA(SI) KO'RILDI 1** *nima-ning?* biror ishni ro'yobga chiqarish bo'yicha ma'lum tadbirlarni amalga oshirmoq. Varianti: **chora ko'rmoq** *kim?* **choralarni ko'rmoq** *kim?*

Hakimov haqmi, Toshev yoki Akbarov haqmi – Mahkam buni hali bilmaydi, shuning uchun dadil bir chora ham ko'ra olmaydi. P.Qodirov.

2 *kimning?* biror tanbeh-jazo bermoq, jazolamoq. Varianti: **chora ko'rmoq** *kim? kimga? [qarshi]* – **chora ko'rildi** *kimga?*

Kattalar seni qo'llasa, nega chorasini ko'rmayсан? Nega bir og'iz so'z bilan u yerdan jo'nattirmaysan?.. P.Tursun. O'qituvchi.

choralarni ko'rmoq: chora(si)ni ko'rmoq

CHORDANA QUR[JIB O'TIR]-MOQ *kim?* oyoqlarining tizzadan pastini bir-biriga chalkashtirgan holatda o'tirmoq.

Odamlar duv to'plandi va taxtalarga tiqilinch o'tirdilar. Joy yetmaganlar yerga cho'kka tushdi, chordana qurdi... Oybek. Nur qidirib. [Vagonda] eng yuqori qavatda chordana qurib o'tirgan Luqmoncha degan ismli buxorolik bola hammani og'ziga qaratgan edi. A.Muxtor. Tug'ilish.

CHORIG'(I)NI SUDRAMOQ *kim?* [o'zining] zo'rg'a-zo'rg'a, amal-taqal qilib yashamoq, tirikchilik o'tkazmoq.

Qiyinlikka qiyin, bolam. Lekin chorrig'imizni sudrab turibmiz. To'g'risini aytsam, bizni qizim Unsin boqmoqda. Oybek. Qutlug' qon.

CHOVLI(SI)NI SOLMOQ *kim?* [o'zining] *nimaga?* aralashmoq. Sinonimi: **bosh suqmoq 3** *kim? nimaga?* **bosh qo'shmoq 1** *kim? nimaga?* **burn(i)ni suqmoq 2** *kim? [o'zining] nimaga?*

Nigoraga hayronman, har narsaga o'z chovlisini solavermay, tinchgina yursa nima qilarkin. S.Anorboyev. Oqsoy.

CHUMCHUQ «PIR» E TSA, YURAG(I) «SHIR» ETADI *kimning?* o'taketgan qo'rqqoq.

Pichoqni shu Hasan akang uradimi?! Chumchuq «pir» etsa, yuragi

«shir» etadi-yu buning! H.H.Niyoziy. Boy ila xizmatchi.

CHUMCHUQ YURAK o'ta qo'r-qoq.

«E, o'l-e, shunaqa chumchuq yurakmisan? Choyni ag'darding-a, «vayzonchoy» edi-ya, attang!» S.Ahmad. Hukm.

CHURQ ETMASLIK kim? hech narsa demaslik, e'tiroz qilmaslik. Varianti: «**churq**» etib («gapirmaslik»). Sinonimi: «**lom-mim**» demaslik kim?

Ortga qaytishni ma'qul ko'rmay, chiqim sal ko'proq bo'lsa ham, yo'lovchi mashinaga o'tirdilar. Yo'l-yo'lakay churq etmasdan ketdilar. T.Malik. Murdalar gapirmaydilar.

CHURRA(SI) TUSHDI kimning? qurbi yetmay, zo'riqish oqibatidagi kasallikka uchramoq.

«Qorovullikka bop birorta odam yo'qmi?» – «Nurmat cho'loq bo'lmaydi, bolalar pisand qilmaydi. Ablakim akaning churrasi tushadi. Kamol ota o'zi unasa ham, kampiri unamaydi.» S.Anorboyev. Oqsoy.

CHUV TUSHMOQ kim? nimagaga? behudaga sarflamoq, ayrilib qolmoq.

Ko'klamda ona-bola tog' etagidagi qo'riqqa chiqib, belkurak bilan yer ag'darib, lalmi bug'doy ekishdi, lekin qurg'oqchilik bo'lib, urug'ga ham chuv tushishdi. P.Qodirov. Uch ildiz.

CHUVI CHIQDI nimaning? noto'g'ri, nomaqbul ekani vaqt o'tgach ma'lum bo'ldi.

«Bu xotin hali qo'limga qo'nadi. Pullarni o'zi tarqatadi. O'zining ulushidan boshi osmonda. Agar «u

yoq»ning odami bo'lsa, chuvi chiqdi. T.Malik. Charxpalak.

chuchuk til bilan: til(i) chuchuk **CHUCHVARANI XOM SANAMOQ** kim? xom xayol qilib yurmoq, xomtama bo'lmoq.

Ha, qari tulki! Bu safar sen chuchvarani xom sanayapsan. Men sening og'zingga yog' o'rniga qo'rg'oshin quyib, bir boplab ilintiray! Sh.Rizo. Qor yog'di, izlar bosildi.

CHO'KKA TUSHMOQ kim? qayerga? cho'kkalamoq.

Odamlar duv to'plandi va taxtalarga tiqilinch o'tirdilar. Joy yetmaganlar yerga cho'kka tushdi, chordanana qurdi. Oybek. Nur qidirib.

CHO'PDAN HADIK OLMOQ kim? asos bo'lmagan holda har narsadan hadiksiramoq.

«Nima? nima? Kimga shama qil-yapsan? – «Cho'pdan hadik olma, Umar! Qashqir bo'lmasang, hayvon o'ldiruvchisan. Bildingmi?» I.Rahim. Ixlos.

CHO'T BERMASLIK nima? daromad olishga olib kelmaslik.

Ular ham yangi sutchilik fermasi ochishmoqchi bo'libdi-yu, jaydari sigirlar cho't bermabdi. I.Rahim. Hilola.

CHO'G'I PAST nimaning? rivoji, hosili odatdagidan oz.

Ota! O'zingizni juda mirishkor olib yurar edingiz, biz ham ishongan edig-u, bu yil siz parvarish qilayotgan katta bog'da uzumning cho'g'i past, Xudoynazar hoji vaqtidagi uzumning yarmi ham yo'q deyishyapti-ku? S.Abdulla. Bir shingili tomoqni yoradi.

O‘ZBEK TILI FRAZEOLOGIK LUG‘ATI

Muharrir *Habib Abdiyev*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhihlar: *Adolat Mustafoyeva, Ahror Abdumannonov*
Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Aliyeva*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016
Bosishga 2022-yil 11-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 ¹/₁₆. “Times New Roman” garniturasida.
Ofset bosma. 51,68 shartli bosma taboq. 46,4 nashr tabog‘i.
Adadi 1000 nusxa. raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz **info@gglit.uz.**